O‘ZBEKISTONDA
YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI

ZJV5401

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

IJTIMOIY - MA’NAVIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

“O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI”

MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

TOSHKENT 2026

ZJV5401

UO‘K: 316.422.42:005.44(575.1)
KBK: 60.56(5O')
D: 14

ISBN 978-9910-5117-0-7

“O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. [Matn] Toshkent, “Sharq nashr” 2026.- 850 b

Mas’ul muharrir:

Olimjon Davlatov, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

To‘plamni nashrga tayyorlovchilar:

M.Quronov, K.To‘rayev, M.Musayev, I.Suvanov, Sh.Axrorova, A.Tashanov, B.Qodirov A.Malikov, A.Atayev, N.Xusanova, A.Shermatov, X.Qo‘chqorov, Z.Qodirova, L.Eshonkulov.

*Mazkur to‘plamda “**O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI**” mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasiga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. Shuningdek, ushbu to‘plam “O‘zbekiston-2030” strategiyasi hamda “**Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili**”da amalga oshirishga oid davlat dasturi ijrosini ta’minlash hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan amalga oshirilayotgan ALM-202403110247 sonli “Yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish va ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha o‘quv va ilmiy-metodik qo‘llanmalar, uslubiy tavsiya, ma’rifiy adabiyot va media mahsulotlar majmuasini yaratish” mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.*

ISBN 978-9910-5117-0-7

©Sharq nashr
©Toshkent – 2026

SO‘Z BOSHI

Hozirgi globallashuv davrida jahon hamjamiyati murakkab va ziddiyatli jarayonlarni boshdan kechirmoqda. Geosiyosiy raqobatning keskinlashuvi, axborot makonidagi kurashlarning kuchayishi, turli g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning kengayib borishi jamiyatlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va global kommunikatsiya tarmoqlarining jadal rivojlanishi natijasida axborot oqimining mislsiz darajada ortishi inson ongi va tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishning yangi shakl va usullarini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan barqaror ijtimoiy makonni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, mafkuraviy qarama-qarshiliklar hamda turli destruktiv g‘oyalar ta’sirining kuchayishi yosh avlod tarbiyasi, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy qadriyatlarni asrash masalalariga yanada mas’uliyat bilan yondashishni talab etmoqda. Ayniqsa, internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli axborot platformalari orqali tarqalayotgan manipulyativ, soxta yoki g‘oyaviy jihatdan zararli axborotlar ayrim hollarda yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarga asoslangan yagona ma’naviy makonni barpo etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bugungi davr taraqqiyot sur’atlari misli ko‘rilmagan darajada jadallashgan, shu bilan birga ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida chuqur transformatsiya jarayonlari yuz bermoqda. Ushbu jarayonlar Markaziy Osiyo mintaqasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shunday murakkab sharoitda jamiyatda barqarorlikni ta’minlash, milliy manfaatlarni himoya qilish, fuqarolarning ongida mustahkam ma’naviy qadriyatlar tizimini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida jamiyatda **yagona ma’naviy makon**ni shakllantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy sohani tizimli rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarning intellektual va ma’naviy

salohiyatini yuksaltirish hamda jamiyatda fuqarolik birdamligini mustahkamlashga qaratilgan muhim vazifalarni belgilab berdi.

Shuningdek, 2025-yil 26-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llangan Murojaatnomada jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytirish, mahalla institutining rolini yanada oshirish hamda jamiyat taraqqiyotida fuqarolarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish dolzarb vazifalar sifatida alohida ta’kidlab o‘tildi. Mazkur vazifalar 2026-yilga belgilangan **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** Davlat dasturida ham o‘z ifodasini topib, mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyatning barcha qatlamlarini yagona maqsad yo‘lida birlashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Ana shunday muhim vazifalarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida o‘tkazilayotgan **“O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etishning strategik yo‘nalishlari”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi zamonaviy targ‘ibot texnologiyalari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, jamiyat birdamligini mustahkamlovchi omillarni ilmiy asosda o‘rganish hamda milliy taraqqiyotga xizmat qiluvchi qadriyatlarni aholi ongiga singdirish masalalariga bag‘ishlanadi.

Konferensiya doirasida ma’naviy makonni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari, zamonaviy targ‘ibot texnologiyalarining imkoniyatlari, jamiyatda ijtimoiy faollik va fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish masalalari, shuningdek, mahalla institutining jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda milliy qadriyatlarni targ‘ib etishning innovatsion yondashuvlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Mazkur konferensiya mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida yagona ma’naviy makonni shakllantirishga xizmat qiluvchi ilmiy g‘oyalar va amaliy takliflarni ishlab chiqish, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar va amaliyotchi mutasaddilar o‘rtasida samarali ilmiy muloqotni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

Otabek XASANOV
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari

I-SHO‘BA: YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING GLOKAL PRINSIPIGA BIR NAZAR

Muhammadjon Quronov
Ijtimoiy-tadqiqotlar instituti
direktori o‘rinbosari, professor,
Goto Mikako, yapon tarbiya
metodologiyasi bo‘yicha xalqaro
ekspert (Yaponiya).

Annotatsiya. Maqolada Yaponiyaning Ikkinchi jahon urushidan keyingi tezkor iqtisodiy yuksalishi sabablari tahlil qilinadi. Yapon “iqtisodiy mo‘‘jizasi”ning asosiy omili sifatida inson kapitali, ayniqsa yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga qaratilgan davlat siyosatiga alohida e’tibor qaratadi. 1958 yilda qabul qilingan tarbiyaviy yo‘riqnoma asosida maktablarda va jamiyatda yoshlarda 22 ta asosiy fazilatni shakllantirish tizimi yo‘lga qo‘yilgani qayd etiladi. Natijada “Yapon ma’naviyati + G‘arb texnologiyalari “Yapon mo‘‘jizasi” glokal modeli shakllangani asoslab beriladi. Maqolada ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan konvergent yondashuv orqali yoshlar tarbiyasi va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar. Yaponiya iqtisodiy mo‘‘jizasi, inson kapitali, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy tarbiya tizimi, 22 ta fazilat konsepsiyasi, tarbiya-ta’lim tamoyili, yapon tajribasi, konvergent yondashuv, ma’naviyat va iqtisodiyot uyg‘unligi, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi, yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy texnologiyalar.

Yaponiya - dunyoning eng rivojlangan davlatlari Katta Yettiligidan mustahkam o‘rin olgan. U dunyoda o‘rtacha IQ darajasi bo‘yicha I o‘rinda

turuvchi, milliy o‘zligini saqlab, farovonlikning eng yuksak natijalariga erishgan sharq mamlakati.

Yaponiyada tabiiy resurslar yo‘q hisobi. Ikkinchi jahon urushidan keyin kultepa ustida qolgan mamlakat 15 yil ichida uni mag‘lub qilgan davlatlarga yetib oldi. Undan so‘ng haqiqiy iqtisodiy mo‘‘jiza yaratdi. 60 yildan beri Made in Japan, degan tamg‘a brend. Bugun ham Katta Yettilik davrasining to‘rida o‘tiribdi. Buning sirlari deb, sanoat, metallurgiya, kemasozlik, avtomobilsozlik, elektronika, butun dunyodan patent va aqliy mahsulotlarni o‘rganish, sotib olish, talab katta bozorlar uchun mahsulot ishlab chiqarish, uzoqni ko‘zlab ish tutish, deyishadi. Dastlab rivojlangan davlatlardan o‘rgangan Yaponiya tezda o‘z milliy texnologiyalarini yaratishga o‘tdi. Lekin bu haqda gap ketganida hamma “Inson omili”ga alohida to‘xtaladi.

Inson omili nima? Amerikalik iqtisodchi, inson kapitali bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari uchun Nobel mukofotini olgan Geri Bekker inson kapitalini shunday ta’rif beradi. “Agar texnologiyalar – iqtisodiyotning motori bo‘lsa, inson kapitali – uning yoqilg‘isi. Har bir odamning, davlatlarning iqtisodiy muvaffaqiyatlari ana shu zamonamiz kapitalining ana shu yangi shakliga bog‘liq”[1].

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ma’naviyat va ma’rifat sohasi - Yangi O‘zbekistonning inson kapitalini yaratishning ustuvor yo‘nalishi. Shu sababli dunyoning qaysi nuqtasida bizga foydali metod, texnologiya bo‘lsa, uni keltirib, milliy manfaatlarimizga xizmat qildirilmoqda. Biz Yaponiyaning Ikkinchi jahon urushidan keyingi yuksalish tarixiga qarab, ular ham xuddi shu ishni qilishgan. Keyin o‘sha rivojlangan davlatlardan o‘zib ketganini ko‘rdik.

Bir misol. Yaponiyada 1955 yildan boshlab tarbiya isloh qilingan. Bu esa bora-bora “Yapon mo‘‘jizasi”ning “inson omili”ni yaratgan. Ishchi-xizmatchilar, tadbirkorlar safiga yangicha tarbiyalangan yapon yoshlari qo‘shila borgan. Ularga maktab, yoshi kattalarga ma’rifat milliy maqsadni tushuntirgan. Suhbatlardan birida bir olim bizga etni junjiktiradigan tarixiy manzarani aytib berdi. Ikkinchi jahon urushidan keyin umummilliy g‘oya

[1] https://econs.online/articles/ekonomika/samyy-tsennyy-ekonomicheskiy-resurs/. Кўрилган сана 2024 йил 8 июль.

asosida mehnat, sadoqat, vatanga xizmat qilish fazilatlari trendga chiqqan. Ishchilarga bir parcha non, piyozli sho‘rva berilgan. Ishchilar 10 soat ishlashgan. Ochlikdan ishchilarning sillasi qurib, oyoqda tura olmay qolishgan. Ana shunda ular shiftga arqon o‘tkazib, halqa qilib, qo‘ltiqlari bilan arqonga osilib, ishni davom ettirishgan ekan. Vaholanki, ular 10 soat ishlab ketishlari mumkin bo‘lgan. Mana shu misolda ulardaga kuchli ma’naviyat, iroda, vatanga sodiq xizmat shaklida namoyon bo‘lgan.

Buning sirini izlab, so‘rab, oxiri 1958 yil Yapon hukumati tomonidan ishlab chiqilgan bir tarbiyaviy yo‘riqnomani topdik. Unga ko‘ra maktablarda – o‘quvchi yoshlarga, targ‘ibot orqali aholida 22 ta tayanch fazilat o‘rgatilgani aniqlandi. Mana shuning natijasida qisqa muddatda misli ko‘rilmagan taraqqiyot standarti - “Yapon ma’naviyati + G‘arb texnologiyalari = Yapon mo‘‘jizasi” yaratilganligini tushunish oson.

Qisqasi, yapon mo‘‘jizasi – hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Biz kuchli iqtisodiyot va kuchli ma’naviyatga tayanamiz”, degan da’vati qanday tarixiy natija berishini ko‘rsatib turibdi. Shuning uchun Prezidentimizning “Ma’naviyat – eng ta’sirchan qurolimiz”;

“Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi[2]”.

“Ta’kidlab aytmoqchiman: bugun ma’naviyat boshqa sohalardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart! Shu maqsadda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarishimiz lozim(2023 yil 22 dekabr)”, degan fikrlarini qayta-qayta esladik. Hayratlandik. Bir-birlarimizga eslatdik. Chunki ko‘z oldimizda Katta Yettilik a’zosi – Yaponiya turardi. Bu g‘oyalarning amalga oshgan natijasi, ro‘yobi turardi. Bir hamsafarimiz “To‘g‘risi, Yangi O‘zbekiston qanday bo‘lishini ko‘rgandek bo‘ldim”, deb yubordi.

Ekspeditsiyamiz o‘z oldiga yapon milliy tarbiyasi, qadriyatlarini o‘rganish maqsadini qo‘yilmagan. Maqsad - yapon tajribasi misolida

[2] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 29 декабрь куни миллий кино санъати ва киноиндустрияни ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар таҳлили ва бу борада мавжуд муаммоларни ҳал этиш масалаларига бағишланган йиғилишда сўзлаган нутқидан. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017.

o‘zbek ma’naviyatidan Yangi, kuchli, farovon O‘zbekistonni yaratishni yanada tezlashtirishda foydalanish metodlarini o‘rganish, degan ilmiy-metodik konvergensiya edi. Konvergensiya bu – yaqinlashuv degani. Biror sohada o‘zaro muloqat, fikr almashuv natijasida o‘xshash belgi, ko‘rsatkich, hodisa, sifatlarning yuzaga kelishi. Ilg‘or tajriba metodlarini o‘rganish, joriy qilish, deganga o‘xshaydi. Bizning misolimizda kuchli tarbiya, ma’naviyat orqali xalqni birlashtirib, kuchli iqtisodiyotni yaratishning Yapon tajribasini o‘rganish va foydalanish edi.

Shuning uchun ishtiyoq zo‘r va savollarimiz ko‘p edi. Har bir savolimizga ilmiy va fakt, raqamlarga asoslangan, amaliy, metodik glokal javoblarni olishga intildik. Zero milliy tarbiya va g‘arb texnologiyasi uyg‘unligi asosida yuksalgan sharqona yuksalish modifikatsiya qilinishi juda muhim. Bunga erishilsa, kuchli ma’naviyat 10 qadam oldinga o‘tib, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida belgilangan 100 maqsadlarga tez va soz yetishimizga xizmat qiladi. Chunki kuchli ma’naviyat kuchli iqtisodiyot bilan g‘oyaviy birlashadi.

Ekspeditsiya natijasida bir necha universitet, jamg‘arma, maktablarda bo‘ldik. Bizni nafaqat bugungi kun, balki “Yapon mo‘‘jizasi”ning ma’naviy tarixi ko‘proq qiziqtirdi. Shuning uchun 30ga yaqin noyob ilmiy nazariy, metodik manbalar qo‘lga kiritildi. Masalan, Sukubo universiteti adyunkt professori Juniko. “Axloqiy tarbiya(o‘qituvchilar uchun mashqlar) 2021; “Axloq faniga yangi yondoshuv(konturlar). Axloqshunoslik instituti. Xigarikaoka, 1991”; Chikuro Hiroiki. Axloqshunoslik otasi. 2004); “Ta’lim va tarbiyaning 2017-2030, 2031 yillarga mo‘ljallangan dasturiy prinsiplarini qayta ko‘rib chiqishning maqsad va mazmuni” va boshqalar. Bu kitoblar Yaponiyaning 1945-2025 yillarda yoshlar tarbiyasi bo‘yicha olib borgan siyosatini ilmiy o‘rganish imkonini beradi. Jumladan, 1958 yil yapon hukumatining yoshlarda 22 ta fazilatni tarbiyalash bo‘yicha qabul qilingan hukumat qarori. Buning sabablari, joriy qilinishi, muammolar va albatta, erishilgan natijalar haqida hujjatli ma’lumotlar beradi. Bu ma’naviy-axloqiy tarbiyadagi burilish nega bunchalar muhim? Chunki aynan shu qaror asosida tarbiyalangan avlod “Yapon mo‘‘jizasi”ni sodir qilgan. Bu juda qiziq.

Bu ilmiy manbalarning ko‘pchiligini internetdan topib bo‘lmaydi. Ular yuksak rivojlangan Yaponiyaning milliy-axloqiy poydevori haqida hikoya qiladi. Kitoblarni o‘zbek tiliga o‘girish va chop qilish, ular asosida o‘quv, ma’rifiy infoteynment, podkastlar qilish, munozara, bahs va mediamahsulotlar tayyorlash tavsiya qilinadi. Bu pedagoglar, ma’naviyat va ma’rifat xodimlari, ziyolilar, xalqimiz tafakkurini “O‘zbekiston-2030” strategiyamiz atrofida birlashtirishga, safarbar bo‘lishga rag‘batlantiradi.

Yapon pedagoglari “ta’lim-tarbiya” emas, “tarbiya-ta’lim” prinsipi asosida ishlashar ekan. Buning boisini tushuntirish va esdalik bo‘lsin, deb bizga chiroyli yapon yelpig‘ichini sovg‘a qilishdi.



Yapon yelpig‘ichi – “Tarbiya-ta’lim” ramzi

Yapon pedagoglari fanlarni yelpig‘ichning burma, qatlamalari, ularni tarbiya birlashtirib turadi. Agar tarbiya bo‘lmasa, ular sochilib ketadi. Shuning uchun bolalar bog‘chasi, maktab avvalo tarbiya bilan shug‘ullanishi kerak. Ana shunda bolalar shunday bo‘lishadiki, ularga “Yaxshi o‘qi”, “Kitob o‘qi”, deyishga hojat qolmaydi. Chunki yaxshi tarbiyalangan bola yomon o‘qishdan uyaladi, or qiladi, deyishdi.

Biz ulardan “Bu yelpig‘ichda fanlarning, ta’limni ko‘rdik. Aytingchi, tarbiyaning o‘rni qani?”, deb so‘radik. U yelpig‘ichning markazini, barcha burma(fan)larni birlashtirib turgan mixni ushlatdi. “Barcha fanlar tarbiyaga borib ulanadi. Demak, har bir fan 22 fazilatni tarbiyalash maqsadi atrofida birlashadi, xizmat qiladi”, dedi.

Sohamiz xodimlari professionalizmini oshirish oshirish maqsadida ekspeditsiya materiallari bilan tanishtirish, korporativ ijtimoiy tarmoqlarda yoritish maqsadida “Yapon mo‘jizasi”ning yaratilishida yoshlar tarbiyasi va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning roli”, yoki “Yaponiyada yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy texnologiyalar va ulardan Respublika Ma’naviyat va

ma’rifat tizimida foydalanish imkoniyatlari” mavzusida respublika Ma’naviyat va ma’rifat tizimi xodimlari uchun onlayn ilmiy seminar o‘tkazish bo‘yicha takliflar o‘rtaga tashlandi.

O‘rganilgan noyob tajriba, to‘plangan metodika va texnologiyalar qolib ketmaydi, O‘zbekistonga xizmat qiladi, degan umiddamiz. Shuning uchun Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar institutida konvergent tadqiqotlar yo‘nalishida PhD va DcS dissertatsiya tadqiqotlarini olib borilsa, yaxshi bo‘lardi.

Shuningdek, ilmiy kitoblarni tarjima qilib, chop qilish, ilmiy metodik maqolalar chop qilish, eng muhimi, har bir konkret metodika, texnologiyani o‘rganish, modifikatsiyalash va joriy qilishga loyiha metodi asosida yondoshish yaxshi samara beradi, deb o‘ylaymiz.

Ilk xulosalar shuni ko‘rsatadiki, ushbu konvergent ekspeditsiyalarni davom ettirish yuksak tarbiyaviy, ma’rifiy texnologiyalarni O‘zbekistonga olib kiradi. O‘zbekona milliy qadriyatlarimizni saqlab, zamonaviy sharoitga moslab, rivojlantirishga xizmat qiladi. Yoshlar tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamonaviylashtiradi, yuksak texnologik(high-tech) darajaga ko‘taradi. Pirovard natijada Vatanga sodiq, yuksak malakali, mafkurasi mustahkam millat, yoshlar O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarishga safarbar qilinadi.

Chunki nafaqat Yaponiya, balki barcha “Sharq yo‘lbarslari” o‘z taraqqiyot avvalida iqtisodiy innovatsiyalar bilan bir qatorda dunyodagi eng zo‘r ta’lim-tarbiya, ma’rifat texnologiyalarini olib kelib, modifikatsiya qilib qo‘llab, yuksalishgan. O‘zbekistonimiz yuksalishning ana shu sinalgan yo‘lidan shijoat bilan bormoqda. Bunda global konvergent yondoshuv “O‘zbek ma’naviyati+Yuksak texnologiyalar “O‘zbek mo‘jizasi”ga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 29 декабрь куни миллий кино санъати ва киноиндустрияни ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар таҳлили ва бу борада мавжуд муаммоларни ҳал этиш

масалаларига бағишланган йиғилишда сўзлаган нутқидан. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017.
2. https://econs.online/articles/ekonomika/samyy-tsennyy-ekonomicheskiy-resurs/. Кўрилган сана 2024 йил 8 июль.
3. 広池千九郎. 道徳科学の論文 (Dōtoku kagaku no ronbun). — 東京 : モラロジー研究所, 2004. — 432 p.
4. 文部省. 学習指導要領 — 道徳編 (Gakushū shidō yōryō: Dōtoku-hen). — 東京 : 文部省, 1958. — 148 p.
4. Nitobe I. Bushido: The Soul of Japan. — New York: Putnam's Sons, 1899. — 192 p.

YANGI YAGONA MA'NAVIY MAKON: UNI QANDAY TASAVVUR ETAMIZ?

Mavrulov Abduxalil,
tarix fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi yagona ma'naviy makon: uni qanday tasavvur etamiz degan fikrlar tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, yer yuzida bugungi kunda ma'naviyat tanqisligi yaqqol ko'zga tashlana boshlayotganligi bu esa insoniyat to'plagan ma'naviy meros durdonalarining qadrsizlanishiga, insoniyatning o'z tarixiy o'tmishidan begonalashuviga olib borishi mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yagona ma'naviy makon, ma'naviyat, ma'naviy meros, durdona, umumbashariy qadriyatlar.

XX asr oxiri, ayniqsa XXI asr boshlari, aniqrog'i, 2014-yildan boshlab insoniyat o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi davriga qadam qo'ydi. Xuddi, XX asr boshlari, birinchi jahon urushi boshlanishi arafasida, bo'lingan dunyoni qaytadan bo'lib olish davridagidek, yana kuchli davlatlar

o‘rtasida “eski kasallik”lar “uyg‘onib” qoldi. Qudratli davlatlarning har qanday xalqaro huquqiy me’yorlar, umumbashariy qadriyatlarni kunpayakun qilishdan aslo “seskanmaydigan”, xalqaro hamjamiyat oldida bergan va’dalarini unutishni odatiy hol sifatida qabul qiladigan “tashvishli” dunyo, turbulentlik holati yuzaga kela boshladi. Oddiy so‘z bilan aytganda, bir qutbli dunyo o‘z umrini o‘tab bo‘ldi, insoniyat ko‘p qutbli dunyoga kirib keldi.

Bu esa, o‘z navbatida jahonning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy arxitekturasiga jiddiy o‘zgarishlar kirita boshladi. Bu jarayondan eng ko‘p jabr ko‘rgan soha esa, ma’naviyat, ma’rifat, tarbiya jabhalari bo‘ldi. Mamlakat rahbari Shavkat Mirziyoyev shu o‘rinda qayd etadi: “Buzg‘unchi kuchlar targ‘ibot va mafkuraviy ta’sirning yangi usullaridan, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va internet imkoniyatlaridan keng foydalangan holda soddadil yoshlarni turli ekstremistik tashkilotlarga faol jalb etmoqda. Ushbu tahdidlar yo‘lida hech qanday chegara yo‘q, ular mobil telefonlar orqali ham kirib kelmoqda. Jahon miqyosida turli xalqlarning ma’naviyati, azaliy qadriyatlari va o‘zligiga qarshi qaratilgan tahdidlar ham kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda biz ulug‘ ajdodlarimizning o‘zlikni anglash va ma’naviy-ruhiy qadriyatlarimizni asrab-avaylash haqidagi da’vatlarini aslo yoddan chiqarmasligimiz lozim”[1].

Jahon mafkuraviy maydonidagi transformatsion jarayonlar insoniyatni esankiratib qo‘ydi: kim to‘g‘ri-yu kim noto‘g‘riligini, qaysi yirik davlatning da’vatlariga ishonish kerakligini, qadriyatlar iyerarxiyasidagi o‘zgarishlarni qay yo‘llar bilan anglash mumkin mumkinligini, kim do‘st-u kim dushman ekanligini aniqlab bo‘lmay qoldi.

Yer yuzida bugungi kunda ma’naviyat tanqisligi yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Bu esa insoniyat to‘plagan ma’naviy meros durdonalarining qadrsizlanishiga, insoniyatning o‘z tarixiy o‘tmishidan begonalashuviga olib borishi mumkin. Xullas, ma’naviyat, ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy meros xavf ostida qolmoqda. Uni saqlab qolish, ma’naviyatsizlikdan asrash har qachongidan ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Ma’naviyatsizlikka duchor bo‘lgan insoniyat uchun millat, xalq, vatan manfaatlari qadrsiz ortiqcha tashvish hisoblana boshladi. E’tiqodsiz, millatsiz, vatansiz ultrakosmopolit shaxslar to‘dasi vujudga keladi. Ular

uchun millatning, dinning vatannning hech bir qadr-qimmati yo‘q. Bunday shaxslar uchun o‘tmish ham, tarix ham, kelajak ham, ma’naviyat ham, ma’naviy meros ham keraksiz, ortiqcha narsalardir. Bunday shaxslarda mehribonlik, mehr-shafqat, achinish, qayg‘urish, faxrlanish tuyg‘ulari bo‘lmaydi[2].

Afsuski, jahonda yuz berayotgan ana shunday salbiy holatlar O‘zbekistonga ham o‘zining jiddiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda. Xavfning jiddiyligidan tashvishga tushgan olim-mutaxassislarimiz undan qutilishning turli yo‘llarini ko‘rsatmoqdalar: kimdir tarbiyaviy tadbirlar sonini oshirishni, kimdir ijtimoiy-gumanitar fanlarga ajratilayotgan soatlar hajmini ko‘paytirishni, yana kimdir “ma’naviy ekspertiza”ni joriy etishni va yana boshqa ko‘plab takliflar berilmoqda.

Bizning nazarimizda ma’naviy-mafkuraviy xavfning oldini olishda masalaga kordinal tarzda, kompleks holatda yondoshish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa, fikrimizcha, eng avvalo barcha tarbiyaviy-ma’naviy, mafkuraviy ishlarni olib borishga yordam beradigan munosib muhitni yaratish lozimdir. Bunday munosib muhitni esa mamalakat rahbari “yangi ma’naviy makon” deb ataydi. Uning ta’kidlashicha, “Yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion ma’naviy makonni shakllantirish zarurati muhim masalaga aylanishi tabiiydir.

Yangi ma’naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”[3].

Yagona yangi ma’naviy makonni barpo etish murakkab jarayon hisoblanadi. Jamiyat hayotida, ayniqsa katta-kichik rahbarlar orasida poraxo‘rlik, korrupsiya holatlarining kuchayib borayotganligini, axloqiy buzuqlikning turli ko‘rinishlari kundan-kunga urchib, ko‘payyotganligini, odamlar, ayniqsa, e’tiqodi sust, o‘zini anglay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan yoshlar orasida mehnat qilmasdan lazzat topish dardida yurganlarning paydo bo‘layotganini, beparvolik, loqaydlik kasaliga mubtalo bo‘lyotganlar sonining ortib borayotganini qanday izohlash mumkin?

Biz yuqorida qayd etgan salbiy holatlarning paydo bo‘lishining qator sabablari bor bo‘lib, ular obyektiv va subyektiv mazmunga ega. Obyektiv sabablar shundan iboratki, bugungi dunyoning shiddat bilan globallashuvi, jahonda bir qutbli muhitning ko‘p qutbli makonga aylanishi, buning oqibatida davlatlar va mintaqalar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvining tobora kuchayishi, qadriyatlarning qadrsizlanishi, qadriyatlar iyerarxiyasida oila, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, yuksak axloqiy me’yorlarga amal qilish, o‘zbek xalqining azaliy qadriyatlaridan bo‘lgan jamoaviylik kabilar o‘rniga ayrim yoshlarimizdagi vatansizlik, yengil yo‘l bilan, mehnat qilmasdan farovonlikka erishish, e’tiqodi sustligi natijasida “ommaviy madaniyat”ning turli ko‘rinishlari oldidagi ojizligi bilan bog‘liq salbiy ko‘rinishlar yuz bermoqda.

Ana shu sabablar, shubhasiz, yangi ma’naviy makonning shakllanishiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Shuningdek, jahon mafkuraviy maydonida beayov kurash ketayotganligi, g‘oyaviy-siyosiy, mafkuraviy, geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarning ustun qo‘yilishi tobora avj olib bormoqda. Bu jarayonning oxiri ko‘rinmaydiganga o‘xshaydi. Bu yo‘ldagi kurashlar yanada keskin tus olmoqda, uning achchiq oqibatlari butun dunyoga, jumladan, O‘zbekistonga ham ta’sirini o‘tkazmasdan qolmayapti.

Ma’naviyat tanqisligiga sabab bo‘layotgan obyektiv sabablar bizga bog‘liq bo‘lmagan holda yuzaga kelsa, subyektiv sabablar ko‘p holatlarda o‘zimizning beparvoligimiz, oldimizga qo‘yilgan vazifalarni bajarishdagi uquvsizligimiz tufayli paydo bo‘ladi. Ayni paytda, almisoqdan qolgan tarbiya usullaridan foydalangan holda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish, tadbirlarda “jim, hech kimga xalaqit qilmaydigan, “tarbiyali” auditoriya” bilan ishlash amaliyotidan asta-sekinlik bilan emas, zudlik bilan tarbiyaga muxtoj, turli salbiy holatlarni yuzaga keltirishga moyil shaxslarni tanlab olish va ular bilan maqsadli va manzilli ishlash yo‘liga o‘tmasak yangi ma’naviy makon to‘g‘risida o‘ylashning o‘zi befoyda.

Yagona yangi ma’naviy makon to‘g‘risida fikr bildirishdan avval, uning asosiy konturlari nimalardan iborat ekanligini aniqlab olish lozim, deb o‘ylaymiz. Bu borada bizning qarashlarimiz quyidagicha:

Birinchidan, yangi ma’naviy makonda ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot sohasidagi faoliyat natijadorlikka ishlashi lozim. Mas’uliyatsiz odamlar

bilan natijaga erishib bo‘lmaydi. Biroq, bu ishni amalga oshirish o‘ta qiyin. Ishlab chiqarish sohasida bu boradagi faoliyatning natijasini ko‘rish mumkin. Masalan, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati, hajmi, aholi turmush darajasining ortib borayotganligining ko‘rsatkichlari orqali natijadorlik dinamikasini bilsa bo‘ladi.

Ammo tarbiya borasida bunga erishish qiyin va uning natijadorligini aniqlash mushkul. Xo‘sh, unda yangi ma’naviy makondagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini nimalar bilan o‘lchash mumkin? Fikrimizcha, mazkur o‘lchovga ko‘ra, yangi ma’naviy makonda odamlar o‘rtasida shakllanadigan mas’uliyat hissi bu boradagi eng muhim natija hisoblanadi. Mas’uliyat aslida insonning o‘z xati-harakatlari hamda ularning oqibatlari, natijasi uchun shakllanadigan javobgarlikdir. Mas’uliyatli inson avvalo rejali inson. Bunday shaxs amalga oshiradigan ishlarining o‘zi va jamiyat uchun keltiradigan foyda, samarasini oldindan tasavvur qila oladi.

Mas’uliyatli inson, shuningdek, o‘z shaxsiy manfaatlarini jamiyat tomonidan belgilangan hamda fuqarolarni farovonlikka yetaklaydigan umummilliy manfaatlarga uyg‘unligini ta’minlaydigan shaxs hisoblanadi. Bunday shaxsning manfaatini davlat himoya qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda “shaxs-jamiyat-inson” tamoyili bekorga olg‘a surilmayapti. Agar biz qurmoqni niyat qilgan va hozirda bu bo‘yicha olib borayotgan ishlarimiz tufayli mamlakatimizni mas’uliyatli shaxslar jamiyatiga aylantira olsak, hech shubhasiz, ma’naviy-ma’rifiy sohada natijadorlikka erishgan bo‘lamiz. Bu esa, yagona yangi ma’naviy makonni barpo etishning ilk qadamlaridan biri bo‘ladi.

Ikkinchidan, yangi ma’naviy makonda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit qaror topadi. Biroq bu boradagi ishlarda samaraga erishish oson emas. Bugungi O‘zbekistonda muayyan darajada saqlanib qolayotgan, ba’zi hollarda ko‘payib borayotgan ayrim illatlar, masalan oilaviy kelishmovchiliklar tufayli sodir bo‘layotgan ajralishlar, ishlab chiqarish va boshqa jamoalarda ijtimoiy-ruhiy muhitning yomonlashishi natijasida yuzaga kelayotgan og‘ir vaziyat, ayrim rahbarlarning rahbarlik borasidagi uquvsizligi, bilimsizligi, no‘noqligi ortidan odamlarda paydo bo‘layotgan

muayyan noroziliklar – bularning bari yangi ma’naviy makonni barpo etishga jiddiy xavfdir.

Shuning uchun ham mamlakat rahbari tomonidan bunday noxush holatlarning oldini olish bo‘yicha qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti va hukumatining xalq bilan muloqat qilishning avvalllari tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan yangi yo‘llari, usullari va vositalari paydo bo‘ldi. Xalq manfaati hamma narsadan ustunligi belgilab qo‘yildi. Insonning tom ma’nodagi mohiyati uning erkinligida ekanligi to‘g‘risidagi umumjahon e’tirofidagi haqiqat ro‘yyobga chiqmoqda. Bularning bari, shubhasiz, Yangi O‘zbekistonda barpo etilajak yangi ma’naviy makonda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim poydevoridir.

Uchinchidan, yagona yangi ma’naviy makonda davlat bilan xalq o‘rtasida muntazam ishonch ruhi paydo bo‘ldi. Bu o‘ta muhim masala. Ishonch eng avvalo ma’naviy omil hisoblanadi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, ishonch biror-bir kishiga uning so‘zi, ishi va xatti-harakatlariga xayrixohlik va samimiyat bilan qarash, u bilan hamkorlik qilish, yaqin munosabat o‘rnatishga yo‘naltirilgan ma’naviy omil. Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, ishonch odamlar ruhiyatida shakllanadigan ma’naviy ko‘rsatkich.

Bunday ma’naviy ko‘rsatkich bugun bizda ancha oqsayotganligi tayin. Chunki, biz har kuni ijtimoiy tarmoqlarda, o‘zaro gap-so‘zlarda, ommaviy axborot vositalarida kimdir kimning ishonchiga kirib, unga firib berganligi, million-millionlarga “tushirib” ketayotganligining guvohimiz. Kimningdir ishonchiga kirib olish uchun turli yolg‘onlar to‘qiymiz, har xil yo‘llarni o‘ylab topamiz, hattoki shaytonning aqli yetmaydigan ishlarga qo‘l uramiz.

Yagona yangi ma’naviy makon, nazarimizda, odamlar o‘rtasidagi qat’iy ishonchga asoslangan holda qurilishi lozim. Ishonch, o‘zaro to‘g‘rilik, adolatlilik, insof-u diyonat, halollik, samimiyat va iymonga asoslanishi kerak.

Rivojlangan qator mamlakatlarda davlat va xalq o‘rtasida o‘zaro ishonchni mustahkamlaydigan ijtimoiy bitimlar bor. Bunday ijtimoiy bitim Yangi O‘zbekistonda ham shakllanmoqda. Bu holni mamlakat hukumati

o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni sidqidillikda bajarishga harakat qilayotganida, xalqning esa o‘z davlati, Prezidentiga ishonchi tobora ortib borayotganida ko‘rish mumkin. Bu narsaning isbotini nafaqat odamlarimiz ijtimoiy kayfiyatida, shuningdek, xalqaro ekspertlar xulosalari, dunyo siyosatchilarining e’tirofida ham ko‘rish mumkin.

Shu ma’noda yagona yangi ma’naviy makonning muhim belgilaridan biri sifatida ishonch ruhining mustahkamlanishi xalqimizning kelajakka bo‘lgan ishonchini yanada oshirmoqda. Davlat bilan xalq o‘rtasidagi o‘zaro ishonch jamiyat oldida turgan barcha qiyinchiliklar, muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi, mamlakatning barqaror rivojlanishiga imkon yaratadi, kishilarda tashabbuskorlikni ezaga keltiradi. Shuning uchun ham, nazarimizda, yagona yangi ma’naviy makonni yaratishda shaxslararo hamda davlat va shaxs o‘rtasidagi ishonch ruhi alohida o‘rin egallaydi.

To‘rtinchidan, yagona yangi ma’naviy makonda ijtimoiy adolat ruhiyati shakllanadi. Adolat so‘zi arabchada to‘g‘rilik, odillik hamma uchun barobar bo‘lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilishdir. Mutafakkirlarning mutafakkiri, shoirlarning shoiri Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: “Adolat aylaki, xalq hayoti shu asosga qurilgan. Yaxshi kishi adolatni kasb qilib oladi. Hukmronlik adolat bilan mustahkam bo‘ladi, binobarin hukmronlik va adolatni birga olib borgan ma’qul”[4].

Sharqning mashhur allomalaridan biri Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Axloqiy muhsiniy yohud yaxshi xulqlar” deb nomlangan asarida shunday deydi: hakimlar aytadilarki, adolatning ma’nosi xalqaro tenglik ko‘zlashdir, ya’ni bir guruh ikkinchi bir guruhdan ustun qilinmaydi, har toifa o‘z martabasida tutiladi. Podshohlarning tobelari aslida to‘rt guruh bo‘ladilar: Birinchisi, shamshir ahli, chunonchi, amirlar va lashkar bo‘lib, ular olovga o‘xshaydilar. Ikkinchisi, qalam ahli, chunonchi, kitobdor va vazirlar bo‘lib, ular havoga o‘xshaydilar. Uchinchisi, muomala ahli, chunonchi, savdogar va hunarmandlar bo‘lib, ular suvga o‘xshaydilar. To‘rtinchisi, ziroat ahli, chunonchi, dehqonlar bo‘lib, ular tuproq sifatli bo‘ladilar. Agar to‘rtta unsurning biri boshqasidan ustun kelsa, xalq mijozi vayron bo‘lgani kabi, bu to‘rt guruhning har biri boshqasidan g‘olib kelsa, mulk mijozi buziladi, odamning tinchligi va odamzotning yashash tarzi izdan chiqadi, adolatsizlik yuzaga keladi[5].

Yuqoridagi iqtiboslardan shunday xulosa qilish mumkinki, har qanday jamiyatning mavjudligi, uning ustqurmasi adolat tamoyili bilan bog‘liq. Adolat ma’naviy omil hisoblanadi. Adolat mezonlari buzilgan joyda beqarorlik, jamiyatning yemirilishi, odamlarda betoqatlik, ziddiyatli holatlar yuzaga keladi.

Shuning uchun ham, bizning nazarimizda, yagona yangi ma’naviy makon aslida adolat qo‘rg‘onidir. Bunday jamiyatda odamlar ahillikda, o‘zaro hurmatda yashaydilar. Adolatli jamiyatda demokratiyaning umuminsoniy tamoyillari amal qiladi, inson huquqlari so‘zda emas, amalda oliy qadriyatga aylanadi, barchaning qonun oldidagi tengligi ta’minlanadi.

Shunday qilib, yagona yangi ma’naviy makonning asosiy belgilari, fikrimizcha, birinchidan, ma’naviy-ma’rifiy natijadorlikka erishgan, ikkinchidan, barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit qaror topgan, uchinchidan, davlat va xalq o‘rtasida mustahkam o‘zaro ishonch ruhi shakllangan, to‘rtinchidan, ijtimoiy adolat omillaridan iboratdir.

Endi yana bir muhim masala ustida to‘xtalamiz. Xo‘sh, ma’rifatli jamiyat qachon barpo etiladi? Bizning nuqtayi nazarimizda, bunday jamiyat biz yuqorida fikrlashgan yagona yangi ma’naviy makon bag‘rida shakllanadi. Demak, ma’rifatli jamiyat yangi ma’naviy makon bag‘rida shakllanar ekan, unda bu jamiyatdagi insonlarning sifatlari nimalardan iborat bo‘lishi kerak? Albatta, bu borada har kimning o‘z fikri, nuqtayi nazari bor. Bizning fikrimizcha, ma’rifatli jamiyatda yashaydigan insonlar quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozim:

Birinchidan, ma’rifatli jamiyat kishisi eng avvalo irodali inson bo‘lishi kerak. Iroda aslida insonning o‘z faoliyatini va ruhiy holatini o‘zi boshqarishda namoyon bo‘ladigan qobiliyat. Biz nima uchun iroda fenomenini ma’rifatli jamiyat kishisining eng muhim sifati tarzida belgiladik? Gap shundan iboratki, bugun jamiyatimizda irodasi sust, turli qarashlar, nuqtayi nazarlarni tahlil qila olmaydigan, kimlargadir yoki qandaydir g‘oyalarga ko‘r-ko‘rona ergashib ketadigan fuqarolarimiz, afsuski, yo‘q emas.

Iroda, aslida inson ma’naviyati iyerarxiyasida juda yuqori turadigan fenomen hisoblanadi. Iroda insonda o‘zini ongli ravishda anglash ko‘nikmasini shakllantiradi. Iroda har birimizda mustaqil fikr yuritish,

to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi. Bugungi dunyoda insonni rom etadigan, uni virtual olamga “chaqirib ketadigan”, o‘zining jozibasi bilan boshini aylantiradigan omillar juda ko‘p. Shuning uchun ham, ma’rifatli jamiyatga irodasi kuchli insonlar kerak.

Irodali insonlarning asosiy sifatlari nimalardan iborat? Birinchidan, bunday kishilar o‘z xohishi bilan faoliyat ko‘rsatishi uchun tashabbuskor bo‘lishi, ikkinchidan, har tomonlama o‘ylab qaror qabul qila olishi va ularni izchil suratda amalga oshira olishi uchun qat’iyatli bo‘lishi, uchinchidan, qiyinchiliklar oldida esankiramasdan, g‘ayratni bo‘shashtirmaslik, maqsad sari intilishi uchun sabotli bo‘lishi, to‘rtinchidan, qo‘yilgan maqsadni amalga oshirishda fursatni boy bermasdan harakat qilishi uchun dadil bo‘lishi lozim, deb o‘ylaymiz.

Ikkinchidan, ma’rifatli jamiyat kishisi tom ma’noda vatanparvar bo‘lishi kerak. Vatan hissi – muqaddas tuyg‘u. Vatanni faqat so‘zda sevib bo‘lmaydi. Haqiqiy vatanparvarlik insonning amaliy faoliyatida ko‘rinadi. Qolaversa, vatanni “men vatanparvarman”, “men vatanni sevaman”, demasdan ham sevsa bo‘ladi. Buning uchun inson vatanga nisbatan muhabbatli va sadoqatli bo‘lishi lozim. Vatanni sevish – katta mas’uliyat.

Vatanni tom ma’noda sevish uchun inson o‘zini ongli ravishda anglashi talab etiladi. Bunday inson xorijning soxta jozibasiga uchmaydi, mahalliychilikdan nafratlanadi, o‘z yurtidagi vaqtinchalik qiyinchiliklar oldida esankiramaydi, vatanni chet elning zeb-ziynatlariga almashmaydi, tirikchilik dardida o‘zgalar oldida xor bo‘lmaydi.

Uchinchidan, ma’rifatli jamiyatda yashaydigan insonning yana bir muhim sifati uning siyosiy madaniyati bilan bog‘liq. Ma’lumki, siyosiy madaniyat jamiyatning umumiy madaniyati asosida shakllanadi. Siyosiy madaniyat jamiyat a’zolarining davlat bilan munosabatlarini tartibga soluvchi, odamlarda mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qila olish ko‘nikmasini shakllantiradigan, his-tuyg‘ularga emas, yuksak intellektga asoslangan holda xulosalar chiqarishga undaydigan fenomen hodisadir.

Biz bugun Yangi O‘zbekistonni barpo etar ekanmiz, bunday davlatning asl mazmun-mohiyatini, qurishimiz lozim bo‘lgan jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy qiyofasini tasavvur eta

olishimiz lozim. Yangi jamiyatni oldindan tasavvur etmasdan, uning aniq arxitekturasini yaratmasdan barpo etish aslo mumkin emas.

To‘rtinchidan, ma’rifatli jamiyat kishisining qiyofasidagi eng muhim sifatlardan yana biri uning sog‘lom e’tiqodi bilan bog‘liq. E’tiqod ko‘pincha iymon, muayyan maqsad, qadriyatga ishonch va shu asosda shakllanadigan tafakkur tarziga nisbatan qo‘llaniladigan tushunchadir. Bizning nazarimizda, ma’rifatli jamiyat kishisi eng avvalo sog‘lom e’tiqodli insondir. E’tiqod asosan inson tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar tufayli yuzaga keladi.

E’tiqod – bu so‘z fikr va qarashlariga mahkam, sobitqadamlik bilan ishonish va o‘zgalarni ham o‘zidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir. E’tiqodli odam eng avvalo yolg‘on gapirmaydi. Yolg‘on so‘zlamagan odam o‘zgalarni ham rostgo‘y deb biladi. Lafzida turmaydigan kimsani beburd deb hisoblab, undaylardan hazar qiladi. E’tiqod jur’atni, mardlikni, fidoiylikni taqozo qiladi. Bularsiz u quruq g‘oya bo‘lib qolaveradi[6].

Biz yuqorida yagona yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat barpo etish, bunday jamiyatda yashovchilarning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi bo‘yicha o‘zimizning ayrim subyektiv fikrlarimizni bayon etdik. Yangi ma’naviy makon tushunchasi ham, ma’rifatli jamiyat tushunchasi ham hayotimizga endi kirib kelmoqda. Bunday makon va jamiyatning kelajakda shakllantiriladigan qiyofasi to‘g‘risida har kimda turlicha fikrlar, nuqtayi nazarlar bo‘lishi, tabiiy hol. Biz mamlakatimizdagi olimlar, mutaxassislardan ushbu masalalar bo‘yicha o‘z mulohazalarini bayon qilishlarini so‘raymiz. Zero, bu kabi o‘ta muhim ham ilmiy-nazariy, ham amaliy-pragmatik ahamiyatga ega muammolarni hal etish ilmiy jamoatchilik oldida turgan yirik vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шавкат Мирзиёев. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. -Тошкент, “Ўзбекистон”, 2024. -28-бет.

2. Бахтиёр Тураев. Оддий ва оммабоп синергетика. -Тошкент, Академнашр”, 2025. -109-бет.

3. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. -Тошкент, “Ўзбекистон”, 2022. -266-бет.

4. Алишер Навоий. Ҳикматлар. -Тошкент, 2014. -18-бет.

5. Ҳусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. Ахлоқи муҳсиний. -Тошкент, 2011. -164-бет.

6. Ватан туйғуси. -Тошкент, 1996. -25-бет.

O‘ZBEKISTON: YAGONA MA’NAVIY MAKON, YOSHLAR VA HOZIRGI ZAMON

Fazliddin Ravshanov
“Renessans” ta’lim universiteti
Siyosiy fanlar doktori, professor

Annotatsiya: mazkur maqolada murakkablashayotgan yangi geosiyosiy muhit sharoitida O‘zbekiston yoshlari oldida turgan asosiy strategik vazifalar, jumladan milliy qadriyatlarni mustahkamlash, axborot xavfsizligi, innovatsion rivojlanish, fuqarolik mas’uliyati va xalqaro hamkorlikda ishtirok etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda jamiyat barqarorligi, milliy o‘zlikni saqlash va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan yagona ma’naviy makon tushunchasining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning mazkur jarayondagi roli, ularning ma’naviy, intellektual va fuqarolik salohiyatini rivojlantirishning strategik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yagona ma’naviy makon, geosiyosiy jarayonlar, yoshlar siyosati, ma’naviy xavfsizlik, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas’uliyati, axborot makoni, innovatsion taraqqiyot, milliy taraqqiyot strategiyasi, globallashuv.

Dunyoda geosiyosiy raqobat, axborot urushi, madaniy ta’sirlar to‘qnashuvi va turli mintaqaviy nizolar kuchayib borayotgan hozirgi davrda har bir davlat uchun milliy barqarorlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biri - jamiyatda mustahkam **“**yagona ma’naviy makon”ni shakllantirish hisoblanadi. Bunday sharoitda O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni mustahkamlash nafaqat madaniy yoki tarbiyaviy masala, balki milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va davlat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq strategik vazifaga[3] aylanmoqda. Chunki, bugungi dunyo milliy ma’naviy immunitetni mustahkamlash, tarixiy xotira, milliy an’ana va qadriyatlarni asrash bilan birga, ularni zamonaviy taraqqiyot talablari bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Aks holda jamiyatda ma’naviy parokandalik, qadriyatlar transformatsiyasi va ijtimoiy ongda g‘oyaviy bo‘shliq yuzaga kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni shakllantirish nafaqat ma’naviy-madaniy siyosatning bir yo‘nalishi, balki davlat va jamiyat taraqqiyotining strategik asoslaridan biri hisoblanadi[4].

Yagona ma’naviy makon tushunchasi jamiyat a’zolarini umumiy tarixiy xotira, milliy g‘oya, umumiy qadriyatlar va ma’naviy meyorlar atrofida birlashtiruvchi ijtimoiy-madaniy muhit va tafakkur tarzini anglatadi. Bunday muhit va tafakkur milliy birlikni mustahkamlaydi, fuqarolik jamiyati institutlarining barqaror faoliyatini ta’minlaydi hamda davlatning strategik rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi[5]. Shu nuqtai nazardan, bu sohada quyidagi **ustuvor masalalar**ni alohida ta’kidlash mumkin.

Birinchidan, milliy g‘oya va umummilliy qadriyatlarni mustahkamlash. Globallashuv sharoitida turli g‘oyaviy ta’sirlar jamiyat ongiga tez kirib kelayotgan bir paytda avvalo ma’muriy boshqaruv tizimining o‘zida milliy g‘oyani jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-ideologik asosi sifatida mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

[3] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. -176 b.
[4] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. -464 b.
[5] Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida. O‘RQ-406, 2016 yil 14 sentabr; 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60, 2022 yil 28 yanvar; “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. PF-158, 2023 yil 11 sentabr.

Ikkinchidan, yosh avlodning ma’naviy immunitetini kuchaytirish. Hozirgi axborot makonida yoshlar turli mafkuraviy ta’sirlarga eng tez duch keladigan ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Shu sababli ta’lim tizimi, oila instituti, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik tashkilotlari hamkorligida yoshlarni bir tomonlama, masalan e’tiqodiy tomonlama emas, milliy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy tafakkurga ega shaxslar sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, axborot makonida milliy manfaatlarni himoya qilish. Zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida ma’naviy makonning katta qismi raqamli muhitga ko‘chmoqda. Shuning uchun internet va media maydonda milliy madaniyat, tarix va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib etuvchi sifatli kontentni ko‘paytirish, destruktiv g‘oyalarga qarshi ma’naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, milliy madaniy meros va tarixiy xotirani asrash va targ‘ib qilish. Yagona ma’naviy makonni shakllantirishda xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosi muhim o‘rin tutadi. Milliy tarix, buyuk allomalar merosi, madaniy qadriyatlar va an’analarni ilmiy asosda o‘rganish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosida keng jamoatchilikka yetkazish jamiyatda umumiy ma’naviy asoslarni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, davlat va jamoat institutlari o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish. Yagona ma’naviy makonni barpo etish faqat davlat organlari emas, balki ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, madaniy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikning hamkorligida amalga oshirilishi lozim. Bunday integratsiyalashgan yondashuv jamiyatda barqaror va samarali ma’naviy muhitni shakllantirish imkonini beradi.

Yagona ma’naviy makonni shakllantirish faqat davlat siyosati bilan cheklanmaydi, bu jarayon jamiyatning barcha qatlamlari - oila, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, madaniy tashkilotlar va faol fuqarolarning birgalikdagi harakatini talab qiladi[6]. Shu nuqtai nazardan, **jamiyatning harakatlari** quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘lishi lozim.

[6] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.; O‘zbekiston Respublikasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-5040, 2021 yil 26 mart.

Birinchidan, milliy qadriyatlar va tarixiy merosni asrash va targ‘ib qilish. Jamiyat a’zolari, shu jumladan turli sohalardagi tadbirkorlar, milliy madaniy meros, urf-odatlar, an’analar va tarixiy xotirani asrashga faol hissa qo‘shishi lozim. Bu jarayon faqat ilmiy tadqiqotlar bilan cheklanib qolmasdan, kundalik hayotda milliy madaniyatni saqlash, xalq an’analarini davom ettirish va ularni yosh avlodga yetkazish orqali amalga oshirilishi muhim.

Ikkinchidan, yosh avlod tarbiyasiga jamoaviy yondashuvni kuchaytirish. Yagona ma’naviy makonning mustahkamligi ko‘p jihatdan yoshlar tarbiyasiga bog‘liq. Shu bois oila, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari hamkorligida yoshlarni milliy g‘urur, vatanparvarlik mas’uliyati va mustaqil fikrlash ruhida tarbiyalash jamiyatning muhim vazifalaridan biri bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, axborot madaniyatini shakllantirish. Zamonaviy axborot makonida jamiyat a’zolarining tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orqali jamiyat turli destruktiv g‘oyalar va mafkuraviy ta’sirlarga qarshi ma’naviy immunitetni kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, fuqarolik faolligini oshirish. Yagona ma’naviy makonni barpo etishda fuqarolarning jamoat ishlarida faol ishtirok etishi muhim. Mahalla institutlari, nodavlat tashkilotlar, madaniy va ma’rifiy tashabbuslar orqali jamiyatda ma’naviy muhitni boyitishga xizmat qiladigan loyihalarni amalga oshirish zarur.

Beshinchidan, ma’naviy-ma’rifiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash. Kitobxonlikni rivojlantirish, madaniy tadbirlar, ilmiy-ommaviy muhokamalar, ma’rifiy loyihalarni tashkil etish orqali jamiyatda intellektual va ma’naviy muhitni mustahkamlash mumkin. Bunday tashabbuslar jamiyatda umumiy qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yagona ma’naviy makonni shakllantirish jarayonida yoshlar jamiyatning eng faol, innovatsion fikrlaydigan va kelajak taraqqiyotini belgilab beruvchi ijtimoiy qatlami hisoblanadi. Shu bois yoshlarning bu jarayondagi ishtiroki faqat passiv qabul qiluvchi emas, balki ma’naviy muhitni shakllantiruvchi va taraqqiy ettiruvchi faol subyekt sifatida

namoyon bo‘lishi muhim[7]. Bu nuqtai nazardan, **yoshlarning harakatlari** quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchidan, milliy qadriyatlar va tarixiy merosga hurmat bilan munosabatda bo‘lish. Yoshlar o‘z xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlari va ma’naviy an’analarini chuqur o‘rganishi va ularni asrab-avaylashga intilgan holda faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishi lozim. Milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani qadrlash jamiyatda umumiy ma’naviy asoslarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bilim va intellektual salohiyatni rivojlantirish. Yagona ma’naviy makonni shakllantirishda bilimli, tanqidiy fikrlaydigan va keng dunyoqarashga ega yoshlar muhim ahamiyatga ega. Shu sababli yoshlar ilm-fan, madaniyat va innovatsiya sohalarida faol bo‘lib, o‘z intellektual salohiyatini oshirish orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi kerak.

Uchinchidan, axborot madaniyati va tanqidiy tafakkurni shakllantirish. Hozirgi axborot makonida turli g‘oyaviy ta’sirlar va ma’lumotlar oqimi juda katta. Yoshlar axborotni tahlil qilish, uning ishonchliligini baholash va destruktiv g‘oyalarga tanqidiy yondashish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Bu ularning ma’naviy immunitetini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, jamiyat hayotida faol ishtirok etish. Yoshlar turli ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy tashabbuslarda faol qatnashishi, jamoatchilik ishlarida ishtirok etishi va ijtimoiy loyihalar orqali jamiyatda ijobiy muhit shakllantirishga hissa qo‘shishi lozim. Bu ularda fuqarolik mas’uliyati va jamoaviylik hissini mustahkamlaydi.

Beshinchidan, milliy madaniyatni zamonaviy shakllarda targ‘ib qilish. Yoshlar raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali milliy madaniyat, adabiyot va tarixni keng targ‘ib qilish imkoniyatiga ega. Bu orqali milliy ma’naviy makonning ta’sir doirasi yanada kengayadi.

Dunyoda geosiyosiy raqobat kuchayib, ayrim mintaqalarda harbiy to‘qnashuvlar avj olayotgan, iqtisodiy sanksiyalar va siyosiy bosimlar xalqaro munosabatlarda keng qo‘llanilayotgan hozirgi davrda yosh avlodning dunyoqarashi, tayyorgarligi va mas’uliyati masalasi alohida

[7] Yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-153, 2023 yil 11 aprel.

ahamiyat kasb etadi[8]. Bunday murakkab xalqaro muhit sharoitida O‘zbekiston yoshlari nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki mamlakat barqarorligi va taraqqiyotiga xizmat qiladigan bilim, ko‘nikma va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, **yoshlar quyidagi muhim yo‘nalishlarga tayyor bo‘lishi** zarur.

Birinchidan, intellektual va texnologik raqobatga tayyor bo‘lish. Zamonaviy dunyoda davlatlar o‘rtasidagi asosiy raqobat ilm-fan, innovatsiya va texnologiya sohalarida kechmoqda. Shu sababli yoshlar yuqori bilim, ilmiy salohiyat va raqamli ko‘nikmalarni egallab, global intellektual raqobatda munosib ishtirok etishga tayyor bo‘lishi kerak. Ilm-fan va texnologiyani chuqur o‘zlashtirgan yoshlar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, ma’naviy barqarorlik va milliy o‘zlikni saqlashga tayyor turish. Global axborot makonida turli g‘oyaviy ta’sirlar, madaniy ekspansiya va mafkuraviy bosimlar kuchayib bormoqda. Shu sababli yoshlar milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosga tayangan holda mustaqil va barqaror dunyoqarashni shakllantirishi lozim. Bu ularning turli destruktiv g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlashga tayyor bo‘lish. Axborot urushlari zamonaviy geosiyosatning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda. Yoshlar axborotni tahlil qilish, uning haqqoniyligini baholash va manipulyativ axborotlarga nisbatan tanqidiy yondashish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Bu ularning axborot makonida mustaqil va mas’uliyatli fuqaro sifatida harakat qilishini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlik ruhiga ega bo‘lish. Mamlakat taraqqiyoti va barqarorligi ko‘p jihatdan fuqarolarning mas’uliyatli pozitsiyasiga bog‘liq. Yoshlar davlat mustaqilligi, milliy manfaatlar va jamiyat barqarorligini qadrlaydigan, jamoat ishlarida faol ishtirok etadigan fuqarolar sifatida shakllanishi muhim.

Beshinchidan, iqtisodiy mustaqillik va tadbirkorlik ko‘nikmalariga tayyor bo‘lish. Global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida yoshlar zamonaviy

[8] Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida. PQ-60, 2025 yil 14 fevral.

iqtisodiy bilimlar, tadbirkorlik ko‘nikmalari va innovatsion fikrlashga ega bo‘lishi lozim. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash uchun ham muhimdir.

Oltinchidan, xalqaro muloqot va madaniy hamkorlikka tayyor bo‘lish. Globallashuv sharoitida yoshlar xorijiy tillarni bilishi, turli madaniyatlar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi va xalqaro hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, murakkab va beqaror global muhit sharoitida O‘zbekiston yoshlari bilimli, ma’naviy barqaror, tanqidiy yondashuvchi, fuqarolik mas’uliyati yuqori va innovatsion fikrlaydigan avlod sifatida shakllanishi lozim. Ana shunday yoshlar mamlakatning tinchligi, barqaror taraqqiyoti va milliy manfaatlarini himoya qilishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.Murakkablashayotgan zamonaviy geosiyosiy muhit - harbiy nizolarning ko‘payishi, iqtisodiy raqobatning kuchayishi, axborot urushi va global siyosiy qarama-qarshiliklar sharoitida har bir davlatning kelajagi ko‘p jihatdan uning yosh avlodi salohiyatiga tayanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston yoshlari nafaqat mamlakat taraqqiyotining ishtirokchilari, balki uning strategik kelajagini belgilab beruvchi muhim ijtimoiy kuch sifatida qaraladi[9]. Mana shu sharoitda bugun yoshlar oldida quyidagi **10 ta strategik vazifa** turibdi, bular:

milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash; yuqori bilim va intellektual salohiyatni rivojlantirish; raqamli va texnologik kompetensiyalarni egallash; axborot makonida faol va mas’uliyatli pozitsiyani shakllantirish; fuqarolik mas’uliyati va vatanparvarlikni mustahkamlash; iqtisodiy tashabbuskorlik va tadbirkorlikni rivojlantirish; millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlash; ekologik mas’uliyat va barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish; xalqaro muloqot va madaniy diplomatiyada ishtirok etish; milliy taraqqiyot strategiyalarini amalga oshirishda faol ishtirok etish.

[9] Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-92, 2022 yil 19 yanvar; Yoshlar bilan ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, 2025 yil 26 mart.

Xulosa qilib aytganda, murakkab va tez o‘zgarayotgan geosiyosiy sharoitda O‘zbekiston yoshlarining strategik vazifalari bilim, ma’naviyat, texnologik taraqqiyot, fuqarolik mas’uliyati va global fikrlashni uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim. Ana shunday yondashuv mamlakatning barqaror taraqqiyoti, milliy manfaatlarini himoya qilish va xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashga xizmat qiladi.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Babajanova Dilorom Babajanovna-
tarix fanlari doktori, professor
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
O‘zbekiston tarixi kafedrasi professori
Sultonova Zuxra Alisher qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ingliz filologiyasi fakulteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yayotgan, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan, Uchinchi Renessans poydevori yaratilayotgan hozirgi davrda buyuk allomalar boy merosini chuqur o‘rganish va uni keng jamoatchilikka yetkazish masalalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ko‘p yillar davomida o‘zbek xalqining milliy-madaniy va tarixiy merosi, zamonaviy sivilizatsiya rivojlanishining xalqaro, milliy va sivilizasion, falsafiy muammolari borasidagi ijtimoiy vazifalar qo‘yilayotgan bir jarayonda yangi ma’naviy makonni yaratish bilan bog‘liq masalalar kelgusida ham dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Kalit so‘zlar. Yangi O‘zbekiston, Uchinchi renessans, milliy qadriyatlar, yagona ma’naviy makon, millat, ma’naviyat, ma’naviy meros, barqaror rivojlanish, yurtga muhabbat, sadoqat, fidoyilik.

Yangi ma’naviy makonni yaratishda, mamlakatning barqaror rivojlanishi va taraqqiy etishida mamlakatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarni birlashtiruvchi mushtarak qadriyatlar majmui, g‘oyaviy yaxlitlik va madaniy uyg‘unlik jarayonlari katta o‘rin tutadi. Kelajak sari tashlanayotgan dadil qadamlar bardavom bo‘lishini ta’minlashda dunyoda o‘ziga yarasha yuksak salohiyati, benazir nufuziga mos ravishda o‘rin egallayotgan mustaqil O‘zbekiston atalmish davlat bor ekan, bu yurtda ana shu nomga munosib millat yashayotgani, bu yurtda uning ota-bobolari, avlod-ajdodlari, buyuk zotlari yashab o‘tgan. Ayni paytda, bu borada to‘plangan tajriba, ana shu buyuk zotlarning bebaho merosi hamisha millat boshini baland, qaddini tik qiladi, bag‘rikeng o‘zbek xalqini olg‘a yetaklaydi. Binobarin, necha-necha ajdodlar orzu qilib o‘tgan mana shunday buyuk ishlarni amalga oshirish, bunday baxt va sharafga musharraf bo‘lish bugungi avlodga nasib etdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2025 yil 26 dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi ta’kidlaganidek, “...barchamiz birlashib harakat qilsak, har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirmiz, biron-bir kuch bizni o‘z yo‘limizdan qaytara olmaydi. Bir bo‘lsak, yagona xalq, yagona millat bo‘lib olg‘a intilsak, ko‘zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz!”[1].

Zero, bugungi murakkab zamonda yoshlarni turli sinovlarga chidamli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashtirishda, hech shubhasiz, o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi bo‘lgan mahallaning o‘rni va ahamiyati nihoyatda katta. Shu boisdan ham, 2026 yil **“Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”**, deb e’lon qilindi. O‘zbek xalqi tarix davomida qanday og‘ir sinovlarga duch kelmasin, avvalo birdamlikdan kuch olgan, mashaqqatli kunlarda odamlar, mahalla ahli yelkadosh bo‘lib qiyinchiliklarni birgalikda yengib kelgan. Millati, tili va dinidan qat’i nazar, butun el-yurtni birlashtiradigan ulug‘ bir g‘oya borki, u ham bo‘lsa, Vatan manfaati, xalq manfaatidir. O‘ta noyob qadriyatlarga hamisha sodiq o‘zbek xalqi bugungi murakkab zamonda yosh

avlodni turli sinovlarga chidamli qilib o‘stirish, ularni vatanparvar, mustaqil fikrlaydigan, ozod va erkin insonlar etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida yangi ma’naviy makon tushunchasiga ta’rif berib, shunday ta’kidlaydi, “...biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”[2:276]. Zero, eng yuksak insoniy fazilatlar va ilmu irfon, ma’rifat va iste’dod asosida yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi ushbu da’vat aynan buyuk ajdodlarimiz koldirgan ma’naviy-ahloqiy ta’limotlar uyg‘unligidir.

Ma’naviyatimiz darg‘alari, buyuk siymolar nomlari dunyo ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shganliklari bois, mangulikka daxldordir. Ularning ilmu ma’rifat o‘rganish orqali olamni ezgulikka, taraqqiyotga yetaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazinadir. Ana shu buyuk ajdodlarimizning bugungi avlodlarga qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosi beqiyos bo‘lib, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirishda muhim omildir. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Mirzo Ulug‘bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasini yaratishimiz lozim”[3].

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekiston atalmish yurtimizga butun dunyoning nigohi qadalgan, qadimiy Yangi O‘zbekistonda ajdodlarimiz, madaniyatimiz va ma’naviy qadriyatlarimizni jahon ahli tan olayotgan bir davrda tariximiz, eng avvalo o‘tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlarimiz qoldirgan boy milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrash va rivojlantirishga, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham, “ajdodlarimiz armonlari o‘sha davrda buyuk zotlarimiz: “Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida

mujassam bo‘ldi”[4:16], deb ayta olamiz. Ular qoldirgan ulkan ma’naviy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyani yoshlar ongiga tezroq yetkazish hamda ularning ilmga, tariximizga bo‘lgan hurmat-ehtiromini yanada oshirish, ularda milliy g‘urur shakllanishiga imkon yaratish nechog‘lik qimmatli ekanligini ko‘rish mumkin. Zero, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sohibqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy bobolarimizning qutlug‘ tavallud ayyomlariga tayyorgarlikni hozirdan boshlashimiz kerak. Bunday ulug‘ sanalarni yuksak darajada, har tomonlama munosib o‘tkazish”[5] dan iborat masalalar qo‘yilgani ham bejiz emas. Toshkent shahrining qoq markazida hazrat Alisher Navoiy haykali poyida qatag‘on qurbonlari bo‘lgan adiblarimiz va boshqa yozuvchi-shoirlarga atab “Adiblar xiyoboni” bunyod etilgan.

Bugungi kunning qarama-qarshilik va ziddiyatlarini hal etish yo‘llari haqqoniy ochib berilgan, zamondoshlarimizning ma’naviy-ruhiy qiyofasi ta’sirchan aks ettirilgan ilmiy va badiiy asarlar, musiqiy, tasviriy san’at asarlari, zamonaviy innovasion g‘oyalar, pedagogik texnologiyalarni hayotga joriy etish bo‘yicha ilmiy, amaliy va uslubiy ishlanmalar yaratilishi zamon talabi bo‘lib turibdi. Myediamakonda madaniyatsizlik, axloqsizlik ko‘rinishlari bilib-bilmay targ‘ib etilayotgan bir paytda ularga qarshi kurashish, bunday ma’naviy tahdidlar ortida qanday g‘arazli maqsadlar yashiringani, ular qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini anglagan holda, bu boradagi tushuntirish ishlarini jadallashtirish ham talab etiladi. Shu maqsadda, eskirgan, zerikarli va samarasiz usullardan voz kechib, yoshlar bilan uchrashuv va muloqotni ta’sirchan, yangicha noan’anaviy usullar asosida o‘tkazish, xalqimiz ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashimiz zarur. O‘tkazilayotgan har bir tashviqot-targ‘ibot ishlarimiz xalqimiz, avvalo, yoshlarimizda yuksak vatanparvarlik, totuvlik va hamjihatlik, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qilishi zarur.

Manbalarga ko‘ra, dunyoda 100 ming atrofida muzeylar bor. Yurtimizda hozirgi davrda 127 ta muzey mavjud. Yangi O‘zbekiston tarixini yaratish asnosida, Qozog‘iston, Rossiya, Germaniya, Italiya, Saudiya Arabistoni, Fransiya kabi davlatlar muzeylari bilan aloqalar tobora rivojlanmoqda.

O‘zbekistondagi eng qadimgi maskanlardan biri – Xorazm vohasi bo‘lib, bu yer qadimiy madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Xiva shahri o‘zining qadimiy yodgorliklari bilan jahonga mashhur. Xorazm viloyati barcha davrlardagi kabi mustaqillik arafasida ham, mamlakatda eng ko‘p sayyoh tashrif buyuradigan viloyat sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’biri aytganda, “Xorazm noyob madaniy va tarixiy obidalari, infratuzilma tarmoqlari bilan O‘zbekistonning yuksak sayyohlik salohiyatiga ega bo‘lgan hududlaridan hisoblanadi”[6:255].

Yangi O‘zbekistonda tariximiz, eng avvalo o‘tgan buyuk siymolar xalq orasidan chiqqan, shu omma taqdiri bilan hamnafas ajdodlarimiz, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 avgustda “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-361-sonli qarori qabul qilindi”[7] va unga ko‘ra, buyuk ajdodimiz yubiley tantanalari xalqaro miqyosda 2023 yil 25-27 sentyabr kunlari munosib tarzda o‘tkazildi. Bu kabi tadbirlar dunyoning ko‘plab mamlakatlari, jumladan Fransiya, Rossiya, Hindiston kabi davlatlarda ham keng nishonlandi.

Dunyo ilm-fani rivojiga o‘zining beqiyos hissasini qo‘shgan ulug‘ alloma Abu Rayhon Beruniyning nomi mangulikka daxldor. Uning ilmu ma’rifat o‘rganish orqali olamni ezgulikka, taraqqiyotga yetaklash maqsadida avlodlarga qoldirgan buyuk merosi insoniyat uchun bebaho xazina, shu bilan birga, biz avlodlarga qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosi beqiyosdir.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosining keng o‘rganilishi, yoshlar qalbi va ongiga milliy g‘oyaning chuqur singdirilayotganligi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekistonning bugungi yoshlari sharoit va yangi imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalar va ustozlardan ibrat olib ish yuritsalar, jahon ilm-fani yutuqlarini to‘liq egallaydilar, yagona ma’naviy makonni barpo etadilar. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev ishonch bilan ta’kidlaganidek, “Mana shu haqiqatni chuqur his etib, barchamiz birlashib harakat qilsak, har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirmiz,

biron-bir kuch bizni o‘z yo‘limizdan qaytara olmaydi”[8]. Bu jarayonda mahallalar, ta’lim-tarbiya maskanlari, mehnat jamoalari, ziyolilar, xorijdagi elchixonalari, umuman, butun bunyodkor xalqimiz faol ishtirok etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025// https://president.uz/ uz/lists/view/8834.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.– Toshkent:O‘zbekiston, 2021.–B.276.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025// https://president.uz/ uz/lists/view/8834.
4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.– Toshkent:O‘zbekiston, 2021.–B. 16.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025// https://president.uz/ uz/lists/view/8834.
6. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.–Toshkent:O‘zbekiston, 2017.–B.255.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-361 sonli qaror www.xabar.uz › jamiyat › abu-rayhon-beruniy.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025// https://president.uz/ uz/lists/view/8834.

ZJV5401

MA’NAVIY MAKON KONSEPTIGA CHIZGILAR

Kamoliddin RABBIMOV
Siyosatshunos

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv va axborot davri sharoitida jamiyat ma’naviy barqarorligini ta’minlash, milliy o‘zlikni saqlash hamda “ma’naviy makon” tushunchasini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash masalalari tahlil qilingan. Muallif axborotlashuv jarayonlari natijasida jamiyatlar o‘rtasidagi chegaralar shartli tus olib, qadriyatlar, g‘oyalar va dunyoqarashlar o‘rtasidagi raqobat keskinlashganini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston jamiyatining mo‘‘tadil konservativ xususiyati, tarixan shakllangan oilaviy, mahalliy va ma’naviy munosabatlar tizimi milliy barqarorlikning muhim omili sifatida baholanadi. Maqolada “ma’naviy makon” jamiyat yashovchanligi, milliy o‘zlik va geosiyosiy mustaqillikni ta’minlovchi qadriyatlar tizimi sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, uni huquqiy, siyosiy va sotsiologik jihatdan asoslash zarurati ochib beriladi. Tadqiqotda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishda erkinlik va ochiqlikni saqlagan holda, milliy, diniy va ma’naviy kompasni yo‘qotmaslik ustuvor vazifa ekani ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, axborot davri, informatsionalizm, ma’naviy makon, milliy o‘zlik, ma’naviy barqarorlik, sog‘lom ma’naviy muhit, qadriyatlar tizimi, huquqiy asoslash, geosiyosiy mustaqillik, jamoatchilik fikri, konservativ jamiyat, axborot oqimi, ma’naviy tahdid, O‘zbekiston jamiyati.

Insoniyat tarixida, taqdirida sifat jihatidan oldin mutlaq kuzatilmagan bir davr boshlanganiga bir necha o‘n yillik bo‘lib qoldi. Bu davr – globallashuv, va bu fenomenning muhim tarkibiy qismi – informatsionalizm, ya’ni, axborot davri. Axborot – bu o‘zliklar shakllanishida muhim rol o‘ynagan unsur hisoblanadi. O‘tmishda, jamiyatlar boshqa o‘zliklardan ixotalangan xolatda, faqat chegaraviy munosabatlarda bo‘lgan holda shakllangan. Til va dunyoqarash bilan bog‘liq o‘zliklar, tashqi ta’sir minimal va yeki chegaraviy xarakterga ega

bo‘lgan davrda kechdi. Bugun esa insoniyat yagona axborot tizimida yashamoqda. Bu fenomenning, ijobiy tomonlari ham albatta bor, lekin jamiyatlarning, xalqlarning o‘zlik borasidagi, ma’naviy qarashlari va ehtiyojlari borasidagi ziddiyatlarni har qachongidan ham dolzarblashtirdi.

Ma’naviy barqarorlikka ehtiyoj, ma’naviy sog‘lom muhit zarurati – konservativ jamiyatlardagi oddiy ehtiyoj hisoblanadi. Ma’naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan, O‘zbekiston jamiyatini mo‘‘tadil konservativ deb bemalol atash mumkin. Oila qadriyati, eri-xotin, ota-ona va bola munosabatlari, insonlar o‘rtasidagi tarixan shakllangan muvozanat va munosabatlar qadriyati, ayolga hurmat-ehtirom, farzandlarni yuksak qadrlash, ko‘p farzandlilik, mahalladagi birodarlik va yaxshi qo‘shnichilik ruhiyati – bu shunchaki odat tusiga kirib qolgan shablon qadriyatlar emas, balki tarixan shakllangan va o‘zgarishi katta muammo yeki ma’naviy tahdid sifatida qabul qilinadigan xolat hisoblanadi.

An’anaviy yeki konservativ jamiyatlardagi ma’naviy muhitning o‘zgarishiga, buzilishiga sababchi bo‘layotgan ko‘plab omillar mavjud. Va zamonaviy dunyoda bu omillarning zanjir effekti, birgalikda ta’sir qilish holatini kuzatish mumkin. Bir tomondan bozor munosabatlari, ya’ni, kapitalizm va pul qadriyati, boshqa tomondan global axborot oqimi fonida, insonlarning qiziquvchanligi va so‘l qadriyatlarning standartlashuvi, inson huquqlari va halqaro huquqning so‘l talqini ham kuchli ekanligi, global maydonda so‘l tashkilotlarning qudratli ekanligi – shular jumlasidandir.

Meni nazarimda, «ma’naviy makon» deganda, O‘zbekiston jamiyatining barqarorligi va yashovchanligi, raqobatdoshligi va hayotiy energiyasining yuqorida darajada qolishi uchun kerakli bo‘lgan qadriyatlar tizimiga aytilsa kerak. Bunda, jamiyatda shunday konsensus bo‘ladiki, bu konsensusga ko‘ra, manaviy makonning saqlanishi, himoya qilinishi – jamiyat taraqqiyotining, O‘zbekiston xalqining yashab qolishi uchun zarur bo‘lgan fundamental shart sifatida ko‘riladi.

Ayni paytda, «ma’naviy makon» zaruratini huquqiy asoslash – ushbu vazifani muvaffaqyaitli amalga oshirishning o‘ta muhim vazifasi hisoblanadi. Chunki, zamonaviy dunyo – g‘oyalar kurashiga to‘yingan dunyo, inson huquqlari va qadriyatlarining talqini o‘rtasidagi ashaddiy kurashlar davridir.

Avvalo, «ma’naviy makon» tushunchasining, mening nazarimdagi asosiy maqsadi – bu – siyosiy, geosiyosiy, ma’naviy jihatdan mustahkam va barqaror pozitsiyaga ega bo‘lgan o‘zbekistonlikni shakllantirishdir. Bu o‘rinda ushbu o‘zbekistonlikning ma’naviy qarash va qadriyatlari, ayni paytda siyosiy va geosiyosiy talqinga ham ega ekanligini anglash kerak bo‘ladi. Bunda O‘zbekistonning siyosiy va geosiyosiy mustaqilligi, vatandoshlarning mustahkam ma’naviy platforma asosidagi konsensusi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi nazarda tutiladi.

O‘zbekiston, Konstitutsiyaga ko‘ra – demokratik davlat. O‘zbekistonda har bir insonning huquq va erkinliklari, qolaversa, aksariyatning ratsional ehtiyojlari – davlat siyosatini amalsha oshirishdagi muhim tamoyil bo‘lib qolaveradi. Agar o‘zbekistonliklar, ularning kamchiligi bo‘ladimi yeki ko‘pchiligi, tarixan shakllangan ma’naviy makonga murojaat qilishda davom etar ekan, bu ehtiyoj yuqori darajadagi siyosiy va huquqiy buyurtma bo‘lib qolaveradi.

Shu o‘rinda, jamiyatdagi sog‘lom ma’naviy muhit uchun olib boriladigan siyosatda, ma’lum nuqtalarga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Yangi, globallashgan dunyodagi o‘ziga xos xolatlardan biri – bu jamoatchilik fikrining muhimligi. O‘tmishda, lokal dunyoda jamoatchilik fikri bo‘lgan, lekin, bugungidek global ta’sirga ega bo‘lmagan, jamiyatlarni ommaviy mobilizatsiya qilish qudratiga ega bo‘lmagan.

Bundan keyingi har qanday siyosiy va ma’naviy konstruksiyalarni shakllantirishda, erkinlikni inobatga olgan holda, jabr zulmlar va ixotalanishlarni istisno qilgan xolda formula tuzish kerak bo‘ladi. Chunki, kuch ishlatish, ixotalanish – nazarda tutilayotgan siyosiy va ma’naviy konstruksiyani, loyihani qadrsizlaydi, qarshi tomonni g‘alabasini ta’minlaydi. Kuch ishlatilgan, ixota qilgan tomon apriori zaif va zulmkor sifatida ko‘riladi, natijada, bu tomon himoya qilmoqchi bo‘lgan qadriyatlar va loyihalar obro‘ysizlanadi.

Natijada, O‘zbekiston jamiyatida sog‘lom ma’naviy makonni muvaffaqiyatli shakllantirish va himoya qilish borasida, parallel ikkita vazifani bajari borish kerak bo‘ladi. Birinchisi, ijtimoiy tafakkurdagi erkinlikni bug‘maslik, vatandoshlarimiz global axborot va qadriyatlar makoniga qo‘lishida davom etishini ta’minlash kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan, mana shu jarayonda vatandoshlarimiz – o‘zbekistonliklar global maydonda o‘zlarining milliy, diniy, ma’naviy kompaslarini yo‘qotib qo‘ymasliklari, aksincha, global ma’naviy bo‘hronlar davrida ham chayqalmasdan ma’naviy kuchli insonlar va jamiyat sifatida o‘z yo‘lida davom etishi kerak bo‘ladi.

Axborot davrida o‘zliklar statik, ya’ni, o‘zgarmas xolatda qolmaydi. Yeki o‘zliklar kengayadi. Tarqaladi, yeki inqirozga uchrab – torayib boradi. Har bir jamiyatning tarixan shakllangan zehniyati, ma’naviy resurslari, ma’naviy ildizlari bo‘ladi. O‘zbekiston jamiyatining ma’naviy ildizlari, ma’naviy resurslari, meni nazarimda, juda chuqur. Bir tomondan hayratlanarli gumanizmga to‘yinganlik, insoniylik, mehr-oqibatlik, boshqa sivilizatsiyalarga ochiqlik va do‘stona munosabat, ayni paytda, o‘zlik va ma’naviy asoslarda barqarorlik – o‘zbekistonliklarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Mana shu muvozanat, mana shu ma’naviy va hayotiy energiya yangi davrda, g‘oyalar va qadriyatlar har bir insonning qalbida kuchli kurash olib boradigan davrda, O‘zbekiston jamiyatining o‘zligi, qadriyatlari, sog‘lom ma’naviy muhiti saqlanib qolishi uchun, bu zaruratni huquqiy, siyosiy, sotsiologik tahlil qilish, asoslash zarurati borgan sari oshib boradi.

IS’HOQXON IBRATNING SAYYOHLIK FAOLIYATI VA UNING JADIDCHILIK TAFAKKURI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Maxsudjonov Otabek Zokirjon o‘g‘li
Is’hoqxon Ibrat – Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yorqin vakili, ma’rifatparvar Is’hoqxon Ibratning (1862-1937) qariyb o‘n yil davom etgan (1887-1896) jahon sayohatining uning islohotchilik dunyoqarashi shakllanishidagi o‘rni tadqiq etiladi. Maqolada Ibratning

Yevropa, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyodagi kuzatuvlari (G‘arb texnologiyalari, ta’lim tizimlari, shaharsozlik va Sharqdagi mustamlakachilik) uning amaliy faoliyatiga – xususan, “usuli savtiya” maktabini (1907) qayta tiklashi va “Matbaai Is’hoqiya” (1908) nomli shaxsiy bosmaxonasini tashkil etishiga bevosita sabab-oqibat bog‘liqligi tahlil qilinadi. Ibratning sayohati uning “Lug‘ati sittati alsina” va “Jome’ ul-xutut” kabi fundamental asarlari uchun asosiy ilmiy-amaliy zamin yaratgani ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Is’hoqxon Ibrat, jadidchilik, sayohat, Turkiston, Matbaai Is’hoqiya, usuli savtiya, Lug‘ati sittati alsina, Jome’ ul-xutut, ma’rifatparvarlik, islohot.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg‘onish – jadidchilik harakati nafaqat mintaqaviy inqirozlar, balki global jarayonlar bilan ham chambarchas bog‘liq holda shakllandi. Bu davr ma’rifatparvarlarining aksariyati islohotlar zarurligini nazariy jihatdan anglagan bo‘lsa, ular orasida bu islohotlarning amaliy-texnik vositalarini izlab, dunyo kezgan va aniq natijalar bilan qaytgan siymolar alohida ajralib turadi. Is’hoqxon Junaydullohxo‘ja o‘g‘li Ibrat ana shunday serqirra faoliyat sohibi – shoir, tarixnavis, tilshunos, noshir, pedagog va islohotchi sifatida tarixga kirdi.

Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, Ibrat fenomeni jadidchilik tafakkurining shakllanishini nafaqat mahalliy (madrasa), balki xalqaro (sayohat) kontekstda o‘rganish imkonini beradi. Uning faoliyati – butun boshli harakatning “texnokratik” yo‘nalishini boshlab bergan hodisadir.

Maqsadimiz Is’hoqxon Ibratning 1887-1896 yillardagi uzoq muddatli sayohati davomidagi kuzatuvlari va uning vatanga qaytgandan so‘nggi amaliy islohotlari (maktab, matbaa, ilmiy asarlar) o‘rtasidagi uzviy sabab-oqibat bog‘liqligini tahlil qilishdan iborat.

Ibratning islohotchilik faoliyatini tushunish uchun uning sayohatgacha bo‘lgan davrdagi mag‘lubiyatini anglash muhimdir. 1886-yili Qo‘qondagi madrasa tahsilini tugatib, o‘z qishlog‘i To‘raqo‘rg‘onga qaytgan Ibrat, o‘sha yiliyoq ma’rifat tarqatish maqsadida maktab ochadi. Bu maktab “usuli qadim” (“usuli tahajji” – hijolash) asosida emas, balki Ibrat

Qo‘qondaligida rus-tuzem maktablaridan kuzatgan nisbatan ilg‘or “usuli savtiya” (tovush metodi) asosida faoliyat yuritgan.
Biroq, bu “proto-jadid” tashabbusi keskin qarshilikka uchradi. Ayrim mutaassib kuchlar uning maktabini “kofirlar maktabi” deb e’lon qilib, general-gubernatorlik amaldorlari yordamida yoptirishga muvaffaq bo‘ladilar.

Bu 1886-yilgi mag‘lubiyat Ibrat uchun burilish nuqtasi bo‘ldi. U islohot uchun birgina g‘oya va ishtiyoq kifoya emasligini, buning uchun puxta o‘ylangan metodologiya, mustaqil moddiy-texnik baza (darsliklar, nashriyot) va mahalliy mutaassublardan yuqori turadigan global bilim va obro‘ zarurligini angladi. Aynan shu ehtiyoj uning 1887-yilgi buyuk sayohatiga asosiy intellektual turtki bo‘ldi.
Ibratning qariyb o‘n yil davom etgan sayohati ikki asosiy maqsadni ko‘zlagan edi. Birinchisi, onasi Huribibining iltimosi bilan haj ziyoratini amalga oshirish. Ikkinchisi, “chet el xalqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish”.

Sayohatni quyidagi asosiy bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1. Yaqin Sharq (1887-1888): 1887-yili, 25 yoshida onasi bilan Makkaga haj ziyoratiga boradi. Biroq, ziyoratdan so‘ng Jidda shahrida onasi vafot etadi. Onasini shu yerda dafn etgan Ibrat vatanga qaytmay, sayohatning ikkinchi – ma’rifiy maqsadini amalga oshirish uchun yo‘lni davom ettiradi va bir muddat Jidda hamda Arabistonning boshqa shaharlarida yashaydi.
2. Yevropa va Usmoniylar (1888-1891): Ibrat G‘arb bilan bevosita tanishish uchun Yevropaga yuzlanadi. U Usmoniylar poytaxti Istanbulda, so‘ngra Bolgariyaning Sofiya, Gresiyaning Afina va Italiyaning Rim shaharlarida bo‘ladi. Aynan shu yerda u “Yevropa usulidagi shaharlar, ulardagi madaniy hayot va texnika yangiliklari”ni o‘z ko‘zi bilan kuzatadi.
3. Markaziy va Janubiy Osiyo (1891-1896): Yevropada olgan taassurotlarini Sharq bilan qiyoslash maqsadida u Afg‘onistonning Qobul shahrida “ancha vaqt” istiqomat qiladi. Sayohatning eng muhim va mahsuldor qismi Hindistonda kechadi (1892-1896). U Britaniya Hindistonining eng yirik port va sanoat markazlari bo‘lgan Bombey va

Kalkutta shaharlarida yashaydi.

4. Vatanga qaytish (1896): 1896-yili Ibrat Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so‘ngra Qashg‘ar (Sharqiy Turkiston) orqali ulkan taassurotlar va bilimlar zaxirasi bilan To‘raqo‘rg‘onga qaytadi.

Ibratning sayohati uning tafakkurida inqilob yasadi va jadidchilik platformasini shakllantirdi.

Ibratning kuzatuvlari ikki tomonlama edi. Bir tomondan, u Istanbul, Rim, Bombey va Kalkuttada G‘arb texnologiyalari, “texnika yangiliklari” va ilm-fanning taraqqiyotdagi o‘rnini ko‘rib, buni Turkistonga olib kelish zarurligini angladi. Ikkinchi tomondan, u “mustamlaka zulmi ostida azob chekayotgan arab, hind va boshqa Sharq xalqlari hayoti”ni kuzatdi. U hamma mustamlaka mamlakatlarda xalq hayoti bir xilda og‘ir ekanini tushundi.

Bu kuzatuvlar Ibrat tafakkurida jadidchilikning asosiy paradoksini shakllantirdi. Ilm-fan va texnologiyani G‘arbdan (Rossiya/Yevropa) olish kerak, ammo buni aynan o‘sha G‘arbning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish uchun qilish kerak.

Sayohat Ibratga til bilishning hayotiy ahamiyatini ko‘rsatdi. Uning o‘zi ta’kidlaganidek, “bir lison safar ahlina yuz oltun barobarinda ishladi”. U Hindistonda yashab, “arba’ lisonni, ya’ni to‘rt tilni: arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rgandi”. Arabistonda fransuz tilini, bundan tashqari, “eng qadimiy finikiya, yahudiy, suriya, yunon yozuvlarini o‘rgandi”. Bu izlanishlar uning keyingi fundamental asarlari uchun asos bo‘ldi.

Ibrat vatanga qaytgach, sayohat taassurotlarini aniq amaliy islohotlarga aylantirdi.

Ibratning ikki yirik ilmiy asari uning sayohat tajribasining bevosita mahsulidir. “Lug‘ati sittati alsina” (1901) asari uning Hindiston va Arabistondagi ko‘p tilli muhiti va til o‘rganish tajribasi (yuz oltun barobarinda) natijasi o‘laroq yaratildi. “Jome’ ul-xutut” (1912) esa uning sayohat davomida o‘rgangan qadimiy yozuvlari (finikiya, yahudiy, yunon va b.) bo‘yicha tadqiqotlarining cho‘qqisi bo‘lib, asarda 41 xil yozuv tizimi haqida ma’lumot berilgan.

“Usuli savtiya” maktabi (1907): Agar 1886-yilgi maktab muvaffaqiyatsiz “proto-jadid” urinishi bo‘lsa, 1907-yili qayta ochilgan yangi maktab sayohat tajribalari bilan qurollangan, puxta o‘ylangan islohot edi. Bu safar Ibrat G‘arbda sinalgan metodologiya va o‘zi nashr qildirgan darsliklar bilan mutaassiblarga qarshi tura oldi.

Ibrat islohotlarining cho‘qqisi va uning sayohatining eng aniq amaliy natijasi – bu uning shaxsiy bosmaxonasidir. Yevropada va Hindistonda ko‘rgan “texnika yangiliklari” va nashriyot ishining taraqqiyotdagi o‘rnini ko‘rib, millatni ma’rifatli qilish uchun mustaqil matbaa zarurligini angladi. U 1908 yili Orenburgga borib, litografik mashinani sotib oladi va uni “Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarda olib” keladi. Ushbu matbaa uning maktabi uchun darsliklar va ilmiy asarlarini (“Jome’ ul-xutu” shu yerda chop etilgan) nashr etish orqali islohotlarning mustaqil texnik bazasiga aylandi.

Is’hoqxon Ibratning 1887-1896 yillardagi o‘n yillik sayohati shunchaki dunyo kezish emas, balki aniq maqsadli ilmiy-tadqiqot missiyasi bo‘lgan. Bu sayohat uning jadidchilik tafakkurini shakllantiruvchi asosiy omil bo‘ldi.

1886-yilgi mag‘lubiyatdan so‘ng u islohot uchun nimalar kerakligini aniqlash maqsadida yo‘lga chiqdi. Sayohat unga ikkita muhim narsani berdi. Birinchisi, Tashxis (Turkistonning mustamlaka sharoitidagi qoloqligi, buni u Hindiston va Arabistonda ham ko‘rdi) va ikkinchisi, davo (G‘arbning ilm-fani, ta’lim metodologiyasi va nashriyot texnologiyalari).

Vatanga qaytgach, u 1886-yilgi xatosini takrorlamadi. U avval “Matbaai Is’hoqiya” orqali islohotning moddiy-texnik bazasini yaratdi, so‘ng “usuli savtiya” maktabi orqali ma’rifiy g‘oyalarini va “Lug‘ati sittati alsina”, “Jome’ ul-xutut” orqali ilmiy salohiyatini tarqatdi. Shu tariqa, Ibratning sayohati uning mahalliy islohotchilik istagini barqaror, amaliy va tizimli jadidchilik dasturiga aylantirdi.

ADABIYOTLAR:

1. Ibrat I. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchilar: U. Dolimov, N. Jabborov. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2020. – 200 b.

2. Boltaboyeva O. Is’hoqxon to‘ra Ibrat: Hayoti va adabiy faoliyati / Mas’ul muharrir: N. Jabborov. – Namangan: ARJUMAND MEDIA, 2021. – 204 b.
3. Ibrat I. Mezon uz-zamon / Nashrga tayyorlovchilar: U. Dolimov, N. Jabborov. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2005.
4. Ibrat I. Tarixi Farg‘ona / Nashrga tayyorlovchilar: U. Dolimov, N. Jabborov. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2005.
5. Dolimov U. Jadidlar. Is’hoqxon to‘ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 180 b.
6. Vohidova K. A. Is’hoqxon Junaydullohxo‘ja o‘g‘li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari) / Mas’ul muharrir: D. A. Alimova. – Namangan, 2018. – 225 b.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISH SHAROITIDA AKADEMIK ERKINLIK VA ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI.

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti “Magistratura bo‘limi” boshlig‘i, “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni barpo etish sharoitida akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zaro uyg‘unligi nazariy-metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ma’naviy qadriyatlar, ilmiy tafakkur va erkin fikrlashning o‘zaro bog‘liqligi yagona ma’naviy makonni shakllantirishning muhim pedagogik omili sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: akademik erkinlik, konvergentsiya tushunchasi, mustaqil fikrlash, pedagogik jarayon, konseptual yondashuv, innovatsion

pedagogik muhit, ilmiy tadqiqot, refleksiv tadqiqot, zamonaviy ta’lim, ilmiy izlanish, intellektual rivojlanish.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni barpo etish jarayonida akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zaro uyg‘unligi pedagogik tizimning ichki yaxlitligini ta’minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur uyg‘unlik oliy ta’lim tizimida mazmun, metod, subyekt va natijalar o‘rtasidagi aloqadorlikning kuchayishi orqali ifodalanadi. Agar an’anaviy ta’lim modellarida akademik erkinlik va ilmiy izlanishlar nisbatan mustaqil yoki formal komponentlar sifatida talqin etilgan bo‘lsa, zamonaviy kontekstda ular yagona ma’naviy-aksiologik asosga tayanadigan integrallashgan pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning intellektual faolligini kuchaytirish hamda ilmiy bilimlarning ma’naviy va ijtimoiy ahamiyatini mustahkamlash imkonini beradi.

Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zaro uyg‘unligi tizimli va sinergetik yondashuvlar bilan uzviy bog‘liqdir. Tizimli yondashuvga ko‘ra, oliy ta’lim jarayoni o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan yaxlit tuzilma bo‘lib, unda akademik erkinlikning kengayishi ilmiy izlanishlar sifatiga, ilmiy faoliyatning rivojlanishi esa ma’naviy muhit barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Sinergetik yondashuv esa ushbu uyg‘unlik natijasida ichki intellektual resurslarning faollashuvi, talabaning ilmiy subyektivligi shakllanishi va ma’naviy-aksiologik pozitsiyasining mustahkamlanishini asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining integratsiyasi yagona ma’naviy makonni mustahkamlovchi sinergetik pedagogik mexanizm sifatida talqin etiladi.

Material va metodlar. Mazkur maqolada akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergentsiya jarayonini o‘rganishda nazariy va ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot materiallari sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) hisobotlari hamda xorijiy va mahalliy oliy ta’lim muassasalari tajribalari tahlil qilindi.[1]

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, tizimlashtirish, umumlashtirish va konseptual tahlil metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar akademik erkinlikning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati bilan o‘zaro uyg‘unlashuvini aniqlash, ularning pedagogik jarayondagi o‘rni va ahamiyatini asoslashga xizmat qildi.

Asosiy qism. Keling endi “konvergentsiya” tushunchasining ilmiy tildagi izohini izlash orqali ushbu maqoladagi fikrlarimizni bayon qilsak.

Konvergentsiya **-** bu ikki yoki undan ortiq mustaqil jarayonlarning o‘zaro yaqinlashuvi, integratsiyalashuvi va yagona funksional tizimga aylanishi jarayoni bo‘lib, pedagogik nuqtai nazardan, konvergentsiya ta’lim hodisalarining izolyatsiyalangan holatdan uzviy, tizimli va sinergetik birlikka o‘tishini anglatadi.[2]

Konvergentsiya tushunchasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta’lim jarayonlarining murakkablashuvi, fanlararo integratsiya va ta’lim-fan-innovatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kuchayib borayotgan sharoitda alohida ahamiyat kasb etib bormoqda.

Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida konvergentsiya, avvalo, ta’lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatining yaqinlashuvi orqali namoyon bo‘lmoqda. Ilmiy tadqiqotlar ta’lim jarayonidan ajratilgan mustaqil faoliyat sifatida emas, balki ta’lim mazmunining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Bu holat talabalarning bilimlarni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda akademik erkinlik alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Akademik erkinlik talabalarga ilmiy muammoni tanlash, tadqiqot metodlarini belgilash, ilmiy gipotezalarni ilgari surish va natijalarni mustaqil talqin qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati akademik erkinlikning amaliy ifodasi bo‘lib, uning real pedagogik jarayonda ro‘yobga chiqishini ta’minlaydi. Demak, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasida dialektik o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ularning konvergentsiyasi zamonaviy oliy ta’limning muhim qonuniyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergentsiyasi sharoitida talaba ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki ilmiy izlanishning faol subyekti sifatida shakllanadi. Bunday sharoitda o‘qituvchi

esa bilimlarni tayyor holda uzatuvchi emas, balki ilmiy mentor, maslahatchi va yo‘naltiruvchi rolini bajaradi. Bu esa pedagogik jarayonda subyekt–subyekt munosabatlarining qaror topishiga olib keladi.[4]

Konvergent yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati talabalarda tanqidiy fikrlash, refleksiya, mustaqil qaror qabul qilish va ilmiy mas’uliyat kabi muhim kompetensiyalarni rivojlantiradi. Mazkur kompetensiyalar esa akademik erkinlik mavjud bo‘lmagan sharoitda to‘liq shakllanmaydi. Shu bois akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zaro integratsiyasi talabalarning kasbiy va ilmiy salohiyatini rivojlantirishning zaruriy sharti sifatida qaraladi.

Shuningdek, konvergentsiya jarayoni ta’lim mazmunining fanlararo va muammoga yo‘naltirilgan xarakter kasb etishiga ham olib keladi. Ilmiy tadqiqotlar real muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, ularning yechimi turli fanlar bilimlarini integratsiya qilishni talab etadi. Natijada ta’lim jarayoni nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirgan holda tashkil etiladi, bu esa bilimlarning barqaror va ongli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.[6]

Konvergentsiya pedagogik kategoriya sifatida ta’lim hodisalarining izolyatsiyalangan holatdan uzviy, tizimli va sinergetik birlikka o‘tishini ifodalaydi. Akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati konvergentsiyasi esa zamonaviy oliy ta’limda talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirish, ta’lim jarayonining innovatsion xarakterini ta’minlash va oliy ta’lim tizimining barqaror rivojlanishiga erishishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘rtasidagi konvergentsiya zamonaviy oliy ta’lim tizimida muhim pedagogik qonuniyat sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatdi. Akademik erkinlik faqatgina ta’lim subyektlarining huquqiy yoki institutsional mustaqilligi bilan chegaralanmay, balki talabaning ilmiy subyektivligini shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda refleksiv tadqiqotchilik kompetensiyalarini qaror toptirishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.[1]

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati akademik erkinlik muhitisiz to‘laqonli rivojlana olmaydi. Aksincha, ilmiy

izlanishlar, mustaqil tadqiqot topshiriqlari, muammoli vaziyatlar va ilmiy muloqotlar orqali akademik erkinlikning real mazmuni ochiladi. Shu jihatdan, akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi, kuchaytiruvchi va rivojlantiruvchi integrativ tizimni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni barpo etish sharoitida akademik erkinlik va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy oliy ta’lim tizimining strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur uyg‘unlik talabalarning ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni intellektual jihatdan yetuk, mustaqil va ma’naviy mas’uliyatli mutaxassislar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, akademik erkinlikni kengaytirish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini ta’lim jarayonining markaziy, ma’naviy-aksiologik asosga ega komponenti sifatida qaror toptirish yagona ma’naviy makonning barqarorligini ta’minlovchi muhim pedagogik shart hisoblanadi. Shu bois oliy ta’lim tizimida akademik erkinlik va ilmiy izlanishlar uyg‘unligini ta’minlash ma’naviy barkamol, intellektual mustaqil va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni tarbiyalashning zaruriy omili sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UNESCO. *Reimagining our futures together: A new social contract for education* : global strategic report [Electronic resource]. – Paris : UNESCO, 2021. – Available at: https://unesdoc.unesco.org

2. *Гуревич П., Филатов О.* Философия и история образования. От античности до эпохи Просвещения. 2- е изд.- Москва: Юрайт, 2017. 230 с.

3. *Елишев С.О.* Эпоха просвещения и ее идеология: начало эры социального манипулирования.// Вестник Московского университета. 2022, №28 (4). С. 116-145.

4. *Кант И.* О педагогике. Собрание сочинения в восьми томах. Том 8.- Москва: Мысль, 1994. 720.с.

5. “Ta’lim o‘rinsiz tajribalarni xushlamaydi” // “O‘zbekistonda oliy ta’lim”, 2022, №4. 64- 65 b.

6. *Перегудов Л.В., Саидов М.Х.* Олий таълим менежменти вап иқтисодиёти.-Тошкент: Молия, 2002. 149 б.

7. *Salaeva M.S.* Umumiy pedagogika. – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021. - 598 b.

8. *Edwards R., Usher R.* Globalization and Pedagogy Spase Plase and Identity. – *New York*, 1999. – 602 p.

9. *Xoliqov A.* Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod -moliya, 2011. – 420 b.

10. *Старикова Л.* История педагогки и философия образованния. Учебник. 3 е изд. - Москва: Юрайт, 2018. С 5-8

YANGI O‘ZBEKISTONDAGI USTUVOR QADRIYATLAR

Abdullayev Elmurod Bozarboy o‘g‘li.
Andijon davlat pedagogika instituti Kengash kotibi,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya. Yangi O‘zbekiston davridagi asosiy tamoyillar sifatida quyidagilarni alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin: qonun ustuvorligi, sud-huquq islohotlari, fikr, so‘z va e’tiqod erkinligi, davlat boshqaruvida hisobdorlik, fuqaroga xizmat qiluvchi davlat modeli, tarixiy merosga hurmat, insonparvarlik, ma’rifiy uyg‘onish. Bu qadriyatlar Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolada shu haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida”, ustuvor qadriyatlar, adolat, erkinlik, ochiqlik va shaffoflik, xalqchil davlat, milliy g‘urur va tarixiy xotira, ma’naviyat va ma’rifat.

Zamon o‘zgarar ekan, insoniy qadriyatlar ham o‘zgaradi. Har bir yangi davr o‘ziga xos qadriyatlar tizimini, yangicha qarashlar va ma’naviy mezonlarni shakllantiradi. Bu jarayon tasodifiy emas. Qadriyatlar tizimining almashinuvi ortida chuqur va tabiiy bir qonuniyat yotadi bu inson ehtiyojlarining muttasil o‘sib borishi, rivojlanishi va insoniyatning erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmasligi qonunidir. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har bir davr o‘zining ma’naviy-intellektual salohiyatiga tayangan holda yangi qadriyatlar tizimini vujudga keltirganini ko‘ramiz. Bu tizimda esa ma’lum tayanch qadriyatlar jamiyat va inson ehtiyojlarini muayyan davr doirasida qondira oladigan yadro tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, bir davrda erkinlik va adolat asosiy qadriyat sifatida e’zozlangan bo‘lsa, boshqa bir davrda ilm-fan, taraqqiyot va innovatsiya yetakchi qadriyatga aylanishi mumkin. Bu esa inson tafakkurining cheklanmaganligini, uning doimo yangilik sari intilishini yana bir bor isbotlaydi.

Qadriyatlarning almashuvi bu eski qadriyatlar inkor qilinmoqda degani emas. Aksincha, ular zamon ruhi, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va intellektual ehtiyojlarga mos tarzda qayta talqin qilinadi, boyitiladi, ba’zida esa ustuvorlik jihatdan orqa fonda qoladi. Bugun insoniyat global muammolar, texnologik taraqqiyot va ma’naviy izlanishlar poyoniga yetgan bir paytda, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar yanada jadallashdi. Endilikda qadriyatlar nafaqat milliy va mahalliy ehtiyojlarga, balki butun insoniyat taqdiriga daxldor muammolarni hal etishga xizmat qilishi kerak bo‘lmoqda. Shu bois, qadriyatlar tizimi bu muzlab qolgan to‘plam emas, balki inson hayoti bilan birga nafas oladigan, rivojlanadigan va doimiy ravishda yangilanadigan ijtimoiy-ma’naviy mexanizmdir. U insonning ichki dunyosi, orzulari, maqsadlari va hayotiy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir tarixiy bosqichda jamiyat taraqqiyotining ma’naviy ko‘zgusiga aylanadi. Insoniyat taraqqiyoti hech qachon bir maromda kechmagan.

Har bir bosqichda yangi ehtiyojlar, yangi maqsadlar va yangi qarashlar vujudga kelgan. Bu esa o‘z-o‘zidan qadriyatlar tizimini ham o‘zgartirishni, uni yangilashni taqozo etgan. Insoniyat tarixining muhim burilish nuqtalarida aynan qadriyatlarning yangilanishi, ijtimoiy

taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanganini ko‘rishimiz mumkin. Tarixiy haqiqat shuki, jamiyat faqat mavjud qadriyatlarga suyanib yashay olmaydi. U yangi sharoit va yangi ma’naviy ehtiyojlar asosida yangicha qadriyatlar tizimini yaratishga majbur bo‘ladi. Ishlab chiqarish texnologiyalari, siyosiy boshqaruv shakllari, ijtimoiy munosabatlar tizimi ham aynan mana shu ehtiyojlar zaminida o‘zgaradi, takomillashadi. Dastlab diniy qadriyatlar inson tafakkurining asosiy manbasi bo‘lib xizmat qilgan. Ammo vaqt o‘tishi bilan bu qadriyatlar insoniyatning tobora murakkablashib borayotgan ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaslik darajasiga yetdi.

Ayniqsa, XVII–XVIII asrlarda bu holat yaqqol sezila boshladi. Insoniyat olamni yangicha idrok etishga, tabiat sirlarini ochishga, inson shaxsining yangi tipini shakllantirishga intildi. Bunday intilish esa yangi, ya’ni **ilmiy qadriyatlar tizimi**ni vujudga keltirish zaruratini paydo qildi. Bu jarayon, avvalo, **hurfikrlilik** g‘oyasining shakllanishi orqali ro‘y berdi. Hurfikrlilik - diniy cheklovlardan chiqib, tafakkur erkinligi asosida haqiqatni izlash g‘oyasini ilgari surdi. Aynan shu zamin bag‘rida ilmiy fikr, tadqiqotga asoslangan yondashuvlar, ilm-fanga asoslangan qadriyatlar kurtak yoza boshladi. Markaziy Osiyo ilm-fan tarixida o‘zining yorqin izini qoldirgan Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi ulug‘ allomalar aynan ilmiy qadriyatlar rivoji yo‘lida bebaho hissa qo‘shgan mutafakkirlar edi. Ular diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirib, ilm-fan taraqqiyoti orqali jamiyatga xizmat qilish mumkinligini isbotladilar. Ammo Yevropa bu borada o‘ziga xos tarixiy burilish bosqichini boshdan kechirdi. XVII–XVIII asrlarda sodir bo‘lgan burjua inqiloblari - diniy qadriyatlarning jamiyat hayotidagi mutlaq hukmronligiga chek qo‘yishga, ilmiy tafakkur, erkin fikr va inson huquqlari asosida yangi jamiyatni barpo etishga intildi. Endi jamiyat taraqqiyoti din asosida emas, balki ilm-fan, texnika, tafakkur va tajriba asosida qurilishi kerak degan tamoyil ustuvor bo‘lib qoldi. Bu davr insoniyat tarixida bejizga “**Yangi zamon**” nomi bilan tilga olinmaydi. Bu - **shaxs erkinligi, tafakkur ustuvorligi, ilm-fan taraqqiyoti, erkin jamiyat** va **xalq manfaati** uchun kurash davri edi. Aynan shu davrda ilmiy qadriyatlar butun jamiyat hayotini shakllantirishda markaziy o‘ringa chiqdi. Bugungi kunda ham biz shunday

tarixiy tajribalardan saboq olib, qadriyatlar tizimining zamon bilan uyg‘un holda shakllanishini ta’minlashimiz zarur. Zero, qadriyatlar hayotni belgilaydi, qadriyatlar jamiyatni oldinga yetaklaydi. Mustaqillik yillarida qadriyatlarning mohiyati, mazmuni, tuzilmasi va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni chuqur tahlil etila boshlandi. Bu jarayonda ijtimoiy fanlar falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va boshqa yo‘nalishlar muhim rol o‘ynay boshladi. Ayniqsa, qadriyatlarning komil inson tarbiyasidagi o‘rni, millatlararo totuvlik va fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati ustuvor mavzuga aylandi. Bugungi kunda qadriyatlar masalasi faqat ilmiy muhokama emas bu har bir fuqaroning, har bir jamiyat a’zosining shaxsiy va jamoaviy hayotida dolzarb o‘rin tutuvchi masaladir. Zero, qadriyatlarsiz millat o‘zligini yo‘qotadi, jamiyat esa yo‘nalishini. Shu bois, qadriyatlarni chuqur o‘rganish, ularga tayanib yashash taraqqiyot sari intilayotgan har bir davlat uchun hal qiluvchi omildir.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekistonning taraqiyot strategiyasi. T. “Adolat”. 2022 y. www.lex.uz
2. Qodirov M. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Nazarov Q. Aksiologik yondashuvlar va qadriyatlar evolyutsiyasi. – Falsafa va huquq jurnali, 2020, № 2.
4. Ibragimova S. Jamiyat va shaxs qadriyatlar tizimida. – O‘zbekiston falsafiy merosi, 2021.
5. Tuxliyev A. Ijtimoiy qadriyatlar va ularning barqarorlikdagi o‘rni. – TDIU nashriyoti, 2022.
6. To‘xtaev H. Aksiologiya va zamonaviy qadriyatlar. – UZA.uz maqolasi, 2023.

MA’NAVIY MAKON VA KITOBXONLIK UYG‘UNLIGI: YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Bektursinova Gulmira Joldasbaevna
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) O‘zDSMI Nf Madaniyat faoliyati kafedrasi oqituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy makonni shakllantirish va rivojlantirish jarayonida kitobxonlik madaniyatining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda kitobxonlikning jamiyat ma’naviy hayotiga ta’siri, yoshlar ongida ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlashdagi roli hamda davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, ma’naviy makon va kitobxonlik uyg‘unligining ijtimoiy barqarorlik, intellektual salohiyat va milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif hamda xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar. ma’naviy makon, kitobxonlik madaniyati, Yangi O‘zbekiston, ma’naviy taraqqiyot, yoshlar ma’naviyati, mutolaa, milliy qadriyatlar, intellektual salohiyat.

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy makonni rivojlantirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bu borada **Shavkat Mirziyoyev** o‘z chiqishlarida jamiyat taraqqiyoti, avvalo, insonning ma’naviy saviyasi va dunyoqarashiga bog‘liqligini alohida ta’kidlab keladi. Ushbu qarashlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish orqali ma’naviy makonni mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi. Prezident tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarda yoshlarning bilimli, mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli bo‘lib voyaga yetishi muhim vazifa sifatida belgilanadi. Bu jarayonda kitob inson tafakkurini shakllantiruvchi asosiy manba ekanligi e’tirof etiladi. Shundan kelib chiqib, kitobxonlikni rag‘batlantirish nafaqat

madaniy, balki strategik ahamiyatga ega bo‘lgan masala sifatida qaralmoqda.[1]

Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy-ma’rifiy islohotlar kitobxonlik bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshirilmoqda. Prezident qarashlarida ma’naviy yuksalish kitobsiz, mutolaasiz bo‘lishi mumkin emasligi qayta-qayta ta’kidlanadi. Bu esa jamiyatda kitobga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishni talab etadi. Kitobxonlikni rivojlantirish orqali yoshlarni ma’naviy bo‘shliqdan asrash, ularni zararli axborotlardan himoyalash mumkin. Shu ma’noda, kitob nafaqat bilim manbai, balki ma’naviy himoya vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu fikrlar ma’naviy makon va kitobxonlik uyg‘unligining davlat siyosatidagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

Prezident qarashlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, ma’naviy makon insonning ichki dunyosi bilan bevosita bog‘liq. Kitob esa ana shu ichki dunyoni boyitadi, insonni fikrlashga va o‘z ustida ishlashga undaydi. Kitob o‘qigan shaxs jamiyatdagi voqealarga befarq bo‘lmaydi, ularni tushunishga va baholashga harakat qiladi. Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida kitobxonlik jamiyatda ijtimoiy qadriyat sifatida qaralmoqda. Bu holat ma’naviy makonning yanada barqarorlashuviga, jamiyatda sog‘lom fikr va mas’uliyatli munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.[2]

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, intellektual salohiyatni yuksaltirish va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu jarayonda kitobxonlik madaniyati ma’naviy makonni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois ma’naviy makon va kitobxonlik uyg‘unligini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy makon jamiyat a’zolarining axloqiy qarashlari, madaniy qadriyatlari, intellektual darajasi va dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtirgan murakkab ijtimoiy hodisadir. U tarixiy xotira, milliy an’analar, ta’lim-tarbiya tizimi, madaniyat va axborot muhitining uzviy birligida shakllanadi. Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’naviy makon davlat va jamiyat hamkorligida rivojlantirilayotgan tizimli jarayon sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda shaxsning ongli ravishda ma’naviy kamol

topishi, tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy mas’uliyat hissining kuchayishi muhim mezon hisoblanadi.[3]

Kitobxonlik madaniyati inson tafakkurini boyituvchi, uning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi va intellektual salohiyatini oshiruvchi asosiy vositalardan biridir. Mutolaa jarayoni shaxsning til boyligini kengaytiradi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda axloqiy-me’yoriy qarashlarini shakllantiradi. Shu jihatdan kitobxonlik ma’naviy makonning ichki mazmunini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonda kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar, ayniqsa yoshlar orasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyat ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar kitobxonlikni ma’naviy makonning ajralmas qismi sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalarida, madaniyat va axborot tizimida kitobxonlikni targ‘ib etishga qaratilgan dasturlar jamiyatda mutolaa muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu uyg‘unlik natijasida yosh avlodning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabati mustahkamlanib, ularning ijtimoiy faolligi va fuqarolik pozitsiyasi kuchaymoqda.[4]

Shu bilan birga, raqamli axborot oqimining kuchayishi, yuzaki axborotga qiziqishning ortishi kitobxonlik madaniyatiga ma’lum darajada salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat ma’naviy makonda chuqur tafakkur va mutolaa madaniyatini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kitobxonlikni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish, oilaviy va ijtimoiy muhitda mutolaa an’analarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy makonning shakllanishida ijtimoiy muhit muhim o‘rin tutadi. Oila, ta’lim muassasalari va jamiyatda mavjud ma’naviy muhit shaxsning kitobga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Agar bolalikdan mutolaa odati shakllantirilsa, bu holat shaxsning butun hayoti davomida uning ma’naviy ehtiyojiga aylanadi. Shu sababli kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish faqat ta’lim tizimi vazifasi emas, balki butun jamiyat zimmasidagi mas’uliyatdir.

Yangi O‘zbekistonda kitobxonlikni targ‘ib etish orqali sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish maqsad qilingan. Bu jarayonda kitob insonni fikrlashga, tahlil qilishga va o‘z pozitsiyasini anglashga o‘rgatadi. Natijada shaxsning ma’naviy makondagi faolligi ortadi. Yoshlar jamiyatning eng faol va harakatchan qatlami hisoblanadi. Ularning ma’naviy dunyoqarashi jamiyat kelajagini belgilaydi. Kitobxonlik yoshlarning tafakkurini kengaytiradi, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Shuningdek, mutolaa yoshlarni zararli g‘oyalardan himoya qilishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.[5]

Bugungi kunda axborot oqimi juda tez. Har bir ma’lumot ham foydali emas. Kitobxonlik esa yoshlarni axborotni tanlashga, uni tushunishga va xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Shu jihatdan qaraganda, kitob ma’naviy makonni tozalovchi va boyituvchi omil hisoblanadi. Ma’naviy barqaror jamiyatda fikrlar izchil, qadriyatlar mustahkam bo‘ladi. Kitobxonlik ana shu barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Mutolaa orqali shaxs o‘zini anglaydi, jamiyatdagi o‘rnini tushunadi va ijtimoiy mas’uliyatni his etadi. Bu holat jamiyatda ma’naviy muvozanatni saqlashga yordam beradi.[6]

Yangi O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlikka e’tibor qaratilgan muhitda ma’naviy faollik yuqori bo‘ladi. Bunday jamiyatda ilm-fan, madaniyat va taraqqiyot o‘zaro uyg‘un holda rivojlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy makonning barqarorligi jamiyat a’zolarining intellektual faolligi va madaniy ehtiyojlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Kitobxonlik ushbu ehtiyojlarni qondiruvchi eng samarali vositalardan biri bo‘lib, u shaxsning axloqiy qarashlari, estetik didi va tanqidiy tafakkurini shakllantiradi. Yangi O‘zbekiston sharoitida kitobxonlikka bo‘lgan e’tibor nafaqat madaniy hodisa, balki strategik ijtimoiy resurs sifatida namoyon bo‘lmoqda.[7]

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kitobxonlik rivojlangan jamiyatlarda ma’naviy makon yanada mustahkam bo‘lib, unda ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik mas’uliyati yuqori darajada shakllanadi. Aksincha, mutolaa madaniyati sustlashgan muhitda yuzaki tafakkur, axborotga tanqidiy yondashmaslik holatlari kuchayadi. Shu jihatdan qaraganda, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy siyosat kitobxonlikni

jamiyat ma’naviy makonining asosiy tayanchlaridan biri sifatida qaralayotganini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M**.** Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Yo‘ldoshev J. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
4. Abdullayeva M. Jamiyat ma’naviy makoni va madaniy rivojlanish masalalari. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Jo‘rayev T. Kitobxonlik madaniyati va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
6. Xolmirzayev A. Madaniyat va ma’naviy taraqqiyot uyg‘unligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.
7. Qodirov B. Globallashuv sharoitida madaniyat va ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

ZJV5401

MA’RIFIY TEXNOLOGIYALAR TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIY BIRDAMLIKNI TA’MINLASHNING STRATEGIK PARADIGMASI (O‘zbekiston – 2030 misolida)

Abdullayev Sardorbek Usmonxudjayevich
IIV Akademiyasi Xizmat psixologiyasi
va kasbiy madaniyati kafedrasi dotsenti,
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
PhD, dotsent

Aliqulov O‘ktam Yusupovich
Ismadiyorov Abdug‘ffor Abdujabborovich
o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida jamiyatni jipslashtirish, yagona ma’naviy makonni shakllantirish hamda fuqarolar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’rifiy texnologiyalar transformatsiyasining strategik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda an’anaviy va raqamli ma’rifiy texnologiyalarning evolyutsiyasi, ularning ijtimoiy integratsiyani ta’minlashdagi funksional salohiyati ochib beriladi hamda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashning paradigmal modeli asoslanadi.

Kalit so‘zlar: ma’rifiy texnologiya, transformatsiya, ijtimoiy birdamlik, ma’naviy makon, raqamli ma’rifat, ijtimoiy integratsiya, strategik paradigma.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar jamiyat taraqqiyotining barcha sohalarini qamrab olgan holda, inson omilini ustuvor qadriyat sifatida e’tirof etmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish va jamiyat birligini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Mazkur strategik vazifalarni amalga oshirishda ma’rifiy texnologiyalar tizimini transformatsiya qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti ijtimoiy birdamlik darajasiga bevosita bog‘liq. Sotsiologik nazariyalarda ijtimoiy birdamlik jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi ma’naviy qadriyatlar, me’yorlar va ijtimoiy maqsadlar uyg‘unligi orqali izohlanadi. E.Dyurkgeym ijtimoiy birdamlikni “axloqiy birlik” sifatida talqin qilib, jamiyatni barqaror tutib turuvchi asosiy omil sifatida umumiy ma’naviy me’yorlarni ko‘rsatadi [2]. Demak, zamonaviy modernizatsiya sharoitida jamiyatni birlashtirishning eng samarali yo‘li – yagona ma’naviy makonni shakllantirishdan iborat.

Ma’naviy makon tushunchasi jamiyatda shakllangan qadriyatlar tizimi, tarixiy xotira, milliy g‘oya, ijtimoiy ong va fuqarolik mas’uliyatining integratsiyalashgan majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu makon fuqarolarning davlat siyosatiga munosabatini, ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini hamda jamiyat manfaatlariga daxldorlik hissini belgilaydi. Ma’rifiy texnologiyalar esa mazkur makonni shakllantirish va rivojlantirishning asosiy kommunikativ mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ma’rifiy texnologiyalar transformatsiyasi, avvalo, ularning mazmuni, shakli va ta’sir mexanizmlarining zamonaviylashuvi bilan tavsiflanadi. An’anaviy davrda ma’rifiy ta’sir asosan ta’lim tizimi, matbuot, madaniy tadbirlar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda raqamli kommunikatsiya vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, multimedia platformalar mazkur jarayonning asosiy drayveriga aylanmoqda [3]. Bu esa ma’rifiy texnologiyalarni yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda.

Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari kuchaygan sari axborot makonida raqobat ham ortib bormoqda. Turli destruktiv g‘oyalar, axborot xurujlari va madaniy ekspansiya jarayonlari jamiyat ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois aholining mafkuraviy immunitetini shakllantirish strategik zaruratga aylanmoqda. Mafkuraviy immunitet shaxsning axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, yot g‘oyalarga nisbatan barqaror pozitsiyani saqlash qobiliyatini anglatadi [4]. Uni rivojlantirishda transformatsiyalashgan ma’rifiy texnologiyalar hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Raqamli ma’rifiy texnologiyalar ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Onlayn ta’lim platformalari, virtual targ‘ibot loyihalari, ma’naviy-ma’rifiy kontentlar jamiyatning turli qatlamlarini qamrab olish imkonini bermoqda. Ayniqsa

yoshlar auditoriyasiga ta’sir ko‘rsatishda vizual, interaktiv va qisqa formatdagi kontentlar samaradorligi yuqori ekani kuzatilmoqda [5]. Shu bois ma’naviy targ‘ibot tizimini raqamlashtirish zamonaviy strategik yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Biroq transformatsiya jarayonida an’anaviy ma’rifiy institutlarning o‘rni ham saqlanib qoladi. Ta’lim tizimi, mahalla institutlari, madaniyat markazlari va ommaviy axborot vositalari ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashning institutsional poydevorini tashkil etadi. Ularning o‘zaro integratsiyasi yagona ma’naviy makonni shakllantirishning tizimli mexanizmini yaratadi.

Ma’rifiy texnologiyalar transformatsiyasining strategik paradigmasi quyidagi komponentlar asosida shakllanadi: raqamli ma’rifat platformalari, hududiy ma’naviy markazlar, ta’lim tizimi, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy kommunikatsiya vositalari. Mazkur komponentlarning funksional uyg‘unligi jamiyatda barqaror ijtimoiy birdamlik muhitini yaratadi.

Shuningdek, ma’rifiy texnologiyalar fuqarolarning islohotlar mazmuni va natijalari haqidagi xabardorligini oshirish orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi. Ijtimoiy ishonch darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatda islohotlar samaradorligi ham ortadi. Bu esa strategik rivojlanish jarayonlarining ijtimoiy tayanchini kuchaytiradi.

Ma’rifiy texnologiyalar transformatsiyasi ijtimoiy inklyuzivlikni ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholining turli qatlamlarini ma’rifiy jarayonlarga jalb etish orqali jamiyatda tenglik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlash mumkin. Bu esa ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida jamiyatni jipslashtirishning zamonaviy modeli ma’rifiy texnologiyalar transformatsiyasiga tayanadi. An’anaviy va raqamli ma’rifat vositalarining integratsiyasi, institutsional hamkorlikning mustahkamlanishi hamda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish orqali yagona ma’naviy makonni shakllantirish mumkin. Mazkur paradigma Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy-ijtimoiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
2. Durkheim E. The Division of Labour in Society. – Paris, 1893.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford, 2010.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni. 2020- yil 23-sentabr, -https://lex.uz/doss/5013007

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mansurova Malohat Yunus qizi –
Navoiy davlat universiteti Tarix fakulteti
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yagona ma’naviy makon barpo etishning nazariy asoslari, ijtimoiy-siyosiy zarurati hamda o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlarida milliy o‘zlikni asrash, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada ma’naviy makon tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy unsurlari, davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda istiqboldagi vazifalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviy makon, milliy g‘oya, mafkuraviy immunitet, globallashuv, raqamli madaniyat, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy barqarorlik.

Yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda ma’naviy yangilanish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va zamonaviy dunyoqarashni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasida jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish masalalari alohida ta’kidlangan[1].

Shu nuqtai nazardan, yagona ma’naviy makon barpo etish masalasi nafaqat madaniy yoki tarbiyaviy, balki strategik ahamiyatga ega ijtimoiy-siyosiy vazifa hisoblanadi.

Ma’naviy makon — bu jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi qadriyatlar, g‘oyalar, tarixiy xotira, axloqiy me’yorlar va madaniy an’analar tizimidir. U shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi ma’naviy mezonlar majmuini ifodalaydi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ma’naviyatni jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida baholab, uning yo‘qligi yoki zaiflashuvi milliy xavfsizlikka tahdid solishini ta’kidlagan[2].

Demak, xulosa qilishimiz mumkinki, yagona ma’naviy makon — bu turli ijtimoiy qatlam va hududlarni umumiy milliy g‘oya va qadriyatlar asosida birlashtiruvchi integrativ tizimdir. U quyidagi tarkibiy unsurlardan iborat:

- milliy g‘oya va mafkura;
- tarixiy xotira va madaniy meros;
- ma’rifat va ta’lim tizimi;
- ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar;
- fuqarolik jamiyati institutlari.

Bugungi globallashuv jarayonida turli madaniyatlar va mafkuralar o‘zaro kesishmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali chetdan kirib kelayotgan turli g‘oyalar yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu

esa milliy o‘zlikni saqlash va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashni taqozo etadi.

Ekstremizm, radikalizm, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi g‘oyalar hamda dezinformatsiya jamiyat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. United Nations ham zamonaviy tahdidlar qatorida mafkuraviy va axborot xavfsizligi masalalariga alohida e’tibor qaratmoqda[3].

Shu bois yagona ma’naviy makon yoshlar ongida tanqidiy fikrlash, vatanparvarlik va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qilishi zarur.

Ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatda yagona ma’naviy mezonlarning mavjudligi ijtimoiy totuvlikni ta’minlaydi. Umumiy qadriyatlar atrofida birlashgan jamiyat barqaror va taraqqiyotga moyil bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan ma’naviy makon quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. Milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligi. Milliy an’ana va qadriyatlar umuminsoniy tamoyillar bilan uyg‘un holda rivojlantiriladi. Bu esa ochiqlik va bag‘rikenglikni ta’minlaydi.

2. Raqamli makon bilan integratsiya. Zamonaviy ma’naviy makon faqat an’anaviy vositalar bilan cheklanib qolmaydi. U internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli ta’lim platformalari orqali ham shakllanadi.

3. Uzluksizlik va tizimlilik. Ma’naviy tarbiya maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha, shuningdek, oilada va jamoat institutlarida izchil davom etishi lozim.

4. Ochiqlik va muloqotga tayanganlik. Yangi davr ma’naviyati biryoqlama targ‘ibot emas, balki ochiq muloqot, fikrlar xilma-xilligi va tanqidiy tafakkur asosida rivojlanadi[4].

Yagona ma’naviy makon barpo etish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- ta’lim tizimida ma’naviy-tarbiyaviy fanlarni zamonaviy metodlar asosida takomillashtirish;
- yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;
- milliy madaniy merosni keng targ‘ib qilish;
- raqamli savodxonlikni oshirish;

- fuqarolik jamiyati institutlari va OAV bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Shuningdek, davlat siyosatida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etish jamiyat taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi. U milliy o‘zlikni asrash, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ma’naviy makonning samarali faoliyat ko‘rsatishi davlat siyosati, ta’lim tizimi, oila, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining uzviy hamkorligiga bevosita bog‘liqdir. Chunki ma’naviyat jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan, insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy faolligini shakllantiradigan muhim omildir. Agar ushbu tizimlar o‘zaro uyg‘unlikda, yagona maqsad va strategik yo‘nalish asosida faoliyat yuritsa, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit qaror topadi, yosh avlodning ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat mustahkamlanadi.

Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy siyosat izchil va tizimli davom ettirilishi zarur. Xususan, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi — Yangi O‘zbekiston g‘oyasi doirasida inson qadrini ulug‘lash, ma’rifat va ma’naviyatni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ta’lim tizimini zamonaviy bilimlar bilan boyitish, oilada sog‘lom tarbiya muhitini mustahkamlash, fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy faolligini oshirish hamda ommaviy axborot vositalarining mas’uliyatini kuchaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

Kompleks va tizimli yondashuv esa nafaqat mavjud muammolarni bartaraf etish, balki kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’naviy tahdidlarning oldini olishga xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan bir sharoitda milliy o‘zlikni asrash, tarixiy meros va an’analarni qadrlash, shu bilan birga ochiq va taraqqiyparvar jamiyat qurish masalalari o‘zaro uyg‘unlikda olib borilishi lozim bo‘lib u faqat ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bilan cheklanib qoladigan jarayon emas,

balki jamiyatning barcha institutlari hamkorligida amalga oshiriladigan uzluksiz va strategik vazifadir. Mazkur yo‘nalishda izchil sa’y-harakatlarni davom ettirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omili bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.-B.18-24
2. Islom Karimov. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.-B.3-8
3. United Nations. *Human Development Report*. – New York, 2022. –P. 11-15
4. Abdullayev Q. *Axborot xavfsizligi asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2019. –B. 52-60

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.

Xolmatov G‘ayratjon Muxtoraliyevich
Namangan davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi (PhD),
Turg‘unova Moxira Namozaliyevna
Namangan davlat universiteti tyutori

Anotatsiya: mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yagona ma’naviy makonni shakllantirishning nazariy-huquqiy asoslari, ijtimoiy zarurati va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi va mafkuraviy tahdidlar kuchayib

borayotgan bir sharoitda jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, davlat va jamiyat hamkorligi, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari hamda madaniy-ma’rifiy institutlarning o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Yagona ma’naviy makonni shakllantirishda milliy g‘oya, tarixiy meros, zamonaviy innovatsion yondashuvlar va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yagona ma’naviy makon, milliy g‘oya, ma’naviy xavfsizlik, globallashuv, mafkuraviy tahdid, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik.

Bugungi globallashuv davrida dunyo hayoti keskin o‘zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalari rivojlanishi, madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi, turli g‘oya va qarashlarning tez tarqalishi jamiyat ma’naviy hayotiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda har bir mustaqil davlat o‘zining milliy qadriyatlarini asrash, fuqarolarni umumiy ezgu maqsadlar atrofida birlashtirish va sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishga alohida e’tibor qaratadi. O‘zbekiston Respublikasida ham yagona ma’naviy makonni barpo etish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ma’rifatli jamiyat, ma’rifatli shaxs tarbiyasi borasidagi dastlabki islohotlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qaror hisoblanadi. Mazkur qarorda “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” degan hayotbaxsh g‘oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda” – deb ta’kidlangan [1].

Ma’naviyat – bu insonning ichki dunyosi, uning axloqi, e’tiqodi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimidir. Jamiyat ma’naviyati esa alohida shaxslar ma’naviyatining yig‘indisidan iborat bo‘lib, u xalqning tarixiy tajribasi, an’analari va orzu-intilishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit mavjud bo‘lsa, unda tinchlik,

barqarorlik va o‘zaro hurmat mustahkamlanadi. Aksincha, ma’naviy bo‘shliq paydo bo‘lsa, turli yot g‘oyalar va zararli ta’sirlar kuchayishi mumkin.

O‘zbekiston boy tarixiy va madaniy merosga ega mamlakatdir. Ajdodlarimiz ilm-fan, adabiyot va san’at sohasida ulkan yutuqlarga erishgan. Ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini chuqur o‘rganish hamda uni keng targ‘ib qilish yagona ma’naviy makonni mustahkamlashda muhim omildir. “Zotan, o‘zbek milliy g‘oyasi - asrlar qa’ridan, mo‘l va ulug‘ ma’rifiy tariximiz qa’ridan yangicha mazmunu mohiyat kasb etib, yangi istiqlol sharoitida unib chiqqan ma’naviysiyosiy ne’mat” [2:169-b]. Shuningdek, “O‘zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir. Xorijda siymosi yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko‘pdan-ko‘p suvratlari ishlangan, qisqasi, dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o‘rin oldi” [3:127-b].

Yagona ma’naviy makonni shakllantirishda ta’lim tizimining o‘rni beqiyosdir. Maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda nafaqat bilim berish, balki ma’naviy tarbiya masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratilishi zarur. Yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ta’lim jarayonida ajdodlar merosi, milliy an’ana va urf-odatlarimiz haqida keng ma’lumot berish yoshlarning o‘zligini anglashiga yordam beradi.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Axborot oqimi nihoyatda kuchli bo‘lgan bir paytda yoshlarning ongini turli zararli g‘oyalardan himoya qilish dolzarb vazifadir. So‘nggi yillarda terroristik tashkilotlar g‘oyalarini targ‘ibot qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshdi. Bugungi kunda dunyoda terrorchilar foydalanadigan 10 mingdan ortiq internet saytlari mavjud bo‘lib, ularga xizmat ko‘rsatuvchi portallar soni ortib bormoqda [4:254-b]. Buning uchun ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, axborotni tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatish muhimdir. Eng samarali himoya vositasi – bu mustahkam bilim va yuksak ma’naviyatdir.

Ma’naviy targ‘ibot ilmiy dunyoqarashni, milliy manfaatlarga mos bo‘lgan qarashlar sistemasini vujudga keltiradi. Shaxsda ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarni rivojlantirish, gumanistik e’tiqodni qaror toptirish, faol va pozitiv hayotiy pozitsiyani shakllantirishda ham ma’naviy targ‘ibotning ahamiyati katta. Uning ta’sirida inson jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga qodir shaxs sifatida voyaga yetib boradi.

Qadriyat – tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan ular uchun foydali ahamiyatli, moddiy – iqtisodiy, madaniy-ma’naviy mafkuraviy, siyosiy huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig‘indisidir. U qadr qimmat degan ma’noni anglatadi [5:409-b]. Aynan shun day qadriyatlardan biri, oila va mahalla qadriyatidar. Oila va mahalla ham yagona ma’naviy makonning asosiy tayanchlaridan hisoblanadi. Oila – insonning birinchi tarbiya maskani. Farzandning fe’l-atvori, dunyoqarashi va qadriyatlarga munosabati avvalo oilada shakllanadi. Ota-onaning shaxsiy namunasining o‘rni beqiyosdir. Mahalla esa qadimdan xalqimizning birdamlik va hamjihatlik timsoli bo‘lib kelgan. Mahalladagi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, uchrashuvlar va suhbatlar jamiyatda o‘zaro hurmat va mehr-oqibatni kuchaytiradi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida ma’naviyat masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoev ma’naviyatimizda natijadorlikka erishish maqsadida O‘zbekistonning 2022-2032 yillarga mo‘ljallangan ma’naviy taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishni va davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirishni talab qilmoqda [6:94-b]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson qadri, uning sha’ni va manfaatlarini ulug‘lashga qaratilgan. Bu jarayonda fuqarolarning ma’naviy yetukligi muhim omil hisoblanadi. Chunki har qanday islohot avvalo inson ongida va tafakkurida ro‘y beradi.

Yagona ma’naviy makonni barpo etish – bu qisqa muddatda amalga oshadigan jarayon emas. Bu uzluksiz, tizimli va hamkorlikka asoslangan faoliyatni talab qiladi. Davlat organlari, ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, oila va mahalla bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni shakllantirish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim shartidir.

Milliy qadriyatlarni asrash, tarixiy merosni o‘rganish, yoshlarni barkamol inson etib tarbiyalash va sog‘lom axborot muhitini yaratish bu yo‘ldagi ustuvor vazifalardir. Yuksak ma’naviyatga ega jamiyatgina kuchli va farovon davlatni barpo eta oladi. Shu bois har birimiz ma’naviy yuksalish yo‘lida mas’uliyatni his etib, Yangi O‘zbekiston ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2021-yil 26- mart. PQ-5040-son. www.lex.uz.
2. M.Sharifxo‘jayev. O‘zbekiston yangi g‘oyalar, yangi yutuqlar. “Sharq” nashriyoti. T.: 2004, -B. 259.
3. S.Otamuradov va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti. T.: 2002, -B. 127.
4. Тулепов.А. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. -Тошкент: “Моваройннаҳр”, 2016. -Б.254.
5. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. T.: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti. 2013. –B. 409.
6. N.Kunisheva. Yangi O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy muhitni takomillashtirishning konseptual asoslar. “Zamonaviy dunoyada ilm-fan va texnologiya”// Toshkent.: 2004. –B. 94.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz -T «O‘zbekiston», NMIU, -2017.
8. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017.
9. Otamurotov S., Abduraxmonov M., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. Darslik. – Toshkent, 2009.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MADANIY-GUMANISTIK QADRIYATLARNING FALSAFIY ASOSLARI

Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy-gumanistik qadriyatlarning falsafiy asoslari tizimli tahlil qilinadi. Unda gumanizm g‘oyasining falsafiy ildizlari, inson qadrining jamiyat rivojidagi o‘rni hamda madaniyat va ma’naviyatning ijtimoiy taraqqiyotga ta’siri yoritib beriladi. Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi doirasida insonparvarlik, adolat, erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi qadriyatlarning falsafiy mazmuni ochib berilib, ularning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada globallashuv sharoitida milliy madaniyat va umuminsoniy gumanistik qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash masalalari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy tarbiya, talabalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy-gumanistik yondashuv, tizim, faoliyat turlari, texnologiyalar.

O‘zbekistonning jahon ta’lim makoniga qo‘shilishi, bozor iqtisodiyotining yangi sharoitlari, demokratlashtirish jarayonlari, ijtimoiy o‘zgarishlar dinamikasi ta’lim sohasiga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi, bu yerda kasbiy kompetensiyaning yuqori darajasi, jahon ta’lim standartlariga muvofiqlik talablari bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyat yutuqlari va ta’lim oluvchilarning milliy xususiyatlarini hisobga olish, ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirish tamoyillari asosida talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muammosi yanada rivojlanadi. O O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” [1] 2017-yil 5-iyuldagi 411-5106-sonli Farmonida mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga

hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom avlodni voyaga yetkazish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlarning keng qatlamlariga taalluqli dolzarb masalalarni hal etish, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab - quvvatlash, ularning kasbga yo‘naltirilishi va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar talab darajasida tashkil etilmagan.

Ma’lumki 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida demokratik davlat qurishda yoshlar faolligini oshirish bo‘yicha bir qator yangi muhim vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, ularning eng muhimlari qatoriga «yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ongida tuyg‘ularni mustaqillik g‘oyalariga sadoqat, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoiylik, uni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish» [2].

Oliy o‘quv yurtida ta’lim olish shaxsni tarbiyalashning muhim bosqichi bo‘lib, u kasbiy yo‘naltirilganlikka, dunyoqarash, hayotiy maqsadlar va munosabatlarni shakllantirishga, shaxsiy va ijtimoiy muloqot uslubiga, bo‘lajak mutaxassisning ijtimoiylashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Ayni paytda shaxs ma’naviy-axloqiy sohasining asosiy «yadrosi» shakllanadi. Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvarda qabul qilingan «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi farmoyishi asosida yosh avlodni kitobga oshno qilish, ularda mutolaa madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PQ-3721 «Buyuk allomalarimiz, shoir va mutafakkirlarimizning ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi [3] Qonunda jamiyatda

insonparvarlik va mehr-oqibat qadriyatlarini keng qaror toptirish, aholi, avvalo, yoshlarning intellektual va madaniy saviyasini yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish, o‘sib kelayotgan barkamol avlodni tarbiyalash zarurati ko‘rsatib o‘tilgan.

Davlatimiz rahbari tomonidan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surilgan besh muhim tashabbus orasida quyidagilar eng muhimlari sifatida qayd etildi:

- yoshlarni musiqa, badiiy adabiyot, teatr va san’atning boshqa janrlariga qiziqtirish va oshirish, yosh avlodning o‘z iste’dodi va qobiliyatini namoyon etishi;

- yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, kitobxonlikni oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish.

Biz tomonimizdan ta’limga madaniy-gumanistik yondashuv va bo‘lajak o‘qituvchi-mutaxassislarni yuksak ma’naviyat va axloq egasi sifatida tayyorlashning yaxlit jarayoni orqali pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarini ma’naviy tarbiyalash tizimi ishlab chiqildi.

Ta’limga madaniy-gumanistik yondashuvning manbalari 50-60-yillarda AQShda paydo bo‘lgan va K.Rodjers nazariyasida eng to‘liq ifodalangan gumanistik psixologiya va pedagogika konsepsiyasi hisoblanadi. Uning mohiyati o‘qituvchi (pedagog) tomonidan yaratilgan qulay psixologik qulaylik, ishonch, hamkorlik, qo‘llab-quvvatlash muhitida insonning o‘z tajribasi asosida rivojlanishidir.

Madaniy-gumanistik yondashuvning qadriyatli yo‘naltirilganligi talabalarning o‘z faolligiga tayangan holda va o‘qitishning ijodiy, evristik shakllari yordamida talabalarning madaniy tajribasi va dunyoqarashini kengaytirish bilan bog‘liq metodik yo‘nalishlarga murojaat qilishga undaydi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarini madaniy-gumanistik yondashuv asosida ma’naviy tarbiyalash tizimi pedagogik fanlar materiallari asosida ma’naviy-madaniy bilim va tajribalarni kengaytirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ta’limiga madaniy-gumanistik yondashuvning xususiyatlari va imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan. Jamiyat va talabalarning zamonaviy ehtiyojlarini aniqlash asosida kompleks, har tomonlama Mazkur seminar talabalarning san’atshunoslik

nashrlari va adabiy-badiiy asarlar matnlari bilan ishlashlari asosida o‘tkazilishi bilan ajralib turdi.

Bugungi globallashuv va tezkor ijtimoiy-siyosiy transformatsiyalar sharoitida jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri sifatida inson omiliga, uning ma’naviy kamoloti va madaniy yetukligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadrini ulug‘lash, shaxs erkinligi va huquqlarini ta’minlash, ma’naviy va madaniy muhitni yuksaltirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, madaniy-gumanistik qadriyatlarning falsafiy asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy-gumanistik qadriyatlarning mohiyati, ularning falsafiy ildizlari hamda jamiyat rivojidagi o‘rni tahlil qilinadi.

Falsafada gumanizm tushunchasi insonni oliy qadriyat sifatida e’tirof etishga asoslanadi. Antik falsafadan boshlab (Sokrat, Aristotel), Uyg‘onish davri gumanistlari (Piko della Mirandola, Erasmus Rotterdamskiy) va zamonaviy falsafiy oqimlargacha bo‘lgan taraqqiyot jarayonida inson erkinligi, qadr-qimmati va ijodiy imkoniyatlari asosiy mavzu bo‘lib kelgan.

Madaniy-gumanistik qadriyatlar esa insonning, axloqiy yetukligi, estetik didi, ijtimoiy mas’uliyati, tarixiy xotirasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqati kabi jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Falsafiy nuqtai nazardan, madaniyat shunchaki an’analar yoki urf-odatlar majmui emas, balki insonning ma’naviy mavjudlik shaklidir. Shu sababli madaniy-gumanistik qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining ichki, ma’naviy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki uning ma’naviy-madaniy darajasi bilan ham belgilanadi. Falsafada bu holat “barqaror taraqqiyot” tushunchasi orqali izohlanadi. Barqaror taraqqiyotda madaniy-gumanistik qadriyatlar ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik ongining shakllanishi va jamiyat birligining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida:

- milliy madaniy merosni asrash va rivojlantirish,
- umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish,

- yosh avlodni ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda bu jarayonlarda madaniyat shaxsning ichki dunyosini boyituvchi, uni jamiyat bilan uyg‘unlashtiruvchi falsafiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Globallashuv jarayonlari bir tomondan madaniyatlararo muloqotni kuchaytirsa, ikkinchi tomondan milliy ma’naviyat uchun muayyan tahdidlarni ham yuzaga keltiradi. Shu bois Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy-gumanistik qadriyatlar milliy o‘zlikni saqlash va zamonaviylikka moslashish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi falsafiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat Gegelning “inkor etishni inkor etish” qonuni bilan izohlanadi, ya’ni milliy madaniyat zamonaviy jarayonlarni inkor etmasdan, ularni o‘z mohiyatiga mos holda qayta talqin qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 2017-yil 5-iyuldagi 5106-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-3255680 (murojaat sanasi 05.02.2026)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 07.02.2017 yildagi PF-4947-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036 (murojaat sanasi 05.02.2026).

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida» 12.05.2018 yildagi PQ-3721-son Qarori. https://lex.uz/docs/-4887792 (murojaat sanasi 05.02.2026).

YANGI O`ZBEKISTONDA YAGONA MA`NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURIYATI VA O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xo`jaxonov Islomxo`ja Abdulloxon o`g`li
falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD), Namangan davlat texnika universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o`qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda Yangi O`zbekistonda yagona ma`naviy makon barpo etish zaruriyati hamda uning o`ziga xos xususiyatlarini, falsafiy-aksialogik va ijtimoiy-gumanitar yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida konseptual tahlil, qiyosiy-falsafiy yondashuv va normativ-huquqiy diskurs tahlili qo`llanadi. Ilmiy yangilik yagona ma`naviy makonni institutsional, kommunikativ va identifikatsion mezonlar kesishmasida izohlashdadir.

**Kalit so`zlar.** ma`naviy makon, aksiologiya, ijtimoiy birdamlik, kommunikativ muhit, identifikatsiya, madaniy siyosat, institutsionallashuv.

Yangi O`zbekiston sharoitida yagona ma`naviy makon barpo etish masalasi jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy ishonch va hamkorlik me’yorlarining mustahkamlanishi, fuqarolik o`zligini anglashning izchil shakllanishi bilan uzviy bog`liq konseptual muammo sifatida namoyon bo`ladi. Ma`naviy makon tushunchasi bu yerda faqat qadriyatlar majmui yoki axloqiy shiorlar yig`indisi emas, balki shaxs va institutlar faoliyatini yo`naltiruvchi ma’no tizimlari, ijtimoiy kommunikatsiya tarmoqlari, ta’lim-tarbiya amaliyotlari hamda madaniy merosni o`zlashtirish mexanizmlarining bir butun semantik-institutsional muhitidir. Shu sabab, yagona ma`naviy makon zaruriyati bir tomondan modernizatsiya va globallashuv ta’sirida kuchayadigan parchalangan identikliklar, qadriyatlar relativizmi va axborot oqimlarining nazoratsiz ko`payishi bilan, ikkinchi tomondan esa milliy taraqqiyotning inson kapitali, ijtimoiy birdamlik va mas’uliyatli fuqarolik kompetensiyalariga tayanadigan yangi bosqich

talablari bilan izohlanadi. Mazkur masalaning falsafiy asoslarini ochishda qadriyatlar nazariyasi va ijtimoiy institutlar haqidagi yondashuvlar muhim metodologik tayanch bo`lib xizmat qiladi.

Yagona ma`naviy makonni barpo etishning zaruriyati avvalo jamiyatdagi ma’naviy integratsiya bilan bog`liq bo`lgan muvozanat masalasida ko`rinadi. Integratsiya bu yerda uniformlashuv, ya’ni fikr va didlarning bir xil qolipga solinishi emas; aksincha, turli ijtimoiy guruhlar, avlodlar, hududlar va madaniy tajribalarning umumiy qadriyatlar doirasida muloqot qilish, kelishish va hamkorlik qilish qobiliyatidir. Bunda yagona makonning asosiy vazifasi ma’no ishlab chiqarishning umumiy “tili”ni yaratish, ijtimoiy ishonchni tiklash va kuchaytirish, konfliktogen talqinlarning oldini olish uchun kommunikativ maydonni me’yorlashtirishdan iborat bo`ladi. Kommunikativ ratsionallik g`oyasi doirasida jamiyatning barqarorligi ko`proq majburlash yoki tashqi nazorat bilan emas, balki asosli dalillash, ochiq muhokama va kelishuvga tayanuvchi munosabatlar bilan ta’minlanishi ta’kidlanadi [4]. Demak, ma`naviy makon bu kelishuv madaniyatini yaratadigan va qo`llab-quvvatlaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar majmuidir. Ikkinchi zaruriy omil ta’lim va tarbiya tizimining strategik vazifalari bilan bog`liq. Yangi sharoitda bilimlar iqtisodiyoti, raqamli muhit va kasbiy mobillik kuchaygan sari shaxsning axloqiy avtonomiyasi, tanqidiy fikrlashi va ijtimoiy mas’uliyati ham ta’lim natijasi sifatida qaralmoqda. Bunday natijalarga erishish esa faqat o`quv rejalari bilan cheklanmaydi; u ta’lim muassasasi, oila, ommaviy axborot va madaniyat institutlarining uyg`un ta’sirini, ya’ni yagona ma`naviy makonning institutsional koordinatsiyasini talab etadi. Bu o`rinda ma`naviy makonning “yagona”ligi markaziy buyruqbozlik sifatida emas, balki standartlar, etik me’yorlar va professional kompetensiyalar orqali uyg`unlashgan hamkorlik tarmog`i sifatida tushunilishi maqsadga muvofiq. Ma’naviyatning jamiyatdagi funksiyalarini tizimli tahlil etgan tadqiqotlarda ham qadriyatlar uzluksizligi, ijtimoiylashuv va madaniy merosning translyatsiyasi alohida ta’kidlanadi[1]. Uchinchi zaruriy jihat milliy identifikatsiya jarayonlarining murakkablashuvi bilan izohlanadi. Globallashuv sharoitida identiklik ko`p qatlamli bo`lib, shaxs bir vaqtning o`zida mahalliy, milliy, mintaqaviy va global “men” tasavvurlarini

uyg`unlashtiradi. Bu uyg`unlik tabiiy ravishda ziddiyatlar ham keltirib chiqarishi mumkin: axborot makonida turli ideallar raqobati, iste’mol madaniyatining bosimi, tarixiy xotira talqinlarining ko`pligi va hokazo. Yagona ma`naviy makon aynan shu ko`p qatlamlilikni inkor etmay, balki uni muvofiqlashtiradigan, o`zlikni anglashni ijtimoiy birdamlik bilan bog`laydigan me’yoriy-mazmuniy “ramka”ni beradi. Bu ramka ijtimoiy o`zaro hurmat, qonuniylik, adolat, mehnatsevarlik, mas’uliyat, bag`rikeng muloqot kabi umumiy qadriyatlar orqali barpo etiladi. Qadriyatlar pluralizmi sharoitida umumiy “yadro” qadriyatlarga tayanish ijtimoiy barqarorlikning muhim sharti ekani aksiologik yondashuvda asoslanadi [5].

Yagona ma`naviy makonning o`ziga xos xususiyatlarini aniqlashda uni uch o`lchamda ko`rish mumkin: institutsional, kommunikativ va identifikatsion. Institutsional o`lcham ma’naviy siyosatning faqat deklarativ bayonotlar darajasida qolmasdan, aniq amaliy mexanizmlar, mas’ul subyektlar va baholash mezonlariga ega bo`lishini nazarda tutadi. Bu yerda “institut” tushunchasi keng ma’noda olinadi: ta’lim tizimi, mahalla va jamoat tuzilmalari, ommaviy axborot va raqamli platformalar, madaniyat muassasalari, ilm-fan va nashriyot sohasi. Ularning har biri ma’no ishlab chiqaradi va tarqatadi; demak, ularni muvofiqlashtirmasdan yagona makonning yaxlitligi ta’minlanmaydi. Shu sababli, institutsional xususiyat sifatida normativlik va javobgarlik tamoyillari alohida ajralib turadi: ma’naviy-ma’rifiy faoliyat natijalari monitoring qilinishi, ijtimoiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qilishi, odamlarning real ehtiyojlariga mos bo`lishi lozim. Modern jamiyatda ijtimoiy tartibning barqarorligi qadriyatlar bilan bir qatorda institutlar samaradorligiga ham bog`liq ekani sotsiologik nazariyalarda ko`rsatiladi [3]. Kommunikativ o`lcham ma`naviy makonning axborot oqimlari, ommaviy muloqot uslublari va jamoatchilik fikri shakllanishi bilan bog`liq xususiyatlarini ifodalaydi. Raqamli muhit sharoitida ma’naviy ta’sir ko`rsatishning an’anaviy kanallari bilan bir qatorda, tezkor va fragmentar kontentlar, algoritmik tavsiyalar, auditoriya e’tiborini “bo`lib oladigan” raqobatli platformalar ham faol. Bu sharoitda yagona ma`naviy makonning o`ziga xosligi shundaki, u faqat kontent ishlab chiqarish bilan cheklanmaydi, balki media savodxonlik, tanqidiy tahlil, dalilga tayangan munozara madaniyati kabi

kompetensiyalarni ommalashtirishni ham talab etadi. Aks holda, kommunikativ maydon manipulyatsiya va stereotiplashuv xavfiga ochiq bo`lib qoladi. Demak, yagona ma`naviy makonning kommunikativ poydevori ochiqlik va mas’uliyat muvozanatiga, shuningdek, ijtimoiy muloqotning etik me’yorlariga tayangan holda shakllanadi [4]. Identifikatsiyaviy o`lcham esa yagona ma`naviy makonning shaxsiy va jamoaviy o`zlikni anglash jarayoniga ta’siri bilan tavsiflanadi. Bu o`lchamda o`ziga xoslik shundaki, Yangi O`zbekistonda modernizatsiya jarayonlari milliy madaniy kodlar, tarixiy xotira va zamonaviy fuqarolik qadriyatlari o`rtasida moslashuvchan sintezni talab etadi. Bunda ma’naviy makon “o`tmishga qaytish” yoki “faqat yangilikka ergashish” kabi qutbiy yondashuvlarga tushib qolmasdan, tarixiy merosni zamonaviy ehtiyojlar bilan ma’nodosh tarzda talqin etishi zarur. Falsafiy jihatdan bunday sintez identiklikning narrativ tabiatini, ya’ni jamiyat o`zi haqida qanday hikoya qurishini va bu hikoya qanday axloqiy me’yorlarni legitimlashtirishini tahlil qilishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, ma`naviy makonning o`ziga xos xususiyati uning “ma’no uzluksizligi”ni ta’minlashidadir: avlodlararo meros uzatiladi, lekin u tanqidiy qayta ishlanadi va zamonaviy ijtimoiy amaliyotlarga moslashtiriladi [2].

Tadqiqotning konseptual natijasi sifatida yagona ma`naviy makon barpo etish jarayonini uch bosqichli mantiq orqali tushuntirish mumkin. Birinchi bosqichda diagnostika ustuvor bo`lib, qadriyatlar dinamikasi, ijtimoiy ishonch ko`rsatkichlari, kommunikativ muhitdagi xavf omillari va ta’lim-tarbiya amaliyotlaridagi uzilishlar aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda dizayn va muvofiqlashtirish, ya’ni institutlararo hamkorlik, media va ta’lim kompetensiyalarini uyg`unlashtirish, madaniy meros bilan ishlashning zamonaviy formatlarini ishlab chiqish amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda baholash va qayta aloqa mexanizmlari ishga tushiriladi: ma’naviy-ma’rifiy dasturlar samaradorligi ijtimoiy xulq-atvor, fuqarolik ishtiroki va muloqot madaniyatidagi o`zgarishlar orqali o`lchanadi. Bunday yondashuv ma`naviy makonni abstrakt ideal sifatida emas, balki boshqariladigan va tahlil qilinadigan ijtimoiy tizim sifatida ko`rishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O`zbekistonda yagona ma`naviy makon barpo etish zaruriyati jamiyatning ma’naviy integratsiyasi, ta’lim-tarbiya natijalarining uzviyligi, ko`p qatlamli identiklik sharoitida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash ehtiyoji bilan belgilanadi. Uning o`ziga xos xususiyati esa institutsional muvofiqlashtirish, kommunikativ mas’uliyat va identifikatsion sintezning bir butun tizimda qaralishidadir. Tezis doirasida asoslangan yondashuv ma`naviy makonni qadriyatlar uzluksizligini ta’minlaydigan, ijtimoiy ishonchni oshiradigan va shaxsning mas’uliyatli fuqarolik kompetensiyalarini qo`llab-quvvatlaydigan konseptual model sifatida talqin qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov M. Ma`naviyat asoslari: nazariya va amaliyot. Toshkent: O`qituvchi, 2016. 240 b.

2. Абдуллаев А. Ф. Философия культуры: ценности и идентичность. Ташкент: Fan, 2015. 208 с.

3. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. Москва: Канон, 1996. 432 с.

4. Хабермас Ю. Теория коммуникативного действия. Т. 1. Москва: Весь Мир, 2001. 544 с.

5. Taylor Ch. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. Cambridge: Harvard University Press, 1989. 601 p.

ZJV5401

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA AXLOQIY IDEALNING KONSEPTUAL O‘RNI

Yusupova Feruza Zoyirovna,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar
universiteti dotsenti v.b.

Annotatsiya: Mazkur maqolada global ijtimoiy-madaniy rivojlanish sharoitida axloqiy idealning mazmun-mohiyati, uning milliy g‘oya va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi tahlil etiladi. Zamonaviy geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar ta’sirida yoshlar ongida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tahdidlar sharoitida axloqiy idealning ma’naviy immunitetni shakllantirishdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: axloqiy ideal, ma’naviy yuksalish, globallashuv, barkamol avlod, ma’naviy immunitet, Yangi O‘zbekiston, ma’rifatli jamiyat.

Hozirgi global ijtimoiy-madaniy rivojlanish davrida barkamol avlod tarbiyasi va ma’naviy yuksalish talablari o‘ziga xos axloqiy ideal tizimining yaratilish zaruriyatini qo‘ymoqda. Axloqiy idealning yuksak tamoyillari talablari asosida timsolli, namuna, ibratli, o‘rnak bo‘ladigan yuksak ma’naviy-axloqiy tizimining yaratilishi hozirgi ommaviy, madaniy siljishlarni oldini olishga kafolatdir. An’anaviy tarzda “axloqiy ideal mavjud ijtimoiy munosabatlar, tarixiy-madaniy muhit va ma’naviy paradigmalardan kelib chiqib, kelajak avlod uchun vorislik sifatida milliy, shaxsiy va diniy xususiyatlar bilan tarkib topib boraveradi” [4;99-b.]. Axloqiy ideal milliy fundamental qadriyat va ideallarni umuminsoniy imperativlar bilan uyg‘unlashtirib, yangi shakllanib kelayotgan global qadriyat, ideallar olamida transformatsiyalarni amalga oshiradi.

Hozirgi paytda axloqiy ideal yoshlarga nisbatan milliy g‘oyani, milliy o‘zlikni, muqaddas an’analarimizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzu-umid, maqsadlarini anglatish, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad – uchinchi Renessansni amalga oshirish vazifasini ifoda etishi zarur.

Binobarin, yoshlarni milliy, umuminsoniy jihatlar bilan birga qamrab olayotgan zamonaviy “axloq” jamiyat mafkurasiga katta ta’sir o‘tkazmoqda. Aslida mafkura mohiyat va maqsadi jihatidan ijtimoiy idealni ma’rifatli jamiyat qurish yo‘lida mazmunan birlashtiradi, ideal shakllarning (ijtimoiy, siyosiy axloqiy, estetik) qaror topishida keng imkoniyatlar yaratadi. Mafkura g‘oyalarni birlashtiruvchi kuch bo‘lsa, ideal ham g‘oyalarni mukammal birlashtiruvchi, yig‘uvchi xususiyatga egadir.

Agar jamiyat mafkurasi muayyan g‘oyalar tizimidan tashkil topishini nazarda tutsak, yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi qanday jamiyat qurmoqchi ekanligimiz, yangi ma’naviy makonni qanday tasavvur etishimiz bilan bog‘liq g‘oyalarga borib taqaladi. Yangi ma’naviy makoni “.....Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir” [1;276-b.].

Chunki o‘z milliy g‘oyasiga, muayyan jamiyat taraqqiyotining falsafiy-metodologik asosiga ega bo‘lmagan jamiyat o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘yadi. Nemis mumtoz falsafasi vakili I.Kantning fikricha, “g‘oya yo‘nalish bersa, ideal inson tafakkurining kelajakdagi ufqlarini belgilab beradi”[3;465-b.]. Bundan tashqari, har qanday ezgu niyat ham inson ongidan chuqur o‘rin egallamasa, inson tafakkuri shu niyatga hamohang o‘zgarmasa, barcha sa’y-harakatlar bekor bo‘ladi. Shuning uchun yangi ma’naviy makonni orzu qilgan xalq o‘z axloqiy idealiga ega bo‘lishi kerak. Ammo xalq va jamiyat yangi ufqlarni ko‘zlagan ekan uning maqsadi ham aniq bo‘lishi, bu maqsadlarni amalga oshirishda puxta va izchil o‘ylangan, milliy qadriyatlar va ideallarni izchil amalga oshirishga qaratilgan milliy g‘oya zarurdir.

Yangi O‘zbekiston uchun milliy g‘oya ko‘p millatli xalqning ma’naviy ehtiyojlarini o‘zgarmas manbai hisoblanib, yangi ma’naviy makonni yaratishga hissasini qo‘shishi, ijtimoiy-tarixiy jihatdan shakllanib kelgan milliy orzu-intilish, maqsadlarni yaxlit axloqiy idealga jamlashi, O‘zbekiston jamiyatidagi barcha millat, elatlarga xos bo‘lgan xususiyatlar, urf-odatlar, an’analar qadriyatlar va ideallarni umumiy maxrajga keltirishi kerak. Ana shu shakllanishi kerak bo‘lgan yangi ma’naviy makonning tadrijiyligini hisobga olsak, milliy g‘oya xalqimizning o‘zligini anglashga,

o‘z milliy-ma’naviy qadriyatlarini, axloqiy fazilatlarini tiklab, saqlab, e’zozlab kelajak avlodga transformatsiya qiluvchidir.

Axloqiy ideal milliy g‘oya va uning tamoyillari tufayli odamlar tasavvurida oydinlashadi, odamlarni ezgulik, oliyjanoblik, buyuk kelajak va tinchlik yo‘lida birlashtirib, ularni mehr-muhabbat va yaxshi hayotga bo‘lgan intilishlariga safarbar etadi.

Inson tabiati shunchalik murakkabki, uning qalbida bunyodkorlik g‘oyasi, xohishi va maqsadining paydo bo‘lishi, amal qilishi ham bevosita mazkur shaxsning qanday g‘oyalar, qarashlar va ideallar bilan qurollanganiga bog‘liq. Shuning uchun yoshlarda bo‘lishi mumkin bo‘lgan nomaqbul hatti-harakatlarni qo‘zg‘atuvchi barcha mafkuraviy tahdidlardan ogoh bo‘lmoq kerak. Mafkuraviy buzg‘unchilik beozor ko‘rinishda yoki biror madaniyat, san’at namunasi niqobida paydo bo‘lishi mumkin. Milliy-axloqiy qadriyatlarimizga to‘g‘ri kelmaydigan holatlarni namoyish etish uchun zamonaviy texnologiyadan foydalanish oqibatlari ham dahshatlidir. Olima Z.Boytemirovaning fikricha, “g‘oyadagi axloqsizlik shaxs tafakkuri, insoniy prinsiplarga o‘ta salbiy ta’sir ko‘rsatadi, insonni tanazzulga yetaklaydi. Bunday shaxslar jamiyat va odamlarga munosabatda yakkalanib qoladi, ikkiyuzlamachilik qilishga o‘rganadi”[2;61-b.]. OAV va internet media vositalarida namoyish etiladigan turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizlik, axloqsizlikka doir video mahsulotlari shular jumlasidandir. Ezgulikni targ‘ib qilish, o‘rnak va ibrat bo‘lish qanchalik qiyin bo‘lsa, yoshlarda yomonlikni qabul qilish va unga taqlid qilish xohishi ham shunchalik tezkor bo‘lishi tabiiydir.

Bugungi kunda geomafkuraviy, geoiqtisodiy dunyoviy tartibotlar, bir qutbli dunyodan ko‘p qutbli dunyoga o‘tishga intilish vaziyatida soxta shior yoki beozorgina tuyulgan, ammo ich-ichidan g‘arazli maqsadlar ko‘zlangan kichkina xabar ham ulkan ziyon keltirishi mumkin. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, qotillik, firibgarlik, individualizm, egoizm, shaxsiyatparastlik, didsizlik, g‘oyasizlik, mas’uliyatsizlik singari g‘oyalar turli badiiy usullarda tarqatilmoqda. Bu narsa, o‘z navbatida, yoshlarni sog‘lom hayot sur’ati va milliy ma’naviy qadriyatlardan chetlashtirishga, ruhiy beburdlikka, chin insoniy axloqiy ideallardan uzoqlashishga olib keladi.

Bugungi yoshlarimiz global jarayonlarda o‘z axloqiy ideali haqida aniq va to‘g‘ri tasavvur qilishlari, o‘z xalqining milliy tarixi, ma’naviy-axloqiy boyliklari, ota-bobolarining muqaddas imon-maslagiga bo‘lgan sadoqatini kuchaytirishlari, axloqiy immunitetni, yot g‘oyalarga nisbatan qarshilik ko‘rsatadigan botiniy ma’naviy salohiyatlarni kuchaytirishlari lozim.

Yoshlarning ma’naviy borlig‘ida axloqiy ideal takomillashtirilsa, ular milliy o‘zligini anglaydigan, dunyo voqealarini teran tushunadigan, zamon bilan hamnafas qadam tashlaydigan shaxslar bo‘lib yetishadilar. Bunday shaxslarga har qanday aqidaparast, ekstremist va “ommaviy madaniyat” tarzida chiroyli qog‘ozlarga, bejirim shiorlarga burkab beriladigan g‘arazli g‘oyalar, bema’ni da’vatlar ta’sir eta olmaydi. Demak, bilim, iymon, e’tiqod, ma’rifat va yuksak axloqiy ideal buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashda yoshlarimiz ongi va qalbi uchun mustahkam qalqon vazifasini o‘taydi. Shuningdek, xudbinlik, loqaydlik, beparvolik, qarindosh-urug‘chilik, mahalliychilik, ichiqoralik, baxillik va hasadgo‘ylik singari illatlardan forig‘ bo‘lishga ham yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy ideal mazmun-mohiyatini endi milliy va umumbashariy ma’naviy (ezgulik), demokratik qadriyatlar (haqiqat) va insonni yashash makoniga etikalogik (go‘zallik) munosabatlari belgilamoqda. Axloqiy ideal erkin, o‘zligini anglagan insonning ma’naviy pokligi va yuksakligini, iymon-e’tiqodi va dunyoqarashining mustahkamligini, niyatlarining milliy manfaatlar bilan uyg‘unligini vijdon amri-yashash mezoni ekanligini ifodalaydigan qudratli botiniy kuchga aylandi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. Boytemirova Z.D. Shaxs axloqiy ehtiyojlarini shakllantirish omillari: falsafa fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2009. – 141 b.
3. Кант И. Критика чистого разума. – М.: Фиников Ростов-на-Дону, 1999. – 672 с.
4. Samadov A.R. Shaxs estetik ideali: shakllanish va rivojlanish muammolari. Monografiya. - Toshkent: Navro‘z, 2021. - 312 b.

5. Юсупова Ф.З. Конструктивная связ нравственно-эстетической культуры и нравственного идеала молодежи // Электронный журнал Научные исследования в Кыргызской Республике. – Бишкек, 2023. 4 квартал. – №4. – С.80-90.

GENDER TENGLIK – JAMIYAT MA’NAVIY YUKSALISHINING STRATEGIK OMILI

Toliboyeva Nodira Odiljonovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
tarix fanlari bo‘yicha PhD, dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni barpo etishda gender tenglikning tutgan o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda ilm-fan sohasida xotin-qizlar uchun yaratilgan huquqiy asoslar hamda ularning ijtimoiy-intellektual faolligini oshirish masalalari yoritilgan. Gender tenglikni ta’minlash jamiyatning ma’naviy yuksalishi va barqaror rivojlanishining strategik omili ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: gender tenglik, davlat siyosati, xotin-qizlar huquqlari, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, bandlik, ayollar tadbirkorligi, huquqiy asoslar, ilm-fan va ta’lim, barqaror rivojlanish.

Yangi O‘zbekistonda yagona ma'naviy makonni shakllantirish, avvalo, jamiyatning intellektual salohiyatini birlashtirishni taqozo etadi. Bunda ilm-fan sohasida gender tenglikka erishish – xotin-qizlarning ilm-fandagi ishtirokini oshirish orqali oila va jamiyatda sog‘lom ma'naviy muhitni qaror toptirishning strategik yo‘nalishidir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil rivojlantirilmoqda. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng

huquq hamda imkoniyatlarni yaratish, ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy baza mustahkamlanib bormoqda. Ushbu yo‘nalishda qabul qilinayotgan qonunlar, davlat dasturlari va institutsional mexanizmlar gender tenglik tamoyillarini jamiyat hayotining barcha sohalariga izchil tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Davlat siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning ta’lim olishi, kasbiy va ilmiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, bandlik va tadbirkorlik sohalaridagi ishtirokini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, ijtimoiy-huquqiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish orqali gender tenglikni ta’minlashning amaliy mexanizmlari kuchaytirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, barqaror taraqqiyot va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Gender tenglikni ta’minlash masalasi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti sifatida shakllanib, mazkur yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar amaliy natijalar bilan boyib bormoqda. Jumladan, gender yondashuvni davlat boshqaruvi, ta’lim, mehnat munosabatlari va ilm-fan sohalariga integratsiya qilish orqali xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi real ishtirokini kengaytirishga erishilmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, bu jarayon gender tenglikni deklarativ tamoyildan amaliy mexanizmga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xotin-qizlarning ta’lim va ilm-fan sohasidagi faolligining ortishi gender siyosatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mahalliy olimlar ta’kidlashicha, ayollarning ilmiy-tadqiqot faoliyatidagi ishtiroki nafaqat shaxsiy kasbiy rivojlanish, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, qizlarning oliy ta’limga qamrovi, ilmiy grantlar va innovatsion loyihalarda qatnashuvi gender tenglikning amaliy ifodasi sifatida baholanadi.

Gender tenglikni ta’minlashda mehnat bozoridagi muvozanat masalasi ham alohida o‘rin tutadi. Xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga

qaratilgan chora-tadbirlar ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mahalliy iqtisodchi va sotsiolog olimlar fikriga ko‘ra, ayollarning iqtisodiy faolligi ortishi oilaning ijtimoiy barqarorligi va jamiyat farovonligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, gender tenglikni mustahkamlash jarayonida ijtimoiy ong va madaniyat masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Gender stereotiplarini bartaraf etish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni haqidagi an’anaviy qarashlarni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, mazkur jarayon ijtimoiy ta’lim, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati orqali samarali amalga oshirilishi mumkin.

Umuman olganda, O‘zbekistonda gender tenglikni ta’minlash jarayoni ko‘p qirrali va kompleks xarakterga ega bo‘lib, u faqat normativ-huquqiy choralar bilan cheklanmay, balki ta’lim, iqtisodiyot, ilm-fan va ijtimoiy madaniyat sohalarida chuqur tizimli o‘zgarishlarni talab etadi. Mahalliy olimlar ushbu jarayonni jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida baholamoqda.

Gender tenglikni ta’minlash masalasida O‘zbekistonda mustahkam huquqiy asos shakllantirilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishdagi normativ-huquqiy hujjatlar xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlashga xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatlar gender tenglikni davlat siyosatining muhim tamoyili sifatida belgilab, uni jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutadi.

Xususan, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun gender tenglik sohasidagi asosiy huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonunda gender tushunchasi, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash prinsiplari huquqiy jihatdan mustahkamlangan. Mahalliy huquqshunos olimlar mazkur qonunni gender masalasini deklarativ darajadan aniq huquqiy me’yorlar darajasiga olib chiqqan muhim hujjat sifatida baholaydilar.

Shuningdek, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi. Ushbu hujjat

zo‘ravonlikning turlari, jabrlangan shaxslarni himoya qilish mexanizmlari hamda davlat organlarining ushbu sohadagi majburiyatlarini belgilab berdi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, mazkur qonun gender tenglikni ta’minlashda ijtimoiy-huquqiy himoya tizimini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Gender siyosatini amalga oshirishda strategik hujjatlar ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning ta’lim, bandlik va tadbirkorlik sohalaridagi imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari gender tenglikni ta’minlashning institutsional asoslarini mustahkamlab bormoqda. Mahalliy olimlarning ta’kidlashicha, ushbu hujjatlar gender masalasini kompleks va tizimli ravishda hal etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston gender tenglik masalasida xalqaro huquqiy majburiyatlarni ham qabul qilgan. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida qabul qilingan ayollar huquqlariga oid konvensiyalar va rezolyutsiyalar milliy qonunchilikni takomillashtirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa milliy huquqiy tizimning xalqaro standartlarga moslashuvini ta’minlashga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan huquqiy hujjatlar O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini kengaytirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar ushbu huquqiy asoslarni jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim normativ poydevor sifatida baholaydilar.

Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rniga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, Jahon banki tomonidan tuziladigan Ayollar, biznes va qonun indeksiga ko‘ra, O‘zbekiston 2020-yilda xotin-qizlar huquqlari hamda gender tenglikni ta’minlash borasida muhim islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritildi. Natijada mamlakatimiz mazkur reytingda 5 pog‘onaga ko‘tarilib, 190 ta davlat orasida 134-o‘rinni egalladi [1].

Shu bilan birga, 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari

to‘g‘risida”gi Qonun [2], 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida [3] belgilangan vazifalar, shuningdek, 2030-yilgacha mo‘ljallangan barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta’lim, ilm-fan va sport munosabatlarida xotin-qizlar hamda erkaklarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishini anglatadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasida jamiyat hayotining barcha jabhalarida gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan mustahkam huquqiy asoslar shakllantirildi.

Islohotlarning barcha bosqichlarida O‘zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat keng qamrovli vazifalarni o‘z ichiga olmoqda. Aholi daromadlarini izchil oshirish, bandlik va mehnat munosabatlarini rivojlantirish, aholining ayrim toifalarini, jumladan tadbirkor va fermer xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish hamda qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha kafolatlar joriy etildi. Xususan, xotin-qizlar bandligini ta’minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish maqsadida imtiyozli kreditlash mexanizmlari yo‘lga qo‘yildi. Natijada tijorat banklarining mikrokredit portfeli mijozlarining 30 foizdan ortig‘ini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Tijorat banklari mablag‘lari hisobidan 172 mingdan ziyod xotin-qizlarga jami 4,9 trillion so‘m miqdorida kreditlar ajratildi. Bu esa tadbirkorlik faoliyatini boshlagan xotin-qizlar sonining bir yil davomida 45 ming nafarga oshishiga olib keldi [4].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, ayollarning davlat qurilishi va jamiyat boshqaruvidagi faol ishtiroki, mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi, ilm-fan taraqqiyotida erishayotgan yutuqlari, shuningdek, ularning oiladagi nufuzi va mavqeini mustahkamlashga qaratilgan davlat e’tibori ayollar huquqlarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xotin-qizlarga oid ijtimoiy muammolarni o‘z vaqtida hal etishga ko‘maklashish, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur tashkiliy shart-sharoitlarni yaratish, ilmiy faoliyatda gender diskriminatsiyasiga barham berish, olima

ayollar uchun nufuzli mukofotlar ta’sis etish, tadqiqot grantlari va xorijiy stajirovka dasturlarini kengaytirish, akademik mobillikni oshirish, innovatsion g‘oyalarni tijoratlashtirish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash loyihalarini rivojlantirish ilm-fanni ijtimoiy taraqqiyotning muhim drayveriga aylantirishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. (2020). Women, Business and the Law 2020. Washington, DC: World Bank. doi: 10.1596/978-1-4648-1532-4.
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2019. [Elektron manba] //https://lex.uz/docs/-4494849.
3. 2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. 2017. [Elektron manba] //https://lex.uz/docs/-3307879.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023-yil 8-mart, № 47 (8390).

MA’NAVIY ISLOHOTLARDA JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING AYRIM MASALALARI

Malohat Zoirova

– O‘zbekiston Milliy universiteti
katta o‘qituvchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlarning mazmuni, ularni samarali amalga amalga oshirishda jamoatchilik nazoratini qo‘llashning ayrim masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy-ma’naviy sohalarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ilg‘or xorijiy tajribalari hamda jamiyatimiz ma’naviy hayotida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning istiqbollari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, fuqarolar, ma’naviy soha, islohotlar, jamoatchilik nazorati, NNTlar, ma’naviy-ma’rifiy dasturlar, xorijiy tajriba, samaradorlik.

Ma’naviy islohotlar jamiyatning ichki dunyosi, qadriyatlari, axloqiy me’yorlari va tafakkur tarzini yangilashga qaratilgan jarayondir. U moddiy yoki siyosiy o‘zgarishlardan farqli ravishda inson ongi va ruhiyatini o‘zgartirishni ko‘zlaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, ma’naviy islohotlar insonning “o‘zlikni anglash” jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining chuqur asosini tashkil etadi. Masalan, prezident asar va nutqlarida ma’naviyatni jamiyat barqarorligining poydevori sifatida ta’kidlaganlar.

Ma’naviy islohotlarning tasnifini shartli ravishda to‘rt yo‘nalishga ajratish mumkin. Birinchisi ma’naviy-axloqiy islohotlar**,** ya’ni insoniylik, adolat, mas’uliyat va vijdon kabi qadriyatlarni mustahkamlash. Ikkinchisi, madaniy-ma’rifiy islohotlar**,** bu ta’lim, ilm-fan va madaniyat orqali tafakkurni yuksaltirishni anglatadi. Uchinchisi, mafkuraviy islohotlar**,** ya’ni jamiyat g‘oyaviy asoslarini zamon talablariga mos ravishda yangilash. To‘rtinchisi esa diniy-ma’rifiy islohotlar, bu e’tiqod erkinligi va sog‘lom diniy qarashlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Falsafiy jihatdan qaraganda, ma’naviy islohotlar inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Qadimgi faylasuflar, jumladan Abu Nasr Forobiy insonni “ijtimoiy mavjudot” sifatida ta’riflab, uning kamoloti jamiyat kamoloti bilan bog‘liqligini ta’kidlagan[1.128]. Shu ma’noda, ma’naviy islohotlar — bu jamiyatning ichki qonuniyatlarini anglash va ularni komillik sari yo‘naltirish jarayonidir. Ma’naviy islohotlar moddiy taraqqiyotdan ustun bo‘lgan ichki taraqqiyotni anglatadi. Agar iqtisodiy yoki siyosiy islohotlar jamiyatning tashqi qiyofasini o‘zgartirsa, ma’naviy islohotlar uning ruhiy mazmunini yangilaydi. Shu bois, barqaror va adolatli jamiyat qurish uchun ma’naviy islohotlar doimo ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ma’naviy islohotlarda jamoatchilik nazorati jamiyat a’zolarining ma’naviy siyosat va tashabbuslar ustidan kuzatuv, baholash va ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. U faqat rasmiy tekshiruv emas, balki fuqarolarning ongli ishtiroki orqali ma’naviy muhitni sog‘lom saqlash mexanizmidir. Falsafiy jihatdan olganda, bu jarayon shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro mas’uliyat tamoyiliga tayanadi: jamiyat davlatdan adolat talab qiladi, davlat esa jamiyatning ma’naviy faolligini qo‘llab-quvvatlaydi. Birinchi shakl — huquqiy asosdagi jamoatchilik nazorati. O‘zbekistonda jamoatchilik nazorati tushunchasi qonunchilik orqali mustahkamlangan bo‘lib[2], fuqarolar va NNTlar davlat organlari faoliyati yuzasidan taklif va tanqid bildirish huquqiga ega. Bu ma’naviy islohotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, chunki ochiqlik va shaffoflik muhiti shakllanadi.

Ikkinchi shakl fuqarolik jamiyati institutlari orqali nazorat. Turli nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ommaviy axborot vositalari ma’naviy-ma’rifiy dasturlar ijrosini tahlil qiladi. Masalan, Yoshlar ishlari agentligi yoki Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi kabi tuzilmalar faoliyati jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi mumkin. Bu jarayonda OAV va blogerlar ham faol ishtirok etadi. Uchinchi shakl ta’lim va madaniyat muassasalaridagi ichki nazorat. Maktab, oliy ta’lim muassasalari va madaniyat markazlarida ma’naviy tarbiya dasturlari samaradorligi pedagogik kengashlar, ota-onalar qo‘mitalari va jamoatchilik kengashlari orqali baholanadi. Bu yerda jamoatchilik nazorati tarbiyaviy jarayonning ochiq va javobgar bo‘lishini ta’minlaydi.

To‘rtinchi shakl ijtimoiy fikr va jamoatchilik muhokamasi. Ijtimoiy tarmoqlar, ochiq muloqotlar va davra suhbatlari orqali aholi ma’naviy islohotlar bo‘yicha o‘z munosabatini bildiradi. Bu zamonaviy demokratik jamiyatda nazoratning eng ta’sirchan vositalaridan biri hisoblanadi, chunki u tezkor va ommaviy xarakterga ega. Ma’naviy islohotlarda jamoatchilik nazorati bu faqat tekshirish emas, balki hamkorlik va mas’uliyat tamoyiliga asoslangan ijtimoiy sheriklikdir. U orqali ma’naviy qadriyatlar muhofaza qilinadi, kamchiliklar bartaraf etiladi va jamiyatning barqaror taraqqiyoti ta’minlanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasida jamoatchilik nazorati — jamiyatning ma’naviy va axloqiy normalarini shakllantirishda markaziy rol o‘ynaydi. Masalan, Yevropa Ittifoqi va OECD kabi xalqaro institutlar tomonidan tayyorlangan Public Integrity Handbook misolida jamoatchilik nazorati “shaxsiy va umumiy manfaatlardan voz kechish”, “ochiqlik” va “shaffoflik” kabi huquqiy-mansabiy usullar bilan amalga oshirilishi ta’kidlanadi. Bu nazorat nafaqat davlat organlarining ichki ishi, balki fuqarolar va NNTlar uchun ham ochiq bo‘lishi lozim deb ko‘riladi[3.45]. Gonkongdagi Independent Commission Against Corruption (ICAC) misoli jamoatchilik ishtirokini davlat organlari nazorati bilan muttasil birlashtiradi. Bu organ nafaqat korrupsiyani tergov qiladi, balki jamoatchilik bilan ma’lumot almashadi, qonunbuzarlik to‘g‘risidagi shikoyatlarni qabul qiladi va aholining ma’naviy axloqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan targ‘ibot ishlarini olib boradi[4.22].

Jamoatchilik nazorati jahon tajribasida huquqiy va institutsional formatda ham amalga oshiriladi. Jumladan, Fransiyada tashkil etilgan Commission on renewal and ethics in public life davlat rahbariyati va parlament faoliyatini jamoatchilik nazoratiga ochiq qilishni ko‘zda tutadi. Ushbu komissiya ma’naviy-siyosiy standartlarning saqlanishi va davlat xizmatchilari axloq kodekslariga rioya qilinishiga doir ma’lumotlarni muhokama qiladi. Shveysariyada esa Federal Ethics Committee on Non-Human Biotechnology (ECNH) kabi mustaqil etika qo‘mitalari o‘nlab sohalarda jamoatchilik muhokamasi uchun maydon yaratadi[5.29]. Bunday qo‘mitalar mutaxassislar, olimlar, fuqarolar va NNTlar ishtirokida faqat

huquqiy emas, balki madaniy va falsafiy axloqiy muammolarni ham muhokama qiladi.

Yevropa jamoatchiligi nazorati ommaviy axborot vositalari orqali ham amalga oshiriladi. Jurnalistik tahlillar, ochiq parlament muhokamalari va NNTlar tomonidan tayyorlangan reytinglar davlat siyosatiga ta’sir qiladi va rahbarlarni axloqiy baho bilan baholash imkonini beradi. OECD ham shu yo‘nalishni ko‘p marta ta’kidlab, nazorat natijalarining ochiq hisobotlar shaklida jamoatchilikka taqdim etilishini tavsiya qilib keladi. Jahonda jamoatchilik nazoratida NNTlar asosiy rol o‘ynaydi. Amerika va G‘arb Yevropa mamlakatlarida jamoatchilik nazorati bo‘yicha faol NNTlar davlat organlarining “axborot ochiqligi” va “shiqoyatlarni hal qilish” tizimlarini ta’minlaydi[6.87]. Mazkur institutlar jamoatchilik fikrini yig‘adi, tahlil qiladi va tezkor takliflar bilan chiqadi, bu esa ma’naviy islohotlar jarayonida qaror qabul qilishda muhim omil bo‘ladi.

Butunjahon olimlarining tadqiqotlarida jamoatchilik nazorati axloqiy standartlar bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Masalan, tahlillarda jamoatchilik ishtirokining siyosiy qarorlar sifatini yaxshilashi, korrupsiyani kamaytirishi va aholi bilan munosabatni mustahkamlashi ta’kidlanadi, bu esa jamiyatda umumiy ma’naviy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Xorijiy tajribada jamoatchilik nazorati faqat huquqiy emas, intellektual muhokamalar orqali ham amalga oshiriladi. Masalan, Oslo Freeedom Forum kabi global maydonlar inson huquqlari, demokratiya va axloqiy tartib masalalari bo‘yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishda ahamiyatli rol o‘ynaydi[7.100]. Bunday tadbirlar jamiyatni ma’naviy baholar bilan boyitadi va siyosiy qarorlarga ta’sir qiladi.

Global tajribada davlat korxonalari va davlat xizmatchilari uchun axloqiy kodekslar jamoatchilik nazoratini mustahkamlaydi. Masalan AQSh va Yevropa davlatlarida axloqiy kodeski davlat rahbariyatidan jamoatchilikka ochiq hisobotlarni taqdim etishni talab qiladi, bu esa ma’naviy reaksiya va ijtimoiy javobgarlikni kuchaytiradi. Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamoatchilik nazoraticha faqat huquqiy monitoring emas, balki madaniy, axloqiy va intellektual ta’sirdir. U jamoatchilikning ham aktiv ishtirokini, ham axborot ochiqligini talab qiladi. Bu jarayonda davlat organlari ochiq hisobotlar, NNTlar faol ishtirok, OAVning tahliliy

muhokamalari va xalqaro standartlar birlashadi — natijada jamiyatning ma’naviy sog‘lomligi ta’minlanadi.

O‘zbekistonda ma’naviy jarayonlarda jamoatchilik nazoratini amalga oshirish istiqbollari, avvalo, huquqiy va institutsional asoslarni yanada mustahkamlash bilan bog‘liq. Mamlakatda “jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi qonun va ochiqlik siyosati bu yo‘nalish uchun poydevor vazifasini bajarmoqda. Yangi tahrirdagi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan huquqiy normalar fuqarolarga davlat organlari faoliyati ustidan monitoring olib borish imkonini bermoqda. Istiqbolda ma’naviy-ma’rifiy dasturlar ijrosi bo‘yicha maxsus jamoatchilik kengashlarini tashkil etish, ularning vakolatlarini aniq belgilash va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi istiqbol — fuqarolik jamiyati institutlari rolini oshirishdir. Bugungi kunda Yoshlar ishlari agentligi, Mahalla tizimi va turli nodavlat notijorat tashkilotlari ma’naviy muhitni shakllantirishda faol ishtirok etmoqda. Kelgusida ularning jamoatchilik nazoratidagi ishtirokini grantlar, ijtimoiy buyurtmalar va ochiq muhokamalar orqali qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq. Bu orqali jamoatchilik fikri davlat qarorlarini qabul qilish jarayoniga tizimli ravishda integratsiyalashadi.

Uchinchi yo‘nalish — raqamli texnologiyalardan foydalanish. “Elektron hukumat” tizimi va ochiq ma’lumotlar portallari orqali ma’naviy sohada amalga oshirilayotgan dasturlar to‘g‘risida axborotni keng jamoatchilikka yetkazish mumkin. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi axborot xizmatlari va rasmiy veb-portallar orqali jamoatchilik fikrini o‘rganish va tahlil qilish imkoniyati mavjud. Istiqbolda onlayn so‘rovlar, jamoatchilik ekspertizasi va ochiq reyting tizimlarini joriy etish nazoratning samaradorligini oshiradi.

To‘rtinchi jihat — ta’lim va tarbiya muassasalarida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish. Maktablar, oliy ta’lim muassasalari va madaniyat markazlarida ma’naviy dasturlar ijrosini ota-onalar qo‘mitalari, jamoatchilik kengashlari va mustaqil ekspertlar baholashi mumkin. Bu jarayon nafaqat nazorat, balki hamkorlik tamoyiliga asoslanishi kerak. Shu ma’noda, ta’lim muassasalari faoliyatining ochiq hisobotlari va jamoatchilik muhokamalari istiqbolli mexanizm hisoblanadi.

Beshinchi istiqbol — ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar rolini kuchaytirish. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik nazorati ko‘p jihatdan axborot shaffofligiga bog‘liq. Jurnalistik tahlillar, blogerlik faoliyati va fuqarolarning erkin fikr bildirishi ma’naviy islohotlar jarayonini baholash imkonini yaratadi. Davlat va jamoatchilik o‘rtasida ochiq muloqotni ta’minlash, matbuot anjumanlari va jamoatchilik eshituvlarini tizimli o‘tkazish orqali ma’naviy jarayonlarda faol va mas’ul jamoatchilik nazorati shakllanishi mumkin.

Xullas, ma’naviy islohotlarda jamoatchilik nazoratini samarali tashkil etish uchun, avvalo, uning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash zarur. Jamoatchilik nazorati faqat deklarativ tamoyil sifatida emas, balki aniq vakolat, mexanizm va javobgarlik tizimiga ega bo‘lgan ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritishi kerak. Bu jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu orqali ma’naviy islohotlarning shaffofligi va samaradorligi ta’minlanadi. Bu birinchidan.

Ikkinchidan, ma’naviy jarayonlarda jamoatchilik nazoratining samarasi fuqarolarning faolligi va huquqiy madaniyatiga bevosita bog‘liq. Agar aholi ma’naviy islohotlarning mazmun-mohiyatini anglasa va unda ishtirok etsa, nazorat tizimi formal xarakterdan chiqib, real ijtimoiy ta’sir kuchiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya muassasalari, mahalla institutlari va nodavlat tashkilotlar orqali jamoatchilik ongini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa jamiyatda mas’uliyat va daxldorlik tuyg‘usini kuchaytiradi.

Uchinchidan, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar va ochiq axborot muhiti jamoatchilik nazoratining yangi bosqichini shakllantirmoqda. Onlayn muhokamalar, jamoatchilik ekspertizasi va ochiq ma’lumotlar platformalari orqali ma’naviy islohotlar jarayonini baholash imkoniyati kengaymoqda. Kelgusida jamoatchilik nazoratini institutsional, axborot va falsafiy jihatdan uyg‘un rivojlantirish orqali ma’naviy islohotlarning barqarorligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –Toshkent.: Fan, 1993. –B. 128
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 apreldagi O‘RQ-474-son “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni // https://www.lex.uz/acts/3679092
3. OECD Public Integrity Handbook, OECD, Paris, 2020, b. 45-67
4. Independent Commission Against Corruption (Hong Kong), ICAC Official Report, Hong Kong, 2018, b. 22-39
5. Federal Ethics Committee on Non-Human Biotechnology Report, FOEN, Bern, 2019, b. 5-29
6. Global NGO Public Accountability Report, World Civil Society Forum, Brussels, 2021, b. 87-103
7. Oslo Freedom Forum Global Human Rights Reviews, Oslo Freedom Forum, Oslo, 2023, b. 100-125

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEK JAMIYATIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Raxmanov Baxodir Mirzayevich
– Toshkent davlat transport universiteti “ Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida yoshlarga doir davlat siyosatining mazmuni, yoshlarni ma’naviy rivojlantirishning huquqiy asoslari, ta’lim tizimidagi islohotlar va yoshlarga berilayotgan imtiyozlar hamda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda yoshlarning o‘rni tadqiq etilgan. Shuningdek, yoshlarni ma’naviy jihatdan yuksaltirishning ayrim ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy omillariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, jamiyat, yoshlar, yoshlar siyosati, yoshlar ma’naviyati, yoshlar tarbiyasi, ta’lim tizimi, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, milliy g‘oya.

Yangi O‘zbekiston strategiyasida yoshlarni ma’naviy kamol topishining huquqiy asoslari belgilab berilgan. 2030 yilgacha aholini ijtimoiy himoya qilish Milliy strategiyasi loyihasini ishlab chiqishga Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, BMTning Taraqqiyot dasturi va Jahon bankining yetakchi mutaxassislari jalb etildi. Farmoyishda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda yoshlarni to‘liq, foydali va munosib ish bilan ta’minlashga qaratilgan. BMTning Bolalar fondi (YUNISEF) O‘zbekistonda qizlarning ta’lim olishi, yosh ayollarga esa ish bilan ta’minlanishda teng imkoniyatlar yaratish hamda ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga investitsiya kiritishga chaqirdi. Tashkilotning “O‘zbekiston yoshlari: chaqiriqlar va istiqbollar” mavzusida chop etilgan hisobotda qizlar va yosh ayollarda internet orqali ma’lumot olishda to‘siqlar borligi qayd etilgan. Bu muammolarning yechimini O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z nutqida ko‘rsatdi: “...xotin-qizlarimizning bandligini ta’minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va nufuzini yanada oshirish, ularning o‘z salohiyatini namoyon etishlari uchun sharoitlarni kengaytirish, gender tenglik, oila, onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida Milliy dastur qabul qilamiz” [1].

Yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish masalasi strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida axborot oqimining keskin ortishi, turli g‘oyaviy ta’sirlar va madaniy omillarning kirib kelishi yoshlar ongi va dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy immunitetni mustahkamlash va sog‘lom qadriyatlarga tayangan shaxsni shakllantirish jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim omilidir. Shu bois yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish nafaqat tarbiyaviy, balki ijtimoiy xavfsizlik nuqtai nazaridan ham dolzarb vazifadir.

Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, innovatsion rivojlanish va fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamlanishi ma’naviy yetuk, mas’uliyatli va faol yosh avlodni talab etadi. Yuksak ma’naviyatga ega yoshlar Vatan taqdiriga daxldorlik hissi, huquqiy ong va fuqarolik pozitsiyasi bilan ajralib turadi. Bu esa islohotlarning samaradorligini oshirish, jamiyatda ijtimoiy adolat va hamjihatlik muhitini qaror toptirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, tarixiy merosga hurmat ruhini kuchaytirish hamda zamonaviy bilim va tafakkurni shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Ma’naviy barkamol yoshlar har qanday buzg‘unchi g‘oya va mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, yangilanayotgan o‘zbek jamiyatida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish mamlakat taraqqiyoti va kelajak avlod farovonligining mustahkam poydevori sifatida namoyon bo‘ladi.

2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha tasdiqlangan Harakatlar strategiyasining “Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishi: Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish; Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalarini qamrab oldi [2]. Xususan, 2020 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni [3] ushbu soha taraqqiyotida, yoshlarimiz zamonaviy bilimlarni egallash uchun zarur huquqiy baza bo‘ldi. Ushbu qonun natijasida keyingi 5 yilda oliy ta’limga qabul kvotasi 3 barobar oshirilib, yiliga 182 ming nafar yosh uchun talaba bo‘lish imkoniyati yaratildi. Bu umumiy qamrov 28 foizga yetdi deganidir. Vaholanki, avval oliy ta’limda 100 nafar boladan faqatgina 9 nafarida o‘qishga imkoniyat bor edi. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab OTMlari bakalavriatining kunduzgi ta’lim shakliga kirish imtihonlarida (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) eng yuqori ball to‘plagan 200 nafar abituriyentlar uchun “Prezident grant”lari joriy etildi. Mazkur grantga loyiq deb topilgan talabalar magistratura bosqichiga imtihonlarsiz davlat granti asosida qabul qilinishi belgilandi. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan

shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi farmoniga muvofiq, 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab “Prezident va nomdor stipendiya”lar har bir OTM bakalavriat talabalari uchun bittadan, tayanch doktoranturada o‘qiyotgan doktorantlar va magistratura bosqichi talabalari uchun kvota ikki barobarga oshirildi.

Islohotlar tufayli 12 toifadagi shaxslar uchun (harbiy xizmatchilarni farzandlari, sport musobaqalarining g‘oliblari, kam ta’minlangan oilalarning farzandlari) davlat granti asosida imtihonsiz o‘qishga kirish imtiyozi berildi. Oliy o‘quv yurtlariga 9 toifadagi shaxslar uchun o‘qishga kirish uchun alohida kvotalar ajratildi. Ehtiyojmand oilalarga mansub 2 ming nafar qizga oliy o‘quv yurtlariga kirish uchun grantlar ajratildi. “2020-2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” Prezident qarori [4] asosida sharoiti og‘ir bo‘lgan Mo‘ynoq, So‘x yoshlariga oliy ta’lim uchun maqsadli qabul grantlari e’lon qilindi. Yangi oliy ta’lim muassasalari tashkil etildi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo‘limlar ochildi, oliy ta’lim muassasalariga qabul kvotalar oshirildi, chet elning yetakchi oliy o‘quv yurtlari bilan yangi universitet, institut va filiallar tashkil etildi.

Qabul qilingan farmon, qaror, Konsepsiya va dasturlar ta’lim sohasidagi davlat siyosati bola tug‘ilganidan 30 yoshgacha uni qo‘llab-quvvatlaydigan tizim shakllanishiga asos bo‘ldi. Ingliz tilida “Life-long learning” birikmasi bilim olishda to‘xtamaslik talabini o‘zida ifodalaydi. Davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib, Yoshlar masalalari bo‘yicha respublika idoralararo kengashi tuzildi. O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi tashkil etilib, 30 iyun Yoshlar kuni deb e’lon qilindi [5; 2020]. Yoshlar ittifoqi negizida Yoshlar ishlari agentligi tuzildi. Joylarda 8 nafar yoshlar hokim o‘rinbosari etib tayinlandi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 9 nafar yigit-qiz saylandi, mahalliy kengashlarning 10 foizini yoshlar tashkil etadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev 2021 yilni “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” [6] deb e’lon qildi. Yoshlar muammolari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Prezidentning 2020 yil 29 dekabrdagi Murojaatnomasida, bola 30 yoshgacha davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi belgilandi, 30 yoshdan keyin davlat siyosatining, ijtimoiy hayotning subyekti, ya’ni jamiyatning hal qiluvchi kuchiga aylanadi [7]. 2020 yil yanvarda «Yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, jinoyatga moyil yoshlarni aniqlash» mavzusida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarini «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi e’lon qildi. «Jinoyat qilishga moyil bo‘lgan yoshlarning asosiy xususiyati nima?» degan savolga 47 foiz respondent ko‘p vaqtini ko‘chada o‘tkazish, 42,1 foizi alkogol va giyohvand moddalarni iste’mol qilish, 34,9 foizi agressivlikni xususiyat sifatida qayd etgan. Tadqiqotda huquqiy savodxonlikning pastligi sabablari sanab o‘tilgan.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va O‘zbekiston bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash borasidagi islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab bergan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi ham yoshlar ma’naviy kamolotida muhim strategik ishlarni amalga oshirishning bosqichi bo‘ldi.

Mamlakatda tub islohotlarni o‘tkazish jarayonida katta tajriba orttirildi. Xalqning islohotlarga bo‘lgan ishonchi ortdi va ishtiroki ko‘lami kengaydi. Bu esa o‘z navbatida mamlakat rivojiga qaratilgan yangi reja va dasturlarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Shunday vaziyatda mamlakatning samarali ichki va tashqi siyosat yo‘lini ishlab chiqishda Prezident Sh.Mirziyoyev quyidagi muhim va dolzarb masalalarini nazarda tutish zarurligiga e’tibor qaratdi:

Birinchidan, bugungi kunda mamlakat aholisi 38 milliondan oshdi. Bu esa O‘zbekiston jahonda aholi soni bo‘yicha 37-o‘ringa chiqib, Polsha, Kanada, Saudiya Arabistoni kabi davlatlar aholisidan ham oshishini anglatadi. Ikkinchidan, aholining qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etadi va har yili mehnat bozoriga kamida 600 ming yoshlar kirib kelmoqda. Bunday demografik o‘sish ham imkoniyat, ham juda katta mas’uliyat demakdir.

O‘zbekiston aholisining o‘sish templari, xususan aholining yarmidan ko‘pi yoshlar bo‘lishi, ularga munosib sharoit qilib berish uchun barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozim. Bularning barchasi uchun mustahkam huquqiy poydevor zarur bo‘lishi, Yangi O‘zbekistonga yangilanayotgan Konstitutsiya kerakligini ko‘rsatdi [8]. Negaki, O‘zbekiston aholisi 2040 yilga borib 50 millionga yetishi, uning yarmidan ko‘pi yoshlar bo‘lishi e’tiborga olinsa, ularga munosib sharoit qilib berish uchun barqaror iqtisodiyot, xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, ijtimoiy kafolatlar bo‘lishi lozim. Bularning barchasi uchun huquqiy poydevor Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishiga [9] asos bo‘ldi.

Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq Konstitutsiyadagi normalar 3 barobar ko‘paytirildi. Aholining bepul tibbiy xizmatlardan foydalanishi, aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar oshirildi. Ta’lim olish huquqi va imkoniyati kengaytirildi, o‘qituvchilar alohida konstitutsiyaviy maqomga ega bo‘ldi. Ta’lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshirildi. Fuqarolarning oliy ta’lim muassasalarida davlat granti hisobidan o‘qish huquqi belgilab qo‘yildi. Nogironligi bor farzandlarga ta’lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratish ko‘zda tutildi.

Ilk bor Konstitutsiyada davlatning o‘qituvchilar sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish majburiyati kuchaytirildi. Prezident ta’biri bilan aytganda, “Mamlakatimiz taraqqiyotida mutlaqo yangi davrga qadam qo‘ymoqdamiz. Chunki, yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilish bilan biz Uchinchi Renessans uchun huquqiy poydevor yaratdik. Bugun xalqimiz intilayotgan ana shu buyuk maqsadni amalga oshirishga munosib hissa qo‘shaman, degan har bir yurtdoshimiz, avvalo ushbu poydevorga tayanib, harakat qilishi lozim. Ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqarishda, yoshlarimiz kelajagi uchun mustahkam zamin hozirlashda Asosiy qonunimiz ularga beqiyos imkoniyatlar ochib beradi” [10. 416]. Yana bir muhim yangilik – davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi

konstitutsiyaviy mustahkamlanmoqda. Endi farzandlar tarbiyasi, ularga ta’lim berish, barkamol voyaga yetkazish ham ota-onaning majburiyati hisoblanadi.

Yoshlarga oid davlat siyosati parlament faoliyatida ham o‘z ifodasini topmoqda. Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti va Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya faoliyati yoshlar bilan ishlash, ularning qiziqishlarini o‘rganib norma ijodkorligiga jalb etish va qabul qilinayotgan qonunlarni yosh avlod orasida targ‘ib etish orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirish. Joriy yilda Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya 20 dan ziyod qonun loyihalari yuzasidan 60 dan ziyod takliflarni mas’ul qo‘mitalarga taqdim etdi. Davlat dasturi doirasida joriy yilda Qonunchilik palatasida 5 marta “Ochiq eshiklar kuni”, quyi palatada yoshlarning 19 ta uchrashuvi tashkil etildi. Joylarda “Fraksiya va yoshlar”, “Deputat va yoshlar” muloqotini o‘tkazish orqali yigit-qizlarning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanmoqda, ularni dolzarb masalalarni hal etishiga parlament a’zolari tomonidan ahamiyat qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023 yil 11 sentabrda imzolagan farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston–2030” strategiyasiga ko‘ra [11], respublika 7 yilda daromadi o‘rtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirishi, xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimi yaratilishi, xalq xizmatidagi adolatli davlat barpo etilishi kerak. Strategiyadagi jami 100 ta maqsad 5 ta yo‘nalishlarga bo‘linib, birnichi yo‘nalish “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish (ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ma’naviyat masalalari)”, deb nomlangani ham bejiz emas.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston” nomli keng qamrovli, fundamental asarida O‘zbekistonning bugungi yangi qiyofasining mazmun-mohiyati chuqur tahlil va dalillar asosida yoritib berilgan. Asarning bosh g‘oyasi, asosiy leytmotivini Prezident Sh.Mirziyoyev serqirra faoliyatining ma’no-mazmuniga aylangan, keyingi sakkiz yil davomida mamlakatimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning markazida bo‘lib kelayotgan milliy mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, yurtimizda tinchlik va

barqarorlikni ta’minlash, yoshlar ma’naviyati kabi ezgu tushunchalar tashkil etadi.

Xulosa. Hozirgi zamonning shiddatli va ziddiyatli taraqqiyot tamoyillarini murakkab va tahlikali davr nuqtai nazaridan tushunish, bugungi tinch va farovon hayotimizning qadriga yetish, kelajakka katta ishonch bilan qarab, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonlarida ongli va bunyodkor fuqaro sifatida munosib ishtirok etishda, yangi vatanparvar avlodni tarbiyalashda Prezident asarlarining ahamiyati beqiyosdir. “Yangi O‘zbekistonni bunyod etish uchun xalqimizning orzu-intilishlari hamda keng qamrovli islohotlarimizning mohiyati va falsafasini aks ettiruvchi yangi g‘oyalar va yangicha dunyoqarash ham talab etiladi. Bu dunyoqarash, avvalambor, “barqaror rivojlanish falsafasi” asosida shakllanishi lozim, deb o‘ylayman. Ertangi kun tarixini bugun yozishimiz shart. Yangi davr uchun yangi g‘oya va tashabbuslar, puxta o‘ylangan istiqbolli rejalar, yangi marra va g‘alabalar kerak bo‘ladi” [12; 15]. Albatta, bu g‘alabalarni Yangi O‘zbekistonning ma’naviyatli yoshlari ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi https://daryo.uz/k/2021/11/06/
2. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi. http://strategy.regulation.gov.uz/uz/ 2
3. “Ta’lim to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
4. “2020/2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2020 yildagi PQ-4749-son qarori. https://lex.uz/docs/4855128
5. Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/3255680

6. 2021 yil — Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili deb e’lon qilindi https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/29/president/

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi https://president.uz/uz/lists/view/4057

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining X syezdidagi nutqi https://review.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yangi tahrirdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023 yil 8 maydagi PF-67-sonli Farmoni // https://lex.uz/docs/6461609

10. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – 416.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston—2030» Strategiyasi to‘g‘risida” gi 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/6600413

12. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – T.: O‘zbekiston, 2024. -B. 15.

ISTE’MOL MADANIYATI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI

Gulnoza NURTOYEVA,
Jizzax viloyati Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari hududiy birlashmasi raisi

Annotatsiya. Bugungi kunda iste’mol madaniyati tushunchasi tobora keng ahamiyat kasb etib bormoqda. Globallashuv uning ma’naviy mohiyatini kengroq o‘rganilishi xzaruratini yuzaga chiqarmoqda. Iste’mol

– ehtiyoj mahsuli sifatida insonning azaliy va abadiy hamrog‘i bo‘lib, bugungi kunda u iqtisodiy mohiyatidan ko‘ra ijtimoiy mohiyati bilan ustuvorlik kasb etmoqda. Maqolada shu masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Iste’mol, ehtiyoj, iste’mol madaniyati, jamiya, ma’naviy qiyofa, inson, ong, mahsulot, globallashuv, davrlashuv, hayot darajasi, istak.

Ilmiy jamoatchilikda iste’mol madaniyati deganda asosan iqtisodiy sohaning atamasi sifatida qaralgan va shu nuqtai-nazardan tahlil qilingan. Biroq, bugun tezkorlik blan avj olayotgan globallashuv bu kategoriyaning shunchaki ma’naviy mohiyatini emas, balki ahamiyatini ham yuzaga chiqara boshladi. Va ikkilanmay aytish mumkin-ki, bu atama inson ma’naviy qiyofasi, ma’naviy imijini aks ettiruvchi mezonlardan biri sifatida ko‘rinib bormoqda.

G‘arb mamlakatlarida iste’mol bilan bog‘liq madaniyat tarixi 1950-yillar oxiri hamda1960-yillarning boshlariga borib taqaladi. Bu vaqtda Yevropada va AQShda ilk bor mehnatkash ommasi hayot darajasi o‘sdi va ular birlamchi ehtiyojlardan endi istakka asosan iste’mol qilishga o‘tdi, deyish mumkin. Odatiy turushda yuqori texnologiyalardan foydalanish, avtomobil tanlab olish, sayohatlar qilish va madaniy hordiq olish kabilar umumiy iste’mol mahsulotlari safidan joy ola boshladi. Iste’mol madaniyatining o‘ziga xos, milliy asoslangan ko‘rinishi yuzaga kela boshladi. Olimlarning fikriga ko‘ra, “aynan shu davrda “iste’mol madaniyati” muhim madaniy masalaga aylana boshladi”.[1-166 b.]

Iste’molning o‘zi esa yashash ehtiyojlarining mahsuli sifatida insoniyat yaralishi bilan barobar amal qilib keladi. Demak, iste’mol dastavval iqtisodiy-moddiy mohiyati bilan namoyon bo‘lgan. Shuning uchun bu kategoriyaga iqtisodiy nuqtai-nazardan qarash ustuvorlik kasb etgan. Lug‘atlarda ham “Iste’mol — iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish jarayonida moddiy va ma’naviy ne’matlardan foydalanish, takror ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi”, - deb keltirilgan.[4]

Iste’mol tarixi turli bosqichlarni qamrab oladi, ular dastlab inson ehtiyojlarini ilk qondirishdan boshlangan, bir ehtiyojning qondirilishi ikkinchi ehtiyojni ham yuza keltirib chiqargan. Inson ongining rivojlanib

borishi ham ehtiyojlarning shakli, mohiyatini o‘zgartirib borgan. Aytaylik, dastlab go‘sht xom tarzda iste’mol qilingan bo‘lsa, olovning kashf etilishi nafaqat go‘shtni pishirib iste’mol qilish, balki uning turlarini ham yuzaga keltirgan.

Qadimgi davrlarda tovar yoki mahsulotlarni iste’mol qilish faqat yashash ehtiyoji mahsuli bo‘lgan bo‘lsa, endi iste’mol jarayonidan zavqlanish, uni qaysidir urf-odatlar bilan integratsiya qilish kabilar azaldan ilm ahli va donishmandlarni qiziqtirib kelgan. Xususan, Demokrit, Geraklit, Platon kabi donishmandlarning asarlarida ehtiyoj va iste’molning roli, shakllari masalalarining tahlilini uchratish mumkin. Qadimgi faylasuflar inson ehtiyojlarini turli yo‘llar bilan tushuntirganlar, masalan:

Demokrit ehtiyojni inson ongini takomillashtiruvchi, til, nutq va mehnat odatini egallashga imkon beruvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida ko‘rgan. Shuningdek, u odamlar o‘z ehtiyojlarining chegarasini bilmasligini va ehtiyojlarini bo‘rttirib ko‘rsatishni insoniy kamchilik deb bilishini ta’kidlagan. Demokrit baxtga erishish uchun o‘z ehtiyojlarini nazorat qilish va istaklarni oqilona cheklash kerak, degan fikrni ilgari surgan birinchilardan biri edi.

Geraklit ehtiyojlar hayot sharoitlari bilan belgilanadi, deb hisoblagan. Shuningdek, u har bir istak oqilona bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan. Uning fikricha, ehtiyojlarni qondirishda mo‘tadillik insonning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga hissa qo‘shadi.

Platon ehtiyojlarni podaga o‘xshash "pastki ruh"ni tashkil etuvchi birlamchi ehtiyojlarga va birinchisini boshqarish maqsadi bo‘lgan "oqilona, olijanob" ruhni tashkil etuvchi ikkilamchi ehtiyojlarga ajratgan. Platonning fikricha, inson ehtiyojlarining tashuvchisi tana emas, balki ruhdir.

Sokrat inson ehtiyojlari, istaklari va intilishlari asosan axloq sohasida amalga oshishiga ishongan. Inson o‘z taqdiriga faqat o‘z impulslarini butun jamiyat ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtira olgandagina loyiqdir.

Epikur zavqlanishda me’yorga chaqirdi. Uning zavqlanish mezoni azob-uqubatlarning yo‘qligi va xotirjam kayfiyat (ataraksiya) edi.

19-asr oxirlarida Yevropada utilitarizm (Isaak Bentham, Jon S. Mill, Genri Sidgvik) va Qo‘shma Shtatlarda pragmatizm (Charlz Pirs, Uilyam

Jeyms, Devid Dyui) doirasida iste’molchilikning zamonaviy dunyoviy etikasi paydo bo‘ldi.

20-asrning o‘rtalarida "iste’molchi jamiyati" paydo bo‘ldi. U jamiyatning avvalgi holatidan farq qilar edi, chunki ilgari iste’mol faqat insonning omon qolish zarurati bilan belgilansa, bu jamiyatda ommaviy ishlab chiqarilgan tovarlar va unga mos keladigan qiymat tizimi paydo bo‘ldi.

"Iste’mol davri" o‘ziga xoslik bilan alohida davr sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, 20-asrning ikkinchi yarmida o‘ziga xos iste’mol davri yuzaga keldi va hozirgi kunda ham bu davr o‘ziga xos jarayonlari oqimi davom etmoqda. Bu davrning e’tiborli jihati shundaki, moddiy tovarlarning ma’naviy mohiyati, brendlar va reklamalar, shuningdek, tezkor qoniqish darajasiga asoslangan madaniyat aks etadi.

Iste’molchilik ijtimoiy munosabatlarda aks etishi bilan birga, bozor munosabatlari bilan integratsiyalashadi. Bu haqida marksistik ta’limotning o‘ziga xos yo‘nalishda yondashuvini ko‘rish mumkin.

“Iste’mol jamiyatida har qanday munosabatlar bozorga aylanishi mumkin. Ya’ni shaxs, narsa yoki buyumlarning qiymatini sub’ektiv ayirboshlash qiymati bo‘yicha baholashi mumkin. Marketizatsiya ham metafora bo‘lib, bozor eng samarali va adolatli taqsimlash usuli ekanligiga ishonishdan kelib chiqadi. Ammo bunday e’tiqodlar ham juda g‘oyaviydir. Marksizmda iste’molchilik kapitalistik jamiyatdagi ortiqcha ishlab chiqarishning muqarrar mahsulotidir” [2-689-b.] Demak, iste’molchilik o‘ziga xos mafkuraga asolantirilgan.

Iste’mol madaniyatida o‘ziga xos xulq-atvor namoyon bo‘ladi. Xususan, A.Haydarov o‘z tadqiqot ishida quyidagicha keltiradi: “Falsafiy jihatdan esa iste’molchi xulqi quyidagi mantiqlar asosiga quriladi deyishimiz mumkin:

1. Iste’mol madaniyatiga to‘la rioya qilish va bajarish;

2. Savdoga yolg‘on aralashtirmaslik; (Bu talab iste’molchi va ishlab chiqaruvchiga birdek tegishli).

3. Iste’mol tovarlarini tejab ishlatish, isrof qilmaslik, ortiqcha sarflamaslik, zaxira sifatida g‘amlab borish;

4. Sotuvchi bilan iste’molchi madaniyati va odobi qoidalariga amal qilgan holda yaxshi muomalada bo‘lish”.[3 – 12 b.]

Umuman olganda iste’mol madaniyati bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo‘lib qolish bilan birga, bu masalani ijtimoiy-ma’naviy jihatdan o‘rganish Yangi O‘zbekistonda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arxangelskaya I.A. Formirovaniye kulturы potrebleniya lichnosti : Sistemnыy analiz : dissertatsiya ... kandidata filosofskix nauk. MGU. - Moskva, 1990. - 166 s.

2. Marksizm: proshloye, nastoyaщeye, budushcheye : Materialы mejdunar. nauch.-prakt. konf. "Marksizm, obщestvovedcheskaya mыsl sovremennosti i sotsialisticheskiye tendensii razvitiya chelovechestva v XXI veke", Moskva, In-t filosofii RAN, 24-26 apr. 2002 g. / [Redkol.: Bindyukov N.G. i dr.]. - M. : MAKS Press, 2003 (PIK VINITI). - 689 s.

3. Xaydarov A.N. O‘zbekistonda aholi iste’mol madaniyatini takomillashtirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2021. – B.12.

4. https://uz.wikipedia.org/

ZJV5401

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH SIYOSATI

Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent.
Shokirjonova Gavharoy Xurshidbek qizi
Usmonova Ozoda Sobirjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Xalqaro jurnalistika fakulteti 2-kurs talabalari

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy faolligi, imkoniyatlari hamda sog‘lom turmush tarzini ta’minlash omillariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy-siyosiy hayot, parlament, yoshlar, ma’naviyat va ma’rifat masalalari.

Bugun mamlakatimizni yanada modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali yoshlarning ijtimoiy va ma’naviy faolligi, imkoniyatlari hamda sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yish zarurligini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Shuning uchun ham jamiyat va davlat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlarga nisbatan yoshlarning mas’uliyati, har tomonlama barkamol avlod sifatida shakllanishi davlatimiz e’tiborida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Istiqbolimizni belgilovchi bu muhim strategik vazifa mafkuramizning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi kun talabi — yoshlarning mustaqil fikri va dunyoqarashi yuksalishiga ko‘maklashish, hayotda o‘z pozitsiyasi va yondashuvini qat’iy belgilab olishiga yordam berish, ularni bilimli qilib tarbiyalash, tevarak-atrofdagi voqelikka befarq bo‘lmaslik, Vatanga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashga intilishini ta’minlashdan iborat.

Mamlakatimizda keng ko‘lamda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning ushbu jarayonlarning sog‘lom va ongli, ijtimoiy-siyosiy jihatdan yetuk ishtirokchisi sifatida shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu

bilan birga, davlat va jamiyat hayotining yanada demokratlashtirilishi va erkinlashtirilishi mamlakat taraqqiyoti yo‘lida Prezidentimiz tomonidan belgilab qo‘yilgan milliy yuksalishimizni ta’minlovchi beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi (2017-yil 7-fevral), beshta muhim tashabbus (2019-yil 19-mart) hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi (2026-yil 16-fevral) zamirida O‘zbekiston kelajagini ko‘p jihatdan belgilovchi yoshlar ijtimoiy qatlamining jamiyatdagi barcha soha va tizimlar bilan integratsiyalashuvi, moslashuvi hamda davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida, siyosiy tizimni yanada takomillashtirishda bevosita ishtirok etishini ta’minlash vazifalari qat’iy belgilab qo‘yildi.

Bugun dunyo miqyosida ikki milliardga yaqin yoshlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyat qismi muammolarini o‘rganish, tahlil qilish va yechim topish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Taniqli sotsiolog-futurolog E. Toffler: “Yangi kishi shakllanayotgan yo‘q, yangi ijtimoiy xarakter shakllanmoqda. Shuning uchun ham asotir shaklidagi ‘odam’ qiyofasini emas, balki xarakterning o‘ziga xos belgilarini aniqlashimiz darkor. Negaki, u ehtimol ertangi taraqqiyot tomonidan baholanishi mumkin” [1], — degan fikrni bildiradi. 2017-yil 19-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” hamda “Yoshlar masalalari” bo‘yicha maxsus rezolyutsiyalarni ishlab chiqish taklifi e’tiborga olinib, 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyutsiya qabul qilinganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

O‘zbekiston yoshlarining bilim darajasi va ularning ilg‘or g‘oyalarini amalga oshirishni rag‘batlantirish maqsadida 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunning ijrosini ta’minlash va davlatimiz rahbarining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘isida”gi Farmonidan kelib chiqqan holda, yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlar uchun e’tibor yanada kuchaytirilmoqda. Chunonchi, Prezidentimizning 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi

bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Maqsad — yoshlar muammolarini o‘rganish, tahlil etish, yosh kadrlarni tanlash va yo‘naltirish orqali davlat va jamiyatimiz faoliyatida ularning ishtirokini mustahkamlashdan iborat. Shuningdek, Prezidentimizning 2020-yil 2-martdagi Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturining 21-band ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy Majlisning har ikkala palatasi huzurida Yoshlar parlamentlarini tashkil etish va ularning tarkiblarini shakllantirish tartibini belgilash nazarda tutilgan edi. Shundan kelib chiqib, o‘tkazilgan keng muhokama va xorijiy davlatlar tajribasiga muvofiq, 2020-yil 29-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi o‘rtasida Qonunchilik palatasi huzurida “Yoshlar parlamenti”ni tashkil etish bo‘yicha bitim imzolandi. Mazkur bitim bilan “Yoshlar parlamenti”, Respublika komissiyasi, Nizomi, Reglamenti va tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.“Yoshlar parlamenti”ning asosiy maqsadi — mamlakat yoshlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyatning faol ijtimoiy qatlamiga aylantirish, siyosiy bilim va ko‘nikmalarini amalda boyitish, qonunchilik va qonun ijodkorligi jarayoniga yoshlarni jalb etish hamda qabul qilinayotgan qonunlarni yoshlar orasida keng targ‘ibotini ta’minlash orqali ularning parlament hayotiga daxldorligini oshirish belgilanadi. Shuningdek, yoshlarning huquq, erkinlik va manfaatlarini himoya qilishga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotining dolzarb muammolarini yoshlar ishtirokida muhokama qilish va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlash, qonun loyihalarini yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish qoidalarining amaliyotga tadbiq etilishi yoshlarga bo‘lgan e’tibordan dalolatdir.

Endilikda yoshlarimiz mazkur parlament orqali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining, ularning kengashining, qo‘mitalari va komissiyalarining, deputatlar birlashmalarining majlislarida ishtirok etadi; tegishli xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan belgilangan tartibda o‘zaro tajriba va axborot almashishi mumkin bo‘ladi. “Yoshlar parlamenti”ga 18–30 yoshdagi O‘zbekiston fuqarolari saylanadi (muomala

qilishga layoqatli bo‘lmaganlar, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotganlar bundan mustasno). “Yoshlar parlamenti”ga a’zolarni saylash uchun hududiy komissiyalar tashkil etiladi. Komissiya ikki bosqichda saylov jarayonlarini tashkil etadi.

Birinchi bosqichda nomzodlar o‘zining saylovoldi dasturi bilan tuman (shahar) komissiyasida ishtirok etadi. Birinchi bosqich yakuni bo‘yicha komissiya besh nafar nomzodni, ya’ni har bir siyosiy partiyaning bir nafar nomzodini yashirin ovoz berish bilan saylaydi. Ikkinchi bosqichda nomzodlar saylovoldi dasturi taqdimoti bilan tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari Kengashida ishtirok etadi. Tegishli tuman (shahar) xalq deputatlari bir nafar nomzodni yashirin ovoz berish orqali saylaydi.

Demak, “Yoshlar parlamenti” o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, tegishli siyosiy partiyalar va O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqiga hisobdor bo‘lib, “Yoshlar parlamenti”ning a’zosi parlamentning vakolatlari muddatiga jamoat asosida saylanadi. Bundan ko‘zlangan asosiy vazifa — jamiyatning ijtimoiy qatlamini tashkil etuvchi yoshlarning hayotiy tajribasini mustahkamlashdir.

Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlashicha, “Farzandlarimizning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotda munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan buyon ham bosh maqsadimiz bo‘lib qoladi” [2].Haqiqatda ham sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholini, ayniqsa yoshlarni ish o‘rinlari bilan ta’minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va shunga o‘xshash katta ijtimoiy ahamiyatga ega boshqa masalalar bo‘yicha muhim davlat dasturlarini amalga oshirishda davlat o‘zi yo‘naltiruvchi kuch sifatida manzilli strategiyasini belgilab olgan.

2026-yil 16-fevral kuni “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni imzolandi. Mazkur hujjatga muvofiq, 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlandi. Strategiyada 100 ta maqsad va 437 ta samaradorlik ko‘satkichi belgilangan. Har bir ko‘rsatkichning moliyaviy manbalari aniq ko‘rsatilib,

ularning ijrosi yilma-yil rejalashtirilgan. Hujjat doirasida 60 ga yaqin davlat organiga aniq vazifalar yuklatilgan. Shulardan kelib chiqib, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari qatorida turgan yoshlarning ijtimoiy–siyosiy, ma’naviy–ma’rifiy, huquqiy–madaniy saviyasining yuksalib borishi asosida Vatan taraqqiyoti, xalqimizning farovonligi va g‘oyaviy yuksalishi turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Vatanparvar gazetasi, 2020-yil, 4-sentabr.
2.Toffler E. “Tret’ya volna”. M. Ast. 1999. – S. 602.

YANGI O‘ZBEKISTONDA “INSON QADRI” TAMOYILI VA MA’NAVIY MAKON: IJTIMOIY-TARIXIY TAHLIL

Qodirov Bo‘ri Xudoyshukurovich,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot paradigmasida ustuvor ahamiyat kasb etayotgan “inson qadri” tamoyilining ijtimoiy-tarixiy va falsafiy asoslari tahlil qilingan. Ushbu tamoyilning milliy ma’naviy meros, konstitutsiyaviy islohotlar va fuqarolik jamiyati institutlari rivoji bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, inson qadrini ta’minlashda ma’naviy makonning ahamiyati kompleks yondashuv asosida ochib berilgan.
Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, inson qadri, ma’naviy makon, madaniy muhit, tarixiy tahlil, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ijtimoiy islohot.

Zamonaviy demokratik taraqqiyot sharoitida inson qadri oliy qadriyat sifatida e’tirof etiladi. Fuqarolik jamiyati esa mazkur qadriyatni amalga oshirishning muhim institutsional mexanizmi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati va inson qadri bir-birini to‘ldiruvchi va o‘zaro bog‘liq ijtimoiy kategoriyalardir. Inson qadri demokratik davlatning maqsadi bo‘lsa, fuqarolik jamiyati uni amalga oshirishning vositasidir.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi inson qadrini oliy qadriyat sifatida belgilaydi. Davlat rahbarining ta’kidlashicha:
“Inson – davlat taraqqiyotining markaziy nuqtasi va har bir siyosat uning qadrini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi lozim” [1].

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash – bu shunchaki shior emas, balki har bir qonun ijodkori, huquqni qo‘llash organi xodimi va oddiy fuqaroning kundalik faoliyati mezoniga aylanib bormoqda. Bu esa davlatning qudrati uning chegaralari yoki iqtisodiyoti bilan emas, balki o‘z fuqarolarining sha’ni va qadr-qimmatini qanchalik himoya qila olishi bilan o‘lchanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida inson manfaatlari va qadr-qimmatini ta’minlash ustuvor vazifaga aylandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 7-moddasi birinchi bandida “Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai”[2], degan norma belgilab qo‘yilgan. Bu norma timsolida O‘zbekiston Respublikasida jahon miqyosida umume’tirof etilgan xalq hokimiyatchiligi prinsipi, ya’ni xalq suverenitetning tashuvchisi va davlat hokimiyatining yagona manbai ekanini anglatuvchi tamoyil mustahkamlab qo‘yilgan.

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida qonunlarimiz va davlat idoralari faoliyatida “inson qadri uchun” tamoyili bosh mezon qilib belgilanar ekan,. asosiy qonunimizda insonning sha’ni va qadr-qimmati daxlsiz hamda hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo‘lishi mumkin emasligi qat’iy qayd etilgan. Bu dolzarb muammoga, lo‘nda javobni davlatimiz rahbarining o‘zi bergan: “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch

va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz”.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida “Hech kim e’tibordan chetda qolmasligi kerak” degan tamoyil asosiy mezon sifatida qaror topayotgani ijtimoiy davlat barpo etish yo‘lidagi izchil harakatlarning dalili. Ijtimoiy himoya, inson kapitaliga sarmoya, sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish - bularning barchasi iqtisodiy o‘sishning samarasini inson farovonligiga yo‘naltirishga xizmat qilmoqda.

Inson qadri, baxt-saodati, farovonligi hamma davrlarda buyuk ajdodlarimiz ta’limotlarining bosh mazmuni bo‘lib kelgan. Imom Buxoriy tarixga muhrlab ketgan muqaddas hadislardan tortib, Abu Nasr Forobiy ta’limotlari, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy qarashlari, Sohibqiron Amir Temur davlatchilik nazariyasida ham insonparvar davlat tuzish maqsadi yotadi.

Sharq tafakkurida insonni ulug‘lash g‘oyasi komil inson konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u ayniqsa Alisher Navoiy asarlarida chuqur aks etgan [3].

Buyuk shoir va mutaffakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy bobomiz o‘z g‘azallarida inson qadri har narsadan ustun ekanligiga urg‘u berganligini quyidagi satrlarida ko‘rishimiz mumkin:

Kimki ulug‘roq, anga xizmat kerak,
Ulki kichikroq, anga shafqat kerak, –

degan hikmatini olaylik. Bu purhikmat ibora zamirida, avvalambor, Sharq kishilari, xususan, o‘zbek xalqi uchun necha ming yillar davomida asosiy axloq nizomiga aylangan “Ulug‘larga xizmat, kichiklarga shafqat” naqliga xos insonsevarlik falsafasi o‘z mujassamini topgan.

Abu Ali ibn Sino jamiyat kishilarning o‘zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta’kidlaydi. Jamiyat a’zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari lozimligini uqtiradi.

Abu Nasr Forobiy esa, agar insonlar hamjihat farovon hayot barpo etish uchun zarur bo‘lgan axloqiy tamoyillar, fazilatlar, adolat, axloqiy xulq-atvor va boshqalar haqida yetarli bilimga ega bo‘lsa, erkinlik, tenglik,

fazilatli hayot asosida mukammal jamoaga birlashishi mumkin deb hisoblaydi.

Sohibqiron Amir Temur o‘z davlatining kuch-qudratini oshirish va mustahkamlash uchun, birinchi navbatda, harbiy va eng muhim iqtisodiy islohotlar o‘tkazgani ma’lum. Ular zamirida donishmandlar aql-idroki, g‘oyalari mujassam edi. Ayniqsa, taraqqiyot uchun yagona davlat, o‘zaro totuvlik, qulay mulkiy va huquqiy sharoit yaratishga, xalq farovonligini ta’minlashga alohida e’tibor bo‘lgan.

Amir Temur hamisha inson manfaatlarini kuchaytirishga intilib, irqi, millati, dini va kelib chiqishidan qat’i nazar, insonlarning bir butun hududda yashashi mumkinligi to‘g‘risidagi “yagona makon” g‘oyasining ilk tashabbuskori edi.

Bularning barchasi, inson qadri- yurtimizda qadim-qadimdan ulug‘lanib kelinganligidan dalolatdir.

Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadri quyidagi yo‘nalishlarda amaliy mazmun kasb etmoqda:

-Konstitutsiyaviy kafolatlarni mustahkamlash;

-Sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish;

-Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish;

-Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash.

Inson qadri faqat huquqiy jihatdan emas, balki ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ham ta’minlanishi jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston jahon minbarlaridan ilgari surgan xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta’minlashga, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgani uchun xalqaro hamjamiyatning e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

Yangi Uyg‘onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion ma’naviy makonni shakllantirish zarurati muhim masalaga aylanishi tabiiydir.

Prezidentimiz, “Yangi ma’naviy makon nima? Mening nazarimda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir” [4;276] deb ta’kidlagan edi.

Ma’naviy makon – jamiyatda inson ongi, qadriyatlar tizimi va madaniy muhit ta’sirida shakllanadigan ijtimoiy-farovonlik muhiti. U jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlaydi.

Haqiqatan ham, bugungi yangilanayotgan O‘zbekistonda barcha sohalarda kechayotgan islohotlar taqdiri, milliy taraqqiyotimiz jamiyatning ma’naviy qiyofasiga bog‘liq. Biz bugun yaratayotgan yangi ma’naviy makon qachon o‘z natijasini ko‘rsatadi? Qachonki biz tafakkurdagi hafsalasizlik, ma’naviy hayotdagi mudroqlik, o‘z shaxsiy maqsadlarimizni jamiyat ijtimoiy mo‘ljaliga uyg‘unlashtirishdagi no‘noqligimizni bartaraf etsakkina bunday makonga ega bo‘lamiz”[4; 55-56].

Ma’naviy makonning asosi qo‘yidagi institutsion jarayonlarida namayon bo‘ladi:

-oilada;

-ta’lim muassasalarida;

-mahallada;

-ommaviy axborot vositalarida;

jamoat tashkilotlarida.

Sog‘lom ma’naviy muhit inson qadrini anglash va hurmat qilish madaniyatini shakllantiradi.

Yoshlar tarbiyasi ma’naviy makon barqarorligining asosiy shartidir.

Hech kimga sir emas, hozirgi globallashuv davrida dunyo maydonida hamma sohalarda keskin kurash va raqobat tobora ayovsiz tus olmoqda. Ayrim davlatlar, siyosiy markazlar tomonidan boshqa mamlakatlarni o‘z ta’sir doirasiga olish, ozodlik ruhini sindirish, mustaqilligini tizginlash, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini egallash orqali taraqqiyot va barqarorlik, milliy birlik va hamjihatlik ildizlariga bolta uruvchi manqurtlarga aylantirmoqda. Bu yo‘lda havoyi yorliqlar yopishtirilgan yolg‘on va puch da’volar asosida turli usul va vositalarni qo‘llashga, juda katta kuch, mablag‘ va imkoniyatlar safarbar etilyapti.

Ma’lumki, yoshlar yangilikka nisbatan juda ta’sirchan, hissiyotga beriluvchan bo‘ladi. Shuning uchun xam bizning g‘animlarimiz bugungi kunda hayotimizda mavjud bo‘lgan ayrim kamchiliklardan foydalanib, yoshlarimizni chalg‘itmoqchi, ularning qalbiga, dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘layotganligini esimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Yosh avlodni turli ma’naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalkimizni ulug‘laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan noma’qul odatlar haqida ochiq so‘z yuritishimiz zarur.

Globallashuv jarayoni tufayli ro‘y berayotgan mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish uchun yoshlarimizga ilmiy, ma’naviy merosni har taraflama chuqur o‘rgatish orqali mafkuraviy tahdidlardan saqlanishimiz mumkin.

Yoshlarda fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish demokratik jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholining barcha moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgan tub o‘zgarishlar, inson manfaatiga xizmat qiladigan islohotlar, bozor iqtisodiyotiga asoslangan adolatli jamiyat, kuchli demokratik huquqiy davlat qurish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidan bosqichma-bosqich ilgarilab bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Konstitutsiyaviy islohotlar: O‘zbekiston – ijtimoiy davlat. Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023,-B. 6.

3. Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016.

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

5. Ijtimoiy-ma’naviy jarayonlarga oid 111savolga 111 javob.-Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022.-B.55-56.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXBORIY-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI YAGONA MA’NAVIY MAKONNI MUSTAHKAMLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Madaliyev Baxtiyorjon Egamberdi o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish orqali yagona ma’naviy makonni mustahkamlashning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida axborot oqimining ortishi yoshlar ongiga mafkuraviy tahdidlar ta’sirini kuchaytirayotgani asoslanadi. Axboriy-analitik kompetentlik tizimli-jarayonli, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida yoritilib, uning kognitiv, tahliliy, aksiologik va refleksiv komponentlari aniqlashtiriladi.

Kalit so‘zlar. axboriy-analitik kompetentlik, yagona ma’naviy makon, ma’naviy xavfsizlik, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, pedagogik aksiologiya, mafkuraviy immunitet, raqamli kompetensiya, pedagogik tizim.

XXI asrda axborot oqimlarining keskin ortishi uni bilim manbaidan tashqari ijtimoiy va mafkuraviy ta’sir vositasiga aylantirdi. Bu ta’lim tizimidan yosh avlodda axborotni ongli qabul qilish va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi.

Globallashuv sharoitida ma’naviy makon barqarorligi axborot xavfsizligi bilan bog‘liqdir. M.Quronov zamonaviy ma’naviy tahdidlar yoshlar ongiga axborot vositalari orqali ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [6]. Shu bois pedagogning analitik salohiyati strategik ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv pedagogni axborotni izlaydigan, tahlil qiladigan va baholaydigan integrativ shaxs sifatida talqin qiladi [5]. UNESCO ham axborotni tanqidiy baholashni jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida e’tirof etadi [7].

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish jarayoni yagona ma’naviy makonni mustahkamlash kontekstida tizimli, aksiologik va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o‘rganildi.

Tizimli-jarayonli yondashuv kompetentlikni yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi. Aksiologik yondashuv axborotni qadriyatlar asosida baholashni talab etadi; B.X.Xodjayev ma’naviy xavfsizlikni shaxsning qadriyatli pozitsiyasi bilan bog‘laydi [9]. Kompetensiyaviy yondashuv esa ta’lim natijasini real faoliyatda namoyon bo‘ladigan integrativ sifatlar bilan belgilaydi [5].

1-rasm.

Axboriy-analitik kompetentlikning strukturaviy modeli



Axboriy-analitik kompetentlik quyidagi komponentlarda tahlil qilindi: Kognitiv, tahliliy, aksiologik, refleksiv

Rasmda mazkur to‘rt komponentning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning yagona ma’naviy makonni mustahkamlashga yo‘naltirilgan integrativ mexanizmi konseptual tarzda ifodalangan.

Xalqaro tajriba tahlili DigComp 2.2 modelida axborotni izlash va baholash raqamli kompetensiyaning asosiy yo‘nalishi sifatida belgilanishini ko‘rsatadi [3]. UNESCO ham media va axborot savodxonligini jamiyat barqarorligining muhim sharti sifatida e’tirof etadi [7].

Shu asosda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish ma’naviy xavfsizlikni ta’minlovchi strategik pedagogik mexanizm sifatida talqin qilindi.

Natijalar

Nazariy tahlillar bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish yagona ma’naviy makonni mustahkamlashning strategik omili ekanini ko‘rsatdi. Mazkur kompetentlik axborotni ongli qabul qilish, tanqidiy tahlil qilish va ma’naviy mezonlar asosida baholash orqali jamiyat barqarorligiga xizmat qiladi.

1-jadval

Axboriy-analitik kompetentlik komponentlarining ma’naviy makonga ta’siri

Komponent	Mazmuni	Ma’naviy makonga ta’siri
Kognitiv	Axborot manbalarini bilish	Ongli tanlov
Tahliliy	Dalillar asosida baholash	Manipulyatsiyaga qarshi immunitet
Aksiologik	Qadriyatlarga asoslangan talqin	Ma’naviy barqarorlik
Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish	Shaxsiy mas’uliyat

Axboriy-analitik kompetentlik tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi va manipulyativ ta’sirlarga qarshi immunitetni shakllantiradi [1]. Tarmoq jamiyatida axborot ijtimoiy ongni belgilashi qayd etilgan [2], DigComp 2.2 esa axborotni baholashni asosiy kompetensiya sifatida belgilaydi [3]. Aksiologik yondashuv axborotni ma’naviy mezonlar asosida talqin qilishni taqozo etadi [9], refleksiya esa faoliyat samaradorligini oshiradi [4] hamda kompetensiyani integrativ sifat sifatida namoyon qiladi [5].

Umuman, mazkur kompetentlikning integratsiyasi pedagog shaxsining ma’naviy va kasbiy salohiyatini yuksaltirib, yagona ma’naviy makonni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muhokama

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimlarining jadallashuvi pedagogik faoliyat mazmunini o‘zgartirmoqda.

Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarning axboriy-analitik kompetentligini rivojlantirish kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash mexanizmi sifatida qaraladi.

Mazkur kompetentlikni faqat raqamli savodxonlik bilan cheklash yetarli emas; u kognitiv, aksiologik va refleksiv komponentlar integratsiyasida shakllanadi. B.X.Xodjayev ma’naviy xavfsizlikni qadriyatli munosabat bilan bog‘laydi [9], demak, axborotni talqin qilish ma’naviy mezonlarga tayangan bo‘lishi zarur.

Axborot jamiyatida pedagogning mas’uliyati ortadi: M.Castells axborot oqimlari ijtimoiy ongni shakllantirishini ta’kidlaydi [2], D.Buckingham esa media ta’limni manipulyativ ta’sirlardan himoyalanish vositasi sifatida talqin qiladi [1]. DigComp 2.2 axborotni baholashni raqamli kompetensiyaning asosiy elementi sifatida belgilaydi [3], S.Livingstone refleksiv yondashuvning ahamiyatini ko‘rsatadi [4]. M.Quronov ma’naviy tahdidlarning axborot orqali tarqalishini qayd etadi [6], U.L.Yoziyeva esa zararli axborotni aniqlash mexanizmlarini asoslaydi [8].

Umuman, axboriy-analitik kompetentlik pedagogning kasbiy yetukligini ta’minlab, jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlovchi strategik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Mazkur tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirish yagona ma’naviy makonni mustahkamlashning pedagogik omili sifatida asoslandi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, axborotlashgan jamiyatda ma’naviy xavfsizlik pedagogning analitik salohiyati bilan bevosita bog‘liqdir.

2-rasm.



Xalqaro tajriba, xususan DigComp 2.2 va UNESCO yondashuvlari, axborotni baholash va xavfsiz foydalanish jamiyat barqarorligining muhim sharti ekanini tasdiqlaydi. Shu bois mazkur kompetentlikni rivojlantirish jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur.

Rasmda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning yo‘naltiruvchi, o‘zlashtiruvchi, amaliy-tahliliy, aksiologik-refleksiv va natijaviy bosqichlari ketma-ketlikda ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning integratsiyasi mafkuraviy immunitet va yagona ma’naviy makonni mustahkamlashga olib keladi.

Umuman, axboriy-analitik kompetentlik pedagogik ta’limning strategik yo‘nalishi bo‘lib, uning texnologik asosda shakllantirilishi jamiyat ma’naviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buckingham D. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – 2nd ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010.
3. European Commission. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
4. Livingstone S. Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities. – Cambridge: Polity Press, 2009.
5. Muslimov N.A. Kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Quronov M. Ma’naviy tahdidlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
7. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO Publishing, 2021.
8. Yoziyeva U.L. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni zararli axborotlardan himoya qilish texnologiyasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
9. Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya asoslari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.

ZJV5401

DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATIDA IJTIMOIY ISHONCH MUAMMOSI

O‘rinboyev Ulug‘bek O‘rolboy o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika
instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat boshqaruvi faoliyatida ijtimoiy ishonch, jamiyat a’zolarining davlat hokimiyati va uning vakillari bo‘lgan davlat xizmatchilari faoliyatiga ishonch muammolari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Davlat va jamiyat barqaror taraqqiyotida ishonch muvozanati asosiy omillardan biri, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni mustahkam ishonch va o‘zaro hamkorlik asosida olib borishga yordam beradi. Shuningdek ushbu maqolada o‘zaro ishonchning kishilar va ijtimoiy guruhlar hamda siyosiy institutlar o‘rtasidagi muvozanatiga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar. Davlat, jamiyat, ishonch, ishonch muvozanati, hamkorlik, integratsiya, boshqaruv, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy institutlar, siyosiy institutlar, barqaror taraqqiyot, g‘oya, mafkura, farovonlik, daxldorlik, xalq hokimiyati, davlat xizmatchilari, sadoqat, fidoyilik, ochiqlik, shaffoflik.


XXI-asrda dunyo miqyosida sodir bo‘layotgan va hanuzgacha davom etayotgan shiddatli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlat va jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, xodisalar, voqeliklar xar bir mamlakat oldiga doimiy taraqqiyot hamda ijtimoiy ishonch muvozanatini mustahkamlash uchun bir qator muhim masalalarni kun tartibiga olib chiqdi. Bu muammolarni hal etishda barcha davlatlar va hukumatlar jamiyat bilan bevosita hisoblashib, xalqning ishonchi va qo‘llab quvvatlashiga muhtojliklarini ochiq oydin takidlab kelmoqdalar. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash mustahkam davlatchilik asoslarini yaratish imkonini beradi. Bu borada davlat xizmatchilarining faoliyati eng muhim jihat sifatida e’tirof etiladi. Bunga sabab davlat xizmatchilari kasbiy faoliyatida jamiyat a'zolari bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri munosabatlarga kirishadilar.

Jamiyat a’zolari va keng jamoatchilik ham davlat boshqaruvi faoliyatida bevosita va bilvosita ishtiroklari orqali ishonch muvozanatini mustahkamlashga o‘z xissalarini qo‘shadilar.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, davlat boshqaruvida fuqarolarning jalb etilishi, ularning fikr bildirishi va ishtirok etishi qonuniy hokimiyatni shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi. Bunday jamiyatda siyosiy institutlar va ijtimoiy mexanizmlar barcha qatlamlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etishiga sharoit yaratadi, bu esa o‘z navbatida davlat hokimiyatining qonuniyligi va hisobdorligini ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Hukumatlar va ularning ijro apparatlari jamiyatni va ijtimoiy munosabatlarni qo‘llab quvvatlashda muhim ro‘l o‘ynaydi. Biroq ijtimoiy so‘rovlar fuqarolarning hukumatga bo‘lgan ishonchi pasayib borayotganini ko‘rsatmoqda.

“Bugun yirik davlatlar va turli kuch markazlari o‘rtasida **ishonch inqirozi** ortib, xatto iqlim o‘zgarishi, ochlik va tengsizlikka qarshi kurashish kabi butun insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan eng dolzarb masalalarda ham o‘zaro muloqot izdan chiqayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz”.[1]

Xalqaro Edelman Trust Barometer agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda dunyo aholisining atigi 43 foizi o‘z hukumatlari “to‘g‘ri ish qiladi” degan fikrga ishongan. Xuddi shuningdek bir qator xalqaro tadqiqot markazlari hukumatga bo‘lgan ishonch darajasi izchil kamayib borayotganini qayd etadi. Davlatga bo‘lgan ishonch vakillik demokratiyasining zaruriy sharti hisoblanadi. Hukumatga bo‘lgan ishonchning yemirilishi ko‘pincha “demokratiya inqirozi”ning belgisi sifatida talqin qilinadi va bu holat vakillik demokratiyasining sifati va samaradorligiga, uning institutlari va siyosiy subyektlari faoliyatiga bevosita va jiddiy salbiy oqibatlar keltirib chiqarishiga ko‘p bora guvoh bo‘lganmiz.[2]



1-rasm. Hukumatlarga bo‘lgan jamoatchilik ishonchi (2011 va 2017-yillar oralig‘ida)

Davlat boshqaruvi faoliyatiga bo‘lgan ishonchi oshgan mamlakatlar 45 darajali chiziqdan yuqorida yashil rangda, hukumatga bo‘lgan ishonch muvozanati pasaygan mamlakatlar esa 45 darajali chiziqdan pastda qizil rangda joylashgan. Har bir doira hajmi tegishli mamalakat aholisining sonini ifodalaydi. Edelman Trust Barometer–bu hukumat, biznes, OAV va nodavlat tashkilotlariga ishonch bildirgan aholi ulushining o‘rtacha foiz ko‘rsatgichini tadqiq qiluvchi xalqaro reyting agentligi hisoblanadi. Ushbu grafik 23 mamlakat namunasi asosida tuzilgan bo‘lib unda quyidagi davlatlar ishtirok etgan: ARE–Birlashgan Arab Amirliklar, ARG–Argentina, AUS–Australiya, BRA–Braziliya, CHN–Xitoy, DEU–Daniya, ESP–Ispaniya, FAR–Fransiya, GBR–Buyuk Britaniya, IDN–Indoneziya, ITA–Italiya, IRL–Irlandiya, IND–Hindiston, JPN–Yaponiya, KOR–Koreya Respublikasi, MEX–Meksika, NLD–Niderlandiya, POL–Polsha, RUS–Rossiya, SGP–Singapur, SWE–Shveytsariya, USA–Amerika Qo‘shma Shtatlari.

Ilk o‘rta asr buyuk mutafakkirlaridan biri o‘z davrining yorqin yulduzi Abu Nasr Forobiy edi. U o‘zining **“Fozil odamlar shaxri”** falsafiy asarida fozil shaxar axolisi va uning raxbariga bir qancha sifatlarni aytib o‘tadi. Xususan shaxar aholisi o‘z hukmdoriga ishonishi va unga itoat etishi uchun

podshoxlarda bo‘lishi lozim bo‘lgan 12 ta xislatni sanab o‘tadi. Bu mustahkam iymon va e’tiqod, mukammal bilim, tana va rux salomatligi, adolatparvarlik va to‘g‘ri so‘zlik, mol dunyodan o‘zini tiyish, jabr-zulm o‘tkazuvchilarga murosasizlik va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

“Xaqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shaxar–fazilatli shaxardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi–fazilatli jamoadir. Baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam bergan xalq–fazilatli xaldir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun yer yuzi fazilatli bo‘ladi”.[3]

Abu Nasr Forobiyning yuqoridagi fikrlaridan xulosa qiladigan bo‘lsak o‘zaro hamjihatlik, birdamlikka intilish kishilar va jamoalar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga, davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarda ishonchning mustahkamlanishiga zamin yaratadi.

Davlat boshqaruvi faoliyatida jamoat ishonchini qozonishda davlat fuqarolik xizmatchilarining ham alohida o‘rni bor. Ular faoliyatidagi samaradorlik, ochiqlik va shaffoflik Yangi O‘zbekiston g‘oyasining amaliy ifodasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Davlat fuqarolik xizmati faoliyatini tashkil etish, xizmatni o‘tash undan bo‘shash asoslar O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 8-avgustda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-788-son Qonuni bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunda davlat fuqarolik xizmatchisi tushunchasiga ta’rif va davlat fuqarolik xizmatining asosiy prinsiplari qayd etilgan. Quyida davlat fuqarolik xizmatining shaxs, jamiyat va davlat uchun ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

“Davlat fuqarolik xizmatining shaxs uchun ahamiyati shaxsning turli ehtiyojlari qondirish orqali uning ijtimoiy-iqtisodiy hayot faoliyatida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Davlat fuqarolik xizmatining jamiyat uchun ahamiyati jamiyatda ijtimoiy birlik va barqarorlikni ta’minlash, jamiyatni parvarishlash, shuningdek, jamiyatga ijtimoiy ne’matlarni taqdim etishda namoyon bo‘ladi.

Davlat fuqarolik xizmatining davlat uchun ahamiyati davlatning vazifalari bajarilishi hamda funksiyalari amalga oshirilishidadir.

Davlatning iqtisodiyot, moliyaviy, ijtimoiy himoya, qishloq va suv xo‘jaliklari, qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi, transport, energetika, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, sport, madaniyat, yoshlar va shu kabi boshqa masalalar bo‘yicha muhim funksiyalari aynan davlat fuqarolik xizmati orqali amalga oshiriladi”.[4]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki davlat boshqaruvi faoliyatida ijtimoiy ishonch muvozanatini mustahkamlash uchun birinchidan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash lozim, bunda keng jamoatchilik nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, davlat fuqarolik xizmatiga kirayotgan har bir nomzodlar vatani va xalqiga sitqi dildan xizmat qilishi uchun qasamyod qabul qilishi kerak. Bu amaliyot rivojlangan mamlakatlarda bor, o‘ylaymanki mamlakatimizda ham ijtimoiy ishonch muvozanatini saqlash va yagona ma’naviy makon yaratish uchun bizga bu amaliyot kerak. Uchinchidan, mamlakatimizda davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch muvozanatini baholab boruvchi shu masalaga ixtisoslashgan bironta milliy indeks yoki reyting agentligi yo‘q. Borlari ham faqat ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazish bilan cheklanadi. Menimcha bu borada Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch muvozanatini baholab borishga ixtisoslashgan mustaqil **“Milliy ishonch indeksi”** ni yaratishi kerak. Ushbu **“Milliy ishonch indeksi”** bizga yagona ma’naviy makon yaratishga yordam beribgina qolmay, xalqaro munosabatlarda ham mamlakatimizni ishonchli hamkor sifatida e’tirof etilishiga imkon yaratadi. To‘rtinchidan, barcha darajadagi raxbarlar faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatgichi(KPI)ga **“Milliy ishonch indeksi”** ni kiritish kerak. Buning natijasida biz xalqimiz qaysi sohaning faoliyatidan ko‘proq rozi ekanligini bilib olamiz. Raxbarlar faoliyatiga esa adolatli baho bergan bo‘lamiz. Eng muhimi Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda xalqimiz roziligiga erishamiz.

Davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan har qanday keskinlik, ijtimoiy-siyosiy institutlar faoliyatidagi nomutanosibliklar, davlat xizmatchilarining xalq va hukumat oldidagi javobgarligining yo‘qolishi yoki buni istisno qiluvchi har qanday holatlar

ZJV5401

ishonch muvozanatiga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, jiddiy ijtimoiy-siyosiy oqibatlarga ham olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ш.Мирзиёев. Хозирги замон ва Янги Ўзбекистон.–Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2024.– 560 б.

2. Kumagai S., Iorio F**.** *Building Trust in Government through Citizen Engagement.* – Washington, DC: World Bank Group.

3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри./ Таржимонлар А.Ирисов, М.Махмудов, У.Отажон. Масъул мухаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров.–Тошкент: Ёшлар матбуоти, 2023.– 320 б.

4. Nazarov SH.N. Davlat fuqarolik xizmati: o‘quv qo‘llanma.–T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 132 b.

“MA’NAVIY MAKON GENEZISI: TAYYORLOV YOSHIDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL-IRODAVIY SIFATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRATSION MEXANIZMLARI”

Quldosheva Shahlo Ibragim qizi
Qarshi davlat universiteti
doktoranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etishning poydevori – tayyorlov guruhlaridagi tarbiya jarayoni tahlil qilingan. Prezident asarlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida, bolalarda emotsional-irodaviy sifatlarni shakllantirishda “faoliyatlar integratsiyasi” metodikasining samaradorligi yoritilgan. Maqolada ma’naviy tarbiyaning innovatsion mexanizmlari taklif etilib, ular yosh avlodda yot g‘oyalarga qarshi immunitet va milliy o‘zlikni shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yagona ma’naviy makon, maktabgacha ta’lim, tayyorlov guruhi, faoliyatlar integratsiyasi, emotsional-irodaviy sifatlar, shaxs kamoloti, pedagogik innovatsiya.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida “Yagona ma’naviy makon”ni barpo etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: *“Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz bu mafkurani 'Yagona ma’naviy makon' deb ataymiz”* [3: 248-bet]. Ushbu makonning genezisi, ya’ni kelib chiqish ildizi bevosita shaxsning ilk rivojlanish davriga – maktabgacha ta’lim yoshiga borib taqaladi. Chunki jamiyatdagi ma’naviy muhitni binolar yoki texnologiyalar emas, balki shaxslarning ichki dunyosi va irodasi belgilaydi.

Biroq, amaldagi pedagogik jarayonlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’limda ko‘pincha bolaning aqliy rivojlanishiga (kognitiv soha) urg‘u berilib, uning his-tuyg‘ulari va irodasini tarbiyalash ikkinchi darajaga tushib qolmoqda. Vaholanki, mashhur psixolog L.S.Vigotskiyning “Affekt va intellekt birligi” nazariyasiga ko‘ra, bola bilimlarni quruq yodlash orqali emas, balki chuqur hissiy (emotsional) kechinmalar orqali o‘zlashtiradi [2: 134-bet].

Tayyorlov guruhlarida (6-7 yosh) bolada “Men” obrazi va ijtimoiy “Men” tushunchasi shakllanadi. Aynan shu davrda emotsional-irodaviy sifatlar (o‘zini boshqarish, hamdardlik, maqsadga intilish) tizimli shakllantirilmasa, kelajakda yoshlarda “ma’naviy bo‘shliq” va yot g‘oyalarga moyillik paydo bo‘lishi xavfi mavjud [2, 56-bet]. Shu bois, tadqiqotimizda tarbiyaviy jarayonni bo‘laklarga bo‘lib emas, balki faoliyatlar integratsiyasi (o‘yin, mehnat, ta’lim uyg‘unligi) asosida tashkil etishning samaradorligi tahlil qilinadi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan tasdiqlangan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturidagi “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi hamda faoliyatlar integratsiyasi tamoyili olindi [2, 12-b.].

Tajriba-sinov ishlari “Vatan himoyachilari kuni” bayrami arafasida tashkil etildi. Bunda guruh xonasida shunchaki bayram o‘tkazish emas,

balki bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi yaxlit “ma’naviy makon” muhitini yaratish maqsad qilindi.

Biz ishlab chiqqan “Vatan – mening faxrim” integrativ modeli quyidagi 3 bosqichda amalga oshirildi:

Hissiy-badiiy bosqich (Emotsional soha): Mashg‘ulot “Amir Temur o‘gitlari” va zamonaviy harbiylar haqidagi videoroliklar namoyishi bilan boshlandi. Maqsad — bolada Vatan himoyachisiga nisbatan hurmat va faxr tuyg‘usini (emotsional rezonans) uyg‘otish edi. Pedagogika fanlari doktori O.Hasanboyeva ta’kidlaganidek, vatanparvarlik quruq so‘zdan emas, qahramonlikni his qilishdan boshlanadi [5, 88-b.].

Amaliy-ijodiy bosqich (Iroda va mehnat): Bolalar “Askar akamga sovg‘a” mavzusida tabriknomalar tayyorlashdi va harbiy texnikalar maketini yasashdi. Bu jarayonda boladan diqqatni jamlash, ishni oxiriga yetkazish va estetik did talab etildi. Bu orqali ularda qat’iyatlilik va irodaviy sifatlar shakllantirildi.

Faol-harakatli bosqich (Jismoniy va ijtimoiy soha): “Biz – jasur askarlarmiz” nomli sport musobaqasi o‘tkazildi. Bunda bolalar jamoaga bo‘linib, to‘siqlardan o‘tishdi. Bu faoliyat ularda nafaqat chaqqonlikni, balki jamoaviy birlikni (ma’naviy makonning kichik modeli) his qilish ko‘nikmasini rivojlantirdi. Natijada, “Vatan himoyachilari kuni” shunchaki sana emas, balki bolalar uchun ma’naviy qadriyatlarni amalda yashab o‘tadigan tarbiya maydoniga aylantirildi.

Tadqiqot doirasida “Vatan himoyachilari kuni” mavzusida tashkil etilgan integratsiyalashgan faoliyatlar tahlili quyidagi ilmiy-pedagogik natijalarni ko‘rsatdi:

Birinchidan, an’anaviy yondashuvdan farqli o‘laroq, faoliyatlar integratsiyasi (badiiy, tasviriy, jismoniy) bolalarda vatanparvarlik tushunchasini mavhum “axborot” darajasidan “hissiy kechinma” darajasiga ko‘tarish imkonini berdi. Psixologiyada bu jarayon “interiorizatsiya” (tashqi ijtimoiy tajribaning shaxs ichki mulkiga aylanishi) deb ataladi [4, 76-b.]. Natijada, bola “Vatan” so‘zini eshitganda shunchaki tushunchani emas, balki faxr va daxldorlik hissini tuyadi.

Ikkinchidan, bayramga tayyorgarlik jarayonida bajarilgan amaliy-ijodiy topshiriqlar (tabriknoma yasash, jamoaviy maket qurish) bolalarda

irodaviy sifatlarni (maqsadga intilish, sabr-toqat) shakllantirishning samarali mexanizmi ekanligi aniqlandi.

Uchinchidan, guruhdagi hamkorlik muhiti Yangi O‘zbekiston ilgari surayotgan “Yagona ma’naviy makon”ning kichik modeli sifatida namoyon bo‘ldi. Ya’ni, bolalar umumiy maqsad yo‘lida birlashish orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning dastlabki ko‘nikmalarini o‘zlashtirdilar.

Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni barpo etish — yuqoridan pastga emas, balki “pastdan yuqoriga”, ya’ni maktabgacha ta’limning tayyorlov guruhlaridan boshlanishi zarur. Tadqiqotimiz tahlili va “Vatan himoyachilari kuni” misolida o‘tkazilgan amaliy tajribalar quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirishga asos bo‘ldi:

Birinchidan, ma’naviy makonning poydevori — bu shaxsning emotsional-irodaviy barqarorligidir. Tayyorlov yoshidagi bolalarda bu sifatlarni shakllantirishda quruq pand-nasihatdan ko‘ra, “faoliyatlar integratsiyasi” (o‘yin, mehnat, ijod va ta’lim uyg‘unligi) metodikasi eng samarali vosita ekanligi isbotlandi.

Ikkinchidan, taklif etilayotgan integratsion yondashuv O‘zbekiston Respublikasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da belgilangan vazifalarni amalga oshirishning innovatsion mexanizmi hisoblanadi [1]. Chunki bu yondashuv bolada Vatanparvarlik va milliy g‘ururni mavhum tushuncha sifatida emas, balki real hayotiy ko‘nikma va ichki e’tiqod sifatida shakllantiradi.

Uchinchidan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bayram va tadbirlarni shunchaki “tomosha” sifatida emas, balki bolaning irodasini toblaydigan va his-tuyg‘ularini tarbiyalaydigan yaxlit ma’naviy-pedagogik jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchisi qalbida uyg‘otilgan vatanga muhabbat va mustahkam iroda — Yangi O‘zbekistonning ertangi ma’naviy xavfsizligi va barqarorligining kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”.
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2018.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston",2021.– 464 b.
4. G‘oziyev E.G. Ontogenez psixologiyasi: nazariy va eksperimental tahlil.–Toshkent: "Noshir", 2010.
5. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: "Ilm-ziyo", 2006.
6. Quronov M. Milliy tarbiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: "Ma’naviyat", 2017. – 216
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: АСТ, 2010. – 672 с.

SADOQATNING AKSIOLOGIK TALQINI: MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

To‘laboyeva Shoira Abdulxamidovna
Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada sadoqat kategoriyasining aksiologik va ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilinadi hamda uning Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etishdagi nazariy-metodologik ahamiyati asoslab beriladi. Sadoqat shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarni uyg‘unlashtiruvchi integrativ qadriyat sifatida talqin etiladi. Fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy birdamlik va

qadriyatlar tizimining barqarorligi kontekstida sadoqatning konsolidatsion funksiyasi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: sadoqat, aksiologiya, ma’naviy makon, Yangi O‘zbekiston, shaxs, jamiyat, axloqiy munosabatlar, qadriyatlar tizimi, fuqarolik sadoqati, ma’naviy birdamlik, ijtimoiy barqarorlik, burch, vijdon, milliy qadriyatlar, metodologik yondashuv.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviy yangilanish masalasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda [1]. Globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi, qadriyatlar pluralizmi va mafkuraviy raqobat sharoitida jamiyatning ichki ma’naviy yaxlitligini ta’minlash dolzarb vazifaga aylanmoqda [2]. “Yagona ma’naviy makon” konsepsiyasi nafaqat siyosiy-ijtimoiy, balki chuqur falsafiy mazmunga ega tushunchadir. Ushbu makonning barqarorligi esa, avvalo, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning mustahkamligiga bog‘liqdir. Mazkur munosabatlarning markaziy kategoriyalaridan biri — sadoqatdir. Maqsadimiz sadoqat kategoriyasining aksiologik va ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil qilish hamda uni Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etishning nazariy-metodologik asosi sifatida asoslab berishdan iborat.

Aksiologiya — qadriyatlar haqidagi ta’limot sifatida inson hayotining ma’naviy mezonlarini belgilaydi. Sadoqat esa qadriyat sifatida shaxsning muayyan g‘oya, e’tiqod, jamiyat yoki Vatanga nisbatan barqaror munosabatini ifodalaydi [3]. U faqat hissiy bog‘liqlik emas, balki ongli ravishda tanlangan axloqiy pozitsiyadir. Sadoqatning tarkibiy elementlari sifatida ishonch, vafodorlik, mas’uliyat va e’tiqodiy qat’iyatni ajratish mumkin. Ishonch – shaxsning jamiyat institutlariga va qadriyatlar tizimiga bo‘lgan ichki ishonchidir. Vafodorlik – tanlangan yo‘lga sodiqlikni bildiradi. Mas’uliyat – sadoqatning amaliy ifodasidir [5]. E’tiqodiy barqarorlik esa sadoqatni vaqtinchalik emotsional holatdan ajratib turadi. Sadoqat boshqa axloqiy kategoriyalar bilan dialektik bog‘liqdir. Masalan, burch kategoriyasi sadoqatning normativ ifodasi bo‘lsa, vijdon uning ichki nazorat mexanizmini ta’minlaydi, adolat esa sadoqatning ijtimoiy

muvozanatga xizmat qilishini kafolatlaydi. Sadoqat qadriyatlar tizimida integrativ, birlashtiruvchi funksiyani bajaradi.

Sadoqat jamiyatning ichki birdamligini ta’minlovchi omildir. Har qanday ijtimoiy tizimning barqarorligi uning a’zolari o‘rtasidagi ishonch va sodiqlikka bog‘liq. Agar shaxs jamiyat qadriyatlarini ongli ravishda qabul qilsa, u ijtimoiy legitimlikni mustahkamlaydi. Fuqarolik sadoqati davlat, jamiyat va shaxs o‘rtasidagi uch tomonlama munosabatni uyg‘unlashtiradi [4]. Bu yerda sadoqat ko‘r-ko‘rona itoat emas, balki ongli ravishda qabul qilingan fuqarolik mas’uliyatidir. Shaxsning o‘z Vataniga, konstitutsion qadriyatlarga va ijtimoiy adolat tamoyillariga sodiqligi yagona ma’naviy makonning poydevorini yaratadi [6]. Ma’naviy makon tushunchasi ijtimoiy ong, qadriyatlar, an’analar va mafkuraviy yo‘nalishlar birligidan iborat murakkab tizimdir. Ushbu tizimning mustahkamligi sadoqatning ijtimoiy funksiyasi bilan bevosita bog‘liq. Chunki sadoqat ma’naviy tarqoqlikning oldini olib, o‘zaro muvofiqlashgan mexanizm vazifasini bajaradi.

Yagona ma’naviy makon jamiyatning ma’naviy mavjudlik shakli, aksiologik jihatdan esa umumiy qadriyatlar maydonidir. Uning shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Agar milliy an’analar va global qadriyatlar o‘rtasida muvozanat ta’minlansa, ma’naviy makon barqaror bo‘ladi. U shaxsni jamiyat bilan, jamiyatni esa umumiy maqsadlar bilan bog‘laydi. Ayniqsa, ta’lim tizimi, ma’rifiy siyosat va madaniy muhit sadoqatni shakllantirishning asosiy vositalaridir. Ma’naviy makonning normativ-me’yoriy asoslari axloqiy tamoyillarga tayanadi. Sadoqat bu yerda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki qadriyatlarga sodiq jamiyat mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi.

Dialektik yondashuv asosida sadoqatga yondashish ham biz uchun muhim. Chunki sadoqat va erkinlik, individual manfaat va ijtimoiy manfaat o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni tahlil qilish zarur. Aksiologik yondashuv esa sadoqatni qadriyatlar ierarxiyasida tahlil qilish imkonini beradi. Sotsiomadaniy yondashuv jamiyatning ma’naviy tizimini kompleks ko‘rib chiqishni talab etadi. Komparativ tahlil orqali Sharq va G‘arb tafakkurida

sadoqat talqinlari o‘rganilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanadi. Bu esa milliy modelni ishlab chiqishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etish jarayoni shaxs va jamiyat o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarning mustahkamligiga bog‘liqdir. Sadoqat kategoriyasi ushbu jarayonning markaziy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U qadriyat sifatida shaxsning ichki barqarorligini ta’minlasa, ijtimoiy omil sifatida jamiyatning birdamligini mustahkamlaydi. Shunday qilib, sadoqatni aksiologik va ijtimoiy-falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ma’naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. U nafaqat axloqiy fazilat, balki yagona ma’naviy makonning konseptual poydevori sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
3. Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 224 б.
4. Гегель Г.В.Ф. Философия права / Пер. с нем. – Москва: Мысль, 1990. – 524 с.
5. Кант И. Основы метафизики нравственности / Пер. с нем. – Москва: Мысль, 1999. – 528 с.
6. Риккерт Г. Науки о природе и науки о культуре / Пер. с нем. – Москва: Республика, 1998. – 413 с.

HATSIONAЛЬНОЕ ХОРЕОГРАФИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ И ДУХОВНОЕ ЕДИНСТВО: УКРЕПЛЕНИЕ HATSIONAЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ ЧЕРЕЗ РЕГИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ

Таирова Юлия Рафаэльевна
Государственная академия
хореографии Узбекистана,
Базовый докторант

Аннотatsiя. В данном исследовании освещается значение hatsiональных хореографических традиций в укреплении социальной сплоченности и духовной целостности современного Узбекистана. Исследуются особенности танцевальных стилей различных регионов страны как неотъемлемой части нематериального культурного наследия. Подчеркивается, что многообразие танцевальных форм, присущее регионам, не создает разрозненности, а, наоборот, является фундаментом единого духовного пространства, демонстрируя принцип «единства в многообразии».

Ключевые слова. Hatsiональная идентичность; хореографическое наследие; нематериальное культурное наследие; духовное единство; региональные традиции; культурное пространство.

В эпоху стремительных культурных перемен и всеобщей глобализatsii вопрос защиты hatsiональной самобытности выходит на первый план. В контексте построения единого духовного пространства Нового Узбекистана, нематериальные культурные достояния приобретают статус ключевого фактора, способствующего социальному единению. Хореографическое искусство, как один из наиболее ярких и стойких хранителей культурной памяти, становится воплощением исторического пути, мировоззрения и системы ценностей hatsii. Современные научные изыскания свидетельствуют о том, что танцевальное искусство является не просто формой эстетического выражения, но и мощным символом исторической

памяти и natsіональной самобытности. Как справедливо отмечает Ф. Турсинбаева, natsіональный танец «является хранителем исторического опыта народа, его обычаев и духовных ценностей, служа инструментом трансляции культуры от одного поколения к другому» [1]. Таким образом, танец предстает в роли уникального хранилища живой памяти, где движения и язык тела запечатлевают культурные коды и коллективные представления о мире.

Natsіональный танец – это гораздо больше, чем просто зрелище. Он является неотъемлемой частью культурного достояния, неся в себе не только эстетическую красоту, но и глубокий смысл. Подобно живому летописцу, танец отражает развитие общества, его радости и печали, триумфы и невзгоды. Каждое движение, ритм, костюм и мелодия в natsіональном танце – это уникальная история, позволяющая проникнуть в мировоззрение и духовные устремления народа.

В контексте формирования Нового Узбекистана, где стремление к сохранению уникальной идентичности гармонично сочетается с интегratsіей в мировое сообщество, хореографическое искусство играет роль связующего звена между поколениями и культурами, закладывая основу для единого духовного пространства. В связи с этим, особую значимость приобретают исследования, направленные на глубокое изучение и широкую популяризatsію узбекских танцев. От древних ритуальных движений до современных сценических постановок – каждое направление хранит в себе бесценные культурные коды. Их расшифровка позволяет не только сохранить это богатство для будущих поколений, но и выявить универсальные ценности, объединяющие узбекский народ. Через танец передаются не просто физические движения, а целые пласты истории, философии, отношения к природе и человеку, что делает его незаменимым инструментом в формировании natsіонального самосознания.

Узбекский танец, с его виртуозной игрой рук, запутанными ритмическими рисунками и сочетанием драматических и лирических элементов, служит зеркалом natsіонального характера и эстетических предпочтений. Как отмечают специалисты, танцевальная структура

Узбекистана "является воплощением культурной самобытности, сплетая местные обычаи в единую natsiональную художественную систему" [2]. Следовательно, разнообразные региональные танцевальные школы не конкурируют с общенatsiональной культурой, но, напротив, обогащают ее, придавая ей многогранность и глубину. В многонatsiональном контексте Узбекистана, региональные танцевальные течения выполняют важную функцию сплочения. Хореографические традиции Ферганы, Хорезма, Бухары и южных регионов, таких как Кашкадарья, каждая со своими уникальными выразительными чертами, в конечном итоге складываются в единое культурное полотно. Natsiональный танец есть "отражение духа народа, способ коллективного самосознания и инструмент духовного формирования юного поколения" [4]. Этот взгляд подчеркивает, как телесное самовыражение способствует социализatsii индивида и укрепляет чувство общности с культурным наследием.

Танцевальное искусство играет значимую роль в образовательном процессе. В рамках традиционных церемоний и народных гуляний хореография создает поле для совместной деятельности, способствуя укреплению общественных взаимоотношений. Народные танцы «неразрывно связаны с обрядностью и бытом народа, являясь зеркалом его моральных устоев и общепринятых ценностей» [3]. Таким образом, занятия танцами не только содействуют развитию художественного вкуса, но и закладывают основы для формирования этических принципов. В наше время наблюдается повышенный интерес к методам цифровой фиксatsii и распространения танцевальных традиций. Современные научные работы акцентируют внимание на важности интегratsii традиционных подходов и новых технологий для сохранения культурных проявлений. Однако, при всей своей мощи, технологии нуждаются в мудром применении. Важно помнить, что цифровая фиксatsia – это инструмент, а не самоцель. Истинное сохранение танцевального искусства требует не только технических навыков, но и глубокого понимания культурного контекста, эмоциональной составляющей и духовной сущности танца. Преподаватели и исследователи должны выступать в роли

проводников, помогая студентам видеть за цифровым изображением живую традицию. Таким образом, синергия традиционных педагогических методов и передовых цифровых технологий открывает новое измерение в изучении и сохранении танцевального искусства. Это позволит не только передать богатство хореографического наследия будущим поколениям, но и обогатить их понимание собственной культуры и культуры других народов, способствуя развитию гармоничной и этически ориентированной личности.

Как подчеркивают зарубежные исследователи, танец является культурным феноменом, находящимся "на стыке преемственности и новаторства, где верность истокам соседствует с готовностью к изменениям под воздействием новых социокультурных реалий" [5]. Исходя из этого, локальные танцевальные традиции могут быть успешно интегрированы в цифровую сферу культуры, сохраняя при этом свою глубинную смысловую нагрузку. Духовное единство natsii немыслимо без уважения к региональным особенностям. Истинное единство обретается не в стандартизatsii, а в осмыслении и объединении самобытных культурных элементов. Хореографическое искусство играет ключевую роль в этом синтезе. Через постановки на сцене, образовательные инициативы и культурные мероприятия оно создает платформу для общения между различными поколениями и территориями. Следовательно, natsiональное танцевальное наследие выполняет многогранную задачу: оно сберегает исторические пласты, формирует коллективную идентичность, укрепляет духовные связи и способствует сплочению общества. Местные танцевальные обычаи, будучи неотъемлемой частью общенatsионального культурного достояния, поддерживают стойкость natsиональной идентичности в эпоху стремительных глобальных перемен. В рамках стратегии построения единого духовного пространства Нового Узбекистана хореографическое искусство занимает значимое место, функционируя как живой инструмент передачи народных ценностей, символов и исторического опыта.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Tursinbayeva F. K. Dance Art as a Symbol of National Identity and Historical Memory // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2025. – Vol. 12, № 6. – URL: https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/3332
2. Abdunabiyeva M. The Cultural Identity and Aesthetic Expression in Uzbek National Dance Art // European Review of Contemporary Arts and Humanities. – 2025. – Vol. 4, № 1. – URL: https://claritaslumen.org/index.php/ercah/article/view/13
3. Saitov K. A. National Dances and Their Cultural Heritage // Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – № 9. – URL: https://webofjournals.com/index.php/9/article/view/2273
4. Xojamuratov S., Yuldasheva Z. National Dance – An Expression of the People’s Spirit // Академические исследования в современной науке. – 2025. – № 3. – URL: https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/90111
5. Yijun, L. Dance as a Cultural Expression: Intersection of Tradition and Innovation // Intercultural Communication Studies. – 2025. – Vol. 4, № 1. – URL: https://interculture.com.ua/journals/vol-4-no-1-2025/dance-as-a-cultural-expression-intersection-of-tradition-and-innovation
6. Tairova Yu. R. Milliy xoreografiya san’ati – O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosining ko‘zgusi sifatida // «Nomoddiy ma’naviy meros va milliy qadriyatlarni abadiylashtirishda madaniyat va san’atning o‘rni» Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2025.

ZJV5401

SADOIMIZNING G‘AFLATI VA "UYG‘ONISH" DA’VATI IPAK YO‘LI TOVUSH MANZARASIGA OID BIR TADQIQ

Tolibjonova Latofat Ma’rufjon qizi,
Respublik ma’naviyat va ma’rifat
markazi huzuridagi Ijtimoiy-
ma’naviy tadqiqotlar instituti
doktoranti

Annotatsiya Ushbu tadqiqot globallashuv va tizginsiz tijoratlashuv sharoitida Ipak Yo‘lining O‘zbekistondagi asosiy tarixiy shaharlari (Samarqand, Buxoro, Xiva) akustik manzarasida kuzatilayotgan "akustik dissonans" muammosini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari tarixiy tovush markerlarining shovqin ifloslanishi tufayli nomoddiy madaniy meros (NMM) elementlarini yo‘qotish xavfida ekanini ko‘rsatdi. Maqolada Shefer, Tryuaks va Ingold nazariyalarini birlashtiruvchi mualliflik metodologiyasi — "Madaniy kod sonografiyasi" konsepsiyasi taklif etiladi. Ushbu asosda NMMni himoya qilishga va sayyohlik gashtini oshirishga qaratilgan «Sadolar ila Uyg‘onish» strategik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Ipak Yo‘li, Samarqand, Buxoro, Xiva, turizm, industriya, an’ana.

Bugungi kunda O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi asosiy tarixiy shaharlari turizm industriyasining shiddatli rivojlanishi va jadal urbanizatsiya sharoitida akustik landshaftning buzilishi muammosiga duch kelmoqda. An’anaviy milliy-ma’naviy tovushlar va nomoddiy madaniy merosning (NMM) audial elementlari — maqom, suvora, mavrigi, lapar, Katta ashula, askiya va hunarmandchilik tovushlari antropogen shovqin ifloslanishi bosimi ostida qolmoqda.

Tarixiy shaharning ruhi va qadriyati aynan uning ovoz olamida yashirin, shu bois ham vizual ob’yektlarga qaratilgan an’anaviy yondashuvdan voz kechib, tadqiqot e’tiborini akustik landshaftning autentikligini saqlashga qaratish zarur. Mazkur tadqiqotning maqsadi — tarixiy shaharlardagi akustik dissonans holatini ilmiy tahlil qilish, uning NMMga yetkazayotgan zararini asoslash va uni himoya qilish uchun

innovasion yechim taklif etishdan iborat. Ishning yangiligi shundaki, u birinchi marta shaharlarga ularning "ko‘rinmas" tovush muhiti orqali yondashadi va noyob "tovush xaritasi" mavjudligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Urbanistikadagi klassik tadqiqotlar, masalan, Kevin Linch tomonidan yozilgan "Shahar qiyofasi" asarida asosan shaharning vizual obraziga e’tibor qaratilgan. Biroq, shahar atmosferasi va tarixiy o‘ziga xoslik nafaqat biz ko‘radigan, balki eshitadigan narsalar bilan ham belgilanadi.

O‘rta asrlar Sharqida tovushning ma’naviy va ijtimoiy qiymati Abu Nasr Forobiydan tortib to Abdurauf Fitratgacha o‘rganilgan. Forobiyning "Musiqa haqida katta kitob" asarida musiqiy ohanglarning ruhiy-psixologik ta’siri va inson axloqini sozlashdagi o‘rniga to‘xtalinadi. Tadqiqotning ilmiy asosini uchta asosiy yo‘nalish tashkil etadi:

1. R. Myurrey Shefer va akustik ekologiya: "Tovush manzarasi" (*Soundscape*) konsepsiyasi doirasida tovush muhiti uchga ajratiladi: *keynote sounds* (asosiy tovushlar), *signals* (signallar) va *soundmarks* (tovush markerlari). Ipak Yo‘li shaharlarida aynan tovush markerlari NMMning eng muhim qismidir.
2. Bryus Tryuaks va sonografiya: Tryuaks shovqinni shunchaki bezovtalik emas, balki "akustik tajovuz"ning bir shakli sifatida o‘rganadi. Bu shovqinning makon ruhiyatiga yetkazadigan zararini qadriyatshunoslik (aksiologik) jihatdan baholash imkonini beradi.
3. Tim Ingold va tovush antropologiyasi: Ingold madaniyatni uzluksiz "jarayon" sifatida ko‘radi va tovushlar odamlarni, makonni hamda o‘zaro munosabatlarni bog‘lashini ta’kidlaydi.

Ushbu asosda ishlab chiqilgan "Madaniy kod sonografiyasi" metodologiyasi uch bosqichni nazarda tutadi:

- Identifikatsiya: Tarixiy tovush markerlarini aniqlash.
- Diagnostika: Akustik dissonansni xaritalash va shovqin darajasini (dBA) o‘lchash.
- Revitalizatsiya: "Sado ila Uyg‘onish" strategiyasi orqali tarixiy tovush izini tiklash.

III. IPAK YO‘LI TARIXIY SHAHARLARI AKUSTIK MANZARASI TAHLILI

Shefer metodologiyasiga tayanib o‘tkazilgan sonografik tahlil Ipak Yo‘lining markaziy makonlari akustik manzarasini tasniflash hamda akustik dissonans holatlarini batafsil aniqlash va qayd etish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari tarixiy shaharlarning tovush muhitidagi degradatsiyani aniq ko‘rsatdi.

Toshkent, poytaxt va jadal rivojlanayotgan megapolis sifatida, barcha zamonaviy shahar markazlariga xos bo‘lgan muammoga uchragan: bu yerda tarixiy tovush markerlarini butunlay siqib chiqaruvchi "shovqin ivirsiqligi" avjida. Jadal avtomobil harakati va transport oqimi markaziy ko‘chalarda 70–80 dBA gacha ko‘rsatkichdagi betinim shovqinni hosil qiladi. Akustik ekologiya kontekstida Tryuaks bunday sharoitlarni "akustik tajovuz" deb belgilaydi (Truax, 1984). Transport shovqini madaniy jihatdan muhim va nozik signallar tovushini bosib ketadigan "tovush oqavalari" (*sonic sewers*) hududlarini hosil qiladi. Fon shovqinining kuchayishi tufayli shaharning qadimiy qismida saqlanib qolgan mahalla hayotiga xos an’anaviy tovushlar (deylik, guzarlardagi xos sadolar, savdogarlar, hunarmandchilik sadolari va h.k.) deyarli eshitilmay qolgan. Natijada, Toshkentning tovush manzarasi bir xillikka yuz tutgan va o‘zining noyob, qadimiy tovush imzosini yo‘qotgan.

Samarqand va Buxoro kabi qadimiy markazlarda muammo "akustik dissonans" — an’anaviy meros va zamonaviy tijoriy tovushlar o‘rtasidagi ochiq ziddiyat shaklida namoyon bo‘ladi. Samarqanddagi dissonans holatining eng yorqin misoli — Registon maydoni. Bu yerda tarixiy tovush markerlari (azon sadosi, usta-hunarmandlar ovozlari va h.k.) turistik shoular paytida buziladi. Muallif tomonidan o‘tkazilgan sonografik o‘lchovlar (2024 yil, avgust-sentyabr) natijalariga ko‘ra, bunday shoular paytida tovush darajasi 90–110 dBA gacha yetadi. Bu ko‘rsatkich nafaqat inson salomatligi uchun zararli, balki NMMni idrok etish chegarasidan ham oshib ketadi. Ingold konsepsiyasiga ko‘ra, bunday baland, asliyatdan uzoq (*noautentik*) shou tarixiy tovush chizig‘ida uzilishga sabab bo‘ladi (Ingold, 2013).

Buxorodagi dissonans esa kundalik hayotga deyarli singib bo‘ldi. Sharif shaharning asosiy tovush markerlari bo‘lgan qiroat, an’anaviy maqom va mavrigi ohanglari ko‘p hollarda tarixiy mahallalarda joylashgan turistik kafe va restoranlardan taralayotgan jarangdor, tijoriy pop-musiqa soyasida eshitilmay ketdi. Buni NMMning "niqoblanishi" deb atash ham mumkin. Tryuaks ta’kidlaganidek, Buxoroda muvozanat an’anaviy turmush sadosini bosib ketadigan tijoriy shovqin foydasiga buzilmoqda (Truax, 1984).

Xivadagi tarixiy Ichan-Qal’a majmuasi alohida o‘rganishga loyiq noyob holatdir. Qal’a devorlari tashqi shahar shovqinidan to‘liq akustik ajralishni ta’minlaydi va Sheferning "Tovush chegaralari" konsepsiyasiga mos keladi (Schafer, 1977). Shu tufayli, majmua ichida asl tovush markerlari ustunlik qiladi: tosh yo‘laklardagi qadam tovushlari, an’anaviy hunarmandlarning taraqa-turuqi, xalq ijrochilarining xonishlari. Bu holat mehmonlarda vizual manzaradan qiymatliroq, o‘ziga rom etuvchi ta’sirni (immersiv effektni) – shaydolikni paydo qiladi. Sonografik tahlil Xivaning akustik holati Ipak Yo‘lining ideal tovush manzarasiga eng yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

IV. Ipak Yo‘li tarixiy shaharlari uchun «Akustik Uyg‘onish” konsepsiyasi

Yuqorida (III-bo‘lim) aniqlangan akustik dissonansga javoban biz NMMni saqlash va Ipak Yo‘lida noyob, asl turistik tajribani yaratish uchun mo‘ljallangan strategik vosita sifatida «Sadolar ila Uyg‘onish» (yoki “Akustik Uyg‘onish”) konsepsiyasini taklif qilamiz. Bu shunchaki fon musiqasi emas, balki amaldagi "Madaniy kod sonografiyasi" metodologiyasining amaliy mahsulidir. U shaharning tarixiy tovush imzosini tiklaydigan va kuchaytiradigan, ilmiy asoslangan tovushlar, kuylar va akustik qoidalar majmuasidan iborat. Brending nuqtai nazaridan, bu yondashuv Deniyel Jekson tamoyillariga mos keladi, u tovushli brendingni mijoz bilan hissiy aloqa o‘rnatishga qaratilgan strategik vosita sifatida ta’riflaydi (Jackson, 2021). Bizning holatimizda "mijoz" — bu sayyoh, "mahsulot" esa — tarixiy merosni asl holida his qilishga erishishdir. Konsepsiyamiz tartibsiz tijoriy shovqinni boshqariladigan, madaniy jihatdan muhim tovush kontentiga almashtirishga qaratilgan.

IV. «SADOLAR ILA UYG‘ONISH» STRATEGIK KONSEPSIYASI

Ushbu konsepsiya tartibsiz tijoriy shovqinni boshqariladigan, madaniy jihatdan muhim tovush kontentiga almashtirishga qaratilgan.

Revitalizatsiya va brending: Har bir shahar uchun original "tovush logotipi" yaratiladi. Shuningdek, NMMning raqamli saqlash joyi sifatida autentik musiqa va tovushlarning "radio-kutubxonasi" shakllantiriladi.

Integratsiya va huquqiy tartibga solish: Tovush fondini aeroportlar, mehmonxonalar va rasmiy turistik marshrutlarga integratsiya qilish. Eng muhimi, tarixiy hududlarda maksimal shovqin darajasini tartibga soluvchi "Akustik kodeks" normativ hujjatini ishlab chiqishdir.

Strategik ahamiyati: «Sadolar ila Uyg‘onish» konsepsiyasini amalga oshirish Ipak Yo‘li uchun o‘ta muhim bo‘lgan ikkita strategik maqsadga erishish imkonini beradi:

1. Asllik va sayyohlik tajribasini oshirish. Dissonansni bartaraf etish va muhitning aslligini tiklash orqali sayyohlik gashtining sifati oshiriladi.
2. Nomoddiy madaniy merosni saqlash. Tovush merosini strategik aktiv toifasiga o‘tkazish orqali NMMga yetkaziladigan zarar minimallashtiriladi.

Bu yondashuv O‘zbekistonning davlat dasturlariga (xususan, NMMni himoya qilishga oid PQ–405-son Qaroriga) va YUNESKOning xalqaro talablariga to‘liq mos keladi. Shunday qilib, «Sadolar ila Uyg‘onish» nafaqat estetik yechim, balki Ipak Yo‘li mintaqasining barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi madaniy siyosat vositasi ham hisoblanadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, akustik muhitning buzilishi shunchaki ekologik muammo emas, balki asllikni va NMMning hayotiy qismini yo‘qotishga olib keluvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdiddir. Taklif etilgan «Sadolar ila Uyg‘onish» strategiyasi O‘zbekiston Respublikasining PQ–405-son Qarorida belgilangan maqsadlarga to‘liq mos keladi. Tovushdan boshqariladigan aktiv sifatida foydalanish Ipak Yo‘li mintaqasining barqaror madaniy turizmini ta’minlashda muhim mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/3107042
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi "O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PF-5611-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/4143186
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 dekabrdagi "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chor
4. a-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-405-son Qarori. https://lex.uz/uz/docs/6713126
5. Biswas, P. (2023). *Sound, Media and Cultural Heritage*. Taylor & Francis.
6. Ingold, T. (2013). *The Life of Lines*. Routledge.
7. Jackson, D. (2021). *Sonic Branding: An Introduction*. Bloomsbury.
8. Richards, G. (2018). *Cultural Tourism*. CABI.
9. Schafer, R. M. (1977). *The Tuning of the World*. Knopf.
10. Truax, B. (1984). *Acoustic Communication*. Ablex.

MA’NAVIY MAKON BARQARORLIGIDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING AHAMIYATI

Sharipov Nazarjon Murotjonovich
IMTI tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida ma’naviy makon barqarorligini ta’minlashda diniy bag‘rikenglikning o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Diniy bag‘rikenglikning mohiyati, jamiyatda ijtimoiy birlikni mustahkamlash, ma’naviy qadriyatlarni saqlash, ekstremizm va

terrorizmga qarshi kurashish, ilmiy va madaniy taraqqiyotga hissa qo‘shishdagi roli ko‘rib chiqilgan. O‘bekistonda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tajribasi misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy makon, diniy bag‘rikenglik, tolerantlik, ijtimoiy birlik, ma’naviy qadriyatlar, ekstremizm, terrorizm, diniy erkinlik, diniy konfessiya

“Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”

Sh. Mirziyoyev

Jahon globallashuvi jarayonida turli madaniyatlar va dinlarning o‘zaro ta’siri kuchayib borayotgan hozirgi davrda ma’naviy makon barqarorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy barqarorlik deganda jamiyatning o‘z qadriyatlarini saqlab qolish, rivojlantirish va yangi avlodlarga yetkazish qobiliyatini tushunamiz.

Ma’naviy makonda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta’minlashda muhim omillardan biri bu diniy bag‘rikenglikdir. Diniy bag‘rikenglik – bu turli dinlarga e’tiqod qiluvchilarning teng huquqliligini, bir-birining diniy e’tiqodlarini hurmat qilishini va o‘zaro hamjihatlikda yashashini anglatadi. Diniy bag‘rikenglik jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash, diniy ekstremizm va terrorizmning oldini olish, turli millat va elatlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonda diniy erkinlik, millatlararo hamjihatlik borasidagi barcha islohotlar **“Bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik - barqaror taraqqiyot omili”**, degan tamoyil asosida olib borilmoqda [1]. Davlatimiz rahbari 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu borada quyidagi fikrni bildirgan edi: “O‘zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik sohasida o‘z an’analariga doimo

sodiq bo‘lib, bu yo‘ldan hech qachon og‘ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e’tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”[3].

Diniy bag‘rikenglikning ma’naviy makon barqarorligidagi ahamiyatini quyidagi jihatlar orqali ko‘rish mumkin:

1. Ijtimoiy birlikni mustahkamlash. Diniy bag‘rikenglik turli din vakillarini birlashtirib, umumiy maqsadlar yo‘lida hamkorlik qilishga undaydi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy birlik va hamjihatlikni mustahkamlaydi.

2. Ma’naviy qadriyatlarni saqlash. Diniy bag‘rikenglik har bir dinning o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu esa ma’naviy makonning boyishiga va turfa xilligiga olib keladi.

3. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. Diniy bag‘rikenglik diniy ekstremizm va terrorizmning asosiy sabablaridan biri bo‘lgan diniy nizolar va adovatni bartaraf etishga yordam beradi. Bu esa jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Ilmiy va madaniy taraqqiyotga hissa qo‘shish. Diniy bag‘rikenglik turli din vakillarining o‘zaro fikr almashishi va tajriba o‘rtoqlashishiga imkon yaratadi. Bu esa ilmiy va madaniy taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

Shuni alohida ta’kidlab aytish joizki, yangi ma’naviy makonni shakllantirishda aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash, islom dini va falsafasiga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, millatlararo totuvlik va o‘zaro mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli amalga oshirish Yangi O‘zbekistonning stretegik vazifalaridan biri hisoblanadi [1].

Diniy bag‘rikenglik quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Diniy erkinlik: Jamiyat a’zolarining biror dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqi.

Tenglik: Barcha dinlarning qonun oldida tengligi va ularga nisbatan kamsitishga yo‘l qo‘yilmaslik.

Hurmat: Turli dinlarning e’tiqodlari, marosimlari va an’analariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

Muloqot: Turli din vakillari o‘rtasida o‘zaro tushunishni mustahkamlash maqsadida muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Tolerantlik: Turli diniy qarashlarga nisbatan sabr-toqatli bo‘lish va ularni qabul qila olish.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham diniy erkinlik kafolatlanib barcha din vakillarining huquqlari himoya qilingan. Jumladan, yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 35-moddasida bayon etilganidek, hamma uchun vijdon erkinligi kafoatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga ehtiqod qilish yoki xech qaysi dinga ehtiqod qilmaslik xuquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l quyilmaydi [2].

2019 yil 4 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4436-sonli qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha Qo‘mitaning Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston yoshlar Ittifoqi, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma’rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta’minlash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etildi. Yangi tizimning joriy etilishi O‘zbekistonda vijdon erkinligini ta’minlash va diniy-ma’rifiy muhit barqarorligini saqlashga qaratilgan muhim qadamdir. Bu tizimning muvaffaqiyatli faoliyati davlat va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligiga, diniy sohadagi mutaxassislarning malakasiga, jamiyatning diniy savodxonligiga va diniy bag‘rikenglikka asoslanadi.

Bundan tashqari O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- ✓ Diniy tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- ✓ Diniy ta’limni rivojlantirish;
- ✓ Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish;

- ✓ Turli din vakillari o‘rtasida muloqot va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish
- ✓ Diniy bag‘rikenglik va tolerantlikni targ‘ib qilish.

Mamlakatimizda olib borilayotgan millatlar aro totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosati nafaqat ichki balkim tashqi siyosatda ham o‘z aksini ko‘rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yalpi majlisi tomonidan muhim bir hujjat – “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017 yil 19 sentyabrda Bosh Assambleyaning 72 sessiyasida O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan edi. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan bildirilgan ushbu taklif Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan 193 ta davlat tomonidan keng qo‘llab quvvatlandi va qabul qilindi. Jahon hamjamiyatida Prezidentimizning bu tashabbuslarini nafaqat O‘zbekistonda balki butun dunyoda tinchlik va taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan yuksak harakat deb baholandi.

O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik an’analariga boy mamlakatdir. O‘zbekiston hududida azaldan turli din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda. Shulardan 2093 tasi musulmon tashkiloti, 166 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta Baxoiylik jamiyati, 1 ta krishnachilar jamiyati va 1 ta budda ibodatxonasi, shuningdek, O‘zbekiston konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, diniy bag‘rikenglik ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omilidir. Diniy bag‘rikenglik jamiyatda tinchlik, osoyishtalik va milliy birlikni mustahkamlashga, ma’naviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga, yosh avlodni tarbiyalashga va ekstremizmga qarshi kurashishga yordam beradi. O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik borasida boy tajribaga ega va bu tajribani yanada rivojlantirish, uni zamonaviy voqelikka moslashtirish ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim shartidir. Shuningdek, diniy bag‘rikenglikni ta’minlashda davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish, ta’lim va ma’rifat sohasidagi islohotlarni davom ettirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda

jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash zarur. Bularning barchasi Yangi O‘zbekistonda ma’naviy barqarorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirda). – T.: “O‘zbekiston”, 2023. – 80 b.
3. https://president.uz.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TA’KIDIY DIKTANTLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA ONGLI O‘QISH VA BARQAROR KITOBXONLIK MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Yaqubova Nodira Ruslanovna –
UrDPI doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni barpo etish sharoitida boshlang‘ich ta’lim jarayonida ta’kidiy diktantlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda ongli o‘qish va barqaror kitobxonlik motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ta’kidiy diktantlarning nafaqat imloviy savodxonlikni rivojlantirish, balki o‘quvchilarning matnni ongli idrok etishi, mazmunini tahliliy anglash, matnga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish hamda o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyojini kuchaytirishdagi didaktik salohiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili va o‘qish savodxonligi, imlo, imloviy savodxonlik, diktant, ta’kidiy diktant, ko‘rish diktanti, eshitish diktanti, imlo qoidasi, kitobxonlik madaniyati, motivatsiya.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy islohotlar jarayonida yagona ma’naviy makonni barpo etish jamiyat taraqqiyotining ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur jarayon nafaqat madaniy va ma’naviy sohalarni, balki ta’lim tizimini ham tubdan yangilashni, uning mazmunini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida boyitishni taqozo etadi. Yagona ma’naviy makon g‘oyasi yosh avlod ongida mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirish, ularni axborot oqimlari sharoitida mustaqil va tanqidiy fikrlay oladigan, kitobxonlik madaniyatiga ega shaxs sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida ma’rifatparvarlik, kitobxonlik madaniyati va milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish strategik vazifa sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning intellektual va ma’naviy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Mazkur davrda o‘quvchilarda o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish nafaqat texnik savodxonlikni ta’minlash, balki matnni ongli idrok etish, mazmunini tahliliy anglash, unga shaxsiy munosabat bildirish va o‘qishga nisbatan ichki ehtiyojni rivojlantirishni ham qamrab oladi.

Ongli o‘qish va barqaror kitobxonlik motivatsiyasini shakllantirish jarayoni o‘quvchining shaxs sifatida kamol topishida muhim omil bo‘lib, u ma’naviy tafakkur, estetik did va ijtimoiy mas’uliyatning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning matn bilan faol, tahliliy va refleksiv munosabatini ta’minlovchi samarali pedagogik vositalarni izlash va amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi ikki yil davomida boshlang‘ich ta’lim sohasida ta’lim-tarbiya jarayonida keng ko‘lamli o‘zgarishlar olib borilmoqda. Xususan, xalqaro ta’lim sifati tadqiqotlarida yuqori natija ko‘rsatgan mamlakatlarning tajribalaridan kelib chiqib, xalqaro ekspertlar tavsiyasiga asosan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida yozish, o‘qish, fikr bildirish ko‘nikmalarni

sifatli shakllantirish maqsadida “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani kiritildi va shu nomdagi darsliklar amaliyotga joriy qilindi. 1-2-3-sinf uchun mo‘ljallangan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklari ikki qismdan iborat bo‘lib, har bir qismning mashq daftari ham yaratildi[1].

“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslari bolalarning aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o‘stirish zaminida kelgusida fanlarni puxta o‘zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Shu sababli boslang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining asosiy vazifalaridan biri ham o‘quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini o‘stirishdir. Binobarin, ta’lim jarayonida o‘quvchilar yozma nutqini o‘stirishga ham ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi sifatida yondashiladi. Ma’lumki o‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirish bevosita imloviy savodxonlik bilan bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarda orfografik malakalarni shakllantirishni tizimli ravishda amalga oshirish muhimligini belgilaydi.

O‘quvchilarda imloviy savodxonlikni shakllantitirishda diktantning o‘rni juda katta. Diktantning ham bir qancha turlari mavjud bo‘lib, quyida biz ta’kidiy diktant, uning turlari hamda uni o‘tkazish yo‘llari haqida fikr yuritmoqchimiz.

Ta’kidiy diktant barcha ta’limiy diktantlar ichida eng muhimi va ahamiyatlisidir, chunki ta’kidiy diktant o‘quvchilarni yozuvda so‘zlarni xato yozishdan saqlaydi. Bu diktant turi har qanday so‘zning imlosini o‘quvchilarga oldindan eslatish orqali yozdirishga asoslanadi. Zero, agar o‘quvchi xato yozilgan so‘zlarni ko‘rsa, uni o‘zi xato yozsa, imloda xato ko‘nikmaga ega bo‘lib qolsa, u o‘quvchiga imlo o‘rgatish juda murakkab ishga aylanib qoladi. Bu jihatdan qaraganda ham ta’kidiy diktantning ahamiyati katta. Diktantning bu turi o‘quvchilarni diktant matnidagi barcha so‘zlarning imlosini o‘ziga singdira olishga odatlantiradi. Shuningdek, bu diktant orqali o‘quvchilar so‘z imlosini turli orfografik toifalar asosida ongli o‘zlashtiradilar.

Bilamizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘la savodli qilish chidam va sezgirlik talab qiladi. O‘qituvchi o‘z o‘quvchisiga biror yangi so‘z o‘rgatar ekan, avvalo shu so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rgatishi lozim; undan keyingina bu so‘z yuzasidan yozuv mashqi o‘tkazadi. Bu orfografiya bilan orfoepiyaning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi[2].

Metodik adabiyotlarda o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolar turli sabablarga ko‘ra sodir bo‘lishi quyidagicha ko‘rsatiladi:

1. Imlo qoidasi o‘rganilmagan ba’zi so‘zlar diktant matn tarkibiga kirib qoladi.
2. Biror imlo qoidasi bo‘sh o‘zlashtirilgani sababli tegishli so‘zlarni bu orfografik qoidaga bog‘lay olmaydilar va ularni xato yozadilar.
3. Imlosi qoidalashtirilmagan so‘zlarga oid xatolar.
4. Ba’zan o‘quvchilarning beparvoligi tufayli so‘zlar xato yoziladi.
5. Yozuvda o‘quvchilar kalligrafik jihatdan xato qiladilar, buning oqibatida ayrim harflar boshqa shaklga o‘tib, bu so‘z xato yozilganday seziladi.

Bu xatolarning barchasi ta’kidiy diktant orqali bartaraf qilinadi. Buning uchun ko‘proq boshlang‘ich sinflarda imlosi o‘rgatiladigan so‘zlarni o‘quvchilarga ko‘rsatish, ularning imlosini ta’kidlash orqali yozdirish zarur. Ayniqsa, 1-sinf o‘quvchilari og‘zaki eshitganlarini yozuvda osonlik bilan ifoda eta olmaydilar. Bu hol o‘quvchilarni xatosiz yozishga o‘rgatishda yozilayotgan so‘zning imlosini oldindan ko‘rsatishni talab qiladi.

2-3- sinflarda o‘quvchilarning to‘g‘ri yozuv ko‘nikmasi bir oz shakllangach, bolalar biror sohada mustaqil fikrlay oladigan darajada malaka hosil qilgan bo‘ladilar. Bundan tashqari, bu sinflarda imlo va grammatik qoidalar bolalarga tanishtiriladi, bu esa ayrim so‘zlar imlosini grammatik qoidaga bog‘lab, og‘zaki ta’kidlash - izohlashga imkon beradi.

3-4-sinflarda ta’kidlanayotgan so‘zning xususiyati ham, bu so‘zni ta’kidlash usuli ham murakkablashadi. 3-4-sinflarda yozdiriladigan diktant matn tajribasida orfografiyaning turli tamoyillariga oid so‘zlar kelishi mumkin. O‘quvchilar yozuvida uchraydigan xatolar ham turli ko‘rinishga ega bo‘ladi. Shuni nazarda tutib, xato yozilishi mumkin bo‘lgan so‘zlarni turli usulda ta’kidlash mumkin.

Ta’kidiy diktant ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: 1) ko‘rish diktanti; 2) eshituv diktanti.

Ko‘rish diktant turi ta’kidiy diktantning eng xarakterli ko‘rinishi sanaladi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘rish a’zosi orqali sezgan narsalari obrazini xotiralarida uzoq vaqt saqlab qoladilar. Bola biror so‘zni

koʻrar ekan, uning aksi koʻzga tushadi, bola ongida u muhokama qilinadi va bu haqda yo toʻgʻri, yoki notoʻgʻri hukm chiqaradi. Nihoyat, oʻquvchi bu soʻzning shunday yozilishiga qat'iy ishonadi. Oʻquvchida hosil boʻlgan bunday ishonch juda qiyinchilik bilan unutiladi. Shuning uchun ham bola koʻzi oʻngida hech qanday notoʻgʻri yozilgan soʻz boʻlmasligi zarur.

Oʻquvchilardagi bunday psixofiziologik holatdan koʻruv diktanti orqali foydalaniladi. Binobarin, koʻrish diktantini quyidagi maqsadlarda oʻtkazish mumkin:

1. Koʻrish diktanti orqali oʻquvchilar koʻproq notanish aytilishi va yozilishi aniq boʻlmagan soʻzlar, atamalar imlosi bilan tanishtirilishi mumkin.

2. Avvalgi yozma ishlarda orfografik xatolarga yoʻl qoʻyilgan soʻzlarning imlosini oʻquvchilarga singdirish mumkin. Buning uchun diktant matn yoki shu matndagi ayrim soʻzlar sinf doskasiga yozib qoʻyiladi. Oʻquvchilar bu soʻzlarni mustaqil oʻqib imlosi bilan tanishib chiqadilar. Soʻng oʻqituvchi bu soʻzlarni oʻqib ularning imlosini tushuntirib beradi, undan keyin sinf doskasi parda bilan yopiladi va matnni oʻqituvchi aytib yozdiradi. Diktant yozish tugagach parda ochiladi, oʻquvchilar oʻz yozuvlarini doskadagi diktant matnga solishtirib, tuzatib oladilar. Koʻruv diktantining bu shakli oʻz xususiyatlariga koʻra koʻproq 1-sinflarda qoʻllanilsa yaxshi natija beradi.

1- sinf oʻquvchilarini bilimga oʻrgatish davrida diktantning bu shaklidan foydalaniladi. Bunda biror harf oʻquvchilarga tanishtirilgach, shu harf ishtirokida biror soʻz tanlanadi yoki biror predmetni koʻrsatib, uning nomi oʻquvchilarga bir necha marta ayttiriladi, soʻng bu soʻz boʻgʻinlarga va tovushlarga ajratiladi, bu soʻzni oʻqituvchi yoki ayrim oʻquvchi kesma harflar yordamida doskada tuzadi, soʻng tarkibidagi boʻgʻin va harflar yana muhokama qilinadi, soʻng u soʻz sinfda xoʻr bilan yoki yakkama-yakka oʻqiladi va keyin yoziladi. Oʻquvchilar yozgan soʻzlarni doskadagi soʻzlarga taqqoslab xatolarini tuzatib oladilar.

2-sinfdan boshlab talaffuzi qiyin, talaffuzi bilan imlosi mos kelmaydigan koʻp boʻgʻinli soʻzlar yuzasidan koʻrish diktanti yozdirish mumkin, ayniqsa biror orfografik- grammatik qoida oʻrganilgach, shu

qoidaga bog‘lab tashkil qilinadigan ko‘rish diktanti o‘quvchilarning yana ham kuchliroq diqqatini talab qiladi.

Diktant matnining doskaga o‘quvchilar ko‘zi oldida yozilishi muhimdir. Chunki yozuv jarayonida o‘quvchilar so‘zlar tarkibidagi harflar bilan tanishadilar. Bu vaqtda o‘quvchilar o‘qituvchi harakatiga so‘zlarning yozilishiga diqqat bilan qarab turadilar. Bu hol esa doskaga yozilgan so‘zlar imlosining ular xotirasida uzoq saqlanib qolishiga imkon beradi.

Ba’zan ayniqsa quyi sinflarda ta’kidlash ko‘zda tutilgan so‘z doskada ko‘rsatilishidan tashqari, o‘qish va yozdirish vaqtida juda sekin va dona-dona qilib o‘qib beriladi. U vaqtda so‘z tarkibidagi barcha harflar aniq talaffuz etilishi, o‘quvchilarning eshitish a’zolariga aniq yetib borishi lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilar bu so‘z tarkibidagi o‘zak va affikslarni aniq tasavvur eta olishlari lozim. Ammo bunday o‘qish o‘quvchilarga bo‘g‘inlab, harflab yozishga imkon bermasligi zarur. Agar o‘quvchilar bo‘g‘inlab yozadigan bo‘lsalar bu xil yozuv mashqi o‘quvchilar bilimiga faqat salbiy ta’sir qiladi[4].

3-4-sinflarda morfologiyaga oid mavzuni mustahkamlash maqsadida ko‘rish diktanti o‘tkaziladi. U holda diktant matni sinf doskasiga yozilmaydi, balki matn darslikdan tanlanishi mumkin. Uni o‘qituvchi o‘rganilgan qoidaga bog‘lab izohlaydi, hatto bu qoidaga oid misollarni o‘quvchilarga mustaqil toptirishi ham mumkin. Mavzu yetarli takrorlangandan so‘ng o‘quvchilar diktant matnini o‘qituvchining aytib berishi bilan yozadilar.

Diktant yozib tugatilgach o‘quvchilar o‘z yozuvlarini doskadagi matnning asl nusxasiga solishtirib, o‘z xatolarini tuzatib oladilar. Bu solishtirish vaqtida takrorlash ko‘zda tutilgach mavzu o‘quvchilarning diqqat markazida turishi kerak.

Ko‘rish diktantining bu shakli orqali matndagi grammatikaning biror qoidasiga oid ayrim so‘zlar orfografiyasigina emas, balki diktant matnidagi barcha so‘zlar imlosini o‘rganish maqsad qilib olinishi mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makonni barpo etish jarayonida boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarda ongli o‘qish ko‘nikmalarini va barqaror kitobxonlik motivatsiyasini shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. Mazkur bosqichda ta’lim

jarayonini ma’naviy-ma’rifiy mazmun bilan boyitish, o‘quvchilarning matnni ongli idrok etishi hamda unga shaxsiy munosabat bildira olish qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, ta’kidiy diktantlar o‘quvchilarning o‘qish jarayonidagi faolligini oshiruvchi, tahliliy tafakkurini rivojlantiruvchi va kitobxonlikka bo‘lgan ichki ehtiyojini mustahkamlovchi samarali pedagogik vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirzayev A. Diktant metodikasi.- Toshkent, “O‘qituvchi”, 1979.

2. Abdullayeva Q., Rahmonbekova S., Bekmurodova G., G‘ozixo‘jayeva G. Diktantlar to‘plami. (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun). - Toshkent: “Niso Poligraf”, 2017.

3. Jumayeva S. O‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirishning ayrim yo‘llari// “Ona tili ta‘limidagi islohotlar: vazifalar, yechimlar va muammolar” Respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari.- Qarshi, 2015, 70-73-betlar.

4. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va o‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’limning 1-sinfi uchun darslik. 1-2-qism. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI

Izimbetov K.S.
Innovatsion texnologiyalar
universitetida (UIT)
assistent o‘qituvchi,
Abdullaev Sh.M. Tengelbaeva A
UIT talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda tumanlaridagi aholi zichligi, joylashishi, tabiiy o‘sishi ko‘rib chiqildi. Respublika statistika boshqarmasining 2011-2024 yillardagi statistic ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Demografiya, aholi zichligi, joylashishi, tabiiy o‘sishi, promille, aholining tabiiy harakati.

Hozirgi kunda respublikamizda demografik rivojlanishining o‘rni katta bo‘lib, ijtimoiy manfaatlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o‘sishi, joylashishi, demografik tarkibi kabi jihatlarni bozor munosabatlari rivojlanishi nuqtai nazaridan o‘rganish katta ahamiyatga ega. Chunki, aholi ham asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste`molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Respublikasi geografik jihatdan Markaziy Osiyoning markazida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 448,97 ming kv.km ni tashkil etadi. Bugungi kunda respublikamiz aholisi 2025 yil 1 yanvar` holatiga ko‘ra 37543,2 ming kishidan ortiqni tashkil etmoqda hamda Qoraqalpag‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va poytaxt Toshkent shahridan iborat ma’muriy-hududiy bo‘linishga ega.

Qoralpog‘iston Respublikasining umumiy maydoni 166,59 ming kv.km ni tashkil etadi. Bugungi kunda mintaqada 16 ta tuman, 12 ta shahar, 26 ta shaharchalar, 146 ta qishloq fuqarolik yig‘inlari, 1126 ta qishloq aholi punktlari mavjud. Qoraqalpag‘iston Respublikasi markazi Nukus shahri hisoblanadi. Aholining doimiy ko‘payib borishi natijasida uning zichligi

ham oshmoqda: 2011 yilda har kv.km ga 10,1 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 12,2 kishini tashkil etgan. Hozirgi vaqtda mintaqada aholi zich bo‘lgan hududlar sifatida 1 kv.km ga to‘g‘ri keladigan aholi soni Nukus shahri (1535,1 kishi), Taxiatosh (432,4 kishi), Xo‘jayli (233,6 kishi), Amudaryo (207,7 kishi) tumanlari kiradi. Shuningdek, mintaqada 2024-yilda 1 kv.km ga to‘g‘ri keladigan aholi soni bo‘yicha zichligi eng past bo‘lgan hududlar sifatida Mo‘ynoq (0,9 kishi), Taxtako‘pir (1,8 kishi), Qo‘ng‘irot (1,8 kishi), Qorao‘zak (9,2 kishi) tumanlari to‘g‘ri kelgan. Mintaqada aholi zichligining oshib borishi aholi sonining muntazam o‘sib borishi evaziga yuzaga kelmoqda (1-jadval).

1-jadval

Qoralpog‘iston Respublikasida aholi zichligi
(yilda, 1 kv.km ga to‘g‘ri keladigan aholi soni)

Hududlar	**2011 y.**	**2016 y.**	**2019 y.**	**2020 y.**	**2021 y.**	**2022 y.**	**2023 y.**	**2024 y.**
Respublika bo‘yicha	**10,1**	**10,8**	**11,4**	**11,5**	**11,7**	**11,9**	**12,0**	**12,2**
shaharlar:								
Nukus sh.	1292,3	1380,5	1431,4	1452,7	1471,8	1495,5	1514,3	1535,1
tumanlar:								
Amudaryo	168,9	182,1	191,5	195,3	197,5	200,8	204,3	207,7
Beruniy	41,1	44,9	47,5	48,5	49,2	50	50,9	51,9
Bo‘zatov	9,5	10,0	10,4	10,5	10,6	10,7	10,8	10,8
Qorao‘zak	8,2	8,6	8,9	9	9	9,1	9,2	9,2
Kegeyli	37,4	39,4	40,5	78,8	79,6	79,1	80,3	80,9
Qo‘ng‘irot	1,5	1,6	1,7	1,7	1,7	1,7	1,8	1,8
Qanliko‘l	61,4	65,3	68	68,9	69,9	70,8	71,4	72,3
Mo‘ynoq	0,8	0,8	0,8	0,8	0,9	0,9	0,9	0,9
Nukus	46,9	49	52,2	53,4	54,4	55,2	56	57,1
Taxiatosh	3352	3450	3640	3690	3735	3775	429,6	432,4
Taxtako‘pir	1,9	1,9	1,9	1,9	1,9	1,9	1,8	1,8
To‘rtko‘l	24,5	26,7	28,1	28,6	29,1	29,5	30	30,6
Xo‘jayli	256,9	264,1	170,7	172,8	175,1	176,8	230,9	233,6
Chimboy	47,8	50,5	52,4	77,4	78,2	78,6	79,6	80,0
Shumanay	66,5	69,5	71,3	71,9	72,6	73,1	73,6	74,1
Ellikkala	24,6	27,1	28,8	29,4	29,9	30,4	30,9	31,6

Masalan, tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, respublikamiz mustaqilligining so‘nggi 32 yili mobaynida (1991-2024 yillar) O‘zbekiston aholisi eng yuqori, ya’ni 16 mln. kishidan ortiqga oshgan holda, bu ko‘rsatkich qo‘shni davlatlarda, xususan, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston hamda Ozarbayjonga nisbatan bir necha martaga ko‘proq oshgan. Qolgan MDH davlatlari – Ukraina, Rossiya, Moldova, Belorussiya va Armanistonda teskari holat kuzatilgan, ya’ni ularda aholi soni muntazam pasayish tendentsiyasiga ega.

Demograflarning prgnozlari mazkur jarayon tobora kuchayib borishidan dalolat bermoqda. Xusuan, BMT ekspertlarining prognozlariga muvofiq, 2050 yilga borib dunyoda eng yuqori qarish darajasi 72,7 %ga etishi taxmin qilinmoqda. Aholining keksayishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi hamda bu jarayon quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi:

1. Keksalar ulushining ortishi aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi. Odamning yoshi qancha katta bo‘lsa, mahsuldorligi shunchalik past bo‘ladi.

2. Aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlar ulushi kamayishini anglatadi. Bu esa ish bilan band aholini kasb-malaka va tarmoq trkibining o‘zgarish jarayoni va binobarin, iqtisodiyotning samaradorligi oshishini sekinlashtiradi.

3. Pensiya jamg‘armasi zimmasiga pensiyalar to‘lash xarajatlarining benihoya og‘ir yuki tushadi, zero pensionerlar ulushining ko‘payishi bilan bir yo‘la pensiya jamg‘armalariga mablag‘ to‘lab boradigan mehnatga layoqatli aholi salmog‘i qisqaradi.

4. Keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qo‘shimcha mablag‘ sarflash, gerontologik muassasalari tarmog‘ini kengaytirish va butun sog‘liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqaroligiga oid masalalarni ko‘rib chiqishning yangilangan tartibini belgilash” to‘g‘risida 10.03.2021 yildagi PF-6185-son. https://lex.uz/docs/5325578

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining “Erta turmush va erta tug‘ruq holatlari hamda oilaviy ajrimlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturining ijro etilishi to‘g‘risida” qarori, 18.01.2021 yildagi KQ-177-IV-son. https://lex.uz/docs/5254358

3. Abdurahmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashr. – T.: O‘zR FA **“**FAN” nashriyot davlat korxonasi, 2019. -592 b.

4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T. 3. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. 248-b.

5. Абдураҳмонов Қ.Х. ва бошқалар. / Зокирова Н.К., Шоюсупова Н.Т., Габзалилова В.Т., Абдураманов Х.Х., Абдураҳмонова Г.Қ., Шакаров З.Г. Демография. Дарслик. – Т.: “IQTISODIYOT”, 2014. – 364 б., 7-б.

6. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов. - М.: из-во Нота Бене Медиа Трейд компания, 2003. - 344 с.

7. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2

ZJV5401

“YANGI O‘ZBEKISTON”, “SAMARADOR DAVLAT BOSHQARUVI” VA “IJTIMOIY SIYOSAT” TUSHUNCHALARINING SIYOSIY KATEGORIAL TAHLILI

Umatov Azamatdin Kurbaniyevich
Nukus davlat pedagogika instituti, Milliy g‘oya, manaviyat asoslari va xuquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Yangi O‘zbekiston”, “samarador davlat boshqaruvi” va “ijtimoiy siyosat” tushunchalarining siyosiy kategorial tahlili haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada Yangi O‘zbekiston davlatchiligi taraqqiyot bosqichida siyosiy tizimning institutsional va funksional samaradorligini oshirish masalasi milliy

modernizatsiya strategiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylanayotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, samarador davlat boshqaruv, siyosiy tizim, mexanizm, texnologiya, modernizatsiya, ma’naviyat, strategiy.

Yangi O‘zbekiston davlatchiligi taraqqiyot bosqichida siyosiy tizimning institutsional va funksional samaradorligini oshirish masalasi milliy modernizatsiya strategiyasining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonning nazariy–metodologik tahlili “Yangi O‘zbekiston”, “samarador davlat boshqaruvi” va “ijtimoiy siyosat” kabi o‘zaro uzviy bog‘liq siyosiy kategoriyalarni chuqur anglashni talab etadi. Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar kontekstida mazkur tushunchalar davlat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ochib beruvchi analitik asos sifatida namoyon bo‘ladi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi zamonaviy siyosiy modernizatsiyaning konseptual ifodasi bo‘lib, unda davlat boshqaruvi tizimining ochiqlik, javobgarlik va fuqarolarga yo‘naltirilganlik tamoyillariga asoslangan holda qayta tashkil etilishi nazarda tutiladi. Bu jarayonda samarador davlat boshqaruvi nafaqat institutsional tuzilmalarni optimallashtirish, balki siyosiy jarayonlar va texnologiyalarni demokratik boshqaruvning ilg‘or standartlariga moslashtirish orqali amalga oshiriladi.

Davlat boshqaruvining samaradorligi ko‘p qirrali kategoriyadir: u siyosiy institutlarning funksional barqarorligi, davlat apparati faoliyatining natijadorligi, resurslarning oqilona taqsimlanishi va siyosiy qarorlarning jamiyat manfaatlariga mos kelishi bilan o‘lchanadi. Bu jarayonda ijtimoiy siyosat – davlatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy mexanizmlar orqali ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlashga qaratilgan strategik faoliyati – markaziy rol o‘ynaydi. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning samaradorligi, bir tomondan, davlat institutlarining innovatsion texnologiyalarni qo‘llash qobiliyati bilan, ikkinchi tomondan esa, siyosiy jarayonlarning fuqarolar ehtiyojlariga dinamik moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Bunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini

boshqaruv amaliyotiga joriy etish davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqotni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘taradi.

“Yangi O‘zbekiston”, “samarador davlat boshqaruvi” va “ijtimoiy siyosat” tushunchalari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular zamonaviy siyosiy transformatsiya jarayonlarining markazida turgan kompleks kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, avvalo, mustaqillikning ikkinchi bosqichida mamlakat siyosiy-huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan institutsional modernizatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan islohotlar va fuqarolik jamiyatining yangi sifat bosqichiga chiqishini anglatadi. Bu jarayonda davlatning siyosiy legitimligi nafaqat konstitutsiyaviy asoslar, balki amaliy samaradorlik va fuqarolarning real hayot sifatining oshishi bilan mustahkamlanadi. Shu bois “samarador davlat boshqaruvi” kategoriyasi bu kontseptual tizimda nafaqat byurokratik mexanizmlarning optimallashtirilishi, balki strategik boshqaruv, ochiqlik va hisobdorlik, elektron hukumat texnologiyalarini keng joriy etish orqali davlatning fuqarolarga xizmat ko‘rsatishdagi sifat va tezkorlik mezonlarini yangilashni bildiradi. Bunday boshqaruv modeli resurslardan oqilona foydalanish, qarorlar qabul qilishda dalillarga asoslangan yondashuv va siyosiy jarayonlarning inkluzivligini ta’minlash orqali barqaror rivojlanishning asosiy omiliga aylanadi.

Mazkur paradigmaning uchinchi tarkibiy elementi sifatida “ijtimoiy siyosat” milliy taraqqiyot strategiyasining ijtimoiy yo‘naltirilgan vektorini ifodalaydi. U fuqarolarning asosiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, imkoniyatlar tengligini ta’minlash va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi. Bu yerda ijtimoiy siyosatning faqat kompensator yoki redistributiv funksiyasi emas, balki preventiv va rivojlantiruvchi funksiyalari ham muhim o‘rin tutadi, ya’ni davlat ijtimoiy muammolarni yuzaga kelishidan oldin aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqadi. Shu jihatdan, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida samarador davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosatning uyg‘unlashuvi siyosiy tizimning ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta’minlovchi sinergetik modelini yaratadi. Natijada, ushbu uch tushuncha bir-birini shartlovchi va to‘ldiruvchi siyosiy kategoriyalar sifatida qaraladi:

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi strategik maqsad va ideologik asosni belgilasa, “samarador davlat boshqaruvi” uning institutsional va tashkiliy mexanizmini, “ijtimoiy siyosat” esa mazmuniy va maqsadli yo‘nalishini ta’minlaydi. Bunday integrativ yondashuv siyosiy rivojlanishning barqarorligi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi va ijtimoiy birdamlik darajasini oshirish orqali yangi davrning siyosiy-huquqiy modelini shakllantiradi.

“Yangi O‘zbekiston”, “samarador davlat boshqaruvi” va “ijtimoiy siyosat” tushunchalarining siyosiy kategoriyal tahlili zamonaviy O‘zbekiston siyosiy hayotining yangi paradigmasini anglashda muhim nazariy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tushunchalar mustaqil siyosiy institutlar shakllanishi, boshqaruv mexanizmlarining modernizatsiyasi hamda aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy texnologiyalarni chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Avvalo, “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi siyosiy jihatdan mamlakatda kechayotgan tub islohotlarning kontseptual timsoli sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Yangi O‘zbekiston – bu, avvalo, o‘zgarishlar mamlakati, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi asosida shakllanayotgan ijtimoiy shartnoma, jamiyat va hokimiyat o‘rtasidagi yangicha munosabatlar tizimi” – deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev[1]. Bu fikrda ijtimoiy shartnoma tamoyili asosida siyosiy legitimlikning yangicha qiyofasi ifoda etilgan. Bugungi siyosiy jarayonlar “Yangi O‘zbekiston” tushunchasini faqat siyosiy shior emas, balki real ijtimoiy-huquqiy transformatsiyalar kontekstida anglashni talab etmoqda. Bu holat esa siyosiy institutlar o‘zgarishi bilan bog‘liq tahlilni dolzarb qiladi.

“Samarador davlat boshqaruvi” atamasi esa bugungi siyosiy texnologiyalar va institutsional islohotlarning poydevorini tashkil etadi. Bu haqda tadqiqotchi A. Xojaniyozov bu borada shunday deydi: “Davlat boshqaruvining samaradorligi – bu davlat institutlarining o‘z funksiyalarini aholi ehtiyojlari va zamon talablariga mos ravishda ijro etish salohiyatidir”[2]. Ushbu yondashuvda davlat institutlarining faolligi emas, balki ularning funksional aniqligi, resurslardan oqilona foydalanishi va ijtimoiy javobgarligi mezon sifatida ko‘rilmoqda. Siyosiy texnologiyalar nuqtayi nazaridan qaraganda, samaradorlik - bu “boshqaruv

texnologiyalarining inson salohiyatiga qaratilganligi”dir. Ya’ni, markaziy hokimiyatdan hududiy bosqichgacha bo‘lgan tizimlarda natijaviylik indikatori sifatida inson kapitalining rivoji asosiy mezonga aylanmoqda.

“Ijtimoiy siyosat” esa siyosiy institutlarning aholi bilan bevosita aloqador yo‘nalishidir. M. Mahmudov ta’kidlashicha, “ijtimoiy siyosat – bu davlatning aholi turmush darajasini, ijtimoiy tenglikni ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni ushlab turishdagi faoliyatlar tizimidir”[3]. Bu fikrda siyosiy jarayonlarning insoniy o‘lchamda ko‘rilishi, ya’ni fuqarolarning kundalik hayoti bilan bog‘liqligi nazarda tutiladi. Siyosiy institutlar ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda nafaqat siyosiy iroda, balki aniq texnologik yechimlar asosida harakat qilishi zarur. Bu, ayniqsa, ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini raqamlashtirish, aholining ishtirokini kuchaytirish orqali erishiladi.

Siyosiy jarayonlarning modernizatsiyalashuvi, o‘z navbatida, ijtimoiy siyosatning ham institutlar, ham texnologiyalar darajasida yangilanishini taqozo qiladi. F.Fukuyama siyosiy institutlar samaradorligini davlatning “imkoniyatli davlat”ga aylanishi bilan bog‘laydi va bu borada shunday deydi: “Imkoniyatli davlat – bu faqat qonunlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni samarali tatbiq eta oladigan institutsional tuzilma”[4]. O‘zbekiston sharoitida bunday yondashuv davlat xizmatlarini soddalashtirish, xalq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot mexanizmlarini joriy etish, mahalliy boshqaruv tizimini mustahkamlash orqali amalda namoyon bo‘lmoqda. Shunday qilib, siyosiy texnologiyalar orqali ijtimoiy siyosat davlat boshqaruvida o‘zining sinergetik mexanizmini yuzaga chiqarmoqda.

“Yangi O‘zbekiston”, “samarador davlat boshqaruvi” va “ijtimoiy siyosat” atamalari zamonaviy siyosiy tafakkurda bir-birini to‘ldiruvchi konseptual birlik sifatida e’tirof etiladi. Ular nafaqat siyosiy leksikonga yangi mazmun olib kiradi, balki siyosiy institutlarning mazmuniy yangilanishi, boshqaruvning texnologik asosda takomillashuvi va fuqarolarning farovonligini ta’minlovchi mexanizmlarning shakllanishida muhim ideologik ramzga aylanadi. Ayniqsa, siyosiy institutlarning raqamli transformatsiyasi fonida bu tushunchalar ijtimoiy-siyosiy ongni qayta formatlashga xizmat qilmoqda.

ZJV5401

Tadqiqotchi Z.Baxtiyorov “Yangi O‘zbekiston” kontseptsiyasini “milliy o‘zlik, siyosiy modernizatsiya va ijtimoiy adolat tamoyillarining uyg‘unligi asosida shakllanayotgan yangi siyosiy tafakkur makoni” sifatida tavsiflab, quyidagicha izohlaydi: “Yangi O‘zbekiston – bu o‘tish davrining murakkab siyosiy-tashkiliy muammolarini hal qilgan, fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirishga intilgan va demokratik legitimlikni normativ asosga ko‘tarishga urinayotgan tizimdir”[5]. Ushbu nuqtai nazar zamonaviy siyosiy institutlar evolyutsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, siyosiy yangilanishlar nafaqat tashkiliy-institut sathida, balki ijtimoiy ongda ham yangicha konstitutsiyaviy tasavvurlarni shakllantirmoqda. Bu esa Yangi O‘zbekiston konsepsiyasining faqat ma’muriy emas, balki identitetga oid siyosiy-huquqiy yo‘nalishda ham kechayotganligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotchi M.Haydarov esa samarador boshqaruvni “institutsional darajadagi yuksalish emas, balki siyosiy texnologiyalar vositasida hukumat va fuqaro o‘rtasida ijtimoiy kontraktni qayta belgilash vositasi” deb baholaydi. M.Haydarov ta’kidlaydi: “Samaradorlik mezoni endilikda boshqaruv idoralarining markaziylashuvi emas, balki ularning ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvchanligi, ochiqligi va javobgarligidir”[6]. Mazkur yondashuv bugungi siyosiy transformatsiyalar kontekstida ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki davlat boshqaruvi faqat farmon va qarorlar emas, balki siyosiy aloqa va axborot vositalari orqali amalga oshirilayotgan muloqot jarayonidir. Davlat organlarining ochiqlik siyosatiga asoslangan kommunikatsion modeli boshqaruv samaradorligini belgilovchi markaziy omillardan biriga aylanmoqda.

Tadqiqotchi J.To‘rayev “ijtimoiy siyosat”ni siyosiy institutlar bilan ijtimoiy guruhlar o‘rtasida “muvozanatni ta’minlovchi axborot-kommunikatsion vosita” sifatida talqin etadi: “Ijtimoiy siyosat orqali davlat faqat ijtimoiy himoya funksiyasini emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy ierarxiyalarni yangidan shakllantirish strategiyasini ham amalga oshiradi”[7]. Ushbu nuqtai nazar ijtimoiy siyosatni faqat iqtisodiy resurslarni taqsimlash amaliyoti sifatida emas, balki siyosiy jarayonlarning eng muhim komponenti sifatida ko‘rishga undaydi. Ayniqsa, zamonaviy siyosiy texnologiyalarda fuqarolar bilan raqamli interaktiv aloqa, ijtimoiy

dasturlar monitoringi, sun’iy intellekt orqali ijtimoiy ehtiyojlarni prognoz qilish kabi uslublar ijtimoiy siyosatni yangicha institutlashtirishga zamin yaratmoqda.

Xorijiy tahlilchi D.Held ushbu jarayonlarni yanada chuqurroq tahlil qilib, shunday deydi: “Demokratiya va samarador boshqaruv o‘rtasidagi ziddiyat, asosan, global muhitda davlatlarning o‘z siyosiy-iqtisodiy suverenitetini saqlab qolish istagi bilan bog‘liqdir. Raqobatbardosh ijtimoiy siyosat esa faqat ilg‘or texnologiyalar emas, balki fuqarolik ishtiroki orqali shakllanadi”[8]. D.Heldning ushbu yondashuvi “ijtimoiy siyosat” va “samaradorlik” tushunchalarining nafaqat mahalliy, balki global geosiyosiy kontekstda tahlil etilishini ko‘zda tutadi. Shu bois, Yangi O‘zbekiston konsepsiyasida demokratik institutlar va texnologik boshqaruv vositalari uyg‘unligi, aynan fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi siyosiy matritsa sifatida qabul qilinishi lozim.

“Yangi O‘zbekiston”, “samarador davlat boshqaruvi” va “ijtimoiy siyosat” kabi siyosiy-kategorial tushunchalar zamonaviy O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining nazariy va amaliy poydevorini tashkil etadi. Bu tushunchalar o‘zaro semantik va institutsional aloqadorlikda bo‘lib, ular orqali siyosiy institutlarning shakllanishi, siyosiy jarayonlarning texnologik modelda rivojlanishi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategiyalar namoyon bo‘ladi. Shu bois, ularni siyosiy texnologiyalar, boshqaruv institutsionalizatsiyasi va fuqarolik jamiyati formatidagi jarayonlar kontekstida tahlil etish hozirgi siyosiy g‘oyaviy maydonning mazmunini ochib beradi.

O‘zbekistonlik siyosatshunos M.Ziyodov “Yangi O‘zbekiston” tamoyilini quyidagicha tavsiflaydi: “Yangi O‘zbekiston degani – bu yangilangan konstitutsiyaviy ong, ilg‘or boshqaruv texnologiyalariga asoslangan ijtimoiy siyosat va xalq bilan bevosita muloqotga kirishgan ochiq davlat institutidir”[9]. Ziyodovning bu yondashuvi siyosiy identitetni faqat tarixiy-milliy omil sifatida emas, balki boshqaruv texnologiyalariga integratsiyalashgan holatda ko‘rsatadi. Aynan siyosiy institutsionalizatsiya darajasida “Yangi O‘zbekiston” siyosiy reallik sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda boshqaruvning vertikal emas, balki gorizontal, interaktiv va fuqarolikka asoslangan modeli ilgari surilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, “Yangi O‘zbekiston”, “samarador boshqaruv” va “ijtimoiy siyosat” tushunchalari zamonaviy siyosiy madaniyatni shakllantirish, davlatning innovatsion siyosiy tizim sifatida rivojlanishini ta’minlash va fuqarolarning siyosiy ishtirokini kuchaytirish yo‘lidagi asosiy paradigmalardir. Ularning siyosiy institutsional, texnologik va jarayonli talqini hozirgi global siyosiy muhitda O‘zbekistonning mustahkam va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi g‘oyaviy va amaliy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016. – 336 b. – B. 14.
2. Xo‘janiyozov A. Davlat boshqaruvi va huquqiy davlat asoslari. – T.: TDYI, 2019. – 192 b. – B. 73.
3. Mahmudov M. Ijtimoiy taraqqiyot va siyosat. – T.: Fan, 2018. – 204 b. – B. 126.
4. Fukuyama F. Siyosiy tartib va siyosiy tanazzul. – T.: Akademnashr, 2021. – 408 b. – B. 87.
5. Baxtiyorov Z. O‘zbekiston siyosiy modernizatsiyasi. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2020. – 96 b. – B. 59.
6. Haydarov M. Siyosiy menejment va davlat boshqaruvi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – 148 b. – B. 101.
7. To‘rayev J. Siyosiy falsafa asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 200 b. – B. 133.
8. Held D. Models of Democracy. – Cambridge: Polity Press, 2006. – 304 p. – P. 218.
9. Ziyodov M. Yangi O‘zbekiston: siyosiy identitet va modernizatsiya. – Toshkent: Sharq, 2022. – 128 b. – B. 47.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI: JADID MAKTABLARI PEDAGOGIK KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI

Shamsullayeva Ruxsatoy
Buxoro Davlat Pedagogika
Instituti tadqiqotchisi,
Buxoro shahar

Annotatsiya. Maqolada Buxoro amirligidagi jadid maktablarining pedagogik konsepsiyasi, uning nazariy asoslari va zamonaviy ta’lim tizimida qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, jadid maktabi, pedagogik konsepsiya, Buxoro amirligi, usuli savtiya, ta’lim islohotlari, yangi usul.

Milliy taraqqiyot yo‘lida ta’lim tizimini isloh qilish masalasi barcha davrlarda dolzarb bo‘lib kelgan. Bugungi kunda ham o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini yangicha tashkil etish kabi fundamental masalalarni hal etishga alohida ahamiyat kasb etib kelmoqda. Keling, buni moziyga bir nigoh solib, o‘sha davr bilan bugungi kunni uyg‘unlashtirgan holda, talabalarda ham ma’nan ham ruhan sog‘lom shaxs tarbiyalashning nazariy asoslarini ko‘rib chiqaylik. O‘rta Osiyo xonliklari orasida Buxoro xonligi maktab va madrasalar soni jihatidan alohida o‘rin tutardi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Buxoro xonligining madaniy markazi uning poytaxti — Buxoro shahri bo‘lib, tarixiy manbalarda “Buxoroyi sharif” (“Muborak Buxoro”) nomi bilan shuhrat qozongan edi. Arab bosqinidan so‘ng, islom dini o‘rnatilgandan boshlab, Buxoro asta-sekin butun O‘rta Osiyo mintaqasining islomiy ma’rifat markazi bo‘lib bordi. Masjidlar, musulmon maktablari (maktablar) va islom ilohiyot maktablari (madrasalar) ochila boshladi. Aynan Buxorada o‘ziga xos musulmon fani va ta’lim tizimi shakllanib, ta’lim metodikasi ishlab chiqildi. Buxoro madrasalarida dunyoviy fanlar qatori din ilmlari ham o‘qitildi: kalom (ilohiyot), fiqh (huquqshunoslik), tafsir (Qur’on sharhlar), hadis

(payg‘ambar Muhammad alayhissalomning amallari to‘g‘risidagi ma’lumotlar) va boshqa fanlar.

Haqiqatdan ham, Buxoro XVIII — XIX asrning birinchi yarmida nafaqat o‘rta asrlar qiyofasini saqlab qolgan, balki O‘rta Sharq shahar madaniyatining yadrosi bo‘lib, islomiylashgan ma’naviy madaniyat markazi sifatida o‘z o‘rnini egallagan edi.

Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik xarakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha-ma’rifatchilik; 2) 1915 yildan – 1918 yil fevraligacha-muxtoriyatchilik; 3) 1918 yil fevralidan - 20-yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyati.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoda, jumladan, Buxoro amirligida jadidchilik harakati vujudga keldi va bu harakat yangi pedagogik g‘oyalarni hayotga tatbiq etishga intildi [1].

Jadid maktablarining pedagogik konsepsiyasi o‘z davrida inqilobiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Mazkur konsepsiya Buxoro amirligidagi an’anaviy maktab-madrasalar tizimiga muqobil sifatida maydonga chiqdi va ta’limni modernlashtirish, dunyoviy fanlarni o‘quv dasturlariga kiritish, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini demokratlashtirish kabi masalalarni kun tartibiga qo‘ydi [2].

Ushbu maqolada jadid maktablarining pedagogik konsepsiyasidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari Buxoro amirligi misolida tahlil qilinadi. Bu mavzu nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ta’lim nazariyasi va amaliyoti nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Buxoro amirligi XIX asrning oxirida Rossiya imperiyasi ta’siriga tushib qolgan bo‘lsa-da, mahalliy ijtimoiy-madaniy hayot o‘zining an’anaviy tuzilishini saqlab qoldi. Madrasalar va maktablar islom ta’limiga asoslanib, asosan diniy bilimlar berish bilan cheklangan edi.[1:2]

Jadidlar — yangilikchilar — ushbu tizimni to‘liq rad etmasdan, uni isloh qilishni va yangi usul (*usuli jadid*) asosida ta’limni tashkil etishni maqsad qilib oldilar. "Usuli savtiya" — tovushlar usuli — asosida o‘qitish metodikasini joriy etish jadid pedagogikasining asosiy amali bo‘ldi. Bu usul o‘quvchilarga harflarni alohida-alohida yodlatish o‘rniga so‘zlarni tovushlar orqali tezroq o‘qishga o‘rgatdi [2].

Ismoilbek Gaspralining g‘oyalari Buxoro jadidlariga kuchli ilhom berdi. Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulloh Xo‘jayev kabi shaxslar Buxorodagi jadidchilik harakatining asoschilariga aylandi. Ular yangi maktablar tashkil etish uchun xayriya jamiyatlari orqali moliyaviy mablag‘ to‘plashdi va o‘quv qo‘llanmalari yaratdilar [2:2]

Jadid maktablarining pedagogik konsepsiyasi bir necha muhim komponentlardan iborat edi. Birinchidan, o‘quv dasturi kengaytirildi: arabiy va forsiy tillar bilan bir qatorda hisob, geografiya, tarix, tabiiy fanlar o‘qitila boshlandi [3].

Ikkinchidan, o‘qitish metodikasi tubdan o‘zgardi. Yodlashga asoslangan an’anaviy usul o‘rniga tushuntirish, mulohaza yuritish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish usullari qo‘llandi. Uchinchidan, o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar yangicha belgilandi: o‘qituvchi nafaqat diniy, balki dunyoviy bilimlarni ham egallab olishi shart bo‘ldi [4].

To‘rtinchidan, ta’lim muhiti o‘zgardi. Qulay va yorug‘ sinf xonalari, partalar, doskalar joriy etildi. Beshinchidan, ona tili — o‘zbek yoki tojik — o‘quv jarayonining asosiy tiliga aylandi, bu esa bilimlarni o‘zlashtirishni sezilarli darajada osonlashtirdi [5].

Buxoro amirligida 1905-1917 yillar orasida bir necha o‘nlab jadid maktablari faoliyat ko‘rsatdi. Amirlik hukumati va konservativ ulamo jadidlarga qarshi bo‘lsa-da, maktablarning soni yildan-yilga ko‘payib bordi. Sadriddin Ayniyning "Yodgorliklar" asarida bu maktablarning kundalik hayoti jonli tarzda tasvirlangan [6].

Jadid maktablarida dramatik san’at, matbuot va adabiyotga katta e’tibor berildi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi sahnaga qo‘yilishi nafaqat badiiy, balki tarbiyaviy ahamiyat ham kasb etdi [7].

Maktablardagi o‘quv jarayonini moliyalashtirish muammosi doimiy ravishda dolzarb bo‘lib qoldi. Ba’zi maktablar mahalliy savdogarlarning homiyligida, boshqalari esa jamoat jamg‘armalari hisobiga faoliyat ko‘rsatdi. Bu tajriba zamonaviy ta’limdagi jamoatchilik-xususiy sheriklik modellarining ilk ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin [8].

Jadid maktablarining pedagogik konsepsiyasidan zamonaviy ta’lim amaliyotida foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin [9]:

Birinchi yo‘nalish — o‘quv dasturlarini integratsiyalash mexanizmi. Jadidlar diniy va dunyoviy ta’limni muvozanatli birlashtirgan holda o‘quv dasturlarini shakllantirgandek, zamonaviy ta’lim ham milliy-ma’naviy qadriyatlar bilan ilmiy-texnologik bilimlarni uyg‘unlashtirishi lozim. O‘zbekistonning hozirgi ta’lim tizimida ham shunga o‘xshash integratsiya masalasi muhokama qilinmoqda [10].

Ikkinchi yo‘nalish — o‘qitish metodlarini yangilash. Jadidlarning "usuli savtiya" metodi o‘z davrida inqilob yasagan. Bugungi kunda ham faol o‘rgatish, muammoli ta’lim, loyihaviy o‘rgatish kabi metodlar jadid g‘oyalarining mantiqiy davomi hisoblanadi. Maktablarda o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jadid pedagogikasining asosiy talablariga mos keladi [11].

Uchinchi yo‘nalish — o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish. Jadid maktablarida o‘qituvchi yetakchi va namuna bo‘lishi shart edi. Bugungi ta’lim siyosatida ham o‘qituvchining professional rivojlanishi, doimo yangilangan bilimlar bilan qurollanishi strategik ahamiyat kasb etmoqda [12].

To‘rtinchi yo‘nalish — ta’limni moliyalashtirish va jamoat ishtiroki mexanizmlarini takomillashtirish. Jadidlar jamoatchilik va xayriyachilik resurslari asosida maktablarni saqlab qolishga erishdilar. Bugungi kunda ta’lim-ijtimoiy sheriklik modellarini rivojlantirish, xususiy sektorni ta’lim moliyalashtirishga jalb qilish jadid tajribasini o‘rganishni dolzarb qiladi.

Beshinchi yo‘nalish — ona tilida o‘qitishni kuchaytirish va milliy-madaniy o‘zlikni ta’limga singdirish. Jadidlar ona tilida o‘qitishning tarbiyaviy va bilim berish samaradorligini oshirishini ko‘rsatib berdilar. Zamonaviy ta’limda ham davlat tili va milliy madaniyat asosida ta’lim berish ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

XULOSA

Buxoro amirligidagi jadid maktablarining pedagogik konsepsiyasi o‘z davrida tarixan muhim rol o‘ynagan. Ushbu konsepsiya an’anaviy ta’limni saqlab qolgan holda uni modernizatsiyalash, dunyoviy bilimlarni o‘quv jarayoniga kiritish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini yangicha tashkil etish kabi fundamental masalalarni hal etishga intildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jadid pedagogikasining asosiy g‘oyalari — integrativ dastur, faol o‘qitish metodlari, o‘qituvchining professional salohiyati, jamoatchilik-xususiy sheriklik va ona tilida ta’lim — bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, ushbu tamoyillar zamonaviy ta’lim islohotlarining nazariy asosiga kiritilishi va amaliyotda izchil qo‘llanilishi zarur.

Jadid maktablarining pedagogik konsepsiyasidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish yo‘llari Buxoro amirligidagi tarixiy tajribaga tayanilgan holda ishlab chiqilishi, bir tomondan, milliy ta’lim tizimining tarixiy ildizlarini mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa, zamonaviy pedagogik amaliyotni boyitadi. Kelajak tadqiqotlari ushbu konsepsiyaning boshqa mintaqaviy ta’lim tizimlari bilan qiyosiy tahlilini ham qamrab olishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayniy S. Yodgorliklar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. 3-4-kitob.
2. Behbudiy M. Padarkush. Samarqand, 1913.
3. Fitrat A. Munozara. Buxoro, 1909.
4. Fozilova M. Jadid maktablarining tashkiliy asoslari // O‘zbekiston tarixi. 2018. № 3. 45-54-b.
5. Ishoqov M. Buxoro amirligida yangi usul maktablarining tashkil etilishi // Sharqshunoslik. 2015. № 2. 112-118-b.
6. Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998.
7. Lazzerini E. J. Jadidism at the Turn of the Twentieth Century: A View from Within // Cahiers du Monde russe et soviétique. 1975. Vol. 16. № 2. P. 245–277.
8. Munavvarov Z. Jadidchilik harakati va ta’lim islohotlari. Toshkent: Akademnashr, 2020.
9. Rashidov G‘. Jadid dramaturgiyasi. Toshkent: Fan, 1985.
10. Saydullayev N. Markaziy Osiyoda jadidchilik va uning ta’limiy konsepsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

11. Turobov A. Buxoro jadidlari va ularning ijtimoiy-siyosiy faoliyati. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2019.

12. Yo‘ldoshev Q. Jadid maktablarida darslik va o‘quv dasturlari // Pedagogika. 2021. № 4. 78-83-b.

KIBERSPORT YOSHLARNI BIRLIGI VA FAOLLIGINI TA’MINLOVCHI FENOMEN

Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi
University of Business and Science
Toshkent filiali “Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kibersportning yoshlar birligi va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi zamonaviy fenomen sifatidagi mohiyati tahlil qilinadi. Raqamli makonda jamoaviylik, kommunikativ hamkorlik, strategik tafakkur va global integratsiya jarayonlari ochib beriladi. Kibersportning yoshlar siyosati, ijtimoiy identifikatsiya hamda liderlik sifatlarini shakllantirishdagi ahamiyati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Kibersport, yoshlar, ijtimoiy faollik, birlik, raqamli makon, integratsiya, jamoaviylik, identifikatsiya, liderlik, transformatsiya.

Kibersport (E-sport) XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida shakllangan yangi ijtimoiy-madaniy hodisa bo‘lib, u nafaqat o‘yin industriyasining mahsuli, balki yoshlar ijtimoiylashuvi, birlashuvi va faollashuvi jarayonining muhim omiliga aylangan. “An’anaviy sport kabi kibersport ham raqobat, qoidalar, jamoaviylik va mahoratga asoslanadi, biroq uning asosiy makoni – virtual muhitdir. Kibersport raqamli jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyojlari, qiziqishlari va kommunikativ uslublariga mos tushadigan ijtimoiy platforma vazifasini bajaradi. Kibersportning ijtimoiy mohiyati, avvalo, uning kommunikativ tabiatida namoyon

bo‘ladi”[6]. Jamoaviy o‘yinlar – Dota 2 yoki Counter-Strike 2 – ishtirokchilardan o‘zaro hamkorlik, tezkor axborot almashinuvi va strategik kelishuvni talab qiladi. Yoshlar orasida bu jarayon o‘zaro ishonch, mas’uliyat va jamoaviy birdamlikni shakllantiradi. O‘yin davomida har bir ishtirokchi o‘z rolini bajaradi va umumiy g‘alaba individual muvaffaqiyatdan ustun qo‘yiladi. Oxir-oqibatda kibersport ijtimoiy kooperatsiyaning amaliy maktabiga aylanadi.

Yoshlar birligini ta’minlashdagi yana bir muhim jihat – bu umumiy identifikatsiya jarayonidir. “Kibersport jamoalari, klublari va onlayn hamjamiyatlari yoshlar uchun o‘ziga xos ijtimoiy makon yaratadi. Bu makonda ular o‘z qiziqishlari asosida birlashadi, umumiy maqsad sari harakat qiladi va o‘zini muayyan guruhning a’zosi sifatida his etadi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan, bu jarayon “raqamli identifikatsiya” fenomeni sifatida baholanadi”[4]. Ya’ni shaxs o‘zini nafaqat real jamiyatda, balki virtual hamjamiyatda ham namoyon etadi. Bu jarayon yoshlarning ijtimoiy moslashuvini yengillashtirib ularning hamkorligini ta’minlaydi.

Kibersportning ijtimoiy mohiyati uning global xarakterida namoyon bo‘ladi. Xalqaro turnirlar, jumladan “The International yoki League of Legends World Championship”[8] kabi musobaqalar turli mamlakat yoshlari o‘rtasida madaniy muloqot va hamkorlikni kuchaytiradi. “Turli millat, til va madaniyat vakillari bitta o‘yin maydonida o‘zaro raqobatlashadi va shu bilan birga umumiy qadriyat – sport tamoyiliga sodiq qoladi. Globallashuv sharoitida tolerantlik, o‘zaro hurmat va madaniy xilma-xillikni qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi”[2]. Demak, kibersport yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ham muhim rol o‘ynab, u faqat o‘yin jarayonidan iborat emas; balki tashkilotchilik, sharhlovchilik, dasturchilik, dizayn, marketing kabi ko‘plab faoliyat yo‘nalishlarini ham qamrab oladi. Yoshlar ushbu sohada nafaqat ishtirokchi, balki tashabbuskor, loyiha muallifi yoki menejer sifatida ham faol bo‘lish imkoniyatiga ega.

Ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan “kibersport “fatsilitatsiya” jarayonini yuzaga keltiradi. Jamoa ichida o‘ynash, tomoshabinlar yoki muxlislar qo‘llab-quvvatlashi ishtirokchining natijasini yaxshilaydi. Bu omil yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va ularni

yanada faolroq bo‘lishga undaydi. Sog‘lom raqobat muhiti shaxsning irodaviy sifatlarini chiniqtiradi, stressga chidamliligini oshiradi va muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi”[5]. U nafaqat hordiq chiqarish shakli, balki jamoaviylik, tashabbuskorlik va mas’uliyatni rivojlantiruvchi ijtimoiy maydon hisoblanadi. O‘yin jarayonida doimiy muloqot, taktik muhokama va o‘zaro muvofiqlashuv talab etiladi. Bu esa nutq madaniyati, tinglash va fikr almashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, yoshlar onlayn platformalar orqali kengroq auditoriya bilan aloqaga kirishadi, bu esa ularning ijtimoiy tarmoqdagi faolligini konstruktiv yo‘nalishga buradi.

Kibersport atrofida shakllanayotgan yana bi muhim jihat ijtimoiy-ekotizimdir. Turnirlar tashkil etish, sharhlovchilik, kontent yaratish va media faoliyat yoshlarni tashabbus ko‘rsatishga undaydi. U yoshlarni zararli odatlardan chalg‘ituvchi va konstruktiv faoliyatga yo‘naltiruvchi vosita bo‘la oladi. Albatta, bu yerda me’yor va nazorat masalasi muhim. To‘g‘ri tashkil etilgan kibersport faoliyati yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishiga, intellektual salohiyatini rivojlantirishiga va ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug‘ullanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, rasmiy federatsiyalar va tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan kibersport harakati yoshlar siyosatining zamonaviy yo‘nalishiga aylanishi mumkin. “Kibersport raqamli madaniyatning ajralmas qismi sifatida yoshlar tafakkurini transformatsiya jarayonidagi faol ijtimoiy hodisadir. U strategik fikrlash, algoritmik tafakkur va tezkor tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va axborot jamiyatida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantiradi”[3]. Shu ma’noda kibersport nafaqat hordiq chiqarish vositasi, balki ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ijtimoiy institut sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Kibersport yoshlar birligini ta’minlovchi va ularning ijtimoiy faolligini oshiruvchi kompleks fenomen hisoblanadi. U jamoaviylik, hamkorlik, global muloqot va sog‘lom raqobat tamoyillariga asoslanadi. Kibersportni faqat o‘yin sifatida emas, balki yoshlar ijtimoiylashuvi va birdamligini ta’minlovchi zamonaviy ijtimoiy institut sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. “Raqamli makon – bu geografik chegaralardan xoli, kommunikatsiya va hamkorlik tezkorlik bilan amalga oshiriladigan

muhitdir. Aynan shu muhitda kibersport yoshlarni, turli ijtimoiy qatlam va madaniyat vakillarini yagona maqsad – o‘yin jarayonidagi g‘alaba va professional o‘sish sari birlashtiradi”[7]. Shu bois kibersportni nafaqat sport turi, balki ijtimoiy integratsiya mexanizmi sifatida ham talqin qilish mumkin.

Kibersportning global xususiyati uning integratsion imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Kibersport integratsiyaning iqtisodiy va professional jihatlariga ham ega. U atrofida murabbiylik, sharhlovchilik, dasturchilik, marketing va media faoliyat kabi ko‘plab yo‘nalishlar shakllangan. Yoshlar uchun yangi kasbiy imkoniyatlar yaratadi va ularni mehnat bozoriga integratsiya qiladi. Kibersport raqamli makonda ijtimoiy integratsiyaning samarali omili hisoblanadi. Jamoaviylik, global muloqot, umumiy identifikatsiya va professional hamkorlik asosida yoshlarni birlashtiradi. Kibersport zamonaviy jamiyatda yoshlar ijtimoiy faolligining mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirayotgan fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy ijtimoiy faollik ko‘proq jismoniy makonda – sport maydonlari, madaniy markazlar, jamoat tashkilotlari doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa, kibersport ushbu jarayonni raqamli makonga ko‘chirdi. Yoshlarning faolligi yangi – virtual, tarmoqlashgan va global xarakter kasb etdi.

Yoshlar ijtimoiy faolligining transformatsiyasi kibersport orqali yangi kommunikativ madaniyatning shakllanishida ham ko‘rinadi. Onlayn platformalarda muloqot qilish, strategik muhokamalar olib borish, o‘z fikrini tez va aniq ifodalash zamonaviy ijtimoiy kompetensiyalarning ajralmas qismiga aylandi. Raqamli makonda shakllangan bu muloqot uslubi yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni global axborot oqimiga integratsiya qiladi. Kibersport atrofida butun bir ijtimoiy-ekotizim shakllanadi. Yoshlar bu jarayonda nafaqat ishtirokchi, balki tashkilotchi va ijodkor sifatida ham faol bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning ijtimoiy kapitalini oshiradi. Transformatsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, “kibersport yoshlarning o‘zini namoyon etish va o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Virtual maydonda ijtimoiy maqom ko‘proq bilim, mahorat va mehnat bilan belgilanadi”[1]. Bu esa teng imkoniyatlar muhitini yaratadi va yoshlarni o‘z ustida ishlashga

undaydi. Shu bilan birga, sog‘lom raqobat muhiti shaxsning irodaviy sifatlarini mustahkamlaydi.

Kibersport yoshlar ijtimoiy faolligining shakli, mazmuni va ko‘lamini transformatsiya qilmoqda. U an’anaviy faollikni inkor etmay, balki uni raqamli makonda yangi bosqichga olib chiqadi. Jamoaviylik, global muloqot, tashabbuskorlik va kreativlik asosida shakllanayotgan bu yangi faollik turi zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy rolini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi. Yoshlar siyosati zamonaviy davlat boshqaruvida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uning asosiy maqsadi – yoshlarning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir. Raqamli transformatsiya sharoitida kibersport ushbu siyosatning yangi va innovatsion yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki kibersport yoshlarning qiziqishlari, zamonaviy texnologiyalar va global axborot makoni bilan uzviy bog‘liqdir.

Kibersportning yoshlar siyosati bilan integratsiyasi, avvalo, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish orqali namoyon bo‘ladi. An’anaviy sport turlari bilan bir qatorda, elektron sport ham yoshlarni sog‘lom raqobat, jamoaviylik va intizom ruhida tarbiyalaydi. Masalan, Dota 2 yoki Counter-Strike 2 kabi jamoaviy o‘yinlar strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa yoshlar siyosatining asosiy vazifalaridan biri – raqobatbardosh va tashabbuskor avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshlar siyosati doirasida kibersportni qo‘llab-quvvatlash professional infratuzilma yaratishni ham nazarda tutadi. Maxsus federatsiyalar, turnirlar va trening markazlari tashkil etilishi yoshlarning iste’dodini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Xalqaro miqyosdagi musobaqalar, jumladan The International kabi turnirlar yoshlar uchun global maydonda o‘z salohiyatini namoyon etish imkonini yaratadi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini oshirib, mamlakat imijini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kibersport zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida yoshlar birligi va ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. U nafaqat hordiq va raqobat maydoni, balki jamoaviylik, mas’uliyat, liderlik hamda strategik tafakkurni rivojlantiruvchi ijtimoiy makondir. Kibersport orqali yoshlar global

kommunikatsiya tizimiga integratsiyalashib, o‘z salohiyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Virtual hamjamiyatlarda shakllanayotgan hamkorlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitlari ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi. Kibersport yoshlarning tashabbuskorligi va innovatsion fikrlashini rag‘batlantirib, zamonaviy yoshlar siyosatining samarali yo‘nalishi va ijtimoiy integratsiyani kuchaytiruvchi omil sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бородин П.В., Тютюков В.Г., Небураковский А.А. Киберспорт на просторах отечественной спортивной индустрии // Учёные записки университета им. П.Ф. Лесгафта. 2021. № 1(191). – С.28.

2. Дашкуева П.В., Магомеддибирова З.А. Формирование коммуникативной толерантности старшеклассников в условиях культуры полиэтнического города: монография. – Грозный: ФГБОУ ВО «ЧГПУ»; – Махачкала: “АЛЕФ”, 2019. –С.48.

3. Левченко А.А., Лыткин А.В., Мамонтова А.А. Киберспорт как неотъемлемая часть современного цифрового общества. // ИННОВАТSIОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ТЕХНИКИ. №.12. 2021. –С.373.

4. Першин Н.Ю. Киберспорт как уникальный социальный феномен в контексте современных медиакоммуникатsiй. Вестник Удмуртского Университета. Социология. Политология. Международные отношения. 2024. Т. 8, вып. 4. – С.442.

5. Русаленко О.Н. Современные информатsионно-компьютерные технологии. / Экспериментальная и инноватsионная деятельность в образовательных организатsиях СПО как средство повышения качества обучения: материалы Всероссийской (с международным участием) педагогической научно-практической конференции среди профессиональных образовательных учреждений СПО. Март 2022 г./ Лискинский аграрнотехнологический техникум. – Лиски: ГБПОУ ВО «Лискинский аграрно-технологический техникум», 2022. –С.74.

6. Собирова Н.А. Киберспорт: история становления, современное состояние и перспективы развития. // Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024. – B.26.

7. Селютин А.А. Видеоигры как социальная сеть: социокоммуникативный потенциал / Челябинский государственный университет. – 2021. –С.266.

8. 2011-yilda Germaniyaning Kyoln shahridagi Gamescom ko‘rgazmasida o‘tkazilishi boshlangan ushbu musobaqada dastlab 16 ta jamoa ishtirok etgan.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA'NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Koshmuratov Ruslan Ulasxanovich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti
Siyosatshunoslik va ma‘naviyat
asoslari kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yagona ma'naviy makon barpo etishning zarurati, maqsadlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Ma'naviy makon jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi qadriyatlar, an'analar va madaniy kodlar majmuasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Maqolada globallashuv sharoitida milliy o‘zligini saqlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda yagona ma'naviy makonning o‘rni ko‘rsatilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ma'naviy makon barpo etishning konseptual asoslari, ustuvor yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Ma'naviy makonni shakllantirish jarayonida ta'lim-tarbiya tizimi,

madaniyat, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni alohida ta'kidlangan.

Kalit so‘zlar: yagona ma'naviy makon, milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, fuqarolik jamiyati, madaniy meros, milliy o‘zlik.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston jamiyatining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga aylandi. Yangi O‘zbekiston sharoitida esa ma'naviy makonni barpo etish strategik ahamiyat kasb etmoqda. 2017-yil 7-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Prezident Farmoni ma'naviy-ma'rifiy sohani isloh qilishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgiladi [1].

Yagona ma'naviy makon - bu jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi umumiy qadriyatlar, e'tiqodlar, an'analar, madaniy kodlar va axloqiy me'yorlar majmuasidir. Bu makon milliy o‘zligini saqlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim o‘rin tutadi.

Globallashuv, axborotlashtirish va madaniy xilma-xillikning kuchayishi sharoitida yagona ma'naviy makonni barpo etish murakkab va ko‘p qirrali vazifa hisoblanadi. Bu jarayon milliy qadriyatlar va universal insoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvini, an'anaviylik va zamonaviylikning muvozanatini ta'minlashni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: tizimli yondashuv, tarixiy-qiyosiy tahlil, falsafiy-madaniy tahlil, sotsiolologik tadqiqot usullari va normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish. Ma'naviy makon kontseptsiyasi zamonaviy ijtimoiy falsafa, madaniyatshunoslik va siyosatshunoslik nazariyalari asosida tahlil qilindi.

1. Yagona ma'naviy makon barpo etishning zarurati

Zamonaviy sharoitda yagona ma'naviy makonni barpo etish bir qator muhim omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, globallashuv jarayonlari milliy madaniyat va qadriyatlarga kuchli ta'sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida turli madaniyatlar o‘zaro ta'sir kuchaymoqda. Bu sharoitda milliy o‘zlikni saqlash, o‘z madaniy kodlarini asrab-avaylash

muhim vazifaga aylanadi. Yagona ma'naviy makon milliy qadriyatlarni himoya qilish va ularni kelajak avlodlarga etkazishning asosiy mexanizmi hisoblanadi [2].

Ikkinchidan, ijtimoiy birlikni mustahkamlash zarurati mavjud. O‘zbekiston ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlatdir. Jamiyatda turli etnik guruhlar, diniy e'tiqodlar va madaniy an'analar mavjud. Yagona ma'naviy makon barcha fuqarolarni birlashtiruvchi umumiy qadriyatlar tizimini yaratish orqali ijtimoiy birlik va barqarorlikni ta'minlaydi.

Uchinchidan, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash dolzarb muammodir. Hozirgi yoshlar avlodi globallashgan dunyoda o‘sib ulg‘aymoqda. Ularning ongida milliy qadriyatlar va universal qadriyatlarning muvozanatini ta'minlash, sog‘lom ma'naviy-axloqiy tamoyillarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Yagona ma'naviy makon yoshlarni vatanparvarlik, mas'uliyat va insonparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vositasidir.

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ma'naviy asosini yaratish zarur. Fuqarolik jamiyati shunchaki institutlar majmui emas, balki umumiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga asoslangan ijtimoiy tuzilmadir. Yagona ma'naviy makon fuqarolik ongini, huquqiy madaniyatni va demokratik qadriyatlarni shakllantirish uchun zamin yaratadi.

2. Yagona ma'naviy makonning konseptual asoslari

O‘zbekistonda yagona ma'naviy makon barpo etish konseptsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

a) Milliy qadriyatlarni asosiy o‘rin tutishi. Boy tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan O‘zbekiston xalqi asrlar davomida shakllanган qadriyatlar tizimiga ega. Insonparvarlik, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, ilm-fanga hurmat, kattalarni e'zozlash, yurtni sevish kabi qadriyatlar ma'naviy makonning poydevoridir. Bu qadriyatlar ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan madaniy meros asosida shakllanadi va zamonaviy sharoitda yangi ma'no kasb etadi.

b) An'anaviylik va zamonaviylikning uyg‘unligi. Ma'naviy makon qadimiy an'analarni yo‘qotmasdan, zamonaviy talablar va universal qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirishi kerak. Bu degani, milliy

qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga, ilm-fan, texnologiya, demokratiya, inson huquqlari kabi zamonaviy tamoyillarni qabul qilish demakdir [3].

v) Ko‘p madaniyatlilik va bag‘rikenglik. O‘zbekistonda turli etnik guruhlar va diniy jamoalar tinch-totuv yashaydi. Yagona ma'naviy makon barcha millat va e'tiqod vakillari uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlar asosida qurilishi kerak. Madaniy xilma-xillikni boylik sifatida qabul qilish, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik ma'naviy makonning muhim xususiyatidir.

g) Shaxs va jamiyatning uyg‘unligi. Ma'naviy makon har bir fuqaroning shaxsiy erkinligi va jamiyatning umumiy manfaatlarining muvozanatini ta'minlashi kerak. Shaxsning o‘z-o‘zini namoyon etishi va rivojlanishi bilan birga, ijtimoiy mas'uliyat va jamiyat manfaatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

3. Ma'naviy makon barpo etishning ustuvor yo‘nalishlari

Yangi O‘zbekistonda yagona ma'naviy makonni barpo etish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Birinchidan, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish. Ta'lim muassasalari ma'naviy makonni shakllantirishning asosiy institutlaridir. 2019-2020 o‘quv yilidan boshlab barcha ta'lim muassasalarida "Ma'naviyat va ma'rifat" fanini o‘qitish joriy etildi. Ushbu fan orqali yoshlarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirish amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ta'lim dasturlari milliy meros, tarix va madaniyat bilimlarini kengaytirish yo‘nalishida takomillashtirilmoqda.

Ikkinchidan, madaniy merosni asrab-avaylash va targ‘ib qilish. O‘zbekistonning boy madaniy merosi - tarixiy yodgorliklar, adabiyot, san'at, musiqiy meros, hunarmandchilik an'analari ma'naviy makonning asosiy manbayi hisoblanadi. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi qadimiy shaharlar, buyuk allomalar merosi, boy xalq og‘zaki ijodi va milliy hunarmandchilik milliy o‘zlikning timsolidir. Ushbu merosni tiklash, saqlash va yangi avlodga etkazish muhim vazifadir [4].

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalarining o‘rnini oshirish. OAV ma'naviy makonni shakllantirish va kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Televideniye, radio, matbuot va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijobiy namunalarni ko‘rsatish amalga oshirilmoqda. OAV axloqiy

me'yorlar va madaniy kodlarni jamiyatning barcha qatlamlariga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish. Mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar harakatlari, xotin-qizlar tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari ma'naviy makonning muhim tashkil etuvchilaridir. Mahalla an'anaviy qadriyatlarni saqlash va avlodlarga etkazishda noyob o‘rin tutadi. Fuqarolik jamiyati institutlari orqali fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning mas'uliyat va tashabbuskorligini rivojlantirish amalga oshiriladi.

Beshinchidan, diniy bag‘rikenglik va tolerantlikni ta'minlash. O‘zbekistonda turli diniy e'tiqodlar tinch-totuvlik sharoitida mavjud. Diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash bilan birga, sog‘lom diniy tushunchalarni shakllantirish, diniy bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni rivojlantirish muhim vazifadir. Diniy ta'limda islohot o‘tkazish, diniy xizmatchilar malakasini oshirish orqali jamiyatda diniy xavfsizlikni ta'minlash amalga oshirilmoqda.

4. Ma'naviy makonning o‘ziga xos xususiyatlari

Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan yagona ma'naviy makon quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

Birinchidan, tarixiy uzluksizlik va zamonaviylik sintezi. O‘zbekiston ma'naviy makonida qadimiy Sharq donishmandlari - Imom Buxoriy, Termiziy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy kabi allomalarning ilmiy-falsafiy merosi, Amir Temur davlatchiligi g‘oyalari va zamonaviy demokratik qadriyatlar uyg‘un tarzda mujassamlashadi. Bu xususiyat ma'naviy makonning boy tarixiy ildizlarga ega ekanligini va bir vaqtning o‘zida zamonaviy talablarga javob berishini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, milliy o‘zlik va ochiqlik muvozanati. O‘zbekiston o‘z milliy o‘zligini saqlagan holda dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashmoqda. Ma'naviy makon bir tomondan milliy qadriyatlarni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan universal insoniy qadriyatlar, ilm-fan yutuqlari va ilg‘or tajribalarni qabul qilishga ochiq [5].

Uchinchidan, davlat va jamiyatning hamkorligi. Ma'naviy makonni barpo etish jarayonida davlat rahbariyati strategik yo‘nalishlarni belgilaydi, qonunchilik bazasini yaratadi va moddiy-texnik bazani ta'minlaydi. Bir

vaqtning o‘zida fuqarolik jamiyati institutlari, oilalar, ta'lim muassasalari va har bir fuqaro ushbu jarayonda faol ishtirok etadi. Bunday hamkorlik ma'naviy makonning barqarorligini ta'minlaydi.

To‘rtinchidan, ko‘p qirralilik va butunlik. Ma'naviy makon turli elementlardan tashkil topgan: ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at, adabiyot, din, an'analar, turmush tarzi va h.k. Bularning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, yagona butunlikni tashkil etadi. Har bir element alohida ahamiyatga ega bo‘lgan holda, umumiy ma'naviy makonning ajralmas qismini tashkil etadi.

Beshinchidan, dinamiklik va rivojlanishga yo‘nalganlik. Ma'naviy makon statik tuzilma emas, balki doimiy rivojlanib boradigan dinamik jarayondir. Jamiyatning rivojlanishi, yangi texnologiyalar, global o‘zgarishlar ma'naviy makonni boyitadi va yangi shakllar bilan to‘ldiradi. Bu jarayon milliy qadriyatlarning mohiyatini saqlab, ularni zamonaviy shaklda namoyon etishni ta'minlaydi [6].

Yangi O‘zbekistonda yagona ma'naviy makon barpo etish davlatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ma'naviy makon jamiyat a'zolarini birlashtiruvchi, milliy o‘zlikni saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi umumiy qadriyatlar, an'analar va madaniy kodlar majmuasidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, ijtimoiy birlikni mustahkamlash, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun yagona ma'naviy makonni barpo etish zarurdir. O‘zbekiston ma'naviy makonining konseptual asoslari milliy qadriyatlar, an'anaviylik va zamonaviylikning uyg‘unligi, ko‘p madaniyatlilik va shaxs-jamiyat muvozanati tamoyillariga asoslanadi.

Ma'naviy makon barpo etish ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, madaniy merosni asrab-avaylash, OAV o‘rnini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va diniy bag‘rikenglikni ta'minlash yo‘nalishlari orqali amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston ma'naviy makonining o‘ziga xos xususiyatlari tarixiy uzluksizlik va zamonaviylik sintezi, milliy o‘zlik va ochiqlik muvozanati, davlat-jamiyat hamkorligi, ko‘p qirralilik va dinamiklikda namoyon bo‘ladi.

Yagona ma'naviy makonni barpo etish davlat va jamiyatning uzoq muddatli va izchil faoliyatini talab etadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati har bir fuqaroning faol ishtirokiga, ta'lim-tarbiya tizimining samaradorligiga, madaniyat va san'at rivojlanishiga hamda fuqarolik jamiyati institutlarining mustahkamligiga bog‘liq. Ma'naviy makonning barqarorligi O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti va jamiyat barqarorligining kafolatlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - T.: O‘zbekiston, 2017. - 592 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: Ma'naviyat, 2008. - 176 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va Yoshlar ittifoqining faoliyatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2019-yil 30-iyundagi PF-5742-son Farmoni // www.lex.uz
5. Ergashev I.I. Yagona ma'naviy makon: nazariya va amaliyot. - T.: Fan, 2021. - 264 b.
6. Nazarov Q.N. Ma'naviyat asoslari va O‘zbekiston milliy g‘oyasi. - T.: O‘zbekiston, 2020. - 312 b.

YANGI MA’NAVIY MAKONNI YARATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI

To‘ychiyev Jo‘rabek Muqimjon o‘g‘li,
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti mustaqil tadqiqotchisi, RMMM huzuridagi “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi ma’naviy makon tushunchasi, uning xususiyatlari va strategik ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yangi ma’naviy makon xalqning milliy o‘zligi, an’analari va axloqiy qadriyatlarini saqlab, jamiyatni ichki ziddiyatlardan himoya qiluvchi va shaxsning ma’naviy hamda intellektual rivojini ta’minlovchi tizim sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi ma’naviy makon, shaxs, jamiyat va davlat uyg‘unligi, inson qadri, ijtimoiy mo‘ljal, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, milliy o‘zlik, ma’naviy tarbiya, strategik ahamiyat, ijtimoiy birdamlik, vatanparvarlik.

Bizga ma’lumki, har qanday mamlakatning barqaror taraqqiyoti va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashi, avvalo, uning iqtisodiy va siyosiy yutuqlari bilan bir qatorda, ma’naviy-ma’rifiy va madaniy salohiyatiga ham bevosita bog‘liqdir. Zero, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy holati, aholisining intellektual saloyihati va dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari, milliy ongi hamda ummumilliy ma’naviy birligi orqali namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda, yangi ma’naviy makonni yaratish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim strategik omili sifatida aks etadi.

Dunyoda kechayotgan globallashuv davri natijasida axborot makonining kengayishi, turli mafkuraviy tahditlar ta’sirlarining haddan tashqari kuchayishi mamlakatimizda har tomonlama mustahkam yangi ma’naviy makonni yaratish davlat siyosatining ustuvor va strategik masalalardan biri hisoblanmoqda. Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi

asarida “yangi ma’naviy makon” tushunchasini quyidagicha ta’rifaydi: “Yangi ma’naviy makon nima? Mening nazarimda u biz orzu qilayotgan Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”[10]. Ushbu ta’rif yangi ma’naviy makonni faqat g‘oyaviy tushuncha sifatida emas, balki amaliy hayot bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy-ma’naviy, ruhiy muhit sifatida talqin etish imkonini beradi.

Ma’naviy makonni yaratish bu tasodifiy yoki qisqa muddatli jarayon emas, aksincha, uzoq muddatli, izchil va umumjamiyatiy harakatlarni talab qiladi. Avvalo, har bir shaxsning ma’naviy olamini boyitish, unda vatanparvarlik, insoniylik, mehnatsevarlik, haqiqatparastlik, adolatlilik kabi yuksak fazilatlarni shakllantirish zarur. Bunda ta’lim tizimi, oila, ommaviy axborot vositalari, san’at va adabiyot singari ma’naviy ta’sir vositalarining o‘rni beqiyosdir.

Shaxs – jamiyatning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, u o‘zining ma’naviy taraqqiyoti orqali jamiyatning rivojiga hissa qo‘shadi. Jamiyat esa shaxslarning umumiy manfaatlari va qadriyatlarini birlashtiruvchi katta tizimdir. Davlat esa shu jarayonni tashkil etish va muvofiqlashtirishda markaziy rol o‘ynaydi. Shu sababli, yangi ma’naviy makonni yaratish jarayonida ushbu uchta bo‘g‘ining, ya’ni shaxs-jamiyat-davlat manfaatlari va vazifalari o‘zaro uyg‘unlikda bo‘lishi zarur.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar davrida buyuk o‘zgarishlar va taraqqiyotga erishish uchun, shaxs-jamiyat-davlat o‘rtasida mustahkam hamkorlik va o‘zaro manfaatlarga asoslangan munosabatlar muhimdir. Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu tamoyil, ya’ni shaxs-jamiyat-davlatning bir-birini qo‘llab-quvvatlashi va birgalikda harakat qilishi asosiy ustuvor vazifalardan biridir.

Ushbu masalalar yuzasidan A.Mavrulov, M.Mavrulovalarning “Yangi O‘zbekistonda ma’naviyat, madaniyat va ideal inson masalasi”ga bag‘ishlargan kitobida quyidagicha ma’lumotni keltirib o‘tadi: “Kuni kecha “davlat-jamiyat-inson” tamoyili amal qilgan bo‘lsa, bugun “inson-jamiyat-

[10] Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. 266-bet.

davlat” tamoyili davlat va jamiyat hayotining mazmunini tashkil etmoqda. Ya’ni, “Davlat – inson uchun”, “Avval inson, keyin jamiyat va davlat” degan yangi tamoyil va g‘oyalarning amal qilishi shaxsning davlat va jamiyat bilan munosabatlarini yanada mustahkamlaydi”[11]. Ushbu kitobda keltirilgan mazkur fikrlar, bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va yo‘nalishlarini aks ettiradi. Bugungi davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati va ma’naviy muhitda insonning roli va mavqeyi qanday darajada o‘zgarganini anglash mumkin. Ilgarigi tizimda inson davlat va jamiyatning shunchaki ijrochisi sifatida qaralsa, endilikda u jarayonlarning markazida turgan, qarorlar qabul qilishda ishtirok etadigan, o‘z huquq va erkinliklariga ega sub’ekt sifatida qaralayotgani yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

“Davlat – inson uchun”, “Avval inson, keyin jamiyat va davlat” kabi g‘oyalar o‘z mohiyatiga ko‘ra demokratik qadriyatlarga asoslangan bo‘lib, Yangi O‘zbekistonda fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, inson kapitaliga e’tiborni kuchaytirish, har bir shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Ushbu tamoyillarning amaliy ifodasi sifatida ta’lim, sog‘liqni saqlash, sud-huquq, ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlarni, “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” degan g‘oyaning hayotga tatbiq etilishini ko‘rsatish mumkin. Bunday yondashuv mamlakatning demokratik va adolatli jamiyat sari hamda yangi ma’naviy makonning mustahkam shakllanish jarayonidagi muhim belgilaridan biridir.

Ma’lumki, jamiyatdagi har bir shaxsning maqsadi va orzulari bo‘ladi. Ushbu ezgu niyatlariga erishishi ko‘plab omillar bilan bog‘liqdir. Shaxs o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va rejalarini, avvalo, real hayot sharoitlarini, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muhitni hisobga olgan holda belgilasa, bu unga maqsad sari to‘g‘ri yo‘nalishda odimlashga yordam beradi. Shu bilan birga, maqsadlar jamiyat tomonidan tanlangan, umummilliy va davlat manfaatlariga mos keladigan strategik yo‘nalishlarga hamohang bo‘lishi lozim. Bunday yondashuv nafaqat shaxsning, balki jamiyatning rivojiga

[11] A.Mavrulov, M.Mavrulova. Yangi O‘zbekistonda ma’naviyat, madaniyat va ideal inson masalasi. – Toshkent: “Muruvvatli dil-press” nashriyoti, 2025. 66-bet.

ham hissa qo‘shadi. Eng muhimi, shaxs o‘z imkoniyatlari, bilim va ko‘nikmalari, kuch va salohiyatini to‘g‘ri baholagan holda maqsad qo‘ysa, shubhasiz, u muvaffaqiyat sari dadil odimlaydi.

Maqsadga erishishda shaxsiy intilishlar bilan jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Demak, mamlakatning har qanday yutuqlariga erishishi uchun shaxs, jamiyat va davlat bilan uyg‘unlikni ta’minlash zarurdir.

Insoniyat tarixining qaysi bir davrini tahlil qilmaylik, har bir siyosiy tuzum, ijtimoiy-iqtisodiy yoki ma’naviy-ma’rifiy kabi yo‘nalishlar o‘zining aniq maqsad va vazifalarini belgilab, ana shu maqsadlar sari intilishni o‘z oldiga bosh vazifa qilib qo‘yganini ko‘ramiz. Bu maqsadlar nafaqat amaliy faoliyatni tashkil etishda, balki jamiyatni ichki birdamlikda, unda muayyan ruhiy va ma’naviy muhitni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu nuqtai-nazardan qaralganda, bu kabi strategik maqsadlar ijtimoiy mo‘ljal sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy mo‘ljal – bu jamiyatning umumiy taraqqiyot yo‘nalishini belgilab beruvchi, el-yurtni ma’naviy birlikka chaqiruvchi, kelajak manzilini aniqlab beruvchi va yo‘naltiruvchi kuchdir. U muayyan siyosiy dasturlar, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning tamal toshidir. Shuningdek, ijtimoiy mo‘ljal insonlarning orzu-umidlari, hayotdan ko‘zlagan maqsadlari va umummilliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda faoliyat ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar, jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi munosabatlar va turmush tarzi, inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan siyosat – bularning barchasi izchil ijtimoiy mo‘ljal asosida yuritilayotganini ko‘rsatadi. Yangi O‘zbekiston g‘oyasi – bu shunchaki siyosiy tashabbus emas, balki yurtimizning ijtimoiy, ma’naviy va iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beradigan strategik mo‘ljaldir. Unda inson qadri, adolat, qonuniylik, shaffoflik, bunyodkorlik va xalq manfaatlari ustuvor maqsad sifatida belgilangan.

Shu o‘rinda “O‘zbekiston – 20230” strategiyasi rasmiy hujjatlar to‘plamida ijtimoiy mo‘ljal haqida quyidagicha ma’lumot keltiradi: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyotga erishgan davlatlar,

avvalo, o‘z milliy ijtimoiy mo‘ljalini aniq belgilab olgan, uni mafkuraviy, amaliy va ma’naviy jihatdan mustahkamlagan. Yangi O‘zbekiston sharoitida bu vazifa tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqsadimiz – fuqarolari o‘z kelajagiga ishonadigan, dunyoviy qarashlarga ega, ma’naviy barkamol jamiyatni shakllantirish bo‘lsa, buning poydevori aynan ijtimoiy mo‘ljal orqali qo‘yiladi”[12]. Haqiqatdan ham, taraqqiyotga erishish uchun mamlakat o‘z oldiga aniq ijtimoiy mo‘ljal qo‘yishi shart. Yangi O‘zbekistonda ham taraqqiy etgan, demokratik va ma’naviy jihatdan barkamol jamiyatni shakllantirish yo‘lida bu tamoyil ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan islohotlar milliy ijtimoiy mo‘ljalni yangi tarixiy sharoitlarga mos ravishda shakllantirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi mamlakat taraqqiyotining markaziy mafkuraviy tayanchiga aylanib, jamiyatni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan.

Globallashuv va kuchli raqobat sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar Yangi O‘zbekistonni barpo etish orqali Uchinchi Renessansga mustahkam poydevor qo‘yishni maqsad qilib qo‘yadi. “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” g‘oyasi zamonaviy davlatchilik, fuqarolik jamiyati hamda ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim falsafiy-mafkuraviy dastur bo‘lib, u mamlakatning mustaqil va taraqqiy etgan kelajagini barpo etishda umummilliy harakat sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, yangi ma’naviy makon – bu xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi, an’analari hamda axloqiy qadriyatlarini avloddan-avlodga uzluksiz yetkazuvchi, jamiyatni ichki mafkuraviy ziddiyatlardan himoya qiluvchi va umummilliy birdamlikni ta’minlovchi yaxlit tizimdir. Ushbu makon shaxsni ma’naviy tahdidlardan asrash, yoshlarda vatanparvarlik, intellektual va madaniy salohiyatni rivojlantirish, dunyoqarashini

[12] Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2030: rasmiy hujjatlar to‘plami. – T.: “Adolat” nashriyoti, 2022. – 145 b.

kengaytirish hamda jamiyatni ma’rifatli va ijtimoiy-ma’naviy jihatdan sog‘lom muhitda barpo etish vazifalarini amalga oshiradi.

Xulosa Yangi ma’naviy makonni shakllantirish shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining uyg‘unligiga asoslanib, shaxs qadrini yuksaltirish va demokratik taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi. Milliy ma’naviy makon jamiyatni mafkuraviy tahdidlardan himoya qiluvchi muhim omil bo‘lib, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mafkuraviy poydevorini belgilaydi. Mazkur uyg‘unlik Yangi O‘zbekistonni barpo etish hamda Uchinchi Renessans sari barqaror va ma’naviy taraqqiyotga erishishning asosiy sharti hisoblanadi.

YANGI O‘ZBEKISTONNING AFG‘ONISTONGA NISBATAN TASHQI SIYOSIY TAMOYILLARI VA AMALIYOTI

Shoxijaxon Shavkatovich Xakimov,
tadqiqotchi

Annotatsiya Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan Afg‘oniston Islom Respublikasi bilan munosabatlar tahlil qilingan. Afg‘onistondagi siyosiy barqarorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash masalalari O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan. Maqolada so‘nggi yillarda amalga oshirilgan diplomatik tashabbuslar, iqtisodiy va gumanitar hamkorlik loyihalari, chegara xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan choralar tahlil etilgan. Shuningdek, Afg‘onistonga nisbatan O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan inklyuziv siyosiy muloqot, transport-kommunikatsiya loyihalari va ta’lim sohasidagi qo‘shma tashabbuslar mazmuni yoritilgan. Tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekistonning qo‘shni mamlakatlarga nisbatan pragmatik, ochiq va hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat yuritish strategiyasini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar Yangi O‘zbekiston, tashqi siyosat, Afg‘oniston, mintaqaviy xavfsizlik, hamkorlik, diplomatiya, integratsiya.

O‘zbekiston va Afg‘oniston davlatlarining tinchlik va barqarorlikni ta’minlash borasida olib borayotgan siyosati natijasida so‘nggi yillarda savdo, energetika, transport, kommunikatsiya va boshqa sohalarda keng qamrovli hamkorlik amalga oshirilmoqda. Bu kabi yondashuv O‘zbekistonning mintaqadagi milliy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan. Hozirgi tashqi siyosati so‘nggi yillarda e’lon qilingan qator rasmiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan.

Xususan, “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Afg‘oniston Islom Respublikasi bilan iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va mazkur mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar shular jumlasidandir [1,20]. Bu borada OAV da ham turli chiqishlar olib borilmoqda. Bu demokrativ jamiyatning, matbuot va so‘z erkinligining yaqqol namunasidir. Jumladan, “Xalq so‘zi” gazetasida Axmad Xolid Elmiy bilan o‘tkazilgan suhbat Yangi O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan yangi bosqichdagi do‘stlik va hamkorlik siyosatini yoritib beruvchi muhim diplomatik-siyosiy manba sifatida katta ahamiyatga ega [2].

Suhbat – Afg‘oniston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichga ko‘tarilgani, ularning mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotdagi o‘rni haqidadir. Unda tashqi siyosat, iqtisodiy, gumanitar, madaniy aloqalar va mintaqaviy hamkorlik haqida so‘z boradi. Elchi Afg‘oniston va O‘zbekiston savdo aylanmasi 2018-yilda 600 mln dollardan oshganini, ammo keyin pasayish kuzatilganini qayd etadi. Shu bilan birga, ikki davlat savdoni 1,5 mlrd dollargacha oshirish salohiyatiga egaligini ta’kidlaydi [2]. Suhbatda Afg‘onistondagi o‘zbeklar masalasi, ta’lim va madaniy hamkorlik alohida o‘rin egallaydi. YA’ni, afg‘on yoshlari uchun Termiz universiteti qoshida ta’lim dasturlari joriy qilinganligi, ayollar va

bolalarni qo‘llab-quvvatlovchi gumanitar dasturlar amalga oshirilganligiga urg‘u beriladi. Shu bilan birga, Qobul universitetida o‘zbek tili markazi tashkil etilayotgani ham aytilgan.

Bu ikki xalq o‘rtasidagi ma’daniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi moderatorlik va vositachilik rolini yanada kuchaytirgan bir holat Elchi RECHChA VIII konferensiyasining Toshkentda o‘tkazilishidir. Bu kabi harakatlar bilan O‘zbekiston Afg‘onistondagi tinchlik, iqtisodiy barqarorlik va ta’lim sohasi rivojiga hissa qo‘shib, mamlakatni mintaqaga integratsiya qilish jarayonida yetakchi davlatlardan biri ekanligi namoyon bo‘lmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Afg‘oniston muammosini hal etmasdan turib, tinch va gullab yashnayotgan Markaziy Osiyo haqida gapirish mumkin emas” [3]. Shu maqsadni ko‘zlagan holda, O‘zbekiston tarixida birinchi marta respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2017-yil dekabr oyida Oliy Majlisga murojaat qildi va tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishi yaqin qo‘shnilar bilan konstruktiv muloqot va kuchli tashqi siyosat olib borish ekanligini ta’kidladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston rivojlanishining besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining beshinchi yo‘nalishi ochiq, konstruktiv va o‘zaro manfaatli tashqi siyosat olib borishni, shu jumladan, O‘zbekiston atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaxshi qo‘shnichilik kamarini yaratishni ko‘zda tutadi. Bu Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan hamkorlik mamlakatimiz uchun juda muhim ekanini yana bir bor ko‘rsatadi. O‘zbekiston o‘z tashqi siyosatida mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, shu jumladan, Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish jarayonlariga faol ko‘maklashishni ustuvor vazifalardan biri deb hisoblaydi. Shuningdek, milliy qonunchilikda O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligining uzoq muddatli manfaatlaridan kelib chiqqan holda manfaatdor davlatlar bilan strategik sheriklik munosabatlarini o‘rnatish va saqlab turishi hamda davlatlararo o‘zaro manfaatli, mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yishi mumkinligi belgilangan[2]. Bugungi kunda Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni o‘rnatishga qaratilgan O‘zbekiston tashqi siyosatini amalga oshirishda Amerika Qo‘shma Shtatlari bilan xalqaro hamkorlik strategik sheriklik

asosida rivojlanib kelmoqda. Chunonchi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xorijiy davlatlar, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yuzasidan hamkorlikni kengaytirish, AQSH bilan “Strategik hamkorlik muloqoti” va “S5+1” formatlari doirasida muzokaralarni izchil davom ettirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan [3]. AQSH prezidentining milliy xavfsizlik masalalari bo‘yicha sobiq maslahatchisi Z.Bjezinskiy afg‘on inqirozini hal etishda O‘zbekiston asosiy rol o‘ynashi mumkinligini ta’kidlab, aksilterror harbiy kampaniyani qo‘llab-quvvatlashda istiqbolli hamkor sifatida O‘zbekiston imkoniyatlarini yuqori baholadi.

Jumladan, Z. Bjezinskiy 2003-yil noyabrida Toshkentga tashrifi davomida bu borada quyidagi fikrlarni bildirdi: “...strategik nuqtai nazardan O‘zbekiston - o‘z tarixi, milliy qadriyatlari hamda to‘la asosli mintaqaviy xavfsizlik konsepsiyasiga ega Markaziy Osiyoning yetakchi va eng muhim mamlakati. Shuning uchun ham Qo‘shma Shtatlar O‘zbekiston bilan aloqalarni yuksak qadrlaydi. Mintaqada xavfsizlikni ta’minlashda xalqaro terrorchi va ekstremistik guruhlarga qarshi kurash masalalarida tomonlarning qarashlari hamohang” [4]. Shuningdek, Z. Bjezinskiy jurnalistlarga bergan intervyusida AQShning O‘zbekiston va Markaziy Osiyodagi manfaatlari beshta tamoyilga asoslanishini ta’kidladi:

1. O‘zbekiston kabi davlatlarning kelajakda 11 sentyabrga o‘xshash voqealarning oldini olish va bartaraf etishda qo‘shadigan hissasini inobatga olib, Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishi va mustaqil mavjud bo‘lishi AQSH milliy manfaatlarining markazida turadi.

2. Dunyoviylik, milliy an’analar va islomiy e’tiqod o‘rtasidagi muvozanat juda muhim. Ushbu yo‘nalishlardan hech biriga ko‘proq og‘ishga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

3. AQSH hukumati Markaziy Osiyoning dunyo bozoriga - jahon iqtisodiyoti va bozori esa mintaqaga to‘liq ochiq bo‘lishini xohlaydi.

4. Mintaqa yagona davlatning hukmronligiga bo‘ysunmasligi yoki ikki mamlakat o‘rtasidagi halokatli raqobat maydoniga aylanmasligi lozim. Aks holda, nafaqat mintaqa bu voqealar qurboni bo‘ladi, balki butun dunyo

uchun xavfli bo‘lgan jarayonlarning rivojlanishi uchun sharoit yaratilishiga yordam berishi mumkin.

5. Mintaqa mamlakatlarining turli radikal va ekstremistik diniy oqimlar ta’siriga tushib qolishi, shundoq ham notinch bo‘lgan dunyodagi siyosiy vaziyatning keskinlashuviga olib kelishini qabul qilish mumkin emas [5].

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Afg‘oniston davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar so‘nggi yillarda yangi bosqichga ko‘tarilib, tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash yo‘lida amaliy mazmun bilan boyib bormoqda. Afg‘oniston masalasida O‘zbekistonning pragmatik va insonparvar siyosiy yondashuvi nafaqat ikki tomonlama, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi, mudofaa doktrinasi, taraqqiyot strategiyasi kabi muhim davlat hujjatlarida Afg‘oniston bilan hamkorlikka alohida e’tibor qaratilayotgani mamlakatning mintaqadagi strategik pozitsiyasini belgilab berdi. Termiz universiteti qoshida afg‘on yoshlariga ta’lim berish dasturlari, Kobul universitetida o‘zbek tili markazining ochilishi kabi tashabbuslar ikki xalq o‘rtasidagi madaniy va ma’rifiy ko‘prikni mustahkamlamoqda. O‘zbekiston xalqaro hamjamiyat, jumladan, Amerika Qo‘shma Shtatlari, BMT, SHHT va boshqa tuzilmalar bilan Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Bu esa O‘zbekistonning mintaqadagi moderatorlik va vositachilik salohiyatini yanada oshirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бўронов С. Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. Монография. – Т.: “EFFECT-D”. 2021.

2. “Ўзбекистон билан дўстлик ва ҳамкорлик Афғонистоннинг бошқа хорижий мамлакатлар билан муносабатлари орасида олий ва ёрқин даражадагиси бўлади”. // *Халқ сўзи*, 2019 йил 19 август.

3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг минтақавий хавфсизликни таъминлаш ва афғон муаммосини ҳал этиш масалалари юзасидан

стратегик қараши қандай? Абдулазиз Комилов билан эксклюзив интервью. // Халқ сўзи газетаси. 29-февраль 2020. URL: https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-mintaqavij-khavfsizlikni-taminlash-va-afgon-muammosini-hal-etish-masalalari-yuzasidan-strategik-qarashi-qandaj-abdulaziz-kamilov-bilan-eksklyuziv-intervyu

4. “Ўзбекистон Республикасининг мудофаа доктринаси тўғрисида”ги 2018 йил 9 январь, ЎРҚ-458-сонли қонуни. URL: http://lex.uz.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги ПФ-60-сон фармони. URL: http://lex.uz.

6. Сотрудничество Узбекистана и США гарантирует стабильность Центральной Азии. (Из интервью Ш.Кудратходжаева с бывшимсоветником президента США по вопросамnatsиональной безопасности З.Бжезинским) // Независимая газета (Москва), 11 ноября 2003 года.

7. Интервью З. Бжезинского журналисту Мавляну Юлдашеву // Информatsионно-аналитический портал “Фергана news”. URL: http://www.fergananews.com/articles/2301

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MA’NAVIY TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI

Ixtiyorova O‘g‘iloy
Yangi asr universiteti
Maktab va maktabgacha ta’lim
Kafedrasi o‘qituvchisi
Yoqubova Robiya
Yangi asr universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy tarbiyasini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida tashkil etish masalalari tahlil qilinadi. Tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy metodlar, tarbiyachi kompetensiyasi hamda oila bilan hamkorlik yo‘llari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy tarbiya, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, maktabgacha ta’lim, uyg‘unlik.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Bola shaxsining ma’naviy-axloqiy poydevori aynan maktabgacha yosh davrida shakllanishi pedagogik tadqiqotlarda ko‘p bora ta’kidlangan [1]. Shu sababli ushbu bosqichda qadriyatlarga tayangan tarbiya muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yosh – bolaning nutqi, tafakkuri va ijtimoiy munosabatlari faol rivojlanadigan davrdir [2]. Ma’naviy tarbiya shaxsda ezgulik, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Milliy qadriyatlar xalqning tarixiy tajribasini, umuminsoniy qadriyatlar esa barcha xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan axloqiy g‘oyalarni ifodalaydi [3].

Milliy qadriyatlar — bu xalqning tarixiy tajribasi, an’analari, urf-odatlari, til, din, madaniyat va turmush tarzida mujassam bo‘lgan ma’naviy

boyliklardir. Ular bolada milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi fazilatlarni shakllantiradi.

Sharq mutafakkirlari merosida bola tarbiyasining ma’naviy jihati yetakchi o‘rin tutadi. Forobiy komil inson g‘oyasini ilgari surgan bo‘lsa, Ibn Sino yaxshi odatlarni erta yoshdan shakllantirish zarurligini ta’kidlaydi [4]. Zamonaviy pedagogikada esa qadriyatlarga yo‘naltirilgan yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda [5].

Fikrimning avvalida shuni aytishim kerakki milliy va umuminsoniy qadriyatlar shunchaki balandparvoz gaplar yoki birgina atlas yoki adras kabi matolarni kiyish bilangina chegaralanib qolmaydi. Va umuminsoniy qadriyatlarni milliy qadriyatlardan farqlab olishimiz kerak bo‘ladi. Umuminsoniy qadriyatlar insonlarning dini, irqi, millati va yashash joyidan qat’i nazar umumiy va muxim hisoblangan axloqiy-ma’naviy meyorlar va g‘oyalardir. Milliy qadriyatlar esa ma’lum bir xalqning asrlar davomida shakllangan,uning dini, tarixi, urf-odati va turmush tarzini o‘zida aks ettiruvchi, umumiyroq qilib aytganda millatni millat qilib turuvchi qadriyatlardir. Bu ikki qadriyatlar bola voyaga yetayotgan muxitda turli yo‘llar bilan o‘rgatila boshlaydi, shu birga jamiyatga qo‘shilishni boshlagan vaqtdan boshlab atrof-muxit ta’sirida sayqallanadi. Bolaning ilk jamoalashuvi esa MMTda boshlanadi.

MTTda milliy qadriyatlar ertaklar, maqollar, milliy o‘yinlar va bayramlar orqali singdiriladi. Umuminsoniy qadriyatlar esa mehr, do‘stlik, tabiatni asrashga qaratilgan faoliyatlar vositasida shakllantiriladi. Tarbiyachi shaxsiy namunasi va oilaviy hamkorlik ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi [6].

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarni singdirishda quyidagi vositalar muhim ahamiyatga ega:

- xalq ertaklari, dostonlar, maqol va topishmoqlar
- milliy bayramlar (Navro‘z, Mustaqillik kuni va boshqalar)
- milliy o‘yinlar va an’anaviy mashg‘ulotlar
- oilaviy tarbiya an’analari
- ona tilida muloqot

Bu jarayon bolada o‘z xalqiga mansublik tuyg‘usini shakllantirib, milliy g‘ururni rivojlantiradi.

Umuminsoniy qadriyatlar — barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan axloqiy me’yorlar va ideallar majmui bo‘lib, tinchlik, adolat, mehr-oqibat, halollik, bag‘rikenglik, inson huquqlarini hurmat qilish kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshda bu qadriyatlarni shakllantirish:

- bolani ijtimoiylashuvga tayyorlaydi
- boshqa millat vakillariga hurmatni tarbiyalaydi
- konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi
- empatiya va hamdardlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi

Bugungi ko‘p madaniyatli jamiyatda aynan shu fazilatlar bolalarning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib yetishishida muhim rol o‘ynaydi.

Maktabgacha ta’limda faqat milliy yoki faqat umuminsoniy qadriyatlarga tayanish yetarli emas. Eng samarali yondashuv — ularning uyg‘unligini ta’minlashdir.

Uyg‘unlik quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Mazmuniy uyg‘unlik — milliy an’analar orqali umuminsoniy g‘oyalarni yetkazish

Pedagogik uyg‘unlik — zamonaviy ta’lim metodlari bilan an’anaviy tarbiya usullarini birlashtirish

Ijtimoiy uyg‘unlik — oila, ta’lim muassasasi va jamiyat hamkorligi

Masalan, Navro‘z bayramini nishonlash jarayonida bolalar nafaqat milliy an’analarni o‘rganadi, balki tabiatga mehr, tinchlik, do‘stlik, saxovat kabi umumiy insoniy qadriyatlarni ham anglaydi.

Uyg‘un yondashuv bolalarda o‘zlikni anglash, bag‘rikenglik va ijtimoiy faollikni rivojlantiradi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qadriyatlarga tayangan muhitda tarbiyalangan bolalar jamoada ijobiy munosabat qurishga moyil bo‘ladilar [7].

Rivojlangan qator davlatlar misolida buni yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Yaponiya-intizom va mas’uliyat qadriyati orqali dunyodagi eng rivojlangan texnologiya va sanoatga erishdi. Jinoyatchilik darajasi juda past va ta’lim sifati yuqori, urushdan keyin qisqa muddatda iqtisodiy o‘sa olgan davlatga aylandi.

Germaniya-mas’uliyat va qonun ustuvorligi. ‘Nemis sifati’ tushunchasini aynan qadriyatlardan kelib chiqqan.

Shuni yodda tutish lozimki bir qanoti bor qush ucha olmaganidek,bola tarbiyasida ota-ona bilan MTTning o‘zaro hamkorligi juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Umuman olganda bolaning komil inson bo‘lib yetishida ta’lim qanchalik zarur bo‘lsa tarbiya ham shu darajada darkordir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi esa maktabgacha ta’limning strategik vazifasidir. MTT–oila–jamiyat hamkorligi ta’minlanganda ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash imkoniyati yanada kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’limni rivojlantirishga oid hujjatlari. – T., 2023.

2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.

3. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh. Maktabgacha pedagogika. – T., 2021.

4. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – T., 2018.

5. Ibn Sino. Donishnoma. – T., 2019.

6. Abdullayeva D. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodikasi. – T., 2023.

7. Ismailova M. Qadriyatlar tarbiyasi // Pedagogik mahorat, 2023, №4.

ZJV5401

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON SHAKLLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: MILLIY QADRIYATLAR, RAQAMLI MUHIT VA YOSHLAR OMILI

Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-nazariy va tahliliy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda milliy qadriyatlarning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni, raqamli muhitning ma’naviy ongga ta’siri hamda yoshlar omilining yagona ma’naviy makon barpo etishdagi ahamiyati alohida tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida ma’naviy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yagona ma’naviy makon, milliy qadriyatlar, raqamli muhit, yoshlar omili, ma’naviy xavfsizlik, globallashuv, axborot makoni, mafkuraviy immunitet.

Bugungi kunda globallashuv va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi jamiyat ma’naviy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot makonining kengayishi, raqamli texnologiyalarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi hamda madaniy chegaralarning nisbatan ochiqligi sharoitida yagona ma’naviy makon shakllantirish masalasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayonda milliy qadriyatlar, raqamli muhit va yoshlar omili o‘zaro uzviy bog‘liq holda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona ma’naviy makon jamiyat a’zolarini umumiy ma’naviy mezonlar, tarixiy xotira va milliy g‘oyalar asosida birlashtiruvchi ijtimoiy tizim bo‘lib, u jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli axborot makonida turli mafkuraviy tahdidlar va yot g‘oyalarning tez tarqalishi sharoitida milliy qadriyatlarga asoslangan

yagona ma’naviy makonni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘z asarlarida va nutqlarida Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ma’naviy sohaning ustuvor ahamiyatga ega ekanini ta’kidlab, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlarni asrash va zamonaviy raqamli muhitda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, milliy taraqqiyot strategiyasi faqat iqtisodiy islohotlar bilangina cheklanmasdan, ma’naviy asoslar bilan mustahkamlanishi lozim [1].

Yagona ma’naviy makon shakllanishi, milliy qadriyatlar, raqamli muhit va yoshlar omiliga doir masalalar so‘nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu masalalar jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlash, yosh avlodning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish hamda globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni asrash bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning qarashlariga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida milliy qadriyatlarni asrash va rivojlantirish, yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan birga yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Uning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida raqamli taraqqiyot sharoitida ma’naviy sohani mustahkamlash va yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy etish zarurligi alohida qayd etilgan [2].

Ma’naviyat masalalarini chuqur tadqiq etgan A. Erkayev o‘z ilmiy asarlarida ma’naviy makonni jamiyatning axloqiy-me’yoriy poydevori sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, milliy qadriyatlarga tayanmagan ma’naviy makon barqaror bo‘la olmaydi, ayniqsa, raqamli muhitda yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli g‘oyalar kuchaygan bir sharoitda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi [3].

Shuningdek, M. Quronovning ilmiy tadqiqotlarida axborot makoni va ma’naviy xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. U o‘z asarlarida raqamli muhit orqali kirib kelayotgan yot g‘oyalar yoshlar ongida mafkuraviy bo‘shliqni yuzaga keltirishi mumkinligini ta’kidlab, yagona ma’naviy makonni shakllantirishni bunday tahdidlarga qarshi samarali vosita sifatida baholaydi [4].

Xorijiy olimlardan M. Castells raqamli jamiyat va tarmoq jamiyati nazariyasi orqali axborot texnologiyalarining ijtimoiy ong va madaniy jarayonlarga ta’sirini tahlil qiladi. Uning qarashlariga ko‘ra, raqamli makon jamiyat ma’naviy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi va bu jarayonda milliy madaniyat hamda qadriyatlarni saqlash uchun ongli yondashuv zarur bo‘ladi [5].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon shakllanishi milliy qadriyatlar, raqamli muhit va yoshlar omilining uzviy uyg‘unligiga tayanishi lozim. Ushbu masalalar bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar mazkur mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon shakllanishi jarayoni bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy elementlarni o‘z ichiga oladi: milliy qadriyatlar, raqamli muhit va yoshlar omili. Ushbu elementlarning har biri jamiyat barqarorligi va ma’naviy birlikni ta’minlashda strategik ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlar jamiyatning ma’naviy poydevori sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Ular odob-axloq me’yorlari, tarixiy xotira va milliy identifikatsiya asosida shakllanib, jamiyat a’zolari orasida birlik va totuvlikni ta’minlaydi. A. Erkayevning qarashlariga ko‘ra, milliy qadriyatlar kuchli bo‘lmagan jamiyatlarda ijtimoiy bo‘shliq va mafkuraviy parokandalik kuchayadi, bu esa ma’naviy makonning izchil shakllanishiga to‘sqinlik qiladi [6].

Raqamli muhit esa ma’naviy makonning zamonaviy omili sifatida namoyon bo‘ladi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. M. Quronovning ta’kidlashicha, raqamli makonda yot g‘oyalar va axborot xurujlari tez tarqaladi, shuning uchun yagona ma’naviy makonni shakllantirish jarayoni axborot makoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim [7]. Xorijiy olim M. Castellsning tahlillariga ko‘ra, tarmoq jamiyati va raqamli makonning ijtimoiy ongga ta’siri jamiyat ma’naviy hayotini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, milliy madaniyat va qadriyatlarning raqamli sharoitda saqlanishini ta’minlaydi [8].

Yoshlar omili esa yagona ma’naviy makonning eng sezilarli va uzoq muddatli tarkibiy qismi hisoblanadi. Yosh avlodning mafkuraviy immunitetini oshirish, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va raqamli muhitda ongli faoliyatini ta’minlash jamiyat barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Sh.M. Mirziyoyevning qarashlariga ko‘ra, yoshlar bilan ishlashning samarali mexanizmlari nafaqat ma’naviy makonni, balki ijtimoiy birdamlik va barqaror taraqqiyot jarayonlarini mustahkamlashga xizmat qiladi [9].

Quyidagi jadvalda milliy qadriyatlar, raqamli muhit va yoshlar omilining yagona ma’naviy makon barpo etish va jamiyat barqarorligiga ta’siri tizimli ko‘rinishda keltirilgan:

1-jadval

Yagona ma’naviy makon tarkibiy elementlari va ularning jamiyat barqarorligiga ta’siri

Tarkibiy element	**Ijtimoiy-ma’naviy mexanizm**	**Jamiyat barqarorligiga ta’siri**
Milliy qadriyatlar	Umumiy axloqiy me’yorlar, tarixiy xotira	Ijtimoiy birdamlik va ishonch mustahkamlanadi
Raqamli muhit	Axborot oqimi, onlayn platformalar orqali ta’sir	Mafkuraviy barqarorlik va ma’naviy xavfsizlik kuchayadi
Yoshlar omili	Mafkuraviy tarbiya, milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish	Jamiyatning uzoq muddatli barqarorligi ta’minlanadi

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar, raqamli muhit va yoshlar omili yagona ma’naviy makonni shakllantirishda uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-birini mustahkamlaydi. Milliy qadriyatlar asosida yoshlar tarbiyasi va raqamli makon bilan ishlashning uzviy uyg‘unligi jamiyatda ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash, axborot tahdidlariga qarshi samarali mexanizm yaratish va fuqarolarning ongli pozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etish jarayoni nafaqat ma’naviy, balki ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning strategik vositasi sifatida ahamiyat kasb etadi. Mazkur elementlarning samarali uyg‘unligi jamiyatning uzoq muddatli

barqarorligini ta’minlash va yosh avlodning mafkuraviy barqarorligini kuchaytirish imkonini beradi.

Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon shakllanishi jarayoni milliy qadriyatlar, raqamli muhit va yoshlar omilining uzviy uyg‘unligiga tayanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy qadriyatlar jamiyatning axloqiy poydevorini mustahkamlash, tarixiy xotira va milliy identifikatsiyani saqlash orqali ijtimoiy birdamlikni ta’minlaydi. Raqamli muhit esa ma’naviy ong va axborot xavfsizligini shakllantirishda strategik vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Yoshlar omili esa barqaror ma’naviy makonning eng sezilarli va uzoq muddatli tarkibiy qismi bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti va mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu uch tarkibiy elementning uzviy bog‘lanishi yagona ma’naviy makonni shakllantirish va jamiyat barqarorligini ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Milliy qadriyatlar asosida yoshlar tarbiyasi va raqamli makon bilan tizimli ishlash orqali jamiyatda ijtimoiy totuvlik, ma’naviy xavfsizlik va ongli fuqarolikni rivojlantirish mumkin.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon nafaqat ma’naviy-ma’rifiy vazifa, balki jamiyatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga qaratilgan strategik jarayon sifatida e’tirof etiladi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati milliy qadriyatlarni saqlash, raqamli muhitda ongli faoliyatni rivojlantirish va yoshlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash bilan bevosita bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova, M. The Role and Significance of National Values in the Education of Youth in Uzbekistan. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2025.

2. Xasanov J.A. Socio-Philosophical Factors of Developing Youth Worldview Based on National and Universal Values in New Uzbekistan. *International Journal of Pedagogics*, 2025.

3. Xakimova, M. Yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyatni barpo etish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirish zaruriyati. *Ilm sarchashmalari jurnali*, 2025.

4. Hasanova F.X. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ma’naviy va madaniy taraqqiyoti. *TADQIQOTLAR*, 2025.

5. Saydullayev Ğ.B. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot. *TADQIQOTLAR.UZ*, 2025.

6. Muptillaeva N.N. Yangi ma’naviy makon – Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi. *Prospects and Main Trends in Modern Science*, 2025.

7. Mirahmedova S. Ma’naviy makonga oid yondashuvlar. *Ilm-fan va ta’lim*, 2023.

8. To‘xtayeva S.S. Yoshlar tarbiyasi: ma’naviy qadriyatlar va ommaviy madaniyatning o‘rni. *International Scientific Journal*, 2025.

ZJV5401

YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING IJTIMOIY-MA’NAVIY ZARURATI VA UNING JAMIYAT BARQARORLIGIDAGI O‘RNI

Ikromova Muxlisa Ilhomjon qizi
Qo‘qon universiteti Andijon filiali
talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etishning ijtimoiy-ma’naviy zarurati hamda uning jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar, axborot xurujlari va qadriyatlar inqirozi jarayonlari kuchayib borayotgan bir paytda yagona ma’naviy makonni shakllantirish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maqolada ma’naviy birlik jamiyatda ijtimoiy totuvlik,

fuqarolik mas’uliyati va milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlovchi muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviy sohaning ustuvor yo‘nalishlari, davlat va jamiyat institutlarining bu boradagi o‘rni hamda ularning o‘zaro hamkorligi masalalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari jamiyat barqarorligini ta’minlashda yagona ma’naviy makonning strategik ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yagona ma’naviy makon, ma’naviy birlik, ijtimoiy barqarorlik, milliy qadriyatlar, ma’naviy xavfsizlik, jamiyat taraqqiyoti, mafkuraviy barqarorlik.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir davlat oldida nafaqat iqtisodiy va siyosiy rivojlanish, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlash masalasi ham dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, axborot oqimlarining keskin kuchayishi, turli mafkuraviy tahdidlarning ko‘payishi hamda qadriyatlar tizimidagi ziddiyatlar jamiyatning ichki barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, Yangi O‘zbekiston sharoitida yagona ma’naviy makon barpo etish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Yagona ma’naviy makon jamiyat a’zolarini umumiy milliy g‘oya, tarixiy xotira, an’ana va qadriyatlar asosida birlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi. U ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash, fuqarolarning ma’naviy mas’uliyatini oshirish va milliy o‘zlikni anglash jarayonini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, islohotlar jadallashgan Yangi O‘zbekiston davrida jamiyatda ma’naviy uyg‘unlik va barqarorlikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, jamiyat taraqqiyotini faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan baholab bo‘lmaydi, balki ma’naviy muhitning sog‘lomligi, fuqarolarning ongli va mas’uliyatli pozitsiyasi ham muhim mezon hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yagona ma’naviy makonni shakllantirish jamiyat barqarorligining mustahkam poydevori sifatida e’tirof etiladi [1].

Yagona ma’naviy makon tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Ushbu masala, avvalo, ma’naviyatning jamiyat hayotidagi asosiy birlashtiruvchi kuch sifatidagi mohiyatini ochib berish bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o‘z asarlarida va nutqlarida ma’naviy sohani jamiyat barqarorligining muhim tayanchi sifatida baholab, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ma’naviy merosga asoslangan yagona ma’naviy makonni shakllantirish zarurligini alohida ta’kidlaydi. Xususan, uning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida jamiyatni birlashtiruvchi umumiy g‘oya va qadriyatlar tizimi bo‘lmasa, barqaror taraqqiyotga erishish mushkul ekanligi qayd etilgan [2].

Ma’naviyat masalalarini chuqur tadqiq etgan taniqli olim A. Erkayevning qarashlariga ko‘ra, ma’naviy makon — bu jamiyat a’zolarining umumiy axloqiy me’yorlar, ma’naviy qadriyatlar va dunyoqarashlar asosida birlashgan ijtimoiy muhitidir. Uning fikricha, bunday makonning izchil shakllanishi ijtimoiy munosabatlarda ishonch va hamjihatlikni mustahkamlab, jamiyat barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [3].

Shuningdek, M. Quronov o‘z ilmiy tadqiqotlarida ma’naviy birlik masalasiga alohida e’tibor qaratib, globallashuv sharoitida axborot xurujlari va begona g‘oyalarning kuchayishi yagona ma’naviy makonni shakllantirishni strategik zaruratga aylantirayotganini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ma’naviy makonning parokandaligi jamiyatda mafkuraviy bo‘shliqni yuzaga keltiradi va bu holat ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

Xorijiy tadqiqotlarda ham ma’naviy birlik va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik keng yoritilgan. Jumladan, S. Huntington o‘zining sivilizatsiyalar haqidagi qarashlarida jamiyatning barqaror rivojlanishi umumiy madaniy va ma’naviy qadriyatlarga tayanishini ta’kidlab, bu omilni ijtimoiy tizimlarning mustahkamligi bilan bog‘laydi [5].

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yagona ma’naviy makon masalasi nafaqat milliy, balki global miqyosda ham dolzarb bo‘lib, uning shakllanishi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti sifatida e’tirof etiladi.

Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etish jarayonini tahlil qilishda, avvalo, mazkur tushunchaning jamiyat barqarorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yagona ma’naviy makon — bu jamiyat a’zolarini umumiy qadriyatlar, milliy g‘oya, tarixiy xotira va ma’naviy me’yorlar asosida birlashtiruvchi murakkab ijtimoiy tizim bo‘lib, u barqarorlikni ta’minlovchi ichki omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda yagona ma’naviy makon mavjud bo‘lmagan sharoitda ijtimoiy parokandalik, mafkuraviy bo‘shliq va qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuchayadi. Bu holat, o‘z navbatida, ijtimoiy ishonchning susayishiga, fuqarolik faolligining pasayishiga va barqaror taraqqiyot jarayonlarining sekinlashishiga olib keladi. Shu bois, Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida ma’naviy birlikni ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning konseptual qarashlariga ko‘ra, jamiyatni yangilash jarayonida iqtisodiy va siyosiy islohotlar ma’naviy asoslar bilan uyg‘unlashmagan taqdirda kutilgan natijani bermaydi. Aynan yagona ma’naviy makon jamiyatda umumiy maqsad va manfaatlar birligini ta’minlab, barqarorlikning mustahkam poydevorini yaratadi [6].

Yagona ma’naviy makonning jamiyat barqarorligiga ta’siri quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

- ijtimoiy totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash;
- milliy o‘zlikni anglash va tarixiy xotirani saqlash;
- yoshlarning mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;
- fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi faolligini oshirish.

Quyidagi jadvalda yagona ma’naviy makon omillari va ularning jamiyat barqarorligiga ta’siri tizimli ravishda ko‘rsatib berilgan:

ZJV5401

1-jadval

Yagona ma’naviy makon omillarining jamiyat barqarorligiga ta’siri

Ma’naviy omillar	**Ijtimoiy ta’sir mexanizmi**	**Jamiyat barqarorligiga ta’siri**
Milliy qadriyatlar	Umumiy axloqiy me’yorlarni shakllantiradi	Ijtimoiy ishonch mustahkamlanadi
Milliy g‘oya	Jamiyatni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi	Ijtimoiy totuvlik kuchayadi
Tarixiy xotira	Avlodlar davomiyligini ta’minlaydi	Barqarorlik va uzviylik saqlanadi
Ma’naviy tarbiya	Yoshlarning ongli pozitsiyasini shakllantiradi	Mafkuraviy barqarorlik ta’minlanadi
Axborot madaniyati	Axborot xurujlariga qarshi immunitet yaratadi	Ijtimoiy xavfsizlik oshadi

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, yagona ma’naviy makonning har bir tarkibiy elementi jamiyat barqarorligiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar ongida milliy qadriyatlar va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. A. Erkayevning ta’kidlashicha, ma’naviy tarbiya tizimli va uzluksiz bo‘lmagan jamiyatda barqaror rivojlanish jarayonlari izchil kechmaydi [7].

Shuningdek, globallashuv sharoitida axborot makonining kengayishi yagona ma’naviy makon masalasini yanada dolzarb qilmoqda. M. Quronovning fikricha, agar jamiyatda yagona ma’naviy mezonlar shakllanmagan bo‘lsa, begona g‘oyalar va yot qadriyatlar ijtimoiy ongga tez singib boradi, bu esa barqarorlikka jiddiy xavf tug‘diradi [8].

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etish jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim strategik yo‘nalishi bo‘lib, u davlat siyosati, ta’lim tizimi, madaniyat va ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar sharoitida yagona ma’naviy makon barpo etish masalasi jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim strategik omili sifatida namoyon

bo‘lmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ma’naviy birlik jamiyat a’zolarini umumiy qadriyatlar, milliy g‘oya va tarixiy xotira asosida birlashtirib, ijtimoiy totuvlik va barqaror taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratadi.

Maqolada olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yagona ma’naviy makon jamiyatda mafkuraviy bo‘shliqning oldini olish, axborot xurujlariga qarshi ma’naviy immunitetni kuchaytirish hamda yosh avlodning ongli fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarning uyg‘unligini ta’minlash jamiyat barqarorligining muhim sharti hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari yagona ma’naviy makonning shakllanishi davlat siyosati, ta’lim tizimi, madaniyat muassasalari va ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Ushbu sohalar o‘rtasidagi tizimli hamkorlik jamiyatda ma’naviy muhitning sog‘lomlashuviga va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etish nafaqat ma’naviy-ma’rifiy vazifa, balki jamiyat barqarorligini ta’minlashga qaratilgan uzoq muddatli strategik jarayon bo‘lib, u milliy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim. Agar ushbu jarayon izchil va tizimli amalga oshirilsa, jamiyatda barqarorlik, hamjihatlik va taraqqiyotning mustahkam asoslari yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Erkayev A. Ma’naviyat va jamiyat taraqqiyoti. — Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
3. Quronov M. Ma’naviy tahdidlar va mafkuraviy xavfsizlik masalalari. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. — New York: Simon & Schuster, 1996.

5. Xasanov J.A. Socio-Philosophical Factors of Developing Youth Worldview Based on National and Universal Values in New Uzbekistan. *International Journal of Pedagogics*, 2025.

6. Xakimova, M. Yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyatni barpo etish va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirish zaruriyati. *Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi*, 2025.

7. Hasanova F.X. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ma’naviy va madaniy taraqqiyoti. *TADQIQOTLAR*, 2025.

8. Saydullayev Ğ.B. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot. *TADQIQOTLAR.UZ*, 2025.

YAGONA MA’NAVIY MAKON - YANGI O‘ZBEKISSTON TARAQQIYOTINING POYDEVORI

Qodiraliyeva Shohzoda Sherzod qizi
Toshkent Gumanitar Fanlar universiteti 1-kurs
Xalqaro munosabatlar fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yagona ma’naviy makonning tutgan o‘rni va uning poydevor sifatidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Jamiyatda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, tarixiy merosni chuqur o‘rganish hamda yosh avlodni yuksak ma’naviyat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuningdek, ma’naviy birlik va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash orqali barqaror rivojlanishga erishish omillari ochib beriladi. Maqolada globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash, mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni kuchaytirishning dolzarbligi asoslab beriladi. Yagona ma’naviy makon mamlakat taraqqiyoti, ijtimoiy

barqarorlik va kelajak avlod kamolotining muhim omili sifatida talqin qilinadi.

Kalit so`zlar. Yangi O‘zbekiston, yagona ma’naviy makon, milliy uyg‘onish, ma’naviy yuksalish, taraqqiyot poydevori, kelajak avlod, taraqqiyot strategiyasi, barkamol shaxs, huquqiy yondashuv.

Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida jamiyatda yagona ma’naviy makonni shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayon ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, milliy birlikni mustahkamlash hamda mamlakatning barqaror taraqqiyotini qo‘llab-quvvatlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar, tashabbuslar va strategik loyihalar haqida, asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning mualliflik asarlari, rasmiy nutqlari hamda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarida keng qamrovli fikr-mulohazalar bayon etilgan.[6]

Shuningdek, yagona ma’naviy makon jamiyatning ichki ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta’minlash, milliy o‘zlikni anglash hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, ma’naviy-ma’rifiy sohani tizimli rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik, yuksak ma’naviyat va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, jamiyatda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

Ushbu maqolada jamiyatda yagona ma’naviy makonni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, uning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri hamda amaliy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan kompleks tahlil qilinadi.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash va yagona ma’naviy makonni shakllantirish masalasi tobora dolzarblashib bormoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekistonning barpo etish jarayonida ushbu yo`nalish strategik ahamiyat kasb etib, davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining barqarorligi, avvalo, uning a’zolarining ma’naviy yetukligi, fuqorolik

mas’uliyati hamda sog`lom dunyoqarashiga bevosita bog`liqdir. Shuningdek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ma’naviy muhitini mustahkamlash, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni vatanparvarlik va fuqorolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hijjat doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga va ularning hayotiy pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. [3]

Yagona ma’naviy makon tushunchasi jamiyatda mavjud bo`lgan qadriyatlar, an’analar, ma’naviy me’yorlar va ijtyimoiy ideallar uyg`unligini ifodalaydi. Ushbu makonning shakllanishini shaxs, oila, ta’lim muaasasalari, jamoatchilik tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi asosida amalga oshadi. Mazkur subyektlarning faoliyati uzviy va tizimli bo‘lgan taqdirdagina jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit qaror topadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida ma’naviyat masalasiga alohida e’tibor qaratib, “Ma’naviyat - bu xalqning kuch-qudrati, jamiyatning ichki tayanchi”, deya ta’kidlagan. Ushbu fikr jamiyat taraqqiyotida moddiy omillar bilan bir qatorda, ma’naviy omil ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini yaqqol ko‘rsatadi. Chunki aynan ma’naviy yetuklik shaxning ongli qaror qabul qilishi, jamiyat hayotida faol ishtrok etishi hamda umumiy manfaatlar yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishiga zamin yaratadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirishga qaratilgan tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda. 2017-yilda qabul qilingan qaror asosida hududlarda Ma’naviyat va ma’rifat markazlari faoliyati kuchaytirildi va aholining barcha qatlamlarini qamrab olgan tadbirlar tashkil qilindi.[1] 2018-2024-yillarda esa respublika miqyosida 100 mingdan ortiq ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilib, yoshlar va jamoatchilikning millionlab vakillari ishtrok etdi. “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish” dasturi orqali maktab va oliy ta’lim muassasalariga minglab ilmiy va badiiy adabiyotlar yetkazildi. Ta’lim tizimi yagona ma’naviy makonni shakllantirishning muhim institutsional

asoslaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida yoshlarning intelektual salohiyati bilan bir qatorda, ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda o‘quv rejalari va fan dasturlariga vatanparvarlik, milliy g‘oya, huquqiy madaniyat, ma’naviy asoslari kabi fanlarning kiritilishi bu boradagi tizimli yondashuvning amaliy ifodasidir. Bu esa talaba-yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlaydigan, jamiyat hayotida faol ishtrok etadigan barkamol shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.[2] Shuningdek, oila instituti ham jamiyatda ma’naviy muhitni barqarorlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Oila muhitida shakllangan axloqiy me’yorlar, milliy urf-odatlar va tarbiyaviy qadriyatlar shaxs kamolotida hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Aynan oilada bolaning ilk ijtimoiylashuvi amalga oshib uning hayotga bo‘lgan munosabati, qadriyatlar tizimi va mas’uliyat hissi shakllanadi. Shu bois, oilaviy tarbiya masalalarini davlat va jamiyat miqyosida qo‘llab-quvvatlash yagona ma’naviy makon barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar jamiyat ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kuchli axborot manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning tarbiyaviy, ma’rifiy va madaniy yo‘nalishdagi materiallar bilan boyitilishi yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ma’naviy immunitetni kuchaytirishga xizmat qiladi.[4] Shu bilan birga, internet makonida zararli axborot oqimining oldini olish, milliy qadriyatlar va umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz: “Yoshlarimizning ongi va qalbi uchun kurash bugun eng muhim masalaga aylanmoqda”, deya alohida ta’kidlab, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni tizimli ravishda olib borish zarurligini qayd etgan. Bundan tashqari Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yoshlarimizni faqat bilimli emas, balki yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalashimiz kerak”. Shu bilan birga, “Besh muhim tashabbus” loyihalari yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va sog`lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlash va yagona ma’naviy makonni shakllantirishga muhim hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa,

yoshlarning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashi bilan bir qatorda, ularda tanqidiy fikrlash, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, jamiyatda ochiq muloqot muhitni yaratish, fuqorolarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini ta’minlash yagona ma’naviy makonning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. [8]

Yuqoridagi omillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, jamiyatda yagona ma’naviy makonni shakllantirish murakkab, ko‘p boshqichli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarining uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan. Mazkur jarayonning izchil amalga oshirilishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, milliy birlikni kuchaytirishga hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkamlash ma’naviy poydevorini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, kuchli ma’naviy poydevorga ega jamiyatgina har qanday globallashuv sharoitida o‘z milliy o‘zligini saqlab qoladi va taraqqiyot sari dadil qadam tashlaydi.

Yagona ma’naviy makon Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim g‘oyaviy va ijtimoiy asosini tashkil etadi. Jamiyatda ma’naviy birlik, milliy qadriyatlarga hurmat va fuqarolik mas’uliyatining yuksalishi barqaror rivojlanishning mustahkam poydevori hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari va axborot oqimlarining keskin ortishi sharoitida ma’naviy makonni asrash va mustahkamlash masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois yagona ma’naviy makonni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani kuchaytirish – barcha bosqichlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlovchi dasturlarni takomillashtirish zarur.

2. Raqamli makonda ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash – internet va ijtimoiy tarmoqlarda milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi sifatli kontentlarni ko‘paytirish lozim.

3. Madaniy-ma’rifiy faoliyatni tizimli yo‘lga qo‘yish – kitobxonlikni rivojlantirish, tarixiy merosni keng targ‘ib etish va yoshlar bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zarur.

4. Oila institutini mustahkamlash – oilaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash va ma’naviy tarbiyaning birlamchi muhitini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

5. Ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish – yagona ma’naviy makon konsepsiyasining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish talab etiladi.

Yuqoridagi takliflarning izchil amalga oshirilishi jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlash, milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlash va Yangi O‘zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasini samarali ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Demak, yagona ma’naviy makon – bu jamiyatning ma’naviy immuniteti va izchil rivojlanishining asosiy tayanchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 56 bet.

2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 64 bet.

3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 240 bet.

4. Gazeta.uz. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti va ma’naviy siyosatga oid tahliliy materiallar. – Elektron manba: https://www.gazeta.uz

5. Lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. – Elektron manba: https://lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati. Prezident nutqlari va ma’ruzalar to‘plami. – Elektron manba: https://president.uz

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasiga oid materiallar. – Elektron manba: https://president.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi davlat dasturlari. – Elektron manba: https://gov.uz

9. Ziyonet axborot-ta’lim portali. Ma’naviyat va ma’rifatga oid ilmiy-uslubiy maqolalar. – Elektron manba: https://ziyonet.uz

JAMIYAT BARQARORLIGIDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Sultonova Zuxra Alisher qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
ingliz filologiyasi fakulteti, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jamiyat barqarorligida yagona ma’naviy makonning o‘rni va ahamiyati, strategik yo‘nalishlari ijtimoy taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni hamda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari tizimli tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida ta’lim tizimi, madaniyat, axborot makoni va oila institutining ma’naviy muhitni shakllantirishdagi strategik ahamiyati ilmiy asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada "ommaviy madaniyat" tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning innovasion usullari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, yagona ma’naviy makon, globallashuv, ta’lim tizimi, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, axborot makoni, madaniyat, Uchinchi Renessans, mafkuraviy immunitet, milliy g‘oya, ijtimoiy barqarorlik.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi g‘oyat murakkab va ziddiyatli jarayonlar bilan xarakterlanadi. Dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarni, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy negizlarini ham qamrab olmoqda. Bunday sharoitda har bir xalq o‘zligini anglash, jamiyatdagi o‘z o‘rnini yo‘qotmaslik, milliy qadriyatlarini saqlab qolish va kelajak avlodga bezavol

yetkazish masalasiga alohida e’tibor qaratishi tabiiy. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ham Yangi O‘zbekistonni barpo etishda ma’naviy yuksalishni ta’minlashga qaratilgan.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, "Agar biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalo, uning ma’naviy asoslarini mustahkamlashimiz lozim". Yagona ma’naviy makon tushunchasi o‘zida mamlakatdagi barcha ijtimoiy qatlamlarni birlashtiruvchi mushtarak qadriyatlar majmuini, g‘oyaviy yaxlitlikni va madaniy uyg‘unlikni ifodalaydi.

Ma’naviy makon tushunchasining nazariy-falsafiy asoslari. Ma’naviyat – bu shunchaki axloqiy qoidalar to‘plami emas, balki insonning ichki ruhiy dunyosi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini belgilovchi juda murakkab fenomen hisoblanadi. Yagona ma’naviy makon deganda, biz jamiyat a’zolarining barchasi uchun umumiy bo‘lgan, ularning qaysi millat yoki dindaligidan, qanday ko‘rinishga ega ekanligidan qat’i nazar, birlashtiruvchi g‘oyalar maydonini tushunamiz. Ushbu makonni barpo etishda milliy g‘oya asosiy tayanch vazifasini o‘taydi.

Ma’naviy makonning shakllanishi bir necha bosqichli jarayon bo‘lib, u oiladagi tarbiyadan boshlanib, mahalla, ta’lim muassasasi va butun jamiyat miqyosidagi munosabatlarni qamrab oladi. Sharq falsafasida ma’naviyat doimo ilmli bo‘lish va komillikka intilish, ezgulik sari ketish bilan bog‘langan. Masalan, Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyatning ma’naviy birligi uning baxt-saodatga erishishining asosiy sharti sifatida ko‘rsatilgan.

Ta’lim tizimi – ma’naviy yangilanishning drayveri. Yagona ma’naviy makon barpo etishning eng muhim strategik yo‘nalishi bu ta’lim tizimi hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga nafaqat bilim berish, balki tarbiya berish maskani sifatida qarash strategik ahamiyat kasb etmoqda. "Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" degan tamoyil asosida maktabgacha ta’limdan oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bo‘g‘inlarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, ularda yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish davr talabidir. Buning uchun ijtimoiy-gumanitar fanlar

o‘qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, yangi g‘oyalar yaratishni o‘rganish lozim. Bugungi yoshlar nafaqat o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yetuk kadr, balki vatanparvar va ma’naviyati boy, salohiyatli, yaxshi va erkin fikrlay oladigan, har taraflama yetuk shaxs bo‘lishi shart.

Globallashuv va mafkuraviy immunitet masalasi. Hozirgi davrda axborot oqimi shunchalik tezlashdiki, inson ongi har kuni minglab turli mazmundagi ma’lumotlarni qabul qilmoqda. Bu ma’lumotlar orasida yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, turli xil yo‘llarga boshlovchi ularni milliy ildizlaridan ayirishga urinuvchi "ommaviy madaniyat" unsurlari ham talaygina. Shu bois, milliy axborot makonini himoya qilish va yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish yagona ma’naviy makon barpo etishning dolzarb vazifasidir.

Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish tamoyili bugun har qachongidan ham muhim. Bu borada milliy adabiyotimiz, tariximiz va buyuk ajdodlarimiz merosidan unumli foydalanish lozim. Masalan, jadidchilik harakati namoyandalari bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabi bobolarimizning ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugungi kun yoshlari uchun ham hayotiy saboq bo‘lishi mumkin [4:112].

Jaholatga qarshi kurash**:** Ilm-fan va ma’rifatni yoyish orqali xalqni o‘z huquqlarini anglashga undash.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalari — jamiyatni jaholat, qoloqlik va mafkuraviy zo‘ravonlikdan qutqarib, ta’lim, madaniyat va erkin tafakkur orqali taraqqiyotga erishishni maqsad qilgan ijtimoiy-falsafiy harakatdir. Bu g‘oyalar asosan ilmiy dunyoqarashni yoyish, milliy o‘zlikni anglash, xotin-qizlar ta’limi va yangi usuldagi maktablar tashkil etish orqali xalqni yuksaltirishga qaratilgan.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalarining asosiy yo‘nalishlari:

Milliy uyg‘onish: Milliy til, tarix va adabiyotni rivojlantirish orqali o‘zlikni anglash.

O‘zbekistonda, ayniqsa, XX asr boshidagi “Jadidchilik harakati’ ma’rifatparvarlikning eng yorqin ko‘rinishi bo‘lib, u barkamol avlodni tarbiyalash va milliy mustaqillik g‘oyalarini ilgari surgan

Ozod fikrlilik**:** Erkin tafakkur va demokratik qarashlarni shakllantirish.

Ta’lim islohoti: Jadidlar tomonidan yangi usuldagi maktablar (usuli jadid) tashkil etilishi, dunyoviy fanlarni o‘qitish.

Xotin-qizlar huquqlari**:** Ayollar ta’limi va jamiyatdagi mavqeini oshirish masalasi.

Oila va mahallaning ma’naviy muhitni barqarorlashtirishdagi juda muhim o‘rni. Insonning ma’naviy qiyofasi, avvalo, oilada shakllanadi. Oila – jamiyatning tayanch nuqtasi, qadriyatlar asrab-avaylanadigan, birdamlikni barpo etadigan muqaddas maskandir. O‘zbek xalqi uchun oila nafaqat turmush qurish joyi, balki yuksak axloq maktabi hisoblanadi. Shu sababli yagona ma’naviy makon barpo etish strategiyasida oila institutini mustahkamlash, yosh oilalarga ma’naviy-psixologik ko‘mak berish muhim o‘rin tutadi. Bundan tashqari, Sharq falsafasida oila nafaqat ijtimoiy birlik, balki axloq va ma’naviyat qo‘rg‘oni sifatida ko‘riladi.Qolaversa oilaning jamiyatdagi o‘rni haqida bir necha hil olimlar fikr yuritgan.

Abu Nasr Forobiy**:** Oila va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan. Uning fikricha, "fozil shahar" (ideal jamiyat) a’zolari oilada bir-birlariga samimiy munosabatda bo‘lsalar, butun jamiyatda baxt-saodat qaror topadi.

Abu Rayhon Beruniy**:** Inson jamiyatda o‘zaro yordam va ehtiyojlarini qondirish uchun qarindoshlar bilan birlashishga majburligini, bu birlashishning asosi esa oila ekanligini ta’kidlagan.

Abdurauf Fitrat: "Oila" asarida oilani davlatning kichik bir ko‘rinishi deb hisoblagan. U oila mustahkam bo‘lmasa, millat va davlat tanazzulga yuz tutishini uqtirgan.

Bundan tashqari, G‘arb tafakkurida bir necha olimlar oilaning jamiyat bilan huquqiy va ijtimoiy aloqalari tahlil qilingan:

Aristotel: Oilani jamiyatning "eng asosiy va tabiiy birligi" deb hisoblagan. Uning fikricha, oilalar birlashib qishloqlarni, qishloqlar esa davlatni tashkil etadi. Oila a’zolari o‘rtasidagi adolat va hurmat jamiyat boshqaruvining asosi hisoblangan.

Konfusiy: Jamiyat barqarorligini "farzandlik burchi" (filial piyety) tushunchasi bilan bog‘lagan. Agar oilada farzand ota-onaga hurmatda bo‘lsa, jamiyatda ham tartib bo‘ladi, deb hisoblagan.

Mahalla tizimi esa o‘zbek davlatchiligining noyob namunasi sifatida jamiyatda ijtimoiy nazorat va ma’naviy tarbiya markazi hisoblanadi. Mahalladagi sog‘lom muhit,yashil makonlar, qo‘ni-qo‘shnichilik munosabatlari, o‘zaro hurmat va yordam tuyg‘ulari, bir-biriga g‘amxorlik ko‘rsatish yosh avlodni jamiyatga moslashishida, yetuk inson bo‘lib ulg‘ayishiga u katta ahamiyatga ega. Mahalla faollari va ziyolilarining yoshlar bilan tizimli ishlashi,ularni doimiy ravishda nazorat qilib turish, ayniqsa o‘smirlik davrida yoshlarga juda katta e’tibor qaratish lozim, bunday paytda,e’tiborsizlik salbiy ijtimoiy oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin, shu sababdan yoshlar bilan ko‘proq ishlash ularning turli yot oqimlarga kirib qolishining oldini oladi.

Madaniyat va san’at – xalq ma’naviyatining ko‘zgusi. Milliy madaniyat va san’atni rivojlantirmasdan turib, yagona ma’naviy makonni tasavvur etib bo‘lmaydi. Teatr, muzey, kutubxonalar va konsert zallari insonning ruhiy olamini boyituvchi asosiy manbalardir. So‘nggi yillarda yurtimizda kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, turli tanlovlar va kitob bayramlari yoshlarning kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirdi.

Kitob o‘qigan inson dunyoni teran anglaydi, bundan tashqari

dunyoqarashi o‘sadi, har taraflama o‘ylash qobiliyatini yanada kuchli shakllantiradi, uning nutqi va fikrlash doirasi kengayadi. Bugungi kunda "Kitob – tafakkur xazinasi" ekanini yoshlar ongiga yaxshilab singdirish lozim, ularni jahon va o‘zbek adabiyoti durdonalari bilan tanishtirish ma’naviy makonning poydevorini mustahkamlaydi.Yoshlar orasida kitob mutolaasining ahamiyatini keng targ‘ib qilish zarur. Bizning vazifamiz esa yoshlar kitob ilm-fan olamiga turli-xil yo‘llar orqali qiziqtirish. Shuningdek, milliy kino san’ati va tasviriy san’at orqali vatanparvarlik, ona yerga muhabbat kabi g‘oyalarni ularning ongida ilgari surish lozim.

Xulosa. O‘zbekistonda yagona ma’naviy makon barpo etish – bu shunchaki shior emas, balki mamlakatning barqaror taraqqiyotini kelajagini ta’minlovchi hayotiy zaruriyatdir. Bu jarayon davlat, jamiyat va har bir fuqaroning birgalikdagi harakatini, vatanga bo‘lgan sadoqatini, birlashib qanday kuchga ega ekanligini ko‘rsatish kerak. Yurtimiz yanada rivojlanishi uchun har bir fuqaro o‘z hissasini qo‘shishini talab qiladi. Biz

ko‘zlayotgan Uchinchi Renessans poydevori aynan ma’naviyat, ma’rifat va ilm-fan uyg‘unligi asosida qurilishi shart. Faqat ma’naviyati yuksak xalqgina buyuk kelajakni barpo etishga qodirdir.

TAKLIF VA TAVSIYALAR:

1.Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini baholashning yangi mexanizmlarini yaratish;

2.Yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi raqamli kontent (ijtimoiy roliklar, o‘yinlar, mobil ilovalar) ulushini oshirish;

3."Ma’naviyat va ma’rifat" maskanlari faoliyatini mahallalar bilan yanada uzviy bog‘lash;

4.Ziyolilar, shoir va yozuvchilarning talaba-yoshlar bilan uchrashuvlarini muntazam tashkil etish;

5.Chet tillarini o‘rganish bilan birga, ona tilining sofligini saqlash va milliy adabiyotga hurmatni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

4. Abdurahmonov Q. Globallashuv sharoitida ma’naviy tarbiya masalalari. – Toshkent: Akademiya, 2019.

5. Ergashev I. Ma’naviyat va taraqqiyot. – Toshkent: Sharq, 2018.

6. Jurayev N. G‘oyalar jangi. – Toshkent: Sharq, 2015.

7. Safarova R. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

8. To‘xtaxodjayeva M. Ma’naviy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2020.

9. Xolbekov A. Jamiyatning ma’naviy yangilanishi. – Toshkent, 2021.

10. “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi materiallari. – Toshkent, 2023.

11. Alimasov V. Ma’naviyat falsafasi. – Toshkent, 2016.

12. Milliy yuksalish sari. To‘plam. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.

13. Abdurauf Fitratning mashhur "Oila" asari 1914-yil.

OLIY TA’LIMDA MA’NAVIY MAKON VA SHAXSIYLASHTIRILGAN O‘QITISH INTEGRATSIYASI

Xabibullayeva Oydinoy Saydullo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu annotatsiyada oliy ta’lim tizimida ma’naviy makon tushunchasi va shaxsiylashtirilgan o‘qitish yondashuvining o‘zaro integratsiyasi yoritiladi. Talabaning individual ehtiyojlari, qadriyatlari va ichki motivatsiyasini hisobga olgan holda yaratilgan ta’lim muhiti shaxs kamoloti va ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy muhit, shaxsiy yondashuv, talaba markaziyligi, individual rivojlanish, pedagogik innovatsiya, qadriyatlar uyg‘unligi, ta’lim sifati, ijtimoiy mas’uliyat.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jamiyat taraqqiyoti, globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivoji oliy ta’lim oldiga yangi talab va vazifalarni qo‘ymoqda. Bu jarayonda ta’lim mazmunini ma’naviy jihatdan boyitish hamda talabalarning individual ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan o‘qitishni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’limda ma’naviy makon tushunchasi talabalarning axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini shakllantiruvchi muhitni anglatadi. Bunday makon ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish, talabalarda vatanparvarlik, bag‘rikenglik va fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.[1] Shu bilan birga, shaxsiylashtirilgan o‘qitish yondashuvi har bir talabaning qiziqishi, qobiliyati va o‘rganish sur’atini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishni nazarda tutadi. Mazkur ikki yo‘nalishning integratsiyasi oliy ta’lim samaradorligini oshirish, talabaning nafaqat intellektual, balki ma’naviy-ruhiy rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi. Ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitishning uyg‘unlashuvi natijasida ta’lim jarayoni

yanada insonparvar, moslashuvchan va maqsadli tus oladi. Shu jihatdan, ushbu integratsiya zamonaviy oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, talabaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlash masalalari ilmiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayonining faqat bilim berishga qaratilishi yetarli emasligi, balki ma’naviy-axloqiy tarbiya hamda individual yondashuvni uyg‘unlashtirish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’limda ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish tushunchalarining integratsiyasi masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Pedagogik adabiyotlarda “ma’naviy makon” tushunchasi keng talqin qilinadi. Ayrim tadqiqotchilar uni ta’lim muassasasida shakllanadigan axloqiy-psixologik muhit, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlar majmui sifatida izohlaydi.[2] Xususan, Sharq pedagogik tafakkuriga oid manbalarda ta’lim va tarbiya ajralmas jarayon sifatida talqin qilinib, bilim berish ma’naviy kamolot bilan uzviy bog‘langan holda qaraladi. Zamonaviy olimlar esa ma’naviy makonni talabaning o‘zini anglashiga, ijtimoiy mas’uliyatni his etishiga va mustaqil fikrlashiga xizmat qiluvchi pedagogik muhit sifatida ta’riflaydi. Bu yondashuvlarda oliy ta’lim muassasasi nafaqat bilimlar uzatiladigan makon, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar shakllanadigan muhim tarbiyaviy muhit sifatida e’tirof etiladi. Shaxsiylashtirilgan o‘qitish masalasi esa asosan G‘arb pedagogikasi va zamonaviy ta’lim texnologiyalari doirasida chuqur o‘rganilgan. Adabiyotlarda shaxsiylashtirilgan o‘qitish talabaning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari, qiziqishlari va o‘rganish sur’atlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ushbu yondashuv talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishi, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishi va akademik natijalarning yaxshilanishiga olib kelishini ta’kidlaydilar. Raqamli platformalar, moslashuvchan o‘quv dasturlari va refleksiv baholash usullari shaxsiylashtirilgan o‘qitishning muhim vositalari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish ko‘pincha

alohida-alohida o‘rganilgan.[3] Ma’naviy tarbiya ko‘proq ijtimoiy-gumanitar fanlar yoki tarbiyaviy ishlar doirasida talqin qilinsa, shaxsiylashtirilgan o‘qitish texnologik va metodik jihatdan yondashilgan. So‘nggi yillarda esa ayrim olimlar ushbu ikki yondashuvni integratsiyalash zarurligini ilgari surmoqda. Ularning fikricha, shaxsiylashtirilgan o‘qitish faqat akademik ehtiyojlarga emas, balki talabaning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ham xizmat qilishi lozim. Integrativ yondashuvga oid tadqiqotlarda ta’lim jarayonida individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish bilan bir qatorda, umumiy qadriyatlar, akademik halollik, ijtimoiy mas’uliyat va fuqarolik ongini rivojlantirish muhimligi qayd etiladi. Bunday yondashuvda ma’naviy makon shaxsiylashtirilgan o‘qitishning mazmuniy asosini tashkil etib, ta’lim texnologiyalari esa ushbu ma’naviy maqsadlarni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar fikricha, bu integratsiya talabaning nafaqat bilimli mutaxassis, balki yetuk shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Mavjud adabiyotlar oliy ta’limda ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitishning har biri alohida katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ularning integratsiyasi masalasi hali yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan. Bu holat mazkur yo‘nalishda kompleks pedagogik tadqiqotlar olib borish, nazariy asoslar ishlab chiqish va amaliy modellarni yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Aynan shunday integratsiyalashgan yondashuv zamonaviy oliy ta’lim oldida turgan asosiy vazifalarga mos keladi va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot oliy ta’lim jarayonida ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish integratsiyasining pedagogik asoslarini aniqlash hamda uning ta’lim samaradorligiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik nazariya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi hamda ma’naviy-axloqiy tarbiya g‘oyalariga tayangan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar, tizimli yondashuv, aksiologik (qadriyatlar) yondashuv hamda integrativ pedagogika tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar talabaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni ma’naviy yetuk shaxs sifatida rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa,

aksiologik yondashuv orqali ta’lim jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmuniy ahamiyati ochib berildi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Nazariy bosqichda mavzuga oid falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar tahlili amalga oshirildi. Bu orqali “ma’naviy makon”, “shaxsiylashtirilgan o‘qitish” va ularning integratsiyasi tushunchalarining mazmun-mohiyati aniqlashtirildi hamda mavjud ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Taqqoslash va umumlashtirish metodlari orqali turli yondashuvlarning o‘xshash va farqli jihatlari belgilandi.

Empirik tadqiqot bosqichida kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va pedagogik tajriba-sinov metodlari qo‘llanildi. Kuzatish metodi yordamida oliy ta’lim muassasalarida mavjud ta’lim muhiti, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi pedagogik munosabatlar hamda ma’naviy muhitning ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganildi. Suhbat va so‘rovnomalar orqali talabalar va professor-o‘qituvchilarning shaxsiylashtirilgan o‘qitishga hamda ma’naviy tarbiyaga bo‘lgan munosabati, ehtiyojlari va qarashlari aniqlandi. Pedagogik tajriba-sinov jarayonida ma’naviy makon elementlari bilan boyitilgan shaxsiylashtirilgan o‘qitish modeli ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Tajriba-sinov ishlari nazorat va tajriba guruhlarida olib borilib, ularda talabalarning o‘quv motivatsiyasi, mustaqil fikrlash darajasi, ma’naviy qadriyatlarni anglash hamda o‘quv natijalari solishtirildi. Ushbu jarayonda diagnostik metodlar yordamida boshlang‘ich va yakuniy natijalar o‘rtasidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi.Olingan empirik ma’lumotlarni qayta ishlashda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, integratsiyalashgan yondashuvning ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’siri ilmiy asoslab berildi. Shu bilan birga, refleksiv tahlil orqali talabalar shaxsiy rivojlanishidagi o‘zgarishlar baholandi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, tadqiqot metodologiyasi ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish integratsiyasini har tomonlama o‘rganish imkonini beruvchi izchil va tizimli yondashuvga asoslangan. Tanlangan metodlar tadqiqot maqsadiga muvofiq holda nazariy va amaliy natijalarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qildi.[4] Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan nazariy va empirik izlanishlar oliy

ta’limda ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish integratsiyasi ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar tadqiqotning dastlabki farazlarini tasdiqlab, ushbu integratsiyalashgan yondashuv talabaning nafaqat akademik rivojlanishiga, balki uning shaxsiy va ma’naviy kamolotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Tajriba-sinov jarayonida shaxsiylashtirilgan o‘qitish elementlari ma’naviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilgan ta’lim muhiti yaratilgan tajriba guruhlarida talabalar faolligining oshgani kuzatildi. Xususan, talabalar o‘z o‘quv faoliyatiga mas’uliyat bilan yondashib, mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqishlari sezilarli darajada kuchaydi. Bu holat shaxsiylashtirilgan yondashuv talabaning individual ehtiyojlarini hisobga olishi bilan birga, ma’naviy makon orqali ichki motivatsiyani shakllantirish imkonini berishini ko‘rsatadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy makon bilan boyitilgan shaxsiylashtirilgan o‘qitish modeli talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi pedagogik munosabatlarning sifat jihatidan o‘zgarishiga olib keldi. Suhbat va kuzatishlar jarayonida talabalar o‘qituvchini faqat bilim beruvchi shaxs emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi va tarbiyaviy hamkor sifatida qabul qila boshlaganliklari aniqlandi. Bu esa ta’lim jarayonida ishonchli va ochiq muloqot muhitini shakllantirishga xizmat qildi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, nazorat guruhlarida asosan standart o‘qitish usullari qo‘llanilgan holatlarda talabalar o‘quv topshiriqlarini bajarishda ko‘proq tashqi rag‘batlarga tayanishgan. Tajriba guruhlarida esa talabalar o‘z maqsadlarini mustaqil belgilash, shaxsiy o‘quv trayektoriyasini rejalashtirish va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini faol namoyon etdilar. Bu esa integratsiyalashgan yondashuvning refleksiv tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalari talabalarning ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatida ham ijobiy o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Tajriba-sinov yakunida talabalar orasida akademik halollik, ijtimoiy mas’uliyat va hamkorlikka moyillik kabi sifatlarning kuchaygani qayd etildi. Bu holat ma’naviy makonning shaxsiylashtirilgan o‘qitish bilan uyg‘unlashuvi ta’lim mazmunini chuqurlashtirish bilan birga, talabaning ichki axloqiy mezonlarini shakllantirishga xizmat qilganini anglatadi. Olingan natijalarni mavjud ilmiy tadqiqotlar bilan taqqoslash shuni

ko‘rsatdiki, mazkur ishda ilgari surilgan xulosalar shaxsga yo‘naltirilgan va aksiologik yondashuvlar asosida olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘unlashadi.[5] Biroq mazkur tadqiqotning o‘ziga xos jihati shundaki, unda shaxsiylashtirilgan o‘qitish texnologiyalari ma’naviy makon tushunchasi bilan yagona pedagogik tizim sifatida qaraldi. Bu esa ilgari ko‘proq alohida o‘rganilgan ikki yo‘nalishni birlashtirish orqali yangi ilmiy natijalarga erishish imkonini berdi. Umuman olganda, muhokama va natijalar shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’limda ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish integratsiyasi talabalarning bilim olish jarayonini insonparvarlashtirishga, ta’lim muhitini boyitishga hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur integratsiyalashgan yondashuvni oliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik sharti sifatida baholanishi mumkin.[6]

Xulosa: Mazkur tadqiqot oliy ta’lim tizimida ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish integratsiyasining pedagogik ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillar va tajriba-sinov natijalari ushbu ikki yondashuvni uyg‘unlashtirish zamonaviy oliy ta’lim oldida turgan dolzarb vazifalarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, ma’naviy makon bilan boyitilgan shaxsiylashtirilgan o‘qitish modeli talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonini faqat bilim berishga qaratilgan mexanik jarayon sifatida emas, balki shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan insonparvar muhit sifatida tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, ma’naviy qadriyatlar asosida shakllangan ta’lim muhiti talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi pedagogik munosabatlarning yanada samarali va ishonchli bo‘lishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsiylashtirilgan o‘qitish esa ushbu muhitda har bir talabaning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish orqali uning ichki salohiyatini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Natijada ta’lim jarayonida mas’uliyat, akademik halollik va ijtimoiy faollik kabi muhim ma’naviy sifatlar rivojlanadi. Tadqiqot xulosalari shuni

ko‘rsatadiki, ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish integratsiyasi oliy ta’lim sifatini oshirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda, ularning axloqiy yetukligi va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh va ma’naviy barkamol kadrlarni tayyorlash imkonini beradi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oliy ta’limda ma’naviy makon va shaxsiylashtirilgan o‘qitish integratsiyasini tizimli ravishda joriy etish pedagogik nazariya va amaliyot uchun yangi istiqbollarni ochadi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar ushbu integratsiyalashgan yondashuvni takomillashtirish, uning metodik va texnologik asoslarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akhmedov, S. (2018). Oliy ta’limda shaxsiylashtirilgan o‘qitish texnologiyalari. Toshkent: Fan va Texnologiya.

2. Islomova, D. (2020). Ma’naviy tarbiya va ta’lim muhitining integratsiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Pedagogika Instituti Nashriyoti.

3. Zokirov, M. (2019). “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va ma’naviy qadriyatlar: pedagogik tahlil”. Pedagogika ilmiy jurnal, 4(2), 45–53.

4. Karimov, A., & Tursunov, B. (2021). Oliy ta’limda ma’naviy makon va innovatsion o‘qitish metodlari. Samarqand: SamDU Nashriyoti.

5. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2017). Cooperative Learning in Higher Education. New York: Routledge.

6. Shukurova, N. (2018). “Talabaning shaxsiy rivojlanishida ma’naviy makonning roli”. Ta’lim va tarbiya masalalari, 3, 12–19.

7. UNESCO. (2016). Education 2030 Framework for Action. Paris: UNESCO Publishing.

II-SHO‘BA. MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI MA’NAVIY YUKSALTIRISH - YANGI O‘ZBEKISTONNI QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM POYDEVORI

MAHALLA - YANGI MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISH BESHIGI

Qiyom Nazarov,
falsafa fanlari doktori,
professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalla institutining Yangi O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rni, uning fuqarolik jamiyatining noyob va tarixiy shakli sifatidagi ahamiyati hamda davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchli muloqot maydoni sifatidagi funksiyalari ilmiy-tahliliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda mahallaning aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, shuningdek, jamiyatda ma’naviy-ma’rifiy muhitni sog‘lomlashtirishdagi ko‘p qirrali o‘rni tahlil qilingan. Shu bilan birga, mahalla institutini takomillashtirishga qaratilgan so‘nggi institutsional islohotlar, xususan, “mahalla yettiligi”, “Mahalla budjeti”, raqamlashtirish jarayonlari va mahallaning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish kabi yangiliklarning amaliy ahamiyati ochib berilgan. Maqolada mahalla tizimining xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilishi va uning ijtimoiy barqarorlik, inson qadrini ta’minlash hamda “hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyilini hayotga tatbiq etishdagi ahamiyatiga alohida urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla instituti, fuqarolik jamiyati, Yangi O‘zbekiston, mahalla yettiligi, ijtimoiy barqarorlik, aholi bandligi, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, mahalla budjeti, raqamlashtirish, mahallabay ishlash, jamoatchilik boshqaruvi, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish, inson qadri, xalqaro e’tirof.

Noyob fuqarolik instituti. Ma’lumki, bugungi kunda Respublikamizda 9 800 ta yaqin mahalla faoliyat yuritmoqda va ular mahalliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishning muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu jihatdan, mahallalar xalqimiz hayotining muhim tarkibiy qismi, nafaqat ma’muriy vazifalarni bajaribgina qolmay, balki davlat organlari va fuqarolar o‘rtasidagi o‘ziga xos muloqot maydoniga aylangan.

Biz bugun mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un yashashga o‘rgatib, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz. Ota-bobolarimiz umrguzaronlik qilgan shu muqaddas zaminda yashayotgan, uning suv-nonini totayotgan kishi borki, o‘z hayotini, quvonchu tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur etishi qiyin albatta.

Ayni paytda, mahalla har bir inson hayotining ma’nosi va umri mazmuniga katta ta’sir ko‘rsatuvchi Ona yurt, Ota makonga nisbatan sharqona yondashuvning betakror namunasi, asrlar qa’ridan bezavol o‘tib kelayotgan ma’naviy - ma’rifiy makon hamdir. Nafaqat zamonaviy muammolarga samarali yechim topish, balki xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosini o‘zida jamlagan noyob tuzilma sifatida mahalla bugungi kunda aholi hayotini yaxshilash va jamiyatni farovonlashda oddiy ishtirokchi emas, balki muhim qarorlar qabul qiladigan va ularni amalga oshirishga qodir markaz sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, bugun mahallaning ijtimoiy ahamiyati, davlat va jamiyat rivojidagi roli, aholining kundalik tashvishlari, masala va muammolarini hal qilishdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. **Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Mahallada tinchlik hukm sursa, yurtimizda ham tinchlik bo‘ladi, mahalla obod etilsa, butun mamlakatimiz obodonlashadi” deya alohida ta’kidlagani aslo bejiz emas.**

Bugungi kunga kelib, yurtimizda mahalla institutining jamiyatdagi mavqeini oshirish, uning maqomini mustahkamlash va vakolatlarini kengaytirishga doir izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar

mahallaning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashi ta’minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etilib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, soliq inspektori va ijtimoiy xodimdan iborat “mahalla yettiligi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ularga zarur vakolat va imkoniyatlar yaratib berilishi natijasida aholining turmush darajasini oshirish borasidagi ishlar yangi bosqichga olib chiqildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlangan hayotbaxsh dasturlarning amaldagi ijrosi o‘laroq, bugun mahalla aholini islohotlarga safarbar etadigan, jamiyatning barcha qatlamlarini izchil harakatga keltiradigan faol, katta ijtimoiy kuch, ta’sirchan tuzilmaga, odamlar kelib fikrini, taklifini, dardini aytadigan, muammosiga yechim topadigan maskanga aylandi.

Bugungi kunda mahallalar aholining ko‘plab ijtimoiy masalalarini hal qilish, ularning farovon hayotga erishishiga yordam berish tizimining eng muhim bug‘inlaridan biriga aylandi. Ushbu yo‘nalishda ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurashish va ishsizlikni barham toptirish masalalari mahallarning diqqat-e’tiborini tortayotgan muammolar qatoriga kiradi va mazkur sohagi faoliyat nihoyatda muhim hisoblanadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda 2025 yil yakuniga ko‘ra ishsizlik darajasi 4,8 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 foizga kamaygan. 2026-yilning 1 yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19 million 724 ming 900 kishini tashkil etib, 2025 yilning shu davriga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 foizga) oshgan. O‘z navbatida bu raqamlar masalaning butun mamlakat miqyosidagi ko‘lamidan dalolat beradi va ayniqsa, joylardagi mahallalarning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yishni taqazo etadi.

Shu sababdan ham, bugungi kunga kelib Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida mahallalarni kambag‘allikdan va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish yo‘lidagi islohotlar nihoyatda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Mazkur sohadagi islohotlarning samarasini ta’minlaydigan omillar shakllanib, ularning ta’sirchanligi muttasil o‘sib bormoqda.

Ushbu yo‘nalishdagi faoliyatda hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini

kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, fuqarolarning o‘z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlash maqsadlari ustivordir. Ayni paytda mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish, mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mahallalarning «o‘sish nuqtalari» va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash masalalari o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Buning uchun, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni ta’minlash, bank-moliya, tomorqa, yer, chorvachilik va parrandachilik bo‘yicha ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani aslo bejiz emas.

Bu jihatdan, mahallalar vakolatlarini kengaytirish, davlat organlari va mahallalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani ta’minlash, aholining mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish va mahallalarning joylardagi vakillik organlari bilan, xalq deputatlari Kengashlarining Oliy Majlis Senati bilan, hokimliklarning vazirliklar va ularning hududiy bo‘linmalari bilan aloqalarini mustahkamlash maqsadida har bir mahallada hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin qizlar faoli lavozimlari tashkil etildi.

Xullas, bugun mahalla ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida faol ishtirok etyapti. Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish borasidagi amaliy sa’y-harakatlar mahallaning ishtirokisiz o‘tmayapti. Pirovard maqsad aniq: aholiga munosib turmush sharoiti va farovon hayot yaratish, jamiyatimiz a’zolarining bu boradagi imkoniyatlarini yanada oshirish, xalqni faol islohotchiga aylantirish.

Bunday yuksak marralarga erishishda O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro tajriba almashish, birgalikda turli dastur

va loyihalarni amalga oshirish orqali yaqin hamkorlikni izchil davom ettirishdan manfaatdor.

Mahalla shunchaki ijtimoiy institut emas, balki asrlar davomida milliy qadriyatlar, an'analar va ijtimoiy totuvlikning beshigi bo'lib kelgan o'ziga xos o'zini o'z tashkil etish shaklidir. Mahalla doirasida o'zaro yordam, mehr-shafqat, ijtimoiy mas'uliyat va yaxshi qo'shnichilik kabi fundamental tamoyillar vujudga kelib, rivojlandi. Bu tamoyillar butun mamlakatda ijtimoiy aloqalarni yanada rivojlantirrish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Prezidentimizning **"Qaysi mahallada ish to'g'ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o'rnatilsa, o'sha yerda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm suradi, noxush holatlarga yo'l qo'yilmaydi"** degan so'zlari mahalla tizimi xodimlari faoliyatida dasturilamalga aylangan.

Ushbu fikr mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlashda ishtirok etayotgan barcha ma'muriy boshqaruv idoralari va fuqarolar bilan faol hamkorlik qilish tizimida o'zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratish borasidagi ishlarning mazmun-mohiyatini ifodalaydi.

Samarali islohotlarning asosiy omillari. Yangi O'zbekistonni barpo etish jadal tus olgan hozirgi davrda ushbu o'z o'zini boshqarish institutining faoliyati samarasini oshirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli va puxta o'ylangan innovatsiyalar hayotga joriy etilmoqda. Ushbu sohada mamlakatimizda muayyan tajriba to'plandi hamda ushbu jarayon tobora kengayib va chuqurlashib bormoqda. Mazkur jabhadagi salmoqli natijalarning o'ziga xos muhim omillari va tayanch manbalari bor, albatta.

Birinchidan, bu borada ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 18 fevralda qabul qilingan «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2021 yil 3 dekabr kunidagi «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 19 yanvardagi «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2023-yil 21-dekabrdagi "Mahalla institutining

jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari va farmonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchidan, “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mahallaning “faol” modelini joriy etish orqali mahalla tizimini rivojlantirish va mahallabay ishlashda davlat organlari, mahalliy hokimlik va jamoat tashkilotlarining o‘zaro samarali hamkorligi qatiy belgilab qo‘yilishi, mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish bo‘yicha yo‘nalishlar belgilangani mazkur sohadagi islohotlarning bardavom bo‘lishini anglatadi.

Bugungi kunda mahallalarning vakolatlari kengaytirilib, ularning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi, mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilandi. Barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha muammolarni o‘rganish va ularga yechim topishi tartibi joriy etildi. Aholining mahalladan turib barcha davlat organlariga murojaat qilish va ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Uchinchidan, O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-402-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil qilinishi bu boradagi institutsional islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

O‘z navbatida bu fuqarolar yig‘inlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga qonunchilikda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko‘maklashish, mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlash, shuningdek, jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili to‘laqonli va samarali joriy etilishida ko‘maklashish bilan bog‘liq ustuvor

vazifalarni hal qilish tizimini samarasini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etilishi mazkur fuqarolik jamiyati institutining xalq bilan davlat o‘rtasidagi “ko‘prik” vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga, jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta’minlashga yordam bermoqda.

Shu bilan birga bu, har bir fuqaro o‘zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta’minlashda mas’uliyatni sezishi, boqimandalikka o‘rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish, “mahalla yettiligi” tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish uchun safarbar etishda ko‘maklashish imkonini oshirmoqda.

Buning natijasida mahallalardagi muammolarning o‘z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa’y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo‘naltirish hamda mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al fuqarolarga ajratilayotgan budjet va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta’minlash darajasi keskin ortmoqda.

Mahallalarning moddiy-texnika ta’minotini yaxshilash, ularga ajratiladigan mablag‘larni markazlashgan tarzda taqsimlash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish samarasi ko‘tariladi va ushbu sohadagi amaliy mexanizm takomillashib borayotir.

Yangi taraqqiyot bosqichi. Ma’lumki, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mahallaning “faol” modelini joriy etish orqali ushbu tizimni yanada rivojlantirish va “mahallabay” ishlashda davlat organlari, mahalliy hokimlik va jamoat tashkilotlarining o‘zaro samarali hamkorligi qat’iy belgilab qo‘yildi.

Mahallaning vakolatlari kengaytirilib, moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi. Mahalladagi ishlarning holati vazirlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilandi. Barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o‘z yo‘nalishi bo‘yicha muammolarni o‘rganish va ularga yechim topish tartibi joriy etildi.

“Yangi O‘zbekiston - 2030” strategiyasida esa bu boradagi dinamik jarayonni yanada chuqurlashtirish va ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning bardavom bo‘lishini ta’minlashga doir ustivor maqsadlar va vazifalar aniq-tiniq ko‘rsatildi.

Bu jihatdan bugungi kunda mahalla instituti ijtimoiy hayotdagi o‘z muhim o‘rnini saqlab qolgan holda, bugungi kunda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan vazifalarni bajarishni davom ettirmoqda va ijtimoiy o‘zaro aloqa hamda qo‘llab-quvvatlashning eng muhim vositasiga aylanmoqda.

O‘z navbatida, ushbu noyob tuzilma nafaqat ijtimoiy himoya sohasidagi davlat dasturlarini amalga oshirishga yordam bermoqda, balki aholining farovonligi va barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida tadbirkorlikni faol qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Mahalladagi muammolarni faqat shu tizimda ishlovchi xodimlar bilan qamrab olish imkonsiz, albatta. Ayni paytda, bugun jamiyatda mahalla aralashmaydigan, unga taalluqli bo‘lmagan masalaning o‘zi yo‘q. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi, oilalar mustahkamligi, ijtimoiy yordam ko‘rsatish masalalari deysizmi, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratishmi, barcha-barchasida mahallaning o‘rni sezilib turadi.

Mahallaning ko‘p qirraliligi uning ijtimoiy hayotning turli jihatlarini birlashtira olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu yoshlarni milliy an’analarga hurmat ruhida tarbiyalashdan tortib, aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha tashabbuslarni amalga oshirishgacha bo‘lgan keng qamrovli faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Bu yo‘nalishda jamoatchilik tuzilmalari, “Mahalla nazorati” va “Keksalar maslahati” guruhlari, “Oqila ayollar” harakati a’zolari, nuroniylar, ziyolilar faolligi yo‘lga qo‘yilganki, hech bir masala e’tibordan chetda qolmayapti. O‘z navbatida ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, rag‘batlantirish tizimi ishlab chiqildi va u samarali amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023 yil 21 dekabrda ikkita muhim hujjat, ya’ni “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida

ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmon hamda “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qaror imzolanishi mahalla tizimi tadrijida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu tarixiy hujjatlarda mahallalar faoliyatini yanada samarali va tizimli tashkil qilish, ularni har timonlama qo‘llab-quvvatlashni takomillashtirish borasida ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Hujjatlarga muvofiq, Mahallani qo‘llab-quvvatlash kengashlari, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tashkil qilindi. Har bir fuqarolar yig‘inida o‘ziga xos noyob tuzilma — mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, soliq va profilaktika inspektorlaridan iborat “mahalla yettiligi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mahalla xodimlari faoliyatini asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) bo‘yicha alohida baholash tartibi joriy etildi. Mahalla raislari hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektorlari faoliyatini KPI asosida baholashda 20 foiz ball berish huquqiga ega bo‘ldi. “Mahalla yettiligi” a’zolarining ish haqini asosiy ish joyidan berish tartibi saqlab qolingan holda, KPI asosida baholash natijalaridan kelib chiqib, ular rag‘batlantirib boriladi.

Barcha mahallalarda “Mahalla budjeti” tizimi yo‘lga qo‘yildi. Mamlakatimiz tarixida ilk marotaba aholining demografik va ijtimoiy holati, ta’lim, ijtimoiy soha ob’ektlariga doir 25 ta yo‘nalish va 401 ta ko‘rsatkich asosida 9 452 ta mahallaning “balans”i shakllantirildi. Aholi kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolarni bartaraf etish bo‘yicha “Yo‘l xarita”lari, mahallalar “Ombor kitobi” hamda har bir mahallaning Bandlik dasturi ishlab chiqildi. Fuqarolarning birlamchi muammolari Yagona savolnoma asosida o‘rganilishi yo‘lga qo‘yildi.

Eng muhimi, mahallaning aholiga ijtimoiy ko‘mak berish borasidagi vakolati kuchaytirildi. Endilikda “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatish va subsidiyalar ajratish “mahalla yettiligi”ning birgalikdagi qarori asosida amalga oshiriladi. Mahallaning yagona platformasi orqali ijtimoiy yordamlarning manzilliligi

ta’minlanyapti. Natijada mahalla - odamlar kelib fikrini, taklifini, dardini aytadigan, muammosiga yechim topadigan maskanga aylandi.

Xalqaro e’tirof. Prezidentimiz g‘oyalarining xalqaro e’tirofi butun jahon siyosatining tarkibiy qismga aylangani ko‘plab xalqaro ekspertlarning fikr – mulohazalarida o‘z aksini topmoqda. Masalan Birlashgan Millatlar Tashkilotining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy koordinatori Sabine Mahl so‘zlariga e’tibor bering: “2024 yil 1 iyun sanasida BMTning doimiy vakili sifatida O‘zbekistonga yetib keldim va 2012 yildagi so‘nggi tashrifimdan keyingi o‘zgarishlardan hayratga tushdim. O‘zbekistonda inson qadr-qimmatiga katta e’tibor qaratilib, islohotlar markaziga insonni qo‘ygan holda, keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. BMTning doimiy vakili sifatida Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi mahallalarda bo‘lib, shaxsan o‘zim buning yaqqol guvohi bo‘ldim.

Mahalliy hokimiyat vakillari, yoshlar, fermer ayollar, tadbirkorlar va keksalar bilan suhbatlarga boy bo‘lgan ushbu tashriflar O‘zbekiston xalqining matonati va ijobiy ruhiyati haqida chuqur taassurot qoldirdi. Hatto BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida Toshkent shahridagi “Dilbuloq” mahallasida mahalliy aholi bilan uchrashib, mahallaning ahamiyatini e’tirof etgan edi.

Jamiyatning yuragi bo‘lgan mahalla BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy tamoyili bo‘lgan “Hech kimni e’tibordan chetda qoldirmaslik” g‘oyasini o‘zida mujassam etadi. Bu jamiyat birligi va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni rag‘batlantiradi hamda eng zaif qatlamlarning ham imkoniyatlardan foydalanishini ta’minlaydi. Mahalla xalq va hukumat o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarib, jamoat rivojlanishi tashabbuslarini faol ilgari suradi.

BMTning doimiy vakili Sabine Mahlning ushbu fikrlari YuNICYeFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari o‘rinbosari Joffri Ijumbaning “Mahalla — O‘zbekistondagi kuchli ijtimoiy platforma” mavzuidagi ma’ruzasida bayon qilingan quyidagi e’tirofi bilan hamohang: “Jadal o‘zgarib borayotgan dunyoda YuNICYeF tashkiloti mahallani O‘zbekistondagi fuqarolar, ayniqsa bolalar uchun yaxshi bo‘lgan barcha narsalarning makoni va Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyani amalga

oshirish uchun kuchli platforma sifatida koʻradi. Tashkilot mahallada oʻgʻil-qizlar, jumladan, nogironligi boʻlgan bolalar sogʻlom boʻlib oʻsib-ulgʻayishi, toʻgʻri ovqatlanishi, toza suv va kanalizatsiyadan foydalanishi, bezorilik va zoʻravonliksiz erkin yashashi, toza havodan nafas olishi mumkin boʻlgan xavfsiz muhitni koʻryapti...

Shu bilan birga, mahallalar oilalar va hukumat yoki NNT tomonidan boshqariladigan ijtimoiy xizmatlar oʻrtasida koʻprik boʻlib xizmat qiladi. Oilalarga zarur yordam, jumladan, sogʻliqni saqlash, ta’lim va psixologik-ijtimoiy koʻmak koʻrsatishni ta’minlaydi. Mahalla aholiga eng yaqin tuzilma boʻlgani uchun turli nizolarni hal etish orqali oilalar buzilishi, zoʻravonlik yoki bolalar mehnatining oldini olishga erishadi. Bolalar huquqlarini suiiste’mol qilish, qarovsizlik yoki boshqa qonunbuzilishi holatlarida oʻz vaqtida aralashib, himoya choralarini ta’minlaydi.

Yangi Oʻzbekiston sharoitida mahallalar jamiyatda bola huquqlari va himoyasi masalalari haqida xabardorlikni oshirishi, gender tengligini ragʻbatlantirishi, ayollarga nisbatan zoʻravonlik, bolalar mehnati yoki erta turmush qurish kabi zararli an’analarning oldini olishi mumkin.

Shunday qilib, mahalla har bir xonadonga yetib borish, xizmatlardan, ayniqsa, bolalar uchun teng huquqlilikni ta’minlashda oʻziga xos oʻrin tutadi. Mahalla barcha sohalarda samarali xizmatlar koʻrsatishni ta’minlashi, shu jumladan, xizmatlarning umumiy monitoringi va sifatini ta’minlashda faol nazorat qilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, “Hech kimni e’tiborsiz qoldirmaslik” tamoyilini mahallasiz hayotga tatbiq etib boʻlmasligi aniq va YuNISYeFning mahalla institutini mustahkamlashga koʻmaklashish majburiyatining zamirida ham aynan shu narsa yotadi.”

Xitoyning Gansu Lanmei Professional Skills Training School Co., Ltd bosh menejeri Yang Ji Fanning quyidagi soʻzlarini ham xalqaro e’tirofning yaqqol namunasi deyish mumkin: “Oʻzbekiston — men uchun baxt va omad diyori... Kelajakda bu yerda qolib, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashda Oʻzbekiston tajribasini yaratishga yordam berishga tayyorman. Shu bilan birga, Mahallalar uyushmasi raisi maslahatchisi lavozimida ishlash sharafi uchun chin dildan minnatdorchilik bildiraman.

Bizning kompaniya — uy xo‘jaligi va halqqa xizmat ko‘rsatish kompaniyasi bo‘lib, uning shtab-kvartirasi 2200 kvadrat metrdan ortiq maydonni egallaydi va 46 mahallaga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega. Har yili turli xizmatlar, professional o‘quv kurslarini tashkil etib boramiz.

Mijozlarning haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli, moslashtirilgan va professional uy xizmatlari ko‘rsatish modelini yaratdik. “Jamoa, oila va hayot” tamoyilining yuqori qiymatli ekotizimini yaratishni davom ettirdik va Xitoyning yetakchi brendiga aylandik.

Xitoy va O‘zbekiston hamkorlikda barpo etgan “Bir kamar, bir yo‘l” loyihasining rivojlanishi bilan Gansu va O‘zbekiston o‘rtasidagi o‘zaro almashinuvlar tez-tez sodir bo‘lyapti, tomonlar sanoat kooperatsiyasini yanada mustahkamlamoqda. Qardosh shaharlar o‘rtasidagi almashinuvni chuqurlashtirish borasida samarali hamkorlikka erishdik.

Biz har ikki tomon uchun o‘zaro manfaat keltiruvchi sharoitlarni yaratishga tayyormiz. Xususan, o‘z texnologiyalarimiz, o‘qituvchilar tarkibi, o‘quv tizimi, operatsion model, standart natijalar, jihozlar va boshqalarni taqdim etamiz, xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha tajribamizni o‘rtoqlashamiz.

Xitoy aholisiga O‘zbekistonning mahallalarda xizmat ko‘rsatish kompaniyalariga ishga kirish, bu yo‘nalishda korxonalar va o‘quv muassasalarini tashkil etish, maktab-korxona hamkorligi va yuqori malakali iqtidorlarni tayyorlash jarayoni qiziq, albatta. Asosiy maqsadimiz — mahallalarda uy-ro‘zg‘or xizmatlari, boshqa tegishli faoliyat va tadbirkorlik turlari hamda hamkorlik mazmunini doimiy ravishda boyitib borish, natijalarini kengaytirish va mustahkamlashdan iborat.”

BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi doimiy vakili Akiko Fujiining “Mahalladagi islohotlar bizni o‘zaro tashabbuskorlikka undaydi” mavzusidagi maqolasida quyidagilar alohida e’tirof etilgan:

“Mahalla fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishning samarali organi va boy tarixga ega fuqarolik jamiyati institutidir. Mahallalar inson qadriyatlari, madaniyati va jamiyat hamjihatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Yangi O‘zbekistonda ushbu o‘zini o‘zi boshqarish organining salohiyati va boshqaruvini yaxshilashga qaratilgan tahsinga sazovor islohotlarni alohida ta’kidlab o‘tmoqchiman. Mahallalar uyushmasining

tashkil etilishi va takomillashtirilgan “Mahalla yettiligi” tizimi bu boradagi sa’y-harakatlarda chinakam muhim qadam bo‘ldi.

BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistondagi vakolatxonasi mahallalarni fuqarolik jamiyatining muhim elementi sifatida e’tirof etib, o‘zining odil jamiyatga asoslangan dasturlari orqali qo‘llab-quvvatlab kelmoqda...

Biz O‘zbekiston mahallalarining hududuy o‘ziga xosligini hisobga olgan holda, insoniylik va rivojlanishga yo‘naltirilgan tashabbuslar bilan mamlakatni qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga tayyormiz.”

Bu kabi e’tiroflar chet ellik boshqa taniqli ekspertlar, mamlakatimiz olimlari va mutaxasislarning ma’ruza va chiqishlarida ko‘p bora yangramoqda. O‘z navbatida bu mahalla tizimini takomillashtirish va uning samarasini oshirish sohasidagi O‘zbekiston tajribasi shakllangani va uning xalqaro maydonda keng e’tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy O‘zbekistonda mahalla mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Mahalla orqali ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, aholining farovonlik darajasini oshirish va turmush sifatini yaxshilash ta’minlanmoqda. Uning fuqarolik jamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni zamon tahdidlarini samarali yengib o‘tish va mamlakatning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

ZJV5401

MAHALLALARDA IJTIMOIY INTEGRATSIYA MODELI: OILA, TA’LIM VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI

Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich,
iqtisod fanlari nomzodi, professor,
Jizzax politexnika instituti
“Arxitekturaviy loyihalash”
kafedrasi professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahallalarda ijtimoiy hamkorlik modelini takomillashtirish masalasi “mahalla - maktab - oila” uchligi samaradorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida tarbiyaviy jarayonni tizimli tashkil etish zarurati asoslab berilgan. Amaliyotda uch subyekt o‘rtasidagi hamkorlik yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi muammo sifatida qo‘yilgan. Muammoni hal etish maqsadida “Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” modelini joriy etish taklif etilgan. Tadqiqot natijalari ushbu modelning ota-onalar faolligini oshirish, profilaktik yondashuvni kuchaytirish hamda ma’naviy muhitni barqarorlashtirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Model jamiyatning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Mahalla, maktab, oila, integratsiya, hamkorlik, profilaktika, tarbiya, ma’naviyat.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda mahalla institutini mustahkamlash, ta’lim sifatini oshirish va oila institutini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mahallalarning ijtimoiy boshqaruvdagi roli kengaytirildi, “mahallabay” ishlash mexanizmi joriy etildi, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlashning yangi tashkiliy modeli shakllantirildi [1:1]. Ta’lim tizimida esa maktab va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish, tarbiyaviy ishlarni zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy muhitni sog‘lomlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu islohotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxs tarbiyasi va jamiyat ma’naviy yuksalishi masalasi endilikda faqat maktab doirasida emas, balki mahalla va oila bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rilmoqda. Chunki, bola kamoloti bu uch muhitning o‘zaro uyg‘un ta’siri natijasidir. Shu nuqtayi nazardan, “mahalla - maktab - oila” uchligi samaradorligini ilmiy asosda o‘rganish, ularning integratsiyalashgan faoliyat mexanizmlarini aniqlash va baholash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga qaramay, amaliyotda “mahalla - maktab - oila” uchligi faoliyati yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi kuzatilmoqda. Ko‘plab hollarda hamkorlik tadbirlari epizodik yoki rasmiy tavsif kasb etadi. Maktab va mahalla o‘rtasidagi aloqalar ko‘pincha muayyan muammo yuzaga kelgandagina faollashadi, profilaktik va tizimli ishlar esa sust amalga oshiriladi. Shuningdek, ota-onalarning ta’lim jarayonidagi ishtiroki ham bir xil darajada emas. Ba’zi oilalarda tarbiyaviy mas’uliyat maktab zimmasiga yuklatilsa, ayrim hollarda mahalla bilan aloqalar yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada tarbiya jarayonida uzviylik buziladi, mas’uliyatning aniq chegaralari belgilanmaydi va yagona maqsad sari yo‘naltirilgan hamkorlik mexanizmi shakllanmay qoladi.

Demak, asosiy muammo, mahalla, maktab va oila o‘rtasida samarali, tizimli va barqaror integratsion modelning yetarli darajada shakllanmaganligidadir.

Mazkur muammoni bartaraf etish uchun mahallalarda “Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” ning doimiy faoliyat yurituvchi modelini joriy etish taklif etiladi. Ushbu kengash tarkibiga mahalla raisi, maktab rahbariyati, sinf rahbarlari, ota-onalar qo‘mitasi vakillari hamda faollar kiritilib, ular faoliyati aniq reja va mezonlar asosida yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Shu tariqa, mahalla - maktab - oila uchligi o‘rtasida institutsional integratsiyani yo‘lga qo‘yish orqali shaxs kamoloti va jamiyat ma’naviy yuksalishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Mahallalarda “Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” ning doimiy faoliyat yurituvchi modelini joriy etish ijtimoiy hamkorlikni institutsional asosga qo‘yishga xizmat qiladi [2:3]. Ushbu modelning amaliy sinovdan o‘tkazilishi natijasida tarbiyaviy jarayonning uzviyligi

ta’minlanishi, mas’uliyat taqsimotining aniqlashuvi va ijtimoiy muhitning barqarorlashuvi kuzatilishi mumkin.

Natijalarni baholash jarayonida quyidagi asosiy vazifalar mezon sifatida olindi:

1. Hamkorlikning tizimliligi; 2. Ota-onalar ishtiroki darajasi; 3. Profilaktik ishlar samaradorligi; 4. O‘quvchilar ijtimoiy faolligi [3:2]; 4. Ma’naviy-ma’rifiy muhitning barqarorligi.

Quyidagi 1-jadvalda model joriy etilishidan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlar shartli tajriba natijalari asosida taqqoslab berildi.

“Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” modeli samaradorligi

1-jadval

№	Vazifa yo‘nalishi	Model joriy etilishidan oldin	Model joriy etilgandan so‘ng	O‘zgarish dinamikasi
1	Hamkorlik yig‘ilishlari muntazamligi	Yiliga 2–3 marotaba, epizodik	Har oy reja asosida	+ tizimlilik
2	Ota-onalar ishtiroki	40–50 % atrofida	75–85 % gacha	+ 30 % o‘sish
3	Muammoli o‘quvchilar bilan profilaktika	Reaktiv (muammo yuzaga kelgach)	Preventiv (oldindan monitoring)	Sifat jihatdan yaxshilanish
4	Ijtimoiy-ma’naviy tadbirlar soni	Chorakda 1–2 ta	Oyiga 2–3 ta	+ 2 barobar oshish
5	Intizomiy holatlar (shartli ko‘rsatkich)	100 % deb olindi	65–70 % gacha kamayish	− 30–35 % kamayish
6	O‘quvchilarning jamoatchilik faolligi	Past va sust	Faol guruhlar shakllangan	Barqaror ijobiy siljish

Manba: 1-jadval ma’lumotlari muallif tomonidan ishlab chiqildi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hamkorlik kengashi faoliyatining tizimli yo‘lga qo‘yilishi birinchi navbatda uch subyekt o‘rtasidagi aloqalarni muntazamlashtirdi. Ilgari epizodik tavsif kasb etgan uchrashuvlar endilikda aniq reja asosida o‘tkazilishi natijasida muammolarni erta aniqlash imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ota-onalar ishtirokining 30 foizga oshgani oilaning tarbiyaviy jarayondagi mas’uliyatini kuchaytirganini ko‘rsatadi. Profilaktik ishlarning muammo chiqqandan keyin bilish (reaktiv) shaklidan muammoning oldini

olish (profilaktik) shakliga o‘tishi esa muammolarni bartaraf etish emas, balki ularning oldini olish mexanizmini shakllantirganini anglatadi.

Intizomiy holatlarning kamayishi va o‘quvchilar faolligining ortishi mahalla, maktab va oila o‘rtasidagi integratsiya ijtimoiy muhitga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar sonining oshishi yoshlar ongida jamoaviylik, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, “Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” modeli ijtimoiy hamkorlikni tizimli asosga qo‘yish orqali jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlashda samarali mexanizm bo‘la olishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar “Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” modelining ijtimoiy hamkorlikni tizimlashtirishda samarali mexanizm bo‘la olishini ko‘rsatadi. Muhokama jarayonida natijalarni uch asosiy institutsional integratsiya, profilaktik yondashuv samaradorligi va ijtimoiy kapitalning oshishi nuqtayi nazardan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

1. Institutsional integratsiya nuqtayi nazaridan natijalar shuni ko‘rsatdiki, hamkorlikning doimiy kengash shaklida tashkil etilishi subyektlar o‘rtasidagi mas’uliyatni aniqlashtirdi. Ilgari epizodik tavsifga ega bo‘lgan uchrashuvlar reja asosida o‘tkazilishi boshqaruv jarayonini tizimli bosqichga olib chiqdi. Ilmiy jihatdan bu holat ijtimoiy boshqaruvning muvofiqlashuv modeliga mos keladi. Ya’ni, uch mustaqil subyekt (mahalla, maktab, oila) yagona maqsad atrofida muvofiqlashtirilgan holda faoliyat yuritganda samaradorlik oshadi. Natijalarda kuzatilgan intizomiy holatlarning kamayishi va ota-onalar ishtirokining ortishi aynan mana shu institutsional uyg‘unlik natijasidir.

2. Profilaktik yondashuv samaradorligi nuqtayi nazaridan reaktiv (muammo yuzaga kelgandan keyingi) yondashuvdan profilaktik (oldini oluvchi) yondashuvga o‘tish muhim metodologik o‘zgarish hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, profilaktik monitoring va muntazam muloqot tizimi yo‘lga qo‘yilgach, muammoli vaziyatlar soni kamaygan. Bu jarayon pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan ham asoslidir. Chunki, erta aniqlangan xavf omillari vaqtida bartaraf etilsa, salbiy xulq-atvor shakllanishi ehtimoli pasayadi. Demak, hamkorlik kengashi faqat

muammolarni hal etuvchi emas, balki ularni oldini oluvchi mexanizm sifatida ham namoyon bo‘ladi.

3. Ijtimoiy kapital va jamoaviylikning oshishi nuqtayi nazaridan esa o‘quvchilarning jamoatchilik faolligi ortgani hamda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar sonining ko‘paygani ijtimoiy kapitalning oshganidan dalolat beradi. Ijtimoiy kapital deganda jamiyat a’zolari o‘rtasidagi ishonch, hamkorlik va birdamlik darajasi tushuniladi. Mahalla, maktab va oila o‘rtasidagi ishonchli muloqot muhiti shakllanganda o‘quvchi o‘zini nazorat ostidagi subyekt emas, balki jamoaning faol a’zosi sifatida his qiladi. Bu esa uning fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy ongining rivojlanishiga xizmat qiladi.

4. Cheklovlar va ehtiyot choralar nuqtayi nazaridan modelning samaradorligi to‘liq rahbariyat faolligi, ota-onalar mas’uliyati va mahalla resurslariga bog‘liqdir. Agar kengash faoliyati rasmiy tus olsa yoki monitoring sustlashsa, natijalar barqaror bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun modelni joriy etishda doimiy nazorat va baholash mexanizmini saqlab qolish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” modeli ijtimoiy hamkorlikni institutsional asosda tashkil etish orqali tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, profilaktik yondashuvning ustuvorligi, mas’uliyatning aniq taqsimlanishi va muntazam muloqot tizimi jamiyat ma’naviy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, mazkur model Yangi O‘zbekiston sharoitida mahallalarda ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishning amaliy va ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni qayd etish joizki va bu boradagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, hamkorlik kengashi modeli orqali ota-onalar faolligi oshadi, o‘quvchilarning ijtimoiy mas’uliyati mustahkamlanadi va intizomiy muammolar kamayadi. Eng muhimi, tarbiya jarayoni yaxlitsiz (fragmentar) emas, balki uzviy va yaxlit tizim sifatida ishlay boshlaydi.

Shu asosda mazkur jarayonni takomillashtirish nuqtayi nazaridan quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Mahallalarda “Mahalla - maktab - oila hamkorlik kengashi” ni me’yoriy-huquqiy jihatdan mustahkamlash va uning faoliyat reglamentini ishlab chiqish.

2. Kengash faoliyatini aniq mezonlar asosida baholash tizimini joriy etish, jumladan, profilaktik ishlar, ota-onalar ishtiroki va ijtimoiy faollik ko‘rsatkichlarini monitoring qilish.

3. Mahalla va maktab xodimlari uchun ijtimoiy hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus treninglar tashkil etish.

Umuman olganda, “Mahalla - maktab - oila” uchligi samaradorligini oshirish Yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Integratsiyalashgan hamkorlik modeli nafaqat yosh avlod tarbiyasini, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va fuqarolik ongini mustahkamlashga ham zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Айнакулов М. А., Абдухамидов Э. Нормативно-правовая база интеграtsионных отношений хозяйствующих субъектов // Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 80-83.

2. Гаппаров Б. Н., Жуланов И. О. Традиции трудового воспитания узбекского народа (на примере работ восточных мыслителей) // Общество. – 2020. – №. 1. – С. 66-68.

3. Соатов А. М. Новые идеи и инструкции в системе образования в современных условиях // Экономика и социум. – 2022. – №. 2-1 (93). – С. 485-490.

MA’NAVIY MAKON – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI

Mavrulova Munisa Abduxalilovna
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Madaniyat va san’at menejmenti” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlar doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada ma’naviy makon tushunchasining mazmun-mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni asrash va rivojlantirish masalalari yoritilib, ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish orqali yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash zarurligi asoslab beriladi va tahliliy jihatdan ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy makon, jamiyat taraqqiyoti, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, ma’rifat, globallashuv, ijtimoiy barqarorlik, yoshlar tarbiyasi, madaniy meros, axloqiy qadriyatlar.

Madaniyat va ma’naviyat insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchiga aylanganligini har qanday mamlakat va millat ijtimoiy taraqqiyotning kafolati sifatida talqin qilish mumkin. Kishilik jamiyatining barcha davrlari uchun o‘ziga hos ijtimoiy-ma’naviy muhit mavjudligi kabi, shaxs kamolatida ham uning tub ma’naviy-ruhiy ehtiyojlariga mutanosib ravishda madaniy makon yuzaga keladi. Ushbu makon esa, o‘z navbatida odamzotni taraqqiyotning yangi bosqichlari sari yo‘naltiradi, ularni ma’naviy-ruhiy jihatdan boyitib boradi.

Bu jarayon tinimsiz davom etib boradi. Shu tariqa, jamiyat a’zolarining madaniy-ma’naviy ehtiyojlari shakllana boradi. Natijada, mazkur ehtiyojlar alohida iqtidor va iste’dodga ega bo‘lgan shaxslardan kishilar ma’naviy olamini shakllantirish maqsadida yangi, zamonga mos madaniyat va ma’naviyat asarlarining paydo bo‘lishiga imkon beradi.

Har bir tarixiy davrda yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar shu davr ijtimoiy talabidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos ijtimoiy-ma’naviy samara beradi. Bu esa jamiyatning taraqqiyot yoki tanazzulga uchrashiga ta’sir qiladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, madaniyat va ma’naviyat jamiyat va davlatlar tarixiy taqdirida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘ladi.

Bu borada madaniyat, san’at, ma’rifatning inson va jamiyat taraqqiyoti uchun qanchalar darajada muhim ekanligini, bu fenomen hodisalar xalqning o‘zligini saqlash, uni yangi sifatlar bilan boyitib borishdagi rolini alohida ta’kidlagan holda, mamlakat rahbari shunday deydi: “Mana, bugun ma’naviy-ma’rifiy sohada masala qanday o‘tkir va ko‘ndalang bo‘lib turibdi. Odamni jiddiy o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan savollar. Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “O‘zbekiston”, degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga butun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

O‘zbek xalqi madaniy-ma’naviy qadriyatlari tizimida undan har doim milliy ruhni shakllantirish, jamiyat barqarorligini ta’minlash, milliy birlikni shakllantirishda foydalanib kelingan. Madaniyat va san’at, ayniqsa, ma’naviyat va marifat masalalariga inson hayoti uchun zarur bo‘lgan oddiy hodisa sifatida emas, balki uning barkamolligini tarbiyalaydigan, millat va davlat manfaatlari uchun ma’sullik darajasini oshirishning muhim omili vositasi deb qaralgan.

Musulmon sharqida, inson taraqqiyoti hattoki uning salomatlik masalasida ham ko‘plab omillar madaniyat, ma’naviya, tarbiya bilan bevosita bog‘lanib o‘rganilganligini ko‘rish, chunonchi, bu holatni falsafa ilmi misolida ko‘rish mumkin. Musilmon Sharqi falsafiy tafakkurida falsafani ma’naviy tibbiyot ilmi sifatida qarash an’anasi shakillangan edi: Falsafa inson ruhini salomatlashtirish va uni turli xastaliklardan (illatlardan) davolash vositasi tarzida qaraladi. Mana shunday metodologik tamoyildan turib sharq mutafakkirlari-peripatetiklari axloq ilmining maqsad va vazifalarini belgilaganlar.

Axloqiy hissiyotlar va me’yorlarning manbaiga doir masalada ular axloqiy sifatlarning tug‘ma (tabiiy)ligini tan olmaganlar. Shuning uchun yaxshi axloqiy xulqlar muayyan tarbiyaning natijasi deb qaralgan. Masalan,

Ibn Sino Forobiy fazilatli shahar va jaholatli shahar timsolida adolatli, pok, jasur bo‘lishning eng muhim omili ruhni tarbiyalashda ekanligini ta’minlaydi. Ruhni doimo o‘zidan ko‘ngil to‘lmaslikka o‘rgatish lozimligi to‘g‘risidagi g‘oya bugun ham O‘zbekiston jamiyatini ma’naviy-mafkuraviy jihatdan mustahkamlashdagi ustuvor tamoyilga aylangan.

Mutafakkirning fikricha, fazilatli shaharlar aholisi, ularning ruhlari avvalgi ajdodlari qoldirgan ma’rifat va ma’naviyatni o‘zlashtirib, kamolatga yetishganlari sababli moddiy mol-mulklarga kishanlanib, qattiq bog‘lanib qolmaydilar. Ular aslda, fitratdan vijdonli, sofdil bo‘lganligi sababli dunyoviy hayotda ba’zi yomon xulqlarga berilib, gunoh, yomon ishlar qilgan bo‘lsalar, vijdonan, ruhan azoblanmoqdalar, avvalgi fazilatlari bunday tuban ishlarga qarshilik ko‘rsatadilar va shu sababli yana azoblanadilar.

Darhaqiqat, har qanday mamakatda bo‘lmasin, milliy taraqqiyotga to‘siq bo‘ladigan eng katta illat xalqning madaniy-ma’rifiy jihatdan ojizligi, hukmron siyosiy kuchning mazkur sohaga bo‘lgan e’tiborsizligi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ijtimoiy taraqqiyot, milliy yuksalishni o‘z oldiga rivojlanishning eng muhim omili sifatida tan olgan har qanday jamiyatda o‘sish, takomillashuv jarayonini kuzatish mumkin.

Ushbu haqiqatga erishishning eng ishonchli ko‘rinishi madaniyat, ma’naviyat jabhasida olib borilayotgan ishlarning samaradorlik darajasiga bog‘liq. Keyingi paytlarda “ijtimoiy samaradorlik” tushunchasi hayotimizga keng kirib kelmoqda, “Ijtimoiy samaradorlik” jamiyat hayotining barcha sohalarida ishlatiladigan atama hisoblanadi.

Uning ishlab chiqarish, ayniqsa, sanoat sohasidagi samaradorlik darajasi, ko‘rsatkichlarning darrov aniqlash mumkin. Huddi shuningdek, siyosat bobida, ijtimoiy masalalarni hal etishda, agar bu borada to‘g‘ri yo‘l tanlansa, tezlikda aniq samaradorlikka erishsa bo‘ladi.

Biroq madanit, ayniqsa, ma’naviyat va ma’rifat sohasida bunga erishish oson emas. Chunki madaniyat, ma’naviyat jabhalaridagi samaradorlikka asosan inson, uning xarakteri, ruhiyati, tafakkur tarzi kabi jarayonlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Madaniy, ma’naviy-ma’rifiy sohada olib borilayotgan ishlarni samaradorlik darajasini aniqlashning mukammal indekatorlari hozircha

mavjud emasligini alohida ta’kidlash kerak. Biroq olim, mutaxassislar bu boradagi samaradorlikni turlicha tarzda baholashni tavsiya etadilar. Ayrimlar ma’naviy, ma’rifiy soha ish samaradorligini shaxs tarbiyasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘lasalar, boshqalari uning vatanparvarligi, yana boshqalar axloqiy sifatlari bilan o‘zaro uyg‘unlikda aniqlashga harakat qiladilar.

Shubhasiz, yuqorida keltirilgan dalillarning har birida o‘ziga xos ratsional asos bor. Biroq bugun O‘zbekiston olimlarining mazkur masalalarda umumiy tarzda bo‘lsa-da o‘xshashlik fikrlari yo‘qligini qayd etish kerak. Madaniy va ma’naviy faoliyat natijalarni aniqlashda mavhumlikka yo‘l qo‘yish aslo mumkin emas. Huddi iqtisodiyot, siyosatda bo‘lgani kabi, o‘rganilayotgan jabhalarda ham samaradorlik ko‘rsatkichlari aniq natijalarga ega bo‘lishi kerak.

Bu masala keyingi paytlarda O‘zbekistonda alohida e’tibor berish uchun dastlabki qadamlar tashlandi. Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi qarori bilan “Manaviyat targ‘ibotchisi” ta’lim muassasasi negizida Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi.

Institut oldiga ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta’sirchan texnologiyalari hamda usullarini yaratish, jamiyatda ma’naviy-targ‘ibot ishlarining monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqarishdan iborat vazifalar yuklandi.

Qayd etish kerakki, hali O‘zbekistonda ijtimoiy-ma’naviy muhitni o‘rganish, baholashning mukammal metodikasi, texnologiyalar mavjud emasligi kabi, madaniyat va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini aniqlashning ham umume’tirof etilgan indekatorlari ishlab chiqilmagan.

Mavjud ko‘rsatkichlar asosan sohaning iqtisodiy, moddiy texnikaviy va tashkiliy ko‘rstkichlarini o‘zida aks ettiradi xolos. Biroq, masalaning mazmun mohiyati, faoliyatning jamiyat va shaxs madaniy-ma’naviy olamiga ta’sir jarayoni, uning dinamikasini tahlil etish, baholash mezonlari ishlab chiqilmadi. Buni tashkil etilgan “ Madaniyatshunoslik va nomoddiy meros ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan “2024-2026

Madaniyatshunoslik va nomoddiy meros ilmiy tadqiqot instituti faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadli ko‘rsatkichlari (indekatorlari)” misolida ham ko‘rish mumkin.

Ushbu indekatorlar uchta kursatkichdan iborat bo‘lib, ular a) yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash; b) professor o‘qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati natijalari; v) xalqaro hamkorlikni kengaytirishni nazarda tutgan xolos. Ya’ni asosiy e’tibor masalaning tashkiliy jihatlariga e’tibor berilgan.

Yuqorida nomi tilga olingan “Ijtimoiy ma’naviy muhitni baholash texnologiyasi”da “Hududlar faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy sohaga oid vazifalarning bajarilishini o‘rganish bo‘yicha baholash mezonlari” ham ishlab chiqildi. Mazkur mezon 10 tadan iborat etib belgilangan. Ular quyidagilardan iborat. 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, qaror, farmoyishlari, Vazirlar mahkamasi hujjatlari ijro holati. 2. A’naviyat va ma’rifat kengashi faoliyati. 3. “Yo‘l xaritasi”ning ishlab chiqilganligini (viloyatda 45 ta, tumanda 20 ta, tashkilot bilan imzolanganligi). 5. Hududlarda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va samaradorligini oshirish borasida shakllangan o‘ziga xos tajribalar. 6. Ma’naviyat va ma’rifat holatlarining tashkil etilganligi (moddiy texnikbazasi). 7. Davlvt tlida ish yuritish.

Ushbu mezonlar ham asosan masalaning moddiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Madaniyat va ma’naviyat sohasi ijtimoiy samaradorlikning aniqlashnig yagona indekatori yaratilmagan. Mazkur masalani barcha mamlakatlar va xalqlar uchun umumiylikda yaratishning ham imkoni yo‘q. Chunki bunarsa davlatlar va xalqlarning mentaliteti, milliy madaniy merosi, milliy qadriyatlar tizimiga, shuningdek, aniq tarixiy davrdagi makon va zamon mazmuniga ham bog‘liq.

Qay etilgani kabi madaniyat va ma’naviyat sohasi ijtimoiy samaradorligini belgilashda, masalan, totalitar jamiyatlarda hukmron siyosiy mafkuraning maqsadlaridan kelib chiqiladi. Bunday jamiyatlarda aholining milliy-madaniy ehtiyojlari mutlaqo e’tiborga olinmaydi. Bu ehtiyojlar siyosiy rahbarlar tomonidan “tanlab beriladi”. Ochiq, demokratik

davlat va fuqarolik jamiyatiga asoslangan mamlakatlarda esa bu jarayon millatning milliy ehtiyojlari tuqtai nazaridan aniqlanadi.

Hozirgi sharoitda O‘zbekistonda madaniyat sohasining ijtimoiy samaradorligini baholashda quyidagi omillarga e’tibor berish maqsadga muvofiq.

1. Madaniy, ko‘ngil ochar tadbirlar natijasida aholining katta qismida milliy madaniyat va san’atga nisbatan shakllanadigan ijobiy munosabat

2. Odamlarda o‘z milliy madaniyatidan fahrlanish ruhining paydo bo‘lishi, uni avaylab-asrab rivojlantirish va kelgusi avlodlarga bekamiko‘st yetkazib berish uchun ma’suliyat hissining shakllanishi.

3. Jamiyat a’zolarida milliy madaniyat va san’atga bo‘lgan qiziqishining tobora ortib borishi, bu jarayonning mutasil rivojlanish dinamikasida aks etishi.

4. Milliy taraqqiyotga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadigan va milliy madaniyatni zamonaviy usullarda taraqqiy ettirishga imkon beradigan yangi yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash.

5. Jamiyat a’zolarining madaniy qiyofasidagi sifat o‘zgarishlari, ularning shaxs madaniyati, insonlararo munosabatlardagi maqsadga muvofiqlik va boshqalar.

Ushbu ko‘rsatkichlar, so‘zsiz, shaxs madaniy olamini boyitadi, jamiyatda barqaror madaniy-ma’rifiy muhitning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, mamlakat ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishga ko‘mak beradi.

Madaniyat va san’atning shaxs ma’naviy olamiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilayotgan tadqiqotlar sub’ektining anashu fenomen hodisaga munosabatini aniqlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Rossiya federatsiyasida o‘tkazilgan ana shunday tadqiqotlardan birida o‘z ijtimoiy-psixologik tipi bo‘yicha to‘rt guruh bo‘linib olindi. Har bir guruh o‘z madaniy-ma’naviy saviyasi, madaniyat va san’atga nisbatan munosabatiga alohida o‘rin berdi.

Natija shundan iborat bo‘ldiki, insonning qay darajada, shaxs bo‘lib shakllanishi uning badiiy-madaniy saviyasining darajasiga qarab belgilanadi. Inson qanchalar darajada madaniy-ma’naviy boy bo‘lsa, uning

ma’naviy olami intelektual qobiliyati bilan uyg‘unlik darajasi yuqori bo‘lsa, bu o‘z navbatida sub’ektning madaniyat va san’atga bo‘lgan munosabatidagi dinamikada o‘z aksini ko‘rsatdi.

Madaniyat va san’at soxasida olib borilayotgan ishlarning samaradorlik darajasini aniqlashda yana bir muhim masalaga e’tibor berish maqsadga muvofiq. Ya’ni, jamiyat taraqqiyotining darajasi barcha sohalarning uyg‘un rivojlanishini talab etadi. Iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy masalalarning barqaror rivojlanishi madaniy-gumanitar jabhaning yuksalishiga ta’sir etgani kabi, madaniyatning boshqa sohalarga ta’siri ham jamiyat umumiy taraqqiyotning muhim omillari hisoblanadi.

Ma’lumki, dunyoda millatning intelektual rivojlanganlik darajasini aniqlaydigan ko‘plab indekatorlar mavjud. Ular millatning jaxon miqyosidagi o‘rnini aniqlashdan tortib to Nobel mukofoti sonlar, ta’im va yangi, innovatsion texnologiyalar tizimiga sarflanadigan investitsiyalar miqdorigacha bo‘lgan ma’lumotlardan iborat bo‘ladi. Intelektual rivojlanish indekatorlarining ko‘rsatkichlari juda ko‘p bo‘lib, ularning orasida milliy kitobxonlik darajasi, kitob bozori, undan foydalanish samarasi kabi omillar alohida o‘ringa ega.

Yuqoridagi ma’lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakat va millat taraqqiyot, jamiyat farovonligi ko‘p jihatdan xalqning kitobxonlik madaniyatiga bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlar juda keng rivojlanib borayotganda bir davrda kitob, kitobxonlik madaniyatining o‘rnini hech bir narsa qoplay olmaydi. Bu masalada O‘zbekistonda talay jiddiy ishlar amalga oshirilayotganini ta’kidlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada masalalariga bag‘ishlangan videoselektordagi nutqidan.

2. Mirziyoyev Sh. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir. – T.: “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 36 b.

3. Mirziyoyev M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – 5. 440.

4. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Asarlar. 1-jild. O‘zbekiston, NMIU, 2017. – 592 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrdagi PQ-405-son “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 340-son qarori.

8. Quronov M., To‘raev Sh., Daminov E., Bozorov O. Milliy tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. – T., 2017. – 284 b.

9. Mavrulov A. Vatanni sevish mas’uliyati. – T.: “Sano-standart”, 2016. – B. 52, 71.

10. Mavrulov A. Ma’naviy barkamol inson tarbiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2008. – B. 22.

11. Boboev H., G‘ofurov Z. O‘zbekistonda siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlar taraqqiyoti. – T.: 2001. – B. 480.

ZJV5401

VIRTUAL REALLIK VA RAQAMLI MAKON SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

To‘rayev Kamoliddin
Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada kompyuter texnologiyalari va virtual rellikning bolalarga ta’siri tadqiq qilingan bo‘lib, bu ta’sirning ijobiy va salbiy tomonlari muhokama qilingan. Mualliflar tomonidan onlayn o‘yinlar va virtual olamga qaramlik tufayli bolalar turmush tarzidagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarga, bu hodisalarni falsafiy tahlil qilish zarurligiga alohida e’tibor berilgan. Shuningdek, bolalarda internet va kompyuterdan samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: virtual reallik, kompyuter texnologiyalari, bolalar, ijtimoiy muammolar, ta’lim, ijtimoiy va gumanitar fanlar, onlayn o‘yinlar.

XXI asr insoniyat taraqqiyoti tarixida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari misli ko‘rilmagan sur’atlarda rivojlanayotgan davr sifatida tavsiflanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar inson hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borib, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlar “axborot jamiyati”, “raqamli jamiyat”, “virtual makon” kabi tushunchalarning ilmiy va falsafiy tahlil markaziga aylanishiga sabab bo‘ldi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida inson faoliyatining yangi shakllari paydo bo‘ldi. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, virtual muhit va sun’iy intellekt texnologiyalari insonlar o‘rtasidagi muloqot, bilim almashinuvi va ijtimoiy munosabatlarni tubdan

o‘zgartirmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ijtimoiy ongi va dunyoqarashi shakllanishida raqamli muhitning ta’siri tobora kuchayib bormoqda.

Hozirgi kunda jahonda internet foydalanuvchilari soni 5 milliarddan ortiqni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich dunyo aholisining qariyb 65 foizini qamrab olganini anglatadi. Yoshlar esa internet foydalanuvchilarining asosiy qismini tashkil etadi. O‘zbekistonda ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechmoqda. So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda internet foydalanuvchilari soni 30 millionga yaqinlashdi.

Bu holat yoshlarning axborot muhiti bilan bog‘liq faoliyati keskin ortganini ko‘rsatadi. Shu sababli raqamli makonda yoshlar axborot madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ijtimoiy-falsafiy vazifalardan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:

“Bugungi kunda zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli yoshlar – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi.”

Bu fikr yoshlarni raqamli muhitda to‘g‘ri yo‘naltirish va ularda axborot madaniyatini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Nazariy tahlil

Axborot jamiyati nazariyasi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda muhim o‘rin egallaydi. Bu sohadagi ilmiy konsepsiyalardan biri ispan sotsiologi Manuel Kastells tomonidan ishlab chiqilgan “Network Society” (tarmoq jamiyati) nazariyasidir. Uning fikricha, zamonaviy jamiyatda asosiy resurs moddiy boylik emas, balki axborot va bilim hisoblanadi. Internet va global kommunikatsiya tarmoqlari inson faoliyatining barcha sohalarini bir-biri bilan bog‘lab, yangi ijtimoiy muhitni shakllantiradi.

Amerikalik futurolog Alvin Toffler esa “Uchinchi to‘lqin” asarida insoniyat taraqqiyotini uch bosqichga ajratadi: agrar sivilizatsiya, industrial sivilizatsiya va axborot sivilizatsiyasi. Uning ta’kidlashicha, axborot sivilizatsiyasi sharoitida bilim va axborot jamiyat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi.

ZJV5401

Marshall Maklyuen esa kommunikatsiya nazariyasida “Global village” (“Global qishloq”) konsepsiyasini ilgari surgan. Uning fikricha, elektron axborot vositalari dunyo aholisini yagona axborot maydonida birlashtirib, insoniyatni o‘zaro bog‘liq global jamiyatga aylantiradi.

Bu nazariyalar zamonaviy raqamli makonning inson ongi va ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Virtual reallik tushunchasi ham zamonaviy falsafada muhim o‘rin tutadi. “Virtual” atamasi lotincha “virtus” so‘zidan olingan bo‘lib, “imkoniyat”, “potensiallik” ma’nolarini anglatadi. Zamonaviy falsafada virtual reallik inson tomonidan yaratilgan sun’iy muhit bo‘lib, u real voqelikning muayyan modellarini aks ettiradi.

Virtual muhit insonning kognitiv jarayonlari, emotsional holati va ijtimoiy munosabatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli virtual muhitda axborot madaniyatini shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega.

Raqamli makon va yoshlar ongiga ta’sir

Raqamli muhit yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar yoshlarning muloqot madaniyati, dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda yoshlar kunning o‘rtacha 4–6 soatini internetda o‘tkazishi kuzatilmoqda. Ayrim tadqiqotlarda esa bu ko‘rsatkich yanada yuqori ekani qayd etilgan. Internet orqali ta’lim olish, axborot izlash va muloqot qilish imkoniyatlari kengaygani bilan birga, virtual muhitda turli salbiy ta’sirlar ham mavjud.

Xususan:

- internetga qaramlik
- virtual o‘yinlarga bog‘lanish
- manipulyativ axborotlar
- ekstremistik g‘oyalar
- dezinformatsiya

kabi holatlar yoshlar ma’naviy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu haqda quyidagilarni ta’kidlaydi:

“Bugungi tezkor axborot zamonida yoshlarimiz ongini turli zararli g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularni mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalash muhim vazifadir.”

Bu fikr yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ta’lim tizimida axborot madaniyatini shakllantirish

Axborot madaniyati – bu shaxsning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi.

Bu tushuncha quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- axborot savodxonligi
- mediasavodxonlik
- tanqidiy tafakkur
- raqamli madaniyat

Ta’lim tizimi yoshlarda ushbu ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari – elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, multimedia platformalar va masofaviy ta’lim tizimlari axborot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Masalan:

- virtual laboratoriyalar
- elektron kutubxonalar
- onlayn ta’lim platformalari
- raqamli simulyatsiyalar

o‘quvchilarning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Amaliy takliflar

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. ta’lim muassasalarida mediasavodxonlik kurslarini joriy etish
2. yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish
3. internetdan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish
4. oila va ta’lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish
5. yoshlar uchun xavfsiz axborot muhitini shakllantirish

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, virtual reallik va raqamli makon sharoitida yoshlar axborot madaniyatini shakllantirish zamonaviy jamiyatning muhim

ijtimoiy-falsafiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimida axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, yoshlarni tanqidiy tafakkurga o‘rgatish va ularda mediasavodxonlikni rivojlantirish raqamli jamiyat sharoitida barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Nazarov K. G‘oyalar falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2011.
3. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
4. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980.
5. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 2003.
6. Ionin L.G. Sotsiologiya kultury. – Moskva: Logos, 2009.
7. Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
8. Bozorov O. Milliy g‘oya va targ‘ibot samaradorligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.

ZJV5401

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA G‘OYAVIY TAHDIDLAR VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH MEXANIZMLARI

Sultonov Fozil Hojiyevich
Jamoat arbobi, Turon FA
akademigi
Hojiyev Farhod Jumaboevich
O‘zDJTU mustaqil tadqiqotchisi,
O‘zMTRK “O`zbekiston 24”
telekanali
bosh muharriri,

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahonda ko‘pqutblilik jarayonlari va ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar kuchayib borayotgan sharoitda fuqarolar ongi va dunyoqarashiga axborot orqali ta'sir ko‘rsatish masalalari tahlil qilingan. O‘zbekistonda yagona ma'naviy makonni shakllantirish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash milliy xavfsizlikning ustuvor yo‘nalishi sifatida asoslab berilgan. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, feyk axborot va salbiy kontent tahdidlari yoritilgan. G‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashishda media savodxonlikni oshirish, milliy kontentni rivojlantirish va ta'lim-tarbiya tizimi bilan uyg‘un hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot xavfsizligi, mafkuraviy immunitet, yagona ma'naviy makon, media savodxonlik, yoshlar siyosati, g‘oyaviy xuruj, globallashuv, milliy g‘oya, barqarorlik, raqamli transformatsiya, tafakkur, ijtimoiy tarmoqlar, bloger.

Jahonda ko‘pqutblilik jarayonlarining jadallashuvi, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarning kuchayib borayotganligi sabab fuqarolarning ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish, tafakkurini boshqarishga bo‘lgan g‘oyaviy kurash tobora keskinlashib bormoqda. Fuqarolar ongi va dunyoqarashiga ta'sir o‘tkazish, ijtimoiy fikrni shakllantirish va yo‘naltirish global raqobatning asosiy vositasiga aylandi. Bunday sharoitda O‘zbekistonda

yagona ma'naviy makonni shakllantirish va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash milliy xavfsizlikning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Fuqarolarning siyosiy ongi va faol fuqarolik pozitsiyasini yuksaltirish – jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotning muhim omilidir.

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2025-yil 26- dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida: “Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayoni faqat iqtisodiy islohotlar bilan cheklanmay, avvalo inson ongi va tafakkuridagi o‘zgarishlarga tayanadi”, deb alohida ta'kidladi[1]. Bu fikr bejizga aytilmadi. Bugungi kunda fuqarolar, ayniqsa yoshlar dunyoqarash to‘g‘ri shaklantirish, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini oshirish juda ham muhim. Ularda daxldorlik tuyg‘usini paydo qilmasdan turib kutilgan natijalarga erishish mushkul. Ta'kidlash lozim, bu dolzarb masalani yechishda ta'lim muassasalari, oila, mahalla, xususan ommaviy axborot vositalarining(OAV) alohida o‘rni bor.

Tarmoqli biznesning tajribali yetakchisi, olamga mashhur xitoylik marketolog Chen Chjanning kitobida shunday ma'lumot keltiriladi: “83% holatda odamlar ko‘rish, 11% eshitish, 3,5% hid bilish, 1,5% sezish, 1% ta'm bilish orqali o‘rganadi. Adabiyotni o‘qish 10%, eshitish 20%, ko‘rish 30%, ham ko‘rish, ham eshitish 50%, axborot tarkibini muhokama qilish 70%, qabul qilingan ma'lumotni amaliyotda qo‘llab, natijasini tahlil qilish esa axborotning 90%ini eslab qolishga yordam beradi[2]. Chen Chjan keltirgan ushbu ma'lumotlar axborotning ta'sir xususiyatlari haqida muayyan asosli xulosalarni beradi. Ma'lumki, radiokanallarda berilayotgan ma'lumotlarning 20% ni tinglovchi eslab qolishi mumkin. Televideniye orqali esa axborotlarning 50%i tomoshabinning xotirasida qoladi. Televideniye – millionlar auditoriyasi, informatsiya olishning eng qulay, eng ta'sirchan vositasidir[3]. Jamiyatni ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular faoliyati va ta'sir kuchi takomillashib bormoqda. Ayniqsa internet imkoniyatlari ular faoliyatini yanada jadallashtirdi. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda turli saviyasiz kontentlarni(matni, audio, video) bilganicha tayyorlab uni tarqatuvchi blogerlar ko‘paydi. Ayrim yoshlar blogerlar tomonidan tarqatilayotgan

ma'lumotlarga ta'sirlanib, hatto ularning yurish-turishlarigacha taqlid qilishmoqda. Ma'lumki, OAVlarning axborotni tayyorlash, qayta ishlash va tarqatish faoliyati tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solingan. Blogerlarning ham bu boradagi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish zarur. Zero, O‘zbekiston Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Axborot makonini to‘g‘ri shakllantirish, ayniqsa, yoshlar orasida media savodxonlikni oshirish kelajakni barpo etishning asosiy yo‘nalishidir”[4].

Ta'kidlash lozim, bugun muayyan kuchlar tomonidan jamiyat ongiga axborot va mafkuraviy ta'sir orqali bosim o‘tkazish, uning qadriyatlar tizimini o‘zgartirishga qaratilgan maqsadli harakatlar kuchaymoqda. Buni tarqatilayotgan feyk axborot va dezinformatsiya, radikal g‘oyalarning internet orqali tarqalishi, milliy an'analarni kamsitish yoki inkor qilishda guvoh bo‘layapmiz. Yoshlar global axborot maydonining eng faol ishtirokchilari hisoblanadi. Ular axborotni tez qabul qiladi, lekin har doim ham tanqidiy tahlil qila olmasligi sababli g‘oyaviy ta'sirlanayapti. Bu albatta, ularda zararli g‘oyalarga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, ularni tahlil qilish va ongli ravishda rad etish qobiliyati yetarli emasligi, mafkuraviy immunitetning sustligi bilan bog‘liq holda ro‘y bermoqda. Bu jarayon o‘z navbatida OAVlariga katta mas'uliyat yuklaydi. Ular quyidagilardan iborat:

- ijobiy axborot muhitini shakllantirishi;
- feyklarga qarshi tezkor munosabat bildirishi;
- jamiyatda ishonchli axborot manbai sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Ma'lumki, axborotni tarqatishda internet ommalashib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar interaktiv va real vaqtda axborotni tarqatish va muloqot qilish imkoniyatini beradi. Yoshlar o‘z kontentlarini va fikrlarini tezda baham ko‘rishlari mumkin. Mazkur axborot hujum platformasi insonning dunyoqarashini izdan chiqarish bilan birga, uning ma'naviyati, axloqiga jiddiy salbiy ta'sir etadi. Tadqiqotchi Rahmon Qo‘chqor ushbu masalada quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “O‘ziga “axborot dunyosi”, “axborotlashgan jamiyat” deb nom qo‘yib olgan bugungi jumlai jahonda u yoki bu voqea-hodisa haqida (u tarixda yuz berganmi yoki kuni kecha sodir bo‘ldimi – farqi yo‘q) ommaviy axborot vositalari “topib” tarqatayotgan

ma'lumot, “tezkor xabar” qancha ko‘paysa, o‘sha voqea-hodisaga doir asl haqiqat shuncha mavhumlashib bormoqda”[5]. Kezi kelganda ijtimoiy tarmoqlaridagi tarqatilayotgan axborotlarning monitoring o‘rganishlari xulosasini keltirib o‘tamiz[6]:

- ijobiy mazmundagilar - 35%,
- salbiy mazmundagi post va kommentlar - 57%,
- betaraf kommentlar - 8 %

Shuningdek, odobsizlik - 17%, matnli so‘kinish va haqoratlardan iborat kommentlar - 9%, ig‘vo-fasod, nizo tarqatuvchi materiallar -21%, davlat va shaxsni obro‘sizlantiruvchi yolg‘on(feyk) kommentlar - 10%, jami 57% ni tashkil etadi. Ijtimoiy tarmoqdan foydalanuvchilarning salbiy mazmundagi post va kommentlarning 57% ni tashkil etishi jamiyatda ma'naviy barqarorligini ta'minlash uchun xavotirli hol, albatta.

Demak, mamlakatimiz axborot makonida ma'naviy-axloqiy barqarorlikka salbiy ta'sir qiluvchi tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. Shu boisdan, internetning o‘zbek segmentidagi pornografik mazmundagi foto-video materiallar, odobsizlik, beboshlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar tarqatilishiga imkon berayotgan omillarni chuqur tadqiq etib, bartaraf etish choralarini ko‘rish zarur.

Zero, milliy-ma'naviy qadriyatlarga tayanmagan axborotlashgan jamiyat ommaviy madaniyatlar ta'sirida inqirozga yuz tutishi va oxir-oqibatda "rangli revolyutsiyalar"ga sababchi bo‘lishi mumkin.

G‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashishda faqat ma'muriy choralar bilan emas, balki ma'naviy tarbiya, ta'lim, media va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi uyg‘un hamkorlikka zarurat bor. Bu borada, milliy g‘oya kontseptsiyasini takomillashtirish, axborot xavfsizligi strategiyasini kuchaytirish, yoshlar siyosatida ma'naviy tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish muhim. Shuningdek, raqamli transformatsiya sharoitida milliy kontent ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, yoshlar uchun ma'naviy-ma'rifiy onlayn platformalar yaratish, kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev Murojaatnomasi. 26.12.2025. https://president.uz/uz/lists/view/ 8834

2. Chen Chjan. Kak motivirovat lyudey (xitoy tilidan tarjimasi, Kiyev, 2002), 42-bet.

3.A.Ko‘chimov. “Telejurnalist: mahorat va tahlil madaniyati”, Toshkent – “O‘zbekiston”. 1998-y. 47-bet

4. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.– B.253.

5.Rahmon Qo‘chqor. Dunyo kurash maydonidir//. – Tafakkur-2016. 4-son B. 24.

6.Ommaviy axborot vositalari(televideniye, ijtimoiy tarmoq va matbuot)da tarqatilayotgan ijtimoiy-siyosiy materiallar ilmiy tahlili. Sultonov F.X., Hojiyev F.J. Toshkent, «ART VERNISSAGE» nashriyoti, 2023 yil, 232 b.

MEHNAT MADANIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna,
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehnat madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari shaxsning ma’naviy-axloqiy qarashlari, jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq ekani asoslab berilgan. Tarixiy meros, falsafiy ta’limotlar va zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida mehnat madaniyatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mehnat madaniyati, ijtimoiy falsafa, ma’naviy meros, ta’lim, oila, jamoatchilik, motivatsiya, madaniy an’analar, davlat siyosati

Mehnat madaniyati insonning ma’naviy-axloqiy qarashlari va ijtimoiy faolligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. U nafaqat shaxsning shaxsiy ongi va bilimlar tizimiga, balki u yashab turgan jamiyatning madaniy, iqtisodiy va siyosiy muhitiga ham bog‘liqdir. Mehnat madaniyatini yuksaltirish masalasi faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki insonning o‘zini anglashi va jamiyatda munosib o‘rin egallashi nuqtai nazaridan ham dolzarbdir[1].

Mehnat madaniyati tushunchasi tarixiy-farhangiy merosimizda keng o‘rin egallagan. Amir Temurning "Temur tuzuklari", Alisher Navoiyning "Mahbubul qulub", "Saddi Iskandariy" kabi asarlarida adolatli mehnat, odob-axloq, kasbiy mahorati yuqori insonlar timsoli asosiy g‘oya sifatida talqin etiladi[2]. Bunday meroslar mehnat madaniyatini ma’naviy-axloqiy mezonlarga tayanish orqali shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Falsafada mehnat insonning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beruvchi asosiy faoliyat turi sifatida qaraladi. Karl Marks mehnatni "insonni inson qiluvchi" jarayon sifatida ta’riflagan bo‘lsa, Islom falsafasida halol mehnat insonning ma’naviy yuksalishiga xizmat qiladi deb e’tirof etiladi. Bunday qarashlar mehnat madaniyatini shakllantirishda ma’naviy motivatsiyani muhim omil sifatida belgilaydi.

Falsafaviy an’analarda mehnat inson tabiatining eng muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin etilgan. Qadimgi Grek falsafasida Aristotel mehnatni erkin insonning faoliyatidan farqli holda, qullik bilan bog‘lagan bo‘lsa-da, uning "Nikomax etikasi"da adolatli mehnat samarasi inson axloqini shakllantiradigan omil sifatida ko‘rsatiladi. Bu yondashuv orqali mehnat nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondiradi, balki shaxsning axloqiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Marksizm falsafasida Karl Marks va Fridrix Engels mehnatni insonning tabiiy xususiyati va jamiyatni shakllantiruvchi kuch sifatida baholaydi. Marksning "Kapital" asarlarida mehnat "insonni inson qiluvchi" jarayon deb ta’kidlanadi, chunki u orqali inson tabiatni o‘zgartiradi va o‘z shaxsiyatini ifodalaydi. Biroq, kapitalizm sharoitida mehnat ajralishi

(allaniya) tufayli inson o‘z faoliyatidan ajralib qoladi, bu esa ma’naviy bo‘shliqka olib keladi. Shuning uchun mehnat madaniyatini yuksaltirish uchun mehnatning ma’naviy qadrini tiklash, ya’ni uning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini ko‘rsatish zarur. Islom falsafasida mehnatning o‘rni yanada yuqori. Qur’on Karimda "Inson o‘z qo‘li bilan topgan narsasidan yaxshiroq narsa yo‘q" (Surai Jum’a, 62:10) deb ta’kidlanadi. Ibn Sino va Farobiy kabi mutafakkirlar mehnatni halol rizq topish va ma’naviy poklanish vositasi sifatida ko‘radi. Halol mehnat insonni Allohga yaqinlashtiradi, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlaydi va jamiyatda adolatni ta’minlaydi. Masalan, Imom G‘azzoliyning "Ihyo ulumid-din" asarlarida mehnat lozzat va ibodat bilan tenglab ko‘rsatiladi.

Zamonaviy falsafada Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi va Gersbergning ikki omilli nazariyasi mehnatni ma’naviy motivatsiya bilan bog‘laydi. Bu yondashuvlarda mehnat madaniyati faqat moddiy rag‘bat emas, balki e’tirof, o‘zini reallashtirish va ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi. Shu tariqa, falsafiy qarashlar mehnatni jamiyatning ma’naviy poydevori sifatida belgilab, uning madaniyatini yuksaltirishda ma’naviy motivatsiyaning o‘rnini ta’kidlaydi. Bu omillarning hamohangligi yoshlarda mehnatga muhabbatni uyg‘otib, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Mehnat madaniyatini shakllantirishda oila, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, diniy muassasalar, mahalla va jamoatchilik institutlarining roli katta. Yosh avlodni mehnatga bo‘lgan muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash, mehnatga rag‘batlantirish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Bugungi kunda yoshlarda mehnat madaniyatini shakllantirishda moddiy rag‘batlantirishdan tashqari, ma’naviy omillar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maslou va Gersberg kabi olimlar shaxsiy ehtiyojlarning qondirilishi orqali mehnat samaradorligini oshirish mumkinligini ta’kidlaganlar[4-5]. Bular qatoriga qadr-qimmatga ehtiyoj, e’tirof, rivojlanish imkoniyati, adolat va hamjihatlik muhitining mavjudligi kiradi.

Mehnat madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy omillari nafaqat ta’lim va tarbiya tizimi, balki keng jamoatchilikning ongi va munosabatiga ham bog‘liq. Mehnatga bag‘ishlangan ma’naviy meros,

zamonaviy ilmiy yondashuvlar va davlat siyosati hamohang bo‘lsa, mehnat madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Yoshlarda mehnatga munosabatni shakllantirishda ta’lim tizimining mazmun va shakl jihatidan yangilanishi, turli ijtimoiy loyihalar, mehnat faoliyatini qadrlash va rag‘batlantirish tizimining takomillashuvi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, mehnat madaniyatini yuksaltirish - bu faqat shaxsning madaniyatli mehnat faoliyati emas, balki jamiyatning ma’naviy yuksalishi, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikning ham asosiy omilidir. Tarixiy meros, falsafiy qarashlar va zamonaviy ijtimoiy mexanizmlarni uyg‘unlashtirish orqali mehnat madaniyatini rivojlantirish mumkin. Bunda ta’lim, oila, jamoatchilik va davlat siyosati bir butun tizim sifatida ishlashi talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov, A. *Mehnat madaniyati: nazariy va amaliy asoslar*. Toshkent: Fan nashriyoti, 2020 y.
2. Temur, A. *Temur tuzuklari*. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1991 y.
3. Rahimov, M. "Ijtimoiy muhit va mehnat madaniyatining o‘zaro bog‘liqligi". *Falsafa va hayot*, 2019 y. №4.
4. Maslow, A. 1 "A Theory of Human Motivation". *Psychological Review*, 1943 y. 50(4), 370–396.
5. Herzberg, F. *The Motivation to Work*. New York: John Wiley & Sons. 1959 y

MAHALLA INSTITUTLARI VA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA GENDER TENGLIGI: MILLIY TAJRIBA VA XALQARO TAQQOSLAMA

Babadjanova Nodira Abdullayevna
O‘zDJTU O‘zbekiston tarixi
kafedrasi dotsenti

Annotatsiya Ushbu ilmiy maqolada mahalla institutlari faoliyatida gender tengligini ta’minlash masalasi milliy ijtimoiy amaliyot sifatida chuqur tahlil qilinadi hamda u xalqaro miqyosdagi mahalliy boshqaruv (local governance, community institutions) modellari bilan taqqoslanadi. Tadqiqotda gender tengligi tushunchasining nazariy asoslari, mahalla institutlarining tarixiy-evolyutsion rivoji, ularning ijtimoiy boshqaruvdagi roli va ayollar hamda erkaklarning teng ishtirokini ta’minlash mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston tajribasi asosida mahalla institutlarida ayollarning ijtimoiy faolligi, qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki va ularni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari xalqaro amaliyot bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari mahalla institutlarini gender sezgir boshqaruv modeliga transformatsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, mahalla institutlari, mahalliy boshqaruv, jamoatchilik ishtiroki, ayollar faolligi, ijtimoiy institutlar, milliy va xalqaro tajriba.

Gender tengligi XXI asr ijtimoiy taraqqiyot paradigmasida barqaror rivojlanishning ajralmas sharti sifatida qaralmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda iqtisodiy o‘sish, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy adolat o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un rivoji gender tengligi tamoyillarining real hayotda ta’minlanishiga bevosita bog‘liqdir. Xususan, mahalliy boshqaruv tizimlari darajasida gender tengligini qaror toptirish jamiyatning eng quyi, ammo eng muhim ijtimoiy qatlamlarida inklyuzivlik va adolat mezonlarini mustahkamlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy instituti hisoblangan

mahalla tizimida gender tengligini ta’minlash masalasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalani xalqaro mahalliy boshqaruv modellari bilan qiyosiy tahlil qilish esa milliy tajribani chuqurroq anglash va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

Gender tengligi tushunchasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tor ma’nodagi “son jihatidan tenglik” bilan cheklanmaydi. U, avvalo, ayollar va erkaklarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy resurslardan teng foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishini, qaror qabul qilish jarayonlarida real ta’sir kuchiga ega bo‘lishini anglatadi [1]. Formal huquqiy tenglik mavjud bo‘lgan sharoitda ham, agar institutsional va madaniy to‘siqlar saqlanib qolsa, amaliy tenglikka erishish qiyinlashadi. Shu bois gender tengligi nazariy jihatdan huquqiy, institutsional, funksional va madaniy komponentlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanadi. Ayniqsa, mahalliy boshqaruv tizimlarida gender sezgir yondashuv resurslarni taqsimlash, ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va aholi bilan ishlash mexanizmlarida jinsiy omilni hisobga olishni nazarda tutadi. Bu esa boshqaruvning samaradorligini oshiradi va jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

O‘zbekiston sharoitida mahalla instituti tarixan ijtimoiy o‘zini o‘zi boshqarishning noyob shakli sifatida shakllangan. Asrlar davomida mahalla aholining kundalik hayotini tartibga solish, ijtimoiy yordam ko‘rsatish, tarbiyaviy va ma’naviy nazoratni amalga oshirish kabi funksiyalarni bajargan. Mahalla jamoaviylik, hamjihatlik va o‘zaro mas’uliyat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, u jamiyatning ichki ijtimoiy kapitalini shakllantiruvchi muhim institut vazifasini o‘tagan. Mustaqillikdan keyingi davrda mahalla davlat boshqaruvi tizimida alohida maqomga ega bo‘lib, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlandi[2]. Natijada u davlat va jamiyat o‘rtasidagi vositachi bo‘g‘inga aylandi, ijtimoiy himoya, bandlikni ta’minlash, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, profilaktika va ma’naviy-ma’rifiy faoliyat yo‘nalishlarida keng vakolatlarga ega bo‘ldi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tengligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etildi. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlovchi normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi mahalla tizimiga ham sezilarli ta’sir

ko‘rsatdi. Mahallalarda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahatchilar instituti joriy etildi, ijtimoiy himoya va bandlik dasturlari kengaytirildi, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kuchaytirildi. Bu chora-tadbirlar mahalla faoliyatining gender komponentini institutsional jihatdan mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Biroq empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hududlarda an’anaviy gender stereotiplari va ijtimoiy rollar hanuzgacha qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, rahbarlik lavozimlarida erkaklar ulushi yuqoriroq bo‘lishi yoki ayollarning faoliyati asosan ijtimoiy-ma’naviy sohalar bilan cheklanib qolishi kabi holatlar mavjud. Bu esa formal tenglik bilan real ta’sir o‘rtasida tafovut borligini ko‘rsatadi.

Mahalliy boshqaruv tizimlarida gender tengligini ta’minlash borasida xalqaro tajriba muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Skandinaviya mamlakatlari — xususan, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya — mahalliy boshqaruvda gender tengligini ta’minlashning ilg‘or modelini namoyon etadi[3].

Bu mamlakatlarda ayollar va erkaklarning mahalliy kengashlardagi vakilligi deyarli mutanosib bo‘lib, gender tengligi siyosiy madaniyatning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Gender byudjetlashtirish va gender ta’sirini baholash mexanizmlari mahalliy darajada tizimli ravishda qo‘llaniladi. Eng muhimi, gender tengligi alohida ijtimoiy siyosat yo‘nalishi emas, balki umumiy boshqaruv madaniyatining integrallashgan elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu tajriba shuni ko‘rsatadiki, barqaror natijaga erishish uchun nafaqat qonunchilik, balki institutsional dizayn va ijtimoiy ong darajasida ham o‘zgarishlar zarur.

Osiyo mamlakatlarida gender tengligiga yondashuv yanada murakkab va ko‘p qatlamli xarakterga ega. Hindiston va Indoneziyada mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarida ayollar uchun kvotalar joriy etilishi ularning siyosiy faolligini sezilarli darajada oshirdi.

Bu jarayon ayniqsa qishloq darajasidagi boshqaruv organlarida ayollarning ovozi va ta’sirini kuchaytirdi. Yaponiya va Janubiy Koreyada esa asosiy e’tibor ayollarning ta’lim va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini tabiiy ravishda oshirishga qaratilgan[4]. Osiyo modeli, umuman olganda, bosqichma-

bosqich islohotlar va madaniy omillarni hisobga olish tamoyiliga asoslanadi. Bu jihat O‘zbekiston tajribasi bilan ma’lum darajada uyg‘unlashadi, chunki mahalla instituti ham an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy boshqaruv tamoyillarining sinteziga asoslanadi.

MDH hududidagi tajriba ham O‘zbekiston uchun qiyosiy ahamiyatga ega. Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘izistonda mahalliy boshqaruv tizimlarida gender tengligi ko‘pincha umumiy ijtimoiy siyosat doirasida ko‘rib chiqiladi[5].

Ayollarning vakilligi asta-sekin ortib borayotgan bo‘lsa-da, ularning real qaror qabul qilish jarayonidagi ta’siri har doim ham yuqori emas. Bu esa post-sovet makonida institutsional o‘tish jarayonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. O‘zbekistonning mahalla modeli esa tarixiy ildizlari va jamoaviy boshqaruv an’analari bilan mazkur hududdagi boshqa tizimlardan ma’lum darajada farq qiladi.

Taqqoslama tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston mahalla institutlari Skandinaviya modelidan institutsional resurslar va iqtisodiy imkoniyatlar jihatidan farqlansa-da, Osiyo modeliga o‘xshash tarzda madaniy omillarni hisobga olgan holda evolyutsion rivojlanish yo‘lini tanlagan. Shu bilan birga, MDH mamlakatlari bilan umumiy tarixiy-institutsional o‘xshashliklar ham mavjud. Bu holat xalqaro tajribani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uni milliy sharoitga moslashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalla institutlarida gender tengligini yanada mustahkamlash uchun bir qator ustuvor yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi. Avvalo, gender sezgir normativ-huquqiy mexanizmlarni chuqurlashtirish va ularning amaliy ijrosini ta’minlash zarur. Ikkinchidan, mahalla raislari va faollarining gender kompetensiyalarini oshirish, ya’ni ularni gender tahlil, inklyuziv rejalashtirish va kommunikatsiya ko‘nikmalariga o‘rgatish muhimdir. Uchinchidan, mahalliy darajada gender byudjetlashtirish elementlarini joriy etish resurslarning adolatli taqsimlanishini ta’minlaydi. To‘rtinchidan, statistik monitoring va baholash tizimini kuchaytirish orqali real natijalarni o‘lchash imkoniyati yaratiladi. Nihoyat, madaniy stereotiplarni yumshatishga qaratilgan ma’rifiy dasturlar gender tengligining ijtimoiy asoslarini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mahalla institutlarida gender tengligini ta’minlash O‘zbekistonning ijtimoiy-modernizatsiya jarayonlarida strategik ahamiyat kasb etadi. Gender sezgir mahalliy boshqaruv modeli nafaqat ijtimoiy adolatni qaror toptiradi, balki boshqaruv samaradorligini oshiradi, jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantiradi. Xalqaro taqqoslama tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi umumiy demokratik taraqqiyotning ajralmas omili bo‘lib, u mahalliy darajada real mazmun kasb etgandagina barqaror natijalar beradi. O‘zbekiston uchun eng maqbul yo‘l — milliy an’analar va zamonaviy boshqaruv tamoyillarini uyg‘unlashtirgan, inklyuziv va gender sezgir mahalla modelini izchil rivojlantirishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations. Gender Equality and Local Governance. New York, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida. Toshkent, 2019.
3. OECD. Gender Equality in Public Life. Paris, 2020.
4. Asian Development Bank. Gender Equality and Governance in Asia. Manila, 2022.
5. World Bank. Gender and Local Governance in Transition Economies. Washington DC, 2021.

ZJV5401

MAHALLA INSTITUTIDA MAROMIYLIK TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI –JAMIYAT MA’NAVIY YUKSALISHINING MUHIM OMILI

Nigora Xusanova,
Respublika Ma’naviyat va
ma’rifat markazi Ijtimoiy-
ma’naviy tadqiqotlar instituti katta
ilmiy xodimi, F.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston jamiyatida mahalla institutining ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rni hamda maromiylik tamoyillarini amalga oshirish mexanizmlarining jamiyat ma’naviy yuksalishidagi ahamiyati ilmiy-falsafiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, to‘y va oilaviy marosimlarda ortiqcha isrofgarchilik, dabdababozlik hamda iqtisodiy ongning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq muammolar tarixiy tajriba, jadid ma’rifatparvarlari merosi va zamonaviy davlat siyosati kontekstida yoritiladi. Shuningdek, mahalla instituti orqali maromiylikni qaror toptirishning normativ-huquqiy, ma’rifiy-targ‘ibot, ijtimoiy monitoring hamda rag‘batlantirish mexanizmlari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: mahalla instituti, maromiylik tamoyillari, jamiyat ma’naviy yuksalishi, tejamkorlik, oilaviy marosimlar, to‘y madaniyati, isrofgarchilik, iqtisodiy ong, ma’naviy qadriyatlar, jadidlar merosi, ijtimoiy barqarorlik, mas’uliyatli iste’mol.

O‘zbek to‘ylarining mohiyati va falsafasi, avvalo, jamiyatning birdamligi hamda avlodlar o‘rtasidagi vorislik g‘oyasini o‘zida mujassam etadi. Bu qadriyat nafaqat ikki yoshning oila qurish marosimi, balki ikki oila, hatto ikki mahalla va urug‘ning yaqinlashuvi, ijtimoiy birlikning mustahkamlanish ramzi hisoblanadi. O‘zbekona to‘ylar azaldan baraka, saxiylik va mehmondo‘stlik timsoli sifatida shakllangan. To‘y dasturxonini yozish, mehmonni e’zozlash, nuroniylardan duo olish kabi udumlar

xalqimiz dunyoqarashida ezgulik, samimiyat va ijtimoiy mas’uliyat ustuvor ekanini yaqqol namoyon etadi.

To‘y marosimlarining muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan kelin salom, oq yo‘l tilash, kuyov navkar kabi urf-odatlar zamirida har bir ishni duo, baraka va ezgu niyat bilan boshlash falsafasi mujassam. Shu bois, to‘y faqat tantana emas, balki muqaddas mas’uliyat, yangi hayot bosqichiga ma’naviy tayyorgarlik ramzi sifatida qadrlanadi. Ammo, bugungi kunda o‘zbek to‘ylaridagi isrofgarchilik ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan jiddiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Qadimdan xalqimiz turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lgan to‘y marosimlari so‘nggi yillarda ko‘r-ko‘rona kattalashtirish, ortiqcha dabdabalar va me’yoridan ziyod sarf-harajatlar bilan kechayotgani tashvish uyg‘otadi.

Ayniqsa, daromadi o‘rtacha yoki past bo‘lgan oilalar uchun bu holat og‘ir iqtisodiy bosimga aylanmoqda. Aksariyat hollarda to‘y xarajatlarini qoplash maqsadida qarzga botish, kredit olish, mol-mulkni sotishga majbur bo‘lish kabi holatlar kuzatiladi. Bu esa kelgusida yangi ijtimoiy muammolarni, jumladan, yosh oilalar o‘rtasida kelishmovchiliklar va hatto ajrimlarning kelib chiqishiga zamin yaratmoqda. Ortiqcha dabdabalar oila qurishning asl ma’naviy mazmunini soya ostida qoldirib, to‘yni maqsad emas, vositaga aylantirib qo‘ymoqda. Shu bois, to‘ylardagi isrofgarchilikning oldini olish masalasi faqat iqtisodiy emas, balki chuqur ma’naviy ahamiyatga ham egadir. Jamiyatda oqilona sarf-harajat, me’yor va odobga rioya qilish, maromiylik tamoyillarini qaror toptirish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarbdir. To‘ylarni soddalashtirish orqali xalqimizga xos matonat, birdamlik va aql-zakovat yanada yorqin namoyon bo‘ladi.

Har bir millatning mustahkamligi va istiqboli uning ma’naviy asoslari, axloqiy qadriyatlari hamda oilaviy barqarorligiga bevosita bog‘liq. Shu nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston jamiyatida mahalla instituti nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi, balki oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar va ma’naviy merosning uzluksizligini saqlovchi muhim ijtimoiy tuzilma sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mahalla – jamiyatdagi eng asosiy ijtimoiy mikrostrukturadir. U aholining kundalik hayoti, oilaviy va mahalliy munosabatlarni tartibga

solish, yosh avlodni tarbiyalash, shuningdek, ma’naviy va iqtisodiy ongni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Aynan mahalla darajasida maromiylik, tejamkorlik va mas’uliyatli iste’mol tamoyillarini amaliy hayotga tatbiq etish imkoniyati mavjud bo‘lib, bu jamiyat barqarorligi va milliy qadriyatlarni asrashning muhim omili hisoblanadi.

Bugungi kunda maromiylik tushunchasi jamiyat hayotida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maromiylik bu axloqiy fazilatlar va iqtisodiy tafakkurni uyg‘unlashtiruvchi, ijtimoiy hayotda mas’uliyat, me’yoriy intizom va tejamkorlikni qaror toptirishga xizmat qiluvchi qadriyatlar tizimi desam adashmagan bo‘lamiz. U oilaviy marosimlar, mahalliy tadbirlar va shaxsiy hayot jarayonlarida ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish, jamiyatda ijtimoiy adolat va iqtisodiy ongni mustahkamlashning muhim vositasi hisoblanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, maromiylik va iqtisodiy ong yetarlicha shakllanmagan jamiyatlarda ortiqcha dabdaba, manmanlik va isrofgarchilik kuchayib, bu holat ijtimoiy barqarorlikka jiddiy tahdid soladi. Shu bois, zamonaviy O‘zbekiston sharoitida mahalla instituti nafaqat an’anaviy tartib va urf-odatlarni saqlash, balki maromiylik tamoyillarini tizimli ravishda hayotga tatbiq etish orqali oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda yangi madaniyatni shakllantirishda yetakchi bo‘lishni talab etadi.

Azal-azaldan, o‘zbek jamiyatida to‘y va oilaviy marosimlar har doim alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Ular shaxsiy baxt va farovonlik ramzi bo‘lish bilan birga, oilaviy hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlovchi, milliy urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazuvchi muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Biroq, so‘nggi yillarda mazkur marosimlarda ortiqcha isrofgarchilik, dabdababozlik va manmanlik kabi salbiy holatlarning kuchayib borayotgani tez-tez ko‘zga tashlanmoqda.

Hayotiy misollar esa ushbu muammoning naqadar dolzarb ekanini yaqqol namoyon etadi. Xususan, ko‘plab oilalarda to‘y kabi bir kunlik marosimga sarflanadigan xarajatlar yillik oilaviy byudjet hajmiga tenglashib qolmoqda. Ortiqcha ovqat, bezaklar va mehmonlar sonining sun’iy oshirilishi iqtisodiy va ma’naviy me’yorlarga zid bo‘lib, oilaviy farovonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat, ayniqsa, yosh avlodda

oqilona sarf-harajat va iqtisodiy mas’uliyat tushunchalarining shakllanish jarayonini murakkablashtirmoqda.

Shu ma’noda, maromiylik tamoyillarini mahalla darajasida izchil va tizimli joriy etish oilaviy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy ongni rivojlantirish hamda milliy ma’naviy qadriyatlarni asrashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, aholi ongida maromiylik va tejamkorlik kabi qadriyatlarning yetarli darajada shakllanmagani kuzatiladi. Bu holat milliy urf-odat va ijtimoiy me’yorlarning faqat tashqi shaklda saqlanishiga, amalda esa ortiqcha xarajat va isrofgarchilikning ildiz otishiga olib kelmoqda. Holbuki, tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, behuda xarajat, dabdaba va manmanlik milliy qadriyatlar hamda ijtimoiy intizomga zid bo‘lgan illatlar hisoblanadi.

Muammo yuzasidan o‘lka jadidlari **Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Hoji Muin**lar tomonidan oilaviy marosimlardagi isrofgarchilikni xalqni qarzga, muhtojlikka va ma’naviy tanazzulga yetaklovchi xavfli holat sifatida baholaganlar. Xususan, Behbudiyning quyidagi fikri bu masalaning mohiyatini yaqqol ifoda etadi. U *“bir do‘konchi, bir kosib uchun bu to‘y va ta’ziyalar o‘limdan qattiqdir; o‘zidan so‘ng ahli ayoliga bu yo‘qsullik va musibatni meros qo‘yar.”* degan fikrlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki ortiqcha xarajat, isrofgarchilik va dabdababozlik jamiyatda iqtisodiy tafakkur va ma’naviy ongni zaiflashtiradi, yosh avlodning kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Ayni paytda, mahalla instituti doirasida maromiylikni targ‘ib qilishning mavjud mexanizmlari yetarlicha samara bermayotgani muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ko‘plab mahallalarda oilaviy va mahalliy tadbirlarni tartibga solishga qaratilgan an’anaviy vositalar mavjud bo‘lsa-da, ular ilmiy asoslangan metodika va tizimli chora-tadbirlar bilan boyitilmagan. Natijada isrofgarchilikning oldini olish masalasi to‘liq hal etilmayapti. Ayniqsa, zamonaviy yoshlar orasida iqtisodiy va axloqiy tafakkur, mas’uliyatli iste’mol, tejamkorlik va maromiylikka oid tushunchalarning yetarli darajada targ‘ib qilinmayotgani bu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan **“Oqilona iste’mol”** dasturlari, to‘y va marosimlarni tartibga solishga oid qonunchilik normalari hamda oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan choralar muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, mahalla institutining bu jarayondagi amaliy roli hali to‘liq ishga solinmagan. Shu bois, mahalla darajasida maromiylikni targ‘ib qilish, jamiyatda tejamkorlik va mas’uliyatli iste’mol madaniyatini shakllantirish, oilaviy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ajdodlarimiz to‘y va marosimlarni sodda, samimiy va duoga boy shaklda o‘tkazganlar. Bugungi kunda esa ayrim to‘ylarda haddan ortiq dabdaba, ko‘z-ko‘z qilish va xorijiy uslublarga taqlid qilish holatlari kuchayib bormoqda. Natijada milliy qo‘shiqlar, an’anaviy marosimlar va ma’naviy ruh so‘nib, milliy o‘zlikka xos qadriyatlar zaiflashmoqda[2]. Bu esa milliy ma’naviyatning sekin-asta eroziyaga uchrashiga sabab bo‘ladi. Isrofgarchilik jamiyatning ma’naviy muhitiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, insonlar ongida “**obro‘ pul orqali qo‘lga kiritiladi”** degan noto‘g‘ri tasavvurni shakllantiradi. Bu holat mehnat, hunar va bilim orqali obro‘ qozonish qadrining pasayishiga, jamiyatda ma’naviy qadriyatlar tizimining izdan chiqishiga olib keladi.

Bu borada diniy manbalarda ham isrofgarchilik qat’iy qoralanadi. Xususan, Qur’on va hadislarda isrof katta gunoh sifatida talqin etiladi. Alloh taolo Qur’oni karimda: “***Albatta, isrof qiluvchilar shaytonning birodarlaridir***”, deb ta’kidlaydi [3]. Mazkur oyat isrofgarchilikning nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy va ruhiy jihatdan ham zararli ekanini ko‘rsatadi. Dabdabali to‘ylar orqali inson Alloh ato etgan ne’matlarning qadriga yetmaydi, shukronalik tuyg‘usidan uzoqlashadi. O‘zbek to‘ylarida uchrayotgan isrofgarchilik holatlari esa, aslida, ma’naviy qashshoqlikning yaqqol belgisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu holat inson qalbida shukr, kamtarlik va samimiyat kabi fazilatlarni zaiflashtirib, riyo, hasad va moddiy tafakkurning ustuvor bo‘lishiga zamin yaratadi. Agar jamiyatda barqaror ma’naviy muhitni shakllantirish maqsad qilingan bo‘lsa, to‘y va marosimlar madaniyatida ham ma’naviy poklanish jarayonini amalga oshirish zarur [4].

Zero, to‘y marosimlari dabdaba va ko‘z-ko‘z qilish vositasiga emas, balki duo, muhabbat va bag‘rikenglik bayramiga aylangandagina jamiyatda haqiqiy baxt va baraka qaror topadi.

Bugungi kunda to‘y va marosimlarni tartibga solish masalasi davlat siyosati hamda ijtimoiy-madaniy islohotlarning muhim tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Qisqacha aytganda, mahallabay, oilabay va fuqarobay ishlash tamoyillari to‘g‘ri va tizimli yo‘lga qo‘yilgan taqdirda, to‘ylardagi isrofgarchilikka qarshi samarali ijtimoiy mexanizm sifatida xizmat qilishi mumkin. Tarixdan ma’lumki, mahalla o‘zbek jamiyatining “jonli tuzilishi” hisoblanadi. Agar mahalla faollari, oqsoqollar va xotin-qizlar kengashi to‘ylarning me’yoriy chegaralarini belgilab, isrofsizlik bo‘yicha targ‘ibot olib borish va aholiga namuna bo‘ladigan misollarni ko‘rsatishsa, bu katta samara beradi. Shu bilan mahalla nazorat va ma’naviy ta’sir markazi sifatida faoliyat yuritadi.

Mahalla instituti jamiyatda maromiylik, tejamkorlik va mas’uliyatli iste’mol madaniyatini shakllantirishda muhim ijtimoiy bo‘g‘in hisoblanadi. U aholiga eng yaqin boshqaruv va tarbiya tizimi sifatida oilaviy va ijtimoiy hayotga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, mahalla institutining imkoniyatlaridan samarali foydalanish va vazifalarini aniq belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, mahalla rahbarlari va faollari orqali maromiylik tamoyillarini targ‘ib qilish muhimdir. Raislar, oqsoqollar, xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchilari oilaviy marosimlarda me’yor va maromga rioya etilishi yuzasidan tushuntirish va maslahatlar berish orqali aholining ongiga bevosita ta’sir qilishi mumkin. Bu jarayonda rasmiy taqiqlardan ko‘ra, ijtimoiy kelishuv va ma’naviy ta’sir mexanizmlari ustuvor bo‘lishi lozim.

Ikkinchidan, oilaviy va mahalliy tadbirlarni tartibga solish mahalla institutining asosiy amaliy vazifalaridan biridir. To‘y va marosimlarni ixcham, tejamkor va milliy qadriyatlarga mos tarzda o‘tkazish bo‘yicha mahalla tavsiyalari va ilg‘or tajribalarni ommalashtirish isrofgarchilikning oldini oladi. Bunda “kam xarajat – ko‘p mazmun” tamoyili targ‘ib qilinadi.

Uchinchidan, maromiylik va tejamkorlik masalalariga bag‘ishlangan seminarlar, treninglar va targ‘ibot ishlari mahalla

faoliyatining ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Iqtisodiy savodxonlik, mas’uliyatli iste’mol va oilaviy byudjetni rejalashtirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, ayniqsa yosh oilalar o‘rtasida, muntazam o‘tkazilishi lozim.

To‘rtinchidan, aholi bilan samarali kommunikatsiya yo‘lga qo‘yilishi muhimdir. Video roliklar, mahalliy matbuot, ijtimoiy tarmoqlar, davra suhbatlari va yuzma-yuz uchrashuvlar orqali maromiylik g‘oyalari tushunarli va ta’sirchan tarzda yetkazilishi mumkin.

Nihoyat, yoshlar va oilalar bilan ishlash mahalla institutining strategik yo‘nalishlaridan biridir. Tarbiyaviy va ijtimoiy-loyihaviy metodlar orqali yoshlar ongida tejamkorlik, mas’uliyat va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ulari shakllantiriladi, oilalar esa ixcham va maromli marosimlarni tashkil etishga rag‘batlantiriladi.

Maromiylik faqat axloqiy da’vat yoki rasmiy chaqiriqlar bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon puxta o‘ylangan, ko‘p bosqichli va o‘zaro uyg‘un mexanizmlarni talab qiladi.

Normativ-huquqiy mexanizmlar – qonunlar, nizomlar va qarorlar to‘y va oilaviy tadbirlarni tartibga solib, umumiy me’yor va chegaralarni belgilaydi. Bular fuqarolarning erkinligini cheklashga emas, balki isrofgarchilikning oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Ma’rifiy va targ‘ibot mexanizmlari – seminarlar, davra suhbatlari, kampaniyalar, jurnal va kitoblar orqali aholining iqtisodiy va axloqiy tafakkuri rivojlantiriladi. Bu jarayonda Behbudiy, Fitrat va Hoji Muin merosi, ularning isrofgarchilikka qarshi qarashlari qo‘llaniladi.

Ijtimoiy-monitoring mexanizmlari – mahallalarda tadbirlarni kuzatish, ortiqcha xarajatlarni aniqlash va bartaraf etish uchun ishlatiladi. Bu profilaktik va maslahat beruvchi mexanizm sifatida jamiyatda mas’uliyatni kuchaytiradi.

Rag‘batlantirish va ijtimoiy tan olish mexanizmlari – ixcham va tejamkor tadbirlarni o‘tkazgan oilalar mukofotlanadi, eng yaxshi tajribalar ommalashtiriladi. Shu tariqa, maromiylik jamiyatda majburiyat emas, balki qadriyat sifatida qaror topadi. Umuman olganda, mahalla institutida maromiylikni amalga oshirish konsepti tarixiy tajriba, ilmiy izlanishlar va

zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar uyg‘unligida shakllangan bo‘lib, bu jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy birdamligini ta’minlashga xizmat qiladi.

XX asr boshlarida ulkan jadidlar jamiyatni tanazzulga olib borayotgan asosiy illatlardan biri sifatida isrofgarchilik va dabdababozlikni ko‘rsatganlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Hoji Muin kabi ma’rifatparvarlar oilaviy marosimlardagi ortiqcha xarajatlarni nafaqat iqtisodiy, balki ma’naviy inqiroz belgisi sifatida baholaganlar. Behbudiy shunday degan: *“To‘yga isrof qilinadigan mablag‘ni ilm va ma’rifat yo‘liga sarflash zarur.”* Bu fikr maromiylik tamoyilining dastlabki konseptual ifodasi sifatida qabul qilinadi. Jadidlar nazarida maromiylik faqat tejamkorlik emas, balki aql, mas’uliyat va ma’naviyat uyg‘unligi edi. Ular uchun to‘y shaxsiy dabdaba emas, balki jamiyat oldidagi mas’uliyat, oila esa iqtisodiy yuk emas, balki ma’naviy tayanch edi. Shu bois, maromiylik g‘oyasi millatni uyg‘otish, iqtisodiy ongni shakllantirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash vositasi sifatida talqin qilingan.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti faqat moddiy resurslar bilan emas, balki inson ongidagi qadriyatlar tizimi bilan belgilanadi. Iqtisodiy ong, mas’uliyatli iste’mol, tejamkorlik va ma’naviy intizom bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu ma’noda, maromiylik – iqtisodiy ratsionallik va axloqiy mas’uliyatning sintezi sifatida qaraladi.

Pedagogik va sotsiologik tadqiqotlarda oilaviy marosimlar yosh avlodning qadriyatlar tizimini shakllantirishda kuchli ijtimoiy institut sifatida baholanadi. Agar to‘y va tadbirlar dabdaba ruhida o‘tkazilsa, yoshlar ongida iste’molchilik va namoyishkorlik mentaliteti mustahkamlanadi. Aksincha, maromiylik asosida tashkil etilgan tadbirlar yosh avlodda me’yor, mas’uliyat va iqtisodiy tafakkur madaniyatini shakllantiradi.

Mahalla institutining zamonaviy roli – oila va jamiyat o‘rtasidagi tabiiy ko‘prik sifatida faoliyat yuritish. Mahalla nafaqat marosimlarni tartibga soluvchi, balki iqtisodiy va ma’naviy ongni shakllantiruvchi institutga aylanishi lozim. Mahalla orqali yoshlarga an’ana va uning ma’nosi tushuntiriladi, shuningdek, maromiylik jamiyatning ichki ehtiyoji

sifatida qaror topadi. Shunday qilib, maromiylik g‘oyasi tarixiy meros, zamonaviy ilmiy yondashuvlar va mahalla institutining amaliy imkoniyatlari uyg‘unligida jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi. U nafaqat isrofgarchilikka qarshi kurash vositasi, balki milliy tafakkur, iqtisodiy ong va ma’naviy barqarorlikni ta’minlovchi strategik qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi.

Mahalla instituti O‘zbekiston jamiyatida nafaqat hududiy boshqaruv bo‘g‘ini, balki ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy tarbiya va iqtisodiy ongni shakllantirishning muhim markazi hisoblanadi. To‘y va oilaviy marosimlardagi ortiqcha isrofgarchilik butun jamiyatning ma’naviy va iqtisodiy salomatligiga daxldor. Shu bois, maromiylik tamoyillarini mahalla faoliyati orqali tizimli ravishda joriy etish dolzarb ijtimoiy vazifa hisoblanadi.

Mahalla raislari, oqsoqollar, xotin-qizlar va yoshlar faollari faqat tashkiliy vazifalar bilan cheklanmasdan, aholi ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ma’naviy yetakchilarga aylanishi lozim. Maromiylikni targ‘ib qilish mexanizmlari normativ-huquqiy, ma’rifiy va ijtimoiy metodlarning uyg‘unligiga asoslanishi kerak. Seminarlar, ochiq muloqotlar, mahalliy uchrashuvlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali maromiylik g‘oyasi tizimli ravishda targ‘ib etilishi lozim. Mahallalarda ijtimoiy monitoring mexanizmlari kuchaytirilib, ijobiy tajribalar ommalashtirilishi va namunali oilalar rag‘batlantirilishi zarur. Oilaviy va mahalliy tadbirlarda ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir qiladi, shuning uchun tadbirlar maromiylik asosida tashkil qilinishi lozim.

Hozirgi kunda mahallalar to‘y va marosimlarni nazorat qilishda hokimiyat idoralari bilan hamkorlikda ishlamoqda. Ushbu tizim hududlarda yagona tartib, adolatli yondashuv va hisobotlilikni ta’minlaydi. Mahalla faollari orqali to‘y-marosim madaniyati bo‘yicha ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib borilishi aholining fikrlash tarzini o‘zgartirmoqda. Ko‘pchilik ***“to‘y – raqobat emas, baraka va duo bayrami”*** ekanini anglab etmoqda.

O‘zbek xalqi azaldan to‘y va marosim madaniyatiga jiddiy e’tibor qaratgan. Bu jarayonda mahallalar bilan hamjihatlikda ishlaydigan qadimiy ijtimoiy shaxslar – **tovachi, kayvoni va otinoy**lar alohida o‘rin tutadi. Ularning faoliyati to‘y va marosimlarning mazmun-mohiyatini saqlash,

milliy qadriyatlarni himoya qilish, ortiqcha dabdaba va isrofgarchilikni oldini olishda muhimdir.

Tovachi an’anaviy o‘zbek jamiyatida kelin va kuyov tomoni o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, qudalar o‘rtasidagi kelishuvlarni odob-axloq va urf-odatlar asosida tartibga soluvchi vositachi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning faoliyati to‘yga tayyorgarlik jarayonida taraflar o‘rtasida me’yor, kelishuv va muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Shu ma’noda, tovachi oilalarning imkoniyatlari va ijtimoiy mavqeini inobatga olgan holda ortiqcha xarajatlar, noo‘rin raqobat va kelishmovchiliklarning oldini olishda muhim kommunikativ mexanizm vazifasini bajaradi.

Kayvoni esa to‘y-marosimlarning ichki madaniy tartibini ta’minlovchi tajribali va oqila ayol sifatida qadrlanadi. U, ayniqsa, ayollar ishtirokidagi marosimlarni muvofiqlashtirish, mehmon kutish odobi, marosim ketma-ketligi, pazandalik va xizmat jarayonlarida me’yorni saqlashda yetakchi rol o‘ynaydi. Kayvoni faoliyati to‘ylarning mazmunan boy, tashkiliy jihatdan tartibli va isrofdan xoli o‘tishiga xizmat qiladi. Shu bois u xalqona hayotiy tajriba, ijtimoiy nazorat va ma’naviy tarbiyaning o‘ziga xos timsoli sifatida baholanishi mumkin.

Otinoylar esa xalq ma’naviyati va ma’rifatining muhim tashuvchilari hisoblanadi. Tarixan ular savodli, diniy-ma’rifiy bilimga ega, ayollar va qizlar tarbiyasida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shaxslar sifatida faoliyat yuritgan. To‘y va oilaviy marosimlarda otinoylar kelin-qizlarga odob-axloq, oila mas’uliyati, iffat, sabr, shukr va ma’naviy poklik kabi qadriyatlarni singdirishda alohida rol o‘ynaydi. Zamonaviy sharoitda ham otinoylarning imkoniyatlaridan foydalanish oilaviy hayotga tayyorgarlik, marosimlar madaniyati va isrofgarchilikka qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur uch ijtimoiy institut “tovachi, kayvoni va otinoylar” mahalla faoliyati bilan uyg‘unlashgan holda maromiylik tamoyillarini amaliyotga joriy etishning tabiiy va milliy asoslangan mexanizmini vujudga keltiradi. Chunki ular rasmiy nazoratdan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy ta’sir, hayotiy tajriba, ma’naviy maslahat va jamoatchilik fikri orqali ishlaydi. Bu esa maromiylikni tashqi talab emas, balki ichki ehtiyoj va qadriyat sifatida

qaror toptirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, mahalla institutida maromiylik tamoyillarini amalga oshirishda an’anaviy ijtimoiy tayanchlardan oqilona foydalanish muhimdir. Tovachi orqali kelishuv madaniyatini, kayvoni orqali marosim me’yorini, otinoylar orqali esa ma’naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish mumkin. Natijada to‘y va oilaviy marosimlar dabdaba va raqobat maydoniga emas, balki baraka, duo, ma’naviyat va ijtimoiy birdamlik makoniga aylanishi ta’minlanadi.

Ushbu uch tuzilma – tovachi, kayvoni va otinoylar – mahalla bilan birgalikda to‘ylarni tartibga soluvchi tabiiy ijtimoiy mexanizm bo‘lib, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular to‘ylarning mazmunini boyitadi, ortiqcha dabdabadan himoya qiladi, mahalla birdamligini mustahkamlaydi va milliy ma’naviyatni saqlaydi. Mahallabay ishlash orqali to‘ylar atrofida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy tengsizlik, hasad va nizolar oldi olinadi. Shu bilan jamoa ichidagi totuvlik va hamjihatlik mustahkamlanadi. Kelgusida mahallabay ishlash tizimi raqamlashtirilishi va har bir marosim haqidagi ma’lumotlar yagona elektron bazada yuritilishi mumkin. Bu shaffoflikni oshiradi, ortiqcha sarf-xarajatlarni nazorat qiladi va madaniy me’yorlarni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mahallabay ishlash mexanizmi orqali to‘y va marosim madaniyatini tartibga solishning eng samarali, milliy qadriyatlarga mos va jamoaviy mas’uliyatni kuchaytiruvchi yo‘lidir. U nafaqat isrofning oldini oladi, balki mahalladagi ma’naviy muhit va ijtimoiy birlikni mustahkamlaydi.

Shunday ekan, **“Marom”** bu faqat tejamkorlik emas, balki milliy tafakkur, ijtimoiy mas’uliyat va ma’naviy kamolot mezonidir. Uni mahalla instituti orqali hayotga tatbiq etish jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, oilalarni ortiqcha qarz va bosimdan himoya qilish, eng muhimi, yosh avlodni ongli, mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan to‘y va marosimlar haqiqiy quvonch va baraka manbaiga, jamiyat esa sog‘lom va barqaror taraqqiyot sari yo‘naltiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. T: Ma’naviyat, 1999. 384 b.
2. A.Fitrat. Tanlangan asarlar. 1-jild. T: Ma’naviyat, 2000. – 320 b.
3. Qur’oni karim. Isro surasi, 27-oyat.
4. Abdullayev.A. O‘zbek xalqining urf-odat va marosimlari. – Toshkent: Fan, 1993. – 192 b.
5. To‘raqulov.R. Mahalla – fuqarolik jamiyatining muhim instituti. – Toshkent: Akademnashr, 2017. – 208 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son Farmoni. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yili Davlat dasturi to‘g‘risida.
7. Sodiqov.H. O‘zbekiston jamiyatida mahalla institutining ijtimoiy roli. – Toshkent: Sharq, 2015. – 224 b.

ZJV5401

O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTI RIVOJLANISHINING HUQUQIY VA TAHLILIY ASOSLARI: TRANSFORMATSIYA VA ISTIQBOLLAR

O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li
“Tashkent International University” xalqaro universiteti professori
Kurbanaliyev Sardor Alidjanovich
“Tashkent International University” xalqaro universiteti Yurisprudensiya, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu keng qamrovli maqolada O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotining o‘zagi hisoblangan mahalla institutining huquqiy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida “mahallabay” tizimining yuridik tabiati, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mahalla mustaqilligiga ta’siri va “Mahalla yettiligi” faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganiladi. Maqola mahalla tizimining moliyaviy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlovchi “Tashabbusli byudjet” mexanizmlari va raqamli texnologiyalarning sohaga tatbiq etilishi masalalarini ham qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiyaviy islohotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, “mahallabay” tizimi, Mahalla yettiligi, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy himoya, raqamli transformatsiya, iqtisodiy mustaqillik.

Kirish. O‘zbekistonning zamonaviy taraqqiyot strategiyasida mahalla shunchaki fuqarolar yashaydigan hudud emas, balki davlat boshqaruvining eng samarali va xalqchil mexanizmiga aylandi. “Mahalla – jamiyat ko‘zgusi”, “Mahalla – mening uyim” kabi g‘oyalar bugun huquqiy normalar bilan mustahkamlanib, real hayotga ko‘chmoqda. Maqolaning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar sharoitida davlat funksiyalarining katta qismi mahallaga

o‘tkazilmoqda. Bu esa ushbu institutning huquqiy maqomini aniqlashtirish, uning davlat idoralari bilan o‘zaro munosabatlarini qonun yo‘li bilan tartibga solishni taqozo etadi. 3500 so‘z doirasidagi ushbu tahlil mahallaning o‘tmishi, buguni va kelajakdagi huquqiy qiyofasini tizimli yoritib beradi.

Tarixan mahalla o‘z-o‘zini boshqaruvchi jamoa sifatida shakllangan. Uning huquqiy asosi yozma qonunlardan ko‘ra, ko‘proq “Odat huquqi” (urf-odatlar) va Islom huquqiga tayanar edi. Mahalla oqsoqoli (katxudolar) aholi tomonidan saylanib, ular nafaqat ma’muriy, balki kichik nizo va kelishmovchiliklarni hal qiluvchi hakamlik vazifasini ham bajargan [1]. XX asrning boshlarida mahalla instituti davlatning qat’iy nazorati ostiga olindi. 1930-yillardan boshlab “Mahalla komitetlari” shakllantirildi, biroq ular mustaqil qaror qabul qilish huquqidan mahrum etildi. Huquqiy jihatdan ular partiya buyruqlarini bajaruvchi “qo‘g‘irchoq” organlarga aylantirilgan edi. 1991-yilda mustaqillik e’lon qilingach, mahalla milliy tiklanishning asosiy omili sifatida tan olindi:

- 1992-yil: Konstitutsiyada mahalla ilk bor fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida e’tirof etildi.
- 1993-yil: “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi ilk fundamental Qonun qabul qilindi [2]. Ushbu hujjat mahallani davlat hokimiyati tizimidan ajratilgan yuridik shaxs sifatida belgilab berdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 127-moddasida shunday deyilgan: *“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o‘z vakolatlarini amalga oshirishda mustaqildir”* [3]. Ushbu moddaning huquqiy ahamiyati shundaki:

1. Mahallalar davlat idoralarining quyi bo‘linmasi emas.
2. Hokimlar mahallaning ichki ishlariga va qarorlariga asossiz aralasha olmaydi.
3. Mahalla qarorlari faqat sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

Konstitutsiya mahallaga o‘z hududidagi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni mustaqil hal qilish huquqini berdi. Bunga obodonlashtirish, kommunal

xizmatlar sifatini nazorat qilish va ijtimoiy yordamni adolatli taqsimlash kiradi.

Prezidentning 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-sonli Farmoni bilan mahallalarda boshqaruvning mutlaqo yangi tizimi – “Mahalla yettiligi” joriy etildi [4]. Bu tizim har bir yo‘nalish bo‘yicha aniq huquqiy javobgarlikni belgilaydi.

1. Mahalla raisi (Strategik boshqaruvchi): Rais endi faqat keksalar bilan ishlaydigan shaxs emas. U mahalladagi barcha yetti nafar xodimning faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, hududiy rivojlanish dasturlarini tasdiqlatuvchi rahbar hisoblanadi. Uning yuridik vakolati tuman Kengashi sessiyalarida masalalar ko‘tarishgacha kengaygan.

2. Mahallada kambag‘allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga mas’ul. Uning asosiy huquqiy quroli — *tavsiyanoma*. Fuqaro tadbirkorlik boshlamoqchi bo‘lsa, hokim yordamchisining onlayn tavsiyanomasi bank uchun kredit ajratishga majburiy asos bo‘ladi.

3. Yoshlar yetakchisi va Xotin-qizlar faoli: Ularning faoliyati “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari”ni yuritish bilan bog‘liq. Bu yerdagi huquqiy tartib shuki, moddiy yordam yoki subsidiya berish to‘g‘risidagi qarorni faqat ular emas, balki mahalla kengashi jamoaviy ravishda qabul qiladi.

4. Ijtimoiy xodim: 2024-yildan e’tiboran mahallada ijtimoiy xodimlar instituti kuchaytirildi. Ular nogironligi bor shaxslar va keksalarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha davlatning yuridik vakili sifatida ish ko‘radi [5].

Moliyaviy mustaqillik va “Tashabbusli byudjet” Huquqiy asoslar mustahkam bo‘lishi uchun moliyaviy baza bo‘lishi shart. O‘zbekistonda bu borada “Tashabbusli byudjet” (*Open Budget*) inqilobi yuz berdi [7]. Qonunchilikka ko‘ra, mahalliy byudjetning ma’lum qismi aholi ovoz bergan loyihalarga yo‘naltirilishi shart. Bu fuqarolarning byudjet mablag‘larini tasarruf etishdagi huquqiy ishtirokini ta’minlaydi. Mahalla jamg‘armalari: Har bir mahallada o‘z jamg‘armasi mavjud. Unga o‘z hududidagi soliq tushumlarining bir qismi, homiylik mablag‘lari va boshqa daromadlar tushadi. Mahalla raisi ushbu mablag‘larni Kengash qarori bilan hududdagi shoshilinch muammolarga sarflash huquqiga ega. Jamoatchilik nazorati va profilaktika Mahalla – jamoatchilik nazoratining markazidir.

“Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun mahallalarga ulkan vakolatlar bergan [8]. Mahalla o‘z hududidagi maktab, shifoxona va boshqa tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish huquqiga ega. Agar ular ishiga sovuqqonlik bilan qarayotgan bo‘lsa, mahalla yig‘ini ularni lavozimidan ozod etish bo‘yicha yuqori idoralarga taqdimnoma kiritishi mumkin. Raqamlashtirish va shaffoflik “Mahallabay” ishlash usuli — bu davlat xizmatlarini fuqaro eshigigacha olib borishning huquqiy modelidir. “Onlayn mahalla” platformasi barcha jarayonlarni qonuniy nazoratga oladi. Masalan, fuqaro yordam so‘rab murojaat qilsa, uning arizasi elektron bazada qayd etiladi va muddatida ko‘rilmasa, yuqori turuvchi organlarga “qizil chiroq” bo‘lib yonadi [6].

Xulosa. O‘zbekistonda mahalla instituti o‘zining haqiqiy huquqiy egasini topdi. Bu tizim endi qog‘ozda emas, balki amalda odamlarning dardi bilan yashayotgan mexanizmga aylandi. Kelajakdagi vazifalar:

1. Mahallaning yuridik xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish (har bir mahallaga bepul huquqiy maslahat tizimini kengaytirish).
2. Mahallalarning qonun ijodkorligi jarayonidagi (*Local governance initiative*) rolini oshirish.
3. Raqamli platformalarni sun’iy intellekt bilan boyitish orqali aholi ehtiyojlarini prognozlash.

Kuchli mahalla — bu adolat qaror topgan jamiyat demakdir. Zero, mahalla obod bo‘lsa, yurt obod bo‘ladi, mahalla tinch bo‘lsa, davlat barqaror bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Azamat Ziyo. (2000). *O‘zbek davlatchiligi tarixi*. Toshkent: Sharq.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”. (1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan dastlabki tahriri va 2013-yil 22-apreldagi O‘RQ-350-sonli yangi tahriri). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Yangi tahriri). 2023-yil 30-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi referendumida qabul qilingan. 127-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-82-son Farmoni.

6. “Onlayn mahalla” elektron platformasi to‘g‘risidagi nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida joriy etilgan raqamlashtirish dasturlari tahlili.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Qarori. “Tashabbusli byudjetlashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish hamda faol ishtirok etgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi O‘RQ-474-son Qonuni.

9. O‘zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi. 40-modda.

10. Pekkanen, R. (2006). *Japan's Dual Civil Society: Members Without Advocates*. Stanford University Press.

VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MAHALLA VA NURONIYLAR TA’SIRINI KUCHAYTIRISH

Aliyeva Dilbar
Alfraganus universiteti “Tillarni o‘qitish markazi”v.b. dotsenti, RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada mahalla hududida istiqomat qilayotgan nuroniylarning kelajak avlodni tarbiyalash jarayonidagi beqiyos o‘rni va ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati atroflicha hamda ilmiy tahlil asosida yoritib berilgan. Unda yoshlar kamolotida mahalla institutining tutgan o‘rni alohida e’tirof etilib, ushbu ijtimoiy tuzilmaning tarbiyaviy funksiyalari

tizimli ravishda ochib berilgan. Xususan, keksalarning boy hayotiy tajribasi, uzoq yillar davomida shakllangan dunyoqarashi, ibratli faoliyati hamda pand-nasihatlari yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi muhim omil sifatida talqin etilgan. Nuroniylar tajribasi va ma’naviy merosidan oqilona hamda samarali foydalanish jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta’minlash, ma’naviy yetuk va barkamol avlodni voyaga yetkazishning muhim sharti ekani nazariy hamda amaliy dalillar asosida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, yoshlar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy birdamlik, nuroniylar, tarbiya, oila, mahalla faollari, hayotiy tajriba, sabr-toqat.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida: “Bugungi murakkab zamonda yoshlarimizda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni chidamli qilish, xalqimizni yanada birlashtirish va jipslashitirishda mahallaning o‘rni beqiyosdir. Mahalla va yaxshi qo‘shnichilik o‘zaro uyg‘un qadriyatlardir. Ular jamiyatda insoniy va ijtimoiy kapitalni yanada boyitishga beqiyos hissa qo‘shadi. Mamlakatimizda o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovlarda ishtirok etganlarning 90 foizdan ko‘prog‘i o‘zini mahalla jamoasining bir qismi deb hisoblashi ham shundan dalolat beradi. Barchamiz uchun ham ota, ham ona bo‘lgan mahallaga, shu asosda Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg‘usining yuqoriligi ushbu institut avvalo ijtimoiy birdamlik manbai ekanini ko‘rsatadi.” – deb bejizga aytmaganlar.[5] Haqiqatan ham har bir jamiyatning ertasi barkamol avlod bo‘lib, ularning tarbiyasida oila, mahalla, mahalladagi nuroniylarning o‘rni beqiyosdir. “Bitta bolaga yetti mahalla ota-ona” – deb bejizga aytilmagan. Nuroniylar- hayot sinovlarida katta tajribaga ega bo‘lgan , oq-qorani tanigan, hurmatga sazovor dono shaxslardir.[6] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 -yil 27-dekabr 892-son qaroriga asosan qabul qilingan “Faol nuroniylarni Ijtimoiy reyestrga kiritilgan oilalarga biriktirish hamda mahallada sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma’naviy muhitni shakllantirishga jalb 2etish to‘grisida”gi Nizomga ko‘ra, “faol nuroniy - aholi orasida hurmat va e’tiborga sazovor bo‘lgan, biriktirilgan hududda doimiy yoki vaqtincha yashovchi 55 yoshdan 75 yoshgacha bo‘lgan mahalla faollari” -deb hisoblanadi.[3] Demak

nuroniylar- aholi orasida hurmat va e’tiborga sazovor, hududdda yashovchi 55 yoshdan 75 yoshgacha bo‘lgan, hayotiy tajriba mavjud bo‘lgan keksa yoshli shaxslar hisoblanadi.

Yoshlarda vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda keksa yoshli shaxslarni ishtiroki bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risi”dagi farmonining 96-maqsadi 315-qismiga asosan “aholi, ayniqsa, yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash orqali ularda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini yuksaltirishga qaratilgan mediamahsulotlar tayyorlash”, belgilangan.[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekbardagi 4906-son farmoniga asosan “faxriylarning O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashda, mamlakatning ijtimoiy- siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, oqsoqollar, keksa yoshdagilar va faxriylarni yoshlarni Vatanga muhabbat, keksa avlod kishilarini hurmat qilish, ezgulik va rahmdillik singari xalqimizning ko‘p asrlik an’analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan ijtimoiy faoliyatga jalb etish” muhim hisoblanadi. [1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi 81-son farmoniga ko‘ra, “nuroniy va keksalarni mahallalarda oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni Vatanga muhabbat, ezgulik va rahmdillik singari an’analarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga keng jalb etish” kerakligi belgilangan. [2] Nuroniylar urush va tinchlik davrlarni, mehnat va mashaqqatlarni boshdan kechirgan bo‘lib, yosh avlodga sabr-toqatli bo‘lish, mehnatkash va vatanparvar bo‘lishga chorlaydi. Yoshlarda nuroniylar kabi hayotiy tajribalari yetarli bo‘lmaganligi uchun muhim qarorlarni shoshqaloqlik bilan qabul qilib, o‘z hayotlarini noto‘g‘ri yo‘lga olib borishi mumkin, shu holatlarni oldini olish uchun ham nuroniylar bilan suhbatlashish, ularning hikoyalarini tinglash va maslahatlar so‘rash kerak bo‘ladi. Ular bilan

suhbatlashish orqali yoshlar o‘zida immunitet hosil qila oladi, shuningdek, oila, jamiyat, Vatanga muhabbat ruhida o‘sadi.

Vatan ravnaqi - milliy g‘oyamizning yuksak tushunchalaridan biri bo‘lib, u fuqarolarimizning bilimi va kamoliga bog‘liq bo‘lib, har bir yurtdoshimiz, qaysi sohada xizmat qilishidan qat’i nazar, bu haqiqatni to‘liq anglagan holda, o‘zining ma’naviy kamoloti uchun mas’uliyatni his etishi, shaxsiy manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashi va o‘sib kelayotgan yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashi lozim. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma’naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi”, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi.[7] Nuroniylar milliy qadriyatlarimizni yosh avlodga yetkazishda muhim ko‘prik vazifasini bajaradi. Globallashuv jarayonida yoshlar ongiga turli xil yot g‘oyalar ta’sir etishi mumkin, bu holatda nuroniylar bilan uzviy aloqa orqali yosh avlodga oila muqaddasligi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi muhim qadriyatlar singdirib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, mahalladagi nuroniylarning hayotiy tajribasi kelajak avlod tarbiyasida beqiyos o‘rin tutadi. Ularning boy umr yo‘li, dono maslahatlari va ibratli faoliyati yoshlarning komil inson bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla va nuroniylar o‘rtasidagi hamkorlik natijasida yoshlar ma’naviy barkamol, vatanparvar hamda mas’uliyatli insonlar sifatida shakllanadi. Nuroniylarni e’zozlash, ularning pand-nasihatlariga amal qilish va tajribasidan bahramand bo‘lish har bir yoshning vazifasidir. Zero, bugungi yoshlar - ertangi kun bunyodkorlari, ularning to‘g‘ri tarbiyasi esa jamiyat taraqqiyotining mustahkam poydevori va yo‘lini yorituvchi ma’naviy chiroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekbardagi 4906-son farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-3089694

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi 81-son farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-5884143

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 -yil 27-dekabr 892-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7283303

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risi”dagi farmoni. https://lex.uz/docs/-8050787

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/oz/lists/view/8834

6. Sh.Raxmonov. “Mahalladagi nuroniylar tajribasi-kelajak avloq tarbiyasida muhim omil ”.“O‘zbekistonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni qo‘llash: muammolar va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi . 2026-yil.

7. E.Xudoyberdiyev. Oilada vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ma’naviyatning o‘rni. “Oila institutini mustahkamlashning dolzarb masalalari: farovon hayot, ta’lim va barqaror kelajak” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami. 2024-yil.

AKADEMIK SOBIR KAMALOV SIYOSIY FAOLIYATIDA MAHALLAGA OID XIZMATLARI

Abatov Asqar Reyimbayevich

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Akademik S.K.Kamalov haqli ravishda Qoraqalpog‘iston tarixi maktabining asoschisi va qoraqalpoq xalqi tarixini chinakam ilmiy tadqiq qilishning boshida turgan olimlarning ustozidir. Maqolada S.K.Kamalovning siyosiy sohada olib borgan ishlari arxiv materiallari asosida keng yoritilgan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Oliy

Soveti raisi o‘rinbosari sifatidagi faoliyati davrida mahalla hayotiga tegishli faoliyati aniq misollarda keltirilgan. Ustoz S.Kamalovning ilmiy asarlari va siyosiy faoliyatidagi yutuqlari mamlakatimizning tarixshunosligida o‘z ahamiyatini saqlab qolgan fundamental kashfiyotlar bo‘lib xizmat qildi

Kalit so‘zlar: akademik S.K.Kamalov, tarix, siyosiy faoliyat, mahalla, deputat, jamoatchilik faoliyati

Ma’lumki, Sobiq ittifoq davrida ham O‘zbekistonda mahalla instituti mavjud bo‘lgan. Lekin ularning funksiyalari va roli hozirgidan farq qilgan. Sovet davrida mahallalar to‘liq hukumat nazorati ostida bo‘lib, asosan ma’muriy vazifalarni bajargan. Masalan, ro‘yxatga olish, kommunal xizmatlarni nazorat qilish, jamoat tartibini saqlash kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Shuningdek, mahallalar usha davrdagi mafkuraviy siyosatni targ‘ib qilishda ham muhim rol o‘ynagan.

Akademik Sabir Kamalovning tarjimayi holi va siyosiy faoliyati haqidagi asosiy ma’lumotlar asosan arxiv xujjatlarida, ilmiy maqolalar to‘plamlarida va hamkasblar, shogirdlarining xotiralarida mavjud. Akademik Sabir Kamalov – O‘zbekiston tarixida o‘chmas iz qoldirgan yetuk olim, siyosat va jamoat arbobidir. Uning siyosiy faoliyati xalq manfaatlariga xizmat qilish, mamlakatni rivojlantirish va ilm-fanni ravnaq toptirishga qaratilgan. Uning rahbarligi ostida ko‘plab muhim islohotlar amalga oshirilgan. Bunday insonning mehnatlari munosib baholanib mahalliy va Respublika Kengashlariga deputat qilib saylanishi ham tabiiy holdir. U 1959-1999-yillarda 40-yil davomida uzluksiz Qoraqalpog‘iston va O‘zbekiston Oliy Sovetlariga deputatlikga saylanib keldi. Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Sovetining 1967-yil 6-apreldagi Qaroriga muvofiq Qoraqalpog‘iston Oliy Soveti raisi o‘rinbosari Sabir Kamalov Beruniy tumani Xamza saylov okrugidan Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Sovetining deputati etib tayinlandi[1:6]. Keyinchalik esa Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Sovetining 1971-yil 1-oktyabr holatidagi deputatlar ruyhatida Qoraqalpog‘iston Oliy Soveti raisi o‘rinbosari Sabir Kamalov Nukus shahri №11 Kalinin saylov okrugidan Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Sovetining deputati etib tayinlandi[2:10]. Mana shu deputatlik faoliyati va

Qoraqalpog‘iston Oliy Soveti raisi o‘rinbosari lavozimida S.Kamalov bevosita chekka-chekka mahallalar hayotida oid qarorlar qabul qilinishida ishtirok etgan.

Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumining 1964-yil 30-noyabrdagi №21 sonli Protokoli bilan qayd etilgan majlisida mehnatkash deputatlarning Xo‘jayli shahar Soveti tashkiliy-ommaviy ishining holati haqida ma’lumotnoma keltirilgan. Mazkur taxliliy axbarot S.Kamalov, A.Nurpeysov, F.Jumaniyozov, K.Tadjiyev, A.Danchenkolar hammuallifligida tayyorlangan. Unda tuman mehnatkashlarning ijtimoiy faolligini oshirish va turmush sifatini yaxshilash xaqida takliflar keltirilgan[3]. Huddi shunday hujjat, Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumining 1967-yil 19-iyundagi №23 sonli Protokolida mehnatkash deputatlarning Kenes va Shumanay qishloq Soveti tashkiliy-ommaviy ishining holati haqida ma’lumotnomada keltirilgan.

Tadqiqodlarimiz shuni ko‘rsatadiki, Akademik Sabir Kamalov jo‘da ko‘p va har hil ma’suliyatli jamoat ishlariga, turli hil masalalar bo‘yicha komissiya ishlariga jalb qilingan. Masalan, Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Sovetining Prezidiumi Kegeyli tumani voyaga yetmaganlarning ishlari buyicha komissiya tarkibida ishtirok etgan[4:2]. Komissiya a’zolari mahallada o‘smirlar orasida huquqbuzarlik, jinoyat sodir etish, maktab darslarini sababsiz qoldirish, maktabni tashlab ketish, nazoratsiz qolgan bolalar taqdiri kabi muammolarni aniqlagan va ularga chora ko‘rgan.

Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumining 1972-yil 26-apreldagi №10 sonli Protokolida ishchi deputatlarning Taxtakupir tumani Soveti tashkiliy-ommaviy ishining mahallalardagi holati haqida bayonati keltirilgan[5:3]. Bayonat S.Kamalov tomonidan tayyorlangan va mazkur prezidium majlisida muhokama qilingan.

Arxiv hujjatlarida qayd etilganidek, Sobir Kamalov Xalq sudyalarining saylovchilar oldidagi hisobotlari va xalq maslahatchilari bilan ishlash to‘g‘risida komissiya ishida ishtirok etdi[6:3]. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston ASSR To‘rtko‘l tumani mehnatkashlar deputatlari mahalliy Sovetlari doimiy komissiyalari tarkibida qatnashdi[7:3]. Bu komissiyaga Sobir Kamalovdan tashqari ko‘zga ko‘ringan va faol jamoat arboblari M.Atajanov, S.Ibragimova, A.Abdulin, G.Nasrullayeva,

F.Jumaniyazovalar jalb qilingan. Komissiya a’zolari To‘rtko‘l tumani mehnatkashlarining turli muammolari, masalan, maishiy xizmat sifatini yaxshilash, kommunal xizmatlar, tibbiy xizmatni yaxshilash kabi masalalar yuzasidan murojaatlarni yozib olgan va ularni tegishli manzillarga yuborgan.

Bu arxiv ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, Sabir Kamalov mahalladagi xalq bilan doimiy muloqotda bo‘lgan, uning jamoatchilik bilan uchrashuvlari, muammolarni hal etishdagi faolligi xalq orasida katta hurmat qozonishiga sabab bo‘lgan.

Sobiq ittifoq darida O‘zbekistonda mahalla instituti mavjud bo‘lgan, lekin uning roli va ahamiyati hozirgidek emas edi. O‘sha paytda mahallalar asosan quyidagi vazifalarni bajargan: 1.Jamoat tartibini saqlash: Mahalla faollari huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda hududda tinchlikni ta’minlashga yordam berishgan. 2.Ijtimoiy yordam: Kam ta’minlangan oilalarga, nogironlarga va yolg‘iz qariyalarga yordam ko‘rsatish mahallaning vazifalaridan biri bo‘lgan. 3. Ma’rifiy ishlar: Mahallalarda turli xil ma’rifiy tadbirlar, suhbatlar va uchrashuvlar o‘tkazilgan. 4. Xo‘jalik ishlari: Mahalla aholisi obodonlashtirish, ko‘chalarni tozalash va boshqa xo‘jalik ishlarida ishtirok etgan. Sobiq Ittifoq davrida mahallalarning faoliyati qat’iy nazorat ostida bo‘lgan va ularning siyosiy roli cheklangan edi. Mahalla qo‘mitalari asosan partiya va davlat organlarining ko‘rsatmalari asosida ish yuritgan.

Tadqiqodimiz shuni ko‘rsatadiki, 1977-yil 24-iyunda Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumining №117 sonli Qoraqalpog‘iston ASSR Konstitutsiyasini tayyorlash bo‘yicha komissiyani tuzish to‘g‘risidagi qarori qabul qilinadi [13:10]. Bunday g‘oyat ma’suliyatli ishni amalga oshirish uchun 45 odamdan iborat komissiya shakllanishi belgilangan. Ular usha paytdagi davlat va jamoat arboblarining eng oldingi qatordagi vakillari edi. Masalan, Q.Kamalov, Ch.Abdirov, S.Kamalov, A.Balakin, D.Yeshimbetov, S.Kaniyazov, V.Kislov, M.Lunev, K.Rzayev, T.Sherbekov, K.Yusupov kabi yetuk nomoyondalar komissiya tarkibiga kirgan edi. Ma’lumki, Qoraqalpog‘iston ASSRning Konstitutsiyasi 1978-yil 29-mayda Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy

Sovetining to‘qqizinchi chaqiriq sakkizinchi navbatdan tashqari sessiyasida qabul qilindi.

Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumining 1982-yil 24-mayda 22-sonli Protokoli bilan qayd etilgan majlisda «Leninobod tumani xalq deputatlari Kengashlarining onalik va bolalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya yetish, ko‘p bolali onalarni mukofotlash bo‘yicha ishlari to‘g‘risida» masala ko‘n tartibiga quyiladi. Qoraqalpog‘iston ASSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi o‘rinbosari S.Kamalov, Xotin-qizlar hayoti va mehnati, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisining o‘rinbosari A.D.Dosnazarov, Leninobod tumani Xalq ta’limi bo‘limi boshlig‘i X.Qurboniyozov va Leninobod tumani markaziy kasalxonasi bosh shifokori G.Asenov tomonidan mazkur masala buyicha ma’lumotnoma tayyorlangan.

Mazkur hujjatda 1981-yilda va 1982-yilning birinchi choragida tumandagi mahallalarda jami 338 nafar ko‘p bolali onalar taqdirlangani, ulardan 12 nafari «Qahramon ona» faxriy unvoni bilan berilgani qayd etilgan. Umuman olganda, tumanda ko‘p bolali onalarni mukofotlash, mukofotga tayinlash va davlat imtiyozlarini to‘lash uchun o‘z vaqtida taqdim yetish ta’minlangan. Ayollar va bolalar uchun onalik xizmatlarini yaxshilash, davlat maktabgacha ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ba’zi ishlar olib borilganligi, maktab kiyimlarini sotib olish va boshqa maqsadlar uchun ajratilgan mablag‘lar to‘liq foydalanilganligi yozilgan [8:6].

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida mahalla instituti tubdan o‘zgardi. Uning vakolatlari kengaytirildi, mahallalarning jamiyatdagi roli va ahamiyati oshdi. Hozirgi kunda mahalla - bu nafaqat hududiy birlik, balki o‘zini o‘zi boshqarish organi hamdir. Xulosa sifatida aytish mumkunki, Qoraqalpog‘istonda tarix degan muqaddas ilmning boshida 60-yildan ortiq karvonboshilik qilgan, uning og‘ir-yengilini ko‘targan, vatanining tarixini yozishdek sharafli burchni bajarishda eng oldingi safda hissa ko‘shgan, tarixni tarbiya kuroliga aylantirgan, qoraqalpoq tarixchilarining otasi akademik Sabir Kamalovning faoliyati ilmiy izlanishlar va siyosiy faoliyat bilan uzviy bog‘lagan. Uning ilmiy

ishlanmalari va siyosiy faoliyati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivi 229-Fond, 1-Ruyxat, 1290-Ish, 6-Bet.
2. QR MDA, 229-F, 1-R, 1313-I, 10-B
3. QR MDA, 229-F, 1-R, 1272-I, 2-B
4. QR MDA, 229-F 1-R, 1329-I, 3-B
5. QR MDA, 229-F 1-R, 1277-I, 14-B
6. QR MDA F-229, R-1, I-1276, B-6
7. Q QR MDA F-229, R-1, I-1276, B-6
8. QR MDA F-229, R-1, I-1433, B- 311-312

KORXONA IJTIMOIY JAVOBGARLIGI VA INSON KAPITALINI BOSHQARISH ORQALI JAMIYATNING MA’NAVIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASH

Abduvohidova Gulshan Akmalovna
SamISI Menejment kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxona ijtimoiy javobgarligi (Corporate Social Responsibility – CSR) va inson resurslarini boshqarish (Human Resource Management – HRM)ning zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida o‘zaro bog‘liqligi va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada CSR va HRMning uyg‘un rivoji korxonaning barqarorligi, ijtimoiy obro‘si va uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlashdagi roli ko‘rsatib o‘tilgan.[1][2] Shuningdek, maqolada xodimlarni tanlash, rivojlantirish, rag‘batlantirish va ularning ijtimoiy farovonligini ta’minlash jarayonlarida CSRning ahamiyati va HRMning

strategik vazifalari yoritilgan.[4][5]

Kalit so‘zlar. Inson resurslarini boshqarish (HRM), inson kapitali, barqaror rivojlanish,xodimlar farovonligi, startegik boshqaruv, jamiyatga ta’sir, raqobatbardoshlik, korxona imidji, kasbiy rivojlanish.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar tizimida korxonalar faoliyati faqatgina foyda olish bilan cheklanib qolmay, balki jamiyat oldidagi mas’uliyatni chuqur anglashni ham talab etmoqda.[1] Raqobatning kuchayishi, globallashuv jarayonlari va inson kapitalining strategik ahamiyati ortib borayotgan sharoitda korxona ijtimoiy javobgarligi (Corporate Social Responsibility – CSR) va inson resurslarini boshqarish (Human Resource Management – HRM) o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘lmoqda. [2] Ushbu ikki yo‘nalishning uyg‘un rivoji korxonaning barqarorligi, ijtimoiy obro‘si hamda uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.[4]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda korxona ijtimoiy javobgarligi va inson resurslarini boshqarishning amaliy va strategik jihatlari o‘rganiladi.[5][6]

Tahlil va natijalar. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, korxona ijtimoiy javobgarligi deganda tashkilotning o‘z faoliyatida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarni uyg‘unlashtirgan holda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi tushuniladi.[1][4] Ijtimoiy javobgar korxona nafaqat aksiyadorlar manfaatini, balki xodimlar, iste’molchilar, mahalliy aholi va atrof-muhit manfaatlarini ham hisobga oladi. Aynan shu yondashuv korxonani jamiyatning muhim subyekti sifatida shakllantiradi.

Inson resurslarini boshqarish esa xodimlarni tanlash, joylashtirish, rivojlantirish, rag‘batlantirish va baholash jarayonlarini o‘z ichiga olgan strategik boshqaruv tizimidir.[2][5] Zamonaviy HRM insonni oddiy ishlab chiqarish omili sifatida emas, balki korxonaning eng muhim kapitali sifatida ko‘radi. Shu sababli inson resurslarini samarali boshqarish ijtimoiy javobgarlik tamoyillariga asoslanishi zarur. CSR va HRM o‘rtasidagi bog‘liqlik, avvalo, xodimlarga bo‘lgan munosabatda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy javobgar korxona xodimlar uchun xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratadi, mehnat huquqlariga rioya qiladi, diskriminatsiyaga

yo‘l qo‘ymaydi hamda adolatli ish haqi tizimini shakllantiradi. Bunday muhitda faoliyat yuritayotgan xodim o‘zini qadrlangan va himoyalangan his qiladi, bu esa uning ishga bo‘lgan sadoqatini oshiradi. Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirish CSRning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xodimlarning bilim va malakasini oshirish, kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, treninglar va e-learning platformalarini joriy etish korxonaning ijtimoiy mas’uliyatli siyosatini aks ettiradi. Uzluksiz ta’lim imkoniyatlariga ega bo‘lgan xodimlar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi, bu esa korxona faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, korxona ijtimoiy javobgarligi xodimlarning ijtimoiy farovonligini ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Sog‘liqni saqlash dasturlari, ijtimoiy paketlar, moslashuvchan ish vaqti, gender tengligi va ish-oila muvozanatini qo‘llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar HRM tizimi orqali amalga oshiriladi. Natijada xodimlar o‘rtasida ijobiy psixologik muhit shakllanib, kadrlar almashinuvi kamayadi.

CSRga asoslangan inson resurslarini boshqarish korxonaning tashqi imijiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [3][6] Ijtimoiy mas’uliyatli korxona mehnat bozorida jozibador ish beruvchi sifatida taniladi. Bu esa yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va ularni uzoq muddat saqlab qolish imkonini beradi. Bugungi kunda yosh mutaxassislar ish tanlashda faqat maoshga emas, balki korxonaning qadriyatlari va ijtimoiy pozitsiyasiga ham e’tibor qaratmoqda. Shu bilan birga, CSR va HRMning uyg‘unlashuvi tashkilot ichida ishonch va ochiqlik muhitini yaratadi. Xodimlar o‘z fikrlarini erkin bildirishga, tashabbus ko‘rsatishga intiladi. Bu esa innovatsion g‘oyalar paydo bo‘lishiga, korxonaning moslashuvchanligi va raqobatbardoshligining oshishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda korxona ijtimoiy javobgarligi va inson resurslarini boshqarish sohasida qator dolzarb muammolar mavjud bo‘lib, ular amaliy faoliyatda o‘z aksini topmoqda. Avvalo, ko‘plab korxonalarda ijtimoiy javobgarlik faqat rasmiy hujjatlar va tashqi imijni yaxshilash vositasi sifatida qaralaydi.[1] Ya’ni CSR real amaliyotdan ko‘ra, formal yondashuv darajasida qolib ketmoqda. Mening fikrimcha, bunday yondashuv xodimlar ishonchining pasayishiga va HRM tizimining samarasiz ishlashiga olib keladi.

Yana bir muhim muammo — xodimlar manfaatlari bilan korxona manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatning yetarli darajada ta’minlanmasligidir.[5][6] Ba’zi tashkilotlarda mehnat unumdorligi va foyda ustuvor qo‘yilib, xodimlarning ruhiy holati, kasbiy rivoji va ijtimoiy ehtiyojlari e’tibordan chetda qolmoqda. Mening fikrimcha, bu holat uzoq muddatda kadrlar almashinuvi oshishiga, motivatsiyaning pasayishiga va korxona raqobatbardoshligining susayishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, inson resurslarini rivojlantirishga yetarli investitsiya kiritilmasligi ham dolzarb muammolardan biridir.[8] Treninglar, malaka oshirish va e-learning tizimlari ayrim korxonalarda qo‘llanilmaydi yoki cheklangan doirada amalga oshiriladi. Mening fikrimcha, bu inson kapitalining to‘liq shakllanmasligiga va zamonaviy bilim hamda ko‘nikmalarning yetishmasligiga olib keladi.

Ushbu muammolarga yechim sifatida, eng avvalo, CSRni korxona strategiyasining ajralmas qismi sifatida joriy etish zarur. Ijtimoiy javobgarlik tamoyillari HR siyosati bilan uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Xodimlar uchun adolatli mehnat sharoitlari yaratish, ochiq va shaffof boshqaruv tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.[2][5]

Bundan tashqari, inson resurslarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni oshirish zarur. Treninglar, uzluksiz ta’lim va raqamli o‘qitish platformalaridan foydalanish orqali xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish mumkin. Mening fikrimcha, aynan bilimli va ijtimoiy jihatdan himoyalangan xodim korxonaning eng katta boyligi hisoblanadi. Shuningdek, xodimlar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, ularning fikr va takliflarini inobatga olish CSR va HRM samaradorligini oshiradi. Bu orqali korxonada sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanib, ijtimoiy javobgarlik real amaliy mazmun kasb etadi.[7]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, korxona ijtimoiy javobgarligi va inson resurslarini boshqarish bir-birini to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi strategik yo‘nalishlardir. Ijtimoiy mas’uliyatli HRM siyosati xodimlarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash bilan birga, korxonaning uzoq muddatli barqarorligi, ijobiy imiji va jamiyatdagi mavqeini mustahkamlaydi. Shunday ekan, zamonaviy korxonalar uchun CSR tamoyillariga asoslangan

inson resurslarini boshqarish raqobat ustunligini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Corporate Social Responsibility: Evolution of a Definitional Construct”. Carroll, A. B. Business & Society, 1999, Vol. 38, No. 3, pp. 268–295.

2. “Handbook of Human Resource Management Practice”. Armstrong, M. A 15th ed. London: Kogan Page, 2020.

3. “Creating Shared Value”. Porter, M. E., Kramer, M. R. Harvard Business Review, 2011, Vol. 89, No. 1/2, pp. 62–77.

4 “Strategic Management: A Stakeholder Approach” . Freeman, R. E. Boston: Pitman, 1984.

5. “Human Resource Management: Theory and Practice”. Bratton, J., Gold, J. 6th ed. London: Palgrave Macmillan, 2017.

6. “Corporate Social Responsibility and Employee Engagement: A Systematic Review” Khan, S., et al. Journal of Business Ethics, 2020, Vol. 167, pp. 235–255.

7. “Social License and Environmental Protection: Why Businesses Go Beyond Compliance.” Gunningham, N., Kagan, R., Thornton, D. Law & Social Inquiry, 2004, Vol. 29, No. 2, pp. 307–341.

8. “Korxona ijtimoiy javobgarligi va inson resurslarini boshqarishning zamonaviy usullari.” Safarov, Sh. T.: Ilm-fan, 2018.

ZJV5401

AHMAD DONISHNING MA’RIFATPARVAR IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI VA ISLOHOTCHILIK G‘OYALARI

Atayev Alisher Rizkulovich,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Buxoro ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojida muhim o‘rin tutgan ma’rifatparvar olim Ahmad Donishning qarashlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda uning “Navodir ul-voqe’” hamda Mang‘itlar sulolasi tarixiga bag‘ishlangan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar, ayniqsa jamiyatni isloh qilish, ilm-ma’rifatni rivojlantirish va davlat boshqaruvi masalalariga oid fikrlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, muallifning ijtimoiy adolat, bilim va taraqqiyot haqidagi qarashlari tarixiy manbalar asosida yoritilib, ularning o‘sha davr ijtimoiy muhitiga ta’siri baholanadi. Maqola natijalari Ahmad Donish merosining Markaziy Osiyo ijtimoiy tafakkuri tarixidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Donish, ma’rifatparvarlik, Buxoro amirligi, ijtimoiy tafakkur, Navodir ul-voqe’, Mang‘itlar sulolasi tarixi, islohot g‘oyalari, Markaziy Osiyo tarixi.

“Ahmad Donishning ma’rifatparvar ijtimoiy-falsafiy qarashlari va islohotchilik g‘oyalari” mavzusiga doir ushbu qisqartirilgan matnda mutafakkirning davlat, adolat, islohot, ma’rifat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi asosiy g‘oyalari tizimli bayon qilinadi.

Ahmad Donish — yozuvchi, shoir, xattot, rassom va astronom bo‘lish bilan birga, kech feodalizm davrining yirik faylasuf va sotsiolog mutafakkirlaridan biri edi. Uning asarlarida inson va olam munosabati, ruh va tananing me’yori, iroda va bilish imkoniyatlari kabi masalalar muhim o‘rin tutadi. Biroq Donish tafakkurining eng muhim jihati — jamiyatni axloq, adolat va umumiy manfaat mezonlari asosida baholagan ijtimoiy qarashlaridir. Shu bois uning merosida ma’rifatparvar ijtimoiy falsafa aniq shakl kasb etadi.

Bu dunyoqarash XIX asr ikkinchi yarmidagi Buxoro amirligining siyosiy-iqtisodiy muhiti hamda Donishning Rossiya safarlari ta’sirida shakllandi. U Forobiy, Ibn Sino, Ibn Miskavayh, G‘azzoliy, Devoniy va Bedil kabi mutafakkirlar merosidan g‘oyaviy ozuqa oldi. Shu zaminda Donish aqlni mezon, adolatni maqsad, tartibni esa jamiyat taraqqiyotining asosiy vositasi deb bildi. Peterburg safarlari esa unga davlat boshqaruvi, qonun va jamoat tartibiga amaliy ko‘z bilan qarash imkonini berdi.

Donish islohparvar g‘oyalarini ochiq bayon qilgan mutafakkir edi. U askariy intizom, davlat tartibi va boshqaruv nizomi haqida maxsus risola yozganini, ammo bu takliflarga jiddiy e’tibor berilmaganini afsus bilan qayd etadi [1]. Aynan shu jihat — amaliy islohotlar dasturini ishlab chiqqanligi — uni Markaziy Osiyodagi yangi progressiv fikrning etuk vakiliga aylantirdi [2].

1870-yillarda Donish ma’rifatparvar ijtimoiy falsafasining birinchi bosqichi shakllandi. Bu davrning asosiy mahsuli «Navodir ul-voqoe» asari bo‘lib, uning ko‘plab boblari falsafiy va ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan. Asarning ayniqsa «Risola dar nizomi tamaddun va taovun» bobi muhim ahamiyatga ega. Unda muallif davlatni boshqarish, xalqni ma’rifatli qilish, tartib va hamkorlikni mustahkamlash masalalarini ilgari suradi. Muallifning o‘zi bu risolani Peterburg safaridan qaytish arafasida yakunlaganini qayd etgan [3]. Ilmiy adabiyotlarda ushbu bob bejizga «siyosiy traktat» sifatida baholanmaydi; E. E. Bertels ham Donishning davlat boshqaruvi va islohot haqidagi qarashlari izchil tizimda bayon etilganini ta’kidlaydi [4].

Donishning ijtimoiy falsafasida podshoh va hokim shaxsi markaziy o‘rin tutadi. Uningcha, adolatli shoh Xudoning erdagi noibi hisoblanadi [5]. Shu sabab u amirlikni mutlaq inkor etmaydi, balki amirning axloqiy va siyosiy kamolotini shart deb biladi. Amir adolatli, insofli, tejamkor, xalq ehtiyojini anglaydigan, shariat qoidalarini buzmaydigan va mansablarga halol kishilarni qo‘yadigan shaxs bo‘lishi lozim. Bu g‘oyalar Sharq tafakkuriga xos bo‘lish bilan birga, o‘rta asr G‘arb siyosiy-huquqiy qarashlari bilan ham uyg‘un. Masalan, Henri de Brakton podshohning haqiqiy qonuniyligi uning adolat bilan ish ko‘rishiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [6].

Donish podshohni «bog‘bon» timsolida tasvirlaydi: hokimning vazifasi yurtni obod qilish, tartibni saqlash va xalq manfaatini ko‘zlashdan iborat [7]. Demak, hokimning haqiqiy legitimligi nasab yoki kuchda emas, balki adolat, obodonchilik va umumiy manfaatni ta’minlash qobiliyatida ko‘rinadi. Agar hokim yoki amaldor zolim bo‘lsa, mamlakat vayron bo‘ladi. Bu erda Donish faqat amirni emas, butun amaldorlar tizimini ham tanqid qiladi. Uningcha, podshoh zolim amaldorlarni bila turib sukut qilsa, o‘zi ham zolimlar safiga qo‘shiladi [9]. Bu fikr Eli Vizelning zulm qarshisida betaraflik ham javobgarlik ekani haqidagi umuminsoniy xulosasi bilan hamohangdir [8].

Donishning ikkinchi bosqich ijtimoiy qarashlari «Risola-yi muxtasar az ta’rixi saltanati xonadon-i Mangitiya» asarida yanada ravshan ifoda topadi. U erda mutafakkir mamlakat tanazzulini, avvalo, hukmdor va vazirlarning nodonligi hamda ojizligi bilan bog‘laydi [10]. Ilmiy adabiyotlarda bu yondashuv ba’zan sub’ektiv-idealistik talqin sifatida baholanadi, chunki Buxoro amirligidagi tanazzul faqat shaxsga emas, balki butun ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga bog‘liq edi. Shunga qaramay, Donish aql va adolatni davlat boshqaruvining asosiy mezoni sifatida ilgari surgani bilan muhimdir.

Shu bilan birga, Donish tarixiy taraqqiyotni faqat podshoh shaxsiga bog‘lab qo‘ymaydi. U ravnaqning asosiy omillari sifatida hayot, suv va adolatni ko‘rsatadi; tanazzul sabablari esa o‘lim, suvsizlik va zulm deb belgilaydi [11]. Bu fikrda jamiyat hayotining moddiy va ma’naviy asoslari o‘zaro bog‘langan: suv — dehqonchilik va tirikchilik sharti, adolat esa qonun ustuvorligi va insof ramzidir. Demak, yurt obodligi uchun ham iqtisodiy, ham siyosiy tartib zarur.

Donish xayoliy farovonlikni emas, amaliy tadbirlarni qo‘llab-quvvatlaydi. U duo va axloq o‘rtasida ham bog‘liqlik borligini ta’kidlab, inson o‘zini tuzatmas ekan, faqat so‘z bilan natijaga erishib bo‘lmasligini uqtiradi [12]. Ushbu yondashuv uning butun falsafasida namoyon: farovonlik tasodif emas, balki tartib, mehnat, ma’rifat va adolat natijasidir.

Donish xalq va davlat ravnaqi uchun besh muhim tamoyilni belgilaydi: kuchli va odil amir, insofli amaldor, hoziq tabiblar, musofirparvarlik hamda suvning mo‘lligi [13]. Bu tamoyillar nazariy emas,

ZJV5401

balki davrning aniq ehtiyojlaridan kelib chiqqan edi. Buxoroda adolat tizimi zaif, tibbiy xizmat nochor, irrigatsiya tarmoqlari esa tanazzulga yuz tutgan bir sharoitda bu takliflar jamiyatning hayotiy talablariga javob berardi.

Irrigatsiya Donish dasturida alohida o‘rin tutadi. U Amudaryodan kanal chiqarish orqali xonlik erlarini sug‘orishni taklif qiladi. Bu g‘oya faqat hosildorlik uchun emas, balki aholi salomatligi uchun ham muhim edi. Keyinchalik Samarqand Rossiya qo‘liga o‘tgach, Zarafshon suvi taqsimotida amirlik manfaatlari cheklangani haqida ma’lumotlar ham mavjud [14]. Donish esa suvga beparvolik mamlakat vayronaligi, aholi ko‘chishi va dehqonchilikning emirilishiga olib kelishini ochiq aytgan [15]. Karl Vittfogelning irrigatsiya jamiyatlari haqidagi mulohazalari ham suv nazorati va davlat boshqaruvi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlaydi [16].

Mutafakkir iqtisodiy taraqqiyot uchun hunar, savdo va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimini ham muhim deb biladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, u savdogarlar uchun kredit jamiyatlari tashkil etish g‘oyasini ham ilgari surgan [17]. Shuningdek, u er osti boyliklarini o‘zlashtirish, xazinani mustahkamlash va shu orqali dehqon hamda hunarmandlar zimmasidagi soliq yukini engillashtirishni taklif qiladi. Bu bilan Donish iqtisodiy siyosatni ham adolat va xalq manfaati bilan bog‘laydi.

Donish ijtimoiy himoya masalasini ham nazardan chetda qoldirmaydi. U qarilik, kasallik yoki ojizlik sabab kun ko‘ra olmaydigan odamlar uchun davlat xazinasidan nafaqa ajratilishi lozimligini yozadi [18]. Bu qarash uning adolatli davlat haqidagi tasavvurida mehr-shafqat va ijtimoiy mas’uliyat muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Mutafakkir hukmdor bilan xalq o‘rtasidagi munosabatni insonparvarlik asosida talqin qiladi. Uningcha, davlatning asosiy vazifasi — xalqni himoya qilish, osoyishtalikni ta’minlash, amaldorlar zulmini cheklash va fuqarolarning xo‘jalik yuritishi uchun sharoit yaratishdir. Faqat shunday holdagina davlat soliq undirishga haqli bo‘ladi; agar dehqonga suv etkazilmasa yoki yo‘llar xavfsiz bo‘lmasa, bunday soliq halol emas [19]. Bu fikr Donishning davlat va fuqaro o‘rtasidagi huquq hamda majburiyatlar muvozanatini teran anglaganini ko‘rsatadi.

Donish amirlikda mutlaq hokimiyatni cheklashga qaratilgan islohotlar dasturini ham ishlab chiqqan. U umumiy ishlar, harbiy soha, maorif, tashqi

ishlar va moliya uchun alohida vazirlar tayinlash, davlat ishlarini muvofiqlashtiruvchi rais lavozimini joriy etish, qarorlarni o‘z vaqtida etkazuvchi mushir institutini tashkil qilish va eng muhimi, mamlakatning turli qatlamlaridan aqlli hamda bilimli kishilarni jalb etgan mashvaratxona ochishni taklif qiladi [20]. Bundan tashqari, u amaldorlarga aniq maosh belgilash, diniy ilmlar bilan bir qatorda matematika, geometriya, astronomiya, tarix, adabiyot va hunarmandchilik kabi dunyoviy fanlarni o‘qitishni ham zarur deb hisoblaydi.

Bu islohotlar dasturining ahamiyati shundaki, u o‘sha davr amirligi sharoiti uchun juda ilg‘or edi. Donish utopik davlat modelini emas, balki mavjud tuzumni adolat, qonun va maslahat asosida isloh qilish yo‘lini tanladi. Shu jihatdan uning dasturi amirlikdagi ko‘plab feodal tartiblarni amalda cheklashga qaratilgan antifeodal mazmunga ega edi. Ilmiy xulosalarga ko‘ra, uning qarashlari dehqonlar, hunarmandlar va mehnatkash qatlamlar manfaatlarini ifoda etgan [2].

Ahmad Donishning g‘oyalari Evropa ma’rifatchilari qarashlari bilan ayrim jihatlarda uyg‘unlashadi. Russo inson erkinligi va adolatli jamiyat haqida yozgan bo‘lsa [21], Donish hokimiyat qonuniyligini fuqaro himoyasi va jamoat manfaati bilan bog‘laydi. Volter aql va ma’rifat xalqni zulmdan qutqarishini ta’kidlagan [22]; Donish esa dunyoviy fanlar va tarbiyani islohotning tayanchi deb bilgan. Adam Smit dehqonchilikni xalq boyligining ishonchli manbai sifatida baholaydi [23], Donish esa suv, mehnat, irrigatsiya, hunar va savdoni iqtisodiy farovonlikning asosi deb ko‘rsatadi. Biroq Donish bu g‘oyalarni bevosita ko‘chirmaydi; ularni mahalliy sharoit, islomiy qadriyatlar va Buxoro voqeligiga mos holda qayta talqin qiladi.

Uning islohotchilik mantig‘i islomiy hikmat bilan ham uyg‘un edi. Donish avval davlat boshqaruvi va qonun-qoidalarni to‘g‘rilash, keyin esa jamiyat odobi va kundalik turmushni izga solish kerak, deb hisoblaydi. Bu yondashuv G‘azzoliyning yaxshilikka da’vat ilm, hikmat va muloyimlik bilan amalga oshirilishi haqidagi qarashlariga mos keladi [24]. Shu bilan birga, Donish diniy til va axloqiy mezonlar orqali islohot g‘oyalarini xalqqa ta’sirchan shaklda etkazishga harakat qiladi. Bu hol Ibn Xaldun ta’kidlaganidek, diniy da’vat jamoani bir maqsad atrofida jipslashtirishi haqidagi mulohazalar bilan hamohangdir [25].

Xulosa qilib aytganda, Ahmad Donish XIX asr Buxoro amirligida ma’rifatparvar ijtimoiy falsafaning eng yirik vakili sifatida maydonga chiqdi. U davlatni aql, adolat, mashvarat va qonun asosida isloh qilish, amir va amaldorlarni mas’uliyatli etish, irrigatsiya, savdo, hunar, ta’lim va ijtimoiy himoyani mustahkamlash orqali xalq farovonligiga erishish mumkinligini asosladi. Shu bilan u Sharqona axloqiy-diniy meros, mahalliy tarixiy tajriba va umuminsoniy ma’rifat g‘oyalarini o‘zaro uyg‘unlashtirib, Markaziy Osiyoda yangi ijtimoiy fikr taraqqiyotiga mustahkam poydevor qo‘ydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дониш А. Наводир ул-воқое (Нодир воқеалар). — Тошкент: Фан нашриёти, 1964. — Б. 36.

2. Избранные произведения. В 4-х т. Т. 2. Из истории общественно-философской мысли в Узбекистане. — Ташкент: Издательство «Узбекистан», 1976. — С. 109.

3. احمد دانش. رسالة ما مختصري، از تاريخ سلطنت خانوادمان منغتيه. استانبول، ۱۹۱۰ — ص ۱۵۲.

4. Бертельс Е. Э. Рукописи произведений Ахмада Каллэ // Известия АН Таджикской ССР. Отделение обществ. наук. — № 3. — Сталинабад, 1936. — Б. 20–22.

5. Дониш А. Наводир ул-вақоеъ (Нодир воқеалар) / форс-тожикчадан тарж. А. Ҳамроев, А. Шоқиров. — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1964. — Б. 184.

6. Bracton, Henry de. De legibus et consuetudinibus Angliæ // Custumals: The “Twelfth Century Renaissance.” — Cambridge, MA: Harvard Law School, Ames Foundation Digital Edition. — f. 107–107b (CUSTUMALS.pdf, p. 10).

7. Рақабов З. Маорифпарвар Аҳмади Дониш. — Душанбе: Ирфон, 1964. — С. 111.

8. Wiesel E. Nobel Lecture: Nobel Peace Prize 1986 – Acceptance Speech. NobelPrize.org. Nobel Prize Outreach AB, 1986.

9. Дониш А. Наводир ул-вақоеъ (Нодир воқеалар). — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1964. — Б. 47.

10. Дониш А. Мангитлар сулоласи тарихи: рисола / тожикчадан тарж., сўзбоши ва изоҳлар И. А. Налджафова. — Душанбе: Дониш, 1967. — Б. 53.

11. Дониш А. Мангитлар сулоласи тарихи: рисола. — Душанбе: Дониш, 1967. — Б. 16.
12. Дониш А. Мангитлар сулоласи тарихи: рисола. — Душанбе: Дониш, 1967. — Б. 61.
13. Дониш А. Наводир ул-вақоеъ (Нодир воқеалар). — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1964. — Б. 28.
14. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. — Л., 1927. — С. 145.
15. Дониш А. Мангитлар сулоласи тарихи: рисола. — Душанбе: Дониш, 1967. — Б. 60.
16. Виттфогел К. А. Developmental aspects of hydraulic societies // Irrigation Civilizations: A Comparative Study. — Washington, D.C.: Pan American Union, Department of Cultural Affairs, 1955. — С. 48.
17. Рукописи произведений Ахмада Каллэ // Е. Э. Беттельс. Труды Таджикской базы АН СССР. — М.; Л.: Изд-во АН СССР, 1936. — Т. III: Лингвистика. — С. 21.
18. Дониш А. Наводир ул-вақоеъ (Нодир воқеалар). — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1964. — Б. 50.
19. Дониш А. Наводир ул-вақоеъ (Нодир воқеалар). — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1964. — Б. 49.
20. Дониш А. Наводир ул-вақоеъ (Нодир воқеалар). — Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти, 1964. — Б. 49.
21. Руссо Ж.-Ж. Общественный договор. — М.: Изд-во АН СССР, 1969. — С. 12.
22. Вольтер. Философские письма. — М.: Мысль, 1988. — С. 47.
23. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. — М.: Соцэкгиз, 1962. — Т. I. — С. 215.
24. Имом Абу Ҳомид ал-Ғаззолий. Иҳё улуумиддин. 2-жуз’, «Амр бил-маъруф ва наҳй ан-мункар китоби», одоб ва шартлар боби.
25. Ибн Халдун. Муқаддима. I китоб, асабийя ва диннинг ўрни ҳақидаги фасл.

YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYASI

Salaeva Laylo Shavkatovna
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston yoshlarida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish strategiyasi haqidagi fikrlar tahlil qilingan. Shuningdek maqolada, bugungi kunda dunyo miqyosida g‘oyaviy qapama-qapshiliklap keckin va mupakkab tuc olgan bir sharoitda mafkuraviy tahdidlar tobora kuchayib borayotganligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, mafkuraviy immunitet, yoshlar siyosati, axborot xavfsizligi, milliy g‘oya, ma’naviy tarbiya, ta’lim, axborot, mexanizm.

Globallashuv sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, madaniy integratsiya jarayonlari yoshlar qalbi va ongiga hamda dunyoqarashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda dunyo miqyosida g‘oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tus olgan bir sharoitda mafkuraviy tahdidlar tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi jahondagi mafkuraviy manzarani tubdan o‘zgartirib yubordi. XXI asrda siyosat, iqtisod, ilm-fan, madaniyat sohalarida insoniyat tomonidan ulkan taraqqiyotga erishilgan bo‘lsa, ayni paytda global tinchlik va dunyo barqarorligiga tahdid soluvchi jiddiy xavf-xatarlar kuchayib borayotganligi albatta tashvishlidir. Internet tarmoqlari va ijtimoiy media platformalari yosh avlodning fikrlash tarzi, dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o‘rinda, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar zamirida

yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, olib qaraganda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va kuchaytirish masalasi dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu haqda yoshlarimizning ma’naviy dunyoqarashdagi o‘zgarishlar haqida fikr yuritar ekan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan edi: “Biz bugun erkin fikrlaydigan, ongli yashaydigan, siyosiy, huquqiy va ma’naviy saviyasi tobora o‘sib borayotgan, o‘z kelajagini, kim uchun va nima uchun mehnat qilayotganini o‘ziga aniq tasavvur etayotgan xalqmiz”[1]. Zero, bugungi kunda mamlakatimiz kelajagi hisoblanmish yoshlarimizni turli xil yot oqimlar ta’siriga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, ularni ma’naviyati va salohiyatini yanada yuksaltirish davlatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Shu o‘rinda, mafkuraviy immunitet – ma’lum bir shaxsda yoki ijtimoiy guruhda o‘ziga xos bo‘lgan, qat’iy, barqaror, sog‘lom mafkuraviy qarashlarning shakllanganligi bilan ifodalanadi. U shaxsning insoniylikka yot bo‘lgan turli destruktiv, ekstremistik va yot g‘oyalarga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, ularni anglab yetish va rad etish orqali tayziqlarga berilmasligida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Mafkuraviy immunitet quyidagi komponentlardan iborat. Xususan: g‘oyaviy barqarorlik - shaxsning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, tanqidiy tafakkur - axborotni tahlil qilish va saralash qobiliyati, axborot madaniyati - media kontentni ongli qabul qilish ko‘nikmasi hamda fuqarolik mas’uliyati - jamiyat taqdiriga daxldorlik hissidan iborat.

Bugungi kunda mamlakatimizda komil insonni tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda, mafkuraviy immunitet yoki g‘oyaviy kurashchalik fazilati bizning nazarimizda jamiyat ishiga daxldor, millat taqdiriga tahqidbardosh, Vatan istiqboli uchun javobgar shaxsni shakllantirishdan iborat. Buning uchun mafkuraviy immunitetning vazifasini aniqlab olmog‘imiz lozim. Bizningcha u quyidagilardan iborat: a) munosabat bildirish; b) ta’sir etish; c) yo‘naltirish; d) javobgarlik hissini uyg‘otish; e) daxldorlik tuyg‘usini oshirish; j) safarbarlikka da’vat etish. Shu boisdan, yoshlarda mafkuraviy

immunitetni shakllantirish uchun vatanparvarlikni, erkin tafakkur tarzini, did va yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalash zarur. Bu haqda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabidir”[2].

Bugungi kunda yoshlarimizda turli xil buzg‘unchi va vayronkor tahdidlarga qarshi kurashishda ularning mafkuraviy immunitetini yanada rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu haqda Birinchi Prezident Islom Karimov “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida yoshlarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish masalasini ko‘tardi va “Mafkuraviy immunitet” tushunchasining ijtimoiy-siyosiy mohiyati haqida: “Ma’lumki, har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham Vatanga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Ana shunda johil aqidaparastlikning “da’vati” ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi”[3], deya ta’kidlagan edi.

Shu o‘rinda, “Immunitet’’ so‘zining ma’nosi (lot. Immunitos – ozod bo‘lish, qutulish) tibbiy tushuncha bo‘lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli ta’sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmui tushuniladi”[4]. Immunitet kishi vujudining turli infeksion kasalliklarga berilmaslik xususiyatini ham ifodalaydi[5]. Insonning tug‘ma bo‘lgan ana shu umumiy immunitet tizimidan farqli o‘laroq mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. U har bir avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi va mafkuraviy daxlsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish orqali ularda zararli g‘oyalar, mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi tahdidbardoshlik qobiliyati shakllantiriladi. Shu boisdan, bugungi kun yoshlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Ikkinchidan, u har bir yosh avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lmog‘i lozim. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta’minlash mumkin.

Mafkuraviy immunitet deganda – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli g‘oyaviy ta’siridan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi tushuniladi[6]. Haqiqatdan ham mafkuraviy immunitet turli xil yot va zararli g‘oyalar ta’sirlaridan biz uchun asosiy himoya vositasi hisoblanadi. Yoshlarimiz orasida mafkuraviy immunitetni shakillantiruvchi vositalar ham mavjud bo‘lib ular quydagilardan iboratdir: ***birinchidan***, yoshlarimizni ta’limning barcha bosqichlari bilan qamrab olishni yanada oshirish; ***ikkinchidan***, yoshlarimiz orasida tarbiyaviy jarayonlarni har doimgidanda ko‘ra yuqoriroq darajaga kutarish; ***uchinchidan***, ma’naviy va ma’rifiy jarayonlarini targ‘ibot qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish; ***to‘rtichidan***, media tarbiyani yoshlar orasida shakillantirsh ya’ni turli xil internet ijtimoiy tarmog‘lardan foydalanishni madaniyatini rivojlantirish.

Shu o‘rinda, pedagogika fanlari doktori, professor Muhammad Quronovning “mafkuraviy immunitet” kategoriyasiga bergan ta’rifi yuqoridagilardan mantiqiy jihatdan tubdan farq qiladi. Bu haqda M.Quronov: “mafkuraviy immunitet – odam o‘z hayotida amal qiladigan anglangan qoidalar yig‘indisi. Yoki ramziy qilib, uni shaxsning mafkuraviy konstitutsiyasi, deb atasa ham bo‘ladi. Bu konstitutsiya ikki asosga tayanadi. Birinchisi – u yashayotgan milliy-ma’naviy muhitda qabul qilingan me’yorlar. Ikkinchisi – shu me’yorlarning odam dunyoqarashida o‘zlashtirilgan qismi”,-deb izohlaydi[7]. Binobarin, yoshlarni turli g‘oyaviy va mafkuraviy tahdidlardan asrash, jamiyatda mafkuraviy immunitet hosil qilish uchun uni, avvalo, taraqqiyot qonunlarini chuqur aks ettiradigan sog‘lom, insonparvar g‘oya va mafkura bilan qurollantirish lozim.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini ma’naviy va mafkuraviy jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalash tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytishimiz lozimki, mamlakatimizda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashning yangi strategiyasini yaratish kun tartibidagi vazifadir.

«Strategiya» tushunchasi grekcha στρατηγία so‘zidan olingan bo‘lib, generalning san’ati ma’nosini bildiradi[8]. Ya’ni, urush haqidagi fan, qisman qo‘mondonlik haqidagi bilimlar majmuini ifodalovchi fan, harbiy faoliyatda asoslanmagan reja, ma’lum vaqt oralig‘ini o‘z ichiga olgan, umuman inson faoliyatidagi murakkab maqsadga erishish imkoniyati, degan mazmunlarni ifodalaydi. Strategiya – dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni ham o‘z ichiga qamrab olmoqda. “Strategiya – bu yangilanish jarayonlarining haqiqiy harakatlar dasturidir. Bu hujjat hozirgi vaqtda hayotga izchil joriy etilmoqda”[9]. Shu o‘rinda, yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish quyidagi uch bosqichli model asosida amalga oshirilishi mumkin. Ya’ni: Profilaktika bosqichi – bunda tarbiyaviy va axboriy ta’sir orqali oldini olish, monitoring bosqichi - axborot muhitini tahlil qilish va xavflarni aniqlash hamda reabilitatsiya bosqichi - destruktiv ta’sirga tushgan yoshlar bilan individual ishlashni o‘zi ichiga oladi. Albatta, bu model kompleks yondashuvni ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: “Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq, avvalo, ma’naviy birlashuvi, milliy g‘oyasi bilan yuksalgan. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g‘oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega”[10] ,- deb ta’kidlagani ayni haqiqatdir. Binobarin, Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish strategik ahamiyatga ega vazifa sifatida axborotlashgan jamiyatda g‘oyaviy tahdidlardan asrash orqali intellektual va ma’naviy jihatdan barkamol avlodini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи. 2018. 11-январ. https://president.uz/oz/lists/view/1419.

2. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б 275

3 Каримов И. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. “Фидокор” газетаси мухбири саволларига жавоблар -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2000. 40 б.

4. Маънавият: асосий тушунчалап изоҳли луғати. –Тошкент: Ғафуп Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашри, 2010. – Б. 292.

5. Малая медицинская энциклопедия. Тошкент: 2. – Москва: Советская энциклопедия, 1991. – С. 26.

6. Баротов.Ш.Р. Ўқувчи шахсини ўрганиш усуллари. Тошкент: 2012. – Б. 56.

7. Қуронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016, 142-б.

8.Лите| ru.m.wikipedia.org.

9. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Тошкент: «Ўзбекистон» ҲМИУ, 2018. -Б.245.

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 19 январ куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши // «Халқ сўзи», 2021 йил 20 январ № 13.

ZJV5401

“YANGI O‘ZBEKISTON – MA’RIFATLI JAMIYAT” KONSEPSIYASI DOIRASIDA YOSHLAR ONGIDA ISHONCH VA E’TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Adambayev Umidbek Xaitbayevich
Urganch RANCH universiteti “Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqola “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi doirasida yoshlar ongida ishonch va e’tiqodni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi. Kontekstual argumentlash modeli innovatsion metod sifatida yoshlar tanqidiy tafakkuri va barqaror e’tiqodini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. ishonch; e’tiqod; yoshlar; ma’rifatli jamiyat; kontekstual; argumentlash; ta’lim; tanqidiy tafakkur; madaniyat; qadriyatlar

XXI asrda jamiyat taraqqiyoti yosh avlodning ma’naviy, intellektual va fuqarolik ongiga bevosita bog‘liqdir. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi [1-B.1] yoshlar ongida barqaror ishonch-e’tiqodni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ma’rifatli jamiyat g‘oyasi yoshlar salohiyatini fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy tafakkur va milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Raqamli axborot makonida ishonch va e’tiqod shakllanishi dolzarb masalaga aylangan bo‘lib, ilm-ma’rifat yoshlarning ma’naviy kamoloti va ijtimoiy integratsiyasining muhim omili sifatida talqin etiladi. Shu jarayonda argumentatsiya nazariyasi, xususan kontekstual argumentlash, yoshlarning mustaqil fikrlashi va dalillash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining markaziy g‘oyalaridan biri bo‘lib, davlat siyosatida ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va fuqarolik madaniyatini shakllantirishni maqsad qiladi. Konsepsiya jamiyatning ma’rifati, axloqi,

madaniyati va huquqiy madaniyatini bir tizimga bog‘lab, fuqaro va jamiyat o‘rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlashga qaratilgan. Asosiy tamoyili — uzluksiz ma’rifatga asoslangan hayot falsafasi bo‘lib, fuqaro butun hayoti davomida ma’naviy va ilmiy-madaniy yuksalishga intilishi lozim.

Ilmiy manbalarda “ma’rifatli jamiyat” nafaqat yuqori madaniyat darajasiga ega, balki fuqarolarining axloqiy qadriyatlari, huquqiy ongi, ma’naviy mustaqilligi va tanqidiy fikrlash qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari, ta’lim tizimi va ommaviy axborot vositalari integrallashgan rol o‘ynaydi. Konsepsiya demokratik va huquqiy davlat qurilishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, milliy meros va qadriyatlar yangi kontekstda amaliyotga tatbiq etiladi.

Amaliy natijada, yoshlar jamiyatning kreativ va faol qatlamlari sifatida ijtimoiy transformatsiyaning asosiy sub’ektlariga aylanadi, ularning ma’naviy va axloqiy qobiliyatlari milliy taraqqiyotning mustahkam poydevoriga aylanadi.

Nazariy asoslar quyidagicha guruhlanadi:

- Ma’rifatning ijtimoiy funksiyasi: ongni boyitish va ratsional fikrlashni shakllantirish.
- Madaniyat va qadriyatlarni integratsiya qilish: milliy va universal qadriyatlar asosida umumiy ma’naviy makon yaratish.
- Fuqarolik ongini rivojlantirish: huquqiy, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat orqali jamiyat barqarorligini ta’minlash.

Ishonch va e’tiqod shaxsning bilimga munosabati va jamiyat bilan o‘zaro aloqalarini ifodalovchi murakkab tushunchalardir. Gnoseologik nuqtai nazardan, ishonch epistemik jarayonning muhim elementi bo‘lib, shaxsga boshqalardan olingan ma’lumotni qabul qilish va ularga asoslangan bilim hosil qilish imkonini beradi. Ijtimoiy epistemologiya tadqiqotlariga ko‘ra, ishonch shaxslararo kommunikatsiya va bilim almashuvining normativ asosidir .

E’tiqod esa ma’lum g‘oya yoki qarashni ichki ishonch bilan qabul qilish, uni shaxsiy munosabatga aylantirish jarayonidir. Ijtimoiy kontekstdagi ishonch esa ekspertlar, institutlar yoki avtaritetlarga tayanib, bilim va qarash almashinuvini ta’minlaydi.

Amaliy jihatdan, gnoseologik ishonch — bilimning haqqoniyligi va manba ishonchliligini baholash, e’tiqod esa shaxs tomonidan mustahkam qabul qilingan ishonch holatidir. Ikkalasi ham shaxsning ijtimoiy ongini va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirib, jamiyatning bilim maydonini boyitadi va epistemik aloqalarni mustahkamlaydi.

Zamonaviy epistemologiya va argumentatsiya nazariyasida kontekst markaziy ahamiyat kasb etadi. Klassik mantiq xulosaning shakliy to‘g‘riligiga urg‘u berar ekan, zamonaviy yondashuv dalillarning kimga, qaysi auditoriyaga va qaysi sharoitda bildirganini ham tahlil qiladi. Shu sababli kontekstual argumentlash yoshlar ongida ishonch-e’tiqodni shakllantirishda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Steven Tulmin modeli har bir argumentni da’vo(claim), ma’lumot (data), bog‘lovchi asos (warrant), qo‘shimcha elementlar — dalillarni qo‘llab-quvvatlash (backing), kafolat (qualifier) va qarshi fikrlar (rebuttal) elementlari orqali kontekst bilan uyg‘un tahlil qiladi [2-B.95]. Xaim Perelman va Lyusi Olbrexts-Taytka “Yangi ritorika”da argument auditoriyani ishontirish jarayoni ekanini ko‘rsatadi, bunda auditoriyaning ijtimoiy tajribasi va qadriyatlari hisobga olinadi [3-B.20]. Lyudvig Vitgenshteyn “til o‘yinlari” nazariyasi orqali so‘z ma’nosi uning ijtimoiy kontekstga bog‘liqligini ta’kidlaydi [4-B.43].

Kontekstual argumentlash yoshlar uchun quyidagilarni ta’minlaydi:

- dalil va g‘oyalarni ularning tajribasiga moslashtirish;
- axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- manipulyativ yoki kontekstdan uzilgan axborotni aniqlash;
- ishonchni ratsional asosda shakllantirish.

Natijada, kontekstual argumentlash yoshlar ongida ishonch-e’tiqodning dialogik, refleksiv va mustahkam shakllanishiga xizmat qiladi.

Yoshlar ongida ishonch-e’tiqod faqat ma’lumot berish orqali emas, balki argumentativ tafakkur va kontekstual tahlil orqali shakllanishi lozim. Kontekstual argumentlash modeli bu jarayonda nazariy asos va amaliy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Steven Tulmin modeli bahs-munozara va dalillash mashg‘ulotlari orqali yoshlarning fikrlashini strukturallashtiradi va dalil hamda e’tiqod o‘rtasidagi farqni anglashga o‘rgatadi [2-B.96]. Xaim Perelman

konsepsiyasiga ko‘ra, auditoriya omili muhim bo‘lib, yoshlar bilan ishlashda milliy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va raqamli muhit hisobga olinishi zarur [3-B.22].

Kontekstual argumentlash yoshlarni axborotni tahlil qilish, manba ishonchliligini baholash va manipulyativ diskursni aniqlashga o‘rgatadi [5-B.80]. Lyudvig Vitgenshteynning “til o‘yinlari” nazariyasiga ko‘ra, ma’no uning qo‘llanish kontekstiga bog‘liq bo‘lib, milliy qadriyatlar hayotiy tajriba bilan uyg‘un tushuntirilishi kerak [4-B.45].

Shunday qilib, tarixiy meros, diniy qadriyatlar va ma’naviy an’analar yoshlar uchun argumentativ asoslangan, hayotiy tajribaga integratsiyalashgan e’tiqod shakliga aylanadi. Ishonch esa o‘zaro dalillash va tushunish jarayoni orqali ratsional asosda mustahkamlanadi, nafaqat ta’limda, balki oila va jamiyat darajasida ham rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi doirasida yoshlar ongida ishonch-e’tiqod argumentativ muloqot va kontekstual anglash orqali shakllanadi. Steven Tulmin modeli mantiqiy, Xaim Perelman auditoriya va Lyudvig Vitgenshteyn kontekst omilini ta’kidlaydi. Ishonch shakllanishi sub’ekt → kontekst → argument → refleksiya → qabul → ichkilashtirish bosqichlari orqali kechadi. Kontekstual argumentlash yoshlar tanqidiy tafakkurini rivojlantirib, barqaror va ongli e’tiqod yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2. Toulmin S. The Uses of Argument. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – P.94–101.

3. Perelman Ch., Olbrechts-Tyteca L. The New Rhetoric: A Treatise on Argumentation. – Notre Dame: University of Notre Dame Press, 1969. – P.19–23.

4. Wittgenstein L. Philosophical Investigations. – Oxford: Blackwell, 1953. – P.43.

5. Адамбаев У.Х. Ишонч-эътикодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни // ЎзМУ хабарлари, 2021. № – 1/6/3. Б. 79-81

MA’NAVIY MASKAN QO‘RG‘ONI

Inamov Qodir Tursunovich
Namangan davlat universiteti katta
o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalla tufayli o‘zbek xalqining ijtimoiy va iqtisodiy xatti-harakati vujudga kelishi ijtimoiy qadriyatiarning hurmat qilinishi, o‘zaro munosabat odobi tamoyillarining alohida qoidalari avloddan –avlodga o‘tib keliyapgani,bu makon xalqlarning birligi va barqarorlikning asosi sifatida xizmat qilib, yoshlarda Vatan, millat tushunchalari dastlab shu makonda shakllanishi to‘g‘risida so‘z yuritiladi.Yangi O‘zbekistonda mahalla xalqimizni zo‘r ijtimoiy birlikka aylantirayotgani ko‘rsatib berilgan. Yoshlarni ma’naviy kamolga erishishda mahallalarning imkoniyatlaridan kengroq foydalanish lozimligi borasida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Mahalla, ijtimoiy qadriyatlar, demokratik boshqarub, vatan, millat, huquqiy asos, boshqaruvni noyob ko‘rinishi, fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari.

Ma’lumki, dunyoda noyob, o‘xshashi yo‘q mahalla tizimi mustaqillik yillarida aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylandi. Qaysi mahallada ish to‘g‘ri tashkil etilib, fuqarolar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatilgan bo‘lsa, o‘sha erda hamjihatlik, mehr-oqibat muhiti hukm surmoqda, noxush holatlarga yo‘l qo‘yilmayapti. [1]

Mahalla tufayli o‘zbek xalqining ijtimoiy va iqtisodiy xatti-harakati vujudga kelishi ijtimoiy qadriyatiarning hurmat qilinishi, o‘zaro munosabat odobi tamoyillarining alohida qoidalari avloddan –avlodga o‘tib kelmoqda.

Mahalla – eng qadimiy, eng odil va demokratik boshqaruvning noyob xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan makon. Bu makon xalqlarning birligi va barqarorlikning asosi sifatida xizmat qilib, yoshlarda Vatan, millat tushunchalari dastlab shu makonda shakllanadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” kitobida “Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashga o‘rgatib, bag‘rikenlik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzulmani tushunamiz”, - deb ta’kidlaydi. [2]

Ma’lumki, mahalla arablar istilosi va islom dini qabul qilinganidan ancha ilgari paydo bo‘lgan muayyan bir kichik hududda istiqomat qiluvchi odamlar birlashmaci bo‘lib, unda odamlar faqat qo‘shnichilik bilangina emas, balki yuzlab yillar davomida yaratilgan ichki tartib – ahloqiy normalar, urf-odatlar va an’analar bilan ham bog‘langan. Istiqlolimiz tufayli mahallaning qadimiy maqomi qayta tiklanib, uning taraqqiyotining huquqiy asoslari yaratildi.

1992 yilning sentyabr oyida Respublika “Mahalla xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” Prezident farmoni e’lon qilindi.Shuningdek, 1992 yil oktyabrdagi Vazirlar Mahkamasining qarorida Respublika “Mahalla “ xayriya jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish masalalarini ko‘zda tutgan “Fuqarolarning o‘z –o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risidagi qonun” qabul qilindi. Bu hujjatlar mahallaning iqtisodiy va demokratik o‘zgarishlarini ro‘yobga chiqariishdagi huquqiy hujjatlari hisoblanadi.

Bu huquqiy hujjatlar asosida mahallaning “iqtisodiy va demokratik o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarishdagi amaliy xizmatlari yaqqol namoyon bo‘la boshladi”.

Davr talabidan kelib chiqib, huquqiy asosga qurilgan mahalla boshqaruvini yanada takomillashtirish barcha mahalla ahlining boshini qovushtiradigan fuqarolarning zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini

muvofiqlashtirish maqsadida oqsoqollar kengashlarining tashkil etilishi mahalla taraqqiyotida katta qadam bo‘ldi. Shuningdek, mahalla asos bo‘lgan oshkoralik, bir-birini yaxshi bilish muhiti muhim ishtimoiy muammolarni hal etishda ham qo‘l kelmoqda.

Prezidentimiz ilgari surgan Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining yo‘nalishlaridan biri adolatli ijtimoiy siyosat yuritish fuqarolarning, demak, mahalla manfaatini ko‘zda tutadi. Chunki, aholining kambag‘al, muhtoj tabaqalariga vaqtida madad berish, fuqorolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta’minlash islohotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun kafolat bo‘lib xizmat qilishi tayin. Shunigdek, ong taraqqiy etgan mamlakatlarda insonni ijtimoiy muhofaza qilish tizimi keng qo‘laniladi, bunga nihoyatda mo‘him ahamiyat beriladi, bizning sharoitimizda esa bu millatlar totuvligini saqlab qolish kafolatidir. Endilikda mahallalar o‘z hududlaridagi ochilgan kichik korxonalarda ishlab chiqarish mahsulotlarni sotish yoki ma’lum qismini muhtojlarga berish huquqiga ega. Shuningdek, aholini ish bilan ta’minlash bevosita mahalla vakolatiga kiritiladi.

Milliy istiqlol mafkurasining o‘ziga xos shakli shamoyili vujudga kelishida mahalla faollarining xizmatlari beqiyosdir. Chunki, ularning sa’y-harakatlari tufayli mahallalarda sharqona urf-odatlar, ta’lim-tarbiya, ahloq-odob normalarini tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda.

Umumxaiq bayramiga aylangan Mustaqillik bayrami, Navro‘z tantanalari dastlab mahallalarda, qishloqlarda to‘y-tomosha va ta’ziua kabi marosimlar hamjihatlik bilan mahalla faollaari ishtirokida o‘tmoqda.

Yangi O‘zbekistonda mahalla O‘zbekiston milliy siyosatining diqqat markazida turgan nuqtalardan biriga aylandi. Chunki, mahallalarimizning deyarli hammasida turli millat vakillari istiqomat qiladi. Demak, mahalla ma’lum ma’noda turli millatlar va xalqlar do‘stligi hamda birodarligi uchun dastlabki asos vazifasini ham o‘taydi.

Yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasidagi tinchlik va osoyishtalikni qaror toptirish, o‘zaro do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirishga ham mahalla faollari jiddiy e’tibor qaratmoqdalar. Mahallalardagi yig‘inlar, tadbirlar uchrashuvlar shu

mahallada yashovchi turli millat va elat vakillari – rus, qozoq, tojik, qirg‘iz, tatar va boshqalar faol ishtirok qilyapti.

Ayni paytda yurtimizda yashayotgan har bir inson,millati, tili va dinidan qat’i nazar, o‘z hayotini quvonchu tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi.[3]

Ma’lumki, bugungi kunda O‘zekistonda yashovchi yuzdan ortiq millatlar o‘z madaniy-ma’rifiy markaziga ega. Davlatimizda tinchlik, osoyishtalik, millatlar o‘rtasida do‘stlik, totuvlik, inoqlikning tobora mustaxkamlanishida mazkur markazlarning mahallalardagi bo‘limlari va ulardagi faollarning xizmati katta bo‘moqda.

Mustaqillik yillarida Respublika baynalmilal madaniyat markazi va milliy madaniy markazlarning yuzdan ortiq faollari faxriy unvonlarga sazovor bo‘ldi, orden va medallar bilan taqdirlandi.

Turli millatlar vakillari bo‘lgan 14 nafar fuqaromiz O‘zbekiston Qahramoni degan yuksak unvon bilan mukofotlanganini alohida ta’kidlash o‘rinlidir.[4]

Mamlakatimizdagi har bir odam millatidan, dinidan qat’iy nazar mahalla ruhi bilan yasgaydigan bo‘lib qoldi. Davlatimizda mahalla fuqarolar yig‘ini samarali natija ko‘rsatayotganligi tufayli bu harakat endilikda qadimgi mahallalardan ko‘p qavatli turar joy binolariga va mavzelariga kirib bormoqda. Natijada ko‘p qavatli binolar joylashgan hududlarda ham yangi-yangi mahallalar yuzaga keltirildi.

Yangi O‘zbekistonda o‘n yildirki, Namangan shahridagi Davlatobod tumanida ham “mahalla” degan tabarruk kalom tilga olinadigan bo‘lib qoldi.

Davlatobod tumani ko‘p millatli tumanlardan hisoblanib, bu erda 30 ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Tumanda 12 mahalla, fuqarolar yig‘inlari ularning sa’y-harakatlari bilan har bir mahallada o‘ziga xos guzar bunyod etilib, Davlatobod chindan obod bo‘lmoqda. Natijada yildan-yilga mahallaning ijtimoiy ma’naviy qiyofasi o‘zgarib bormoqda.

Hozir tumanda 4 ta yirik korxona 5 ta qo‘shma korxona mavjud bo‘lib, unda 30 millat vakillari bir tanu bir jon bo‘lib ahil mehnat qilib, jamiyat taraqqiyotiga o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shmoqdalar. Bunda respublika rahbariyati olib borayotgan izchil milliy siyosatni xalqqa

tushuntirish keng miqyosda targ‘ibot, tashviqot ishiarini olib borishda mahallalar muhim rol’ o`ynamoqda. Fuqarolar yig‘inlari qoshida tashkil etilgan “Mahalla posbonlari” faoliyatlarida ham sezilarli o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jamoat tartibini saqlashda, jinoyatchilikning ildizini quritishda faol ish olib bormoqdalar.Ularning xushyorligi tufayli ko`plab jinoyatlar fosh qilinib,huquqbuzarliklar aniqlanmoqda.

Respublikada istiqomat joylarida o`quvchi yoshlarni tarbiyalash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki jamiyat taraqqiyoti ko`p jihatdan yosh avlodga bog`liq. Shu bois tumandagi mahalla fuqorolar yig`ini faollari yoshlarda milliy va umuminsoniy tarbiyaviy fazilatlarni shakllantirishda o`z hududidagi joylashgan maktab o`qituvchilariga yaqindan yordam bermoqdalar.

Bizning urf-odatlarimiz milliy qadriyatlarimiz azaldan ko`p masalalarni hal qilish uchun faqat davlat organlariga murojaat qilishni emas,balki jamoaga turar joylardagi obro`li kishilarga murojaat qilish tajribasini masalalarini jamoa o`rtasiga tashlab hal qilish tajribasini yaxshi bilgan. Endilikda odamlar muammolarni to`ppa tog`ri hokimyatga emas,mahallaga aytadigan bo`ldi. Mahalla juda katta nufuzli kuchga aylanib bormoqda. Istiqlol nashidasini surayotgan mahalla ahlining turli masalalar va muammolarni yechishdagi birdamligi,hamjihatliligi .hamnafasligi va do`stligi samarali ijobiy natija beryapti. Hayotning og`irini yengish,turmush va mehnat tarzini yuksaltirib kelyapti.

Yangi o`zbekistondagi mahalla kabi nodavlat boshqaruvining noyob bu ko`rinishi xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish uyg`otmoqda. Qisqasi, mahalla xalqimizni zo`r ijtimoiy birlikka aylantirmoqda,bunday ijtimoiy birlik ta`sirchan kuchga ega,bu kuch esa jamiyatning ana shu boshlang`ich halqasiga asos bo`lib,uning taraqqiyoti uchun asosiy omilga aylanib bormoqda.

Yoshlarni ma`naviy kamolga yetkazishda mahallalarning imkoniyatlaridan bundan buyon ham keng foydalanishimiz lozim va shart. Chunki nodavlat boshqaruvning noyob ko`rinishi bo`lgan mahalla boshqaruvidan yangi O‘zbekiston muommalarini hal qilishda samaraliroq foydalanishni davrning o`zi taqozo etmoqda. Bu borada “Bir bolaga etti mahalla ham ota, ham ona “ degan shior doimiy kun tartibida turishi lozim.

Biz yoshlarimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.[5]

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR

1. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2018 й-Б-58.
2. Shavkat Mirziyoev Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik.Toshkent “O‘zbekiston ”, 5-jild 2023 y-B-309
3. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. Toshkent “O‘zbekiston ”, 5-jild 2023 й-Б-302.
4. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2018 й-Б-302.
5. Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2018 й-Б-349-350

MAHALLA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH

Musirmonov Shohboz Usmon o‘g‘li
ShDPI “Matematika va ta’limda axborot texnologiyalari “kafedrasi assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mahalla tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Raqamlashtirish jarayonining normativ-huquqiy asoslari, elektron boshqaruv vositalari, ma’lumotlar bazasi integratsiyasi hamda ijtimoiy xizmatlarning onlayn platformalar

orqali ko‘rsatilishi masalalari o‘rganiladi. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Mahalla, raqamlashtirish, ochiqlik, shaffoflik, elektron boshqaruv, ijtimoiy xizmatlar, monitoring, raqamli platforma.

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat boshqaruvini takomillashtirish, fuqarolarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish hamda jamiyatda ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini qaror toptirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda mahalla instituti aholiga eng yaqin bo‘lgan ijtimoiy boshqaruv bo‘g‘ini sifatida alohida o‘rin tutadi. Mahalla nafaqat fuqarolarning kundalik muammolarini hal etuvchi tuzilma, balki ijtimoiy yordamni taqsimlash, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va aholi bilan davlat o‘rtasidagi muloqotni ta’minlovchi muhim institutdir. Shu bois mahalla faoliyatini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, ayniqsa raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali uning samaradorligini oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda.[3]

So‘nggi yillarda mamlakatimizda elektron hukumat tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish va byurokratik jarayonlarni qisqartirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Mahalla tizimida ham elektron reyestrlar, onlayn murojaatlar platformalari va ma’lumotlar bazalarini joriy etish orqali boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mahalla faoliyatining an’anaviy shaklida hujjat aylanishining qog‘oz ko‘rinishda yuritilishi, ma’lumotlarning tarqoq saqlanishi va inson omiliga yuqori darajada bog‘liqligi ayrim hollarda shaffoflikning yetarli darajada ta’minlanmasligiga sabab bo‘lib kelgan. Raqamli texnologiyalarni joriy etish esa ma’lumotlarning aniqligi, tezkorligi va ochiqligini ta’minlash, ijtimoiy yordamni manzilli taqsimlash hamda fuqarolar bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

Shuningdek, mahallalarda raqamli boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash korrupsion xavflarni kamaytirish, qaror qabul qilish jarayonini ma’lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli platformalar orqali mahalla budjeti, ajratilgan subsidiyalar va ijtimoiy yordam ko‘rsatkichlarini ochiq e’lon qilish aholining ishonchini mustahkamlashga yordam beradi.

Shu nuqtai nazardan, mahalla tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash masalasi nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashning muhim sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur maqolada ushbu jarayonning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari tahlil etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda mahalla tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash jarayoni kompleks va tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot metodologiyasi nazariy, empirik va statistik tahlil usullarining uyg‘unligiga tayandi.[5]

Avvalo, tizimli yondashuv asosida mahalla instituti ijtimoiy boshqaruvning quyi bo‘g‘ini sifatida ko‘rib chiqildi hamda uning raqamli transformatsiyasi davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati va axborot texnologiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Institutsional yondashuv orqali raqamlashtirish jarayonining normativ-huquqiy asoslari, davlat dasturlari va amaliy mexanizmlari o‘rganildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan loyihalar tahlil qilindi.[3]

Nazariy tahlil jarayonida mahalla boshqaruvi, elektron hukumat, ochiq ma’lumotlar va raqamli shaffoflik konsepsiyalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlar umumlashtirildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali an’anaviy boshqaruv modeli bilan raqamli boshqaruv modeli o‘rtasidagi farqlar va ustunliklar aniqlashtirildi.

Empirik tadqiqot bosqichida mahalla xodimlari, fuqarolar va soha mutaxassislari o‘rtasida so‘rovnomalar hamda yarim tuzilmaviy intervyular o‘tkazildi. So‘rov natijalari orqali raqamli platformalardan foydalanish darajasi, ochiqlik ko‘rsatkichlari va jamoatchilik ishonchi aniqlanib, miqdoriy hamda sifat jihatdan tahlil qilindi. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlashda guruhlash, solishtirish, dinamik tahlil va indikatorlar asosida baholash usullaridan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida triangulyatsiya usuli qo‘llanilib, turli manbalardan olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi. Olingan natijalar asosida mahalla tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash hamda ochiqlik va shaffoflikni oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.[2]

Tadqiqot doirasida 25 ta mahalla fuqarolar yig‘ini, 120 nafar mahalla xodimi va 480 nafar fuqaro o‘rtasida so‘rovnoma hamda intervyular o‘tkazildi. Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi.

Raqamli platformalardan foydalanish darajasi

- Tadqiqot qamrab olgan mahallalarning 72 % ida elektron reyestr tizimi joriy etilgan.
- Mahalla xodimlarining 68 % i kundalik ish faoliyatida raqamli platformalardan foydalanishini bildirgan.
- Fuqarolarning 54 % i mahalla xizmatlariga onlayn murojaat qilish imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlagan.

Ochiqlik va shaffoflik ko‘rsatkichlari

- Raqamli tizim joriy etilgan mahallalarda ijtimoiy yordam taqsimotining shaffofligi 31 % ga oshgan.
- Murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati o‘rtacha 12 kundan 5 kunga qisqargan (58 % tezlashuv).
- Byurokratik hujjat aylanishi hajmi 40 % ga kamaygan.

Ijtimoiy yordamning manzilliligi

- Elektron ma’lumotlar bazasi orqali ehtiyojmand oilalarni aniqlash aniqligi 26 % ga oshgan.
- Takroriy yoki asossiz yordam ajratish holatlari 18 % ga kamaygan.
- Fuqarolarning mahalla faoliyatiga bo‘lgan ishonch darajasi 22 % ga oshgan.

Monitoring va nazorat samaradorligi


- Raqamli monitoring tizimi mavjud hududlarda hisobot topshirish jarayoni 2 baravar tezlashgan**.**
- Real vaqt rejimidagi nazorat mexanizmi orqali kechikish holatlari 35 % ga kamaygan.

Muammolar bo‘yicha faktlar

- Mahalla xodimlarining 37 % ida raqamli savodxonlik yetarli emasligi aniqlangan.
- Qamrab olingan hududlarning 28 % ida internet tezligi pastligi qayd etilgan.
- Fuqarolarning 41 % i mobil ilovalar imkoniyatlari haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligini bildirgan.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahalla tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish ochiqlik va shaffoflikni ta’minlashning samarali vositasi hisoblanadi. Elektron reyestrlar, onlayn murojaat platformalari va raqamli monitoring tizimlari boshqaruv jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirgan hamda inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirgan. Xususan, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati qisqargan, ijtimoiy yordam taqsimoti yanada manzilli va nazorat qilinadigan shaklga kelgan, fuqarolarning mahalla faoliyatiga bo‘lgan ishonchi ortgan.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida ayrim muammolar ham aniqlangan. Jumladan, mahalla xodimlarining raqamli savodxonligi yetarli darajada emasligi, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining sustligi hamda axborot xavfsizligi masalalarining dolzarbligi jarayon samaradorligini cheklayotgan omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.



Quyidagi sxema tadqiqotning bosqichma-bosqich tahlil jarayonini aks ettiradi:

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarni mahalla tizimiga izchil joriy etish boshqaruv samaradorligini oshiradi, korrupsion xavflarni kamaytiradi va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

TAKLIFLAR

1. “Raqamli mahalla” yagona platformasini yaratish – barcha mahalla xizmatlarini integratsiyalashgan elektron tizimga o‘tkazish.
2. Mahalla xodimlari uchun majburiy IT-treninglar joriy etish – raqamli savodxonlik darajasini oshirish va yangi texnologiyalarni amaliy qo‘llashni o‘rgatish.
3. Internet infratuzilmasini kuchaytirish – ayniqsa chekka hududlarda yuqori tezlikdagi internet bilan ta’minlash.

4. Ochiq ma’lumotlar mexanizmini kengaytirish – mahalla budjeti, subsidiya va ijtimoiy yordam ko‘rsatkichlarini muntazam e’lon qilish.
5. Axborot xavfsizligini ta’minlash tizimini kuchaytirish – ma’lumotlarni himoyalash va shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy himoya vositalarini joriy etish.
6. Monitoring va baholash indikatorlarini ishlab chiqish – raqamlashtirish samaradorligini muntazam o‘lchash uchun aniq mezonlar belgilash.
7. Fuqarolar uchun mobil ilovalarni ommalashtirish – aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish va platformalardan foydalanishni rag‘batlantirish.

Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish mahalla tizimida ochiqlik va shaffoflikni yanada mustahkamlab, raqamli boshqaruvning barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Musirmanov,Sh. "turizm sohasida kadrlar tayyorlashda amaliyot va nazariyaning pedagogik uyg ‘unligi." *scienceproblems. Uz Учредители: ООО “Scienceproblems team”* 4.11 (2024).

2. Musirmanov, Shohboz, and Nafosat Hayitova. "o‘yinlar nazariyasi va strategik qaror qabul qilish." Молодые ученые 3.6 (2025): 10-13.

3. Musirmanov, Shohboz. "Turizm sohasida kadrlar tayyorlashda amaliyot va

nazariyaning pedagogik uyg‘unligi." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.11.

4. Musirmanov Shohboz. "ijtimoiy tarmoqlar orqali turistik joylarni reklama qilish va mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 369-374.

5. Musirmonov, Shohboz, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy texnologiyalarning o‘rni." (2024): 378-380.

ИНТЕГРАТSIЯ ПОТЕНЦИАЛА МАХАЛЛИ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ «ДОО – МАХАЛЛЯ – СЕМЬЯ» В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Мустафаева Замира Саидкуловна
преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет имени А.Кадыри
Мусканалиева Зарема Эргашевна
Джизакский государственный педагогический университет имени А.Кадыри Студентка 2 курса

Аннотатsiя: Данная статья посвящена исследованию процесса духовно-нравственного воспитания детей дошкольного возраста через интеграtsiю воспитательного потенциала махалли и дошкольной образовательной организатsii в условиях формирования облика Нового Узбекистана. В работе предложена авторская методика социально-культурного взаимодействия «ДОО – махалля – семья». Методологической основой методики стала органичная интеграtsiя этнопедагогики и средового подхода в образовании. В статье подробно раскрываются содержательные компоненты методики: система тематических проектов, методы «погружения в традицию» и «социальных проб», которые помогают дошкольникам не просто узнать, а по-настоящему почувствовать и принять традиционные ценности узбекского народа. Особое внимание уделено результатам экспериментальной работы, которые убедительно подтверждают эффективность предложенного подхода: у 78 % детей экспериментальной группы сформировались устойчивые представления о ценностях уважения к старшим, гостеприимства и добрососедства; заметно обогатилось содержание сюжетно-ролевых игр, в которых дети стали отражать жизнь своей махалли; родители

отметили, что дети стали гораздо активнее участвовать в культурных событиях квартала и в благоустройстве территории.

Ключевые слова: махалля, духовно-нравственное воспитание, дошкольное образование, Новый Узбекистан, этнопедагогика, социально-культурное взаимодействие, ДОО – махалля – семья, традиционные ценности узбекского народа, социализatsiя дошкольников, интегratsiя потенциала махалли

Введение: Современный Узбекистан переживает эпоху масштабных преобразований, строит Новый Узбекистан — и в этом процессе особое место занимает духовно-нравственное воспитание подрастающего поколения. Стратегия развития страны до 2030 года прямо называет приоритетной задачей формирование гармонично развитой личности, которая опирается на богатое культурно-историческое наследие народа и готова внести свой вклад в процветание общества.

В этом контексте уникальную роль играет махалля — социальный институт, который на протяжении веков сохраняет традиции взаимопомощи, уважения к старшим и общинного единства. Именно махалля остаётся живым хранителем natsiональной идентичности и глубинных духовных ценностей узбекского народа. Актуальность исследования вызвана необходимостью найти действительно работающие механизмы включения воспитательного потенциала махалли в систему дошкольного образования.

Дошкольный возраст — это сензитивный период, когда закладываются базовые качества личности. Поэтому так важно создать единое воспитательное пространство, в котором семья, махалля и дошкольная образовательная организatsiя выступают равноправными партнёрами. Как точно отметила З. С. Саидкулова, «именно в раннем детстве закладываются основы нравственности, формируется эмоционально-ценностное отношение к окружающему миру, к своей семье, к родному краю» (Саидкулова, 2022, с. 46). Однако, несмотря на общее признание важности этого направления, целенаправленное использование социокультурного потенциала

махалли в духовно-нравственном воспитании дошкольников до сих пор остаётся недостаточно разработанным как в теории, так и в педагогической практике.

Степень изученности проблемы представлена работами отечественных и зарубежных исследователей. Теоретико-методологические основы средового подхода в образовании заложены в трудах Л. С. Выготского, который рассматривал социальную situatsiю развития как ключевой фактор становления личности ребёнка. Вопросы этнопедагогики и использования народных традиций в воспитании нашли отражение в исследованиях Г. Н. Волкова, Ш. А. Мирзиёева. Особого внимания заслуживают работы узбекистанских учёных: З. С. Саидкуловой, раскрывающей специфику духовно-нравственного воспитания дошкольников на традициях узбекского народа, и исследования, посвящённые роли махалли в социализatsii детей. Среди зарубежных авторов, изучающих проблемы взаимодействия образовательных организatsiй и социума, можно выделить Е. В. Кибелину, О. В. Кузьмину, В. С. Мухину, рассматривающих вопросы этнокультурной социализatsii и взаимодействия с семьёй в контексте формирования ценностных ориентatsiй дошкольников.

Целью данной статьи является теоретическое обоснование и экспериментальная проверка эффективности методики социально-культурного взаимодействия «ДОО – махалля – семья» в процессе духовно-нравственного воспитания детей дошкольного возраста. Для достижения поставленной цели необходимо решить следующие задачи: проанализировать воспитательный потенциал махалли как социального института, разработать содержание и структуру методики взаимодействия ДОО, махалли и семьи, экспериментально проверить эффективность предложенной методики, выявить динамику изменений в уровне духовно-нравственной воспитанности дошкольников. Теоретико-методологическую основу исследования составляют концепция Л. С. Выготского о социальной situatsii развития, положения этнопедагогики о воспитательном потенциале народных традиций, средовой подход в образовании, а также труды

отечественных и зарубежных учёных по проблемам духовно-нравственного воспитания и социализatsii детей дошкольного возраста. В работе использован комплекс методов исследования: теоретический анализ психолого-педагогической литературы, педагогическое наблюдение, эксперимент, анализ продуктов детской деятельности, анкетирование родителей, методы количественной и качественной обработки данных.

Методология: Методологической основой данной методики является интегratsiя этнопедагогики и средового подхода в образовании, базирующаяся на концепции Л. С. Выготского о социальной ситуatsii развития ребёнка. Согласно этому подходу, развитие личности дошкольника невозможно рассматривать вне культурной среды, в которой он растёт. Махалля в Узбекистане представляет собой уникальную социальную микросреду, сохраняющую вековые традиции взаимопомощи, уважения к старшим и соседской общинности. Методика предполагает создание единого воспитательного пространства, где ДОО выступает координатором, целенаправленно транслирующим духовные ценности махалли в педагогический процесс, а семья и община становятся активными субъектами, а не пассивными наблюдателями воспитания детей. Содержательный компонент методики реализуется через систему тематических проектов и совместных мероприятий, построенных на календарных, народных и государственных праздниках. Например, проект «Узбекистан – наш общий дом» включает цикл занятий в ДОО о традициях разных семей махалли, экскурсии к достопримечательностям квартала, встречи с аксакалами (ветеранами труда) и совместные с родителями мастер-классы по народным ремеслам.

Педагоги используют методы «погружения в традицию» (разучивание народных игр, слушание макомов в адаптированной записи) и «социальных проб» (участие детей в подготовке к празднику Навруз или благотворительных акциях махалли). Это позволяет формировать у детей первичные представления о таких категориях, как «род», «добрососедство», «щедрость», «трудолюбие», не в форме

назидания, а через личный эмоциональный опыт. Результативность методики оценивается по критериям эмоционально-поведенческого характера, а не по формальному знанию традиций. Диагностический инструментарий включает метод педагогического наблюдения за поведением детей в сюжетно-ролевых играх (появляются ли сценарии, отражающие жизнь махалли) и метод анализа продуктов детской деятельности (рисунки на тему «Мой двор», «Праздник в нашей махалле»). Ключевым показателем духовного роста является проявление детьми эмпатии, уважения к старшим вне стен ДОО и желание участвовать в жизни своей махалли, что фиксируется в беседах с родителями. Данная методика превращает абстрактное понятие «духовное возвышение общества» в конкретные педагогические действия, формируя личность ребёнка как будущего носителя ценностей Нового Узбекистана.

Результат: Результаты экспериментальной работы, проведённой на базе дошкольной образовательной organizatsii, показали высокую эффективность разработанной методики социально-культурного взаимодействия «ДОО – махалля – семья». В экспериментальной группе, где реализовывалась данная методика, было зафиксировано значительное повышение уровня духовно-нравственной воспитанности детей по сравнению с контрольной группой. Диагностика на заключительном этапе выявила, что у 78% дошкольников экспериментальной группы сформировались устойчивые представления о традиционных ценностях узбекского народа, таких как уважение к старшим, гостеприимство, добрососедство и взаимопомощь. Дети стали осознанно использовать эти понятия в повседневном общении, проявлять инициативу в оказании помощи сверстникам и взрослым, а также демонстрировать эмоционально-положительное отношение к культурным событиям, происходящим в их махалле.

Качественный анализ изменений показал, что у дошкольников экспериментальной группы значительно обогатился поведенческий репертуар в сюжетно-ролевых играх, где стали чаще отражаться сценарии из жизни махалли, семейные традиции и элементы

natsionalьnыx prazdnikov. V produktivnoy deyatelьnosti (risunkax, appликatsiяx) deti nachali aktivnee ispolьzovat natsionalьnыe ornamenty, izobrajat sovmestnыe meropriyatiya soseley, chto svidetelьstvuet o glubokom emotsionalьnom prinyatii sotsialьnogo opыta maxalli.

Roditeli vospitannikov eksperimentalьnoy gruppы v xode itogovogo anketirovaniya otmetili polojitelьnыe izmeneniya v povedenii detey vne DOO: deti stali chaщe interesovatьsya istoriey svoey semi, proyavlyat uvajenie k starшim soseyam, dobrovolьno uchastvovat v blagoustroystve dvorovыx territoriy i oxotno posechatь kulьturno-massovыe meropriyatiya, organizuemыe maxalley. Polucheнныe dannыe podtverjdayut, chto celenapravlennaya integratsiya potenciala maxalli v obrazovatelьnыy protsess DOO yavlyaetsya effektivnым mexanizmom formirovaniya bazisa duxovno-nravstvennoy kulьturы lichnosti, zakladыvayuщey fundament dlya dalьneyшego razvitiya jrajdanina Novogo Uzbekistana.

Tablitsa 1

Rezulьtatы eksperimentalьnoy rabotы po metodike sotsialьno-kulьturnogo vzaimodeystviya «DOO – maxalla – semya»

Kriteriioценki duxovno-nravstvennoy vospitannosti	Nachalьnыy etap (konstatiruyuщiy srez)	Promejutochnыy etap (formiruyuщiy srez)	Itogovыy etap (kontrolьnыy srez)	Dinamika izmeneniy (v %)
Sformirovannostь predstavleniy o traditsionnыx tsennostyax uzbekskogo naroda (uvajenie k starшim, gostepriimstvo, dobrososedstvo)	32% detey proyavlyali osoznannoe ponimanie tsennostey	54% detey demonstrirovali ustoychivыe znaniya o traditsiyax	78% detey imeli glubokie i osoznannыe predstavleniя o tsennostyax	+46%
Emotsionalьno-polojitelьnoe	28% detey proyavlyali	49% detey s jelaniem	81% detey aktivno i	+53%

отношение к культурным событиям махалли и участие в них	интерес к мероприятиям махалли	участвовали в подготовке к праздникам	инициативно включались в жизнь махалли	
Проявление эмпатии, уважения к старшим и сверстникам в повседневном поведении	35% детей демонстрировали навыки эмпатии и уважения	57% детей стали чаще проявлять заботу о близких и сверстниках	83% детей систематически проявляли эмпатию и почтительное отношение	+48%
Обогащение содержания сюжетно-ролевых игр сценариями из жизни махалли и семьи	25% детей включали элементы махалли в игровые сюжеты	52% детей обогатили игры новыми сценариями взаимодействия соседей	76% детей активно отражали в играх жизнь и традиции махалли	+51%
Отражение natsionalьных традиций и орнаментов в продуктивной деятельности (рисунки, аппликatsii)	30% детей использовали элементы natsionalьной культуры в творчестве	55% детей стали чаще применять орнаменты и символы в работах	79% детей творчески отражали традиции в рисунках и поделках	+49%
Участие в благоустройстве территории и жизни махалли совместно с семьей (по наблюдениям родителей)	22% семей отмечали участие детей в делах махалли	48% семей подтвердили растущий интерес детей к окружающему социуму	74% семей зафиксировали активное и добровольное участие детей в жизни махалли	+52%

Заключение: Завершая наше исследование, хочется подчеркнуть самое главное: истинный облик Нового Узбекистана складывается не из громких лозунгов и масштабных строек, а из тихого счастья в

глазах ребёнка, который впервые осознанно поздоровался с соседом, из гордости дедушки, увидевшего свой орнамент в рисунке внука, и из той незримой, но прочной нити уважения, что протянулась от порога родной махалли до самого сердца дошкольника. Проведённая нами работа доказала: когда традиции предков оживают в играх детей, а стены ДОО становятся мостом, а не преградой между семьёй и общиной, рождается та самая живая духовность, которую невозможно привить назиданиями. И если каждый малыш пронесёт через жизнь это тепло — значит, фундамент под облик нашего общего дома заложен по-настоящему надёжно.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Саидкулова, З. С. (2021). «Духовно-нравственное воспитание детей дошкольного возраста на традициях узбекского народа». Ташкент: Фан ва технология.
2. Саидкулова, З. С. (2022). Роль махалли в формировании духовно-нравственных качеств у детей дошкольного возраста. «Педагогика и психология дошкольного образования», 4(18), 45-51.
3. Кибелина, Е. В. (2019). Развитие социального интеллекта дошкольников в условиях взаимодействия семьи и образовательной organizatsii. «Современное дошкольное образование. Теория и практика», 8(90), 42-49.
4. Кузьмина, О. В., & Кибелина, Е. В. (2020). Этнокультурная социализatsiя детей в пространстве дошкольной образовательной organizatsii. «Проблемы современного педагогического образования», 67(2), 156-159. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=43123456
5. Кибелина, Е. В. (2021). Взаимодействие с родителями как условие формирования ценностных ориентatsiй у старших дошкольников. «Вестник педагогических наук», 3(41), 88-92. https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimodeystvie-s-roditelyami-kak-uslovie-formirovaniya-tsennostnyh-orientatsiy-u-starshih-doshkolnikov
6. Мухина, В. С., & Кибелина, Е. В. (2022). Традиционная культура как фактор развития личности ребёнка в полиэтнической

среде. «Развитие личности», 1, 112-125. https://cyberleninka.ru/article/n/traditsionnaya-kultura-kak-faktor-razvitiya-lichnosti-rebenka.

JAMIYATDA MA’NAVIY MUHITNI MUSTAHKAMLASH VA MAHALLA RO‘LINI OSHIRISH – YANGI O‘ZBEKISTON QIYOFASINI BELGILOVCHI OMIL

Obbosxonov Alimardon Akmalxon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti
magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda ma’naviy muhitni shakllantirish, rivojlantirish va mustahkamlash hamda mahalla ro‘lini oshirish, shu o‘rinda mahallalarga Yangi O‘zbekiston qiyofasini berish rejalari bosqichma-bosqich taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, jamiyat, mahalla, oila, omil, muhit, makon, infratuzilma, hamkorlik.

2026-yil yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb e’lon qilindi. Bu esa mahalla va jamiyatimizga bo‘lga e’tiborni kuchaytirishi tabiiy hol. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev 2025-yilning 26-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi xalqiga va Oliy majlisiga yo‘llagan murojaatnomasida – 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat dastur haqida atroflicha to‘xtalib o‘tdi. Shu dasturning birinchi ustuvor yo‘nalishida – mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirishdan iborat degan g‘oyani ilgari surdi.[1] Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadlar esa turli xil. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga

oshirilmoqda. Ushbu jarayonda nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ma’naviy yuksalish ham ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Chunki har qanday taraqqiyotning mustahkam poydevori – bu sog‘lom ma’naviy muhit va yuksak axloqiy qadriyatlardir. Ma’naviy barkamol jamiyatgina barqaror rivojlanishga, ijtimoiy hamjihatlikka va milliy taraqqiyotga erisha oladi. Shu bois mahalla tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash orqali biz mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, uning qiyofasini yanada go‘zal va obod qilish borasidagi ishlarni davom ettiramiz. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlash va mahalla institutining rolini kuchaytirish Yangi O‘zbekiston qiyofasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mahalla – asrlar davomida shakllangan, xalqimizning turmush tarzi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan noyob ijtimoiy tuzilmadir. U nafaqat hududiy birlik, balki tarbiya, hamjihatlik va ijtimoiy nazorat maskani sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ma’naviy muhit tushunchasi va uning jamiyat hayotidagi o‘rnini avvalo biz mazmun va mohiyatini anglashimiz kerak. Ma’naviy muhit deganda jamiyatda hukm surayotgan axloqiy me’yorlar, qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar va insonlarning o‘zaro hurmat hamda mas’uliyatga asoslangan hayot tarzi tushuniladi. Bu muhit oiladan boshlanib, ta’lim muassasalari, mahalla va keng jamoatchilik orqali shakllanadi. Sog‘lom ma’naviy muhit mavjud bo‘lgan jamiyatda jinoyatchilik darajasi past, o‘zaro ishonch yuqori, yoshlarning kelajakka ishonchi mustahkam bo‘ladi. Aksincha, ma’naviy bo‘shliq yuzaga kelgan joyda befarqlik, zo‘ravonlik, giyohvandlik va boshqa salbiy illatlar kuchayadi. Shu sababli ma’naviy muhitni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Ma’naviy muhitni shakllantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyat kasb etadi: oiladagi tarbiya va o‘zaro hurmat, ta’lim tizimining sifatli va maqsadli faoliyati, ommaviy axborot vositalarining ijobiy ta’siri, mahalla va jamoatchilikning faolligi. Xalqimiz orasida birnaql bor, Mahalla – milliy qadriyatlar beshigi- bu nima degani degan savolga quyidagicha javob bermoqchiman: Mahalla xalqimizning tarixiy tajribasi asosida shakllangan ijtimoiy institutdir. U o‘ziga xos boshqaruv tizimi, hamkorlik va o‘zaro

ko‘mak an’analari bilan ajralib turadi. Mahalla doimo mehr-oqibat, qo‘ni-qo‘shnichilik, hamjihatlik va hamdardlik maskani bo‘lib kelgan.Yangi O‘zbekiston sharoitida mahalla nafaqat ijtimoiy masalalarni hal etuvchi tuzilma, balki ma’naviy tarbiya markaziga aylanmoqda. Mahalla yoshlar bilan ishlash, oilaviy muammolarni bartaraf etish, ehtiyojmandlarga yordam ko‘rsatish kabi vazifalarni samarali amalga oshiradi. Mahalla orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar avloddan-avlodga yetkaziladi. Bu jarayon jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi. Mahallada oila hamkorligi doimo mustahkam bo‘lishi kerak. Bunda esa ma’naviy tarbiyaning asosi jamiyatdagi ma’naviy muhit avvalo oilada shakllanadi. Ota-ona farzandga nafaqat moddiy ta’minot, balki axloqiy tarbiya ham berishi zarur. Shu jarayonda mahalla oilalarga ko‘makchi, maslahatchi va yo‘lboshchi vazifasini bajaradi. Mahalla faollari, nuroniylar va xotin-qizlar faollari oilalardagi muammolarni o‘z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etishga yordam beradi. Oilaviy nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish, yoshlarni erta nikoh yoki turli zararli oqibatlardan asrashda mahalla muhim o‘rin tutadi. Mahalla va oila o‘rtasidagi mustahkam hamkorlik yosh avlodni sog‘lom ma’naviyat asosida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yoshlar tarbiyasida mahallaning o‘rni yuqori hisoblanadi chunki har yili 1 millionga yaqin yoshlar jamiyatimizga kirib kelmoqda. Bu esa yoshlar – Yangi O‘zbekistonning tayanchi va kelajagi demakdir. Ularning ma’naviy barkamolligi davlat taraqqiyotini belgilaydi. Shu bois mahalla yoshlar bilan ishlashni ustuvor vazifa sifatida ko‘rishi zarur. Mahallalarda turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, sport musobaqalari, kitobxonlik kechalari va davra suhbatlari tashkil etilishi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga yordam beradi. Bunday tadbirlar yoshlarni yot g‘oyalardan, zararli odatlardan himoya qiladi. Shuningdek, mahalla yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash borasida ham muhim rol o‘ynaydi. Band va maqsadli yosh – ma’naviy barkamol jamiyat kafolatidir.

Ma’naviy muhitni mustahkamlashda ta’lim va jamoatchilikning roli qanday: Ta’lim tizimi ma’naviy muhitni shakllantirishning eng muhim bo‘g‘inlaridan biridir. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida nafaqat bilim, balki vatanparvarlik, halollik va insonparvarlik ruhida tarbiya berilishi

lozim. Mahalla bilan ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik kuchli bo‘lsa, yoshlarning tarbiyasi yanada samarali bo‘ladi. Ota-onalar yig‘ilishlari, ma’naviy uchrashuvlar va hamkorlikdagi loyihalar jamiyatdagi ijobiy muhitni mustahkamlaydi. Jamoatchilik nazorati va faolligi ham muhim omil hisoblanadi. Har bir fuqaro o‘z mahallasining rivojiga befarq bo‘lmasligi, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishi zarur.

Murojatnomada keltirilgan 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo‘nalishdan iborat dasturning birinchi ustuvor yo‘nalishida – mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish degan yo‘nalishga o‘zimning fikrimni aytib o‘tmoqchiman. Yangi O‘zbekiston qiyofasi va ma’naviy taraqqiyot kafolati. Bu qanday tushuncha degan savollar paydo bo‘lishi mumkin, bunday savollarga men quyidagicha javob beraman:Yangi O‘zbekiston qiyofasi – bu faqat zamonaviy binolar yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlar emas. Bu avvalo, ma’naviy yetuk, ongli va mas’uliyatli fuqarolardan iborat jamiyatdir. Ma’naviy muhit mustahkam bo‘lgan joyda islohotlar samarali amalga oshadi. Chunki halol, mas’uliyatli va vatanparvar insonlargina yurt ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qiladi.Mahalla institutining kuchayishi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining rivojlanishi jamiyatning demokratik asoslarini mustahkamlaydi. Bu esa Yangi O‘zbekistonning barqaror va taraqqiy etgan davlat sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, jamiyatda ma’naviy muhitni mustahkamlash va mahalla rolini oshirish – Yangi O‘zbekiston qiyofasini belgilovchi muhim omildir. Ma’naviy barkamol jamiyat barqaror taraqqiyotning poydevoridir. Mahalla va oila hamkorligi, yoshlar tarbiyasiga e’tibor, ta’lim va jamoatchilik faolligi orqali sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish mumkin. Har bir fuqaro o‘z mahallasining ravnaqi va jamiyatning ma’naviy yuksalishiga hissa qo‘shsa, Yangi O‘zbekiston yanada taraqqiy etadi. Demak, ma’naviy muhitni mustahkamlash – bu faqat davlatning emas, balki har birimizning muqaddas burchimizdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirishga doir qarorlari va farmonlari to‘plami. – Toshkent, 2021.

4. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.

5. Abdullaev A. *Fuqarolik jamiyati asoslari*. – Toshkent: Akademnashr, 2019.

6. https://president.uz/oz/lists/view/8834

OILADA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASHDA ISBOTLANGAN YONDASHUVLAR

Ummatova Dilnoza Olim qizi,
Jizzax politexnika instituti
“Kimyo muhandisligi” bakalavriat
ta’lim yo‘nalishi II-bosqich
talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilada xotin-qizlar bandligini ta’minlashning zamonaviy yondashuvlari, xususan, kasanachilik faoliyatining iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Unda oila iqtisodini mustahkamlash, ayollar mehnatini samarali tashkil etish hamda inson kapitalini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Kasanachilik orqali kam ta’minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni ish bilan ta’minlash imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, yirik korxonalar bilan kooperatsiya asosida ishlashning afzalliklari, berilayotgan imtiyozlar hamda mazkur faoliyatning ma’naviy-ma’rifiy jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada kasanachilikning ayollar bandligini oshirish, oila daromadini

ko‘paytirish va milliy hunarmandchilikni saqlashdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Oila iqtisodi, xotin-qizlar bandligi, kasanachilik, inson kapitali, kooperatsiya, mehnat shartnomasi, ijtimoiy himoya, uy mehnati, hunarmandchilik, iqtisodiy samaradorlik.

Sobiq sovet davlati davrida jamiyat oiladan boshlanadi yoki oila jamiyatning boshlang’ich bo‘g‘inidir, shuningdek, oila jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiradi, unga e’tiborni kuchaytirish kerak kabi balandparvoz so‘zlar ko‘plab takrorlanardi. Ammo, amalda oila, kishilar manfaati e’tibordan chetga surilib kelingan. O‘z davriga kelib, mustaqillik sharofati tufayli, mamlakatimizda insonlarning hayotiy muammolari, ular manfaatlari davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan, mamlakatimizda 2012 yilda “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida” gi Qonunning qabul qilinganligi buning yana bir yaqqol dalilidir. Avvalombor, oila bu tarbiya maskani, bu maskanda tarbiyaning turli ko‘rinishlari mujassam bo‘lib, bulardan eng asosiysi mehnat tarbiyasidir. Chunonchi, iqtisodiyotda “inson kapitali” degan tushuncha bor [1:4]. Bu insonning aqliy va jismoniy qobiliyati bo‘lib, ish kuchi shakliga ega. Oilada farzand dunyoga keladi, tarbiya topib voyaga yetadi va nihoyat mehnat resurslari safiga kelib qo‘shiladi, o‘z navbatida moddiy ne’matlar va xizmatlar yaratishda qatnashadi hamda jamiyatning iqtisodiy salohiyati va uning milliy boyligini oshirishga hissa qo‘shadi.

Ana shunday ibratli, serzavq va sertashvish jarayonning asosiy subyekti bo‘lib oilada ayol ishtirok etadi. Ayolning uy xo‘jaligini yuritishdagi ishtirokining o‘lchovi yoki bahosi bo‘lmaydi, chunki, ayol bir qo‘li bilan beshikni tebratsa, bir qo‘li bilan hayotni tebratadi, bu kabi mehnat jarayoning bebaholigi ham shundadir. Mamlakatimizda oila iqtisodiga e’tiborning qaratilayotganligi oilaga munosabatning tubdan o‘zgarishiga olib keladi va bu sohada ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi. Biroq, hozirgi vaqtda jamiyat rivojlanishida uy xo‘jaliklari, oila iqtisodi masalasi asosiy e’tiborda turganiga qaramasdan, jamiyat debochasi bo‘lgan oilaning va uning asosiy boshqaruv subyekti hisoblangan ayollar mehnatini tartibga solish va uni takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilashga e’tibor

yetarli darajada emas. Ana shunday yo‘nalish va vositalardan biri bu kasanachilik faoliyatidir.

Kasanachilik - tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq jismoniy shaxs – kasanachining yashash joyi bo‘yicha yoki unga yoki uning oila a’zolariga tegishli bo‘lgan boshqa binolarda ish beruvchining buyurtmalari bo‘yicha tovarlar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha kasanachi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni anglatadi. Bu faoliyat turining oila, shuningdek, ayollar mehnatini tartibga solish bo‘yicha keng imkoniyatlar ko‘lami mavjud. Ish beruvchi va kasanachi o‘rtasidagi mehnat kelishuvlarining tartibga solinishi, o‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasining mehnat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘z mohiyatiga ko‘ra, kasanachilik faoliyati umumiy maqsadlarga erishish (tovarlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy birlashuvini yoki o‘zaro hamkorlik qilishini o‘zida namoyon qiladi [2:5]. Mazkur faoliyat asosida ish bilan band bo‘lmagan aholini ishlab chiqarishga jalb qilish, oila byudjeti daromadlarini ko‘paytirish, uy mehnatidan foydalangan holda butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va ba’zi bir xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish yo‘li bilan yirik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Shularni hisobga olib, kasanachilikning mohiyati nimada, uni amalga oshirishning shart-sharoitlari qanday, kasanachilik faoliyati mamlakat iqtisodiyotida qanday o‘rin tutadi degan haqli savollar ko‘pchilikni qiziqtirishi tabiiy. Kasanachilik -16 yoshdagi va undan katta yoshdagi (agarda kasanachilik xususiyati kasanachi bilan to‘liq yakka tartibdagi moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnoma tuzilishi zarurligini talab etsa) jismoniy shaxs, ya’ni kasanachi tomonidan ish beruvchi bilan shartnoma asosida ish beruvchining ishlab chiqarish joyidan tashqarida, o‘z uyida, yoxud uning oila a’zolariga tegishli boshqa joyda ish beruvchining buyurtmasiga binoan mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish maqsadida ishlarni bajarish bilan bog‘liq faoliyat hisoblanadi. Ma’lumki, qishloq joylaridagi kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni ish bilan ta’minlash davlatimiz tomonidan olib borilayotgan odilona islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Boshqacha aytganda, mehnatning bu turi, ayniqsa

ayollar, shuningdek, “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida” gi Qonunning 7-moddasida ko‘rsatilgan fuqarolar toifalari, ya’ni ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalanadigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslar, shu jumladan o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan va nogiron bolalari bor yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar hamda ko‘p bolali ota-onalar, ta’lim muassasalarini tamomlagan yoshlar, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidan zahiraga bo‘shatilganlar, nogironlar va nafaqa yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun ustuvor tartibda tashkil etiladi.

Kasanachilik faoliyati ayollar uchun asosan ishlab chiqarish sohasida kiyimlar tikish (alohida bo‘laklarini), ularni ta’mirlash, matolarni bo‘yash, gilamlar to‘qish, to‘qimachilik (iplar, milliy matolar), poyafzal tikish, shuningdek, yengil ishlardan erkin iqtisodiy zonalar talablariga ko‘ra, elektrotexnika vositalarini (ehtiyot qismlarini) yig‘ish va boshqa turlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Xizmat ko‘rsatish sohasida esa u yozuv mashinasida terish xizmatlari (matnlar va ma’lumotlarni terish, matnlarni tahrirlash va o‘chirish), hisob fakturalarini tayyorlash, konvertlarni manzillashtirish va to‘ldirish, pochta jo‘natmalari hamda reklama tayyorlash, taomlar tayyorlash, chorvachilik va parrandachilik va hokazolar bo‘yicha faoliyat yuritishi mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, farmon va qaror talablariga ko‘ra, kasanachilarga ko‘pgina imtiyoz, qulaylik yaratib berilmoqda, xususan, korxonalar bilan mehnat shartnomasini imzolagan kasanachilar ishlayotgan aholi toifasiga kiradilar. Ularga o‘z navbatida, elektron mehnat daftarchasi ochiladi. Kasanachilarga nafaqalar va ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar tayinlash paytida ular ishlagan vaqt mehnat stajiga qo‘shiladi. Ularni korxonaning boshqa ishchilari bilan tenglashtirish maqsadida korxona jamoa shartnomasi shartlari kasanachilarga ham tadbiq etilishi belgilab qo‘yilgan [3:11]. O‘z navbatida, yirik korxonalar uchun kasanachilar bilan o‘zaro hamkorlik qilishdan o‘ziga yarasha manfaatdorlik mavjuddir. Masalan, bunday korxonalar besh yil muddatga, mehnat shartnomasi asosida kasanachilarga to‘lanadigan mablag‘larga teng miqdorda mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lovni to‘lashdan ozod qilinishi hamda mehnat shartnomasiga ko‘ra, buyurtma berayotgan korxona tomonidan

kasanachilarga ishlarni bajarish maqsadida tekin foydalanishga berilgan asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlardan foydalanish davrida mulk solig‘idan ozod qilinishi belgilab qo‘yilgan. Berilgan bunday imtiyozlar, o‘z navbatida, kasanachilardan shartnoma asosida ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan yirik korxonalar uchun rag‘batlantirish hamdir. Rag‘batlantirishda korxonalar uchun, avvalo, iqtisodiy manfaat yotadi, ya’ni ular o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun kasanachi bilan mehnat shartnomasi tuzadigan bo‘lsa, yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlarga ega bo‘ladi, imtiyozlar orqali tejab qolgan summani faoliyatini rivojlantirishga sarf qilishi, past rentabelli va ko‘p mehnat sarfi talab qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoniga ketadigan vaqtni, asosiysi, unga sarflanadigan mablag‘larni tejashi, natijada mahsulot tannarxini pasaytirishga erishish mumkin.

Kasanachilik faoliyatining iqtisodiy jihati bilan birga uning ma’naviy-ma’rifiy jihatlari ham mavjuddir, ya’ni ayollar ish faoliyatini farzand tarbiyasi bilan qo‘shib olib boradi, o‘z vaqti bilan farzandini hunarga o‘rgatib mehnat resurslari safiga qo‘shadi. Shuningdek, bu faoliyatni rivojlantirish orqali ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan, yo‘qolib ketish arafasida bo‘lgan hunarmandchilikning ayrim turlarini-kosibchilik, zardo‘zlik, do‘ppido‘zlik, duradgorlik, temirchilik va boshqalarni saqlab qolishimiz va ularni kelgusi avlodlarga yetkazishimiz, qisqasi, an’ana va urf-odatlarimizni saqlab qolishimizga yordam beradi.

Jarayonni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosaviy takliflarni keltirish mumkin:

1. Kasanachilar va yirik korxonalar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish maqsadida maxsus onlayn platformalar yaratish zarur. Bu buyurtmalarni tezkor taqsimlash, mahsulot sifatini nazorat qilish va ayollar bandligini kengaytirishga xizmat qiladi.

2. Xotin-qizlar uchun bepul qisqa muddatli treninglar, biznes-reja tuzish va mahsulotni bozorga chiqarish bo‘yicha amaliy kurslar tashkil etish ularning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlaydi.

3. Kasanachilik faoliyatini yo‘lga qo‘ygan ayollarga soliq yengilliklari, mikrokreditlar hamda subsidiyalar ajratish tizimini yanada soddalashtirish va shaffoflashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu oila

daromadining barqaror o‘sishiga va xotin-qizlar bandligining kengayishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B. B. Berkinov, M.A. Aynaqulov “Kichik tadbirkorlik korxonalarining yirik korxonalar bilan ishlab chiqarish kooperatsiyasi”. Jizzax., 2024.

2. B. B. Berkinov “Kooperatsiyaga asoslangan kasanachilik”. Toshkent., 2008.

3. A. O‘lmasov, “Oila iqtisodi”. “Mehnat nashriyoti”. T., 1998.

MAHALLALARDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISH VA IJTIMOIY HIMOYA MEXANIZMLARI

Shahriyorova Gulnoza Ilhomjon qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika
Institutining 2-kurs talabasi
Ahmadova Madina Ne’matjon qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika
Institutining 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda mahalla institutida xotin-qizlar faolligini oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari, ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirish mexanizmlari hamda manzilli ijtimoiy himoya tizimlari tahlil qilinadi. Mahallalarda xotin-qizlar bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy muhitni mustahkamlash va raqamli xizmatlardan foydalanishni kengaytirish orqali barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishish yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Mahalla, xotin-qizlar faolligi, ijtimoiy himoya, bandlik, tadbirkorlik, raqamlashtirish, ma’naviy yuksalish.

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, inson qadrini ulug‘lash va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu jarayonda mahalla instituti jamiyat hayotining eng quyi, ammo eng ta’sirchan bo‘g‘ini sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mahalla nafaqat hududiy boshqaruv tizimi, balki aholi muammolarini joyida hal etish, ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlash, ma’naviy muhitni shakllantirish va aholining turli qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmi hisoblanadi. Ayniqsa, xotin-qizlar faolligini oshirish va ularni ijtimoiy himoya qilish masalasi mahalla faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.[1]

So‘nggi yillarda mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi hamda O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan tizimli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, mahallalar kesimida manzilli yondashuv asosida ish olib borilmoqda. Xususan, “Ayollar daftari” mexanizmi orqali ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki bandlik masalasida ko‘makka muhtoj xotin-qizlar ro‘yxatga olinib, ularning muammolarini hal etish bo‘yicha individual dasturlar ishlab chiqilmoqda.

Mahallalarda xotin-qizlar faolligini oshirish masalasi faqatgina ijtimoiy himoya bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy mustaqillik, bandlikni ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kasb-hunarga o‘qitish, huquqiy savodxonlikni oshirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi. Chunki jamiyat taraqqiyoti bevosita ayollarning bilim darajasi, ijtimoiy faolligi va iqtisodiy mustaqilligiga bog‘liqdir. Mahalla darajasida amalga oshirilayotgan islohotlar aynan shu omillarni mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, ular orqali xotin-qizlarning jamiyat boshqaruvida, tadbirkorlik faoliyatida hamda ijtimoiy hayotda faol ishtiroki ta’minlanmoqda.[3]

Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ijtimoiy himoya mexanizmlarining shaffofligi va samaradorligi oshirilmoqda. Ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda elektron platformalardan

foydalanish, ehtiyojmandlarni aniqlash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish mahalla faoliyatining yangi bosqichga koʻtarilishiga xizmat qilmoqda. Bu esa xotin-qizlarga koʻrsatilayotgan yordamning manzilliligi, tezkorligi va adolatli taqsimlanishini ta’minlash imkonini bermoqda.

Umuman olganda, mahallalarda xotin-qizlar faolligini oshirish va ularni ijtimoiy himoya qilish Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi boʻlib, u jamiyatda barqarorlikni mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni asrash hamda ma’naviy yuksalishga erishishda muhim omil sifatida namoyon boʻlmoqda. Mazkur yoʻnalishdagi tizimli islohotlar nafaqat xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.[5]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda mahallalarda xotin-qizlar faolligini oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari tizimli, kompleks va institutsional yondashuv asosida oʻrganildi. Tadqiqot metodologiyasi ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, empirik kuzatuv, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash hamda normativ-huquqiy hujjatlarni oʻrganish usullariga tayandi.


Avvalo, tizimli yondashuv asosida mahalla instituti jamiyatning quyi boshqaruv boʻgʻini sifatida koʻrib chiqildi va undagi xotin-qizlar faolligi ijtimoiy, iqtisodiy hamda ma’naviy omillar bilan oʻzaro bogʻliqlikda tahlil qilindi. Institutsional tahlil usuli orqali xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlashga doir davlat siyosati, normativ-huquqiy baza va amaliy mexanizmlar oʻrganildi. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qoʻllab-quvvatlash vazirligi hamda Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi faoliyati doirasida amalga oshirilayotgan dasturlar mazmunan tahlil qilindi.

Empirik tadqiqot jarayonida mahalla faollari, xotin-qizlar masalalari boʻyicha mas’ullar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar oʻrtasida soʻrovnomalar va yarim tuzilmaviy intervyular oʻtkazildi. Soʻrov natijalari asosida xotin-qizlarning bandlik darajasi, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish koʻlami, tadbirkorlik faoliyatidagi ishtiroki va mavjud muammolari aniqlashtirildi. Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatidan tahlil qilinib, ularning oʻzaro bogʻliqligi korrelyatsion usul yordamida baholandi.[2]

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida turli hududlardagi mahallalar faoliyati solishtirildi, samarali amaliy tajribalar umumlashtirildi. Statistik ma’lumotlarni qayta ishlashda umumlashtirish, guruhlash, indekslash va dinamik tahlil usullaridan foydalanildi. Bu orqali xotin-qizlar faolligining o‘sish tendensiyalari va ijtimoiy himoya mexanizmlarining samaradorligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida ma’lumotlarning ishonchliligi va xolisligini ta’minlash maqsadida triangulyatsiya usuli qo‘llanildi, ya’ni turli manbalardan olingan ma’lumotlar o‘zaro solishtirildi. Olingan natijalar ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar ishlab chiqish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Quyidagi sxema tadqiqotning bosqichma-bosqich tahlil jarayonini aks ettiradi:



ZJV5401

Xulosa va takliflar. Mahallalarda xotin-qizlar faolligini oshirish va ularni ijtimoiy himoya qilish jamiyat barqarorligi hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahalla instituti xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishda eng yaqin va samarali boshqaruv bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, manzilli ijtimoiy yordam tizimlari, kasb-hunarga o‘qitish dasturlari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda xotin-qizlarning bandlik darajasi pastligi, raqamli savodxonlik yetishmasligi va ijtimoiy stereotiplarning saqlanib qolayotgani mavjud muammolar sifatida aniqlangan. Ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi ko‘p jihatdan ma’lumotlar bazasining to‘liqligi, monitoring mexanizmlarining aniqligi hamda mahalla faollarining malakasiga bog‘liq ekani asoslandi.

Demak, mahalla darajasida kompleks yondashuvni kuchaytirish, iqtisodiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash choralarini uyg‘unlashtirish hamda raqamli boshqaruv vositalarini keng joriy etish xotin-qizlar faolligini barqaror oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

TAKLIFLAR

1. Mahallalarda “Ayollar faolligi indeksi”ni joriy etish – bandlik, tadbirkorlik, ta’lim va ijtimoiy ishtirok ko‘rsatkichlari asosida reyting tizimini shakllantirish.
2. Raqamli ko‘nikmalar markazlarini tashkil etish – xotin-qizlar uchun IT, onlayn xizmatlar va elektron tijorat bo‘yicha bepul o‘quv kurslarini yo‘lga qo‘yish.
3. Tadbirkorlik inkubatsiya dasturlarini kengaytirish – mahalla kesimida mini-grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini takomillashtirish.
4. Psixologik va huquqiy maslahat xizmatlarini kuchaytirish – oilaviy nizolar va ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va profilaktika tizimini joriy etish.

5. Monitoring va tahlilning raqamli platformasini yaratish – ijtimoiy himoya mexanizmlarining shaffofligi va samaradorligini real vaqt rejimida baholash.
6. Mentorlik va liderlik dasturlarini joriy etish – faol va muvaffaqiyatli ayollar tajribasini yosh qizlarga uzatish orqali ijtimoiy faollikni oshirish.
7. Mahalla–ta’lim muassasasi–tadbirkorlik subyektlari hamkorligini kuchaytirish – amaliy kasbga yo‘naltirish va bandlikni ta’minlashda uch tomonlama mexanizm yaratish.

Umuman olganda, taklif etilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish mahallalarda xotin-qizlar faolligini oshirish, ularning ijtimoiy himoyasini mustahkamlash va jamiyatda barqaror ma’naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Musirmanov,sh. "turizm sohasida kadrlar tayyorlashda amaliyot va nazariyaning pedagogik uyg ‘unligi." *scienceproblems. Uz Учредители: OOO “Scienceproblems team”* 4.11 (2024).

2. Musirmanov, Shohboz, and Nafosat Hayitova. "o‘yinlar nazariyasi va strategik qaror qabul qilish." Молодые ученые 3.6 (2025): 10-13.

3. Musirmanov, Shohboz. "Turizm sohasida kadrlar tayyorlashda amaliyot va

nazariyaning pedagogik uyg‘unligi." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.11.

4. Musirmanov Shohboz. "ijtimoiy tarmoqlar orqali turistik joylarni reklama qilish va mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatish." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 369-374.

5. Musirmonov, Shohboz, and Jasmina Toshpo‘lotova. "Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy texnologiyalarning o‘rni." (2024): 378-380.

ИНСТИТУТ МАХАЛЛИ КАК МЕХАНИЗМ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ В КОНТЕКСТЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОГРАММЫ 2026 ГОДА И СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН-2030»

Абдухоликова Дилдора Абдухолик кизи,
Джизакский государственный педагогический университет имени Абдуллы Кадыри, студентка факультета начального и дошкольного образования

Аннотatsiя. В статье рассматривается институт махалли как традиционный и одновременно модернизирующийся механизм духовно-нравственного воспитания молодёжи в условиях реализatsii Государственной программы 2026 года и Стратегии «Узбекистан-2030». Обосновывается актуальность усиления роли махалли на фоне цифровизatsii общества, трансформatsii ценностных ориентиров и снижения интенсивности межпоколенческого общения. Раскрываются социально-педагогические функции махалли, её значение в формировании гражданской идентичности, культуры взаимопомощи и уважения к natsiональным традициям. Анализируются государственные приоритеты, направленные на развитие инфраструктуры махаллей и расширение их воспитательного потенциала. Особое внимание уделяется вопросам интегratsii традиционных форм общественного взаимодействия с современными цифровыми инструментами коммуникatsii. Делается вывод о том, что системное сотрудничество семьи, школы и махалли создаёт целостную модель социализatsii, способствующую формированию социально ответственной, духовно зрелой и активной личности в современном узбекском обществе.

Ключевые слова: махалля, духовно-нравственное воспитание, молодёжная политика, гражданское общество, социальная интегratsiя, natsiональные ценности, Узбекистан-2030.

Духовно-нравственное воспитание молодёжи в XXI веке сталкивается с качественно новыми вызовами. Цифровая среда формирует альтернативные модели поведения, где приоритет получают скорость, визуальная привлекательность и краткость содержания. В результате снижается глубина межличностного общения, ослабевает влияние старших поколений, трансформируются традиционные формы социализatsii. В этих условиях особое значение приобретает институт махалли — уникальная форма общественной самоорганизatsii, сочетающая историческую традицию и современную управленческую практику. Усиление её роли закреплено на государственном уровне.

В Послании Олий Мажлису от 26 декабря 2025 года Шавкат Мирзиёев объявил 2026 год «Годом развития махалли и возвышения общества» [2:1]. Подчёркивалось, что именно на уровне махалли формируется атмосфера доверия, социальной поддержки и гражданской ответственности.

Стратегические задачи отражены в Стратегия «Узбекистан-2030» [6:1], где среди приоритетов обозначены:

- формирование гармонично развитой личности;
- укрепление natsionальной идентичности;
- повышение социальной активности молодёжи;
- развитие институтов гражданского общества.

Согласно данным Государственной программы 2026 года, общий объём финансирования составляет 250,5 трлн сумов, из которых около 20 трлн сумов направляются на развитие инфраструктуры махаллей [3:1; 4:1]. Это свидетельствует о признании махалли не только как культурного, но и как стратегического социального ресурса.

Правовые основы её деятельности закреплены в Законе Республики Узбекистан «О органах самоуправления граждан» [5:1], что создаёт институциональные условия для реализatsii воспитательных инициатив. С педагогической точки зрения махалля представляет собой открытую воспитательную систему, функционирующую в реальной социальной среде. В отличие от формальных образовательных учреждений, где воспитательный

процесс регламентирован учебными программами и нормативами, в махалле он осуществляется через повседневную практику совместной жизни. Это придаёт воспитанию естественный характер и делает его более устойчивым.

Важно подчеркнуть, что махалля формирует у молодёжи так называемую «социальную чувствительность» — способность учитывать интересы других людей, понимать ценность коллективных усилий и осознавать последствия собственных поступков. Регулярное участие в хашаре, помощь пожилым соседям, organizatsiя общественных мероприятий создают у подростков опыт реальной социальной ответственности. Такой опыт невозможно полностью заменить теоретическими занятиями в школе.

Кроме того, махалля способствует развитию коммуникативной культуры. Живое общение с представителями разных возрастов формирует навыки диалога, уважительного отношения к старшим и умение аргументированно выражать своё мнение. В условиях цифровизatsiи это приобретает особую значимость, поскольку виртуальное общение нередко упрощает формы взаимодействия и снижает уровень эмпатии. Отдельного внимания заслуживает профилактическая функция махалли. Наличие устойчивых социальных связей снижает вероятность вовлечения подростков в асоциальные формы поведения. Когда молодой человек ощущает себя частью сообщества, он реже проявляет девиантные установки, поскольку понимает последствия своих действий не только для себя, но и для окружающих.

Следует также отметить, что махалля выступает пространством формирования гражданской идентичности. Участие в обсуждении локальных проблем, благоустройстве территории, общественных инициативах способствует развитию у молодёжи понимания принципов самоуправления и ответственности за общее благополучие. Тем самым закладываются основы активной гражданской позиции. В контексте реализatsiи государственных реформ особое значение приобретает профессионализatsiя деятельности органов самоуправления граждан. Повышение

компетентности председателей махаллей, их заместителей и активистов в области педагогики, психологии и молодёжной политики позволит усилить воспитательный эффект реализуемых инициатив.

Следовательно, социально-педагогический потенциал махалли значительно шире, чем традиционно воспринимаемая функция территориального самоуправления. Она представляет собой динамичную систему формирования ценностей, норм поведения и гражданской ответственности, способную адаптироваться к современным социальным условиям. Современная молодёжь не может быть изолирована от цифрового пространства. Поэтому задача махалли заключается не в противостоянии технологиям, а в их разумной интегratsii.

Перспективными направлениями являются:

- создание информatsionных платформ махалли;
- публикatsiя материалов о местных инициативах;
- проведение онлайн-конкурсов и просветительских проектов;
- медиаподдержка волонтёрской деятельности.

Исходя из этого, формируется гибридная модель воспитания, сочетающая традиционные формы общения и современные цифровые инструменты.

Эффективность духовно-нравственного воспитания достигается при системном сотрудничестве семьи, школы и махалли.

- *Семья* закладывает первичные ценностные установки.
- *Школа* формирует правовое сознание и социальные компетенции.
- *Махалля* закрепляет эти нормы в реальной социальной практике.

Согласованность действий позволяет избежать разрыва между декларируемыми ценностями и реальным поведением подростков.

Для усиления роли махалли целесообразно:

- внедрять программы наставничества;
- формировать молодёжные советы при органах самоуправления;
- развивать социальное партнёрство с вузами и ННО;

- проводить мониторинг участия молодёжи в общественной деятельности;
- расширять культурно-просветительские проекты.

Особое внимание следует уделить подготовке кадров махалли, обладающих педагогическими и коммуникативными компетенциями.

Институт махалли в условиях реализatsii Государственной программы 2026 года и Стратегии «Узбекистан-2030» приобретает новое содержание. Он становится не только традиционной формой общественной самоорганизatsii, но и эффективным механизмом духовно-нравственного развития молодёжи. Его дальнейшее развитие требует сочетания государственной поддержки, инициативы местных сообществ и активного участия самой молодёжи. При соблюдении этих условий махалля способна укрепить социальную стабильность, межпоколенческую преемственность и natsiональную идентичность.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Qodirov A. Mahalla va yoshlar tarbiyasi: muammo va yechimlar // Pedagogik ta’lim. – 2024. – № 3. – B. 45–52.

2. Шавкат Мирзиёев. Послание Олий Мажлису Республики Узбекистан от 26 декабря 2025 года. – https://president.uz

3. Государственная программа Республики Узбекистан на 2026 год (основные показатели). – https://norma.uz

4. Информatsionные материалы о реализatsii Государственной программы 2026 года. – https://www.gazeta.uz

5. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – https://lex.uz

6. Стратегия «Узбекистан-2030»: Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № PF-158. – https://lex.uz

III-SHO‘BA: “O‘ZBEKISTON -2030” STRATEGIYASI VA XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI

TARG‘IBOT STRATEGIYASI QUDRATLI KUCHDIR.

Kaxxarova Matluba Manofovna
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi o‘rinbosari, falsafa fanlari doktori, professor

Annotatsiya Mazkur maqolada zamonaviy geosiyosiy beqarorlik, axborot makonidagi keskin raqobat hamda mafkuraviy tahdidlar sharoitida jamiyatda konstruktiv va destruktiv targ‘ibot jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot oqimining ortishi, manipulyativ va feyk ma’lumotlarning tarqalishi sharoitida aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, targ‘ibot tizimining jamiyat hayotidagi kommunikativ va ijtimoiy funksiyalari ochib berilib, konstruktiv targ‘ibotning ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni yoritiladi. Maqolada diniy-ma’rifiy targ‘ibotning insonparvarlik, bag‘rikenglik va ma’rifat tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirilishi, destruktiv targ‘ibotning esa jamiyat ma’naviy muhitiga salbiy ta’siri ilmiy asosda ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida targ‘ibot guruhlari faoliyatini takomillashtirish, konstruktiv g‘oyalarni keng targ‘ib etish va destruktiv mafkuraviy tahdidlarga qarshi samarali ma’rifiy mexanizmlarni kuchaytirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: targ‘ibot, konstruktiv targ‘ibot, destruktiv targ‘ibot, mafkuraviy tahdidlar, axborot makoni, mafkuraviy immunitet, diniy-ma’rifiy targ‘ibot, tanqidiy fikrlash, ma’naviy muhit, ijtimoiy barqarorlik.

Hozirgi geosiyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqirozlar, axborot makonidagi keskin raqobat, mafkuraviy va g‘oyaviy xurujlar inson ongi va tafakkuri uchun yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, axborot oqimining cheklanmaganligi, turli manbalar orqali tarqalayotgan manipulyativ, feyk va destruktiv mazmundagi ma’lumotlar, “sub madaniyat” ko‘rinishidagi “ommaviy madaniyat” va buzg‘unchi g‘oyalar aholining muayyan qatlami ongiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda. Ushbu voqelik jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, aholining mafkuraviy immunitetini mustahkamlash [3], tanqidiy fikrlash va axborotni saralab, tahlil qilib qabul qilish madaniyatini, ya’ni har bir axborot qabul qiluvchi va axborot ta’siri doirasidagi subyektda ham, obyektda ham tahlil qobiliyatini yanada rivojlantirishni taqozo etib, mazkur jarayonlarga muvozanatli yondashuvni talab etmoqda.

Hozirgi kunda aholini mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, konstruktiv targ‘ibotni kuchaytirish va destruktiv yo‘nalishlarni cheklashga xizmat qiluvchi, ilmiy-ma’rifiy asosda yo‘lga qo‘yilgan “Targ‘ibot guruhlari”ning ahamiyati ortib bormoqda. Jamiyat targ‘ibot sistemasi muayyan turmush tarzini, ijtimoiy normalarni, ijtimoiy munosabat qoidalarini[4], ijtimoiy tajribalarni yoyish imkonini berishi bilan birga milliy va umuminsoniy madaniyatning tarkibiy komponentlari[4] haqidagi bilim va tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Zamonaviy jamiyatlarda targ‘ibot millat uchun qadrli bo‘lgan g‘oyalarni tarqatish[6], ularni jamiyat a’zolarining e’tiqodiga aylantirish, o‘zaro munosabatlarni faollashtirish, shaxslararo hamkorlikni ta’minlash vositasi[3], ijtimoiy yordam tizimini harakatga keltiruvchi, unga umumijtimoiy tus beruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugun targ‘ibot davlat va fuqarolik jamiyati institutlariga o‘z g‘oyalarini fuqarolarga yetkazish imkonini beradigan qudrat vazifasini o‘tamoqda. Chunki, targ‘ibot inson ongi, jamiyat ijtimoiy strukturalari va madaniyatining o‘zaro munosabatida faol ishtirok etuvchi kommunikativ hodisa sifatida ijtimoiy ongning shakllanishi, qadriyatlar tizimining barqarorlashuvi va legitim hokimiyat tizimlarining mustahkamlanishida markaziy rol o‘ynaydi. Amalga oshirilishi tarziga qarab targ‘ibot vizual, media va virtual shakllarga bo‘linadi.

Zamonaviy targ‘ibot sistemasi jamoatchilik fikrini shakllantirish va muammolarga yechim topish jarayoni tobora raqamli maydonga ko‘chmoqda. Ayniqsa diniy-ma’rifiy sohada ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilayotgan interaktiv muloqotlar, vizual targ‘ibot vositalari va onlayn platformalar odamlar ongida muhim o‘zgarishlar yasamoqda. Bu esa nafaqat muammolarni aniqlash, balki ularni hal etish uchun keng jamoani jalb qilish imkonini yaratadi. Demak, zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali diniy qadriyatlarni to‘g‘ri tushuntirish va jamoatchilikni ijobiy g‘oyalarga safarbar etish bugungi targ‘ibotning eng samarali yo‘nalishlaridan biridir.

Targ‘ibot sistemasida uning xarakteri, mohiyati, usullari va albatta salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Agar maqsad jamiyatdagi barqarorlik, hamjihatlikni ta’minlash, ijtimoiy garmoniyani mustahkamlash, ijtimoiy ahamiyatga ega g‘oya va qarashlarni tarqatish bilan bog‘liq bo‘lsa, bu targ‘ibot konstruktiv xarakterga ega bo‘ladi[12]. Bu targ‘ibot jamiyat manfaatlarini ifoda etuvchi, ezgulik, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va mas’uliyat tuyg‘usi bilan ruhlantiruvchi kuchli ma’naviy vositaga aylanadi.

Agar maqsad hamjihatlik va barqarorlikni yemirish, kelishmovchilikni keltirib chiqarish, faqat tor doiralarga qadrli bo‘lgan yoxud mutlaqo g‘ayriinsoniy xarakterga ega g‘oya va qarashlarni yoyish va shu kabi g‘ayriinsoniy muddaolar bilan bog‘liq bo‘lsa bu targ‘ibot destruktivdir[12]. Bunday targ‘ibot axloqiy-madaniy me’yorlarni inkor etadi, jamiyatning ma’naviy ustunlarini yemiradi, insonlar ongida adovat, ishonchsizlik, rad etuvchilik, zo‘ravonlikka moyillik uyg‘otadi.

Mamlakatimizda ham mafkuraviy, ma’naviy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida targ‘ibot ishlariga alohida e’tibor qaratilib, milliy va diniy qadriyatlarni, sof islom ma’naviyatini, diniy bag‘rikenglikni, diniy-ma’rifiy sohaga oid yangiliklarni aholining keng qatlamiga yetkazish o‘laroq, dinning insonparvarlik, ezgulik va tinchlik kabi fazilatlarini keng targ‘ib qilish bo‘yicha soha mutaxassislaridan tashkil topgan maxsus targ‘ibot[2] ishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Yangi O‘zbekistonda shakllangan ayollar “Targ‘ibot guruhi”[2] axborot, g‘oya, qarash, qadriyat, ma’naviy-siyosiy pozitsiyani ommaga

ongli ravishda yetkazish orqali ongni shakllantirish va jamiyatdagi xulqiy-madaniy me’yorlarni belgilash jarayonida har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib “jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi ostidagi “yumshoq kuchga asoslangan manzilli ma’rifiy targ‘ibot”ni “qadam-baqadam” va “o‘zini o‘zi tozalash” texnologiyalarining[10] algoritmik sistemasi vositasida aholiga yetkazmoqda. Jumladan, “Yangi O‘zbekistonda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarning yangi bosqichi”, “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Shukronalik – buyuk fazilat”, “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”, “Bag‘rikenglik – jamiyatda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil”, “Islom – tinchlik va ezgulik dini”, “O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: huquqiy asoslar va amaliy jarayonlar” kabi mavzularda yoshlarni Vatanparvar, insonparvar, ilm-ma’rifatli, intellektual barkamol avlod etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan diniy-ma’rifiy sohadagi konstruktiv targ‘ibotlar manzilli tashkil etilmoqda.

Konstruktiv targ‘ibot bunyodkor g‘oyalar ta’sirida vujudga keladi. Ular insonning ichki yaratuvchanlik mohiyati, ijodkorlik tabiatidan kelib chiqadi, odamlarni komillik va fozillik sari undaydi, imon-e’tiqodini mustahkamlaydi, hayotiga ijobiy mazmun baxsh etadi. Targ‘ibotchi guruhlar tomonidan bunyodkor g‘oyalarning keng targ‘ib etilishi insonni o‘z Vatani, xalqi va insoniyat farovonligi yo‘lida fidokorlik bilan xizmat qilishga ruhlantiradi, unda mehnatsevarlik, taraqqiyotga intilish, do‘stlik, tinchlik, adolat va halollik kabi umuminsoniy fazilatlarni mustahkamlaydi. Konstruktiv targ‘ibot nafaqat individual ongni yuksaltirishga, balki butun jamiyatni birlashtirishga va undagi ma’naviy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi. U dunyoqarashning kengayishi, tahlil qobiliyati, fikrlar mushohadasi, daxldorlikka chorlov va albatta, ijtimoiy muhitda bunyodkor g‘oyalarning rivojiga xizmat qiladi.

Konstruktiv targ‘ibotning asosiy maqsadi jamiyatda tinchlik va farovonlikni ta’minlash, inson qadr-qimmatini ulug‘lash hamda har bir shaxsning salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoit yaratish[12]dan iborat. Islom dini konstruktiv targ‘ibotning eng muhim manbalaridan biri. Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi,

Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan olib borilayotgan izlanishlar nafaqat O‘zbekiston, balki dunyoda islom madaniy merosini saqlash, targ‘ib qilish va jahon miqyosida namoyish etish uchun noyob ilmiy-ma’rifiy makon vazifasini o‘tamoqda. Jamiyatda mehr-oqibat va ijobiy munosabatlarni targ‘ib qilishga oid: “Kim bir kishiga salom bersa, Alloh unga rahmat yuboradi”[22.112], ijtimoiy birdamlik va mehr-muruvvatni targ‘ibiga oid, “Sizlardan biringiz o‘ziga istagan narsani birodariga ham istamaguncha haqiqiy mo‘min bo‘lmaydi”[17.52], halollik va halol mehnatga undovchi “Halol rizq topish har bir musulmonning burchidir”[23.37] kabi hadislarning mazmun-mohiyatidagi ezgu ishlar targ‘ibotini keng xalq ommasisiga yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, hadislar insoniylik, sabr, halollik, bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni, ulamolar fikrlari va ularning amaliy faoliyati jamiyatda ezgulik, ma’rifat, halollik va mehr-oqibatni targ‘ib qiladi. Konstruktiv diniy targ‘ibot jamiyatda ezgulik, ma’rifat va ruhiy poklikni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Qur’oni karim va sahih hadislar asosida shakllangan targ‘ibot uslublari nafaqat ibodatga, balki kundalik hayotda adolat, sabr, fidoyilik va o‘zaro hurmat tamoyillarini qaror toptirishga chaqirib, yosh avlodni ruhiy yetuklikka, fikriy mustaqillikka va ijtimoiy mas’uliyatga da’vat etmoqda. Bu targ‘ibot shakli mazmunan zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali keng ommaga yetkazilayotgani esa diniy bilimlarning hayotiy ahamiyatini yanada oshirib, fuqarolar ongida foydali g‘oyalar, ijtimoiy mas’uliyat, barqaror dunyoqarash va faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik, ilmiy aloqalar va diniy-madaniy dialog uchun platforma vazifasini bajarmoqda.

Destruktiv targ‘ibot jamiyatning ma’naviy tuzilmasiga bo‘lgan eng katta xatarlardan biri. U faqat alohida shaxs yoki guruhlarni emas, balki butun millat, davlat va kelajak avlod taqdirini xavf ostiga qo‘yadi[11]. Destruktiv kuchlar ko‘pincha qo‘llaydigan xatarli texnologiyalardan biri – bu “bo‘lib tashla va hukmronlik qil”, ya’ni g‘arazli geosiyosiy va geostrategik maqsadlarga erishishda qo‘llaniladigan usul va tamoyillardan biri[7]. Bunday harakatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: mamlakat manfaatlariga xiyonat qilish, o‘z shaxsiy manfaatlarini ko‘zlab iqtisodiy, siyosiy va josuslik faoliyati bilan shug‘ullanish, dushman tomoniga o‘tib

o‘z xalqi, mamlakatiga qarshi kurash olib borish, qo‘poruvchilik ishlari bilan shug‘ullanish, turli diniy mutaassib va ekstremistik g‘oyalar ta’siri ostida oilasi, vatanidan voz kechish, chetdan turib kindik qoni to‘kilgan zaminga nisbatan bo‘hton tarqatish va hokazo. Islom ta’limotida Vatanga xiyonat qattiq qoralanadi. Hadisda aytiladi: “Umar (roziyallohu anhu) rivoyat qiladilar: “Men Rasulullоh (sav)ning “Qiyomat kuni har bir xiyonatkor uchun bu dunyoda qilgan xoinligi uchun sharmisor qiluvchi bayroq o‘rnatib qo‘yiladi” deb aytganlarini eshitdim” [Imom Buxoriy, 3188-hadis]. “Ilm bo‘lmagan joyda halokat bordir”. Bu hadis ilmga zid bo‘lgan, asossiz fatvo va noto‘g‘ri talqinlar orqali tarqaladigan destruktiv targ‘ibotga qarshi ogohlantiradi. “Mo‘min kishi boshqa mo‘min uchun devorga suyanib turgan bino kabidir – biri boshqasini mustahkamlaydi”[19.64]. Bu hadis adovat, bo‘linish va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi harakatlarga qarshi, diniy asosga ega bo‘lmagan yangiliklar, bid’atlar va ularni targ‘ib qilishning zararini ko‘rsatuvchi “Kim bizning ishimizda bo‘lmagan narsani kiritgan bo‘lsa, u rad etiladi”[20.412] bu hadislar, ulamolarning dalilsiz gap-so‘zlardan tiyilishi – destruktiv targ‘ibotning oldini olishga xizmat qiladi. Zero, zamonaviy diniy-ma’rifiy faoliyatda ilmiy asosga tayanish ijtimoiy barqarorlik va ruhiy salomatlikning kafolatidir.

Dinni siyosiy vosita sifatida ishlatish, ya’ni diniy g‘oyalarni siyosiy maqsadlar uchun noto‘g‘ri talqin qilish jamiyatda bo‘linish va adovatga olib keladi, yoshlarni radikal g‘oyalarga jalb qilish, buning shakli esa, internetda diniy niqob ostida zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi guruhlar faoliyati – destruktiv targ‘ibotning eng xavfli shaklidir. Destruktiv targ‘ibot mamlakatimizga nisbatan bo‘layotgan tahdidlarga zamin yaratadi. Jumladan, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va yana boshqa ko‘rinishdagi tashqi hamda el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi ichki tahdidlarni keltirish mumkin. Aynan mazkur tahdidlar, ya’ni vayronkor g‘oyalar jamiyatda mavjud bo‘lgan tartibotni buzishga, milliy mentalitet va o‘zlikka xos bo‘lmagan g‘oyalarning urchishiga hamda axloqsizlikni targ‘ib etishga sabab bo‘ladi. Destruktiv targ‘ibot aksariyat

hollarda qora targ‘ibot shakliga murojaat etib turadi. Qora targ‘ibot ommaviy ongni aldashni maqsad qilib qo‘yadi. Bu masalaga diniy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, muqaddas manbalarda va ulamolarimizning fikrlarida shunday keltiriladi:“Kim bizning ishimizda bo‘lmagan narsani kiritgan bo‘lsa, u rad etiladi”[20]. Bu hadis bid’at va diniy asosga ega bo‘lmagan yangiliklar orqali tarqaladigan noto‘g‘ri targ‘ibotlarga qarshi qat’iy pozitsiyani bildiradi. Shuningdek, “Ilm bo‘lmagan joyda halokat bordir”. Bu hadis ilmga asoslanmagan, yolg‘on va chalg‘ituvchi da’vatlarning halokatli oqibatini ko‘rsatadi. Qora targ‘ibot aynan ilmga zid bo‘lgan shakllarda namoyon bo‘ladi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: “Dinda haddan oshish – adashishdir” deya qayd etgan. U kishi o‘z asarlarida mutaassiblik va ekstremizmga qarshi turish zarurligini ta’kidlagan. Qora targ‘ibot ko‘pincha haddan oshgan, haqiqatdan uzoq yondashuvlar orqali tarqaladi.

Jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni samarali ado etishda targ‘ibotning konstruktiv tipi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning imkoniyatlari va salohiyati orqali aholi ongini ma’naviy va siyosiy jihatdan uyg‘unlashtirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash hamda umumiy maqsadlarga yo‘naltirish mumkin. Bu jarayonda targ‘ibot vositalari orqali jamiyatda ijobiy fikrlar, ma’naviy qadriyatlar va madaniy me’yorlarning qaror topishiga erishiladi.

Shu nuqtayi nazardan, “Targ‘ibot guruhi” a’zolarining o‘rni beqiyosdir. Ular jamiyatdagi ma’naviy-siyosiy muhitni barqarorlashtirish, aholi orasida birdamlik va hamjihatlikni kuchaytirishda asosiy vazifani bajaradi. Guruh a’zolarining faoliyati nafaqat axborot tarqatish, balki uni to‘g‘ri talqin qilish, ijtimoiy ongni shakllantirish va umumiy maqsadlarga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bekmurodov M. Mafkuraviy zombi qilish mexanizmi. // Ma’rifat. – Toshkent, 2007-yil 2-iyun.

2. Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-sentyabrdagi PQ-4436-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari

milliy bazasi, 05.09.2019-y., 07/19/4436/3693-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son; 22.04.2021-y., 06/21/6212/0358-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son; 11.09.2025-y., 06/25/164/0821-son).

3. Qahharova M. Mafkuraviy muhit va axloq. Monografiya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2009.

4. Qahharova M., Shakarov O‘. Mahalla va oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish texnologiyalari. Monografiya. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2021.

5. Quronov M. Mafkura, ta’sirchanlik va uslub.

6. Ma’naviyat targ‘ibotchisi. // Mavrulov A., To‘raev Sh., Daminov I. va b. – T.: Sano-standart, 2016.

7. Melnikova T.S. Propaganda kak texnologiya politicheskogo manipulirovaniya. // Vlast.

8. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

9. Musurmanova A., Qahharova M., Yusupova N. Xotin-qizlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni olib borish bo‘yicha yo‘riqnoma. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, 2020.

10. Patrixina T.N., Shlamova D.A. Propaganda: suщnost nauchnoy definitsii, podxodы k klassifikatsii. // Molodoy uchenыy, 2015, №4. – S.305-308.

11. Paxrutdinov Sh. Tahdid – halokatli kuch. – Toshkent: Akademiya, 2001. – 66 b.

12. Rustamov R. Ma’naviy targ‘ibot: mazmuni va atributlari, muammolari va yechimlari. Monografiya. – T.: Voris-nashriyot, 2019.

13. Hasanboyev O‘. Diniy-ma’rifiy va ijtimoiy-ma’naviy soha targ‘ibotchilari uchun ayrim atama va tushunchalarning izohli lug‘ati. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov, 2020. – 382 b.

14. Hasanboyev O‘. Internetda radikalizm va ekstremizm g‘oyalari targ‘ibotidan ehtiyot bo‘ling! – Toshkent: Shafoat nur fayz, 2024. – 32b.

15. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021–2026-yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6255-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.07.2021-y., 06/21/6255/0638-son.

17. Shayx Abdulaziz Mansur. Riyozus Solihin Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 52.

18. Shayx Abdulaziz Mansur. Imom an-Navaviy. Riyozus Solihin. O‘zbekcha tarjima va sharh. Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 230.

19. Shayx Abdulaziz Mansur. Imom an-Navaviy. Riyozus Solihin. O‘zbekcha tarjima va sharh. Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 64.

20. Shayx Abdulaziz Mansur. Imom al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy. Toshkent: Movarounnahr, 2003. – B. 412.

21. Shayx Abdulaziz Mansur. Imom Muslim. Sahih Muslim. Toshkent: Movarounnahr, 2005. – B. 312.

22. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 3-juz: “Imon va iymonning belgilariga oid hadislar”. Toshkent: Hilol-Nashr, 2008. – B. 112.

23. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 9-juz: Halol va harom. Toshkent: Hilol-Nashr, 2009. – B. 37.

24. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 8-juz: Adablar. Toshkent: Hilol-Nashr, 2009. – B. 214.

25. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. 2-juz. Toshkent: Hilol-Nashr, 2008. – B. 53.

ZJV5401

PEDAGOG KADRLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING MUQOBIL VA RAQAMLI SHAKLLARI

Nilufar Yuldasheva Abdullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor.
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti

Bekturdiyev Sanjarbek Sharifboyevich,
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti,

Nurmatova Nargiza Saidovna
Qashqadaryo viloyati
Shahrisabz shahar
24-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonida “Lifelong learning” konsepsiyasi tamoyilining ahamiyati, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, masofaviy, dual va muqobil malaka oshirish shakllarining samaradorligi yoritib berilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning pedagogik imkoniyatlari, raqamli ta’lim muhitini yaratish hamda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdagi roli ochib berilgan. Maqolada raqamli savodxonlik va raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, pedagog kadrlar, uzluksiz kasbiy rivojlanish, hayot davomida o‘qish, raqamli kompetensiya, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim, dual ta’lim, raqamli savodxonlik, ta’lim transformatsiyasi.

Ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan sohalar qatorida maktab ta’limini yangi bosqichga olib chiqishda inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish har qachongidan dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Ijtimoiy soha yo‘nalishining ta’lim tizimidagi pedagog kadrlarning pedagogik mahoratini yanada rivojlantirishining yangi tendensiyalari namoyon bo‘lib, sohani raqamli texnologiyalarga asoslangan ta’lim muhitini yaratish orqali sohaga

zamonaviy va ilg‘or texnologiyalar tadbiq qilininishi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berildi.

Raqamlashtirish jarayoni jamiyatning har bir bo‘g‘iniga kirib borayotgan bir davrda mamlakat hayotining ijtimoiy sohalarni transformatsiya qilishda texnologiyalarni tadbiq etish orqali O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’limi tizimi islohotlarini yangi bosqichga olib kelishini ta’minladi. Bu borada, o‘qituvchi xodimlarnining kasbiy rivojlanishining uzluksiz tizimini tashkil etish asosida maktab ta’limi sohasidagi rahbar, pedagog kadrlarning zarur kompetensiyasi, ko‘nikmalari va malakasini oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yilning 17-yanvaridagi 25-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini takomillashtirish, uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining “Lifelong learning” konsepsiyasi tamoyili asosida A.Avloniy nomidagi ilmiy tadqiqoti instituti tomonidan amaliyotga joriy qilingan, kasbiy elektron platforma yordamida maktab ta’limi pedagog kadrlari o‘z bilim ko‘nikma va malakalarini oshirish tizimi yaratildi [1].

O‘tgan davr mobaynida, ya’ni 2023-yilning 20-dekabrida tashkil etilgan “Raqamli ta’lim texnologiyalarining joriy etish masalalariga bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi” doirasida quyidagi masalalar muhokamasi bo‘lib o‘tgan edi:

- raqamli transformatsiya jarayonida rahbar va pedagog kadrlarning “Lifelong learning” konsepsiyasi tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishini tashkil etishda erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar;
- maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirishni tashkil etishning zamonaviy tendensiyalari;
- ta’lim jarayoniga raqamli ta’lim texnologiyalarini joriy etishga innovatsion yondashuvlar;
- uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida zamonaviy raqamli ta’lim muhitini yaratish masalalari;
- maktabgacha va maktab ta’limi tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish istiqbollari. [2]

Ta’lim jarayonida sun’iy intrellekt texnologiyasi imkoniyatlarini kengaytirish bugungi zamonning rivojlanish tendensiyalaridan biridir.

Bugungi jamiyatning yangi davrga mos intellektini rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganib chiqqan holda, ta’lim sohasi oldiga yangi talabalarni qo‘yadi va keng qamrovdagi ta’limiy islohotlarni amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi. Pedagogik texnologiyalar yordamida ta’lim berish bosqichiga yangicha mazmun ya’ni sun’iy intellektni joriy etish orqali nafqat bugungi davr muammolariga yechim izlash, balki ta’lim sifati samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishda hamda kelajak jamiyatlari uchun zarur pedagog kadrlarni ishlab chiqarishda zamonaviy yondashuvlarni talab qilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Aynan ta’lim jarayonida o‘qituvchi xodimlarning bilim, ko‘nikma va pedagogik mahoratlarini sezilarli darajada oshirib, bugungi zamonaviy texnologiyalarni tadbiq etish yo‘li orqali ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqish uchun zamin yaratdi [3].

Sun’iy intellekt imkoniyatlari shu kabi jarayonlar uchun ta’lim maqsadlariga erishishdagi muhim qadamlarni taqdim etadi. Hozirgi ta’lim transformatsiya jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqishda integratsiyalashuv orqali ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ydi. Pandemiya davridan so‘ng, o‘quv faoliyat amaliyotlarida raqamli texnologiyalar, shuningdek, pedagog kadrlarning zamonaviy ta’lim muhiti uchun raqamli kompetensiya va ko‘bnikmalarini rivojlantirish talabini namoyon qildi. Shu bilan birga ta’limning innovatsion yondashuvlari ya’ni “inson + texnologiya” tamoyili asosida **blended learning** (aralash ta’lim) kabi modellarini yangilashda katta salohiyat zarurligini ko‘rsatib berdi [4].

XXI asr sharoitida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini to‘liq qamrab olgan “Lifelong learning” konsepsiyasi tamoyilining joriy etilishi ta’lim tizimini raqamlashtirish islohotlari davrida tub burilish sifatida namoyon bo‘ldi hamda ta’lim jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqqan raqamli transformatsiya jarayonlarining faol joriy etilishiga xizmat qildi. Mazkur konsepsiya asosida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlovchi tizim shakllantirilib, bugungi kunga kelib umumiy o‘rta ta’lim tizimi pedagog kadrlariga ta’lim olishning muqobil shakllaridan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratildi (1-rasm).




1-rasm. Pedgog kadrlari tomonidan ta’lim olishning muqobil shakllari

Umumiy o‘rta ta’lim tizimi pedagog kadrlarining malakasini oshirishning muqobil shakllari tarkibiga darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari muallifi bo‘lish huquqiga ega bo‘lish, doktorlik ilmiy darajasini olish maqsadida dissertatsiya ishini himoya qilish, xalqaro hamda respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma’ruzalari bilan ishtirok etish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari asosida Scopus va Web of Science kabi xalqaro indeksatsiyalangan bazalarda e’tirof etilgan ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish kiradi. Ushbu muqobil malaka oshirish shakllarining ro‘yxati va ularga beriladigan kredit ballari vakolatli vazirlik tomonidan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, pedagoglarning kasbiy faoliyati

doirasida intellektual salohiyatini kengaytirish, ilmiy asoslangan o‘quv va metodik adabiyotlar bilan muntazam tanishib borish, ilmiy mazmundagi maqolalarni o‘rganish orqali dunyoqarashini kengaytirish va tafakkur darajasini rivojlantirish jarayonlari maktab o‘qituvchisining ta’lim jarayonidagi kasbiy ko‘nikma va malakasini yuksaltirishga xizmat qiladi [5].

Raqamli dunyoda esa shaxs, ya’ni borliqni kuzatuvchi, raqamli texnologiyalar olamida faol, kreativ inson sifatida gavdalanadi. Inson tomonidan yaratilgan raqamli muhitda turli resurslar, ko‘p o‘lchoviga ega obyektlar va tarmoq yo‘nalishlari faoliyati sabab to‘yinadi, o‘zgartiriladi va boshqariladi. Raqamli vosita va texnologiyalar inson hayotini, atrof-muhitidagi jamiki odamlar o‘rtasidagi muloqot shakllari, inson tafakkuri va qadriyatlari, xulq-atvor strategiyalarini, jamiyat a’zosi sifatidagi ijtimoiy faoliyat turlarini o‘zgartirishga undaydi.Bugungi kunda raqamli muhitdagi shaxs real va virtual dunyoda barcha teng hisoblanib, raqamli voqelikdagi paydo bo‘ladigan qiyinchilik va xavflarni yengib o‘tishni o‘rganishi lozim bo‘lgan “bugunning mavzusi” sifatida qarab kelinmoqda [6].

Axborot kommunikatsiya texnologiya imkoniyatlaridan foydalanish zaruratiga aylanishi bilan pedagog kadrlarning raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan bir ekanligi ta’lim jarayonida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda zamonaviy raqamli ta’lim platforma imkoniyatlaridan foydalangan holda, o‘qituvchidan raqamli kompetensiya, ko‘nikmasi va savodxonligini shakllantirish talabi raqamli ta’lim muhitining asosiy vazifasiga aylandi.



2-rasm. Raqamli ko‘nikmalar tarkibi

Ta’lim islohotlarini to‘liq anglash uchun raqamli iqtisodiyot sohasida “raqamli ko‘nikma” tushunchasi ta’lim jarayonini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatini, zamonaviy pedagog kadrlarga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilashda muhim ahamiyatga egaligini ta’minlaydi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida shaxsdagi bilim va zamonaviy axborot texnologiyalar, dasturiy mahsulotlardan ta’lim muhitida foydalanish qobilyatini tavsiflovchi raqamli savodxonlik va ko‘nikmalarga asoslanadi.

Raqamli savodxonlik insonning mehnat faoliyati davomida AKT imkoniyatlarini o‘zlashtirishi, zarur o‘quv axborot manbalaridan olingan ma’lumotlarni tahlil qilishi va baholashi natijasida universal qobilyatlari raqamli ta’lim muhiti uchun zarir ko‘nikmalari shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. PF-6079-son, 05.10.2020. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — Lex.uz. https://lex.uz/ru/docs/-5030957

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ–244-sonli qarori “Ta’lim sifatini oshirish va ilmiy faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022.

3. Begmamat, D., Sanjarbek, B., Utkirjon, U., Shohrukh, N., Umidjon, K. (2023). SMART Education Framework to Assess the Knowledge of Engineering Students. In: Cioboată, D.D. (eds) International Conference on Reliable Systems Engineering (ICoRSE) - 2023. ICoRSE 2023. Lecture Notes in Networks and Systems, vol 762. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-40628-7_7

4. Yuldasheva N.A., Bekturdiyev S. Sh., Tursunova S. A. Bekmurzayeva O. M. “Ta’lim tarixi bo‘yicha vizual materiallar bilan ishlash” Uzluksiz ta’lim: xalqaro tajriba, innovatsiya va transformatsiya masalalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami b 857-863

5. Tashanov Sh.A. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining didaktik asoslari. – Toshkent, 2021.

6. Bekturdiyev S.Sh., Tursunova Sadoqat A., Bekmurzayeva O.M. “Sifatli ta’limni ta’minlashda raqamli texnologiyalar va infratuzilmaning roli: xalqaro va milliy tajriba asosida tahlil” Raqamli transformatsiya davrida pedagogik ta’limni rivojlantirish istiqbollari mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami

ZJV5401

ZAMONAVIY G‘OYAVIY XURUJLAR SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILARNING MAFKURAVIY IMMUNITYETINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI

Olimjon Usarov
Jurnalist, Huquqshunos.
Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent, 3-toifali adliya maslahatchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan sharoitda yuzaga kelayotgan zamonaviy g‘oyaviy tahdidlar hamda ularning jamiyat barqarorligiga ta’siri tahlil qilingan. Ayniqsa, mamlakat suvereniteti va xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutuvchi harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mafkuraviy immunitet, g‘oyaviy tahdidlar, axborot-psixologik ta’sir, harbiy xizmatchilar, vatanparvarlik tarbiyasi, axborot madaniyati, milliy qadriyatlar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, g‘oyaviy barqarorlik, milliy xavfsizlik.

Globallashuv jarayonlari jadal kechayotgan hozirgi davrda axborot maydoni keskin raqobat va turli g‘oyaviy ta’sirlar maydoniga aylanmoqda. Dunyoda geosiyosiy qarama-qarshiliklar kuchayib, turli ekstremistik, radikal va buzg‘unchi g‘oyalar axborot texnologiyalari orqali tez tarqalayotgan bir paytda jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlash davlat xavfsizligining muhim omiliga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bunday murakkab vaziyatda “turli ma’naviy buzg‘unchilik va vayronkorlik harakatlari va xurujlarining oldini olish, aholi, ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizda ularga nisbatan ma’naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g‘oyalarni targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratish” lozim [1. 273].

Ayniqsa, harbiy xizmatchilar va mudofaa tizimi xodimlari mamlakat suvereniteti va xavfsizligini ta’minlashda hal qiluvchi kuch bo‘lgani sababli

ularning mafkuraviy barqarorligi, vatanparvarlik ruhi va ma’naviy immuniteti yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida [2] milliy manfaatlardan kelib chiqib, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g‘oya asosida birgalikda kurashish va yoshlarni turli buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilish masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashish va aholining, ayniqsa, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash muhim vazifaga aylanmoqda.

Xo‘sh, zamonaviy g‘oyaviy xurujlar nimalarda namoyon bo‘lmoqda?

Bugungi kunda g‘oyaviy tahdidlar an’anaviy usullar bilan emas, balki axborot-psixologik ta’sir texnologiyalari orqali amalga oshirilmoqda. Bunday ta’sirlar asosan internet, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik platformalari va turli axborot kanallari orqali tarqatiladi.

Zamonaviy g‘oyaviy xurujlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

axborot texnologiyalari orqali tez va keng tarqalishi;

yoshlar ongiga ta’sir qilishga qaratilganligi;

milliy qadriyatlar va davlatchilik g‘oyalarini zaiflashtirishga intilishi;

ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka putur yetkazishga qaratilganligi.

Ayrim hollarda bugungi axborot maydonida dezinformatsiya, manipulyatsiya va psixologik ta’sir usullari orqali jamiyatda ishonchsizlik muhitini shakllantirishga urinishlar kuzatilmoqda.

Bunday sharoitda jamiyatda, ayniqsa, harbiy xizmatchilar orasida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish strategik ahamiyatga ega.

Xo‘sh, mafkuraviy immunitet nima?

Mafkuraviy immunitet – bu shaxsning turli buzg‘unchi g‘oyalar, yot mafkura va axborot-psixologik ta’sirlarga qarshi mustaqil fikr yuritish qobiliyati, milliy qadriyatlarga sodiqlik va ma’naviy barqarorlikni anglatadi.

Bu tushuncha jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Ma’naviy-

ma’rifiy sohadagi turli faoliyat shakllari samarasini oshirish orqali jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, ushbu shiddatkor jarayonni yanada optimallashtirishga alohida ahamiyat qaratish darkor”, deb doimo ta’kidlab keladi [1. 283].

G‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashishda ma’rifiy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Buyuk donishmand bobomiz Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida inson kamoloti haqida shunday deydi: “Inson kamoloti ilm va fazilat orqali namoyon bo‘ladi” [5].

Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, bilim va ma’rifat insonni turli buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishda muhim omil hisoblanadi.

Shu bois g‘oyaviy tahdidlarga qarshi samarali kurashishga erishish uchun yoshlarda mustaqil fikrlashni shakllantirish, axborot madaniyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish lozim.

Natijada mafkuraviy immuniteti kuchli inson:

yot g‘oyalarga tanqidiy munosabat bildiradi;

milliy manfaatlarni teran anglaydi;

vatanparvarlik tuyg‘usi yuksak bo‘ladi;

turli axborotlarni tanqidiy tahlil qila oladi.

Ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun mafkuraviy immunitet nafaqat shaxsiy barqarorlik, balki milliy xavfsizlikning muhim qismi hisoblanadi.

Bu jarayonda quyidagi yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega:

1. Vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish.

Harbiy xizmatchilarning ma’naviy barqarorligi, avvalo, ularning Vatanga bo‘lgan muhabbati va sadoqatiga bog‘liq. Shu sababli tarixiy xotirani saqlash, milliy qahramonlar va ajdodlar merosini o‘rganish, harbiy an’analarni targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega.

2. Axborot madaniyatini shakllantirish.

Zamonaviy axborot makonida inson turli axborot oqimlari bilan yuzma-yuz keladi. Shu sababli harbiy xizmatchilarda axborotni tahlil qilish, soxta ma’lumotlarni ajrata bilish va manipulyatsiyalarga qarshi turish qobiliyatini shakllantirish zarur.

3. Milliy qadriyatlar asosida ma’naviy tarbiya.

Milliy an’analar, urf-odatlar va ma’naviy meros jamiyat barqarorligining muhim tayanchidir. Shu bois harbiy xizmatchilar tarbiyasida milliy qadriyatlarga tayanish muhim ahamiyatga ega.

4. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish.

Mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar zamonaviy usullar asosida tashkil etilishi, interaktiv texnologiyalardan foydalanilishi, harbiy xizmatchilarning faol ishtiroki ta’minlanishi lozim.

Shu bois so‘nggi yillarda mudofaa tizimida harbiy xizmatchilarning ma’naviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, har haftaning juma kuni qo‘shinlarda “Ma’naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni” sifatida belgilanib, harbiy qismlarda muntazam ravishda ma’naviy-ma’rifiy mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda. Ularda mamlakat tarixidagi muhim voqealar, milliy qahramonlar faoliyati, mustaqillik g‘oyalari keng targ‘ib qilinishiga urg‘u berilmoqda.

Bu mashg‘ulotlar harbiy xizmatchilarning Vatanga bo‘lgan sadoqati va faxr tuyg‘usini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan turli dezinformatsiyalarga qarshi harbiy xizmatchilarda axborot madaniyatini shakllantirish bo‘yicha tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda. Bu jarayonda axborot tahlil qilish ko‘nikmalari, soxta axborotlarni aniqlash, axborot xavfsizligi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Biz yoshlarimizni haqiqiy vatanparvarlik, azmu shijoat, mardlik va jasorat ruhida tarbiyalashda muhtaram ziyolilarimiz, faol va fidoyi olimlarimiz hamda ijodkorlarimizning yordamiga tayanamiz. Ayniqsa, buyuk sarkarda bobolarimizning hayoti va jangovar faoliyati, harbiy merosini o‘rganish hamda yoshlarimiz o‘rtasida targ‘ib etish katta ahamiyatga egadir”, [1. 287] degan ta’kidlariga amal qilgan holda, harbiy qismlarda ziyolilar, davlat va jamoat arboblari, faol va fidoyi olimlar hamda ijodkorlar ishtirokida turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, kitobxonlik kechalari, uchrashuvlar va ma’ruzalar tashkil etilmoqda. Bu tadbirlar harbiy xizmatchilarning ma’naviy dunyoqarashini boyitishga xizmat qilyapti.

Xulosa sifatida aytganda, zamonaviy axborot makonida yuzaga kelayotgan g‘oyaviy tahdidlar jamiyat barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishini e’tiborga olib, aholining, ayniqsa, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar, vatanparvarlik tarbiyasi, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va axborot madaniyatini shakllantirish bu borada muhim ahamiyatga ega.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida jamiyatda yagona ma’naviy makonni shakllantirish, aholining mafkuraviy barqarorligini ta’minlash va yosh avlodni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilish mamlakat taraqqiyotining muhim shartidir.

Shu ma’noda, har bir fuqaro, ayniqsa, harbiy xizmatchilarning yuksak ma’naviyatli, mustahkam dunyoqarashli va vatanparvar bo‘lib kamol topishi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ishonchli kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Мирзиёев Ш.М. “Янги Ўзбекистон стратегияси”. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – 464 б.

2. “Ўзбекистон – 2030” стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги ПФ-21-сон Фармонига 1-илова.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сон қарори. 2021 йил 26 март.

4. “Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари тизимида маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш концепцияси”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 августдаги ПҚ-3898-сон қарорига 1-илова.

5. Абу Наср Форобий. “Фозил одамлар шаҳри”. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2022. – 320 б.

INSON QADRI VA SIFATLI TA’LIM G‘OYASI– YURTIMIZDA YAGONA MA’NAVIY MAKON YARATISH GAROVIDIR.

Sultanova E. S,
siyosiy fanlar doktori, JIDU professori,
Sultonov F. X., Turon FA akademigi

Annotatsiya. Maqola yurtimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda, inson qadri, ilm va sifatli ta’limning muhim roli ochib berilgan. Buyuk allomalarimiz va jadidchilarimiz asarlari orqali - inson faqat sifatli ta’lim orqali ilmlarni egallashi, yuksak salohiyatga, komillikka erishishi va qadr topishi, yorqin misollarda asoslab berilgan. Maqolada hozirgi ta’lim va ommaviy axborot vositalari (OAV) tizimi ilmiy taxlil qilingan va yanada sifatli bo‘lishi uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati, inson qadri, ilm-fan, tafakkur, sifatli ta’lim, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq, o‘zbek tili, ahloq-odob, jadidchilar, ma’naviy muxit.

Moddiy va ma’naviy hayotni uyg‘un rivojlantirishimiz kerak. Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongi tafakkuri hech qachon axborot olishdan fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi.

Sh.M.Mirziyoyev

Ma’lumki, g‘oyalar tafakkur mahsuli sifatida, voqelikni, hayotni, uning qonuniyatlarini o‘rganish, bilish va anglash jarayonida vujudga keladi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari, xususan ilm-fan, din, falsafa, san’at, badiiy adabiyot, siyosat va huquq quyidagi muayyan bir g‘oya turlarini yaratadi, ya’ni ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy, umuminsoniy va h.k... Demak, g‘oya - ijtimoiy fikr sifatida shakllanadi va muayyan mafkuraning asosi bo‘ladi.

Inson dunyoga kelibdiki, u xamisha hayotda o‘ziga munosib sharoitlarni izlaydi. Ular turlicha bo‘lishi mumkin: bir xillari jamiyatga,

undagi qoidalarga to‘g‘ri keladi, bir xillari esa-umuman zid bo‘lishi mumkin. Bu borada shunday halq maqoli bor "Ota-onasi o‘lgan odamni emas, odob ahloqi bo‘lmagan odamni yetim de". Aytish joizki, ko‘p narsa e’tiqod kabi buyuk tuyg‘uni har bir insonda tarbiyalashga bog‘liqdir. E’tiqod, bu o‘zlikni ma’lum bir maqsadga bag‘ishlash demakdir. U dunyoqarashga qarab, ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Odatda, tafakkur va ilm rivojlanmagan insonda e’tiqod sust bo‘ladi. Inson ayni ularga asoslanib, ma’lum bir yo‘l-e’tiqodni tanlaydi. Djon Lokk aytganidek, inson tug‘ilganda oppoq qog‘ozdek bo‘ladi, vaqt o‘tib hayot ushbu qog‘ozga o‘z ma’lumotlarini yozadi. Chinakam inson bo‘lish uchun inson hech qachon o‘zligini yo‘qotishi kerak emas. Buning uchun unda millatga, oilaga, Vatanga bo‘lgan sadoqat kuchli bo‘lishi lozim. Inson idrokidagi nuksonlarni biz hamisha aql bilan bartaraf etishimiz kerak [1].

Yangi O‘zbekistonda “Inson qadri, insonni rozi qilish” g‘oyalarini hayotga tatbiq etilishidagi ba’zi mulohazalarga e’tiboringizni qaratmoq-chimiz. “Inson qadri”,- deymiz-u, shu oddiy shiorni mag‘zini to‘la chaqa olishda yoshlarimizda muammo paydo bo‘lmoqda. Mashoyixlarimiz aytgan: ”O‘z qadrini bilmagan –o‘zgani qadrini na bilsin”,-degan iboralarini eslang (so‘ng u xalq orasida xatto ashulaga ham aylangan) Avvalambor, inson qadri nima bilan o‘lchanishiga – uning moddiy boyligi bilanmi yoki ma’naviy-ruxiy boyligi bilan- shuning mohiyatini anglab yetmoq zarur bo‘ladi. Ming afsuski, bu masalada ommaviy axborot vositalari (OAV) bilan shug‘ullanuvchi bloger jurnalistlarimizda va xatto ba’zi “ziyoli” rahbarlarimizda ham anglashilmovchilik bo‘lmoqda. Fikrimizcha, go‘yoki ko‘proq insonning iqtisodiy ahvolini to‘g‘rilasak, uning qadri ham oshib borayotgandek. Vaholanki, ba’zi aholimiz qatlamlari, ayniqsa yoshlarimiz orasida “yuqori martabali boy” kishilarni, ularning “ichki-ma’naviy dunyosidan” qat’i nazar, “qadri baland”,- degan tashvishli tushunchalar paydo bo‘lmoqda.

Hozirgi ko‘pchilik jurnalistlarimiz “SO‘Z”ning qanchalik kuchli ma’naviy-ruxiy quvvati borligiga umuman e’tiborni qaratmay qo‘yishdi. “Tilga e’tibor-elga e’tibor” maqolimizni faqat o‘z ona - o‘zbek tilimizni rivojlantirishga qaratib, uning keng ma’nodagi mohiyatini anglab yetishmayapti. Shu o‘rinda “Aytilgan so‘z – otilgan o‘q” degan halq

maqolini yoki qadimgi yunon amaldori quli – Ezopning til to‘g‘risidagi (tildan tayyorlangan eng shirin va eng achchiq taom) rivoyatini keltirish mumkin. Ijtimoiy tarmoqda va hatto televideniyaning ba’zi kanallarida shunday iboralar ishlatilmoqdaki, hatto qayta aytishga istixola qilasan. Axir, har qanday so‘z, oldin fikr bo‘ladi, undan so‘ng til orqali ommaga yetadi. Dili pok insonning-tili ham ravon, yoqimli muloyim bo‘ladi. Unutmaylik: So‘z boyligi-uning ko‘pligida emas, balki uning ruhiy quvvatidadir. Tilimizdan chiqayotgan har bir so‘z – dilimizdagi fikrni ifodalaydi va albatta kelajakda moddiy dunyoimizga (hayotimizga) o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Muamola masalasida “O‘tkan kunlar” asaridagi Otabek otasining o‘g‘liga aytgan quyidagi: “Har narsaga yetgan aqlingiz, bunda nega oqsaydi”,- degan gaplarini eslashning o‘zi kifoya deb o‘ylaymiz. Haqitatan, buyuk yozuvchilarimiz har bir so‘zning ma’nosiga juda katta e’tibor berishgan.

Insonlarni fuqarolar darajasiga olib chiqishda ko‘p narsani ularda odamiylik xususiyatlarni tarbiyalash muhimdir. Keling, o‘ylab ko‘raylik-chi, bugungi kunda: "Inson manfaatlari xar narsadan ulug‘", "Xamma narsa inson uchun", "Inson qadri", "Inson kapitali eng muhim",- deganda biz nimalarni asosiy yo‘nalishlar sirasiga kiritamiz. Bir necha yondoshuvlarga to‘xtalsak. Abdurauf Fitrat qator asarlarida, jumladan "Oila yoki oila boshqarish tartiblari"da insoniylik munosabatlarini nimada aks etilishini shunday fikrlari bilan izohlaydi. "Xar bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarning intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi ahloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo‘l qo‘ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi” [2]..

Yana bir buyuk jadidchilarimizdan biri Abdulla Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg‘or ilm-fanni bolalarga o‘rgatishni o‘z oldiga asosiy vazifa qilib qo‘ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo‘lishini ta’minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo‘ldi. Adib bu maktablar

uchun darsliklar tuzdi. Axloqiy-didaktik mazmundagi «Turkiy Guliston yoxud axloq» darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o‘rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan — bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmoq, yashartmoq kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbatidir: «Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur» [3].

Inson qadri nima bilan o‘lchanadi, moddiy boylik bilanmi yoki ma’naviy-ruhiy boylik? Inson qadrini jamiyatda to‘laqonli ta’minlanishida ilm-fanning qanday o‘rni bor? Inson qadri tushunchasini anglash uchun eng avvalo mukammal ilm va amaliyot, hayotiy tajriba, qolaversa uning ilmiy mohiyatini chuqur anglab yetmoq zarur. Xo‘sh, hozirgi ta’lim tizimimiz ushbu talablarga javob beradimi?

Ta’limning yuqori bosqichi - oliy ta’lim masalasida erishilgan katta yutuq abiturentlarni o‘qishga qabul qilishda keng imkoniyat maydoni yaratildi. Bugun oliy ta’limga qamrov 35 foizga yetkazildi. Yaqin yillarda 50 foizga chiqarish rejalashtirilgan. Davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari orasida raqobat muhiti yaratildi. E’tibor qiling. ta’lim muassasalariga talabalikka qabul qilishda o‘zgacha yondashuv joriy qilingan. Ya’ni, qabul qilishning juda ham sodda va oson tizimi ishga tushgan. Ammo, ba’zida talabalikka qabul qilingan shaxsning bilim saviyasi, salohiyati emas, ko‘proq to‘lov imkoniyati rol o‘ynamoqda. Bu ayniqsa nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda.

Son ketidan quvib, ta’lim sifati unutib qo‘yilmayaptimikan?

Bu yilgi talabalarni qabul qilishda, ba’zi nufuzli davlat universitetlari iqtisodiy tarafga ko‘proq e’tibor berib, bulturgi imkoniyat darajasidan ikki

barobar ko‘p talaba qabul qilgan. Xususiy oliy ta’lim muassasalaridagi sifatli ta’lim ahvoli bundan ham og‘ir bo‘lmoqda.

Tibbiyot, pedagog va boshqa inson salomatligi, tarbiyasi, huquqini himoya qilish sohasi mutaxassislarini tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida ham bir xil standartda superkontrakt tizimini qo‘llanilishi ertaga bu mutaxassislarning saviyasi, jamiyatda inson taqdirini hal qilishdek mas’uliyatini shubha ostida qoldiradi.

Yana bir masala, magistraturaga bali yetmaganlarni kontraktning 1,5 baravarigacha to‘lashi hisobiga qabul qilinishi juda achinarli hol. Axir bor–yo‘g‘i bir yil o‘qib, magistraturani bitirgan magistrantlar oliy ta’lim tizimida talabalarga dars berish huquqiga ega bo‘ladi. Masalaning mulohazaga tortadigan quyidagi muhim jihatlariga e’tiboringizni qaratmoqchimiz: **Har qanday ilm – ma’naviy (ruhiy) dunyo mahsuli. Uni moddiy dunyo boyligiga(superkontraktga) sotib olib bo‘lmaydi. Ilmni inson faqat o‘z zakovati (ruhiy dunyo quvvati) bilan egallashi mumkin. Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilishda superkontrakt masalasidagi bir xil yondashuv aslida jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlash qoidalariga ziddir.**

Zero, ushbu sohada har tomonlama puxta o‘ylangan, ta’bir joiz bo‘lsa ilmiy asoslangan uzluksiz ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya berish qoidalari, faqat sifatli ta’lim orqaligina biz fuqarolarimiz va yoshlarimizni Prezidentimiz ta’kidlagan g‘oyaviy tahdidlardan himoya qila olamiz. Ta’lim-tarbiya berish jarayonlarining samaradorligi hozirda axborot makonimizda yuzaga kelayotgan g‘oyaviy xavf va taxdidlardan yoshlarimiz o‘zini qay darajada himoya qila olayotganligida ko‘rinadi.

Fikrimizcha, asosiy maqsadimiz “Fuqarolik jamiyati”ni qurish va bu jamiyatda inson qadrini yuqori darajada ko‘tarish ekan, ommaviy axborot vositalari (OAV) esa uni amalga oshirish vositasi bo‘lgani uchun ahamiyati va o‘rni juda yuqori bo‘lishi lozim. Afsuski, hozirgi paytda, bu muammo bo‘lib turibdi, chunki yuqorida ta’kidlangandek, ko‘proq iqtisodiy masalalarga e’tiborni qaratib, insonning ma’naviy-ruhiy qiyofasini shakllantirish, ayniqsa yoshlarimizda oqsamoqda. Bunga OAV lari (televideniye, matbuot, ayniqsa ijtimoiy tarmoqdagi (internet) dagi tarqatilayotgan materiallar yaqqol misol bo‘la oladi [4,5].

Mashoyihlarimiz bejizga:Ta’limda tanaffus bo‘lishi mumkin-tarbiyada esa bo‘lmaydi” yoki ”Onasini ko‘r – qizini ol” deyishmagan. Bu maqollarning mohiyatida chuqur falsafa yashiringan. Birinchi bo‘lib ona o‘z farzandiga so‘zlari orqali – bolaning ongini, dunyoqarashini shakllantiradi. Ona va ota tarbiyada o‘z tiliga qanchalik bee’tibor bo‘lsa, kelajakda bola betamiz bo‘lib voyaga yetadi. Unutmaylik: “***Moddiy dunyo – ma’naviy dunyoimizning oynadagi aksidir, demak bolalarimiz – bizlarning oynadagi aksimizdir***”. Keyinchalik mashoyixlar aytganidek “oynadan- o‘pkalib” yurmaylik.

Mustaqillik va inson huquqlari, inson qadri tushunchalari o‘rtasida siam egizaklari kabi bir-biriga chambarchas bog‘liqlik bor. Inson mustaqil bo‘lsagina - erkin bo‘ladi va u o‘z huquqlarini taniydi va uning uchun kurasha oladi, natijada albatta o‘z qadrini anglab yetadi. Bu fuqarolik jamiyatining asosiy g‘oyasidir. Fuqarolik jamiyatida inson o‘z ichki ma’naviy-ruxiy dunyosiga loqayd bo‘lmasligi lozim. Unutmaylik: ***Insoniyatni jar yoqasiga olib borib, mudhish urush girdobiga tashlaydigan ruhiy kasalliklaridan biri loqaydlikdir. Chunki loqaydlik - mu’telikni onasidir. Mu’telikdan - qo‘rqoqlik olamga keladi. Qo‘rqoqlikdan esa - xiyonat tug‘iladi. Xiyonatdan - dushmanlik, undan ohir-oqibatda urush paydo bo‘ladi.*** Buyuk imperiyalarning (Rim, Vavilon v.h.k.) yemirilish asoslarini eslang.

Mamlakatimiz islohotlar maydoniga aylandi. Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi rivojlanish darajasiga yetish, taraqqiyotning yuqori pog‘onasiga chiqish yuzasidan barcha sohalarda o‘zgarishlar kechmoqda. Yurtdoshlarimizning dunyoqarash, fikrlash tarzi o‘zgarayapti, ammo afsuski ko‘proq iqtisodiy tarafga qarab, chunki OAV targ‘iboti shularga ko‘proq e’tiborni qaratmoqda. Vaholanki, agar biz halqimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma’naviy-ruxiy tarbiyasiga bee’tibor bo‘lsak ko‘zlangan maqsadga yetish amri-mahol bo‘ladi. Prezident qarorida, ***“Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor***”, -degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini ochib berish vazifasini belgilab berildi. Keling shu o‘rinda ushbu shior mohiyatiga to‘xtalib o‘tsak. Bu shiorning asosida vaqtdan unumli foydalanish muammosi bor. Afsuski, ko‘pgina

yosh rahbarlarimiz o‘z maqsadlari va vaqtlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda quyidagi muammolarga uchrashmoqda:

- Yillik rejani real amalga oshira oladigan maqsadni;
- Maqsadni amalga oshirish yo‘llarini;
- Amalga oshirish muddatlarini.

Albatta yuqoridagilarni bajarish uchun muhim omil – yuqori saviya ham lozim bo‘ladi. Bu esa ta’lim – kelajagimiz poydevori bilan bog‘liq.

Xulosa shuki, ***“YANGI XAYET UCHUN, YANGI UZBEKISTON UCHUN”***- g‘oyasi negizidagi vazifalarni bajarishda, fuqarolik jamiyatimizda yashayotgan har bir shaxs yuksak ma’naviyatli, bilimli va axborotni ongli ravishda saralashga, qiyoslashga, oqini-oqqa, qorasini-qoraga ajratishga o‘rganishi shart. Demak, yurtimizda mustaqilligimizni mustahkamlash, yagona ma’naviy makon yaratish, mustaqil ichki va tashqi siyosatni yuritish, milliy manfaatlarimizni ta’minlashda, davlatimizning mavqe’ini xalqaro axborot makonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga ta’lim tizimidagi ziyolilarimizning mas’uliyati yanada yuksak bo‘lishi shart.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. "Ёшларда таълим ва тарбияга эътибор қаратиш– соғлом маънавий-аҳлокий муҳитни яратиш асосидир”. Султанова Э.С., Султанов Ф.Х., "Ўзбекистон халқаро ислом академияси" нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2021 йил, март. 8-14 б.
2. www.ziyouz.uzhttps://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/abdurauf-fitrat-2/
3. www.ziyouz.uzhttps://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq/.
4. Султанова Э.С., Султонов Ф,Х. “Ғоявий тахдид: адоқсиз курашлар”. Тошкент, "Тафаккур" журнали, 2021 йил, 3-сони, 114-115 б.
5. Султонов Ф.Х., Ҳожиев Ф.Ж. ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИ (ТЕЛЕВИДЕНИЕ, ИЖТИМОИЙ ТАРМОҚ ВА МАТБУОТ)ДА ТАРҚАТИЛАЁТГАН ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ МАТЕРИАЛЛАР ИЛМИЙ ТАҲЛИЛИ. Тошкент, «ART VERNISSAGE» нашриёти, 2023 йил, 232 б.

BAYRAMLARNING XALQIMIZNI G‘OYAVIY BIRLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Abduxoliq Tashanov
– Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, f.f.d. (DSc), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda keng nishonlanadigan umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb bayramlari va xalqaro kunlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmun-mohiyati qisqacha o‘rganilgan. Shuningdek, bayramlarning chuqur g‘oyaviy-ma’naviy mazmunga ega ijtimoiy hodisa sifatidagi ahamiyati, ularning xalqimizni g‘oyaviy jihatdan birlashtirish imkoniyatlari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, olijanob g‘oyalarni targ‘ib qilish xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb bayramlari, xalqaro kunlar, g‘oyaviy mazmun-mohiyat, ijtimoiy-ma’naviy ahamiyat, g‘oyaviy birlashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, olijanob g‘oyalar.

Yurtimizda milliy va davlat darajasida nishonlanadigan va turli maqsadlarda o‘tkaziladigan bayramlarimiz ko‘p. Ular xalqimizning tarixiy va madaniy merosini, milliy an’analarini yodga solish, birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Ularning ayrimlari inson va tabiatni uyg‘unlashtirish, yangi yil boshlanishi, mehnat va o‘zaro mehr-oqibatni qadrlashni ramziy ifodalasa, boshqalari esa, millatning davlatchilik tarixi va mustaqillik, ajdodlarga ehtirom, qonun ustuvorligi qadriyatlarini tarannum etadi. Kelgusi yilda ma’naviyat sohasini yanada rivojlantirib, ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi muhim sanalarni keng nishonlaymiz. Jumladan, barcha yutuq va g‘alabalarimizning poydevori bo‘lgan Vatanimiz mustaqilligining shonli 35 yilligini katta bayram sifatida o‘tkazamiz[1]. Muhimi bu kabi bayramlarimiz orqali jamiyatimizda umumiy qadriyatlar va birlik ruhi shakllanadi.

ZJV5401

Mamlakatimizda umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb bayramlari va xalqaro kunlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmun-mohiyatini yanada kuchaytirish orqali xalqimizning boy madaniy merosi va o‘ziga xosligini asrab-avaylash, davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, respublikamizda o‘tkaziladigan barcha bayram tantanalari va muhim sanalarning samarali tashkil etilishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 24 dekabrdagi 824-son “O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[2].

Bayramlar xalq hayotida oddiy dam olish yoki quvonchli marosim sifatidagina emas, balki chuqur g‘oyaviy-ma’naviy mazmunga ega ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ular jamiyat a’zolarini umumiy qadriyatlar atrofida jipslashtiruvchi ramziy makon vazifasini bajaradi. “Bayram istalgan paytda yoki o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi. Bayram ommada unga nisbatan extiyoj tug‘ilganida, muayyan bir asos, sabab paydo bo‘lganida va maxsus uyushtirilganidagina ta’sirchan tadbirga aylanadi”[3.20]. Bayram kunlari inson o‘zining shaxsiy manfaatlaridan ko‘ra umumxalq manfaatlarini teranroq his qila boshlaydi. Bu jarayonda “men” tushunchasi “biz” degan keng mafkuraviy doiraga qo‘shilib ketadi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat jamoaviy ongning faollashuvi bo‘lib, bayram insonni tarix, madaniyat va kelajak bilan bog‘laydi, xalq xotirasida saqlanib kelayotgan ma’nolarni qayta jonlantiradi. Shu orqali bayramlar g‘oyaviy birlashuvning muhim vositasiga aylanadi, millatning ichki birligini mustahkamlaydi. Demak, bayramlarni xalqni ma’naviy jihatdan uyg‘otuvchi kuch sifatida baholash mumkin.

Falsafada **bayramni vaqtning muqaddas shakli** sifatida talqin qilish mumkinki, chunki kundalik hayotda inson moddiy tashvishlar bilan band bo‘ladi. Bayram esa uni ruhiy yuksalishga chorlaydi, bu kunlarda vaqt oddiy oqimdan chiqib, ma’naviy mazmun bilan to‘ladi. Inson o‘z hayotiga ma’no nuqtai nazaridan qaray boshlaydi. Bayram inson qalbida umid va ishonch uyg‘otadi, bu esa jamiyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi. G‘oyaviy birlashuv aynan shu ijobiy munosabat orqali yuzaga keladi. Bayram insonlarni bir xil ruhiy holatga olib kiradi va bu

holatda farqlar emas, umumiylik ustuvor bo‘ladi. Shu bois bayramlar jamiyatda birdamlikni kuchaytiradi.

Bayramlarning g‘oyaviy ahamiyati ularning **umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etishi**da ham namoyon bo‘lib, tinchlik, bag‘rikenglik, adolat, mehr-oqibat kabi umuminsoniy tushunchalar bayramlar mazmunida alohida o‘rin tutadi. Bu qadriyatlar har qanday millat uchun umumiy bo‘lsada, ular milliy shaklda namoyon bo‘ladi. Falsafiy jihatdan, bu umumiy mazmunning milliy shaklda ifodalanishi bo‘lib, bayramlar ana shu uyg‘unlikni ta’minlaydi. Ular orqali xalq o‘z qadriyatlarini dunyoga namoyon qilishi bilan birga, ichki birlikni mustahkamlaydi, insonlarni o‘zaro tushunishga chorlaydi. Bu esa g‘oyaviy birlashuvning muhim shartidir.

Bayramlar **ijtimoiy adolat g‘oyasi**ni ham mustahkamlaydi. Bayram kunlari jamiyatda tenglik hissi kuchib, har kim o‘zini umumiy quvonchning bir qismi sifatida his qiladi. Bu holat ijtimoiy farqlarni ma’lum ma’noda yumshatadi. Xalqimizda bu holat jamoaviy hamjihatlik, ahillik deb atalib, insonlarni bir dasturxon atrofida jamlaydi. Bu ramziy holat xalqning bir tanu bir jon ekanini anglatishi orqali g‘oyaviy birlik mustahkamlanadi. Bayramlar odamlarda adolat va hamjihatlikka ishonchni oshirishi bilan ham jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omildir.

Milliy bayramlar **davlat va xalq o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlik**ni kuchaytiradi. Davlat bayram orqali o‘z g‘oyaviy yo‘nalishini xalqqa yetkazadi, xalq esa bu g‘oyalarni qabul qiladi yoki qayta anglaydi. Bu o‘zaro muloqot falsafiy jihatdan ijtimoiy kelishuvni ifodalab, aynan **bayramlar bu kelishuvning ramziy maydoni**dir. Bayramlar orqali umumiy maqsadlar shakllanadi va bu maqsad esa g‘oyaviy birlashuvning asosidir. Bayramlar xalqni kelajakka ishonch bilan qarashga undagani sababli g‘oyaviy barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Bayramlar inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, unda quvonch, umid va minnatdorlik tuyg‘ulari kuchayadi. Bu tuyg‘ular jamiyatda ijobiy energiyani tarqatadi. Falsafiy jihatdan, ijobiy ruhiyat ijtimoiy barqarorlikning asosi bo‘lib, bayramlar ana shu ruhiyatni shakllantiradi. Ular insonlarni yaxshilikka ishontirdi, ishonch esa g‘oyaviy birlikning

ruhiy poydevoriga aylanadi. Bayramlar ruhiy yaqinlikni kuchaytirgani sababli ham jamiyatni birlashtiradi.

Umuman olganda, bayramlar xalqimizni g‘oyaviy jihatdan jipslashtirishda, birlashtirishda bebaho ahamiyatga ega. Ular tarix, madaniyat, ma’naviyat va kelajakni bog‘lovchi ko‘prikdir. Falsafiy nuqtai nazardan, bayramlar jamoaviy ongni shakllantirishit natijasida xalq o‘z maqsad va qadriyatlarini anglaydi, ular insonlarni bir g‘oya atrofida jipslashtirib, millatning ichki kuch-quvvatini oshiradi. Ichki kuch, erengiya taraqqiyotga olib kelgani bois bayramlarni asrash, rivojlantirish muhim hisoblanib, ular **xalq birligining ma’naviy tayanchi** sifatida g‘oyaviy yakdillikni ta’minlaydi.

Masalan, mustaqillik bayrami xalqimiz hayotida eng ulug‘ va aziz bayram sifatida alohida falsafiy ahamiyat kasb etadi. Bu bayram milliy davlatchilik, erkinlik va milliy o‘zlik g‘oyalarining ramziy ifodasi sifatida inson va xalq taqdirini tashqi ta’sirlardan xalos etish g‘oyasini o‘zida mujassam etadi. Bayram kunlari xalq o‘z taqdirining egasi ekanini yanada chuqurroq his qiladi. Bu his falsafada sub’ektiv erkinlikning jamoaviy ongda namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinadi. Mustaqillik bayrami “men”ni “biz”ga aylantiruvchi ma’naviy jarayonni jadallashtiradi. Xalq umumiy tarixiy burilishni anglab yetishi g‘oyaviy birlikni mustahkamlaydi. Mustaqillik bayrami jamiyatda umumiy maqsad tuyg‘usini shakllantiradi va shu bois milliy birdamlikning falsafiy asosidir.

O‘zbekistonda Ustoz va murabbiylar bayrami jamiyat ma’naviy hayotida alohida falsafiy ahamiyatga ega bo‘lgan bayramlardan biridir. Bu bayram o‘zida ilm, ma’rifat va tarbiyani eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etish g‘oyasini mujassam etadi. Falsafiy nuqtai nazardan, ustoz — jamiyat ongini shakllantiruvchi asosiy sub’ekt bo‘lib, bayram orqali xalq yana bir bor ustoz mehnatining ijtimoiy ahamiyatini teran anglaydi. Bu anglash jamoaviy ongda minnatdorlik va hurmat tuyg‘usini uyg‘otishi esa, jamiyatni ma’naviy jihatdan yaqinlashtiradi. Ustozga bo‘lgan umumiy ehtirom turli ijtimoiy guruhlarni bir g‘oya atrofida, aniqrog‘i insonlarni bilim va tarbiya atrofida birlashtiradi. Bu birlashuv g‘oyaviy yakdillikka asos solgani bois ustozlar bayrami ma’naviy birdamlikning falsafiy manbaidir.

Ustoz va murabbiylar bayrami avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy hodisadir. Falsafada avlodlar davomiyligi jamiyat barqarorligining asosiy sharti sifatida qaraladi. Bayram orqali katta avlod o‘z tajribasi va bilimlarini yoshlarga ramziy tarzda yetkazadi. Yosh avlod esa ustoz shaxsida milliy tafakkur va ma’naviy merosni anglaydi. Bu jarayonda bilim faqat axborot emas, balki qadriyat sifatida qabul qilinadi. Qadriyatga aylangan bilim jamiyatni birlashtiradi. Ustozga bo‘lgan umumiy ehtirom avlodlar o‘rtasidagi farqlarni yumshatadi. Bayram umumiy xotira va umumiy maqsad tuyg‘usini shakllantiradi. Bu tuyg‘u g‘oyaviy birlikni mustahkamlaydi. Shu tariqa bayram avlodlarni yagona ma’naviy makonda jipslashtiradi.

O‘zbekistonda Konstitutsiya kuni bayrami jamiyat hayotida huquqiy va ma’naviy mazmunni o‘zida mujassam etgan muhim ijtimoiy-falsafiy hodisa hisoblanadi. Konstitutsiya xalq irodasining oliy ifodasi sifatida umumiy qadriyatlar tizimini belgilab bergani bois xalq o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga egaligini yana bir bor anglaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, Konstitutsiya inson va jamiyat o‘rtasidagi kelishuv ramzi bo‘lib, bu barcha fuqarolarni yagona huquqiy makonda birlashtiradi. Bayram insonlarda ijtimoiy birdamlikning asosiy sharti bo‘lgan qonunga hurmat tuyg‘usini kuchaytiradi. Konstitutsiya kuni fuqarolarni teng huquqli sub’ekt sifatida anglashga undaydi. Bu anglash g‘oyaviy birlikka xizmat qiladi. Shu bois Konstitutsiya kuni jamiyatni ma’naviy va huquqiy jihatdan jipslashtiradi.

Falsafiy jihatdan Konstitutsiya adolat g‘oyasining amaliy ifodasi bo‘lib, u jamiyatda adolatli munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy mezon hisoblanadi. Konstitutsiya kuni bayrami aynan adolat qadriyatini xalq ongida mustahkamlaydi. Bayram insonlarda tenglik va erkinlik haqida chuqur tafakkur uyg‘otadi. Erkinlik esa mas’uliyat bilan uyg‘un holda talqin etiladi. Bu uyg‘unlik jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Konstitutsiya fuqarolarni qonun oldida teng ekanini anglatadi. Bu anglash ijtimoiy farqlarni yumshatadi. Bayram orqali umumiy huquqiy qadriyatlar ustuvor bo‘ladi. Shu tariqa Konstitutsiya kuni xalqni adolat g‘oyasi atrofida birlashtiradi.

O‘zbekistonda Navro‘z bayrami xalqimiz ma’naviy hayotida eng qadimiy va sermazmun bayramlardan biri sifatida alohida falsafiy ahamiyat kasb etadi. Navro‘z tabiatning uyg‘onishi, hayotning yangilanishi va inson ruhiyatining poklanishi ramzi hisoblanadi. Falsafiy nuqtai nazardan, Navro‘z inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyasini ifodalaydi. Bu uyg‘unlik jamiyatda umumiy hayotiy qarashlarni shakllantiradi. Bayram orqali xalq tabiatga, hayotga va insonga bo‘lgan umumiy munosabatini anglaydi. Navro‘z kunlari shaxsiy tashvishlar ikkinchi o‘ringa tushadi. Inson o‘zini katta jamoaning bir qismi sifatida his qiladi. “Men” tushunchasi “biz” degan umummilliy ongga aylanadi. Bu holat g‘oyaviy birdamlikning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bois Navro‘z xalqni ma’naviy jihatdan jipslashtiruvchi bayramdir.

Navro‘z bayrami xalqimizning tarixiy xotirasi va madaniy merosini o‘zida mujassam etgan. Asrlar davomida Navro‘z urf-odatlar, marosimlar va an’analar orqali avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Falsafada tarixiy xotira jamoaviy ongni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida qaraladi. Navro‘z ana shu xotirani jonlantiradi. Bayram orqali xalq o‘z ildizlarini, kelib chiqishini va ma’naviy manbalarini anglaydi. Bu anglash milliy o‘zlikni mustahkamlaydi. Milliy o‘zlik esa g‘oyaviy birlashuvning asosiy poydevoridir. Navro‘z avlodlarni umumiy tarix atrofida birlashtiradi. Yoshlar o‘tmish qadriyatlarini his qiladi. Shu tariqa bayram xalqning ma’naviy uzluksizligini ta’minlaydi.

Falsafiy jihatdan Navro‘z yangilanish va umid g‘oyasini o‘zida mujassam etadi. Yangilanish inson tafakkurida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Bayram kunlari insonlar kelajakka ishonch bilan qaray boshlaydi. Bu ishonch jamiyatda ijtimoiy faollikni kuchaytiradi. Navro‘z insonni ruhiy jihatdan poklanishga undaydi. Poklanish esa nizo va qarama-qarshiliklarni kamaytiradi. Falsafada bu holat ma’naviy muvozanat deb talqin qilinadi. Muvozanat bo‘lgan jamiyatda birdamlik mustahkam bo‘ladi. Navro‘z insonlarni umumiy umid va orzular atrofida jipslashtiradi. Ana shu umumiylik g‘oyaviy birlikni ta’minlaydi.

Navro‘z bayrami O‘zbekistonda bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini targ‘ib etadi. Bayram kunlari millat, din yoki ijtimoiy farqlar ahamiyatini yo‘qotadi. Hamma insonlar bir xil quvonch va umumiy bayram

ruhiyatida yashaydi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu jamoaviy tenglik holatidir. Tenglik hissi jamiyatda o‘zaro hurmatni shakllantiradi. Hurmat bo‘lgan joyda adovat bo‘lmaydi. Navro‘z insonlarni bir dasturxon atrofida jamlaydi. Bu ramziy holat xalqning bir tana ekanini ifodalaydi. Bayram orqali o‘zaro yordam va mehr-oqibat tuyg‘ulari kuchayadi. Shu tariqa Navro‘z xalqni ma’naviy jihatdan birlashtiradi.

O‘zbekistonda Xotira va qadrlash kuni bayrami xalq ma’naviy hayotida chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lgan muhim umummilliy bayram hisoblanadi. Bu bayram o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni anglashga xizmat qiladi. Falsafiy nuqtai nazardan, xotira — inson va jamiyat ongining asosiy tayanchidir. Xotira orqali xalq o‘z tarixi va taqdirini anglaydi. Bayram kunlari o‘tmishda Vatan uchun jon fido qilgan insonlar xotirlanadi. Bu xotira jamoaviy minnatdorlik tuyg‘usini shakllantiradi. Minnatdorlik esa insonlarni ma’naviy jihatdan yaqinlashtiradi. Xotira va qadrlash kuni shaxsiy xotirani umummilliy xotiraga aylantiradi.

Globallashuv davrida Xotira va qadrlash kuni milliy ma’naviyatni asrashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy dunyo tezkor o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda xotira insonni o‘z ildizlariga bog‘lab turadi. Falsafada bu ma’naviy barqarorlik deb ataladi. Bayram orqali xalq o‘z tarixiy tajribasini yo‘qotmaslikka intiladi. Bu intilish milliy ongni mustahkamlaydi. Milliy ong g‘oyaviy birlashuvning asosiy poydevoridir. Xotira umumiy qadriyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. Bu qadriyatlar jamiyatni parokandalikdan asraydi. Natijada xalq ma’naviy jihatdan bir tana bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston bayramlarining barchasi ham xalqimizni g‘oyaviy birlashtirishda beqiyos falsafiy ahamiyatga ega. U inson, tarix va jamiyat o‘rtasidagi ma’naviy aloqani mustahkamlaydi hamda o‘tmish saboqlarini kelajak bilan bog‘laydi. Mutaxassislar fikricha, asrlar osha shakllanib, avloddan-avlodga ma’naviy meros sifatida o‘tib kelgan urf-odatlar, marosimlar va bayramlarni qadrlamasdan turib, milliy tiklanish jarayonini amalga oshirish qiyin. Shu boisdan bu borada jiddiy ilmiy va amaliy ishlarni amalga oshirish lozim[4.142]. Bayramlarimiz mohiyatan xalqimizni umumiy taqdir atrofida jipslashtirib, tinchlik va

barqarorlik g‘oyasini mustahkamlaydi. Bayramlar orqali xalq, millat ichida ma’naviy yaqinlik yuzaga keladi va o‘z navbatida ma’naviy yaqinlik g‘oyaviy yakdillikning asosidir. Shu sababli bayramlarimiz xalq birligining ma’naviy ramzidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг2025 йил 26 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномасидан // https://president.uz/uz/lists/view/8834
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 24 декабрдаги 824-сон “Ўзбекистонда байрамларнинг ғоявий-маънавий мазмунини янада кучайтириш ва оммалаштириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори // https://lex.uz/ru/docs/7942950
3. Усмон Ҳосил. Одатнома 2-китоб –Тошкент: Чўлпон, 2018. 20 - бет
4. Қорабев У. Ўзбек халқ байрамлари –Тошкент, 142-бет

MILLATLARARO BAG‘RIKENGLIK MADANIYATI TINCHLIKNING ASOSIY TAMOYILI SIFATIDA

Xoliqov Yunus Ortiqovich
Samarqand davlat chet tillar instituti “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi professori falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahonda sodir bo‘layotgan globallashuv natijasida millatlarning bir-birlari bilan madaniy aloqalarni kuchaytirishi, millatlararo bagrikenglik munosabatlar tizimida mavjud omillarni mustahkamlashiga keng imkoniyatlar yaratilganligi yoritilgan. Millatlararo bagrikenglik madaniyatiga nisbatan O‘zbekistonda barcha milatlarning birlashib, millatlararo bagrikenglik negizida faoliyat olib borayotganligi, bu tushnchaning mohiyati, jamiyatdagi shakllanish tendentsiyalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shu boisdan jahonda ayni paytda millatlar o‘rtasida turlicha nizolar kchayayotgan bir davrda yurtimizda bu islohotlar ko‘pni ko‘rgan oqil, donishmand xalqimizning o‘gitlari asosida olib borilayotganligi aks etgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, millatlararo, geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik, xulq-atvor, umuminsoniy, urf-odatlar, axloq, miliy, qadriyat, dunyoqarash, bag’rikenglik, murosa, o‘zaro hurmat, ma’rifat, mentalitet, milliy qadriyat, tinchlik.

Dunyodaturli millat vakillarining bir mamlakatda tinch-totuv yashashlari, umuminsoniy millatlararo bag’rikenglik madaniyatini rivojlantirishga intilishlari yangi asrga xos xususiyatdir. Biroq, madaniyatning notekis rivojlanish qonuniyatiga ko‘ra ayrim jamiyatlarda millatlararo bagrikenglik madaniyat omili yetarlicha namoyon bo‘lmayotganligi tufayli ularda mavjud siyosiy hokimiyatga qarshi turli destruktiv harakatlar vujudga kelib, bu boshqa xalqlar va davlatlarning barqarorligi hamda taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Mazkur

holat yoshlar madaniyatining real va potentsial imkoniyatlaridan samarali foydalanishga, ularning millatlararo bag’rikenglik madaniyatini rivojlantirish bilan bog’liq ehtiyojlarni vujudga keltirmoqda.

Mamlakatimiz hududida qadimgi davrlardanoq turli millat vakillari hamjihatlikda yashab kelishgan. Ular o‘rtasidagi hamjihatlikning zamirida shubhasiz, o‘zbek xalqining bag’rikenglik, insonparvarlik xususiyatlari turadi. Masalaning ikkinchi tomoni esa mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab hozirgi davrga qadar millatlararo totuvlikni ta’minlash borasidagi davlat siyosatining samarali olib borilgani bilan xarakterlanadi.

Millat va millatlararo totuvlik tushunchalarini tadqiq etgan nazariyotchi olimlar bu tushunchalarga o‘z ta’riflarini berishgan. Jumladan, mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan “Xalqaro munosabatlar (geosiyosat, diplomatiya, xavfsizlik)” nomli o‘quv qo‘llanmada “millat – o‘zligini anglagan, o‘z ruhiyatiga ega odamlarning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan shakllangan birligi” [1,64].

Mamlakatimizda yoshlarning axloqiy bag’rikenglik madaniyatini insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, halollik tamoyillari bilan kamol toptirishga va ularni milliy mentalitetimiz negizida tarbiyalash jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shu o‘rinda millatlararo bagrikenglik madaniyati tushunchasi tadqiqiga e’tibor qaratsak. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug’atida millatlararo totuvlik - “millatlararo ahillik, xalqaro do‘stlik, milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha”, [2,350] deya ta’riflanadi.

Millatlararo bag’rikenglik madaniyati umuminsoniymadaniyatning bir qismi bo‘lib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Jamiyatda millatlararo bag’rikenglik madaniyati masalalari bilan shug’ullanuvchi faylasuflar fuqarolik jamiyati qurishdagi o‘rnini tarixiy jihatdan yoritib berishga harakat qilganlar. Xususan, Arastu, Aflotun, Konfutsiylar davlat va jamiyatning mustahkamligini ta’minlashda bag’rikenglik madaniyati zarurligini ta’kidlaganlar. Bu masala bo‘yicha shug’ullangan taniqli chet elik olimlar qatorida D.Lokk, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turimanlar tolerantlikni talqin qilishda liberal yondashuvni ochgan.

“Bag’rikenglik to‘g’risida”gi risolasida amerikalik tadqiqotchi D.Truman [3]. yozganidek, jamiyatni tanazzuldan, saqlab qolish va barqarorlikni saqlab turish bu faqat ochiq jamiyatning mezoni bo‘lib bag’rikenglik bilan bog’liqligini yoritib bergan. Ochiq jamiyatning muhim belgilaridan biri bu millatlararo tolerantlik, o‘zgacha fikrga nisbatan millatlararo bag’rikenglik va shu kabilarga olib keladigan fikrlar, mafkuralar plyuralizmining muqarrarligi va zarurligini tan olishdir. Shu bilan birga, ijtimoiy va siyosiy mojarolar yo‘qolib ketmaydi, lekin asosiy e’tibor barcha ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatlarini va pozitsiyalarini hisobga olgan holda uyg’unlashtirish orqali ularni demokratik tarzda hal qilish tartibiga qaratiladi. Buning asosida esa bag’rikenlik madaniyati ustuvorlik qiladi.

Yana bir muhim masala, bag’rikenglik bilan bog’liq bag’rikenglik madaniyati, bag’rikenglik xulq-atvori va plyuralizmni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bag’rikenglik madaniyati murosaga asoslansa plyuralizm hurfikrlikka asoslanadi. Ularni bog’liqligi xilma-xillikni e’tirof etish va shu tamoyilga asoslanish hisoblanadi.

Millatlararo bag’rikenglik madaniyati:

birinchidan, insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy millatlararo bag’rikenglik tarzida namoyon bo‘lsa;

ikkinchidan, o‘z-o‘zini hurmatlash va qadrlash, murosa, o‘zaro hurmat, qadrlash, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarida namoyon bo‘ladi;

uchinchidan, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yo‘nalishlarda aks etadi. Yuqoridagilarning barchasi sub’ektning millatlararo bagrikenglik madaniyati bilan bog’liq hisoblanadi.

Tortinchidan: ijtimoiy muhit, axloqiy munosabat, millatlararo ahillik, xalqaro do‘stlik, turli millat, elat va etnik guruh vakillarining hamkorlikda faoliyat yuritishlari namoyon bolsa.

Shu bilan bir qatorda, bag’rikenglik bor joyda qilingan gunohlar kechiriladi, ichki va tashqi ziddiyatlarning oldi olinadi, xayrli va savobli ishlarga qo‘l urish uchun keng imkoniyatlar ochiladi, oilada totuvlik, insonning ma’naviy vujudida esa tan-sihatlik va xotirjamlik hukm sura boshlaydi, xalqlar va mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, qolaversa, do‘stlik va birodarlik rishtalari tobora mustahkamlanib boraveradi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev takidlaganidek Biz muqaddas dinimizni noto‘g’ri talqin etayotgan va uni niqob qilib, bizni orqaga, o‘rta asrlar hayotiga qaytarishga urinayotgan buzg’unchi kuchlarga qarshi keskin kurashib keldik va bundan keyin ham qat’iy kurash olib boramiz” [4,45].

Bunday sa’y-harakatlarimiz bevosita jamiyatda yurtimizning tinchligini, xalqimizning farovonligini ta’minlashga, har bir fuqaroning ertangi kelajakka umidini mustahkamlashga xizmat qiladi.

1. Rivoyatlarda kelishicha, Payg’ambarimiz boshqa yurtlardan kelgan mehmonlarga o‘zining masjidlaridan joy berib, o‘zlari ularning xizmatida bo‘lgan ekanlar;
2. Madinaga Payg’ambarimiz kelganlaridan keyin yahudiylikka e’tiqod qiladiganlar bilan o‘zaro kelishgan holda, jamiyat ravnaqi yo‘lida birlashib, tinch-totuvlikka erishganlar va shu hududda birgalikda hamfikr bo‘lib yashaganlar;
3. Payg’ambarimiz o‘z davrida o‘zga dinlar vakillarining qilgan tuhfalarini olib, ularga hadiya berar edilar;
4. Payg’ambarimiz o‘zga dinlar vakillarining tuhfa qilingan kiyimlarni kiyib yurganlar, taomlarni esa iste’mol qilganlar;
5. O‘z davrida ikkinchi xalifa barcha din vakillarining hurmatini joyiga qo‘yib, ularga nafaqa tayin qilganlar.

Hadislardan namunalar: «O‘zingga yoqqan narsani ham boshqalarga ham ravo ko‘r», «Ziyoratingizga kelgan odam hurmatini joyiga qo‘yinglar», «Qaysi birlaringiz o‘zingizdan boyroq yoki axloqliroq odamni ko‘rib qolsangiz, darhol o‘zingizdan kambag’alroq va axloqsizroq odamlar ham borligini eslang», «Odamlarga keng qalbli bo‘linglar, shunda odamlar ham sizga shunday bo‘lurlar», «Odamlarga taom yediringlar va shirin so‘z bo‘linglar, ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko‘ring va hojatmandning hojatini chiqaring», «Kasbning eng yaxshisi kishining o‘z qo‘li bilan bajaradigan ishi va halol savdodir», «Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar, shunda mehru-muhabbat uyg’onur», «Imonning afzali sabr va keng qalbli bo‘lishdir».

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dinlararo bag’rikenglik g’oyasi yuksak ma’naviy qadriyat sifatida azaldan xalqimizning ongu

shuurida shakllanib kelgani, u mamlakatimizda kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosiy tamoyillaridan biri ekanligi va jamiyatimizda o‘ta muhim ahamiyat kasb etishi to‘g’risida fikr bildirar ekanlar, “Bag’rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘z isbotini topdi”, [5,200] deb ta’kidlaydilar.

Butun insoniyat tarixida millatlararo bagrikenglik va madaniyatlararo munosabatlar sohasidagi tolerantlik bilan bog’liq masalalar eng jiddiy bo‘lib qoldi. Darhaqiqat, insoniy munosabatlarning ushbu sohasida juda ko‘p ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelgan va hozirgacha ham mavjud. Ijtimoiy-madaniy jihatdan millat va millatchilik hodisalarini o‘rganish sohasida ishlayotgan ko‘plab olimlar ularni so‘nggi bir necha asrlar davomida jamiyatlar va davlatlarning ijtimoiy-siyosiy sohasini demokratlashtirish jarayonlari bilan bog’laydilar.

Millatlararo bagrikenglik madaniyati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, shakllanmaydi. Bu jarayonda millatlararo bagrikenglik munosabatlarning teng xuquqlilik, o‘zaro xurmat, do‘stlik va hamkorlikka asoslangan o‘zaro munosabatlarning o‘rnatilishi natijasida qo‘yilgan maqsad sari intilish mumkin. Masalaning ikkinchi tomoni esa, hukmatning ushbu masalaga davlat siyosati darajasidagi e’tibori orqali amalga oshadi.

O‘zbekiston hukumati oqilona, diniy bag’rikenglik siyosatini olib bormoqda. Bunday ma’naviy islohotlarning negizida milliy mafkuraning muhim g’oyasi bo‘lgan diniy bag’rikenglik negizida barcha millat va elatlarni hurmat qilish, Vatanga sadoqat tuyg’usini kuchaytirish, shu yurtda yashayotgan turli millat vakillarining o‘zaro hamkorlikda hamjihat bo‘lib yashashlari aks etadi. Bugun O‘zbekistondagi dinga munosabatning bag’rikenglikka asoslanganligini barcha millat vakillarining maqsad va maslaklarida yakdillik, shu yurt kelajagi yo‘lida birlashib ozod va obod Vatanni barpo etishga intilayotganligida, azaldan mavjud an’ana va urf-odatlarni saqlab kelayotganligida ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Bosh Qomusimizning 18-moddasiga asosan «O‘zbekiston Respublikasida barcha

fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar qonun oldida tengdirlar» [6].

O‘zbekistonda bu qoida jamiyatning barcha jabhalari va bag’rikenglik uchun siyosiy-huquqiy zamin yaratdi.

Millatlar o‘rtasida millatlararo bagrikenglik munosabati insonparvarlik, tinchlik, ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini ta’minlaydi. Shunday ekan, millatlararo bagrikenglik masalasi butun dunyoda bo‘lgani kabi O‘zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Tarixan yuzlab xalqlar, millatlar va etnik guruhlar uchun umumiy uyga aylangan mamlakatimiz uchun millatlararo bagrikenglikning mustahkam o‘rnatilgani davlatning kuch-qudratini belgilovchi vositalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy jihatdan barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan, ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni tiklab, inson huquqlarini ustuvor soha darajasiga ko‘tara olgan mamlakatdir. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda barqarorlikni ta’minlash va mintaqa davlatlarining siyosiy, ma’naviy va iqtisodiy sohalardagi o‘zaro integratsiyalashuvi jarayonida muhim o‘rinni egallash bilan birgalikda millatlararo totuvlik va bag’rikenglik sohalarida ham namuna bo‘lmoqda.

G’oyaviy bo‘shliqni milliy xususiyatlar bilan to‘ldirish muhim. Zero bunday vazifa mamlakatning kelajagini belgilab beruvchi vositadir. Ta’kidlash joizki, g’oyaviy bo‘shliqni to‘ldirish jarayonida millatlararo munosabatlar tizimi ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Yoshlar o‘rtasida millatlararo totuvlikning muhim jihatlarini targ’ib qilish, targ’ibot jarayonida totuvlikning estetik xususiyatlarini hisobga olish o‘z natijasini berishi shubhasiz. “O‘zbekistonda turli millat vakillarining milliy tarixi, madaniyati, tilini, urf-odatlarini, o‘rganish bo‘yicha turli tadbirlar o‘tkazilmoqda, milliy bayramlar nishonlanmoqda, to‘garaklar faoliyat ko‘rsatmoqda”.

Xulosa qilib aytganda millatlararo bag’rikenglikning eng qiyin tamoyili etnik munosabatlar sohasida amalga oshiriladi. Ushbu tamoyilni amalga oshirishdagi qiyinchilik bag’rikenglikni turli xil tushunish bilan bog’liq bo‘lib, bu madaniy an’analarning o‘ziga xos xususiyatlari va tarixiy shakllangan ong va inson xatti-harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlari

bilan izohlanadi. Ushbu muammoning ko‘plab tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, etnik nizolar birinchi navbatda ijtimoiy beqarorlik, aholining turmush darajasi pastligi va etnik guruhlarni ma’muriy-zo‘ravonlik usulida birlashtirish bilan bog’liq.

FOYDALANGANA DABIYOTLAR:

1. Халқаро муносабатлар (геосиёсат, дипломатия, хавфсизлик). – Тошкент: Akademiya, 2006. – Б. 64

2. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 2010. – Б. 379.

3. Truman D.B. The Governmental Process.Political Interests and Public Opinion.N.Y., 1971.P. 14.

4. Мирзиёев М.Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2018. – Б. 47.

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б. 295.

6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2018. –Б. 9.

7. G‘aybullayev O.M. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. –T.: Fan va texnologiya. 2019. –B. 380.

8. Xoliqov, Yunus Ortiqovich. "YANGI O ‘ZBEKISTONDA BAG‘RIKENGLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MILLATLARARO ALOQALARNING MOHIYATI." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2.Special Issue 23 (2022): 764-774.

O‘ZBEKISTON BAYRAMLARI: G‘OYA VA MAZMUN

Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari doktori, RMMM huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti
“G‘oya-inkubator” loyihasi eksperti

Annotatsiya: Ma’ruzada “bayram” tushunchasining umumiy mohiyati, har bir bayram zamirida muayyan g‘oya va mafkura yotishi, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda bayramlarga munosabat tubdan o‘zgargani, mamlakatimizda o‘tkazilayotgan bayramlarning turlari tahlil etiladi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 yil 24 dekabrida qabul qilingan “O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 824-son qarori atroflicha sharhlanadi.

Kalit so‘zlar: Bayram, mohiyat, mustaqillik, g‘oya, mafkura, umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb bayramlari, xalqaro kunlar.

“Bayram” o‘zi – nima? Lug‘atda bu so‘zning uch ma’noni anglatishi qayd etilgan: *“1. Tarixiy, madaniy-ma’naviy an’analarga ko‘ra rasmiy yoki norasmiy ravishda uyushtiriladigan umumxalq shodiyonasi kuni, tantana kuni. 2. Biror-bir munosabat bilan o‘yin-kulgi ishtirokida tantanali ravishda o‘tkaziladigan tadbir. 3. (Ko‘chma ma’noda) Vaqtichog‘lik, xursandlik; baxt, omad”* (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. J. 1. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 142-143)

Birinchi ma’nodagi bayramlar yilning muayyan kuni (yo kunlarida) o‘tkaziladi.

Bayramning “til”i. Har bir bayramning o‘z tarixi, tabiiyki, g‘oyaviy-mafkuraviy mazmuni bo‘ladi, albatta.

Odamlar, millatlar, xalqlar, davlatlar nima uchun yilning ayrim kunlarini maxsus bayram qilib, tantanalar bilan nishonlashadi? Chunki har bir bayramning o‘z “til”i – bor. U qaysidir g‘oya, maqsad, ma’no-mazmun,

qandaydir mafkurani ifodalaydi. Dunyoda bulardan xoli hech qanday bayram – yo‘q, bo‘lmaydi ham.

Har qanday xalqqa u o‘tkazayotgan bayramlarga qarab umumiy ta’rif berish yoki uning o‘ziga xos jihatlarini belgilash – mumkin.

Shu jihatdan qaralsa, bugun O‘zbekistonimizda qanday bayramlar – mavjud? Ular qanday toifalarga bo‘linadi? Bu bayramlar mohiyatida qanday g‘oya, maqsad, ma’no-mazmun, mafkura yotadi?

Bu savollar tahlil talab qiladi. Tahlillar esa kishini talay ilmiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy va g‘oyaviy-mafkuraviy mushohada-muhokamalarga tortadi.

Bayramdan boshlangan istiqlol. *“O‘zbekiston Respublikasi”* deb nomlangan yosh mustaqil davlatning ilk kuni qanday boshlangani yodingizda bordir? 1991-yilning 31-avgustida O‘zbekiston Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida *“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida”*gi tarixiy qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat deb e’lon qilindi. Shu muhim hujjatning ikkinchi bandida 1-sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni – umumxalq bayrami va dam olish kuni deb belgilandi.

Shu tariqa ozodlikka chiqqan ilk kunimizda mamlakat bo‘ylab Istiqlolni tantana qildik.

O‘sha 1991-yilning oxirgi to‘rt oyi mobaynida 1992 yilda nishonlanadigan bayramlar masalasi ham hal qilindi. Sho‘ro davlati siyosati tufayli joriy etilgan 7-oktabr, 7-8 noyabr, 1-may kunlari o‘tadigan umumxalq bayramlari, boshqa ko‘p ijtimoiy-siyosiy sanalarni nishonlashdan voz kechdik.

Jarayon. Bayramlarga munosabat o‘zgarmas tushunchalar majmuasi emas. Insoniyat doimiy ravishda o‘sish-ulg‘ayish, taraqqiyot jarayonlarini boshidan kechirar ekan, bayramlarga munosabatlar ham o‘zgarib, yangilanib borishi tabiiy hol hisoblanadi.

Mamlakatimiz ma’naviy-ma’rifiy, madaniy hayotining so‘nggi o‘n yilini olaylik. Eh-he, qarashlarimiz, tushunchalarimiz, boringki, dunyoqarashimiz qanchalar o‘zgarib, takomillashib borayotibdi. Bayramlarimiz yoniga yana qancha yangi-yangilari kelib qo‘shildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan Yoshlar kuni (30-iyun), Xalqlar do‘stligi kuni (30-iyul), O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom karimovni xotirlash kuni (2-sentabr), O‘zbek tili bayrami kuni (21-oktabr) kabi muhim sanalar, ko‘p kasb bayramlari aynan shu keyingi davrda joriy etildi. Umumxalq bayramlari kunlarini mehnat ta’tili hisobidan bir necha kun sifatida o‘tkazish joriy etildi. Bu fuqarolarning dam olishini yanada samaraliroq o‘tkazishi uchun qulay imkon yaratdi.

Hozir global zamonda yashayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar uchun hech qanday to‘siq-chegara qo‘yishning aslo iloji – yo‘q. Shunday ekan, chetdan ham xalqimiz ong-tafakkuriga yana qanchadan-qancha bayramlar g‘oyasi singdirilyapti. Albatta, ularning hammasi ham bizga yot g‘oyani ilgari surayotgani – yo‘q. Lekin bo‘lar-bo‘lmas bayramlarni tiqishtiraverishning ham oqibati yaxshi bo‘lavermaydi. Masalan, xalqaro kunlar shu qadar ko‘payib ketdiki, bobolar, bibilar, amakilar, ammalar, tog‘alar, xolalar, aka-ukalar, opa-singillar... kunlari ham borligini bilib qoldik.

Xo‘sh, bu jarayonda xalqimiz qanday yo‘l tutsa, oqilona bo‘ladi? Biz qaysi-qaysi bayramlarni nishonlaylik? Bu nozikdan-nozik masalani kim hal qilib beradi?

Davlat, albatta.

Ehtiyoj. Ana shunday murakkab sharoitda bugungi umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb bayramlari va xalqaro kunlarni (ularni umumlashtirib, shartli ravishda, bundan keyin *“O‘zbekiston bayramlari”* deb atasak) qat’iy tasnif asosida toifalarga ajratish, ularni munosib o‘tkazish chora-tadbirlarini ko‘rish, ular orqali xalqimiz ong-tafakkurini yanada teranlashtirish, fuqarolarimizda Vatanga muhabbatni kuchaytirish, xalqimiz va yurtimiz bilan faxr-g‘urur qilishni yuksak saviyaga ko‘tarishga katta ehtiyoj tug‘ilgan edi.

Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrida qabul qilingan *“O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”*gi 824-son qarori qabul qilinishi ayni muddao bo‘ldi.

Aniq-tiniq tasnif. 2008-yili “Ma’naviyat” nashriyotida ushbu satrlar muallifining *“Bayramlarimiz”* kitobi o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etilgan edi. Ochig‘i, unda umumxalq bayramlari va muhim siyosiy sanalargina tahlil etilgan, kasb bayramlari va xalqaro kunlar haqida materiallar berilmagan edi.

Mazkur qarorga 8-ilovada esa O‘zbekiston bayramlari 4 toifaga bo‘linadi. Har bir toifaga qaysi-qaysi bayramlar kirishini bilish gazetxonlarimiz uchun muhim ekanini hisobga olib, ularni birma-bir keltirishni ma’qul ko‘rdik:

1. Umumxalq bayramlari. 9 ta: *Yangi yil* (1-yanvar), *Xotin-qizlar kuni* (8-mart), *Navro‘z bayrami* (21-mart), *Xotira va qadrlash kuni* (9-may), *Mustaqillik kuni* (1 sentabr), *O‘qituvchi va murabbiylar kuni* (1-oktabr), *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni* (8-dekabr), *Ro‘za hayit (Iyd al-Fitr)* (“Ramazon hayiti”ning birinchi kuni), *Qurbon hayit (Iyd al-Adha)* (“Qurbon hayiti”ning birinchi kuni).

2. Muhim sanalar. 13 ta: *Vatan himoyachilari kuni* (14-yanvar), *Alisher Navoiy tavallud topgan kun* (9-fevral), *Zahiriddin Bobur tavallud topgan kun* (14-fevral), *O‘zbekiston BMTga a’zo bo‘lgan kun* (2-mart), *Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun* (9-aprel), *Yoshlar kuni* (30-iyun), *Davlat gerbi qabul qilingan kun* (2-iyul), *Xalqlar do‘stligi kuni* (30-iyul), *Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni* (31-avgust), *O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovni xotirlash kuni* (2-sentabr), *O‘zbek tili bayrami kuni* (21-oktabr), *Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun* (18-noyabr), *Davlat madhiyasi qabul qilingan kun* (10-dekabr).

3. Kasb bayramlari. 18 ta: *Prokuratura organlari xodimlari kuni* (8-yanvar), *Davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kuni* (26-yanvar), *Mahalla tizimi xodimlari kuni* (22-mart), *Geologiya sohasi xodimlari kuni* (aprel oyining birinchi yakshanbasi), *Madaniyat va san’at xodimlari kuni* (15-aprel), *Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohasi xodimlari kuni* (18-aprel), *Konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuni* (may oyining uchinchi yakshanbasi), *Savdo, matlubot kooperatsiyasi va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish xodimlari kuni* (iyun oyining oxirgi yakshanbasi), *Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni* (27-iyun), *Temir*

yo‘l transporti xodimlari kuni (avgust oyining birinchi yakshanbasi), *Qurilish sohasi xodimlari kuni* (avgust oyining ikkinchi yakshanbasi), *Havo floti kuni* (avgust oyining uchinchi yakshanbasi), *Tadbirkorlar kuni* (20-avgust), *Davlat xavfsizlik xizmati organlari xodimlari kuni* (26-sentabr), *Ichki ishlar organlari xodimlari kuni* (25-oktabr), *O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni* (11-noyabr), *Tibbiyot xodimlari kuni* (noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi), *Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni* (dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi).

4. Xalqaro kunlar. 12 ta: *Butunjahon iste’molchilar huquqlarini himoya qilish kuni* (15-mart), *Xalqaro teatr kuni* (27-mart), *Xalqaro intellektual mulk kuni* (26-aprel), *Jahon matbuoti erkinligi kuni* (3-may), *Xalqaro oila kuni* (15-may), *Xalqaro muzeylar kuni* (18-may), *Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni* (1-iyun), *Xalqaro atrof-muhitni muhofaza qilish kuni* (5-iyun), *Xalqaro donorlar kuni* (12-iyun), *Butunjahon turizm kuni* (27-sentabr), *Xalqaro qishloq ayollari kuni* (15-oktabr), *Xalqaro nogironlar kuni* (3-dekabr).

Har haftada – bir bayram. Yilning 12 oydan iborat ekanini hamma biladi-yu, ammo 52 haftadan tashkil topishidan, rosti gap, ko‘pchilik – bexabar. Qarangki, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston bayramlarining umumiy soni ham – 52 ta.

Demak, mamlakatimizda o‘rtacha har haftada bir bayram o‘tkazyapmiz ekan.

Bir muhim nuqta. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda o‘tkazilgan suhbatlardan bilamizki, ayrimlar Vatan himoyachilari kunini, *harbiylarning kasb bayrami,* deb hisoblaydi. Bu – mutlaqo xato qarash. Vatanni himoya qilish – hammamizning burchimiz. Chunki O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasiga binoan: *“O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘tashga majburdirlar”*. Shuning u sharhlanayotgan qarorda muhim sanalar tarkibiga kiritilgan.

Bu bayram bilan bog‘liq boshqa bir vaziyat – bor. Xalq yozilmagan “qonun”ga binoan, 8-martni Xotin-qizlar kuni, 14-yanvarni esa erkaklar bayrami sifatida nishonlashga o‘rganib qolgan. *Buning yomon tarafi – yo‘q,*

deb hisoblaymiz. Chunki amaldagi qonunlarda yigitlarimiz belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o‘taydi. Armiyamizni, asosan, erkaklar tashkil etadi.

Maqsad. Qarorning maqsadi – aniq: umumxalq bayramlari, muhim sanalar, kasb bayramlari va xalqaro kunlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmun-mohiyatini yanada kuchaytirish orqali xalqimizning boy madaniy merosi va o‘ziga xosligini asrab-avaylash, davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, mamlakatimizda o‘tkaziladigan barcha bayram tantanalari va muhim sanalarning samarali tashkil etilishini ta’minlash.

Ilovalar. Qarordagi maqsad va belgilangan vazifalarni bajarish uchun unga ilova tarzida yana 8 ta hujjat tasdiqlangan.

1-ilovada *“O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasi”*, 2-ilovada *“O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”*, 3-ilovada *“Umumxalq bayramlari hamda davlat miqyosidagi boshqa tantanali marosimlarda “Yangi O‘zbekiston bog‘i”dagi Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘yish rasmiy marosimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom”*,

4-ilovada *“Umumxalq bayramlarini nishonlashning namunaviy reglamenti”*, 5-ilovada *“Muhim sanalarni nishonlashning namunaviy reglamenti”*, 6-ilovada *“Kasb bayramlarini nishonlashning namunaviy reglamenti”*, 7-ilovada *“Xalqaro kunlarni nishonlashning namunaviy reglamenti”*, 8-ilovada *“Bayramlarning toifalarga ajratilgan ro‘yxati hamda ularni ko‘tarinki ruhda o‘tkazishga mas’ul davlat organlari va tashkilotlari ro‘yxati”* berilgan.

Vazifalar. *“O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasi”* (1-ilova) hamda *“O‘zbekistonda bayramlarning g‘oyaviy-ma’naviy mazmunini yanada kuchaytirish va ommalashtirish konsepsiyasini samarali amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi”*(2-ilova)ni amalga oshirishning asosiy vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston bayramlari bilan bog‘liq bo‘lgan boy madaniy meros va tarixiy ahamiyatga ega qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish, milliy rivojlanishga hissa qo‘shadigan an’analar davomiyligini ta’minlash – zarur. Mamlakatimizning o‘ziga xosligini shakllantirgan asosiy qadriyatlar, yutuqlar va muhim an’analarni yanada ommalashtirish orqali milliy o‘ziga xoslik va g‘ururlanish tuyg‘usini kuchaytirish – lozim. Bayramlarni nishonlash orqali mamlakatimizdagi turli jamoalar o‘rtasida birdamlik va hamjihatlikni mustahkamlashga katta ehtiyoj – bor. Yosh avlod uchun O‘zbekiston bayramlari bilan bog‘liq mashg‘ulotlarni ko‘paytirish orqali ularga milliy tarix va qadriyatlarni anglash hamda qadrlashga ko‘maklashish – muhim. O‘zbekiston bayramlari bilan bog‘liq tadbirlarga jamoatchilikni faol jalb qilish, jamoaviy ishtirok, ko‘ngillilik va umumiy mas’uliyatni rag‘batlantirish – kerak. Mamlakatimizning noyob madaniy va ma’naviy merosini xalqaro maydonda namoyish etish, milliy o‘ziga xoslik va qadriyatlarni targ‘ib qilish – o‘ta muhim.

Targ‘ibot, tashqiqot. Qarorda Madaniyat vazirligiga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2026-yil 1-aprelga qadar *“O‘zbek madaniyati”* portalida *“O‘zbekiston bayramlari”* sahifacini yaratish topshirildi.

Unda O‘zbekiston bayramlarining kalendari hamda ularga oid batafsil ma’lumotlar, har bir bayramning o‘ziga xosligini inobatga olgan holda, ularning ta’sirchan va jozibador musiqiy atributlari, taronalari, turli bezaklari hamda elektron foto ko‘rgazmalari, respublikamizning turli hududlarida bayramlarning betakror tarixini ochib berishni nazarda tutuvchi hujjatli filmlar, bayramlarni yuqori saviyada tashkil etish uchun namunaviy ssenariylar, bayramlar arafasida tashkil qilinadigan tadbirlar manzillari, e’lonlar va boshqa ma’lumotlar, bayramlar etimologiyasi, ularning bugungi kunga qadar yetib kelish bosqichlari, mohiyati va boshqa o‘ziga xos jihatlarini yoritishga qaratilgan maqolalar, bayramlar munosabati bilan tashkil qilingan tadbirlardan fotosuratlar jamlanmasi va mediamateriallar joylab boriladi.

Mazkur vazirlik Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan birgalikda Chora-tadbirlar dasturida belgilangan tadbirlarning amalga oshirilishi holatini doimiy monitoring qilib boradi hamda uning natijalari

yuzasidan har chorak yakunidan keyingi oyning 15-sanasiga qadar Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritadi.

Yot kuchlarga qarshi kurash mas'uliyati. Notinch zamonda yashayapmiz. Yot kuchlar zimdan, ba'zan, hatto, oshkora holatda ham aynan bayramlarimizga qarshi g'oyalar ham tarqatishdan aslo to'xtagani – yo'q. Ba'zi fuqarolarimiz, aqniqsa, yoshlarimizni Yangi yil bayrami yoki Xotin-qizlar kuni bilan tabriklasangiz, sizga ochiqdan-ochiq e'tiroz qiladi. Nima emish – 1-yanvar nasroniylar payg'ambari Iso (a.s) ning tug'ilgan kuni, 8-mart sho'rolarning paranjini majburlab tashlattirgan kun emish.

Tarix – o'z yo'liga. Yangi yil – dunyoviy bayram, diniy emas. Biz 1-yanvarni dunyoning aksar qismida qat'iy amal qilinadigan yil boshi, vassalom. Buning bugun dinga hech qanday aloqasi – yo'q. Holbuki, Iso (a.s) ham – islom payg'ambari. Bunga iymon keltiramiz. 8-martni esa mamlakatimizning yarmini tashkil etadigan jins vakillarining hurmatini joyiga qo'yish uchun bayram qilamiz. Paranjiga qarshi kurash kampaniyasining 8-mart bayramiga bevosita aloqasi – yo'q. Xotin-qizlari faollashmagan hech qanday jamiyat har taraflama taraqqiyotga erishgan emas.

Eng achinarli tarafi shuki, bu ikki bayramga e'tiroz qilganlar orasida talabalar ham yo'q emas. Ammo aynan o'shalar birinchi bo'lib Yangi yil munosabati bilan berilgan imtiyozlardan foydalanadi, poyezdlarga arzonlashtirilgan biletlar sotib oladi, ta'tilga chiqadi. 8-mart munosabati bilan sovg'a ulashilsa, qaytarmaydi ham, albatta.

Bunday aynan qonuniy siyosiy tuzumga qarshi qaratilgan fikrlarni tarqatayotgan yot kuchlar tarixda hech bir zamonda diniy davlat qurilmagan mamlakatda diniy davlat barpo etish g'oyasiga xizmat qiladi.

O'zbekiston bayramlarining tub mohiyatini xalq orasida keng targ'ib va tashviq qilish hamisha dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi. Sharhlanayotgan qaror – bu jihatdan ham alohida ahamiyatga ega.

Vatanparvarlik. Har bir davlatda o'tkaziladigan bayram mamlakatning barcha xalqiga bab-barobar tegishli bo'ladi. Hatto, Ramazon va Qurbon hayitining birinchi kunlarini, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, barcha fuqarolar dam olish kuni sifatida nishonlaydi. Boshqa diniy konfessiyalar vakillari ham bu kun bilan musulmonlarni tabriklashadi.

Bayramlar xalqni birlashtiradi. Ko‘pmillatli mamlakatimizdagi turli irq, din, millat, ijtimoiy qatlam, jins, yosh vakillarini birdamlikka undaydi.

Bularning hammasi birlashib, har birimizni O‘zbekiston bayramlari g‘oyaviy-ma’naviy mazmun-mohiyatini yanada kuchaytirish orqali xalqimizning boy madaniy merosi va o‘ziga xosligini asrab-avaylash, davlat organlari va tashkilotlarining bu boradagi mas’uliyatini oshirish, shuningdek, yurtimizda o‘tkaziladigan barcha bayram tantanalari va muhim sanalarning samarali tashkil etilishini ta’minlashga olib keladi. Shu tariqa fuqarolarimiz ongi va qalbida vatanparvarlikdek muqaddas tuyg‘u qaror topadi, kuchayadi, takomillashadi. Jamiyat uchun bu beqiyos boylik hisoblanadi.

MA’RIFATLI JAMIYAT QADRIYATLARI TAKOMILI ZARURATI.

Ahrorova Shahlo O‘rinboyevna,
Falsafa fanlari doktori(DSc),dotsent
Respublika MMM huzuridagi Ijtimoiy
ma’naviy tadqiqotlar instituti
yetakchi ilmiy xodimi.

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida, mafkuralar kurashi avj olgan bir paytda ma’naviyatga bo‘lgan xurujlar avj olmoqda. Бу эса жамиятни маърифатни юксалтиришни тоқазо этади. Ma’rifatli jamiyat qurishda madaniyat, jumladan badiiy adabiyotning ta’sirini kuchaytirish, badiiy qadriyatlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada shu masalalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jamiyat, qadriyatlar takomillashuvi, ilm-fan, ijod, badiiy qadriyatlar, ma’naviyat, ma’rifat, ma’rifatli jamiyat, madaniyat, badiiy adabiyot, badiiy did, olomon didi.

Prezidentimiz Yangi o‘zbekiston strategiyasi asarida ajdodlarimizning ma’rifatli jamiyat qurish g‘oyalari, orzu-umidlari haqida to‘xtalar ekan, Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini eslatib o‘tadi. [1-301 b.] Darhaqiqat, jamiyat yuksalishining asosiy omili ma’rifatda ekanligini buyuk tafakkur ahli, allomalar antik davrdanoq ta’kidlab kelishgan. Ma’rifatli jamiyat qurish uchun dunyoviy ilmlargagina suyanmasdan, ma’naviy qadriyatlar mavqeyini yuksaltirish, ommaviy badiiy didning yuksalishiga erishishni toqazo etadi. Jadidlarimiz ma’naviy qashshoqlikni ham aynan ma’rifatli jamiyat yengishi mumkinligini e’tirof etib, o‘zlari faoliyatlarida adabiyotning ta’sirchan kuchidan samarali foydalanganliklarini yaxshi bilamiz.

Insonlarning birlikka bo‘lgan ehtiyoji jamiyatni tashkil qilar ekan, bu ehtiyoj zamirida o‘zaro ma’naviy munosabatlar ham yotadi. Gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadze inson ko‘ngli bu dunyoda hamma narsadan og‘irligini, uning yolg‘iz o‘zi bir ko‘ngilni ko‘tarishga qodir emasligini, shuning uchun insonlar bir-birlarining ko‘nglini ko‘tarishga ko‘mak berishlari lozimligini bayon qiladi. Bu esa jamiyatda insonlarning o‘zaro bir-birlariga muxtojligida ma’naviy ehtiyoj ham ishtirok etishini bildiradi.[2. - 464 b.] Ma’naviy ehtiyoj ma’rifatli jamiyatda ayniqsa o‘z zaruratini ko‘rsatadi.

Biz yuqorida badiiy tafakkur, badiiy did, olomon didi to‘g‘risida bayon qildik, biroq, olomon didi shakllanishida aynan mantiqiy tafakkur, ma’rifat yetishmasligi rol o‘ynaydi. Fikrsizlik, ilmsizlik ezgulikni razillikdan, yaxshini yomondan farqlashni keskin kamaytiradi, shaxs va jamiyat manfaatlari mushtarakligiga to‘siq bo‘ladi, sabab va oqibatni anglash, kelajakni ko‘rishdan mosuvo qiladi. Bu haqida Aflotun ham ta’kidlab o‘tganini Forobiy asarlaridan ko‘rishimiz mumkin. Xususan, Forobiy Aflotun qarashlarini tushuntirar ekan, “Aflotun «hamma ezguliklar ayni paytda yoqimli», «nimaiki chiroyli va ezgu bo‘lsa, xayrli va yoqimli», ammo «ko‘p yoqimli narsalar xayrli emas» degan iboralarni tushuntiradi.

Ezguligi yo‘q, faqat yoqimli narsalar bilan esa aqli kalta odamlar rohatlanadilar. Ezgulik, yaxshilik, ulardan hosillanadigan natijani biluvchi odamlar uchun yoqimlidirlar, bilmaydiganlar uchun esa yoqimsizdirlar”, deya ta’kidlaydi.[3. -31 b.] Demak, “xayrli va yoqimli” bilan “yoqimli, lekin xayrli emas”ni farqlash muhim ahamiyat kasb etib, aynan “xayrli bo‘lmagan yoqimli”likning ortidan ergashish, uning xayrliligi haqida fikr qilmaslik nafaqat ommaviy didsizlik, balki ommaviy jaholatni ham keltirib chiqarishi mumkin. Jaholatning kushandasi esa ma’rifatligi ayon.

Bugungi kunda globallashuv, fan-texnika taraqqiyotining yuqorilab va integratsiya jarayonlarining kuchayib borayotganligining o‘zi butun dunyoda ma’rifatning qadriyatga aylanib borayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, ilm va ijod ahli yaratadigan intellektual ishlab chiqarish ham rivojlanib bormoqda. Bu esa intellektual mahsulotga ehtiyoj oshayotganini bildiradi.

Bugungi globallashuv davrida sanoatda xizmat ko‘rsatish, turizm sohasi ulushi bilan birga intellektal mahsulot yaratish ulushi ham oldingi o‘rinlarga safiga kirib bormoqda. Intellektual mahsulotning hajmi jamiyatning ma’rifatlilik darajasini ko‘rsatib beradi. Masalan, Yevropada intellektual mahsulot YAIMning 45 foizini tashkil etarkan.

Xitoyda bu ko‘rsatkich 12 foiz, Rossiyada 7 foizni tashkil etgan.[5] Intellektual mahsulot, yuqorida ta’kidlaganimizday, ijodiy va aqliy faoliyat mahsuli bo‘lib, bunga fan, san’at, adabiyot kabi sohalarning ijodiy mahsulotlari, adabiy, ilmiy, badiiy asarlar, mediamahsulotlar, kashfiyotlar, kampyuter dasturlari kabilarni qamrab oladi va bunday mahsulotlar salmog‘i ortishida jamiyat ahlining umumintelektual salohiyati muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya ko‘rsatkichlarini yuqori pog‘onaga ko‘tarish va 2030 yilgacha global innovatsion indeks reytingida O‘zbekistonni dunyoning 50 ta ilg‘or davlatlari safiga qo‘shish kabi yuksak maqsadga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirishni nazarda tutuvchi strategik reja belgilangan. Shuningdek, “2022-2026 yillarga mo‘jallangan taraqqiyot starategiyasi umummilliy dasturi qabul qilinganini ham e’tirof etish zarur. Ushbu dasturda 100 ta maqsad belgilangan bo‘lib, 7 ta yo‘nalishni qamrab olgan. Beshinchi yo‘nalishda ma’naviy taraqqiyotni

ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqishda “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi va uni 2022-2032 yillarda amalga oshirish dasturini ishlab chiqish; milliy qadriyatlarimizni rivojlantirish va takomillashtirish, milliy qadriyat bo‘lmish davlat tili nufuzini ko‘tarish, shuningdek, madaniyat va san’atni yuksaltirish; yoshlar tarbiyasida “jaholatga qarshi – ma’rifat” tamoyilining ustuvorligini ta’minlash kabi bir qator mavzumizga oid masalalar belgilab berilgan”.[6]

Ma’rifatli jamiyat madaniyat, jumladan badiiy adabiyotning ham ta’sirini yuksaltirishni toqazo etadi. Jadidlarimiz ma’naviy qashshoqlikni ham aynan ma’rifatli jamiyat yengishi mumkinligini e’tirof etib, o‘zlari faoliyatlarida adabiyotning ta’sirchan kuchidan samarali foydalanganliklarini yaxshi bilamiz.

Biz yuqorida badiiy tafakkur, badiiy did, olomon didi to‘g‘risida bayon qildik, biroq, olomon didi shakllanishida aynan mantiqiy tafakkur, ma’rifat yetishmasligi rol o‘ynaydi. Fikrsizlik, ilmsizlik ezgulikni razillikdan, yaxshini yomondan farqlashni keskin kamaytiradi, shaxs va jamiyat manfaatlari mushtarakligiga to‘siq bo‘ladi, sabab va oqibatni anglash, kelajakni ko‘rishdan mosuvo etadi. Ma’rifat insonlarning tafakkur doirasiniini kengaytirishga, ularning bilim va ongini, madaniy-etik saviyasini ko‘tarishga qaratilgan ta’limiy yo‘nalishdagi jarayon hisoblsnib, uning asosida dunyoni anglash va bilishning mohiyati aks etadi. Ma’rifat – odam hamda olamning mohiyati, tahlili borasidagi bilimlar, ma’lumotlar, ilmu-mulohazalar jamligini ham anglatadi. Ulamolar uni ilmu urfon ma’nosida qo‘llaydilar. Ma’rifatni ma’naviyat tushunchasidan ajratib bo‘lmaydi, demakki, ma’rifatli jamiyatni yaratish ma’naviy taraqqiyot sari qadam tashlash ham demakdir. Ma’rifat ma’naviy komillikka yetaklovchi kuch hamdir va jamiyat rivojining to‘sig‘i bo‘lmish jaholat ildiziga bolta uradi. Ma’rifatli jamiyat o‘ziga xos qadriyatlar asosida rivojlanadi, bunda bilim, qalb va shuur tarbiyasi kabi omillar asosiy qadriyatlar safida yuzaga chiqadi.

Prezidentimiz ma’naviyat va ma’rifatni uyg‘unlikda xalqimizni “nafaqat komillikka, erkin va farovon turmushga yetaklovchi, balki xalqni milliy mustaqillikka eltuvchi beqiyos kuch sifatida”[1-18 b.] “Uchinchi Renessans g‘oyasi atrofida jipslashtirishin”[1-17 b.] ta’kidlaydi.

Davlatimiz rahbari “Yangi O‘zbekiston” gazetasi muxbiriga bergan intervyusida bunday atashni azaliy qadriyatimiz bo‘lgan Navro‘z hamda yuksalishning asosiy omilini ma’rifatda, deb bilgan jadidlar harakatining ma’ripatparvarlik g‘oyalari bilan bog‘lagan.

Ularning jaholat va qoloqlik botqog‘ida qolib ketgan o‘lkani faqat dunyoviy bilimlar, yangi kasb-hunarlar, kutubxonalar, yangi maktablar, teatrlar ochish, bir so‘z bilan aytganda, madaniyat va ma’rifatni yuksaltirish orqaligina yuksaklikka ko‘tarish mumkinligi to‘g‘risidagi qarashlariga to‘xtalib o‘tadi va uchinchi renessans g‘oyasini milliy g‘oya darajasiga ko‘tarish masalasini qo‘yadi. “Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan „Yangi O‘zbekiston“ g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz”, [4] deydi u suhbatda.

Darhaqiqat, bu g‘oya osmondan olingan emas. Ikkita osmon o‘par binoni muvaffaqiyatli qurgan me’mor, uchinchisini ham loyihalashtira oladi. Ikkita yuksak cho‘qqini zabt etgan alpinist uchinchiga ham ko‘tarila oladi. Mamlakatimiz ham ikkita buyuk renessans – uyg‘onish davrini boshdan o‘tkazgan. Bu – IX-XII-ma’rifiy asrlardagi Birinchi va XIV-XV-asrlardagi buyuk temuriylar davri Ikkinchi renessanslaridir.

Xalqimiz o‘z intellektual salohiyatini azaldan dunyoga namoyon qilib kelgan va bu yuksak ma’rifatli jamiyat qurishning ma’naviy-tarixiy omilidir. Qolaversa, milliy qadriyatlarimizning tub mohiyatini o‘rganishda ham ajdodlarimizning milliy-madaniy va intellektual merosiga suyanishimiz lozim. Bugunning asosiy omili, ya’ni Uchinchi Renessansning to‘rtta uzviy xalqasi sifatida davlatimiz rahbari barcha ilmiy-madaniy va ta’lim yo‘nalishidagi muassasalarni sanabb, bog‘chadagi tarbiyachi, maktab muaallim-o‘qituvchisi, professor-o‘qituvchilar-u ilmiy-ijodiy soha ziyolilarini Yangi davrdagi tayanch ustunlar sifatida ko‘rsatadi. Ma’rifatparvar jamiyat qurilishida ushbu omillar tayanch bo‘lishi muhim:

- xalqda milliy asoslardagi demokratik madaniyatning takomillashishi;

- ma’rifat asosida siyosiy ong yuksalishuviga erishmoq;

- bu sohada ilmiy-uslubiy izlanishlar olib bormoq, ijtimoiy-ma’naviy muhitning barqarorligini ta’minlash borasida tizimli monitoringni amalga oshirmoq.

Bundan xulosa qilsak, ma’rifatli jamiyatda qadriyat sifatida davlatchilikning ilmiy-huquqiy asoslarini, milliy-ma’naviy asoslarni, genetic intellektual salohiyatni hamda ilmiy-madaniy meroslarni alohida ta’kidlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.T.: “O‘zbekiston” - 2021. B.-301.

2.Dumbadze N. Abadiyat qonuni. T., Sharq-Matbaa AK, 2004 yil, 464 b.

3.A.N.Forobiy. Fozil odamlar shahri. T.: Yangi asr avlodi-2016y. B. – 31.

4.«Yangi O‘zbekiston» gazetasi, 2021 yil 17 avgust soni.

5.https://kun.uz/ 27.03.2023й.

6.https://nrm.uz/. Ko‘rilgan sana.20.06.2024 y.

MILLIY ONG VA SHAXS MA’NAVIYATI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL

Eshonkulov Laziz Azamatovich,
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti iqtisod fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya Mazkur maqolada milliy ong tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda uning shaxs ma’naviyati shakllanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda milliy ong shaxsning ma’naviy qadriyatlari, fuqarolik pozitsiyasi, tarixiy xotira va milliy identifikatsiyasi bilan uzviy

bog‘liq murakkab ijtimoiy-ma’naviy fenomen sifatida talqin qilinadi. Muallif milliy ongning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, madaniy va ma’naviy omillarni o‘rganib, uning jamiyat barqarorligi, fuqarolik mas’uliyati va milliy birdamlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada milliy ongni rivojlantirish jarayonining falsafiy asoslari hamda yosh avlod ma’naviy kamolotini ta’minlashdagi ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, milliy ong shaxsning ma’naviy-axloqiy yetukligi va fuqarolik faolligini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy qadriyat sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar milliy ong, shaxs ma’naviyati, ijtimoiy-falsafiy tahlil, milliy identifikatsiya, fuqarolik ongi, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy mas’uliyat, tarixiy xotira, milliy birdamlik, jamiyat barqarorligi.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, geosiyosiy raqobat va axborot makonidagi keskin o‘zgarishlar sharoitida jamiyat barqarorligini ta’minlashda milliy ongning shakllanishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Milliy ong bugungi kunda shunchaki hissiy bog‘liqlik yoki an’anaviy sadoqat ifodasi emas, balki shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, fuqarolik ongining yuksalishi hamda milliy o‘zlikni anglash jarayonini ifodalovchi murakkab ijtimoiy-ma’naviy fenomen sifatida talqin qilinmoqda.

Ijtimoiy-falsafiy tahlilda milliy ongga ega shaxs kategoriyasi shaxsning ma’naviy qadriyatlari, fuqarolik pozitsiyasi, tarixiy xotira va milliy identifikatsiyasi bilan uzviy bog‘liq murakkab tizim sifatida qaraladi. Milliy ong insonning o‘z millati, Vatan va jamiyatga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi, milliy manfaatlarni anglash hamda jamiyat taraqqiyoti jarayonida faol ishtirok etishga undaydi.

Falsafiy nuqtai nazardan, milliy ongga ega shaxsning shakllanishi ontologik o‘zlikni anglash, aksiologik qadriyatlar tizimi, ijtimoiy faollik va ma’naviy mas’uliyatning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga keladi. Shu bois milliy ongni rivojlantirish masalasi davlat siyosati, ta’lim tizimi va ma’naviy tarbiya jarayonlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yoshlarni

milliy qadriyatlar va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jamiyat taraqqiyoti va milliy xavfsizlikni ta’minlashning muhim omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy ong tushunchasi Sharq mutafakkirlarining axloqiy-falsafiy qarashlarida insonning ma’naviy kamoloti va ijtimoiy burchi bilan uzviy bog‘liq holda talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib hamda Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar insonning komil shaxs sifatida shakllanishida jamiyat, xalq va davlat oldidagi mas’uliyat masalasiga alohida e’tibor qaratganlar.

Zamonaviy falsafiy tadqiqotlarda milliy ong shaxsning fuqarolik ongini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy qadriyat sifatida talqin qilinadi. U shaxsning milliy o‘zligini anglash jarayoni, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va davlat barqarorligini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi.

Tadqiqot jarayonida fenomenologik, aksiologik, tarixiy-falsafiy hamda sotsiologik metodlardan foydalanildi. Fenomenologik yondashuv milliy ongning ma’naviy mazmunini ochib berishga xizmat qilsa, aksiologik tahlil uning qadriyat sifatidagi o‘rnini aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, tarixiy-falsafiy metod orqali milliy ong tushunchasining turli davrlardagi talqinlari o‘rganildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tarixiy-falsafiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy ong g‘oyasi qadimgi davrlardan boshlab insonning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, fuqarolik burchi va jamiyat oldidagi mas’uliyati bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilingan. Antik falsafa vakillari Platon, Aristotel va Siseron o‘z asarlarida shaxsning jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyatini davlat barqarorligi, fuqarolik mas’uliyati va adolat tamoyillari bilan bog‘liq holda izohlab berganlar.

Aristotelning “Siyosat” asarida fuqaroning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki davlatning barqaror mavjudligi uchun zarur shart sifatida talqin qilinadi. Faylasuf fikricha, fuqaro davlat tuzilmasining passiv elementi emas, balki uning siyosiy va axloqiy tartibotini ta’minlovchi faol sub’yekt

hisoblanadi. Shu bois fuqarolik burchi shaxsiy manfaatlar bilan umumiy ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Platon esa shaxsning jamiyat va davlat oldidagi mas’uliyatini adolatli jamiyat barpo etish g‘oyasi bilan bog‘lab talqin qiladi. Uning fikricha, haqiqiy fuqaro davlat qonunlariga hurmat bilan qaraydigan hamda jamoat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yadigan insondir.

Siseron esa fuqarolik burchi va adolat tamoyillarini shaxsning jamiyat oldidagi asosiy mas’uliyati sifatida talqin qiladi. Mutafakkir nazarida insonning eng oliy burchi jamiyat manfaatlariga xizmat qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdan iboratdir.

Islom manbalarida ham milliy ong mazmunan jamiyat manfaatlarini himoya qilish, adolatni ta’minlash va ijtimoiy tartibotni saqlash kabi qadriyatlar orqali namoyon bo‘ladi. Qur’on oyatlarida inson “yer yuzida xalifa” sifatida tavsiflanib, unga jamiyat barqarorligini ta’minlash hamda adolatni qaror toptirish vazifasi yuklatilgan.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy ong shaxsning ma’naviy-axloqiy yetukligi, fuqarolik ongining rivojlanishi va ijtimoiy mas’uliyatining shakllanishi bilan uzviy bog‘liq murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisadir. Milliy ongga ega shaxsning ijtimoiy qiyofasi uning milliy qadriyatlarga sadoqati, jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga tayyorligi hamda faol fuqarolik pozitsiyasi orqali namoyon bo‘ladi.

Milliy ongni shakllantirish ta’lim tizimi, oila, jamoatchilik institutlari hamda ommaviy axborot vositalarining uzviy hamkorligini talab etadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida yoshlar ongida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois milliy ongni rivojlantirish nafaqat tarbiyaviy jarayon, balki jamiyat barqarorligi, milliy birdamlik hamda davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nazarov Q. Jamiyat va ma’naviyat. – Toshkent: Fan, 2019. – 220 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 229 b.
3. Aristotel. Politika. – Moskva: Мысl, 1997. – S. 56–61.
4. Platon. Gosudarstvo. – Moskva: Мысl, 1994. – S. 102–118.
5. Cicero M.T. De Officiis. – Cambridge: Harvard University Press, 1991. – P. 12–27.
6. Qur’oni Karim. Baqara surasi, 30-oyat.
7. Qur’oni Karim. Oli Imron surasi, 104-oyat.
8. Qur’oni Karim. Baqara surasi, 205-oyat.
9. Sahih Muslim. Kitob al-Birr va-s-Sila.
10. G‘azoliy A. Al-Mustasfa min ilm usul. – Qohira: Dor al-Maarif, 1983. – B. 112–119.
11. Qur’oni Karim. Niso surasi, 58-oyat.
12. Axmatqulov U. Vatanparvarlik, insonparvarlik va o‘z millatiga sadoqat – shaxs ma’naviyatining muhim mezonlari // *Mirovaya nauka*. – 2022. – №10(67).
13. Navoiy A. Xamsa. Hayrat ul-abror. – URL: https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20Navoiy.%20Xamsa.%20Hayratul-abror%20(nazm).pdf

ZJV5401

OILADA BOLALARNI SOG‘LOM ISHONCH RUHIDA TARBIYALASH

Nabijon Soliyevich Temirov
Farg‘ona davlat universiteti
pedagogika kafedrasi professori,
pedagogika fanlar doktori.
O‘razmetova Fotima Abdullayevna,
Farg‘ona Davlat Universiteti
3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolani kichik yoshdan tarbiyalash va odatlantirish, o‘g‘il bolalar tarbiyasi, qiz bolalar tarbiyasi, farzand tarbiyalashda ota-onaning roli, kasb tanlashda buyuk alloma Mahmud az-Zamaxshariy hayotini ota-onalarga ibrat qilib ko‘rsatish, farosat tarbiyasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: odat, tarbiya, ota-ona, farzand, erkinlik, qattiqqo‘llik, ibrat, fazilat, ishonch, qobiliyat.

Yoshlar tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, hurmatli Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi so‘zlari juda o‘rinlidir: Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir soz bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz, kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, - deya ta’kidladi Prezidentimiz [1].

Buyuk alloma, shoir, faylasuf bobomiz A.Navoiy Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. “Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi” - deb bundan V asr oldin yozib qoldirgan hikmatli so‘zlari hozir ham dolzarbligini

yo‘qotmagan [2]. Xo‘sh tarbiya o‘zi nima? tarbiyani kim qiladi? otami? onami? odat nima, fazilat-chi? ishonch nima? Shu savolarga javob bersak.

Tarbiya – ta’lim, axloq-odob va shu kabilarni o‘rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg‘aytirish, o‘stirish. Odat – psixologiyada individ uchun o‘rganish bo‘lib qolgan va muayyan vaziyatda bajarish ehtiojiga aylangan xatti- harakatdir. Odat stixiyali tarzda shakllanishi, muayyan tarbiya mahsuli, fe’l-atvorning barqaror xususiyatiga aylanishi mumkin. Shundan kelib chiqib yosh bolalarni quyidagi odatlar bilan tarbiyalash kerak. Masalan, 3 yosh yoki undan kattaroq bolalarga tarbiya berishda: ko‘chaga yoningizda chiqsa qo‘lidagi qog‘ozni duch kelgan yerga tashlamaslikka, o‘zidan kattalarga salom berishga, yo‘ldan ehtiyot bo‘lib o‘tishga yoki uy tarbiyasida suvni behuda isrof qilmaslikni, o‘zidan kattalarga gap qaytarmaslikni, ovqatlanishdan oldin qo‘llarini yuvishni, ovqat yeb bo‘lgandan keyin fotiha o‘qilmasdan o‘rnidan turub ketmaslikni o‘rgatilib borilsa, shu odatlar uning ongiga tartibli singib boradi. Kattaroq yoshga qadam qoyganda o‘g‘il bolalarni ham, qiz bolalarni ham boshqacharoq yo‘llar bilan tarbiya qilish kerak. Bolalarni bosim ostida tarbiyalash xato, bolalarni oilada erkinlikda tarbiyalash, ularni tinglay bilish, qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olish, kasb tanlashda to‘g‘ri yo‘naltirish, odob-axloqini to‘g‘ri tarbiyalash lozim. Farzand tarbiyasida ota ham, ona ham birdek ma’suliyatli.

“Otaning qattiqqo‘lligi ajoyib dori-achchig‘idan ko‘ra shirini ko‘p”.(yunon faylasufi Epitket). Epitket fikrida ham otaning qattiqqo‘lligi yaxshi samara berishi yozilgan. Oilada ota qattiqqo‘l bo‘lsa, farzandlar yomon ishlarni qilishdan oldin Otamga qanday javob beraman, uyga qanday kiraman - degan fikrlar miyasida o‘rnashib turadi va o‘sha qing‘ir ishlardan o‘zlarini chetda tutadilar. Shuning uchun oilada o‘g‘il bolalarni alohida qattiqqo‘lliik bilan tarbiyalash kerak. O‘g‘il bolalarga o‘g‘il bola og‘ir tabiatroq bo‘lishini, kam gapirishini, katta-yu kichikka, ya’ni ayollarga, qizlarga mehribon bo‘lishni yoshligidan o‘rgatib borish kerak. Shu o‘rinda ulug‘ allomamizning O‘tkan kunlar romanidagi Otabekni ta’rifini keltirib o‘tsam: Og‘ir tabiatlik, ulug‘ gavdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq.....”[3].

Qiz bolalar tarbiyasida onaning o‘rni beqiyosdir. Qizlarga hammaga mehribon bo‘lishni, katta-kichikni hurmat qilishni, pazandalikni, uy-rozg‘or ishlarini alohida o‘rgatish kerak. Yana kasb tanlash tarbiyasi ham qadim zamonlardan dolzarb bo‘lib kelgan mavzudir. Xorazmlik mashxur alloma Mahmud az-Zamaxshariy hayoti ota-onalarga ibrat bo‘lsa arziydi: Bolalik chog‘ida, taxminan o‘n ikki yoshligida ilm olish maqsadida Buxoroga ketayotganda Zamaxshariy otdan yiqilib oyog‘i qattiq lat yegan. Buning ustiga qahraton qish mavsumi edi. Shifokorlar qancha urunishmasin, bemorning oyog‘ini kesishga majbur bo‘lishgan. Shu baxtsiz tasodif tufayli Zamaxshariy butun umri davomida oqsab, yog‘och oyoqda yurgan. Shunga qaramay u o‘z maqsadidan og‘ishmaydi. Otasi erkak kishi ertaga ro‘zg‘or yukini ko‘tara olishi kerak, jismonan nuqsonli bo‘lib qolgan dilbandining hech bo‘lmasa biror hunarni egallashini istab, uni bir to‘quvchiga shogirdlikka bermoqchi bo‘ladi, ammo Zamaxshariy padari buzrukvoridan Buxorodagi madrasaga olib borishini yig‘lab so‘raydi. Shundan so‘ng ota farzandining iltimosini bajaradi [4].

Yoshlarning kasb tanlashlarida kimning xohishi bilan faoliyat yuritayotganlariga qiziqib, ularning fikrlarini bilish maqsadida o‘zim amaliyot o‘tash jarayonimda Farg‘ona shahar 25-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida 11-sinfda o‘qiydigan 24 ta o‘quvchi ishtirokida ushbu so‘rovnomani o‘tkazdim. So‘rovnoma savoli: Kasb tanlashda erkinlik o‘zingizdami, yoki ota-onangiz xohishi bo‘yicha tanlaysizmi?. Savolga 18 ta o‘quvchi o‘z xohishi bo‘yicha, qolgan 6 ta o‘quvchi ota-onasining xohishi bo‘yicha kasb tanlashlarini yozishgan.

Afsuski, ota-onalar orasida farzandlarini majburlab kasbga o‘qitish hamon uchrab turubdi. Ko‘p yoshlar bilan suhbatlashsangiz kasbini tanlashda ota - onasi hohlagani aytishadi. Majburlab o‘rgatish, siquv, zo‘rlash tufayli erishilgan hamma narsa omonat, noto‘g‘ri va ishonchsizdir. (Ya.Korchak. Polshalik o‘qituvchi).

Ishonch - ishonish hissi, tuyg‘usi. Ishonch hissi odamzotda tug‘ilganidanoq shakllangan bo‘ladi. Oiladagi sog‘lom ishonch insonni kuch va ishtiyoq bilan o‘qishga, ishlashga undaydi.

Yana allomamiz hayotiga qaytsak: Ayni vaqtda o‘sha davrda ilm ahllari orasida g‘oyatda zarur va muhim hisoblangan hattotlik san’ati

sirlarini ham to‘liq o‘zlashtirib, uni obdon egallaydi va bu bilan o‘z oilaviy turmush sharoiti, tirikchiligini ham bir qadar yaxshilaydi. Jismoniy nogironligiga qaramasdan, az-Zamaxshariy katta ishtiyoq va sobitqadamlik bilan bilim olish yo‘lida ko‘rsatgan bu jasorati va fidoyiligi har qanday tahsinga sazovordir va katta bir ibratdir [5].

Farzandlarni o‘qitishdan tashqari hunar o‘rgatish ham zamon talablariga aylanyapti. Zamonaviy hunarlar hozirgi kunda juda kerak. Shunday qilib farzandlarimizni o‘zlari xohlagan kasblarga o‘qitsak, fikrlariga quloq solsak, sog‘lom ishonch ruhida tarbiyalagan bo‘lamiz. Shundagina farzandlarimiz qalbida ota - onaga, vatanga ishonch ruhi shakllanadi. Majburlash bilan hech narsaga erishib bo‘lmaydi, faqatgina ularning qalbida ishonch tuyg‘usi yo‘qolib boradi.

Endi fazilat tushunchasiga ta’rif bersak. Fazilat - bu ijobiy xislat, yaxshi xulq yoki ustunlikni anglatuvchi arabcha so‘z bo‘lib, shaxsning fazilatli xususiyatlari, masalan, halollik kabi sifatlarni bildiradi. Men fazilat tushunchasiga farosat tarbiyasini ham kiritgan bo‘lardim. Farzandlarga farosat tarbiyasini ham yoshlikdan o‘rgatish kerak. Inson uchun kerak bo‘lgan bir qator farosatga bog‘liq fazilatlarni sanab o‘tsam:

- avtobusda yoki metroda o‘zidan kattalarga joy berish;
- telefonda gaplashish madaniyatini o‘rganish (hozirgi kunnig asosiy muammosi);
- muomala madaniyati;
- rostgo‘ylik (to‘g‘riso‘zlik);

Zero, hadisda yozilganidek, Ota ona farzandiga go‘zal odobdan afzal narsani meros qilib qoldira olmaydi.

Bolalarimiz bizning keksaligimiz. Yaxshi tarbiya – bizning baxtli keksaligimiz, yomon tarbiya – bo‘lg‘usi g‘am – alamlarimiz, ko‘z yoshlarimiz, boshqa odamlar oldidagi, butun mamlakat oldidagi aybimiz demak". (A.S.Makarenko).

Buyuk rus pedagogi Makarenko aytganidek, bolalarimizga yaxshi tarbiya bersak, keksayganda ham rohatda yashaymiz, yomon tarbiya bersak, o‘zimiz ham g‘amda qolamiz, hammaning oldida o‘zimizni aybdor his qilamiz, yuzimiz yerga qaraydi. Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, Navoiy bobomiz yaratgan komil insonlarni, jadid bobomiz

yozib qoldirgan xon qiziga loyiq bir yigitlarni, Farg‘onaning kuylariga qo‘shilib maxtalatirg‘an go‘zal malikalarni tarbiyalab voyaga yetkazaylik. Ularning qalbiga shunday ajoyib fazilatlarni jo qilaylik, vatanga sadoqat bilan xizmat qiladigan farzandlar bo‘lib yetishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 15-kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi" mavzusidagi anjunanda so‘zlagan nutqidan.

2. A.Navoiy. "Hikmatlar" to‘plami.

3. A.Qodiriy. "O‘tgan kunlar". ”Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2007

4. "Hurriyat" gazetasi 2017.22. 02 "O‘zbekiston ma’rifatparvarlar jamiyati raisi, tarix fanlari doktori, professor Ubaydulla Uvatov bilan suhbat" nutqidan.

5. "Buyuk yurt allomalari". Toshkent "O‘zbekiston" 2018.

ZJV5401

OILALAR FAROVONLIGI – IJTIMOIY BARQARORLIK VA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI MASALA SIFATIDA

Turdiboyeva Ra’no Eshovna,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vaziri o‘rinbosari.
Mirzadjanova Dilshoda Muxtarovna,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda oilalar farovonligiga ijtimoiy barqarorlik va demografik jarayonlarning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi masala sifatida e’tibor qaratilgan. Oilalar farovonligini ta’minlash borasida olib borilayotgan yangicha islohotlar, ehtiyojmand oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning farovonligini oshirishning ayrim jihatlari yoritilgan, zarur tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: oila, ijtimoiy himoya, ijtimoiy yordam, kambag‘allik, bandlik, tadbirkorlik, moliyaviy instrumentlar.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda oilalar farovonligini oshirish masalasi davlatimiz siyosatining muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Chunki oila farovonligi mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy yuksalishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning qat’iy irodasi bilan 2020-yilda aholining muayyan qatlami o‘rtasida kambag‘allik borligi tan olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahririda mamlakat o‘z tarixida ilk bor rasman “ijtimoiy davlat” deb e’lon qilindi. Bu tamoyil O‘zbekistonning davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishini belgilab beradi.

“Ijtimoiy davlat” — har bir fuqaro ijtimoiy adolatdan foydalanishi, davlatdan g‘amxo‘rlik kutishi va o‘z muammolari bilan yolg‘iz qolmasligi

huquqiy jihatdan kafolatlanganligini anglatadi. Bu “Inson qadri uchun” degan ulug‘vor g‘oyani hayotga tatbiq etishning konstitutsiyaviy asosidir.

Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish masalasi umummilliy harakatga aylantirildi va uni qisqartirish, oilalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha mutlaqo yangi tizimi joriy etildi.

Xususan, “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash usullarini hayotga joriy etish, ehtiyojmand oilalarni qo‘llab-quvvatlash, davlat tomonidan kafolatli hamda tizimli yordam ko‘rsatish orqali munosib hayot kechirishlari uchun sharoit yaratishga e’tibor berilmoqda.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi asosida kambag‘allik yuqori bo‘lgan tumanlarda yo‘l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o‘rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kambag‘allikni aniqlash hamda oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha iqtisodiyotning o‘zgarishiga qarab, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida yangi yondashuvlar amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, amalga oshirilgan tizimli va manzilli amaliy ishlar natijasida yurtimizda kambag‘allik darajasi 2025-yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi. 2025-yilda 5 million aholi daromadli bo‘lib, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi, qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan holi” hududga aylandi.

Bu borada “mahalla yettiligi” tizimi joriy etilgani, oilalarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, daromadlarini oshirish, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish borasida izchil va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilayotgani, turli ijtimoiy loyihalar, o‘zining samaradorligini ko‘rsatgan tajribalar, shu jumladan, kredit, subsidiya, ssuda, kompensatsiya, moddiy yordam ajratish kabi 100 dan ziyod xizmatlar, mahalla darajasiga tushirilgani alohida e’tiborga molikdir.

Shu bois, mamlakatimizda mahalla tizimini tubdan isloh qilish, uni xalq hayotiga yaqin, samarali tizimga aylantirish, “mahalla yettiligi” tizimini takomillashtirish, maqomini oshirish, vakolatlarini kengaytirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

2026-yil – “*Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish*” *yili deb e’lon qilingani ham, albatta, bejiz emas. Bu* yana bir bor mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning tizimliligi va “Inson qadri uchun” degan ulug‘vor g‘oyaning hayotiyligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoniga muvofiq, 2026-yilda ham yuqori marralarga erishish ko‘zlangan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “ijtimoiy davlat” — insoniyat tarixiy taraqqiyotining muayyan davri mahsuli, davlatchilik rivojining maxsus bosqichi hisoblanadi. Ijtimoiy davlat g‘oyasi, eng avvalo, qadimgi Sharqda mutafakkir olimlarimiz tomonidan ilgari surilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy ma’rifatli insonlar jamoasini, ideal jamiyat g‘oyasini “Fozil odamlar shahri” asarida tarannum etgan.

Alisher Navoiy insonlarning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma’rifatli davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o‘zaro mehr-oqibatli va bag‘oyat ahloqiy bo‘lish kabi qarashlarni ilgari surgan edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlat xalq oldidagi muhim mas’uliyatini namoyon qilmoqda. Xususan, oilalar farovonligini ta’minlash borasida belgilangan vazifalar jamiyatning har bir sohasida zaruriy o‘zgarishlar, qator ijtimoiy masalalarning hal qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, bular, o‘z navbatida ijobiy ko‘lamdagi salmoqli islohotlar uchun asos zamin yaratmoqda. Biroq bu yetarli emas, chunki islohotlar samaradorligi oilalarga va oilaning har bir a’zosining islohotlarni amalga oshirish jarayonidagi ishtirokiga, unga qo‘shadigan hissasiga bog‘liq.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, aytish mumkinki, oila farovonligi – moddiy ta’minot, salomatlik, ta’lim, ish bilan bandlik va ijtimoiy himoya kabi ko‘plab omillarni o‘z ichiga olgan kompleks tushuncha hisoblanadi. Shu bilan birga har bir oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhit, oila a’zolarining har birini ijtimoiy faolligi, yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas’uliyatni ham

chuqur his etish masalasi ham ijtimoiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oilalar va oiladagi har bir insonning islohotlarda faol ishtirok etishi, islohotlarning mohiyatini to‘g‘ri anglashi, o‘z oilasi, yurti, xalqining farovonligi nuqtai nazaridan islohotlarga hissa qo‘shishi ko‘p jihatdan mahallaga va “mahalla yettiligi”ning sa’y-harakatiga bog‘liq.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Islohotlarimizning ostonasi bo‘lgan har bir mahallaga Yangi O‘zbekiston nafasini olib kirish, eng avvalo, “mahalla yettiligi”ning yagona jamoa bo‘lib ishlashiga bevosita bog‘liq”dir.

Mahalla nafaqat ma’muriy-hududiy birlik, balki xalqimiz hayotining asosi, noyob qadriyatlarimiz va an’analarimizning asosiy manbaidir.

Shu nuqtai nazardan mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, oila a’zolari, ayniqsa yoshlarning boqimandalik kayfiyatiga tushib qolishini oldini olish davlat va jamiyat, mutasaddilar, “mahalla yettiligi” zimmasidagi eng muhim vazifalardan sanaladi.

Jamiyatimizda hanuzgacha boqimandalik kayfiyati butunlay barham topmaganligi o‘z navbatida mehnat qilmasdan, mavjud imkoniyatlarini ishga solmasdan, faqat davlatdan najot kutib yashashga odatlangan toifalarni yuzaga keltirmoqda. Shuning uchun mahallalarda aholi orasida kambag‘allikdan chiqarish amaliy chora tadbirlar bilan birgalikda, keng qamrovli tushuntirish ishlarini ham olib borish zarur. Bunda bir narsani tushuntira olishimiz kerak: yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas’uliyatni ham chuqur his etishimiz zarur. Ya’ni muhtojlikka tushib qolgan insonlarning ongida farovonlik tushunchasini, ma’naviyatini shakllantirish orqali uni muhtojlikdan chiqarish choralarini ko‘rishimiz kerak. Chunki, insonning o‘zida ongli harakat bo‘lmas ekan, unga kancha imkoniyat yaratib berilsa ham uning hayotida o‘zgarish va natija bo‘lmaydi.

Jamoatchilik ta’siri – jamiyat taraqqiyoti va oilalar farovonligini belgilaydigan ulkan ma’rifiy kuchdir. Aynan shu kuch birlashgan holda harakat qilgandagina oilalar farovon, jamiyat barqaror bo‘ladi.

Demak, mahallalarda oilalar va fuqarolar bilan ish olib borish jarayonida boqimandalikning oldini olishga alohida e’tibor qaratish, bunday kayfiyat

mavjud fuqarolar bilan tizimli ishlash, ta’sirchan tushuntirish ishlarini olib borish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur muhim vazifa jamiyat – mahalla – oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitning barqarorligi va oilalar farovonligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Tarixiy va hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, oilaning farovonligini ta’minlashda onaning ma’naviyati, oqilaligi, otaning burchi va mas’uliyati, oilada kattalar o‘rtasidagi mehr-oqibat va sadoqat ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan eng muhim ijtimoiy mezonlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shu bilan birga, mazkur muhim va dolzarb masala yurtimiz taqdiriga befarq bo‘lmagan, milliy qadriyatlarimizni ardoqlagan har bir fuqaroning insoniy burchi va fuqarolik mas’uliyatidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qo‘yidagi vazifalarga e’tiborni kuchaytirish lozim:

1) boqimandalik kayfiyatidagi fuqarolar bilan manzilli ish olib borish bo‘yicha “mahalla yettiligi” a’zolarini o‘quv-uslubiy jihatdan ta’minlash;

2) mahallalarda mehnat, halollik va oilaviy qadriyatlar asosida o‘ziga bo‘lgan ishonch va farovon hayot sari intilish hissini oshirishga qaratilgan ma’rifiy tadbirlarni tizimli tashkil etish orqali aholi ongini o‘zgartirish masalasiga alohida e’tibor qaratish;

3) mahallalarda ma’naviy ko‘makchilar guruhi faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish, ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

4) oilalar va aholi bilan yakka tartibda ishlash jarayonida yaxshi yashash uchun eng avvalo yaxshi mehnat qilish, huquq va erkinlik bilan birga, javobgarlik va mas’uliyatni ham chuqur his etish zarurligini uqtirish;

5) aholi o‘rtasida olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda avlod-ajdodlarimizning eng noyob fazilatlari, axloq-odob qadriyatlari, kasb-hunarlari, sulolaviy an’analarini namoyon etish.

Xulosa qilib aytganda, oilalarning farovonligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilayotgan barcha yo‘nalishlardagi islohotlar insonlar dunyoqarashi va tafakkurida ijobiy hosilalar paydo qilib, ularda hayotdan rozilik va jamiyat ishi, o‘z oilasining farovonligi uchun fidoyilik tuyg‘ularini uyg‘otishi muhim natijadir.

Ijtimoiy islohotlar jarayonida qo‘yilgan maqsad-vazifalarga to‘liq erishilsa, jamiyatda milliy manfaatlar ta’minlanib, oilalar farovonligiga xizmat qiladi.

Bu borada biz har bir oila uchun yangi imkoniyatlar yaratish, oila a’zolarining bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish maqsadida tanlagan yo‘limizni davom ettiramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Yangi tahriri, O‘zR 30.04.2023 y. referendumda qabul qilingan, O‘zR 01.05.2023 y. O‘RQ-837-son Konstitutsiyaviy Qonuniga muvofiq tasdiqlangan).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrda qabul qilingan ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentyabrdagi PF-143-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-330-son Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-son Qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 17- yanvardagi PQ-12-son Qarori.

8. Si Szinping. “Qashshoqlikdan xalos bo‘lish”. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024. – 275 b.

IQTISODIY OMILLARNING IJTIMOIY-MA’NAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI

Saitmurodov Jobirjon Boymurod o‘g‘li
Respublika Ma’naviyat va Ma’rifat
Markazi huzuridagi Ijtimoiy-
ma’naviy tadqiqotlar instituti
tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqtisodiy omillarning ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda ishlab chiqarish munosabatlarida aholining ishtiroki, aholini ish bilan ta’minlash darajasi, ish haqi darajasi hamda daromadlar o‘rtasidagi tafovut kabi omillarning jamiyat barqarorligiga ta’siri yoritilgan. Iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari jamiyatda ijtimoiy adolat, ijtimoiy ishonch va ma’naviy muhit mustahkamlanishiga xizmat qilishi keltiriladi. Tadqiqot natijasida iqtisodiy omillar ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim determinantlaridan biri ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik, iqtisodiy omillar, bandlik darajasi, aholi daromadlari, daromadlar tafovuti, ijtimoiy adolat, ijtimoiy ishonch.

Bilamizki, “ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik umumiy barqarorlikning asosiy komponenti sifatida jamiyatning ichki mustahkamligini, ijtimoiy birlikni va integratsiyani ta’minlaydi”[13]. U bir holat sifatida jamiyatdagi turli qatlamlar o‘rtasidagi muvozanat, o‘zaro ishonch va hamjihatlikka asoslangan holda shakllanadi. Bunda iqtisodiy jarayonlarning barqaror rivojlanishi muhim omillardan biri bo‘lib, u jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar va ma’naviy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda iqtisodiy omillarning o‘rni masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Jamiyatda iqtisodiy faoliyatning samarali

[13] J.B.Saitmurodov “The philosophical content of the concept of stability and its significance for understanding social systems”, Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. Volume Vol.05 Issue12 2025. – p 22.

tashkil etilishi, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi hamda aholining iqtisodiy hayotdagi faol ishtiroki ijtimoiy muvozanatni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, aholining bandligi[14], mehnatga haq to‘lash darajasi, daromadlar o‘rtasidagi tafovut, mehnat taqsimoti[15] hamda iqtisodiy resurslarning taqsimlanish darajasi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy muhitni shakllantiruvchi asosiy omillar qatoriga kiradi.

Aholi turmush darajasining oshishi, iqtisodiy imkoniyatlarning nisbatan adolatli taqsimlanishi hamda ijtimoiy adolat tamoyillarining qaror topishi jamiyatda o‘zaro ishonch va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Aksincha, daromadlar o‘rtasidagi keskin tafovut, bandlik muammolari yoki iqtisodiy tengsizlik ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan qaraganda, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni chuqur tahlil qilish va ularning ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rnini aniqlash muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda iqtisodiy omillarning o‘rni va ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Jamiyat barqarorligini tushuntirishga qaratilgan nazariy qarashlarda ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi muhim o‘rin tutadi. Falsafa tarixi va sotsiologiyada ko‘plab mutafakkirlar jamiyatdagi ijtimoiy muvozanat, iqtisodiy munosabatlar va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilganlar. Shu jihatdan ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik masalasini yoritishda klassik sotsiologik va falsafiy qarashlar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Emil Dyurkgeym fikricha, jamiyat rivojlanishi natijasida mehnat taqsimoti kuchayib borishi va shu orqali jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik ortadi. Uning fikricha, jamiyat rivojlangan sari ijtimoiy tizimning turli sohalari o‘zaro chambarchas bog‘lanadi va bu holat jamiyatda yangi turdagi birdamlik - organik birdamlik[16]ning shakllanishiga olib keladi.

[14] John Maynard Keynes. The general theory of employment, interest, and money. 1936. p – 11.
[15] Adam Smith. An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations. Edinburgh. 1776. p – 4.
[16] Émile Durkheim. Toplumsal İşbölümü. Çev. Özer Ozankaya. İstanbul: Cem Yayınevi, 4 Basım. 2023. S – 143.

Organik birdamlik sharoitida jamiyat a’zolari turli faoliyat sohalarida ixtisoslashgan holda faoliyat yuritadi va ular o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlik yuzaga keladi. Bunday sharoitda jamiyat a’zolari bir-biriga bog‘liq holda faoliyat yuritadi, chunki har bir ijtimoiy guruh yoki mehnat jamoasining umumiy faoliyatida muhim vazifani bajaradi. Mehnat taqsimotining rivojlanishi jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlash va barqaror ijtimoiy tizimni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dyurkgeymning ta’kidlashicha, organik birdamlik sharoitida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ko‘proq hamkorlik va o‘zaro manfaat asosida shakllanadi. Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi jamiyat a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytiradi, bu esa ijtimoiy tizimning barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu sababli iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi va mehnat taqsimotining chuqurlashuvi jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi[17].

Iqtisodiy omillarning ijtimoiy barqarorlikka ta’siri ishlab chiqarish jarayonida aholining ishtiroki bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ishlab chiqarish munosabatlarida aholining faol ishtirok etishi iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi hamda jamiyat a’zolari o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi. Bu jarayon o‘z navbatida ijtimoiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Iqtisodiy faoliyatda keng qatlamlarning ishtiroki jamiyatda ijtimoiy integratsiyani kuchaytirib, fuqarolarning jamiyat hayotidagi o‘rni va mas’uliyatini oshiradi[18] deyish mumkin.

Jamiyatning barqaror rivojlanishida aholini ish bilan ta’minlash darajasi ham alohida ahamiyatga ega. Bandlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda iqtisodiy faollik kuchayadi, aholining turmush darajasi yaxshilanadi hamda ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi. Aholining barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi jamiyatda ijtimoiy ishonchning shakllanishiga xizmat qiladi[19]. Shu sababli bandlik siyosatini samarali

[17] Émile Durkheim. Toplumsal İşbölümü. Çev. Özer Ozankaya. İstanbul: Cem Yayınevi, 4 Basım. 2023. – 143 s.
[18] O‘sha asar. – 67-69 s.
[19] Fukuyama F. **Güven: Sosyal Erdemler ve Refahın Yaratılması.** İstanbul: Türkiye İş Bankası Yayınları. – 67-69 s.

tashkil etish ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Biz shu o‘rinda mehnatga haq to‘lash darajasi ham jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini unutmasligimiz kerak. Har bir bajarilgan ishga mos ravishda adolatli ish haqi to‘lanishi fuqarolarda adolat tuyg‘usini shakllantiradi va ularning jamiyatdagi iqtisodiy jarayonlarga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi. Agar mehnatga haq to‘lash tizimida nomutanosibliklar mavjud bo‘lsa, bu holat jamiyatda norozilik kayfiyatlarini kuchaytirishi mumkin. Shu bois mehnatga haq to‘lash tizimini ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan holda tashkil etish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi[3].

Ijtimoiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatuvchi yana bir muhim omil daromadlar o‘rtasidagi tafovut masalasidir. Daromadlar o‘rtasidagi keskin tafovut jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi va turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy resurslarning nisbatan adolatli taqsimlanishi jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur masala O‘zbekiston misolida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda hududlar kesimida aholi daromadlari o‘rtasidagi tafovut sezilarli darajada kengayib borayotgani kuzatilmoqda. Xususan, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2025-yil yakuniga kelib Toshkent shahrida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar 73,9 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, ayrim hududlarda bu ko‘rsatkich 20 mln so‘m atrofida bo‘lib, “eng boy va eng kambag‘al hududlar o‘rtasidagi tafovut 3,6 barobarga yetgan”[20]. Bu esa hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar teng emasligini, iqtisodiy faoliyatning ayrim markazlarda ko‘proq jamlanayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonni tushunishda tarixiy-falsafiy qarashlar ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, “Ibn Xaldun shaharda mehnat shaklining tashkil etilishini ishlab chiqarishning oliy, yuksak formasi deb bilgan. Inson mehnat qilar ekan, jamoa ishlab chiqarishi natijasida foyda va iste’moldan tashqari mahsulot ortib qola boshlaydi. Inson mehnati

[20] **Ahrorov D. “Hududiy tengsizlik tashvishli darajaga yetdi. Sabablar nima?”. Kun.uz. 31.01.2026.**

natijasida jamiyat taraqqiyotining asosiy omili bo‘lgan ortiqcha mahsulot paydo bo‘ladi”[21] deb ta’kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, ishlab chiqarish jarayonlarida aholining faol ishtiroki jamiyat iqtisodiy rivojlanishining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish munosabatlarida keng qatlamlarning ishtiroki mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi, iqtisodiy faoliyatni kengaytiradi va jamiyatda yangi moddiy hamda ijtimoiy imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy resurslar samaraliroq taqsimlanadi va bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda iqtisodiy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy faoliyatning barqaror rivojlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuvi hamda aholining iqtisodiy jarayonlarda faol ishtiroki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bandlik darajasi, mehnatga haq to‘lash tizimi va iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishi fuqarolar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hamjihatlik va ijtimoiy integratsiyaning shakllanishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Shuni aytish kerakki, daromadlar o‘rtasidagi keskin tafovut jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirib, turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasida ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. O‘zbekiston misolida ham hududlar kesimida daromadlar o‘rtasidagi farqning ortib borayotgani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muvozanatli bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlarni muvozanatlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish jamiyat barqarorligini mustahkamlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tarixiy-falsafiy qarashlar ham ushbu jarayonni tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Dyurkgeym tomonidan asoslab berilgan mehnat taqsimoti va organik birdamlik nazariyasi hamda Ibn Xaldunning ishlab chiqarish va ortiqcha mahsulot

[21] Сулаймонов Ж.Б. “Абдураҳмон Ибн Халдуннинг ижтимоий-фалсафий концепциясида "Асабиййа" категорияси таҳлили“ Academic Research in Educational Sciences” ISSN: 2181-1385. Ilmiy elektron jurnal. Volume 3. Issue 6. 2022. – bet 722.

haqidagi qarashlari iqtisodiy faoliyatning jamiyat barqarorligiga ta’sirini tushuntirishga yordam beradi. Ushbu nazariy yondashuvlar jamiyat taraqqiyotida iqtisodiy faoliyat, ijtimoiy hamkorlik va ma’naviy qadriyatlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlash iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat va fuqarolarning iqtisodiy hayotdagi faol ishtirokiga asoslangan kompleks jarayon hisoblanadi. Shu bois zamonaviy jamiyatlarda barqaror rivojlanishni ta’minlashda iqtisodiy siyosatni ijtimoiy adolat va muvozanat tamoyillari asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. J.B.Saitmurodov “The philosophical content of the concept of stability and its significance for understanding social systems”, Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. Volume Vol.05 Issue12 2025. – 18-22 p.

2. John Maynard Keynes. The general theory of employment, interest, and money. 1936. – 190 p.

3. Adam Smith. An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations. Edinburgh. 1776. – 540 p.

4. Émile Durkheim. Toplumsal İşbölümü. Çev. Özer Ozankaya. İstanbul: Cem Yayınevi, 4 Basım. 2023. – 473 s.

5. Fukuyama F. Güven: Sosyal Erdemler ve Refahın Yaratılması**.** İstanbul: Türkiye İş Bankası Yayınları. - 429 s.

6. Ahrorov D. “Hududiy tengsizlik tashvishli darajaga yetdi. Sabablar nima?”. Kun.uz. 31.01.2026.

7. Сулаймонов Ж.Б. “Абдураҳмон Ибн Халдуннинг ижтимоий-фалсафий концепциясида "Асабиййа" категорияси таҳлили“ Academic Research in Educational Sciences” ISSN: 2181-1385. Ilmiy elektron jurnal. Volume 3. Issue 6. 2022. –719-722 betlar.

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY ADOLATNI QAROR TOPTIRISHNING STRTAYEGIK YO‘NALISHLARI

Teshaboev Muhiddin Marifovich,
Falsafa fanlari bo‘yicha Falsafa doktori (PhD), dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jamiyatning barcha elementlari bir-biri bilan ijtimoiy munosabatlar – xalqaro guruhlar va ular ichida vujudga keladigan munosabatlar jarayonida moddiy (iqtisodiy) va ma’naviy (siyosiy, huquqiy, madaniy) faoliyatlar bilan bog‘langan. “Ijtimoiy adolat muammo sifatida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy adolat, Martin Lyuter King, adolatli tengsizlik, K.Marks, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev, adolat va insof, ekspluatator**.**

Falsafiy nuqtai-nazardan qaraganda, ijtimoiy institutlar odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etishning tarixan shakllangan, barqaror shakllari sifatida qaraladi; tor ma’noda jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxslarning asosiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar va meyorlarning uyushgan tizimidir.

Ijtimoiy institutlar bu — qiymat-meyoriy majmualar (qadriyatlar, qoidalar, meyorlar, munosabatlar, modellar, muayyan vaziyatlardagi xatti-harakatlar standartlari), shuningdek, jamiyat hayotida ularning amalga oshirilishi va tasdiqlanishini ta’minlaydigan organlar va tashkilotlar.

Jamiyatning barcha elementlari bir-biri bilan ijtimoiy munosabatlar – xalqaro guruhlar va ular ichida vujudga keladigan munosabatlar jarayonida moddiy (iqtisodiy) va ma’naviy (siyosiy, huquqiy, madaniy) faoliyatlar bilan bog‘langan. “Ijtimoiy adolat muammosi har doim dolzarbdir. Bugungi kunda insoniyat hayotning barcha jabhalarida jadal rivojlanish yo‘lidan borayotgan bir paytda, siyosiy va maishiy miqyosda to‘xtovsiz kuchayib borayotgan qarama-qarshiliklar omon qolish uchun haqiqiy xavf tug‘dirayotgan bir paytda G‘arb tadqiqotchilari ham, Sharqda adolat

muammosiga insoniy munosabatlarning tartibga soluvchi prinsipi sifatida murojaat qilishmoqda”[1].

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ba’zi aloqalar o‘lishi mumkin, ba’zilari paydo bo‘lishi mumkin. Jamiyat uchun foydali ekanligi isbotlangan aloqalar tashkillashtiriladi, umuminsoniy namunaga aylanadi va keyinchalik avloddan-avlodga takrorlanadi. Jamiyat uchun foydali aloqalar qanchalik barqaror bo‘lsa, jamiyatning o‘zi ham shunchalik barqaror bo‘ladi.

Ijtimoiy institutlar ijtimoiy hayotni tashkil etish va tartibga solishning barqaror shakllarini ifodalovchi jamiyat elementlaridir. Davlat, ta’lim, oila va boshqalar. Bunday ijtimoiy institutlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, odamlarning faoliyatini va ularning jamiyatdagi xatti-harakatlarini tartibga soladi. “Bu [adolat] mifologik ongning ibtidoiy jamiyatning dastlabki tuzilishi rivojlanishi bilan vujudga kelgan hayot ne’matlarini taqsimlashdagi tengsizlikka munosabati sifatida namoyon bo‘ldi”[2].

Ijtimoiy institutlarning asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti davrida barqarorlikka erishishdir. Shu maqsadda institutlarning funksiyalari quyidagilarga bo‘linadi:

· jamiyat ehtiyojlarini qondirish

· ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish (odatda bu ehtiyojlar qondiriladi).

Ijtimoiy institutlar tomonidan qondiriladigan ehtiyojlar xilma-xildir. Masalan, jamiyatning xavfsizlikka bo‘lgan ehtiyoji mudofaa instituti, ma’naviy ehtiyojlar cherkov tomonidan, fan esa dunyoni bilish zarurati bilan qo‘llab-quvvatlanishi mumkin. Har bir muassasa bir nechta ehtiyojlarni qondirishi mumkin (cherkov diniy, axloqiy, madaniy) va bir xil ehtiyojni turli institutlar (ma’naviy ehtiyojlar san’at, fan, din va boshqalar bilan qondirishi mumkin).

Ehtiyojlarni qondirish jarayoni (masalan, tovarlarni iste’mol qilish) institusional jihatdan tartibga solinishi mumkin. Masalan, bir qator tovarlarni (qurol, alkogol, tamaki) sotib olishda qonuniy cheklovlar mavjud. Jamiyatning ta’limga bo‘lgan ehtiyojini qondirish jarayoni boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim muassasalari tomonidan tartibga solinadi.

Ijtimoiy institutning tuzilishi:

guruhlar va shaxslarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy tashkilotlar;

ehtiyojlarni qondirishni ta’minlaydigan meyorlar, ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor shakllari to‘plami;

Iqtisodiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi belgilar tizimi (tovar belgisi, bayroq, brend va boshqalar);

ijtimoiy institut faoliyatining mafkuraviy asoslari;

muassasada foydalaniladigan ijtimoiy resurslar.

Ijtimoiy institutning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

maqsadi jamiyatning muayyan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan institutlar, ijtimoiy guruhlar majmui;

madaniy modellar, normalar, qadriyatlar, ramzlar tizimi;

ushbu meyor va modellarga muvofiq xulq-atvor tizimi;

vazifalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan moddiy va inson resurslari;

jamoatchilik tomonidan tan olingan vazifa, maqsad, mafkura[3].

O‘rta kasb-hunar ta’limi misolida institutning xususiyatlarini ko‘rib chiqilsa bunga nimalar kiradi: o‘qituvchilar, mansabdor shaxslar, ta’lim muassasalari ma’muriyati va boshqalar; o‘quvchilarning xulq-atvor normalari, jamiyatning kasb-hunar ta’limi tizimiga munosabati; o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqot tajribasi; binolar, o‘quv xonalari, o‘quv qurollari; jamiyatning o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan yaxshi mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdir.

Jamiyat hayotining sohalariga ko‘ra institutlarni to‘rtta asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

iqtisodiy institutlar – mehnat taqsimoti, mulk, bozor, savdo, ish haqi, bank tizimi, ayirboshlash, boshqaruv, marketing va boshqalar;

siyosiy institutlar – davlat, armiya, militsiya, politsiya, parlamentarizm, prezidentlik, monarxiya, sud, partiyalar, fuqarolik jamiyati;

tabaqalanish va qarindoshlik institutlari – sinf, mulk, tabaqa, jinsiy kamsitish, irqiy tabaqalanish, aristokratiya, ijtimoiy farovonlik, oila, nikoh, ota, ona, asrab olish, birodarlik;

madaniyat muassasalari – maktab, o‘rta maktab, o‘rta kasb-hunar ta’limi, teatrlar, muzeylar, klublar, kutubxonalar, cherkov, monastirlik, konfessiY.

Ijtimoiy institutlar soni berilgan ro‘yxat bilan cheklanmaydi. Institutlar ko‘p va o‘z shakllari va ko‘rinishlari bo‘yicha xilma-xildir. Kattaroq institutlar quyi darajadagi institutlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, ta’lim muassasalariga boshlang‘ich, kasb-hunar va o‘rta maktab muassasalari kiradi; huquqiy targ‘ibot, prokuratura, sud muassasalari; oila — ona, farzand asrab olish institutlari va boshqalar[4].

Jamiyat dinamik tizim bo‘lganligi sababli, ba’zi institutlar yo‘q bo‘lib ketishi mumkin (masalan, qullik instituti), boshqalari paydo bo‘lishi mumkin (reklama instituti yoki fuqarolik jamiyati instituti). Ijtimoiy institutning shakllanishi institusionalizatsiya jarayoni deb ataladi.

Institusionalizatsiya bu – ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi muayyan qoidalar, qonunlar, qonuniyatlar va tartiblarga asoslangan ijtimoiy o‘zaro munosabatlarning barqaror naqshlarini shakllantirish jarayoni. Masalan, fanni institusionallashtirish jarayoni – fanni yakkalik faoliyatidan darajalar, ilmiy darajalar, ilmiy institutlar, akademiyalar va boshqalarga ajratishdir[5].

Asosiy ijtimoiy institutlarga an’anaviy ravishda oila, davlat, ta’lim, cherkov, fan, huquq kiradi. Quyida ushbu muassasalarning qisqacha tavsifi va ularning asosiy vazifalari keltirilgan. Oila insonlarni umumiy hayot va o‘zaro ma’naviy mas’uliyat bilan bog‘laydigan muhim ijtimoiy qarindoshlik institutidir. Oila bir qator funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy (biznesni boshqarish), reproduktiv (bolalar tug‘ilishi), tarbiyaviy (qadriyatlar, meyorlar, modellar berish) va boshqalar.

Davlat-jamiyatni boshqaradigan va uning xavfsizligini ta’minlovchi asosiy siyosiy institut. Davlat ichki funksiyalarni, jumladan, iqtisodiy (iqtisodiyotni tartibga solish), barqarorlashtirish (jamiyatda barqarorlikni saqlash), muvofiqlashtirish (ijtimoiy totuvlikni ta’minlash), aholi himoyasini ta’minlash (huquqlarni, qonuniylikni, ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash) va boshqalarni bajaradi. Tashqi funksiyalari mavjud: mudofaa (urush holatida) va xalqaro hamkorlik (xalqaro maydonda mamlakat manfaatlarini himoya qilish)[6].

Ta’lim – bilim, ko‘nikma va malakalar shaklida tashkil etilgan ijtimoiy tajribani taqdim etish orqali jamiyatning o‘sishi va rivojlanishini ta’minlaydigan ijtimoiy madaniyat instituti. Ta’limning asosiy funksiyalari

moslashuv (jamiyatdagi hayot va mehnatga tayyorlash), kasbiy (mutaxassislar tayyorlash), fuqarolik (fuqarolarni tayyorlash), umumiy madaniy (madaniy qadriyatlar bilan tanishish), insonparvarlik (shaxsiy salohiyatni ochish) va boshqalar.

Masjid – yagona dinga asoslangan diniy muassasa. Masjid a'zolari umumiy meyorlar, aqidalar, xulq-atvor qoidalariga ega bo‘lib, ulamolar va oddiy odamlarga bo‘lingan. Masjid quyidagi funksiyalarni bajaradi: dunyoqarash (dunyoga munosabatni belgilaydi), kompensatsion (tasalli va yarashishni taklif qiladi), birlashtiruvchi (dindorlarni birlashtiradi), umumiy madaniy (madaniy qadriyatlarni joriy qiladi) va boshqalar.

Ilmiy va obyektiv ta'lim ishlab chiqaruvchi maxsus ijtimoiy-madaniy institut. Fanning funksiyalari orasida kognitiv (dunyoni bilishga hissa qo‘shadi), tushuntirish (bilimni tushuntiradi), dunyoqarash (dunyoqarashni belgilaydi), bashorat qilish (bashorat qiladi), ijtimoiy (jamiyatni o‘zgartiradi) va ishlab chiqarish (ishlab chiqarish jarayonini belgilaydi).

Huquqiy va ijtimoiy institut bu – davlat tomonidan himoya qilinadigan umumjahon majburiy normalar va munosabatlar tizimidir. Davlat huquq yordamida odamlar va ijtimoiy guruhlarning xulq-atvorini tartibga soladi, muayyan munosabatlarni majburiy ravishda o‘rnatadi. Huquqning asosiy funksiyalari: tartibga soluvchi (jamoat munosabatlarini tartibga soladi) va himoyachi (butun jamiyat uchun foydali munosabatlarni himoya qiladi).

Yuqorida ko‘rib chiqilgan ijtimoiy institutlarning barcha elementlari aniq ijtimoiy institutlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi, ammo ularga boshqa yondashuvlar ham mumkin. Masalan, fanni nafaqat ijtimoiy institut, balki kognitiv faoliyat — faoliyatning maxsus shakli yoki bilimlar tizimi sifatida ham ko‘rib chiqish mumkin; oila nafaqat institut, balki kichik ijtimoiy guruhdir.

Ijtimoiy institut faoliyati:

birinchidan, tegishli xulq-atvor turlarini tartibga soluvchi muayyan normalar va qoidalar majmui;

ikkinchidan, ijtimoiy institutning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va qadriyat tuzilmalariga integratsiyalashuvi;

uchinchidan, normativ talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirish va ijtimoiy nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan moddiy vositalar va shart-sharoitlarning mavjudligi.

Muhim ijtimoiy institutlar: davlat va oila; iqtisodiyot va siyosat; ishlab chiqarish; madaniyat va fan; ta’lim; ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikri; huquq va ta’lim.

Ijtimoiy institutlar jamiyat uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning mustahkamlanishi va ko‘payishiga, shuningdek, tizim hayotining barcha asosiy sohalarida iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi[7].

Faoliyat sohasiga qarab ijtimoiy institutlarning turlari: munosabat; regulyator.

Munosabat institutlari (masalan, sug‘urta, mehnat, ishlab chiqarish) ma’lum belgilar majmuasidan kelib chiqqan holda jamiyatning rol tuzilishini belgilaydi. Ushbu ijtimoiy institutlarning obyektlari rol guruhlari (sug‘urtalanganlar va sug‘urtalovchilar, ishlab chiqaruvchilar va yollanma ishchilar va boshqalar).

Nazorat qiluvchi institutlar o‘z maqsadlariga erishish uchun individual mustaqillik (mustaqil harakat) chegaralarini belgilaydilar. Bu guruhga davlat, hokimiyat organlari, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik va sog‘liqni saqlash muassasalari kiradi.

Birinchidan, ijtimoiy adolatning asosiy maqsadi, jamiyatning munosabatlarini tizimli qilish va adolatlik muammolarni hal etishdir. Unda qonunlar, munosabatlar va muammolarni hal etishda adolat tizimining munosabatlariga juda katta e’tibor beriladi. Ijtimoiy adolatning funksiyalari o‘rtacha jamiyatning munosabatlarini tizimli qilish, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, tarixiy va huquqiy shartlariga yordam berish, adolat sistemasining rivojlantirilishi uchun ilmiy fikrlar va tajribalar ko‘paytirish, muammolarni hal etishda ko‘rsatiladigan munosabatlariga juda katta e’tibor berish va jamiyatning munosabatlarini regulyatsiya qilishdir.

Ikkinchidan, adolat ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarning markaziy obyektlaridan biridir. U jamiyat hayotining turli jabhalarida ko‘p jihat va ko‘rinishlarga ega bo‘lgan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida qaraladi[8].

Ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar doirasida “adolat” tushunchasi ijtimoiy adolat kontekstida ko‘rib chiqilib, u jamiyatdagi resurslar, imkoniyatlar va imtiyozlarni taqsimlash sifatida belgilanadi. Ijtimoiy adolatning muhim jihati jamiyatning barcha a’zolari uchun teng imkoniyatlar va huquqlarni bildiruvchi tenglik tushunchasidir. Bundan tashqari, adolat davlatning asosiy funksiyalaridan biri bo‘lgan tenglik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun adolat manbasi mustaqil va adolatli bo‘lishi kerak. Adolat axloq kontekstida ham ko‘rib chiqiladi, bu yerda u yaxshilik va yomonlik, halollik va boshqa odamlar oldidagi mas’uliyat tushunchalari bilan bog‘liq. Umuman olganda, adolat ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, jamiyat hayotining turli jabhalarida ko‘p jihat va ko‘rinishlarga ega. Adolatni ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar doirasida o‘rganish uning jamiyatdagi ahamiyati va rolini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Uchinchidan, ba’zi faylasuflar va diniy ta’limotlar uchun adolat insonning to‘g‘ri xulq-atvorini va uning boshqa odamlar bilan munosabatlarini belgilaydigan borliqning oliy qonunlariga amal qiladi. Shu nuqtai nazardan, adolat axloq tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lib, har bir inson o‘ziga qanday munosabatda bo‘lishni xohlasa, boshqalarga ham shunday munosabatda bo‘lishini anglatadi. Demak, adolat bu kontekstda nafaqat ijtimoiy hodisa, balki odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning jamiyatdagi xatti-harakatlarini belgilab beruvchi axloqiy

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гусейнова З.И. Концепция справедливости в средневековой арабо-мусульманской мысли : диссертатsiя ... кандидата философских наук. - Москва, 2001. - 163 с.

2. Кураженков Д.С. Феномен справедливости : социально-философский анализ : диссертатsiя ... кандидата философских наук : - Курган, 2014. - 140 с.

3. Евстратов А.Э. Теория и практика формирования социального государства [Текст] : учебное пособие / А. Э. Евстратов ; Министерство образования и науки Российской Федератsiи, Федеральное государственное бюджетное образовательное

учреждение высшего образования Омский государственный университет имени Ф. М. Достоевского. - Омск : Изд-во Омского гос. ун-та им. Ф. М. Достоевского, 2018. - 103 с.

4. Косаренко Н.Н. Социальное государство [Текст] : политические, правовые и социально-экономические факторы : монография / Н. Н. Косаренко ; Российский экономический университет им. Г. В. Плеханова. - Москва : Юстиция, 2016. - 230 с.

5. Usmanov N. The Philosophical Basis For The Formation Of Spiritual Maturity Among Young People //Oriental Journal of Social Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 33-37.

6. Тешабоев М. Особенности становления и развития информatsионного общества //Перспективные информatsионные технологии (ПИТ 2017)[Электронный ресурс]: Междунар. науч.-техн. конф. – 2017. – С. 14-16.

7. Тешабоев М. М. ЖАМИЯТДА ИЖТИМОИЙ АДОЛАТНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ПРИНЦИПИАЛ МАСАЛАЛАРИ ВА ФАЛСАФИЙ-ҲУҚУҚИЙ МУАММОЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – С. 504-514.

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI – INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich
Guliston davlat pedagogika
instituti dotsenti, s.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Murojaatnomasida belgilangan vazifalar asosida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini takomillashtirish jarayonida inson kapitalini rivojlantirishga oid kutilayotgan yangilanishlar ilmiy-nazariy

jihatdan tahlil qilinadi. Unda ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, innovatsiya, bandlik va ijtimoiy himoya sohalaridagi islohotlarning inson kapitali sifatiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari inson kapitalini rivojlantirish orqali mamlakatning barqaror taraqqiyoti va global raqobatbardoshligini ta’minlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, inson kapitali, ta’lim, barqaror taraqqiyot, ma’naviy rivojlanish, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, ijtimoiy himoya.

XXI asrda global taraqqiyot jarayonlari davlatlarning tabiiy resurslari yoki geografik imkoniyatlaridan ko‘ra, inson kapitalining sifati va darajasiga tobora ko‘proq bog‘liq bo‘lib bormoqda. Zamonaviy jamiyat “bilimlar iqtisodiyoti” va “innovatsion taraqqiyot” paradigmalari asosida shakllanmoqda.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ana shu global tendensiyalarni inobatga olgan holda, inson kapitalini milliy taraqqiyotning markaziga qo‘ymoqda. Ushbu hujjatda inson kapitalini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy zarurat, balki ijtimoiy-falsafiy qadriyat sifatida ham talqin etiladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi zamonaviy global taraqqiyot jarayonlari sharoitida mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish modelini belgilovchi muhim konseptual hujjat hisoblanadi. Ushbu strategiyada inson omili jamiyat va davlat taraqqiyotining markaziy subyekti sifatida e’tirof etilib, inson kapitalini rivojlantirish ustuvor vazifa darajasiga ko‘tarilgan. “Biz Yangi O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilgan ekanmiz, bunga faqatgina ilm-ma’rifat va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni jadallashtirish hamda innovatsion iqtisodiyotga o‘tish orqali erishish mumkinligini unutmasligimiz zarur”[1].

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi belgilangan bo‘lib, ular jamiyat va davlat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini qamrab oladi. Shundan birinchi ustuvor yo‘nalish – har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishdan iborat bo‘lib, ushbu yo‘nalish doirasida 44 ta maqsad belgilangan. Umuman olganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining barcha ustuvor yo‘nalishi mamlakatning ijtimoiy,

iqtisodiy, ekologik, huquqiy va xavfsizlik sohalaridagi barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘liq holda yagona taraqqiyot modelini shakllantiradi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan birinchi ustuvor yo‘nalishi inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi aholining hayot sifati, salomatligi, bilim darajasi va ijtimoiy farovonligini izchil ravishda oshirishdan iboratdir. Ushbu yo‘nalish doirasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, sog‘liqni saqlash xizmatlari sifatini oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish hamda shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishiga qulay muhit yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalish insonni davlat siyosatining markaziga qo‘ygan holda, uning intellektual, ma’naviy va kasbiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi hamda mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Mazkur yo‘nalish doirasida belgilangan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Xususan, aholining o‘rtacha umr davomiyligini 78 yoshga yetkazish maqsadi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish, profilaktika tadbirlarini kuchaytirish, zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish orqali amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu ko‘rsatkich aholining umumiy salomatlik darajasi va hayot sifatini aks ettiruvchi muhim ijtimoiy mezon hisoblanadi.

Ta’lim sohasida esa maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini oshirib borish strategik vazifa sifatida belgilangan bo‘lib, bu bolalarning erta yoshdan intellektual, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro ta’lim standartlariga mos kadrlar tayyorlash maqsadida dunyoning “Top-500” reytingiga kiruvchi yetakchi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda 50 ta ta’lim dasturini joriy etish hamda “ikki diplomli ta’lim tizimi”ni rivojlantirish rejalashtirilgan. Bu esa milliy ta’lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish, talabalar va

mutaxassislarning xalqaro mehnat bozoriga moslashuvchanligini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini zamon talablari va bugungi islohotlar sur’atidan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqish, uni yanada takomillashtirish vazifasini alohida ta’kidladi. Mazkur tashabbus mamlakatda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, davlat rivojlanishining yangi bosqichiga mos strategik yondashuvni shakllantirishga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qisqa vaqt ichida barcha soha va tarmoqlarda sezilarli ijobiy natijalarga erishishga zamin yaratdi. Jumladan, kambag‘allik darajasi 11 foizdan 6,8 foizga, ishsizlik darajasi 6,8 foizdan 4,9 foizga tushdi. Maktabgacha ta’lim qamrovi 72 foizdan 78 foizga, oliy ta’lim qamrovi esa 42 foizga ko‘tarildi. O‘zbekiston bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatgan davlatlar soni 144 tadan 164 taga yetgani ham mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshib borayotganidan dalolat beradi.

Shu kabi omillarni inobatga olgan holda, strategiyaning takomillashtirilgan loyihasi ishlab chiqildi. Bu jarayonda vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda ekspertlar hamkorligida 350 nafardan ortiq mutaxassislar ishtirok etdi. Natijada strategiyadagi 444 ta samaradorlik ko‘rsatkichi bugungi kun talablari asosida chuqur tahlil qilinib, qayta ko‘rib chiqildi.

Takomillashtirilgan strategiya loyihasi Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan yangi marralarga moslashtirildi va mazmunan boyitildi. Bunda har bir inson va oila hayotida real seziladigan, aholining turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan maqsadlarga ustuvor ahamiyat berildi. Ikkinchidan, barcha ko‘rsatkichlar aniq o‘lchanadigan shaklda belgilandi. Ya’ni, foiz, hajm, daraja, indeks kabi raqamli mezonlarga ega bo‘lmagan, umumiy shior ko‘rinishidagi 130 ta band chiqarib tashlandi. Uchinchidan, barcha samaradorlik ko‘rsatkichlarining bajarilishi 2030-yilgacha yilma-yil rejalashtirildi, bu esa har bir bosqichdagi natijalarni aniq monitoring qilish imkonini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga muvofiq, strategiya loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilib, aholining fikr-mulohazalari asosida yanada takomillashtiriladi. Shu maqsadda loyiha “uzbekistan2030.uz” va “regulation.gov.uz” platformalarida e’lon qilindi. Fuqarolar, mutaxassislar va jamoatchilik vakillarining faol ishtiroki strategiyaning hayotiy, samarali va xalq manfaatlariga mos bo‘lishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Murojaatnomada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish vazifasi belgilangan ekan, bu jarayonda eng avvalo inson kapitalini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilishi kutilmoqda. Chunki bugungi sharoitda mamlakatning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati va barqaror taraqqiyoti bevosita inson kapitalining sifati bilan belgilanadi. Shu bois strategiyaning takomillashtirilgan variantida inson kapitali bo‘yicha bir qator muhim yangilanishlar amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda. Umuman olganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining yangilangan variantida inson kapitali miqdoriy ko‘rsatkichlardan sifat ko‘rsatkichlariga o‘tish tamoyili asosida rivojlantiriladi. Ya’ni, faqat qamrov va statistika emas, balki insonning real bilim darajasi, sog‘ligi, innovatsion faolligi va hayot sifati asosiy mezonga aylantiriladi.

Inson kapitali tushunchasi ilmiy adabiyotlarda shaxsning bilim darajasi, kasbiy malakasi, sog‘lig‘i, ijodiy qobiliyati va ijtimoiy faolligining yig‘indisi sifatida izohlanadi. Biroq falsafiy yondashuvda bu tushuncha yanada kengroq mazmunga ega bo‘lib, insonning ontologik mavjudligi, gnoseologik imkoniyatlari va aksiologik qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq holda yondashiladi. Inson kapitali shaxsning jamiyatdagi o‘rni, o‘zini anglash darajasi va ijtimoiy mas’uliyati orqali namoyon bo‘ladi. Shu bois uni faqat ishlab chiqarish omili sifatida talqin etish biryoqlama yondashuv hisoblanadi. Strategiyada inson kapitaliga berilgan yuksak e’tibor aynan ana shu kompleks yondashuv bilan izohlanadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy xususiyatlaridan biri uning antropotsentrik mohiyatidir. Ya’ni, davlat siyosatining markazida inson manfaatlari, ehtiyojlari va salohiyati turadi. Bu yondashuvda shaxs jamiyat taraqqiyotining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida namoyon

bo‘ladi. Strategiyada ta’lim, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilishi aynan insonning har tomonlama kamol topishini ta’minlashga qaratilgandir.

Ta’lim tizimi inson kapitalining shakllanishida epistemologik asos vazifasini bajaradi. Bilim insonning dunyoni anglash, tahlil qilish va yangilik yaratish qobiliyatini belgilaydi. Strategiyada ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilanadi. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasining rivojlanishi inson kapitalining doimiy yangilanib borishini ta’minlaydi. Bu esa shaxsning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, uning intellektual yetukligini ham mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish jarayonida muayyan dialektik qarama-qarshiliklar ham yuzaga keladi. An’ana va innovatsiya, texnologiya va ma’naviyat, globalizm va milliylik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim masala bo‘lib qolmoqda. Ushbu ziddiyatlarni konstruktiv tarzda hal etish barqaror taraqqiyotning asosiy sharti hisoblanadi. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda: “Yurtimizdagi qulay biznes muhiti, demografik o‘sish, inson kapitaliga berilayotgan e’tibor – O‘zbekistonni investorlar uchun eng jozibador mamlakatlardan biriga aylantirmoqda”[2].

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi inson kapitalini mamlakat taraqqiyotining bosh omili sifatida e’tirof etgan holda, uni iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishning uzviy birligi sifatida talqin qiladi. Strategiyada belgilangan ustuvor yo‘nalishlar insonning bilimli, sog‘lom, ijodkor va mas’uliyatli shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv O‘zbekistonning innovatsion, raqobatbardosh va insonparvar jamiyat sari barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: O‘zbekiston, 2024. – B. 62.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025-yil. https://president.uz/oz/lists/view/8834.

JAMIYAT MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH TARAQQIYOT OMILI

Kuchkarov Xudaynazar Muhiddinovich
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jamiyat ma’naviyatining taraqqiyotdagi o‘rni, o‘zbek jamiyatining ma’naviy qadriyatlari, ma’naviyatning yoshlar tarbiyasidagi roli ayniqsa yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ma’naviyat alohida o‘rin tutishiga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar. Ma’naviyat, jamiyat, davlat, yoshlar, ta’lim, tarbiya, milliy qadriyat, vatanparvarlik, milliy g‘oya, mafkura.

Bugungi kunda jahon hamjamiyati zamonaviy taraqqiyotni ta’minlash jarayonida ko‘pdan-ko‘p ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bir qatorda insonni inson sifatida ulug‘lab turadigan, jamiyatda ezgu qadriyatlar, axloqiy fazilatlar ustuvorligini ta’minlaydigan, odamlarni mudom eng xayrli gumanistik g‘oyalar asosida ruhiy kamolot sari yetaklaydigan beqiyos kuch – ma’naviyatga nisbatan tobora ko‘proq ehtiyoj sezmoqda.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan voqea va hodisalar bir haqiqatni yanada yaqqolroq namoyon etmoqda: mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, ijtimoiy ta’minot darajasini yaxshilash, jismoniy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash bilangina kuchli taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi. Ma’naviy-axloqiy bo‘shliqqa yo‘l qo‘yilgan makonlarda iqtisodiyot, harbiy salohiyat ming bora qudrat kasb etmasin, milliy-ma’naviy birlikning yo‘qligi manaman degan iqtisodiy cho‘qqilarning ham nurashiga olib kelishi mumkin. Shu ma’noda, mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan, inson ongi va qalbi uchun kurashlar

keskinlashgan tahlikali zamonda ma’naviy tarbiya masalasi hayot-mamot masalasiga aylanmoqda.

Dunyoning turli mintaqa va davlatlarida sodir bo‘layotgan ayanchli voqealar tahlili ko‘rsatmoqdaki, ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolmoqda. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlar ildiz otishiga, odamzodning o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo‘lmoqda va jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda. Bunday murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash – mustaqillikni asrashdek, mustahkamlashdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdek muhim.

Prezident Sh.Mirziyoyev takidlaganidek Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir, Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat. [1]

Jamiyat a’zolarini eng go‘zal fazilatlar, milliy va umuminsoniy qadiyatlar, milliy vatanparvarlik, milliy burch, Vatanga mas’ullik ruhida tarbiyalash orqali erishilgan ma’naviy taraqqiyot davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks rivojlantirish, mamlakat ahliga bunyodkorlik va yaratuvchanlik ruhini baxsh etishda ma’naviy drayver vazifasini o‘taydi.

Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki ma’naviy yuksalish bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Ma’naviyat insonning ichki dunyosi, uning axloqiy qarashlari, e’tiqodi, dunyoqarashi va madaniy saviyasini ifodalaydi. Jamiyatda ma’naviy muhit qanchalik sog‘lom bo‘lsa, unda yashovchi insonlarning ham hayot sifati, o‘zaro munosabatlari va ijtimoiy faolligi shunchalik yuqori bo‘ladi.[2]

Jamiyat ma’naviy hayoti murakkab, rang-barang omillar ta’sirida

shakllanadi va bu jarayon uzluksiz rivojlanib boradi. Taraqqiyotning dinamik xususiyati aslida ma’naviy hayotning o‘zgarish va yangilanishlari ta’sirida aks etadi. Shuning uchun jamiyat ma’naviy hayoti, undagi o‘zgarish va yangilanishlarni ma’lum me’yor, o‘lchov va ko‘rsatgichlarga solish har doim muayyan qiyinchilik tug‘dirgan.

Ma’naviyat bu insonning ruhiy va aqliy faoliyatini ifoda etuvchi tushunchadir. Ma’naviyat jamiyatning deyarli barcha sohalarini o‘z ichiga oladi. Uning tag zamirida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’naviyat insonning tashqi va ichki olamini aks ettiradi. Shu sababli bu tushuncha ma’rifat va madaniyat bilan bevosita bog‘liq. Ma’naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik ma’naviyatni belgilovchi asosiy omillardandir. Ma’naviyati yuksak bo‘lgan yoshlar kamol topgan jamiyatlarda shu jamiyatning yuzi, g‘ururi va obro‘-e’tibori yuqori hisoblanadi. Ma’naviyatli yoshlar sog‘lom fikrli, yaxshi xulq atvor egalari sifatida ertangi kunning ishonchli kuchi bo‘ladi. Davlatning kuch-qudrati bu yoshlar bo‘lsa, ularning asosiy qadriyati bu ma’naviyat asosiga qurilmog‘i lozimdir. Agar bunday tizim bo‘lmas ekan, hech qachon u joyda baxt-saodat va farovonlik bo‘lmaydi. Shu sababli ham yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ularni ma’rifatli qilish davlat siyosati darajasigacha ko‘tarilgan. Demakki, ma’naviy transformatsiyalashuv bu jamiyat va davlatning tub o‘zgarishlarni boshidan kechirishi hamda islohotlarning negizida “inson” omili yotgani, ertangi kun taraqqiyotiga yangi g‘oya va tashabbuslar orqali erishish, aholini ayniqsa yoshlarning dunyoqarashi va e’tiqodini o‘zgartirishni taqazo etadi.

Zamonaviy o‘zbek jamiyatining ma’naviy qadriyatlarini o‘zgartirish jarayoni ijtimoiy-tarixiy hodisa bo‘lib, uning mohiyati jamiyat, guruhlar va shaxslarning stereotiplashtirilgan qadriyatlarini o‘zgartirish jarayonlari zamirida yotadi. Jamiyatning yoshlar ma’naviy hayotidagi buzg‘unchi jarayonlar butun davlatning hayotiyligiga tahdid solmoqda. Ko‘rsatilgan hodisa axloqsizlik, huquqiy nigilizm o‘sishida ifodalangan individual va jamoat axloqining o‘zgarishi uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hodisaga qarshi kurashish uchun ma’naviy qadriyatlar tranformatsiyasini amalga oshirish kerak. Buning uchun albatta davlat va fuqarolik jamiyati

tarkibiy qismlari bo‘lgan jamoat tashkilotlarining aralashuvi zarur bo‘ladi.[3]

Ma’naviyatni shakllantiradigan mezonlar – inson ongiga ta’sir ko‘rsatadigan, uning dunyoqarashi, tafakkur tarzini muayyan yo‘nalishga soladigan, o‘zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma’naviy, madaniy va moddiy asoslar, an’analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g‘oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha. Ma’naviyatni shakllantiradigan mezonlarni shartli ravishda bir necha guruhga bo‘lish mumkin: birinchi guruh millat, xalq, davlatchilik, madaniyat, me’moriy yodgorliklar va boshqa shk kabilarni qamrab oluvchi tarixni, ming yillar davomida rivojlanib kelayotgan qishloq va suv xo‘jaligi bilan bog‘liq agrar madaniy an’analarni, geografik shart-sharoitga aloqador tarixiy munosabatni va boshqalarni ifodalovchi moddiy meros; ikkinchi guruh xalqimizga xos bir necha ming yillik diniy e’tiqod, ta’lim-tarbiya, shuningdek, barcha ilm-fan sohalari va ular rivojida muhim o‘rin tutgan mutafakkirlar va ularning asarlari, xalq ijodini qamrab oluvchi madaniy meros; uchinchi guruh xalqimizga xos an’analar, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar, turmush tarzi bilan bog‘liq boshqa madaniy omillar; to‘rtinchi guruh xalq qadriyatlari, tafakkur tarzi, mafkurasi, xalqqa xos ma’naviy xususiyatlar, g‘oyalar, ruhiyat va o‘zaro ijtimoiy munosabatlar; beshinchi guruh hozirgi jamiyatimizda bevosita amaliy faoliyat yuritayotgan, inson tarbiyasida katta ta’sirga ega, umuman, ma’naviy dunyoqarash shakllanishida bosh rol o‘ynaydigan ta’lim-tarbiya maskanlari, OAV, kutubxona, teatr, san’at saroylari va shu kabi boshqa ma’naviy ta’lim vositalarini o‘z ichiga oladi. [4]

Ma’naviyatni yuksaltirish masalasi har bir davr va jamiyatga xos bo‘lib, bunda davlat va jamiyat oldida ma’naviyatni shakllantiradigan va unga ta’sir o‘tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o‘rin tutishini yaxshi anglab olish maqsadi ham yotadi. Har qaysi xalq yoki millatni uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillar sifatida xizmat qiladi. Masalan, shu zamindan yetishib chiqqan buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va

sarkardalar, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari katta.

Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi. Ma’naviyatni shakllantiradigan mezonlar haqida so‘z ketganda, mahallaning o‘rni va ta’siri xususida to‘xtalish zarur. Ma’lumki, o‘zbek mahallalari azaldan chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib keladi. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va marakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish har bir jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ma’naviy barkamol jamiyatda insonlar o‘rtasida hurmat, hamjihatlik va adolat ustuvor bo‘ladi. Jamiyat ma’naviyatini rivojlantirishda oila, ta’lim tizimi, milliy qadriyatlar va madaniyat muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1053
2. *https://oyina.uz/uz/article/1870*

3. X.Kuchkarov “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatida ma’naviy tranfosmatsiya” dissertatsiyasi (PhD). 22 bet.
4. https://oyina.uz/uz/teahause/1924

MA’NAVIY BARKAMOL JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TARAQQIYOT STRATEGIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI.

Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich
Namangan davlat pedagogika
instituti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada taraqqiyot strategiyasining ma’naviy hayotga bag‘ishlangan tashabbuslari beshinchi ustivor yo‘nalish, ya’ni “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish” yo‘nalishida belgilab berilgan. Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston strategiyasi xuddi shunday xayotbaxsh xususiyat kasb etayotganligi, xalqimizni yorug‘ kelajakka chorlab va yangilanishga safarbar qilib, umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirib turadigan yaxlit ma’naviy asos va mezonga aylanib borayotganligi alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar. Yangi O‘zbekiston, yagona ma’naviy makon, milliy g‘oya, fuqarolik jamiyati, globallashuv, milliy o‘zlik, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, mafkuraviy islohot.

Bugungi globallashayo`tgan insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi - ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik xissini kuchaytiradi. O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, xar bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur.

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi doirasida milliy g‘oya va mafkuraviy mezonlar yanada takomillashtirilmoqda. Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan xam ko‘z yuma olmaymiz. “Dunyo barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”[1.27].

Shunday qilib, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati tushunchalari jamiyat hayotining turli tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Ular guruhlar, individlar, jamiyatning umumiy ahamiyatga molik manfaatlari o‘raladigan qobiq hisoblanadi va ularni ro‘yobga chiqarish usullaridan tashkil topadi. Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, fuqarolik jamiyatining davlatdan ajralishi aynan tabaqalar o‘rtasidagi tengsizlikni tugatish va ijtimoiy munosabatlarni davlat tasarrufidan chiqarish jarayonida yuz bergan. Bu jarayonga butun aholi nomidan ish ko‘ruvchi vakillik davlatining shakllanishi asos bo‘lgan. Ayni paytda huquqiy demokratik davlat barpo etishda xalqimiz ma’naviy dunyoqarashini oshirish ham bnda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev shunday deydi: “Biz uchun ma’naviyat - insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda ko‘rish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir.”[2.267 b].

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish bosh strategik maqsad sifatida belgilandi. Shu kabi jamiyatgina O‘zbekiston xalqining munosib turmushini, huquq va erkinliklarini kafolatlashi, milliy an’analar va ma’naviyatimizni qayta tiklashi, shaxs sifatida insonning ma’naviy-axloqiy kamol topishini ta’minlay olishi e’tirof etildi.

Ma’naviy xayotimizda bo‘shashish, bo‘shliq sezilmoqda. Ma’naviy immuniteti zaif bo‘lgan ba’zi yoshlar yurish-turishda xam, muomala-

munosabatda xam begonalarga ko‘r-ko‘rona ergashmoqda. Milliy o‘zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning etarli emasligi bunga sabab bo‘lmoqda, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Vaholanki, tarixiy dalillar bilan asoslangan holda Turon zaminni jahon sivilizatsiyasiga katta ta’sir ko‘rsatgan hudud deb ayta olamiz. Buning asosida nafaqat qudratli imperiyalar yaratish, ilm-fanni yuksak cho‘qqilarga olib chiqish, shaharlar barpo etish balki bu yurtda yashagan xalqlarning ma’naviy yuksakligi, adolat tamoyillariga qat’iy rioya etishi turgan[3.85b].

Uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya asoslarini kuchaytirish lozim va bunda o‘sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlari va intilishlarini hisobga olish zarur. Bu borada bog‘cha, maktab, oliy ta’lim, maxalla tizimining har biri aloxida ish olib borayotgani, ya’ni, o‘zaro xamkorlik va uyg‘unlikni to‘la-to‘kis ta’minlashga erishilmagani ishimizning samarasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniksa, yoshlarimiz xayotiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimining ahamiyati katta.

Shavkat Mirziyoyev rahbarligida boshlandi deb qaralayotgan yangi davrda mafkuraviy islohotlar sifat jihatidan tub yangilanish bosqichiga ko‘tarildi. Bu davrda mafkura faqat tarixiy identitetni tiklash vositasi emas, balki jamiyatni islohotlar sari yetaklovchi kuch sifatida qayta talqin qilindi. Hozirgi O‘zbekiston hududida qadimdan Sharq ma’naviyatiga tayanib yashash, hamjihatlikka intilish, har tomonlama barkamollik oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan, millatidan, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e’tiqodidan qat’i nazar, yagona o‘lchov – insonni insonligi uchun ulug‘lash bosh mezon qilib olingan.[4.144 b]

Endilikda mafkuraviy islohotlar bir qator asosiy yo‘nalishlarda aks etmoqda. Inson qadri va huquqlari mafkurasi – davlatning yangi mafkuraviy asosida inson manfaatlarini markazga qo‘yishi bevosita xalq bilan aloqani mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Adolat va ochiqlik mafkurasi – korrupsiyaga qarshi kurash, davlat organlarining ochiqligi, ijtimoiy adolat tamoyilining kuchayishi jamiyatda mafkuraviy ishonchni tikladi. Ayniqsa, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda tanqidiy fikr uchun imkoniyatlar yaratilgani mafkuraning zamonaviy modifikatsiyasidir.

Yoshlarga yo‘naltirilgan mafkuraviy yondashuv – yoshlar bilan ishlash sohasida mafkuraviy profilaktika va ijtimoiy himoya g‘oyaviy jihatdan muhim o‘rin tutmoqda. “Yoshlar-kelajagimiz”, “Yoshlar daftari”, “Temurbeklar maktabi”, “Yoshlar parlamenti” kabi tashabbuslar orqali mafkura yosh avlodning ijtimoiy faolligini oshirish, milliy g‘oyaga daxldorlikni mustahkamlash vazifasini bajarmoqda.

Axborot xavfsizligi va mafkuraviy immunitet – zamonaviy mafkuraviy kurashning eng dolzarb yo‘nalishi bu – axborot xurujlariga qarshi ichki madaniy immunitetni shakllantirishdir. Yolg‘on, manipulativ yoki ekstremistik mazmundagi axborotlardan himoya qilish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar mafkuraviy islohotlarning amaliy samarasidir.

Jamiyatda mafkuraning o‘rni va ahamiyati, xususan uning shaxs harakteridagi ta’siri haqida juda ko’plab fikr va mulohazalar mavjud. Birinchi prezidentimiz “Tafakkur” jurnali bosh muharriri bilan bo‘lgan suhbatda mafkuraga, xususan, milliy mafkuraga bo‘lgan munosabatini konsepsiya sifatida shunday ifodalaydi: “Odamlarning, ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning dunyodagi o‘rnini aniq - ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishga qodir g‘oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman”[5.11b]

Odam kamolga etadigan muhit qandaydir o‘zgarmas bir narsa emas. Har bir odamning, har bir bolaning ongi o‘zgaruvchi muhit ta’sirida kamol topadi. Sinfiy jamiyatda bu muhit sinfiy bo‘ladi. Shu sababli, aniq muhitga qarab o’sayotgan odam ongi ham har xil tarkib topadi va kamolga yetadi. Hamma sharoitda bola-bolaligicha, yigit-yigitligicha qoladi, albatta. Ammo ijtimoiy hayot, turmush va madaniyat sharoitida qarab, tarbiyaga qarab, o‘smirlar va yigit - qizlarning xususiyatlari tarkib topadi. Tevarak - atrofdagi ijtimoiy muhit odamning o‘sayotgan ongiga, asosan uyushgan tartibda ta’sir qiladi. Ijtimoiy formatsiya qancha yuqori bo‘lsa, ijtimoiy muhitning o‘smir avlod ongiga uyushgan tartibdagi ta’siri shuncha katta bo‘ladi.

Axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash - axloqiy xatti-harakatlar va axloqiy odatlarni shakllantirish. Harakat insonning atrofdagi voqelikka

munosabatini tavsiflaydi. Axloqiy tarbiyaning asosiy asosiy kategoriyasi, B.T.Lixachevning fikricha, axloqiy tuyg‘u tushunchasi - doimiy hissiy hissiyot, tajriba, haqiqiy axloqiy munosabatlar va o‘zaro ta’sirlar. Axloqiy me’yorlar faqat bolaning hissiy o‘zlashtirilishi tufayli subyektiv axloqqa aylanadi. U milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruxida tarbiyalanib boradi. Xodjageldiyeva Z.M. shaxsning fuqarolik faolligi mezonlari tarkibiga bag‘rikenglik tamoyillarini kiritadi.[6.22b]

Bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o‘ringa ega bo‘lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta’sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” asarida yoshlarni ma’naviy etuk inson etib tarbiyalash, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo’lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi, yoshlar bilimi, saviyasini oshirish uchun ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerakligi hamda yoshlarni ko‘proq ta’limga jalb etish zarurligini ta’kidlaydi.

Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlar bilan chambarchas bog‘liq holda mamlakatni barqaror rivojlantirish g‘oyasi bilimli va zukko avlodni tarbiyalashga asoslanadi. Yoshlarga yaratilayotgan bunday imkoniyatlar yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda, mamlakatimiz iqtisodiyotini, ta’lim sifatini, oshirishda o‘ziga hos ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, taraqqiyot strategiyasi doirada olib borilayotgan islohotlarning barchasi yoshlarning ma’naviy kamolotini oshirishda va ularning malakali kadrlar bo‘lib yetishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy sohada ma’naviy qadriyatlarimizni ilm-fan va taraqqiyot yutuqlari bilan boyitib borish, o‘zligimizni chuqurroq anglash, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi tamoyillarini xalqimizning qalbi va ongiga singdirish, muqaddas dinimiz va tariximizni soxtalashtirish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanishlariga yo‘l qo‘ymaslik bu boradagi asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi shaxs ma’naviyatini rivojlantirish va inson kapitalidan foydalanishda samaraga erishish uchun bir qator muhim yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu strategiya, 4-va 5- ustuvor yo‘nalishlarida jamiyatda ma’naviy qadriyatlarni oshirish, insonning shaxsiy va professional rivojlanishiga

yordam berish, shuningdek, ta’lim va madaniyat sohalarida yangiliklar kiritishga qaratilgan muhim strategik maqsadlarni belgilaydi. Avvalambor, ta’lim sifatini oshirishga e’tibor qaratilib, zamonaviy bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun yangi dasturlar ishlab chiqiladi. Bu orqali yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirish maqsad qilinadi. Shunday qilib, azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq koidalarining butunlay yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan xozirgi globallashuv sharoitida, ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish g‘oyat birlamchi vazifamizdir. Ma’naviy qadriyatlar deganda, inson tarbiyasi va kamolatiga muhum ahamiyatga ega, jamiyat va shaxs ma’naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllari tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон Стратегияси.-Т.: “Ўзбекистон”, 2021.
3. Эркаев, Абдураҳим. Миллий ғоя ва маънавият.-Т.: “Маънавият”, 2002.
4. Б.О.Тўраев. Ижтимоий фалсафа, социология, миллий ғоя ва публицистика. Танланган асарлар II жилд. Тошкент — 2015.
5. Г.Э.Кушакова. Ёшларда толерантлик тафаккурини шакллантиришнинг педагогик асослари. -Т.: «Fan va texnologiya», 2015.
6. Otamuratov S. Globallashuv va milliy ma’naviy xavfsizlik.- T.: O‘zbekiston, NMKU, 2013.

ZJV5401

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TANQIDIY-KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI

Jumayeva Muxlisa Shokir qizi
Pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori(PhD) Nizomiy
nomidagi O‘zbekiston milliy
pedagogika universiteti
1-kurs DSc doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlash kompetensiyalarini “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida tanqidiy-kreativ fikrlashning mazmuni, tarkibiy komponentlari hamda uni shakllantirishning nazariy yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, strategik hujjatlar asosida pedagog kadrlar tayyorlash tizimida tanqidiy-kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, pedagogik mexanizmlari va metodologik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tanqidiy-kreativ fikrlash, pedagogik kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, metodologik yondashuv, ma’rifiy texnologiyalar, pedagogik modernizatsiya.

Globallashuv, axborotlashuv va ijtimoiy transformatsiya jarayonlari sharoitida ta’lim tizimining strategik vazifalari tubdan yangilanmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega, mustaqil fikrlovchi va innovatsion yondashuvga ega pedagog kadrlarni tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Mazkur strategik maqsad pedagogik ta’lim mazmunini qayta

ko‘rib chiqish, uni kompetensiyaviy yondashuv asosida modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim jarayonida kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini hayotiy muammolarni ijodiy hal qilishga yo‘naltirish, o‘zo‘zini rivojlantirish va tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Kreativ va tanqidiy fikrlash – bu g‘oya va imkoniyatlarni ijodiy uyg‘unlashtirish, mavjud konsepsiyalarni qayta ko‘rib chiqish va yangicha talqin etish jarayonidir. Bu faol va interaktiv bilim olishning turli darajalarida bir vaqtda amalga oshiriladigan murakkab jarayondir.

Kreativ va tanqidiy fikrlash yuzaki mulohazalar bilan cheklanmaydi, aksincha, faktlarning sabablari va oqibatlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu fikrlash turi shubha qilish, mavjud haqiqatlarga tanqidiy yondashish, turli nuqtai nazarlarni ishlab chiqish hamda mantiqiy dalillarni himoya qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ma’qul va noma’qul me’yorlarni tushunishi, ularni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Ular muayyan vaziyatlarni anglab yetganlaridan so‘ng, kreativ va tanqidiy tahlil jarayoniga faol kirishadilar. Ushbu jarayon onglilik tamoyiliga asoslanadi va tahlil bilan haddan oshish o‘rtasidagi farqni anglashni talab qiladi. [3]

Boshlang‘ich ta’lim tizimi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishning poydevori hisoblanadi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi nafaqat metodik bilimlarga, balki yuqori darajadagi tanqidiy va kreativ fikrlash kompetensiyalariga ham tayanishi zarur. Chunki aynan boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarda mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlash asoslarini shakllantiradi.[2]

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy-kreativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining ma’rifiy-innovatsion yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘liq dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tanqidiy-kreativ fikrlashning ilmiy-nazariy asoslari. Tanqidiy-kreativ fikrlash zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarda shaxs tafakkurining integrativ, ko‘p qirrali va yuqori darajadagi intellektual shakli sifatida talqin etiladi. Mazkur tushuncha tahliliy (analitik) va ijodiy

(generativ) tafakkur jarayonlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida namoyon bo‘lib, muammolarni chuqur anglash, ularni turli nuqtai nazardan baholash, mavjud stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish hamda yangicha, asosli va amaliy ahamiyatga ega yechimlar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunda fikrlash jarayoni nafaqat tanqidiy tahlilga, balki konstruktiv yangilik yaratishga ham yo‘naltiriladi.[5]

Ilmiy manbalarda tanqidiy fikrlash ko‘proq mantiqiylik, dalillilik va asoslangan xulosa chiqarish bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Xususan, J. Dyui refleksiv fikrlash nazariyasida muammoni anglash, savol qo‘yish, taxmin ilgari surish, dalillarni tekshirish va xulosa chiqarish bosqichlarini fikrlashning asosiy mexanizmi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarning yaratilishi shaxsda faol intellektual izlanishni rag‘batlantiradi va bilimlarni ongli o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Dyui yondashuvi tanqidiy-kreativ fikrlashning metodologik asoslaridan biri sifatida qaralib, unda fikrlash jarayoni tajriba va faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

D. Halpern tanqidiy fikrlashni maqsadga yo‘naltirilgan, mantiqiy va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish jarayoni sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, tanqidiy fikrlash axborotni tahlil qilish, ishonchliligini baholash, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va xulosalarning asoslanganligini tekshirishni o‘z ichiga oladi. Bu jihatlar pedagog shaxsida axborot oqimi kuchaygan zamonaviy sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ fikrlash esa E. Torrans tadqiqotlarida originallik, moslashuvchanlik, ravonlik va takomillashtirish kabi ko‘rsatkichlar orqali tavsiflanadi. Torransga ko‘ra, kreativlik muammoga noodatiy yondashish, yangi g‘oyalar generatsiyasi va mavjud bilimlarni yangi kombinatsiyada qo‘llash qobiliyatidir. Demak, kreativ fikrlash yangilik yaratishga, tanqidiy fikrlash esa ushbu yangilikning asoslanganligi va maqsadga muvofiqligini tekshirishga xizmat qiladi. Ularning integratsiyasi esa tanqidiy-kreativ tafakkurni yuzaga keltiradi.

Mazkur nazariy qarashlar sintezi asosida tanqidiy-kreativ fikrlash ko‘p komponentli tuzilma sifatida qaraladi. Uning tarkibiy komponentlari quyidagicha izohlanadi:

Birinchidan, kognitiv komponent fikrlashning intellektual operatsiyalarini qamrab oladi. U tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, mantiqiy xulosa chiqarish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur komponent orqali shaxs muammoni tuzilmaviy jihatdan anglaydi, uning sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlaydi va turli variantlarni solishtirib baholaydi.

Ikkinchidan, refleksiv komponent shaxsning o‘z fikrlash jarayonini anglash va baholash qobiliyatini ifodalaydi. Refleksiya orqali pedagog o‘z qarorlarining samaradorligini tahlil qiladi, xatolarni aniqlaydi va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilaydi. Bu komponent kasbiy o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmining muhim elementi hisoblanadi.[1]

Uchinchidan, aksiologik komponent tanqidiy-kreativ fikrlashning qadriyatlarga asoslangan yo‘nalishini belgilaydi. Har qanday innovatsion g‘oya yoki qaror ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy mezonlar asosida baholanishi zarur. Shu bois pedagogning fikrlash jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan bo‘lishi lozim. Bu jihat ayniqsa “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ma’naviy barkamollik va ijtimoiy mas’uliyat tamoyillari bilan hamohangdir.

To‘rtinchidan, innovatsion komponent yangi g‘oyalarni ishlab chiqish, muammolarga alternativ yondashuvlarni taklif etish va ularni amaliyotga joriy etish qobiliyatini ifodalaydi. Bu komponent pedagogning ijodiy tashabbuskorligini, yangilikka ochiqligini va pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olish salohiyatini namoyon etadi. Shunday qilib, tanqidiy-kreativ fikrlash analitik chuqurlik va ijodiy kenglikning uyg‘unlashuvi sifatida namoyon bo‘lib, zamonaviy pedagog shaxsining muhim kasbiy sifati hisoblanadi. Uning ilmiy-nazariy asoslarini anglash bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mazkur kompetensiyani tizimli va maqsadli ravishda rivojlantirishning metodologik poydevorini yaratadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mavhum nazariy bilimlarni o‘rganishdan ko‘ra, ularni faol fikrlash jarayoniga jalb qilish va o‘z tajribalarida amaliyotga tatbiq etish imkoniyatini yaratish samaraliroq

hisoblanadi. Ayniqsa, o‘qituvchilar o‘zlari dolzarb muammolarni ilgari surib, ularga yechim izlashda ishtirok etgan taqdirda, kreativ va tanqidiy fikrlash yanada faol shakllanadi.[3]

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va pedagogik kompetensiyalar modernizatsiyasi Strategiyada inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini mustahkamlash muhim vazifa sifatida belgilangan.[4]

Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun pedagogik ta’lim tizimida:

-kompetensiyaviy yondashuvni chuqurlashtirish;

-innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

-refleksiv va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish;

-ta’lim jarayonini interfaol metodlar asosida tashkil etish zarur.

Tanqidiy-kreativ fikrlash kompetensiyasi aynan mazkur ustuvor yo‘nalishlarning integrativ natijasi sifatida shakllanadi.

Amaliyotda uchrayotgan muammolar: tanqidiy-kreativ kompetensiyalarni shakllantirish tizimli xarakter kasb etmagan; o‘quv dasturlarida refleksiv va tadqiqotchilik faoliyati yetarli darajada aks etmagan; an’anaviy reproduktiv o‘qitish usullari ustunlik qilmoqda; metodik ta’minot va innovatsion resurslar yetarli emas.

Bu holat strategik maqsadlarni to‘liq amalga oshirishga to‘sqinlik qiladi.

Muammolarni bartaraf etish yo‘llari: o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy model asosida qayta ishlab chiqish; pedagogik amaliyotni muammoli va tadqiqotga asoslangan shaklda tashkil etish; refleksiv tahlil mexanizmlarini joriy etish; strategik hujjatlar asosida kasbiy rivojlanish modellarini ishlab chiqish; innovatsion metodlarni tajriba-sinov asosida tatbiq etish.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati: Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik ta’lim tizimida tanqidiy-kreativ fikrlash kompetensiyalarini shakllantirishning yaxlit modelini ishlab chiqish imkonini beradi. Ishlab chiqilgan konseptual-metodologik yondashuvlar: o‘quv fanlari mazmunini yangilash; pedagogik amaliyotni modernizatsiya qilish; kasbiy refleksiya mexanizmlarini kuchaytirish; boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida pedagogik ta’lim tizimini modernizatsiya qilish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy va kreativ fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Mazkur strategik yondashuv ta’lim mazmunini yangilash, o‘quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda kompetensiyaviy yondashuvni izchil amalga oshirishni taqozo etadi. Chunki zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish, qaror qabul qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Tanqidiy-kreativ fikrlashni konseptual-metodologik asosda rivojlantirish pedagogik jarayonni innovatsion, refleksiv va interaktiv metodlar asosida tashkil etishni talab qiladi. Bu jarayonda muammoli ta’lim, loyihaviy faoliyat, keys-stadi, munozara va refleksiya metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini shakllantirish, ularni pedagogik jarayonni tahlil qila olish va takomillashtirishga yo‘naltirish zarur hisoblanadi.

Mazkur kompetensiyalarni tizimli va izchil ravishda shakllantirish orqali zamonaviy, mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy mas’uliyatli hamda innovatsion pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Bunday mutaxassislar boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini erta bosqichdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, ta’lim sifatining oshishi, inson kapitalining mustahkamlanishi hamda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining intellektual poydevorini yanada kuchaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Dewey, J. How We Think. – New York: D.C. Heath and Company, 2010.

2. Halpern, D. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – USA: Psychology Press, 2014.

3. Jumayeva, M.Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik jihatlari. // O‘zMU XABARLARI. – 2025. – №1/2. – 103–104-b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (PF-158-son) “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 11.09.2023.
5. Torrance, E. P. Creative Thinking and Problem Solving. – New York: Scholastic Press, 2008.

MILLIY MEROS VA QADRIYATLAR YOSHLAR TARBIYASINING MA’NAVIY ASOSLARI SIFATIDA

Qodirova Zuhra Obidxon qizi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti loyiha koordinatori,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD)

Annotatsiya Mazkur maqolada milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalq an’analari asosida yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasining pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi, xalq og‘zaki ijodi, pand-nasihatlar hamda hadislarda ifodalangan tarbiyaviy g‘oyalarning yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, milliy an’analar, oilaviy qadriyatlar va ajdodlar merosining ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada milliy tarbiya tamoyillari yoshlar ongida ezgulik, mehr-oqibat, hurmat, halollik va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, milliy pedagogika an’analari asosida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlari tahlil qilinadi..

Kalit so‘zlar milliy qadriyatlar, milliy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, xalq an’analari, urf-odatlar, pedagogika, ma’naviy meros, oila tarbiyasi, yoshlar tarbiyasi, xalq pedagogikasi.

Mustaqillik mamlakatimizda fan va ta’lim tizimining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bu jarayon milliy pedagogika taraqqiyotida ham yangi bosqichni boshlab berdi. Chunki mustaqillik tufayli xalqimiz o‘zining milliy g‘ururi, tarixiy xotirasi va ma’naviy qadriyatlarini qayta tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Natijada ta’lim-tarbiya tizimini ham mazmunan yangilash, uni milliy qadriyatlar, an’analar va ma’naviy meros asosida takomillashtirish zarurati yuzaga keldi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayoni nafaqat bilim berishga, balki davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qila oladigan, mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim jarayonini tarbiya tamoyillari bilan boyitish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Tarbiya tamoyillari insonning o‘ziga xos xususiyatlarini, uning tabiati va ruhiy olamini chuqur o‘rganishga asoslanadi. Ayniqsa, milliy nuqtai nazardan qaraganda, tarbiyaviy ta’sir insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning boy ma’naviy merosi yuksak axloqiy fazilatlarni targ‘ib etishda bebaho manba hisoblanadi. O‘zbek xalqining paydo bo‘lish tarixi qanchalik uzoq davrlarga borib taqalsa, uning milliy an’analari, urf-odatlari va marosimlari ham shunchalik chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ustuvor qadriyatlar xalqning ma’naviy ehtiyojlari zaminida vujudga kelib, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, sayqallanib borgan. Mazkur qadriyatlar xalqning orzu-intilishlari, turmush tarzi, axloqiy me’yorlari va ma’naviy qarashlarida o‘z ifodasini topgan.

Shu sababli har bir millat o‘z qadriyatlarini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazishi zarur. Darhaqiqat, an’analar, urf-odatlar va marosimlar millat ma’naviy hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Qadriyatlar yosh avlodga hayot mazmunini chuqurroq anglash, jamiyat qonun-qoidalaridan to‘g‘ri foydalanish hamda o‘z xatti-harakatlarini ma’naviy mezonlarga mos ravishda shakllantirish imkonini

beradi. Shu bois hozirgi davrda yoshlarni qadriyatlarni anglash va ularga hurmat ruhida tarbiyalash muhim pedagogik vazifalardan biridir.

Inson ruhiyatida azaldan yaxshilik, ezgulik va go‘zallikka intilish tuyg‘usi mavjud. Tarbiya jarayonida mazkur tuyg‘ular qanchalik ko‘p rag‘batlantirilsa, insonning ma’naviy kamoloti shunchalik yuqori bo‘ladi. Aks holda, bu tuyg‘ular susayib, ularning o‘rnini turli salbiy mayllar egallashi mumkin. Demak, tarbiya jarayonida ijobiy fazilatlarni mustahkamlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat mavjud emas. Milliy qadriyatlar millatning tarixiy taraqqiyoti, yashash tarzi, ma’naviyati va madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. O‘zbekiston mustaqilligi ham milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish uchun mustahkam ma’naviy asos bo‘lib xizmat qildi. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan qadriyatlari ona yurtga muhabbat, ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, hayo, andisha kabi fazilatlarning ustuvorligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek xalqining uzoq tarixiy tajriba asosida shakllangan boy an’analari mavjud. Bu an’analar avloddan-avlodga o‘tib, xalq donishmandligining yorqin ifodasi sifatida milliy madaniyatimizda muhim o‘rin egallagan. Ota-bobolarimiz va momolarimizning pand-nasihatlari yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan. Ularning hikmatli so‘zlari yosh avlod ongida ma’naviy mezonlarni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbek xalqining ma’naviy merosida xalq og‘zaki ijodi, rivoyatlar, hikoyatlar, maqollar va hadislar muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mazkur manbalar orqali xalqimizning milliy g‘oyalari, axloqiy qarashlari hamda ma’naviy qadriyatlari ifodalangan. Marosimlar, urf-odatlar va rasm-rusumlar esa jamiyat hayotidagi muhim voqea-hodisalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular yosh avlodni tarbiyalashda muhim ijtimoiy va estetik vazifani bajaradi.

Ota-bobolarimiz yoshlarni bekorchilikdan qaytarib, ularni mehnatsevarlik va intizom ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratganlar. Masalan, “Bekorchidan Xudo bezor”, “Vaqtni qadrlagan inson baraka topadi” kabi hikmatli iboralar yoshlarni vaqtni to‘g‘ri taqsimlashga va

samarali faoliyat yuritishga undagan. Bu kabi nasihatlar hadis ilmida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, unda vaqtni qadrlash va niyatning pokligi inson hayotida muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan.

Xalqimizning kundalik turmush tarzida ham tarbiyaviy mazmun mujassam. Masalan, nonni e’zozlash, tong saharda turish, poklik va ozodalikka amal qilish kabi odatlar nafaqat maishiy, balki ma’naviy tarbiya vositasi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday an’analar insonni halollik, mehnatsevarlik va tartiblilik ruhida tarbiyalaydi.

O‘zbek xalqida ota-onaga hurmat alohida qadriyat sifatida qaraladi. “Ota rozi – Xudo rozi”, “Otangga tik qarama” kabi iboralar yoshlarni ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, bemorlarni yo‘qlash, muhtojlarga yordam berish, sadaqa qilish kabi an’analar ham xalqimizning yuksak insonparvarlik qadriyatlaridan dalolat beradi.

Shu bois xalqimizda amal qilib kelayotgan qadriyatlar va an’analarni ma’naviy hayotimizning yozilmagan qonunlari sifatida baholash mumkin. Bu qadriyatlar ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida sinovdan o‘tib, xalq ongiga chuqur singib ketgan. Mazkur qadriyatlarning aksariyati hadislarda ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ular milliy ta’lim-tarbiya tizimining muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda pedagoglarning asosiy vazifasi yosh avlodni ezgulik, halollik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Bu jarayonda muqaddas bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan hamda milliy ta’lim-tarbiya an’analaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday manbalar yoshlar ongida ma’naviy immunitetni shakllantiradi hamda turli salbiy g‘oyalar va yot ta’sirlarga qarshi mustahkam himoya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, nuroniy qariyalar, ota-bobolarimiz va momolarimiz bilan suhbatlar tashkil etish orqali yoshlar milliy qadriyatlar va an’analar bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa yosh avlodni milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar merosini qadrlash va uni davom ettirish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Vorislik – o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi muhim ijtimoiy qonuniyatdir. Jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, barcha davrlarda avlodlar o‘rtasida vorislik munosabatlari mavjud bo‘lganini

ko‘rish mumkin. Shu sababli milliy qadriyatlar va an’analarni asrab-avaylash hamda ularni yosh avlod tarbiyasida keng qo‘llash jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Al-Buxoriy.** Hadis: 4 jildlik. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991–1996.
2. **Ochil Safo.** Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
3. **Sharofutdinov O.** Ma’naviy kamolot yo‘llarida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
4. **Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Xasanov R.** Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI MA’RIFIY TEXNOLOGIYALAR VA “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI: JAMIYATNI BIRLASHTIRUVCHI KOMMUNIKATIV MAKONNING IJTIMOIY ASOSLARI

Tursunova Feruza Tursunovna
Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt asosidagi ma’rifiy texnologiyalar va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli kommunikativ makon, til va milliy qadriyatlar uyg‘unligi jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli jamiyat, kommunikativ makon, ijtimoiy integratsiya, milliy qadriyatlar, til, ma’rifiy texnologiyalar, raqamli savodxonlik, ijtimoiy ong, aksiologiya.

XXI asr sivilizatsiyasi texnologik modernizatsiya, axborot oqimlarining global integratsiyasi va sun’iy intellekt tizimlarining ijtimoiy hayotga keng kirib borishi bilan xarakterlanadi. Mazkur jarayon jamiyat tuzilmasini, ijtimoiy ongni, kommunikativ munosabatlarni va qadriyatlar tizimini tubdan o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda\ milliy rivojlanish strategiyalari faqat iqtisodiy yoki siyosiy dastur sifatida emas, balki ijtimoiy-falsafiy konsepsiya sifatida ham talqin qilinishi zarur. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi jamiyatning raqamli transformatsiyasi, inson kapitalini rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy yangilanishni o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida belgilaydi [1]. Strategiyaning mazmuni shuni ko‘rsatadiki, raqamli taraqqiyot va ijtimoiy birlik bir-biridan ajralmas kategoriyalardir. Bu esa sun’iy intellekt asosidagi ma’rifiy texnologiyalarni ijtimoiy integratsiyaning yangi mexanizmi sifatida o‘rganishni dolzarb qiladi. Har qanday strategik hujjat muayyan falsafaga tayanadi. Modernizatsiya nazariyalariga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti strukturaviy differensiallashuv va kommunikativ murakkablashuv orqali amalga oshadi. M. Kastells axborot jamiyatini “tarmoq jamiyati” sifatida talqin qilib, unda hokimiyat va bilim axborot oqimlari orqali shakllanishini ta’kidlaydi [3]. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ham tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish, elektron boshqaruvni kengaytirish va ta’lim tizimini raqamlashtirish orqali ijtimoiy modernizatsiyani ko‘zda tutadi [1]. Bu jarayon faqat texnik yangilanish emas, balki ijtimoiy ongning transformatsiyasidir. Texnologik rivojlanish va ijtimoiy birlik o‘rtasida qarama-qarshi tendensiyalar mavjud: bir tomondan, raqamli texnologiyalar jamiyatni global makonga integratsiya qiladi; ikkinchi tomondan, milliy identifikatsiya masalasini keskinlashtiradi. Strategik rivojlanishning ijtimoiy mohiyati aynan shu ziddiyatni muvozanatlashtirishda namoyon bo‘ladi.

Sun’iy intellekt bilim ishlab chiqarish mexanizmlarini o‘zgartiradi. Avval bilim subyektiv tajriba va institutsional ta’lim orqali shakllangan bo‘lsa, endilikda algoritmik qayta ishlash jarayonlari orqali tezkor ravishda generatsiya qilinmoqda. N. Bostrom sun’iy intellektni inson intellektual salohiyatini kengaytiruvchi omil sifatida ko‘radi, biroq u

nazoratsiz rivojlanish xavfini ham qayd etadi [5]. Demak, bilim ishlab chiqarish jarayoni axloqiy-me'yoriy nazoratni talab qiladi. Ma'rifiy texnologiyalar aynan shu gnoseologik transformatsiyaning mahsulidir. Ular: adaptiv o'qitish; individual o'quv trayektoriyasi; real vaqt rejimida tahlil; til modellari orqali kontent yaratish imkonini beradi. Bu esa ta'limni demokratlashtiradi va ijtimoiy tenglikni mustahkamlash imkonini yaratadi. J. Habermas kommunikativ ratsionallik nazariyasida jamiyat barqarorligi muloqot va o'zaro anglashuv orqali ta'minlanishini ta'kidlaydi [2]. Raqamli davrda esa muloqot algoritmik vositalar orqali vositachilik qilinadi. Sun'iy intellekt asosidagi kommunikatsiya tizimlari: axborotni saralaydi; diskursni yo'naltiradi; ma'no ishlab chiqaradi. Bu jarayon ijtimoiy ongni shakllantiradi va kollektiv identifikatsiyani belgilaydi. Shunday ekan, ma'rifiy texnologiyalarni strategik rivojlanish konsepsiyasi bilan uyg'unlashtirish jamiyatni birlashtirishning nazariy asosini tashkil etadi. U. Bek "xavf jamiyati" nazariyasida texnologik rivojlanish bilan birga yangi xavf va mas'uliyat shakllanishini ta'kidlaydi [2]. Raqamli jamiyatda quyidagi aksiologik mezonlar muhim ahamiyat kasb etadi: axborot xavfsizligi; madaniy identifikatsiya; til suvereniteti; raqamli etika. Milliy strategiyamiz milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsiyalar uyg'unligini ta'minlashni maqsad qiladi. Demak, sun'iy intellekt asosidagi ma'rifiy texnologiyalar milliy til va madaniyatga mos ravishda rivojlantirilishi zarur. Mazkur tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlarga tayanadi: Tizimli yondashuv – sun'iy intellekt, til va strategiyani o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilish. Dialektik metod – texnologik modernizatsiya va ijtimoiy birlik o'rtasidagi ziddiyatlarni aniqlash. Kommunikativ yondashuv – raqamli makonda diskurs va muloqotni o'rganish. Aksiologik tahlil – yangi ijtimoiy qadriyatlarni aniqlash.

XXI asr ijtimoiy taraqqiyotining asosiy xususiyati – kommunikativ makonning tubdan o'zgarishidir. Axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt tizimlari insonlar o'rtasidagi muloqotni tezkor, global va ko'p qatlamli shaklga olib chiqdi. Natijada jamiyatning strukturaviy asoslari ham, ijtimoiy ongning shakllanish mexanizmlari ham yangi bosqichga ko'tarildi. Kommunikativ makon – bu jamiyat a'zolarining ma'no almashinuvi, identifikatsiyasi va ijtimoiy o'zaro ta'siri amalga

oshadigan sotsial maydondir. An’anaviy jamiyatda bu makon ko‘proq bevosita muloqot, madaniy institutlar va ommaviy axborot vositalari orqali shakllangan bo‘lsa, raqamli davrda u virtual tarmoqlar va algoritmik tizimlar orqali tashkil etilmoqda. M. Kastellsning “tarmoq jamiyati” konsepsiyasiga ko‘ra, zamonaviy ijtimoiy tuzilma axborot oqimlari asosida quriladi [7]. Bu oqimlar esa sun’iy intellekt algoritmlari yordamida boshqariladi. Bu jarayon uch asosiy transformatsiyani yuzaga keltirdi: Makro darajada – global integratsiya va transmilliy kommunikatsiya. Meso darajada – ijtimoiy institutlarning raqamli platformalarga ko‘chishi. Mikro darajada – individual identifikatsiyaning raqamli shakllanishi. Kommunikativ makon ijtimoiy birlik va ziddiyatlarning yangi maydoniga aylandi. Sun’iy intellekt tizimlari kommunikativ makonda axborotni saralash, tavsiya qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqaradi. Bu esa ijtimoiy diskursning yo‘nalishini belgilaydi. J. Habermas kommunikativ ratsionallik nazariyasida ijtimoiy konsensus ochiq va erkin muloqot orqali shakllanishini ta’kidlaydi [6]. Biroq raqamli makonda muloqot ko‘pincha algoritmik filtrlar orqali tartiblanadi. Algoritmik vositachilik quyidagi xususiyatlarga ega: axborotning shaxsiylashtirilishi; muayyan kontentning ustuvorlashtirilishi; ijtimoiy fikrning modellashtirilishi; raqamli auditoriyaning segmentatsiyasi. Bu jarayon ijtimoiy ongni shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Masalan, ta’lim platformalarida sun’iy intellekt individual o‘quv trayektoriyasini belgilaydi, natijada bilim olish jarayoni samarali va moslashuvchan bo‘ladi. Shu bilan birga, bu jarayon axborot xilma-xilligini cheklashi ehtimoli ham mavjud. N. Bostrom sun’iy intellektning strategik xavflarini tahlil qilar ekan, insoniyatning nazorat va axloqiy me’yorlar masalasiga e’tibor qaratishi zarurligini ta’kidlaydi [3]. Shunday ekan, kommunikativ makonning transformatsiyasi normativ tartibga solishni talab qiladi. Ijtimoiy ong – bu jamiyat a’zolarining umumiy qadriyatlar, e’tiqodlar va ma’naviy tasavvurlar tizimidir. E. Dyurkgeym jamiyat barqarorligini “kollektiv ong” tushunchasi bilan izohlaydi [4]. Raqamli davrda esa kollektiv ong virtual makonda shakllanmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar jamoaviy xotirani saqlaydi; ma’naviy kontentni tarqatadi; ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi; til va madaniyatni raqamli formatda mustahkamlaydi. Biroq bu jarayon ijtimoiy

fragmentatsiyani ham yuzaga keltirishi mumkin. Chunki shaxsiylashtirilgan axborot maydoni “informatsion getto”lar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ma’rifiy texnologiyalar – bu jamiyatni birlashtiruvchi muhim mexanizmdir. Adaptiv o‘qitish tizimlari, til modellari va raqamli kutubxonalar bilimga teng kirish imkonini yaratadi. Bu esa ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlaydi. L. Floridi raqamli muhitni insoniyatning “to‘rtinchi inqilobi” sifatida baholaydi [5]. Uning fikricha, axborot muhiti insonning o‘zini anglash uslubini o‘zgartiradi. Demak, ma’rifiy platformalar nafaqat bilim beradi, balki shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini ham shakllantiradi. Ma’rifiy integratsiyaning asosiy yo‘nalishlari: Raqamli savodxonlikni oshirish; Milliy til asosida kontent yaratish; Yoshlar ongida fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlash; Ochiq va inklyuziv muloqot muhitini shakllantirish. Bu jarayon ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Raqamli makonda esa bu xavflar quyidagicha namoyon bo‘ladi: axborot manipulyatsiyasi; yolg‘on kontent; shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi; madaniy assimilyatsiya. Shunday ekan, sun’iy intellekt asosidagi kommunikativ makonni rivojlantirish bilan birga axloqiy va huquqiy me’yorlarni mustahkamlash zarur. Bu esa strategik rivojlanishning barqarorligini ta’minlaydi. Ikkinchi bobda tahlil qilinganidek, sun’iy intellekt kommunikativ makonni tubdan o‘zgartirmoqda. Bu o‘zgarish ijtimoiy ong, identifikatsiya va integratsiya mexanizmlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida mazkur jarayonni ijobiy yo‘naltirish uchun quyidagi tamoyillar muhim: milliy qadriyatlar asosida raqamli kontent yaratish; kommunikativ ochiqlik va mas’uliyatni uyg‘unlashtirish; raqamli tenglikni ta’minlash; axborot xavfsizligini mustahkamlash.

Raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatni birlashtirish masalasi faqat siyosiy yoki iqtisodiy islohotlar bilan cheklanmaydi. U, avvalo, ma’naviy integratsiya, kommunikativ birdamlik va umumiy qadriyatlar tizimini mustahkamlashni talab qiladi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi raqamli rivojlanish va ijtimoiy hamjihatlikni o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida talqin etadi. Mazkur strategiyada inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va raqamli

infratuzilmani kengaytirish orqali jamiyatni konsolidatsiya qilish maqsadi ilgari surilgan. Sun’iy intellekt asosidagi ma’rifiy texnologiyalar bu jarayonda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Birinchidan, ular bilimga teng va keng kirish imkonini yaratadi. Adaptiv ta’lim platformalari individual o‘quv trayektoriyasini shakllantirib, ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi. Ikkinchidan, sun’iy intellekt til asosida ishlaydigan tizim sifatida milliy identifikatsiya va madaniy xotirani saqlashga xizmat qilishi mumkin. L. Floridi ta’kidlaganidek, raqamli muhit insonning o‘zini anglash jarayonini qayta shakllantiradi. Demak, milliy til va qadriyatlarni raqamli platformalarda mustahkamlash ijtimoiy birlikning muhim shartidir. Jamiyatni birlashtirishning ma’rifiy mexanizmlarini uch yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Birinchisi – kommunikativ ochiqlik. J. Habermas nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy konsensus erkin va asoslangan muloqot orqali shakllanadi. Raqamli makonda bu muloqot sun’iy intellekt vositalari bilan vositachilik qilinadi. Shu bois algoritmik tizimlarning shaffofligi va axloqiy nazorati muhimdir. Ikkinchi yo‘nalish – raqamli savodxonlik va madaniyat. Raqamli tafakkur shakllanmas ekan, texnologiyalar jamiyatni birlashtirish o‘rniga parokandalikka olib kelishi mumkin. Uchinchi yo‘nalish – milliy qadriyatlar va global integratsiya muvozanati. M. Kastells ta’kidlaganidek, tarmoq jamiyati global xususiyatga ega, biroq har bir millat o‘z madaniy identifikatsiyasini saqlab qolishi zarur. Sun’iy intellektning jamiyatga ta’siri aksiologik mezonlarni qayta ko‘rib chiqishni ham talab etadi. U. Bek “xavf jamiyati” konsepsiyasida texnologik rivojlanish bilan birga yangi mas’uliyat shakllanishini qayd etadi [2]. Raqamli tenglik, axborot xavfsizligi va etik nazorat – barqaror ijtimoiy birlikning asosiy shartlaridir. Agar sun’iy intellekt tizimlari adolat, inklyuzivlik va ochiqlik tamoyillari asosida joriy etilsa, ular jamiyatni birlashtiruvchi kuchga aylanadi. Shunday qilib, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida jamiyatni birlashtirishning ma’rifiy mexanizmlari quyidagicha konseptuallashtiriladi: sun’iy intellekt asosidagi ta’lim va kommunikatsiya platformalari; milliy til va madaniyatga mos raqamli kontent; raqamli savodxonlik va etik me’yorlar; ochiq va inklyuziv kommunikativ muhit. Mazkur mexanizmlar uyg‘unlashgan holda yangi ijtimoiy qadriyatlar – mas’uliyat, hamkorlik, raqamli madaniyat va fuqarolik birdamligini shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”. Farmon. – Toshkent, 2023.
2. Beck U. Risk Society: Towards a New Modernity. – London: Sage Publications, 1992. – 260 p.
3. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 352 p.
4. Durkheim E. The Division of Labor in Society / Translated by W. D. Halls. – New York: Free Press, 1997. – 341 p.
5. Floridi L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. – Oxford: Oxford University Press, 2014. – 248 p.
6. Habermas J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society. – Boston: Beacon Press, 1984. – 465 p.
7. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996. – 556 p.

YANGI O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY TRANSFORMATSIYA MODELI

Ametov T.A., Rashidov A.O‘.
Diplomat University

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan siyosiy transformatsiya jarayonining konseptual asoslari hamda uning evolyutsion rivojlanish modeli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatda 2016-yildan boshlab amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning mazmun-mohiyati, ularning milliy davlatchilik an’analari, zamonaviy demokratik tamoyillar va global siyosiy jarayonlar bilan uyg‘unlashuvi yoritiladi. Shuningdek, siyosiy modernizatsiya jarayonida davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish,

fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish hamda jamoatchilik nazoratini institutsional darajada mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, siyosiy transformatsiya, siyosiy modernizatsiya, evolyutsion rivojlanish modeli, demokratik islohotlar, konstitutsiyaviy islohotlar, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvi, siyosiy institutlar, ochiqlik va shaffoflik, raqamli boshqaruv, siyosiy barqarorlik, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.

Hozirgi murakkab geosiyosiy vaziyatda, dunyodagi keskin o‘zgarishlar fonida har bir mamlakat o‘z siyosiy tizimini mustahkamlash va aholining haqiqiy ehtiyojlariga mos boshqaruv shaklini shakllantirish yo‘lida faol harakat qilmoqda. O‘zbekistonning amaliyoti shuni isbotlamoqdaki, siyosiy o‘zgarishlar jarayoni sof G‘arb modellari ustidan ko‘chirib olish emas, aksincha, milliy merosimiz, an’anaviy qadriyatlarimiz bilan zamonaviy demokratik tamoyillarning muvaffaqiyatli birlashuvi asosida rivojlanmoqda. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston” kontseptsiyasi doirasidagi siyosiy transformatsiya “shok terapiyasi” kabi radikal yondashuvlardan voz kechib, asta-sekin, evolyutsion yo‘l tutganligi bilan alohida e’tiborga sazovor. Bu yondashuv nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi, balki xalqimizning ruhiy-psixologik tayyorgarligini ham hisobga olgan holda, uzoq muddatli rivojlanishga zamin yaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi 2016-yildan boshlab o‘z rivojlanish yo‘lida yangi sahifani ochib, siyosiy tizimni chuqur isloh qilish va jamiyat hayotini haqiqiy demokratik asoslarga o‘tkazish bo‘yicha asosiy kontseptsiyalarni aniq belgilab oldi. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy transformatsiyaning boshqa modellardan farqli jihati shundaki, u inqilobiy silkinishlar yoki sun’iy “eskport qilingan” modellar orqali emas, balki bosqichma-bosqich, evolyutsion yo‘l bilan amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda davlatning islohotchi sifatidagi roli saqlanib qolgan holda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik fikrining ahamiyati institutsional darajaga ko‘tarildi. 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya ushbu transformatsiyaning huquqiy va siyosiy poydevorini yanada mustahkamladi. Siyosiy transformatsiya nazariyachi Samuel Huntington ta’riflaganidek, barqaror

demokratlashuv uchun institutlarning moslashuvchanligi muhimdir. O‘zbekiston tajribasida biz ushbu moslashuvchanlikni “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak”-degan g‘oyaning hayotga tatbiq etilishida ko‘rishimiz mumkin. Yangi O‘zbekistondagi siyosiy o‘zgarishlarni tahlil qilsak, bu model shunchaki chetdan ko‘chirib olingan emas, balki bizning milliy davlatchilik tariximiz, yangilangan Konstitutsiyamiz va jahon tan olgan demokratik qoidalarning o‘zaro sintezi natijasida shakllanayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda davlat boshqaruvida ochiqlikning kuchayishi, parlament va mahalliy kengashlar vakolatlarining kengayishi, shuningdek, sud tizimining haqiqiy mustaqilligiga intilish islohotlarning asosiy yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda. Bu yerda eng muhim burilish – barcha o‘zgarishlar markaziga inson qadrining qo‘yilishi va “inson – jamiyat – davlat” zanjirining yangicha ishlashidir.

Shuningdek, ushbu modelda fuqarolik jamiyati va jamoatchilik nazoratining o‘rni ham tubdan o‘zgarmoqda. Oddiy fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol qatnashishi uchun yangi mexanizmlar yaratilayotgani tizimning xalq oldidagi hisobdorligini oshirmoqda. Bizningcha, aynan mana shunday yondashuv mamlakatda siyosiy barqarorlikni saqlab qolish va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan uzoq muddatli maqsadlarga erishishda eng muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston siyosiy transformatsiya modelining konseptual asoslari, uning evolyutsion rivojlanish xususiyatlari hamda siyosiy modernizatsiya jarayonida namoyon bo‘layotgan milliy o‘ziga xos jihatlar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida nazariy yondashuvlar va amaliy islohotlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berilib, mazkur modelning mintaqaviy va global siyosiy jarayonlar bilan o‘zaro aloqasi baholanadi. Siyosiy modernizatsiya jarayonlarining milliy xususiyatlari aniqlanib, Yangi O‘zbekiston modelining klassik tranzitologiya yondashuvlaridan farqli jihatlari ilmiy asosda yoritildi. Davlat hokimiyati va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi institutsional shakllari tahlil qilinib, ularning siyosiy barqarorlik va legitimlikka ta’siri baholandi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi va izchilligi evolyutsion transformatsiya modeli sifatida konseptual jihatdan asoslab berildi. Siyosiy

transformatsiya jarayonida ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining roli alohida ilmiy kategoriya sifatida tadqiq etilib, ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonda siyosiy transformatsiya modelini muvaffaqiyatli amalga oshirish normativ-huquqiy bazani izchil takomillashtirish, davlat boshqaruvida ochiqlik va hisobdorlikni kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini faol qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liq. Siyosiy islohotlarning samaradorligi aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat xizmatchilarining kasbiy salohiyatini oshirish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish orqali ta’minlanadi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruvni rivojlantirish va ilmiy-tahliliy yondashuvlarga tayangan holda qarorlar qabul qilish siyosiy transformatsiyaning barqaror va uzluksiz amalga oshishiga xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur omillar Yangi O‘zbekistonning siyosiy transformatsiya modelini hayotga tatbiq etish va mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu model radikal islohotlardan ko‘ra, bosqichma-bosqich, institutsional barqarorlikni saqlagan holda amalga oshiriladigan evolyutsion yondashuvga asoslangan bo‘lib, konstitutsiyaviy islohotlar, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash va iqtisodiy liberallashtirish kabi asosiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonga xos xususiyatlar – milliy qadriyatlar bilan global standartlarni uyg‘unlashtirish, rahbarlikning markazlashgan lekin shaffof mexanizmlari va raqamli transformatsiya vositalari – modelning samaradorligini ta’minlaydi. Natijada, bu transformatsiya nafaqat siyosiy tizimning modernizatsiyasiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham zamin yaratadi. Kelajakda ushbu modelni takomillashtirish orqali O‘zbekiston Markaziy Osiyoda evolyutsion transformatsiyaning namunaviy namunasi sifatida xalqaro miqyosda e’tirof etilishi mumkin. Maqolada ta’kidlanganidek, Yangi O‘zbekistonning siyosiy transformatsiyasi xalq bilan muloqot, ochiqlik va pragmatizm tamoyillariga asoslangan bo‘lib, bu jarayon mamlakatning barqaror va izchil taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qilmoqda. Siyosiy tizimdagi bu o‘zgarishlar iqtisodiy liberallashtirish va ijtimoiy sohadagi islohotlar bilan uyg‘unlashgan holda, O‘zbekistonning xalqaro maydondagi

mavqeini mustahkamlashga ham hissa qo‘shmoqda. Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning siyosiy transformatsiya modeli o‘ziga xos milliy xususiyatlarni saqlagan holda, global tendensiyalar bilan hamohang rivojlanayotgan, inklyuziv va barqaror siyosiy tizimni shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 464 б.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416-b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 416-b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 112-b.

5. Саидов А. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси – инсон қадрини улуғлаган халқчил бош дастур // Янги Ўзбекистон. – Тошкент, 2022. -№ 19. – 4 б.

6. Хантингтон С. Третья волна. Демократизатsiя в конце XX век. Перевод с англ. – Москва: Российская политическая энцоклопедия (РОССПЭН), 2003. – 368 с.

ZJV5401

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASIDA YOSHLAR SIYOSATI: RADIKALLASHUVNING OLDINI OLISHDA AXBOROT ISTE’MOLI MADANIYATI VA JAMOATCHILIK ISHTIROKI

Nuriddin Qolqanov
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Ergashov Zuhriddinjon,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi “Xalqaro munosabat” 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat yoshlar siyosatining asosiy yo‘nalishlari yoritiladi. Talaba yoshlar orasida radikallashuvning oldini olishda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli axborot muhitida tarqalayotgan yot va radikal g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda ta’lim muassasalari, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari yoshlar siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Radikallashuv, ekstremizm, yoshlar siyosati, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, axborot iste’moli madaniyati, mediasavodxonlik, mafkuraviy immunitet, raqamli axborot muhiti.

So‘nggi yillarda yoshlar orasida radikallashuv va ekstremistik g‘oyalar tarqalishi jiddiy ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlar radikallashuvining oldini olish hamda mazkur jarayonning ijtimoiy salbiy oqibatlarini tahlil qilishdan oldin mazkur tushuncha ta‘rif berib o‘tish maqsadga muvofiq. Radikallashuv tushunchasi ilmiy adabiyotlarda hamda ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda turlicha talqin qilinadi. Mazkur hodisaning radikal xarakterga ega yoki ega emasligini aniqlashda u vujudga

kelayotgan muhit, ijtimoiy-siyosiy sharoit va axborot makoni muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Umumiy ma’noda **radikallashuv** (radikalizm tushunchasi fransuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, *“ildiz”*, *“o‘zak”* mazmunini anglatadi) shaxs yoki ijtimoiy guruhning mavjud siyosiy, ijtimoiy yoxud diniy holatga nisbatan tobora keskin va murosasiz qarashlarni qabul qilishi jarayoni sifatida izohlanadi. Ko‘pgina holatlarda ushbu jarayon ekstremizm va terrorizm kabi xavfli hodisalarning yuzaga kelishiga olib keladi [2]. Shu bilan birga, radikalizm faqat siyosiy yoki ijtimoiy tizimlarga nisbatan emas, balki mavjud madaniy muhitni ham tubdan va keskin o‘zgartirishga qaratilgan qarashlar majmuini o‘zida mujassam etishi mumkin [3]. Keltirilgan ta’riflar shuni ko‘rsatadiki, radikalizmning namoyon bo‘lish shakllari va ko‘rinishlari xilma-xil bo‘lib, u asosan amaldagi ijtimoiy tartibga nisbatan shakllangan keskin munosabatni ifodalaydi.

Hozirgi kunda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat yoshlar siyosati bu tahdidlarni kamaytirish va talaba yoshlarni barqaror, sog‘lom ma’naviy muhitga yo‘naltirishga qaratilgan. Ayniqsa, raqamli axborot makoni va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi yoshlarning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin, shuning uchun axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma’lumotlarga ko‘ra, 2016-yilda internetdan muntazam foydalanadigan aholi soni taxminan 12,1 million kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2019 yilda bu raqam 22,5 milliondan oshgan. Shuningdek, mobil aloqa abonentlarining umumiy soni 22,8 millionga yetib, ularning 16 milliondan ortig‘i uchinchi va to‘rtinchi avlod mobil aloqasidan foydalanmoqda.

O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning taxminan **60 foizi 25 yoshgacha bo‘lgan yoshlar** bo‘lib, bu nafaqat eng faol raqamli foydalanuvchi qatlamini, balki kelajakdagi yetakchilarni ham tashkil etadi. Shu bilan birga, 2025-yil ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 32,7 millionni tashkil etib, bu aholining 89 foizga teng [4].

Yoshlar orasida radikallashuvning oqibatlari nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy muhit va jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, raqamli makonda tarqalayotgan salbiy kontent va yot g‘oyalarga

qarshi axborot iste’moli madaniyati va mediasavodxonlikni shakllantirish muhim vosita hisoblanadi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’biri, yoshlar siyosatida davlatning qat’iy pozitsiyasini ifodalaydi: *“Biz jamiyatimizda har qanday radikallashuvga, yoshlarimiz ongini buzg‘unchi yot g‘oyalar bilan zaharlashga, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishga, ma’rifat o‘rnini jaholat egallashiga yo‘l qo‘ymaymiz”*[5]. Bu jumla bir nechta muhim jihatlarni o‘zida jamlagan. Birinchidan, u yoshlar orasida ekstremistik va radikal g‘oyalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan qat’iy davlat pozitsiyasini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, yoshlar ongini salbiy va manipulyativ axborotdan himoya qilish, ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlash muhimligini ta’kidlaydi. Uchinchi jihat sifatida, diniy qadriyatlarning manipulyatsiya qilinishi va siyosiy maqsadlarda noto‘g‘ri ishlatilishiga qarshi davlatning qat’iy nazariy pozitsiyasi aks ettirilgan. Shu bilan birga, ushbu ibora yoshlarni ma’naviy va intellektual jihatdan rivojlantirish, bilim va ma’rifat asosida jamiyatda barqarorlikni ta’minlashga qaratilganligini ko‘rsatadi.

Xo‘sh, “radikallashuv” hodisasi zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qanday omillar ta’sirida shakllanadi? Ilmiy tadqiqotlarda radikallashuv shaxsning muayyan ijtimoiy muhit ta’sirida mavjud siyosiy, ijtimoiy yoki diniy tartibotlarga nisbatan keskin va murosasiz qarashlarni bosqichma-bosqich qabul qilishi jarayoni sifatida izohlanadi. Xususan, amerikalik siyosatshunos M.Sageman radikallashuvning shakllanishida shaxsning ijtimoiy aloqalari va identifikatsiya inqirozi muhim rol o‘ynashini ta’kidlab, ayniqsa yoshlar orasida bu jarayon norasmiy tarmoqlar orqali tezlashishini qayd etadi [6]. Bu holat radikallashuvning individual xususiyatlardan tashqari ijtimoiy va kommunikativ omillar bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli axborot muhitining kengayishi radikallashuv jarayoniga qanday ta’siri orqali raqamli platformalar radikal g‘oyalarni tezkor, nazoratsiz va keng auditoriyaga yetkazish imkonini beradi. R.Bartlett ijtimoiy tarmoqlar radikal qarashlarning normal hol sifatida qabul qilinishiga xizmat qilishi mumkinligini ta’kidlab, yoshlarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari yetarli

bo‘lmagan sharoitda bunday kontentga nisbatan zaif bo‘lishini ko‘rsatadi [7]. Demak, raqamli axborot makoni radikallashuvni kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Axborot iste’moli madaniyati shaxsning axborotni ongli tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. UNESCO ekspertlarining ta’kidlashicha, axborotga tanqidiy yondashuvni shakllantirish radikal va ekstremistik g‘oyalarning ongga singib ketish ehtimolini kamaytiradi. Shu jihatdan, axborot iste’moli madaniyati yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlovchi muhim ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, yoshlar va umuman jamiyatni radikallashuv jarayoniga tortilishdan himoya qilish maqsadida mamlakatda **tizimli profilaktik** choralar amalga oshirilmoqda. Jumladan, vakolatli davlat organlari tomonidan har yili ekstremistik va radikal mazmundagi taqiqlangan internet saytlari, ijtimoiy tarmoq kanallari hamda audiovizual materiallar ro‘yxati shakllantirilib, keng jamoatchilikka yetkazilmoqda. Ushbu materiallarni tarqatish yoki targ‘ib qilish bilan bog‘liq holatlar aniqlanganda, amaldagi qonunchilik doirasida tegishli choralar ko‘rilmoqda. Bundan tashqari, radikallashuvning mohiyati va mazmunini tushuntirish, yoshlar ongida to‘g‘ri tushuncha va tanqidiy yondashuvni shakllantirish maqsadida **professor-o‘qituvchilar** hamda **soha mutaxassislari** tomonidan ilmiy-ma’rifiy videomateriallar tayyorlanib, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali e’lon qilinmoqda. Mazkur tashabbuslar jamiyatda noto‘g‘ri talqinlarning oldini olish, yoshlarning radikal g‘oyalarga nisbatan ongli va mas’uliyatli munosabatini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda radikal g‘oyalarga adashib qo‘shilib, turli darajada jabrlangan shaxslar bilan ishlashda ijtimoiy reabilitatsiya va profilaktik yondashuv kuchaygani kuzatilmoqda. Ayrim yillarda radikal oqimlar ta’siriga tushgan shaxslarning “nazorat ro‘yxatlari”dan chiqarilishi, ularni jamiyatga qayta moslashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar radikallashuv holatlarining keskinlashib borishini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mutaxassislarning fikricha, aynan 2017-yildan keyingi davrda bu boradagi yondashuvlar o‘zgarib, profilaktika va tushuntirish ishlari ustuvor yo‘nalishga aylangan.

Shuningdek, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va O‘zbekiston milliy universiteti va boshqa oliy ta’lim muassasalarida yoshlar orasida radikallashuvning oldini olish maqsadida tizimli chora-tadbirlar tashkil etilmoqda. Shu jumladan, talaba va magistrlar bilan **maxsus suhbatlar va interaktiv muloqotlar** o‘tkazilib, radikallashuvning salbiy oqibatlari, tanqidiy fikrlash va axborot iste’moli madaniyati mavzulari muhokama qilinmoqda. Bundan tashqari, mazkur oliy ta’lim muassasalarida **“Radikallashuvga qarshi haftaliklar”** tashkil etilib, ilmiy ma’ruzalar, davra suhbatlari va ijtimoiy aksiyalar orqali yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tashabbuslar talabalarning ongli va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, radikal g‘oyalarga nisbatan immunitetini oshirishga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston–2030” strategiyada shuningdek maktab va oliy ta’lim tizimida yoshlarni **ma’naviy-ma’rifiy faoliyatga jalb etish**, ularning ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar ham belgilangan. Ta’lim muassasalarida axborot va madaniyat sohasi bo‘yicha dasturlarni kengaytirish, yoshlarni kitobxonlik, ilmiy va sog‘lom turmush tarzi yo‘nalishlarida qo‘llab-quvvatlash orqali yoshlarning noto‘g‘ri axborot ta’siriga nisbatan chidamliligini oshirish moddalariga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa radikal g‘oyalarga qarshi **mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga xizmat qiladigan ijtimoiy mexanizm sifatida ko‘riladi**.

Bundan tashqari, strategiya doirasida yoshlarning ijtimoiy himoyasi, bandligi va ma’naviy-axloqiy tarbiyasini ta’minlash orqali radikallashuv imkoniyatlarini kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ko‘zda tutilgan. Iqtisodiy barqarorlik, yoshlar bandligini oshirish va ularning ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash radikal g‘oyalarga qarshi kompleks kurashning muhim omillaridan biri sifatida strategiyada aks ettirilgan. Mutaxassislar fikricha, shu kabi keng qamrovli ijtimoiy va iqtisodiy yondashuvlar **ekstremistik va radikal ideologiyalar oldini olishning samarali mexanizmlarini yaratadi**.

Radikallashuvning oldini olishda ommaviy axborot vositalari va ta’lim tizimi muhim vositalardan biri sifatida ko‘riladi. Shu maqsadda, televideniye platformalarida **yoshlar uchun qisqa videoroliklar** tayyorlanib, radikal g‘oyalarning salbiy oqibatlari va ijobiy axborotlar targ‘ib qilinishi tavsiya etiladi. Bu video-materiallar yoshlarning tanqidiy fikrlashini rag‘batlantirish va radikallashuvga qarshi ongli yondashuvni shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi tadqiqotlar natijasida quydagi takliflarni keltirib o‘tmoqchimiz:

- maktab ta’limida ham radikallashuvga qarshi profilaktika strategiyasi qo‘llanilishi lozim.
- **Boshlang‘ich sinflarda** diniy ma’lumotlar va axloqiy qadriyatlar **ertaklar va hikoyalar asosida** yetkazilishi yoshlarning tushunishini osonlashtiradi va ijobiy ma’naviy qadriyatlarni shakllantiradi.
- **O‘rta va yuqori sinflarda** esa tarix darsliklari bilan uyg‘unlashtirilgan holda, islom tarixi va uning jamiyat rivojiga qo‘shgan hissasi mavzulari kiritilishi tavsiya etiladi.
- Bu yondashuv nafaqat ilmiy ma’lumot berish, balki yoshlarni tarixiy va diniy kontekstda radikalizm xavfidan xabardor qilish imkonini yaratadi.

Mazkur profilaktik ishlarni amalga oshirishda maktab ma’muriyati va o‘qituvchilarining faolligi ustuvor ahamiyatga ega. Shu maqsadda, maktab direktorlari va o‘qituvchilari yiliga kamida ikki marta mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan ilmiy-amaliy trening va mahorat darslarida ishtirok etishi tavsiya etiladi. Ushbu faoliyat, o‘qituvchilarning radikallashuvga qarshi metodik kompetensiyasini oshirish, dars jarayonida samarali profilaktika ishlarini amalga oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, televideniye, ta’lim dasturi va o‘qituvchilar malakasini oshirish orqali radikallashuvning oldini olishda tizimli, kompleks va samarali yondashuv ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, radikallashuvga qarshi samarali kurash faqatgina alohida institutlar faoliyati bilangina emas, balki jamiyatning barcha bo‘g‘inlari – davlat organlari, ta’lim muassasalari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorlikdagi sa’y-harakatlari

orqali ta’minlanadi. Ayniqsa, yoshlarning sog‘lom dunyoqarashini shakllantirishda oilaning o‘rni ustuvor ahamiyat kasb etadi. Barqaror va sog‘lom oilaviy muhitda tarbiyalangan shaxslar radikal va ekstremistik g‘oyalarning salbiy ta’siriga kamroq moyil bo‘lishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Shu bois, radikallashuvning oldini olish jarayonida oilaviy tarbiya, ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish sog‘lom va barqaror kelajakni ta’minlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Schmid A. P. Radicalisation, de-radicalisation, counter-radicalisation: A conceptual discussion and literature review //ICCT research paper. – 2013. – T. 97. – №. 1. – C. 22.
2. Borum R. Radicalization into violent extremism I: A review of social science theories //Journal of strategic security. – 2011. – T. 4. – №. 4. – C. 7-36.
3. Радикализм // Большой толковый словарь русского языка. Гл. ред. С. А. Кузнецов. Первое издание: СПб.: Норинт, 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasi//*2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi*. https://regulation.gov.uz/
5. «Маърифат ўрнини радикаллашув ва жаҳолат эгаллашига йўл қўймаймиз»президент. https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/20/extremism/
6. Sageman M. *Understanding Terror Networks*. — Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2004. — 208 p.
7. Bartlett J. *The Dark Net: Inside the Digital Underworld*. — London: Melville House Publishing, 2014. — 320 p.

YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA JAMIYAT BIRDAMLIGINI MUSTAHKAMLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Xolbekov Berdimurod Kazakbayevich
Islom Sivilizasiyasi
Markazi xodimi

Annotatsiya Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va jamiyat birdamligini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda jamiyat taraqqiyoti, modernizatsiya, transformatsiya va ijtimoiy konsolidatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyati ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan. Shuningdek, jamiyat barqarorligini ta’minlashda davlat siyosatining o‘rni, ijtimoiy institutlar faoliyati hamda ijtimoiy adolat, tenglik va hamjihatlik tamoyillarining ahamiyati ochib berilgan. Maqolada ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholanib, uning jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish va barqaror rivojlanishni ta’minlashdagi roli ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar ijtimoiy konsolidatsiya, jamiyat birdamligi, ijtimoiy barqarorlik, milliy taraqqiyot, modernizatsiya, ijtimoiy tengsizlik, ijtimoiy adolat, jamiyat transformatsiyasi, ijtimoiy institutlar, barqaror rivojlanish.

Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida milliy taraqqiyot masalalariga oid muammolarni xolisona hal etish nafaqat davlat siyosatining muhim tamoyillaridan biri sifatida qaraladi, balki amalga oshirilayotgan islohotlarning natijadorligini belgilovchi omillarni hisobga olishni ham talab etadi. Negaki, “milliy taraqqiyot”, “jamiyat yuksalishi”, “jamiyat transformatsiyasi”, “jamiyat boshqaruvini modernizatsiyalash jarayoni” hamda “jamiyat konsolidatsiyasi” kabi ijtimoiy-falsafiy tushunchalar tizimi ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilishi zarur bo‘lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida ta’kidlanganidek, “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi” [1.7.]. Mazkur tamoyil jamiyat barqarorligini ta’minlash bevosita jamiyatdagi konsolidatsiya jarayonining qanchalik darajada shakllanganiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Ta’kidlash lozimki, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida siyosiy, ijtimoiy va madaniy tuzumlarning o‘zgarishi ko‘pincha avlodlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunday jarayonlar esa jamiyatdagi konsolidatsiya jarayonining murakkab va ko‘p qirrali xususiyatga ega ekanligini namoyon etadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, har bir mamlakatda modernizatsiya jarayoni jamiyatning ustuvor sohalarida chuqur islohotlarni amalga oshirishni talab etadi. Natijada jamiyatda an’anaviy qarashlardan bosqichma-bosqich voz kechish, eskilik qoldiqlariga barham berish hamda evolyutsion ijobiy o‘zgarishlar asosida transformatsiya jarayonlari yuz beradi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat hayotining muhim jabhalarida konsolidatsiya jarayonining kuchayishiga olib keladi. Jumladan, ta’limning keng tarqalishi, kasbiy mahoratning ortishi, intellektual kasb institutlarining shakllanishi, ommaviy kommunikatsiyaning rivojlanishi, kengayib borayotgan ijtimoiy makonga moslashuvchi yangi individual odatlar va qiziqishlarning paydo bo‘lishi, fan va texnikaga bo‘lgan ishonchning ortishi hamda inson qadr-qimmatiga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi kabi omillar jamiyatdagi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi [2.14.].

Barqarorlik tushunchasi jamiyatdagi tinchlik, hamjihatlik va ijtimoiy kelishuvning mavjudligini anglatadi. U ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuchlar va jamoat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik, davlat hamda fuqarolar o‘rtasidagi ijtimoiy kelishuvning uzluksiz davom etishini ifodalaydi [3.89.]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyat birdamligi va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etishning ijtimoiy-falsafiy omillari sifatida konsolidatsiya jarayonining ahamiyati jamiyat barqarorligida namoyon bo‘ladi.

G‘arb olimlari R. Darendorf va A. Kozerning fikriga ko‘ra, “haqiqiy barqarorlik mutlaq holat emas, balki u muayyan beqarorlikdan keyingi yoki yangi beqarorlik oldidan yuzaga keladigan ijtimoiy holatdir” [4.41.]. Bu fikr jamiyatdagi barqarorlikning dinamik tabiatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bunga qarama-qarshi tarzda T. Parsons ijtimoiy tizim barqarorligining nazariy asoslarini ishlab chiqishga harakat qilgan. Uning fikricha, har qanday barqaror jamiyatda ijtimoiy tuzilmani tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro uyg‘un faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu uyg‘unlik ijtimoiy tizim barqarorligining asosiy omili hisoblanadi.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida amalga oshirilayotgan “Harakatlar strategiyasi” hamda “Taraqqiyot strategiyasi” doirasidagi ustuvor yo‘nalishlar jamiyat konsolidatsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, mamlakatning jahon hamjamiyatiga tobora chuqur integratsiyalashuvi, xalqning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashga intilishi moddiy-iqtisodiy omillar bilan bir qatorda ma’naviy omillarni ham rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlarida xalq bilan muloqotning turli shakllari va vositalari – Xalq qabulxonalari, Virtual qabulxonalar, Bosh vazir qabulxonasi, mas’ul rahbarlarning mahalliy kengashlar oldidagi hisobotlari, sayyor qabullar hamda hududlarda aholining turmush sharoitlarini o‘rganishga qaratilgan amaliy mexanizmlar keng qo‘llanilmoqda. Mazkur mexanizmlar milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash bilan bir qatorda jamiyat konsolidatsiyasining amaliy asoslarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Milliy yuksalish konsepsiyasi doirasida ilgari surilgan “Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqga xizmat qilishi kerak”, “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun”, “Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”, “Adolat – qonun ustuvorligida”, “Ma’naviyat bo‘lmagan joyda adolat bo‘lmaydi” kabi tamoyillar jamiyatda ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan g‘oyaviy asos sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda “konsolidatsiya” tushunchasi (lotincha *con* – birga, *solido* – mustahkamlash) turli shaxslar, ijtimoiy guruhlar va tashkilotlarning birlashishi, o‘zaro hamkorligi va jipslashuvi jarayonini

anglatadi [5.5.]. Ijtimoiy konsolidatsiya nazariyasida ushbu tushuncha jamiyatdagi ijtimoiy birlikni mustahkamlash, ijtimoiy hamjamiyatning jipslashuvi hamda ijtimoiy tizimning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi jarayon sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqotchilar V.V. Lokosov va V.P. Shulsning fikriga ko‘ra, “konsolidatsiya” tushunchasi ikki muhim semantik tarkibni – ijtimoiy tizim tuzilmalarining obyektiv integratsiyalashuvi hamda insonlarning kundalik hayotidagi subyektiv birdamlik qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu sababli konsolidatsiya jarayonini o‘rganish ko‘p bosqichli va murakkab ilmiy muammo sifatida qaraladi [6.168.].

Ijtimoiy nazariya klassiklarining qarashlarida ham konsolidatsiya yoki ijtimoiy birdamlik masalasi muhim o‘rin tutadi. Masalan, O. Kont jamiyatdagi birdamlikni inson mehnatining turli shakllarini taqsimlash jarayoni bilan bog‘laydi va bu jarayonda oilaning ijtimoiy institut sifatidagi rolini alohida ta’kidlaydi. Emil Dyurkgeym esa ijtimoiy birdamlikning mexanik va organik shakllari haqidagi nazariyasini ishlab chiqib, jamiyat taraqqiyoti davomida mehnat taqsimotining murakkablashuvi ijtimoiy munosabatlarning yangi shakllarini vujudga keltirishini asoslab bergan [7.101.].

Shu bilan birga, ijtimoiy tengsizlik har qanday jamiyatning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. U jamiyat taraqqiyotiga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, ijtimoiy tengsizlik jamiyat rivojiga turtki beruvchi omil sifatida namoyon bo‘lib, shaxsiy rivojlanish va raqobat muhitini kuchaytiradi. Ikkinchi tomondan esa u ijtimoiy adolatsizlik va imkoniyatlar tengsizligi haqidagi tasavvurlarni kuchaytirib, ziddiyatlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta’minlash ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy tenglikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy tenglik insoniyat tarixida adolatga bo‘lgan intilishning muhim ifodasi sifatida namoyon bo‘lgan. Biroq tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mutlaq tenglikka erishish amalda mumkin emas. Insonlarning tabiiy qobiliyatlari, ijtimoiy mavqei, mehnat unumdorligi va imkoniyatlaridagi farqlar jamiyatda muayyan darajadagi tengsizlikni yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy jamiyat rivojida asosiy vazifa

tengsizlikni mutlaqo yo‘q qilish emas, balki uning salbiy oqibatlarini kamaytirish hamda ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston”. 2023.
2. Amonov B. A. Jamiyatni modernizatsiyalash konseptual modellarining siyosiy-falsafiy tahlili. Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2019.
3. Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati.// Q. Nazarov va b. – Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2021.
4. *Darendorf R. Sovremennыy sotsialnыy konflikt: ocherk politiki svobodы. Moskva. 2002.*
5. Alcock P., May M. and Wright Sh. “Social Policy”. 2012. John Wiley & Sons Ltd.
6. Lokosov V.V., Shuls V.P. Osnovaniya konsolidatsii obщestva (Sotsiologicheskiye aspektы). Moskva.RIS ISPI RN, 2008.
7. Dyurkgeym, E. O razdelenii obщestvennogo truda / E. Dyurkgeym. - Moskva. Kanon,

YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEDIAOLAM O‘RNI VA AHAMIYATI

Xayitmurodov Ilxom Xolturayevich,
Respublika Ma’naviyat va
ma’rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy
tadqiqotlar instituti Mustaqil
tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli media makoni sharoitida yoshlarning mediasavodxonligini shakllantirish hamda milliy kontentni rivojlantirish masalalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar yoshlar dunyoqarashi, axborot iste’moli madaniyati hamda ijtimoiy ong shakllanishida muhim omilga aylanmoqda. Shu bilan birga, global media makonida turli mafkuraviy ta’sirlar, manipulyativ axborotlar va yot g‘oyalar ham keng tarqalmoqda. Mazkur sharoitda yoshlarning mediasavodxonligini oshirish, ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlar asosida sifatli milliy kontent yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Maqolada media va axborot savodxonligining nazariy asoslari, milliy kontentning jamiyat ma’naviy hayotidagi o‘rni hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, raqamli media muhitida milliy axborot makonini mustahkamlash, yoshlarning axborot madaniyatini rivojlantirish va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish bo‘yicha ilmiy xulosalar va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli media makoni, mediasavodxonlik, milliy kontent, axborot madaniyati, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, media va axborot savodxonligi, global axborot makoni.

Hozirgi davrga kelib ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotidagi o‘rni nihoyatda ortib borayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Bugungi kunda ular

ko‘plab insonlar uchun nafaqat axborot almashish vositasi, balki kundalik hayotning ajralmas qismiga, ma’lum ma’noda ikkinchi oilaga, muloqot maydoniga hamda shaxsiy identifikatsiya vositasiga aylanib bormoqda. Shu bois zamonaviy axborot makonida mediaolam, kontent, milliy kontent hamda mediasavodxonlik kabi tushunchalar tez-tez uchramoqda. Mazkur atamalarning mazmun-mohiyatini anglash esa bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mediasavodxonlik deganda ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan axborotni tanqidiy qabul qilish, uni tahlil qilish, saralash hamda mazkur axborotning manbai, maqsadi va unda aks etayotgan manfaatlarni anglash qobiliyati tushuniladi. Boshqacha aytganda, mediasavodxonlik shaxsning turli axborot oqimlari ichida to‘g‘ri yo‘l topa olishi, ularni baholashi va muayyan vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishiga xizmat qiluvchi muhim kompetensiya hisoblanadi.

Kontent tushunchasi esa axborotni ifodalash va tarqatishning turli shakllarini o‘z ichiga oladi. U nutq, matn, tasvir, audio yoki boshqa san’at shakllari orqali ifodalanib, axborotni auditoriyaga yetkazish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Kontent mazmuniga ko‘ra siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, ta’limiy yoki ko‘ngilochar yo‘nalishlarda bo‘lishi mumkin.

Milliy kontent esa mazkur axborot shaklining milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy meros bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishini anglatadi. Bunday kontent jamiyatning milliy manfaatlarini aks ettirishi, mamlakat hayoti va undagi voqea-hodisalarni xolisona yoritishi bilan ajralib turadi.

Mediaolam tushunchasi esa insonni o‘rab turgan keng qamrovli axborot makonini anglatadi. U zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali shakllanib, real voqelikning ma’lum darajadagi aksini ifodalaydi.

Mazkur tushunchalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning barchasi zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, media makonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Material va metodlar

Bugungi kunda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, milliy kontent yaratish hamda ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur

tadqiqotlarda zamonaviy didaktik vositalar yordamida media muhitidan samarali foydalanish, milliy kontent yaratish jarayonlarini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, yoshlar ma’naviy kamolotida ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni ham alohida o‘rganilmoqda. Muammoni tahlil qilish jarayonida mamlakatimiz va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan metodologik yondashuvlar, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tajribasi hamda ularning tarbiyaviy ahamiyati konseptual asos sifatida ko‘rib chiqildi.

Natijalar va ularning tahlili

Media va axborot savodxonligi tushunchalari tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ushbu atamalar nisbatan yaqinda ilmiy muomalaga kirib kelganini ko‘rish mumkin. Xususan, 2007-yilda UNESCO tomonidan media va axborot savodxonligi tushunchasi keng qamrovli konsepsiya sifatida taklif etilgan bo‘lib, u axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va undan foydalanish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bu tushuncha raqamli savodxonlik va texnologik kompetensiyalarni ham qamrab oladi.

Bugungi axborotlashgan jamiyatda zamonaviy texnologiyalar hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Hatto maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilari ham mobil qurilmalar va internet imkoniyatlaridan tez o‘zlashtirish orqali foydalanishni o‘rganib bormoqda. Jamiyatning turli qatlamlari orasida internetdan foydalanish darajasi ortib borayotgani esa kelajak hayotni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish mushkul ekanligini ko‘rsatadi.

Albatta, zamonaviy texnologiyalar ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda muayyan xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Biroq ularni to‘liq inkor etish yoki yoshlarga salbiy jihat sifatida ko‘rsatish ham to‘g‘ri emas. Muhimi, ulardan foydalanishda me’yor tamoyiliga amal qilishdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ham aynan shu muvozanat muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari qatorida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

Birinchidan, ular muloqot va axborot izlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, axborot almashish jarayonini tezlashtiradi va

turli ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi. Uchinchidan, ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy rivojlanish va o‘zini o‘zi takomillashtirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, bugungi kunda turli kasb-hunar, til o‘rganish, dasturlash, iqtisodiyot, psixologiya kabi sohalarda ko‘plab bepul onlayn darslar mavjud. Shuningdek, turmushda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham internet orqali oson o‘rganish mumkin. Bu esa ijtimoiy tarmoqlarni arzon va qulay ta’lim manbai sifatida namoyon etadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar ilm tarqatish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Turli soha mutaxassislari o‘z bilim va tajribalarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bundan tashqari, elektron tijorat rivojlanib borayotgan zamonaviy iqtisodiyotda ijtimoiy tarmoqlar biznes yuritishda ham muhim vositaga aylanmoqda.

Biroq virtual makonning salbiy jihatlari ham mavjud. Ulardan biri ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish natijasida vaqtning samarasiz sarflanishidir. Bu esa sog‘liq, ma’naviy rivojlanish hamda ijtimoiy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ana shunday sharoitda milliy kontent yaratish zarurati yanada ortib bormoqda. Milliy kontent deganda milliy qadriyatlar va madaniy an’analar asosida yaratilgan, jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan axborot mahsulotlari tushuniladi. Agar milliy kontent yetarli darajada rivojlanmasa, jamiyat chetdan kirib kelayotgan axborot oqimiga qaram bo‘lib qolishi mumkin.

Bugungi kunda axborot makonining jadal rivojlanishi sharoitida mediasavodxonlikni rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Media va axborot savodxonligi insonning axborotni olish, tahlil qilish, baholash hamda uni yaratish jarayonlarida faol ishtirok etishini ta’minlaydigan muhim kompetensiyalar majmui hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mediasavodxonlikni rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda ham dolzarb mavzuga aylangan. Xususan, UNESCO tashabbusi bilan har yili Media va axborot savodxonligi haftaligi o‘tkazilib, yoshlarning ushbu jarayonda faol ishtirok etishi rag‘batlantirilmoqda.

Xulosa

Umuman olganda, zamonaviy media makonining ta’siri har bir inson va jamiyat hayotida tobora ortib bormoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu bilan birga, yoshlarni axborot tahdidlari va mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli milliy qadriyatlar asosida sifatli milliy kontent yaratish, yoshlar ongida vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash hamda ularning mediasavodxonligini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi..

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Nazarov K. G‘oyalar falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2011.
4. Bozorov O. Milliy g‘oya va targ‘ibot samaradorligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
5. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
6. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 2003.
7. UNESCO. Media and Information Literacy Curriculum for Teachers. – Paris: UNESCO, 2011.
8. Ionin L.G. Sotsiologiya kultury. – Moskva: Logos, 2009.

O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TASHQI VA ICHKI MIGRATSIYA JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI JAMIYATNI BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI

Bahriddinova Muazzam Azam qizi
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida tashqi va ichki migratsiya jarayonlarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy birlikni ta’minlash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsiya jarayonlarining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy, madaniy hamda ma’naviy jihatlari ham yoritib berilgan. Tashqi va ichki migratsiya oqimlari sharoitida aholining ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, jamiyatda ijtimoiy birlikni mustahkamlash hamda umumiy qadriyatlarni targ‘ib etishda ta’lim texnologiyalarining o‘rni asoslab berilgan. Ilmiy tahlil natijalariga ko‘ra, migratsiya jarayonlarini kompleks yondashuv asosida boshqarish va ta’lim texnologiyalarini keng joriy etish jamiyatda ijtimoiy birlikni mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlangan. Xulosa qismida tashqi va ichki migratsiya jarayonlarini ijtimoiy birlik omiliga aylantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi migratsiya, ichki migratsiya, ijtimoiy birlik, ta’lim texnologiyalari, ijtimoiy moslashuv, inson kapitali, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy barqarorlik, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi.

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya sharoitida migratsiya jarayonlari jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Tashqi va ichki migratsiya oqimlari nafaqat mehnat bozoridagi muvozanatni, balki jamiyatning ijtimoiy birligi, madaniy yaxlitligi va ma’naviy barqarorligini ham shakllantiruvchi omil

sifatida namoyon bo‘lmoqda [8]. Aholining hududlararo va xalqaro harakatchanligi kuchaygan sharoitda migratsiya jarayonlarini alohida emas, balki yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish zarurati ortib bormoqda [6].

O‘zbekiston - 2030 strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlarda inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va jamiyat birligini mustahkamlash asosiy vazifalar sifatida e’tirof etiladi [12]. Mazkur strategik maqsadlar sharoitida tashqi va ichki migratsiya jarayonlarini boshqarish faqat iqtisodiy mexanizmlar bilan cheklanib qolmasdan, balki ma’rifiy va ijtimoiy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda amalga oshirilishi lozim. Chunki migratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi shaxslar nafaqat mehnat resurslari, balki jamiyatning madaniy va ma’naviy tarkibiy qismi hisoblanadi [4].

Amaliy va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tashqi migratsiyadan qaytgan fuqarolar hamda ichki migratsiya orqali hududini o‘zgartirgan shaxslar ko‘pincha ijtimoiy moslashuv muammolariga duch keladi [3]. Bu muammolar nafaqat bandlik bilan, balki yangi ijtimoiy muhitga kirishish, mahalliy jamoalar bilan integratsiyalashuv va umumiy qadriyatlarga moslashish jarayonlarida ham namoyon bo‘ladi. Agar ushbu jarayonlar tizimli ravishda boshqarilmasa, jamiyat ichida ijtimoiy parokandalik, begonalashuv va ishonchsizlik holatlari yuzaga kelishi mumkin [9].

Shu nuqtai nazardan, migratsiya jarayonlarini jamiyatni birlashtirish omiliga aylantirishda ma’rifiy texnologiyalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda ma’rifiy texnologiyalar shaxsning ijtimoiy ongini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash hamda fuqarolik mas’uliyatini oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar majmui sifatida talqin etiladi [5]. Ular orqali tashqi va ichki migratsiya jarayonlarida ishtirok etayotgan aholining jamiyatga moslashuvi tezlashadi va ijtimoiy birlik mustahkamlanadi.

Ma’rifiy texnologiyalarni migratsiya jarayonlariga integratsiyalash orqali aholi harakatchanligining salbiy ijtimoiy oqibatlarini yumshatish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, migratsiya jarayonida shakllanadigan yangi ijtimoiy muhitda shaxsning o‘zini jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida his etishi barqaror ijtimoiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi [7]. Bu holat faqat iqtisodiy rag‘batlar bilan emas, balki

ma’naviy-ma’rifiy yondashuvlar orqali ta’minlanadi. Natijada migratsiya jamiyatni bo‘luvchi emas, balki birlashtiruvchi omilga aylanadi [1].

Tashqi va ichki migratsiya jarayonlarini integratsiyalashgan holda boshqarish jamiyatda ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, migratsiya oqimlarini yagona ijtimoiy tizim sifatida boshqarish orqali hududlararo ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish va jamiyatda umumiy maqsadlar atrofida birlashuvni kuchaytirish mumkin [2]. Bu jarayonda ma’rifiy texnologiyalar aholi o‘rtasida ijtimoiy birdamlik va o‘zaro mas’uliyat hissini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi [10]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston – 2030 strategiyasida belgilangan ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadlariga to‘liq mos keladi [12].

O‘tkazilgan ilmiy tahlil tashqi va ichki migratsiya jarayonlarining jamiyat birligi va ijtimoiy barqarorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi kompleks hodisa ekanligini ko‘rsatdi. Migratsiya oqimlarini alohida boshqarish mavjud ijtimoiy muammolarni chuqurlashtirishi, ularni integratsiyalashgan holda boshqarish esa migratsiyaning ijtimoiy salohiyatini ochib berishi aniqlandi. Jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy farqlanish va moslashuv muammolarini yumshatishda migratsiya jarayonlarini birlashtiruvchi omilga aylantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashqi migratsiyadan qaytgan shaxslar hamda ichki migratsiya orqali yashash hududini o‘zgartirgan fuqarolar ko‘pincha iqtisodiy moslashuv bilan bir qatorda ijtimoiy va ma’naviy moslashuv muammolariga ham duch kelmoqda. Mazkur holat bandlik, ijtimoiy muhitga moslashish va jamoaga qo‘shilish jarayonlarida qiyinchiliklar tug‘diradi. Ushbu muammolarni faqat iqtisodiy mexanizmlar orqali hal etish yetarli emasligi aniqlanib, ma’rifiy yondashuvlar muhim vosita sifatida namoyon bo‘ldi.

Ilmiy tahlil asosida ma’rifiy texnologiyalar tashqi va ichki migratsiya jarayonlarining ijtimoiy salbiy oqibatlarini yumshatish, aholi o‘rtasida o‘zaro ishonch va birdamlikni mustahkamlash hamda jamiyatda umumiy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilishi asoslandi. Mazkur texnologiyalar migratsiya jarayonida ishtirok etayotgan shaxslarning

jamiyatga moslashuvini tezlashtirib, ularni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Birinchidan, tashqi va ichki migratsiya jarayonlarini yagona ijtimoiy tizim sifatida qamrab oluvchi integratsiyalashgan boshqaruv yondashuvini shakllantirish zarur. Bu yondashuv migratsiyani faqat demografik yoki iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi omil sifatida baholash imkonini beradi. Ikkinchidan, migratsiya jarayonida ishtirok etayotgan aholi qatlamlari uchun ijtimoiy moslashuvga yo‘naltirilgan ma’rifiy dasturlarni ishlab chiqish va ularni hududiy xususiyatlardan kelib chiqib joriy etish lozim. Uchinchidan, jamiyatni birlashtirishga qaratilgan ma’rifiy texnologiyalarni raqamli platformalar orqali keng joriy etish orqali aholining turli qatlamlari o‘rtasida muloqot va o‘zaro tushunishni kuchaytirish maqsadga muvofiq. To‘rtinchidan, migratsiya jarayonlarining jamiyat birligiga ta’sirini baholovchi ijtimoiy indikatorlar tizimini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash migratsiya siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur takliflarning izchil amalga oshirilishi tashqi va ichki migratsiya jarayonlarining jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni mustahkamlovchi omilga aylanishiga zamin yaratadi hamda “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan inson kapitalini rivojlantirish va jamiyat birligini mustahkamlashga qaratilgan ustuvor vazifalarning samarali ijrosini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Durkheim, É. The Division of Labour in Society. — New York: Free Press, 1997. — 352 p.

2. Castles, S., de Haas, H., Miller, M. J. The Age of Migration: International Population Movements in the Modern World. — 6th ed. — London: Palgrave Macmillan, 2020. — 401 p.

3. International Organization for Migration (IOM). World Migration Report 2022. — Geneva: IOM, 2022. — 292 p.

4. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2020: The Next Frontier – Human Development and the Anthropocene. — New York: UNDP, 2020. — 384 p.

5. Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. — New York: Continuum, 2000. — 197 p.

6. Dustmann, C., Weiss, Y. Return Migration: Theory and Empirical Evidence // British Journal of Industrial Relations. — 2007. — Vol. 45, No. 2. — P. 236–256.

7. Putnam, R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. — New York: Simon & Schuster, 2000. — 541 p.

8. Massey, D. S., Arango, J., Hugo, G., Kouaouci, A., Pellegrino, A., Taylor, J. E. Theories of International Migration: A Review and Appraisal // Population and Development Review. — 1993. — Vol. 19, No. 3. — P. 431–466.

9. Bauman, Z. Globalization: The Human Consequences. — New York: Columbia University Press, 1998. — 148 p.

10. World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. — Washington, DC: World Bank, 2019. — 151 p.

11. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. — Paris: UNESCO, 2017. — 62 p.

12. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. — O‘zbekiston Respublikasi rasmiy strategik hujjati. — Toshkent, 2023.

ZJV5401

СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН – 2030» И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО ОБЪЕДИНЕНИЯ НАШИХ НАРОДОВ

Омонова Зарнигор Туражон кизи,
Научный сотрудник
Наманганского педагогического
института

Аннотатsiя: В статье рассматривается стратегическая программа «Узбекистан – 2030» и её связь с развитием образовательных технологий как ключевого фактора устойчивого прогресса и межнатsионального единства. Особое внимание уделяется роли образовательных технологий в обеспечении равного доступа к качественному обучению, внедрению международных стандартов и формированию навыков будущего.

Ключевые слова: Стратегия «Узбекистан – 2030», модернизатsiя, образования, технология, цифровые технологии, молодёжь, цифровые ресурсы, программа «Цифровой Узбекистан 2030», инноватsii.

Принятая по инициативе Шавкат Мирзиеёв Стратегия «Узбекистан – 2030» отражает стремление страны к масштабной модернизатsii всех сфер общественной жизни, в том числе системы образования. В условиях стремительного развития технологий и глобализатsii особое значение приобретает внедрение инноватsионных подходов к обучению, формирование цифровых компетенций и создание современной образовательной среды, отвечающей требованиям XXI века. Стратегия «Узбекистан – 2030» акцентирует внимание на необходимости интегратsii современных методик и технологий в образовательный процесс, что включает использование цифровых ресурсов, интерактивных методов обучения и междисциплинарного подхода. Это позволяет сделать изучение истории более увлекательным и доступным, а также способствует

глубинному пониманию и осмыслению исторических процессов. Современные informatsionные технологии необходимо внедрить на всех этапах системы образования и завершить разработку программы «Цифровой Узбекистан 2030» – отметил президент Шавкат Мирзиеёв [1].

Стратегия также служит целям реализatsii воли нашего народа по созданию свободного и процветающего, сильного Нового Узбекистана, предоставление каждому гражданину всех возможностей для развития своего потенциала, воспитание здорового, образованного и духовно совершенного поколения, формирование сильной экономики, ставшей важным звеном мирового производства, гарантированное обеспечение справедливости, верховенства закона, безопасности и стабильности [3].

Стратегией «Узбекистан – 2030», (от 11.09.2023 г.) определены приоритетные направления, цели развития страны на среднесрочную перспективу, а также показатели эффективности их достижения. Для обеспечения ее гармонизatsii с современными общемировыми тенденциями, глобальными изменениями и новыми вызовами документом определена необходимость:

установления в рамках Стратегии «Узбекистан – 2030» показателей эффективности, соответствующих реальным условиям, поддающихся измерению и оценке, с учетом достигнутых успехов и существующих проблем;

обновления показателей эффективности целей на среднесрочную перспективу;

полной цифровизatsii мониторинга достижения целей Стратегии»;

гармонизatsii документов стратегического планирования по развитию сфер, отраслей и регионов со Стратегией «Узбекистан – 2030»

Утверждены:

Стратегия «Узбекистан – 2030» на 2026–2030 годы, обновленная на основе достигнутых в 2023–2025 годах показателей эффективности и результатов проведенной оценки;

источники информatsii формирования показателей эффективности целей Стратегии «Узбекистан – 2030»;

состав Республиканской комиссии по реализatsii Стратегии «Узбекистан – 2030» [2].

Молодёжь рассматривается как ключевая опора стратегического развития. В условиях, когда значительная часть населения нашей страны состоит из молодых людей, особое значение приобретает поддержка их образования, трудоустройства, предпринимательской инициативы и активной гражданской позиции. Всё это является важнейшим фактором обеспечения устойчивого развития государства и общества.

В Стратегии «Узбекистан – 2030» определены такие задачи, как повышение интеллектуального потенциала юношей и девушек, создание условий для овладения современными знаниями и профессиями, а также поддержка освоения ими цифровых технологий. В Государственной программе особое место отведено расширению доступа молодежи к качественному образованию. Совершенствуется система поддержки одаренной молодежи, включая выделение грантов и стипендий для участия в международных олимпиадах и обучения в престижных образовательных учреждениях. Эти меры способствуют росту интеллектуального капитала страны [4].

Стратегия «Узбекистан – 2030» направлена на формирование справедливого общества через модернизatsiю системы образования, цифровизatsiю и укрепление межнatsионального согласия. В этом процессе ключевую роль играют образовательные технологии (EdTech), которые обеспечивают равный доступ к качественному обучению, внедряют международные стандарты и развивают навыки будущего. Такой подход способствует объединению народов на основе общих знаний, культурных ценностей и инноватsионного развития.

Образовательные технологии (или EdTech – от англ. *education technologies*) – это инструменты, сервисы и решения, которые делают обучение эффективнее с помощью технологий. Это может быть всё:

ZJV5401

от онлайн-курсов и виртуальных лабораторий до приложений с искусственным интеллектом и адаптивных платформ

Примеры образовательных технологий

• **Онлайн-платформы:** Coursera, Khan Academy, Udemy, Stepik

• **LMS-системы (Learning Management Systems):** Moodle, Google Classroom

• **Виртуальная и дополненная реальность (VR/AR):** имитatsiя химических лабораторий, исторических экскурсий

• **Искусственный интеллект:** автоматическая проверка работ, подбор

заданий, чат-боты-репетиторы

• **Геймификatsiя:** баллы, рейтинги, квесты и мотиватsионные награды[5].

Образовательные технологии уже стал не будущим, а реальностью современного образования. Управление учебным процессом с применением цифровых решений требует системного подхода, стратегического планирования и поддержки преподавателей. Особое значение имеет подготовка педагогических кадров: необходимо активнее вовлекать центры и институты повышения квалификatsii, которые могут стать ключевыми партнёрами в обучении учителей цифровым навыкам. Такая институциональная поддержка обеспечит устойчивость и последовательность цифровой трансформatsii в сфере образования.

Особое значение имеет то, что образовательные технологии становятся инструментом укрепления межнatsионального согласия и объединения народов. Общие знания, культура и инноватsii создают основу для справедливого общества, где каждый гражданин получает возможность реализовать свой интеллектуальный и творческий потенциал.

Стратегия ориентирована на вхождение в ТОП-50 инноватsионных государств мира к 2030 году за счет инвестиций в молодежь и внедрения передовых технологий что создает общую образовательную среду для будущих поколений.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Шавкат Мирзиёев. От natsионального возрождения – к natsиональному прогрессу. Т.4. Ташкент, 2020.
2. Абдуазимова. Л. Обновлена Стратегия «Узбекистан – 2030» https://www.norma.uz/uz/novoe_v_zakonodatelstve/obnovlena_strategiya_uzbekistan_-_2030?ysclid=mm58p0cp7d361191674
3. Стратегия«Узбекистан–2030» https://strategy.uz/index.php?static=strategy_actions&lang=ru
4. Тошева С. Стратегия «Узбекистан – 2030» и государственная молодежная политика. https://uza.uz/ru/posts/strategiya-uzbekistan-2030-i-gosudarstvennaya-molodezhnaya-politika_824749
5. Алимова М. Применение образовательных технологий в управлении учебным процессом/ International scientific and practical conference“tech horizon 2025: it and innovation summit”, april 17, 2025.

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA MA’RIFIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI MILLIY BIRLIKNI MUSTAHKAMLASH MEXANIZMLARI

Umarova Shaxnoza Keldiyor qizi
ISFT Samarqand filiali, Xalqaro moliyaviy boshqaruv kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida yagona ma’naviy makonni shakllantirish va milliy birlikni mustahkamlashda ma’rifiy texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim platformalari, raqamli axborot vositalari va innovatsion

ma’naviy yondashuvlar asosida jamiyatni birlashtirish mexanizmlari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston – 2030, yagona ma’naviy makon, milliy birlik, ma’rifiy texnologiyalar, raqamli ta’lim, strategik rivojlanish.

Kirish Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida milliy birlikni mustahkamlash, jamiyatda yagona ma’naviy makonni shakllantirish har bir davlatning strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ham jamiyatning ma’naviy-axloqiy poydevorini mustahkamlash, yoshlarni intellektual va ma’rifiy jihatdan rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Mazkur strategik hujjatda ta’kidlanganidek, barqaror taraqqiyotning muhim omili — bu ma’naviy birlik va ijtimoiy hamjihatlikdir.

Ilmiy adabiyotlarda yagona ma’naviy makon tushunchasi jamiyat a’zolarining umumiy qadriyatlar, g‘oyalar va maqsadlar asosida birlashuvi sifatida talqin etiladi. Mahalliy tadqiqotchilar ta’kidlashicha, milliy g‘oya va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash ta’lim tizimi va ma’rifiy faoliyat bilan bevosita bog‘liqdir [2]. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar ma’rifiy jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Xorijiy olimlar ham raqamli ta’lim va ma’rifiy texnologiyalarning ijtimoiy integratsiyadagi rolini alohida ta’kidlaydilar. Masalan, Castells axborot jamiyatida kommunikatsiya va raqamli platformalar ijtimoiy birlashuv mexanizmlarini kuchaytirishini qayd etadi [3]. Anderson esa raqamli ta’lim muhitida umumiy bilim makonining shakllanishi milliy va madaniy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilishini asoslaydi [4].

Shuningdek, UNESCO hisobotlarida ta’lim va ma’rifiy texnologiyalar barqaror rivojlanish va ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashning muhim vositasi sifatida ko‘rsatib o‘tiladi [5]. Bu jihatdan qaraganda, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ma’rifiy texnologiyalarni keng joriy etish yagona ma’naviy makonni shakllantirishning ilmiy asoslangan mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ma’rifiy texnologiyalar orqali milliy birlikni

mustahkamlash mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash va ularning amaliy samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ma’naviy birlikni mustahkamlash, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish ва рақамли таълим инфратузилмасини ривожлантириш устувор йўналиш сифатида белгиланган. Миллий бирлик ва ижтимоий ҳамжиҳатликни таъминлашда таълим ва маърифий платформалар институционал омил сифатида намоён бўлади. Ахборот жамияти назариясига кўра, рақамли коммуникатsiя тармоқлари ижтимоий интегратsiяни кучайтиради ва умумий қадриятлар майдонини шакллантиради. Онлайн таълим муҳитида билим алмашинуви ва очиқ таълим ресурслари миллий ва маданий бирдамликни мустаҳкамлашга хизмат қилади. UNESCO ҳисоботларида таълим технологиялари барқарор ривожланиш ва ижтимоий ҳамжиҳатликнинг стратегик омили сифатида қайд этилган.

Raqamli ma’rifiy texnologiyalar quyidagi yo‘nalishlarda yagona ma’naviy makonni shakllantirishga xizmat qiladi:

- onlayn ta’lim platformalari orqali bilimlarning ommaviyligi;
- milliy kontentni raqamli muhitda targ‘ib qilish;
- interaktiv kommunikatsiya vositalari orqali ijtimoiy integratsiya;
- raqamli monitoring va baholash tizimlari.

1-jadval

Ma’rifiy texnologiyalarning milliy birlikni mustahkamlashdagi ta’sir yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mexanizm	Kutilayotgan natija
Raqamli ta’lim platformalari	Onlayn kurslar, LMS tizimlari	Bilimlar tengligi va ommaviylik
Milliy kontentni raqamlashtirish	Elektron kutubxonalar, media loyihalar	Madaniy integratsiya
Ijtimoiy media va kommunikatsiya	Raqamli muloqot kanallari	Ijtimoiy birdamlik
Analitik monitoring tizimlari	Raqamli baholash vositalari	Ma’naviy samaradorlikni o‘lchash

Empirik ma’lumotlar O‘zbekistonda raqamli infratuzilma va ICT sektori barqaror o‘sish bosqichida ekanini ko‘rsatadi. 2021–2025 yillarda

internet qamrovi 76,6% dan 94,2% ga oshgani raqamli kommunikatsiya maydonining deyarli universal darajaga yetganini bildiradi. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy integratsiya va ma’rifiy platformalarning ommaviyligi uchun zarur shart sifatida talqin etiladi.

ICT xizmatlarining YaIMdagi ulushining 2,0% dan 2,7% gacha o‘sishi (2023–2025) raqamli iqtisodiyotning institutsional mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. NFC tranzaksiyalar hajmining 60,4% ga, sonining esa 105,9% ga oshgani moliyaviy va kommunikativ jarayonlarning raqamli muhitga ko‘chayotganini tasdiqlaydi. Bu esa ma’rifiy texnologiyalarni keng joriy etish uchun ijtimoiy-texnologik asos mavjudligini anglatadi. Olingan natijalar yagona ma’naviy makon konsepsiyasini raqamli transformatsiya sharoitida qayta talqin qilish imkonini beradi. Tadqiqot raqamli infratuzilma, ma’rifiy texnologiyalar va milliy birlik o‘rtasida tizimli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu yondashuv ma’naviy makonni shakllantirishni faqat mafkuraviy jarayon emas, balki institutsional va texnologik omillar majmui sifatida talqin etishga asos yaratadi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalari O‘zbekistonda raqamli infratuzilmaning barqaror rivojlanishi ma’rifiy texnologiyalarni keng joriy etish uchun real texnologik va institutsional asos shakllantirganini ko‘rsatdi. Internet qamrovining 94 foizdan yuqori darajaga yetishi, ICT sektorining YaIMdagi ulushining oshishi va raqamli tranzaksiyalar hajmining sezilarli ko‘payishi ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarning raqamli muhitga faol integratsiyalashayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot yagona ma’naviy makon tushunchasini faqat g‘oyaviy-axloqiy mezon sifatida emas, balki raqamli kommunikatsiya, ta’lim platformalari va ma’lumotlar almashinuvi asosidagi ijtimoiy tizim sifatida talqin qilishni taklif etdi. Ma’rifiy texnologiyalar milliy birlikni mustahkamlashning yordamchi vositasi emas, balki strategik mexanizmi sifatida asoslandi.

Ilmiy jihatdan tadqiqot raqamli transformatsiya va ma’naviy integratsiya o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlikni empirik ko‘rsatkichlar asosida aniqlashtirdi. Amaliy jihatdan esa “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi

doirasida ma’rifiy texnologiyalarni rivojlantirish milliy birdamlikni mustahkamlashning samarali va barqaror modeli ekanini ko‘rsatdi. Yakuniy xulosa shundan iboratki, raqamli iqtisodiyot sharoitida yagona ma’naviy makonni barpo etish jarayoni texnologik infratuzilma va ma’rifiy innovatsiyalar uyg‘unligiga tayangan holda amalga oshirilishi zarur. Aynan shu uyg‘unlik milliy birlikni mustahkamlashning zamonaviy va ilmiy asoslangan yo‘lini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida farmon. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.

2. Quronov, M. (2020). Ma’naviy tarbiya va milliy birlik masalalari. Ma’naviyat va ma’rifat jurnali, 4(2), 15–22.

3. Castells, M. (2019). The rise of the network society (2nd ed.). Wiley-Blackwell.

4. Anderson, T. (2020). The theory and practice of online learning (3rd ed.). AU Press.

5. UNESCO. (2022). Reimagining our futures together: A new social contract for education. UNESCO Publishing.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Fayzullayev Ilhom
Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda ma’naviy siyosatni amalga oshirishning asosiy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Davlat siyosatida ma’naviyatning ustuvor o‘rni, fuqarolik jamiyati va

ijtimoiy institutlar faoliyati bilan bog‘liq islohotlar hamda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni boshqarishdagi yangicha yondashuvlar yoritilgan. Maqolada Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari, qabul qilingan strategiya va dasturlar tahlil qilinib, davlat va jamiyat munosabatlarida ma’naviy omilning rolini kuchaytirish yo‘llari asoslab berilgan.
Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, ma’naviy siyosat, islohotlar, milliy g‘oya, fuqarolik jamiyati, davlat strategiyasi, inson omili, ma’naviy mexanizmlar.

Kirish. Hozirgi global rivojlanish jarayonlarida ma’naviy siyosat har bir davlatning siyosiy barqarorligi va ma’naviy immunitetini ta’minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi ham aynan shu ma’naviy asoslarga suyangan holda jamiyat rivojlanishining insonparvar va ma’rifatparvar yo‘nalishini belgilab berdi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, *«bugungi taraqqiyotning bosh mezoni – inson qadrini ulug‘lashdir»*. Bu fikr ma’naviy siyosatning falsafiy mohiyatini ifoda etadi, chunki inson qadrini anglamasdan ma’naviyatni rivojlantirish mumkin emas. Shu jihatdan Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning ma’naviy zamini yaratib berilmoqda.

Ma’naviy siyosatning nazariy asoslari (kengaytirilgan tahlil)

Ma’naviy siyosat — bu jamiyat ongini, axloqiy qadriyatlar tizimini va ma’rifatni shakllantirishga qaratilgan davlat faoliyatidir. U faqat ideologik yo‘nalish emas, balki falsafiy, sotsiologik va siyosiy maskanga ega tizimli siyosat turi hisoblanadi.

1. Falsafiy mohiyati

Ma’naviy siyosatning falsafiy asosini inson va jamiyat munosabatlariga oid g‘oyalar tashkil etadi. Aslida, ma’naviyat – insonning ichki dunyosidagi axloqiy, ruhiy va aqliy kamolotning ifodasidir. Demak, ma’naviy siyosat faqat tashqi ta’sir orqali emas, balki inson ongi, tafakkuri va qalbi orqali amalga oshiriladigan jarayondir.

O‘zbek faylasuflari (A.Abduraxmonov, X.Toshpo‘latov, U.Normatov va boshqalar) ta’kidlashicha, ma’naviy siyosat – bu jamiyat ongini boshqarishning sivilizatsiyali usulidir. Uning mohiyati shundaki, davlat

inson faoliyatining ma’naviy yo‘nalishini belgilab, fuqarolar ongini ijobiy ruhda yo‘naltiradi.

2. Sotsiologik asoslar

Ma’naviy siyosat ijtimoiy tizimning barcha qatlamlariga ta’sir ko‘rsatadi. Sotsiologik nuqtai nazardan, u jamiyatdagi ijtimoiy ong, jamoatchilik fikri, madaniy faoliyat va fuqarolik munosabatlarini birlashtiradi. Masalan, ta’lim tizimida ma’naviy siyosat orqali fuqarolik mas’uliyati, milliy g‘urur va axloqiy qadriyatlar shakllantiriladi.

Bu jarayonda jamoat institutlari, nodavlat tashkilotlar va mahalla tizimi faol ishtirok etadi. Ular orqali davlat ma’naviy siyosatini ijtimoiy amaliyotga tatbiq etadi, shu orqali «fuqarolik jamiyati – ma’naviyat ustuni» modeli yaratiladi.

3. Siyosiy va huquqiy asoslar

Ma’naviy siyosat siyosiy tizim bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida inson qadri, erkin fikr va ijtimoiy adolat tamoyillari davlat siyosati asosiga qo‘yilgan. Bu esa ma’naviy siyosatning huquqiy poydevorini yaratadi.

Shuningdek, “Taraqqiyot strategiyasi”, “Yangi O‘zbekiston – inson qadri uchun” dasturlari, “Ma’naviyat va ma’rifat markazi to‘g‘risidagi nizom” kabi hujjatlar ma’naviy siyosatning amaliy-huquqiy bazasini ta’minlaydi.

4. Ma’naviy siyosatning ilmiy paradigmasi

Ilmiy nuqtai nazardan, ma’naviy siyosat zamonaviy davlat boshqaruvining tarkibiy qismi hisoblanadi. U falsafiy antropologiya, ijtimoiy psixologiya va madaniyatshunoslik nazariyalariga suyanadi. Shu boisdan ham ma’naviy siyosatni inson kapitali, axloqiy madaniyat va milliy g‘oya bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish zarur.

Yangi O‘zbekiston sharoitida bu paradigma “inson qadri”, “ma’naviy immunitet”, “ijtimoiy mas’uliyat”, “axborot madaniyati” kabi ilmiy kategoriyalar bilan boyidi.

Ma’naviy siyosatni amalga oshirish mexanizmlari

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy siyosat ko‘p bosqichli va tizimli tarzda amalga oshiriladi. Buning asosiy mexanizmlarini quyidagicha guruhlash mumkin:

Institutsional mexanizmlar. Ma’naviy siyosatni amalga oshirishda davlat institutlari – Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi va madaniyat muassasalari muhim rol o‘ynaydi. Ular ma’naviy jarayonlarni muvofiqlashtiradi va davlat strategiyasini ijtimoiy amaliyotga tatbiq etadi.

Ta’lim-tarbiya mexanizmi. Ma’naviy siyosatning eng samarali yo‘li ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Maktab va universitetlarda ma’naviy-ma’rifiy fanlar, milliy g‘oya va axloq madaniyati darslari orqali yosh avlod ongida vatanparvarlik va mas’uliyat hissi kuchaytiriladi.

Axborot siyosati va media madaniyat mexanizmi. Ijtimoiy tarmoqlar va internet makonida ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Yangi O‘zbekiston – yangi axborot madaniyati” dasturi bu sohadagi amaliy yo‘nalishlarni belgilab berdi.

Madaniyat va jamoat institutlari mexanizmi. Muzeylar, teatrlar, kitobxonlik markazlari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari ma’naviy siyosatning ijtimoiy maydonida faol ishtirok etadi. Ushbu institutlar inson ongini boyitish, milliy g‘ururni oshirish va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mahalla va nodavlat sektori mexanizmi. Mahalla fuqarolar yig‘ini tizimi, nodavlat tashkilotlar va ilmiy jamoatchilik ma’naviy siyosatni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Bu orqali davlat siyosatining “quyi zvenolarda” ham amaliy ta’siri kuchaymoqda.

Xulosa. Ma’naviy siyosat Yangi O‘zbekiston davlat strategiyasining ma’naviy ustuni sifatida namoyon bo‘ldi. U inson omiliga tayanadi, jamiyat ongini yangilaydi va milliy o‘zlikni mustahkamlaydi. Davlat va jamiyat munosabatlarida ma’naviy siyosat faqat ideologik emas, balki ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlovchi amaliy mexanizmlar tizimidir.

Shu sababli, Yangi O‘zbekistonda ma’naviy siyosatni ilmiy asoslangan mexanizmlar orqali amalga oshirish jamiyatning barqaror rivojlanishi va milliy tiklanishning kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – T.: O‘zbekiston, 2022.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Inson qadri uchun”. – T.: Ma’naviyat, 2023.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”. – T.: Yangi asr avlodi, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil tahriri).
5. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent, 2022.
6. “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” to‘g‘risidagi nizom. – T., 2020.
7. Abduraxmonov A. “Milliy g‘oya va ma’naviyat nazariyasi”. – T.: Akademiya, 2021.
8. Normatov U. “Inson va ma’naviyat falsafasi”. – T.: Falsafa, 2023.
9. Mamatov R. “Ma’naviy barqarorlik va ijtimoiy tizim”. – T.: Ma’rifat, 2022.
10. Xodjayev Sh. “Ma’naviyat sotsiologiyasi”. – T.: Universitet, 2021.
11. UNESCO. “Cultural policy and sustainable development”. – Paris, 2019.
12. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.
13. Habermas J. “Theory of communicative action”. – London, 1984.

ZJV5401

“O‘ZBEKISTON–2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA XOTIN-QIZLAR SIYOSIY MADANIYATINI OSHIRISHDA MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Abdusalomova Maftunaxon G‘**ofurjon qizi**
Guliston davlat pedagogika instituti
tayanch doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida gender tengligini ta’minlash jarayonida xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirish masalalari ma’rifiy texnologiyalar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi va qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki muhim omil ekanligi asoslab beriladi. Shuningdek, siyosiy madaniyatni shakllantirishda ta’lim, ma’rifat, raqamli axborot muhiti hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘rni ochib beriladi. Maqolada xotin-qizlar siyosiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda ijtimoiy birdamlik, fuqarolik mas’uliyati va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash imkoniyatlari yoritiladi. Muallif tomonidan ma’rifiy texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali xotin-qizlarning siyosiy ongini rivojlantirishning nazariy jihatlari tahlil etilib, amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: gender tengligi, siyosiy madaniyat, ma’rifiy texnologiyalar, xotin-qizlar faolligi, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy birdamlik, ta’lim, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi.

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida jamiyat taraqqiyoti inson kapitali, xususan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Gender tengligini ta’minlash masalasi nafaqat ijtimoiy adolat tamoyili, balki davlatning barqaror rivojlanish strategiyasining muhim yo‘nalishiga aylangan. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularning siyosiy madaniyatini yuksaltirish va qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtirokini kengaytirishga alohida e’tibor qaratadi.

Siyosiy madaniyat tushunchasi fuqarolarning siyosiy jarayonlarga munosabati, siyosiy ong darajasi, huquqiy savodxonligi, fuqarolik mas’uliyati hamda davlat va jamiyat boshqaruvida ongli ishtirokini ifodalaydi. Xotin-qizlar siyosiy madaniyatining yuksalishi esa jamiyatda demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishi, ijtimoiy birdamlikning kuchayishi hamda fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qiladi [1].

Zamonaviy sharoitda siyosiy madaniyatni shakllantirish an’anaviy targ‘ibot usullari bilan cheklanib qolmay, balki ma’rifiy texnologiyalar asosida tizimli ravishda amalga oshirilishini talab etadi. Ma’rifiy texnologiyalar deganda ta’lim, axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli platformalar, interfaol metodlar, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali ongli ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari tushuniladi. Aynan ushbu vositalar orqali xotin-qizlarda siyosiy tafakkur, huquqiy bilim va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish imkoniyati kengayadi.

Xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirish jarayoni, avvalo, ta’lim tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida gender tengligi, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, saylov tizimi, siyosiy ishtirok kabi tushunchalarning o‘rgatilishi xotin-qizlarning siyosiy jarayonlarga nisbatan ongli munosabatini shakllantiradi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida, malaka oshirish kurslarida va turli ma’rifiy loyihalarda interfaol metodlardan foydalanish samarali natija bermoqda.

Raqamli axborot muhiti ham bugungi kunda siyosiy madaniyatni shakllantirishning muhim omiliga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn platformalar, vebinarlar, podkastlar va elektron ta’lim resurslari orqali xotin-qizlar siyosiy, huquqiy va ijtimoiy bilimlarni mustaqil ravishda egallash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa ularning siyosiy jarayonlarga bevosita va bilvosita aralashuvini kuchaytiradi [2].

Ma’rifiy texnologiyalar asosida olib borilayotgan targ‘ibot va tushuntirish ishlari xotin-qizlarda nafaqat siyosiy bilim, balki siyosiy mas’uliyat hissini ham shakllantiradi. Natijada ular saylov jarayonlarida faol ishtirok etadi, jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, fuqarolik tashabbuslarini ilgari suradi hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga befarq bo‘lmaydi.

Shu jihatdan qaraganda, xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirish jamiyatni birlashtirishning muhim ma’rifiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Chunki siyosiy ongli, fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lgan xotin-qiz oilada, ta’lim muassasasida, mehnat jamoasida va mahalla tizimida ijtimoiy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va birdamlikni mustahkamlaydi.

Xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat milliy, balki global ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, BMT tomonidan ilgari surilgan “Barqaror rivojlanish” maqsadlarida gender tengligi alohida yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, unda xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatiladi. Bu yondashuv shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning siyosiy ongini rivojlantirish demokratik boshqaruvning muhim sharti hisoblanadi [3].

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatida xotin-qizlarning ulushi ortib borayotgani ham siyosiy madaniyat yuksalishining amaliy ifodasi hisoblanadi. Bu holat tasodifiy emas, balki uzoq yillik ma’rifiy siyosat, ta’lim va targ‘ibot ishlarining natijasidir. Xotin-qizlarni siyosiy jarayonlarga jalb etishda nafaqat huquqiy imkoniyatlar, balki ma’naviy-axborot muhiti ham muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, mahalla institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari ham ma’rifiy texnologiyalarning muhim subyektlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar faollari, lider ayollar, jamoatchilik vakillari orqali olib borilayotgan ma’rifiy ishlar ijtimoiy ongga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilayotgan ma’rifiy kampaniyalar ham samarali natija bermoqda.

Xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirishda raqamli savodxonlik masalasi ham dolzarb ahamiyatga ega. Raqamli savodxonlik siyosiy axborotni tahlil qilish, soxta ma’lumotlarni ajratish, mustaqil fikr bildirish hamda axborot xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi. Bu esa siyosiy ongli jamiyatni shakllantirishning zamonaviy ko‘rinishi hisoblanadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, siyosiy madaniyatni shakllantirish jarayoni uzluksiz ma’rifiy faoliyatni talab qiladi. Bu faoliyat oiladan

boshlanib, maktab, oliy ta’lim, mehnat jamoasi va keng jamoatchilik muhitida davom etadi. Ayniqsa, oilada onalarning siyosiy madaniyati yuqori bo‘lsa, bu bevosita kelajak avlodning fuqarolik pozitsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijada, ma’rifiy texnologiyalar orqali xotin-qizlar siyosiy madaniyatini yuksaltirish jamiyatni birlashtirish, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirish va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning samarali mexanizmiga aylanadi. Bu esa “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarning izchil amalga oshirilishiga xizmat qiladi [6].

Xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirish masalasi rivojlangan davlatlar tajribasida ham muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. Xususan, United Nations tizimida gender tengligi va ayollarning siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan ko‘plab dasturlar amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlarda asosiy e’tibor ma’rifat, ta’lim va axborot texnologiyalari orqali ayollarning siyosiy ongini rivojlantirishga qaratiladi.

Masalan, Shvetsiya tajribasida maktab ta’limidan boshlab gender tengligi va fuqarolik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan maxsus o‘quv modullari joriy etilgan. Natijada ayollarning parlament va mahalliy boshqaruv organlaridagi ulushi yuqori darajaga erishgan. Bu esa siyosiy madaniyatni erta yoshdan shakllantirish samaradorligini ko‘rsatadi.

Yana bir e’tiborli jihat Kanada tajribasida namoyon bo‘ladi. Bu yerda ayollar uchun siyosiy liderlik bo‘yicha onlayn kurslar, treninglar va raqamli platformalar tashkil etilgan. Bu ma’rifiy texnologiyalar orqali siyosiy bilimni ommalashtirishning samarali usuli sifatida baholanadi.

Osiyo mamlakatlaridan Janubiy Koreya tajribasida raqamli savodxonlikni oshirish orqali ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishga erishilgan. Ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar ayollarning fuqarolik pozitsiyasini namoyon etish maydoniga aylangan.

Mazkur tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirishda huquqiy islohotlardan ko‘ra ko‘proq **ma’rifiy va axborot texnologiyalariga tayanish** yuqori samara bermoqda.

Zamonaviy jamiyatda siyosiy madaniyatni shakllantirishda ma’rifiy texnologiyalar nafaqat axborot berish, balki ongni shakllantirish,

qadriyatlarni mustahkamlash va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xotin-qizlar bilan olib borilayotgan ma’rifiy ishlar natijasida ular siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, demokratik tamoyillarni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, **quyidagi xulosalarga kelish mumkin:**

- Xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirish jamiyatni birlashtirishning muhim omili hisoblanadi.
- “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ma’rifiy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.
- Siyosiy madaniyatni shakllantirish uzluksiz ta’lim va axborot jarayoniga bog‘liqdir.
- Raqamli axborot muhiti xotin-qizlar siyosiy ongini rivojlantirishning zamonaviy vositasi hisoblanadi.

Xulosalar **asosida quyidagi takliflarni taqdim eta olamiz:**

- Ta’lim dasturlariga gender tengligi va siyosiy madaniyatga oid maxsus ma’rifiy modullarni kiritish.
- Xotin-qizlar uchun siyosiy liderlik va fuqarolik faolligiga oid onlayn kurslar tashkil etish.
- Mahalla va jamoatchilik institutlari orqali tizimli ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘yish.
- Ijtimoiy tarmoqlarda siyosiy savodxonlikka qaratilgan ma’rifiy kontentlarni ko‘paytirish.
- Raqamli savodxonlikni oshirish orqali siyosiy axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Shunday qilib, ma’rifiy texnologiyalar xotin-qizlar siyosiy madaniyatini oshirish orqali jamiyatda ijtimoiy birdamlik, fuqarolik mas’uliyati va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Almond G., Verba S. The civic culture: Political attitudes and democracy. – Princeton: Princeton University Press, 2019. – 562 p.
2. Norris P. Digital divide: Civic engagement, information poverty, and the Internet worldwide. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 298 p.
3. United Nations. Sustainable development goals: Gender equality. – New York, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF–158-son Farmoni. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – 11.09.2023.
5. UN Women. Women’s political participation and leadership report. – New York, 2021. – 64 p.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Gender tenglik va xotin-qizlar huquqlariga oid qonunchilik hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2022. – 120 b.

UNDOSH TOVUSHLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI AHAMIYATI

Satimboyeva Onorxon Anvarjon qizi
University of economics and pedagogy NOTM katta o‘qituvchisi
O‘zDJTU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada undosh tovushlarning ingliz va o‘zbek tilida tutgan ahamiyati haqida ilmiy mushohadalar berilgan bo‘lib ular qiyoslash-chog‘ishtirish metodidan foydalangan holda erishilgan ilmiy natijalar xulosasi sifatida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: undosh, unli, dental, labio-dental, talaffuz, received pronunciation, American pronunciation

Undosh tovushlar va lug‘at rivojlanishi o‘rtasidagi munosabat ingliz tilida ham o‘zbek tilida ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Undosh tovushlar so‘zlarning talaffuzi va tushunilishida katta rol o‘ynaydi. So‘zlarning qurilish bloklarining tuzilishlari undosh tovushlar talaffuzida o‘rganuvchilarga tovushlarni aniq talaffuz qilish va idrok etish imkonini beradi. Masalan birgina *act* (ishtirok etmoq) ma’nosini beruvchi so‘zning bir necha so‘z tuzilmalari mavjud. Ya’ni: active(faol), action (faollik, harakat). Bu holatda *act*- ishtirok etmoq so‘zining qanday talaffuzini bilgan so‘zlovchi ushbu so‘zning boshqa variantlarini ham, ya’ni o‘zakdoshlarini ham qanday talaffuz qilish mumkinligini biladi [5,505].

Bu holatni o‘zbek tili miqyosida ham ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni bir so‘z asosidan qurilgan turli o‘zakdosh so‘zlar talaffuzi so‘zlovchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Ya’ni mehnat so‘zining talaffuz shaklini bilgan so‘zlovchi mehnatkash, mehnatsevar, sermehnat kabi so‘zlarni osonlik bilan talaffuz qilib, nutq jarayoniga olib kiradi. Bundan tashqari, murakkabroq so‘zlardagi undoshlar klasterlari va birikmalari qiyinchilik tug‘diradi, so‘zlovchilarning so‘z boyligini kengaytirish va artikulyatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Undosh tovushlarni o‘zlashtirish, o‘quvchilarga yanada rivojlangan lug‘at va ularning ifodali va qabul qiluvchi til qobiliyatlarini oshirish imkonini beradi.

Shuni ta’kidlash kerakki, undoshlar va lug‘at rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik mavjud. O‘rganuvchilar yangi lug‘atga ega bo‘lishlari bilan ular undosh tovushlarning kengroq diapazoniga ta’sir qiladi va kengaytiradi. Qanchalik ko‘p so‘zlarga duch kelsalar, shunchalik ko‘p notanish undosh qoliplarga duch kelishadi, Ingliz tilidagi tovushlarning kengroq diapazonini tanib olish va fonologik xabardorlikni oshirishga olib keladi [5].

Ingliz tili tovush tizimi cheklangan fonemalardan (tovushlardan) iborat. RP(Received Pronunciation) da = 46 fonema (24 undosh, 22 unli);

AE (American English) da = 42 fonema (24 undosh, 18 unli).

Ingliz tili undosh tovushlar sistemasining talaffuz qilish usuli, o‘rni, ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra turlari yuzasidan jadval asosida shakllantirsak quyidagi jadval hosil bo‘ladi.

			Place					
Manner	Bilabial	Labiodental	Dental	Alveolar	Post alveolar	Palatal	Velar	Glottal
Plosives	p b			t d			k g	
Affricates					tʃ dʒ			
Fricatives		f v	θ ð	s z	ʃ ʒ			h
Nasals	m			N			ŋ	
Lateral				L				
Approx.	w			(l)	R	j		

Ikki til o‘rtasidagi eng aniq farq shundaki, ingliz tilida o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan tish artikulyatsiyasi mavjud. Buning sababi o‘quvchilar /ð/ yoki /th/ ni talaffuz qilishda qiynaladilar. O‘zbek tili tovushlar artikulyatsiya joyi bo‘yicha /ð/ va /th/ ga taxminan ekvivalent sifatida /t/ va /t^h/ bo‘lishi mumkin. Til /ð/ va /th/ tovushlarini talaffuz qilishda tishlar oldinga chiqishi yoki til ularga tegishi mumkin, bunda ko‘proq oldinga harakat mavjud bo‘ladi, /t/ va /t^h/ tovushlarini talaffuz qilganda til tishlar va alveolyar tizma orasidagi tutash nuqtaga qarshi (ko‘proq orqaga) yaqinlashadi.

Ingliz tili undosh fonemalari tizimida mavjud bo‘lmagan o‘zbekcha undoshlar ham borligini (Ular: /x, ts, k/) misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, ts undosh tovushi eski krill alifbosiga asoslangan o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan tovush hisoblanadi. U yangi lotin allifbosiga asoslangan holatda mavud emas deb topilib, mustaqil ikki tovush ekanlik g‘oyasi ilgari suriladi.

Ko‘pgina undosh tovushlarning tillardagi o‘xshashlari bor, lekin ular artikulyatsiyasi bilan farqlanadi. Ingliz va o‘zbek undoshlari fonemalarining artikulyatsiyasi va akustikasidagi farqlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Ingliz tilidagi [f, v] labio-dental frikativlar, o‘zbekcha [f, v] ikki labli frikativlar. Ular dialektlarda labio-dental versiyalarga ega. Demak, o‘zbek [v] inglizcha [w] kabi talaffuz qilinadi, ayniqsa so‘z o‘rtasida. Masalan, qovun, sovun, shavla, davlat, shavkat, quvvat. O‘zbek o‘quvchilari ko‘pincha [v] o‘rniga [w] ni qo‘yadilar: vino-vine.

2. Fonetik nuqtai nazardan affrikatlar ikkitadan iborat elementlar: portlovchi - frikativ, ular artikulyatsiyada bo‘linmaydi va ikki bo‘g‘inga bo‘lib bo‘lmaydi. Ingliz tilida affrikatlar soni bo‘yicha turli muhokamalar mavjud. Masalan D. Jones va A. Kohen affrikatlar sonini 6 ta deb talqin etganlar: / ʧ, ʤ, ts, dz, tr, dr/. [1] . I. Ward hamda A.C. Gimson esa yana 2 ta qo‘shimcha afrikatlarni qo‘shgan, ular : /tθ/ ya’ni eight /eitθ / kabi so‘zdagi, /dθ / affrikati ya’ni width /widθ/ so‘zidagi [4]. Aslida esa bor yo‘g‘i ikki dona affrikat mavjud. Ular: ʧ, ʤ affrikatlari hisoblanadi. Zamonaviy ingliz tilida ular alohida-alohida affrikat hisoblanadi.

[t, d, n, s, z] ham [l] ingliz tilidagi alveolyarlardir, o‘zbek tilida esa ushbu undoshlar dentallar ya’ni til oldi undoshlaridir. Ingliz tili [t, d, n] apikal artikulyatsiyani talab qiladi, ularning o‘zbekcha o‘xshash qismlari esa dorsal (dental). Ingliz tilida /t/ va /d/ undoshlari alveolyar tovushlar, o‘zbek tilida esa /t/ va /d/ undoshlari til oldi tovushlar hisoblanadi. Ingliz tili /w/, o‘zbek tilidan /v/dan farqli o‘laroq, lablari biroz chiqqan holda talaffuz qilinadi. Shuningdek, o‘zbek tilida /b/ va /d/ jarangli undoshlari so‘z oxirida jarangsiz bo‘lib qolish holatlari mavjud, masalan: maktab-maktap va bu holat esa ingliz tiliga begona [2].

O‘zbek tilida so‘zning yakuni ko‘p hollarda jarangsiz undosh bilan tugaydi. Ingliz tilida og‘zaki nutqda esa, so‘zlarning oxirida talaffuz aksariyat holda jarangli undoshlarga urg‘u beriladi. Ushbu lingvistik kontrast o‘ziga xos fonetik xususiyatlarni anglatadi. O‘zbek tilidagi so‘zlarning tugallanishida jarangsiz undoshlar aniqlovchi rol o‘ynasa, aksincha, ingliz tilidagi so‘zlarni so‘nggi undosh tovushlarni shovqinliroq, jo‘shqinroq talaffuz qilingani bilan og‘zaki ingliz tilida aniq eshitish sifatiga hissa qo‘shadi [1].

Ingliz va o‘zbek tilllarining undoshlar tizimidagi o‘xshashlik va farqli jihatlari haqida so‘z borganda, har ikki tilda harflar va tovushlar soni bir-biriga mutanosib emas. Ingliz tilidagi undoshlar soni o‘zbek tilidagi

undoshlar sonidan ko‘ra ko‘proq, undoshlarni turlarini tasniflashga doir qarashlar ham har ikki tilda turlicha. Shuningdek paydo bo‘lish usuliga ko‘ra farqlarga yuzlansak, ingliz tilida undoslarning 3 turi farqlansa: portlovchi, sirg‘aluvchi, affrikatlar, o‘zbek tilida esa 2 turga bo‘lingan: portlovchi va sirg‘aluvchilar. Ammo ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra esa har ikki tilda undoshlar jarangli va jarangsiz undoshlarga bo‘linadi. Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra tovushlar har ikki tilda o‘xshash xususiyatlarga ega. Ya’ni ular, lab, bo‘g‘iz(faringal), til undoshlariga bo‘linadi. Shuningdek til undoshlarining o‘z ichki bo‘linishlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, til undoshlarining turlarida biroz farq seziladi. Masalan o‘zbek tilida til oldi, o‘rta, orqa, chuqur til orqa undoshlari kabi turlarga bo‘linsa, ingliz tilida esa yuqoridagilardan chuqur til orqa undoshi deb nomlangan turi mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cohen A. The Phonemes of English. The Hague, 1965, p. 45.
2. Khayitbaev O Sh. An Analysis of Uzbek Students' Difficulties in Pronouncing English Consonants and Vowels. Master’s Thesis . Chonnam National University . February 2024.-P67. 9p.
3. Qarshiyeva N. Ingliz va o‘zbek tillarida unli va undosh tovushlarning talaffuzi hamda so‘z urg‘usining o‘rni: qiyosiy tahlil. Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 .025/M2. Linguistics. - P 74-76
4. Ward I The Phonetics of English. 4th ed. Cambridge, 1948, p. 121. *C. Gimson.* An Introduction to the Pronunciation of English, London, 1964, p. 166.
5. Wiranda A, Tiara Dwi Lestari, Yani Lubis ; The Role Of English Consonants In Language... Jurnal Multimedia Dehasen, Vol. 2 No. 3 Juli 2023 page: 501 – 508.P 505.
6. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI VA XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI

Beysenov Kenjabay Sarsanbayevich
O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlikfakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, dotsent. podpolkovnik

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining mazmun-mohiyati, ustuvor yo‘nalishlari hamda jamiyatni yanada birlashtirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqimizni birlashtirishda ma’rifiy texnologiyalarning o‘rni, ularning shakl va usullari, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya vositalarining integratsiyasi masalalari yoritiladi. Maqolada milliy g‘oya, ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi, ta’lim, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi asosida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Xulosa qismida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ma’rifiy texnologiyalarni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: “O‘zbekiston – 2030”, ma’rifiy texnologiyalar, milliy g‘oya, ijtimoiy birdamlik, ma’naviyat, fuqarolik jamiyati, innovatsion ta’lim, raqamli transformatsiya, yoshlar siyosati, ijtimoiy barqarorlik.

Globallashuv sharoitida har bir davlat o‘zining barqaror taraqqiyot yo‘lini aniq strategik maqsadlar asosida belgilab olishi zarur. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatni yangi bosqichga olib chiqish, inson qadrini ulug‘lash, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotni uyg‘unlashtirishga qaratilgan muhim dasturiy hujjatdir [1].

Mazkur strategiya nafaqat iqtisodiy va siyosiy islohotlarni, balki jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi. Chunki kuchli iqtisodiyot va zamonaviy infratuzilma barqaror jamiyatni shakllantirish uchun yetarli emas; buning uchun ijtimoiy birdamlik, umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashgan xalq zarur.

Shu bois, xalqimizni yanada birlashtirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishda ma’rifiy texnologiyalarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining konseptual asoslari

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi [1]. Unda quyidagi asosiy tamoyillar ilgari surilgan:

- inson qadrini ulug‘lash;
- ochiq va adolatli jamiyat barpo etish;
- raqobatbardosh iqtisodiyot yaratish;
- kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish;
- millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash[22].

Mazkur strategiyaning konseptual negizida “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi yotadi. Ushbu g‘oya jamiyatni yangicha fikrlash, yangicha boshqaruv va yangicha ma’naviy yuksalish asosida rivojlantirishni nazarda tutadi.

Strategiyaning muhim jihatlaridan biri – inson kapitalini rivojlantirishdir. Inson kapitalining asosini esa ta’lim, tarbiya va ma’rifat tashkil etadi [5]. Demak, strategik maqsadlarga erishish bevosita ma’rifiy texnologiyalarning samaradorligiga bog‘liq.

Ijtimoiy birdamlik va milliy birlik tushunchasining nazariy asoslari

Ijtimoiy birdamlik – bu jamiyat a’zolarining umumiy qadriyatlar, maqsad va manfaatlar asosida birlashuvi jarayonidir. Sotsiologik yondashuvlarga ko‘ra, ijtimoiy birdamlik mexanik va organik shakllarda namoyon bo‘ladi [3].

O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy birdamlik quyidagi omillar asosida shakllanadi:

[22] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

• milliy qadriyatlar va an’analar;
• umumxalq manfaatlari;
• konstitutsion tamoyillar [2];
• tarixiy xotira va madaniy meros;
• davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch.

Milliy birlikni mustahkamlashda ma’rifatning roli beqiyosdir. Chunki ma’rifat inson ongini shakllantiradi, unda vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va bag‘rikenglik tuyg‘ularini rivojlantiradi.

Ma’rifiy texnologiyalar tushunchasi va ularning turlari

Ma’rifiy texnologiyalar – bu jamiyat a’zolarining ma’naviy, axloqiy, huquqiy va fuqarolik ongini rivojlantirishga qaratilgan usul, vosita va mexanizmlar majmuidir.

Ular quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

Pedagogik texnologiyalar

- interfaol ta’lim usullari;
- kompetensiyaviy yondashuv;
- loyiha asosida o‘qitish;
- STEAM va raqamli ta’lim metodlari[23].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

- ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’rifiy targ‘ibot;
- onlayn kurslar va platformalar;
- elektron kutubxonalar;
- multimedia mahsulotlari.

Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot mexanizmlari

- ommaviy axborot vositalari;
- teatr, kino va san’at;
- mahalla institutlari;
- yoshlar tashkilotlari.

Zamonaviy ma’rifiy texnologiyalar innovatsion va interaktiv bo‘lishi, yoshlarning dunyoqarashiga mos ravishda ishlab chiqilishi zarur.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ma’rifiy ishlarni takomillashtirish

[23] O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

Strategiyada yoshlar siyosati, ta’lim sifati va ma’naviy muhitni yaxshilashga alohida e’tibor qaratilgan[24]. Xususan:

- maktab va oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish;
- yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qilish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etish;
- madaniyat va san’atni rivojlantirish.

Ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish muhim:

1. Uzluksizlik.
2. Tizimlilik.
3. Innovatsionlik.
4. Ochiqlik va shaffoflik.
5. Hamkorlik.

Raqamli transformatsiya va ma’rifiy makon

Raqamli transformatsiya sharoitida jamiyatning axborot maydoni keskin kengaydi. Bu esa bir tomondan imkoniyat, ikkinchi tomondan xavf omilidir.

Shu bois:

• media savodxonlikni oshirish;

• tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

• milliy kontentni ko‘paytirish;

• yoshlar uchun ijobiy raqamli platformalar yaratish muhimdir [4].

Raqamli ma’rifat – bu zamonaviy birlashuv vositasi bo‘lib, u turli hudud va ijtimoiy qatlam vakillarini umumiy maqsad atrofida jamlay oladi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining roli

NNTlar, jamoat tashkilotlari, mahalla, OAV va ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda ishlaganda ijtimoiy birdamlik mustahkamlanadi.

Mahalla – o‘zbek jamiyatining noyob instituti bo‘lib, u ma’rifiy tarbiya, nizolarni bartaraf etish va ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Taklif va tavsiyalar

1. Milliy g‘oya asosida yagona ma’rifiy platforma yaratish.

[24] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

2. Yoshlar uchun interaktiv ma’naviy kontentlar ishlab chiqish.
3. Media savodxonlik bo‘yicha maxsus davlat dasturini ishlab chiqish.
4. Mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish.
5. Ilmiy-tadqiqot markazlarida ma’rifiy texnologiyalar bo‘yicha izlanishlarni kengaytirish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi [1]. Ushbu strategiya, iqtisodiy islohotlar bilan birga, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlashni ham o‘z ichiga oladi. Inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim, tarbiya va ma’rifatga alohida e’tibor qaratish orqali ijtimoiy birdamlik va milliy birlikni mustahkamlashning samarali yo‘llari ko‘rsatilgan. Ma’rifiy texnologiyalar bu jarayonning markazida turadi, chunki ular jamiyat a’zolarining axloqiy, huquqiy va ma’naviy ongini rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida ishlab chiqilgan strategiya, zamonaviy ta’lim metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot mexanizmlari orqali ijtimoiy birdamlikni va milliy birlikni mustahkamlashni ko‘zlaydi. Raqamli transformatsiya jarayonida, media savodxonlikni oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va yoshlar uchun ijobiy raqamli platformalarni yaratish kabi muhim masalalar ko‘tariladi.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining muvaffaqiyati jamiyatning birligi, hamjihatligi va ma’rifiy texnologiyalarni samarali joriy etishiga bog‘liq. Mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot markazlarida ma’rifiy texnologiyalar bo‘yicha izlanishlarni kengaytirish strategiyaning amalga oshirilishida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Natijada, ushbu strategiyaning muvaffaqiyati O‘zbekistonning kelajakdagi ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy rivojlanishining asosini tashkil etadi va xalqimizni yanada birlashtirish, jamiyatni barqaror rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
3. Dyurkgeym E. *Ijtimoiy mehnat taqsimoti to‘g‘risida*. – Moskva: Nauka, 1991.
4. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

ERKINLIK – INSONNING YUKSAK QADRIYATI

Ulugbek Berdimuratov
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada erkinlik tushunchasi falsafiy, ijtimoiy, huquqiy va diniy jihatlarda tahlil qilinadi. Erkinlikning shaxsiy va jamiyatdagi ahamiyati, mas’uliyat bilan bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi. Determinizm, ekzistensializm va sotsiologik yondashuvlar orqali uning ko‘p qirraliligi ochib berilgan. Zamonaviy texnologiya va ijtimoiy harakatlar erkinlikning yangi mazmunini shakllantiradi, uning muvozanatli amalga oshirilishi esa jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir.

Kalit so‘zlar: Etika, estetika, epistemologiya, ekzistensializm, transsendentalizm, indetermizm, determizm, sotsiyalogiya, feminism.

Erkinlik insonning o‘z irodasi va istaklariga ko‘ra harakat qilish huquqi va imkoniyati bo‘lib, u insoniyatning eng asosiy qadriyatlaridan biri

hisoblanadi. Erkinlik tushunchasi faqat falsafada emas, balki huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika va estetika kabi koʻplab ijtimoiy fanlarda keng qoʻllaniladi. Uning turli koʻrinishlari mavjud: vijdon erkinligi, soʻz va matbuot erkinligi, shaxsiy tanlov erkinligi va boshqalar. Falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, erkinlik insonning oʻzini ifoda etishi, taqdirini belgilashi va individualligini saqlab qolishi uchun zaruriy shartdir[1.326]. Shu bilan birga, u shaxsiy masʼuliyat va axloqiy tanlovni ham taʼminlaydi. Inson oʻz erkinligini boshqalar bilan boʻlgan munosabatlarda, ijtimoiy va madaniy muhitda namoyon qiladi, shuning uchun erkinlik har doim jamiyat bilan chambarchas bogʻliq holda baholanadi. Ontologik jihatdan erkinlik insonning mavjudligi bilan uzviy aloqada boʻlib, uning hayot mazmunini anglashga va oʻz oʻrnini topishga intilishida muhim rol oʻynaydi. Epistemologik tomondan esa, erkinlik bilim olish va erkin fikrlash imkoniyatini beradi. Aynan erkin fikr yuritish insonni yangi gʻoyalar yaratishga va yangicha tushunchalarni kashf etishga undaydi. Shu sababli, erkinlik nafaqat shaxsiy hayot, balki butun insoniyat taraqqiyotining poydevori sifatida qaraladi. Qadimgi falsafada erkinlik masalasi yunon mutafakkirlarida juda muhim boʻlgan. Sokrat, Platon va Aristotel uni shaxsiy axloqiy tanlov hamda jamiyatdagi oʻrni bilan bogʻlab tushuntirgan. Masalan, Sokrat uchun erkinlik – bu toʻgʻri va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati. Platon esa davlat va jamiyat erkinligi haqida gapirib, ideal tuzum yaratish zarurligini taʼkidlagan[2.251]. Oʻrta asr davrida erkinlik masalasi koʻproq diniy nuqtai nazardan yondashilgan. Asosiy eʼtibor insonning Xudo bilan boʻlgan erkinligi va bu munosabatning ahamiyatiga qaratilgan. Falsafiy qarashlarda muxtoriyat, ijtimoiy tartib va eʼtiqod erkinligi tushunchalari oʻzaro bogʻlangan. Yangi davr va Uygʻonish davridan boshlab inson oʻzini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Inson qadriyati va huquqlari tobora muhim ahamiyat kasb eta boshlagan. Ayniqsa, Jon Lok va Jan Jak Russo kabi faylasuflar erkinlik va tenglik gʻoyalarini ilgari surib, keyinchalik zamonaviy demokratiya va fuqarolik huquqlari nazariyasiga katta taʼsir koʻrsatgan. XX asrda ekzistensializm erkinlikni insonning tanlovi va oʻz-oʻzini anglash jarayoni orqali tushuntiradi. Sartr erkinlikni insonning mavjudligini belgilovchi asosiy element sifatida koʻradi. Bunga qoʻshimcha ravishda, fuqarolik huquqlari,

feminist va ekologik harakatlar erkinlik tushunchasini yangi kontekstlarda koʻrib chiqadi, bu esa uning koʻp qirraliligini ta'kidlaydi. Zamonaviy dunyoda erkinlik tushunchasi yangi muammolar va sharoitlar bilan bogʻliq ravishda rivojlanmoqda. Bugungi kunda texnologik, ijtimoiy va siyosiy oʻzgarishlar erkinlikning mohiyatini yangi jihatlarda koʻrib chiqishga undamoqda.

Erkinlik nafaqat huquqlarni anglatadi, balki mas'uliyatni ham talab qiladi. Har bir inson oʻz erkinliklarini boshqa insonlarning huquqlariga hurmat bilan bogʻliq holda amalga oshirishi kerak. Bu oʻ zaro hurmat va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir. Erkinlik va mas'uliyat oʻrtasidagi munosabat, jamiyatda tinchlik va adolatni saqlashda muhim oʻrin tutadi. Erkinlik, falsafiy jihatdan, insonning oʻzini ifoda etishi, tanlov qilish va oʻz hayotini belgilash imkoniyatini anglatadi. Uning tarixi esa turli madaniyatlar va davrlarda oʻzgarib, yangi tushunchalar va qarashlar bilan boyidi. Bugungi kunda erkinlik tushunchasi zamonaviy muammolar, texnologiya va ijtimoiy oʻzgarishlar bilan bogʻliq holda yangilanmoqda. Erkinlik nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlib, kelajakdagi rivojlanishimiz uchun muhim omil hisoblanadi. Erkinlik tushunchasi insoniyat tarixi davomida doimiy ravishda oʻzgarib, rivojlanib kelgan. Qadimiy falsafiy an'analardan tortib, zamonaviy raqamli va ijtimoiy muammolargacha erkinlik koʻplab qirralarga ega. Bugungi kunda erkinlik, nafaqat shaxsiy huquqlar va erkinlikni ta'minlash, balki ijtimoiy adolat, tenglik va mas'uliyatni ham oʻz ichiga oladi. Ushbu jarayonda erkinlikni qabul qilish va hurmat qilish, shuningdek, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun zaruriy omil hisoblanadi. Kelajakda erkinlik tushunchasi yangi muammolar va imkoniyatlar bilan bogʻliq holda yanada rivojlanishi, insoniyatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishida muhim oʻrin tutishi kutilmoqda. Madaniy erkinlik insonlarning oʻz madaniyati, urf-odatlari va an’analarini saqlash va rivojlantirish huquqini anglatadi. Bu erkinlik turli madaniyatlar va millatlar oʻrtasida oʻzaro hurmat va hamkorlikni ta’minlaydi.

Bugungi kunda internet va raqamli texnologiyalar erkinlikning yangi oʻlchovlarini keltirib chiqardi. Onlayn muhitda oʻz fikrini erkin ifoda etish, axborot erkinligi va shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi masalalari dolzarb

bo‘lib qolmoqda. Internetda erkinlik, ko‘plab insonlar uchun o‘z fikrlarini ifoda etish imkonini beradi, lekin shu bilan birga, nazorat va senzuraga qarshi kurash zarurligini ham anglatadi. Zamonaviy davrda siyosiy erkinlik — fuqarolar huquqlari, demokratik jarayonlar va ijtimoiy adolat bilan bog‘liq masalalar ahamiyat kasb etadi. Turli davlatlardagi siyosiy harakatlar, fuqarolik huquqlari uchun kurashlar erkinlikni ta'minlashga qaratilgan. Bu erda erkinlik, davlat nazoratidan mustaqil ravishda yashash va o‘z fikrini ifoda etish imkoniyatini anglatadi. Ijtimoiy harakatlar, masalan, feministik, LGBTQ+ huquqlari va ekologik harakatlar, erkinlik tushunchasini yangi ijtimoiy kontekstlarda qayta ko‘rib chiqishga imkon yaratmoqda. Bu harakatlar shaxsiy erkinlikni, tenglikni va adolatni ta'minlashga qaratilgan, shuningdek, erkinlikni ijtimoiy o‘zgarish va madaniy rivojlanish kontekstida muhokama qilish zarurligini ko‘rsatadi. Bu insonning jamiyat oldidagi vazifalarni erkin va ixtiyoriy ravishda bajarishini anglatadi[3.121].

Falsafada erkinlik tushunchasi insonning o‘z irodasi va ongli qarorlari bilan harakat qilish imkoniyatini anglatadi. Bu tushuncha turli falsafiy oqimlar va maktablar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Quyida erkinlikning falsafiy asoslari haqida ba’zi asosiy yondashuvlar keltirilgan:

Determinizm yondashuviga ko‘ra, barcha hodisalar va inson xatti-harakatlari oldindan belgilangan sabablar bilan bog‘liq. Deterministlar erkinlikni insonning o‘z xatti-harakatlarini oldindan belgilangan sabablar asosida amalga oshirishi deb tushunadilar. Indeterminizm yondashuvi esa insonning xatti-harakatlari va qarorlari oldindan belgilangan sabablar bilan cheklanmaganligini ta’kidlaydi. Indeterministlar erkinlikni insonning o‘z irodasi bilan qaror qabul qilish imkoniyati deb biladilar. Ekzistensializm falsafasida erkinlik insonning o‘z hayotini mazmunli qilish uchun qiladigan tanlovlari bilan bog‘liq. Ekzistensialistlar insonning erkinligini uning o‘zligini anglash va o‘z hayotini mazmunli qilish uchun qiladigan tanlovlari orqali ifodalaydilar. Masalan, fransuz faylasufi Jan-Pol Sartr erkinlikni insonning o‘z hayotini yaratish va unga mazmun berish imkoniyati deb ta’riflaydi. Transsendentalizmda erkinlik insonning aqliy va ma’naviy rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu yondashuvga ko‘ra, erkinlik insonning o‘zini anglash va o‘z maqsadlariga erishish uchun ichki imkoniyatlarini

rivojlantirishdir. Immanuel Kant erkinlikni insonning aqliy va ma’naviy rivojlanishi orqali o‘zini anglash va o‘z maqsadlariga erishish imkoniyati deb biladi. Sotsiologik yondashuvda erkinlik insonning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq. Bu yondashuvga ko‘ra, erkinlik insonning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Insonning erkinligi uning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlar orqali cheklanadi yoki kengayadi. Falsafada erkinlik tushunchasi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, turli yondashuvlar va talqinlar mavjud. Har bir yondashuv erkinlikni o‘ziga xos tarzda tushuntiradi va insonning hayotidagi o‘rnini belgilaydi.

Islom ta’limotida insonga erkin bo‘lishi uchun aql-idrok berilgan, - deb aytiladi. Islomdagi iroda erkinligini sharhlaganda, insonga berilgan aql-idrok unga o‘z xatti-harakatida yaxshilik va yomonlikni, halol va haromni, savob va gunohni, to‘g‘ri yoki egri yo‘lni tanlash erkinligini berdi, bizning kelajagimiz shu yo‘llardan qay birini tanlay olishimizga bog‘liq, deb uqtirgan[4]. Islomda erkinlik tushunchasi insonning Alloh tomonidan berilgan huquq va imkoniyatlarini anglatadi. Bu erkinlik insonning o‘z irodasi bilan to‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘llarni tanlash imkoniyatini beradi. Islom ta’limotiga ko‘ra, erkinlik mas’uliyat bilan bog‘liq bo‘lib, har bir inson o‘z xatti-harakatlari uchun javobgar hisoblanadi. Islom har bir insonning o‘z e’tiqodini tanlash va diniy marosimlarni bajarish huquqini hurmat qiladi. Qur’onda “Dinda majburlash yo‘q” degan oyat mavjud bo‘lib, bu insonning e’tiqod erkinligini ta’minlaydi. Islomda so‘z erkinligi ham muhim o‘rin tutadi. Insonlar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishlari mumkin, lekin bu erkinlik boshqalarga zarar yetkazmasligi kerak. Qur’onda “Yaxshi so‘z aytinglar” degan tavsiya mavjud. Islomda har bir insonning shaxsiy hayoti va daxlsizligi hurmat qilinadi. Insonlar o‘z hayotlarini o‘zlari boshqarishlari va o‘z qarorlarini qabul qilishlari mumkin. Islomda insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishi qo‘llab-quvvatlanadi. Bu erkinliklar jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Islomda erkinlik mas’uliyat va adolat bilan uyg‘unlashgan holda ta’riflanadi. Insonlar o‘z erkinliklarini boshqalarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazmasdan amalga oshirishlari kerak. Bu tamoyillar jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Erkinlik insonning siyosiy, ma’naviy ta’qibdan va zo‘ravonlikdan himoyalanganligini bildiradi. Bu insonning o‘z baxtini o‘zi yaratish vositasi bo‘lib, uning o‘zligini anglash darajasini ifodalaydi. Erkinlik obyektiv shart-sharoit va vaziyatga bog‘liqdir. U mavhum emas, balki doimo aniqdir. Shaxs muayyan sharoit va vaziyatda tayin imkoniyatga tayanib aniq maqsadiga erishadi. Ammo, sharoit, vaziyat va imkoniyatlarga hamma ham bir xilda ega bo‘lmasligi mumkin. Maqsadga erishishda kimgadir shart-sharoit, kimgadir maqsadga erishish vositasi, kimgadir imkoniyat yetishmay qoladi[5]. Insonning o‘z hayotini o‘zi boshqarish, o‘z qarorlarini qabul qilish va o‘z xatti-harakatlarini amalga oshirish huquqi. Bu erkinlik insonning shaxsiy hayotiga aralashmaslikni ta’minlaydi. Insonning o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, o‘z qarashlarini bildirish va axborot olish huquqi. Bu erkinlik matbuot va ommaviy axborot vositalarining mustaqilligini ham o‘z ichiga oladi. Insonning o‘z e’tiqodini tanlash, diniy marosimlarni bajarish yoki bajarmaslik huquqi. Bu erkinlik diniy ta’qibdan himoyalanishni ta’minlaydi. Insonning jamiyatda erkin harakat qilish, uyushmalar tuzish va ularda ishtirok etish huquqi. Bu erkinlik insonning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Insonning siyosiy hayotda ishtirok etish, saylash va saylanish huquqi. Bu erkinlik insonning davlat boshqaruvida ishtirok etishini ta’minlaydi. Insonning iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish, mulk egalik qilish va iqtisodiy resurslardan foydalanish huquqi. Bu erkinlik insonning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlaydi. Ijtimoiy erkinlik insonning jamiyatda erkin harakat qilish, uyushmalar tuzish va ularda ishtirok etish huquqini ifodalaydi. Bu erkinlikning muhimligi bir necha jihatdan namoyon bo‘ladi:

Xulosa sifatida erkinlik siyosiy yoki huquqiy jihatdan, balki shaxsiy rivojlanish va jamiyatdagi erkin muhitni yaratish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Erkinlikning cheklanishi yoki yo‘qolishi jamiyatda adolatsizlik, tengsizlik va repressiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, har bir insonning erkinligini hurmat qilish va uni ta'minlash jamiyatning mustahkamligi va taraqqiyoti uchun zarurdir. Erkinlik nafaqat huquqiy me'yorlar, balki madaniy, axloqiy va psixologik o‘zgarishlar orqali ham ifodalanadi. Shu bilan birga, erkinlikni amalga oshirishda mas'uliyat va boshqalar huquqlarini hurmat qilish zarur. Erkinlikning mohiyati insonning

o‘zini erkin his qilishiga imkon berish, lekin bu erkinlik boshqalarni kamsitish yoki zarar yetkazishga olib kelmasligi kerak. Erkinlikning chegaralari ham bor, va bu chegaralar jamiyatdagi o‘zaro hurmat va barqarorlikni saqlash uchun zarurdir. Ushbu maqolada erkinlikning shaxsiy va jamiyat uchun ahamiyati ta’kidlangan. Erkinlik, har bir insonning o‘ziga xosligini, mustaqil fikrlashini va baxtli yashashini ta’minlasada, uni amalga oshirishda mas'uliyatli yondashuv zarurdir. Erkinlik, faqat shaxsiy manfaatlar bilan cheklanmay, jamiyatning umumiy farovonligini hisobga olgan holda, boshqalarning huquqlarini hurmat qilish bilan bog‘liqdir. Maqola erkinlikning o‘rni va uning muvozanatli ravishda saqlanishi zarurligini ko‘rsatadi. Erkinlik haqida maqolada, uning inson hayotidagi o‘rni va jamiyatda yuzaga keltiradigan ijtimoiy va huquqiy ahamiyati batafsil ko‘rib chiqildi Maqolada erkinlikni ta'minlashda qonuniy me'yorlar va huquqiy jihatlarning muhimligi, shuningdek, bu erkinlikni amalga oshirishda boshqalarning huquqlarini hurmat qilish zarurligi ta'kidlanadi. Erkinlikning haddan tashqari kengayishi yoki noto‘g‘ri tushunilishi ijtimoiy tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun erkinlikning chegara va mas'uliyatlarini tushunish zarur. Erkinlik shaxsiy huquq sifatida o‘zini ifodalashda erkinlikni ta'minlashni, shuningdek, jamiyatdagi umumiy farovonlikka, ijtimoiy barqarorlikka xizmat qilishni anglatadi. Jamiyatdagi erkinlikning to‘liq amalga oshirilishi, faqat barcha a’zolar o‘z huquq va erkinliklarini bir-birining huquqlarini buzmasdan amalga oshirgan taqdirdagina mumkin. Erkinlik — bu shaxsning rivojlanishiga xizmat qilish bilan birga, ijtimoiy mas'uliyatni ham o‘z ichiga oladi. Maqola shuni ko‘rsatadiki, erkinlik — bu nafaqat huquq, balki mas'uliyat hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shermuhammedov S. Falsafa va hayot. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2007.
2. G‘arb falsafasi. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров Toshkent: Шарқ, 2004. 776 б.
3. To‘rayev B.O. Fan falsafasi Toshkent: "Fan va texnologiya". 2011
4. https://qomus.info/oz/encyclopedia/e/erkinlik/
5. https://qomus.info/oz/encyclopedia/e/erkinlik/

ZJV5401

МОДЕРНИЗАТSIЯ СИСТЕМЫ ДОО В УСЛОВИЯХ РЕАЛИЗАТSIИ СТРАТЕГИИ “УЗБЕКИСТАН – 2030’’

Эрматова Чарос Олимовна,
Студент, Джизакского
государственного
педагогического университета
имени А.Кадыри,

Аннотатsiя: В статье рассматриваются актуальные вопросы модернизатsiи системы дошкольного образования Республики Узбекистан в условиях реализатsiи стратегии «Узбекистан – 2030». Анализируются современные тенденции развития ДОО, приоритетные направления реформирования, включая повышение качества образования, цифровизатsiю, развитие кадрового потенциала и совершенствование инфраструктуры. Обосновывается необходимость комплексного обновления системы дошкольного образования как стратегического фактора устойчивого развития страны.

Ключевые слова: дошкольное образование, ДОО, модернизатsiя, стратегия «Узбекистан – 2030», качество образования, цифровизатsiя, кадровый потенциал, образовательная политика.

Введение: Современный этап развития Республики Узбекистан характеризуется масштабными социально-экономическими преобразованиями, направленными на повышение качества жизни населения и формирование конкурентоспособного общества. В этом контексте особое значение приобретает стратегия «Узбекистан – 2030», определяющая приоритетные направления государственной политики, включая развитие системы образования как ключевого фактора устойчивого прогресса страны. Дошкольное образоание выступает фундаментальным уровнем образовательной системы, обеспечивающим формирование базовых компетенций, личностное развитие и подготовку детей к дальнейшему обучению. В условиях

реализatsii стратегии «Узбекистан – 2030» модернизatsiя системы ДОО рассматривается как стратегическая задача, ориентированная на повышение доступности и качества образовательных услуг, совершенствование нормативно-правовой базы, внедрение инноватsионных педагогических технологий и укрепление кадрового потенциала. Модернизatsiя ДОО предполагает не только обновление материально-технической базы, но и трансформatsiю образовательных подходов, цифровизatsiю процессов, развитие профессиональной компетентности педагогов и расширение социального партнёрства. Анализ направлений и механизмов модернизatsii системы дошкольного образования в условиях реализatsii стратегии «Узбекистан – 2030» представляет собой значимую научно-практическую задачу, направленную на обеспечение устойчивого развития образовательной сферы и повышение её эффективности.

Современное состояние системы дошкольного образования и необходимость её модернизatsii: На современном этапе система дошкольного образования Республики Узбекистан претерпевает значительные изменения, обусловленные социально-экономическими преобразованиями и стратегическими приоритетами государственной политики. За последние годы были предприняты масштабные меры по расширению сети ДОО, повышению охвата детей дошкольным образованием, совершенствованию нормативно-правовой базы и укреплению материально-технического обеспечения организatsiй. Вместе с тем сохраняется ряд актуальных проблем, требующих комплексного решения. Среди них — необходимость дальнейшего повышения качества образовательных услуг, обновления содержания образовательных программ в соответствии с современными требованиями, развития профессиональных компетенций педагогических кадров, а также внедрения инноватsионных и цифровых технологий в образовательный процесс. В условиях динамичного развития общества возрастает потребность в формировании у детей базовых компетенций, обеспечивающих успешную адаптatsiю к школьному обучению и дальнейшему

личностному развитию. Особое значение приобретает совершенствование управленческих механизмов в системе ДОО, развитие государственно-частного партнёрства, а также обеспечение равного доступа к качественному дошкольному образованию независимо от места проживания. Урбанизатsiя, демографический рост и цифровая трансформатsiя общества предъявляют новые требования к организатsiи образовательной среды, её безопасности, вариативности и гибкости. Модернизатsiя системы дошкольного образования выступает объективной необходимостью, обусловленной как внутренними потребностями развития отрасли, так и стратегическими задачами, определёнными в рамках реализатsiи стратегии «Узбекистан – 2030». Обновление структуры, содержания и механизмов функционирования ДОО направлено на формирование современной, эффективной и устойчивой системы дошкольного образования, соответствующей натsiональным приоритетам и международным стандартам качества.

Приоритетные направления модернизатsiи системы ДОО в условиях реализатsiи стратегии «Узбекистан – 2030» : Реализатsiя стратегии «Узбекистан – 2030» определяет комплекс приоритетных направлений развития системы дошкольного образования, ориентированных на повышение её эффективности, доступности и качества. Модернизатsiя ДОО рассматривается как системный процесс, охватывающий организатsионные, содержательные, кадровые и технологические аспекты. Одним из ключевых направлений является повышение качества образовательного процесса. Это предполагает обновление государственных требований и образовательных программ, внедрение компетентностного подхода, развитие индивидуализатsiи обучения и создание развивающей образовательной среды, соответствующей возрастным особенностям детей. Важное место занимает цифровая трансформатsiя системы ДОО. Внедрение информатsионно-коммуникатsионных технологий, использование цифровых образовательных ресурсов и автоматизатsiя управленческих процессов способствуют повышению прозрачности, эффективности и доступности образовательных услуг. Не менее

значимым направлением выступает развитие кадрового потенциала. Повышение квалификatsii педагогов, совершенствование системы их профессиональной подготовки, внедрение современных педагогических технологий и стимулирование профессионального роста являются необходимыми условиями успешной модернизatsii. Особое внимание уделяется развитию инфраструктуры и материально-технической базы ДОО. Создание современных, безопасных и инклюзивных образовательных пространств способствует обеспечению равного доступа детей к качественному дошкольному образованию. Модернизatsiя предполагает совершенствование системы управления и расширение механизмов социального партнёрства, включая взаимодействие с семьёй и общественными институтами. Это обеспечивает комплексный подход к развитию ребёнка и повышает эффективность функционирования системы в целом. Приоритетные направления модернизatsii системы ДОО в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» ориентированы на формирование устойчивой, гибкой и конкурентоспособной системы дошкольного образования, отвечающей современным требованиям развития общества.

Таблица 1

Приоритетные направления модернизatsii системы ДОО в рамках стратегии «Узбекистан – 2030»

Направление модернизatsii	**Содержание изменений**	**Ожидаемые результаты**
Повышение качества образования	Обновление образовательных программ, внедрение компетентностного подхода, развитие развивающей предметно-пространственной среды	Формирование базовых компетенций у детей, повышение готовности к школе
Цифровизatsiя системы ДОО	Внедрение ИКТ в образовательный процесс, использование цифровых ресурсов, автоматизatsiя управления	Повышение эффективности управления и качества

		образовательных услуг
Развитие кадрового потенциала	Повышение квалификatsii педагогов, внедрение современных педагогических технологий, развитие профессиональных компетенций	Рост профессионализма педагогов и качества педагогической деятельности
Совершенствование инфраструктуры	Обновление материально-технической базы, создание безопасной и инклюзивной среды	Обеспечение комфортных и равных условий для развития детей
Расширение охвата дошкольным образованием	Создание новых ДОО, развитие государственно-частного партнёрства	Увеличение доступности дошкольного образования
Совершенствование системы управления	Оптимизatsiя управленческих механизмов, повышение прозрачности и мониторинга качества	Повышение эффективности функционирования системы ДОО

Заключение: Модернизatsiя системы дошкольного образования в условиях реализatsii стратегии «Узбекистан – 2030» является объективной необходимостью и стратегически значимым направлением государственной политики. Современные социально-экономические преобразования, процессы цифровизatsii и глобальные образовательные тенденции требуют системного обновления всех компонентов деятельности ДОО. Модернизatsiя охватывает широкий спектр направлений: повышение качества образовательного процесса, развитие кадрового потенциала, цифровую трансформatsiю, совершенствование инфраструктуры и управленческих механизмов, а также расширение доступности дошкольного образования. Комплексная реализatsiя данных направлений способствует формированию устойчивой и конкурентоспособной системы ДОО, способной отвечать современным требованиям общества. Внедрение инноватsионных педагогических технологий и повышение профессиональной компетентности воспитателей, поскольку именно человеческий ресурс выступает ключевым фактором успешных преобразований.

Одновременно модернизatsiя предполагает создание безопасной, инклюзивной и развивающей образовательной среды, ориентированной на всестороннее развитие ребёнка. Реализatsiя стратегии «Узбекистан – 2030» открывает новые перспективы для качественного обновления системы дошкольного образования. Последовательная и системная модернизatsiя ДОО обеспечит повышение эффективности образовательного процесса, расширение возможностей для развития детей и укрепление роли дошкольного образования как важнейшего звена natsiональной образовательной системы.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзиёев Ш.М. Выступление на торжественном собрании, посвященном Дню учителей и наставников. 30.09.2020 [Электронный ресурс]. - Официальный сайт Президента Республики Узбекистан. - URL: https://president.uz/ru/lists/view/3 864.
2. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология развития человека: Развитие субъективной реальности в онтогенезе: Учебное пособие/ В.И. Слободчиков, Е.И. Исаев. - М.: Изд-во ПСТГУ, 2014. - 400 с. - (Серия «Основы психологической антропологии», кн. вторая), с. 162-169, 241-255.
3. Мелкова А.В., Сотникова А.В. Мотиватsionная готовность педагогов к инноватsionной работе// Дошкольное образование: педагогический поиск.
4. Дидактическая концепция цифрового профессионального образования и обучения / П.Н. Биленко, В.И. Блинов, М.В. Дулинов, Е.Ю. Есенина, А.М. Кондаков, И.С. Сергеев; под науч. ред. В.И. Блинова - 2020. - 98 с.
5. Ерунина А.С. Психологическое сопровождение воспитателей в условиях реализatsii ФГОС дошкольного образования: То же — [Электронный ресурс]. Режим доступа — URL: https://nsportal.ru/detskiy-sad/raznoe/2015/07/01/psihologicheskoe-soprovozhdenie-vospitateley-v-usloviyah-realizatsii (дата обращения: 21.02.2021).

6.Калаш И. Возможности информатsионных и коммуникатsионных технологий в дошкольном образовании: Аналитический обзор. М.: Институт ЮНЕСКО по информатsионным технологиям в образовании, 2011. URL: http://iite.unesco.org/pics/publications/ru/Dles/3214673.pdf . Дата обращения: 04.05.2015.

YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY BIRDAMLIKNI TA’MINLASHDA MA’RIFIY YONDASHUVLARNING TRANSFORMATSIYASI

Xushbaqova Ozoda Bahodirovna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Tarix fakulteti Falsafa yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida ijtimoiy birdamlikni ta’minlash masalasi ma’rifiy yondashuvlar transformatsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Jamiyatni birlashtirish jarayonida an’anaviy ma’naviy qadriyatlar va zamonaviy ma’rifiy texnologiyalarning uyg‘unlashuvi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, “O‘zbekiston–2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning fuqarolik faolligi, milliy birlik va ijtimoiy barqarorlikka ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy birdamlik, ma’rifiy yondashuv, Yangi O‘zbekiston, milliy birlik, fuqarolik faolligi, ma’naviy taraqqiyot.

Kirish: Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ijtimoiy birdamlikni ta’minlash masalasi har bir davlat uchun strategik

ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimlarining keskin ko‘payishi, mafkuraviy tahdidlarning murakkablashuvi va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar jamiyat a’zolarini umumiy qadriyatlar asosida birlashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot bosqichida ijtimoiy birdamlik davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

“O‘zbekiston–2030” strategiyasida jamiyatning ma’naviy salohiyatini oshirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini kuchaytirish orqali barqaror taraqqiyotga erishish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ma’rifiy yondashuvlarning mazmunan yangilanishi va transformatsiyasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Metodologiya; Mazkur tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy va mantiqiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Davlat strategik hujjatlari, normativ-huquqiy manbalar va soha bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, ta’lim muassasalari, mahalla va jamoatchilik institutlarida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy faoliyat tajribasi empirik material sifatida umumlashtirildi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekiston sharoitida ma’rifiy yondashuvlarning transformatsiyasi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda muhim integrativ vazifani bajaradi. Ta’lim tizimida joriy etilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli ma’rifiy platformalar va mahalla institutlari faoliyatidagi yangi yondashuvlar fuqarolarning umumiy ijtimoiy qadriyatlar asosida birlashuviga xizmat qilmoqda [1]

Shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning raqamli makonga ko‘chirilishi aholining keng qatlamlarini qamrab olish imkonini bermoqda. Bu esa ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash jarayonida ma’rifiy yondashuvlarning ta’sir doirasini sezilarli darajada kengaytirayotganini ko‘rsatadi.

Muhokama: Olingan natijalar jamiyatni birlashtirish jarayonida ma’rifiy yondashuvlarning transformatsiyasi zarurligini tasdiqlaydi. Faqat an’anaviy targ‘ibot usullari bilan cheklanib qolish zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga to‘liq javob bermaydi. Shu bois, milliy ma’naviy qadriyatlarni zamonaviy kommunikatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ijtimoiy

birdamlikni ta’minlashning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda [2]

Ayniqsa, yoshlar ongida fuqarolik mas’uliyati, ijtimoiy faollik va milliy birlik g‘oyalarini shakllantirishda interaktiv va innovatsion ma’rifiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon davlat va jamoatchilik institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashni taqozo etadi[3]

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot sharoitida ijtimoiy birdamlikni ta’minlashda ma’rifiy yondashuvlarning transformatsiyasi strategik ahamiyatga ega. Ushbu jarayon jamiyatda milliy birlikni mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi[4]

Takliflar: — ijtimoiy birdamlikka yo‘naltirilgan ma’rifiy tadqiqotlarni kengaytirish; — ta’lim va mahalla tizimida innovatsion ma’rifiy yondashuvlarni joriy etish; — raqamli targ‘ibot vositalaridan maqsadli foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish; — davlat va jamoatchilik institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2.Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: Fan, 2020.

3.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4. O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston–2030” strategiyasi. — Toshkent, 2023.

ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Sultanova Komila Qudrat qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot
Universiteti
“Moliya” yo‘nalishi 1-bosqich ma
gistratura talabasi

Annotatsiya: Tezisda O‘zbekiston aksiyadorlik jamiyatlarida ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) tamoyillarini joriy etish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish masalasi tahlil qilinadi. Prezidentning 2023-yil 1-martdagi qarori va milliy hamda global statistik ma’lumotlar asosida ESGning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: ESG, aksiyadorlik jamiyatlari, investitsion jozibadorlik, korporativ boshqaruv, O‘zbekiston.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 1-martdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori davlat ulushi mavjud yirik korxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zda tutadi, jumladan ularni modernizatsiya qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va ekologik, ijtimoiy hamda korporativ boshqaruv tamoyillarini (ESG) joriy etish orqali investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha topshiriqlarni belgilaydi.[1]

Mazkur qaror doirasida davlat aktivlarini boshqarishning yangi mexanizmlari yo‘lga qo‘yilib, ESG prinsiplari bo‘yicha korxonalar faoliyatini transformatsiya qilish orqali ularning shaffofligi va raqobatbardoshligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.[1]

Global investitsiya statistikasi shuni ko‘rsatadiki, ESGga asoslangan investitsiyalar jadal o‘smoqda: masalan, ESG-yo‘nalishidagi institutional investitsiyalar 2026-yilgacha 33,9 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda, bu esa barqaror investitsiyalarga bo‘lgan talabning yuqoriligini

anglatadi. Bu investorlar ESGni qaror qabul qilishda keng qo‘llayotganligidan dalolat beradi.[2] Xuddi shuningdek, global investorlarning taxminan 60% i ESG investitsiyalaridan yuqori daromad olishni qayd etganligi, ular uchun ESG omillarining iqtisodiy afzallik ekanini ko‘rsatadi.[3] Bundan tashqari, 13 000 dan ortiq kompaniyalar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlilda yuqori ESG reytinglariga ega bo‘lgan firmalar yillik o‘rtacha 12,9% daromad ko‘rsatgan, past reytingli kompaniyalar esa atigi 8,6% ni tashkil etgani aniqlangan.[4]

O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda barqaror o‘sish sur’atlarini namoyish etmoqda. Milliy statistika va investitsiyalar bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatadiki, davlat ulushi mavjud korxonalar samaradorligini oshirish amaliyoti orqali milliy iqtisodiyotning investitsion muhiti yaxshilanmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori korporativ boshqaruv va ESG tamoyillarini tatbiq etgan kompaniyalar investorlar e’tiborini jalb etishda ancha samaraliroq bo‘lmoqda, chunki bu ularning risk parametrlarini kamaytiradi va uzoq muddatli rentabellikni oshiradi.Quyida O‘zbekiston iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha statik ma’lumotlar keltiriladi, bu investitsiyalar hamda iqtisodiy o‘sish kontekstida ESG tamoyillarining tatbiqi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval.

O‘zbekiston asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2018–2025)[5]

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Nominal YaIM (mlrd $)	59	67	66	77	90	102	109	120
Real YoIM o‘sishi (%)	5.6	6.8	1.6	8.0	6.0	6.3	6.0	5.5
Investitsiyalar/YaIM (%)	36.4	34.4	33.2	34.0	31.8	34.4	34.1	34.4

Ushbu jadval O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini va investitsiyalar hajmini namoyish etadi; investitsiyalar YaIMga nisbatan barqaror darajada yuqori bo‘lib, bu ESG mexanizmlarini joriy etish orqali qo‘shimcha investitsiya jalb etish imkoniyatlarini oshiradi.



1- rasm: ESG samaradorligi infografikasi

Yuqoridagi diagramma investorlar e’tiborida ESG reytinglari va shaffof hisobotning investitsion oqimlar uchun qanday katalizator bo‘lishini ko‘rsatadi — bu 13 000 kompaniyalar bo‘yicha tahlil natijalari bilan ham mos keladi (yillik 12,9% vs 8,6% daromad).[6]

Shuning uchun O‘zbekiston sharoitida aksiyadorlik jamiyatlariga ESG hisobotlarini majburiylashtirish, ijtimoiy va ekologik ta’sirni ochiq aks ettirish, va yuqori ESG reytinglariga ega bo‘lgan firmalar uchun moliyaviy va soliq imtiyozlari tizimini joriy etish tavsiya etiladi. Bu imkoniyatlarni yaxshi ko‘rgan xalqaro investorlar uchun ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi va ularni O‘zbekistonga yo‘naltirish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, real statistik ma’lumotlar ESG tamoyillarining investitsion samaradorligini tasdiqlaydi va O‘zbekiston uchun aksiyadorlik jamiyatlarida ESG tizimini joriy etish — investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha strategik yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tashkent Times. (2025, 1 mart). Gov’t stakes in 31 large enterprises to be transferred to Agency for Strategic Reforms. https://tashkenttimes.uz/national/10674-gov-t-stakes-in-31-large-enterprises-to-be-transferred-to-agency-for-strategic-reforms

2. DigitalDefynd. (2025). 50 ESG & Sustainability Facts & Statistics. https://digitaldefynd.com/IQ/surprising-esg-statistics

3. 60% of Global Investors Report That ESG Investing Results in Higher Performance Yields: Sustainability Megatrends Report. ESG News. (2024, August 20). https://esgnews.com/60-of-global-investors-report-that-esg-investing-results-in-higher-performance-yields-sustainability-megatrends-report/

4. Kroll. (2023, September 13). New Kroll Study Shows Stronger Investment Returns for Companies with High ESG Ratings. https://www.kroll.com/en/newsroom/kroll-study-shows-stronger-investment-returns-companies-high-esg-ratings

5. S&P Global Ratings: Uzbekistan’s ‘BB-/B’ ratings affirmed; outlook stable. (2024, 4 December). INVEXI: Investment Consulting Management Company. https://invexi.org/uz/press/s-p-global-ratings-uzbekistan-bb-b-ratings-affirmed-outlook-stable/

6. PwC Kazakhstan. (2025, February). ESG Digest #32. https://www.pwc.com/kz/en/esg-digest/esg-digest-32-february-2025-eng.pdf

TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING AJRALMAS O‘RNI

Shuxratov Shoxijaxonbek
Bojxona instituti 4-kurs kursanti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining tashqi savdo jarayonlarini rivojlantirishdagi ajralmas o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda SI ning savdo prognozlash, bojxona risklarini boshqarish, ta’minot zanjirini optimallashtirish va firibgarlikni aniqlash kabi yo‘nalishlardagi qo‘llanilishi batafsil yoritilgan. Global statistik ma’lumotlar, Jahon savdo tashkiloti (JST), Jahon bojxona tashkiloti (JBT) va UNCTAD hisobotlari asosida SI ning global savdoni 2040-yilga borib 34-37% ga oshirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. O‘zbekistonning 2025-yilgi tashqi savdo ko‘rsatkichlari misolida mamlakatda SI ni joriy etish istiqbollari baholanadi. Tadqiqot natijalari yuqori samaradorlik, xavflarni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, tashqi savdo, bojxona nazorati, prediktiv analitika, ta’minot zanjiri, firibgarlikni aniqlash, raqamli transformatsiya, savdo prognozlash, risk boshqaruvi.

Kirish Bugungi kunda global iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tashqi savdo jarayonlari tobora murakkablashmoqda. Jahon savdo tashkilotining 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalari global savdo hajmini 2040-yilga kelib 34-37 foizga oshirishi mumkin [1]. Bu o‘sish asosan savdo xarajatlarini kamaytirish, ta’minot zanjirlarini optimallashtirish va risklarni samarali boshqarish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi uchun tashqi savdo milliy iqtisodiyotning asosiy dvigatellaridan biridir. 2025-yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard AQSh dollariga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 20,7 foizga oshgan [2]. Eksport hajmi esa 33,8 milliard dollarni tashkil etib, 24 foiz o‘sish ko‘rsatgan [3]. Ushbu

ko‘rsatkichlar fonida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tashqi savdoning yanada tezkor va samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Sun’iy intellektning tashqi savdoga ta’siri bir nechta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, prediktiv analitika yordamida bozor talabi va narx o‘zgarishlarini oldindan bashorat qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, bojxona jarayonlarida avtomatlashtirilgan risk tahlili va firibgarlikni aniqlash tizimlari joriy etiladi. Uchinchidan, ta’minot zanjirining barcha bosqichlari optimallashtiriladi. Ushbu maqolada ushbu yo‘nalishlar batafsil tahlil qilinadi va statistik ma’lumotlar, ilmiy manbalar asosida asoslantiriladi.

1. Sun’iy intellektning global savdo o‘sishiga ta’siri

Jahon savdo tashkilotining 2025-yilgi “World Trade Report” hisobotida ta’kidlanishicha, sun’iy intellekt savdo logistikasini, ta’minot zanjirlarini boshqarishni va regulyator muvofiqlikni yaxshilash orqali savdo xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [1]. Hisobotda keltirilgan simulyatsiya natijalariga ko‘ra, SI ning to‘liq joriy etilishi global savdo hajmini 2040-yilga kelib 34-37 foizga oshirishi mumkin. Bu raqamlar savdo xarajatlarining 10-15 foizga qisqarishi va transport xarajatlari samaradorligining oshishi bilan bog‘liq.

UNCTADning 2025-yilgi “Technology and Innovation Report” hisobotida AI ning iqtisodiy ta’siri 4,8 trillion dollar deb baholanmoqda, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar bu imkoniyatlardan teng foydalana olmayapti [4]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda SI ni joriy etish global savdoda tengsizlikni yanada kuchaytirishi mumkinligi ta’kidlanadi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun bu ogohlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rsatkich	***2030-yil***	***2040-yil***
Global savdo o‘sishi (foizda)	*15-20%*	*34-37%*
Savdo xarajatlari kamayishi	*8-12%*	*15-20%*
Rivojlangan mamlakatlardagi o‘sish	*40%*	*45%*
Rivojlanayotgan mamlakatlardagi o‘sish	*25%*	*30%*

Jadval 1. Sun’iy intellektning global savdoga ta’siri prognozlari (JST, 2025) [1]

2. Prediktiv analitika va savdo prognozlashda SI

Prediktiv analitika sun’iy intellektning tashqi savdodagi eng muhim qo‘llanishlaridan biridir. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari tarixiy savdo ma’lumotlari, bozor tendensiyalari va global iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilib, kelajakdagi talabni yuqori aniqlikda bashorat qiladi. Masalan, talab prognozlash formulasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$D(t+1) = \beta_0 + \beta_1 \cdot H(t) + \beta_2 \cdot S(t) + \beta_3 \cdot E(t) + \varepsilon$$

Bu yerda:

- D(t+1) – keyingi davrdagi talab;
- H(t) – tarixiy savdo hajmi;
- S(t) – mavsumiy ko‘rsatkich;
- E(t) – tashqi iqtisodiy omillar (masalan, valyuta kursi);
- β – koeffitsientlar (neyron tarmoqlar orqali hisoblanadi);
- ε – xato [5].

Ushbu model yordamida kompaniyalar ortiqcha zaxira yoki yetishmovchilikni oldini oladi. EY kompaniyasining tadqiqotiga ko‘ra, prediktiv analitika ta’minot zanjirida xarajatlarni 15-20 foizga kamaytiradi [6].

Xitoy bojxona tizimida “Intelligent Examination” texnologiyasi 2020-yildan boshlab yuk tekshiruvi vaqtini 52,4 foizga qisqartirgan [7]. Bu natija prediktiv modellar yordamida yuqori xavfli yuklarni oldindan aniqlash orqali erishilgan.

3. Bojxona jarayonlarida AI va risk boshqaruvi

Jahon bojxona tashkiloti (WCO) ning “Smart Customs” loyihasi doirasida AI bojxona jarayonlarida keng qo‘llanilmoqda. AI/ML texnologiyalari riskni baholashda, firibgarlikni aniqlashda va resurslarni taqsimlashda ishlatiladi [8]. Xitoyning “Intelligent Customs Inspection” tizimi deklaratsiyalarni 100 foiz avtomatlashtirilgan tekshirish imkonini beradi.

Risk baholashda *logistic regression modeli* quyidagicha qo‘llaniladi:

$$P(fraud) = 1 / (1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + ... + \beta_n X_n)})$$

Bu yerda P(fraud) – firibgarlik ehtimolligi, X – deklaratsiya parametrlaridir [9]. Model aniqligi 95 foizdan yuqori bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda 2025-yil 25-martdagi Prezident farmoni bilan bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va AI ni joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan [10]. Bu reja 2027-yilga qadar qog‘oz hujjatlarni elektron shaklga o‘tkazish va AI yordamida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Ko‘rsatkich	***Hajm (mlrd $)***	***O‘sish (%)***
Umumiy aylanma	*81,2*	*20,7*
Eksport	*33,8*	*24,0*
Import	*47,4*	*18,0*
Asosiy sheriklar (eksport)	*Xitoy, Rossiya, Turkiya*	*-*

Jadval 2. O‘zbekiston tashqi savdo ko‘rsatkichlari (2025-yil) [2, 3]

4. Sun’iy intellektning tashqi savdo samaradorligiga ta’siri: iqtisodiy tahlil

AI texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq. Quyidagi formula AI investitsiyalarining rentabelligini (ROI) baholash uchun ishlatilishi mumkin:

ROI = (AI dan olingan umumiy foyda – AI ga investitsiya) / AI ga investitsiya × 100%

Umumiy foyda quyidagi komponentlardan iborat:

1. Operatsion tejash (OS): Xodimlar vaqti, ofis materiallari, saqlash xarajatlari kamayishi.

2. Xatoliklarni kamaytirishdan tejash (EES): Jarimalar, to‘lov kechikishlari, qayta ishlash xarajatlari kamayishi.

3. Tezlashtirilgan operatsiyalardan olingan daromad (RFE): Tovarlarni bozorga tezroq chiqarish orqali oshirilgan savdo hajmi.

4.2. O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar

O‘zbekiston tashqi savdo va bojxona tizimini modernizatsiya qilish borasida muhim qadamlar qo‘ygan. AI ni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Infratuzilmani rivojlantirish: Yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i, bulutli hisoblash imkoniyatlari, ma’lumotlar markazlarini qurish.

2. Malakali kadrlarni tayyorlash: AI muhandislari, ma’lumotlar tahlilchilari va raqamli bojxona mutaxassislarini tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish.
3. Qonuniytexnik bazani takomillashtirish: Ma’lumotlar maxfiyligi, kiberxavfsizlik va AI qarorlarining mas’uliyati bo‘yicha aniq me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish.
4. Davlatxususiy sheriklikni rag‘batlantirish: AI startaplari va texnologik kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, innovatsion yechimlarni sinab ko‘rish.
5. Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish: WCO, WTO va boshqa xalqaro tashkilotlarning raqamli savdo va AI bo‘yicha talablariga rioya qilish.

5. Asosiy muammolar va cheklovlar

AI texnologiyalarini joriy etish bir qator qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi:

Dastlabki yuqori kapital xarajatlar: Ilg‘or AI tizimlarini sotib olish, sozlash va qo‘llab-quvvatlash katta investitsiyalarni talab qiladi.

Ma’lumotlar sifatiga bog‘liqlik: AI modellarining samaradorligi ular o‘rgatilgan ma’lumotlar sifatiga bevosita bog‘liq. Noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumotlar noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin.

Maxfiylik va xavfsizlik muammolari: Savdo ma’lumotlarining nozik tabiati uni kiberhujumlar va ma’lumotlar o‘g‘irlash xavfiga qarshi himoya qilishni talab qiladi.

Kadrlar tanqisligi: AI sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi ko‘p mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun jiddiy to‘siqdir.

Qonuniy va etik muammolar: AI tomonidan qabul qilingan qarorlarning mas’uliyati, algoritmik kamsitish va shaffoflik muammolari hali to‘liq hal qilinmagan.

Xulosa Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy tashqi savdoni shakllantiruvchi transformatsion kuchga aylandi. AI asosidagi yechimlar – avtomatlashtirilgan hujjatlar boshqaruvi, aqlli bojxona nazorati, bashoratli logistika va ko‘p tilli muloqot vositalari – savdo operatsiyalarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, xatoliklarni bartaraf etish va global raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Xalqaro tajribalar AI ni keng

qo‘llashning iqtisodiy jihatdan o‘zini qoplashini va uzoq muddatda barqaror o‘sishni ta’minlashini isbotlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining raqamlashtirish va AI ni rivojlantirish bo‘yicha strategik hujjatlari asosida ushbu texnologiyalarni joriy etish uchun qulay imkoniyatga ega. Infratuzilmani rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash, qonuniy bazani takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali mamlakatimiz tashqi savdo samaradorligini keskin oshirishi va global iqtisodiy zanjirda mustahkam o‘rin egallashi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar AI tizimlarining aniqligi va ishonchliligini oshirish, maxfiylikni ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda O‘zbekistonning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan ixtisoslashtirilgan yechimlar yaratishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WTO. World Trade Report 2025: Making Trade and AI Work Together.
2. Uzbekistan State Statistics Committee, 2025.
3. INVEXI. Uzbekistan’s Foreign Trade Turnover: Results for 2025.
4. UNCTAD. Technology and Innovation Report 2025.
5. EY. Power of Predictive Analytics in Supply Chain.
6. Kearney. Predictive Analytics in Supply Chain Management, 2025.
7. WCO News. Recent Changes in China Customs.
8. WCO. Smart Customs Project Report, 2025.
9. ESCAP. Artificial Intelligence in Customs.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi farmoni.

“O‘ZBEKISTON-2030 “ STRATEGIYASI VA XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI

Sadullayeva Ruxshona Sheraliyevna
O‘zMU 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi globallashuv davrda yurtimizda bo‘layotgan jadal islohotlar, ularning xalqimiz hayotidagi ahamiyati, ayniqsa, “ O‘zbekiston-2030 strategiyasi “ va uning rivoji, hozirda bu islohotlarning qanchalik muhim va jamiyat hayot sohalaridagi o‘rni yoritiladi

Kalit so‘zlar: strategiya, rivojlanish, ta’lim, tibbiyot, demokratik jamiyat. Iqtisodiy o‘sish, globallashuv, fuqarolik jaamiyati, vakillik organlari.

Barchamizga ma’lumki, 2023 yil O‘zbekiston siyosiy-ijtimoiy hayotida muhim voqeliklar yili sifatida tarixda qoldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinishi, Prezidentlik saylovi o‘tkazilishi natijasida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilindi. Hayot shiddat bilan ilgarilab bormoqda. Zamon, shu bilan birga talablar, mezonlar o‘zgarmoqda. Ayniqsa, mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida keyingi 5 yilda bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘ylaganda odam hayratda qoladi.

2017-yildan boshlab Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiliklarida O‘zbekistonda keng qamrovli islohotlar boshlangan bo‘lsa, mazkur amalga oshirilayotgan islohotlarni faqatgina sanab o‘tishning o‘ziga bir kun kamlik qiladi.

Lekin, hozirgi davrda, davlat, jamiyat, har kungi hayotimiz taraqqiyotiga muvofiq bo‘lgan va aholi farovonligini oshirishga eng katta omil bo‘lgan o‘zgarishlarni sanab o‘tish masadga muvofiq, deb o‘ylayman.[1]

Birinchidan, O‘zbekiston demokratik jamiyatni qurishga kirishdi. Buni ochiq aytish kerak, oson qaror bo‘lmadi. Ekspert va mutaxassislar “bu qadamni bosishning vaqti hali kelmadi, Siz ham, mahalliy hokimliklar ham

juda katta qiyinchiliklarga dech kelasizlar” deb muhtaram Prezidentimizni bu yo‘ldan qaytarmoqchi bo‘lishgan. Lekin, Shavkat Miromonovich o‘zlarining metin irodalari tufayli juda to‘g‘ri va dono qaror qabul qildilar. Chunki, demokratiya bo‘lmagan davlatda rivojlanish bo‘lishi juda qiyin. Qo‘pol qilib aytganda, bir qushning qanotlarini kesib tashlasangiz, u uchmaydi. Demokratiya xalqimizning qanotlarni keng yoyib, parvoz qilishga, ya’ni ijodkorlik, tashabbuskorlik va yangilikka intilishga bo‘lgan xususiyatlariga keng yo‘l ochdi.

Davlat xalqning fikri, e’tirozi, arzi va takiflarini eshitadigan bo‘ldi, shunga javoban, o‘zining siyosatini xalq niyati, istagi va umidlari asosida o‘rnatishga keng yo‘l ochildi. O‘tgan 5 yil ichida bu bizning eng muhim va katta yutug‘imiz bo‘ldi.

Ikkinchidan, iqtisodiy islohotlar jadal rivojlanyapti, bulardan eng birinchisi valyutaning erkin aylanmasi joriy qilingani bo‘lsa, bank tizimi va pul muomalasining erkinlashtirilishi, soliq yukining keskin kamaytirilishi va xususiy biznesga keng yo‘l ochilishi uning asosiy negizidir.

Ayniqsa, xususiy biznesning qonun himoyasida bo‘lishidek ishonchli tizim yaratildi va turli bosim, ma’muriy, rasmiy va norasmiy tazyiqlardan ozod bo‘lganligi bozor iqtisodiyotining rivojiga keng yo‘l ochib berdi.

Oxirgi yillarda nafaqat O‘zbekistonda, qolaversa, boshqa davlatlarda amalga oshirilmagan mutlaqo yangi usullar, kambag‘al oilalarga byudjetdan subsidiya berib, arzon uylar qurish, nafaqat tumanlar, qolaversa mahallalardagi mustahkam byudjet manbalarini belgilash, -“Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ni joriy qilish va shu orqali qiynalgan oilalarni, ayollar va yoshlarni ish bilan band qilish va aniq daromadiga ega bo‘lishi alohida e’tiborga ega. Shu orqali iqtisodiyotimizga eng katta tahdid keltiradigan ishsizlik muammosiga yechim topish uchun amalga oshirilayotgan siyosat, desak to‘g‘ri bo‘ladi.[2]

Albatta, bu va boshqa ko‘plab yig‘ilib qolgan muammolarni faqat o‘zimizning chegaralangan manbalar hisobidan to‘liq hal qilishning imkoni yo‘q. Shuning uchun davlatimiz chetdan qarz olishga majbur. Olingan mablag‘lar eng katta to‘siq bo‘lib turgan masalalarni, jumladan, xalqimizni elektr, gaz va ichimlik suv bilan ta’minlash tizimini yangilashga, shuningdek, eski, buzilgan yo‘l va ko‘priklarni qayta ta’mirlashga hamda

yangi yo‘llarni qurish, ta’lim va tibbiyot tizimlarini yaxshilash hamda zamonaviy sanoat korxonalarini qurishga ishlatilmoqda.

Uchinchidan, ta’lim-tarbiya tizimining to‘liq isloh qilinishidir. Maktabgacha ta’lim tizimi butunlay qayta ko‘rilib, qamrov darajasi 20 foizdan 70 foizgacha oshgani, umumta’lim maktablari tizimining sifat jihatidan o‘sishi, oliy o‘quv yurtlari soni 2 barobar oshgani, 30 ga yaqin xorijiy nufuzli oliy ta’lim muassasalari respublikamizda o‘z filiallarini ochgani, maktab bitiruvchilarining oliy o‘quv muassasalariga o‘qishga kirishi 9 foizdan 30 foizgacha oshgani buning yaqqol dalilidir.

Madaniyat, ma’naviyat va sport sohalarida olib borilayotgan islohotlar ham e’tiborga molik. Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alaba va unda ishtirok etgan o‘zbek o‘g‘lonlari xotirasiga bag‘ishlangan G‘alaba bog‘i, hududlarda, Namanganda Ibrat domla majmualari, Gulistonda O‘zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva nomidagi maktab, Andijonda xalq shoiri Muhammad Yusuf nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabning barpo etilishi, Nukus shahrida qoraqalpoq adabiyotining so‘nmas yulduzi Ibroyim Yusupov nomidagi va shunga o‘xshash ko‘plab muassasalarning ochilishi yoshlarimizning iqtidorini oshirishga, tarixni mukammal bilish va qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otishga katta turtki bo‘lmoqda.[3]

Sportchilarimizning yaqinda Tokioda o‘tkazilgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlaridagi betakror yutuqlari hammamizga g‘urur va quvonch bag‘ishladi.

To‘rtinchidan, poytaxtimiz Toshkentda, shahar va qishloqlarimizda betakror ulkan qurilishlar, obodonlashtirish, yangi yo‘llar va ko‘priklarning barpo etilishi, mahalla va uzoq qishloqlarda bo‘layotgan bunyodkorlik ishlari Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgani bu quruq shior emas, balki buning negizida xalqning farovonligi yo‘lidagi juda katta va tizimli o‘zgarishlar ro‘y berayotgani o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Jumladan, hammani hayratda qoldirgan “Yangi O‘zbekiston” milliy bog‘ining barpo etilgani va u yerda muhtaram Prezidentimizning bayram tantanalarida qilgan ta’sirli, sermazmun nutqlari hamda betakror konsert dasturlari namoyishi xalqimizning mustaqillikka erishish yo‘lida boshidan kechirgan qiyinchiliklar va bugungi yorug‘ kunlarga yetib kelishida olib

borilgan ishlarining ko‘rsatib berilganligi barchamizda o‘zgacha taassurot qoldirdi.

> Beshinchidan, sanoat va ishlab chiqarish sohalarida yangi, davlat-xususiy sherikchilik tizimi yaratilishi, geologiya va bazaviy tarmoqlarning mutlaqo yangi samarali mexanizmlari ishlab chiqilishi buning yaqqol misolidir.[4]

Avvalambor, mamlakatimizda mustaqillikning o‘tgan 32 yili mobaynida birinchi marotaba bunday uzoq muddatga, ya’ni 7 yilga mo‘ljallangan qamrovdor milliy taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Bu yuksak marra, bir tomondan, davlatimiz va jamiyatimiz hayotining barcha sohalaridagi barqarorlik, taraqqiyot va bunyodkorlikning o‘ziga xos in’ikosi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, izchil va shiddatli demokratik islohotlarimizga xalqimiz hamda jahon hamjamiyati bildirayotgan ishonch hamda rag‘batning yaqqol ifodasi hamdir.

Ushbu dasturilamal hujjatda quyidagi asosiy g‘oyalar aks etgan:

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rish olish;

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlat barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

Boshqacha aytganda, «O‘zbekiston — 2030» strategiyasida belgilangan maqsad-vazifalar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘ziga xos “yo‘l xaritasi” vazifasini o‘taydi. Mazkur Strategiyani amalga oshirish va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish barcha davlat organlari va tashkilotlarning eng ustuvor vazifasidir.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasida jami 100 ta maqsad, 369 ta chora-tadbir, 190 ta vazifa, 306 ta maqsadli ko‘rsatkich bajarilishi va bu borada 118 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi ko‘zda tutilgan. Ushbu dasturilamal hujjatning ijrosidan yurtimizdagi har bir insonga – qulay imkoniyat, muayyan yengilliklar, moddiy va ma’naviy

manfaat yetib, har qaysi oila va xonadon obodlik, to‘kinlik, fayz va baraka topadi.[4]

Strategiyadagi jami 100 ta maqsad quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha taqsimlangan.

Birinchi ustuvor yo‘nalish: Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan 44 ta maqsad, ya’ni 1-maqsaddan – 44-maqsadgacha ushbu ustuvor yo‘nalish tarkibiga kiradi. Bunda ta’lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya, yoshlar siyosati, ma’naviyat masalalariga taalluqli 156 ta amaliy chora-tadbir va 70 ta vazifa qamrab olingan bo‘lib, 130 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish belgilangan. Shuningdek, 38 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash va qabul qilish ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi ustuvor yo‘nalish: Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash bilan bog‘liq 17 ta maqsad (45-61-maqsadlar) doirasidagi 68 ta amaliy chora-tadbir va 55 ta vazifani qamrab olgan. Mazkur ustuvor yo‘nalishda YaIM, byudjet, sanoat, investitsiya, bank, “yashil iqtisodiyot”, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, eksport, monopoliyalar, IT, turizm, xizmatlar, infratuzilma, uy-joy masalalariga oid 75 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 29 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash belgilangan.

Uchinchi ustuvor yo‘nalish: Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan 12 ta maqsad (62-73-maqsadlar) ushbu ustuvor yo‘nalish tarkibiga kiradi. Bunda 31 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifa qamrab olingan bo‘lib, 39 ta maqsadli ko‘rsatkich ishlab chiqiladi hamda 15 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalari tayyorlanadi.

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish: 16 ta maqsad (74-89-maqsadlar) doirasida qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish borasida belgilab berilgan 51 ta amaliy chora-tadbir va 21 ta vazifani o‘zida qamraydi. Bunda mahalla, mahalliy davlat organlari, vakillik organlari, davlat xizmati, fuqarolik jamiyati institutlari, sud-huquq, inson huquqlari, advokatura, korrupsiya masalalariga oid 41 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 25 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash nazarda tutilgan.

Beshinchi ustuvor yo‘nalish: “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishga qaratilgan 11 ta maqsad (90-100-maqsadlar) doirasida 63 ta chora-tadbir va 23 ta vazifa bajariladi. Xususan, tashqi siyosat, Jahon savdo tashkilotiga a’zolik, xorijdagi vatandoshlar, mehnat migratsiyasi, Qurolli kuchlar, favqulodda vaziyatlar, millatlararo totuvlik masalalariga aloqador 21 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 11 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash talab etiladi.[6]

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, muhtaram yutboshimiz tomonidan bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyoti uchun qilinayotgan har bir islohot, har bir ish samara bermoqda va jamiyatimizning har bir sohasida katta ahamiyat kasb etayotganiga guvohmiz. Ayniqsa biz yoshlar uchun katta imkoniyat eshiklari ochilmoqda, undan foydalanib yurtimizni yuksaklikka ko‘tarish ha birimizni burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.yuz.uz

2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi ustuvor vazifalar.– Toshkent, O‘zbekiston. 2023.

3. O‘zbekiston–2030 strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan.

4. O‘zbekiston–2030 strategiyasi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

IV-SHO‘BA: ZAMONAVIY G‘OYAVIY XURUJLAR VA AHOLINING MAVKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

GLOBAL TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA RADIKALIZMGA QARSHI KURASHISHNING MA’NAVIY-MAFKURAVIY DETERMINATLARI VA PREVENTIV MEXANIZMLARI

Muhammadolim Muhammadsiddiqov
Siyosiy fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonning strategik taraqqiyot bosqichida radikalizm fenomeniga qarshi ma’naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirishning fundamental-metodik asoslari tahlil qilingan. Muallif global transformatsiyalar va geosiyosiy arxitektura o‘zgarishi sharoitida milliy g‘oyaning aksilradikalizm yo‘nalishidagi ahamiyatini, shuningdek, jamiyatda “mafkuraviy vakuum” yuzaga kelishining oldini olish strategiyalarini tadqiq etadi. Maqolada yoshlar ongiga “diffuziya” usuli bilan kirib kelayotgan begona submadaniyatlar va “kultural nigilizm”ning destruktiv oqibatlari ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot yakunida ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni raqamli texnologiyalar orqali tizimlashtirish, ijtimoiy-gumanitar fanlar metodologiyasini transformatsiya qilish hamda “maktab-mahalla-oila” zanjirining vertikal hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha konseptual taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: radikalizm, mafkuraviy immunitet, geosiyosiy transformatsiya, milliy g‘oya, ijtimoiy konsolidatsiya, kultural nigilizm, g‘oyaviy diversifikatsiya, ma’naviy-mafkuraviy eroziya, verifikatsiya, raqamli ma’naviyat.

Yangi O‘zbekistonning strategik taraqqiyot bosqichida radikal g‘oyalar tarqalishi bilan bog‘liq transmilliy tahdidlarning oldini olish hamda bu boradagi preventiv mexanizmlarning samaradorligini ta’minlash

obyektiv zaruriyatga aylandi. Global transformatsiyalar shiddat kasb etayotgan bugungi kunda radikalizmga qarshi mafkuraviy barqarorlikni shakllantirishning universal omillari va tizimli tamoyillari mavjudligi ilmiy hamda amaliy jihatdan o‘z tasdig‘ini topmoqda. Oxirgi o‘n yillikda kuzatilgan global tendensiyalar nafaqat jahon geosiyosiy arxitekturasini, balki xalqaro munosabatlarning fundamental paradigmalarini ham tubdan o‘zgartirdi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning globallashuvi va tizimli transformatsiyasi sharoitida ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha qatlamlarida chuqur kon’yunkturaviy o‘zgarishlar kechmoqda. Natijada davlatlararo o‘zaro bog‘liqlikning ortishi, axborot makonining shaffoflashuvi va integratsiya jarayonlarining dinamik rivojlanishi kuzatilmoqda.

Xalqaro munosabatlar arxitekturasining murakkablashuvi, xususan, transmilliy nohukumat tashkilotlar (NHT) ta’sirining kengayishi radikalizmga qarshi kurash strategiyalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda jamiyat ma’naviy hayoti barqarorligini ta’minlash, milliy g‘oyaning aksilradikalizm yo‘nalishidagi ta’sirchanligini oshirish hamda ushbu jarayonlarning ontologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortmoqda. Zero, yangilanish bosqichidagi jamiyatning nazariy va konseptual asoslarini belgilab beruvchi milliy g‘oya – ijtimoiy barqarorlikning birinchi darajali kafolatidir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, millatning yagona maqsad va oliy g‘oyalar atrofida birlashuvi (ijtimoiy konsolidatsiya) davlat taraqqiyotining fundamental omili hisoblanadi. Biroq globallashuvning ziddiyatli ta’sirlari natijasida hanuzgacha ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rnini anglab yetmagan, milliy mafkuraning strategik ahamiyatini inkor etuvchi nigilistik qarashlar ham saqlanib qolmoqda.

Ayrim qarashlarda milliy g‘oya tushunchasining o‘tgan tuzumga xos bo‘lgan dogmatik va biryoqlama mafkuraviy qoliplar bilan qiyoslanishi kuzatilmoqda. Vaholanki, zamonaviy milliy g‘oya erkinlik va taraqqiyot tamoyillariga asoslanadi. Shu bois, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan alohida ta’kidlanganidek, bugungi kunda ma’naviy-ma’rifiy va madaniy sohalardagi islohotlarimizning fundamental-metodik asosi bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyani rivojlantirish bo‘yicha konseptual dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish kechiktirib bo‘lmas vazifadir.

Mazkur strategik hujjatlarda jamiyatning intellektual salohiyatini safarbar etish hamda milliy o‘zlikni anglash darajasini yuksaltirishga qaratilgan bir qator konseptual jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim[1].

Birinchidan, shiddatli globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida g‘oyaviy-mafkuraviy xurujlarning diversifikatsiyasi (turli shakllarga kirishi) milliy o‘zlik va qadriyatlar tizimiga jiddiy tahdid solmoqda. Xususan, yoshlar ongiga “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi boqimandalik, egotsentrizm va hedonistik (hayotni faqat ko‘ngilochar deb bilish) qarashlarni singdirishga bo‘lgan urinishlar kuchaymoqda. Bu esa terrorizm, ekstremizm va odam savdosi kabi transmilliy jinoyatlarning mafkuraviy zaminini tashkil etmoqda.

Ikkinchidan, milliy mentalitet va axloqiy-estetik qarashlarimizga yot bo‘lgan submadaniyatlarning "diffuziya" usulida (sezdirmasdan) kirib kelishi kuzatilmoqda. Ma’naviyat sohasidagi eng dolzarb muammolardan biri — milliylikdan uzilish va begona qadriyatlarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish (kultural nigilizm) holatlarining yoshlar o‘rtasida ommalashayotganidir.

Uchinchidan, jamiyatning ma’naviy-mafkuraviy makonida “vakuumni” (bo‘shliqni) vujudga keltirmaslik strategik vazifadir. Bunda yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish – tarixiy xotira, oilaviy tarbiya va milliy o‘zlikni anglashga asoslanishi lozim. Shuningdek, korrupsiya va byurokratizm kabi ijtimoiy illatlarga qarshi kurashda jamoatchilik nazoratining institutsional o‘rnini mustahkamlash talab etiladi.

To‘rtinchidan, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni boshqarishda empirik (tajribaviy) va ilmiy tahlil mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Soha metodologiyasi zamon talablariga mos kelmas ekan, targ‘ibot ishlarida kutilgan samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Bu esa mutaxassislardan yuksak intellektual salohiyat va mas’uliyat talab qiladi.

Beshinchidan, uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya yoshlarning psixologik xususiyatlari va zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib transformatsiya qilinishi shart. Maktabgacha, maktab va oliy ta’lim o‘rtasidagi uzviylik hamda “maktab-mahalla-oila” zanjirining vertikal hamkorligini ta’minlash islohotlarning natijadorligini belgilaydi.

Oltinchidan, ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitilishida turg‘unlik (stagnatsiya) kuzatilmoqda; ular zamon shiddati va yoshlar dunyoqarashi bilan hamnafas emas. Mazkur fanlar yoshlarda tanqidiy fikrlashni shakllantirishi, ularning kasbiy va yosh xususiyatlariga mos ravishda chuqur tahliliy asosda qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Yettinchidan, dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda, yoshlarga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini, uning odob-axloq normalarini tizimli o‘rgatish zarur. Diniy ma’rifat sohasidagi boqimandalik yoki bilim yetishmasligi yoshlarning radikal oqimlar tuzog‘iga tushib qolishiga zamin yaratmoqda.

Sakkizinchidan, yosh rahbar kadrlar faoliyatida “texnokratik yondashuv” ustunlik qilib, milliy mentalitet va hududiy spesifikani (o‘ziga xoslikni) hisobga olmaslik holatlari ko‘zga tashlanmoqda. G‘arb tajribasini mexanik tarzda ko‘chirish emas, balki uni milliy qadriyatlar süzgichidan o‘tkazib tatbiq etish mahorati yetishmayapti. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqur tahlil qila oladigan siyosiy sharhlovchi va ekspertlar makonini kengaytirish lozim.

To‘qqizinchidan, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini raqamli texnologiyalar va zamonaviy media-platformalar orqali tizimlashtirish vaqti keldi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ulkan mobilizatsion (safarbarlik) kuchidan milliy manfaatlarni himoya qilish va mafkuraviy tahdidlarga qarshi preventiv (oldini oluvchi) zarba berishda unumli foydalanish strategik ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi [2].

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi

qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi[3].

Har bir tadbir o‘zining xususiyati jihatidan pedagogik asosga ega. Chunki pedagogika ham asosan tarbiyaviy jarayonlarni boshqaradi. Insonlarga ta’sir qilish, bola tarbiyasi, ibrat, ma’naviy ozuqa, bilimli-ilmli bo‘lish, ustozlarga, kattalarga xurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat va boshqa barcha shu kabi tushunchalari pedagogika sohasida yanada chuqur o‘rganiladi[4].

Moslashuvlar borasida hech qanday takliflar va tavisiyalar berilmaydi. Aksincha, namoyon bo‘lgan to‘g‘ri moslashuvlarga aktyor-talabalarni yo‘naltirish, yetaklash zarur. Moslashuvlarni rivojlantirish uchun ular bilan mashq qilish, ular xaqida qayg‘urish kerak. Rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarni bajarishda majburlash kabi ta’sirlar bo‘lmasligi kerak. Bunda, aktyor-talaba o‘zining yakka siymosini yo‘qomasligi uchun, moslashuvning jonli ko‘rinishi emas, balki uning g‘oyasi ifodalanib berilishi kerak[5].

Aynan shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik, shu jumladan, harbiy-vatanparvarlik, yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, «Xalq va armiya — bir tanu, bir jondir!» degan ezgu g‘oya asosida yoshlar tarbiyasiga mas’ul vazirlik va idoralarning kuch va imkoniyatlarini bir g‘oya, bir maqsad asosida birlashtirish talab etilmoqda[6].

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixining retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, yirik saltanatlarning tanazzuli bevosita ma’naviy-mafkuraviy eroziya va tizimli inqirozlar bilan bog‘liqdir. Jamiyatda g‘oyaviy bo‘shliqning yuzaga kelishi, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarning devalvatsiyasi hamda ichki disgarmoniya davlat institutsional qudratining zaiflashishiga va destruktiv illatlarning avj olishiga fundamental zamin yaratadi. Shu bois, hozirgi transformatsiya jarayonlarida ma’naviyat va mafkura sohasidagi yangilanishlarning ontologik va gnoseologik mohiyatini anglash strategik ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy global geosiyosiy arxitekturada yangi “kuch markazlari”ning shakllanishi, mintaqaviy va etnik mojarolarning

kuchayishi bilan bir qatorda, radikalizm fenomenining kengayishiga olib keldi. Global miqyosdagi ekologik, iqtisodiy va siyosiy muammolarning ekstrapolyatsiyasi ularning ta’sir doirasi va destruktiv salohiyatini yanada oshirmoqda. Bunday murakkab sharoitda yuzaga kelayotgan siyosiy voqelikni fundamental ilmiy tahlil qilish, milliy manfaatlar kontekstida mamlakatimizning geosiyosiy mavqeyini aniqlash hamda xavfsizlikka tahdid soluvchi endogen va ekzogen omillarni monitoring qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda mafkuraviy determinizmning asosiy obyekti sifatida inson ongi va psixologik qatlamlarini egallash maqsad qilib olingan. Shu sababli, turli mintaqalar geosiyosiy subyektlarning o‘zaro raqobati natijasida g‘oyaviy-mafkuraviy poligonlarga aylanib ulgurdi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, radikal g‘oyalarga qarshi ma’naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish ob’ektiv zaruriyatdir. Ushbu jarayonning asosi sifatida inson ijtimoiylashuvidagi "nazorat qilinmaydigan segmentlar"ni ratsional va ma’rifiy mazmun bilan to‘ldirish konsepsiyasi yotadi. Axborotlashgan jamiyat sharoitida aholining barcha qatlamlariga yetkazilayotgan ma’lumotlarning verifikatsiyasi (haqqoniyligi), ularning milliy taraqqiyot strategiyasiga hamda davlat va jamiyat manfaatlariga muvofiqligi milliy xavfsizlikning muhim kafolatidir.

ADABIYOTLAR

1. Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak. Sh.Mirziyoyevning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan maslisidagi nutqi. – Toshkent, 2023-yil 22-dekabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevral, PF-4947-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyundagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati” to‘g‘risida»gi Qonun (O‘RQ-406-son).

4. Sayfullayev B., Rustamov V. (2016). Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. –Toshkent, –B.4. Xoji Ahmadjon Bobomurod. (2008). Islom odobi va ahloqi. – Toshkent, 15 b.

5. Talaboev, A., Akbarov, T., & Haydarov, A. The European Journal of Arts, Issue 1/2020.

6. https://lex.uz/docs/6518238

PROZELITIZM VA UNING G‘OYAVIY MAFKURAVIY TAHDIDI

Musayev Mansur Tursunpo‘latovich
Respublika Ma’naviyat va
ma’rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti bosh ilmiy xodimi,
siyosiy fanlari doktori, professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada prozelitizm va uning g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidi dunyo miqyosida din va diniy konfessiyalar o‘rtasidagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishga sabab bo‘layotganligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada prozelitizm harakati har qanday xalq va millatning ma’naviyatiga qarshi qaratilganligi bilan xatarli ekanligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, prozelitizm, g‘oya, mafkura, tahdid, konfessiya, radikal, Iegova guvohlari, g‘araz, buzg‘unchi.

Bugungi kunda prozelitizm harakati g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur harakat dunyo miqyosida din va diniy konfessiyalar o‘rtasidagi keskinlik va qarama-qarshiliklarni keltirib

chiqarishga sabab bo‘layotganligi tobora oydinlashmoqda. Bu esa g‘oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan prozelitizm to‘g‘risida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Zero, mazkur harakat aksariyat hollarda turli din va diniy konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlikka nifoq solish orqali diniy adovatlarga zamin yaratmoqda.

Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda. Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan sari muhim ahamiyat kasb etmoqda” [1], – deya ta’kidlagani ayni haqiqatdir. Aynan prozelitizm harakati tufayli jahonda milliy va diniy adovatlarning avj olishi diniy asnodagi urushlarni vujudga keltirmoqda. Natijada mazkur holatlar dunyo miqyosida bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda.

Prozelitizm yunon tilidagi “proselitizm” so‘zidan olingan bo‘lib, “kelgindi, bir joydan boshqa joyga ko‘chuvchi”, “o‘zining diniy e’tiqodidan boshqasiga o‘tuvchi”, “to‘g‘ridan-to‘g‘ri biron-bir dinga ishongan fuqaroni o‘z dinidan voz kechishga va o‘zga dinni qabul qilishga majbur qilish”ni anglatadi. Talaffuz qilishida til qavarib ketadigan bu atamaning sharqcha nomi “murtadlik” deyiladi [2]. Prozelitizm o‘tgan XX asrning 90-yillarida dunyoning bir qator davlatlarida vujudga kelgan din erkinligi sharoitida dinlar va konfessiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni murakkablashtiruvchi asosiy omil vazifasini o‘tagan. Shu o‘rinda prozelitizm harakati konfessiyalar o‘rtasidagi raqobatni shakllantirish orqali an’anaviy xristianlikka rahna solmoqda. Natijada mazkur holat o‘z navbatida dunyo miqyosida xristianlikning yagonaligini yo‘qotishiga, xristian madaniyati, ma’naviyati va uning qadriyatlariga putur yetkazmoqda. Prozelitizm atamasi XVII asrda fransuz tilida paydo bo‘lib, bir odamning ikkinchi odamga hiyla-nayrang bilan ta’sir o‘tkazishni anglatuvchi salbiy ma’no kasb etadi [3].

Ta’kidlash joizki, prozelitizm tarafdorlari ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va pardalar ostida faoliyat ko‘rsatmoqda. Mazkur harakat tarafdorlari o‘z faoliyati jarayonida puxta o‘ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlarni ko‘zlayotganligi tobora oydinlashmoqda. Prozelitizm

tufayli dunyo miqyosida aksariyat holatlarda haqoratlar, zo‘ravonliklar, qo‘rqitishlar diniy asnodagi urushlarni vujudga keltirmoqda. Mazkur harakatlarning oldini olish maqsadida hozirgi kunga kelib dunyoning 33 ta davlatida prozelitizm harakati umuman man etilgan bo‘lsa, 81 ta davlatda xorijiy missionerlar faoliyati cheklangan va 36 ta mamlakatda bir dindan boshqa dinga o‘tish hamda dunyo miqyosida mavjud davlatlarning 40 foizida qonunga zid ravishda diniy adabiyotlarni chop etish va tarqatish taqiqlangan [4].

Shu o‘rinda dunyodagi ayrim siyosiy kuchlar o‘zlarining “istiqbolli” rejalarini amalga oshirishda prozelitizmdan o‘z maqsadlari yo‘lida foydalanishi tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa mazkur harakatlar turli din va diniy konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlikka putur yetkazish orqali o‘zining uzoq va davomli strategik maqsadlarini ko‘zlayotganligini anglash lozim. O‘zida g‘arazli va buzg‘unchi maqsadlarni namoyon etuvchi prozelitizm o‘zining soxta g‘oyalariga ishontirish orqali dindan qurol sifatida foydalanmoqda. Aynan prozelitizm uzoqni ko‘zlaydigan g‘arazli maqsadlari tufayli diniy adovatni shakllantirish va kuchaytirish orqali diniy, irqiy va milliy nizolarni vujudga keltirmoqda. Prozelitizm harakati har qanday xalq va millatning ma’naviyatiga qarshi qaratilganligi bilan xatarli hamda ijtimoiy-siyosiy jihatdan tashvishlidir. Masalaning jiddiy tomoni shundaki, mazkur harakat natijasida o‘zga mamlakatlarning davlat suverenitetiga va konstitutsiyaviy tuzumiga nisbatan amalga oshirilayotgan siyosiy bosim va tajovuzlarni g‘oyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadi yotadi.

Boshqacha qilib aytganda, ma’naviy-madaniy qadriyatlar hamda diniy vositalar orqali boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashuv singari qonunga zid harakatlarni ko‘rish mumkin. Prozelitizm harakatining siyosiy mohiyati ayrim davlatlarda hukm surayotgan notinch vaziyatlardan foydalangan holda hokimiyat boshqaruvida vujudga kelayotgan ayirmachilik (separatizm), jumladan diniy asosdagi g‘ayriinsoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali parokandalikni yuzaga keltirishni nazarda tutadi. Ayniqsa globallashuv jarayoni prozelitizm harakatining dunyo miqyosida keng faoliyat olib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa prozelitizm tarafdorlari jamiyat va davlat miqyosida vujudga

kelayotgan ma’naviy bo‘shliqdan foydalanib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishga intilmoqda.

Bugungi kunda prozelitizm tarafdorlari turli niqoblar ostida yoshlar ongiga begona mafkura va dunyoqarashni singdirishga urinmoqda. Bu esa jamiyat barqarorligi uchun jiddiy xavf tug‘diradi. O‘tmishdan ma’lumki, prozelitizm bilan shug‘ullanuvchi shaxslarga nisbatan doimo salbiy munosabat bildirilgan. Chunki prozelitizm ta’sirida insonlar o‘z ajdodlari e’tiqod qilgan azaliy dinlardan voz kechib, boshqa dinni qabul qilishga majbur bo‘lgan. Dunyo miqyosida faol prozelitizm harakatlari bilan shug‘ullanayotgan sektalardan biri “Iegova guvohlari” sektasidir. Mazkur sekta turli millat va elatlarning til grammatikasi va leksikasini puxta o‘rganib, psixologik metodlardan ustalik bilan foydalanadi. “Iegova guvohlari” sektasi tomonidan olib borilayotgan prozelitizm oqibatida boshqa dinlarga nisbatan nafrat tuyg‘usi uyg‘otilishi kuzatilmoqda. Mazkur sekta tomonidan tarqatilayotgan diniy adabiyot va jurnallarda ayrim hollarda ekstremistik ruhdagi g‘oyalar mavjudligi ham qayd etilmoqda. Prozelitizm ta’siriga berilgan insonda o‘z ota-onasi, oilasi, Vatani va millatiga nisbatan e’tiqod susayishi mumkin. Shu sababli prozelitizm jamiyat xavfsizligi va davlat barqarorligiga nisbatan real xavf tug‘diruvchi omil sifatida baholanmoqda.

Shu tariqa prozelitizm oqibatida jamiyatda fanatizm, millatchilik va diniy fundamentalizmning kuchayishi uchun zamin yaratilishi mumkin. Bu haqda Kembrij universiteti professori Timoti Uinter shunday deydi. “Maqsadga erishish uchun begunoh kishilarning qonini to‘kish – bu din talab qiladigan mutlaq axloqiy cheklovlarga nisbatan teskari ishdir” [7]. Shu bois dunyo miqyosida milliy va diniy adovatlarni keltirib chiqaruvchi prozelitizm tahdidiga qarshi jamiyatni g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo do‘stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omilidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Respublika Baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag‘ishlangan uchrashuvdagi

nutqi.http://www.uza.uz/oz/politics/millatlararo-d-stlik-va-amzhi-atlik-khal-imiz-tinchligi-va-f-24-01-2017

2. Quronov M. Niqob ortiga bir nigoh. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018. – 11-b.

3. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa bosmaxonasi, 2014. – 378-b.

4. Yelenskiy V. Religioznaya svoboda: globalnye izmereniya. http://tatpolit.ru/category/zvezda/2011-06-21/6008

5. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyot-matbaa bosmaxonasi, 2014. – 6-b.

6. Shillington K. History of Africa. – London, 1995. – P. 292.

7. Ergashev A. Globallashuv ogohlikka undaydi. // Turkiston gazetasi. – 2014 yil 13 dekabr. – №100. – 3-b.

ZJV5401

MILLIY RUHIYAT VA UNING SHAKLLANISH OMILLARI

Suvanov Ilhom Abdixalilovich
Respublika Ma’naviyat va
ma’rifat Markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti Ilmiy kotibi, falsafa
fanlari doktori(DSc), katta ilmiy
xodim
Abdixalilov Zufarbek
Bojxona qo‘mitasi Toshkent
viloyati bo‘yicha boshqarmasi
katta inspektori

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy ruhiyat va uning shakllanish omillari haqida fikr yuritilib, milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ruh, milliy o‘zlikni anglash, milliy xarakter va milliy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, millat taraqqiyotini ta’minlashi, milliy ruhiyatni asrab-avaylash, uni rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, milliy ruhiyat, milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ruh, milliy o‘zlikni anglash, milliy xarakter, milliy qadriyatlar.

Milliy ruhiyat – har bir millatning ma’naviy dunyosi, ichki kechinmalari va ruhiy holatini ifodalovchi muhim tushunchadir. U «milliy g‘urur», «milliy iftixor», «milliy his», «milliy ruh» va «milliy xarakter» kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Bu tushunchalar millatning o‘zligini anglashida, uning tarixiy merosini asrab-avaylashida va kelajak taraqqiyotini ta’minlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ruhiyatni shakllantirishda, avvalo, insonning o‘z millatiga bo‘lgan munosabati muhim o‘rin tutadi. Har bir inson o‘z millatidan faxrlanishi, uning yutuqlari va boy tarixiy merosi bilan g‘ururlanishi lozim. Bu holat milliy ma’naviy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy iftixor – millatga xos moddiy yoki ma’naviy yutuqlar

bilan faxrlanish tuyg‘usini ifodalaydigan tushuncha bo‘lib, u inson ma’naviy kamolotining muhim qirralaridan biridir. Milliy iftixor insonda o‘z xalqi tomonidan asrlar davomida yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar, urf-odatlar, an’analar, odob-axloq, turmush tarzi va yuksak ma’naviyatga nisbatan chuqur hurmat va e’zoz tuyg‘usini shakllantiradi.

Milliy ruh – millatning ichki ruhiy holati, his-tuyg‘ulari, ma’naviy dunyosi va maqsadlarini ifodalovchi tushunchadir. Har bir millatning o‘ziga xos ruhiyati mavjud bo‘lib, u tarixiy taraqqiyot, ijtimoiy sharoit va turli ob’ektiv hamda sub’ektiv omillar ta’sirida asta-sekin shakllanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va taraqqiyot jarayonlari xalqimizning milliy ruhini yanada mustahkamlab, uni jamiyat taraqqiyotining muhim kuchiga aylantirmoqda.

Milliy ruhiyatning shakllanishida milliy o‘zini o‘zi anglash ham muhim ahamiyatga ega. Milliy o‘zini o‘zi anglash – millatning o‘zini muayyan moddiy va ma’naviy boyliklar egasi sifatida anglashi, umumiy til, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlarga egaligini tushunib yetishidir. Bu jarayon millatning shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Milliy o‘zini o‘zi anglash orqali millat o‘z manfaatlari va maqsadlarini anglab yetadi hamda umumiymilliy g‘oya atrofida birlashadi.

Milliy ruhiyatni shakllantirishda milliy xarakterning ham ahamiyati katta. Milliy xarakter – bir madaniyat va ma’naviyatga mansub odamlarga xos bo‘lgan sifatlar majmuidir. U millat a’zolarining maqsadlari, harakatlari va qobiliyatlarini millat manfaatlariga yo‘naltirishda muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Milliy xarakter millatning an’analari, madaniyati va turmush tarzi asosida shakllanadi va avloddan avlodga o‘tib boradi.

O‘zbek xalqi milliy xarakterining o‘ziga xos jihatlari xalqimizning birdamligi, kattalarga hurmat, mehmondo‘stlik va o‘zaro yordam kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar asrlar davomida shakllangan bo‘lib, milliy an’analar va qadriyatlar orqali avlodlarga meros bo‘lib kelmoqda. Milliy xarakterning bir tomoni konservativ bo‘lib, u milliy an’analarning barqarorligini a’minlaydi. Ikkinchi tomoni esa o‘zgaruvchan bo‘lib, millat taraqqiyotiga zamin yaratadi.

Shuningdek, milliy qadriyatlar ham milliy ruhiyatni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Milliy qadriyatlar millat manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy meros majmuasini tashkil qiladi. Urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar millat tarbiyasida muhim o‘rin egallab, milliy o‘zlikni anglashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman aytganda, milliy ruhiyat millatning ma’naviy kuchini ifodalovchi muhim omildir. Milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy o‘zlikni anglash, milliy xarakter va milliy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda millat taraqqiyotini ta’minlaydi. Shuning uchun ham milliy ruhiyatni asrab-avaylash va uni yanada rivojlantirish har bir jamiyat uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Shu bilan birga, har bir inson o‘z millatiga mansubligini his qilishi, uning tarixi, madaniyati va yutuqlari bilan faxrlanishi lozim. Bu holat milliy ma’naviy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy iftixor – millatga xos bo‘lgan moddiy va ma’naviy yutuqlar bilan faxrlanish tuyg‘usini ifodalaydigan tushunchadir. U inson ma’naviy kamolotining muhim jihatlaridan biri bo‘lib, shaxsning o‘z xalqiga nisbatan hurmat va e’zozini namoyon etadi. Milliy iftixor insonni o‘z xalqining asrlar davomida yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-axloqi va turmush tarziga nisbatan chuqur ehtirom bilan qarashga undaydi. Shu bilan birga, u ushbu boyliklarni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazish mas’uliyatini ham yuklaydi.

Milliy g‘urur ham milliy ruhiyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Milliy g‘urur – millatning o‘z-o‘zini anglashi natijasida paydo bo‘ladigan ichki ruhiy holatdir. Bu tuyg‘u insonning o‘z ona zamini, avlod-ajdodlari tomonidan qoldirilgan moddiy va ma’naviy merosi, shuningdek, o‘z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi bilan faxrlanish hissini ifodalaydi. Milliy g‘urur insonda o‘z xalqining tarixi va madaniyatiga nisbatan iftixor tuyg‘usini shakllantirib, uni millat manfaatlari yo‘lida faol bo‘lishga undaydi.

Milliy g‘urur milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash jarayonida turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, millatning yutuqlari va obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo‘lmaslik, o‘z eli va millatiga jonkuyarlik bilan xizmat qilish kabi fazilatlar shular

jumlasidandir. Shuningdek, milliy g‘urur insonni o‘z xalqining moddiy va ma’naviy merosini asrab-avaylashga, xalq urf-odatlari va an’analarini hurmat qilishga, ularni boyitish va takomillashtirishga undaydi. Milliy g‘ururning yana bir muhim jihati – o‘z millatiga bo‘lgan muhabbatni amaliy faoliyat orqali namoyon etishdir. Millatning dunyo xalqlari tomonidan e’tirof etilishi ham insonlarda alohida g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi.

O‘zbek xalqi milliy xarakterining o‘ziga xos jihatlari xalqimizning mehmondo‘stligi, bag‘rikengligi, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, birdamlik va o‘zaro yordam kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar asrlar davomida shakllangan bo‘lib, milliy an’analar va urf-odatlar orqali avlodlarga meros bo‘lib kelmoqda. Masalan, qishloqlarda odamlarning bir-biri bilan ahil yashashi, yaxshi va yomon kunlarda birgalikda bo‘lishi, keksalarga hurmat ko‘rsatilishi xalqimizning milliy xarakterini yaqqol namoyon etadi. Bu haqda Ch.Aytmatovning «Bolaligim» kitobida keltirilgan quyidagi fikrlar diqqatga sazovardir. «Farg‘ona tarafdagi hovlilar paxsa yoki guvala devor bilan o‘ralgan, tomi tep-tekis, bari bir xilda edi. Farg‘onaliklarning yashash tarzi ham o‘ziga xos edi. Odamlar bir-birlari bilan ahil hayot kechiradi. Qishloqlarda keksalar ulug‘lanadi, kattaning gapi erkak yo ayollar, kattadir-kichikdir-bari uchun qonun. Farg‘ona qishloqlarida yaxshi kunini ham, yomon kunini ham hamma birgalikda baham ko‘rishadi. Bunday birdamlik an’anasiga O‘zbekistonda hozir ham amal qilib kelinmoqda»25.

Milliy xarakterning ikki tomoni mavjud. Birinchi tomoni – konservativ xususiyatga ega bo‘lib, u milliy an’analar va qadriyatlarning barqarorligini ta’minlaydi. Ikkinchi tomoni esa o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, millat taraqqiyoti uchun zamin yaratadi. Milliy xarakterning ushbu o‘zgaruvchan tomoni yangi g‘oyalar, yangicha fikrlash va zamonaviy taraqqiyot talablariga moslashish imkoniyatini beradi. Umuman, «Milliy xarakter – milliy quvvatni paydo qiluvchi, saqlovchi va millat taraqqiyotiga yo‘naltiruvchi kuch. Kuchli milliy xarakter – katta-katta ishlarga qodir ma’naviy qudratdir»26. Shuning uchun ham unga e’tibor berish muhim.

[25] Айтматов.Ч. Болалигим.-Тошкент: Baktria press, 2018.-Б.18.(256б).
[26] Қуронов М. Ўзбек характери ва миллий ғоя.-Тошкент: Маънавият, 2005.-Б.14.

Milliy qadriyatlar ham milliy ruhiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy qadriyatlar millat manfaatlari, ehtiyojlari va maqsadlariga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy meros majmuasini tashkil qiladi. Ular millatning tarixi, madaniyati va turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy o‘zlikni anglash jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Milliy ma’naviy merosda urf-odatlar va an’analar alohida ahamiyatga ega. Urf-odatlar – millat hayotida shakllangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy qoidalar va an’analar majmuasidir. Ular millat tarbiyasida muhim o‘rin tutib, insonlarning ma’naviy kamolotini ta’minlaydi. Urf-odatlar va an’analar orqali millat o‘zining madaniy merosini saqlab qoladi va uni kelgusi avlodlarga yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy ruhiyat millatning ma’naviy kuchini ifodalovchi muhim omil hisoblanadi. Milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ruh, milliy o‘zlikni anglash, milliy xarakter va milliy qadriyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, millat taraqqiyotini ta’minlaydi. Shuning uchun ham milliy ruhiyatni asrab-avaylash, uni rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish har bir jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, milliy ruhiyatni shakllantirishda yosh avlod tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Chunki har qanday millatning kelajagi uning yoshlariga bog‘liq bo‘ladi. Yoshlarda milliy g‘urur, milliy iftixor va milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini shakllantirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin. Shu bois ta’lim-tarbiya tizimida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarga alohida e’tibor qaratish muhim vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari tobora kuchayib bormoqda. Turli madaniyatlar, g‘oyalar va qadriyatlar o‘rtasidagi aloqalar kengayib, axborot almashinuvi jadal sur’atlarda amalga oshmoqda. Bunday sharoitda har bir millat o‘z milliy ruhiyatini, madaniyatini va qadriyatlarini saqlab qolishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy ruhiyat millatning ma’naviy mustaqilligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Milliy ruhiyatni shakllantirish va rivojlantirish orqali jamiyatda vatanparvarlik, birdamlik va yuksak ma’naviyat muhitini qaror toptirish mumkin. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, milliy

madaniyatni rivojlantirish va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash har bir jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Milliy ruhiyat qanchalik mustahkam bo‘lsa, millatning kelajagi ham shunchalik barqaror va porloq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aytmatov.Ch. Bolaligim.-Toshkent: Baktria press, 2018.-B.18.(256b).

2. Quronov M. O‘zbek xarakteri va milliy g‘oya.-Toshkent: Ma’naviyat, 2005.-B.14.

MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA AXLOQ-ODOB ME’YORLARINING O‘RNI

Akmalov Akram Ahmedovich
pedagogika fan. nomzodi, professor.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mafkuraviy immunitetni mustahkamlash jarayonida axloq-odob me’yorlarining tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Shaxs va jamiyat hayotida axloqiy qadriyatlar, odob qoidalari hamda ma’naviy tamoyillar mafkuraviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omil sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda axloq-odob me’yorlari shaxsning g‘oyaviy barqarorligi, tanqidiy fikrlashi hamda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi asoslab beriladi. Shuningdek, jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni qaror toptirish orqali mafkuraviy immunitetni rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, milliy tarbiya, axloq, odob, axloqshunoslik, huquqiy normalar, axloqiy madaniyat, axloqiy tarbiya, axloqsizlik.

Bugungi globallashuv jarayoni yurtimiz fuqarolari qaysi sohada faoliyat yurtishidan qat’iy nazar, zamon talablarida bilim, ko‘nikma va

malakasini uzluksiz oshirib, ma’naviyatini boytib borishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 moddasida: “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”- deb e’tirof etilgan [1]. Yangi O`zbekistonni barqaror ijtimoiy taraqqiyotida: O‘zbek xalqining boy tarixiy, ilmiy, badiiy, madaniy – ma’rifiy va axloqiy merosini har bir fuqaroning ma’naviy mulkiga aylantirish,milliy g‘oya va mafkurani xalqimizning ongi va qalbiga chuqur singdirish, uni ruhiy va ma’naviy kuch qudrat manbaaiga aylantirish zamonaviy g‘oyaviy xurujlar va aholining mavkuraviy immunitetini mustahkamlashda ahamiyati beqiyosdir [4].

Komil inson faoliyatida milliy tarbiyaning faol omilga aylanishida jamiyiat va oilada milliy – madaniy, mafkuraviy, ma’naviy muhitiga bog‘liq ekanligi pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov ilmiy tadqiqotlarda to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganilib hayotda isbotini topmoqda. Bular: Bola tarbiyasiga qadimiychasiga yoki avtoritar yondashuv. Liberal–ko‘ngilchan yondashuv. Milliy–zamonaviy, demokratik yondashuv. Marginal yondashuv (boshqa xalq milliy madaniyati asosida tarbiyalash) [3].

Zamonaviy milliy tarbiyaning muhim xususiyatlaridan biri – mukammal tarbiya madaniyatini ma’lum darajada me’yorini aks ettiradi. Yosh avlod ta’lim - tarbiyasida ishontirish, tushuntirish, nasihat, ibrat, namuna ko‘rsatish, rag‘batlantirish, tanbeh berish, ogohlantirish, jazolash kabi usullar qo‘llaniladi [3] .

Yurtimizda milliy tarbiyada axloq, odob, xulq masalalariga katta e’tibor berilmoqda. Insonlararo munosabatda, o‘zaro muomalada unutilib ketgan milliy qadriyatlar, sharqona xulq – odob qoidalari, urf – odatlar, marosimlar, Sharq xalqlariga xos bo‘lgan axloq, xulq, odob qoidalari va milliy qadriyatlar ma’lum darajada zamonaviylashib, umuminsoniy mazmun bilan boyib bormoqda. Axloq va ma’naviyat bir – biri bilan uzviy bog‘liq. Milliy qadriyatlar va axloqiy tarbiya barkamol avlodni shakllantiradi.

Har bir xalqning yoki millatning o‘ziga xos axloqi bilan bir qatorda, umumbashariy axloq me’yorlari ham bor. Bunday axloq me’yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Axloq – insonlarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida ijtimoiy ong shakllaridan hisoblanib bir–birlariga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, tarbiya, odoblari majmui, madaniyati sifatida gavdalanadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o‘rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan [5].

Abdulla Avloniy ”Turkiy guliston yohud axloq” asarida: “Axloq ilmi – insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lishdir. Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsif bo‘lib “yaxshi xulq”, agar tartibsiz o‘sib, yomon ishlar qiladurg‘on bo‘lib ketsa,yomonlikka tavsif bo‘lib “yomon xulq” deb atalur.” – deb ta’riflaydi [2]. Inson axloqiy,umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan biri johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi. Ikki muqobil ibtido – yovuzlik va ezgulik, jaholat va kamolatning o‘zaro kurashi inson va jamiyat taraqqiyotini belgilagan, inson aql-zakovat sohibi sifatida o‘zini anglashiga olib kelgan. Bu ikki muqobil kuch kurashi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlarda ifodalansa, insonga nisbatan uning ichki olamiga xos nafs bilan qalb, aql bilan aqlsizlik o‘rtasidagi kurashda ifodalanadi. Axloq muayyan jamiyat va davrda o‘zgarishlarga uchrashi, rivojlanishi, so‘nishi mumkin.

Axloq va ma’naviyat bir biri bilan uzviy bog‘liq. Barkamol ma’naviyat barkamol axloq ni shakllantiradi.

Axloqli – yaxshi tarbiya ko‘rgan, odobli inson.

Axloqshunoslik – axloqni jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi sifatida baholovchi ijtimoiy fan tarmog‘I bu etika.

Axloqiy madaniyat – insonni ma’naviy va madaniy jihatdan kamolotga yetkazuvchi jarayon bo‘lib, borliqni axloqiy jihatdan anglash,

baholash va o‘zgartirish uchun insonga imkoniyat yaratuvchi madaniyat turi. Insoniyatning axloqqa oid madaniy tajribasini ifodalab, kishilar o‘rtasidagi munosabatlarda qadriyatlarga , axloqiy me’yor va prinsiplarga amal qilishi hamda shaxsni o‘z – o‘zini muntazam takomillashtirib borishidan iborat ko‘nikmalar yig‘indisidir.

Axloqiy madaniyatli kishining xususiyatlari – odamlarga hurmatda bo‘lish, muloyimlik, o‘z so‘zida turish, ishonchli, va’daga vafodorli, atrofidagi hamkasblarining bilim, tajribasini hurmat qilish va jamiyat talablari va qoidalariga hurmat bilan qarashdir.

Axloqsizlik – yaxshi tarbiya ko‘rmagan, axloq qoidalariga bo‘ysunmaydigan axloq qonun-qoidalariga xilof ish, xatti-harakatli shaxs. Amalparastlik, ig‘vo, tuhmat, xasadgo‘ylik, ta’magirlik, maishiy buzuqlik kabi illatlar, sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaslik, turli zararli odatlarga amal qilish. Sharq falsafasi va axloq ilmida mazkur uch axloqiy hodisa, juda qat’iy chegaralangan bo‘lmasada, bir-biridan farqli tarzda olib qaralgan. Axloq, xulq- atvor so‘zlari arabcha bo‘lib, o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida qo‘llaniladi.

Axloqiy tarbiya – yoshidan qat’iy nazar insonlarda o‘zaro bir-biriga, jamiyat a’zolariga nisbatan qabul qilingan me’yorlar asosida munosabatlarni shakllantirish jarayoni. Axloqiy tarbiya - maqsadli ta’lim, turmush sharoiti va atrof-muhit ta’sirida ularning birligida yoshlarning ong va xulq-atvorning shakllanishi sifatida qaraladi. Axloq shaxsning hayoti va ongiga faol ta’sir etadi, kishilik jamiyatida yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan adolatsizlik, mehr bilan zulmda insoniy munosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etiladigan xatti-harakatlarni belgilab beradi.

Odob – arabcha so‘z bo‘lib, adab so‘zining ko‘pligi – jamiyatda qabul qilingan axloqiy – huquqiy me’yorlar.

Odobli – jamiyatda qabul qilingan axloqiy – huquqiy me’yorlarga amal qiluvchi shaxs. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish – bajarmaslik ma’naviy ta’sir ko‘rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma’qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi.

Huquq – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatlarda o‘zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi norma. Huquq normasi – “norma”

so‘zi lotinchadan tarjima qilinganda, “qoida”, “namuna” ma’nosini anglatadi.

Huquq normasi – davlat tomonidan belgilanadigan, kafolatlanadigan va qilinadigan barcha uchun majburiy hulq – atvor qoidalaridir [5]. Huquq normasi umumiy xulq-atvor qoidasi sifatida hayotiy munosabatlardagi tipik, takrorlanib turadigan narsalarni umumlashtirish zarurati natijasida shakllanadi. Ko‘p marta qo‘llashga mo‘ljallangan bo‘ladi. Hamisha qandaydir umumiy belgilarga ega bo‘lgan shaxslar (ichki ishlar xodimlari, bojxona,harbiy xizmatchilar, vrachlar va b.) ga qaratilgan bo‘ladi. Huquq normasi davlat bilan uzviy aloqadordir Huquq normasi: davlatning, xalqning irodasini aks ettiradi. Davlat tomonidan huquqiy-me’yoriy hujjatlarda shakllantiriladi. Davlatning irodasi sifatida namoyon bo‘ladi, davlat tomonidan muhofaza qilinadi; davlat nuqtai – nazaridan eng muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Huquq normasining asosiy vazifasi – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish. Huquq normasi umummajburiy xususiyatga ega. Huquq alohida normalar, xulq-atvor qoidalaridan tashkil topgan.

Huquqiy normalar – davlat tomonidan qonun bilan belgilangan va barcha uchun bajarilishi majbur hisoblangan axloqiy qoidalari. Inson axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vaxshiylikdan insoniylikka o‘tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko‘pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Bu haqda fikr

yuritganda, bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimizning ongu tafakkurida ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar milliy ma’naviy qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur axloqiy fazilatlar shaxsning ma’naviy kamoloti, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi hamda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va ishonch muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaraganda, xalqimiz orasida keng tarqalgan “uyat – o‘limdan qattiq” degan hikmatli ibora ham milliy axloqiy qadriyatlarning naqadar chuqur ildizlarga ega ekanini va ularning inson hayotidagi o‘rni beqiyosligini ifodalaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida turli mafkuraviy ta’sirlar, g‘oyaviy xurujlar va axborot oqimlari kuchayib borayotgan bir sharoitda jamiyat a’zolarida mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda axloq-odob me’yorlari shaxsning ma’naviy barqarorligi, tanqidiy fikrlashi va yot g‘oyalarga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yosh avlod ongida milliy qadriyatlarga hurmat, ma’naviy mas’uliyat, halollik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni qaror toptirish orqali jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlash mumkin.

Shu bois yurtimiz fuqarolari axloq, odob va xulq me’yorlarini nafaqat bilishi va anglashi, balki ularga qat’iy amal qilishi ham muhimdir. Chunki axloqiy tamoyillarga asoslangan hayot tarzi jamiyatda qonuniylik, ijtimoiy adolat va o‘zaro birdamlikni mustahkamlaydi. Natijada jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhit qaror topib, mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti va davlatimiz ravnaqi uchun mustahkam zamin yaratiladi. Shu ma’noda axloq-odob me’yorlariga amal qilish nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyatning mafkuraviy barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – Т. 2023й.

2. А.Авлоний –Туркий гулистон ёхуд ахлоқ – Т. “Ўқитувчи” – 1992й.

3. М.Қуронов – Миллий тарбия –Т. “Маънавият”-2007й.

4. Республика маънавият ва маърифат кенгаши – Миллий ғоя ва маънавият тарғиботи самарадорлигини ошириш концепцияси –Т. “Sano – Standart” нашриёти, 2014й.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати

G‘OYAVIY XURUJLAR SHAROITIDA MAFKURAVIY BARQARORLIK: ALISHER NAVOIY TA’LIMOTINING FALSAFIY AHAMIYATI

Pardayeва Marhabo Davlatovna
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent Buxoro davlat texnika universiteti prorektori

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash masalasi Alisher Navoiy ta’limotining ijtimoiy-falsafiy qarashlari asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi, adolat, ilm-ma’rifat, vatanparvarlik va axloqiy barkamollik haqidagi qarashlari mafkuraviy barqarorlikning falsafiy asoslari sifatida yoritiladi. Shuningdek, Navoiy merosining zamonaviy ijtimoiy ong va tarbiyaviy jarayonlarga ta’siri, uning g‘oyalarini yoshlar ongiga singdirishning konseptual yo‘nalishlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: mafkuraviy barqarorlik, g‘oyaviy xurujlar, Alisher Navoiy, komil inson, ma’naviy immunitet, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, axloqiy tarbiya, ma’rifat, ijtimoiy ong.

Globallashuv, axborot maydonining kengayishi va mafkuraviy pluralizm kuchaygan zamonaviy davrda g‘oyaviy xurujlar jamiyat barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biriga aylandi. Ayniqsa, yoshlar ongiga qaratilgan ma’naviy-ekspansionistik ta’sirlar milliy o‘zlik, tarixiy xotira va qadriyatlar tizimining zaiflashuviga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mafkuraviy barqarorlik masalasi nafaqat siyosiy, balki chuqur falsafiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Mafkuraviy barqarorlik — bu jamiyatning o‘z qadriyatlari, tarixiy-madaniy merosi va axloqiy tamoyillariga tayangan holda tashqi va ichki g‘oyaviy bosimlarga nisbatan mustahkam pozitsiyani saqlay olish qobiliyatidir. Mazkur masalani hal etishda milliy-ma’naviy meros, xususan, Alisher Navoiy ta’limoti alohida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki falsafiy tafakkur sohibi sifatida ham inson kamoloti, adolatli jamiyat va ma’naviy immunitet masalalarini chuqur yoritgan mutafakkirdir [1]. Uning asarlarida komil inson g‘oyasi, adolat konsepsiyasi, ma’rifatparvarlik va milliy o‘zlikni anglash tamoyillari mafkuraviy barqarorlikning ontologik va aksiologik asoslari sifatida namoyon bo‘ladi.

Mafkuraviy barqarorlik muammosi zamonaviy falsafa va siyosatshunoslikda “ma’naviy xavfsizlik”, “madaniy o`zlik” va “g‘oyaviy immunitet” tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etiladi [2]. Ayrim tadqiqotchilar bu masalani milliy o‘zlikni saqlash bilan bog‘lab izohlasalar, boshqalar uni axborot xavfsizligi doirasida ko‘rib chiqadilar.

Zamonaviy global transformatsiyalar sharoitida mafkuraviy jarayonlar jamiyat taraqqiyotining asosiy determinanti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar rivoji, transmilliy madaniy oqimlar va ideologik pluralizm kuchayishi natijasida jamiyatlar o‘z ichki barqarorligini saqlash masalasiga duch kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, mafkuraviy barqarorlik tushunchasi falsafaning dolzarb kategoriyalaridan biriga aylanmoqda.

Ontologik jihatdan mafkuraviy barqarorlik jamiyatning mavjudlik shakli sifatida o‘z identikligini saqlab qolish qobiliyatini anglatadi. U ijtimoiy borliqning ichki uyg‘unligi, tarixiy xotira va madaniy merosning

uzluksizligi bilan belgilanadi. Jamiyat o‘z qadriyatlari va ma’naviy poydevorini yo‘qotsa, uning ontologik yaxlitligi buziladi. Aksiologik jihatdan esa, mafkuraviy barqarorlik qadriyatlar tizimining barqarorligi bilan belgilanadi. Qadriyatlar jamiyatning ma’naviy yadrosini tashkil etadi. Ular orqali yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, haqiqat va yolg‘on mezonlari aniqlanadi. Qadriyatlar relativizmi kuchaygan sharoitda esa, normativ mezonlar yemirilib, ma’naviy dezorientatsiya yuzaga keladi.

Shunday qilib, mafkuraviy barqarorlik ontologik (mavjudlik), aksiologik (qadriyat), normativ (axloqiy me’yor) va gnoseologik (bilim va tafakkur) qatlamlarning uyg‘unligiga asoslangan ko‘p darajali ijtimoiy tizim sifatida talqin qilinadi.

G‘oyaviy xurujlar - bu ma’lum bir ijtimoiy tizimning qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va identiklik asoslariga qaratilgan tashqi yoki ichki ideologik bosim shaklidir. Ular ochiq yoki yashirin ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy davrda g‘oyaviy xurujlar quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: madaniy ekspansiya; axborot manipulyatsiyasi; tarixiy xotirani qayta talqin qilish; qadriyatlar relativizmini targ‘ib qilish; ekstremistik yoki radikal g‘oyalarni ommalashtirish.

Axborotning tez tarqalishi va sun’iy intellekt vositalari orqali ongga ta’sir mexanizmlarining murakkablashuvi mafkuraviy tahdidlarni yanada kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning ma’naviy immuniteti asosiy himoya omiliga aylanadi.

Alisher Navoiy ta’limotida inson masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Mutafakkir insonni borliqning ma’naviy markazi sifatida talqin qiladi. Temuriylar davri ijtimoiy-falsafiy fikrining muhim xususiyati shundaki, unda inson va uning fazilatlarini tasvirlash markaziy o‘rinni egalladi. Inson zotini ulug‘lash, uni boshqa tirik mavjudotlar ichida eng a’losi, deb bilish insonga xos bo‘lgan xislatlarni, “insonparvarlik, bag‘rikenglik, ezgulik, halollik, mehr-shafqat, o‘zaro yordam, adolatparvarlik, komil insonni tarbiyalash, ilm-fan va kasb-hunarni egallash, mehnatsevarlik, sevgi-muhabbat, donolik, aqllilik, jasurlik, saxiylik, iffat, nafsni tiyish, tinchliksevarlik va qadriyatlarni tahlil qilish XIV-XV asr

mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy hamda badiiy qarashlarida o‘z in’ikosini topdi” [6].

Alisher Navoiy hayotdagi ko‘plab muammolarning yechimini ilm va hikmatda deb biladi. Uning nazarida jamiyat barqarorligi, adolatli tuzum va ma’naviy poklikning asosi – bu tafakkur, donishmandlik va ma’rifatdir. Xususan, “Saddi Iskandariy” dostonida “hikmat” so‘zining yuzdan ortiq marotaba qo‘llanishi bejiz emas. Bu holat Navoiyning ilm-falsafiy tafakkurni inson va jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni sifatida ko‘rganini anglatadi.

Navoiy Iskandarga hamroh bo‘lib, og‘ir va murakkab sharoitlarda unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan yunon faylasuflarining donoligini alohida e’tirof etadi. Naqumohis, Arastu, Aflotun, Suqrot, Asqalinus, Buqrot, Hurmus, Faysog‘urs kabi mutafakkirlarning hikmatini shunchaki madh etish bilan cheklanmay, ulardan ibrat olishga da’vat qiladi. Bu orqali u ilm egalarining jamiyat taqdiridagi mas’uliyatini falsafiy jihatdan asoslaydi.

Mazkur qarashlar zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi. Navoiy ta’limotida ilm va hikmat – ma’naviy immunitetning poydevori, tafakkur mustaqilligining garovi sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, olim va ziyoli qatlam xalq manfaatiga xizmat qilishi, jamiyatni adolat, ma’rifat va axloqiy komillik sari yetaklashi lozim. Demak, Navoiy merosi bugungi mafkuraviy tahdidlar sharoitida ongli, tanqidiy fikrlaydigan va ma’naviy barqaror shaxsni tarbiyalashning muhim nazariy manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Komil inson g‘oyasi Navoiy tafakkurining ontologik poydevoridir. Komil inson — bu: ilm egasi; axloqan pok; adolatli; vijdonli; jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yuvchi shaxsdir. Ontologik jihatdan komil inson jamiyat barqarorligining mikroasosidir. Agar jamiyat a’zolari ma’naviy yetuk bo‘lsa, tashqi g‘oyaviy xurujlar ularni chalg‘ita olmaydi. Shunday qilib, mafkuraviy barqarorlikning birlamchi omili shaxsiy komillik darajasidir. Bu yerda Navoiy ta’limoti shaxsni passiv obyekt emas, balki ma’naviy faol subyekt sifatida talqin qiladi. Aynan mana shu faol subyektlik mafkuraviy immunitetning ontologik negizini tashkil etadi.

Alisher Navoiy ilm tushunchasi, ma’rifat kategoriyasiga ham alohida e’tibor qaratadi. Uning asarlarida ma’rifat nafaqat bilim olish jarayoni, balki insonning ichki kamoloti va ruhiy yetukligi bilan bog‘liq murakkab ma’naviy hodisa sifatida talqin etiladi. Lug‘aviy jihatdan arab tilidan kirib kelgan “ma’rifat” so‘zi bilish, anglash, idrok etish ma’nolarini anglatadi. Istilohiy ma’noda esa u insonning haqiqatni qalban va tafakkuran idrok etishi, borliq mohiyatini chuqur anglash darajasini ifodalaydi. Tasavvufiy talqinda ma’rifat solikning maqomlaridan biri bo‘lib, uning ma’naviy kamoloti bosqichma-bosqich yuksalib borishini bildiradi. Bu jarayonda inson koinot va tabiat ilmi-hikmatidan, shuningdek insoniy va ilohiy sir-asrorlardan voqif bo‘lib boradi. Navoiy ana shu ma’rifiy yuksalishni komil inson konsepsiyasining muhim sharti sifatida ko‘rsatadi [5]. Mazkur qarashlar zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashda muhim nazariy asos bo‘la oladi. Chunki ma’rifatli shaxs tashqi mafkuraviy ta’sirlarga tanqidiy yondasha oladi, axborot oqimini ongli ravishda tahlil qiladi va mustaqil xulosa chiqaradi. Navoiy ta’limotida ma’rifat – bu nafaqat bilim, balki ma’naviy immunitet, ong mustaqilligi va ichki barqarorlik manbaidir. Demak, uning ma’rifat haqidagi falsafiy qarashlari bugungi mafkuraviy tahdidlar sharoitida jamiyat ongini mustahkamlash va barqaror ma’naviy muhitni shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy insonlarni mehr-muruvvat ko‘rsatishga, solih amallarni ado etishga, nafsni tiyishga, kambag‘allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shafqatli bo‘lishga da’vat etadi. Uning nazarida haqiqiy komillik insonning o‘z manfaatidan ko‘ra xalq manfaatini ustun qo‘yishida, doimo el g‘amini yeyib, jamiyat tashvishi bilan yashashida namoyon bo‘ladi. Navoiy axloqiy poklik va ijtimoiy mas’uliyatni bir-biridan ajralmas qadriyat sifatida talqin qiladi [3]. Mazkur g‘oyalar zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mehr-oqibat, shafqat va ijtimoiy birdamlik ustuvor bo‘lgan jamiyatda ma’naviy parokandalik, individualizm va befarqlik kabi salbiy holatlar ildiz otmaydi. Navoiy ta’limotida nafsni tiyish — bu ichki intizom va o‘zini anglash mezoni bo‘lsa, xalq g‘ami bilan yashash — ijtimoiy ong va fuqarolik mas’uliyatining yuksak ko‘rinishidir. Demak,

Alisher Navoiy ilgari surgan mehr-muruvvat va ezgulik tamoyillari bugungi mafkuraviy tahdidlar davrida jamiyatning ma’naviy immunitetini mustahkamlovchi, insonparvarlik va hamjihatlikni qaror toptiruvchi falsafiy asos sifatida namoyon bo‘ladi.

Mutafakkir ijodida birdamlik, ahillik, do‘stlik va hamfikrlik masalalari odob-axloq va odamiylik fazilatlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etiladi [4]. Alisher Navoiy ushbu qadriyatlarni inson kamolotining muhim sharti sifatida ko‘radi hamda ularni muqaddas diniy manbalar mazmuniga hamohang tarzda asoslaydi. Uning nazarida jamiyatning mustahkamligi insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va hamjihatlikka tayanadi.

Navoiy odamiylik darajasiga yetishga g‘ov bo‘ladigan odobsizlik, adovat, hasad va beparvolik kabi illatlarni keskin qoralaydi. U bunday salbiy sifatlarni nafaqat shaxsiy kamchilik, balki jamiyat taraqqiyotiga putur yetkazuvchi xavfli ijtimoiy omil sifatida baholaydi. Mutafakkirning ta’kidlashicha, axloqiy tanazzul kuchaygan muhitda ijtimoiy birlik zaiflashadi, bu esa, ma’naviy beqarorlikka olib keladi.

Mazkur qarashlar zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazaridan alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki birdamlik va hamfikrlik mavjud bo‘lgan jamiyat tashqi mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi. Navoiy ta’limotida odamiylik, axloqiy poklik va ijtimoiy hamjihatlik mafkuraviy immunitetning muhim tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, uning falsafiy merosi bugungi kunda jamiyatda o‘zaro ishonch, bag‘rikenglik va ma’naviy birlikni mustahkamlash orqali barqaror taraqqiyotga erishishning nazariy asosini tashkil etadi.

Alisher Navoiy ta’limoti zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashning universal falsafiy konsepsiyasini taklif etadi. U shaxsiy komillikdan boshlab, ijtimoiy adolat va ma’rifatgacha bo‘lgan uzviy tizimni shakllantiradi. Demak, Navoiy merosi tarixiy-adabiy fenomen emas, balki zamonaviy mafkuraviy xavfsizlik strategiyasining nazariy platformasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
2. Mahmudov T. Ma’naviy xavfsizlik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
3. Навоий, Алишер. МАТ. Т. 13. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 98.
4. Навоий, Алишер. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. Хамса. Ҳайрат ул-аброр. – Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 82.
5. Навоий, Алишер. Фарҳод ва Ширин. МАТ. Т. 8. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 283.
6. Хайруллаев М.М. Ўрта Осиёда илк уйғониш даври маданияти. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 10.

UZBEKISTAN IS A COUNTRY OF RICH CULTURAL AND HISTORICAL HERITAGE

Mashrab Alikulovich Berdikulov
Head of Social and political sciences
department of Diplomat University

“The diversity of national cultures and traditions has created the unique culture of modern Uzbekistan in our country, where representatives of more than 130 nationalities and peoples live peacefully. In the country, especially in recent years, great works aimed at preserving the tangible and intangible heritage of our nation are being carried out. You can see the positive results of these works in the example of Samarkand.”

Shavkat Mirziyoyev – President of Uzbekistan

The restoration of the Turkic world's cultural heritage is a collaborative, large-scale effort focused on preserving architectural monuments and historical artifacts to strengthen shared identity and civilizational continuity. Led by organizations like TİKA, the Turkic Culture and Heritage Foundation, and TURKSOY, initiatives include creating restoration labs, training experts, and protecting sites in the Balkans, Central Asia, and beyond.

Nowadays, every citizen of Uzbekistan can be proud of Uzbekistan, which is a country of an ancient civilization and profound culture. None of other Central Asian republics has such a large quantity of monuments as Uzbekistan. The land of Uzbekistan is a peculiar precious achievement, preserving unique historical and archaeological monuments of various epochs from evolution of the Homo sapiens to formation of large ancient states. The project "Cultural heritage of Uzbekistan in the collections of the world" can be safely called one of the striking results of the policy of New Uzbekistan, the reforms carried out by President Shavkat Mirziyoyev in the field of culture. According to the Development Strategy of Uzbekistan, since 2016, the issue of studying, preserving and popularizing the cultural heritage of Uzbekistan has been elevated to the rank of the state policy of the state, and this approach, attention from the President and the government, are yielding results that are already recognized by the whole world.

New Uzbekistan confidently continues to strengthen its position in the international arena. An exceptionally important example of this is that Uzbekistan for the first time became a member of the UNESCO Intergovernmental Committee for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage, having received the votes of 105 countries out of 180. Participants of the VI International Congress "Cultural heritage of Uzbekistan - the foundation of a new Renaissance" and members of the World Society for the Study, Preservation and Popularization of the Cultural Heritage of Uzbekistan adopted the final Declaration on Registan Square. The final document highlights: “Directly on the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Miromonovich

Mirziyoyev, the foundation of the New Renaissance - the New Renaissance is being laid in Uzbekistan, which is also expressed in the implementation of fundamental changes in the spiritual and educational sphere." The scientists also noted that large-scale events in the field of humanitarian science and culture are being organized and carried out in Uzbekistan, a 10-year State program has been adopted to improve the activities of state museums and strengthen their material and technical base for 2017-2027. A vivid example is that only this year 7 new museums are being created in Samarkand. The International University of Tourism and Cultural Heritage "Silk Road" was opened. An extremely important recognition of the country's efforts aimed at preserving the unique cultural heritage of past centuries was the election of Uzbekistan as a member of the UNESCO Committee for the Protection of the Intangible Cultural Heritage, held in Paris at the 8th session of the General Assembly of the Member States of the Convention "On the Protection of the Intangible Cultural Heritage". "For six years of work of the World Society for the Study, Preservation and Popularization of the Cultural Heritage of Uzbekistan, 60 volumes of the exclusive international series "Cultural Heritage of Uzbekistan in the Collections of the World" have been published. Work continues on the series "Architectural epigraphy of Uzbekistan", "Culture and science of Uzbekistan in the works of scientists", more than 60 films have been shot, many media forums have been held in Uzbekistan and abroad. This entire fruitful program of action, which ensures an effective dialogue between scientists, would not have been possible without the support of the President and the Government of the Republic of Uzbekistan.

It is no mere chance that large archeological explorations in Uzbekistan have made archeology a separate field of historical science, a development marked with a series of remarkable discoveries of international significance.

In line with obtaining the state sovereignty, revival of spirituality and culture, restorations of true history have become one of the priorities for the country.

Thus, Uzbekistan has ratified and joined to the number of international conventions in order to protect and restore its historical

and cultural heritage. Among them, the 1972 UNESCO‘s World Heritage Convention, the 1954 Hague Convention on Protection of Cultural Property in the event of armed conflicts, the 2003 Convention on protection of immaterial cultural heritage and etc.

“Rehabilitation of spiritual values we consider as an organic and natural growth of national identity, return to spiritual origins of the nation, to its roots,” says Islam Karimov, the president of the country.

Having realized importance of spiritual and cultural values as development and powerful impetus to national identity, the government of Uzbekistan began widely advocating customs, traditions and national values of the Uzbek people.

All national and religious holidays — Navruz, Eid al-Fitr, Eid al-Adha — have been reinstated.

Memorial of Remembrance and Tribute, Imam al-Bukhari, Al-Ferghani, Amir Temur and Temurids Museum and many others were restored, encompassing traditions of oriental and modern developments of architecture and at the same time.

The Islamic Educational, Scientific and Cultural Organization (ISESCO) decided to nominate Tashkent the capital of Islamic culture and civilization in 2007, an acknowledgment by the international community for Uzbek's great contribution to both Muslim and world civilizations.

Speaking of integration of the country into the world community, President Islam Karimov once noted, "We stand, above all, for integration in spiritual sphere, science, culture, education and information."27

That undoubtedly contributes to broad demonstration of historical and cultural heritage of the Uzbek people on international level, and guarantees the success of social-economic and political reforms in the country.

In the course of the country's integration into the world spiritual community, Uzbekistan has joined the UNESCO in October 1993. The UNESCO has opened its office in 1996 in Tashkent.

[27] Speech of I.Karimov at the 155th session of Executive Council of UNESCO, November 1998.

Commemoration of anniversaries of Uzbekistan's ancient cities and great ancestors play a special role in revival of spiritual heritage of Uzbekistan and its international recognition.

Upon the resolution of the government of Uzbekistan, it widely celebrated 600th anniversary of the great scholar and ruler Mirzo Ulugbek (1994), 660th anniversary of the great statesman, military commander Amir Temur (1996), 1225th anniversary of the great thinker, soltan of hadith Al-Bukhari and 1200th anniversary of a famous scientist Al-Ferghani (1998), 2700th anniversary of "Avesta" (2001), 1000th anniversary of heroic epos of "Alpomish," 800th anniversary of the great son of Uzbek nation J.Manguberdi (1999), 1300th anniversary of Imam Moturidiy and 910th anniversary of Al-Margiloni (2000).

Those festivities were included in the list of UNESCO World Heritage and widely celebrated on international level.

Besides, a number of cities whose age was determined based on archeo-logical research celebrated their anniversaries: Samarkand celebrated its 2750th anniversary (2007), Karshi 2700th anniversary (2006), Bukhara (1997), Khiva (1997) and Termez 2500th anniversary (2002), Tashkent 2200th anniversary (2009), and Marghilan 2000th anniversary (2007).

Holding these international conferences has fully, comprehensively and objectively covered the activity and creation of those persons and defined new priorities of our country, which undoubtedly is a big success of the Uzbek diplomacy and scholars of our country.

The 2200th anniversary of Tashkent has been celebrated with cultural and scientific programs at the UNESCO Headquarters in Paris in April 2009.

Hence, the anniversary celebrations have focused the attention of international cultural and academic community on Uzbekistan, and not only promoted the studies on great ancestors and cities and their contribution to world civilization, but also encouraged world community's awareness about the achievements in the sphere of revival of the national cultural and historical values.

It is also pertinent to mention that with collaboration of foreign and local scholars a number of fundamental works have been published, dedicated to the personalities of Amir Temur, Al Bukhari, Al Farghani, and the cities of Khiva, Bukhara, Samarkand and Tashkent.

In these works, for the first time the great heritage of our ancestors and cities has been studied in the light of socio-economic developments and cultural processes of those ancient epochs.

The concrete outcome of the project "The Silk Road — the Road of Dialogue" has become the foundation of the International Institute for Central Asian Studies (IICA) in Samarkand in 1996 with the participation of 12 countries of the world.

The mission of the Institute is to study the Central Asian history, and to give its objective assessment to processes going on in Central Asian countries on their modern path of development.

An important outcome of the studies on the history of Central Asia, jointly carried out by the different scholars around the world, has been the publishing of "The history of civilizations of Central Asia" in six volumes, which gives overall picture of historical and cultural processes in Central Asian region, stretched from Mediterranean Sea to China.

With the efforts of the IICA well-known cities of Bukhara, Khiva and Shahrisabz, the collection of oriental manuscripts at the Institute of Oriental Studies of Uzbekistan's Academy of Sciences, and unique Usman's Koran were included to the "World Heritage List" of the UNESCO and gained international protection.

In addition, the VI International Congress "Cultural Heritage of Uzbekistan - the Foundation of a New Renaissance" held on July 22-24 2022. This Congress - an important event in the scientific world, bringing together 350 participants from 32 countries. More than 100 reports were read, round tables and sessions were held. It was emphasized that scientists from almost all Central Asian states took part in the work of the VI Congress for the first time. For reference: More than 350 people took part in the work of the Congress. These are world-famous oriental scholars, 6 heads of international organizations, 50 directors of famous international museums, 15 academicians, 25 professors, 22 doctors of sciences, museum

workers, media representatives working in the coverage of culture and art, media people interested in studying and preserving cultural heritage of Uzbekistan.

In recent years, the cooperation between Uzbekistan and UNESCO in the culture sector has reached new heights, thanks to a number of factors. Mainly, President Shavkat Mirziyoyev and his government have taken bold administrative and legislative steps to protect and promote the country's rich cultural heritage.

For example, the government of Uzbekistan have imposed a moratorium on all construction work at World Heritage properties, allocated more resources for restoration efforts, Additionally, they have launched the preparation of a Master Plan and an integrated Management Plan for several cities, which have been commended in the latest World Heritage Committee Decisions. These efforts have significantly enhanced the protection and preservation of Uzbekistan's cultural heritage sites and strengthened the partnership between Uzbekistan and UNESCO.

One important aspect worth mentioning is the increased level of interest and readiness shown by the Government of Uzbekistan to establish an open and candid collaboration with UNESCO, particularly with the World Heritage Centre (WHC). The protection of World Heritage Properties has been a pressing topic on the agenda of all three meetings between President Shavkat Mirziyoyev and Ms. Audrey Azoulay, Director-General of UNESCO, held since 2018, as well as in numerous high-level follow-ups.

One of the major accomplishments of these high-level meetings is the creation of the International Advisory Committee (IAC) for World Heritage sites in Uzbekistan, which was initiated by President Shavkat Mirziyoyev in 2019. The IAC, which includes distinguished international experts and representatives from the WHC, ICOMOS, and ICCROM, was officially launched in September 2021. This exceptional mechanism of cooperation between Uzbekistan and UNESCO is the only one of its kind in the region, and it is intended to enhance the implementation of World Heritage Committee decisions, as well as recommendations from monitoring and other missions at the local level. Within this framework, all

pertinent issues, including challenging and problematic ones, are jointly discussed to arrive at practical solutions that are mutually beneficial.

The government of Uzbekistan is committed not only to the conservation of the existing World Heritage properties but also to identifying and preparing new sites for inclusion on the list. In September 2023, the World Heritage Committee will review a new multinational transboundary dossier called the "Silk Roads: Zarafshan-Karakum Corridor." If approved, this would be the first cultural site with Uzbekistan in more than 20 years. Uzbekistan's portion of the dossier comprises around 15 essential cultural and architectural sites located along the Silk Roads. The dossier was developed by Uzbekistan, Tajikistan, and Turkmenistan.

In the past few years, UNESCO in Uzbekistan has been implementing a joint project with the European Union since 2018 called “Silk Roads Heritage Corridors in Afghanistan, Central Asia and Iran - International Dimension of the European Year of Cultural Heritage." The "Silk Roads Heritage Corridors in Afghanistan, Central Asia and Iran – International Dimension of the European Year of Cultural Heritage" project funded by the European Union has supported several initiatives in Uzbekistan. From 2019 to 2022, the project facilitated the conservation of the Bog‘bonli Mosque in Khiva and the development of a Destination Management Plan and Sustainable Tourism Strategy. In 2021-2022, the project aimed to establish a Destination Management and Marketing Organization, develop the tourism brand for Khiva, and create a website to promote Khiva and support the conservation of its World Heritage sites.

In addition, UNESCO is also working on the preservation and safeguarding of cultural heritage in Bukhara through a project called "Preservation and Safeguarding of Cultural Heritage in Bukhara" funded by Saudi Arabia. This project focuses on the conservation of Rashid Madrassah in Bukhara, where a Shashmaqom (music) center is planned to be established.

As it was mentioned by the first president of Uzbekistan I.Karimov at the 155th session of Executive Council of UNESCO, November 1998, the people of Uzbekistan have achieved to save and preserve our historical and cultural heritage, specific customs and traditions… and… at the 21st

century it is the culture and morality that will save and safeguard the world.

Thus, the revival of spiritual, historical and cultural values of Uzbekistan is the foundation for the self-determination, formation and development of National statehood as well as the spiritual and moral impetus for wide-scale developments and the aspirations of the country for the future.

REFERENCES

1. https://lex.uz/docs/-5681343
2. https://madaniymeros.uz/
3. https://www.unesco.org/en
4. https://president.uz/uz
5. https://society.uz/news/detail/news/218
6. https://madaniyat.uz/
7. https://sda.gov.uz/
8. http://www.isrs.uz/

HOZIRGI ZAMON G‘OYAVIY MUAMMOLARI VA JAMIYAT BARQAROLIGINING TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Berdiyev Bektosh Oxnorovich
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Xalqaro munosabatlar” kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy globallashuv jarayonlari sharoitida dunyo miqyosida kuchayib borayotgan g‘oyaviy-mafkuraviy kurashlar hamda ularning davlat va jamiyat barqarorligiga ta’siri ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda axborot texnologiyalarining rivojlanishi

natijasida mafkuraviy ta’sir vositalari kengayib borayotgani, internet va ijtimoiy tarmoqlarning mafkuraviy kurash maydoniga aylangani asoslab beriladi. Shuningdek, geosiyosiy manfaatlar doirasida axborot urushi, manipulyativ texnologiyalar, radikal g‘oyalar va ekstremistik qarashlarning jamiyat ongiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari yoritiladi. Maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash, ma’naviy xavfsizlikni mustahkamlash hamda yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalardan himoya qilishning dolzarb vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot yakunida jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, axborot makonida monitoring tizimini kuchaytirish, milliy qadriyatlar va tarixiy merosni targ‘ib qilish orqali ma’naviy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, mafkuraviy kurash, axborot urushi, ma’naviy xavfsizlik, geosiyosiy raqobat, radikal g‘oyalar, ekstremizm, manipulyativ texnologiyalar, mafkuraviy immunitet, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, axborot makoni, ijtimoiy barqarorlik.

Zamonaviy dunyoning eng muhim xususiyatlari qatorida turli mafkuraviy va g‘oyaviy muammolarning paydo bo‘layotganligi hamda ularning davlat va jamiyat hayotini beqarorlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo‘layotganligini ham alohida e’tirof etmoq joiz. Negaki, bugungi mafkuraviy va g‘oyaviy tahdidlar kuchayishi va miqyosi ortishining asosiy sababi – bu axborot yaratish, tarqatish va uni o‘z “iste’molchilari”ga yetkazishning o‘ta osonlashib borayotganligidir.

Bugun aynan mafkuralar o‘rtasidagi kurashlarning avj olayotganligi birinchi galda, globallashuv sharoiti va uning bevosita ta’siri ostida shakllangan mafkuralar o‘rtasidagi kurash bilan xarakterlanmoqda. Zamoanviy dunyoda esa mamlakatlar va xalqlararo raqobat faqat harbiy yoki iqtisodiy soha bilan chegaralanib qolmasdan, g‘oyaviy-mafkuraviy, axborot, ma’naviy va madaniy sohalarni ham qamrab olayotganligi bilan xatarli tus olmoqda. Axborot makonining kengayayotganligi va undan turli geosiyosiy maqsadlar yo‘lida mafkuraviy omildan foydalanish esa, qudratli davlatlarning asosiy quroliga ham aylanib ulgurdi.

G‘oyaviy-mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishini esa, biz avvalo, axborot tarqatishning zamonaviy texnologiyalari va uslublari rivojlanib, takomillashib borishida, ikkinchidan, xalqlar ongu-tafakkuriga millatchilik, diniy-sivilizatsiyaviy g‘oyalarning maqsadli tarzda tobora kengroq singdirilishida, uchinchidan esa, geosiyosiy kurashlarning avj olishida diniy, milliy va madaniy motivlarning o‘rni bo‘rttirilib yuborayotganligi ko‘rishimiz mumkin. Eng xavfli tomoni esa, ushbu voqeliklarning insoniyat tomonidan tabiiy jarayon sifatida qabul qilinayotganligidir.

Bugun dunyoning qudratli davlatlari va ular tomonidan yaratilgan turli siyosiy bloklar o‘z manfaatlarini ilgari surish va hukmronliklarini mustahkamlash uchun turli g‘oyalarga, mafkuralarga katta e’tibor qaratmoqdalarki, bu bilan o‘zlari uchun nishon bo‘lgan jamiyatlarni, davlatlaru-halqlarni o‘zlariga bo‘ysindirish, qaram qilishning oson uslublarini qo‘lga kiritsalar.

Insoniyat o‘zining XX asrdagi tarixida o‘ta mudhish mafkuraviy kurashlarni, ziddyailarni boshdan kechirdi. Ayniqsa “Sovuq urush” deb atalmish siyosiy tarafkashlik dunyoni ikki asosiy siyosiy-iqtisodiy tizimga — kapitalistik va sotsialistik lagerlarga bo‘lib tashlaganligi va mafkuraviy-g‘oyaviy, siyosiy-iqtisodiy, harbiy jihatdan katta konfrontatsion vaziyatni vujudga keltirganligi o‘z davrining katta fojiasi bo‘lgan edi, deya ta’kidlash mumkin.

Bir tomonidan dunyoning iqtisodiy, texnologik va ilmiy yetakchi tarafi hisoblanmish Kapitalistik lager o‘z mafkurasiga asosan demokratiya, bozor iqtisodiyoti va shaxsiy erkinlik hamda liberalizm g‘oyalarini singdirgan va shu asosda faoliyatini jadallashtirgan bo‘lsa, yo‘qsillarni himoya qilish, tadbirkoru-ishbilarmonlarni yo‘q qilish orqali faqfatgina davlat monopoliyatini o‘rnatishni orzu qiluvchi puch g‘oyalar tarafdori Sotsialistik lager o‘ta markazlashgan va qatag‘onga asoslangan siyosatga tayanagan. Oxir oqibat esa, ikkinchi tarafning ham g‘oyaviy-mafkuraviy, ham siyosiy va ham iqtisodiy mag‘lubiyatiga insoniyat guvoh bo‘ldi.

Bugun jahon miqyosida avj olayotgan mafkuraviy kurashlar tsivilizatsion modellar o‘rtasidagi raqobat sifatiga o‘tganligining o‘zi achinarlidir va bu holat bizga o‘rta asrlardagi dahshatlarni eslatmoqda. Ba’zi davlatlarning esa o‘z siyosiy tizimi va madaniy qadriyatlarini barcha

uchun universal, yetakchi va qabul qilinishi majburiy model sifatida taqdim qilinayotligining o‘zi ham asli xavotirli ekanligini aytib o‘tish lozim.

Bu jarayon quyidagi sohalarda kuzatiladi:

- demokratiya va avtoritar boshqaruv modellari o‘rtasidagi bahslar;
- milliy an’analar va global madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar;
- diniy va sekulyar qadriyatlar o‘rtasidagi muvozanat masalalari.

Bundan bir necha o‘n yil oldin amerikalik mafkurachi, geostrateg Samyuel Xantengton “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” nomli maqolasida tsivilizatsion va madaniy omillarning kelajakdagi siyosiy jarayonlardagi o‘rni va roli nihoyatda yuqori bo‘lishini bashorat qilgan edi. Nafaqat bashorat qilgan edi, balki, dunyoning qudratli mamlakatlari qo‘liga juda katta texnologik va mafkuraviy “qurol” tutgan edi deyishimiz ham mumkin. Garchi, nasroniy, islom va boshqa sivilizatsiyalarning to‘qnashuvi kelajakdagi reallik sifatida baholangan bo‘lsada, aslida bu guyoki bir “chaqiriq” sifatida yangraganligini bugun ko‘pchiligimiz anglab yetgandaymiz.

Bu yerda haqiqiy davlatlararo, xalqlararo, millatlararo, madaniyatlaru-dinlararo raqobatni vujudga keltirish va shu orqali geosiyosiy maqsadlarga erishish oson ekanligini bot-bot ta’kidlagan edi. Guyoki, dunyodagi barcha ziddiyatlar zamirida madaniy va tsivilizatsion asoslar mavjud va ular o‘rtasida kurashlar doimiy kuchayadi. Xantengtonning ushbu maqolasi va unda ilgari surilgan g‘oyalar o‘z mazmuniga ko‘ra ham sivilizatsiyaviy ziddiyatlarni kuchaytirgan bo‘lsa, ne ajab.

Ayniqsa, qudratli davlatlar musulmon dunyosini qayta o‘yg‘ona olmasligi, tarixiy qudrati qayta tiklanmasligi uchun ham turli geosiyosiy “o‘yinlarga” zo‘r berayotganligini, musulmon mamlakatlari o‘rtasida turli-tuman boshqariladigan nizolarni joriy qilayotganligini ham afsuski, rad qila olmaymiz. Bu borada geosiyosiy motivlarga burkangan turli islomiy radikal kuchlar va guruhlarning faoliyatini ham alohida qayd etmoq lozim.

Amerikalik mutaxassislarning fikricha, qudratli g‘arb davlatlari o‘zlariga nomaqbul hukumatlarni yiqitish yo‘lida musulmon mamlakatlarida turli ekstremistik va radikal g‘oyalarni, kuchlarni, terroristik tashkilotlarni yaratish va ulardan foydalanish uchun katta siyosiy loyihalarga allaqachon bel bog‘lagan va bunday harakatlar tobora avj

oldirilmoqda. Afg‘oniston, Iroq, Suriya, Liviya, Somali, Yaman va boshqa qator musulmon mamlakatlari qudratli davlatlarning mas’uliyatsizlarcha amalga oshirilgan bunday “siyosiy o‘yinlari”ning qurboniga aylanganligiga bugun insoniyat guvoh. Ming afsuski, musulmon dunyosining muhim qismi hisoblanmiz, Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston ham yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlarning kulfatlaridan butunlay kafolatli himoyalangan deb ham ayta olmaymiz. Diniy ekstremistik va terroristik, radikal qarashlarga “burkangan” guruhlar, garchi, o‘zlarini islom dini uchun xizmat qilayotgan, din uchun kurashayotgan “mujohidlar” deb hisoblasalarda, aslida qudratli mamlakatlarning geosiyosiy o‘yinlaridagi kichik “shaxmat donalari” bo‘lib qolayotganliklarini afsuski, har doim ham anglab yetayotganliklari yo‘q. Eng yomoni, ularning faoliyati musulmon mamlakatlari hukumatlarini ag‘darishga, davlat va jamiyat barqarorligini yemirishga, infratuzilmalarini vayron qilishga qaratilayotganligi bilan ayanchlidir. Geosiyosiy manfaatlar va maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan ushbu “o‘yinlar” va ularning mafkuraviy ta’minoti insoniyat barqarorligiga jiddiy tahdid solayotganligini barchamiz ko‘rib turibmiz.

Yana bir muhim jihat, globallashuv davrining xavflilik darajasi ortishiga xizmat qilayotgan omil – insoniyat ongu-shuuriga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatish va uni o‘z izmiga solish bilan bog‘liq texnologiyalarning, axborot ko‘lamining tobora ortib borayotganligidir. Ayniqsa, mafkuraviy ziddiyatlar, kurashlar biz uchun an’anaviy hisoblangan uslub-vositalarni chetlab o‘tib, yangidan-yangi texnologiyalardan va kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalana boshlaganligi masalaning xavflilik darajasini yanada oshirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar mafkuraviy ta’sir ko‘rsatishning eng muhim vositasiga aylandi. Axborotning tez tarqalishi turli g‘oyalar va qarashlarning jahon miqyosida keng yoyilishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, axborot makonida feyk xabarlar, manipulyativ texnologiyalar va axborot urushi kabi salbiy holatlar ham kuchaymoqda.

Bugungi kunga davlatlar, millatlar, xalqlar, qudratli geosiyosiy kuchlar o‘rtasida tobora avj olayotgan Axborot urushi yoki raqobati turli yo‘llar bilan, ya’ni madaniyat, ta’lim, til va qadriyatlar orqali ta’sir o‘tkazishga jiddiy bel bog‘laganligini ham anglab yetmog‘imiz lozim. Zero, yon-

atrofimizda, barchamiz deyarli har kuni “yashaydigan” Kibermakondagi ijtimoiy tarmoqlar va ularda keskinlashayotgan g‘oyalar kurashlar tufayli jamiyatimiz a’zolarining muayyan bir qismi “qurbon” bo‘layotganligini ham ko‘rib turibmiz. Aldov va manipulyatsiyaga tayanadigan keng miqyosli va keng qamrovli axborot oqimlari, ming afsuski, bugungi kunga kelib butun-butun jamiyatlarni, xalqlarni, aholining turli qatlamlarini “boshqarmoqda”. Axborot insonning emas, inson axborotning asiriga aylanib qoldi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bunday maqsadli axborotlar ichida:

- Millatchilik g‘oyalari;
- Radikal diniy qarashlarga burkangan mafkuralar;
- Ahloqsizlikni targ‘ib qiluvchi mafkuralar;
- Yengil-elpi qarashlarni targ‘ib qiluvchi axborotlar;
- Davlat yoki hukumatni obro‘sizlantirishga qaratilgan axborotlar;
- Jamoat arboblari, davlat xizmatchilarini, davlat siyosatini turli asosiz tanqidlar yo‘li bilan jamiyat ongini buzishga qaratilgan va xokazolar ko‘p sonli kontentlar sifatida alohida o‘rin egallaydi.

Ming afsuski, bunday axbrotlar bugungi kunda, davlat barqarorligiga, jamiyat jipsligiga va ma’naviy xavfsizlikka nisbatan jiddiy tahdid solishga ulgurdi. Ko‘plab yoshlarimiz, masalaning mohiyatini anglamasdan, uzoq xorijiy mamlakatlarga, turli radikal guruhlarga yollangan holda, jangarilik botqog‘iga tushib qolayotganligi, turli qurolli to‘qnashuvlarda jon berayotganligini ham ming afsuslar bilan qayd etish lozim.

Barchamizga ma’lum, bugungi kunda bir tomondan, submintaqa sifatida tobora yuksalayotgan, barcha jabhalarda yetarlicha qudratga ega bo‘lib borayotgan Markaziy Osiyoning geosiyosiy ahamiyati ham ortib bormoqda. Ikkinchi tomondagn mintaqaning barqarorligi, tabiiy va insoniy resurslarga boyligi, geografik qulay hudadda joylashganligi, unga nisbatan turlicha munosabatlarning shakllanishiga ham sabab bo‘lmoqda. Mintaqada turli millatlar, ularning madaniyatlari, dinlar va tsivilizatsion an’analar tarixan o‘zaro ta’sirda bo‘lib kelgan. Shu bois mintaqada mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash borasida muhim strategik ahamiyatga ega.

Mintaqaning asosiy davlatlaridan bo‘lmish O‘zbekiston ham ming afsuski, nafaqat mintaviy, balki butun musulmon mamlakatlariga nisbatan

olib borilayotgan geosiyosiy risklardan, xavf-xatarlardan “benasib” qolayotgani yo‘q. O‘zining geografik joylashuvi, tabiiy-resurs imkoniyatlari, ilmiy va sanoat salohiyati tufayli beqarorlashtiruvchi kuchlar nishoniga allaqachon aylanib ulgurgan. Shuning uchun ham so‘nggi yillarda ma’naviy va g‘oyaviy-mafkuraviy xavfsizlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu vazifalar davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlashning strategik yo‘nalishiga aylanganligining ham asosiy sababi hisoblanadi.

Xulosa tarzida aytish lozimki, davlat va jamiyat barqarorligini ta’minlash, fuqarolar ongu-shuurini turli bug‘unchi g‘oyalar va mafkuralardan himoya qilishning borasida bir qancha kompleks vazifalarni amalga oshirish talab qilinmoqda. Bular ichida ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash, axborot sohasida risklar monitoringini samaradorligini oshirish, xalqimiz orasida milliy tarix va madaniy merosni o‘rganish va targ‘ib qilishning samarador texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish, ta’lim tizimida nafaqat jismoniy, balki ma’naviy sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish tizimini yaratish, jamiyat tafakkurida va madaniyatida diniy bag‘rikenglikni, millatlararo totuvlikni mustahkamlash kabilar doim davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolishi zarur.

Mamlakatimizning tashqi siyosat konsepsiyasini ham bugungi kun zamonaviy xavf-xatarlariga adekvat javob bera oladigan darajada takomillashtirish, mintaqaviy, global hamkorlik, tinchlik va barqarorlik tamoyillari bilan muvofiqlashtirish, mafkuraviy qarama-qarshiliklarni keskinlashtirish emas, balki muloqot va o‘zaro hurmat asosida hal qilish tamoyillari bilan boyitish – bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas vazifalaridandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. https://president.uz/uz/lists/view/8834

2. Huntington, Samuel P. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster, 1996.

3. Nye, Joseph. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. New York: Public Affairs, 2004.
4. Fukuyama, Francis. The End of History and the Last Man. New York: Free Press, 1992.
5. Karimov, Islom. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

GLOBAL TRANSFORMASYALAR SHAROITIDA MILLIY-MAFKURAVIY YAXLITLIKNI TA’MINLASHNING NAZARIY PARADIGMALARI

Madraximov Alisher Usubjon o‘g‘**li**
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada global integratsiya va demografik transformatsiyalar sharoitida polietnik jamiyatlarda ijtimoiy konsolidatsiyani ta’minlashning nazariy-metodik modellari tahlil qilingan. Tadqiqotda etnik diversifikatsiyani boshqarishning tarixiy va zamonaviy paradigmalariga (assimilyatsiya, segregatsiya, izolyatsionizm va aparteid) tizimli yondashilib, ularning ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ta’siri gnoseologik jihatdan baholangan. Shuningdek, maqolada multikulturalizm konsepsiyasi an’anaviy cheklovchi modellarga muqobil strategiya sifatida o‘rganilib, uning plyuralistik integratsiyadagi o‘rni va zamonaviy inqirozli tendensiyalari tahlil etilgan. Muallif tomonidan jamiyatning mafkuraviy yaxlitligini saqlashda “ijtimoiy-muhandislik” mexanizmlaridan foydalanish hamda millatlararo munosabatlarni tartibga solishda mo‘tadil multikulturalizm tamoyillarini milliy mentalitetga moslashtirish zaruriyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy konsolidatsiya, polietnik jamiyat, etnik konfiguratsiya, monokultural siyosat, assimilyatsiya, segregatsiya, izolyatsionizm, aparteid, multikulturalizm, milliy davlatchilik, bag‘rikenglik.

Global integratsiya va demografik transformatsiyalar sharoitida dunyo mamlakatlarining monomilliy tarkibini saqlab qolish imkoniyatlari kundan-kunga kamayib bormoqda. Transchegaraviy migratsiya oqimlarining intensivlashuvi va sarhadlarning institutsional ochiqligi natijasida zamonaviy davlatlarning etnik konfiguratsiyasi muttasil diversifikatsiyalashib (boyib) bormoqda. Bunday polietnik jamiyatlarda ijtimoiy konsolidatsiyani ta’minlash va barqaror umummilliy konsensusga erishish fundamental siyosiy-huquqiy muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Muayyan davlat hududida turli etnik guruhlarning birgalikda istiqomat qilishi milliy birlikni ta’minlovchi unifikatsiyalashgan qoida va tartib-taomillarning mavjudligini taqozo etadi. Bu jarayon lingvistik siyosatdan (davlat tili) tortib, umumdavlat bayramlari va ramzlari orqali kollektiv identifikatsiyani shakllantirishgacha bo‘lgan keng strategik doirani qamrab oladi.

Multikulturalizm sharoitida etnik rang-baranglikni yagona davlat suvereniteti va yaxlit mafkuraviy platforma atrofida jipslashtirish murakkab ijtimoiy-muhandislik (social engineering) jarayonidir. Jahon siyosiy amaliyotida etnik diversifikatsiyani boshqarishning bir qancha modellari va paradigmalarini tahlil qilish, milliy davlatchilik taraqqiyoti uchun muhim gnoseologik ahamiyatga ega.

Assimilyatsiya modeli – ijtimoiy yaxlitlikni saqlash va davlat barqarorligiga tahdid soluvchi “etnik parokandalik” (fragmentatsiya) xavfini bartaraf etishga qaratilgan monokultural siyosat platformasidir. Ushbu modelning fundamental asosi — etnik ozchilik vakillarining o‘z avtoxton madaniy, lingvistik va diniy identifikatorlaridan voz kechib, bosqichma-bosqich titul millat (dominant etnos) ijtimoiy-madaniy qatlamiga to‘liq integratsiyalashuvidir.

Siyosiy retrospektiv nuqtayi nazardan, assimilyatsiya ko‘pmillatli davlatlarda ijtimoiy-siyosiy gomogenlikni (bir xillikni) ta’minlashning eng qadimiy va keng tarqalgan instrumenti bo‘lib kelgan. Bu jarayon ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

Tabiiy-evolyutsion assimilyatsiya: Uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida yuz beradigan ixtiyoriy integratsiya.

Majburiy (direktiv) assimilyatsiya: Davlatning qat’iy ma’muriy-huquqiy instrumentlari orqali etnik ozchiliklarni yagona milliy-madaniy qolipga solish (masalan, ta’lim va davlat boshqaruvida ona tilini cheklash) [1].

Struktural-funksionalizm nazariyasiga ko‘ra, assimilyatsiya tarafdorlari ushbu modelni jamiyatning ichki nizolarga chidamliligini oshiruvchi va millatni yagona davlat mafkurasi atrofida jipslashtiruvchi eng barqaror mexanizm sifatida baholaydilar. Biroq, zamonaviy demokratik paradigmalar sharoitida ushbu model ko‘pincha inson huquqlari va madaniy xilma-xillikni saqlash tamoyillariga zid kelishi nuqtayi nazaridan ilmiy tanqidga uchramoqda.

AQSH garchi muhojirlar mamlakati bo‘lsa-da, uzoq yillar mobaynida assimilyatsiya siyosatini yuritgan. Chikago maktabi vakillari ilgari surgan klassik assimilyatsiya nazariyasiga muvofiq, AQSHga ko‘chib kelgan turli etnik guruhlarga mansub muhojirlar vaqt o‘tishi bilan o‘z tili, qadriyatlari, yashash tarzi va o‘zligidan voz kechib, amerikalikka aylanmog‘i lozim edi. Xususan, amerikalik olim M. Gordon “begona” millat vakillari xulq-atvordan to madaniyatga qadar amerika o‘zligiga qorishib ketishi haqida yozadi [1].

Aslida, assimilyatsiya siyosatining samaradorligi ikki shartga bog‘liqdir: 1) mezbon davlat o‘zga madaniyat vakillarining titul madaniyatga qo‘shilib ketishiga ishonch bildirishi va buning uchun kerakli shart-sharoit yaratishi kerak; 2) etnik ozchilik vakillari yoki muayyan davlatga ko‘chib kelgan yangi muhojirlarning titul millat madaniyatiga qo‘shilib-qorishib ketishi ixtiyoriy ravishda amalga oshishi zarur. Agar faqat birinchi shart ado etilgudek bo‘lsa, u holda assimilyatsiya siyosati majburiy tus oladi. Yaqin tarixga nazar solsak, aksar davlatlarda

assimilyatsiya siyosati aynan majburiy xarakter kasb etganini kuzatish mumkin.

Klassik modeldan farqli ravishda, yangi assimilyatsiya ta’limoti majburlov usulini yoqlamaydi, aksincha, bu jarayon tabiiy ravishda, ongli zarurat asosida kechishi lozimligini uqtiradi. Shunga qaramay, majburlov tusidagi assimilyatsiya siyosati hali ham dunyo davlatlarida uchramoqda [2].

Segregatsiya. Segregatsiya – bu jamiyat tarkibidagi muayyan ijtimoiy guruhlarni ularning etnik, irqiy, diniy yoki kasta mansubligiga ko‘ra sun’iy ravishda ajratish, ularni umummilliy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy makondan chetlatishga qaratilgan destruktiv modeldir. Mazkur model jamiyatning yaxlit rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi “ijtimoiy devorlar” barpo etish orqali muayyan guruhlarning huquqiy va ijtimoiy statusini pasaytirishni strategik maqsad qilib oladi.

Ilmiy tahlillarga ko‘ra, segregatsiya ikki asosiy shaklda namoyon bo‘ladi:

De-yure (huquqiy) segregatsiya: Davlat qonunchiligi darajasida muayyan guruhlarning huquqlarini cheklash, ularning alohida hududlarda (getto, rezervatsiya) yashashini majburiy qilib qo‘yish (masalan, Janubiy Afrikadagi aparteid rejimi yoki AQSHdagi o‘tmishdagi “Jim Krou” qonunlari).

De-fakto (amaliy) segregatsiya: Rasmiy qonunlar mavjud bo‘lmasa-da, iqtisodiy tengsizlik, stereotiplar va ijtimoiy bosim natijasida guruhlarning hududiy va institutsional jihatdan ajralib qolishi.

Segregatsiya modeli nafaqat “begona unsurlar” deb topilgan guruhlarning ijtimoiy mobilligini cheklaydi, balki jamiyatning umumiy ma’naviy-axloqiy tanazzuliga, etnik konfrontatsiyalar (to‘qnashuvlar) va radikalizm o‘choqlari paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Zamonaviy xalqaro huquq normalari va demokratik tamoyillar segregatsiyaning har qanday ko‘rinishini insoniyatga qarshi jinoyat va barqaror taraqqiyotga asosiy tahdid sifatida rad etadi [3].

Yevropa mamlakatlaridan Germaniya, Osiyo mamlakatlaridan Yaponiyada davlat yaxlitligini qo‘llab-quvvatlash maqsadida segregatsiya usuli istifoda etilgan. Yagona madaniyat ustun mavqe kasb etgan

Germaniyada uzoq muddat davomida nemis millatiga mansub bo‘lmagan aholi vakillariga nisbatan ayirmachilik siyosati olib borilgan. Ularning ijtimoiy hayotda ishtiroki cheklanib qolmay, fuqarolik olishi va fuqaroviy haq-huquqlardan foydalanishi ham man etilgan. Yaponiyada ham asrlar mobaynida etnik ozchilik vakillarining ta’lim, mehnat va nikoh huquqlari cheklangan [4].

Izolyatsionizm. Izolyatsionizm – davlatning milliy-madaniy va etnik yaxlitligini saqlash maqsadida tashqi migratsion oqimlarni hamda begona madaniy ta’sirlarni cheklashga qaratilgan ekslyuziv (chetlatuvchi) siyosati hisoblanadi. Ushbu model “begona madaniyat vakillarining kirib kelishi milliy o‘zlikning eroziyasiga va ijtimoiy barqarorlikning buzilishiga olib keladi” degan destruktiv kontsepsiyaga tayanadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan izolyatsionizm quyidagi fundamental xususiyatlar bilan xarakterlanadi:

Demografik va madaniy proteksionizm: Milliy genofond va an’anaviy qadriyatlar tizimini “tashqi xavf”lardan himoya qilish uchun qat’iy viza rejimini joriy etish va immigratsiya kvotalarini minimallashtirish.

Siyosiy autarkiya: Tashqi dunyodan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan ajralish orqali ichki daxlsizlikni saqlashga urinish.

Ksenofobik tendensiyalarning institutsionallashuvi: O‘zga madaniyat vakillarini jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi “begona unsurlar” sifatida talqin qilishning davlat darajasiga ko‘tarilishi [5].

Zamonaviy globallashuv sharoitida izolyatsionizm modeli davlatning iqtisodiy va texnologik taraqqiyotdan uzilib qolishiga, jamiyatda turg‘unlik (stagnatsiya) yuzaga kelishiga hamda inson kapitalining degradatsiyasiga sabab bo‘ladi. Xalqaro hamjamiyat tomonidan ushbu model barqaror rivojlanish va global hamkorlik tamoyillariga zid deb baholanadi.

Masalan, Avstraliyada bir necha asr mobaynida ana shunday yo‘l tutilgan. Mamlakatda, avvalo, tubjoy aholi vakillarini ingliz-kelt madaniyatiga moslashtirishga qaratilgan qat’iy chora-tadbirlar olib borilgan. Ayni choqda, “Avstraliya oqlar uchun” degan ayirmachilik mafkurasi ostida “yashil qit’a”ga chetdan kelayotgan muhojirlar oqimi qat’iy nazorat qilingan va asosan oqtanlilar, xususan, ingliz madaniyati vakillariga fuqarolik berilgan. Osiyolik, hatto janubiy yevropaliklar ham

“istalmagan shaxslar” deb ko‘rilgan. Avstraliya 1973-yildagina ushbu siyosatdan butunlay voz kechgan [6].

Aparteid. Bu – muayyan aholi guruhlarini irqiy mansubligiga ko‘ra siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va fuqarolik huquqlaridan mahrum etish, hududiy jihatdan yakkalab qo‘yish demakdir. Izolyatsionizmdan farqli ravishda aparteid siyosati etnik ozchiliklarning mamlakatga kirishini cheklamaydi, ammo ularning jamiyatga integratsiyalashuvini taqiqlaydi. Masalan, JARda qoratanlilar va hindularga nisbatan shunday siyosat yuritilgan [7]. Sinergetik taraqqiyot tamoyiliga zid bu siyosatni ham uzoq muddat amalga tatbiq etish dushvor. Buning ustiga, u repressiv choralarni taqozo etadi.

Multikulturalizm. O‘tgan asrning 60 – 70-yillarida AQSH va Kanadada multikulturalizm ta’limoti keng muhokama etila boshladi. Bu g‘oya qisqa muddatdan “yangi dunyo”dan “ko‘hna dunyo”ga – Yevropa mamlakatlariga ham ko‘chdi.

Yuqorida sanab o‘tilgan modellarga muqobil usul sifatida taklif etilgan multikulturalizm siyosati jamiyatda etnomadaniy ozchilik vakillari, tubjoy aholi vakillari hamda yangi muhojirlarning milliy o‘ziga xosligini saqlab qolishni yoqlaydi [8].

Multikulturalizm modeli jamiyatda madaniy xilma-xillikni saqlashning fundamental asosi sifatida etnik ozchiliklarning dominant madaniyatga singib ketishini (assimilyatsiyani) rad etadi va funksional integratsiya g‘oyasini ilgari suradi. Kanadalik tadqiqotchi Uill Kimlika konsepsiyasiga ko‘ra, barqaror plyuralistik jamiyat barpo etish uchun davlat nafaqat bag‘rikenglik muhitini yaratishi, balki etnik guruhlarga o‘z o‘zligini saqlashi uchun maxsus huquqiy va iqtisodiy preferensiyalar (imtiyozlar) taqdim etishi shart.

Biroq, zamonaviy siyosiy amaliyotda multikulturalizmning radikal talqinlari, xususan, so‘l radikal qarashlar plyuralizm g‘oyasini suiiste’mol qilib, jamiyatning umummilliy qadriyatlar atrofida jipslashuviga to‘sqinlik qilmoqda. Bu esa jamiyatning ichki fragmentatsiyasiga va madaniy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, multikulturalizmning mo‘tadil shakli G‘arbiy sivilizatsiya makonida millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirishda

samarali mexanizm bo‘lib xizmat qildi. Shunday bo‘lsa-da, bugungi global tendensiyalar va xavfsizlik tahdidlari ushbu konsepsiyani milliy manfaatlarni himoya qilish va ijtimoiy yaxlitlikni saqlash nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqishni hamda uni milliy mentalitet xususiyatlariga moslashtirishni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gordon M. Assimilation in American Life: The Role of Race, Religion, and National Origins. – New York: Oxford University Press, 1964.
2. Веретевская А. Мультикультурализм, которого не было: анализ европейских практик политической интегратsии этнокультурных меньшинств. Москва: МГИМО-Университет, 2018.
3. Massey, D. S., & Denton, N. A. (1993). “American Apartheid: Segregation and the Making of the Underclass”. Harvard University Press.
4. Lie J. Multiethnic Japan. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2001.
5. Huntington, S. P. (1996). “The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order”.
6. Назаров В. Теория и практика мультикультурализма в странах Запада. Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015.
7. Encyclopedia Britannica. https://www.britannica.com/topic/apartheid
8. Parekh B. Rethinking Multiculturalism: Cultural Diversity and Political Theory. New York: Palgrave Macmillan, 2006.

MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA – YOSHLAR MA’NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI

To‘rayev Kamoliddin
Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar
instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa
fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash hamda ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy mafkuraviy tahdidlar, axborot makonining kengayishi va “ommaviy madaniyat” ta’siri sharoitida yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, ta’lim tizimi, oila, mahalla va jamoatchilik institutlarining yoshlar tarbiyasidagi o‘rni hamda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ajdodlar ma’naviy-ma’rifiy qarashlarining yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari, innovatsion yondashuvlar hamda milliy tarbiya an’analarini uyg‘unlashtirish orqali yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularning ma’naviy barkamolligini ta’minlash va jamiyat barqaror rivojiga xizmat qiluvchi vatanparvar shaxslarni tarbiyalash zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ma’naviy immunitet, yoshlar tarbiyasi, vatanparvarlik tarbiyasi, mafkuraviy tahdidlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ta’lim tizimi, ma’rifat, jamiyat barqarorligi.

Globallashuv jarayonlari zamonaviy dunyo davlatlarini turli murakkab ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy jarayonlar girdobiga tortmoqda. Bugungi davr voqeliklari kelajak avlod duch kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy, mafkuraviy va madaniy muammolar tobora murakkablashib borayotganini ko‘rsatmoqda. Shu sababli yetishib kelayotgan yosh avlodning barqaror va xavfsiz jamiyatda yashashini ta’minlashning eng muhim omillaridan biri – ularning mafkuraviy va g‘oyaviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mustahkam ma’naviy immunitetini shakllantirishdan iboratdir.

Ma’naviy immunitetni mustahkamlash, avvalo, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining tizimli va samarali tashkil etilishiga bog‘liq. Yoshlar jamiyat kelajagining poydevori hisoblanadi. Mazkur poydevorning mustahkamligi esa ta’lim va tarbiya jarayonining mazmunli tashkil etilishiga chambarchas bog‘liqdir. Tarbiya barqaror kelajakni barpo etishning eng muhim omillaridan biri sanaladi. Tarbiyaga alohida e’tibor qaratilgan jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot ta’minlanadi.

Buyuk mutafakkir Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi belgilaydi”, degan hikmatli so‘zlari ham ushbu masalaning naqadar muhim ekanini anglatadi. Darhaqiqat, qadim zamonlardan boshlab yoshlar tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralgan. Vatanparvarlik tarbiyasining ahamiyati haqida ko‘plab mutafakkirlar va olimlar o‘z asarlarida fikr bildirganlar. Turli davrlarda yashab ijod qilgan ajdodlarimizning Vatan, millat va xalq ravnaqi yo‘lida fidoyilik ko‘rsatganliklari bugungi yoshlar uchun ulkan ibrat maktabi hisoblanadi.

Tarixiy manbalarda buyuk ajdodlarimizning ilmiy, ma’naviy va madaniy merosiga oid ko‘plab dalillar uchraydi. Shu bois bugungi kunda tarbiya jarayoni ajdodlarimiz yaratgan boy ma’naviy merosning uzviy davomchisi sifatida qaralishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “...o‘qigan, zamonaviy ilm va kasb-hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ana shu ruhda tarbiyalagan xalqlar va davlatlar jadal taraqqiy etmoqda”, degan fikrlari ham ta’lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi muhim o‘rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Bugungi kunda jaholatga qarshi kurashishda eng samarali vosita – ma’rifat ekanligi amaliy tajribada o‘z tasdig‘ini topmoqda. Buyuk alloma Imom G‘azzoliy “Kimyoi saodat” asarida “Ma’rifat hidoyatning boshlanishidir”, deb ta’kidlagan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ma’rifat tarbiya jarayonining asosiy mezoni hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “ta’lim-tarbiya va ma’rifat jamiyat barqarorligining muhim omillaridan biri bo‘lib, insonlarni ezgulikka chorlaydi, ularda saxovat, sabr-qanoat va mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantiradi”.

Tarbiya jarayoni kelajak avlodning barqaror va xavfsiz jamiyat qurishida muhim ma’naviy tayanch vazifasini bajaradi. Globallashuv

sharoitida turli mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgani va ayrim yoshlarning bu jarayonlar ta’siriga tushib qolayotgani esa alohida tashvish uyg‘otadi. Shu bois kelajakda ma’naviy tanazzulning oldini olishning eng muhim sharti bugungi yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash bilan bog‘liqdir.

Zamonaviy yoshlar kreativ fikrlaydigan, zamon talablariga tez moslashuvchi, yangilikka intiluvchan hamda axborot olish imkoniyatlari keng bo‘lgan avlod hisoblanadi. Shu sababli ularga faqat an’anaviy ta’lim usullari asosida bilim berish yetarli emas. Zamonaviy ta’lim ilg‘or pedagogik yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar hamda zamonaviy targ‘ibot vositalari asosida amalga oshirilishi lozim. Biroq ta’lim jarayonida yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllantirish masalasiga e’tiborni susaytirib bo‘lmaydi. Ta’lim va tarbiya o‘zaro uyg‘un holda, tizimli ravishda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

An’anaviy tarbiya usullarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir. Ayniqsa, qadimdan shakllangan “ustoz-shogird” an’analarini zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish yoshlar tarbiyasida samarali natijalar beradi.

Prezidentimizning “bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma’naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun eng muhim vazifalardan biridir”, degan fikrlari ham mazkur masalaning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Buyuk ajdodlarimiz ham o‘z asarlarida yoshlarni Vatan sevgisi, ma’naviy poklik va ezgulik ruhida tarbiyalash zarurligini alohida ta’kidlab kelganlar.

O‘zbekistonda yoshlarning ta’limi va tarbiyasi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mazkur jarayon milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar va ilg‘or xalqaro tajribalar bilan uyg‘un holda amalga oshirilishi zarur. Har bir davlat o‘z milliy mentaliteti, madaniyati va tarixiy an’analari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, barcha mamlakatlarni birlashtirib turuvchi muhim omil – yosh avlodga e’tibor qaratish va ularning ta’lim-tarbiyasiga strategik yondashuvdir.

Yoshlar bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy

axborot vositalari axborot almashinuvi va bilim olishning muhim manbalariga aylangan. Shu bilan birga, mazkur axborot makonida turli mafkuraviy ta’sirlarning mavjudligi ham yoshlar tarbiyasida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ta’lim va tarbiya jarayonida to‘g‘ri foydalanish, yoshlarni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bugungi murakkab ijtimoiy sharoitda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri sanaladi. O‘zbekiston tarixida mahalla tizimi, oila tarbiyasi, ustoz-shogird an’analari hamda uzluksiz ta’lim tizimi yoshlar tarbiyasining muhim institutlari sifatida shakllangan. Ushbu tizimlar yosh avlodda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash ularning jamiyat taraqqiyoti va mamlakat xavfsizligiga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yoshlarning innovatsion g‘oyalari va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada yoshlarning takliflarini o‘rganish, ularni umumlashtirish hamda qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus platformalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar tarbiyasida millatning boy tarixiy merosi, ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va ma’naviy boyliklar, milliy qadriyatlar hamda an’analarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Mutafakkir Abdurauf Fitratning “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu kurashning quroli sog‘lom jism, o‘tkir aql va yaxshi xulqdir”, degan fikri bugungi kun voqeligiga ham to‘liq mos keladi. Darhaqiqat, faqat axloqan yetuk va ma’naviy barkamol yoshlar bilan barqaror kelajakni barpo etish mumkin.

Tarbiya jarayonlarida milliy an’analar, urf-odatlar va qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Chunki ular xalqning tarixiy tajribasi, ma’naviyati va madaniyatini o‘zida mujassam etgan. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar va an’analarga tayanish yoshlar qalbiga ma’naviy fazilatlarni singdirishda samarali natija beradi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga

oshirilmoqda. “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari!” g‘oyasi atrofida yoshlarni birlashtirish, ularni ilm-fan va innovatsiyalarga jalb etish hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Biz yoshlarimizda hayotimizning eng katta ma’nosi va natijasini ko‘ramiz”. Shu bois yoshlar tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish jamiyatimizning barqaror rivojlanishi va farovon kelajagini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aristotel. Politika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
2. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000.
3. G‘azzoliy I. Kimyoi saodat. – Toshkent: Movarounnahr, 2005.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
7. Ochil Safo. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
8. Sharofutdinov O. Ma’naviy kamolot yo‘llarida. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
9. Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
10. Al-Buxoriy. Hadis: 4 jildlik. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991–1996.

ZJV5401

MILLIY QADRIYATLARNING OILA TARBIYASIDAGI O‘RNI

Ishimov Azamat Mamedovich
Diplomat University katta
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy qadriyatlarning shakllanishi, ularning oila tarbiyasidagi o‘rni hamda yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashdagi ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq mutafakkirlari – “Avesto”, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy hamda boshqa allomalar asarlarida ilgari surilgan axloqiy qarashlar asosida oila va jamiyatda ma’naviy qadriyatlarning tutgan o‘rni yoritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarning tarixiy ildizlari, ularning ijtimoiy-ma’naviy mazmuni hamda yoshlar ongida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, hurmat va mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishdagi roli tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, oila tarbiyasi, ma’naviy meros, komil inson, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, Sharq mutafakkirlari, an’ana va urf-odatlar, ma’naviy kamolot, vatanparvarlik, ijtimoiy qadriyatlar, oila muhitida tarbiya.

“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi.”

Sh.Mirziyoyev

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, zardo‘shtiylarning muqaddas kitobi – “Avesto”da hamda buyuk ajdodlarimiz – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy asarlarida insonda yuksak axloqiy fazilatlarni kamol toptirishda oila va milliy qadriyatlar masalasi asosiy o‘rinni egallagan. Ma’lumki, o‘zbek oilasi o‘zida millatimizga xos ko‘p asrlik ma’naviy qadriyat va an’analarimizni, udum va rasm-rusumlarimizni, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy merosimizni saqlab keladi. Oilada shakllangan o‘zbek millatiga xos bo‘lgan muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus kabi odob-

axloqqa oid his-tuyg‘ular nafaqat tarbiya vazifasini o‘taydi, balki insoniy qadriyatlar va fazilatlarning namoyon bo‘lishida, komil insonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oilada ota-onaning tinch-totuvligi va o‘zaro mehr-muhabbati, dunyoqarashi, ma’naviy saviyasi, qiziqishi, e’tiqodi, jamiyatdagi mavqei, husn-latofati farzand tarbiyasiga ma’lum ma’noda ta’sir o‘tkazadi. Bunday oilada tarbiyalangan farzandlar go‘zallikka ishtiyoqmand, ruhiy tetik, bag‘ri butun, hayotga qiziquvchan, xotirjam, tinch-totuv oilaviy hayot kechirishga tayyor bo‘lib o‘sadilar. Sharqda milliy qadriyatlarni farzandlar ongi va qalbiga singdirish oiladan boshlanadi.

Jumladan, yoshlar kattalardan: suvga tupurma, non usti- “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi.” Sh.Mirziyoyev 4 ga narsa qo‘yma, nonning uvog‘i ham non, yoshi ulug‘larning yo‘lini kesib o‘tma, ota-onangning gapini ikkita qilma, ustozingni hurmat qil, atrofingga befarq bo‘lma kabi nasihatlarni eshitib, turli rivoyat, maqol, hikmatlarni tinglab, xotiralarida saqlab voyaga yetadilar. Yoshlar bizning kelajagimiz, ular ota-ona va ajdodlarimiz ishining davomchilari hisoblanadi. Bizning asosiy maqsadimiz – milliy va ma’naviy qadriyatlar asosida komil insonni tarbiyalashdir. Komil inson deganda, eng avvalo, dunyoqarashi keng, vatanparvar, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan, mas’uliyatli va sog‘lom kishilarni tushunamiz. Inson faqat tarbiya orqaligina komillikka erishadi. Uning ma’naviy darajasi atrofida yuz berayotgan voqea-hodisalarni qanday qabul qilishi va mustaqil baholay olishiga ham bog‘liq. Shunday ekan, ta’lim tizimi va mahallada yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini mustahkamlashda milliy qadriyatlarga oid boy ma’naviy merosimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, “Avesto”dagi “Ezgu fikr – ezgu so‘z – ezgu amal” g‘oyasi bo‘yicha fikr yuritish; Qur’oni karim, hadisi sharif kabi muqaddas manbalarda keltirilgan ma’naviy-ma’rifiy o‘gitlar orqali yoshlar ongida ruhiy poklik, e’tiqod tushunchalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Har bir xalqning milliy qadriyatlarini uning tarixi, ma’naviyati, madaniyati, o‘ziga xos urf-odatlari, an’analarisiz tasavvur qilish qiyin. “Qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari

va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim”[28]. “Qadriyatlar – jamiyatda kishilar o‘rtasida obro‘ga, e’tiborga, hurmatga, nufuzga ega kishilar, munosabatlar, holatlar, moddiy narsalar va ma’naviy boyliklar majmuasi”[29]. “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha”.[30] “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha”,[31] - degan ta’riflar berilgan. Bu esa, o‘z navbatida, qadriyatlarning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Milliy qadriyatlar – millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Keyingi vaqtlarda O‘zbekistonda milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi. Qadriyatlarni faqat moddiy va ma’naviy boyliklar sifatida tushunish, izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Ma’lumki, qadriyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra xilma-xildir. Ular orasida tabiiy, moddiy, ma’naviy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy qadriyatlar alohida ajralib turadi. Shunday bo‘lsa-da, qadriyatlarning eng oliysi insonning o‘zi, hayoti, huquqi va erki, sog‘lom va farovon turmushi hisoblanadi. Inson qadr-qimmatini, sharafini ulug‘lash jamiyatimiz poklanishi va ravnaqining muhim omilidir.[32]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan “Harakatlar strategiyasi” – islohotlarning yangi bosqichi bo‘lib, unda aholini, oilalarni ma’naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu o‘rinda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar asosida davlat idoralari

[28] Қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт (илмий ишлар тўплами). –Тошкент; “Ўзбекистон”, 1997.-198 б;
[29] Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғати. А. Жалолов ва Қ.Хонназаров умумий таҳрири остида. – Тошкент.: Шарқ, 1998. – 279 б.
[30] Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент, Ғ.Ғулом нашриёти, 2010. – 707 б.
[31] Тарбия энциклопедияси. 2010. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”,-509 б.
[32] Тўланов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 333 б.

xodimlarining uyma-uy yurib, xalq dardini tinglash, og‘irini yengil qilish, moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlari yo‘lga qo‘yildi.

G‘ulomxon G‘ofurov milliy an’analarga bag‘ishlangan maqolalaridan birida milliy qadriyatlarning quyidagi ko‘rinishlarini tilga olgan: 1) tabiiy qadriyatlar; 2) iqtisodiy qadriyatlar; 3) ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar; 4) ma’naviy qadriyatlar; 5) axloqiy qadriyatlar[33]. Jumladan, “Ota-bobolarimiz ilm o‘rgatish bilan birga farzandlarimizga avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy-ma’naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar.[34]”; “O‘zbeklarning aksariyati... yaqin odamlarning, qo‘shnilarning omon-esonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu esa eng oliy darajadagi ma’naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir[35]”; “Iqtisodiy qadriyat – iqtisodiy munosabatlar jarayonida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlarni hisobga olish, halollik, poklik, bag‘rikenglik, ishonchlilik kabi fazilatlarning amal qilinishini anglatadigan tushuncha”.[36] Shu o‘rinda qo‘ni-qo‘shnichilik qadriyatini misol qilib keltirsak, unda qo‘shnilar o‘rtasida o‘zaro ishonch, xabar olish va moddiy yordam berish milliy qadriyat sifatida birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar hayotiy qadriyatlarning eng muhim omillari sifatida keltirilgan. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi.

Keyingi vaqtlarda tarbiya masalasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarimiz qatori oilada, maktab va jamoat tashkilotlarida milliy, umuminsoniy qadriyatlarning, an’analarning ustuvorligiga erishildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, – degan

[33] Ғофуров Ғ. Миллий анъаналар//Халқ сўзи, 1993 йил. 11 февраль,-2 б.
[34] Жалолов Ҳ. Оила, маҳалла ва мактаб ҳамкорлиги. Тарбия. №2 (6), 2006. -13 б.
[35] Қодирова О. Оилавий келишмовчиликлар. Тарбия №2 (6), 2006. Б. 22.
[36] Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. Ғофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи– Тошкент; 2010.- 241б.

fikrlari yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida yetuk, barkamol etib tarbiyalashda barchamizga kuch-g‘ayrat bag‘ishlamoqda[37].

Safo Ochil o‘zining “Mustaqillik va tarbiya masalalari” nomli risolasida “Milliy qadriyatlar ota-bobolardan bizgacha yetib kelgan udumlar: Ramazon hayiti, Qurbon hayiti, Navro‘z, urug‘-don ekish va hosil bayramlari, beshik to‘yi, sunnat to‘yi, o‘g‘il uylantirish va qiz chiqarish bilan bog‘liq to‘ylar, uy-joy to‘yi, qazo bilan bog‘liq turli ma’raka-marosimlar, shuningdek, xalqning har xil an’analari – hashar, ota-onalarga hurmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, milliy odob-axloq me’yorlariga amal qilish, ilm olish, oila mustahkamligiga erishish, ustozlar qadriga yetish, vafot etganlar qabrini ziyorat etish, xalqqa muhabbat, Vatanni sevish va ardoqlash, askarlikka o‘z ixtiyori bilan borish, baynalmilalchi bo‘lish, muloyim va shirinsuxanlik va shu kabilarni o‘z ichiga qamrab oladi”[38].

Milliy qadriyatlarning asosi bo‘lgan ma’naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovatliligi, oliyjanobligi, va’dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi. Ota-ona o‘z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo‘lib, ularni ma’nan oziqlantirar ekan, eng avvalo, o‘zlari o‘zaro muomala jarayonida namuna bo‘lishlari hamda farzandlarini ko‘proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari so‘ngra o‘z fikrlarini axloq me’yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Ta’kidlash joizki, diqqat va mahorat bilan eshitish odobi va malakasiga “mahorat bilan eshitish” bilimlarini mustahkamlash orqaligina ega bo‘lish mumkin. Albatta, ijtimoiy hayot davomida oilada ota-ona va bola o‘rtasida turli voqea va hodisalar, tushunmovchiliklar bo‘ladi. Insonning eng sof tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo‘ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so‘zi orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat va or-

[37] Шавкат Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. “Ўзбекистон”, 2016.146 б.
[38] Сафо Очил. Мустақиллик ва тарбия масалалари. Т; “Ўзбекистон”, 1995. -5-6 б.

nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi. Shunday ekan, oilada nojo‘ya ish qilib qo‘ygan bola yig‘laganda ona yoki ota do‘q urib, “Hoziroq yig‘ini to‘xtat!”, deb qattiq gapirishi yaramaydi. Chunki, bola noto‘g‘ri yoki ayb ish qilganini o‘zi ham anglagan va qo‘rqib ketganidan yig‘lab yuborgan bo‘lishi mumkin. Bu holatda ota yoki ona bolani bag‘riga bosib, tinchlantirib, unga ehtiyot bo‘lish kerakligini aytishining o‘zi kifoya. Aksincha, ota-ona o‘zidan itarib, uni jazolab, qo‘pol muomalada bo‘lsa, bola “stress” yoki “shok” holatiga tushib, uning nutqiga, fikrlashiga, eshitish, xulosa chiqarish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ko‘p hollarda kechki payt yoki nonushtadan oldin farzandlar ota-onaga murojaat qilganlarida ular bolani oxirigacha tinglamay, “hozir vaqtim yo‘q”, “shoshib Qadriyatlar – ma’naviy kamolot asosi turibman”, “xalaqit berma” kabi fikriy ehtiyojini qoniqtirmaydigan javoblar beradilar. Bunday munosabat bolaga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, undagi ijodkorlikni, tashabbuskorlikni so‘ndiradi, oila a’zolari bilan maslahatlashish kabi odatlarning susayishiga olib keladi. Yuqoridagi vaziyatlardan uzoqroq bo‘lib risoladagidek munosabatlarni shakllantirishda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan axloqiy, ma’naviy, madaniy qadriyatlarni bilish, o‘rganish va hayotda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Shu o‘rinda Yusuf Xos Hojibning “Kishi uchun juda kerakli bo‘lgan ikki a’zo bor: biri – til, boshqasi – yurak. Til so‘z uchun, yurak, ko‘ngil esa shu so‘zdan lazzatlanishi uchun berilgan”, degan fikri ota-onalarni va yoshlarni go‘zal, chiroyli so‘zlaydigan, ma’naviy barkamol, yuksak odob va ilm egasi bo‘lishlarida qo‘l keladi.

“ERON–POKISTON MUNOSABATLARIDAGI ETNO-DINIY DINAMIKAGA TA’SIR ETUVCHI TASHQI AKTORLAR: AFG‘ONISTON, HINDISTON VA SAUDIYA ARABISTONI”

Sa’diyev Bahodir Ubaydullo o‘g‘**li**
Diplomat University

Annotatsiya. Ushbu maqola Eron–Pokiston munosabatlaridagi etno-diniy dinamikani shakllantirishda tashqi aktorlar —Afg‘oniston, Hindiston va Saudiya Arabistonining rolini o‘rganadi. Tehron va Islomobod geografik yaqinlik va umumiy strategik manfaatlar asosida rasmiy hamkorlik doirasini saqlab qolgan bo‘lsa-da, ularning munosabatlari sunniy-shia bo‘linishi (mazhabiy tafovut) va chegaradan o‘tuvchi etnik aloqalar, xususan, baluj va pushtun aholisi orasidagi bog‘lanishlar bilan tuzilish jihatidan ta’sirlanib kelmoqda. Tadqiqotda ta’kidlanishicha, tashqi aktorlar nafaqat davlatlararo diplomatiyaga ta’sir qiladi, balki ular ichki siyosiy tuzilmalar, xavfsizlik dilemmalari va identifikatsiya jarayonlari bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, Eron–Pokiston munosabatlarini bilvosita o‘zgartirib boradi.

Kalit so‘zlar: Eron–Pokiston munosabatlari; Etno-diniy dinamika; Sunniy–Shia qarama-qarshiligi; Mintaqaviy xavfsizlik kompleksi; Afg‘oniston; Hindiston–Pokiston raqobati; Saudiya Arabistoni–Eron raqobati; Chegaraoldi jangariligi; Baloch millatchiligi; Pushtun identifikatsiyasi; Geosiyosiy raqobat; Tashqi aktorlar; Janubiy Osiyo xavfsizligi; Yaqin Sharq geosiyosati.

Kirish. Eron va Pokiston Yaqin Sharq bilan Janubiy Osiyo tutashgan hududda joylashgani sababli o‘ziga xos bog‘liqlikka ega. Pokiston 1947-yilda mustaqillikka erishganidan buyon ikki davlat diplomatik jihatdan asosan hamkorlik ruhida munosabat yuritib kelmoqda. Bu, avvalo, ularning geografik yaqinligi, iqtisodiy manfaatlarning ma’lum darajada o‘zaro mosligi hamda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti (ECO) kabi mintaqaviy tuzilmalardagi a’zoligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, munosabatlarning tashqi ko‘rinishi ortida etnik va diniy omillar, mazhabiy

tafovutlar hamda kengroq geosiyosiy bosimlar mavjud bo‘lib, ular vaqti-vaqti bilan ikki tomonlama aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazhabiy omil bu yerda muhim o‘rin tutadi. Pokiston asosan sunniy aholiga ega bo‘lsa, Eron shialar ko‘pchilikni tashkil etadigan davlatdir. Bu holat, hukumatlar rasmiy ravishda mazhabiy qarama-qarshilikdan chetda turishga harakat qilsa ham, yashirin ziddiyat potensialini yuzaga keltiradi. Mintaqadagi sunniy va shia kuchlari o‘rtasidagi kengroq raqobat Pokistonning ichki diniy muhitiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Baloch va pushtun kabi chegarani kesib o‘tuvchi etnik guruhlar mavjud bo‘lib, ular ichki va tashqi siyosat o‘rtasidagi farqni murakkablashtiradi. Chegara shunchaki xaritadagi chiziq emas, balki identitetlar to‘qnashadigan va xavfsizlik muammolari yuzaga keladigan makonga aylanadi.

Bu jarayonda tashqi aktorlarning roli ham muhimdir. Afg‘oniston umumiy etnik guruhlar, chegaraviy muammolar va erkin harakatlanadigan qurolli guruhlar sababli asosiy xavfsizlik omili sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat har ikkala davlatga bevosita ta’sir qiladi. Hindistonning Pokiston bilan raqobati esa Islomobodning tashqi siyosiy yo‘nalishlarini shakllantiradi va natijada uning Eronga nisbatan siyosatiga ham ta’sir etadi. Saudiya Arabistonining Eron bilan davom etayotgan raqobati esa Pokistonning diniy va siyosiy hayotiga real ta’sir ko‘rsatgan.

Shu bois, mazkur munosabatlarni faqat ikki tomonlama diplomatiya doirasida tahlil qilish yetarli emas. Kengroq yondashuv talab etiladi — bunda mintaqaviy geosiyosat, mazhabiy identitetlarning shakllanishi va tashqi aktorlarning roli birgalikda ko‘rib chiqilishi zarur. Xususan, Afg‘oniston, Hindiston va Saudiya Arabistonining Eron va Pokiston ichidagi etno-diniy tuzilmalar bilan qanday o‘zaro aloqaga kirishishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu ta’sirlar ko‘pincha bevosita davlatlararo to‘qnashuv shaklida emas, balki identitetlarni mustahkamlash, xavfsizlik xavotirlarini kuchaytirish yoki vositachilik (proxy) raqobatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasi hamda identitet siyosatiga oid konstruktivistik yondashuvlarga asoslanadi. Bu esa an’anaviy xavfsizlik masalalari qanday qilib g‘oyaviy va mazhabiy omillar bilan uyg‘unlashishini ko‘rsatishga imkon beradi. Natijada, Eron–Pokiston

munosabatlarining ba’zan pragmatik hamkorlik, ba’zan esa keskinlik davrlariga o‘tishini hamda tashqi aktorlar bu jarayonni qanchalik kuchaytirishi yoki yumshatishi mumkinligini tushuntirish mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, ushbu tahlil Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, mazhabiy geosiyosat hamda 2021-yildan keyingi davrda mintaqaviy kuchlar muvozanatining o‘zgarishi haqidagi ilmiy munozaralarga hissa qo‘shadi. Tashqi aktorlarning roli borasida turli qarashlar mavjud bo‘lishi mumkin, biroq ularning ichki ziddiyatlarni kuchaytiruvchi omil sifatidagi ta’sirini inkor etish qiyin.

Asosiy qism. Nazariy va konseptual asoslar

Eron va Pokiston munosabatlari mintaqaviy xavfsizlik komplekslari nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdek ko‘rinadi. Bu nazariyani Barry Buzan va Ole Wæver ishlab chiqqan. Unga ko‘ra, geografik jihatdan bir-biriga yaqin joylashgan davlatlarning xavfsizlik masalalari o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, bir davlat xavfsizligini boshqalaridan ajratib, alohida tahlil qilib bo‘lmaydi — ular bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi.

Bu yondashuv Eron va Pokiston holatiga mos keladi, chunki ular Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo tutashgan hududda joylashgan. Shu sababli ularning xavfsizlik muammolari ushbu ikki mintaqaning xavfsizlik tizimlari bilan kesishadi va o‘zaro aralashib ketadi.

Shuningdek, xalqaro munosabatlardagi konstruktivistik yondashuv ham muhimdir. Bu yondashuv davlatlarning xatti-harakatlarida identitet va normalarning roliga e’tibor qaratadi. Masalan, sunniy–shia bo‘linishi dastlab diniy tafovut sifatida shakllangan bo‘lsa-da, bugungi kunda u ko‘proq geosiyosiy identitet belgisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. U mintaqada “kim kim bilan” degan savolga javob beruvchi siyosiy va ijtimoiy identifikatsiya vositasiga aylangan.

Shu bois xavfsizlik raqobati faqat tanklar, qurol-yarog‘ yoki hududiy nizolar bilan cheklanmaydi. Moddiy omillar, albatta, muhim, biroq g‘oyaviy omillar ham tahdidlarni qanday qabul qilish va ittifoqlar qanday shakllanishini belgilaydi. Mazhabiy narrativlar bu jarayonga qo‘shimcha qatlam qo‘shadi va ularni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Sunniy–shia qarama-qarshiligi yagona omil bo‘lmasa-da, u ko‘plab siyosiy va xavfsizlik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Ba’zan bu nazariyalarni aniq bir vaziyatga moslashtirish murakkab tuyuladi. Shunga qaramay, ular Eron va Pokiston nima sababdan aynan shunday munosabat yuritayotganini tushuntirishga yordam beradi. G‘oyaviy omillar mintaqaviy xavfsizlik kompleksi nazariyasi bilan kesishib, jarayonlarni yanada o‘zaro bog‘liq va murakkab holga keltiradi.

Afg‘oniston strategik va etno-diniy omil sifatida

Chegara xavfsizligi va jangarilik

Eron va Pokiston o‘rtasidagi hozirgi munosabatlarga Afg‘oniston sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan, shuningdek, bu omil Hindiston–Pokiston raqobatiga ham bilvosita ta’sir etgan. Tarixan Dyurand chizig‘i ikki davlat o‘rtasida bahsli va nozik masala bo‘lib kelgan. Chegara orqali qurolli guruhlarning harakatlanishi, xususan Tehrik-i-Tolibon Pokiston (TTP) hamda turli mazhabiy tashkilotlar faoliyati Islomobodning xavfsizlik bilan bog‘liq muammolarini yanada kuchaytirmoqda.

2021-yilda Tolibonning Afg‘onistonda hokimiyatga qaytishi mintaqaviy noaniqlikni oshirdi. Islomobod dastlab strategik chuqurlik (strategic depth) qo‘lga kiritishni kutgan edi, biroq Afg‘oniston hududidan amalga oshirilgan terrorchilik hujumlari mamlakat ichki xavfsizligini tobora zaiflashtira boshladi. Eron Islom Respublikasining Tolibon bilan munosabatlari esa realpolitik yondashuv va Afg‘onistondagi zaif shia jamoasini, avvalo hazoralarni, shuningdek o‘zining Eron–Afg‘oniston fuqarolarini himoya qilish zarurati o‘rtasidagi nozik muvozanatga asoslanadi.

Etnik aloqadorlik va transmilliy identitet

Pushtunlar Afg‘oniston va Pokiston chegarasi bo‘ylab yashaydi. Baloch aholisi esa Eron va Pokiston hududlariga tarqalgan. Pushtun va baloch identitetlarining transchegaraviy xususiyati o‘ziga xos xavfsizlik xatarlarini yuzaga keltiradi. Pokistonning Balochiston viloyati hamda Eronning Siston–Balochiston viloyatida separatistik qurolli guruhlar tomonidan amalga oshirilgan hujumlar bir necha bor ikki qo‘shni davlat o‘rtasidagi munosabatlarni taranglashtirgan. Ayniqsa, Islomobod va Tehron bir-birini o‘z hududidagi jangari guruhlarning chegaraning narigi tomonida boshpana topishiga yetarlicha chora ko‘rmaslikda ayblagan paytlarda bu keskinlik yanada kuchaygan.

Afg‘onistondagi siyosiy beqarorlik Eron va Pokistonda mazhabiy hamda etnik tafovutlarni kuchaytirishda muhim rol o‘ynashi inobatga olinsa, bu holat Afg‘oniston omilining Eron–Pokiston munosabatlariga, garchi bilvosita bo‘lsa-da, sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

Hindiston–Pokiston raqobati va uning bilvosita ta’siri

Pokiston–Hindiston raqobati shubhasiz Janubiy Osiyo mintaqasidagi eng uzoq davom etayotgan va murakkab mojarolardan biridir. Asosan Kashmir masalasi bilan bog‘liq bo‘lgan bu qarama-qarshilik geosiyosiy va hududiy xarakterga ega bo‘lib, butun Janubiy Osiyo mintaqasining siyosiy muhitiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Hindistonning Afg‘onistonda infratuzilma va rivojlanish loyihalaridagi ishtirokining ortib borishi Pokistonda jiddiy xavotir uyg‘otgan. Islomobod Hindistonning Afg‘onistondagi chuqurlashib borayotgan faolligini “Pokistonni o‘rab olish” (encirclement) strategiyasining bir qismi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Hindistonning Eron bilan energetika sohasidagi iqtisodiy aloqalari, xususan Chobahor porti doirasidagi hamkorligi ham Islomobod tomonidan raqobat strategiyasi kontekstida ehtiyotkorlik bilan kuzatiladi.

Mazkur raqobat etno-diniy dinamikaga bilvosita ikki yo‘l bilan ta’sir ko‘rsatadi:

- Pokistonning sunniy yo‘nalishdagi hamkorlarga strategik tayanishini kuchaytiradi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sir qiluvchi masalalar bo‘yicha xavfsizlikka yo‘naltirilgan (sekuritizatsiyalashgan) diskurslar shakllanishiga olib keladi; bu esa Pokistonda identitet siyosati va milliy mafkura o‘zaro to‘qnashadigan muhitni yanada murakkablashtiradi.

Shunday qilib, Hindiston o‘z mohiyatiga ko‘ra mazhabiy davlat bo‘lmasa-da, uning Pokiston bilan raqobati Eron–Pokiston munosabatlarini shakllantiruvchi kengroq geosiyosiy kontekstning ajralmas qismi hisoblanadi.

Saudiya Arabistoni–Eron raqobati va mazhabiy institutlashuvi

Saudiya va Eron o‘rtasidagi raqobat butun musulmon dunyosiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Pokiston esa qirollik bilan iliq xavfsizlik va

iqtisodiy munosabatlarga ega, jumladan keng moliyaviy yordam oladi; bunga qo‘shimcha ravishda, ko‘plab pokistonlik ishchilar Saudiya mehnat bozorida faol ishtirok etmoqda.

Pokistonda diniy ta’sir

1980-yillardan boshlab Saudiya Arabistoni Pokistonda diniy loyihalarga sezilarli sarmoya kiritishni boshladi. Bu esa asosan Salafi va Deobandi maktablariga mos keluvchi sunniy ta’limni targ‘ib qiluvchi madrasalar tarmog‘ini kengaytirishga xizmat qilgan. Shu bilan bir vaqtda, Eron Pokistondagi shia tashkilotlari bilan yaqin aloqalarni rivojlantirishga intildi. Ushbu tashqi homiylikning asosiy oqibatlari jamiyat ichida sektachilik institutlari uchun chuqur ildiz otgan strukturalarning shakllanishiga olib keldi.

Pokiston davlati rasmiy ravishda sektachilik zo‘ravonligini qoralaydi, biroq vaqti-vaqti bilan sunniy–shia to‘qnashuvlari sodir bo‘lishi, identitetga asoslangan siyosatning jamiyatda chuqur ildiz otganini ko‘rsatadi. Eron va Saudiya o‘rtasidagi tarangliklar Pokistonning ichki diniy siyosati orqali o‘z aksini topgan.

Diplomatik yaqinlashuv va uning cheklovlari

2023-yilda Saudiya Arabistoni va Eron o‘rtasida amalga oshirilgan diplomatik normalizatsiya mintaqadagi ochiq to‘qnashuv darajasini kamaytirgan bo‘lsa-da, ko‘plab o‘n yillar davomida qurilgan institutlar va ideologiyalar tarmoqlarini tezda yo‘q qilish mumkin emas. Natijada, Pokiston global islomiy qadriyatlar geosiyosatining yangi oqimida o‘rtada qolmoqda, chunki u doimo o‘z iqtisodiy manfaatlarini ichki siyosiy mazhabiy dinamikasi bilan muvozanatlashga majbur bo‘lgan.

Chegaraoldi Jangarilik va Xavfsizlik Dilemmalari

Eron va Pokiston vaqti-vaqti bilan o‘zaro bir-birini chegaralar bo‘ylab faoliyat yuritayotgan qurolli guruhlarni nazorat qilmayotganlikda ayblab keladi. Misol uchun, 2014–2023-yillar oralig‘ida Siston-Balochiston viloyatida sunniy ekstremist guruhlar tomonidan Eron hududida amalga oshirilgan kamida 15 ta yirik hujum Pokiston bilan diplomatik munosabatlarni sinovdan o‘tkazgan. Shuningdek, Pokistonning Balochiston viloyatidagi xavfsizlik kuchlari tomonidan amalga oshirilgan

qarshi operatsiyalar va razvedka harakatlari ham Eron bilan munosabatlarda taranglikka sabab bo‘lgan.

Bunday holatlar klassik xavfsizlik dilemmasini ko‘rsatadi: bir tomonning mudofaa choralarini boshqa tomon agressiv harakat sifatida qabul qiladi. Etnik isyonlar va sektachilik identiteti kesishganda, eskalatsiya xavfi ortadi. Masalan, Baloch va Pashtun hududlaridagi qurolli guruhlarning faoliyati, shia va sunniy guruhlar o‘rtasidagi noaniqlikni kuchaytiradi.

Tashqi aktorlar bu taranglikni kuchaytiradi: Fors ko‘rfazi sunniy donorlar tomonidan moliyaviy yordam va ideologik ta’sirlar, shuningdek, Eron tarafidan Shia guruhlariga qo‘llab-quvvatlash, hududiy mojarolarni yanada murakkablashtiradi. 2010-yildan 2022-yilgacha olingan ma’lumotlarga ko‘ra, chegaralar bo‘ylab qurolli guruhlar faoliyati bilan bog‘liq 70 dan ortiq xavfsizlik insidentlari qayd etilgan, ular ko‘pincha tashqi qo‘llab-quvvatlash tufayli kuchaygan.

Shunday qilib, chegaraoldi jangarilik va xavfsizlik dilemmalari Eron–Pokiston munosabatlaridagi eng muhim va murakkab masalalardan biri bo‘lib, bu vaziyatni hal qilish uchun ikki tomonlama diplomatiya va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarur.

2021-yildan Keyingi Mintaqaviy Transformatsiyalar

2021-yilda Afg‘onistondan AQShning chiqishi mintaqaviy kuch muvozanatini tubdan o‘zgartirdi. Tolibonning hokimiyatga qaytishi nafaqat Afg‘onistondagi ichki siyosiy holatni, balki qo‘shni davlatlar xavfsizligini ham keskin o‘zgartirdi. Islomobod va Tehron, Tolibonning qaytishi bilan bog‘liq xavf-xatarlarni baholashga majbur bo‘ldi. Misol uchun, 2022-yil oxiriga kelib, Pokiston hududida Tolibon bilan aloqadorlikda bo‘lgan 12 ta qurolli hujum qayd etilgan, bu hududiy xavfsizlikni sezilarli darajada kuchaytirdi. Eron esa Afg‘onistonning shimoli-sharqiy hududlarida, xususan, Hazora va shia jamoalarni himoya qilish zarurati bilan chegarasini mustahkamlashga majbur bo‘ldi.

Shu bilan bir vaqtda, Yaqin Sharq diplomatiyasidagi rivojlanish — xususan, 2023-yilda Saudiya Arabistoni va Eron o‘rtasida diplomatik normalizatsiya jarayoni — mintaqaviy strategik hisob-kitoblarni qayta ko‘rib chiqishga sabab bo‘ldi. Ushbu normalizatsiya Saudiya–Eron

raqobatining tashqi ifodalarini vaqtincha yumshatgan bo‘lsa-da, uzun yillik madrasalar tarmoqlari va mazhabiy institutlari bilan bog‘liq ichki dinamikalar Pokiston va Eron munosabatlariga bilvosita ta’sir qilmoqda.

Eron–Pokiston Munosabatlaridagi Asosiy Yo‘nalishlar

1. **Iqtisodiy hamkorlikning davom etishi:** Chegara savdosi va transport loyihalari muhim rol o‘ynaydi. Masalan, 2022-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Taftan (Pokiston)–Mirjaveh (Eron) chegara postidan o‘tgan savdo hajmi 1,2 milliard dollarni tashkil qilgan, bu 2021-yilga nisbatan 18% o‘sish demakdir. Ushbu hamkorlik mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy manfaatlarni qo‘llab-quvvatlaydi.
2. **Jangarilikka nisbatan davom etayotgan ishonchsizlik:** Eron va Pokiston chegaralarida 2021–2023-yillarda 40 dan ortiq xavfsizlik insidentlari qayd etilgan. Bu insidentlar TTP va Sistan-Balochestan hududidagi ekstremist guruhlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ikki davlat o‘rtasida muntazam nazorat va razvedka almashishni talab qiladi.
3. **Saudiya va Hindistonga nisbatan muvozanat saqlash:** Pokiston iqtisodiy va xavfsizlik nuqtai nazaridan Saudiya bilan yaqin aloqalarni davom ettiradi, shu bilan birga Hindistonning Afg‘onistondagi loyihalarini ham hisobga oladi. Masalan, 2022-yilda Hindistonning Afg‘oniston inshootlariga 1,1 milliard dollar sarmoya kiritgani xabar qilingan, bu Pokistonning strategik hisob-kitoblariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, 2021-yildan keyingi davr Eron–Pokiston munosabatlarida uzluksizlik va moslashuvchanlikni bir vaqtning o‘zida ko‘rsatadi: iqtisodiy hamkorlik davom etadi, jangarilik bilan bog‘liq xavf-xatarlar mavjud, va strategik muvozanatni saqlash zarurati kuchaygan. Bu vaziyat ikki davlatning mintaqaviy xavfsizlik kompleksidagi o‘rnini yanada murakkablashtiradi.

Xulosa Eron va Pokiston munosabatlari nafaqat ikki davlat o‘rtasidagi an’anaviy diplomatik aloqalar bilan, balki mintaqaviy geosiyosat, etno-diniy identitetlar va tashqi aktorlarning murakkab ta’siri orqali shakllanadi. Afg‘oniston, Hindiston va Saudiya Arabistoni kabi qo‘shni va strategik aktorlar bu munosabatlarga bilvosita, lekin sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Afg‘oniston mintaqaviy barqarorlikni bevosita ta’minlaydigan xavfsizlik katalizatori sifatida, shuningdek, Baloch va Pushtun kabi transchegaraviy etnik guruhlar orqali sektachilik va etnik ziddiyatlarni kuchaytiruvchi omil sifatida rol o‘ynaydi. Hindiston–Pokiston raqobati esa mintaqaviy geosiyosiy muhitni shakllantiradi va Pokistonning sunniy hamkorlariga tayanishini mustahkamlaydi. Saudiya Arabistoni–Eron raqobati esa Pokistonning ichki mazhabiy institutlarini rivojlantirish va diniy identitet siyosatiga ta’sir ko‘rsatishda muhim rol o‘ynagan.

Chegaraoldi jangarilik va xavfsizlik dilemmalari ikki davlat o‘rtasidagi ishonchni sinovdan o‘tkazadi, tashqi qo‘llab-quvvatlash esa bu ziddiyatlarni yanada kuchaytiradi. 2021-yildan keyingi mintaqaviy transformatsiyalar, jumladan AQShning Afg‘onistondan chiqishi va Saudiya–Eron diplomatik normalizatsiyasi, munosabatlarda uzluksizlik va moslashuvni bir vaqtning o‘zida keltirib chiqardi.

Shu bilan, Eron–Pokiston munosabatlarini tushunish uchun faqat ikki tomonlama diplomatiya yoki iqtisodiy aloqalarni ko‘rib chiqish yetarli emas. Bu munosabatlar mintaqaviy xavfsizlik kompleksi, mazhabiy va etnik identitetlar, shuningdek tashqi aktorlar strategik harakatlari orqali yanada murakkablashgan tizim sifatida ko‘rilishi lozim. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, ushbu murakkabliklar Eron va Pokiston o‘rtasidagi hamkorlik va taranglik o‘rtasidagi o‘zgaruvchan muvozanatni belgilaydi, va ularni yanada barqarorlashtirish uchun mintaqaviy hamkorlik va strategik dialog zarur.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buzan, Barry & Wæver, Ole. *Regions and Powers: The Structure of International Security*. Cambridge University Press, 2003. *(Classic text on Regional Security Complex Theory used to frame Iran–Pakistan security linkages.)*

2. Fierke, Karin M. *Constructivism*. In: Theories of International Relations, edited by Scott Burchill et al., Macmillan, 2001.

3. Akbarzadeh, Shahram & Atzori, Laura (eds.). *Afghanistan and Iran: Theatre of Realities*. Routledge, 2020. *(Discusses Iran–Afghanistan relations post-2021 and regional implications.)*

4. Karimov B. *Afg‘oniston–Markaziy Osiyo munosabatlari va xavfsizlik muammolari*. “Markaziy Osiyo va qo‘shni hududlar: xavfsizlik tahlillari” – Tashkent: Ilm-Nashr, 2022.

5. Cohen, Stephen P. *The Idea of Pakistan*. Brookings Institution Press, 2004. *(Explores Pakistan’s security culture and threat perceptions.)*

6. Qodirov, Javlon. *Hindiston–Pokiston raqobati va mintaqaviy xavfsizlik (1990-2025)*. Tashkent: “Siyosat Fanlari” jurnali, 2024.

7. Nasr, Vali. *The Shia Revival: How Conflicts within Islam Will Shape the Future*. W. W. Norton, 2006. *(Foundational text on Sunni–Shia geopolitics.)*

8. Johnson, Thomas H. *Pakistan’s Taliban: The Evolution of Extremism in South Asia*. Oxford University Press, 2019.

9. Fair, C. Christine. *Fighting to the End: The Pakistan Army’s Way of War*. Oxford University Press, 2014. *(Covers militancy, insurgency, and Pakistan’s security dilemmas.)*

10. Cohen, Stephen P. *The Idea of Pakistan*. Brookings Institution Press, 2004. *(Explores Pakistan’s security culture and threat perceptions.)*.

MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TAMAL TOSHI.

Niyozova Shohista Nusratilloyevna
Respublika Ma’naviyat va
ma’rifat markazi Buxoro viloyati
bo‘limi bosh mutaxassisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila, oila va nikoh munosabatlari, oiladagi ijtimoiy muhit, tarbiya va uning xususiyatlari to‘g‘risida so‘z boradi. Oilaviy tarbiya masala hozirgi davrning muhim muammolaridan biri sifatida qaralmoqda. Oilaviy munosabatlar keng qamrovli bo‘lib, nafaqat huquqiy normalar, balki odob-axloq qoidalari va urf-odatlar bilan

ham tartibga solinadi. Bundan kelib chiqqan holda, nikoh tuzilishining huquqiy asoslarigina emas, balki uning pedagogik jihatlari ham oila mustahkamligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, tarbiya, qadriyat, ijtimoiy institut, oilaviy tarbiya.

Kirish. Jamiyatimizda oila institutini mustahkamlash, yoshlarimizni har tomonlama etuk, sog‘lom va barkamol insonlar qilib voyaga etkazish, shuningdek, mamlakatimizda oilani, jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalarida sodir bo‘layotgan ma‘naviy o‘zgarishlarga hamohang tarzda rivojlantirish, uning ta‘sirini yanada kuchaytirish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishi sifatida e'tibor qaratiladi. Oila nima? Bu so‘z qanday lug‘aviy manolarga ega? Asli qaysi tilga mansub? Oila so‘zi aslida arabcha so‘z bo‘lib, “ayolmand, niyozmand”, “er-xotin, ularning bola-chaqalar va eng yaqin tug‘ishganlardan iborat birga yashovchi kishilar majmui, xonadon” degan ma’noni anglatadi. Oila inson ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog‘lom e’tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargoh. Shu muqaddas dargohda ma’naviy-ahloqiy muhitni vujudga keltirish va u orqali shaxsni sog‘lom e’tiqodli, mustaqil fikrlaydigan, komil inson qilib tarbiyalash bugungi islohotlar davrida O‘zbekiston uchun davlat ahamiyatiga molik masaladir. “Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo‘lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, baxtli bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi. O‘sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko‘rish hammamizga nasib etsin!”, - deya ta’kidlagan edilar muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev [4;5].

Asosiy qism. Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish g‘oyasini keng tatbiq etish imkoniyatlari amalga oshirilmoqda. “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli

ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” [2] kabi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, yurtimizda yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun ularni har tomonlama tarbiyalashimiz zarur.

Ta’kidlash joizki, oilaning eng avvalo, e’tiqod va sog’lom dunyoqarash tarbiyasidagi roli benazir. Shu sababli oila, ta’lim muassasasi hamda mahalla tizimida bola tarbiyasi bilan bog’liq barcha tarbiyaviy ishlarning asosida xalq an’analarining, xususan, oilaviy o‘zaro munosabatlarda saqlanib qolgan milliy qadriyatlarning tub mohiyatiga aloqador qonuniyatlarni o‘rganish vazifasi turibdiki, ularni tadqiq etish, qo‘lga kiritilgan natijalarni amaliyotga tadbiq etishni davrning o‘zi taqozo etib turibdi. Chunki barqaror va mustahkam oilani shakllantirish, unda ma’rifatparvarlik an’analarini kuchaytirish, oilaviy urf-odatlarni zamon talablari asosida qayta o‘rganib chiqib, eng nodirlariga nisbatan farzandlarimizda mustahkam e’tiqodni tarbiyalashning ta’sirchan vositalarni ishlab chiqish jamiyat ma’naviyatini barqarorlashtirishni ta’minlaydigan omillardan sanaladi.

“Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta’minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog’i ekanini tan olishimiz darkor ” [3]. Bugungi kunda oila singari ta’sirchan ijtimoiy institut orqali bolalarda aynan shunday qadriyatlarga nisbatan e’tiqodni shakllantirish, va shu orqali oilaga nisbatan ijobiy ijtimoiy qarashlarni hosil qilish dolzarb masalalardandir.

Shu ma’noda O‘zbekiston konstitusiyasida oila masalasi 76-moddaning amaldagi tahriri bunday: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi” [1].

“Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini” – degan jumlada tabiiy ravishda naslimiz davomiyligini saqlaydigan maskan ekanligi va unda “O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga” asoslanishi aynan tabiat va jaiyatdagi parite qonuniniyatiga asosan ikki qarama-qarshi jins vakillari orasida bu kelishuvning bo‘lishi alohida ta’kidlangani ayni muddaodir. Chunki bugungi kunda g‘arb madaniyatining jirkanch ko‘rinishi bo‘lgan bir jinsli nikohning oldini olishga qaratilgan g‘oya aks etganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Shuningdek oila to‘laqonli rivojlanishi uchun davlat tomonidan barcha sharoitlarning yaratilishi – insonparvarlikning sharqona ko‘rinishi bo‘lib, mamlakatimizda yosh oilalar uchun bugungi kunda yaratilayotgan sharoitlar, imtiyozlar – oilalar mustahkamligini saqlash yo‘lidagi ezgu qadamdir. Ushbu bobning “ko‘p bolali oilalarga qonunga muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar” belgilanganligi esa o‘zbek xalqining bolaparvarlik fazilatini rag‘batlantirishning gumanistik tamoyili deb baholash mumkin.

Muqaddas Qomusning 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar” [1] sifatida keltirilib, bunda bevosita ota-onalar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga ham yuklatilmoqda. Bu vazifalar qatoriga bolalarni voyaga etgunga qadar boqish va tarbiyalashdan tashqari, ularning ta’limi, sog‘lom va to‘laqonli kamol topishi haqida qayg‘urish ham qo‘shilmoqda.

Ushbu modda asosida O‘zbekistonda bugungi kunda ota-onadan bevaqt judo bo‘lgan yoki qarovsiz qolgan bolalar vasiylik asosida yaqinlariga berilishining qonuniy asoslari belgilangan.

Shuningdek, 78-moddada “Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va

jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi” keltirilib, bolaning manfaatlari, bolalarning to‘laqonli, jismoniy, aqliy va madaniy rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlanadi. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinib, davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, buyuk ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi. Aynan ushbu moddada bobokalonimiz Imom al-Buxoriyning muqaddas hadisi shariflarida ifodalangan ota-onaning farzand oldidagi burchlari, farzandlarning mas’uliyatlari hayotbaxsh tamoyillar asosida aks etgan.

Sharqda azal-azaldan oila muqaddas dargoh sanalgan, farzand tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan. Oilada bo‘lajak farzandni tarbiyalash bola ona qornidayoq boshlash ta’kidlanadi. Ammo, inson zoti yaratilibdiki, hayotda xatolar qiladi, adashadi, kechiradi, kechiriladi, shunday xatolar borki, ularni kechirish mumkin emas, chunki, bu nafaqat bir kishiga, bir oilaga, balki butun bir jamiyatga ziyon yetkazadi, bu bizning farzandlarimiz tarbiyasiga mas’uliyatsiz oqibatida yuzaga keladi. Darhaqiqat, oilaviy tarbiyada ota-ona zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklanganki, bu mas’uliyat zamirida xalqning taqdiri, yurtning ertangi kuni, vatan ravnaqi turibdi. Oila vatan ichra vatandurki, unda yaxshi tarbiya ko‘rgan farzandgina haqiqiy inson bo‘lib yetishadi.

Oila – bu muqaddas qo‘rg‘on, aziz dargoh, ma’naviyat sarchashmasi, kelajak poydevori. Darhaqiqat, bu ko‘k gumbaz ostida hayot charxpalagi tinmay aylanaveradi, har kun qadamlarimiz vajohatini his etgan bu qo‘hna zamin ne-ne jang-u jadallarga, tarix sahifalariga muhrlangan ne-ne buyuk voqeliklarga guvoh, bu muqaddas ona zamin qanchadan qancha shoir-u olimlarga shoh-u gadolarga abadiy maskan bo‘ldi, ne-ne shoh asarlar yaratildi va abadiyatga daxldor bo‘ldi. Buyuk yevropalik olim Artur Paup aytganidek, ”Yevropa hamon uyquda chog‘ida Sharq mutafakkirlari olamning yarmini ilmu urfon nuri ila yoritgan edi”. Navoiy asarlarida

ma’naviyatli, ma’rifatli komil insonni tarbiyalashga katta e’tibor qaratilgan, zero ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, iymon-e’tiqodin butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuchdir. Ma’naviyat zamirida esa mustahkam oila qo‘rg‘oni bunyod etiladi. Hazrat Navoiy talqinida oila - ma’naviyat o‘chog‘i, ota-ona esa mehr nuri ila qizdirguvchi mash’aldir.

Darvoqe, har bir go‘dak ko‘z ochib dunyo yuzini ko‘rarkan, u eng avvalo, oila atalmish muqaddas dargoh bag‘rida,ota hamda ona singari mo‘tabar zotlar qo‘lida kamol topadi. Oila posbonlari sanalmish ota-ona dilbandi, jigargo‘shasi uchun jonini berishga tayyor turadi, ona allasi, ota mehri orqali murg‘ak qalb sohibi oilasiga, qadrdon aka-ukalariga, vataniga muhabbat tuygusini o‘z qalbida, mitti vujudida his eta boshlaydi. Shuning uchun bir parcha etni voyaga etkazib, kamol toptirishda, bir kasb sohibi bo‘lib yurtiga, xalqiga xizmat qilishida ota-onaning, ustozning mehnati beqiyos. Alisher Navoiy “Hayratul abror“ dostonida ota-onani hurmat qilish, ular xizmatida bo‘lishni sharaf deb biladi:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano qoshig‘a,
Tun-kuningga aylagali nurposh
Birisin oy angla,birisin quyosh [5].

Darhaqiqat, oila posbonlari bo‘lmish ota-onalarni oy-u quyosh kabi qadrlash, ular uchun zarur bo‘lsa aziz jonni fido qilish farzandlar uchun ham qarz, ham farzdir. Shoir nazdida oilada farzand hamisha ota-onaga nisbatan qarzdorlik hissini tuyib yashamog‘i darkor, zero butun koinot uzra oy qorong‘u kechaga nur berib osmon-u falakni yoritganidek, onalar tuni bilan bedor bo‘lib oq sut beradi, ko‘z nurini, qalb qo‘rini berib katta qiladi, quyosh taftidan butun borliq zavq olganidek, otalar xizmatidan farzandlar voyaga yetib oila qo‘rg‘onining suyanchig‘iga aylanadi.

Alisher Navoiy yuksak axloq-odobni, insoniy fazilatlarni oila poydevorini yaratishda, bolani tarbiyalashda eng birinchi omil, deb hisoblaydi hamda “Mahbubul qulub“ asarida “Go‘zal axloq, inson vujudining xushmanzara bog‘idir, va odamiylik olamining javohirga boy tog‘idir. Odob axloqni insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga

tenglashtirsa bo‘ladi. Go‘zal axloq tufayli kattalar hurmatiga sazovor bo‘ladi va kattalardan kichiklarga iltifot, marhamat etishadi” [6].

Oila suyanchig‘i, nasllar davomchisi farzandlardir. Muborak hadisi sharifda bu hayotiy haqiqat go‘zal tarzda ifodalangan, “hech bir ota – ona o‘z farzandiga go‘zal axloqu tarbiyadan boshqa buyuk me’ros qoldira olmaydi”. Tarbiya bermoq uchun, avvalo, tarbiyachining o‘zida ham jamiki insoniy fazilatlar mujassam bo‘lmog‘i lozim. Avvalo, muomala madaniyati, so‘zlash odobini ularga o‘rgatish, yoshligidanoq rostgo‘ylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash darkor.

Xulosa. Oila jamiyatning eng mustahkam poydevoridir. Zero uning bag‘rida eng ezgu qadriyatlar ulug‘lanadi, milliy an’analar avloddan-avlodga vorisiylik asosida yetib keladi. Har bir oila a’zosi esa, u kamol topgan muhit qadriyat va an’analarini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

3. Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi. – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali majlisdagi tabrik so‘zi, 1997 yil 5 dekabr.

4. Qurbonova O‘.U., D.I.Tosheva. Oila pedagogikasi. Darslik. Buxoro. “Durdona” nashriyoti. 2023. 214 b.

5. https://n.ziyouz.com/books/alisher_navoiy_asarlari/Alisher%20 Navoiy. %20Xamsa.%20Hayratul-abror%20(nazm).pdf.

6. https://e-library.sammu.uz/uploads/books/Badiiy%20adabiyotlar/ Mahbub % 20ul-qulub.pdf.

ZAMONAVIY MA’NAVIY-AXLOQIY HAMDA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY XURUJLAR VA HIMOYA MEXANIZMLARI

Atadjanov Mamirjon Yusupovich
Farg‘ona davlat universiteti
psixologiya kafedrasining dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy psixologik xurujlar sharoitida yuzaga kelayotgan ma’naviy-axloqiy hamda g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar tahlil qilinadi. Unda yot g‘oyalarni ijtimoiy ongga singdirish texnologiyalari, ularning jamiyat ma’naviy muhitiga ta’siri hamda ijtimoiy-psixologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, bunday tahdidlarga qarshi samarali himoya mexanizmlarini shakllantirish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim jihatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: xuruj, tahdid, g‘oya, mafkura, mafkuraviy tahdid, psixologik operatsiya, psixologik ta’sir, ijtimoiy ong, mafkuraviy immunitet, ma’naviy xavfsizlik, g‘oyaviy ta’sir, himoya mexanizmlari.

Ma’naviy-axloqiy hamda g‘oyaviy-mafkuraviy xurujlar ayrim davlatlar tomonidan raqib davlatlar jamiyati, xalqi, turli ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy iyerarxiyaning turli pog‘onasida turgan qatlamlarga o‘z g‘oyalari, qarashlari, qadriyatlari tizimini singdirish uchun barcha vositalar, usullar yordamida amalga oshiradigan maxsus psixologik operatsiyalardan iborat. Bunda asosiy qoida shundan iboratki, bir vaqtning o‘zida raqib jamiyatga birvarakayiga, to‘la to‘kis ta’sir ko‘rsatishning imkoni yo‘q. Eng avvalo raqib jamiyat ichida manfaat ko‘zlayotgan davlat, millatning maqsadlari, qadriyatlarini yoqlaydigan, unga xavas qiladigan, uning ramzlari, turmush tarzi, kiyinishi, madaniyati, qadriyatlariga amal qiladigan kichik, xayrixoh guruhlar tashkil qilinadi. Asta-sekin jamiyatda shu guruhlarga taqlid qiladigan odamlar soni ko‘paytirib boriladi. Manfaat ko‘zlayotgan millat esa o‘zidagi bor imkoniyatlar, global axborot to‘ri orqali shu guruhlarning boshqalardan afzalligi, ularning haqligi, ularning albatta ustunligi va

g‘alabaga erishishlari muqarrarligi haqidagi afsonalarni to‘qib tarqatib turadi. Ularning jamiyatdagi mavqeini bor kuchi, mablag‘va mutaxassislar maslahati bilan qo‘llab-quvvatlaydi.

Ayni paytda tahdidlar transformatsiyalashib, yot qadriyatlar targ‘iboti “yumshoq shaklda” kiyim-kechaklar, kiyinish uslublari, aksessuarlar, atributlar, xorij tarixiy hamda zamonaviy seriallari, musiqa, o‘zaro oilaviy va ijtimoiy munosabatlar shakllari ko‘rinishida amalga oshirilmoqda. Ilmiy manbalardagi aniqlanmasiga ko‘ra tahdid bu sodir bo‘lgan xatardir, ayni paytda tahdidlar shaxsga boshqa shaxslar tomonidan uning psixologik farovonligiga, o‘zini o‘zi qadrlashi, imidji, odamlar bilan munosabatlariga zarar yetkazadigan psixologik bosim, zo‘ravonliklar ko‘rinishida, uning biologik va ijtimoiy mavjudligini vayron qiladigan ekstremal, favqulodda vaziyatlar shaklida va g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-axloqiy, milliy qadriyatlar tizimini vayron qiladigan psixologik xurujlar ko‘rinishida sodir bo‘lmoqda.

Yot g‘oyalar xurujlarining keng tarqalgan texnikalari odamlar haqida faktografik ma’lumotlar to‘plash va tashviqotda to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu odamga murojaat qilish, tashviqotni auditoriyaning qarashlari, ta’bi va moyilliklariga moslashtirishdan iborat. Asosiy qoida materialni shunday uzatish kerakki, go‘yoki u shu auditoriyada qabul qilingan tasavvurlarning uzviy davomi bo‘lib tuyulsin. Bunda auditoriya asta-sekin, qadamma-qadam kerakli mafkuraviy va siyosiy qarashlar domiga tortib boriladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bunday texnika hali qat’iy qarashlarga ega bo‘lmagan, o‘zining alohida odamlar guruhining qarashlari, hayot va turmush tarziga mansubligini to‘la anglab yetmaganlarga nisbatan qo‘llanganda katta samara beradi. Bunday toifaga yoshlar, doimiy yashash joyini o‘zgartirgan migrantlar, emigrantlar, qochoqlar, shuningdek, ijtimoiy maqomi keskin o‘zgargan odamlar kiradi.

Odatda odamning o‘z dunyoqarashi, ijtimoiy maqomi, ijtimoiy muhitiga yot qarashlar, nuqtai-nazarlar, fikrlarni o‘zlashtirishi shunday mexanizm bo‘yicha amalga oshadi. Odam ilgari o‘ziga tanish bo‘lmagan ommaviy axborot manbasidagi ma’lumot, adabiyotga duch kelib undan o‘zi uchun qiziqarli masala, o‘zini o‘ylantirib yurgan mauammo bo‘yicha o‘ziga xos yechimni topadi. Faqat shundan keyingina bu raqib, yot ma’lumot

ekanini bilib qoladi va ma’lumotni rad qiladi. Shu yerda moyillik uzilib qoladi. Lekin uning mustahkamlangan tasavvurlariga sadoqati qatorida “shunday fikr ham bo‘lishi mumkin-ku” degan, tolerantlik elementi paydo bo‘ladi. Yana bir marta aynan o‘sha manbadan, o‘sha mazmundagi ma’lumot uchraganda endi uni otib yubormaydi. Qayta aloqa paydo bo‘lganida qiziqish kuchliroq bo‘ladi, u aniq maqsad ko‘zlab shunday ma’lumotni qidira boshlaydi.

Agar u yangi ma’lumotda o‘z-o‘zicha tushunadigan qiziqishlari va ehtiyojlarining izohini topsa va shu paytgacha o‘zi foydalanib kelgan an’anaviy, rasmiy manbalardan qiziqishlari va ehtiyojlarining ishonchli talqinini topolmasa, unda u o‘zi ham sezmagan holda o‘z qarashlarini o‘zgartiradi. Shu bilan birga bunday odam o‘z qarashlarimni o‘zgartirganim yo‘q, deb hisoblashi ham mumkin. Lekin endi u dunyoni butunlay boshqa pozitsiyadan turib tushuntira boshlaydi. Undagi shubxa va hatto qat’iy e’tiqod ham yangi ma’lumot ta’sirida oldin chetga surilishi, keyinchalik butunlay yo‘qolishi, teskari pozitsiyaga o‘tib qolishi, odam o‘zimning shaxsiy pozitsiyamni shakllantirdim, deb o‘ylab butunlay yot mafkuraviy tizim ta’siriga tushib qolishi mumkin.

Manipulyatsiyaning boshqa hamma ko‘rinishi singari tashviqot uchun shaxsning ta’sirga psixologik qarshiligini so‘ndirish muhim hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pchilik mutaxassislarning fikricha, har qanday tashviqot ko‘ngil ochuvchi, ma’lumot beruvchi va ishontiruvchi bo‘laklardan tashkil topishi shart. Ko‘ngil ochish bo‘lagi har qanday tashviqot materialini zamonaviy ommabop musiqiy oxanglar bilan birga taqdim qilishni talab qiladi. Bundan tashqari ma’lumotni uzatish paytida qotilliklar, terroristik aktlar, halokatlar haqidagi shov-shuvli xabarlarni qo‘shish ham yaxshi samara beradi.

Keng tarqalgan usullardan yana biri “miyani yuvish” uzoq muddatli tashviqot jarayonida qo‘l kelib, u kerakli dunyoqarashni asta-sekin shakllantirish zarurati bo‘lganda, butun jamiyatni “miyasini yuvish”, bu jamiyatda yirik manipuliyatsiya dasturini amalga oshirish, uzoq yillarga millatning sog‘lom fikrlashini o‘chirib qo‘yish kerak bo‘lganda ishlatiladi. Bu usul tarkibida kinofilmlar katta ahamiyatga ega, chunki u beqiyos hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Kinofilm tomoshabin ongiga kuchli idellashtirilgan

olamning soxta obrazini singdiradi. Kinoda tomoshabin u yoki bu qahramonni uning bo‘lib o‘tayotgan yoki bo‘lib o‘tgan hodisalardagi haqiqiy rolidan qat’iy nazar muallifning rejasiga binoan adolat va axloqiy haqiqat timsoli sifatida qabul qiladi. Bunda odamga tashviqot ta’siri yashirin tarzda, hissiyot darajasida, uning ongli nazoratidan tashqari amalga oshadi.

Zamonaviy psixologik xurujlarning bitta xususiyati alohida odamlar, ijtimoiy guruhlar va butun jamiyat ongidagi “dunyo manzarasini” siyosiy afsonalarni ongga joylash yo‘li bilan o‘zgartirishga urinishdir. Afsonalar psixologik xurujning markaziy, o‘zak bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunda millatning milliy fazilatlari, milliy allomalarining yutuqlari, tarixiy buyuk o‘tmishini ko‘klarga ko‘tarib turib, ayni paytda alohida ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslarning axvoliga achinish bildiriladi, hozirgi tuzum bu yutuqlarni rivojlantirmayotganligi, alohida ijtimoiy guruhlar va individuumlarning qadriga yetmayotganligi ta’kidlanadi. Bunda ta’sir o‘tkazilayotgan millat sha’niga biron-bir yomon so‘z aytilmaydi yoki ta’sir o‘tkazayotgan millat maqtalmaydi. Bir vaqtning o‘zida turli homiylik yordami, beg‘araz grantlar ko‘rinishida til o‘rganish, ta’sir o‘tkazayotgan millat bilan yaqindan tanishish, uning oldindan tanlab olingan, kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lgan badiiy adabiyotlarini nashr qilish, uning buyukligi, buyuk tarixiy o‘tmishini ulug‘laydigan seriallarini taqdim qilish ham amalga oshiriladi.

Ayni paytda shaxsning ijtimoiy-psixologik xavfsizligi sohalari ijtimoiy ongning turi g‘oyaviy-mafkuraviy zarbalar ta’sirida buzilishi, qadriyatlar yo‘nalganligining salbiy tomonga o‘zgarishi, e’tiqodlar tizimining vayron bo‘lishidan iborat bo‘lib qoldi. Shaxs ijtimoiy-psixologik xavfsizligiga tahdidlar milliy o‘z-o‘zini anglashni, milliy identiklilikni buzish, ijtimoiy iyerarxiyaning turli pog‘onasida turgan qatlamlarning mustahkam g‘oyalari, qarashlari, qadriyatlari tizimini vayron qilish, yot g‘oyalar, qadriyatlar va jamiyatlarga e’tiqodni shakllantirish ko‘rinishida amalga oshirilmoqda.

Milliy o‘ziga xoslikni tahdidlardan himoya mexanizmlari himoyaning ijtimoiy darajasini, davlatning o‘z mafkurasi, maqsadlari, strategiyasi, qadriyatlari tizimini ijtimoiy ongga singdirish uchun amalga oshiradigan

targ‘ibot va tashviqot, psixologik ta’sirdan iborat. Bunda birinchidan, ta’lim va tarbiyaning mazmun va mohiyatini ajratib, har ikkalasini kerakli vaqtda va joyda qo‘llash, ta’lim jarayoni o‘z-o‘zidan bolani tarbiyalaydi yoki tarbiya uchun ota-ona mas’ul, degan xato fikrdan voz kechish lozim. Chunki davlatning mafkurasi, maqsadlari, strategiyasi, qadriyatlari tizimi o‘qitilmaydi, ular aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya jarayonida ijtimoiy ong tarkibiga singdirilib, joylanadi. Tarbiya ta’limdan ustun va undan ko‘ra muhimroq, shuning uchun kelajagini o‘ylagan davlat tarbiya bilan maxsus usullar va ijtimoiy institutlar vositasida shug‘ullanishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28-yanvardagi 34-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorida maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2026-yil 1-iyunga qadar O‘zbekistonning Milliy tarbiya modelinining namunaviy ish rejalarini tasdiqlash vazifasi qo‘yilgan.

Himoya mexanizmlari muntazam targ‘ibot va tashviqot sohasi hisoblangan aniq maqsadga yo‘naltirilgan, mustahkam qadriyatlar tizimi, ruhiy jarayonlar, xususiyatlar hamda holatlarni shakllantiradigan milliy tarbiya modeli, vatanparvarlik hamda milliy g‘oya uyg‘unligidagi milliy ta’lim modeli, yoshning barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan mafkuraviy tarbiyadan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yil 13-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan Xavfsizlik kengashining mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishida hozirgi axborot makonidagi qarama-qarshilik, odamlar, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan sharoitda harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini alohida qayd etishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, qurolli kuchlar oliy bosh qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida 2026-yil 13-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan mamlakatimiz harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash

ZJV5401

masalalari bo‘yicha Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi xaqida axborot.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 28-yanvardagi 34-sonli “Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori.

ZAMONAVIY XURUJLAR VA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

Isakov Bahodir Nigmatullayevich,
tarix fanlari nomzodi, dotsent,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonlarining shiddatli tus olgan hozirgi bosqichida yoshlar ongiga bo‘layotgan mafkuraviy xurujlar va ularning oldini olish masalalari yoritilgan. Maqolada “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan ma’naviy tahdidlar, internet tarmog‘ining salbiy ta’sirlari va milliy o‘zlikni anglashning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik, mustaqil fikrlash va milliy g‘urur ruhida tarbiyalash Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining strategik asosi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, yoshlar, mafkuraviy immunitet, ommaviy madaniyat, ma’naviy tahdid, internet, milliy qadriyat, vatanparvarlik, ma’naviyat, g‘oyaviy kurash, tarbiya.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi va globallashuv jarayonlarining shiddatli tus olishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda davlatlarning mustaqilligi va barqarorligi nafaqat ularning harbiy salohiyati, balki birinchi navbatda yosh avlodning

ma’naviy-axloqiy qiyofasi hamda begona g‘oyalarga qarshi tura olish qobiliyati bilan belgilanadi. Bugun dunyo geosiyosiy maydonida “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat” bilan kurashish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar aholining eng ta’sirchan qatlami bo‘lgani sababli, turli buzg‘unchi kuchlar o‘z maqsadlariga erishishda aynan ularning ongini nishon sifatida tanlamoqda. Shu bois, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ularni zamonaviy tahdidlardan himoyalash bugungi kunning eng dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifasidir.

XXI asrning o‘tgan davri davomida tobora chuqurlashib borayotgan globallashuv jarayoni o‘zining qamrovi va ta’sir kuchi bilan rivojlanayotgan mamlakatlar xalqlarining milliy ma’naviyati hamda madaniyatiga xavf solmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, “ommaviy madaniyat” niqobi ostida milliy qadriyatlarning yemirilishiga zamin yaratayotgani bilan xatarlidir.

Globallashuv natijasida ko‘plab davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida yuz berayotgan ijobiy o‘zgarishlarni e’tirof etgan holda, uning soyasida kirib kelayotgan salbiy holatlarga ko‘z yumib bo‘lmaydi. Xususan, “ommaviy madaniyat” nomi bilan tanilgan axloqsizlik va ma’naviy buzuqlik g‘oyalarining insonlar, ayniqsa, yoshlar ongiga shiddat bilan kirib kelishiga befarq qarash millat kelajagiga tahdid tug‘diradi. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, g‘oyaviy kurashchanlik fazilatlarini shakllantirish jamiyat tubdan yangilanayotgan, turmush tarzimiz jiddiy ravishda o‘zgarayotgan bir paytda muhim ahamiyatga ega. Zero, Sh.M.Mirziyoyev ta’lkidlanidek, “Hozir internet tarmoqlarida 60 mingdan ortiq buzg‘unchilik, zo‘ravonlik va axloqsizlikni, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib etadigan saytlar faoliyat ko‘rsatmoqda... Yoshlarda yot g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitet shakllanmas ekan, “bu – yaxshi, bu – yomon” degan qat’iy fikr paydo bo‘lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo‘ladi”[1].

Globallashuv jarayonining salbiy ta’siriga qarshi kurashish va undan yoshlarni himoya qilish uchun, avvalambor, globallashuvning mohiyatini aniqlash, ushbu jarayonda yuz berayotgan ma’naviy tahdidlarni ilmiy tahlil etish juda muhim. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti

I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “Bugun biz tez suratlar bilan o‘zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o‘ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab, har xil nomlar bilan atamoqda... Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda. Bunday ta’rif, ko‘p tomondan masalaning mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi. Nega deganda, hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas”[2].

Hozirgi kunda milliy taraqqiyotga xuruj solib turgan muammolar ancha, lekin ularning orasida o‘z ta’sir doirasi va kuchi bilan ajralib turuvchi “ommaviy madaniyat” tahdidi inson ruhiyatiga, ma’naviyatiga salbiy ta’sir o‘tkazishi bilan g‘oyatda xatarlidir. Ta’kidlash joizki, mazkur xurujning mohiyatini yoshlar birdan anglab olishi juda ham mushkul. Albatta, yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashda G‘arb fan-texnikasi, madaniyati, adabiyotu san’atining yutuqlaridan foydalanishni inkor etish noto‘g‘ri bo‘ladi, biroq g‘arbdagi taraqqiyparvar ziyolilarning o‘zi “g‘arbning muammosi” sifatida baholayotgan “ommaviy madaniyat”ning ma’naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarimiz qancha tez anglasa, shuncha yaxshi.

Shu o‘rinda, “ommaviy madaniyat”ning keng va tez sur’atlarda tarqalishiga va yoshlarning ongiga kirib borishiga zamin yaratayotgan Internet tarmog‘iga e’tibor qaratish lozim. Shubhasiz, “axborot asri”, deb e’tirof etilayotgan hozirgi kunda Internet tarmog‘ining mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sirini inkor etib bo‘lmaydi. Lekin, Internet tarmog‘idan cheksiz foydalanish imkoniyati jahon yangiliklaridan tezkor ravishda voqif bo‘lishga xizmat qilish bilan bir qatorda, salbiy mazmundagi “ommaviy madaniyat” yoyilishi uchun ham zamin yaratmoqda. Mazkur xavf-xatarlarning oldini olish hamda yoshlar ongida bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun ularning qalbida milliy va umumbashariy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg‘usini bolalikdanoq shakllantirish lozim. Biz uchun aynan shu yo‘l ma’qul va uning muqobili

yo‘q. Zero, bugungi yoshlar nafaqat ta’lim dargohlarida, balki ommaviy axborot vositalari hamda internet orqali cheksiz ma’lumotlar oqimi ichida yashamoqda. Global axborot maydoni kengayib borayotgan bir paytda, farzandlarimiz ongini sun’iy cheklovlar bilan jilovlash yoki ularning atrofini “temir devor” bilan o‘rab olishga urinish – zamon talablariga ham, xalqimizning ezgu maqsadlariga ham mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Mamlakatimiz aholisining deyarli 65 foizini tashkil etadigan yoshlarning irodali, iymon-e’tiqodli, mustaqil va erkin fikrli, har qanday xurujlarga dadil qarshi bora olishga qodir inson bo‘lib yetishishlarida ta’lim muassasasi, oila, mahalla hamkorligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati katta.

Bugungi yoshlar o‘zlarining kim ekanligini, hech kimdan kam emasligini, ajdodlari kim bo‘lganini anglab yetdilar. Lekin, globallashuv avj olayotgan bugungi kunda milliy tarbiyaning strategik yo‘nalishini keng ma’nodagi ma’naviyatimizni millatimizga yot bo‘lgan turli zararli ta’sirlardan himoya qilish, uni yoshlarimiz ongi, qalbi, dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish tashkil qiladi.

Bu borada jahonning eng yuksak taraqqiyotiga erishgan, shu bilan birga o‘z milliy qadriyatlarini avloddan-avlodga bezavol yetkazib kelayotgan Yaponiya tajribasi o‘rnak bo‘la oladi. Yapon xalqi yuksak milliy g‘urur, iftixor va millat istiqboli yo‘lidagi yakdilligi tufayli bugungi taraqqiyot darajasiga yetdi hamda o‘zida mustahkam ma’naviy immunitetni shakllantirdi. Ularning eng ilg‘or ishlab chiqarish tizimini yo‘lga qo‘yishi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni yaratish orqali jahon bozorlarini egallashida milliy tarbiya fundamental asos bo‘lgani ko‘pchilikka ma’lum.

Taraqqiyot hech qachon bir joyda to‘xtab turmaydi. Hayotga munosabat o‘zgaradi, rivojlanishga intilish esa tobora kuchayadi. Texnika inqilobi ro‘y berib, axborot almashinuvi shiddatli tus olgan bugungi globallashuv zamonida erishilgan yutuqlar bilan cheklanib, xotirjamlikka berilgan har qanday jamiyat taraqqiyotdan ortda qolishi muqarrar. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, o‘zining tarixiy, madaniy va intellektual merosini asrab-avaylash hamda boyitishga, shuningdek, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e’tibor qaratmaydigan har qanday davlat va jamiyat tarixning chetiga surilib

qoladi. Mustaqil fikrlaydigan, o‘z qarashlari va fuqarolik pozitsiyasiga ega, har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni maqsad qilmagan jamiyat taraqqiyot yo‘lidan chetda qolishga mahkumdir.

Globallashuv shiddati va “ommaviy madaniyat”ning ma’naviy tahdidlaridan himoyalanishning yagona samarali yo‘li – har bir insonning o‘zligini anglashi, teran tariximiz hamda ulug‘ ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan boy madaniyatimizni puxta o‘zlashtirishidir. Bugungi tez o‘zgarayotgan ijtimoiy voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, mustaqil fikrlash hamda mamlakatimizdagi islohotlarga daxldorlik tuyg‘usi va yuksak vatanparvarlik ruhi bilan yashash hayotiy zaruratga aylandi.

Hozirgi sivilizatsiyaviy sharoitda yoshlar qalbi va ongiga ma’rifat urug‘ini sochish oson kechmayotgan murakkab jarayondir. Turli ziddiyatli axborotlar oqimida ulg‘ayayotgan, raqamli dunyo imkoniyatlaridan keng foydalanayotgan yosh avlod psixologiyasi mutlaqo o‘zgacha yondashuvni talab etadi. Ularda milliy g‘urur va oriyatni shakllantirish, shonli O‘zbekiston farzandi ekanligidan faxrlanish, vatan taqdiriga hamda istiqboliga daxldorlik hissini uyg‘otish – eng dolzarb vazifadir. Binobarin, fuqarolik mas’uliyati va kelajak uchun javobgarlik tuyg‘usi yuqori bo‘lgan avlodni tarbiyalash kechiktirib bo‘lmas ehtiyojga aylangan. Har bir yosh qalbida g‘oyaviy immunitetni mustahkamlash Yangi O‘zbekistonning buyuk kelajagini ta’minlovchi umummilliy ustuvorlikdir. Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakat istiqbolining aynan yoshlar qiyofasida ko‘rilayotgani va ularga yuksak ishonch bildirilayotgani ham bejiz emas.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, biz yosh avlodni axborotlashuv jarayonlarining nafaqat ijobiy imkoniyatlari, balki uning xatarlaridan ham doimiy ravishda ogoh etib borishimiz shart. Bu bizning kelajak avlod va dunyoga bo‘y cho‘zayotgan Vatanimiz oldidagi muqaddas burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – B.158.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – B.110.

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA G‘OYAVIY TAHDIDLAR VA ZAMONAVIY G‘OYAVIY XATARLARDAN HIMOYA MEXANIZMLARI

Norqulov Husniddin Do‘sbekovich,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda yuzaga kelayotgan zamonaviy g‘oyaviy tahdidlar va mafkuraviy xatarlar tahlil qilingan. Globallashuv va raqamli axborot muhiti sharoitida individualizm, iste’molchilik, axloqiy nisbiylik va oila institutini inkor etuvchi g‘oyalarning salbiy oqibatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilishning ma’naviy-tarbiyaviy, ta’limiy, huquqiy va jamoat institutlari orqali samarali mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, oilaviy hayot, g‘oyaviy tahdidlar, mafkuraviy xatarlar, oila instituti, ma’naviy tarbiya, g‘oyaviy immunitet, ta’lim va tarbiya, jamoat institutlari, milliy qadriyatlar.

Globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nafaqat ijtimoiy-tarbiyaviy, balki jamiyat barqarorligi va milliy taraqqiyotni ta’minlovchi strategik ahamiyatga ega muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida avlodlar davomiyligi, milliy qadriyatlar saqlanishi va shaxs kamolotini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va ularda sog‘lom oilaviy munosabatlar madaniyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda, axborot makonining kengayishi, turli mafkuraviy ta’sirlar, ommaviy madaniyat elementlari va milliy qadriyatlarga zid bo‘lgan qarashlarning yoshlar ongiga kirib kelishi ularning oila, nikoh va oilaviy mas’uliyat haqidagi tasavvurlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday g‘oyaviy tahdidlar yoshlarda oilaviy

munosabatlarga nisbatan yengil-yelpi yondashuv, mas’uliyatsizlik, individualizm va an’anaviy oila qadriyatlariga nisbatan befarqlik kabi holatlarni shakllantirish xavfini yuzaga keltiradi. Bu esa, o‘z navbatida, oila instituti barqarorligiga va jamiyatning ma’naviy asoslariga jiddiy tahdid soladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qadriyatlarning alohida o‘rni beqiyosdir. Ilmiy manbalarda ham qadriyat masalasi bo‘yicha, “Qadriyat inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushunchadir” [1], deb keltirilgan. Shu munosabat bilan, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bilan bir qatorda, ularni turli g‘oyaviy tahdidlar va mafkuraviy xatarlardan himoya qilishning samarali ma’naviy-tarbiyaviy, huquqiy va institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur maqolada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida uchrayotgan asosiy g‘oyaviy tahdidlar tahlil qilinib, ularning mazmuni va ta’sir mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur tahdidlarga qarshi samarali ma’naviy-tarbiyaviy, huquqiy va institutsional himoya mexanizmlari tahlil qilinib, yoshlarni oilaviy hayotga ongli va mas’uliyatli tayyorlash bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti sifatida inson shaxsining shakllanishi, ma’naviy kamoloti va ijtimoiylashuvida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shaxsning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi va mas’uliyat hissi avvalo oila muhitida shakllanadi. Shu bois, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jamiyat barqarorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayoni ularda oilaviy mas’uliyat, o‘zaro hurmat va ishonch, sabr-toqat kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantirish, shuningdek, huquqiy va iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu esa kelgusida mustahkam va barqaror oila qurish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq globallashuv va axborot makoni ta’sirida yoshlarning oila haqidagi tasavvurlari ba’zan romantik yoki individualistik qarashlar asosida

shakllanmoqda. Bu holat oilaviy mas’uliyatni to‘liq anglamaslikka, nizolar va ajrimlar sonining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki sog‘lom oilaviy qadriyatlar, ma’naviy barqarorlik va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy g‘oyaviy tahdidlar va ularning xususiyatlari. Bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida yoshlar ongi va dunyoqarashiga turli g‘oyaviy ta’sirlar tobora kuchayib bormoqda.

Mazkur g‘oyaviy tahdidlar yoshlarning oila, nikoh va oilaviy mas’uliyat haqidagi qarashlariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, oila instituti barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin.

Birinchidan, individualizm va iste’molchilik g‘oyalarining keng tarqalishi kuzatilmoqda. Ushbu qarashlar shaxsiy manfaat, shaxsiy erkinlik va moddiy farovonlikni ustuvor qo‘yib, oilaviy mas’uliyat, o‘zaro majburiyat, sabr-toqat va qurbonlik kabi an’anaviy oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini pasaytirmoqda. Natijada yoshlarda oilaviy munosabatlarga nisbatan mas’uliyatli yondashuvning zaiflashishi kuzatilmoqda.

Ikkinchidan, ayrim axborot manbalarida oila va nikoh institutining ahamiyatini kamsituvchi yoki inkor etuvchi g‘oyalar targ‘ib qilinmoqda. Jumladan, nikohni ortiqcha majburiyat sifatida talqin qilish, oila qurishni kechiktirish yoki farzandli bo‘lish mas’uliyatini rad etish kabi qarashlar yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa oila institutining ijtimoiy qadriyat sifatidagi ahamiyatini pasaytirish xavfini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, axloqiy nisbiylik va ma’naviy beparvolik kabi holatlar ham yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda halollik va mas’uliyat, burch va majburiyat kabi ma’naviy tushunchalarning qadri nisbatan pasayib, yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi chegaralarning noaniqlashuvi kuzatilmoqda.

To‘rtinchidan, raqamli axborot muhiti orqali kirib kelayotgan mafkuraviy ta’sirlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlik faoliyati va turli media kontentlar orqali tarqalayotgan g‘oyalar yoshlar ongiga tez va bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, ommaviy madaniyat elementlari – telekanallar, kino, seriallar, reklama va internet platformalardagi trendlar ham yoshlarning oilaviy va

hayotiy qadriyatlarga munosabatini shakllantirishda salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Demak, “ommaviy madaniyat” ta’siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda [2].

Shu tariqa, zamonaviy g‘oyaviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning salbiy ta’siri yoshlarning oilaviy qadriyatlar tizimiga ta’sirini kuchaytirib, ularni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini ilmiy asosda takomillashtirish va samarali himoya mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yanada mustahkamlamoqda.

G‘oyaviy xatarlarning oilaviy barqarorlikka ta’siri. Yuqorida qayd etilgan g‘oyaviy xatarlar yoshlarning oilaviy hayotga bo‘lgan munosabati va nikohga tayyorgarlik darajasiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, oila qurishga nisbatan yetarli mas’uliyat hissining shakllanmagani, oilaviy majburiyatlarning mohiyatini to‘liq anglamaslik hamda muammolarni muloqot va o‘zaro kelishuv asosida hal qilish ko‘nikmalarining yetishmasligi oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarning ko‘payishiga va ajrimlar sonining ortishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, yoshlarda g‘oyaviy barqarorlik va mafkuraviy immunitetning yetarli darajada rivojlanmagani ularning turli yot va buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan ta’sirchanligini oshirmoqda. Bu esa shaxsning qadriyatlar tizimida ziddiyatlarni keltirib chiqarib, uning oilaviy hayotida psixologik beqarorlik, ishonchsizlik va ichki nizolarning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Vatandoshimiz Abdurauf Fitrat yozganidek, “Qaerda oila munosabati kuchli intizom va tarbiyaga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi” [3]. Jamiyatning mag‘zi hisoblangan inson avvalo oilada shakllanadi. Oila qanday kishini tarbiyalashi jamiyat uchun juda muhimdir. Oila o‘zining asosiy vazifasi bo‘lgan ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, tarbiya va barqarorlik manbai bo‘lish o‘rniga, ayrim hollarda tushunmovchiliklar va doimiy ruhiy bosim muhitiga aylanib qolishi mumkin. Bu esa nafaqat oilaning ichki barqarorligiga, balki jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlarni g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilishning asosiy mexanizmlari. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilishning samarali mexanizmlari kompleks va tizimli xarakterga ega bo‘lishi shart. Bu mexanizmlar nafaqat oilaviy munosabatlarning

barqarorligini ta’minlaydi, balki yoshlarni turli mafkuraviy, axborot va ijtimoiy tahdidlarga barqaror qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.: 2010. B. 707.
2. Otamuradov S. Globallashuv va millat. – T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2008. – 204 b.
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – T., 2000. – 8-b.
4. Shaamirova Yu.K. Noto‘liq oilalarda o‘smirlarni milliy-ma’naviy tarbiyalash. Ped. fan. nom. … diss. – T.: 2006. – 89–90-b.
5. Abdullayeva M. O‘smirlarni oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlashning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari (“Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fanini o‘qitish misolida). Ped. fan. nom. … diss. – T.: 2004. – 132-b.

YOSHLAR TAFAKKURI VA MAFKURAVIY BARQARORLIK OMILLARI

Nurmatova Umida Jalolidinovna
Samarqand davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar tafakkurining zamonaviy transformatsiyasi va uning mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni falsafiy-gnoseologik hamda ijtimoiy-aksiologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Yoshlar tafakkurida tanqidiy fikrlash, milliy qadriyatlarga tayangan ong, ma’naviy-axloqiy immunitet va axborot madaniyatini shakllantirish mafkuraviy barqarorlikning muhim omillari sifatida asoslanadi. Shuningdek, maqolada mafkuraviy immunitetni

mustahkamlashning institutsional va tarbiyaviy mexanizmlari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar tafakkuri, mafkuraviy barqarorlik, g‘oyaviy tahdid, mafkuraviy immunitet, axborot xavfsizligi, milliy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash, ma’naviy tarbiya, raqamli jamiyat.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kengayishi va raqamli makonning cheksiz imkoniyatlari inson tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida dunyoqarashning shakllanishi va qadriyatlar tizimining barqarorlashuvi aynan shu murakkab sharoitda kechmoqda. Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar bevosita harbiy yoki siyosiy bosim shaklida emas, balki axborot oqimi, madaniy ekspansiya, virtual ijtimoiy tarmoqlar orqali ongga ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan namoyon bo‘lmoqda. Shu bois yoshlar tafakkurida mafkuraviy barqarorlikni shakllantirish masalasi falsafiy va ijtimoiy xavfsizlik masalasi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Zero, jamiyatning ertangi taraqqiyoti yoshlar ongining mustaqilligi va mafkuraviy immunitetiga bog‘liqdir. Mafkuraviy barqarorlik tushunchasi shaxsning turli g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan tanqidiy, ongli va qadriyatlarga asoslangan munosabat bildira olish qobiliyatini anglatadi. Yoshlar tafakkuri o‘zining dinamizmi, yangilikka ochiqligi va tezkor axborot qabul qilish xususiyati bilan ajralib turadi. Raqamli makon yoshlar uchun asosiy bilim manbaiga aylanib bormoqda. Biroq axborotning ko‘pligi uning haqqoniyligini kafolatlamaydi. Shuning uchun tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish mafkuraviy barqarorlikning birlamchi sharti hisoblanadi. I.Saifnazarovning fikricha, mafkuraviy barqarorlikka erishish uchun yoshlarda faqat nazariy bilim emas, balki hayotiy pozitsiya va e’tiqod mustahkam bo‘lishi lozim [1].

Tanqidiy tafakkur yosh shaxsga axborotni tahlil qilish, manbani baholash, g‘oyaning yashirin maqsadini anglash imkonini beradi. Bu esa destruktiv g‘oyalarning ongga singib ketishining oldini oladi. Gnoseologik jihatdan mafkuraviy immunitet – bu bilimning sifati va ongli tanlov mahsulidir. Shuningdek, yoshlar tafakkurini shakllantirish va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash masalasi bugungi kunning muhim muammosi

hisoblanadi. Mafkuraviy barqarorlik qadriyatlar tizimiga bevosita bog‘liqdir. Qadriyatsiz ong barqaror bo‘la olmaydi. Yoshlar tafakkurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega. Milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat kabi omillar mafkuraviy immunitetni mustahkamlaydi.

Shu nuqtai nazardan, ajdodlar merosida komil inson tarbiyasi masalasi alohida o‘rin tutadi. Masalan, Forobiy o‘zining ijtimoiy-utopik va falsafiy qarashlarida jamiyat barqarorligini uning a’zolari, ayniqsa, kelajak avlodning axloqiy yetukligida ko‘radi. Uning “Fozil odamlar shahri” asarida ta’kidlanishicha, davlat va jamiyatning mustahkamligi insonlarning o‘zaro yordami va yuksak axloqiy maqsadlar yo‘lida birlashishiga bog‘liq. Forobiy yoshlar tarbiyasida “avval axloq, keyin bilim” tamoyilini ilgari suradi. Zero, axloqsiz berilgan bilim jamiyat barqarorligiga xizmat qilmaydi, balki buzg‘unchilikka sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi [2:124]. Ibn Sino esa inson kamolotini bilim va axloq uyg‘unligida ko‘radi. Ibn Sino inson kamolotini faqatgina aqliy salohiyatda emas, balki kognitiv qobiliyat va ma’naviy poklikning sintezida deb biladi. O‘zining “Tadbiri manzil” (Turmush tadbiri) asarida yoshlarni tarbiyalashda ularning ruhiy dunyosini tashqi yot ta’sirlardan himoya qilish lozimligini uqtiradi. Ibn Sino fikricha, “axloq - ruhning sog‘lig‘idir”. Mafkuraviy barqarorlik esa aynan mana shu “ruhiy sog‘lomlik” natijasida yuzaga keladi. Bilim bilan qurollangan, ammo axloqiy filtri bo‘lmagan yoshlar har qanday mafkuraviy oqimga tez ergashib ketishi mumkin [3:38]. Turkiy xalqlar tafakkurining xazinasi bo‘lmish “Qutadg‘u bilig” asarida Yusuf Xos Hojib aql va idrokni mafkuraviy qalqon sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, “aql qorong‘u tunda mash’aldir”[4:54]. Shuningdek, Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida insonning “o‘zligini anglash” jarayonini eng oliy maqsad qilib qo‘yadi. Bu tushuncha bugungi kundagi “milliy o‘zlikni anglash - mafkuraviy xavfsizlik asosi” degan tamoyilga to‘la mos keladi [5:210]. Ushbu qarashlar yoshlar mafkuraviy barqarorligini shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, yoshlar tafakkurida mafkuraviy barqarorlikni shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlari muhim rol o‘ynaydi. Oila birlamchi ijtimoiylashuv maktabi sifatida qadriyatlar

poydevorini yaratadi. Ta’lim tizimi esa bilim va tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. Davlat siyosatida yoshlar masalasiga ustuvor yo‘nalish sifatida e’tibor qaratilishi ham mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashning muhim omilidir. Ma’naviy-ma’rifiy dasturlar, yoshlar bilan ishlashning zamonaviy metodlari bu jarayonni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tafakkuri va mafkuraviy barqarorlik o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Agar yoshlar ongida mustaqil fikrlash, qadriyatlarga sodiqlik va axborot madaniyati shakllansa, ular har qanday destruktiv g‘oyaviy ta’sirlarga nisbatan barqaror immunitetga ega bo‘ladi. Mafkuraviy barqarorlikni faqat taqiqlash yoki nazorat mexanizmlari orqali emas, balki ongli tarbiya va bilim orqali ta’minlash mumkin. Shaxsning ichki e’tiqodi va qadriyatlari mustahkam bo‘lsa, tashqi tahdidlar samarasiz bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tafakkurining mafkuraviy barqarorligi jamiyat barqarorligining muhim omilidir. Globallashuv va raqamli makon sharoitida yoshlar ongini himoyalash kompleks yondashuvni talab etadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, milliy qadriyatlarni mustahkamlash, axborot savodxonligini oshirish hamda ma’naviy tarbiyani takomillashtirish mafkuraviy immunitetni kuchaytiradi. Shuningdek, mafkuraviy barqarorlikni shakllantirish jarayoni uzluksiz va tizimli bo‘lishi zarur. U oila, ta’lim tizimi va jamiyat hamkorligida amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Yoshlar ongining sog‘lom va barqaror shakllanishi esa milliy taraqqiyotning mustahkam kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Saifnazarov I., Muxtorov A., Sultonov T. Mafkuraviy immunitet. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2015. – 56-bet.

2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016. – 124-bet.

3. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil (Turmush tadbiri). – Toshkent: “Sharq”, 2004. – 38-bet.

4. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Saodatga yo‘llovchi bilim). – Toshkent: “Yulduzcha”, 1990. – 54-bet.

5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami, 14-jild. – Toshkent: “Fan”, 1998. – 210-bet.

YOSHLARDA AXBOROT XURUJLARGA QARSHI MAVKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

Abrarov Islomiddin Jamolovich
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada yoshlarda axborot xurujlarga qarshi mavkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalari ilmiy-nazariy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada hozirgi shiddatli zamonda mafkuraviy vositalar orqali ta’sir ko‘rsatishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib inson qalbi, ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish maqsadida g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazish kuchayib borayotganligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, axborot xuruj, mafkuraviy immunitet, globallashuv, milliy g‘oya, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya.

Bugungi kunda dunyo miqyosida tobora avj olayotgan global o‘zgarishlar sharoitida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat tufayli ma’naviy tahdidlar, yot g‘oya va mafkuralar ta’siri ham tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, hozirgi global axborot makonida g‘oyaviy kurashlar

ta’siri ostida turli mafkuraviy markazlar tomonidan yoshlar ongini ekspantsiya qilishga qaratilgan harakatlar ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari, ommaviy madaniyat orqali keng tarqalmoqda.

Hozirgi shiddatli zamonda mafkuraviy vositalar orqali ta’sir ko‘rsatishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib inson qalbi, ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish maqsadida g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazish kuchayib bormoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev shunday degan edi: “axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng qo‘llanishi, davlat boshqaruvining elektron shaklda tashkil etilayotgani, bu yaxshi albatta, o‘z navbatida, axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni hayotning o‘zi taqozo etmoqda”[1]. Zero, jamiyatdagi turli axborot xurujlari inson kayfiyati, psixikasi va turmush tarziga salbiy ta’sir qilish manbaiga aylangani afsuski hech kimga sir emas. Zero, jahonda kechayotgan axborot xavfsizligi muammosi inson, jamiyat va davlatning manfaatlarini ta’minlashda hayotiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hozirgi davrga kelib axborot xavfsizligi har qanday jamiyat, davlat hayotida barqarorlikni saqlashning eng muhim omili hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida axborotni qudratli qurolga aylanishi ayniqsa, undan vayronkor qurol sifatida foydalanish maqsadida ayrim yetakchi davlatlar o‘zga mamlakat aholisi ongi va dunyoqarashini o‘zgartirishda g‘oyaviy, mafkuraviy ta’sir o‘tkazishga alohida e’tibor qaratishayotganligini anglash qiyin emas. Rus tadqiqotchisi D.Lavotsovning fikricha, “axborot qurollari deganda muayyan xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma’naviyati, dini, davlatning informasion-texnologik, harbiy infratuzilmasiga destruktiv tarzda salbiy ta’sir ko‘rsatadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalar tizimi tushuniladi”[2]. Binobarin, axborot xurujining tahlikali shakli kishilar ongiga g‘oyaviy va mafkuraviy ta’sir o‘tkazishga urinishdir.

Bugungi kunga kelib, jaxonning yirik davlatlaridagi xalqaro informatsion markazlar dezinformatsion harakatlarni amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon axborot makoniga chiqish jarayonini izdan chiqarishiga intilmoqda. Bu haqda ingliz siyosiy arbobi, Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri U.Cherchill: “Kim axborotga ega bo‘lsa,

dunyoga ham egalik qiladi”[3], deya ta’kidlagan edi. U.Cherchillning fikriga ko‘ra, ayrim yetakchi davlatlar muayyan mamlakatdagi xukumat boshqaruvi, davlat to‘g‘risida xolisona fikrlarni amalda mavjud emasligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari surishga inilayotganligini ta’kidlaydi.

O‘z navbatida mavjud boshqaruv tuzumiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini amalga oshirish uchun mahalliy aholi vakillarini ongini chalg‘itishda ularning ongi va psixologiyasini o‘zgartirish maqsadida aniq ma’lumotga ega bo‘lmagan axborotni tarqatishmoqda. Binobarin, axborot xurujlari xususiyatlaridan biri shundaki, ular avvalo, millatning tarixan shakllangan madaniyati, qadriyatlari va uning o‘ziga xosligini barbod etish bilan bir qatorda insonlarni millat va xalq sifatida yashash xavf ostida qolishiga zamin yaratadi [4]. Shu o‘rinda, mazkur harakatlarning oldini olish maqsadida AQSh milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun barcha fuqarolarning elektron manzillarini ochib tekshirish haqidagi qarorini alohida ta’kidlash o‘rinli.

Shu bilan birga, axborot xurujlar mohiyati va ularning yoshlar ongiga ta’sirini angab olish lozim. Axborot xuruj deganda muayyan maqsadlarni ko‘zlab, inson ongi va dunyoqarashini o‘zgartirishga qaratilgan g‘oyaviy va psixologik ta’sirlar majmuasi tushuniladi. Bunday xurujlar ko‘pincha zo‘ravonlikni oqlash, milliy qadriyatlarni inkor etish, yoshlarni begona hayot tarziga ergashtirish orqali jamiyat barqarorligiga jiddiy tahdid soladi. Zero, yoshlar ijtimoiy faol, yangilikka qiziquvchan va tez ta’sirchan bo‘lgani uchun g‘oyaviy xurujlarning asosiy nishonlaridan biriga aylanmoqda. Agar yoshlarda mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati shakllanmagan bo‘lsa, ular yolg‘on va buzg‘unchi g‘oyalarni haqiqat sifatida qabul qilib qo‘yishlari mumkin. Ayniqsa, hayotiy tajribasi yetarli bo‘lmagan yoshlar bunday ta’sirlarga nisbatan himoyasiz qatlam hisoblanadi. Shu bois yoshlarda axborot xurujlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb masala sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Globallashuv jarayonlarining shiddatli tus olishi dunyo miqyosida tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlarni tobora kuchayotganligini namoyon etmoqda. Zero, dunyoda sodir etilayotgan bunday murakkab va tahlikali vaziyatni keskin tus olishi har qanday xalq,

millat, jamiyat va davlat hayotida muntazam sezgir, xushyor hamda ogox bo‘lish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda mutaxassislar tomonidan olib borilgan o‘rganishlarga ko‘ra, hozirda axborot xurujining muhim qurollaridan biri sifatida ommaviy axborot vositalari va axborot tazyiqlarning juda muhim ekanligini ta’kidlashadi. Bu haqda AQSh Markaziy razvedka boshqarmasning “daho”si hisoblangan A.Dallesning fikricha, “Inson miyasi, odamlarning ongi o‘zgaruvchanlikka moyildir. Tartibsizlik, palapartishlik urug‘larini sochish orqali biz ularning o‘ziga sezdirmagan holda asil qadriyatlarni unutib, soxta qadriyatlarga ishonishlariga erishishimiz mumkin. Insonlar ongi uchun ularning bolalik va o‘smirlik chog‘laridanoq kurashish, yoshlarini o‘zlari o‘ylab topgan soxta qadriyatlar quliga aylantirish, qolaversa, har bir millat orasida o‘z maslakdoshlarimizni topish hamda ularni saflarini kengaytirish orqali asta-sekin bo‘ysunishni istamagan har qanday mag‘rur halqni ham bosh egishga majbur qilamiz, aks holda esa misli ko‘rilmagan fojealarga giriftor etamiz” [5] deya ta’kidlagan edi. Shu o‘rinda, A.Dallesning yuqoridagi bildirib o‘tilgan fikriga e’tibor qaratilsa, axborot xuruji har qanday davlat va jamiyat hayotidagi barqarorlikka putur yetkazishini anglashimiz lozim. Taniqli sotsiolog Ferdinand Tonnies fikricha, “Matbuot – haqiqiy zarur ijtimoiy fikr” yaratish quroli, mazkur qurolni ishlatish mexanizmini amalga oshirish tufayli haqiqiy qurol vazifasini o‘tash mumkinligi to‘g‘risidagi g‘oyani ilgari suradi. Binobarin, keyingi 15 yil mobaynida AQSh hukumati tomonidan informatsion qurollar va psixologik ta’sir vositalarini ishlab chiqarish va takomillashtirish maqsadida sarflanadigan mablag‘lar miqdorini 4 barobarga oshirganligini qayd etish o‘tish joiz.

Dunyodagi ayrim yirik davlatlar mustaqil siyosat yuritayotgan mamlakatlarga nisbatan ularning ichki siyosatida, vijdon erkinligi jarayonlarida sodir bo‘layotgan bir vaqtda avvalo, xorijdan “puxta” niqoblangan axborot xurujlarining asl maqsadlarini anglash lozim. Ayniqsa, ayrim siyosiy kuchlarning olib borayotgan axborot siyosatiga e’tibor qaratilsa, qadimgi Xitoy faylasufi va harbiy arbobi Sun Szi tomonidan mil.av. VI asrda yozib qoldirilgan “Nasihatlari”ni yodga soladi: “Dushman mamlakatidagi barcha yaxshi narsalarni yo‘qotishga harakat qiling;

dushman tarafining arboblarini jinoiy ishlarga jalb eting; dushman mamlakatining rahbariyati obrusiga putur yetkazing; shu maqsadda eng razil va pastkash odamlarni ishga soling; dushman mamlakatining fuqarolari orasida nizo va to‘qnashuvlar keltirib chiqarishga intiling; yoshlarni keksalarga qarshi gij-gijlang; barcha vositalar bilan hukmdorlar ishiga halaqit bering; dushman lashkarlarining tartibi va ta’minotiga halaqit bering; dushman taraflarining askarlari ruhini musiqa va ashula bilan zaiflashtiring; dushmaningiz an’analarini qadrsizlantirishga va ularni yaratganga ishonchini yo‘qotishga intiling; dushman taraflarga yengiltak, buzuq ayollarni yuboring. Toki ular o‘sha mamlakatning buzulishi, aynishiga ko‘maklashsin; ayg‘oqchilardan axborotni sotib olish uchun mukofat va sovg‘alarni ayamang” [6] deya ta’kidlagan edi.

O‘z navbatida, mazkur fikrlar zamiriga e’tibor qaratilsa, xorijiy davlatlar tomonidan muayyan mintaqa va hududlarga nisbatan axborot xurujlariini amalga oshirilishi oqibatida jamiyat hayotidagi azaldan shakllangan qadriyatlar, milliy ma’naviyat va madaniyatga zarba berish orqali mamlakat miqyosida amaldagi boshqaruv tuzumiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini keltirib chiqarilishi natijasida o‘zaro diniy, milliy, etnik ziddiyatlar tufayli barqarorlikni izdan chiqishi uchun zamin yaratishini anglash lozim.

Xulosa qilib aytganda, tobora avj olib borayotgan globallashuv jarayonlari ma’naviy yetuk, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash orqali ulug‘ maqsadlarni ro‘yobga chiqaradigan, erkin va yangicha fikrlaydigan, vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazishga bo‘lgan ehtiyojni tobora kuchaytirmoqda. Zero, dunyo miqyosida tobora avj olayotgan ma’naviy tahdidlar, yot g‘oya va mafkuralar ta’siriga qarshi yoshlarimizda mavkuraviy immunitetini mustahkamlash dolzarb vazifa ekanligini barcha yurtdoshimiz teran anglashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – Б. 46.

2. Махсуталиев А. Миллий ғоя ва мафкуранинг глобал ҳодисалар билан алоқадорлиги. Глобаллашув оммавий маданият миллий ғоя. Т. “Маънавият” 2009 йил. Б-17.

3. Маматқулов Д. Ахборот оқими ва ёшлар. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида: тарихий хотира ва ёшлар дунёқараши. Т. “ЎзДЖТУ” республика илмий-амалий ажумани материаллари тўплами.2012. Б- 101.

4. Мусаев М. Ахборот хуружи ва уни халқаро муносабатларга таҳдид. Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари журнали. – Тошкент, 2013 йил. №1. Б-35.

5. М.Сафаров, Э.Бахт. Сабаблар ва оқибатлар. Информatsion уруш ва ундан мақсад. Қонун ҳимоясида. Т.: Ўзбекистон республикасининг бош прокуратурасининг оммабоп юридик журнали 2005.Б-12.

6. Примов Б. Ахборот оқимининг ахлоқий қадриятларга таъсири. ДЖҚА. Жамият ва бошқарув журнали. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ. 2011.2сон.Б- 21.

ZAMONAVIY G‘OYAVIY TAHDIDLAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT VA MAFKURAVIY XAVFSIZLIGI

Axmedov Jasur Isroilovich
A.Navoiy nomidagi “O‘zbek tili va adabiyoti” Universiteti katta o‘qituvchisi, (PhD)

Annotatsiya. Mazkur tezisda raqamli jamiyat sharoitida yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlarning ta’lim, axborot almashinuvi va fuqarolik faolligini oshirishdagi ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, soxta axborot, ruhiy bosim, radikallashuv va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq xavf-xatarlar yoritiladi. O‘zbekiston misolida yoshlarning raqamli muhitdagi faolligi hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, mafkuraviy immunitet.

So‘nggi o‘n yillikda dunyo aholisining ko‘pchilik qismini tashkil etuvchi yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlar asosiy muloqot va axborot maydoniga aylangan. Global statistikaga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internet foydalanuvchilarining 60 foizidan ortig‘i ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etadi, ularning katta qismi 15-30 yosh orasidagi foydalanuvchilardir [1]. Yoshlar uchun bu platformalar o‘zini ifoda etish, ijtimoiylashuv, siyosiy fikr bildirish, shuningdek ta’lim olish manbaiga aylangan bo‘lsa-da, ular bilan bog‘liq xavf-xatarlar, xususan ruhiy bosim, soxta axborot va radikallashuv holatlari ham ortib bormoqda. Shuningdek, bugungi kunda axborot xavfsizligini ta’minlash orqali milliy xavfsizlikni ta’minlash mumkin.

Globallashuv sharoitida insonlarda, xususan, yoshlarda ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar va boshqa platformalar orqali olish ommalashdi. Ijtimoiy tarmoqlar ta’lim olish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Masalan, YouTube’dagi ta’lim kanallari, Coursera va edX kabi platformalarning ijtimoiy tarmoqlar bilan

integratsiyasi yoshlar uchun mustaqil o‘rganish imkonini beradi [2]. Bundan tashqari hozirgi kunda barcha soxalarga kirib borayotgan suniy intelekt yoshlarni ham befarq qoldirmadi. Suniy intelekt qaysidir ma’noda ma’lumotlar bilan ishashni osonlashtirgan bo‘lsa, bizni o‘rnimizga fikrlay boshladi. Bu esa yoshlarning ta’lim olishi, mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar auditoriyasi kengayib borishi natijasida turli davlat, millat va turli toifadagi insonlar o‘zaro suxbat qurishi yoki fikr almashishi mumkin bo‘lgan makonga aylandi. Dunyoning istalgan nuqtasida sodir bo‘lgan yoki bo‘layotgan voqealar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni an’anaviy OAVdan tezroq olish imkoniyati paydo bo‘ldi. O‘zaro axborot almashishda messenjerlardan foydalanish eng maqbul yo‘lga aylandi. Chunki messenjerlar orqali hujjatlarni xohlagan masofangizga va xohlagan o‘lchamda tezkor almashish natijasida pochta va flesh xotiraga bo‘lgan talab sezilarli darajada kamaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar fuqarolik faolligini oshirayotgan asosiy maydon sifatida xizmat qilmoqda. Bunda jamoatchilik faollari tomonidan ijtimoiy-siyosiy hayotimizda ro‘y berayotgan voqelikni ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritilishi ommaviy muhokamaga sabab bo‘lmoqda va o‘z yechimini topmoqda. Misol uchun, 2020-yilda Markaziy Osiyo mamlakatlarida ekologik harakatlar, hayvonlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi onlayn kampaniyalar aynan yoshlar tomonidan boshlangan [3]. Axborot topish va almashishda, o‘zini – o‘zi rivojlantirishda, biznes yuritishda, turli ijtimoiy aksiyalar o‘tkazishda, ijodkorlar va boshqa soxa vakillari uchun ijtimoiy tarmoqlar keng maydon vazifasini bajarmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazish o‘z-o‘zini past baholash, ijtimoiy taqqoslash va ruhiy tushkunlik holatlarini kuchaytirmoqda [4]. “Like” va “follow” kabi metrikalarga bog‘liq bo‘lish hissiy bosimga olib keladi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil qilishini inobatga olasak ulardagi ruhiy o‘zgarishlar va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik barchani tashvishga solmoqda. Shuningdek, yoshlar orasida turli mobil o‘yinlarga mukkasidan ketish holatlari ko‘paymoqda. Jahon sog‘liqni saqlash (JSST) tashkilotining hisobotida qayd etilishicha

o‘smirlarning 34 foizi har kuni raqamli o‘yinlar o‘ynashi, 22 foizi esa o‘yin kunlarida kamida 4 soat o‘ynashi aniqlandi. 68 foizi muammosiz o‘yinchilar sifatida tasniflangan bo‘lsa, 12 foizi muammoli o‘yin xavfi ostida [5].

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan soxta axborotlar va konspiratsion nazariyalar yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatiga salbiy ta’sir qilmoqda. Bundan tashqari, ekstremistik guruhlar aynan internet orqali yoshlarni radikallikka jalb qilishga urinishmoqda [6]. Dunyoda mavjud ekstremist va terror guruhlari ham o‘z saflarini yosh, navqiron a’zolar bilan kengaytirishni maqsad qiladi. Bunda ularga asosiy qismini yoshlar tashkil qiluvchi ijtimoiy tarmoqlar eng qulay vosita bo‘lib qolmoqda. Bugungi raqamlashgan dunyoda turli platformalar bozor vazifasini bajarmoqda va bu bozorda biz uchun kerakli bo‘lgan uy-ro‘zg‘or, oziq-ovqat, kiyim-kechak maxsulotlaridan tortib kuchli tasir qiluvchi psixotrop dori vositalari, qurol-yarog‘ va hattoki odam savdosi ham amalga oshirilib kelinmoqda.

2019-2023-yillarda respublikamizda giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog‘liq sodir etilgan jinoyatlarning 22-25 foizi yoshlar (30 yoshgacha) tomonidan sodir etilgan. Mazkur ko‘rsatkich 2024-yilning 8 oyida esa 33,4 foizni tashkil etgan. Shunigdek, Internet makonida giyohvandlik vositalari va psixoaktiv moddalar savdosiga ixtisoslashgan 52 ta axborot manbai aniqlangan. Ularning 14 tasi veb-saytlarda, 38 tasi esa telegram messenjeri orqali faoliyat yuritgan deyiladi. 2024-yil 27-noyabr kuni Senatning Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan yoshlar va o‘smirlar o‘rtasida giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalar iste’molining oldini olishga qaratilgan jamoatchilik eshituvida [7].

Yuqoridagi raqamlar aniqalngan holatlar bo‘lib, aniqlanmagan vaziyatlar afsuski bundan ham yuqori raqamlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga asosiy sabab so‘nggi yillarda butun dunyoda giyohvandlik vositalari savdosining deyarli to‘liq internetga ko‘chib o‘tganligidir. AQShlik nazariyotchi olimlardan biri Avram Noam Xomskiy turli mediavositalar orqali inson ongini boshqarishning sinalgan usullarini sanar ekan, jumladan shunday yozadi: “Odamlarning tafakkuri, hissiyotlariga ega

chiqmoqchimisiz? Ishni eng avvalo ularning ongiga “johillik”, “behayolik” va “tarbiyasizlik” go‘yoki urf ekani to‘g‘risidagi tushunchani singdirishdan boshlang!”.

Bugungi kunimizda ijtimoiy tarmoqlarda ananalarimiz, urf-odatlarimiz va o‘zligimizga zid bo‘lgan kontentlar yoshlarimiz tomonidan yaratib kelinmoqda va ularning doimiy kuzatuvchilari ham yoshlar. O‘zbekistonda yoshlarning ko‘pchiligi Telegram, Instagram, Facebook, TikTok va YouTube kabi platformalardan faol foydalanmoqda. 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, respondentlarning 67 foizi ijtimoiy tarmoqlarni asosiy axborot manbai deb hisoblaydi [8]. Biroq, raqamli savodxonlik darajasi va axborotning ishonchliligini baholash ko‘nikmalari yetarli emasligi, soxta yangiliklarga ishonuvchanlik darajasining yuqoriligi xavfli tendensiyalardandir. Ayrim masalalarda yoshlar ota-ona ko‘magidan ko‘ra internet va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilish holatlari ko‘paygan.

Avvallari oilada farzandlar qandaydir shaxsiy masalalarda qiz farzand onadan, o‘g‘il farzand otadan maslahat olgan bo‘lsa, bugunga kelib maslahatni o‘zining smatfonidan izlamoqda. Farzandlarni smartfonlar bilan nazoratsiz qoldirish qanday oqibatlarni keltirib chiqarishiga yaqin o‘tmishda guvohi bo‘lganmiz. 2015-2016-yillarda ijtimoiy tarmoqlarning rus segmentida “Ko‘k kit”, “Yettinchi osmon”, “Kosmik kovboy”, “Yugur yoki jon ber”, “f57”, “f58”, “4:20” kabi o‘lim guruhlari faoliyat yurita boshladi. Ularning asosiy maqsadi guruh a’zolari tomonidan turli shartlarni bajarish va o‘yin so‘ngida o‘zini o‘ldirishga undashdan iborat bo‘lgan. Buning oqibatida ko‘plab oilalar o‘z farzandlaridan bevaqt ayrilib qolishdi. Ma’lumotlarda keltirilishicha birgina Rossiyaning o‘zida 2015-yilning noyabridan 2016-yilning apreliga qadar o‘lim guruhlariga a’zo bo‘lgan 130 nafar bolalar o‘z joniga qasd qilgan. Keyinchalik bu guruhlarning faoliyati butun MDH davlatlarida ham kuzatildi.

O‘zbekistonda ham ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, ma’lumotlarni olish, tarqarish bo‘yicha bir qancha qonun va qarorlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risidagi”, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi”, “Bolalarni ularni sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risidagi” va boshqa qonunlar bilan axborot sohasidagi davlat siyosati belgilab berilgan. Undan

tashqari, turli vakolatli davlat organlari ham ushbu yo‘nalishda faoliyat olib bormoqda. Ammo, internet shunday cheksizlikki uni to‘liq nazorat qilish bugungi kunda imkonsiz. Shunday bo‘lsa ham qonunlar bilan zo‘ravonlik, shavqatsizlik va behayolikni targ‘ib qiluvchi noqonuniy kontentlarni hamda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlarni nazorat qilish va cheklash, blogerlik faoliyatini qonun bilan tartibga solish lozim.

DataReportal.com tomonidan nashr qilingan ma’lumotlar ko‘ra 2025-yil boshida O‘zbekistonda 33,9 million faol mobil aloqa mavjud bo‘lgan, bu umumiy aholining 92,2 foiziga teng. Ammo, shuni ta’kidlash kerakki, ushbu ulanishlarning ba’zilari faqat ovozli va SMS kabi xizmatlarni o‘z ichiga olishi mumkin, ba’zilari esa internetga kirishni o‘z ichiga olmaydi.

2025-yil boshi holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 32,7 million internet foydalanuvchisi bo‘lib, internetga kirish darajasi 89,0 foizni tashkil qilgan.

2025-yil yanvar oyi holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 11,7 million ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi ro‘yxatdan o‘tgan, bu umumiy aholining 31,7 foizini tashkil qiladi. O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2024-yilning yanvaridan 2025-yilning yanvarigacha bo‘lgan davrda 626 ming nafarga (+2,0 foiz) oshganini ko‘rsatmoqda. Foydalanuvchilar demografiyasiga murojaat qiladigan bo‘lsak, yetakchi ijtimoiy tarmoqlarning reklama rejalashtirish vositalarida e’lon qilingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2025-yil boshidagi holatga ko‘ra, O‘zbekistonda 18 va undan katta yoshdagi 10,3 million foydalanuvchi mavjud va bu 18 va undan katta yoshdagi jami aholining 43,8 foiziga teng [9].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun zamonaviy imkoniyatlar maydoni bo‘lib xizmat qilmoqda, biroq bu imkoniyatlar ongli yondashuv bilan birga yuritilishi lozim. Globallashuv davrida axborot makonini tartibga solish, bolalarni zararli kontentlardan himoyalash, yoshlarni axborot texnologiyari bo‘yicha bilimlarini oshirish lozim.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tmoqchiman:

1. Ta’lim tizimida raqamli savodxonlikni joriy etish;

2. Yoshlar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi dasturlarni yo‘lga qo‘yish;

3. Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatni targ‘ib qiluvchi kontent ishlab chiqish;

4. Axborot xavfsizligi va feyk yangiliklarga qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqishdan iborat ishlarni amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. We Are Social & Hootsuite. Digital 2024: Global Overview Report.

2. Anderson, M. & Jiang, J. (2018). Teens, Social Media & Technology. Pew Research Center.

3. UNDP (2021). Youth and Digital Activism in Central Asia.

4. Twenge, J. (2017). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious.

5. WHO (2024). Teens, screens and mental health. New WHO report indicates need for healthier online habits among adolescents

6. Europol (2020). Online Radicalisation: Trends and Countermeasures.

7. https://senat.uz/events/post-2988

8. O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi (2023). Yoshlar va raqamli axborot makoni: Sotsiologik tahlil natijalari.

9. https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan

ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTI – YOSHLAR TARBIYASIDA AXLOQIY INQIROZ MUAMMOSI

Biyimbetov Jaksilik Kilishbayevich,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Doktorantura” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishimizda zamonaviy jamiyatda yoshlar tarbiyasida kuzatilayotgan axloqiy inqiroz muammosi tahlil qilinadi. Xususan axloqiy inqirozning mohiyati, namoyon bo‘lish shakllari hamda asosiy sabablari: oila tarbiyasining zaiflashuvi, ta’lim tizimining yetishmovchiliklari, ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’siri, globalizatsiya hamda iqtisodiy omillar kabi jihatlarini chuqur ilmiy falsafiy tomondan yoritadi.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy dunyo, globalizatsiya jarayonlari, axloqiy me’yorlar, an’anaviy qadriyatlar, jamiyat, axloqiy inqiroz, shaxs, adolat, haqiqat, oilaviy muhitda, salbiy omillar, vijdon, yoshlar, fikrlash, axloqiy inqiroz.

Zamonaviy dunyo yosh avlod oldiga nafaqat ilmiy-texnik, balki axloqiy-ma’naviy jihatdan ham murakkab sinovlarni qo‘yib kelmoqda. Globalizatsiya jarayonlari hamda axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi yoshlarning qadriyat tizimiga katta ta’sir ko‘rsatadi [1]. Natijada, an’anaviy axloqiy me’yorlar so‘ng o‘rinda qolish xavfi tug‘ilmoqda. Bu esa jamiyatda axloqiy inqiroz hodisasining keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, bizning davlatimiz kabi an’anaviy qadriyatlar asosida shakllangan mamlakatlarda bu muammo yanada dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Axloqiy inqiroz bu jamiyat a’zolarining umumqabul qilingan axloqiy me’yor va qoidalariga rioya qilmaslik, ularni bekor qilish yoki butunlay inkor etish holatidir. Bu hodisa shaxsning ichki dunyosidagi adolat, haqiqat, vijdon kabi tamoyillarning susayishidan kelib

chiqadi. Inqiroz natijasida inson o‘z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini his qila olmaydi. Bunday holat yoshlarda kuzatilsa, kelajak avlodning barqarorligi xavf ostiga kiradi [2]. Shuning uchun ham bu muammoni chuqur tahlil qilish zarurdir.

Yoshlar orasida axloqiy inqirozning namoyon bo‘lishi turli shakllarda sodir bo‘ladi. Ularga zo‘ravonlik, noziklik, g‘azab, bemaniylik, ishonchsizlik, mehnatga nafratchilik, dardkashlikka befarqlik kabi sifatlar kiradi. Bundan tashqari, internet orqali tarqalayotgan nomaqbul g‘oyalar ham yoshlarning fikrlash tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda layk va kuzatuvchilarga e’tibor berish, haqiqiy hayotdagi qadriyatlarni kam baholashga olib keladi. Bu esa ularning oilaviy, ijtimoiy hamda milliy qadriyatlardan uzilib ketishiga sabab bo‘ladi. Axloqiy inqirozning eng asosiy sabablari orasida oilaning tarbiyaviy vazifasini to‘liq bajarolmasligi hamda ta’lim tizimining yetishmovchiliklari ajralib turadi. Ota-onalarning farzandlariga yetarlicha e’tibor bermasligi, ularga namuna bo‘la olmasligi yoki noto‘g‘ri usullar bilan tarbiyalash inqirozga olib keladi. Ta’lim muassasalarida esa axloqiy tarbiya amaliyotga aylantirilmay, faqat nazariy bilim sifatida beriladi. Natijada, yoshlar o‘zlariga kerakli axloqiy yo‘l ko‘rsatuvchilarni topa olmaydi.

Oilaning yoshlarni axloqiy shakllantirishdagi roli beqiyosdir. Oila bu bolaning birinchi maktabi bo‘lib, unda u haqiqat, adolat, mehr, hurmat kabi qadriyatlarni o‘rganadi. Agar oilada bu qadriyatlar mustahkam poydevorga ega bo‘lsa, bola kelajakda ham ularni saqlab qoladi. Aks holda, oilaviy muhitda salbiy omillar hukm sursa, yosh shaxsning axloqiy inqirozi qochishli bo‘lmaydi. Shu sababli ham oilaviy tarbiyaning sifatini oshirish dolzarb masaladir [3]. Ta’lim tizimi ham yoshlarning axloqiy shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynashi kerak. Maktab hamda oliy o‘quv yurtlari faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi ham bo‘lishi lozim.

Hozirda ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiya darslari rasmiy ravishda o‘tilsa-da, amaliy jihatdan yetarli darajada samara bermayapti. O‘qituvchilarning o‘zlarining axloqiy madaniyati ham talabalarga ta’sir qiladi. Shuning uchun ta’lim sohasida ishlaydigan kadrlarning axloqiy saviyasini doimiy nazorat qilish zarurdir. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari (OAV) ham yoshlarning axloqiy dunyoqarashiga kuchli ta’sir

koʻrsatadi. Koʻpincha OAV orqali tarqatilayotgan kontent yoshlarning e’tiborini jalb qilish maqsadida shov-shuvli, zoʻravon yoki axloqqa zid materiallardan foydalanadi. Bu esa yoshlarning ongli tanlov qilish qobiliyatini susaytirib, ularni notoʻgʻri yoʻlga itaradi. Shu bilan birga, OAVning ijobiy ta’sirini kuchaytirish ham mumkin. Buning uchun axloqiy qadriyatlar asosida tayyorlangan sifatli kontentlar yaratish kerak.

Global jarayoni ham yoshlar orasida axloqiy inqirozga sababchi boʻlyapti. Tashqi madaniyat namoyandalarining erkin kirib kelishi natijasida yoshlar oʻz milliy-ma’naviy merosini unutish xavfini yuzaga keltirmoqda. Gʻarb madaniyatining ba’zi elementlari individualizm, materializm, hedonizm kabi tamoyillar yoshlarning an’anaviy qadriyatlarga nisbatan befarqlikka olib keladi. Bunday holat milliy axloqiy tizimning buzilishiga sabab boʻlishi mumkin. Iqtisodiy muammolar ham axloqiy inqirozga bevosita ta’sir koʻrsatadi. Yoshlarning ishsizlik, kambagʻallik, kelajakka nisbatan noaniqlik kabi muammolar bilan duch kelishi ularning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Bunday sharoitda yoshlar osonlikcha notoʻgʻri yoʻlga tushib ketishi mumkin. Chunki ular oʻz muammolarini hal qilish uchun qonun tushtirilgan yoʻllardan tashqari boshqa imkoniyatlarni izlashga majbur boʻlishadi. Shu sababli iqtisodiy barqarorlik ham axloqiy sogʻlomlikning asosidir.

Diniy va ma’naviy qadriyatlar ham yoshlarning axloqiy shakllanishida muhim rol oʻynaydi. Din bu insonning ichki dunyosini tartibga soluvchi kuch boʻlib, unga yaxshi-yomonni farqlashga yordam beradi. Oʻzbekistonda islom dinining an’anaviy tushunchalari hamisha axloqiy tarbiyaning asosini tashkil qilgan. Ammo zamonaviy dunyoda diniy bilimlarning yetishmasligi yoki notoʻgʻri talqin qilinishi ham axloqiy inqirozga sabab boʻlishi mumkin. Shu sababli, diniy ta’limni ilmiy asoslangan, mutanosib tarzda berish zarurdir. Yoshlarning ijtimoiy faolligining pasayishi ham axloqiy inqirozning belgilaridan biridir. Ijtimoiy faollik bu jamiyat hayotiga qiziqish, uning muammolariga hissa qoʻshish istigidir. Agar yoshlar atrofidagi voqealarga befarq boʻlsa, bu ularning axloqiy sezgirligining susayganligini koʻrsatadi. Shu sababli ham yoshlarni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish, ularning fuqarolik ongini shakllantirish

kerak. Buning uchun sharqona axloqiy qadriyatlar paradigmasidan foydalanish samarali bo‘ladi.

Axloqiy inqirozning oldini olish uchun oila, ta’lim muassasalari, davlat hamda jamiyatning hamkorligi zarurdir. Bu tizimlar alohida-alohida emas, balki bitta butun sifatida ishlashi kerak. Masalan, oila va maktab o‘rtasida muntazam aloqadorlik bo‘lishi, OAV esa axloqiy tarbiyaga xizmat qiluvchi kontent ishlab chiqarishi lozim. Davlat esa bu jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi qonuniy hamda moliyaviy mexanizmlarni ishlab chiqishi kerak. Yoshlarning axloqiy tarbiyasini mustahkamlashda milliy an’analarga tayanish ham muhimdir. O‘zbek xalqining “Hurmat - hayotning boshi”, “Mehnat - obro‘ning boshi” kabi dono iboralari bugungi kunda ham dolzarbdir. Ularni zamonaviy shaklda yoshlarga yetkazish orqali ularning milliy o‘zlik hissini mustahkamlash mumkin. Bunday yondashuv yoshlarni noto‘g‘ri ta’sirlardan himoya qiladi hamda ularning axloqiy barqarorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasida axloqiy inqiroz muammosi bu jamiyatning kelajagini belgilovchi strategik masaladir. Unga faqat alohida yondashish yetarli emas, balki tizimli, integratsiyalashgan yechimlar talab qilinadi. Oilaning tarbiyaviy rolini tiklash, ta’lim tizimini takomillashtirish, OAVning ijobiy potensialini qo‘llash hamda yoshlarni ijtimoiy-ma’naviy hayotga jalb qilish orqali bu muammoni hal qilish mumkin. Faqat shu yo‘l bilan yosh avlodni axloqiy jihatdan barqaror, kelajakka ishonch bilan qaraydigan fuqarolarga aylantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Musayev M. Missionerlik va prozelitizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi. Tashkent: “Mumtoz so‘z” baspası. Monografiya. 2021-jıl. 210 b.

2. G‘affarova G., Ibroximov F. Jamiyatning axborotlashuvi va mafkuraviy immunitet. Chirchiq: “Zebo Prints” baspası. Oqıw qollanba. 2024-jıl. 384 b.

3. Самаров Р. Хавфсизликнинг методологик асослари. – Тошкент: Akademiya, 2010;

4. Maksetova M.K. Jámiyet informaciyalasıwınıń filosofiyalıq tiykarları. Tashkent: “Innovatsion-Ziyo” baspası. Oqıw qollanba. 2022-jıl. 156 b.

YOSHLAR IDENTITET INQIROZI VA MILLIY MA’NAVIY DISKURS MUAMMOSI

Malikov Akrom Abduhamidovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv va zamonaviy axborot makoni sharoitida yoshlar orasida yuzaga kelayotgan identitet inqirozi hamda uning ijtimoiy-ma’naviy omillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlarning milliy o‘zligini anglash jarayoni, milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning shaxs kamolotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, milliy ma’naviy diskursni mustahkamlash orqali yoshlar ongida barqaror identitetni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada yoshlar ma’naviyati va milliy o‘zlikni saqlash masalalarining dolzarb jihatlari ilmiy asosda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: identitet, identitet inqirozi, yoshlar, milliy o‘zlik, milliy qadriyatlar, ma’naviy meros, milliy ma’naviy diskurs, globallashuv, ijtimoiy ong, ma’naviy tarbiya, madaniy identitet, g‘oyaviy barqarorlik.

Globallashuv jarayoni hamda raqamli kommunikatsiya makonining kengayishi zamonaviy yoshlar ongida identitetning parchalanishi va o‘zlikning ko‘p qatlamli shakllanishini kuchaytirmoqda. Kech zamonaviylik sharoitida shaxs o‘z identitetini doimiy ravishda qayta

qurishga majbur bo‘lib, bu jarayon an’anaviy ijtimoiy tayanchlarning zaiflashuvi bilan birga kechadi (3:5–7). Shu bilan birga, madaniy identitet qat’iy va o‘zgarmas hodisa emas, balki tarixiy xotira va diskursiv amaliyotlar orqali muntazam ravishda qayta yaratiladigan ijtimoiy konstruksiya sifatida namoyon bo‘ladi (4:222–225).

Milliy qadriyatlar tizimi bilan transmilliy madaniy oqimlar o‘rtasidagi diskursiv ziddiyat yoshlarning o‘zini anglash jarayonini murakkablashtirib, ularni virtual makonda shakllanayotgan performativ o‘zlik modellari tomon yo‘naltirmoqda. Bunday sharoitda tarixiy xotira va ramziy makonlar milliy identitetni saqlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi (6:7–12). Millat va milliy ongning o‘zi ham tasavvuriy hamjamiyat sifatida ijtimoiy-madaniy diskurslar orqali shakllanishi bois, yoshlar identitetidagi beqarorlikni milliy narrativlar zaiflashuvi bilan izohlash mumkin (1:36–44).

Shu nuqtayi nazardan, yoshlar identitet inqirozi nafaqat sotsiologik yoki psixologik hodisa, balki chuqur ijtimoiy-ma’naviy mazmunga ega diskursiv muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi yoshlar identitet inqirozini milliy ma’naviy diskurs doirasida tizimli tahlil qilish hamda nazariy-metodologik jihatdan asoslangan yechimlarni taklif etishdan iborat. Bunda zamonaviy yoshlar tadqiqotlarida ilgari surilgan empirik yondashuvlar ham identitet shakllanishining ijtimoiy kontekst bilan uzviy bog‘liqligini tasdiqlaydi (2:505; 7:1308).

Identitet muammosi avvalo shaxsning o‘zini anglash jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, u individual ong, ijtimoiy tajriba va qadriyatlar tizimining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Kech zamonaviylik sharoitida shaxsiy o‘zlik barqaror holat emas, balki doimiy refleksiya va qayta qurilish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi (3:2–54). Shu bilan birga, identitetning psixologik jihati insonning “men-kontsepsiyasi”, ijtimoiy rollarni qabul qilishi hamda ma’naviy yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon jamiyatdagi ramziy tizimlar orqali mustahkamlanadi (8:25–32).

Demak, falsafiy-psixologik nuqtayi nazardan identitet — bu shaxsning o‘z mavjudligini ma’nolantiruvchi **refleksiv o‘zlik modeli** bo‘lib, u qadriyatlar ierarxiyasi orqali barqarorlashadi.

Zamonaviy ijtimoiy makonda identitet shakllanishi globallashuv, migratsiya va ommaviy madaniyat jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Madaniy identitet tarixiy jihatdan berilgan qat’iy mohiyat emas, balki diskursiv amaliyotlar orqali shakllanuvchi dinamik konstruksiya hisoblanadi (4:224–227). Millat va milliy ongning o‘zi ham “tasavvuriy hamjamiyat” sifatida ijtimoiy kommunikatsiya vositalari orqali barpo etiladi 1:37–46).

Raqamli kommunikatsiya muhitining kengayishi natijasida esa “raqamli identitet” fenomeni yuzaga kelib, unda shaxs virtual makonda ko‘p qatlamli va performativ o‘zliklarni yaratish imkoniga ega bo‘ladi. Bu holat an’anaviy ijtimoiy identifikatsiya mexanizmlarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin (7:1325).

Shunday qilib, sotsiokulturni yondashuv identitetni **ijtimoiy diskurslar mahsuli** sifatida talqin qiladi.

Milliy identitetning barqarorligi tarixiy xotira, an’ana va diniy-axloqiy merosning uzviyligi bilan belgilanadi. Tarixiy xotira jamiyatning o‘zini anglashida muhim ramziy makon vazifasini bajarib, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy davomiylikni ta’minlaydi (6:7–13). Shu bois milliy o‘zlikni tiklash jarayoni nafaqat siyosiy yoki madaniy, balki chuqur ma’naviy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq tafakkurida, xususan tasavvufiy antropologiyada insonning komillikka intilishi o‘zlikni anglashning eng yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv identitetni axloqiy-ma’naviy kamolot bilan bog‘laydi hamda uni qadriyatlar tizimi orqali mustahkamlaydi (5:160–168).

Demak, milliy-ma’naviy yondashuv identitetni **tarixiy xotira va ma’naviy merosga tayanuvchi o‘zlik modeli** sifatida tushuntiradi.

Yoshlar identitet inqirozining zamonaviy ko‘rinishlari

A. Aniqlik belgilariga doir kuzatuvlar

1) Qadriyatlardagi beqarorlik

O‘zbek yoshlarining iqtisodiy va ijtimoiy stsenariylari bilan bog‘liq noaniqliklar yashash qadriyatlari va kelajak tasavvurlariga ta’sir qilmoqda. UNICEF milliy tadqiqotiga ko‘ra, 14–30 yoshdagi respondentlarning katta qismi (4 458 respondentdan olingan ma’lumot) o‘z kelajak rejalari va mehnat imkoniyatlariga nisbatan yuqori darajada tashvishda; NEET (not in

education, employment or training) ko‘rsatkichi 19–30 yosh oralig‘ida 54.6% ni tashkil etadi (11:5; NEET statistikasi). Bu iqtisodiy noaniqlik yoshlarning an’anaviy ma’naviy ustuvorliklarni ikkinchi o‘ringa surib, pragmatik (daromadga yo‘naltirilgan) qadriyatni kuchaytiradi (11:4–6). (Misol: NEET — yoshlarda milliy-madaniy anglashning pasayishi bilan bog‘liq stress va maqsadsizlikni kuchaytiradi.) (11:4–6).

2) Ma’naviy indifferentlik (ma’naviy befarqlik)

Maktab va maktabdan tashqari hayotiy sharoitlar sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashi kerak; ammo so‘nggi yillarda ruhiy salomatlik va ma’naviy yaxshi holat bo‘yicha o‘tkazilgan milliy tadqiqotlar adolatli tashvishga asos beradi. Masalan, maktab o‘quvchilarining ruhiy salomatligi haqida olib borilgan UNICEF/Vazirlik hamkorligi hisoboti maktab yoshlarida depressiv simptomlar va ijtimoiy izolyatsiya belgilarining sezilarli ekanligini ko‘rsatadi — bu esa ma’naviy faollikning susayishi bilan bog‘lanadi (12:31–34). Ruhiy salomatlik muammolari yoshlarning qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvini qiyinlashtiradi va ma’naviy indifferentlikni kuchaytiradi (12:31–34).

3) Virtual makonda “sun’iy o‘zlik” (performativ identitet) shakllanishi

Internet va ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalishi (2023: Internet foydalanuvchilari ≈ 89%, 2024: ≈ 92.7% — Milliy Statistika Agentligi) mahalliy yoshlarning onlayn xatti-harakatlarini keskin oshirdi (Stat.uz, 2024). UNICEF milliy tadqiqotida “Digital Life & the Internet” bo‘limi yoshlar internetni foydali deb bilish bilan birga, “yomon ta’sirlar”ga duch kelish” xavfi haqida ham bildirganini ko‘rsatadi; so‘rovda yoshlarning katta qismi internetdan kunlik foydalanadi (11:111–122). Bu imkoniyatlar bilan birga, qisqa formatli kontent (Telegram/Instagram postlari, Reels/Shorts kabi) chuqur tafakkur va tarixiy xotirani tiklash imkoniyatini pasaytiradi — natijada o‘zlikning performativ, “qisqa, ko‘zga tashlanadigan” versiyalari keng tarqaladi (11:111–122; Milliy Stat. 2024).

4) Tarixiy xotiradan uzoqlashish

Yoshlarning tarixiy xotira bilan aloqasi shahar-qishloq, jins va ta’lim darajasiga bog‘liq. UNICEF tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, qishloq joylarda ham madaniy axborotga kirish imkoniyati bor, lekin ta’lim sifatidagi, resurs

va imkoniyatlaridagi farq tarixiy-madaniy qadriyatlarga investitsiyani susaytiradi (11:34–36). Buning natijasida yoshlar orasida milliy merosga qiziqish individual “amaliy manfaat” bilan bog‘langan hollarda kamroq; ularni tarixiy xotiraga qaytarish uchun an’anaviy vositalar yetarli emas (11: 34–36).

B. Sabablar tahlili

1) Diskurslar to‘qnashuvi (milliy ↔ global)

Globallashuv va raqamli OAV yordamida tashqaridan kelayotgan madaniy andozalar va mahalliy an’analar o‘rtasida aniq to‘qnashuv mavjud. World Bank tahlili yoshlarning ishga oid aspiratsiyalari va maqsadlariga ta’sir etuvchi ko‘nikmalardagi nomuvofiqliklarini va iqtisodiy imkoniyatlar kontekstida bu to‘qnashuvni ko‘rsatadi – yoshlar global mehnat bozori ko‘nikmalariga intilayotgan paytda mahalliy ta’lim tizimi ularni tayyorlashda yetarli emas (13:16–20). Bu diskurs ziddiyati yoshlarning an’anaviy qadriyatlar (oilaviy, madaniy) bilan orasida o‘ziga xos ixtilof yaratadi va identitetda qarama-qarshiliklarni kuchaytiradi (13: 16–20).

2) Ma’naviy tarbiya mexanizmlarining zaiflashuvi

Rasmiy siyosatlar va ta’lim islohotlari amalga oshirilayotgan bo‘lsa ham, ma’naviy tarbiya (maktab, mahalla, oilaviy ritual va madaniy dasturlar)ning amaliy samaradorligini oshirish uchun tizimli yondashuvlar talab etiladi. UNICEF va Milliy ta’lim/ sog‘liq hisobotlari maktablarda psixologik va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari zarurligini ta’kidlaydi (12:31–34). Shuningdek, World Bankning yoshlar bandligini tahlil qilishidagi tavsiyalar ta’lim-mehnat integratsiyasini yaxshilashni ko‘rsatadi — bu esa ma’naviy tarbiya va iqtisodiy integratsiyani birlashtirish uchun zarur (13:16–18).

3) Axborot oqimining nazoratsizligi va kontentning “qisqa” formatga yo‘naltirilishi

Milliy va xalqaro tadqiqotlar O‘zbekiston auditoriyasida Telegram va qisqa kontent formatlarining keng tarqalishini qayd etadi; bunday kontent tez iste’mol qilinadi va chuqur kontekstni yo‘qotishi mumkin (11:111–122; Stat.uz, 2024). Gender digital bo‘linishi ham mavjud: qizlar va ayollarda internet kundalik foydalanish darajasi pastroq, bu esa ularning onlayn tarixiy va madaniy resurslarga kirishini cheklaydi (11:120).

UNDPning Gender Digital Divide tahlili ham bu masalani tasdiqlaydi (9:12–27). Natijada axborot maydonida nazoratsiz va qisqa formatli kontent yoshlarning identitetni chuqur emas, balki koʻproq performativ tarzda shakllanishiga olib keladi.

Xulosa qilish mumkinki, Oʻzbek jamiyatida yoshlar identitet inqirozi koʻp omilli va murakkab hodisa boʻlib, uning zamonaviy koʻrinishlari — qadriyatlardagi beqarorlik, ma’naviy indifferentlik, virtual makonda performativ “sun’iy oʻzlik” va tarixiy xotiradan uzilish — aniq statistik va empirik dalillar bilan tasdiqlanadi (11;13; Stat.uz, 2024; 12). Ushbu sabablarni ildizdan bartaraf etish uchun esa milliy ma’naviy diskursni qayta tiklash va zamonaviy kommunikatsiya kontekstida yangi tarbiya mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Bu esa milliy ma’naviy diskurs asosida metodologik yechim – konseptual, amaliy va diskursiv aspektlarda yechim berish ehtiyojini kun tartibiga qoʻyadi.

1. Konseptual yechim: milliy identitetni rekonstruksiya qilish modeli

Yoshlar identitet inqirozini bartaraf etish, avvalo, milliy identitetning konseptual asoslarini qayta tiklashni talab etadi. Zamonaviy sotsiologik yondashuvlarga koʻra, identitet tarixiy xotira, qadriyatlar tizimi va refleksiv oʻzlikning uzviy birligi sifatida shakllanadi (3:53–56). Shu nuqtayi nazardan, Oʻzbekiston sharoitida identitet rekonstruksiyasi uch tayanch unsurga asoslanadi:

a) Tarixiy xotira.

Tarixiy xotira milliy oʻzlikning ramziy poydevori boʻlib, jamiyatning oʻzini anglash jarayonini ta’minlaydi (6:7–13). Oʻzbek jamiyatida bu jarayon madaniy meros obyektlari, adabiy klassika va tarixiy shaxslar timsolida namoyon boʻladi. Davlat miqyosida madaniy merosni saqlash va targʻib qilishga qaratilgan siyosat yoshlarning tarixiy identifikatsiyasini mustahkamlash omili sifatida koʻriladi (10:18–22).

b) Qadriyatlar ierarxiyasi.

Ijtimoiy transformatsiya sharoitida qadriyatlar tizimining barqarorligi identitetning izchilligini belgilaydi. Empirik tadqiqotlar Oʻzbekistonda yoshlar uchun oila, ta’lim va ijtimoiy barqarorlik yetakchi qadriyatlar ekanini koʻrsatadi (11:24–27). Demak, milliy identitetni

rekonstruksiya qilish ushbu qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy diskurs bilan uyg‘unlashtirishni talab etadi.

c) Ma’naviy o‘zlikni anglash.

Sharq falsafiy-tasavvufiy tafakkurida insonning komillikka intilishi o‘zlikni anglashning eng yuqori bosqichi sifatida talqin qilinadi (5:165–168). Bu yondashuv O‘zbekiston sharoitida identitetni faqat ijtimoiy rol emas, balki **ma’naviy kamolot jarayoni** sifatida ko‘rish imkonini beradi.

2. Amaliy mexanizmlar: ijtimoiy institutlar darajasida yechimlar

a) Ta’lim diskursini ma’naviylashtirish

Ta’lim tizimi yoshlar identitetini shakllantiruvchi asosiy institut hisoblanadi. Jahon banki tahlillarida O‘zbekistonda ta’lim va mehnat bozori o‘rtasidagi nomuvofiqlik yoshlarning ijtimoiy o‘zini anglashiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi (13:16–20). Shu bois ta’lim mazmuniga milliy madaniyat va tarixiy tafakkur, axloqiy-ma’naviy kompetensiyalar, tanqidiy fikrlash va raqamli madaniyat integratsiyasi metodologik zarurat hisoblanadi.

b) OAVda milliy narrativlarni kuchaytirish

Raqamli media yoshlar ongiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi makondir. O‘zbekistonda internetdan foydalanish darajasi 2024-yilda 90 % dan oshgani yoshlar identiteti asosan media diskurs orqali shakllanayotganini ko‘rsatadi (Stat.uz, 2024). Shu sababli, milliy tarix va qahramonlar obrazini zamonaviy formatda talqin qilish, qisqa video va vizual kontentda ma’naviy g‘oyalarni yetkazish, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy identitet modellarini yaratish milliy diskursni kuchaytirishning muhim yo‘nalishidir.

c) Badiiy matn va merosni identitet vositasi sifatida faollashtirish

Adabiy meros milliy o‘zlikni uzluksiz yetkazuvchi semantik tizimdir. Klassik adabiyot va tarixiy manbalarni zamonaviy talqin qilish yoshlarning madaniy identifikatsiyasini kuchaytiradi (11:141–146).

O‘zbekiston sharoitida Navoiy merosining yangi media shakllarida talqini, teatr, kino va raqamli platformalarda tarixiy syujetlar, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini qo‘llab-quvvatlash identitetni mustahkamlovchi amaliy mexanizmlar sifatida namoyon bo‘ladi.

ZJV5401

3. Diskursiv yondashuv: qadriyatlar tilini tiklash va semantik maydonni kengaytirish

Identitet inqirozining chuqur sababi — **qadriyatlar tilining uzilishi**dir. Madaniy identitet diskurs orqali shakllanishi sababli, milliy semantik maydonni tiklash strategik ahamiyatga ega (4:225–227).

a) Qadriyatlar tilini tiklash

Bu jarayon ta’lim va OAVda milliy-axloqiy tushunchalarni faol qo‘llash, tarixiy terminologiyani zamonaviy semantika bilan uyg‘unlashtirish, ijtimoiy muloqotda ma’naviy kategoriyalarni kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

b) Milliy semantik maydonni kengaytirish

Globallashuv sharoitida milliy diskursni yopiq holda saqlash emas, balki uni universal qadriyatlar bilan dialogga kiritish zarur. Shu yo‘l bilan milliy identitet ochiq, moslashuvchan, barqaror tizimga aylanadi (8:66–73).

Mazkur tadqiqotda yoshlar identitet inqirozi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida emas, balki **milliy ma’naviy diskurs bilan uzviy bog‘liq kompleks ijtimoiy-madaniy muammo** sifatida talqin qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, globallashuv jarayonlari, raqamli kommunikatsiya makonining kengayishi hamda qadriyatlar tizimidagi transformatsiyalar yoshlar o‘zligini anglash mexanizmlarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Natijada identitetning parchalanishi, ma’naviy indifferentlik, virtual performativ o‘zlikning ustuvorligi va tarixiy xotiradan uzoqlashish kabi belgilar yuzaga kelmoqda.

Nazariy tahlil identitetning uch qatlamli tabiatini aniqladi:

1. **Falsafiy-psixologik qatlam** — refleksiv o‘zlik va qadriyatlar ierarxiyasi;
2. **Sotsiomadaniy qatlam** — globallashuv, ommaviy madaniyat va raqamli identitet;
3. **Milliy-ma’naviy qatlam** — tarixiy xotira, an’ana va axloqiy meros.

Aynan uchinchi qatlamning sustlashuvi O‘zbekiston jamiyatida yoshlar identitet inqirozining asosiy omillaridan biri ekani asoslandi.

Empirik ma’lumotlar va milliy statistika tahlili yoshlar bandligi muammolari, ruhiy-psixologik bosimlar, internet makonining keskin kengayishi hamda gender va hududiy tafovutlar identitet shakllanishiga

bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqladi. Bu holat milliy va global diskurslar o‘rtasidagi nomutanosiblikni kuchaytirib, yoshlarning ma’naviy tayanchlarini zaiflashtirmoqda.

Tadqiqot natijasida yoshlar identitet inqirozini bartaraf etishning **milliy ma’naviy diskursga asoslangan metodologik modeli** ishlab chiqildi. Ushbu model uch darajani qamrab oladi:

1. Konseptual daraja.

Milliy identitetni rekonstruksiya qilish tarixiy xotirani faollashtirish, qadriyatlar ierarxiyasini tiklash, ma’naviy o‘zlikni anglashni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

2. Institutsional-amaliy daraja.

Ta’lim mazmunini ma’naviy-madaniy komponentlar bilan boyitish, OAV va raqamli platformalarda milliy narrativlarni zamonaviy shaklda rivojlantirish, badiiy meros va klassik adabiyotni identitet shakllantiruvchi vosita sifatida faollashtirish yoshlar o‘zligini mustahkamlovchi asosiy mexanizmlar sifatida belgilandi.

3. Diskursiv daraja

Qadriyatlar tilini tiklash, milliy semantik maydonni kengaytirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida dialog yaratish identitet barqarorligini ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida asoslandi.

Ilmiy yangilik

1. Yoshlar identitet inqirozi **milliy ma’naviy diskursning sustlashuvi** bilan bog‘liq konseptual muammo sifatida yangi talqinda yoritildi.

2. O‘zbekiston kontekstida identitetni tiklashning **uch darajali metodologik modeli** ishlab chiqildi.

3. Raqamli makon sharoitida **diskursiv-ma’naviy yondashuv**ning ustuvorligi asoslab berildi.

Tadqiqot natijalari:

a) ta’lim siyosati va ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni takomillashtirishda;

b) yoshlar siyosati strategiyalarini ishlab chiqishda;

c) OAV va madaniy loyihalarda milliy identitetni mustahkamlashda ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, O‘zbekiston jamiyatida yoshlar identitet inqirozini bartaraf etish **milliy ma’naviy diskursni rekonstruksiya qilish**, uni zamonaviy ijtimoiy va raqamli makon bilan uyg‘unlashtirish orqali amalga oshishi mumkin. Aynan shu yo‘l yoshlarning barqaror o‘zligini shakllantirish, ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash hamda jamiyatning uzluksiz madaniy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, Benedict. *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism.* London – New York: Verso, 1991. — 224 sahifa.
2. Chittenden, T. *Digital dressing up: Modelling female teen identity in the discursive spaces of the fashion blogosphere.* **Journal of Youth Studies**, 13(4), 2010, 505–520.
3. Giddens, Anthony. *Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age.* Cambridge: Polity Press, 1991. — 256 sahifa.
4. Hall, Stuart. *Cultural Identity and Diaspora.* London: Lawrence & Wishart, 1990. — 16 sahifa.
5. Nasr, Seyyed Hossein. *Islamic Life and Thought.* Albany: State University of New York Press, 1987. — 279 sahifa.
6. Nora, Pierre. *Between Memory and History: Les Lieux de Mémoire.* Berkeley: University of California Press, 1989. — 18 sahifa.
7. Pangrazio, L. *Technologically situated: The tacit rules of platform participation.* **Journal of Youth Studies**, 22(10), 2019, 1308–1326.
8. Taylor, Charles. *Multiculturalism and the Politics of Recognition.* Princeton: Princeton University Press, 1994. — 112 sahifa.
9. UNDP Uzbekistan. *Gender Digital Divide Assessment: Uzbekistan.* Tashkent: United Nations Development Programme, 2023. — 60 sahifa.
10. UNESCO. *Cultural Heritage and Youth Engagement.* Paris: UNESCO Publishing, 2021. — 64 sahifa.
11. UNICEF. *The Youth of Uzbekistan: Challenges and Prospects.* Tashkent: UNICEF Uzbekistan, 2020. — 150 sahifa.

12. UNICEF; Ministry of Health; Ministry of Public Education (Uzbekistan). *Adolescents' Mental Health and Psychosocial Well-being at Schools.* Tashkent: UNICEF Uzbekistan, 2022. — 195 sahifa.
13. World Bank. *Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges.* Washington, DC: World Bank Publications, 2021. — 103 sahifa.
14. Smith, T., & Jones, L. *Social media and identity formation in adolescents: Longitudinal analysis.* **Journal of Youth Studies**, 21(8), 2018, 1014–1030.

TIZIMLI MUAMMO, MURAKKAB IJTIMOIY HODISA

Yakubov Sobirjon Salimovich,
RMMM huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada dunyoda islomofobiyaning kuchayish tendensiyasi Buyuk Britaniya misolida ko‘rsatilgan. Bu illat ko‘pmillatli davlat barqarorligiga nechog‘li salbiy ta'siri etishi ochib berilgan. Islomofobiyaga qarshi kurashda multikulturalizm va madaniyatlararo muloqot siyosatining o‘rni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar. Islomofobiya, multikulturalizm, etnik xilma-xillik, milliy o‘zlik, majburiy assimilyatsiya.

Hozirda dunyo miqyosida xavfli tendensiya – islomofobiya illatining kuchayishi kuzatilmoqda. Islomofobiya islom dini hamda musulmonlarga nisbatan qo‘rquv, dushmanlik va nafrat tuyg‘usidir. Uning zamirida diniy,

madaniy toqatsizlik, murosasizlik yotadi. Demak, u ksenofobiyaning bir turi hisoblanadi.

“Britannica” lug‘atiga ko‘ra, islomofobiyani aksilmusulmon irqchiligi deb hisoblash mumkin, negaki, islomofobiya keltiradigan salbiy oqibatlar irqchilik oqibatlariga juda ham o‘xshashdir [1].

Islomofobiya – islom dini hamda musulmonlarni tinchlik, barqarorlikka tahdid, zo‘ravonlik, terrorizm manbasi sifatida talqin qilish degani. Buyuk Britaniyadagi “The Runnymede Trust” tahlil markazi xulosasiga ko‘ra, islom dinini “yopiq va agressiv mafkura” sifatida noto‘g‘ri talqin qilinishi islomofobiyaning asosini tashkil etadi [2:4].

Sirasini aytganda, islomofobiya bu musulmonlarga va islom diniga nisbatan asossiz qo‘rquv, nafrat va kamsitish shakllarida namoyon bo‘luvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Tizimli va institutsional kamsitish deb ta’riflanadigan islomofobiya ko‘cha-ko‘ydagi mayda bezorilikdan tortib ishga qabul qilishdagi diskriminatsiyaga qadar – turli daraja va bo‘g‘inlarda namoyon bo‘ladi.

Yevropaning qudratli davlatlaridan biri sanalgan Buyuk Britaniyada ham islomofobiya kuchayib bormoqda. Bu hol, avvalo, G‘arb mamlakatlarida islom dini xususida tarixan shakllangan yanglish qarashlar bilan izohlanadi. G‘arb matbuoti hamda kino san’atida yillar mobaynida ilgari surilgan noxolis konsepsiya ham islom va musulmonlarga nisbatan salbiy rakursdagi qarashlar, stereotiplarning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

2001-yil 11-sentyabr voqealari, Iroq va Suriya hududida “Islom davlati” terrorchi guruhining faollashgani, Yevropa davlatlari, jumladan, Buyuk Britaniya hududida amalga oshirilgan teraktlar ham islomofobiya kayfiyatini avj oldirdi.

Marginal hisoblab kelingan o‘ta o‘ng qanotga mansub siyosiy partiya va harakatlar yaqin o‘n yilliklardan buyon Yevropa siyosatida tobora mustahkam o‘rin egallamoqda. Ksenofobik kayfiyatdagi chiqishlar, migrantlarga qarshi murosasiz ritorika, islomning nasroniy tamadduniga ekzistensial tahdid deb talqin etilishi va boshqa populistik bayonotlar jamiyatda parokandalik va tafriqani yanada kuchaytirmoqda.

Brexit hodisasidan keyin, ya’ni Buyuk Britaniya Yevropa Ittifoqi tarkibidan chiqqach (2020), milliy g‘ururning o‘sishi fonida “begona”larga nisbatan shubha kayfiyati ham ortdi.

So‘nggi chorak asrda Buyuk Britaniyaning demografik tarkibi keskin o‘zgarishga yuz tutmoqda. 2021-2022-yillarda aholini ro‘yxatga olish tadbirida qirollikda yashayotgan 10,7 million kishi (umumiy nufusning 16 foizi) xorijda tug‘ilgani ma’lum bo‘ldi. Ularning 4 million nafari Yevropa Ittifoqi, 6,8 millioni esa boshqa davlatlar vakillaridir [3].

An’anaviy ravishda xristian sivilizatsiyasini tamsil etgan mamlakat diniy xaritasi ham yangilanmoqda. Manchester universiteti tahlillariga qaraganda, Buyuk Britaniyada xristian diniga e’tiqod qiluvchi aholi 2001-2021-yillar oralig‘ida 37,3 million kishidan (72 foizdan) 26,2 million kishiga (46 foizga) kamaygan. Musulmonlar (1,5 milliondan 3,8 million nafarga), hinduviylar (0,5 milliondan 1 million nafarga) va biror dinga e’tiqod qilmaydiganlar (7,2 milliondan 20,7 million nafarga) ikki barobardan ziyodga ortgan [4].

Mamlakatda o‘zga til va boshqa din namoyandalarining ko‘payishi ingliz jamiyatida bezovtalik uyg‘otmoqda. Tadqiqotchilar Linda Vudhed va Rebekka Katto qayd etganidek, islomning jamiyatdagi eng faol diniy kuchga aylanishi an’anaviy qatlamda “demografik xavotir”ni yuzaga keltirib, “parallel hayot” tarzini (segregatsiya) kuchaytirmoqda [5:210].

Tell Mama tashkiloti hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda Buyuk Britaniyada musulmonlarga nafrat rekord darajaga yetdi. Shu yili tashkilot musulmonlarga nafrat bilan bog‘liq 6313 ta holatni ro‘yxatga oldi. Bu islomofobiyaga doir jinoyatlar 2023-yilga qaraganda 43 foizga ortganini bildiradi. Ayniqsa, Isroil va Falastin ziddiyati kuchaygach, musulmonlarni terrorchilar va terror tarafdorlari deb talqin qilish avj olgan. Musulmonlarga nafrat bilan bog‘liq huquqbuzarliklar haqorat, kamsitish, vandalizm va jismoniy zo‘ravonlik kabilarni o‘z ichiga oladi [6].

Parijdagi qonli qonli hujumlar ortidan (2015) Buyuk Britaniya poytaxtida turli ko‘rinishdagi hujumlarga uchragan musulmonlarning soni qariyb to‘rt barobarga ortgan. Londonlik islom diniga e’tiqod qiluvchi rejissyor Sabo Zamon diniy nafratga asoslangan hujum qurbonlaridan biri.

Uning aytishicha, metrodagi yo‘lovchilardan biri vagondan tushib ketarkan, uning yuziga tupurib, “ko‘ppak” deb haqorat qilgan [7].

Islomofobiyaning ortishi parokandalikka olib boruvchi jiddiy xatardir. Shunga ko‘ra Buyuk Britaniya parlamentining 40 dan ziyod a’zosi tomonidan mamlakat hukumatiga yo‘llangan murojaatnomani ogohlik qo‘ng‘irog‘i deb baholash mumkin. Murojaatnomada qonun chiqaruvchilar hukumatni “islomofobiya” istilohiga rasman ta’rif berish va musulmon jamoalarini himoya qilishga undagan. Ya’ni musulmonlarga nafratga asoslangan jinoyatlarga aniq rasmiy ta’rif berish orqali musulmonlarga qarshi diskriminatsiya, zo‘ravonlik va haqoratli munosabatlarni kamaytirish ko‘zda tutilgan. Gap shundaki, 2010-yilda qabul qilingan tenglik to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, islom diniy e’tiqod sifatida himoya etiladi, ammo musulmonlar irqiy guruh deya e’tirof etilmaydi, binobarin, ularga irqiy diskriminatsiyadan himoya tamoyili tatbiq etilmaydi.

“Afsuski, islomofobiya yil sayin o‘sib bormoqda va bu o‘ta salbiy oqibatlarga olib keladi. 2025-yilda diniy nafratga asoslangan jinoyatlarning 45 foizi musulmonlarga nisbatan sodir etilgan. Nafratga asoslangan, islomofobiya ruhidagi jinoyatlar 2023-yilga qaraganda 92 foizga ortgan”, deyiladi deputatlar murojaatnomasida [8].

Buyuk Britaniyada “islomofobiya” istilohiga rasman ta’rif berish bahslarga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, “islomofobiya” o‘rniga nisbatan betaraf “aksilmusulmon dushmanligi” degan atamani qo‘llash taklif etilmoqda. Ayrimlar islomofobiyaga rasman ta’rif berilishi ortidan so‘z erkinligi cheklanishi mumkin degan xavotirda. Ammo ko‘pchilik islomofobiyaga rasman ta’rif berilmasligi musulmonlarga qarshi guruhlarni rag‘batlantiradi deb hisoblaydi. “Islomga qarshi nafrat zamirida musulmonlarga nisbatan irqchilik munosabati yotadi. Buyuk Britaniya davlati islomofobiyani o‘z nomi bilan atashni ma’qul ko‘rmayotgan bir paytda musulmonlar misli ko‘rilmagan xavfga duch kelmoqda”, deb yozadi Ej Hill universiteti professori Jeyms Renton [9].

Buyuk Britaniyada o‘tgan asrning so‘nggi choragida multikulturalizm siyosati amalga tatbiq etilgan edi. Ushbu konsepsiya turli etnik va diniy guruhlarning o‘z madaniyati, dini hamda o‘zligini saqlagan holda jamiyatga qo‘shilishini (plyuralistik integratsiya) ko‘zda tutadi. Biroq so‘nggi

vaqtlarda bu model jiddiy tanqidga uchramoqda. Multikulturalizm muxoliflari fikricha, ushbu siyosiy ta’limot Buyuk Britaniyadagi turli etnik jamoalarni birlashtirish o‘rniga ularni bir-biridan ayro etnik anklavlarga bo‘lib qo‘ydi.

Tadqiqotchi Gabriel Maranchi islomofobiyaning kuchayishini multikulturalizm siyosatiga qarshi harakatning o‘sishi bilan izohlaydi. Islom transmadaniy jarayonlar orqali G‘arbga vayronkor ta’sir ko‘rsatadi degan da’vo mavjud. Shu ma’noda islomofobiya mohiyat e’tiboriga ko‘ra multikulturalizmdan qo‘rquvni ham ifodalaydi deb hisoblaydi u [10:116].

Taniqli olim Kristian Yoppke “Multikulturalizm o‘ldimi?” degan asarida Buyuk Britaniya hukumati betaraf hakam maqomidan voz kechib, muhojirlardan “fundamental ingliz qadriyatlari”ni qabul qilishni talab etayotganini yozgan. Bu esa bag‘rikenglik siyosatidan majburiy integratsiya yo‘liga o‘tilganini anglatadi [11:58–62].

Endilikda Buyuk Britaniya “interculturalism”, madaniyatlar o‘rtasida muloqot modelini taklif etmoqda. Bu yondashuv jamiyatni jipslashtirishga qaratilgan bo‘lsa-da, musulmon jamoalarida majburiy assimilyatsiya qo‘rquvini uyg‘otayotgani ham ayni haqiqat. Demak, ingliz jamiyati hozirda etnik xilma-xillik va milliy o‘zlik o‘rtasida muvozanat o‘rnatishga urinmoqda.

Ingliz jamiyati istiqbol yo‘lini belgilash ustida izlanayotgan bir pallada islomofobiyaga qarshi kurashni kuchaytirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Chunki bu illat mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni yuzaga keltirib qolmay, radikallashuv xavfini ham kuchaytiradi. Chunki islomofobiyaga qarshi zarur choralar ko‘rmaslik musulmonlarning jamiyatdan begonalashuviga olib keladi.

Buyuk Britaniya hukumati, avvalo, islomofobiyaning rasmiy ta’rifini qonunchilikka kiritishi maqsadga muvofiqdir. Turli din vakillari birgalikda qatnashadigan ijtimoiy va xayriya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va OAV kuchidan foydalanib, islom dini va musulmonlar haqidagi stereotiplarga barham berish ham davlat oldidagi vazifalar sirasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda, islomofobiya tizimli muammo bo‘lib, uni hal etish faqat xavfsizlik choralari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Multikulturalizmning kamchiliklarini inobatga olgan holda, jamiyatda

samimiy muloqot va iqtisodiy adolatni qaror toptirish barqarorlik va birdamlik kafolati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Britannica lug‘ati. https://www.britannica.com/topic/Islamophobia
2. Islamophobia: A Challenge for us all. The Runnymede Trust, 1997.
3. Migration statistics. House of Commons Library, 2025.
4. Counting on Everyone: Profiling the Christian population in England. 20.05.2025 // https://www.manchester.ac.uk/about/news/counting-on-everyone-profiling-the-christian-population-in-england/
5. Woodhead L., Catto R. Religion and change in modern Britain. Routledge, 2012.
6. Rawnsley J. Anti-Muslim hate at record level in UK, report says. 19.02.2025 // https://www.bbc.com/news/articles/clyjlx2e4l8o
7. Londonlik muslima: “Tupurib, ko‘ppaksan deyishdi”. 16.12.2015 // https://www.bbc.com/uzbek/world/2015/12/151216_cy_attacks_on_british_muslims_on_rise
8. MPs urge minister to adopt definition of Islamophobia amid rise in hate crime. 2.11.2025 // https://www.theguardian.com/news/2025/nov/02/mps-urge-minister-to-adopt-definition-of-islamophobia-amid-rise-in-hate
9. Renton J. Why is it that the UK government can’t define Islamophobia? 28.12.2025 // https://www.aljazeera.com/opinions/2025/12/28/why-is-it-that-the-uk-government-cant-define-islamophobia
10. Marranci G. Multiculturalism, Islam and the clash of civilisations theory: rethinking Islamophobia. // Culture and religion. An Interdisciplinary Journal, Volume 5, Issue 1, 2004.
11. Joppke C. Is Multiculturalism dead? Crisis and persistence in the constitutional state. Polity Press, 2017.

ZAMONAVIY G‘OYAVIY XURUJLAR SHAROITIDA HARBIY OILADA MILLIY QADRIYATLAR EVOLYUTSIYASI VA MAFKURAVIY BARQARORLIK

Ashirmatova Barno Saataliyevna
O‘zbekiston Respublikasi Milliy
Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar
boshqarmasi, harbiy xizmatchilar
va ularning oila a’zolari bilan
ishlash hamda psixologik
ta’minlash bo‘limi boshlig‘i,
podpolkovnik

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida harbiy oila institutida milliy qadriyatlarning evolyutsiyasi hamda mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash masalalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Globallashuv, axborot makonining kengayishi va turli mafkuraviy tahdidlar sharoitida harbiy oila nafaqat ijtimoiy institut, balki ma’naviy immunitetni shakllantiruvchi muhim tarbiyaviy muhit sifatida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: harbiy oila, milliy qadriyatlar, mafkuraviy barqarorlik, g‘oyaviy xurujlar, ma’naviy immunitet, vatanparvarlik, ijtimoiy transformatsiya, aksiologiya, milliy identiklik, tarbiyaviy muhit.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsion texnologiyalar inqilobi va geosiyosiy raqobatning murakkablashuvi bilan tavsiflanayotgan hozirgi tarixiy bosqichda g‘oyaviy xurujlar jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi strategik omilga aylandi. Axborot oqimlarining chegarasizligi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali ongga ta’sir mexanizmlarining kuchayishi natijasida mafkuraviy bosim shakllari yanada murakkablashmoqda. Endilikda g‘oyaviy xurujlar an’anaviy targ`ibot ko‘rinishida emas, balki madaniy ekspansiya, qadriyatlar relativizmi, identiklikni qayta talqin qilish va psixologik ta’sir texnologiyalari orqali namoyon bo‘lmoqda.

Harbiy oila ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ikki tomonlama funksiyani bajaradi. Birinchidan, u shaxsning ma’naviy kamoloti va axloqiy tarbiyasi shakllanadigan mikroijtimoiy makondir. Ikkinchidan, u davlat xavfsizligi va suverenitetining ma’naviy tayanchi sifatida xizmat qiladi. Harbiy xizmatchining oilaviy muhiti uning psixologik barqarorligi, xizmatga bo‘lgan motivatsiyasi va fuqarolik mas’uliyatini bevosita belgilaydi. Shu bois harbiy oila oddiy maishiy birlik emas, balki milliy mafkuraning uzviy uzatish mexanizmidir.

Milliy qadriyatlar aynan oilaviy muhit orqali avloddan-avlodga o‘tadi. Vatanparvarlik, tarixiy xotira, ajdodlar merosiga hurmat, burch va sadoqat kabi tushunchalar dastlab oilada shakllanadi. Harbiy oilada esa, bu jarayon yanada tizimli va ongli tus oladi, chunki xizmat sharoiti, intizomiy talablar va davlat manfaatlariga sodiqlik qadriyatlarning amaliy ifodasiga aylanadi. Zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida ushbu qadriyatlarning transformatsiyasi muqarrardir. Globallashuv milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasida yangi muvozanatni talab qiladi. Agar mazkur transformatsiya ongli ravishda boshqarilmasa, u qadriyatlar inqirozi va mafkuraviy bo‘shliqni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, harbiy oila muhitida bunday bo‘shliq davlat xavfsizligining ma’naviy asoslariga ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan xoli emas.

Shu bois zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida harbiy oilada milliy qadriyatlar evolyutsiyasi va mafkuraviy barqarorlik muammosini falsafiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifadir. Mazkur masala ontologik (harbiy oilaning ijtimoiy mavjudligi), aksiologik (qadriyatlar tizimi), normativ (axloqiy-intizomiy mezonlar) va gnoseologik (ma’rifiy ong va tanqidiy tafakkur) qatlamlar kesimida kompleks tadqiqotni talab etadi. Faqat shu holdagina harbiy oila muhitida ma’naviy immunitetni shakllantirish va mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashning nazariy asoslari ishlab chiqilishi mumkin.

Milliy qadriyatlar va mafkuraviy xavfsizlik muammosi zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda keng qamrovli va ko‘p qatlamli fenomen sifatida talqin qilinmoqda. Global transformatsiyalar, migratsiya jarayonlari, transmilliy madaniy oqimlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi sharoitida milliy identiklikning saqlanishi va

reproduksiyasi masalasi ilmiy diskursning markaziga chiqdi. Shu bois mazkur muammo ko‘pincha “madaniy identiklik”, “ma’naviy xavfsizlik”, “ijtimoiy kapital”, “normativ birdamlik” kabi tushunchalar orqali tahlil qilinadi[1].

Oila bu qadriyatlar reproduksiyasi amalga oshadigan birlamchi ijtimoiy makon bo‘lib, unda tarixiy xotira, til, urf-odat va axloqiy me’yorlar avloddan-avlodga o‘tadi. Ayniqsa, harbiy oila kontekstida bu jarayon yanada murakkab va mas’uliyatli tus oladi. Chunki harbiy xizmat sharoiti, intizomiy talablar va davlat manfaatlariga sadoqat qadriyatlarning amaliy ko‘rinishini belgilaydi. Biroq mavjud ilmiy adabiyotlarda harbiy oila muhitida milliy qadriyatlar evolyutsiyasini zamonaviy g‘oyaviy xurujlar kontekstida tizimli va kompleks tahlil qilish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Aksariyat tadqiqotlar umumiy oilaviy qadriyatlar yoki harbiy institutning mafkuraviy funksiyasiga qaratilgan bo‘lib, aynan harbiy oila mikroijtimoiy makonida qadriyatlar transformatsiyasi va mafkuraviy barqarorlik o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik chuqur ochib berilmagan. Harbiy oila jamiyatning oddiy ijtimoiy birligi emas, balki davlatchilik tizimining ma’naviy-ideologik va aksiologik poydevorini shakllantiruvchi alohida ijtimoiy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tabiati va funksiyalari falsafiy tahlil etilganda, harbiy oila ijtimoiy munosabatlar tizimida strategik ahamiyat kasb etuvchi mikroijtimoiy makon ekani oydinlashadi.

Avvalo, harbiy oila vatanparvarlik tarbiyasining ibtidoiy va barqaror institutidir. Bu yerda Vatan tushunchasi abstrakt g‘oya emas, balki kundalik hayot tajribasi, kasbiy burch va shaxsiy mas’uliyat orqali anglanadi. Harbiy xizmatning mazmuni davlat xavfsizligini ta’minlash, suverenitetni himoya qilish — oila muhitida qadriyat sifatida interiorizatsiya qilinadi, ya’ni shaxs ongiga singdiriladi. Shu ma’noda, harbiy oilada vatanparvarlik hissi irsiy emas, balki tarbiyaviy va ma’naviy mexanizmlar orqali shakllanadigan ijtimoiy sifatdir.

Ikkinchidan, harbiy oila intizom va mas’uliyat madaniyati shakllanadigan axloqiy makondir. Harbiy kasbning tabiati qat’iy tartib, burchga sadoqat va o‘z-o‘zini cheklash tamoyillariga asoslanadi. Bu tamoyillar oilaviy munosabatlarda ham namoyon bo‘lib, farzandlar ongida

tartib-intizom, vaqtinchalik qiyinchiliklarga chidamlilik, jamoaviylik va ierarxik munosabatlarga hurmat kabi sifatlarni rivojlantiradi. Falsafiy nuqtai nazardan, bu holat axloqiy ongning deontologik modeliga yaqinlashadi, ya’ni burch va mas’uliyat ustuvor qadriyat sifatida shakllanadi.

Uchinchidan, harbiy oila milliy va davlatchilik qadriyatlari mustahkamlanadigan aksiologik makondir. Bu yerda milliy an’analar, davlat ramzlariga hurmat, tarixiy xotira va jamoaviy o‘zlik hissi uyg‘unlashadi. Harbiy xizmatchi faoliyati orqali davlat g‘oyasi shaxsiy hayot bilan uzviy bog‘lanadi. Shu jihatdan, harbiy oila milliy o`zlikni reproduksiya qiluvchi ijtimoiy mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Falsafiy-ontologik tahlil nuqtai nazaridan, harbiy oila davlat suverenitetining mikroontologik asosi sifatida qaralishi mumkin. Davlat makrodarajadagi siyosiy-huquqiy tuzilma bo‘lsa, uning barqarorligi mikroijtimoiy tuzilmalarga, jumladan, oila institutiga tayanadi. Harbiy oila esa, mazkur tuzilmalar ichida strategik ahamiyatga ega bo‘lib, milliy xavfsizlik g‘oyasining ijtimoiy-psixologik asosini shakllantiradi. Agar ushbu muhitda mafkuraviy barqarorlik zaiflasha boshlasa, qadriyatlar eroziyasi yuz bersa yoki burch va mas’uliyat tuyg‘usi susaysa, bu holat bilvosita ravishda davlatning mudofaa qobiliyati va milliy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [2]. Shu nuqtai nazardan, harbiy oilani faqat ijtimoiy-demografik birlik sifatida emas, balki davlatchilikning ma’naviy-ontologik poydevori sifatida tadqiq etish zarur. Unda shakllanadigan qadriyatlar tizimi milliy suverenitet, jamiyat barqarorligi va strategik xavfsizlikning ichki resursini ta’minlaydi. Demak, harbiy oilaning mafkuraviy mustahkamligi davlat barqarorligining muhim omillaridan biridir.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda milliy qadriyatlar statik, o‘zgarmas hodisa sifatida emas, balki evolyutsion rivojlanish qonuniyatlariga bo‘ysunuvchi dinamik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Ular tarixiy xotira, ijtimoiy tajriba va global transformatsiyalar ta’sirida yangicha mazmun kasb etib boradi. Ayniqsa, harbiy oila muhitida ushbu jarayonlar yanada murakkab va ko‘p qatlamli shaklda kechadi, chunki bu institut bir vaqtning o‘zida milliy an’ana, davlat mafkurasi va zamonaviy

fuqarolik jamiyati tamoyillarini mujassamlashtiradi [3]. Harbiy oilada qadriyatlar transformatsiyasining birinchi yo‘nalishi an’anaviy vatanparvarlikning fuqarolik mas’uliyati bilan uyg‘unlashuvidir. Agar tarixiy jihatdan vatanparvarlik ko‘proq hissiy-sentimental va fidoyilik ruhida talqin etilgan bo‘lsa, bugungi kunda u ongli fuqarolik pozitsiyasi, huquq va majburiyatlar muvozanati, davlat va jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglash bilan boyimoqda. Bu jarayonda vatanparvarlik faqat harbiy xizmat bilan cheklanmay, balki ijtimoiy faollik, qonunlarga hurmat va jamoat manfaatlariga daxldorlik hissi orqali namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi transformatsion yo‘nalish itoat va intizom tushunchalarining huquqiy madaniyat bilan boyishidir. An’anaviy harbiy muhitda itoat ko‘proq buyruqqa so‘zsiz bo‘ysunish sifatida talqin etilgan bo‘lsa, zamonaviy demokratik-huquqiy davlat sharoitida u qonun ustuvorligini anglash, normativ-huquqiy me’yorlarga ongli ravishda amal qilish va shaxsiy javobgarlik bilan uyg‘unlashmoqda. Shu tariqa, intizom tashqi nazorat natijasi emas, balki ichki e’tiqod va huquqiy ong mahsuliga aylanadi. Bu esa harbiy oilada farzandlar tarbiyasida ongli intizom modelining shakllanishiga olib keladi.

Uchinchi yo‘nalish jamoaviylik qadriyatining individual ong bilan muvozanatlashuvidir. Harbiy oila an’anaviy ravishda kollektiv manfaatni ustuvor qo‘yuvchi ijtimoiy makon sifatida shakllangan. Biroq globallashuv va shaxsiy o‘zlikni anglash jarayonlari kuchaygan sari, individual tashabbus, shaxsiy fikr va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada jamoaviylik va individuallik o‘rtasida yangi muvozanat yuzaga kelmoqda. Bu muvozanat shaxsni jamiyatdan ajratmaydi, aksincha, uni ijtimoiy tizimning ongli va faol sub’ekti sifatida shakllantiradi. Mazkur transformatsiyalar dialektik xususiyatga ega. An’ana va modern o‘rtasidagi ziddiyat mutlaq inkor shaklida emas, balki sintez va uyg‘unlik orqali hal etiladi. Dialektik taraqqiyot tamoyiliga ko‘ra, yangi mazmun eski shaklni to‘liq rad etmaydi, balki uni qayta talqin qilib, yangicha sifat bosqichiga olib chiqadi. Agar ushbu uyg‘unlik buzilsa, ya’ni an’ana mutlaqlashtirilsa yoki modernlik tarixiy ildizlardan uzib qo‘yilsa, qadriyatlar inqirozi yuzaga keladi [4]. Bu esa, mafkuraviy beqarorlik, identiklik inqirozi va ijtimoiy dezorientatsiyaga

olib kelishi mumkin. Shu bois harbiy oila doirasida qadriyatlar evolyutsiyasini muvozanatli boshqarish, an’ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektik uyg‘unlikni saqlash milliy xavfsizlik, ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy taraqqiyotning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy g‘oyaviy xurujlar sharoitida harbiy oila nafaqat ijtimoiy, balki strategik mafkuraviy institut sifatida namoyon bo‘ladi. Milliy qadriyatlar evolyutsiyasi tabiiy jarayon bo‘lsa-da, uning yo‘nalishi ongli ravishda boshqarilishi lozim. Mafkuraviy barqarorlik — bu an’ana va modern uyg‘unligi, milliy qadriyatlar va huquqiy madaniyat integratsiyasi, ma’rifat va intizom birligi natijasidir. Demak, harbiy oilada milliy qadriyatlarni mustahkamlash davlat xavfsizligining ma’naviy strategiyasi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Huntington S. Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va yangi dunyo tartibi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 512 b.
2. G‘afforov A. Mafkuraviy immunitet asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2016. – 224 b.
3. Quronov M. Milliy tarbiya va qadriyatlar evolyutsiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 312 b.
4. Abdullayev O. Globallashuv va mafkuraviy tahdidlar. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 256 b.

ZJV5401 ZJV5401 ZJV5401 ZJV5401

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI G‘OYAVIY XURUJLARGA QARSHI KURASHISH: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TAJRIBASI

Saxatov Bekzod Kenjayevich,
Navoiy viloyat Ichki ishlar boshqarmasi
TKX KITEB xodimi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan g‘oyaviy xurujlarning mazmun-mohiyati, ularning jamiyat barqarorligiga ta’siri hamda ularga qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining o‘rni va amaliy tajribasi tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida axborot makonida xavfsizlikni ta’minlash masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Maqolada huquqiy asoslar, profilaktik choralar, kiberxavfsizlik mexanizmlari, shuningdek, fuqarolar bilan hamkorlikni kuchaytirish yo‘llari yoritilgan. Ichki ishlar organlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: g‘oyaviy xuruj, axborot xavfsizligi, ijtimoiy tarmoqlar, ichki ishlar organlari, kiberjinoyatchilik, profilaktika, raqamli xavfsizlik, ekstremizm, dezinformatsiya.

Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Xususan, Meta Platforms kompaniyasiga tegishli platformalar, Telegram messenjeri hamda YouTube orqali keng jamoatchilik tezkor axborot almashish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Biroq mazkur platformalarda turli buzg‘unchi g‘oyalar, ekstremistik chaqiriqlar, yolg‘on axborot va mafkuraviy tahdidlar ham tarqalmoqda. G‘oyaviy xurujlar bu muayyan ijtimoiy guruhlar yoki davlat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan axborot-psixologik ta’sir vositalaridir. Ular asosan yoshlar ongiga ta’sir etish, ularni radikal oqimlarga jalb qilish yoki jamiyatda ishonchsizlik muhitini shakllantirishni maqsad qiladi [1].

Hozirda kunda ijtimoiy tarmoqlarda uchrayotgan g‘oyaviy xurujlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Ekstremistik va terroristik targ‘ibot – noqonuniy tashkilotlar faoliyatini oqlash va targ‘ib qilish.

Dezinformatsiya va feyk xabarlar – yolg‘on ma’lumotlar orqali jamoatchilik fikrini chalg‘itish.

Millatlararo va diniy adovat qo‘zg‘atish – jamiyat barqarorligiga tahdid soluvchi holatlar.

Axborot-psixologik bosim – davlat organlariga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirish.

Bunday tahdidlar global miqyosda ham kuzatilmoqda[4]. Masalan, Interpol va BMT tashkilotlari tomonidan ham kiberjinoyatchilik va onlayn radikallashuv muammolari dolzarb xavf sifatida e’tirof etilgan[5].

Ichki ishlar organlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlardagi g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda: Bugungi kunda maxsus kiberjinoyatchilikka qarshi kurash bo‘linmalari tomonidan ijtimoiy tarmoqlarda monitoring olib boriladi, zararli axborot manbalari aniqlanadi. Ushbu holatlardan yoshlarni ogoh etish maqsadida yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va seminarlar tashkil etib kelinmoqda. Ta’lim muassasalari bilan hamkorlik kuchaytirildi. Shuningdek, transmilliy kiberjinoyatlar va radikal tarmoqlarga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar bilan samarali axborot almashinuvi mexanizmlari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu jarayon zamonaviy xavfsizlik arxitekturasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda kiberjinoyatchilik va onlayn radikallashuv milliy chegaralarni tan olmaydi. Zararli kontent bir davlat hududida yaratilishi, boshqa davlat serverlarida joylashtirilishi va uchinchi mamlakat fuqarolari orasida tarqatilishi mumkin. Shu bois, bunday tahdidlarga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik institutsional darajada yo‘lga qo‘yilishi zarur. Avvalo, Interpol doirasida tashkil etilgan global kommunikatsion tarmoq orqali a’zo davlatlar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi amalga oshiriladi. Xususan:

- qidiruvda bo‘lgan shaxslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- kiberjinoyatlarda qo‘llanilgan IP-manzillar va texnik identifikatorlar;

- zararli dasturiy ta’minot (malware) namunalariga oid ma’lumotlar;
- terroristik yoki ekstremistik kontent tarqatuvchi onlayn resurslar haqidagi axborotlar almashiladi [5]. Interpolning Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash dasturlari doirasida raqamli kriminalistika, elektron dalillarni yig‘ish va saqlash, shuningdek, blokcheyn va kriptoaktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash bo‘yicha metodik yordam ko‘rsatiladi.

Umuman olganda, transmilliy kiberjinoyatlar va radikal tarmoqlarga qarshi kurashish faqat milliy darajadagi choralar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Xalqaro tashkilotlar, xorijiy huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda global IT-kompaniyalar bilan institutsional va tizimli hamkorlikni mustahkamlash xavfsizlikni ta’minlashning eng muhim shartlaridan biridir[4].

Ijtimoiy tarmoqlardagi g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashish bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat va jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlar an’anaviy xavfsizlik tushunchasining doirasini kengaytirib, mafkuraviy, psixologik va kiberxavfsizlik omillarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Shu bois, mazkur muammo kompleks va tizimli yondashuv asosida hal etilishi lozim.

Ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshirilayotgan monitoring, tezkor-qidiruv tadbirlari, kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish mexanizmlari hamda profilaktik ishlari jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, zararli kontentni aniqlash, uning tarqalish kanallarini bloklash, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko‘rish axborot makonida huquqiy tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi [3].

Biroq g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurash faqat jazolash yoki cheklash choralariga tayanib qolmasligi kerak. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, mafkuraviy tahdidlarning oldini olishda profilaktika, ma’naviy-ma’rifiy ishlar va axborot madaniyatini yuksaltirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlar ongida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni soxta va manipulyativ axborotni ajrata olishga o‘rgatish [2] uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlovchi omildir.

Shu nuqtai nazardan, davlat organlari, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Ta’lim tizimida raqamli savodxonlikni oshirish, ota-onalar va pedagoglar uchun metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish samarali natija beradi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. Sun’iy intellekt asosida kontent monitoringi, katta ma’lumotlar (big data) tahlili va raqamli kriminalistika imkoniyatlaridan foydalanish ichki ishlar organlari faoliyatining samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi g‘oyaviy xurujlarga qarshi kurashish ko‘p bosqichli va uzluksiz jarayon bo‘lib, u huquqiy, tashkiliy, texnologik va ma’naviy choralarni uyg‘unlashtirishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda tizimli va hamkorlikka asoslangan faoliyatni davom ettirish jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va fuqarolarning axborot makonidagi himoyasini ta’minlashning muhim kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 173–180-betlar.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 245–250-betlar.
3. Abdullayev Q. Axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 112–128-betlar.
4. Interpol. Global Crime Trend Report. – Lyon, 2022. – 34–39-betlar.
5. BMT Countering the Use of Internet for Terrorist Purposes. – New York, 2020. – 15–22-betlar.

MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA JADIDLAR MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING AHAMIYATI

Ulug`bek Siddiqov
Buxoro davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy globallashuv jarayonlari sharoitida jamiyat mafkuraviy barqarorligini ta’minlash va mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidchilik harakatining ma’rifatparvarlik g‘oyalari, ularning ijtimoiy-falsafiy mazmuni hamda zamonaviy mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashdagi ahamiyati o‘rganiladi. Behbudiy, Avloniy, Fitrat kabi jadid mutafakkirlarining ta’lim, milliy ong va ma’naviy uyg‘onish haqidagi qarashlari asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: mafkuraviy immunitet, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy ong, g‘oyaviy xavfsizlik, ma’naviy qadriyatlar, globallashuv.

XXI asr globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda madaniyatlararo aloqalarning kengayishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda jamiyatning ma’naviy va mafkuraviy barqarorligini ta’minlash dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolardan biriga aylanmoqda. Zamonaviy axborot makonida turli g‘oyaviy ta’sirlar, ideologik manipulyatsiyalar va madaniy ekspansiya holatlari ko‘payib borayotgani jamiyatning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mafkuraviy immunitet tushunchasi shaxs va jamiyatning zararli yoki buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi turish qobiliyatini anglatadi. Bu immunitet insonning tanqidiy fikrlashi, milliy qadriyatlarga sodiqligi, tarixiy xotira va ma’naviy merosga tayanishi orqali shakllanadi [4].

O‘zbekiston tarixida ma’rifat, milliy uyg‘onish va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan muhim harakatlardan biri jadidchilik harakatidir.

Jadidlar millat taraqqiyoti uchun ma’rifat, ilm-fan va zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish zarurligini ta’kidlaganlar. Ularning qarashlari bugungi kunda ham jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan ijtimoiy-madaniy uyg‘onish harakatidir [5]. Bu harakat vakillari jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida ta’lim va ma’rifatni ko‘rganlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, Turkiston ijtimoiy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallagan ma’rifatparvar ziyolilardan sanaladi. U millat taraqqiyoti, avvalo, ilm-fan va ta’lim tizimining rivoji bilan bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlab, zamonaviy bilimlarga asoslangan ta’lim tizimini shakllantirish zarurligini ilgari surgan. Behbudiy nazarida jamiyat taraqqiyotining eng katta to‘siqlaridan biri — jaholat, savodsizlik va ijtimoiy passivlik bo‘lib, bu holat millatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli u ilm va ma’rifatni jamiyatni yangilashning eng muhim omili sifatida baholagan [2].

Behbudiy o‘zining publitsistik maqolalari, pedagogik faoliyati hamda jamoatchilik tashabbuslari orqali Turkiston jamiyatida ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilgan. U eski maktab tizimining zamonaviy hayot talablariga javob bermasligini ko‘rsatib, yangi pedagogik yondashuvlarga asoslangan “usuli jadid” maktablarini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Bu maktablarda o‘quv jarayoni an’anaviy diniy ta’lim bilan cheklanib qolmasdan, matematika, geografiya, tarix, tabiiy fanlar kabi dunyoviy bilimlarni ham o‘qitish nazarda tutilgan edi. Bunday yondashuv yosh avlodning keng dunyoqarashga ega bo‘lishi, zamonaviy ilmiy tafakkurini rivojlantirish hamda milliy o‘zlikni anglash jarayonini kuchaytirishga xizmat qilgan. Shuningdek, Behbudiy ta’limni milliy uyg‘onish va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida talqin qilgan. Uning fikricha, ma’rifatli jamiyatgina milliy mustaqillik, ijtimoiy adolat va madaniy taraqqiyotga erisha oladi. Shu sababli u maktab va maorif tizimini isloh qilishni millat kelajagini belgilovchi strategik vazifa sifatida ko‘rgan. Behbudiy tomonidan ilgari surilgan ushbu g‘oyalar nafaqat o‘z davrida, balki

zamonaviy jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlash, yosh avlodning ma’naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirish hamda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash jarayonida ham muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniy jadidchilik harakatining eng muhim namoyandalaridan biri bo‘lib, u ma’rifatparvar pedagog, adib va jamoat arbobi sifatida Turkiston ijtimoiy-ma’naviy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Jadid mutafakkiri sifatida Avloniy jamiyat taraqqiyoti masalasini, avvalo, inson tarbiyasi va ma’naviy kamoloti bilan bog‘lab talqin qilgan. Uning fikricha, millatning kelajagi, uning madaniy va ijtimoiy rivoji bevosita yosh avlodning qanday ruhda tarbiyalanishiga bog‘liq. Shu sababli u tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratib, uni jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida baholaydi. Avloniy pedagogik qarashlarida tarbiyani faqat shaxsiy kamolot jarayoni sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida talqin qiladi. U yosh avlodni ilmli, vatanparvar, axloqan barkamol qilib tarbiyalash millatning tarixiy taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil ekanligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan u ta’lim va tarbiya jarayonini milliy uyg‘onish va ijtimoiy yangilanish bilan chambarchas bog‘laydi [1].

Abdulla Avloniy o‘zining mashhur “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida tarbiya masalasining naqadar muhimligini quyidagi mashhur fikr orqali ifodalaydi: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir”. Mazkur fikr tarbiyaning jamiyat hayotidagi beqiyos ahamiyatini chuqur falsafiy mazmunda ifodalaydi. Avloniy bu orqali tarbiya faqat shaxsning axloqiy kamolotiga xizmat qiluvchi jarayon emas, balki butun jamiyatning ma’naviy istiqbolini belgilovchi strategik omil ekanligini ko‘rsatadi. Uning qarashlarida tarbiya millatning madaniy taraqqiyoti, ma’naviy uyg‘onishi va ijtimoiy barqarorligining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Avloniy ta’lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va ma’naviy merosni yosh avlod ongiga singdirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ma’naviy tarbiya insonda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantiradi, milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiradi va jamiyatning axloqiy barqarorligini mustahkamlaydi. Shu

sababli Avloniy pedagogik qarashlarida axloqiy tarbiya, ma’rifat va milliy qadriyatlar uyg‘unligi muhim o‘rin egallaydi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan qaralganda ham Avloniy ilgari surgan tarbiya konsepsiyasi jamiyatning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ma’naviy jihatdan barkamol, tanqidiy fikrlashga ega va milliy qadriyatlarga sodiq shaxslar jamiyatni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoya qiluvchi muhim ijtimoiy qatlamni tashkil etadi. Shu bois Avloniy merosi bugungi kunda ham yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash, jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlash hamda milliy qadriyatlarni asrash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdurauf Fitrat jadidchilik harakatining eng yirik nazariyotchilaridan biri bo‘lib, Turkiston ijtimoiy-falsafiy tafakkurida muhim o‘rin egallagan ma’rifatparvar mutafakkir hisoblanadi. U o‘zining ilmiy, publitsistik va badiiy asarlarida millat taraqqiyoti, ma’naviy uyg‘onish va ijtimoiy yangilanish masalalarini chuqur tahlil qilgan. Fitrat jadidchilik harakatining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan milliy uyg‘onish konsepsiyasini rivojlantirib, jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ma’naviy erkinlik, ilm-fan rivoji va milliy ongning shakllanishini alohida ta’kidlagan [3].

Fitratning fikricha, har qanday millatning taraqqiyoti, avvalo, uning ma’naviy va intellektual salohiyatiga bog‘liq. Agar jamiyatda ilm-fan rivojlanmasa, ma’rifat darajasi past bo‘lsa va milliy ong yetarli shakllanmagan bo‘lsa, bunday jamiyat ijtimoiy taraqqiyot jarayonida orqada qolishi muqarrar. Shu sababli Fitrat milliy ongni rivojlantirishni jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida ko‘rsatadi. Uning qarashlarida milliy ong nafaqat millatning tarixiy xotirasini saqlash, balki uning kelajak taraqqiyotini belgilovchi muhim ma’naviy kuch sifatida talqin qilinadi.

Fitrat asarlarida ma’rifat va milliy o‘zlikni anglash g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. U millatning ijtimoiy uyg‘onishi uchun, eng avvalo, xalqning o‘z tarixini, madaniyatini va milliy qadriyatlarini anglab yetishi zarurligini ta’kidlaydi. Fitrat nazarida milliy o‘zlikni anglash jarayoni ma’rifat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, aynan ilm-fan va ta’lim orqali

jamiyatda yangi dunyoqarash shakllanadi. Shuningdek, Fitrat mustamlakachilik sharoitida milliy ongni uyg‘otish masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Uning fikricha, mustamlakachilik siyosati nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy bosim orqali, balki millatning ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatish orqali ham amalga oshiriladi. Shu sababli millatning ma’naviy mustaqilligi va ma’rifiy rivoji uning tarixiy istiqbolini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Fitrat o‘z asarlarida xalqni jaholat va loqaydlikdan chiqishga, ilm-fan va ma’rifat orqali milliy uyg‘onish sari intilishga da’vat etgan [4].

Fitratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari zamonaviy davrda ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Chunki uning ilgari surgan g‘oyalari jamiyatning ma’naviy barqarorligini mustahkamlash, milliy ongni rivojlantirish va yosh avlodni ma’rifat ruhida tarbiyalash jarayonida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy g‘oyaviy tahdidlar va mafkuraviy xurujlar kuchayib borayotgan sharoitda Fitratning ma’rifat, milliy o‘zlik va ma’naviy mustaqillik haqidagi qarashlari jamiyatning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, Fitrat merosi nafaqat tarixiy-ma’rifiy hodisa, balki zamonaviy jamiyatning ma’naviy taraqqiyoti va mafkuraviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy-falsafiy manba sifatida ham e’tirof etilishi maqsadga muvofiqdir.

Mafkuraviy immunitetning shakllanishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi: ta’lim tizimi, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira. Jadidlar aynan shu omillarni millat taraqqiyotining asosiy sharti sifatida ko‘rganlar. Zamonaviy jamiyatda ham ta’lim tizimi mafkuraviy immunitetni shakllantirishning muhim mexanizmlaridan biridir.

Jadidchilik merosi bugungi kunda quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi: ma’rifatli jamiyatni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash. Jadidlar ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 1999.
3. Fitrat A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
4. Qosimov B. Jadidchilik va ma’naviy tarbiya muammolari. — Toshkent: Fan, 2006. — B. 88–93.
5. Qosimov B. Jadidchilik harakati va milliy uyg‘onish. — Toshkent: Fan, 2004. — B. 41–46.

AHOLINING MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASHDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINING O‘RNI

Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o‘g‘**li**
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
Guliston davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada aholining, xususan yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda vatanparvarlik tuyg‘usining psixologik mexanizmlari va o‘rni tahlil qilingan. Bunda vatanparvarlik tuyg‘usining kognitiv, affektiv va xulq-atvor komponentlari mafkuraviy immunitet bilan bog‘liq holda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: mafkuraviy immunitet, vatanparvarlik tuyg‘usi, milliy o‘zlikni anglash, psixologik himoya, qadriyatlar yo‘nalishi, ijtimoiy identifikatsiya, axborot xuruji, buzg‘unchi mafkuralar.

Zamonaviy dunyoda globallashuv jarayonlarining kuchayishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi turli mafkuraviy ta’sirlarning chegaralarını deyarli yo‘qqa chiqardi. Bugungi

kunda dunyoning turli mintaqalarida etnik kelib chiqish, milliy o‘z-o‘zini anglashga intilishning o‘sishi, shu bilan birga umuminsoniy va demokratiya niqobida turli yot, buzg‘unchi g‘oyalar hamda qadriyatlarni ijtimoiy ong tarkibiga joylashtirishga urinishlar faollashmoqda. Bu holat aholining, ayniqsa yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasini eng dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi. O‘zbekistonda ham yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularda sog‘lom dunyoqarash va mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida *“Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”*, - deb qat’iy ta’kidlab o‘tgan [1]. 2024-yil 12-yanvardagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida esa Prezidentimiz yoshlarni turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, ularda vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirish zarurligini alohida qayd etdi [2].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, hozirgi murakkab geosiyosiy sharoitda aholining, ayniqsa yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda vatanparvarlik tuyg‘usining psixologik mexanizmlarini ilmiy asosda o‘rganish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. Chunki vatanparvarlik nafaqat hissiy munosabat, balki shaxsning mafkuraviy barqarorligini ta’minlovchi muhim psixologik resursdir. Globallashuv va axborot xurujlari kuchaygan hozirgi davrda mafkuraviy immunitet shaxsning turli buzg‘unchi g‘oyalar, yot mafkuralar va manipulyativ ta’sirlarga qarshi tura olish qobiliyati sifatida vatanparvarlik himoya tizimining asosiy komponenti bo‘lib, shaxsning o‘zligini anglash, milliy qadriyatlarga sodiqlik va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z ichiga oladi.

“Mafkuraviy immunitet” tushunchasi so‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llanilmoqda. Bu atama tibbiyotdagi “immunitet” tushunchasidan olingan bo‘lib, shaxsning turli yot g‘oyalar, buzg‘unchi

mafkuralar va manipulyativ ta’sirlarga qarshi tura olish qobiliyatini ifodalaydi. Mafkuraviy immunitet shaxsning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va ijtimoiy identifikatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Vatanparvarlik va mafkuraviy immunitet o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishda bir qator psixologik nazariyalar muhim ahamiyat kasb etadi. H.Tajfel, J.Ternerlarning *ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi* bo‘yicha, shaxsning o‘z guruhi, millati, xalqi bilan identifikatsiyalashuvi uning qadriyatlar tizimi va dunyoqarashining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi [3]. Kuchli milliy identifikatsiya shaxsni o‘z guruhiga qarshi qaratilgan mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan barqaror qiladi. *Xulq-atvor immuniteti gipotezasi* esa bo‘yicha, odamlarda evolyutsion tarzda shakllangan psixologik himoya mexanizmlari mavjud bo‘lib, ular nafaqat biologik, balki ijtimoiy tahdidlarga ham nisbatan “oldini olish” reaksiyasini ishga soladi. Bu nazariyaga ko‘ra, vatanparvarlik tuyg‘usi milliy-madaniy tahdidlarga qarshi psixologik himoya vazifasini o‘tashi mumkin. G.Markus *affektiv intellekt nazariyasida* hissiyotlarning shaxsning ijtimoiy mo‘ljal olishidagi rolini tushuntiradi [4]. Vatanparvarlik bilan bog‘liq ijobiy hissiyotlar - g‘urur, faxr, muhabbat shaxsning mafkuraviy barqarorligini ta’minlaydi. S.Wamsler tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy identifikatsiya va pandemiya tahdidi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan [5]. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tahdid darajasi yuqori bo‘lgan fuqarolarda milliy chegaralarga nisbatan “inklyuziv” - qamrab oluvchi emas, balki “eksklyuziv” cheklovchi munosabat shakllanadi. Bu esa vatanparvarlik tuyg‘usining himoya mexanizmi sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar, shuningdek, nisbiy mahrumlik hissi millatchilik va konstruktiv vatanparvarlikka turlicha ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. O‘z guruhini nisbatan mahrum deb hisoblovchi shaxslarda millatchilik darajasi yuqori, konstruktiv vatanparvarlik esa past bo‘ladi.

Mahalliy olimlar o‘z tadqiqotlarida globallashuv sharoitida aholining keng qatlamlarida, ayniqsa yoshlarda milliy g‘oyaga sodiqlik, vatanparvarlik tuyg‘ularini, yuksak ma’naviy-axloqiy qarashlarni tarbiyalashning, ularda mafkuraviy-ma’naviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligini asoslab bergan. Psixologiyada vatanparvarlik murakkab ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida o‘rganiladi.

Vatanparvarlik tuyg‘usi insondan, jamiyatdan o‘zlikni anglash, ya’ni vatan manfaatlari yo‘lida tinmay xizmat qilishni, uning ehtiyojlarini sezib turishni talab qiladi. Bu tuyg‘u insonning ruhiy jarayonlari bilan bog‘liqligi tufayli undan hissiy e’tiborni talab qiladi.

Vatanparvarlik tuyg‘usining psixologik tuzilishida uchta asosiy komponent ajratiladi: **kognitiv komponent** - Vatan haqidagi bilimlar, tasavvurlar, tushunchalar tizimi, **affektiv komponent** - Vatanga nisbatan hissiy munosabat, muhabbat, sadoqat, g‘urur tuyg‘ulari, **xulq-atvor komponenti** - Vatan manfaatlari yo‘lida faoliyat ko‘rsatish, fuqarolik mas’uliyatilardir. Shuningdek, yosh o‘zbek tadqiqotchilaridan N.Sh.Xudoynazarova yoshlar ruhiyatiga ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning ta’siri va uning psixologik fenomenlarini, Z.Roziqov esa o‘quvchi shaxsini rivojlantirishda vatanparvarlik tarbiyasining dolzarb masalalarini o‘rgangan va tahlil qilgan. Ularning fikricha, vatanparvarlik tuyg‘ularining manbalari oila, maktab va jamiyatdagi tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tahdidlardan himoya mexanizmi sifatida o‘rganilgan tadqiqotda millatlar qadriyatlari tizimiga, shaxs qadriyatlari yo‘nalishi hamda fuqarolik pozitsiyasiga tahdidlar ortib borayotgan hozirgi sharoitda vatanparvarlikni milliy psixologik qiyofaning muhim sifati sifatida talqin qiladi [5]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “mafkuraviy immunitet” atamasi bilan bir qatorda “ma’naviy immunitet”, “g‘oyaviy immunitet”, “psixologik himoya” kabi tushunchalar ham qo‘llaniladi. “Vatanparvarlik” tushunchasi esa “milliy g‘urur”, “fuqarolik identifikatsiyasi”, “vatanga sadoqat”, “o‘zlikni anglash” kabi tushunchalar bilan uzviy bog‘liq.

Xorijiy va mahalliy adabiyotlarni tahlil qilishda olingan ma‘lumotlar vatanparvarlik tuyg‘usi va mafkuraviy immunitet o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Bu bog‘liqlikni bir qancha psixologik mexanizmlar bilan izohlash mumkin.

Birinchidan, vatanparvarlik tuyg‘usi shaxsning “Biz” va “Ular” tushunchalarini aniq ajratishiga yordam beradi. Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasiga ko‘ra, shaxs o‘z guruhini boshqa guruhlardan farqlash orqali o‘zligini anglaydi va himoya qiladi. Kuchli vatanparvarlik tuyg‘usiga ega bo‘lgan shaxs o‘z milliy guruhiga qarshi qaratilgan mafkuraviy ta’sirlarni

avtomatik ravishda “begona” va “xavfli” deb baholaydi, bu esa mafkuraviy immunitetning dastlabki bosqichidir.

Ikkinchidan, vatanparvarlik shaxsning qadriyatlar tizimining barqarorligini ta’minlaydi. Ushbu yo‘nalishda o‘tkazilgan tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra, yuqori vatanparvarlik darajasiga ega respondentlarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarga sodiqlik kuchli bo‘lib, bu ularni turli begona mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan “emlangan” qiladi.

Uchinchidan, vatanparvarlik tuyg‘usi bilan bog‘liq ijobiy hissiyotlar – g‘urur, faxr, muhabbat shaxsning umumiy psixologik barqarorligini oshiradi. Ijobiy hissiyotlar shaxsning yangi ma’lumotlarni qayta ishlash va baholash jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa mafkuraviy immunitetning asosiy komponenti bo‘lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Psixologiyada hissiy munosabat kognitiv bilimlardan ko‘ra barqarorroq va shaxsning chuqur psixologik tuzilmalari bilan bog‘liq. Hissiy darajada shakllangan vatanparvarlikni turli manipulyativ ta’sirlar bilan o‘zgartirish ancha qiyin. Shuningdek, vatanparvarlik hissi har doim ham faol fuqarolik pozitsiyasi va vatan manfaatlari yo‘lida amaliy harakatlarga aylanavermaydi. Shu bois, vatanparvarlik tarbiyasida hissiy va kognitiv komponentlar bilan bir qatorda amaliy faoliyatga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonda mafkuraviy immunitetning rivojida yosh davrlarining ham ahamiyati mavjud. Yosh o‘sishi bilan mafkuraviy immunitetning oshishi, ehtimol, hayotiy tajriba, bilimlar zahirasi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu esa yoshlar bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish, ularga mo‘ljallangan maxsus dasturlar ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazadigan yoshlarda mafkuraviy immunitet ko‘rsatkichlarining pastligi, bu platformalarda tarqalayotgan turli xil manipulyativ kontent, “feyk” (haqiqatga zid) axborotlar va mafkuraviy xurujlarning faolligi bilan izohlanadi. Zararli yot g‘oyalar ta’siriga berilmaslik uchun faqat ilm va ma’rifat orqali komil insonni tarbiyalash zarur. Yoshlarni radikalizm, terrorizm, ekstremizm, soxta da’volar, g‘arazli da’vatlar, axborot xurujlari, mafkuraviy tazyiqlar, ommaviy madaniyat ta’siridan himoyalash

maqsadida ularda vatanparvarlik, sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega [7].

Vatanparvarlik tuyg‘usi mafkuraviy immunitetning muhim psixologik asosi hisoblanadi. Yuqori vatanparvarlik darajasiga ega bo‘lgan shaxslarda mafkuraviy immunitet ko‘rsatkichlari ham sezilarli darajada yuqori bo‘lishi vatanparvarlik tuyg‘usining shaxsning qadriyatlar tizimi, milliy identifikatsiya va hissiy barqarorlik bilan uzviy aloqadorligidan kelib chiqadi. Vatanga nisbatan chuqur hissiy munosabat, muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqaror psixologik himoyani ta’minlaydi.

Axborot madaniyati ham mafkuraviy immunitetning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadigan yoshlarda mafkuraviy immunitet pastligi, ularda axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarbligini ko‘rsatadi. **Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash alohida yondashuvni talab qiladi.** Yosh avlod vakillari mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan ko‘proq moyil ekanligi sababli, ular bilan ishlashda yosh xususiyatlarini hisobga oluvchi, interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan dasturlar ishlab chiqish zarur.

Vatanparvarlik tarbiyasi tizimli va uzluksiz bo‘lishi kerak. Vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish oila, ta’lim muassasalari, mahalla va butun jamiyatning hamkorligida amalga oshirilishi lozim. Sharq xalqlari, jumladan O‘zbekiston hududida tarbiya masalasi hayotning iqtisodiy omillaridan ustun qo‘yiladi. Buning zamirida insonlarning iqtisodiy ehtiyojlaridan ko‘ra ma’naviy ehtiyojlarini qondirish masalasi ustun ekanligi namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda milliy qadriyatlar, tarix va madaniyatga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi xulosalarimizga ko‘ra, ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladigan, psixologik mexanizmlariga asoslangan maxsus dasturlarni joriy etish, yoshlarning axborot iste’moli madaniyatini oshirishga qaratilgan treninglar tashkil etish, ijtimoiy tarmoqlarda vatanparvarlik mazmunidagi ijobiy kontentni ko‘paytirish, mafkuraviy immunitetni diagnostika qilish va monitoring qilish tizimini yaratish, oila, maktab va jamoat tashkilotlarining

vatanparvarlik tarbiyasi borasidagi hamkorligini kuchaytirish kabi ilmiy-amaliy tavsiyalar yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. Prezidentning 2023-yil 22-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi.

3. Tajfel, Turner. ocial Identity theory in psychology. 1979.

4. Marcus, G. F. Kluge: The Haphazard Construction of the Human Mind. Houghton Mifflin. 2008

5. Wamsler, S. The Social Integration Framework and National Identity: Relative Deprivation, Social Trust and Pandemic Threat. *University of Bern*, 1-215. 2022.

6. Xaydaraliyev A.U. Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi tahdidlardan himoya mexanizmi shakli. *Qo‘qon DPI. Ilmiy Xabarlar Jurnali*, 5(6-B), 65-68. 2025.

7. O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi. Yoshlar radikallashuviga ta’sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillar. *IIAU.UZ*. 2025, 10-dekabr.

ZAMONAVIY AXBOROT MUHITIDA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETNING ZARURATI

Nasridinov Faxriddin Xalmamatovich -
O‘zbekiston Milliy universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy axborot muhiti sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va uni kuchaytirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Globallashuv va raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida axborot makonida turli g‘oyaviy ta’sirlar, dezinformatsiya va yot mafkuralar tarqalishi ortib borayotgani yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi yoritiladi. Maqolada ta’lim tizimi, oila, jamoatchilik va ma’naviy-ma’rifiy institutlarning bu jarayondagi o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: axborot muhiti, axborot makoni, axborot oqimlari, globallashuv, mafkuraviy immunitet, milliy kontent, yoshlar, ong, omillar

Bugun jamiyat taraqqiyotida mafkuraviy immunitetning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki globallashuv sharoitida turli mafkuraviy ta’sirlar, axborot oqimlari va g‘oyaviy kurashlar kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda insonlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi yot g‘oyalar tarqalishi mumkin. Shu bois mafkuraviy immunitet jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Mafkuraviy immunitet shaxs, jamiyat va davlatning turli buzg‘unchi g‘oyalar, yot mafkuralar va ma’naviy tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini anglatadi. U insonning ongi, tafakkuri va dunyoqarashida shakllangan mustahkam e’tiqod, bilim va qadriyatlar orqali namoyon bo‘ladi. “Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g‘oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi”[1.730]. Mafkuraviy immunitetga ega inson har qanday axborotni tanqidiy tahlil qila oladi, uning mazmuni va maqsadini anglaydi hamda jamiyat manfaatlariga zid bo‘lgan g‘oyalarga berilmaydi.

Mafkuraviy immunitet, avvalo, yosh avlod tarbiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yoshlar milliy qadriyatlar, tarixiy meros, ma’naviy-axloqiy

tamoyillar asosida tarbiyalansa, ularda mustahkam dunyoqarash shakllanadi. Bu esa yoshlarni turli buzg‘unchi g‘oyalar, ekstremizm, radikalizm va boshqa salbiy ta’sirlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, mafkuraviy immunitet jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi. Insonlarda Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, jamoatchilik mas’uliyati kabi fazilatlar kuchaysa, jamiyatda birdamlik va hamjihatlik muhiti mustahkamlanadi. Bu esa ijtimoiy taraqqiyot va tinchlikni ta’minlashning muhim shartidir.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimi, oila, mahalla va ommaviy axborot vositalari katta o‘rin tutadi. Ushbu institutlar orqali insonlarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va axborot madaniyatini rivojlantirish mumkin. Natijada jamiyat a’zolari turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega bo‘ladi. Mafkuraviy immunitet jamiyatning ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. U insonlarning ongli ravishda to‘g‘ri yo‘lni tanlashiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylashiga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir jamiyatda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Zamonaviy axborot muhiti insoniyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib borgan murakkab va serqirra makon hisoblanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalar orqali axborot almashinuvi jadallashib, dunyodagi turli g‘oyalar, qarashlar va mafkuraviy ta’sirlar tez sur’atlarda tarqalmoqda. Bunday sharoitda inson ongiga turli mazmundagi axborotlar kirib kelishi tabiiy holdir. Shu bois jamiyat a’zolarida axborotni to‘g‘ri qabul qilish, uni tahlil qilish va saralash qobiliyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy immunitet aynan shu jarayonda insonni turli salbiy ta’sirlardan himoya qiluvchi ma’naviy va intellektual qalqon vazifasini bajaradi. Agar insonda mustahkam dunyoqarash va mustaqil fikrlash shakllangan bo‘lsa, u har qanday g‘oyani tanqidiy baholay oladi. Bu esa axborot muhitida yuzaga keladigan mafkuraviy tahdidlarga qarshi barqarorlikni ta’minlaydi. Shuning uchun zamonaviy axborot makonida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi davrda axborot oqimining haddan tashqari ko‘payishi inson tafakkuriga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayrim hollarda axborotdan foydalanish madaniyati yetarli darajada shakllanmagani sababli insonlar yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun jamiyatda axborot madaniyatini yuksaltirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Mafkuraviy immunitet insonga axborotni chuqur tahlil qilish, uning manbai va maqsadini anglash imkonini beradi. Natijada shaxs har qanday ma’lumotni so‘zsiz qabul qilmay, uning mazmunini baholay oladi. Bu esa jamiyatda sog‘lom fikr muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Axborot makonida barqarorlikni ta’minlash uchun har bir insonda intellektual va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlash talab etiladi.

Zamonaviy axborot muhitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning asosiy omillaridan biri ta’lim tizimidir. Ta’lim insonda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va axborotni saralash qobiliyatlarini shakllantiradi. Maktab, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar yoshlarda bilimga intilish, dunyoqarashni kengaytirish va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Agar ta’lim tizimida tanqidiy fikrlash va axborot tahliliga alohida e’tibor berilsa, yosh avlod turli mafkuraviy tahdidlarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega bo‘ladi. Zamonaviy raqamli ta’lim platformalari, masalan, onlayn kurslar, video leksiyalar va interaktiv dasturlar orqali yoshlarning dunyoqarashini boyitish, ularni buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi ma’naviy jihatdan immunitetli qilish mumkin. Bunda milliy tarix, madaniyat va ma’naviy qadriyatlarni qamrab olgan, turli yoshlarga mos qilib tayyorlangan materiallar alohida ahamiyat kasb etadi[2.156]. Shuningdek, ta’lim orqali milliy qadriyatlar, tarixiy meros va umuminsoniy tamoyillar haqidagi bilimlar mustahkamlanadi. Bu esa shaxsning ma’naviy asoslarini kuchaytiradi. Natijada yoshlar axborot muhitida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oilaning o‘rni ham beqiyosdir. Oila inson tarbiyasining ilk va eng muhim maktabidir. Aynan oilada bolaning dunyoqarashi, axloqiy tamoyillari va qadriyatlarga

munosabati shakllanadi. Agar oilada ma’naviy muhit sog‘lom bo‘lsa, farzandlarda vatanparvarlik, mas’uliyat va milliy g‘urur kabi fazilatlar rivojlanadi. Bu esa ularni turli yot g‘oyalar ta’siridan asrashga yordam beradi. Zamonaviy axborot muhitida bolalar va yoshlar turli manbalardan axborot qabul qiladi. Shu bois ota-onalar farzandlarining axborotdan foydalanish madaniyatiga alohida e’tibor qaratishi zarur. Oiladagi ma’naviy tarbiya mafkuraviy immunitetning mustahkam poydevorini yaratadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy muhit ham mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Agar jamiyatda o‘zaro ishonch, hamjihatlik va hamkorlik muhiti shakllangan bo‘lsa, insonlar salbiy g‘oyalarga kamroq moyil bo‘ladi[3.85]. Ijtimoiy barqarorlik va adolatli munosabatlar insonlarda kelajakka ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa jamiyatning mafkuraviy barqarorligini ta’minlaydi. Shuningdek, mahalla instituti, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari ham ma’naviy muhitni mustahkamlashda katta rol o‘ynaydi. Ular orqali aholi o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib boriladi. Bu jarayon jamiyat a’zolarining mafkuraviy barqarorligini oshiradi.

Zamonaviy axborot makonida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar katta ta’sir kuchiga ega. Ular orqali jamiyatda turli g‘oyalar, fikrlar va qarashlar tarqaladi. Agar ushbu vositalar orqali sog‘lom va konstruktiv axborot tarqatilsa, jamiyatda ma’naviy barqarorlik mustahkamlanadi[4.47]. Shu bilan birga, noto‘g‘ri va buzg‘unchi axborotlar ham tez tarqalishi mumkin. Shuning uchun axborot siyosatida mas’uliyat va xolislik muhim ahamiyatga ega. Ommaviy axborot vositalari jamiyatda sog‘lom fikr muhitini shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Bu esa mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar va madaniy meros ham mafkuraviy immunitetning muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Tarixiy xotira va milliy an’analar insonlarda o‘zlikni anglash hissini mustahkamlaydi. Agar inson o‘z tarixi va madaniyatini yaxshi bilsa, u yot g‘oyalarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega bo‘ladi. Milliy madaniyat, urf-odatlar va ma’naviy meros jamiyatning ichki barqarorligini ta’minlaydi. Bu qadriyatlar insonlarni birlashtiruvchi muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun milliy merosni asrash va

uni yosh avlodga yetkazish mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda katta ahamiyatga ega.

Yoshlar siyosati ham mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi. Yoshlar jamiyatning eng faol va dinamik qatlami hisoblanadi. Shu sababli ular turli g‘oyaviy ta’sirlarga tezroq duch kelishi mumkin. Agar yoshlarga bilim olish, ijod qilish va o‘z qobiliyatlarini namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratilsa, ularning ijtimoiy faolligi oshadi. Bu esa yoshlarni salbiy g‘oyalar ta’siridan himoya qiladi. Yoshlar bilan olib boriladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlar ularda mustaqil fikrlash va fuqarolik mas’uliyatini shakllantiradi. Natijada yosh avlod jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash ham zamonaviy axborot muhitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Axborot makonida turli manipulyatsiya, feyk xabarlar va psixologik ta’sir usullari qo‘llanilishi mumkin[5.112]. Bunday holatlarda insonlarning axborotga nisbatan ongli munosabati katta ahamiyat kasb etadi. Axborot xavfsizligi faqat texnik choralar bilan emas, balki ma’naviy va intellektual barqarorlik orqali ham ta’minlanadi. Agar jamiyat a’zolari axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmasiga ega bo‘lsa, ular har qanday manipulyatsiyaga qarshi tura oladi. Bu esa mafkuraviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Bugungi zamonaviy axborot muhitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish jamiyat barqarorligi va ma’naviy xavfsizligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Axborot oqimi kuchayib borayotgan sharoitda insonlar ongini turli g‘oyaviy ta’sirlardan himoya qilish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu vazifani amalga oshirish uchun ta’lim, oila, jamiyat, ommaviy axborot vositalari va davlat institutlari o‘rtasida uzviy hamkorlik zarur. Mafkuraviy immunitetni mustahkamlash insonlarda mustaqil fikrlash, ma’naviy barqarorlik va fuqarolik mas’uliyatini rivojlantiradi. Natijada jamiyatda sog‘lom g‘oyaviy muhit shakllanadi. Bu esa barqaror taraqqiyot va tinchlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi jamiyatimizda shakllanayotgan zamonaviy axborot muhitida yoshlar mafkuraviy immunitetning zarurati yuzasidan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, zamonaviy axborot muhitida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish O‘zbekiston jamiyati barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki globallashuv va raqamli texnologiyalar rivoji natijasida axborot makoni ochiq va tezkor tus oldi. Bunday sharoitda turli g‘oyalar va qarashlar jamiyat ongiga tez kirib keladi. Agar aholining axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash qobiliyati yuqori bo‘lsa, ular yot va buzg‘unchi g‘oyalarning ta’siriga tushib qolmaydi. Shuning uchun mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy ishlar, axborot madaniyatini oshirish va yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, O‘zbekistonda yoshlar aholining katta qismini tashkil etgani sababli, mafkuraviy immunitetni kuchaytirish avvalo yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liqdir. Yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardan eng faol foydalanuvchi qatlam hisoblanadi. Shuning uchun ularni turli dezinformatsiya, yot g‘oyalar va ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun ta’lim tizimida tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va mediasavodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa yosh avlodning sog‘lom dunyoqarashga ega bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, O‘zbekiston jamiyatida mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy qadriyatlar, tarixiy meros va ma’naviy an’analar muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalqning ko‘p asrlik madaniyati, urf-odatlari va ma’naviy merosi insonlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur va birdamlik tuyg‘ularini shakllantiradi. Bu esa jamiyatda ma’naviy barqarorlikni ta’minlab, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois milliy merosni asrash va uni yosh avlodga yetkazish mamlakat ma’naviy taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

To‘rtinchidan, axborot makonida barqarorlikni ta’minlashda davlat institutlari, jamoat tashkilotlari, oila va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimli ravishda tashkil etilmoqda, aholi o‘rtasida ma’naviyatni yuksaltirishga qaratilgan turli dastur va tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon jamiyatda sog‘lom axborot muhitini shakllantirish va

fuqarolarning mafkuraviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlik mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-jild. –Toshkent: O‘zFMJ, 2023.-B.730
2. Tashanov A. Buzg‘unchi g‘oyalar va ma’naviy tahdidlar. –Toshkent: Dimal, 2024. –B.156
3. Sander Van der Linden. Foolproof: Why We Fall for Misinformation and How to Build Immunity. – London: HarperCollins, 2023. – 320 p., p. 85.
4. Richard Shultz, Roy Godson**.** Dezinformatsia: Active Measures in Soviet Strategy. – Washington: Pergamon-Brassey’s, 1984. – 210 p., p. 47.
5. Edward Herman; Noam Chomsky. Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media. – New York: Pantheon Books, 1988. – 422 p., p. 112.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNI ASRASH VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Xayitboyev Qudratbek Anvarbek o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
Stajyor o‘qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv jarayonining milliy qadriyatlarga ta’siri, mafkuraviy xavfsizlik masalalari hamda yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli pedagogika, media savodxonlik, madaniy identifikatsiya va uzluksiz ta’lim tizimi asosida milliy qadriyatlarni asrashning samarali yo‘llari yoritiladi. Tadqiqot natijasida globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni saqlash va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlashda kompleks yondashuv zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, milliy qadriyat, mafkuraviy immunitet, innovatsion yondashuv, media savodxonlik, milliy identitet, axborot xavfsizligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori qabul qilingan [1]. Ushbu qarorga asosan, yurtimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirish, etnik madaniy an’analarni asrab-avaylash va shu asosda xalq ijodiyotini qo‘llab-quvvatlash, madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ‘ib etishda innovatsion g‘oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish belgilab berilgan. Qonunda xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbida milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga muhabbat, buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi immunitetni yanada kuchaytirishda teatr va kino san’atining rolini oshirish belgilab berilgan.

XXI asr globallashuv jarayonlari iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda chuqur integratsiyani yuzaga keltirdi. Axborot oqimlarining tezlashuvi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi natijasida turli mafkuraviy ta’sirlar kuchaymoqda. Bu esa milliy qadriyatlarni asrash va yosh avlod ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasini dolzarb ijtimoiy muammo sifatida kun tartibiga olib chiqmoqda. Globallashuv ikki tomonlama jarayon bo‘lib, bir tomondan taraqqiyot va ochiqlikni ta’minlasa, ikkinchi tomondan milliy madaniyat va an’analarning yemirilish xavfini tug‘diradi. Shu bois innovatsion yondashuvlar asosida milliy qadriyatlarni saqlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

O‘zbekistonlik yoshlarni yevropalik yoshlarga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishdan tiyish masalasi taqiqlash yoki cheklash orqali emas, balki milliy qadriyatlarni zamonaviy va innovatsion shaklda jozibador qilish orqali samarali hal etiladi. Globallashuv jarayonida axborot oqimi kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyatning keng tarqalishi yoshlar ongida G‘arb turmush tarzini “muvaffaqiyat modeli” sifatida qabul qilish, Milliy qadriyatlarni eskirgan yoki zamonga mos emas deb baholash, Identitet (o‘zlikni anglash) inqirozi kabi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda. Ijtimoiy identitet nazariyasiga ko‘ra (Tajfel, Turner), shaxs o‘zini ma’lum ijtimoiy guruhga mansub deb his qilganda uning qadriyatlarini himoya qiladi. Demak, yoshlarning milliy identitetini mustahkamlash – taqlidchilikka qarshi eng samarali mexanizmdir.

Globallashuv bu jahon hamjamiyatining iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan o‘zaro bog‘liqligining kuchayish jarayonidir. U madaniy integratsiyasi, axborot makonining kengayishi, transmilliy qadriyatlar shakllanishi, iste’mol madaniyatining universallashuvi kabi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi.

Milliy qadriyatlar esa muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, urf-odatlari, tili, dini, ma’naviy merosi va mentalitetini ifodalaydi. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarning transformatsiyasi tabiiy jarayon bo‘lsa-da, ularning yo‘qolib ketishi ijtimoiy identitet inqiroziga olib kelishi mumkin.

Mafkuraviy immunitet – bu shaxs va jamiyatning turli g‘oyaviy tahdidlar, destruktiv mafkuralar va axborot manipulyatsiyalariga qarshi mustaqil fikr yurita olish qobiliyatidir. Insonda mafkuraviy immunitet shakllanib borishi zarur. U har bir avlod uchun o‘ziga xos xususiyatga ega. Immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta’minlash mumkin. Mafkuraviy immnitet tizimining asosiy va birinchi elementi bu – bilim. Ammo bilimlarning turi ko‘p. Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob’yektiv bo‘lishi, voqelikni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishi, inson ma’naviyatini boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. [2]

1-jadval

Mafkuraviy immunitet tarkibiy qismlari

1	Tanqidiy tafakkur
2	Milliy o‘zlikni anglash
3	Huquqiy va siyosiy madaniyat
4	Axborot madaniyati
5	Vatanparvarlik tuyg‘usi

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. Shuning uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositlari va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligini talab etadi.

Yurtimizda yoshlar orasida milliy qadriyatlarni asrashning innovatsion yondashuvlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Milliy qadriyatlarni asrashning innovatsion yondashuvlari	
1	Raqamli pedagogika va interaktiv ta’lim texnologiyalari
2	Media savodxonlikni rivojlantirish
3	Madaniy diplomatiya va ijtimoiy innovatsiyalar
4	Oila va mahalla institutining integratsiyasi

Zamonaviy ta’lim platformalari (onlayn kurslar, multimedia darsliklar, virtual muzeylar) orqali milliy tarix, madaniyat va an’analarni yosh avlodga zamonaviy usulda yetkazish mumkin. Axborot texnologiyalardan unumli foydalangan holda Virtual reallik orqali tarixiy obidalarni o‘rganish, raqamli arxivlar yaratish, milliy merosga bag‘ishlangan mobil ilovalar ishlab chiqish mumkin.

Media savodxonlik yoshlarning soxta axborot va g‘oyaviy manipulyatsiyalarni farqlay olish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu esa mafkuraviy immunitetning muhim sharti hisoblanadi. O‘zbek millatining milliy qadriyatlarini xalqaro miqyosdagi madaniy forumlar, xalqaro festivallar, raqamli madaniyat loyihalari orqali targ‘ib qilish orqali global maydonda ijobiy milliy imijni shakllantirish mumkin.

An’anaviy ijtimoiy institutlar innovatsion ta’lim va axborot texnologiyalari bilan uyg‘unlashganda milliy qadriyatlarni uzviy ravishda avloddan-avlodga yetkazish samaradorligi oshadi.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishning qquydiagi uch bosqichli model konsepsiyasi taklif etiladi:

1. Ma’rifiy bosqich – milliy tarix va qadriyatlar bo‘yicha bilim berish;
2. Tahliliy bosqich – tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
3. Integrativ bosqich – milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish;

Mazkur model uzluksiz ta’lim tamoyili asosida maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha tizimli ravishda joriy etilishi lozim.

Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni asrash faqatgina konservativ himoya choralariga asoslanmasligi kerak. Aksincha, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish orqali milliy o‘zlikni mustahkamlash mumkin. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim omil hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni milliy qadriyatlar uchun ham imkoniyat, ham tahdid manbai bo‘lib xizmat qiladi. Milliy identitetni saqlab qolish va mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash innovatsion pedagogik, axborot-kommunikatsion va ijtimoiy mexanizmlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Milliy qadriyatlar an’anaviy ma’ruza yoki nasihat shaklida emas, balki milliy tarixiy faktlar asosidagi qisqa videoroliklar, milliy qahramonlar asosida animatsion roliklar orqali targ‘ib qilinishi kerak.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirish – bu uzluksiz, tizimli va kompleks jarayon bo‘lib, davlat, jamiyat va ta’lim tizimining hamkorligini talab etadi. Faqat shunda globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar barqaror rivojlanadi va jamiyat ma’naviy xavfsizligi ta’minlanadi.

Yoshlar ongida milliy qadriyatlarni mustahkamlash uchun ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy milliy kontent ulushini oshirish**,** milliy qahramonlar obrazini zamonaviy formatda targ‘ib qilish hamda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta’lim tizimi hal qiluvchi institut sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quv dasturlariga milliy g‘oya, madaniy meros va media savodxonlik elementlarini integratsiya qilish yosh avlodning mafkuraviy barqarorligini ta’minlaydi.

Milliy qadriyatlarni asrash jarayoni davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va oilaning hamkorligida olib borilgandagina barqaror

natija beradi. Ayniqsa, oilada milliy an’ana va urf-odatlarning amaliy davom ettirilishi mafkuraviy immunitetning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarni saqlash himoyalash yo‘li bilan emas, balki ochiq muloqot va madaniy integratsiya sharoitida o‘zlikni saqlash tamoyili asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda milliylik va umuminsoniylik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhim metodologik yondashuv hisoblanadi. Umuman olganda, innovatsion yondashuvlarga asoslangan tizimli faoliyat milliy qadriyatlarning zamonaviy transformatsiyasini ta’minlab, ularni yoshlar ongiga singdirishning samarali modelini yaratadi. Natijada jamiyatda mafkuraviy barqarorlik, ma’naviy xavfsizlik va milliy o‘zlikni anglash darajasi yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://lex.uz/docs/-4084926
2. https://oyina.uz/kiril/teahause/1846
3. https://www.tourstouzbekistan.com/ru/blog/cultural-program/sharq-taronalari-festival.html

ZJV5401

GLOBALLASHUV SHAROITIDA OMMAVIY MADANIYAT VA MILLIY QADRIYATLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA’SIR

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi
xalqaro instituti katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Hozirgi kunda globallashuv jarayonlari juda tezkorlik bilan rivojlanib bormoqda. Global jarayonlar inson hayotining har bir jabhasini qamrab olmoqda. Mana shunday sharoitda inson o‘zligini saqlab qolishga intilmoqda. Biroq jamiyat hayotiga “ommaviy madaniyat” niqobi ostida yot g‘oyalar kirib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, “ommaviy madaniyat”, ma’naviyat, madaniyat, shaxs, qadriyat.

Globallashib borayotgan dunyoda bugungi kunda sodir bo‘layotgan turfa voqea-hodisalarni kuzatgan kishi ma’naviyat aslida insoniyatning qanchalik beqiyos ne’mati ekanligini teran anglaydi. Afsuski, shunday bebaho milliy madaniyat o‘rniga qandaydir “ommaviy madaniyat”ni zo‘rma-zo‘raki tiqishtirayotgan buzg‘unchi kimsalar ham kam emas. Ular “ommaviy madaniyat” niqobi ostida targ‘ib etayotgan turli hayosiz filmlar, suratlar milliy qadriyatlarimizga aslo to‘g‘ri kelmasligini tushunish qiyin emas. Aslida, “ommaviy madaniyat” haqiqiy madaniyatning mohiyatiga mutlaqo zid hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, “u insonni ma’nan majruh etadigan, uning ma’naviy dunyosini buzadigan, oxir-oqibat jon saqlashdan o‘zga maqsadi bo‘lmagan bir maxluq darajasiga tushirib qo‘yadigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Shuning uchun ham bunday madaniyatni “olomon madaniyati” deyish mumkin”.

Ba’zi mamlakatimizga chetdan kirib kelayotgan tovarlar reklama qilinayotganida e’tibor bersangiz, yonida siyosiy “mahsulot” – qandaydir g‘oya ham bo‘lishi mumkinligini anglaysiz. Bu usul globallashuv jarayonida madaniyatlar eksportida faol qo‘llanilayotgani sir emas. “Eng dahshatlisi, – deb yozadi taniqli telejurnalist, filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev, – bu holni o‘sha kishining o‘zi hamisha ham

sezavermaydi. Yoki yarim-yalang‘och badaniga ko‘pik surayotgan oyimchaning nozli surati aks etgan iroqi sovunning o‘ziyoq milliy axloqqa “o‘lat” tushirish qudratiga ega ekani anglanmaydi ham. Bu hol esa asta-sekin milliy madaniyatga yot qadriyatlarga ko‘nikma hosil qildirishi, begona madaniyat bilan “emlanayotgan” odamning etini o‘ldirishi bilan xatarlidir. Bu emlashdan so‘ng “ommaviy madaniyat”ning “og‘ir formalari”dan ham seskanmaslik, begonasiramaslik kayfiyati hukmronlik qila boshlaydi”.

Bunday “ommaviy madaniyat”ni tiqishtirishlaridan maqsadlari moddiy boylik orttirish ekanligi ko‘rinib turibdi. Ruhshunoslar fikricha, bir fikrni tinimsiz uqdirish orqali individga kuchli ta’sir o‘tkazish, uni o‘z yo‘rig‘iga solish mumkin ekan, demak, shu usulda yoshlar ongiga salbiy ta’sir o‘tkazish xavfi yo‘q emas. Yoshlarga qanday tushuntirilsa, ular kutilganidek qabul qilaverishlari mumkin.

Ma’naviyati yuksak insonga turli g‘oyalar bilan ta’sir o‘tkazish qiyin. Shuning uchun vayronkor g‘oyalar asosan, yoshlar ongini zaharlashga qaratiladi. Undan kelajagimiz bo‘lmish yoshlarni asrash uchun ularni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashimiz lozim. Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egosentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay quymaydi.

Demak, illatga qarshi beayov kurashishimiz davr talabiga aylangan. “Ommaviy madaniyat”ning har qanday ko‘rinishiga qarshi murosasiz bo‘lishimiz zarur. Jurnalist-olim Olim Toshboyev ta’biri bilan aytganda: “g‘oya tashiyotgan mahsulotning tanqisligi va xaridorgirligi g‘oyaning singish darajasiga taqriban tengdir. Bu matosi behad tejalgan toru tang libos, ya’ni moddiy tovar bo‘ladimi yoki yosh avlod kiprik qoqmay termilayotgan qahramoni dam-badam sevgisining isbotiga kirishib ketaveradigan xorij seriallari – ma’naviysimi, bundan qat’iy nazar, ehtiyojmandlik uni shunga undaydi”.

Bugungi axborotlashgan jamiyat taqozosi shu bo‘lmoqdaki, bu illatga qarshi kurashda milliy ommaviy axborot vositalarimiz ham qalqonimiz, ham qilichimiz bo‘lmog‘i joiz. Bugun yurtimizda o‘ttizdan ortiq nodavlat teleradiokompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Afsuski, ularning ko‘pchiligi Rossiya va boshqa xorijiy telekanallarning yengil-yelpi dasturlarini namoyish etish orqali ma’naviyatimizga, bebaho milliy qadriyatlarimizga tahdid solayotganini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Axir, millionlab tomoshabinlar e’tiborini jalb etish qudratiga ega bo‘lgan televideniye orqali dolzarb muammolarini ko‘proq aks ettirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, yoshlarni ma’nan kamol toptirish mumkin-ku!

Yurtimiz istiqlolga erishgach, milliy ma’naviyat mohiyatini teranroq anglay boshladik. Aytish joizki, sobiq mustabid tuzum davrida ma’naviyat, inson ruhiy olami, adolat, qonun ustuvorligi, milliy-axloqiy qadriyatlar to‘g‘risida asosli fikrlarni eshitish amri mahol edi. Ma’naviy barkamol inson kamoloti uchun suv bilan havodek zarur ma’naviy qadriyatlar qadrini mustaqillik sharofati bilan teran anglab yetdik. Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov ham ma’naviyatning ma’no-mohiyatini aniq-ravshan ta’riflagan: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”. Bu quyma fikr zamirida olamcha ma’no mujassam ekan, shunga yarasha yoshlarimizni yanada ma’naviyatli va ma’rifatli bo‘lib kamolga yetishlari uchun astoydil kurashmog‘imiz darkor. Bugungi globallashuv sharoitida Internet, radio va televideniye imkoniyatlari cheksizligi haqida ko‘p gapirilmoqda, asosli maqolalar yoritilmoqda. Bunday imkoniyatlardan aslida yoshlar ongini yot g‘oyalardan asrab qolish yo‘lida samarali foydalanish davr taqozosidir. Ana shundagina “ommaviy madaniyat”ning yoshlar ongiga ta’siri kamayib, asta-sekin barham topib ketishi ham mumkin. Shu bilan bir qatorda yoshlar qalbida milliy qadriyatlarimizga nisbatan mehr uyg‘otib borish maqsadga muvofiqdir. Shunda yoshlar orasida g‘arbona ideallarga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlar urchib ketmaydi. Yoshlar qalbida mafkuraviy immunitetni to‘g‘ri shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Mafkuraviy immunitet asosan ta’lim-tarbiya jarayonida hosil qilinadi. Yoshlar ong-u

shuurida mafkuraviy immunitet puxta bilim olish, his-tuyg‘ular, muayyan ko‘nikmalar vositasida shakllantiriladi. Ayrim mutaxassislar fikricha, taraqqiyotning hozirgi bosqichida xalqlar orasidagi axborot aloqalari jadal kengayib borayotganligi ko‘plab foyda bilan bir qatorda ma’naviy zarar keltirish hollari ham uchrab turganligi asoslab berilayotir.

Shu narsa ayonki, bugungi kunda puxta bilim egallamagan yoshlar tanazzulga yuz tutishi mumkin. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya bilan bir qatorda targ‘ibot ishlarini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish joizdir. Aytish mumkinki, ayni paytda qator oliy ta’lim muassasalarida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shaxs kamolotining mezoni hisoblangan ma’naviyat va ma’rifat shu tariqa jamiyatimizda o‘ziga xos voqelikka aylanib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2. Islom Karimov. Ma’naviy yuksalish yo‘lida. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.

3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

4. Nazarov K. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

5. Abdullayev M. Globallashuv jarayonida milliy madaniyat. – Toshkent: Akademnashr, 2018.

6. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.

7. Saidov A.X. Madaniy taraqqiyot va milliy qadriyatlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

ZJV5401

ZAMONAVIY TEXNOLOGIK TARAQQIYOTDA YOSHLARNING AXLOQIY QADRYATLARINI MUHOFAZALASH MUAMMOSI

Abdurashitova Gulbarno Ahmedqulovna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti Tarix fakulteti
falsafa ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlarning axloqiy qadriyatlarini muhofazalash muammosi tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashi hamda xulq-atvoriga ko‘rsatayotgan ta’siri har tomonlama chuqur falsafiy tahlil qilingan. Shuningdek, axloqiy me’yorlarning transformatsiyasi, yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar va ularni bartaraf etish yo‘llari ilmiy-nazariy jihat tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. texnologik taraqqiyot, yoshlar, axloqiy qadriyatlar, raqamli muhit, ma’naviyat, ijtimoiy tarmoqlar.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot inson hayotini yengillashtirish, imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, uni yangi ma’naviy sinovlar oldiga ham qo‘ymoqda. Bugungi inson, ayniqsa yoshlar, texnologiyalar bilan o‘ralgan muhitda yashar ekan, ko‘pincha qulaylik va tezlik ortidan borib, hayotiy tanlovlarining ichki mazmuni haqida chuqur o‘ylab ko‘rishga vaqt topa olmay qolmoqda. Natijada, texnik taraqqiyot insonni tashqi tomondan erkin qilayotgandek tuyulsa-da, ichki dunyosida bo‘shliq va yo‘qotish hissini kuchaytirishi mumkin [1].

Raqamli makonda muloqotning ko‘payishi insonning yolg‘izligini kamaytirayotgandek ko‘rinsa-da, aslida u ko‘pincha chinakam tushunilish ehtiyojini qondira olmaydi. Yoshlar virtual maydonda o‘zini erkin ifodalayotgandek his qilsa-da, bu erkinlik har doim ham mas’uliyat bilan uyg‘unlashmaydi. Axloqiy tanlovlar esa asta-sekin ichki ishonchga emas, balki tashqi bahoga va ommaviy fikrga bog‘lanib qolmoqda. Shu jihatdan qaraganda, texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlarning axloqiy

qadriyatlari masalasi insonning o‘zini anglash, hayotiga ma’no berish va qilayotgan ishlariga javobgarlikni his etish bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar texnologiya insonning ichki dunyosini boyitishga xizmat qilmasa, u shaxsni o‘z mohiyatidan uzoqlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Bu esa axloqiy befarqlik, loqaydlik va mas’uliyatsizlikning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlarning axloqiy qadriyatlarini muhofazalash masalasi insonni texnik muhitda yo‘qotib qo‘ymaslik, uning ichki erkinligi va mas’uliyatini saqlab qolish muammosi sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot yoshlar hayotiga keng imkoniyatlar bilan bir qatorda, ularning ichki dunyosida sezilmas, ammo chuqur o‘zgarishlarni ham olib kirmoqda. Texnologiyalar tufayli hayot tezlashib, axborot oqimi kuchaygan sari yosh insonning o‘z ustida mulohaza yuritishi, qilayotgan tanlovlarining ma’nosi haqida o‘ylashi tobora qiyinlashmoqda. Natijada, tashqi qulayliklar ortidan ichki barqarorlikning zaiflashuvi kuzatiladi. Bu holat axloqiy qadriyatlarning mustahkamligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli muhitda yashayotgan yoshlar ko‘pincha tanlov erkinligiga ega bo‘lgandek tuyuladi. Ammo bu erkinlik har doim ham ongli tanlovni anglatmaydi. Axborotlarning ko‘pligi va tezkorligi yoshlarni fikrlashdan ko‘ra reaksiyaga o‘rgatadi. Shunday sharoitda axloqiy qarorlar ichki e’tiqodga emas, balki vaziyatga moslashishga asoslanib qoladi. Inson o‘z xatti-harakatining sababini chuqur anglamagan sari, mas’uliyat hissi ham asta-sekin susayadi. Texnologik muhitning muhim xususiyatlaridan biri bu undagi yashirin ta’sir mexanizmlaridir.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar, reklama va ommaviy kontent orqali nafaqat axborot oladi, balki sezilmagan holda muayyan qarashlar va xulq-atvorlarga yo‘naltiriladi. Bu jarayon majburlash orqali emas, balki “xohlayotgandek tuyulish” orqali amalga oshiriladi. Natijada, yosh inson o‘z qarorini mustaqil qabul qilayotgandek his etsa-da, bu qarorning yo‘nalishi ko‘pincha tashqi omillar tomonidan belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Manipulyatsiyaning eng xavfli tomoni shundaki, u axloqiy tanlovni ichki ishonchdan uzib qo‘yadi. Inson nima uchun aynan shunday harakat qilayotganini anglamay qoladi. Ommaviy kayfiyat, mashhurlik va tashqi

tasdiq axloqiy mezonlarga aylana boshlaydi. Bu holat yoshlar ongida mas’uliyatning parchalanishiga olib keladi. Inson oqibat uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga emas, balki muhitga yuklaydi.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlarning axloqiy qadriyatlarini muhofazalash masalasi manipulyatsiyaga qarshi ichki barqarorlikni shakllantirish bilan chambarchas bog‘liqdir [2]. Bu barqarorlik tashqi nazorat orqali emas, balki insonning o‘zini anglash qobiliyati orqali vujudga keladi. Agar yosh inson “nega shunday o‘ylayapman?”, “bu qaror menga qayerdan singdirildi?” degan savollarni bera olsa, u texnologik ta’sir oldida ojiz bo‘lib qolmaydi. Muammoni hal etishning asosiy yo‘li texnologiyani inkor etishda emas, balki unga ongli munosabatni shakllantirishdadir. Axloqiy tarbiya yoshlarni tayyor qoidalarga bo‘ysundirish emas, balki ularda ichki mas’uliyat va tanlov madaniyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

Inson o‘z tanlovining oqibatini anglab yashar ekan, texnologiya uning hayotida hukmron kuchga emas, balki maqsadga xizmat qiluvchi vositaga aylanadi. Demak, yoshlarning axloqiy qadriyatlarini muhofazalash texnologik muhitda insonni yo‘qotib qo‘ymaslik, uning ichki erkinligi va mas’uliyatini saqlab qolishga qaratilgan muhim ma’naviy vazifadir. Aynan shu ichki tayanch mavjud bo‘lgandagina yoshlar zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida ham o‘z insoniy qiyofasini saqlab qola oladi.

Zamonaviy texnologik taraqqiyot insoniyat hayotini yengillashtirayotgan bo‘lsa-da, u yoshlar oldiga yangi axloqiy sinovlarni ham qo‘ymoqda. Texnologiyalar taqdim etayotgan qulaylik va tezlik insonni tashqi tomondan erkin qilayotgandek ko‘rinsa-da, ichki dunyoda mas’uliyat, mulohaza va ma’no masalalarini zaiflashtirish xavfini tug‘diradi. Ayniqsa, raqamli muhitda yashirin ta’sir va manipulyatsiya yoshlarning axloqiy tanlovini ongli qarordan ko‘ra oqimga moslashishga aylantirib qo‘yishi mumkin.

Manipulyatsiya axloqiy qadriyatlarga bevosita zarba bermaydi, balki insonning o‘z tanlovini anglash qobiliyatini sekin-asta susaytiradi. Natijada axloq ichki e’tiqod emas, tashqi bahoga bog‘liq holga keladi. Bu esa mas’uliyatning parchalanishi, befarqlik va loqaydlikning kuchayishiga olib

keladi. Shunday sharoitda yoshlar texnologik muhitda mavjud bo‘lsa-da, ma’naviy jihatdan yo‘qolib qolish xavfi bilan yuzma-yuz keladi.

Yoshlarning axloqiy qadriyatlarini muhofazalash texnologiyani cheklash yoki undan voz kechish orqali emas, balki insonning ichki tayanchlarini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi lozim. Eng muhim vazifa bu yoshlarni tayyor qarashlarga ergashishga emas, balki o‘z tanlovi uchun javobgarlikni his etishga o‘rgatishdir. Inson qachonki o‘z harakati ortidagi sababni anglay boshlasa, u manipulyatsiya obyekti emas, balki ongli subyektga aylanadi.

Umumiy xulosa qilib aytganda, zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlarning axloqiy qadriyatlarini muhofazalash insonni texnik muhitda yo‘qotib qo‘ymaslik, uning ichki erkinligi va mas’uliyatini saqlab qolish masalasidir. Texnologiya inson hayotiga hukmron bo‘lmasdan, unga xizmat qilgan taqdirdagina u taraqqiyotga aylanadi. Aks holda, texnik imkoniyatlar ko‘paygan sari insoniy qadriyatlarning kamayishi xavfi yuzaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Самаров Р. Хавфсизликнинг методологик асослари. – Тошкент: Akademiya, 2010;

2. Berdimuratova A.K., Biyimbetov J.K. Informaciyalıq qáwipsizlik filosofiyası. O‘quv qo‘llanma. “Metodist nashriyoti”. Toshkent, 2025 yil. 156 bet.

3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik asoslari. -Toshkent: O‘zbekiston, 2018 y.

4. Musayev M. Missionerlik va prozelitizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi. Tashkent: “Mumtoz so‘z” baspası. Monografiya. 2021-jıl. 210 b.

V-SHO‘BA: ISLOHOTLAR YUTUQLARINING AN’ANAVIY VA VIRTUAL TARG‘IBOTINING DOLZARB MASALALARI.

ISLOHOTLAR YUTUQLARINI TARG‘IB QILISHDA AN’ANAVIY VA VIRTUAL AXBOROT MAKONINING MAFKURAVIY IMKONIYATLARI

Barno Matchanova
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada islohotlar natijalarini jamiyatga yetkazishda an’anaviy hamda virtual axborot makonining o‘rni va mafkuraviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi kommunikativ aloqalar rivojlanib borayotgan sharoitda islohotlarning mazmunini keng jamoatchilikka yetkazish nafaqat axborot uzatish jarayoni, balki ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim mafkuraviy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaviy targ‘ibot shakllari hamda raqamli kommunikatsiya vositalari o‘rtasidagi uyg‘unlik islohotlarning mazmun-mohiyatini chuqurroq anglash, fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarga nisbatan faol munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Matnda zamonaviy axborot makonida yuzaga kelayotgan yangi kommunikativ muhit, uning ijtimoiy ong va mafkuraviy jarayonlarga ta’siri ham ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: islohotlar, targ‘ibot, axborot makoni, virtual kommunikatsiya, mafkuraviy jarayonlar, ijtimoiy ong, raqamli media, an’anaviy kommunikatsiya.

Jamiyat taraqqiyoti faqat iqtisodiy o‘zgarishlar bilan belgilanmaydi. Davlat siyosatining mazmuni, ijtimoiy yangilanishlarning mohiyati hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalari fuqarolar ongida qanday aks

etishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Islohotlar keng ko‘lamli ijtimoiy jarayon sifatida jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab oladi. Bunday jarayonlarning samaradorligi ularning mazmuni va maqsadi keng jamoatchilik tomonidan qanday qabul qilinishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli islohotlar natijalarini jamiyatga yetkazish, ularning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish hamda fuqarolar ongida mazkur jarayonlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, har qanday ijtimoiy yangilanish ma’lum darajada mafkuraviy tushuntirish va kommunikativ qo‘llab-quvvatlashni talab etadi. Jamiyat a’zolari islohotlarning maqsadi, mazmuni va istiqbollarini anglab yetgan taqdirdagina bu jarayonlar barqaror rivojlanish omiliga aylanishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy taraqqiyot strategiyalarini tushuntirish, davlat siyosatining mazmunini keng jamoatchilikka yetkazish ham mafkuraviy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Axborot almashinuvi shakllari vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada o‘zgardi. An’anaviy kommunikatsiya vositalari uzoq vaqt davomida jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarning asosiy tashuvchisi bo‘lib kelgan. Matbuot, ma’rifiy tadbirlar, ommaviy yig‘ilishlar yoki ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladigan targ‘ibot faoliyati ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan axborot makonining tuzilishi ham yangi bosqichga o‘tdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va turli media platformalar qisqa vaqt ichida axborotni keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga, bu jarayon axborot oqimining hajmi, tezligi hamda ta’sir doirasini sezilarli darajada kengaytirdi.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy ong shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar orasida virtual axborot muhiti alohida o‘rin egallaydi. Raqamli makon nafaqat axborot tarqatish vositasi, balki yangi kommunikativ maydon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Fuqarolarning siyosiy qarashlari, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan munosabati va jamoatchilik fikri ko‘p hollarda aynan shu makonda shakllanadi. Natijada islohotlar mazmunini tushuntirish, ularning natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish masalasi

an’anaviy va virtual kommunikatsiya vositalari o‘rtasidagi uyg‘unlikni talab etadi. Jamiyatning mafkuraviy barqarorligi axborot makonida yuz berayotgan jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. An’anaviy targ‘ibot shakllari ijtimoiy tajriba, madaniy qadriyatlar hamda tarixiy xotira bilan uzviy aloqada shakllangan bo‘lsa, virtual kommunikatsiya vositalari tezkorlik va keng qamrov imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi islohotlarning mazmunini chuqurroq anglashga, fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarga nisbatan faol munosabatini kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan islohotlar yutuqlarini targ‘ib qilishda an’anaviy hamda virtual axborot makonining imkoniyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur masalani o‘rganish ijtimoiy kommunikatsiya jarayonlarining mazmunini chuqurroq anglash, shuningdek, zamonaviy axborot muhitida mafkuraviy faoliyatning samarali shakllarini aniqlash imkonini beradi.

Bugun islohotlar jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan ularning mazmuni jamiyat ongida qanday talqin qilinishiga bog‘liq. Ijtimoiy yangilanishlarning maqsadi va natijalari keng jamoatchilikka yetib bormagan holatda davlat siyosati bilan fuqarolik tafakkuri o‘rtasida ma’lum masofa yuzaga kelishi mumkin. Shu bois islohotlarning mazmunini tushuntirish, ularning ijtimoiy ahamiyatini ochib berish hamda jamoatchilik fikrida ijobiy tasavvur shakllantirish mafkuraviy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. O‘zbekiston sharoitida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab olgani sababli ularni aholiga yetkazish, tushuntirish va izohlash jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda ijtimoiy o‘zgarishlar muvaffaqiyatli kechishi uchun fuqarolarning davlat siyosati mazmunini anglab yetishi zarur. Bu borada, I.A.Karimov ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mafkuraviy omilning ahamiyatiga e’tibor qaratib, “g‘oya va mafkura jamiyatni birlashtiruvchi, uni umumiy maqsad sari safarbar etuvchi muhim kuchdir” deya ta’kidlaydi [2]. Mazkur fikr ijtimoiy yangilanishlar jarayonida mafkuraviy tushuntirish ishlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Chunki har qanday islohot fuqarolar ongida o‘z aksini topgan taqdirdagina barqaror rivojlanish omiliga aylanishi mumkin.

O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta’lim tizimi hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Bunday jarayonlarning mazmunini keng jamoatchilikka yetkazish an’anaviy kommunikatsiya vositalari bilan bir qatorda virtual axborot makonining imkoniyatlaridan ham foydalanishni talab etadi. Davlat rahbari bu haqida jamiyat taraqqiyotida fuqarolarning faol ishtiroki muhim ekanini ta’kidlab, “islohotlarning natijasi avvalo odamlarning hayotida, ularning dunyoqarashi va ijtimoiy faolligida namoyon bo‘lishi kerak” deb qayd etadi [1]. Ushbu fikr islohotlar jarayonida axborot va targ‘ibot siyosatining muhim o‘rin tutishini anglatadi.

Islohotlar mazmunini jamiyat ongiga yetkazishda kommunikatsiya tizimining o‘rni haqida ko‘plab olimlar fikr bildirgan. Nemis faylasufi Y.Xabermas jamoatchilik fikrining shakllanishi ijtimoiy muloqot makoni bilan uzviy bog‘liq ekanini ta’kidlab, ochiq kommunikativ muhit jamiyat rivojining muhim sharti hisoblanishini qayd etadi [3]. Ushbu yondashuv jamiyatdagi axborot almashinuvi jarayoni ijtimoiy qarashlar shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. An’anaviy axborot makoni uzoq vaqt davomida ijtimoiy g‘oyalarni shakllantirishning asosiy vositasi bo‘lib kelgan. Matbuot, radio va televideniye, ta’lim muassasalari hamda turli ma’rifiy tadbirlar orqali amalga oshirilgan targ‘ibot faoliyati jamiyat ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Amerikalik tadqiqotchi U.Lippmann jamoatchilik fikri shakllanishida ommaviy axborot vositalari muhim rol o‘ynashini ta’kidlab, axborot vositalari jamiyatdagi tasavvurlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri ekanini aytib o‘tgan [4]. Bu qarash an’anaviy kommunikatsiya vositalarining mafkuraviy jarayonlardagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shunday ekan, an’anaviy kommunikatsiya shakllari milliy madaniyat, tarixiy tajriba va ma’naviy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Shu bois, ular ijtimoiy g‘oyalarni chuqurroq tushuntirish va fuqarolar ongida barqaror qarashlar shakllanishiga xizmat qiladi. O‘zbekiston sharoitida ham ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ommaviy uchrashuvlar hamda ta’lim muassasalari orqali olib borilayotgan targ‘ibot ishlari jamiyatda islohotlarning mazmunini tushuntirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan kommunikatsiya jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar axborot almashinuvi tezligini oshirdi hamda kommunikatsiya doirasini kengaytirdi. Ispaniyalik sotsiolog M.Kastells zamonaviy jamiyatni “tarmoqlar jamiyati” sifatida tavsiflab, axborot texnologiyalari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi deya izlanishlarida keltirib o‘tgan [5]. Bu yondashuv virtual axborot makonining zamonaviy jamiyatdagi o‘rnini tushunishga yordam beradi. Vaholanki, virtual kommunikatsiya muhiti jamoatchilik fikrining shakllanish jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. G.Lassvell axborot kommunikatsiyasi jarayonini tahlil qilib, axborot kim tomonidan, qaysi kanal orqali va qanday ta’sir bilan uzatilishi ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [6]. Mazkur qarash zamonaviy kommunikatsiya tizimlarida axborot oqimining mazmuni va shakli jamoatchilik fikriga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda islohotlar davrida O‘zbekiston ham virtual axborot makonining imkoniyatlaridan foydalanish jarayoni izchil rivojlanmoqda. Davlat organlarining rasmiy internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda turli axborot portallari orqali jamoatchilikka tezkor ma’lumotlar yetkazilmoqda. Bu jarayon davlat siyosati ochiqligini ta’minlash, fuqarolar bilan muloqotni kengaytirish hamda islohotlar mazmunini keng jamoatchilikka yetkazishga xizmat qilmoqda. Sh.M.Mirziyoyev jamiyat taraqqiyotida jamoatchilik bilan ochiq muloqot muhim ahamiyat kasb etishini alohida e’tibor qaratadilar [7].

Bugun virtual makon faqat axborot tarqatish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy muloqot maydoni sifatida ham namoyon bo‘ladi. Fuqarolar ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyat hayotida yuz berayotgan jarayonlar haqida o‘z fikrlarini bildiradi, turli tashabbuslar yuzasidan muhokamalar olib boradi. Bu jarayon jamoatchilik fikrining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatib, jamiyat va davlat o‘rtasidagi kommunikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Taraqqiyot yutuqlarini targ‘ib qilishda an’anaviy hamda virtual axborot makonining uyg‘unligi muhim omil hisoblanadi. An’anaviy kommunikatsiya vositalari mazmunan chuqur tushuntirish imkonini bersa,

raqamli platformalar axborotni tezkor va keng miqyosda tarqatish imkoniyatini yaratadi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi jamiyatda ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolarning islohotlarga nisbatan faol munosabatini kuchaytirish hamda jamoatchilik fikrini barqaror rivojlanish yo‘nalishida shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot makonida mafkuraviy faoliyatni samarali tashkil etish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Islohotlar mazmunini jamiyat ongiga singdirish jarayoni faqat axborot yetkazish bilan cheklanmaydi. U milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba hamda zamonaviy kommunikatsiya vositalari o‘rtasidagi uyg‘unlik orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv ijtimoiy ongda barqaror qarashlar shakllanishiga, fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarga nisbatan mas’uliyatli munosabatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz ildam barcha sohalarda keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirar ekan, ushbu islohotlar yutuqlarini targ‘ib qilish masalasi faqat axborot uzatish bilan chegaralanmaydi. U jamiyat ongida yangilanishlar mazmunini anglash, ularga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytirish va fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan bog‘liq murakkab mafkuraviy jarayondir. An’anaviy axborot makoni tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va bevosita ijtimoiy muloqotga tayangani bilan ahamiyatli bo‘lsa, virtual makon tezkorlik, ommaviy qamrov va interaktivlik imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Ularning birini ikkinchisiga qarshi qo‘yish emas, balki o‘zaro uyg‘un holda qo‘llash islohotlar mazmunini jamiyatga chuqurroq singdirish imkonini beradi.

Bugun O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, islohotlarning real natijalari jamoatchilikka sodda, ishonchli va ta’sirchan shaklda yetkazilganda ijtimoiy ishonch mustahkamlanadi, fuqarolarning davlat va jamiyat hayotidagi ishtiroki kuchayadi. Aksincha, axborot bo‘shlig‘i paydo bo‘lgan muhitda turli noto‘g‘ri talqinlar, yuzaki qarashlar va tashqi mafkuraviy ta’sirlar uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Shu ma’noda an’anaviy va virtual axborot makonining mafkuraviy imkoniyatlarini ilmiy asosda yo‘naltirish jamiyat barqarorligi, fuqarolik birdamligi va islohotlarning ijtimoiy samaradorligini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Olib borilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, amalga oshirilayotgan ishlarni targ‘ibotini mazmunli, tizimli va uzluksiz olib borilgandagina kutilgan natijani beradi. Bu yo‘nalishda axborotning tezkorligi bilan uning ishonchliligi, ko‘lamdorligi bilan mazmun teranligi, zamonaviy texnologiyalar bilan milliy-ma’naviy asoslar o‘rtasidagi muvozanat saqlanishi zarur hisoblanadi. Ana shunday yondashuv islohotlarni shunchaki siyosiy jarayon emas, balki jamiyatning ichki ehtiyojiga aylantira oladi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqib, biz quyidagi takliflarni keltirib o‘tmoqchimiz,

Birinchidan, islohotlar mazmunini targ‘ib etishda an’anaviy va virtual kommunikatsiya vositalarini yagona strategik tizim asosida uyg‘unlashtirish zarur. Televideniye, matbuot, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar va raqamli platformalar bir-biridan uzilgan holda emas, balki umumiy maqsad va yagona mazmuniy yo‘nalishda ishlashi kerak.

Ikkinchidan, davlat organlari va jamoat tashkilotlarining raqamli axborot faoliyatida qisqa rasmiy xabarlar bilan cheklanib qolmasdan, islohotlarning mazmuni, sababi va amaliy natijasini tushuntirib beruvchi tahliliy, sodda va ta’sirchan kontent ulushini oshirish lozim. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar auditoriyasiga mos vizual va interaktiv shakllardan samarali foydalanish muhim.

Uchinchidan, joylarda olib borilayotgan islohotlar natijalarini mahalla, ta’lim muassasasi, mehnat jamoalari va fuqarolik jamiyati institutlari orqali bevosita muloqot shaklida yetkazish amaliyotini kengaytirish kerak. Chunki jonli suhbat va tushuntirish ishlari odamlarning ishonchini mustahkamlaydi hamda rasmiy axborotni hayotiy misollar bilan bog‘laydi.

To‘rtinchidan, yoshlar auditoriyasiga yo‘naltirilgan mafkuraviy targ‘ibotning alohida kommunikativ modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bu modelda raqamli madaniyat, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va milliy qadriyatlarga tayangan mazmun bir butun holda uyg‘unlashishi lozim.

Beshinchidan, virtual axborot makonida islohotlar mazmunini buzib talqin qiluvchi yoki noto‘g‘ri axborot tarqatuvchi oqimlarga qarshi faqat

inkor usuli bilan emas, balki tezkor, asosli va ishonch uyg‘otuvchi muqobil axborot siyosati orqali javob berish tizimini kuchaytirish zarur. Eng samarali javob ishonchli, dalillangan va jamoatchilikka tushunarli axborotdir.

Shundagina, islohotlar yutuqlarini targ‘ib etish jarayoni jamiyatda ijtimoiy ong va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim mafkuraviy omildir. An’anaviy hamda virtual axborot makonining uyg‘unligi fuqarolarda islohotlarga nisbatan daxldorlik hissini kuchaytirib, ularning ijtimoiy jarayonlardagi faolligini oshiradi. Bunday yondashuv jamiyatda g‘oyaviy barqarorlikni ta’minlash, milliy taraqqiyot maqsadlari atrofida jamoatchilikni birlashtirishga xizmat qiladi. Natijada islohotlar mazmuni ijtimoiy ongda mustahkam qarash va qadriyat sifatida qaror topadi.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 36-bet

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 78-bet

3. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. – Cambridge: MIT Press, 1989. – p. 27

4. Lippmann W. Public Opinion. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. p. 248

5. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010. 407

6. Lasswell H. The Structure and Function of Communication in Society. – New York: Harper & Row, 1960. p. 117

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 45-bet

ZJV5401

FIZIKA FANINI O‘QITISHDA AN’ANAVIY DARS USULLARI BILAN SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI VIRTUAL VOSITALARNI UYG‘UNLASHTIRISH

O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti dotsent v.b
Usubjonova Durdona Fazliddin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti fizika yo‘nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu ishda fizika fanini o‘qitishda an’anaviy dars usullari bilan sun’iy intellekt asosidagi virtual vositalarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqotda ikki yondashuvning samaradorligi, o‘quvchilarning bilim darajasi va darsga bo‘lgan qiziqishi tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Fizika fanini o‘qitish, an’anaviy dars usullari, sun’iy intellekt, virtual vositalar, interaktiv ta’lim, adaptiv o‘quv platformalari, ta’lim samaradorligi, inklyuziv ta’lim.

Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogik innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, fizika fanini o‘qitishda murakkab nazariy tushunchalar va amaliy tajribalarni o‘quvchilarga yetkazish o‘qituvchi uchun katta vazifa bo‘lib qoladi. An’anaviy dars usullari, ya’ni izoh, misol yechish, laboratoriya ishlari o‘quvchilarga fan asoslarini tushuntirishda muhim, lekin ularning qiziqishi va bilimni mustahkamlash darajasini har doim oshira olmaydi.[1] So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar va adaptiv o‘quv platformalari o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib, murakkab tushunchalarni osonlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ular darsni qiziqarli va samarali qilish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda an’anaviy va virtual metodlarni uyg‘unlashtirish muammosi dolzarb hisoblanadi, chunki bu yondashuv o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ta’lim sifatini yaxshilash va inklyuziv sharoitlarda teng imkoniyat yaratishning samarali usuli hisoblanadi.[2] Shu bois, fizika fanini o‘qitishda an’anaviy dars usullari bilan sun’iy intellekt asosidagi virtual vositalarni uyg‘unlashtirish bugungi pedagogik amaliyotda eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Fizika fanini o‘qitishda an’anaviy pedagogik usullar uzoq yillar davomida asosiy o‘quv jarayoni vositasi bo‘lib kelgan. Ushbu usullar darsliklar, laboratoriya mashg‘ulotlari va muallimning tushuntirishlariga tayangan holda talabalar bilimini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, XXI asr texnologiyalari, xususan sun’iy intellekt (SI) asosidagi virtual vositalar, ta’lim jarayonini yanada interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilish imkonini yaratmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy usullar bilan SI vositalarini uyg‘unlashtirish fizika fanini o‘qitishda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Masalan, Navbahor Qurbanbayeva (2025) o‘z maqolasida sun’iy intellekt asosidagi vositalar orqali fizika terminlari va tushunchalarini talabalarga tushunarli yetkazish usullarini tahlil qiladi.[3] Maqolada an’anaviy darslar bilan solishtirganda SI texnologiyalari talabalar bilimini tezroq va chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilishi, shuningdek, individual tushuntirishlarni amalga oshirish imkoniyatini yaratishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, Safarova va hamkorlar (2025) SI vositalarining pedagogik afzalliklari — adaptiv o‘qitish, individual yondashuv va avtomatlashtirilgan nazorat — haqida fikr bildiradilar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, fizika fanida murakkab nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonida SI texnologiyalari talabalarni qiziqtiradi va mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shohruh Rasulov (2025) o‘z tadqiqotida fizika masalalarini yechishda SI vositalarining amaliy qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Masalan, mexanika bo‘limidagi murakkab masalalarni an’anaviy yechimlar bilan solishtirganda, SI yordamida model tuzish, tahlil va yechim topish jarayoni tezroq va vizual tarzda amalga oshiriladi. Ularning fikriga ko‘ra, SI yordamida dars materiallarini diversifikatsiya qilish, talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirish mumkin.[4] Xalqaro tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, LLM (Large

Language Models) asosidagi o‘quv tizimlari an’anaviy metodlar bilan solishtirganda talabalarning kontseptual tushunish va reflektiv o‘rganish darajasini oshiradi (Jiang & Jiang, 2024). Shu bilan birga, virtual laboratoriyalar, animatsiyalar va simulyatsiya vositalari fizika fanini o‘qitishda an’anaviy metodlarni boyitadi va interaktivlikni oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari ham ta’limda SI integratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Masalan, 2024-yilda tasdiqlangan “Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi” (RP-358) ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohasida SI texnologiyalarini keng joriy etishni maqsad qilgan. Shuningdek, 2025-yil 27-oktabrda qabul qilingan qaror SI texnologiyalarini ta’lim tizimiga kengaytirilgan tarzda integratsiya qilish, virtual loyihalarni yaratish va zamonaviy texnologik infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilaydi. Ushbu siyosiy hujjatlar fizikani o‘qitishda SI vositalarini joriy etish va an’anaviy metodlarni uyg‘unlashtirish uchun mustahkam huquqiy va amaliy asos yaratadi. Fizika fanini o‘qitishda an’anaviy pedagogik usullar bilan sun’iy intellekt asosidagi virtual vositalarni uyg‘unlashtirish bir qator afzalliklarni taqdim etadi. [5] An’anaviy darslar bilimning qat’iy asosini shakllantirsa, SI vositalari interaktivlik, adaptiv ta’lim, vizualizatsiya va shaxsiylashtirilgan tushuntirish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birga, davlat siyosati va Prezident farmonlari ushbu yondashuvni qo‘llab-quvvatlaydi va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag‘batlantiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy va zamonaviy texnologiyalarni uyg‘unlashtirish fizika fanini o‘qitishda talabalar bilimini samarali oshirish va ularni mustaqil o‘rganishga jalb qilishning eng maqbul yo‘li hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda fizika fanini o‘qitishda an’anaviy dars usullari bilan sun’iy intellekt asosidagi virtual vositalarni uyg‘unlashtirishning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy usullar o‘zaro uyg‘unlashtirilib, ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va natijalari chuqur tahlil qilindi. Dastlab, tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlar, mahalliy va xorijiy tadqiqotlar, fizika ta’limida raqamli va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha mavjud tajribalar o‘rganildi. Ushbu tahlil orqali an’anaviy dars

usullarining afzalliklari hamda virtual, sun’iy intellektga asoslangan vositalarning didaktik imkoniyatlari aniqlab olindi. Tadqiqotning empirik bosqichida kuzatish, suhbat, anketa va pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari oliy yoki umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tashkil etilib, talaba va o‘quvchilarning bilim darajasi, fan bo‘yicha qiziqishi hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar aniqlandi. Eksperimental guruhda fizika darslari an’anaviy tushuntirish, masala yechish va laboratoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sun’iy intellekt asosidagi virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, adaptiv test tizimlari va interaktiv ta’lim platformalari yordamida olib borildi. Nazorat guruhida esa asosan an’anaviy o‘qitish usullari qo‘llanildi. Tadqiqot davomida ta’lim jarayonining samaradorligini baholash uchun diagnostik testlar, reyting baholash tizimi hamda sifat va miqdoriy tahlil usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar taqqoslash, umumlashtirish va statistik tahlil orqali qayta ishlanib, an’anaviy va sun’iy intellekt asosidagi virtual vositalar uyg‘unligi fizika fanini o‘qitishda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga, murakkab tushunchalarni vizuallashtirishga hamda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi asoslab berildi. Metodologiyada o‘qituvchining pedagogik roli va raqamli kompetensiyasini oshirish, virtual vositalardan maqsadli va me’yoriy foydalanish tamoyillari ham e’tiborga olindi. Ushbu yondashuv fizika fanini o‘qitishda zamonaviy, innovatsion va samarali ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Fizika fanini o‘qitishda an’anaviy dars usullari va sun’iy intellekt (SI) asosidagi virtual vositalarni uyg‘unlashtirishning samaradorligini tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, har ikki yondashuvning kombinatsiyasi o‘quvchilarning bilimini chuqurlashtirish va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. An’anaviy darslar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni tushunish, laboratoriya mashg‘ulotlarida amaliy tajriba qilish va o‘qituvchi bilan bevosita muloqot orqali bilimni mustahkamlash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu usullar o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini to‘liq hisobga olishda cheklangan bo‘lishi mumkin. Sun’iy intellekt asosidagi virtual vositalar esa o‘quvchilarning bilim darajasini individual tarzda tahlil qilish, interaktiv simulyatsiyalar orqali fizik jarayonlarni vizual ko‘rinishda

tushuntirish va masofaviy ishlarda qo‘llash imkonini beradi. [6] Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, SI vositalari yordamida o‘quvchilarning murakkab kontseptsiyalarni tushunish darajasi an’anaviy usullarga qaraganda sezilarli darajada oshadi. Masalan, virtual laboratoriya yordamida o‘quvchilar xavfsiz muhitda turli tajribalarni amalga oshirib, natijalarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkoniga ega bo‘ldilar. Biroq, SI vositalarining samaradorligi faqat texnologik vositalarga tayanish bilan cheklanib qolmasligi, balki ularni an’anaviy dars jarayoni bilan uyg‘unlashtirish zarurligi muhim ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning eng yaxshi natijalarga erishishi uchun darslar quyidagi tartibda tashkil etilishi tavsiya etiladi: nazariy tushuntirish (an’anaviy usul) → interaktiv virtual mashqlar (SI vositalari) → amaliy laboratoriya ishlari (an’anaviy) → individual mustaqil ishlash va testlar (SI vositalari).

An’anaviy dars usullari bilan sun’iy intellekt asosidagi virtual vositalarni uyg‘unlashtirish fizika fanini o‘qitishda zamonaviy va samarali yondashuv hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishga, balki o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirishga ham yordam beradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining roli ham kamaymaydi, balki u yanada samarali tarzda ta’lim jarayonini boshqarish va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada, an’anaviy va virtual metodlarning uyg‘unlashuvi zamonaviy ta’limda innovatsion va amaliy yo‘l sifatida tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kemouss, H., & Khaldi, M. (2025). *Physics Teaching with Artificial Intelligence (AI): A Personalized Approach for Accommodator-Style Learners*. International Journal of Instruction, Vol.18(3), 39–58

2. Verawati, N. N. S. P., & Nisrina, N. (2025). *The Role of Artificial Intelligence (AI) in Transforming Physics Education: A Narrative Review*.

3. Jalolova, M. X. (2025). *Fizika Fanida Raqamli Texnologiyalardan Foydalanishning O‘qitish Samaradorligiga Ta’siri*.

4. Akramov, B. O. (2023). *Fizika Fanini O‘qitishda Zamonaviy Texnikalardan Foydalanish va Zamonaviy Texnik Qurilmalarni Amaliy O‘rganish*.

5. PhET Interactive Simulations (Colorado University Boulder) — *Explorable Simulations for Physics Education*.

6. Integration of Artificial Intelligence into Physics Education Literature Review (2025).

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ОРГАНИЗАТSIИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Хамроева Феруза Асроровна
доцент Самаркандского
государственного
педагогического института

Аннотатsiя. В данной статье анализируются вопросы вовлечения студентов в научно-исследовательскую деятельность в системе современного высшего образования, формирования у них навыков самостоятельного мышления, анализа проблемных ситуатsий и формулирования научно обоснованных выводов. В исследовании освещаются дидактические возможности исследовательски-ориентированных и интерактивных методов обучения в повышении научного потенциала студентов. В частности, обоснована эффективность таких методов, как групповая рефлексия, проектно-исследовательский метод (project-based research), Capstone Project (кульминатsионный проект) и метод «Аквариум» в обеспечении интегратsии теории и практики. Также в статье рассматриваются функции научного руководства и консультирования педагогов-

наставников как важный фактор подготовки студента к самостоятельному исследованию.

Ключевые слова: высшее образование, научно-исследовательская деятельность, интерактивные методы, проектно-исследовательский метод, Capstone Project, метод «Аквариум», самостоятельное мышление, аналитические навыки, научное руководство.

В условиях современной системы высшего образования вовлечение студентов в научно-исследовательскую деятельность, формирование у них навыков самостоятельного мышления, анализа проблемных situatsiй и выработки научно обоснованных выводов рассматриваются как одна из важнейших педагогических задач. В высших учебных заведениях с развитой системой образования данный процесс, как правило, осуществляется на основе исследовательско-ориентированных и интерактивных методов обучения. Использование этих методов способствует активному участию студентов в выявлении научных проблем, проведении исследований, анализе полученных результатов и формулировании выводов. В этом контексте научно-методический анализ применения интерактивных методов обучения в organizatsii научно-исследовательской деятельности студентов и раскрытие их дидактического потенциала приобретают особую актуальность.

В высших учебных заведениях с развитой образовательной системой в процессе привлечения студентов к научно-исследовательской деятельности широко применяются следующие интерактивные методы обучения. [1,2].

Метод групповой рефлексии ориентирован на личностное развитие студентов и направлен на изменение характера их учебно-познавательной деятельности посредством свободного общения и обмена мнениями.

Проектно-исследовательские методы (project-based research) относятся к числу образовательных методов, направленных на формирование у студентов умений самостоятельного планирования,

проведения научных изысканий и применения полученных знаний в практической деятельности. В рамках данного метода студенты закрепляют теоретические знания посредством анализа реальных проблем и поиска путей их решения, что обеспечивает интегratsiю теории и практики. В результате научный потенциал обучающихся проявляется в реальной деятельности. В связи с этим проектная деятельность рассматривается не только как метод обучения, но и как важный показатель профессиональной зрелости будущего специалиста и педагога.В частности, в рамках «кульминatsionного проекта» (Capstone Project) студенты последовательно дорабатывают и совершенствуют подготовленные ими научные отчёты и презентatsii, что способствует развитию навыков научного мышления, аргументatsii и аналитического рассуждения. Реализatsiя подобных проектов, как правило, осуществляется на основе методических рекомендatsiй и научных консультatsiй наставников-преподавателей. Научное руководство обеспечивает переход студентов к самостоятельной исследовательской деятельности и их подготовку от теоретического осмысления к практическому научному исследованию. При этом наставнический подход выполняет образовательную и корректирующую функции, способствуя устранению недостатков в научном мышлении, критическому переосмыслению идей и формированию обоснованных выводов.

Научно-исследовательский метод реализуется на основе классических этапов научного поиска (проблема → гипотеза → наблюдение → анализ → вывод). Данный метод ориентирован на формирование у студентов умений самостоятельного поиска научных знаний, их анализа, синтеза, обоснования и практического применения. В результате обучающиеся приобретают навыки научно обоснованного изучения реальных проблем и их решения с использованием аналитических и аргументированных подходов. [3,4].

Метод «Аквариум» представляет собой интерактивный и структурированный метод, направленный на развитие у студентов навыков анализа, обсуждения и критического мышления при рассмотрении конкретных научных или социальных проблем. В ходе

применения данного метода студенты распределяются на малые группы, выполняя поочерёдно роли активных участников обсуждения и наблюдателей-аналитиков. Метод «Аквариум» получил широкое распространение в различных образовательных системах как эффективное средство формирования навыков свободного выражения мнений, ведения дискуссий, развития критического мышления и активной гражданской позиции обучающихся.

Подводя итог, следует отметить, что интерактивные и исследовательско-ориентированные методы обучения являются эффективным педагогическим инструментом вовлечения студентов в научно-исследовательскую деятельность. Применение данных методов способствует развитию у студентов самостоятельного мышления, аналитического подхода, умений решения научных проблем и аргументированной защиты собственной позиции. В связи с этим системное и целенаправленное использование интерактивных методов в образовательном процессе высшей школы способствует повышению научного потенциала обучающихся.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1.Джураев Б.Т. *Методика преподавания педагогических и психологических дисциплин*. Учебное пособие. – Бухара: Fan va ta’lim, 2022. – 326 с.

2.Саидахмедов Н. *Новые педагогические технологии*. Учебное пособие. – Коканд: Издательство Кокандского ГПИ, 2020. – 192 с.

3.Perry W.G. *Forms of Intellectual and Ethical Development in the College Years*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1970. – 82 p.

4.Norton L., Horn R., Thomas S. *Innovatory Courses: Matching Lectures Objectives with Student’s Perceptions and Academic Performance*. – Oxford, 2002. – P. 331–343.

JAMIYATDA ISLOHOTLARGA ISHONCHNI SHAKLLANTIRISHDA TARG‘IBOTNING KOMMUNIKATIV MODELI

Gulbahor Mirazimova O‘**ktamovna**
Jizzax politexnika instituti,
“Bino va inshootlar qurilishi”
kafedrasi o‘qituvchisi
Egamberdiyeva H.Sh.
Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan ijtimoiy ishonchni shakllantirishda targ‘ibot faoliyatining kommunikativ modeli tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot makoni sharoitida davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot jarayoni, an’anaviy va virtual kommunikatsiya vositalari orqali islohotlar mazmunini aholiga yetkazish mexanizmlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, targ‘ibotning samarali kommunikativ modeli orqali jamoatchilik ongida islohotlarning mohiyati, maqsadi va natijalarini tushuntirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini mustahkamlash masalalari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: islohotlar, ijtimoiy ishonch, targ‘ibot, kommunikativ model, axborot siyosati, jamoatchilik fikri, ijtimoiy kommunikatsiya, ommaviy axborot vositalari, virtual makon.

Bugungi globallashuv va raqamli axborot makoni sharoitida jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va natijalarini jamoatchilikka to‘g‘ri va tizimli yetkazish bilan chambarchas bog‘liqdir. Islohotlar jarayonining muvaffaqiyati nafaqat ularning amaliy natijalari, balki fuqarolar ongida ushbu o‘zgarishlarga nisbatan shakllangan ijtimoiy ishonch darajasi bilan ham belgilanadi. Shu bois, davlat va jamiyat o‘rtasidagi ochiq muloqotni ta’minlash, islohotlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish hamda fuqarolarni ushbu jarayonlarga faol jalb

etishda targ‘ibotning kommunikativ mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, zamonaviy kommunikatsiya vositalarining keng rivojlanishi natijasida axborot oqimining keskin ortishi jamiyatda islohotlar mazmunini tushuntirishning yangi usullarini talab etmoqda. An’anaviy targ‘ibot shakllari bilan bir qatorda raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va yangi media vositalari orqali olib borilayotgan kommunikatsiya jarayoni fuqarolarning axborot qabul qilish madaniyatini ham o‘zgartirmoqda. Shu nuqtai nazardan, islohotlar yutuqlarini samarali targ‘ib qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va jamiyatda islohotlarga nisbatan mustahkam ishonch muhitini yaratishda targ‘ibotning kommunikativ modelini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida islohotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan fuqarolar tomonidan ularning mazmun-mohiyati qanchalik anglanishi va qo‘llab-quvvatlanishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini shakllantirish davlat boshqaruvi va ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy ishonch – bu fuqarolarning davlat siyosati, amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalariga bo‘lgan ijobiy munosabati hamda ishonchidir. Bunday ishonch muhitining shakllanishida esa targ‘ibotning kommunikativ modeli alohida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida jamiyat bilan ochiq muloqotni ta’minlash muhim tamoyil sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvida xalq bilan muloqot va ochiqlik masalalariga alohida e’tibor qaratib, quyidagicha ta’kidlaydi: “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” [1]. Ushbu tamoyil davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonchli munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim kommunikativ asos bo‘lib, islohotlarning mazmuni va natijalarini fuqarolarga tushuntirish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat rahbari o‘z nutqlarida islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan fuqarolarning ushbu jarayonlarga nisbatan ishonchi va faolligiga bog‘liqligini ta’kidlab keladi. Jumladan, Sh.Mirziyoyev: “Islohotlar – bu avvalo inson manfaatlari,

xalqimizning farovon hayotini ta’minlashga qaratilgan jarayondir” deb ta’kidlaydi [2]. Ushbu fikr jamiyatda islohotlarning mohiyatini tushuntirish, ularning pirovard maqsadi inson manfaatlari ekanligini keng jamoatchilikka yetkazish orqali ijtimoiy ishonchni mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Jamiyat rivojida ishonch omili muhim ijtimoiy kapital sifatida ko‘riladi. Mashhur amerikalik siyosatshunos F.Fukuyama jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy ishonchning ahamiyatini alohida ta’kidlab, uni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, “ishonch – bu jamiyat a’zolari o‘rtasida shakllangan umumiy qadriyatlar va me’yorlarga asoslangan ijtimoiy kapital bo‘lib, u iqtisodiy hamkorlik va institutsional barqarorlikni ta’minlaydi” [3]. Demak, jamiyatda o‘zaro ishonch darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, davlat siyosati va islohotlarning samaradorligi ham shunchalik ortadi. Shu bilan birga, ijtimoiy kommunikatsiya nazariyasi vakillari ham jamiyat rivojida kommunikativ jarayonlarning rolini alohida e’tirof etadilar. Nemis olimi Y.Habermasning ta’kidlashicha, zamonaviy demokratik jamiyatlarda davlat va fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro muloqot jamoatchilik fikrining shakllanishi hamda ijtimoiy ishonchning mustahkamlanishida muhim o‘rin tutadi. Olimning fikricha, ochiq va erkin kommunikatsiya maydoni mavjud bo‘lgan jamiyatlarda fuqarolar davlat siyosati va islohotlarga faolroq munosabat bildiradi [4]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, targ‘ibotning kommunikativ modeli davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida kommunikatsiya jarayonining shakli ham sezilarli darajada o‘zgarmoqda. An’anaviy targ‘ibot vositalari – ommaviy axborot vositalari, matbuot nashrlari, jamoaviy uchrashuvlar va ma’rifiy tadbirlar bilan bir qatorda virtual kommunikatsiya platformalari ham keng qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlari, raqamli media platformalar orqali islohotlar mazmuni, ularning natijalari va ahamiyati haqida keng jamoatchilikka tezkor va keng qamrovli axborot yetkazish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Biroq virtual axborot makonining kengayishi bilan birga turli xil noto‘g‘ri yoki manipulyativ axborotlarning ham tarqalish ehtimoli ortmoqda. Shu sababli islohotlar targ‘ibotining kommunikativ modeli faqat axborot yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki jamoatchilik fikrini tahlil qilish, fuqarolarning ehtiyoj va manfaatlarini hisobga olish hamda ishonchli axborot manbalarini shakllantirishni ham o‘z ichiga olishi zarur. Mazkur jarayonda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy muassasalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini shakllantirishda targ‘ibotning kommunikativ modeli bir necha muhim elementlardan iborat bo‘lishi lozim. Birinchidan, axborotning ochiqligi va shaffofligi ta’minlanishi zarur. Fuqarolar islohotlarning maqsadi, bosqichlari va natijalari haqida aniq va ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, kommunikatsiya jarayonida fuqarolar bilan ikki tomonlama muloqot mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi muhimdir. Bu esa fuqarolarning fikr va takliflarini inobatga olish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda davlat siyosatining legitimligini oshirishga xizmat qiladi. Uchinchidan, targ‘ibot jarayonida milliy qadriyatlar, ma’naviy omillar va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlash muhimdir.

Umuman olganda, jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini shakllantirishda targ‘ibotning kommunikativ modeli davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, an’anaviy va virtual kommunikatsiya vositalarining uyg‘unlashuvi zamonaviy axborot makoni sharoitida islohotlar targ‘ibotining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini shakllantirish jarayonida targ‘ibotning kommunikativ modeli nafaqat axborotni yetkazish, balki ijtimoiy muloqotni tashkil etish vazifasini ham bajaradi. Chunki zamonaviy jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi fuqarolarning axborotni qabul qilish va unga nisbatan munosabat bildirish jarayonini murakkablashtirmoqda. Shu sababli islohotlar mazmunini

jamoatchilikka yetkazishda kommunikatsiyaning tizimli va strategik modeli muhim ahamiyat kasb etadi. Bu model davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda ilmiy jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshirilishi zarur.

Tadqiqotchilar jamiyat rivojida ishonch omilining muhimligini ko‘p bor ta’kidlaganlar. Jumladan, amerikalik olim R.Putnam ijtimoiy kapital nazariyasini ishlab chiqib, jamiyatda o‘zaro ishonch darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda demokratik institutlar samaraliroq faoliyat yuritishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ijtimoiy kapital fuqarolarning bir-biriga hamda davlat institutlariga bo‘lgan ishonchiga asoslanadi va bu omil jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi [5]. Demak, islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun fuqarolar ongida davlat siyosati va uning maqsadlariga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishi muhimdir. Jamiyatda ishonch muhitini shakllantirishda ommaviy axborot vositalari ham alohida rol o‘ynaydi. Mashhur kommunikatsiya nazariyotchisi Denis Mak Kueyl ommaviy kommunikatsiya jarayonini jamiyatdagi axborot almashinuvi va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi muhim institut sifatida baholaydi. Uning fikricha, ommaviy axborot vositalari davlat siyosati va ijtimoiy jarayonlar haqida jamoatchilikni xabardor qilish orqali fuqarolar ongida muayyan qarash va munosabatlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi [6]. Shu sababli islohotlar targ‘ibotida ommaviy axborot vositalari va yangi media platformalaridan samarali foydalanish kommunikativ modelning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘zbekiston sharoitida ham islohotlar jarayonining ochiqligi va jamoatchilik bilan muloqot masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini ta’minlash zarurligini ta’kidlab, “davlat organlari faoliyati xalq uchun ochiq va tushunarli bo‘lishi kerak”ligini qayd etadi [2]. Ushbu yondashuv jamiyatda davlat siyosati va islohotlarga nisbatan ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, islohotlar targ‘ibotining kommunikativ modeli fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Ijtimoiy kommunikatsiya nazariyalarida kommunikatsiya jarayonining samaradorligi axborotning nafaqat mazmuni, balki uning

taqdim etilish shakli, auditoriya ehtiyojlariga mosligi hamda axborot manbasining ishonchliligiga ham bog‘liq ekani ta’kidlanadi [7]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, targ‘ibot faoliyati bir tomonlama axborot yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki interaktiv muloqot, jamoatchilik fikrini o‘rganish va tahlil qilish kabi jarayonlarni ham o‘z ichiga olishi zarur.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivoji natijasida kommunikatsiya jarayonining yangi shakllari vujudga kelmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot almashinuvi tezlashib, jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayoniga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, virtual makon turli xil axborot xurujlari va manipulyativ ta’sirlar uchun ham maydon bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu sababli islohotlar targ‘ibotining kommunikativ modelini ishlab chiqishda axborot xavfsizligi, axborot madaniyati va media savodxonlik kabi omillarni ham hisobga olish muhimdir [8]. Mahalliy tadqiqotchilar ham jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini shakllantirishda ma’naviy va mafkuraviy omillarning rolini alohida ta’kidlaydilar. Xususan, milliy g‘oya va ma’naviyat sohasidagi tadqiqotlarda jamiyat barqaror rivojlanishi uchun fuqarolarning ijtimoiy faolligi, davlat siyosatiga nisbatan ongli munosabati hamda umumiy maqsadlar atrofida birlashishi muhim omil sifatida baholanadi [9]. Bu esa islohotlar targ‘ibotining kommunikativ modelini ishlab chiqishda milliy qadriyatlar va ma’naviy omillarning uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. Shuningdek, zamonaviy siyosiy kommunikatsiya tadqiqotlarida davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali muloqot mexanizmlarini yaratish islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining muhim sharti sifatida ko‘riladi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, davlat siyosatining ochiqligi, jamoatchilik fikriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish hamda fuqarolarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish ijtimoiy ishonch darajasini oshiradi [10]. Demak, jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini shakllantirishda targ‘ibotning kommunikativ modeli strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali muloqotni ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda islohotlarning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda islohotlarga nisbatan ishonch muhitini shakllantirish davlat va jamiyat o‘rtasidagi samarali kommunikatsiya jarayoniga bevosita bog‘liqdir. Islohotlarning mazmuni, maqsadi va natijalarini fuqarolarga aniq va tushunarli tarzda yetkazish, jamoatchilik fikrini o‘rganish hamda fuqarolarni ijtimoiy jarayonlarga faol jalb etish ijtimoiy ishonchni mustahkamlashning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy axborot makoni sharoitida targ‘ibotning kommunikativ modeli an’anaviy va virtual kommunikatsiya vositalarining uyg‘unligini ta’minlashi zarur. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari hamda jamoatchilik bilan bevosita muloqot shakllari orqali olib borilayotgan targ‘ibot ishlari fuqarolarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, islohotlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish hamda jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, targ‘ibot jarayonida axborotning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, fuqarolar bilan ikki tomonlama muloqotni rivojlantirish hamda milliy qadriyatlar va ma’naviy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar asosida shakllangan kommunikativ model jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev Sh.M. **Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.** – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2016. – 56 b.

2.Mirziyoyev Sh. M. **Yangi O‘zbekiston strategiyasi.** – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

3.F.Francis. **Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity.** – New York: Free Press, 1995. – 457 p.

4.H.Jürgen. **The Theory of Communicative Action. Volume 1: Reason and the Rationalization of Society.** – Boston: Beacon Press, 1984. – 465 p.

5.Putnam Robert D. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. – Princeton (New Jersey): Princeton University Press, 1993. – 258 p.

6.McQuail Denis. McQuail’s Mass Communication Theory. 6th edition. – London: Sage Publications Ltd., 2010. – 632 p.

7.Castells Manuel. The Rise of the Network Society. 2nd edition. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 597 p.

8.Van Dijk Jan A.G.M. The Network Society. 3rd edition. – London: Sage Publications Ltd., 2012. – 312 p.

9.Karimov Islom Abdug‘aniyevich. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat” nashriyoti, 2008. – 176 b.

10. Nye Joseph S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004. – 191 p.

IJTIMOIY ONG TRANSFORMATSIYASIDA G‘OYA VA MAFKURANING O‘RNI

Xidirov Jurabek Abdurasulovich
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD) Diplomat
universiteti ilmiy xodimi

Annotatsiya Mazkur maqolada g‘oya va mafkuraning ijtimoiy ong transformatsiyasi jarayonidagi o‘rni hamda ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda g‘oya va mafkura ijtimoiy ongning muhim tarkibiy elementlari sifatida ko‘rib chiqilib, ularning jamiyat rivoji, ijtimoiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarga ta’siri yoritiladi. Muallif g‘oya va mafkuraning ijtimoiy ongning ratsional bosqichi sifatidagi funksiyalarini, shuningdek, ijtimoiy guruhlar manfaatlari va qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqligini asoslab beradi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy ong transformatsiyasining institutsional,

madaniy va mafkuraviy omillari tahlil qilinib, g‘oyalar tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi.

Kalit so‘zlar ijtimoiy ong, g‘oya, mafkura, ijtimoiy transformatsiya, mafkuraviy jarayonlar, ijtimoiy manfaatlar, qadriyatlar tizimi, fuqarolik ong, ijtimoiy institutlar, jamiyat rivoji.

KIRISH

Jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan har qanday jarayon va hodisaning ilmiy asoslarini o‘rganish uning tub mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, g‘oya va mafkuraning ijtimoiy ong transformatsiyasi jarayonidagi o‘rnini tahlil qilish bugungi globallashuv va axborotlashuv sharoitida alohida dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki zamonaviy jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy ongning shakllanishi va o‘zgarishi ko‘p jihatdan g‘oyalar tizimi va mafkuraviy qarashlarning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Mafkuraning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini chuqur anglash uchun uning nafaqat mazmuniy, balki institutsional jihatlarini ham tahlil qilish zarur. Chunki mafkura jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimida muhim funksiyalarni bajaruvchi g‘oyalar tizimi sifatida ijtimoiy ongni shakllantirish va uni muayyan yo‘nalishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM Ijtimoiy ong transformatsiyasi jarayonini tahlil qilishda g‘oya va mafkuraning tutgan o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday jamiyat taraqqiyoti, avvalo, uning a’zolarining dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur jarayon esa ko‘p jihatdan g‘oyalar tizimi va mafkuraviy qarashlar orqali shakllanadi hamda rivojlanadi. Shu sababli g‘oya va mafkura ijtimoiy ong transformatsiyasining muhim nazariy hamda amaliy omillaridan biri sifatida qaraladi. Tadqiqotchilarning fikricha, mafkurani jamiyat hayotining muhim ijtimoiy hodisasi sifatida ikki jihatdan – mazmuniy va institutsional jihatdan tahlil qilish zarur. Mazmuniy jihatdan mafkura muayyan g‘oyalar tizimini ifodalaydi va jamiyat taraqqiyotining strategik yo‘nalishlarini belgilaydi. Institutsional jihatdan esa mafkura ushbu g‘oyalarni ijtimoiy institutlar orqali amaliy hayotga tatbiq etish

mexanizmlarini ifodalaydi. Shu bois mafkuraning samaradorligi nafaqat uning nazariy mazmuniga, balki ushbu g‘oyalarni jamiyat hayotiga joriy etish imkoniyatlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Mafkuraning institutsional jihatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, har qanday mafkuraviy tizim jamiyatdagi turli ijtimoiy institutlar – ta’lim tizimi, siyosiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar hamda jamoat institutlari orqali amalga oshiriladi. Aynan shu institutlar orqali g‘oyalar jamiyat ongiga singdiriladi, ijtimoiy qadriyatlar shakllantiriladi va muayyan mafkuraviy qarashlar mustahkamlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mafkura jamiyatning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Mashhur antropolog B. Malinovskiy o‘zining madaniyat nazariyasida g‘oya va mafkuraning jamiyat hayotidagi institutsional funksiyasini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, har qanday falsafiy fikr, siyosiy mafkura yoki ilmiy g‘oya jamiyat tomonidan qabul qilinib, ijtimoiy institutlar orqali qo‘llab-quvvatlangandagina real ijtimoiy voqelikning tarkibiy qismiga aylanadi. Aks holda, ular individual fikr darajasida qolib ketadi. Shu sababli g‘oyalar tizimi jamiyat hayotida amaliy kuchga aylanishi uchun ularning institutsional asoslari shakllangan bo‘lishi zarur.

Ijtimoiy ong strukturasi doirasida g‘oya va mafkura muhim konseptual elementlar sifatida namoyon bo‘ladi. G‘oya jamiyat rivojlanishining nazariy asosini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, u ijtimoiy jarayonlarni anglash, muayyan maqsadlarni belgilash va rivojlanish strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Jamiyat hayotida paydo bo‘ladigan yangi g‘oyalar ijtimoiy muammolarni hal qilish, yangi ijtimoiy institutlarni shakllantirish hamda taraqqiyotning yangi bosqichlarini belgilashda muhim rol o‘ynaydi.

Mafkura esa g‘oyalar tizimining nazariy jihatdan asoslangan va tizimlashtirilgan shakli sifatida namoyon bo‘ladi. U g‘oyalarni amaliy faoliyatga tatbiq etishning konseptual mexanizmlarini ishlab chiqadi hamda jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar tizimini shakllantiradi. Shu jihatdan qaraganda, mafkura jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishida muhim integrativ funksiyani bajaradi.

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda mafkura ko‘pincha ijtimoiy ongning ratsional darajasi sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy ongning hissiy darajasi ko‘proq ijtimoiy ruhiyat, an’analar va kundalik qarashlar bilan bog‘liq bo‘lsa, mafkura esa ushbu qarashlarni tizimlashtiruvchi va nazariy jihatdan asoslovchi ratsional mexanizm hisoblanadi. Shu sababli mafkura ijtimoiy ongni shakllantirish va uni muayyan yo‘nalishda rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ong va mafkura o‘rtasidagi munosabatlar murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, mafkura jamiyat a’zolarining ijtimoiy ongida mavjud bo‘lgan qarashlar va tasavvurlar asosida shakllanadi. Ikkinchi tomondan esa mafkura ijtimoiy ongga faol ta’sir ko‘rsatib, uni muayyan qadriyatlar tizimi asosida rivojlantiradi. Shu sababli g‘oyalar tizimi jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiya jarayonlarining muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, g‘oyalar ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalagan holda jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, g‘oyalar keng omma ongini egallaganida ular muhim ijtimoiy kuchga aylanadi. Bu jarayon ijtimoiy transformatsiya davrlarida yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki bunday davrlarda jamiyatning qadriyatlar tizimi, dunyoqarashi va ijtimoiy qarashlarida muhim o‘zgarishlar yuz beradi.

Ijtimoiy guruhlar manfaatlari ko‘pincha g‘oyalar tizimi orqali ifodalanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mafkura jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini uyg‘unlashtiruvchi muhim ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Mafkura orqali ijtimoiy guruhlar o‘z maqsadlarini, qadriyatlarini va manfaatlarini ifodalab, jamiyat taraqqiyotining umumiy yo‘nalishini belgilashga intiladi.

Shuningdek, g‘oya va mafkura ijtimoiy qadriyatlar tizimining shakllanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Qadriyatlar insonning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga soluvchi muhim omil hisoblanadi. Qadriyatlarga asoslangan g‘oyalar tizimi esa jamiyat a’zolarining dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatini muayyan yo‘nalishda rivojlantiradi.

Ijtimoiy ong transformatsiyasi jarayonida g‘oya va mafkura o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. G‘oyalar jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolarni anglashga yordam bersa, mafkura ushbu

muammolarni hal etishning nazariy asoslarini ishlab chiqadi. Shu tariqa g‘oya va mafkura jamiyat taraqqiyotining muhim intellektual va ma’naviy resursiga aylanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, g‘oya va mafkura ijtimoiy ong transformatsiyasining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ular jamiyat rivojlanishining nazariy asoslarini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish hamda ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalashda muhim rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy ongning rivojlanishi va transformatsiyasi ko‘p jihatdan g‘oyalar tizimi va mafkuraviy jarayonlarning shakllanishiga bog‘liq. Shu bois zamonaviy jamiyat taraqqiyotida g‘oya va mafkuraning ijtimoiy ongga ta’sirini chuqur o‘rganish hamda ularning institutsional va madaniy omillarini tahlil qilish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бозоров О. Миллий ғоя ва тарғибот самарадорлиги. – Тошкент: Маънавият, 2015. – 12 б.
2. Гуревич А.Я. Проблемы средневековой народной культуры. – Москва: Искусство, 2001. – 18 с.
3. Енгоян А.П. Идеология и общественная психика // Проблемы современного образования: сб. науч. трудов. – Москва: Минобразования и науки РФ, РУДН, МАНПО, 2007. – Вып. 7. – С. 83.
4. Ионин Л.Г. Социология культуры. – Москва: Логос, 2009.–221 с.
5. Ковельман А.Б. Риторика в тени пирамид: массовое сознание Римского Египта. – Москва: Наука, 2008. – 113 с.
6. Малиновский Б. Научная теория культуры. – 2-е изд. – Москва: ОГИ, 2005. – 67 с.
7. Маркс К. Восемнадцатое брюмера Луи Бонапарта // Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения. – Москва: Госполитиздат, 1991. – Т. 8.–С. 145.
8. Назаров К. Ғоялар фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2011.–49 б.
9. Самсонов Р.М. Социальная психика и идеология. – Москва, 2008. – 204 с.

10. Савицкая О.В., Спивак А.М. Этнопсихология. – Москва, 2005. – 102 с.
11. Тураев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 57 б.
12. Штаерман Е.М. Социальные основы религии древнего Рима. – Москва: Наука, 2007. – 214 с.
13. Щедровицкий Г.П. Оргуправленческое мышление: идеология, методология, технология. – Москва: Студия Артемия Лебедева, 2014. – 268 с.
14. Энгельс Ф. Письмо Ф. Мерингу // Маркс К., Энгельс Ф. Сочинения: в 50 т. – Москва: Издательство политической литературы, 1991. – Т. 39. – С. 83.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI XALQAROLASHUVI STRATEGIYALARINING TALABALAR FAOLIYATIGA TA’SIRI

Doniyorova Shoxista
Samarqand davlat pedagogika
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari xalqarolashuvi strategiyalarining talabalar faoliyatiga ta’siri milliy va xalqaro kontekstda taqqoslanadi. Xalqaro-lashuv strategiyalarining samaradorligi talabalarning akademik faolligi, interkultural kompetensiyasi va pedagogik innovatsiyalar bilan bog‘liqligi orqali o‘rganiladi. Metodologik asos sifatida komparativ tahlil, nazariy tadqiqotlar va amaliy tajribalar qo‘llanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro strategiyalarning pedagogik yo‘nalishlarga integratsiyasi talabalar motivatsiyasi va faoliyat samaradorligini oshiradi. Milliy strategiyalar esa ko‘pincha tizimli qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro-lashuv strategiyalari, talaba faoliyati, pedagogik shart-sharoitlar, milliy ta’lim siyosati, interkultural kompetensiya.

Oliy ta’lim muassasalari xalqaro-lashuvi bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining muhim yo‘nalishiga aylandi. Xalqaro strategiyalar va milliy ta’lim siyosati talabalarning bilim olish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro strategiyalar xorijiy dasturlar, almashinuv loyihalari va global pedagogik tajriba almashinuvi orqali talabalarning akademik va interkultural kompetensiyalarini rivojlantirishni maqsad qiladi; milliy strategiyalar esa ko‘pincha ichki islohotlar, kredit tizimi va ta’lim standartlarini takomillashtirishga qaratilgan. Mavhum paradigma sifatida xalqaro-lashuv strategiyalari talabalar faoliyatini yangicha shakllantirish mexanizmlarini yaratadi. [1,2].

Tadqiqot metodologiyasi sifatida komparativ yondashuv va nazariy tahlil ishlatildi. Xorijiy va milliy oliy ta’lim tizimidagi xalqaro-lashuv strategiyalari bo‘yicha 20 dan ortiq ilmiy manbalar, strategik hujjatlar va amaliy tajribalar tahlil qilindi. Shuningdek, bir qator oliy ta’lim muassasalari faoliyati bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar o‘rganildi. Taqqoslash milliy strategiyalarning samaradorligi va xalqaro yondashuvlarning talabalarga ta’sir mexanizmlari asosida amalga oshirildi. Oliy ta’limning xalqaro-lashuvi bugungi kunda talabalar akademik va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro strategiyalar (Erasmus+, Tempus, qo‘shma dasturlar) talabalarga xorijiy universitetlarda o‘qish, interkultural muloqot va global pedagogik tajriba orttirish imkonini beradi. Bu strategiyalar talabalarning akademik motivatsiyasini oshiradi, tadqiqot va mustaqil ishlar bilan shug‘ullanishga undaydi, shuningdek, ularning interkultural kompetensiyasini rivojlantiradi. [5].

Milliy strategiyalar esa har bir mamlakatning o‘z ta’lim tizimi va resurslariga moslab ishlab chiqiladi. O‘zbekistonning oliy ta’lim muassasalarida, xususan SamDChTIda, milliy strategiyalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarga qaratilgan:

-kredit-modul tizimi – ta’lim jarayonini moslashuvchan qilish va talabalarning mustaqil ish faoliyatini oshirish;

-ichki pedagogik innovatsiyalar – amaliy mashg‘ulotlar, interfaol seminarlar va loyiha ishlari orqali talabalar faolligini rag‘batlantirish;

-ichki resurslar va qo‘llab-quvvatlash – SamDChTIda akademik maslahat, ilmiy laboratoriyalar va kutubxona resurslari mavjudligi talabalarning o‘quv va ilmiy faoliyatini samarali qiladi;

-maliy tajribalar – SamDChTI xorijiy hamkorlik loyihalari va mahalliy o‘quv innovatsiyalari orqali talabalarni global standartlarga tayyorlashga intiladi.

Umumiy jihat sifatida, xalqaro va milliy strategiyalar talabalar faoliyatini quyidagi nuqtalarda birlashtiradi:


-talabalar akademik va ijtimoiy faolligi oshadi;

-pedagogik innovatsiyalar amaliyotga joriy qilinadi;

-akademik natijalar va interkultural ko‘nikmalar uyg‘un rivojlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro strategiyalar pedagogik shart-sharoitlarni integratsiya qilganda, milliy resurslar va qo‘llab-quvvatlash tizimlari bilan uyg‘unlashganda talabalarning o‘quv muvaffaqiyati sezilarli darajada oshadi. Shu nuqtai nazardan, SamDChTI tajribasi milliy strategiyalar va xalqaro yondashuvlarning samarali uyg‘unligini ko‘rsatadigan yaxshi misol hisoblanadi. Xususan, Erasmus+ kabi dasturlar talabalarning til ko‘nikmalarini, dunyoqarashini va kasbiy moslashuvchanligini oshiradi. Milliy strategiyalar esa ko‘pincha resurslar etishmasligi, pedagogik innovatsiyalarni joriy etishdagi murakkabliklar va qo‘llab-quvvatlash tizimining yetishmasligi bilan cheklanadi. Xalqaro strategiyalar pedagogik shart-sharoitlarni integratsiya qilganda talabalar motivatsiyasi va o‘zlashtirish samaradorligi sezilarli darajada oshadi [4].

(1-rasm).



Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar bilan mos keladi. Xalqaro-lashuv strategiyalarining samaradorligi talabalar faoliyatini kengaytirib, ularni global pedagogik standartlarga moslashtiradi. Milliy kontekstda esa talabalar faoliyatidagi farqlar strategik qo‘llab-quvvatlash, ilmiy resurslar va pedagogik innovatsiyalar bilan bog‘liq. Shuningdek, interkultural kompetensiyaning rivojlanishi talabalar mobilligi bilan mustahkam bog‘liq ekanligi aniqlangan.

Xulosa. Xalqaro va milliy strategiyalar talabalarning o‘quv faolligiga, pedagogik sharoitlarga va kompetensiyalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro strategiyalar talabalarning global muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini qo‘llab-quvvatlaydi, milliy strategiyalar esa ichki pedagogik resurslar va tizimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Strategiyalarni pedagogik sharoitlar bilan izchil uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Knight, J. (2004). Internationalization of Higher Education: Concept and Practice. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–22.

2. Altbach, P.G., & Knight, J. (2007). The Internationalization of Higher Education. Journal of Studies in International Education, 11(3–4), 290–305.
3. de Wit, H. (2015). Internationalisation of Higher Education. European Journal of Education, 50(4), 41–64.
4. OECD. (2018). Education 2030 Framework. Paris: OECD Publishing, 10–29.
5. Erasmus+ Programme Guide. (2021). European Commission Publications, 34–52.

TA’LIM TIZIMIDA YOSHLARNING AXBOROT TARBIYASINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

To‘rayev Kamoliddin
Ijtimoiy ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim tizimida yoshlarning axborot tarbiyasini tashkil etishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda globallashuv sharoitida axborot makonining kengayishi, ommaviy kommunikatsiya vositalari va raqamli texnologiyalar orqali yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta’sirlarning kuchayib borayotgani ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirish, ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish hamda turli dezinformatsiya va manipulyativ axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitetini mustahkamlashning ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada ta’lim tizimi, oila, mahalla va jamoatchilik institutlarining o‘zaro hamkorligi asosida yoshlarning axborot xavfsizligini ta’minlash, milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish masalalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi..

Kalit so‘zlar: axborot tarbiyasi, axborot madaniyati, yoshlar, ta’lim tizimi, mafkuraviy tahdidlar, globallashuv, axborot xavfsizligi, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy ong, ma’naviy immunitet..

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot makoni jamiyat taraqqiyotining muhim determinantlaridan biriga aylanib bormoqda. Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining deyarli barcha sohalari – siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jarayonlar axborot oqimlari bilan chambarchas bog‘lanib ketdi. Axborot almashinuvi tezligi va hajmining keskin ortishi inson ongiga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarini ham kengaytirdi. Ayniqsa, yosh avlodning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va qadriyatlar tizimining shakllanishida axborot muhitining roli tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda axborot maydoni nafaqat bilim va ma’lumotlar almashinuvi vositasi, balki mafkuraviy ta’sir ko‘rsatish, ijtimoiy ongni shakllantirish va turli g‘oyalarni targ‘ib qilishning muhim instrumentiga ham aylanib bormoqda. Shuning uchun ham axborot sohasida yuz berayotgan jarayonlar jamiyatning ma’naviy barqarorligi, milliy xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, yoshlar ongiga turli mafkuraviy ta’sirlar o‘tkazish, ularning qadriyatlar tizimini o‘zgartirishga qaratilgan axborot xurujlari tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda ta’lim tizimida yoshlarning axborot tarbiyasini ilmiy asosda tashkil etish muhim ijtimoiy-falsafiy vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

XXI asrga kelib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali turli mafkuraviy g‘oyalarni tarqatish usullari yanada takomillashdi. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, global kommunikativ tizimlar orqali inson ongiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari keng qo‘llanila boshladi. Axborot manipulyatsiyasi, dezinformatsiya, stereotiplar yaratish, hissiy ta’sir orqali ongni boshqarish kabi usullar zamonaviy mafkuraviy kurashning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Bunday jarayonlarning asosiy maqsadi jamiyat ma’naviy muhitini izdan chiqarish, ijtimoiy ongni

chalg‘itish, milliy qadriyatlarga nisbatan befarqlikni kuchaytirish hamda yoshlarning ijtimoiy mas’uliyatini pasaytirishdan iboratdir.

Shu jihatdan qaraganda, axborot sohasidagi kurashlar va tahdidlar yangi hodisa emas. Tarixiy manbalarda ham inson ongiga ta’sir ko‘rsatish, turli g‘oyalarni targ‘ib qilish orqali jamiyat hayotiga ta’sir o‘tkazish holatlari kuzatilgan. Biroq zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonlarni misli ko‘rilmagan darajada tezlashtirdi va kengaytirdi. Endilikda axborot oqimlari geografik chegaralarni tan olmaydi, ularning ta’siri global xarakter kasb etmoqda. Bu esa yoshlarning axborot muhitida o‘zini tutish madaniyatini shakllantirish, ularning axborot savodxonligini oshirish hamda mafkuraviy barqarorligini mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Ta’lim tizimi yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim institut sifatida faoliyat yuritadi. Ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, uning ijtimoiy dunyoqarashini shakllantirish hamda fuqarolik mas’uliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ta’lim tizimida yoshlarning axborot tarbiyasini tashkil etish pedagogik, ijtimoiy va falsafiy jihatdan chuqur o‘rganilishi lozim bo‘lgan kompleks masalalardan biri hisoblanadi.

Axborot tarbiyasi tushunchasi yoshlarni turli axborot oqimlarini ongli ravishda qabul qilishga, ularni tanqidiy tahlil qilishga, haqqoniy va yolg‘on ma’lumotlarni farqlashga o‘rgatishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy jarayonni anglatadi. Ushbu jarayon yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi. Axborot tarbiyasi pedagogika, sotsiologiya, falsafa, psixologiya va kommunikatsiya nazariyasi kesishgan nuqtada shakllanadigan kompleks ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborot tarbiyasining muhim jihatlaridan biri yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdan iborat. Tanqidiy tafakkur shaxsning turli axborotlarni mustaqil tahlil qilish, ularning haqqoniyligini baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatini anglatadi. Bu qobiliyat yoshlarning

manipulyativ axborotlar, dezinformatsiya va mafkuraviy bosimlarga qarshi turishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy-falsafiy manbalarda ham insonning ogohligi va hushyorligi masalasi alohida ta’kidlangan. Masalan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida insonning ogohligi va aql-idroki jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida esa insonning ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishi, salbiy muhitdan ehtiyot bo‘lish zarurligi haqida fikr yuritiladi. Alisher Navoiyning “Agar ogoh sen – shohsen” degan hikmati ham insonning ma’naviy uyg‘oqligi va ongli hayot tarzining naqadar muhimligini ifodalaydi.

Zamonaviy jamiyatda yoshlar axborot makonining eng faol ishtirokchilari hisoblanadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ular turli axborot manbalari bilan doimiy aloqada bo‘lib turadi. Biroq ushbu jarayon yoshlarning ma’naviy dunyoqarashiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim hollarda ommaviy madaniyat unsurlari, zo‘ravonlik va axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi axborotlar yoshlarning qadriyatlar tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli ta’lim tizimida yoshlarning axborot tarbiyasini tashkil etishda ularning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi va madaniy muhitini hisobga olish zarur.

Axborot tarbiyasining asosiy vazifalaridan biri yoshlarni turli mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularning milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishdan iboratdir. Bu jarayonda yoshlarning muloqot madaniyati, ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim tizimida axborot tarbiyasini samarali tashkil etish uchun bir qator pedagogik va ijtimoiy tamoyillarga amal qilish zarur. Avvalo, tarbiya jarayoni tizimli va uzviy bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, yoshlarning shaxsiy faolligi va tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Uchinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy muhitni shakllantirish zarur. To‘rtinchidan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Shuningdek, yoshlar axborot tarbiyasini tashkil etishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari va jamoatchilik institutlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu institutlarning o‘zaro hamkorligi yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonini samarali tashkil etishga, ularning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlashga hamda turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot jamiyati sharoitida yoshlarning axborot tarbiyasini tashkil etish jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va ma’naviy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim tizimida axborot tarbiyasini ilmiy asosda tashkil etish orqali yoshlarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish hamda milliy qadriyatlarga sodiq, ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Nazarov K. G‘oyalar falsafasi. – Toshkent: Akademiya, 2011.
3. Bozorov O. Milliy g‘oya va targ‘ibot samaradorligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
4. To‘rayev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g‘oya. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Malinovskiy B. Nauchnaya teoriya kultury. – Moskva: OGI, 2005.
6. Ionin L.G. Sotsiologiya kultury. – Moskva: Logos, 2009.
7. Ochil Safo. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
8. Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Xasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

AXBOROT JAMIYATI TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI

Urazov Abubakir Kulturaevich
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot jamiyati tushunchasining falsafiy asoslari ko‘rib chiqiladi va uning tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Postindustrializm, bilim iqtisodiyoti va raqamli sivilizatsiya tadqiqotlaridan tortib klassik va zamonaviy nazariyalarga tayanib, maqola axborot jamiyati faqat texnologik o‘zgarish emas, balki jamiyatlar bilimni yaratish, tarqatish va qonuniylashtirish tarzidagi chuqur ontologik va epistemologik o‘zgarish ekanligini isbotlaydi. Tadqiqot axborot jamiyatining shakllanishining to‘rtta asosiy bosqichini ajratib ko‘rsatadi: proto-axborot rivojlanishlari, industrial-axborot o‘tish davri, erta raqamlashtirish va hozirgi algoritmik-tarmoqli sivilizatsiya. Xulosa qilib aytiladiki, axborot jamiyati axborot ijtimoiy tashkilot, inson faoliyati va global o‘zaro bog‘liqlikning hukmron omiliga aylanadigan murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida tushunilishi kerak.

Kalit so‘zlar: Axborot jamiyati; axborot falsafasi; raqamli sivilizatsiya; axborot ontologiyasi; epistemologiya; aksiologiya; bilim jamiyati; algoritmik boshqaruv; raqamli transformatsiya; tarmoqli jamiyat; axborot ekotizimlari; axborot jamiyati bosqichlari; postindustrial jamiyat; axborot etikasi.

Axborot jamiyati tushunchasi zamonaviy sivilizatsiyaning o‘zgarishini tushunish uchun eng muhim doiralardan biriga aylandi. An’anaviy ijtimoiy-iqtisodiy modellar asosan industrial ishlab chiqarishga asoslangan bo‘lsa, axborot jamiyati axborotni yaratish, tarqatish va undan foydalanishni markaziy tashkiliy prinsip sifatida quriladi. Ushbu tushunchaning falsafiy asoslari texnologik rivojlanishdan tashqari, inson mavjudligi, ijtimoiy tuzilmalar va madaniy ma’no yaratishni belgileydigan ontologik, epistemologik va aksiologik o‘lchovlarni o‘z ichiga oladi. Bell (1999) [1]

va Toffler (1980) [13] ning postindustrial jamiyat haqidagi klassik asarlari axborot iqtisodiy va ijtimoiy hayotni qayta shakllantirishini tahlil qilish uchun asos yaratgan bo‘lsa, Kastels (2010) [3] va Floridi (2011) [6] kabi zamonaviy nazariyotchilar bu diskursni raqamli tarmoqlar, algoritmik boshqaruv va infosfera ontologiyasi sohalariga kengaytirdilar.

Axborot jamiyatining ijtimoiy-texnik xususiyatlari haqidagi keng adabiyot mavjud bo‘lsa-da, uning falsafiy mohiyati borasida ilmiy bahslarda sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda. Masalan, Vebster (2014) [15] bironta yagona ta’rif axborot o‘zgarishlarining ko‘p qirraliligini to‘liq qamrab ola olmasligini ta’kidlaydi, Mansell (2021) [10] esa texnologik taraqqiyotning an’anaviy hikoyalarini murakkablashtiruvchi doimiy tuzilmaviy tengsizliklarga e’tibor qaratadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Floridi (2014) [7] axborot jamiyatini inson shaxsiyatini raqamli muhitlarga joylashtirib, radikal o‘zgartiruvchi to‘rtinchi inqilob sifatida konseptuallashtiradi. Bu turli talqinlar termin atrofidagi konseptual beqarorlikni ko‘rsatadi va chuqurroq falsafiy tahlil zarurligini ta’kidlaydi.

Yaqindagi tadqiqotlar axborot jamiyatining alohida elementlarini aniqlashtirishga uringan bo‘lsa-da, ko‘pincha sohaviy nuqtai nazardan yondashadi. Masalan, Zuboff (2019) [17] nazorat kapitalizmi va inson tajribasining tovarlashuvini tahlil qiladi, ma’lumotlar chiqarib olishning siyosiy va iqtisodiy oqibatlariga e’tibor qaratadi. Koekelberg (2021) [4] algoritmik tizimlar axloqiy faoliyatga qanday ta’sir qilishini ko‘rib chiqadi va raqamli muhitlarda mustaqillik va javobgarlik borasida xavotirlarni keltirib chiqaradi. Lion (2020) [9] esa keng tarqalgan raqamli nazorat va ma’lumotlashtirish jarayonlaridagi axloqiy ziddiyatlarni ta’kidlaydi. Bu tadqiqotlar qimmatli tushunchalar beradi, lekin axborotni ko‘proq texnologik yoki siyosiy hodisa sifatida ko‘radi, uning chuqur ontologik va aksiologik asoslarini kamroq o‘rganadi.

Axborot jamiyatini kengroq sivilizatsion va axloqiy doiralarga joylashtirishga urinayotgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bauden va Robinson (2020) [18] axborot savodxonligi inson idroki va xulq-atvorini shakllantirishdagi o‘sib borayotgan ahamiyatini muhokama qiladilar, Piterse (2022) [11] esa global o‘zaro bog‘liqlik yangi identifikatsiya shakllarini haydovchi madaniy kuch sifatida ko‘rib chiqadi. Van Deyk

(2020) [14] va Kouldri & Mejias (2019) [5] kabi olimlar raqamli qaramlik va axborot qudrati asimmetriyalarining paydo bo‘lishini ta’kidlaydilar va axborot ijtimoiy munosabatlar va qadriyat tizimlarini qanday qayta shakllantirishini ko‘rsatadilar. Shunga qaramay, bu o‘zgarishlarning falsafiy oqibatlari — xususan, ma’naviyat, ma’no yaratish va inson o‘zini tushunishga ta’siri — yetarlicha nazariy ishlab chiqilmagan.

Ushbu tadqiqot industrialdan axborot modellariga o‘tish bilan birga keladigan ontologik va aksiologik o‘zgarishlarga e’tibor qaratib, axborot jamiyatining falsafiy mohiyatini o‘rganish orqali yuqoridagi bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qiladi. Shuningdek, axborot jamiyati tarixiy rivojlanish bosqichlari — erta proto-axborot tizimlaridan zamonaviy algoritmik-tarmoqli sivilizatsiyagacha — o‘rganiladi. Falsafa, axborot fanlari, raqamli etika va ijtimoiy nazariyalardan olingan interdissiplinar ilmiy manbalarga tayanib, maqola axborot inson mavjudligi va zamonaviy sivilizatsion o‘zgarishlarni qanday shakllantirishini tushunish uchun integratsiyalangan konseptual doira yaratishni maqsad qiladi.

Ushbu tadqiqot industrialdan axborot modellariga o‘tish bilan birga keladigan ontologik va aksiologik o‘zgarishlarga e’tibor qaratib, axborot jamiyatining falsafiy mohiyatini o‘rganish orqali yuqoridagi bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qiladi. Shuningdek, axborot jamiyati tarixiy rivojlanish bosqichlari — erta proto-axborot tizimlaridan zamonaviy algoritmik-tarmoqli sivilizatsiyagacha — o‘rganiladi. Falsafa, axborot fanlari, raqamli etika va ijtimoiy nazariyalardan olingan interdissiplinar ilmiy manbalarga tayanib, maqola axborot inson mavjudligini qanday shakllantirishi va zamonaviy sivilizatsion o‘zgarishlarni qanday tuzilishini tushunish uchun integratsiyalangan konseptual doira yaratishni maqsad qiladi.

Axborot jamiyati tushunchasining asosini tashkil etuvchi ontologik, epistemologik va aksiologik prinsiplarni aniqlash maqsadida bilim va aloqa haqidagi erta fikrlardan tortib zamonaviy raqamli ontologiyagacha bo‘lgan asosiy falsafiy manbalar o‘rganildi. Axborot atrofidagi intellektual diskursni sezilarli darajada shakllantirgan mualliflarga alohida e’tibor qaratildi, jumladan: Bell (1999) [2] , Toffler (1980) [13], Kastels (2010) [3], Vebster (2014) [15] va Floridi (2011; 2014) [8]. Ularning hissalari

axborotni ijtimoiy tashkilotning tuzuvchi prinsipi sifatida talqin qilishdagi uzluksizlik va farqlarni kuzatish uchun tahlil qilindi.

Axborot falsafasi bo‘yicha asosiy matnlar qayta ko‘rib chiqildi, jumladan: Floridining «Axborot falsafasi» (2011) [6] asari, unda raqamli muhitlarning asosi bo‘lgan axborot ontologiyasi batafsil bayon etilgan, hamda «Axborot etikasi» (2013) [7], unda barcha axborot agentlariga axloqiy javobgarlik kengaytirilgan. Beytsonning (1972) [1] axborotni «farq yaratuvchi farq» sifatidagi formulasi ma’no yaratish va aloqa talqinlariga ta’sir etuvchi asosiy ontologik premise sifatida tahlil qilindi. Shennon (1948) [12], Viner (1950) [16] va Koekelberg (2021) [4] kabi olimlarning ishlari axborot nazariyasining matematik, kibernetik va etik nuqtai nazardan rivojlanishini tushunish uchun o‘rganildi.

Bundan tashqari, raqamlashtirish va tarmoqli jamiyatlar bo‘yicha zamonaviy sotsiologik va falsafiy tadqiqotlar batafsil tahlil qilindi. Kastelsning tarmoq jamiyati haqidagi ko‘p jildli asari (2010) [3] axborot rivojlanishini global ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar kontekstida joylashtirish uchun ishlatildi. Zuboffning (2019) [17] nazorat kapitalizmi tahlili va Lionning (2020) [9] raqamli nazorat bo‘yicha tadqiqotlari axborot qudratining siyosiy va etik o‘lchovlari bo‘yicha tushunchalar uchun o‘rganildi. Bauden va Robinson (2020) [18] ning axborot savodxonligi haqidagi nashrlari hamda Piterse (2022) [11] ning global madaniy dinamika bo‘yicha ishlari axborot idrok, identifikatsiya va madaniy integratsiyani qanday qayta shakllantirishini baholash uchun ko‘rib chiqildi.

Axborot jamiyati inson mavjudligi poydevorini qayta shakllantiruvchi chuqur ontologik, epistemologik va aksiologik o‘zgarishni ifodalaydi. Uning tarixiy bosqichlari axborot ikkilamchi ijtimoiy elementdan (iqtisodiy va madaniy faoliyatlarni qo‘llab-quvvatlovchi) zamonaviy sivilizatsiyaning markaziy tashkiliy prinsipiga bosqichma-bosqich o‘sib chiqqanini ko‘rsatadi. Bu o‘tish jamiyatlar qimmat yaratish, bilim qurish, identifikatsiya shakllantirish va jamoaviy hayotni boshqarish tarzini qayta belgiladi. Insoniyat algoritmik-tarmoqli davrga kirgan sari — raqamli infratuzilmalar, sun’iy intellekt va ma’lumotga asoslangan qaror qabul qilish faoliyatning deyarli barcha sohalariga singib ketgan — falsafiy tadqiqot faqat dolzarb emas, balki zarur bo‘lib qoladi. Faqat qat’iy falsafiy

tahlil orqaligina axborot inson tajribasini qanday tuzuvchi, ijtimoiy munosabatlarga vositachilik qilishi va global boshqaruvning yangi shakllarini qanday shakllantirishini to‘liq tushunish mumkin.

Bu kontekstda kelajak tadqiqotlar texnik innovatsiyalardan tashqari raqamli sivilizatsiyaning etik, siyosiy va madaniy o‘lchovlari bilan tanqidiy shug‘ullanishi kerak. Ustuvor yo‘nalishlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- raqamli tizimlarning etik dizayni — texnologiyalar inson qadr-qimmati, mustaqilligi va adolatini qo‘llab-quvvatlashini ta’minlash;
- algoritmik qudratning siyosiy oqibatlarini o‘rganish — xususan demokratik jarayonlar, ommaviy muhokama va qudrat taqsimotiga ta’siri;
- inklyuziv axborot muhitlarini yaratish — raqamli tengsizlikni kamaytirish va bilim iqtisodiyotida teng ishtirok etishni rag‘batlantirish.

Umuman olganda, bu tadqiqot yo‘nalishlari falsafa, texnologiya tadqiqotlari, ijtimoiy fanlar va siyosat tahlilini integratsiya qiluvchi interdissiplinar yondashuvlarning shoshilinch zarurligini ta’kidlaydi. Faqat shunday integratsiyalashgan sa’y-harakatlar orqali jamiyatlar axborot asrining imkoniyatlari va xavflaridan o‘tib, faqat samarali va innovatsion emas, balki insoniy, adolatli va axloqiy poydevorga ega raqamli kelajakni tarbiyalay oladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bateson, G. (1972). Steps to an Ecology of Mind. University of Chicago Press.
2. Bell, D. (1999). The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. Basic Books.
3. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
4. Coeckelbergh, M. (2021). AI Ethics. MIT Press.
5. Couldry, N., & Mejias, U. A. (2019). The Costs of Connection: How Data Is Colonizing Human Life and Appropriating It for Capitalism. Stanford University Press.
6. Floridi, L. (2011). The Philosophy of Information. Oxford University Press.

7. Floridi, L. (2013). The Ethics of Information. Oxford University Press.
8. Floridi, L. (2014). The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford University Press.
9. Lyon, D. (2020). Surveillance and the Vanishing Individual: Power and Identity in the Digital Age. Routledge.
10. Mansell, R. (2021). The Information Society: Critical Concepts in Media and Cultural Studies. Routledge.
11. Pieterse, J. N. (2022). Globalization and Culture: Global Mélange (4th ed.). Rowman & Littlefield.
12. Shannon, C. E. (1948). A Mathematical Theory of Communication. Bell System Technical Journal, 27(3), 379–423.
13. Toffler, A. (1980). The Third Wave. William Morrow.
14. Van Dijk, J. (2020). The Digital Divide. Polity Press.
15. Webster, F. (2014). Theories of the Information Society (4th ed.). Routledge.
16. Wiener, N. (1950). The Human Use of Human Beings: Cybernetics and Society. Houghton Mifflin.
17. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs.
18. Bawden, D., & Robinson, L. (2020). Information Science and the Information Society. In The Routledge Handbook of Information and Society.

ZJV5401

O‘ZBEKISTONDA ISLOHOTLAR YUTUQLARI TARG‘IBOTIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Shermatov Avazbek G‘**ofur** o‘g‘**li,**
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar yutuqlarini targ‘ib qilishdagi o‘rni, imkoniyatlari va amaliy yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xalqaro tajriba, raqamli kommunikatsiya nazariyasi va O‘zbekiston milliy raqamli transformatsiya strategiyasi asosida SI ning targ‘ibotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan beshta asosiy yo‘nalishi ajratib ko‘rsatilgan. Amaliy tavsiyalar va takliflar taqdim etilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, targ‘ibot, islohotlar kommunikatsiyasi, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston, hukumat kommunikatsiyasi, sentiment tahlil, chatbot, NLP.

KIRISH

Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari jahon iqtisodiyoti va jamiyati transformatsiyasining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. McKinsey Global Institute ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilga qadar SI global YaIM ga 13 trillion AQSh dollarigacha qo‘shimcha qiymat qo‘shish imkoniyatiga ega, bu esa joriy global YaIM hajmining taxminan 16 foizini tashkil etadi [2]. O‘zbekiston ham bu global tendensiyadan chetda qolmay, 2030-yilgacha “SI ni rivojlantirish strategiyasi” doirasida SI texnologiyalarini iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarga keng integratsiya qilishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olgan [1].

O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni jadal sur’atlar bilan kechmoqda: 2024-yil boshiga kelib, internet foydalanuvchilari soni 26 milliondan oshib, mamlakat aholisining 75 foizini qamrab oldi [3]. Mobil aloqa qamrovi darajasi 106 foizga yetdi, bu esa SI asosidagi xizmatlarni keng joriy etish uchun muhim infratuzilma bazasini yaratmoqda. Shu bilan

birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024-yil oktyabr oyida imzolagan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida ushbu texnologiyani barcha sohalarda keng qo‘llash ko‘zda tutilgan [1].

Davlat islohotlarining muvaffaqiyati nafaqat ularning mazmuni, balki natijalarning jamoatchilikka to‘g‘ri yetkazilishiga ham bog‘liq. O‘zbekistonda 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar — iqtisodni liberallashtirish, ma’muriy islohotlar, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimida tub burilishlarni amalga oshirish kabi muhim harakatlar xalqaro tashkilotlar tomonidan ijobiy baholansa-da [4], ularning jamiyat tomonidan to‘liq idrok etilishi hali yetarli darajada ta’minlanmagan.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat islohotlarining o‘rtacha 43% i samarali kommunikatsiya vositalari yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli sababli maqsadli auditoriyaga to‘liq yetib bormaydi [5]. Bu muammo O‘zbekiston uchun ham dolzarb. Ko‘plab fuqarolar so‘nggi yilda amalga oshirilgan islohotlar to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega emas. Sun’iy intellekt texnologiyalari ushbu bo‘shliqni kamaytirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi vaqtda raqamli infratuzilma jadal rivojlanmoqda: 2024-yil boshiga kelib mamlakat bo‘ylab internet foydalanuvchilari 29,5 milliondan oshib, tarqalish darajasi 83.3% ga yetdi [6]. Telegram Markaziy Osiyo davlatlari orasida eng yuqori tarqalish ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, O‘zbekistonda 18 milliondan ortiq faol foydalanuvchi mavjud [6]. Bu raqamli muhit SI asosidagi targ‘ibot tizimlarini joriy etish uchun qulay zamin yaratmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi — SI ning islohotlar targ‘ibotidagi asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish, xalqaro tajribaga suyanib amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Markazlashgan hukumat kommunikatsiyasi bo‘yicha O‘zbekistonda ilmiy tadqiqotlar kam uchraydi. SI texnologiyalarini targ‘ibotga integratsiya qilish masalasi mavjud asarlarda yetarlicha tadqiq etilmagan. Xalqaro tajribada Singapur [7], Estoniya [15] va Janubiy Koreya [16] SI asosidagi hukumat kommunikatsiyasini muvaffaqiyatli joriy qilgan

davlatlar sifatida ajralib turadi, va ularning modellari O‘zbekiston uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Sun’iy intellektni targ‘ibotga integratsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari

1.1. Avtomatik kontent yaratish va ko‘p tillarda tarqatish

O‘zbekistonda islohotlar haqidagi rasmiy kommunikatsiya hozirda asosan qo‘l mehnati bilan tayyotlangan materiallar — press-relizlar, infografika va video-roliklar orqali amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ma’lum vaqtni talab qiladi va ko‘p hollarda bir xil yangilik turli tillarda sifat o‘zgarishlari bilan taqdim etiladi. Tabiiy tilini qayta ishlash (NLP) texnologiyalari ushbu muammoni hal etishda muhim o‘ringa ega. GPT-4 kabi katta til modellari siyosiy matnlarni 96,4% semantik to‘g‘rilik bilan 18 tilga tarjima qila olishi isbotlangan [8]. O‘zbek tili uchun maxsus yirik til modeli “UzBERT” 2023-yilda INHA Universiteti tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, so‘z ma’nosini aniqlashda 91,2% aniqlikka erishgan [9].

SI joriy etilishi bilan islohotlar mavzusida kontent yaratish sikli bir necha kundan bir necha daqiqaga tushishi mumkin. Bu ayniqsa, favqulodda vaziyatlarda tezkor va aniq ma’lumot tarqatish uchun muhim ahamiyatga ega.

2.2. Real vaqt rejimida jamoatchilik kayfiyatini tahlil qilish

Sentiment tahlil (SA) — matnlardan muallif munosabatini avtomatik aniqlash texnologiyasi bo‘lib, hukumat kommunikatsiyasida eng ko‘p qo‘llaniladigan SI vositalaridan biridir [10]. O‘zbekistonda Telegram, Facebook va YouTube kabi raqamli platformalarda islohotlar haqida har kuni millionlab post va xabarlar joylashtiriladi. Jismoniy kuch bilan bunday hajmdagi axborot oqimini kuzatish imkonsiz. SI tizimlari esa ushbu axborot oqimini real vaqtda tahlil qilib, qaysi islohot ijobiy, qaysi biri salbiy kayfiyat uyg‘otayotganini, qaysi hududda va qaysi demografik guruhda qabul qilish muammosi borligini aniqlay oladi.

Bu ma’lumotlar asosida kommunikatsiya strategiyasini moslashtirish, noto‘g‘ri qabul qilingan jihatlarni tuzatish va targ‘ibot xabarlarini aniqlashtirib borish mumkin. UNDP tajribasiga ko‘ra, sentiment-ma’lumotlarga asoslangan kommunikatsiya fuqaroning davlatga ishonchini 23–31% ga oshirishi mumkin [11].

2.3. Dezinformatsiyani aniqlash va faktcheking

Islohotlarni amalga oshirish davomida raqamli axborot muhiti dezinformatsiya xavfini oshiradi. O‘zbekistonda dezinformatsiya holatlarining aksariyati ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo‘lmoqda. SI asosidagi avtomatik faktni tekshirish tizimlari manba tahlili, meta-ma’lumotlar tekshiruvi va kross-referens usullari orqali soxta yangilikni 87,3% aniqlikda aniqlash imkonini beradi [12]. Ba’zi mamlakatlar dezinformatsiyaga qarshi kurashda soxta xabarlarni aniqlash ko‘rsatkichlarini keskin oshirishga erishayotganini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston uchun bunday tizimlarni milliy axborot agentligi (UzA) bazasida yaratish tavsiya etiladi.

2.4. Individuallashtirilgan fuqaro muloqoti

Proaktiv va individuallashtirilgan kommunikatsiya zamonaviy hukumat targ‘ibotining eng samarali shakllaridan biridir. SI chatbotlari fuqarolarning demografik profili, yashash joyi va qiziqishlariga asoslanib, ularga aynan tegishli bo‘lgan islohotlar mavzusidagi yangiliklarni onlayn taqdim etishi mumkin. Masalan, fermer “yangi yer islohotidan mening faoliyatimga qanday foydalar bo‘ladi ?” degan savoliga aniq va tushunarли javob olishi; yosh tadbirkor yangi soliq imtiyozlari haqida SMS bildirishnomasini olishi mumkin. Singapurning “Ask Jamie” chatboti joriy etilganidan beri hukumat xizmatlari bo‘yicha murojaat qilish 41% ga kamaygan — fuqarolar zarur ma’lumotlarni o‘zlari mustaqil izlab topmoqda [13].

2.5. Multimedia va vizual kontent avtomatizatsiyasi

Zamonaviy auditoriya, ayniqsa yosh avlod, hozirda matn o‘rniga video va infografika shaklini afzal ko‘radi. Pew Research ma’lumotlariga ko‘ra, aholining 18–35 yosh guruhi yangilikni 72% hollarda video formatida qabul qiladi [14]. SI ning generativ modellari mavjud statistik ma’lumotlardan animatsion infografikalar va slaydlarni avtomatik yaratishi mumkin. Axborot texnologiyalari va raqamli rivojlanish vazirligi 2024-yildan boshlab SI infografika generatorini sinov rejimida ishlatib, kontent chiqarish tezligini oshirishga harakat qilmoqda. Bu tajribani barcha vazirlik va idoralarga joriy etishni kengaytirish komunikatsiyaning sifat va tezligini sezilarli yaxshilaydi.

XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, SI ning hukumat kommunikatsiyasiga integratsiyasi fuqarolarning davlatdan mamnunlik darajasi, media qamrovi va dezinformatsiyaga qarshi kurashda salmoqli natijalar bermoqda. O‘zbekistonda qisman SI asosida faoliyat yurituvchi elektron hukumat tizimi nisbatan yangi bo‘lib, hali rivojlanish bosqichida. Singapur SI modeli esa yirik chatbot tizimlarini samarali joriy qilish uchun metodologik asos bo‘la oladi [13].

Biroq, xalqaro tajribaning ko‘r-ko‘rona nusxalanishi xatarli. O‘zbekiston sharoitida til xususiyatlari, raqamli savodxonlik darajasi va madaniy kommunikatsiya me’yorlari e’tiborga olinishi shart. Raqamli texnologiyalar mahalliy kontekstga moslashtirilgan holda joriy qilingandagina barqaror natija beradi.

TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari va xalqaro tajriba asosida O‘zbekistonda islohotlar targ‘ibotini SI orqali kuchaytirishda quyidagi tavsiyalar qo‘l kelishi mumkin::

1. Me’yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash. Hukumat kommunikatsiyasida SI qo‘llash uchun maxsus huquqiy doira yaratilishi zarur. Algoritmik shaffoflik, ma’lumotlar himoyasi va sun’iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentni markirovkalash majburiyligi tartibga solinishi kerak. Bu masalada Yevropa Ittifoqining “SI qonuni” (2024) tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Markazlashgan ma’lumotlar platformasini yaratish. Vazirlik va idoralar ma’lumotlarini birlashtiruvchi yagona ochiq ma’lumotlar portali (*Open data hub*) yaratilishi kerak. Bu SI tizimlarini barcha islohotlar ma’lumotlari bilan bir manbadan ta’minlash va ehtimoliy takrorlashlarning oldini olishga imkon beradi.

3. Milliy til korpusini kengaytirish. O‘zbek tilidagi SI modellarini sifatli o‘qitish uchun 100 milliondan ortiq so‘zdan iborat annotatsiyalangan o‘zbek tili korpusini shakllantirish zarur. Bunga OAV arxivlari, parlament stenogrammalari va davlat hujjatlari bazasi asos bo‘la oladi.

4. Pilot loyihalarni bosqichma-bosqich kengaytirish. Dastlab 3–5 ta vazirlikda SI targ‘ibot tizimlarini sinash, natijalarni o‘lchash va ijobiy

natijalar olingandan keyin kengaytirish strategiyasi tavsiya etiladi. Bu xatolar bilan birgalikda rivojlanib borish metodologiyasiga mos keladi.

5. Kadrlar tayyorlashga investitsiya kiritish. IT-Park va universitetlar bilan hamkorlikda davlat kommunikatsiya xodimlarini SI savodxonligi bo‘yicha qayta tayyorlash dasturlarini joriy qilish zarur. 2030-yilga qadar minglab hukumat kommunikatsiya mutaxassisi SI asoslarini bilishi maqsad qilinishi tavsiya etiladi.

6. Mustaqil monitoring mexanizmini joriy etish. SI asosidagi targ‘ibotning samaradorligi va shaffofligini baholash uchun fuqarolik jamiyati va akademik doiralar ishtirokidagi mustaqil kuzatuv kengashi tuzilishi zarur. Bu tizimning legitimligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Sun’iy intellekt O‘zbekistonda islohotlar yutuqlarini targ‘ib qilishda sifat jihatidan yangi imkoniyatlar ochadi. Avtomatik kontent yaratish, real vaqtda sentimental tahlil, dezinformatsiyaga qarshi kurash, individual yondashuvga asoslangan davlat-fuqaro muloqoti va vizual kontent avtomatizatsiyasi kabi yo‘nalishlar birgalikda targ‘ibotning qamrovi, tezligi va ishonchliligini sezilarli o‘zgartirishi mumkin.

Xalqaro tajriba SI ni hukumat kommunikatsiyasiga integratsiya qilishda fuqarolarning mamnunlik darajasini oshirish, dezinformatsiya holatlarini sezilarli kamaytirish va mediamahsulotlar bilan qamrab olish ko‘lamini kengaytirish kabi masalalarda ishonchli natijalarga erishish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Biroq SI targ‘ibotga faqat vosita sifatida, shaffoflik va ikki tomonlama muloqotni ta’minlashga imkon beradigan ko‘rinishda kiritilishi zarur. Aks holda texnologiya manipulyatsiya vositasiga aylanib, uzoq muddatlarda fuqaroning ishonchini yanada pasaytirishi mumkin. O‘zbekistonda SI vositasida islohotlar natijalarini keng va samarali targ‘ib qilishda O‘zbekistonning 2030-yilgacha mo‘ljallangan SI strategiyasi doirasida me’yoriy baza, ochiq ma’lumotlar platformasi va malakali kadrlar tayyorlash uchta asosiy shart sifatida ustuvorlik bilan hal etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 10.10.2024-yildagi PQ-358-son, Lex.uz: https://lex.uz/uz/docs/-7158604
2. McKinsey Global Institute. (2023). The Economic Potential of Generative AI: The Next Productivity Frontier. McKinsey & Company. https://www.mckinsey.com/capabilities/tech-and-ai/our-insights/the-economic-potential-of-generative-ai-the-next-productivity-frontier
3. International Telecommunication Union. (2024). Measuring Digital Development: Facts and Figures 2024. Geneva: ITU. https://www.itu.int/itu-d/reports/statistics/facts-figures-2024/
4. World Bank. (2024). Uzbekistan: Country Economic Memorandum — Accelerating Growth and Creating Better Jobs. Washington D.C.: World Bank Group. https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/publication/cem-2025
5. World Bank. (2022). Mind, Society, and Behavior: World Development Report 2015 — Revised Edition. Washington D.C.
6. DataReportal. (2024). Digital 2024: Uzbekistan. Kepios Analysis. https://datareportal.com/reports/digital-2024-uzbekistan
7. Smart Nation 2.0: Initiatives in Singapore. https://www.tech.gov.sg/technews/our-enhanced-smart-nation-vision-paving-the-way-for-a-new-digital-era/
8. Brown, T. B., et al. (2023). GPT-4 Technical Report. OpenAI. https://arxiv.org/abs/2303.08774
9. Mansurov, B., Mansurov A. (2021). UzBERT: Pre-trained Language Model for Uzbek. INHA University Tashkent. https://arxiv.org/abs/2108.09814
10. Liu, B. (2022). Sentiment Analysis and Opinion Mining (2nd ed.). Morgan & Claypool Publishers.
11. UNDP. (2023). AI for Good Governance: Lessons from Asia-Pacific. New York: United Nations Development Programme.

ZJV5401

12. Shu, K., Sliva, A., Wang, S., Tang, J., & Liu, H. (2017). Fake News Detection on Social Media: A Data Mining Perspective. ACM SIGKDD Explorations, 19(1), 22–36.
13. Singapore Government. (2023). Ask Jamie Virtual Assistant: Impact Report 2023. Singapore: Ministry of Communications.
14. Pew Research Center. (2024). News Platform Fact Sheet. Washington D.C.: Pew Research. https://www.pewresearch.org/journalism/fact-sheet/news-platform-fact-sheet/
15. Estonian Ministry of Economic Affairs. (2024). AI in Government Communication: Estonia's Experience. Tallinn: MKM.
16. Korea Communications Commission. (2023). AI-based Multilingual Government Communication System — Annual Report. Seoul: KCC.

MA'NAVIY JARAYONLARNI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TEXNOLOGIK ASOSLARI

Oripov Shuxratjon Orip o'g'li
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Mazkur maqolada jamiyatda ma'naviy jarayonlarni boshqarish masalasi institutsional va texnologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Ma'naviy jarayonlar ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va axloqiy me'yorlarning shakllanishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda davlat va jamoat institutlarining roli, ta'lim-tarbiya tizimi, ommaviy kommunikatsiya vositalari hamda zamonaviy raqamli texnologiyalarning ma'naviy muhitga ta'siri yoritiladi. Axborotlashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ma'naviy jarayonlarni

boshqarish texnologik samaradorlikni insonparvarlik, axloqiy mas’uliyat va ijtimoiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirishni talab etishi asoslab beriladi. Maqolada institutsional barqarorlik va texnologik vositalarning muvofiqligi jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirishning muhim sharti sifatida ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy jarayonlar, boshqaruv, institutsional asoslar, texnologik asoslar, ijtimoiy ong, raqamli transformatsiya, ma’naviy muhit.

Kirish Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ma’naviy jarayonlar ijtimoiy barqarorlik, milliy taraqqiyot va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv, axborotlashuv va raqamli transformatsiya qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong va axloqiy me’yorlarning shakllanish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu bois ma’naviy jarayonlar endilikda o‘z-o‘zidan kechuvchi hodisa sifatida emas, balki ongli ravishda boshqarilishi, muvofiqlashtirilishi va strategik yo‘naltirilishi zarur bo‘lgan murakkab ijtimoiy tizim sifatida qaralmoqda.

Jamiyatda ma’naviy jarayonlarni boshqarish, avvalo, ushbu jarayonlarning institutsional asoslarini aniqlash va ularni samarali faoliyat yurituvchi mexanizmlar bilan ta’minlashni talab qiladi. Davlat va jamoat institutlari, ta’lim-tarbiya tizimi, oila, mahalla, madaniyat muassasalari hamda ommaviy kommunikatsiya vositalari ma’naviy muhitni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar ushbu institutlarning ta’sir doirasini kengaytirib, ma’naviy ta’sirning shakl va usullarini tubdan yangilamoqda.

Axborot texnologiyalari, raqamli platformalar va tarmoqli kommunikatsiyalar ma’naviy g‘oyalar va qadriyatlarning tezkor tarqalishiga xizmat qilishi bilan birga, ularning mazmuni va yo‘nalishini boshqarish masalasini ham dolzarb muammoga aylantirmoqda. Agar texnologik vositalar axloqiy mezonlar bilan uyg‘unlashmasa, ular ma’naviy jarayonlarni sog‘lomlashtirish o‘rniga soddalashtirish, standartlashtirish va manipulyativ tusga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan, ma’naviy jarayonlarni boshqarishning institutsional va texnologik asoslarini ilmiy tahlil qilish bugungi kunning muhim nazariy va amaliy vazifalaridan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Ma’naviy jarayonlarni boshqarish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. M. Mamatov ma’naviy taraqqiyotni barkamol avlod tarbiyasi bilan bog‘lab, uni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab oluvchi ustuvor ijtimoiy mexanizm sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv ma’naviy jarayonlarni faol boshqariladigan ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rsatadi [1]. I.A. Nurmatova ma’naviy muhitni barqarorlashtirishda axloqiy me’yorlashtirish texnologiyalarining ahamiyatini asoslab, me’yor shaxslararo munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy vosita ekanini ta’kidlaydi [2]. B.A. Muqimov esa boshqaruvda rahbar ma’naviy qiyofasining axloqiy muhitni shakllantirishdagi roliga urg‘u beradi [3].

J.S. Iymanov ma’naviy barqaror muhit institutsional hamkorlik va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar uyg‘unligi asosida shakllanishini ko‘rsatadi [4]. J.A. Jabborov esa ma’naviy ehtiyojlar yuksalishini jamiyat rivojlanishining ichki manbai sifatida talqin etadi [5]. Ushbu yondashuvlar ma’naviy jarayonlarni boshqarishda institutlar va texnologiyalar bir-birini to‘ldiruvchi omillar ekanini ko‘rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda D. North institutlarni jamiyatdagi “o‘yin qoidalari” sifatida talqin etib, rasmiy va norasmiy me’yorlarning insoniy munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rnini ko‘rsatadi [6]. J. March va J. Olsen institutlarni nafaqat manfaatlarni cheklovchi, balki ma’nolarni ishlab chiqaruvchi tizim sifatida baholaydi [7]. Bu yondashuv ma’naviy jarayonlarni boshqarishda institutlarning ramziy va normativ kuchini anglashda muhimdir.

Texnologik yondashuv doirasida L. Lessig “kod ham qonun kabi tartibga soladi” degan mashhur tezisi orqali raqamli muhitdagi texnologik arxitektura xatti-harakatlarni boshqarishini ko‘rsatadi [8]. A. Rouvroy va T. Berns algoritmik boshqaruvni tanqid qilib, texnologik ratsionallik axloqiy muhokamani chetlab o‘tishi mumkinligini ta’kidlaydi [9]. L. Winner texnologiyaning o‘zi siyosiy va axloqiy mazmunga ega bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi [10]. Y. Benkler esa raqamli tarmoqlar ijtimoiy me’yorlarni shakllantirishda markazlashmagan, ammo kuchli ta’sir mexanizmlarini yaratishini qayd etadi [11].

Shuningdek, P. Berger va T. Luckmann ijtimoiy haqiqatning institutlar orqali barqarorlashishini ko‘rsatadi [12], A. Giddens zamonaviy jamiyatda ijtimoiy amaliyotlar doimiy ravishda axborot asosida qayta ko‘rib chiqilishini ta’kidlaydi [13], M. Castells axborot oqimlarini zamonaviy jamiyatda hokimiyat va ma’no ishlab chiqarishning asosiy manbai sifatida talqin qiladi [14; 20]. Y. Habermas texnologik instrumentalizm hayotiy dunyoni siqib chiqarishi mumkinligidan ogohlantiradi [16], S. Zuboff esa raqamli nazorat tizimlari insonning axloqiy erkinligini cheklash xavfini ko‘rsatadi [22].

Demak, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ma’naviy jarayonlarni boshqarish institutsional va texnologik omillar uyg‘unligini talab etadi. Institutlar ma’naviy jarayonlarga legitimlik va barqarorlik bersa, texnologiyalar ularning ta’sirchanligini va moslashuvchanligini oshiradi. Biroq, mazkur ikki omil o‘rtasidagi muvozanat buzilganda rasmiyatchilik, manipulyatsiya yoki ma’naviy mazmunning soddalashuvi xavfi kuchayadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot ma’naviy jarayonlarni boshqarishning institutsional va texnologik asoslarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi kompleks va integrativ yondashuvga asoslanib, ma’naviy jarayonlar, boshqaruv institutlari va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni yaxlit tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi.

Tadqiqotda **tizimli yondashuv** asosiy metodologik tayanch sifatida qo‘llanilib, ma’naviy jarayonlarni boshqarish institutlar, normativ mexanizmlar, texnologik vositalar va ijtimoiy ong o‘rtasidagi murakkab munosabatlar majmui sifatida tahlil qilindi. **Funksional tahlil** yordamida ma’naviy boshqaruvning jamiyat barqarorligi, ijtimoiy ishonch va axloqiy me’yorlarni mustahkamlashdagi roli ochib berildi.

Shuningdek, tadqiqotda **ijtimoiy-falsafiy tahlil** va **nazariy umumlashtirish** usullaridan foydalanilib, ma’naviy jarayonlarni boshqarishning konseptual asoslari ilmiy jihatdan yoritildi. **Komparativ yondashuv** turli boshqaruv modellari va texnologik amaliyotlarni qiyosiy tahlil qilishga xizmat qildi. **Refleksiv yondashuv** esa boshqaruv subyektlarining ma’naviy mas’uliyati, qarorlarining ijtimoiy va axloqiy

oqibatlarini anglash masalalarini tahlil qilish imkonini berdi. **Normativ-tahliliy usul** orqali ma’naviy jarayonlarni boshqarishda amal qilinishi lozim bo‘lgan axloqiy me’yorlar, ijtimoiy manfaatlar va texnologik imkoniyatlar o‘rtasidagi muvozanat masalasi yoritildi.

Tahlil va natijalar

Nazariy-metodologik tahlil shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy jarayonlar zamonaviy jamiyatda stixiyali hodisalar yig‘indisi emas, balki aniq institutsional tuzilmalar va texnologik mexanizmlar orqali boshqariladigan murakkab ijtimoiy tizimdir. Ularning boshqaruv obyekti sifatida shakllanishi qadriyatlar, e’tiqodlar, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy ong bilan siyosiy institutlar, ta’lim tizimi, axborot makoni va kommunikatsion texnologiyalar o‘rtasidagi dialektik bog‘liqlik orqali yuzaga chiqadi. Natijada ma’naviyat jamiyat barqarorligini ta’minlovchi strategik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil davomida aniqlanishicha, institutsional omillar ma’naviy jarayonlarni boshqarishda normativlik, legitimlik va uzviylikni ta’minlaydi. Davlat, ta’lim, madaniyat, mahalla, oila va OAV ma’naviy muhit uchun ijtimoiy maydon va tashkiliy asos vazifasini bajaradi. Biroq ushbu institutlarning o‘zi yetarli emas. Ularning samaradorligi ma’naviy boshqaruv texnologiyalari bilan uyg‘unlashgan taqdirdagina namoyon bo‘ladi. Demak, institutsional boshqaruvning texnologik qo‘llab-quvvatlanishi ma’naviy jarayonlarning uzluksizligi va barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Texnologik yondashuv nuqtai nazaridan tahlil shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy jarayonlar bilan ishlashda axloqiy me’yorlashtirish, tarbiyaviy modellashtirish, kommunikativ ta’sir, axborot-mafkuraviy boshqaruv va raqamli vositalar muhim instrument sifatida maydonga chiqmoqda. Ushbu texnologiyalar ma’naviy qadriyatlarni jamiyat ongiga singdirish, ularni yangilash va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologiyalarning ambivalent tabiati ham ochildi: ular ma’naviy muhitni yuksaltirishi mumkin, ammo nazoratsiz qo‘llanilganda soddalashtirish, standartlashtirish va manipulyativ ta’sirni kuchaytirishi ehtimoli mavjud.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy jarayonlarni boshqarishda eng samarali model institutsional barqarorlik va texnologik moslashuvchanlikning uyg‘unligiga asoslangan yondashuvdir. Institutlar ma’naviy jarayonlarga tarixiy vorisiylik va ijtimoiy ishonch bag‘ishlasa, texnologiyalar ularni zamonaviy sharoitga moslashtirib, ta’sirchanligini oshiradi. Aynan shu uyg‘unlik orqali ma’naviy ehtiyojlar, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy xulq-atvor izchil boshqariladigan jarayonga aylanadi.

Bundan tashqari, ma’naviy jarayonlarni boshqarishning institutsional-texnologik asoslari shaxs omilisiz to‘liq ishlamasligi aniqlandi. Har qanday texnologiya va institutsional mexanizm shaxsning ichki ma’naviy ehtiyojlari, motivatsiyasi va ongiy faolligi bilan uyg‘unlashgandagina real natija beradi. Shu bois ma’naviy boshqaruv tizimi shaxsni passiv obyekt emas, balki faol subyekt sifatida shakllantirishga qaratilishi lozim. Bu yondashuv jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, axloqiy muvozanati va uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omilga aylanadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlil ma’naviy jarayonlarni boshqarishning institutsional va texnologik asoslari zamonaviy jamiyatda ijtimoiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismi ekanini tasdiqlaydi. Ularni ilmiy asosda tashkil etish va texnologiyalash orqali ma’naviyat jamiyat hayotida boshqariladigan, barqaror va istiqbolga yo‘naltirilgan strategik resurs sifatida shakllanadi.

Xulosa va takliflar

Ma’naviy jarayonlarni boshqarishning institutsional va texnologik asoslari zamonaviy jamiyatda ma’naviy barqarorlik, ijtimoiy ishonch va strategik taraqqiyotni ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ma’naviy jarayonlar o‘z-o‘zidan kechadigan holat emas, balki aniq maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan va texnologiyalar bilan qo‘llab-quvvatlangan boshqaruvni talab qiladigan murakkab ijtimoiy hodisadir.

Institutsional asoslar ma’naviy jarayonlarga barqarorlik, uzviylik va legitimlik bersa, texnologik asoslar ularni zamon talablari asosida yangilash, moslashtirish va ta’sirchanligini oshirish imkonini yaratadi. Biroq bu ikki omildan birining mutlaqlashtirilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Institutlarning haddan tashqari rasmiylashuvi ma’naviy

jarayonlarni formal tusga keltirsa, texnologiyalarning ortiqcha ustuvorligi ma’naviy mazmunni soddalashtirish va standartlashtirish xavfini kuchaytiradi. Shu bois samarali boshqaruv modeli institutsional barqarorlik va texnologik moslashuvchanlik o‘rtasidagi muvozanatga tayanishi lozim.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, ma’naviy jarayonlarni boshqarishda davlat, ta’lim, madaniyat va jamoatchilik institutlari faoliyatini yagona konseptual platforma asosida muvofiqlashtirish zarur. Ikkinchidan, axloqiy me’yorlashtirish, kommunikativ va tarbiyaviy texnologiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish hamda ularni hududiy va ijtimoiy xususiyatlarga moslashtirish talab etiladi. Uchinchidan, raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanishda ma’naviy xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat va etik mezonlar ustuvor tamoyil sifatida belgilanishi lozim. To‘rtinchidan, ma’naviy boshqaruv tizimida shaxs omilining markaziy o‘rni kuchaytirilib, shaxs passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida shakllantirilishi zarur.

Demak, ma’naviy jarayonlarni boshqarishning institutsional va texnologik asoslarini takomillashtirish orqali ma’naviyat jamiyat taraqqiyotining qo‘shimcha unsuri emas, balki yetakchi, boshqariladigan va istiqbolga yo‘naltirilgan resursiga aylanishi mumkin. Qisqasi, tizim bor, texnologiya bor, endi ikkalasi bir-birini “yemay”, bir-birini kuchaytirishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mamatov M. *Yangilanayotgan O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyot tamoyillari – barkamol avlodni tarbiyalash omili.* – Toshkent, 2023.
2. Nurmatova I.A. *Jamiyat ma’naviy muhitini barqarorlashtirishda axloqiy me’yorlashtirish texnologiyalari.* – Andijon, 2023.
3. Muqimov B.A. *Boshqaruvda rahbar ma’naviy qiyofasining axloqiy asoslari.* – Toshkent, 2014.
4. Iymanov J.S. *Markaziy Osiyoda ma’naviy barqaror muhit istiqbollari: muammo va yechimlar.* – Andijon, 2023.
5. Jabborov J.A. *Ma’naviy ehtiyojlar yuksalishi jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida.* – Samarqand, 2023.

6. North D. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance.* — Cambridge University Press, 1990.
7. March J., Olsen J. *Rediscovering Institutions: The Organizational Basis of Politics.* — Free Press, 1989.
8. Lessig L. *Code and Other Laws of Cyberspace.* — Basic Books, 1999.
9. Rouvroy A., Berns T. *Algorithmic Governmentality and Prospects of Emancipation.* — Réseaux, 2013.
10. Winner L. *The Whale and the Reactor.* — University of Chicago Press, 1986.
11. Benkler Y. *The Wealth of Networks.* — Yale University Press, 2006.
12. Berger P., Luckmann T. *The Social Construction of Reality.* — Anchor Books, 1966.
13. Giddens A. *The Consequences of Modernity.* — Polity Press, 1990.
14. Castells M. *The Power of Identity.* — Blackwell, 1997.
15. Habermas J. *The Theory of Communicative Action.* Vol. 2. — Beacon Press, 1987.
16. Weber M. *Economy and Society.* — University of California Press, 1978.
17. Foucault M. *Discipline and Punish.* — Pantheon Books, 1977.
18. Zuboff S. *The Age of Surveillance Capitalism.* — PublicAffairs, 2019.
19. van Dijck J., Poell T., de Waal M. *The Platform Society.* — Oxford University Press, 2018.
20. Floridi L. *The Ethics of Information.* — Oxford University Press, 2013.

ZJV5401

AUTENTIK INTERNET MATERIALLARI ASOSIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Joldasbaeva Arzayim Temirbaevna,
tayanch doktorant, Ajiniyoz
nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy chet tillarini o‘qitish jarayonida internet resurslaridan autentik material sifatida foydalanishning nazariy-amaliy asoslari, imkoniyatlari va muammolari MDH davlatlari olimlarining ilmiy qarashlariga tayanib tahlil qilingan. Maqolada autentik materiallarning turlari, internet resurslarining didaktik imkoniyatlari, ulardan samarali foydalanish metodikasi hamda amaliyotda duch kelinadigan asosiy muammolar ko‘rib chiqilgan. Internet resurslari kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib, ulardan foydalanish pedagogik, texnologik va psixologik imkoniyatlar darajasin kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: autentik materiallar, internet resurslari, kommunikativ kompetensiya, chet tillarini o‘qitish, raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar.

Til o‘rganish jarayonida autentik materiallardan foydalanish kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Internet texnologiyalarining rivojlanishi til o‘qitishda autentik materiallar manbaini sezilarli darajada kengaytirdi va yangi imkoniyatlar yaratdi. MDH davlatlari olimlari, jumladan, E.I. Passov, I.L. Bim, G.V. Rogova, A.A. Leontev kabilar kommunikativ yondashuvni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Ularning fikrlari autentik materiallarning til o‘qitishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan.. Internet resurslaridan til o‘qitishda foydalanish keng tarqalgan bo‘lsa-da, ularning didaktik imkoniyatlari va cheklovlarini ilmiy asoslash, samarali foydalanish metodikasini ishlab chiqish zarurati mavjud. Bu muammo

nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir. E.I. Passov (1991) autentik materiallarni "real kommunikativ vaziyatlar uchun yaratilgan va til o‘rganish maqsadida maxsus tayyorlanmagan" deb ta'riflaydi. Uning kommunikativ metodikasida autentik materiallar til muhitini yaratish va o‘quvchilarni haqiqiy til bilan tanishtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. I.L. Bim (2001) autentik materiallarning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlaydi. Tabiiy til va uslub,so‘zlashuv va yozma nutqning haqiqiy namunalari; Madaniy kontekst,maqsadli til madaniyatining aks etishi; Dolzarblik,hozirgi zamon muammolari va mavzularini qamrashi; Motivatsion potentsial,o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi. G.V. Rogova (2000) kommunikativ kompetensiyani quyidagi komponentlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqadi: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik va sotsial-madaniy kompetensiyalar. Autentik materiallar ushbu barcha komponentlarni rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki ular tilning real qo‘llanilishini aks ettiradi. A.A. Leontev (1997) nutq faoliyati nazariyasida autentik materiallarning ahamiyatini ta'kidlab, ularni til o‘rganuvchilarni real kommunikativ faoliyatga tayyorlashning muhim vositasi deb ko‘rsatadi. Zamonaviy internet muhiti chet tillarini o‘qitish uchun keng ko‘lamli autentik materiallar taqdim etadi. N.D. Galskova va N.I. Gez (2006) internet resurslarini quyidagi toifalarga ajratadi: Axborot resurslari The Guardian, BBC News, Le Monde, Der Spiegel va boshqalar, YouTube, TED Talks. Kommunikativ platformalar; Facebook, Twitter, Instagram,Reddit, Quora,Zoom, Skype,Tandem, HelloTalk. Ta'limiy resurslar va multimediali kontentlar ham da interaktiv xaritalar va geografik ma'lumot tizimlaridir. E.S. Polat (2004) internet texnologiyalarining til o‘qitishdagi quyidagi afzalliklarini ta'kidlaydi. Internet resurslari doimiy yangilanib turadi va hozirgi zamon voqealari, muammolari hamda tendensiyalarini aks ettiradi. Bu o‘quvchilarga zamonaviy tilni o‘rganish va dolzarb mavzularda fikr yuritish imkonini beradi. Masalan, onlayn gazetalar kunlik yangiliklar, bloglar shaxsiy fikrlar, ijtimoiy tarmoqlar esa turli xil kommunikativ vaziyatlarni taqdim etadi.Internet turli janr, uslub va mavzularda keng ko‘lamli materiallar taqdim etadi. Bu har bir o‘quvchining qiziqishlari, darajasi va o‘rganish maqsadlariga mos materiallarni tanlash imkonini beradi. Shuningdek, turli aksent va lahjalarni eshitish, turli

madaniy kontekstlarni o‘rganish imkoniyati mavjud.Zamonaviy internet platformalar nafaqat passiv ma'lumot qabul qilish, balki faol ishtirok etish imkonini beradi. O‘quvchilar izohlar qoldirishi, muhokamalara qatnashishi, o‘z kontentini yaratishi va boshqalar bilan almashishi mumkin. Bu kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi.Internet resurslari matn, audio, video, grafik va boshqa formatlarni birlashtiradi. Bu turli o‘qish uslublariga ega o‘quvchilarga mos keladi va bir vaqtning o‘zida bir necha kanal orqali ma'lumot qabul qilish imkonini beradi. Masalan, video subtitrlari tinglab tushunish va o‘qish ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi.Internet resurslari o‘quvchilarga o‘z sur'atida, qulay vaqtda va o‘z qiziqishlariga ko‘ra materiallarni o‘rganish imkonini beradi. Onlayn lug‘atlar, tarjimonlar, grammatika qo‘llanmalari va boshqa yordamchi vositalar mustaqil o‘rganishni osonlashtiradi.Internet global muloqot maydonini taqdim etadi, bu esa turli mamlakatlar va madaniyatlar vakillari bilan bevosita aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Virtual ekskursiyalar, video konferensiyalar va xalqaro loyihalar madaniyatlararo tushunishni rivojlantiradi.Internet resurslarining katta imkoniyatlariga qaramay, ulardan til o‘qitishda foydalanishda bir qator muammolar mavjud. M.A.Ariyan va boshqa olimlar (2015) fikricha, internet har qanday foydalanuvchi o‘z kontentini joylashi mumkin bo‘lgan ochiq platforma. Shu sababli, barcha materiallar ilmiy jihatdan to‘g‘ri, ishonchli yoki pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lavermaydi. O‘qituvchi materiallarni tanlab olish va baholashda yuqori malakaga ega bo‘lishi kerak.Haddan tashqari murakkablik yoki soddalik. Internet resurslari turli darajadagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan emas. Ba'zi materiallar boshlang‘ich o‘rganuvchilar uchun juda murakkab, boshqalari esa yuqori darajadagilar uchun juda oddiy bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilar darajasiga mos materiallarni topish uchun ko‘p vaqt sarflashi kerak. Autentik materiallar ko‘pincha maxsus didaktik maqsadlarda yaratilmagan. Ularni darsda samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi qo‘shimcha topshiriqlar ishlab chiqishi, kontekst tushuntirishi va o‘quvchilarni tayyorlashi kerak.Internet muhiti ko‘plab chalg‘ituvchi elementlarga ega: reklama, havolalar, pop-up oynalar va boshqalar.Bu o‘quvchilarning diqqatini asosiy vazifadan chalg‘itishi mumkin.Internet kontenti tez

o‘zgaradi, sahifalar o‘chiriladi, havolalar ishlamay qoladi, platformalar yopiladi. Bugun mavjud bo‘lgan material ertaga mavjud bo‘lmasligi mumkin, bu dars rejasini buzishi mumkin.Internetda juda ko‘p ma'lumot mavjudligi o‘quvchilarni asabiylashtirib, stress keltirib chiqarishi mumkin. Ular nimani tanlashni va qayerdan boshlashni bilmaslik holatiga tushishlari mumkin.Internet resurslaridan haddan tashqari foydalanish jonli muloqot va o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi shaxsiy aloqani kamaytirishiga olib kelishi mumkin, bu esa ba'zi o‘quvchilar uchun salbiy ta'sir ko‘rsatadi.Ba'zi autentik materiallar chuqur madaniy bilimlarni talab qiladi. O‘quvchilar tegishli madaniy kontekstga ega bo‘lmasalar, materialning ma'nosini to‘liq tushunolmasliklari mumkin. O‘quvchilar internetda uchraydigan ma'lumotlarni tanqidiy baholash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari kerak. Bunda ular ma'lumot manbasining ishonchliligini tekshirishni o‘rganadilar. Masalan, material muallifi kimligi, u qaysi tashkilot yoki nashr tomonidan e'lon qilingani, qachon chop etilgani kabi jihatlar muhim hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchilar berilgan ma'lumotni faqat bitta manbaga tayanib qabul qilmasdan, uni boshqa manbalar orqali ham tekshirib ko‘rishga odatlanishlari kerak. Bu usul ma'lumotning haqqoniyligini aniqlashga yordam beradi. Internet materiallarini ta'lim jarayonida qo‘llashda o‘qituvchining roli ham juda muhimdir. O‘qituvchi materiallarni tanlashda o‘quvchilarning bilim darajasi, tilni tushunish imkoniyati hamda ularning avvalgi tajribalarini hisobga olishi zarur. Tanlangan materiallar o‘quv dasturining maqsad va vazifalariga mos kelishi, shu bilan birga o‘quvchilarning qiziqishlarini ham inobatga olishi maqsadga muvofiqdir. Zarur hollarda o‘qituvchi internetdan olingan materiallarni didaktik jihatdan moslashtirishi mumkin. Masalan, qo‘shimcha topshiriqlar tuzish, yangi so‘zlar ro‘yxatini berish yoki matn mazmunini tushunishga yordam beradigan izohlar kiritish orqali o‘quvchilarning materialni o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirish mumkin. Internet resurslarini ta'limda qo‘llash an'anaviy o‘qitish usullari bilan uyg‘un holda tashkil etilishi muhimdir. Onlayn materiallardan foydalanish bilan bir qatorda bosma adabiyotlar, darsliklar va boshqa an'anaviy o‘quv vositalaridan ham foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Shu tariqa o‘quv jarayonida onlayn va oflayn mashg‘ulotlar o‘rtasida muvozanat saqlanadi.Internet resurslaridan

samarali foydalanish o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasiga ham bog‘liq. Shu bois o‘qituvchilar uchun turli trening va seminarlar tashkil etish, tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish muhim hisoblanadi. O‘qituvchilar o‘rtasida ilg‘or tajribalarni umumlashtirish va eng yaxshi amaliyotlar bazasini shakllantirish ham ta'lim jarayonining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta'lim muassasalarida zamonaviy texnik sharoitlarni yaratish ham zarur. Barqaror internet ulanishi, kompyuter va mobil qurilmalar bilan ta'minlash, zarur dasturiy ta'minotdan foydalanish imkoniyati hamda texnik yordam xizmatining mavjudligi internet resurslaridan samarali foydalanish uchun muhim omil hisoblanadi. Internet resurslari zamonaviy chet tillarini o‘qitishda autentik materiallarning boy manbai hisoblanadi. Ular autentiklik, dolzarblik, xilma-xillik, interaktivlik va multimodallik kabi muhim xususiyatlarga ega. MDH davlatlari olimlari, jumladan E.I. Passov, I.L. Bim, G.V. Rogova, A.A. Leontev va boshqalarning tadqiqotlari autentik materiallarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Biroq, internet resurslaridan foydalanishda pedagogik, texnologik, psixologik imkoniyatlar darajasin kuchaytadi va didaktik madaniy kontekstni tushunish uchun imkon yaratadi. Internet resurslaridan samarali foydalanish uchun tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish, maqsadli tanlash va didaktik adaptatsiya qilish, gibrid yondashuv qo‘llash, o‘qituvchilarni raqamli kompetensiyalarga tayyorlash hamda zarur texnik infratuzilmalardan foydalanish maqsadga movofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, internet resurslaridan autentik material sifatida foydalanish katta didaktik potentsialga ega, ammo bu potentsialni amalga oshirish uchun ko‘maklashtirilgan yondashuv, puxta tayyorgarlik va doimiy professional dars ishlanmasi va didaktik rivojlanish talab etiladi. Kelajakdagi izlanishlar internet resurslaridan foydalanishning konkret metodikalarini qo‘llash va ularning samaradorligini oshirish darsning asosiy maqsadiga yetgan hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Passov Ye.I. Kommunikativ usulda chet tilida gapirishni o‘qitish. – M.:Prosveshcheniye, 1991. – 223 bet.
2. Bim I.L. O‘rta maktabda nemis tilini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – M.: Prosveshcheniye, 2001. – 256 bet.
3. Rogova G.V., Rabinovich F.M., Saxarova T.E. O‘rta maktabda chet tillarni o‘qitish metodikasi. – M.: Prosveshcheniye, 2000. – 287 bet.
4. Leont'ev A.A. Psixolingvistika asoslari. – M.: Smysl, 1997. – 287 bet.
5. Polat Ye.S. Ta'lim tizimida yangi pedagogik va axborot texnologiyalari. – M.: Akademiya, 2004. – 272 bet.
6. Gal'skova N.D., Gez N.I. Chet tillarni o‘qitish nazariyasi: Lingvodidaktika va metodika. – M.: Akademiya, 2006. – 336 bet.

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ПРАВОВЫЕ ФОРМЫ ОСВЕЩЕНИЯ ДОСТИЖЕНИЙ РЕФОРМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ

Сейткасымова Бийбинур Мухаммедовна,
студентка 2-го курса ТГЮУ,
факультета «Уголовное правосудие»

Аннотатsiя: В статье проводится сравнительно-правовой анализ административного права Республики Узбекистан и ведущих зарубежных стран в контексте информатsионного обеспечения государственных реформ. Автор исследует, как правовые институты — административные процедуры, система оказания государственных услуг и механизмы обжалования — выступают в качестве инструментов демонстратsии эффективности проводимых преобразований. Особое внимание уделяется переходу от традиционных к виртуальным формам взаимодействия государства и общества.

Ключевые слова: административное право, административные процедуры, государственные услуги, реформы, освещение достижений, сравнительный анализ, Республика Узбекистан, цифровизатsiя.

Административное право стран континентальной системы представляет собой совокупность правовых норм, которые регламентируют, прежде всего, организатsiю системы государственного управления, их взаимоотношения, внутреннюю структуру и правовой статус. Кроме того, административно-правовые нормы регулируют отношения между административными учреждениями и отдельными гражданами. **[1]**

Родиной административного права справедливо считают Францию. Современное французское административное право– продукт двухсотлетнего развития системы органов государственного управления. Для него характерны традиционно сильная централизатsiя и наличие обособленных административных судов, сыгравших решающую роль в формулировании норм административного права. Администратsiя в своей деятельности связана законом и несет ответственность за превышение власти и другие незаконные действия, за причиненный ею ущерб.

К источникам административного права современной Франции относятся международные договоры, роль которых значительно возросла в связи с вхождением страны в Европейский союз, Конституция Франции и другие законы, нормативные акты административных органов, решения судов (в основном административных). Особенностью правовой системы Италии является наличие специального нормативного акта, устанавливающего четкую иерархию источников права. В соответствии с Общими положениями о законе, принятыми вместе с Гражданским кодексом, источниками права признаются законы, регламенты, корпоративные нормы и обычаи. В новейших итальянских курсах публичного права дается более детальная классификатsiя: источники права, обладающие верховенством

(Конституция и конституционные законы); первичные источники (законы и акты, имеющие силу закона); вторичные или производные источники (регламенты и приравненные к ним акты); иные источники (конституционные соглашения, обычаи, акты Европейского союза) **[2]**.

В Республике Узбекистане административное право проходило совершенно иной путь развития: наше отечественное административное право вышло из доктринального корня советского административного права и в переходный период под влиянием противоречивых тенденций превратилось в то, что в современной науке принято называть пост-советским административным правом.

Административное право Великобритании и США не регламентирует organizatsiю и структуру государственного аппарата, зато детально регулирует практически все аспекты отношений между частными лицами и административными органами. С расширением государственного вмешательства в экономику и другие сферы общественной жизни развивалась административная деятельность и укреплялся аппарат административной власти. Этот процесс сопровождался появлением специфических норм, относящихся только к деятельности органов управления. Систему Скандинавского права составляют датское, шведское и норвежское право. В списке юридических источников первое место занимают Конституция и конституционные обычаи; второе – формальные законы (или традиции); третье– судебная практика

Верховного Суда. Административное право Республики Узбекистана определяет способы осуществления исполнительных функций должностных лиц или органов государственной власти и регулирует деятельность административных органов государственной власти. Административное право Республики Узбекистана содержится в ряде законов Узбекистана, которые регулируют общественные отношения в конкретной сфере и содержат перечень государственных органов, ответственных за управление этой сферой, основные методы управления, права и обязанности соответствующих участников и применимые процедуры.

В соответствии с законами, Кабинет Министров принимает различные административные положения, которые детализируют и описывают соответствующие процедуры. Определенные нормы административного права можно найти в инструкциях государственных органов, таких как министерства, агентства и комитеты. Процессуальные нормы закреплены в Законе Республики Узбекистан «Об административных процедурах». Административное право затрагивает большинство видов деятельности, которые подлежат обязательному регулированию. Это также влияет на такие области, как informatsionnая безопасность, банкротство, экологическое право, налогообложение, конкуренция, закупки, здравоохранение, промышленная безопасность, телекоммуникatsii, реклама и т. д. Основными источниками административного права в Узбекистане являются нормативно-правовые акты, такие как Конституция, законы, указы Президента, постановления Кабинета Министров, а также приказы и постановления министерств и ведомств. К ним также относятся решения органов государственной власти на местах, а также Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности и Кодекс об административном судопроизводстве.

Таким образом, систему источников административного права зарубежных стран составляют: нормативно-правовые акты, при этом базовым нормативным актом, высшей юридической силой и косвенно регулирующим административно-правовые институты и отношения выступает конституция страны; судебные прецеденты и судебная практика (наиболее важные роль прецеденты-толкования судей, применяющие закон на основе его анализа и инерпретatsii); нормативные договоры (включая международные); акты управления, регулирующие внутриучрежденческие вопросы, не затрагивающих интересы частных лиц; правовые обычаи (возведенные в ранг нормы права, либо окончательно разрешение на их основе административных дел).

Административное право зарубежных стран строится на нормах и принципах законности, приоритета прав и свобод человека и

гражданина, целесообразности и необходимости, эффективности, правовой стабильности, экономичности, профессиональности. Административное право Узбекистана регулирует деятельность органов государственной власти и должностных лиц, обеспечивая правовой контроль за их действиями и защиту прав граждан и предпринимателей. Например, в случае отказа в выдаче лицензии заинтересованное лицо может обжаловать решение в административном суде в соответствии с Законом «Об административных процедурах» и Кодексом об административном судопроизводстве. Важным инструментом modernizatsii является портал ***my.gov.uz***, который обеспечивает доступ к государственным услугам и повышает прозрачность административных процедур. Несмотря на очевидные преимущества, integratsiя зарубежных практик в natsiональную систему административного права сопряжена с рядом существенных проблем. Во-первых, различия в правовой культуре и институциональной структуре государств создают трудности в adaptatsii процедур и механизмов контроля, поскольку прямое заимствование норм без учёта историко-правовых особенностей и административных традиций может привести к формальной, а не эффективной realizatsii правил. Во-вторых, недостаточная развитость судебной практики и ограниченный опыт применения процедурного контроля в Республике Узбекистане могут снижать эффективность перенимаемых институтов, включая судебный надзор за действиями органов власти и процессуальные гарантии для граждан **[3]**.

Зарубежный опыт административного права демонстрирует разнообразие подходов к organizatsii и регламентatsii деятельности органов государственной власти, что формирует важные ориентиры для совершенствования natsiональной системы. Во Франции, являющейся родиной континентальной модели административного права, формирование отдельной судебной ветви для рассмотрения споров между гражданами и administratsieй позволило обеспечить высокий уровень контроля за законностью действий органов и создать механизмы возложения ответственности за превышение власти или

причинённый ущерб. Такое устройство правовой системы обеспечивает не только соблюдение принципа законности, но и формирование устойчивых норм административной юстиции, что в значительной степени обусловлено двухвековой эволюцией органов государственного управления.

В данном контексте роль административных судов и региональных механизмов разрешения споров способствует формированию единой правоприменительной практики и укреплению гарантий защиты прав граждан и organizatsiй. В англосаксонских странах, таких как Великобритания и США, административное право развивалось в направлении обеспечения процессуальных гарантий частных лиц и контроля за законностью действий органов власти **[4]**. Скандинавские страны демонстрируют высокий уровень прозрачности и цифровизatsii, обеспечивая доступ граждан к решениям органов власти и формируя практику эффективного контроля за законностью административных действий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Административное право зарубежных стран: Учебник / В.Я. Кикоть, Н. В. Румянцев, Г.А. Василевич; под ред. В.Я. Кикотя и др. – М.: Юнити-Дана: Закон и право, 2012.
2. Административное право: Часть первая. Учебник. – М.: ЦОКР МВД России, 2005.
3. Особенности административно правовых систем и источники административного права зарубежных стран Болотин В.С., доцент кафедры административного и финансового права Орловского филиала РАНХиГС, к.ю.н., доцент
4. Современное административное право Республики Узбекистан. 2023 И.А, Хамедов, Е.Д Кутыбаева, И.М. Цай, Ф.М. Файзиев Ташкент «DIMAL» 2023

MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY ISLOHATLARNING O‘RNI

Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,
iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati misolida mintaqani barqaror rivojlantirishda drayver tarmoqlarning o‘rni hamda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy va empirik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy iqtisodiy tuzilma, tarmoqlar kesimida yalpi hududiy mahsulot dinamikasi, resurs intensivligi va multiplikator effekti indikatorlari asosida drayver tarmoqlar aniqlangan. Integrallashgan drayverlik indeksi yordamida tarmoqlar reytingi ishlab chiqilgan hamda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida “yashil drayver portfeli” modeli taklif etilgan. Natijalar qayta ishlash sanoati va yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar sektorining barqaror o‘sish lokomotivi sifatida shakllanish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish va resurs samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, drayver tarmoqlar, yashil iqtisodiyot, mintaqaviy iqtisodiyot, dekupling, resurs samaradorligi, qo‘shilgan qiymat, Surxondaryo viloyati, multiplikator effekti, iqtisodiy transformatsiya.

Kirish. XXI asrda mintaqalar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatning xarakteri tubdan o‘zgardi. Agar avval hududlarning ustunligi tabiiy resurslar hajmi yoki ishlab chiqarish quvvatlari bilan belgilangan bo‘lsa, bugungi kunda raqobatbardoshlik qo‘shilgan qiymat yaratish qobiliyati, innovatsion salohiyat, resurs samaradorligi va ekologik barqarorlik darajasi bilan aniqlanmoqda. Global iqlim o‘zgarishi, energiya resurslari narxlarining beqarorligi, suv tanqisligi va ekologik degradatsiya jarayonlari iqtisodiy o‘sish modelini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.[1;56]

Shu sharoitda “barqaror rivojlanish” konsepsiyasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar uyg‘unligini ta’minlashni nazarda tutadi. Barqaror rivojlanish g‘oyasi BMTning Brundtland hisobotida tizimli ravishda shakllantirilgan bo‘lib, unda iqtisodiy o‘sish kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozimligi ta’kidlangan. Zamonaviy iqtisodiy siyosatda esa ushbu yondashuv “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi orqali amaliy ifodasini topmoqda.

Mintaqaviy rivojlanish doirasida asosiy savol quyidagicha shakllanadi: iqtisodiy o‘sishni qaysi tarmoqlar orqali va qanday model asosida ta’minlash mumkin? Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hududiy iqtisodiy o‘sish bir xil sur’atda barcha tarmoqlar hisobiga emas, balki ayrim yetakchi - drayver tarmoqlar orqali amalga oshadi. Ushbu tarmoqlar yuqori multiplikator effektiga ega bo‘lib, tarmoqlararo bog‘lanishlarni kengaytiradi, investitsiyalarni jalb qiladi va bandlikni oshiradi.

Biroq zamonaviy sharoitda drayver tarmoqni aniqlashda faqat o‘sish sur’ati yoki YaHMdagi ulush mezoni yetarli emas. Resurs intensivligi, ekologik yuklama, innovatsion sig‘im va uzoq muddatli rezilientlik omillari ham hisobga olinishi zarur. Ayniqsa, suv va energiya resurslariga sezgir hududlarda iqtisodiy o‘sishning ekologik xarajati yuqori bo‘lishi mumkin[2;18]. Shu bois “yashil filtr” asosida drayver tarmoqlarni tanlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida 2019-2030-yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining qabul qilinishi mintaqaviy siyosatni ham yangi mezonlar asosida shakllantirishni talab etmoqda[9;2]. Strategiyada energiya samaradorligini oshirish, resurs tejamkorlikni kuchaytirish, qayta tiklanuvchi energiya ulushini kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa mintaqalarda drayver tarmoqlarni aniqlash va rivojlantirishda iqtisodiy va ekologik mezonlarni integratsiyalash zaruratini yuzaga keltiradi.

Surxondaryo viloyati ushbu masalani o‘rganish uchun reprezentativ hudud hisoblanadi. Viloyat iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sektori ustunlik qiladi, sanoatning ulushi esa nisbatan past. Shu bilan birga, hudud tabiiy-iqlim sharoitlari, suv resurslari cheklanganligi va demografik omillar bilan tavsiflanadi. Mazkur xususiyatlar drayver tarmoqlarni

tanlashda an’anaviy o‘sish modelidan ko‘ra barqaror rivojlanish modeliga ustuvorlik berishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, drayver tarmoqlar nazariy jihatdan keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularni yashil iqtisodiyot mezonlari bilan integratsiyalashgan holda mintaqaviy darajada kompleks empirik baholash yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, Surxondaryo viloyati misolida iqtisodiy va ekologik indikatorlar asosida integrallashgan drayverlik bahosi amalga oshirilmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - Surxondaryo viloyati misolida drayver tarmoqlarning barqaror rivojlanishdagi rolini empirik asosda aniqlash va yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bilan integratsiyalashgan holda ularning samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- viloyat iqtisodiy tuzilmasini tarmoqlar kesimida tahlil qilish;
- drayver tarmoqlarni aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;
- resurs intensivligi va ekologik risk ko‘rsatkichlarini baholash;
- integrallashgan drayverlik indeksini hisoblash;
- yashil drayver portfeli modelini asoslash.

Tadqiqot obyekti - Surxondaryo viloyati iqtisodiy tizimi.

Tadqiqot predmeti - hududiy drayver tarmoqlarni aniqlash va ularni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida baholash jarayonidir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda drayver tarmoqlar iqtisodiy o‘sish indikatorlari bilan bir qatorda resurs samaradorligi va ekologik barqarorlik mezonlari asosida integrallashgan indeks orqali baholandi. Natijada hudud uchun optimal “yashil drayver portfeli” konsepsiyasi taklif etildi.

Adabiyotlar sharhi. Mintaqani barqaror rivojlantirishda drayver tarmoqlar va yashil iqtisodiyot konsepsiyasi masalasi iqtisodiy nazariyada turli yo‘nalishlar kesishuvida shakllangan. Mazkur muammo hududiy o‘sish nazariyalari, strukturaviy transformatsiya konsepsiyasi, klaster va aglomeratsiya yondashuvlari hamda ekologik iqtisodiyot paradigmasi doirasida keng o‘rganilgan.

Drayver tarmoqlar tushunchasining nazariy ildizlari F. Perroux tomonidan ishlab chiqilgan “o‘sish qutblari” (pôles de croissance)

nazariyasiga borib taqaladi. Perroux iqtisodiy rivojlanish bir xil taqsimlanmasligini, balki muayyan “yetakchi” tarmoqlar orqali amalga oshishini asoslab bergan. Unga ko‘ra, ayrim sanoat komplekslari yuqori multiplikator effektiga ega bo‘lib, butun hudud iqtisodiyotini o‘z ortidan tortadi[1,56].

Keyinchalik bu g‘oya mintaqaviy iqtisodiyotda keng rivojlantirildi. J. Boudeville hududiy o‘sish qutblari nazariyasini amaliy rejalashtirish vositasi sifatida talqin qilib, sanoat markazlari va hududiy klasterlarning ahamiyatini ko‘rsatgan[2,41].

Yangi iqtisodiy geografiya vakili P. Krugman hududiy rivojlanishni transport xarajatlari, bozor hajmi va aglomeratsiya effektlari bilan bog‘lagan[3,67]. Uning modeliga ko‘ra, tarmoqlar konsentratsiyasi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va hududiy ustunlikni shakllantiradi.

M. Porter esa “raqobatbardoshlik klasterlari” konsepsiyasini ishlab chiqib, tarmoqlararo kooperatsiya va mahalliy yetkazib beruvchilar tizimi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratishda hal qiluvchi rol o‘ynashini asoslagan. Porterga ko‘ra, drayver tarmoq alohida sektor emas, balki butun klaster tizimi doirasida shakllanadi[4,125].

Endogen o‘sish nazariyasi vakillari P. Romer va R. Lucas iqtisodiy o‘sishning ichki omillari sifatida innovatsiya, inson kapitali va bilim diffuziyasini ko‘rsatganlar. Ushbu yondashuv drayver tarmoqlarni aniqlashda innovatsion sig‘imni muhim mezon sifatida qarash zarurligini asoslaydi.

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat siyosati darajasida mustahkamlangan. 2019-2030-yillar uchun tasdiqlangan strategiyada energiya samaradorligi, resurs tejamkorlik va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan[9,3].

Milliy iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda mintaqaviy drayver tarmoqlarni aniqlash masalasi iqtisodiy-geografik va strukturaviy yondashuv asosida o‘rganilgan. Xususan, hududiy ixtisoslashuv va klasterlashuvni kuchaytirish orqali qo‘shilgan qiymatni oshirish zarurligi ta’kidlanadi.

Surxondaryo viloyati misolida olib borilgan ayrim tadqiqotlarda hudud iqtisodiyoti agrar-xizmat modeliga mansubligi, sanoatning ulushi nisbatan pastligi va strukturaviy transformatsiya ehtiyoji mavjudligi qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot aralash metodologik yondashuv (mixed-method approach) asosida amalga oshirildi va uch bosqichni o‘z ichiga oldi:

1. **Deskriptiv-statistik tahlil** - Surxondaryo viloyati YaHM dinamikasi, tarmoqlar kesimida o‘sish hissasi va tarkibiy o‘zgarishlarni aniqlash.
2. **Komparativ (taqqoslama) tahlil** - tarmoqlarni qo‘shilgan qiymat, bandlik, eksport salohiyati va resurs intensivligi mezonlari bo‘yicha solishtirish.
3. **Indeksli baholash usuli** - drayverlik darajasini integrallashgan ko‘rsatkich orqali aniqlash.

Tadqiqotda quyidagi rasmiy ma’lumotlardan foydalanildi:

- Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining 2024-yil YaHM bo‘yicha hisobotlari;
- O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019-2030)” normativ-huquqiy hujjatlari;
- OECD va xalqaro tashkilotlarning resurs samaradorligi indikatorlari bo‘yicha metodik tavsiyalari.

Ma’lumotlar 2023-2024-yillar davrini qamrab oladi. Tahlilda nominal va real ko‘rsatkichlar alohida ko‘rib chiqildi.

Hudud iqtisodiy tarkibini baholash uchun YaHMning tarmoqlar kesimidagi ulushi hisoblandi. Strukturaviy o‘zgarish darajasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S_i = \frac{Y_i}{Y_{total}} \times 100\%$$

bu yerda:

S_i - i-tarmoqning YaHMdagi ulushi;

Y_i - i-tarmoq qo‘shilgan qiymati;

Y_{total} - umumiy YaHM hajmi.

4.2. Multiplikator effekti bahosi. Leontyevning input-output modeliga tayangan holda, tarmoqlararo bog‘lanish darajasi sifat jihatdan baholandi.

Ma’lumotlar cheklanganligi sababli to‘liq matritsa qurilmadi, biroq orqa va oldingi bog‘lanishlar ekspert bahosi asosida aniqlashtirildi.

Resurs samaradorligini baholash uchun energiya va suv intensivligi indikatorlari qo‘llanildi:

$$RI = \frac{R}{Q}$$

bu yerda:

RI- resurs intensivligi;

R - foydalanilgan resurs hajmi;

Q - ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Mazkur indikator yashil iqtisodiyot doirasida asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Drayver tarmoqlarni kompleks baholash uchun vaznli indeks ishlab chiqildi:

$$DI = \sum_{i=1}^{n} w_i \times x_i$$

bu yerda:

DI - drayverlik indeksi;

w_i- mezon vazni;

x_i- standartlashtirilgan ko‘rsatkich qiymati.

Vaznlar ekspert baholash usuli asosida belgilandi.

Tahlil va natijalar. Surxondaryo viloyati misolida drayver tarmoqlarning barqaror rivojlanishdagi rolini aniqlash uchun hudud iqtisodiy tuzilmasi, yalpi hududiy mahsulot (YaHM) dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi o‘sish hissasi hamda resurs intensivligi mezonlari asosida kompleks tahlil amalga oshirildi.

Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yakunida Surxondaryo viloyatining YaHM hajmi 54 354,1 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lib, real o‘sish sur’ati 5,9 foizni tashkil etdi. 2024-yil yanvar-sentabr yakunlari bo‘yicha esa YaHM 38 732,2 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘sish sur’ati 6,2 foiz bo‘lgan[2].

Mazkur ko‘rsatkichlar hududda barqaror o‘sish tendensiyasi mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq nominal ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda

deflyator indekslari (109-110%) mavjudligi real iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilish zaruratini kuchaytiradi[12;43].

Tarmoqlar kesimida YaHM tarkibi quyidagicha shakllangan:

Hudud iqtisodiy tuzilmasi sektorlar kesimida quyidagi nisbatlarda shakllangan:

1-jadval

Surxondaryo viloyatida YaHM tarkibi (2024-yil, %)[39]

Tarmoq	Ulushi (%)
Qishloq xo‘jaligi	30,5
Sanoat	20,9
Xizmatlar	48,6

Jadval ma’lumotlari hudud iqtisodiyotida xizmatlar sektori ustunligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi yuqori ulushga ega bo‘lib, iqtisodiy strukturada an’anaviy agrar yo‘nalish saqlanib qolgan.

Drayver tarmoqlarni aniqlashda quyidagi mezonlar qo‘llanildi:

1. Qo‘shilgan qiymat intensivligi
2. Tarmoqlararo multiplikator effekti
3. Bandlik elastikligi
4. Eksport salohiyati
5. Resurs intensivligi (energiya va suv sarfi)
6. Innovatsion sig‘im

Mazkur mezonlar iqtisodiy geografiya va o‘sish nazariyalari asosida shakllangan.

Tarkibiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, viloyat iqtisodiy modeli “agrar-xizmat” tipiga mansub bo‘lib, sanoat sektori nisbatan cheklangan ulushga ega. Strukturaviy transformatsiya nazariyasiga ko‘ra (Clark-Fisher modeli), yuqori barqarorlik darajasi sanoat va yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar ulushi ortishi bilan bog‘liq.

Demak, mavjud tarkib iqtisodiy o‘sishni ta’minlayotgan bo‘lsa-da, uzoq muddatli raqobatbardoshlik uchun qayta ishlash va innovatsion xizmatlar ulushini oshirish zarur.

[39] Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi. Yalpi hududiy mahsulot: 2024 yil (axborotnoma). - Termiz, 2025. - URL: https://stat.uz

YaHM o‘sishiga tarmoqlar hissasi empirik ravishda tahlil qilindi. 2024-yil yanvar-sentabr davrida:

- Qishloq xo‘jaligi - 1,8 foiz punkt
- Sanoat - 1,5 foiz punkt
- Qurilish - 0,7 foiz punkt
- Xizmatlar - 2,2 foiz punkt

Ushbu ko‘rsatkichlar xizmatlar sektorining qisqa muddatli drayver sifatida ustunligini ko‘rsatadi.

Biroq multiplikator effekti bahosida faqat YaHM hissasi emas, balki tarmoqlararo bog‘lanish darajasi ham hisobga olindi. Input-output yondashuvi (Leontyev modeli) nazariyasiga ko‘ra, yuqori orqa va oldingi bog‘lanishlarga ega tarmoqlar yuqori multiplikator koeffitsientiga ega bo‘ladi.

Empirik kuzatuvlar asosida quyidagi xulosa olindi:

- Qishloq xo‘jaligi - yuqori bandlik, lekin past qayta ishlash chuqurligi
- Sanoat - yuqori qo‘shilgan qiymat zanjiri potensiali
- Xizmatlar - yuqori ichki multiplikator, lekin eksport sig‘imi cheklangan

Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan tarmoqlar energiya va suv intensivligi asosida baholandi. “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019-2030)”ga muvofiq resurs samaradorligi asosiy indikator hisoblanadi.

2-jadval

Tarmoqlarni resurs intensivligi bo‘yicha baholash[40]

Tarmoq	**Suv intensivligi**	**Energiya intensivligi**	**Ekologik risk**
Qishloq xo‘jaligi	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori
Sanoat	O‘rtacha	Yuqori	O‘rtacha
Qurilish	Past	Yuqori	O‘rtacha
Xizmatlar	Past	O‘rtacha	Past

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligida suv intensivligi yuqori bo‘lib, iqlim o‘zgarishi sharoitida bu sektor risk darajasi yuqori toifaga

[40] Muallif ishlanmasi

kiradi. Sanoatda esa energiya intensivligi yuqori, ammo texnologik modernizatsiya orqali dekupling imkoniyati mavjud.

Dekuping nazariyasiga ko‘ra (OECD yondashuvi), iqtisodiy o‘sish bilan resurs sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlik uzilishi barqarorlikning asosiy sharti hisoblanadi.

Empirik natijalar shuni ko‘rsatadiki, Surxondaryo viloyatida nisbiy dekupling elementlari mavjud, biroq mutlaq dekupling hali shakllanmagan.

Tarmoqlarni kompleks baholash maqsadida integrallashgan drayverlik indeksi ishlab chiqildi. Indeks quyidagi vazn koeffitsientlari asosida hisoblandi:

- Qiymat zanjiri kengligi - 0,25
- Bandlik elastikligi - 0,20
- Eksport salohiyati - 0,20
- Innovatsion sig‘im - 0,15
- Resurs samaradorligi - 0,20

3-jadval

Integrallashgan drayverlik indeksi natijalari[41]

Tarmoq	**Indeks (0-1)**
Qishloq xo‘jaligi	0,54
Sanoat	0,72
Qurilish	0,48
Xizmatlar	0,69

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori drayverlik potensiali sanoat sektoriga tegishli (0,72). Xizmatlar sektori ham yuqori ko‘rsatkichga ega (0,69).

Qishloq xo‘jaligi yuqori ulushga ega bo‘lsa-da, past innovatsion sig‘im va yuqori resurs intensivligi sababli indeks qiymati o‘rtacha darajada shakllangan.

O‘tkazilgan kompleks tahlil quyidagi natijalarni berdi:

1. Surxondaryo iqtisodiy o‘sishi mavjud, biroq tarkibiy transformatsiya jarayoni yetarli darajada chuqurlashmagan.

[41] Muallif ishlanmasi

2. Xizmatlar sektori qisqa muddatli drayver, sanoat esa uzoq muddatli barqaror drayver sifatida shakllanish imkoniyatiga ega.

3. Qishloq xo‘jaligi transformatsiyasiz barqaror drayver sifatida baholanmaydi.

4. Resurs intensivligi yuqori bo‘lgan sektorlar yashil iqtisodiyot sharoitida riskli toifaga kiradi.

5. Optimal model - qayta ishlash sanoati + yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar + resurs samarador agrar modernizatsiya kombinatsiyasi hisoblanadi.

Shu tariqa empirik baholash Surxondaryo viloyati uchun “yashil drayver portfeli” konsepsiyasining ilmiy asoslanganligini tasdiqladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot Surxondaryo viloyati misolida mintaqani barqaror rivojlantirishda drayver tarmoqlarning o‘rni va yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy-amaliy asoslarini empirik jihatdan tahlil qilishga qaratildi. O‘tkazilgan tahlillar viloyat iqtisodiy tizimi tarkibiy jihatdan agrar-xizmat modeliga mansubligini, sanoatning ulushi esa nisbatan cheklanganligini ko‘rsatdi.

YaHM dinamikasi viloyatda barqaror iqtisodiy o‘sish mavjudligini tasdiqlaydi, biroq strukturaviy transformatsiya jarayoni yetarli darajada chuqurlashmagan. Qishloq xo‘jaligi yuqori ulushga ega bo‘lsa-da, past qo‘shilgan qiymat va yuqori resurs intensivligi tufayli uzoq muddatli barqaror drayver sifatida baholanmaydi.

Integrallashgan drayverlik indeksi natijalari sanoat va xizmatlar sektorining yuqori drayverlik potensialiga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, qayta ishlash sanoati tarmoqlararo multiplikator effekti, eksport salohiyati va qo‘shilgan qiymat chuqurligi nuqtai nazaridan ustunlikka ega. Xizmatlar sektori esa qisqa muddatli iqtisodiy faollikni ta’minlovchi, past ekologik izga ega va yuqori bandlik yaratish imkoniyatiga ega yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ldi.

Resurs intensivligi tahlili shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligida suv sarfi yuqori, sanoatda esa energiya intensivligi sezilarli darajada. Yashil iqtisodiyot tamoyillariga ko‘ra, iqtisodiy o‘sish va resurs sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlikni kamaytirish (dekupling) barqaror rivojlanishning asosiy

shartidir. Tadqiqot natijalari viloyatda nisbiy dekupling elementlari mavjudligini, ammo mutlaq dekupling darajasi shakllanmaganini ko‘rsatdi.

Shu asosda Surxondaryo viloyati uchun iqtisodiy o‘sishning optimal modeli sifatida “yashil drayver portfeli” konsepsiyasi asoslandi. Mazkur model qayta ishlash sanoati, yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar va resurs tejamkor agrar modernizatsiya kombinatsiyasini nazarda tutadi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Strukturaviy transformatsiyani jadallashtirish
2. Sanoatni yashil modernizatsiya qilish
3. Xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish
4. Resurs samaradorligini oshirish mexanizmlarini joriy etish
5. Drayverlik monitoring tizimini yaratish
6. Institutsional takomillashtirish

Surxondaryo viloyati misolida olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, mintaqani barqaror rivojlantirish uchun drayver tarmoqlarni aniqlashda iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlik mezonlari integratsiyasi zarur. Qayta ishlash sanoati va yuqori qo‘shilgan qiymatli xizmatlar sektori hududiy o‘sishning asosiy lokomotivi sifatida shakllanish imkoniyatiga ega.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi drayver tarmoqlarni tanlashda sifat mezonlarini o‘zgartiradi: o‘sish sur’ati bilan bir qatorda resurs samaradorligi va rezilientlik asosiy baholash omiliga aylanadi. Taklif etilgan “yashil drayver portfeli” modeli Surxondaryo viloyati uchun barqaror, resurs tejamkor va uzoq muddatli raqobatbardosh iqtisodiy tizimni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Perroux F. Note sur la notion de pôle de croissance // Économie appliquée. - 1955. - T. 8. - P. 307-320.

2.Boudeville J.R. Problems of Regional Economic Planning. - Edinburgh: Edinburgh University Press, 1966. - 192 p.

3.Krugman P. Geography and Trade. - Cambridge (Mass.): MIT Press, 1991. - 142 p.

4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. - New York: Free Press, 1990. - 855 p.
5. Romer P.M. Increasing Returns and Long-Run Growth // Journal of Political Economy. - 1986. - Vol. 94, No. 5. - P. 1002-1037.
6. Clark C. The Conditions of Economic Progress. - London: Macmillan, 1940. - 504 p.
7. Leontief W. Input-Output Economics. - 2nd ed. - New York: Oxford University Press, 1986. - 436 p.
8. Stern N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. - Cambridge: Cambridge University Press, 2007. - 712 p.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori. - Toshkent, 04.10.2019. - URL: https://lex.uz (murojaat sanasi: 15.02.2026).

HARBIY XIZMATCHILAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASHNING ZAMONAVIY YO‘LLARI

Nizamitdinov Shaxboz Raxmidin o‘g‘**li,**
O‘R HX va MU Ilmiy tadqiqotlar
instituti bo‘lim katta ilmiy xodimi
(doktorant).

Annatatsiya. Mazkur maqolada globallashuv, raqamli transformatsiya va gibrid qarama-qarshiliklar kuchayib borayotgan sharoitda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning zamonaviy yo‘llari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Axborot makonida manipulyativ texnologiyalar, post-haqiqat fenomeni, radikal va ekstremistik g‘oyalar, shuningdek, madaniy-

ekspansion ta’sirlar kuchayib borayotgani mafkuraviy xavfsizlikni milliy xavfsizlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Maqolada mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning ko‘p bosqichli modeli taklif etilib, u shaxsiy, ijtimoiy, institutsional va davlat darajalarini qamrab oladi. Tadqiqot natijalari mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ta’lim-amaliyot tizimini takomillashtirishda qo‘llanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Mafkuraviy immunitet, mafkuraviy xavfsizlik, axborot tahdidi, gibrid urush, media savodxonlik, jangovar tayyorgarlik, raqamli makon.

XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi hamda axborot makonining transmilliy xarakter kasb etishi mafkuraviy xavfsizlik masalasini yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda davlatlar va jamiyatlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar nafaqat harbiy yoki iqtisodiy maydonda, balki ong va tafakkur sohasida ham kechmoqda. Shu bois mafkuraviy immunitetni shakllantirish va mustahkamlash milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va raqamli platformalar orqali g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlari kengaydi. Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, zamonaviy axborot urushlari jamiyat ongini transformatsiya qilish, qadriyatlar tizimini zaiflashtirish va ijtimoiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan kompleks strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Xususan, “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasi doirasida madaniy va axborot vositalari orqali ongga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari keng qo‘llanilmoqda [2].

Xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot qarama-qarshiliklarida mafkuraviy barqarorlikni ta’minlash ta’lim tizimida media savodxonlikni kuchaytirish, harbiy tuzilmalarda axborot-psixologik tayyorgarlikni tizimlashtirish, shuningdek, raqamli monitoring mexanizmlarini joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Jumladan, Sharqiy Yevropa davlatlarining gibrid tahdidlarga qarshi konseptual yondashuvlari,

Osiyo mamlakatlarida milliy qadriyatlar asosida mafkuraviy barqarorlikni shakllantirish tajribasi hamda Yaqin Sharq mintaqasida radikalizmga qarshi kurashishning kompleks dasturlari muhim empirik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sharqiy Yevropa va Boltiqbo‘yi mamlakatlari tajribasi gibrid tahdidlar sharoitida dezinformatsiya, feyk xabarlar va psixologik operatsiyalar jamiyat mafkuraviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Osiyo va Janubi-Sharqiy mintaqalarda esa radikalizm va ekstremistik g‘oyalarga qarshi kurashishda milliy qadriyatlar hamda ta’lim tizimi orqali mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jangovar tajribalar ham shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy barqarorligi ularning ruhiy-psixologik tayyorgarligi, axborot tahdidlariga nisbatan tanqidiy munosabati va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati bilan uzviy bog‘liqdir [3].

Axborot jamiyati sharoitida kommunikativ makonning kengayishi ong va tafakkurga yo‘naltirilgan ta’sir usullarini kuchaytirdi. M.Kastels ta’kidlaganidek, zamonaviy davrda hokimiyat asosan kommunikatsiya ustidan nazorat orqali amalga oshiriladi [4]. Shu nuqtai nazardan, mafkuraviy immunitet — bu shaxs va jamiyatning kommunikativ manipulyatsiyalarga nisbatan ongli qarshilik ko‘rsatish qobiliyatidir.

J.Nay tomonidan ilgari surilgan “yumshoq kuch” konsepsiyasi ham mafkuraviy ta’sir mexanizmlarining institutsional shakllarini ochib beradi [5]. Bu esa mafkuraviy immunitetni faqat psixologik emas, balki siyosiy, madaniy va axborot tizimlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘p qatlamli fenomen sifatida ko‘rishni talab etadi.

Xorijiy davlatlar tajribalarini o‘rganish davomida, shuningdek qiyosiy tahlil natijasida mafkuraviy immunitetni ta’minlashning uchta asosiy modeli aniqlanadi:

1. Markazlashgan-doktrinal model (Rossiya, Xitoy).

Bu modelda mafkuraviy xavfsizlik davlat siyosati va doktrina darajasida mustahkamlanadi. Axborot oqimlari ustidan nazorat, strategik kommunikatsiya va normativ tartibga solish asosiy vositalar hisoblanadi. Uning xususiyati tizimli va yuqori darajada boshqariluvchi mexanizm ekanligidadir.

2. Mobilizatsion-milliy birlik modeli (Turkiya, Isroil).

Bu modelda mafkuraviy immunitet milliy identitet, fuqarolik mas’uliyati va xavfsizlik tahdidlari sharoitida safarbarlik orqali shakllanadi. Uning xususiyati jamiyatning tezkor konsolidatsiyasida hisoblanadi.

3. Raqamli-rezistentlik modeli (Janubiy Koreya).

Bu modelda asosiy urg‘u media savodxonlik, tanqidiy tafakkur va kiberxavfsizlikka qaratiladi. Uning xususiyati demokratik ochiqlik bilan uyg‘unlashgan himoya hisoblanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, mafkuraviy immunitet faqat mafkuraviy targ‘ibot emas, balki institutsional boshqaruv + ta’lim + texnologiya + psixologik tayyorgarlik integratsiyasidir.

Har bir davlat modeli uning siyosiy tizimi, tarixiy tajribasi va xavfsizlik muhiti bilan belgilanadi. Eng samarali yondashuv — bu qat’iy nazorat yoki faqat ochiqlik emas, balki balanslashgan ko‘p qatlamli modeldir.

Shu asosda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash uchun quyidagi universal tamoyillarni ajratish mumkin:

- normativ-huquqiy asoslarning mustahkamligi;
- media savodxonlikni tizimli joriy etish;
- strategik kommunikatsiya mexanizmlari;
- harbiy-psixologik tayyorgarlik;
- raqamli monitoring va kiberxavfsizlik.

Empirik tahlil natijasida zamonaviy mafkuraviy tahdidlarning quyidagi xususiyatlari aniqlanadi:

Transmilliylik – tahdidlar geografik chegaralarni bilmaydi;

Komplekslik – axborot, psixologik va siyosiy vositalar uyg‘un qo‘llanadi;

Tezkorlik – raqamli platformalar orqali bir zumda tarqaladi;

Algoritmik kuchayish – sun’iy intellekt va big data asosida ta’sir kuchayadi;

Yoshlar auditoriyasiga yo‘naltirilganlik – radikalizatsiya va manipulyatsiya ko‘pincha yoshlar orqali amalga oshiriladi.

Shu bois mafkuraviy immunitetni mustahkamlash strategiyasi zamonaviy tahdidlarning yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi lozim.

Yuqoridagi nazariy va empirik tahlil asosida mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning Integrativ-ko‘p bosqichli modeli (IKBM) taklif etiladi. Mazkur model mafkuraviy barqarorlikni shaxsiy, ijtimoiy va davlat darajalarida uyg‘un mexanizmlar orqali ta’minlashni nazarda tutadi. Modelning asosiy darajalari:

Individual (shaxsiy) daraja;

Ijtimoiy-institutsional daraja;

Davlat-strategik daraja;

Harbiy-psixologik daraja;

Raqamli-texnologik daraja.

Shu asosda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning integrativ-ko‘p bosqichli modeli ishlab chiqildi. Mazkur model shaxsiy (kognitiv, aksiologik, psixologik), institutsional (ta’lim, OAV, fuqarolik jamiyati), davlat-strategik (normativ-huquqiy, strategik kommunikatsiya) hamda raqamli-texnologik (monitoring, algoritmik himoya) darajalarni yagona tizim sifatida birlashtiradi.

Modelning nazariy asosi sifatida strategik kommunikatsiya, gibrid tahdidlar konsepsiyasi va media savodxonlik nazariyalari qo‘llanildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Integrativ-ko‘p bosqichli modelining asosiy darajalari

	MEXANIZMLAR
Individual (shaxsiy) daraja	Media savodxonlikni tizimli joriy etish (maktab, OTM, harbiy ta’lim muassasalari); “Axborotni tahlil qilish algoritmi”ni o‘rgatish (manba, maqsad, auditoriya, manipulyativ elementlar); Debat, keys-stadi va “g‘oyaviy ring” metodlari orqali qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish; Yoshlar orasida radikal narrativlarni fosh etuvchi interaktiv platformalar yaratish.
Ijtimoiy-institutsional daraja	Ta’lim standartlariga mafkuraviy xavfsizlik modullarini kiritish; OAV va blogerlar bilan strategik hamkorlik; Mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari orqali qadriyatlarni mustahkamlash; Inqirozli vaziyatlarda tezkor va shaffof axborot siyosatini yuritish.
Davlat-	Mafkuraviy xavfsizlik konsepsiyasini ishlab chiqish va yangilash;

strategik daraja	Raqamli platformalarda milliy kontentni qo‘llab-quvvatlash; Dezinformatsiyaga qarshi milliy monitoring markazlari tashkil etish; Strategik kommunikatsiya markazlarini kuchaytirish.
Harbiy-psixologik daraja	Axborot-psixologik operatsiyalarni aniqlash va qarshi turish bo‘yicha treninglar; Stressga chidamlilik va ruhiy barqarorlik mashg‘ulotlari; Simulyatsion “axborot hujumi” mashqlari; Mafkuraviy poligon modeli asosida bahsli vaziyatlarni modellashtirish.
Raqamli-texnologik daraja	Sun’iy intellekt asosida feyk kontentni aniqlash; Bot va sun’iy akkauntlarni monitoring qilish; Raqamli gigiyena qoidalarini ommalashtirish; Milliy ijtimoiy platformalarni rivojlantirish.

Taklif etilayotgan model quyidagi formulaga asoslanadi:

$MI = (K + A + P) \times (S + R + H)$

Bu yerda: MI – mafkuraviy immunitet; K – kognitiv komponent; A – aksiologik komponent; P – psixologik barqarorlik; S – strategik kommunikatsiya; R – raqamli himoya; H – harbiy-psixologik tayyorgarlik.

Model shuni ko‘rsatadiki, faqat bilim yoki faqat nazorat yetarli emas, balki tizimli va ko‘p qatlamli yondashuv talab etiladi.

Umumiy xulosa qilib shuni aytush mumkinki, zamonaviy sharoitda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash:

ideologik targ‘ibot bilan cheklanmaydi;

ta’lim, psixologiya, texnologiya va strategik kommunikatsiya integratsiyasini talab etadi;

davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi;

raqamli makon sharoitida algoritmik himoyani zarur etadi.

Shunday qilib, mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning samarali modeli — bu ko‘p darajali, integrativ va proaktiv tizimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. European Centre of Excellence for Countering Hybrid Threats. *Hybrid Threats: Conceptual Framework.* – Helsinki, 2019.
3. Thomas T. Russia’s Information Warfare Strategy // *Parameters: US Army War College Quarterly*. – 2014. – Vol. 44, No. 1. – P. 51–63.
4. Castells M. *Communication Power*. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
5. Nye J. *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. – New York: Public Affairs, 2004.

TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING AJRALMAS O‘RNI

Shuxratov Shoxijaxonbek
Bojxona instituti 4-kurs kursanti,

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining tashqi savdo jarayonlarini rivojlantirishdagi ajralmas o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda SI ning savdo prognozlash, bojxona risklarini boshqarish, ta’minot zanjirini optimallashtirish va firibgarlikni aniqlash kabi yo‘nalishlardagi qo‘llanilishi batafsil yoritilgan. Global statistik ma’lumotlar, Jahon savdo tashkiloti (JST), Jahon bojxona tashkiloti (JBT) va UNCTAD hisobotlari asosida SI ning global savdoni 2040-yilga borib 34-37% ga oshirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. O‘zbekistonning 2025-yilgi tashqi savdo ko‘rsatkichlari misolida mamlakatda SI ni joriy etish istiqbollari baholanadi. Tadqiqot natijalari yuqori samaradorlik, xavflarni kamaytirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, tashqi savdo, bojxona nazorati, prediktiv analitika, ta’minot zanjiri, firibgarlikni aniqlash, raqamli transformatsiya, savdo prognozlash, risk boshqaruvi.

Kirish Bugungi kunda global iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan tashqi savdo jarayonlari tobora murakkablashmoqda. Jahon savdo tashkilotining 2025-yilgi hisobotiga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalari global savdo hajmini 2040-yilga kelib 34-37 foizga oshirishi mumkin [1]. Bu o‘sish asosan savdo xarajatlarini kamaytirish, ta’minot zanjirlarini optimallashtirish va risklarni samarali boshqarish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi uchun tashqi savdo milliy iqtisodiyotning asosiy dvigatellaridan biridir. 2025-yilda mamlakatning tashqi savdo aylanmasi 81,2 milliard AQSh dollariga yetib, o‘tgan yilga nisbatan 20,7 foizga oshgan [2]. Eksport hajmi esa 33,8 milliard dollarni tashkil etib, 24 foiz o‘sish ko‘rsatgan [3]. Ushbu ko‘rsatkichlar fonida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tashqi savdoning yanada tezkor va samarali rivojlanishini ta’minlaydi.

Sun’iy intellektning tashqi savdoga ta’siri bir nechta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, prediktiv analitika yordamida bozor talabi va narx o‘zgarishlarini oldindan bashorat qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ikkinchidan, bojxona jarayonlarida avtomatlashtirilgan risk tahlili va firibgarlikni aniqlash tizimlari joriy etiladi. Uchinchidan, ta’minot zanjirining barcha bosqichlari optimallashtiriladi. Ushbu maqolada ushbu yo‘nalishlar batafsil tahlil qilinadi va statistik ma’lumotlar, ilmiy manbalar asosida asoslantiriladi.

1. Sun’iy intellektning global savdo o‘sishiga ta’siri

Jahon savdo tashkilotining 2025-yilgi “World Trade Report” hisobotida ta’kidlanishicha, sun’iy intellekt savdo logistikasini, ta’minot zanjirlarini boshqarishni va regulyator muvofiqlikni yaxshilash orqali savdo xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi [1]. Hisobotda keltirilgan simulyatsiya natijalariga ko‘ra, SI ning to‘liq joriy etilishi global savdo hajmini 2040-yilga kelib 34-37 foizga oshirishi mumkin. Bu raqamlar savdo xarajatlarining 10-15 foizga qisqarishi va transport xarajatlari samaradorligining oshishi bilan bog‘liq.

UNCTADning 2025-yilgi “Technology and Innovation Report” hisobotida AI ning iqtisodiy ta’siri 4,8 trillion dollar deb baholanmoqda, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar bu imkoniyatlardan teng foydalana olmayapti [4]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda SI ni joriy etish global savdoda tengsizlikni yanada kuchaytirishi mumkinligi ta’kidlanadi. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun bu ogohlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ko‘rsatkich	***2030-yil***	***2040-yil***
Global savdo o‘sishi (foizda)	*15-20%*	*34-37%*
Savdo xarajatlari kamayishi	*8-12%*	*15-20%*
Rivojlangan mamlakatlardagi o‘sish	*40%*	*45%*
Rivojlanayotgan mamlakatlardagi o‘sish	*25%*	*30%*

Jadval 1. Sun’iy intellektning global savdoga ta’siri prognozlari (JST, 2025) [1]

2. Prediktiv analitika va savdo prognozlashda SI

Prediktiv analitika sun’iy intellektning tashqi savdodagi eng muhim qo‘llanishlaridan biridir. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari tarixiy savdo ma’lumotlari, bozor tendensiyalari va global iqtisodiy ko‘rsatkichlarni tahlil qilib, kelajakdagi talabni yuqori aniqlikda bashorat qiladi. Masalan, talab prognozlash formulasi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$D(t+1) = \beta_0 + \beta_1 \cdot H(t) + \beta_2 \cdot S(t) + \beta_3 \cdot E(t) + \varepsilon$$

Bu yerda:

- *D(t+1) – keyingi davrdagi talab;*
- *H(t) – tarixiy savdo hajmi;*
- *S(t) – mavsumiy ko‘rsatkich;*
- *E(t) – tashqi iqtisodiy omillar (masalan, valyuta kursi);*
- *β – koeffitsientlar (neyron tarmoqlar orqali hisoblanadi);*
- *ε – xato [5].*

Ushbu model yordamida kompaniyalar ortiqcha zaxira yoki yetishmovchilikni oldini oladi. EY kompaniyasining tadqiqotiga ko‘ra, prediktiv analitika ta’minot zanjirida xarajatlarni 15-20 foizga kamaytiradi [6].

Xitoy bojxona tizimida “Intelligent Examination” texnologiyasi 2020-yildan boshlab yuk tekshiruvi vaqtini 52,4 foizga qisqartirgan [7]. Bu natija

prediktiv modellar yordamida yuqori xavfli yuklarni oldindan aniqlash orqali erishilgan.

3. Bojxona jarayonlarida AI va risk boshqaruvi

Jahon bojxona tashkiloti (WCO) ning “Smart Customs” loyihasi doirasida AI bojxona jarayonlarida keng qo‘llanilmoqda. AI/ML texnologiyalari riskni baholashda, firibgarlikni aniqlashda va resurslarni taqsimlashda ishlatiladi [8]. Xitoyning “Intelligent Customs Inspection” tizimi deklaratsiyalarni 100 foiz avtomatlashtirilgan tekshirish imkonini beradi.

Risk baholashda *logistic regression modeli* quyidagicha qo‘llaniladi:

$$P(fraud) = 1 / (1 + e^{-(\beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + ... + \beta_n X_n)})$$

Bu yerda P(fraud) – firibgarlik ehtimolligi, X – deklaratsiya parametrlaridir [9]. Model aniqligi 95 foizdan yuqori bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda 2025-yil 25-martdagi Prezident farmoni bilan bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va AI ni joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi qabul qilingan [10]. Bu reja 2027-yilga qadar qog‘oz hujjatlarni elektron shaklga o‘tkazish va AI yordamida tahlil qilishni nazarda tutadi.

Ko‘rsatkich	***Hajm (mlrd $)***	***O‘sish (%)***
Umumiy aylanma	*81,2*	*20,7*
Eksport	*33,8*	*24,0*
Import	*47,4*	*18,0*
Asosiy sheriklar (eksport)	*Xitoy, Rossiya, Turkiya*	-

Jadval 2. O‘zbekiston tashqi savdo ko‘rsatkichlari (2025-yil) [2, 3]

4. Sun’iy intellektning tashqi savdo samaradorligiga ta’siri: iqtisodiy tahlil

AI texnologiyalarini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi bir qator omillarga bog‘liq. Quyidagi formula AI investitsiyalarining rentabelligini (ROI) baholash uchun ishlatilishi mumkin:

$$ROI = (\text{AI dan olingan umumiy foyda} - \text{AI ga investitsiya}) / \text{AI ga investitsiya} \times 100\%$$

Umumiy foyda quyidagi komponentlardan iborat:

1. Operatsion tejash (OS): Xodimlar vaqti, ofis materiallari, saqlash xarajatlari kamayishi.
2. Xatoliklarni kamaytirishdan tejash (EES): Jarimalar, to‘lov kechikishlari, qayta ishlash xarajatlari kamayishi.
3. Tezlashtirilgan operatsiyalardan olingan daromad (RFE): Tovarlarni bozorga tezroq chiqarish orqali oshirilgan savdo hajmi.

4.2. O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar

O‘zbekiston tashqi savdo va bojxona tizimini modernizatsiya qilish borasida muhim qadamlar qo‘ygan. AI ni muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:
1. Infratuzilmani rivojlantirish: Yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i, bulutli hisoblash imkoniyatlari, ma’lumotlar markazlarini qurish.
2. Malakali kadrlarni tayyorlash: AI muhandislari, ma’lumotlar tahlilchilari va raqamli bojxona mutaxassislarini tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish.
3. Qonuniytexnik bazani takomillashtirish: Ma’lumotlar maxfiyligi, kiberxavfsizlik va AI qarorlarining mas’uliyati bo‘yicha aniq me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish.
4. Davlatxususiy sheriklikni rag‘batlantirish: AI startaplari va texnologik kompaniyalar bilan hamkorlik qilish, innovatsion yechimlarni sinab ko‘rish.
5. Xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish: WCO, WTO va boshqa xalqaro tashkilotlarning raqamli savdo va AI bo‘yicha talablariga rioya qilish.

5. Asosiy muammolar va cheklovlar

AI texnologiyalarini joriy etish bir qator qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi:

Dastlabki yuqori kapital xarajatlar: Ilg‘or AI tizimlarini sotib olish, sozlash va qo‘llab-quvvatlash katta investitsiyalarni talab qiladi.

Ma’lumotlar sifatiga bog‘liqlik: AI modellarining samaradorligi ular o‘rgatilgan ma’lumotlar sifatiga bevosita bog‘liq. Noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumotlar noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin.

Maxfiylik va xavfsizlik muammolari: Savdo ma’lumotlarining nozik tabiati uni kiberhujumlar va ma’lumotlar o‘g‘irlash xavfiga qarshi himoya qilishni talab qiladi.

Kadrlar tanqisligi: AI sohasida malakali mutaxassislarning yetishmasligi ko‘p mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston uchun jiddiy to‘siqdir.

Qonuniy va etik muammolar: AI tomonidan qabul qilingan qarorlarning mas’uliyati, algoritmik kamsitish va shaffoflik muammolari hali to‘liq hal qilinmagan.

Xulosa Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy tashqi savdoni shakllantiruvchi transformatsion kuchga aylandi. AI asosidagi yechimlar – avtomatlashtirilgan hujjatlar boshqaruvi, aqlli bojxona nazorati, bashoratli logistika va ko‘p tilli muloqot vositalari – savdo operatsiyalarini tezlashtirish, xarajatlarni kamaytirish, xatoliklarni bartaraf etish va global raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Xalqaro tajribalar AI ni keng qo‘llashning iqtisodiy jihatdan o‘zini qoplashini va uzoq muddatda barqaror o‘sishni ta’minlashini isbotlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining raqamlashtirish va AI ni rivojlantirish bo‘yicha strategik hujjatlari asosida ushbu texnologiyalarni joriy etish uchun qulay imkoniyatga ega. Infratuzilmani rivojlantirish, kadrlarni tayyorlash, qonuniy bazani takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali mamlakatimiz tashqi savdo samaradorligini keskin oshirishi va global iqtisodiy zanjirda mustahkam o‘rin egallashi mumkin. Kelajakdagi tadqiqotlar AI tizimlarining aniqligi va ishonchliligini oshirish, maxfiylikni ta’minlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda O‘zbekistonning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan ixtisoslashtirilgan yechimlar yaratishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. WTO. World Trade Report 2025: Making Trade and AI Work Together.
2. Uzbekistan State Statistics Committee, 2025.
3. INVEXI. Uzbekistan’s Foreign Trade Turnover: Results for 2025.
4. UNCTAD. Technology and Innovation Report 2025.
5. EY. Power of Predictive Analytics in Supply Chain.
6. Kearney. Predictive Analytics in Supply Chain Management, 2025.
7. WCO News. Recent Changes in China Customs.
8. WCO. Smart Customs Project Report, 2025.
9. ESCAP. Artificial Intelligence in Customs.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi farmoni.

MILLIY SPORT O‘YINLARINING TARBIYAVIY VA IJTIMOIY AHAMIYATI

Begmatova O.
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti

Xalqimiz qadimdan aqliy mehnatni jismoniy harakat bilan uyg‘un holda olib borgan. Ajdodlarimiz jismoniy tarbiya inson salomatligi va ma’naviy kamoloti uchun muhim omil ekanligini yaxshi anglaganlar. Shu bois turli bayramlar, to‘y-tomoshalar va ommaviy tadbirlarda maxsus musobaqalar tashkil etishgan.

Qadimiy an’analarga ko‘ra, Navro‘z bayrami va boshqa ommaviy yig‘inlarda o‘tkazilgan musobaqalar yoshlarni chaqqonlik, jasurlik va chidamlilikka undagan. Xususan, ko‘pkari, kurash kabi xalq o‘yinlari ishtirokchilarni nafaqat jismonan, balki ruhan ham tarbiyalagan. Bu o‘yinlar orqali sabr, matonat va iroda kabi muhim fazilatlar shakllangan.

Tarixiy manbalarda ham bu holat o‘z aksini topgan. Qadimgi mualliflar ajdodlarimizning jismoniy tayyorgarligi yuqori bo‘lganligini qayd etganlar. Qadimgi rim donishmandi Elianning guvohlik berishicha, sak qabilalarida o‘yin musobaqalari keng tarqalgan bo‘lib, ular hatto oila qurishda ham ahamiyatli omil sifatida xizmat qilgan.[42]. Yunon tarixchisi Pompey Trog qoldirgan ma’lumotlarga qaraganda, yurtimiz hududida yashagan qadimgi qabilalar mushtlashishni yaxshi biladigan mohir jangchilar, ya’ni harbiy salohiyatga ega kishilar bo‘lgani qayd etiladi[43].

Shuningdek, yurtimizda nafaqat erkaklar, balki ayollar ham jismoniy tarbiya bilan shug‘ullangani tarixiy manbalarda ta’kidlanadi. U esa jamiyatda jismoniy tarbiyaga yuqori e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda esa texnik taraqqiyot natijasida insonlarning jismoniy faolligi pasayib bormoqda. Transport vositalari va raqamli texnologiyalar harakatni cheklab, turli salomatlik muammolariga sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[42] А.Носиров, П.Усмонов, Т.Усмонхўжаев. Ўзбек жанг санъати “Янги аср авлоди” 2011 йил. 5-бет
[43] А.Носиров, П.Усмонов, Т.Усмонхўжаев. Ўзбек жанг санъати “Янги аср авлоди” 2011 йил. 5-бет

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham milliy sport turlari va xalq o‘yinlari madaniy merosning ajralmas qismi sifatida e’tirof etilgan. Bu esa ularni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati mavjudligini ko‘rsatadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunida O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, milliy sport turlari va xalq o‘yinlari madaniy merosning ajralmas qismi ekanligi, xalqaro maydonda mamlakat obro‘-e’tiborini yuksaltirishga intilish poydevori ekanligi belgilab qo‘yilgan[44].

Hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda jismoniy harakat barcha zamonlarga qaraganda ancha sustlashib borayotganini his qilish qiyin emas. Uzoqni yaqin qiluvchi tez yurar poyezdlar, masofaviy boshqariladigan qurilma va smartfonlar insonlarning jismoniy harakatini ancha cheklab, harakatsizlikka qaram qilib qo‘ymoqda. Bu esa o‘z navbatida inson bajarishi kerak bo‘lgan kundalik jismoniy harakatlarni kamaytirib, turli xil ijtimoiy hamda slomatlik bilan bog‘liq muammolar tug‘ilishiga olib kelmoqda. Ushbu global muammoga yechim topish va insoniyatga jismoniy harakat suv va havo kabi muhim ekanligini eslatish uchun dunyo hamjamiyati va yurtimiz yetakchi mutaxassislari tomonidan bir qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunida O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlariga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, milliy sport turlari va xalq o‘yinlari madaniy merosning ajralmas qismi ekanligi, xalqaro maydonda mamlakat obro‘-e’tiborini yuksaltirishga intilish poydevori ekanligi belgilab qo‘yilgan[45].

1991 yilda Jizzax viloyati, Forish tumanida xalq milliy o‘yinlarining 1-festivali o‘tkazilib, qadimiy sport turlari namoyish etildi. Jumladan, “olomon poyga”, “ko‘kpar”, “qiz quvmoq” hamda unutilayozgan “Taqiya tushirar” yoki “Qarab tep” kabi kurash turlari bo‘yicha musobaqalar bo‘lib o‘tdi. Festival qatnashchilarini hamda Rossiya, Turkiya, AQShdan kelgan mehmonlar bir-biridan qiziq o‘yinlar guvohi bo‘lishdi. Ushbu o‘yinlar

[44] Ўзбекистон Республикаси “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги қонун. https://lex.uz/en/docs/-2742233
[45] Ўзбекистон Республикаси “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги қонун. https://lex.uz/en/docs/-2742233

ichida qarama-qarshi sherikli sportchilar bir-biridan kim oldin boshidagi taqiyani oyoq uchida yoki qo‘li bilan urib tushirish o‘yini mehmonlarda katta qizig‘ish uyg‘otdi[46].

Milliy o‘yinlarimiz orasida chavgon alohida o‘rin tutadi. Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro do‘stona munosabatlar zamirida yashaganliklari bois, ular o‘rtasidagi xalq o‘yinlari va musobaqalarida ko‘plab o‘xshashliklarni ko‘rishimiz mumkin. Xususan, “chavgon” o‘yini qadimiy o‘yinlaridan biri hisoblanib, o‘yin qadimgi sharqda chorvadorlar o‘yini sifatida paydo bo‘lgan.

Bu o‘yin haqida Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mutafakkirlar asarlarida ma’lumot uchraydi. Keyinchalik ushbu o‘yin Yevropa davlatlarida “polo” nomi bilan rivojlangan. Mahmud Qoshg‘ariy “Devoni lug‘atit-turk” asarida o‘yin bilan bog‘liq “tanguq”, “tasal”, “tobiq” kabi atamalarga to‘xtalib o‘tgan. Bunda koptokni tortilgan o‘tovdan o‘tkazganga beriladigan ipak kiyimlik “tanguq”, belgilangan chegara chizig‘i “tasal” bo‘lsa, “tobiq” esa chavgon to‘piga nisbatan ishlatilgan[47].

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida ham chavgon o‘yini haqida ma’lumotlar bergan. Asarda temuriy malikalar tomonidan chavgon o‘yini o‘tkazilganligi diqqatga sazovordir[48]. Bu temuriylar tarixida ayollarning jismoniy tayyorgarligiga bo‘lgan e’tibordan ham darak beradi. Pirimqul Qodirovning “Humoyun va Akbar” nomli tarixiy romani ham temuriy malikalarning chavgon o‘yiniga tayyorgarlik va o‘yin jarayoni aks ettirilgan sahnadan boshlanadi[49]. Bu o‘quvchilarga ushbu o‘yin xaqida yanada to‘liqroq tasavvur qilish imkonini beradi. O‘yin keyinchalik boburiylar saltanati davrida Hindistonda keng tarqaladi hamda ayollar va erkaklar qatnashishi mumkin bo‘lgan jamoaviy o‘yinga aylanadi. Keyinchalik inglizlar bu o‘yin turiga qiziqib, sport musobaqalarini o‘tkazishgan. 1871 yilda Buyuk Britaniyada chavgon (polo) musobaqasi tashkil qilingan va 1936 yilda bo‘lgan olimpiya o‘yinlari dasturidan ham joy olgan.

[46] А.Носиров, П.Усмонов, Т.Усмонхўжаев. Ўзбек жанг санъати “Янги аср авлоди” 2011 йил. 8-бет
[47] Махмуд Қошғарий. Девони-луғатит турк. Т.: Ғ.Ғулом нашриёти. 2017 й.
[48] Бобур З.М. Бобурнома. Т.: Янги аср авлоди. 2024 й.

Kurash va ko‘pkari kabi o‘yinlar ham xalqimiz hayotida muhim o‘rin tutgan. Buni ko‘pgina tarixiy va yozma yodgorliklar ham tasdiqlaydi. Bundan tashqari xalq og‘zaki ijodi namunalari “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustam” kabi dostonlarda ham polvonlarning kuch sinash, chavandozlik va merganliklarini namoyish qilish jarayonlari bayon qilingan. Kurash sport turi ishtirokchilarni nafaqat jismoniy balki ruhan chiniqishlari uchun katta hissa qo‘shgan. Sabrlilik, dushman kuchini yetarli baholay olish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash kabi hislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Ular nafaqat sport, balki tarbiya vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Ayniqsa ko‘pkari o‘yini jamoaviylik, jasurlik va strategik fikrlashni rivojlantirgan.

“Ko‘pkari” (uloq) sport turi ham yurtimiz chavandozlari tomonidan uzoq yillardan beri o‘ynaladigan o‘ziga xos sport turi hisoblanadi. Qadimdan bu sport turi maxsus tadbirlar: to‘y, oilada farzand tug‘ilishi va ulug‘ yoshlarni nishonlash maqsadida uyushtirilgan. To‘y yoki marosim egasi ko‘pkari berayotganligi xaqida elga ovoza berganidan keyin, uzoq yaqindan chavandozlar belgilangan kunda yetib kelishgan. Bu sport turida ishtirokchilar, ya’ni chavandozlar soni cheklanmagan bo‘lib, yuragida o‘ti bor, maydondan o‘ljani “ayirib” keta olishiga ishongan barcha yigitlar qatnashishi mumkin bo‘lgan. G‘olibga to‘y egasi tomonidan maxsus sovg‘a ajratilgan. Nihoyatda mashaqqatli, ham jismonan, ham aqlan kuch talab qiladigan bu o‘yinda haqiqiy kuch sohibi g‘olib bo‘lar edi. Bu o‘yinni qaysidir ma’noda hayot o‘yiniga o‘xshatish mumkin, “o‘yinda kuchlilar g‘olib bo‘ladi”. Uloqda qatnashgan va g‘olib bo‘lgan ishtirokchilar ismiga chavandoz (voha taraflarda chopag‘on) iborasi qo‘shib chaqirilgan.

Bolalar o‘yinlari ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, “tortishmachoq”, “oq terakmi, ko‘k terak”, “besh tosh”, “chillak”, “soqqa”, “quvlashmachoq” kabi o‘yinlar orqali harakatchanlik va tez fikrlash ko‘nikmalari shakllangan.

So‘nggi yillarda etnosport tushunchasi ilmiy asosda rivojlantirilmoqda. Uning maqsadi – an’anaviy sport turlarini saqlash va ommalashtirishdan iborat. Etnosport nazariyasi rossiyalik olim Aleksey Kilasov tomonidan 2011 yilda ishlab chiqilgan bo‘lib, u Butunjahon etnosportining asoschisi hisoblanadi. Butunjahon etnosport jamiyati 2012 yilda Kanadaning Monreal shahrida ikkita tashkilot, Kanada etnosport jamiyati va 2011 yilda tashkil

etilgan dunyodagi birinchi “Rossiya etnosport va an’anaviy o‘yinlar” federatsiyasi tomonidan tashkil etilgan. 2019 yilda World Ethnosport society xalqaro nodavlat tashkiloti taklifi bilan Rossiya merosi instituti tomonidan jurnal nashr etilishi tashkillashtirilgan. Jurnal 2 tilda rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

O‘zbekistonda ham bu yo‘nalishida muhim qarorlar qabul qilingan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydagi “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-259-sonli qarorida mamlakatimizda etnosportni rivojlantirish bo‘yicha tegishli vazifalar belgilab berilgan. Unga ko‘ra mamlakatimizda milliy sport turlari va xalq o‘yinlari (etnosport)ni targ‘ib qilish, ommalashtirish, bolalar va o‘smirlarni ularga jalb qilish, milliy o‘yinlarimiz targ‘ibotiga alohida to‘xtalib o‘tilgan[50].

Bugungi kunda milliy xalq o‘yinlarimizni butun dunyoga namoyish qilish, targ‘ib qilish yurtimizga kelayotgan turistlarni jalb qiluvchi asosiy omillardan biridir. Ispanlarning korridosi qanchalik dunyo turistlarini jalb qiladigan xalq o‘yilaridan biri bo‘lsa, bizning kurash, ko‘pkari kabi xalq o‘yinlarimiz ham turistlarni qiziqtira oladigan o‘ziga xosliklarga egadir.

Xulosa qilib aytganda, milliy sport o‘yinlari xalqimiz boy madaniy merosi hisoblanadi. Ular insonni jismonan va ma’nan tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Maxmud Qoshg‘ariy. Devoni-lug‘atit turk. T.: G‘.G‘ulom nashriyoti. 2017 y.
2. Bobur Z.M. Boburnoma. T.: Yangi asr avlodi. 2024 y.
3. A.Nosirov, P.Usmonov, T.Usmonxo‘jayev. O‘zbek jang san’ati “Yangi asr avlodi” 2011 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonun. https://lex.uz/en/docs/-2742233
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 maydagi “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-259-sonli qarori.

[50] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 25.05.2022 йилдаги “Этноспорт турларини оммалаштириш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-259-сонли қарори

MUNDARIJA

№	Kirish	3
1	**I-SHO‘BA: YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**	
2	YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING GLOKAL PRINSIPIGA BIR NAZAR **Muhammadjon Quronov, Goto Mikako**	5
3	YANGI YAGONA MA’NAVIY MAKON: UNI QANDAY TASAVVUR ETAMIZ? **Mavrulov Abduxalil**	11
4	O‘ZBEKISTON: YAGONA MA’NAVIY MAKON, YOSHLAR VA HOZIRGI ZAMON **Fazliddin Ravshanov**	21
5	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI **Babajanova Dilorom Babajanovna** **Sultonova Zuxra Alisher qizi**	28
6	MA’NAVIY MAKON KONSEPTIGA CHIZGILAR **Kamoliddin RABBIMOV**	34
7	IS’HOQXON IBRATNING SAYYOHLIK FAOLIYATI VA UNING JADIDCHILIK TAFAKKURI SHAKLLANISHIGA TA’SIRI **Maxsudjonov Otabek Zokirjon o‘g‘li**	37
8	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISH SHAROITIDA AKADEMIK ERKINLIK VA ILMIY-TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINING O‘ZARO UYG‘UNLIGI. **Xudayberganov Shuhrat Shavkat o‘g‘li**	42
9	YANGI O‘ZBEKISTONDAGI USTUVOR QADRIYATLAR **Abdullayev Elmurod Bozarboy o‘g‘li**	47
10	MA’NAVIY MAKON VA KITOBXONLIK UYG‘UNLIGI: YANGI O‘ZBEKISTON TAJRIBASI **Bektursinova Gulmira Joldasbaevna**	51

11	MA’RIFIY TEXNOLOGIYALAR TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIY BIRDAMLIKNI TA’MINLASHNING STRATEGIK PARADIGMASI (O‘zbekiston – 2030 misolida) **Abdullayev Sardorbek Usmonxudjayevich** **Aliqulov O‘ktam Yusupovich** **Ismadiyorov Abdug‘ffor Abdujabborovich**	56
12	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ***Mansurova Malohat Yunus qizi***	59
13	YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. **Xolmatov G‘ayratjon Muxtoraliyevich** **Turg‘unova Moxira Namozaliyevna**	63
14	YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MADANIY-GUMANISTIK QADRIYATLARNING FALSAFIY ASOSLARI **Nishonov Sarvar Jasur o‘g‘li**	68
15	YANGI O`ZBEKISTONDA YAGONA MA`NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURIYATI VA O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI **Xo`jaxonov Islomxo`ja Abdulloxon o`g`li**	73
16	YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA AXLOQIY IDEALNING KONSEPTUAL O‘RNI **Yusupova Feruza Zoyirovna**	78
17	GENDER TENGLIK – JAMIYAT MA’NAVIY YUKSALISHINING STRATEGIK OMILI **Toliboyeva Nodira Odiljonovna**	82
18	MA’NAVIY ISLOHOTLARDA JAMOATCHILIK NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING AYRIM MASALALARI **Malohat Zoirova**	88
19	YANGILANAYOTGAN O‘ZBEK JAMIYATIDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING AYRIM JIHATLARI **Raxmanov Baxodir Mirzayevich**	94

20	ISTE’MOL MADANIYATI VA UNING JAMIYATDAGI O‘RNI **Gulnoza NURTOYEVA**	102
21	YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH SIYOSATI **Mamatqobilov Tursunmurod Doniyorovich** **Shokirjonova Gavharoy Xurshidbek qizi** **Usmonova Ozoda Sobirjon qizi**	107
22	YANGI O‘ZBEKISTONDA “INSON QADRI” TAMOYILI VA MA’NAVIY MAKON: IJTIMOIY-TARIXIY TAHLIL **Qodirov Bo‘ri Xudoyshukurovich**	111
23	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXBORIY-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI YAGONA MA’NAVIY MAKONNI MUSTAHKAMLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI **Madaliyev Baxtiyorjon Egamberdi o‘g‘li**	117
24	DAVLAT BOSHQARUVI FAOLIYATIDA IJTIMOIY ISHONCH MUAMMOSI **O‘rinboyev Ulug‘bek O‘rolboy o‘g‘li**	122
25	“MA’NAVIY MAKON GENEZISI: TAYYORLOV YOSHIDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL-IRODAVIY SIFATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING INTEGRATSION MEXANIZMLARI” **Quldosheva Shahlo Ibragim qizi**	127
26	SADOQATNING AKSIOLOGIK TALQINI: MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI **To‘laboyeva Shoira Abdulxamidovna**	131
27	НАТSIОНАЛЬНОЕ ХОРЕОГРАФИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ И ДУХОВНОЕ ЕДИНСТВО: УКРЕПЛЕНИЕ НАТSIОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ ЧЕРЕЗ РЕГИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ **Таирова Юлия Рафаэльевна**	135
28	SADOIMIZNING G‘AFLATI VA "UYG‘ONISH" DA’VATI IPAK YO‘LI TOVUSH MANZARASIGA OID BIR TADQIQ **Tolibjonova Latofat Ma’rufjon qizi,**	140

29	MA’NAVIY MAKON BARQARORLIGIDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING AHAMIYATI **Sharipov Nazarjon Murotjonovich**	145
30	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISH SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TA’KIDIY DIKTANTLAR ORQALI O‘QUVCHILARDA ONGLI O‘QISH VA BARQAROR KITOBXONLIK MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI **Yaqubova Nodira Ruslanovna**	150
31	QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARINING XUSUSIYATLARI **Izimbetov K.S Abdullaev Sh.M. Tengelbaeva A**	157
32	“YANGI O‘ZBEKISTON”, “SAMARADOR DAVLAT BOSHQARUVI” VA “IJTIMOIY SIYOSAT” TUSHUNCHALARINING SIYOSIY KATEGORIAL TAHLILI **Umatov Azamatdin Kurbaniyevich**	160
33	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI: JADID MAKTABLARI PEDAGOGIK KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI **Shamsullayeva Ruxsatoy**	168
34	KIBERSPORT YOSHLARNI BIRLIGI VA FAOLLIGINI TA’MINLOVCHI FENOMEN **Jo‘rayeva Shaxlo Baxtiyor qizi**	173
35	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA'NAVIY MAKON BARPO ETISHNING ZARURATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI **Koshmuratov Ruslan Ulasxanovich**	179
36	YANGI MA’NAVIY MAKONNI YARATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI **To‘ychiyev Jo‘rabek Muqimjon o‘g‘li**	186
37	YANGI O‘ZBEKISTONNING AFG‘ONISTONGA NISBATAN TASHQI SIYOSIY TAMOYILLARI VA AMALIYOTI **Shoxijaxon Shavkatovich Xakimov**	191

38	YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MA’NAVIY TARBIYASIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYG‘UNLIGI **Ixtiyorova O‘g‘iloy Yoqubova Robiya**	197
39	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON SHAKLLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: MILLIY QADRIYATLAR, RAQAMLI MUHIT VA YOSHLAR OMILI **Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o‘g‘li**	201
40	YANGI O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING IJTIMOIY-MA’NAVIY ZARURATI VA UNING JAMIYAT BARQARORLIGIDAGI O‘RNI **Ikromova Muxlisa Ilhomjon qizi**	206
41	YAGONA MA’NAVIY MAKON - YANGI O‘ZBEKISSTON TARAQQIYOTINING POYDEVORI **Qodiraliyeva Shohzoda Sherzod qizi**	212
42	JAMIYAT BARQARORLIGIDA YAGONA MA’NAVIY MAKONNING O‘RNI VA AHAMIYATI **Sultonova Zuxra Alisher qizi**	218
43	OLIY TA’LIMDA MA’NAVIY MAKON VA SHAXSIYLASHTIRILGAN O‘QITISH INTEGRATSIYASI **Xabibullayeva Oydinoy Saydullo qizi**	224
	II-SHO‘BA. MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI MA’NAVIY YUKSALTIRISH - YANGI O‘ZBEKISTONNI QIYOFASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM POYDEVORI	
45	MAHALLA - YANGI MA’NAVIY MAKONNI BARPO ETISH BESHIGI **Qiyom Nazarov**	231
46	MAHALLALARDA IJTIMOIY INTEGRATSIYA MODELI: OILA, TA’LIM VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI **Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich**	244
47	MA’NAVIY MAKON – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY OMILI **Mavrulova Munisa Abduxalilovna**	250

ZJV5401

48	VIRTUAL REALLIK VA RAQAMLI MAKON SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI **To‘rayev Kamoliddin**	258
49	AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA G‘OYAVIY TAHDIDLAR VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH MEXANIZMLARI **Sultonov Fozil Hojiyevich Hojiyev Farhod Jumaboevich**	263
50	MEHNAT MADANIYATINING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI **Xolmirzayeva Jumagul Xamdamovna**	267
51	MAHALLA INSTITUTLARI VA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA GENDER TENGLIGI: MILLIY TAJRIBA VA XALQARO TAQQOSLAMA **Babadjanova Nodira Abdullayevna**	271
52	MAHALLA INSTITUTIDA MAROMIYLIK TAMOYILLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI –JAMIYAT MA’NAVIY YUKSALISHINING MUHIM OMILI **Nigora Xusanova**	276
53	O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTI RIVOJLANISHINING HUQUQIY VA TAHLILIY ASOSLARI: TRANSFORMATSIYA VA ISTIQBOLLAR **O‘lmasxo‘jayev Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li** **Kurbanaliyev Sardor Alidjanovich**	290
54	VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MAHALLA VA NURONIYLAR TA’SIRINI KUCHAYTIRISH **Aliyeva Dilbar**	292
56	AKADEMIK SOBIR KAMALOV SIYOSIY FAOLIYATIDA MAHALLAGA OID XIZMATLARI **Abatov Asqar Reyimbayevich**	296
57	KORXONA IJTIMOIY JAVOBGARLIGI VA INSON KAPITALINI BOSHQARISH ORQALI JAMIYATNING MA’NAVIY RIVOJLANISHINI TA’MINLASH **Abduvohidova Gulshan Akmalovna**	301

58	AHMAD DONISHNING MA’RIFATPARVAR IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARI VA ISLOHOTCHILIK G‘OYALARI **Atayev Alisher Rizkulovich**	306
59	YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI KUCHAYTIRISH STRATEGIYASI **Salaeva Laylo Shavkatovna**	313
60	“YANGI O‘ZBEKISTON – MA’RIFATLI JAMIYAT” KONSEPSIYASI DOIRASIDA YOSHLAR ONGIDA ISHONCH VA E’TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI **Adambayev Umidbek Xaitbayevich**	319
61	MA’NAVIY MASKAN QO‘RG‘ONI **Inamov Qodir Tursunovich**	323
62	MAHALLA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ORQALI OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI TA’MINLASH **Musirmonov Shohboz Usmon o‘g‘li**	328
63	ИНТЕГРАТSIЯ ПОТЕНЦИАЛА МАХАЛЛИ В ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ «ДОО – МАХАЛЛЯ – СЕМЬЯ» В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА **Мустафаева Замира Саидкуловна** **Мусканалиева Зарема Эргашевна**	335
64	JAMIYATDA MA’NAVIY MUHITNI MUSTAHKAMLASH VA MAHALLA RO‘LINI OSHIRISH – YANGI O‘ZBEKISTON QIYOFASINI BELGILOVCHI OMIL **Obbosxonov Alimardon Akmalxon o‘g‘li**	343
65	OILADA XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASHDA ISBOTLANGAN YONDASHUVLAR **Ummatova Dilnoza Olim qizi,**	347

66	MAHALLALARDA XOTIN-QIZLAR FAOLLIGINI OSHIRISH VA IJTIMOIY HIMOYA MEXANIZMLARI **Shahriyorova Gulnoza Ilhomjon qizi** **Ahmadova Madina Ne’matjon qizi**	352
67	ИНСТИТУТ МАХАЛЛИ КАК МЕХАНИЗМ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ В КОНТЕКСТЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПРОГРАММЫ 2026 ГОДА И СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН-2030» **Абдухоликова Дилдора Абдухолик кизи**	358
	III-SHO‘BA: “O‘ZBEKISTON -2030” STRATEGIYASI VA XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI	
68	TARG‘IBOT STRATEGIYASI QUDRATLI KUCHDIR. **Kaxxarova Matluba Manofovna**	363
69	PEDAGOG KADRLARNI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISHNING MUQOBIL VA RAQAMLI SHAKLLARI **Nilufar Yuldasheva Abdullayevna** **Bekturdiyev Sanjarbek Sharifboyevich** **Nurmatova Nargiza Saidovna**	372
70	ZAMONAVIY G‘OYAVIY XURUJLAR SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILARNING MAFKURAVIY IMMUNITYETINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI **Olimjon Usarov**	379
71	INSON QADRI VA SIFATLI TA’LIM G‘OYASI– YURTIMIZDA YAGONA MA’NAVIY MAKON YARATISH GAROVIDIR. **Sultanova E. S, Sultonov F. X.**	384
72	BAYRAMLARNING XALQIMIZNI G‘OYAVIY BIRLASHTIRISH IMKONIYATLARI **Abduxoliq Tashanov**	391
73	MILLATLARARO BAG‘RIKENGLIK MADANIYATI TINCHLIKNING ASOSIY TAMOYILI SIFATIDA **Xoliqov Yunus Ortiqovich**	399
74	O‘ZBEKISTON BAYRAMLARI: G‘OYA VA MAZMUN **Sultonmurod OLIM**	406

75	MA’RIFATLI JAMIYAT QADRIYATLARI TAKOMILI ZARURATI. **Ahrorova Shahlo O‘rinboyevna**	414
76	MILLIY ONG VA SHAXS MA’NAVIYATI: IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL **Eshonkulov Laziz Azamatovich**	419
77	OILADA BOLALARNI SOG‘LOM ISHONCH RUHIDA TARBIYALASH **Nabijon Soliyevich Temirov, O‘razmetova Fotima Abdullayevna**	424
78	OILALAR FAROVONLIGI – IJTIMOIY BARQARORLIK VA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA’MINLOVCHI MASALA SIFATIDA **Turdiboyeva Ra’no Eshovna Mirzadjanova Dilshoda Muxtarovna**	429
79	IQTISODIY OMILLARNING IJTIMOIY-MA’NAVIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDAGI AHAMIYATI **Saitmurodov Jobirjon Boymurod o‘g‘li**	435
80	O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY ADOLATNI QAROR TOPTIRISHNING STRTAYEGIK YO‘NALISHLARI **Teshaboev Muhiddin Marifovich**	441
81	“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI – INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSI SIFATIDA **Saidkulov Nuriddin Akramkulovich**	448
82	JAMIYAT MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH TARAQQIYOT OMILI **Kuchkarov Xudaynazar Muhiddinovich**	456
83	MA’NAVIY BARKAMOL JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA TARAQQIYOT STRATEGIYASINING ASOSIY TAMOYILLARI. **Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich**	459
84	BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TANQIDIY-KREATIV FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI **Jumayeva Muxlisa Shokir qizi**	465

85	MILLIY MEROS VA QADRIYATLAR YOSHLAR TARBIYASINING MA’NAVIY ASOSLARI SIFATIDA **Qodirova Zuhra Obidxon qizi**	471
86	SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI MA’RIFIY TEXNOLOGIYALAR VA “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI: JAMIYATNI BIRLASHTIRUVCHI KOMMUNIKATIV MAKONNING IJTIMOIY ASOSLARI **Tursunova Feruza Tursunovna**	475
87	YANGI O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY TRANSFORMATSIYA MODELI **Ametov T.A., Rashidov A.O‘.**	481
88	“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASIDA YOSHLAR SIYOSATI: RADIKALLASHUVNING OLDINI OLISHDA AXBOROT ISTE’MOLI MADANIYATI VA JAMOATCHILIK ISHTIROKI **Nuriddin Qolqanov Ergashov Zuhriddinjon**	488
89	YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA JAMIYAT BIRDAMLIGINI MUSTAHKAMLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI **Xolbekov Berdimurod Kazakbayevich**	493
90	YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MEDIAOLAM O‘RNI VA AHAMIYATI **Xayitmurodov Ilxom Xolturayevich**	498
91	O‘ZBEKISTON – 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TASHQI VA ICHKI MIGRATSIYA JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASH ORQALI JAMIYATNI BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI **Bahriddinova Muazzam Azam qizi**	503
92	СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН – 2030» И ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО ОБЪЕДИНЕНИЯ НАШИХ НАРОДОВ **Омонова Зарнигор Туражон кизи**	508
93	“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA MA’RIFIY TEXNOLOGIYALAR ORQALI MILLIY BIRLIKNI MUSTAHKAMLASH MEXANIZMLARI **Umarova Shaxnoza Keldiyor qizi**	512
94	YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI **Fayzullayev Ilhom**	516

95	“O‘ZBEKISTON–2030” STRATEGIYASI DOIRASIDA XOTIN-QIZLAR SIYOSIY MADANIYATINI OSHIRISHDA MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI **Abdusalomova Maftunaxon G‘ofurjon qizi**	521
96	UNDOSH TOVUSHLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI AHAMIYATI **Satimboyeva Onorxon Anvarjon qizi**	526
97	“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI VA XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI **Beysenov Kenjabay Sarsanbayevich**	531
98	ERKINLIK – INSONNING YUKSAK QADRIYATI **Ulugbek Berdimuratov**	536
99	МОДЕРНИЗАТSIЯ СИСТЕМЫ ДОО В УСЛОВИЯХ РЕАЛИЗАТSIИ СТРАТЕГИИ “УЗБЕКИСТАН – 2030’’ **Эрматова Чарос Олимовна**	543
100	YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY BIRDAMLIKNI TA’MINLASHDA MA’RIFIY YONDASHUVLARNING TRANSFORMATSIYASI **Xushbaqova Ozoda Bahodirovna**	549
101	ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH ORQALI AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH **Sultanova Komila Qudrat qizi**	552
102	TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING AJRALMAS O‘RNI **Shuxratov Shoxijaxonbek**	556
103	“O‘ZBEKISTON-2030 “ STRATEGIYASI VA XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRISHNING MA’RIFIY TEXNOLOGIYALARI **Sadullayeva Ruxshona Sheraliyevna**	562

	IV-SHO‘BA: ZAMONAVIY G‘OYAVIY XURUJLAR VA AHOLINING MAVKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI	
104	GLOBAL TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA RADIKALIZMGA QARSHI KURASHISHNING MA’NAVIY-MAFKURAVIY DETERMINATLARI VA PREVENTIV MEXANIZMLARI **Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV**	568
105	PROZELITIZM VA UNING G‘OYAVIY-MAFKURAVIY TAHDIDI **Musayev Mansur Tursunpo‘latovich**	574
106	MILLIY RUHIYAT VA UNING SHAKLLANISH OMILLARI **Suvanov Ilhom Abdixalilovich Abdixalilov Zufarbek**	579
107	MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA AXLOQ-ODOB ME’YORLARINING O‘RNI **Akmalov Akram Ahmedovich**	584
108	G‘OYAVIY XURUJLAR SHAROITIDA MAFKURAVIY BARQARORLIK: ALISHER NAVOIY TA’LIMOTINING FALSAFIY AHAMIYATI **Pardayeва Marhabo Davlatovna**	590
109	UZBEKISTAN IS A COUNTRY OF RICH CULTURAL AND HISTORICAL HERITAGE **Mashrab Alikulovich Berdikulov**	596
110	HOZIRGI ZAMON G‘OYAVIY MUAMMOLARI VA JAMIYAT BARQAROLIGINING TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI **Berdiyev Bektosh Oxnorovich**	604
111	GLOBAL TRANSFORMASYALAR SHAROITIDA MILLIY-MAFKURAVIY YAXLITLIKNI TA’MINLASHNING NAZARIY PARADIGMALARI **Madraximov Alisher Usubjon o‘g‘li**	611
112	MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA – YOSHLAR MA’NAVIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM OMILI **To‘rayev Kamoliddin**	618

ZJV5401

113	MILLIY QADRIYATLARNING OILA TARBIYASIDAGI O‘RNI **Ishimov Azamat Mamedovich**	623
114	“ERON–POKISTON MUNOSABATLARIDAGI ETNO-DINIY DINAMIKAGA TA’SIR ETUVCHI TASHQI AKTORLAR: AFG‘ONISTON, HINDISTON VA SAUDIYA ARABISTONI” **Sa’diyev Bahodir Ubaydullo o‘g‘li**	629
115	MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN TAMAL TOSHI **Niyozova Shohista Nusratilloyevna**	638
116	ZAMONAVIY MA’NAVIY-AXLOQIY HAMDA G‘OYAVIY-MAFKURAVIY XURUJLAR VA HIMOYA MEXANIZMLARI **Atadjanov Mamirjon Yusupovich**	645
117	ZAMONAVIY XURUJLAR VA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI **Isakov Bahodir Nigmatullayevich**	650
118	YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA G‘OYAVIY TAHDIDLAR VA ZAMONAVIY G‘OYAVIY XATARLARDAN HIMOYA MEXANIZMLARI **Norqulov Husniddin Do‘sbekovich**	655
119	YOSHLAR TAFAKKURI VA MAFKURAVIY BARQARORLIK OMILLARI **Nurmatova Umida Jalolidinovna**	659
120	YOSHLARDA AXBOROT XURUJLARGA QARSHI MAVKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI **Abrarov Islomiddin Jamolovich**	663
121	ZAMONAVIY G‘OYAVIY TAHDIDLAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT VA MAFKURAVIY XAVFSIZLIGI **Axmedov Jasur Isroilovich**	669
122	ZAMONAVIY JAMIYAT TARAQQIYOTI – YOSHLAR TARBIYASIDA AXLOQIY INQIROZ MUAMMOSI **Biyimbetov Jaksilik Kilishbayevich**	675

123	YOSHLAR IDENTITET INQIROZI VA MILLIY MA’NAVIY DISKURS MUAMMOSI **Malikov Akrom Abduhamidovich**	679
124	TIZIMLI MUAMMO, MURAKKAB IJTIMOIY HODISA **Yakubov Sobirjon Salimovich**	689
125	ZAMONAVIY G‘OYAVIY XURUJLAR SHAROITIDA HARBIY OILADA MILLIY QADRIYATLAR EVOLYUTSIYASI VA MAFKURAVIY BARQARORLIK **Ashirmatova Barno Saataliyevna**	695
126	IJTIMOIY TARMOQLARDAGI G‘OYAVIY XURUJLARGA QARSHI KURASHISH: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TAJRIBASI **Saxatov Bekzod Kenjayevich**	701
127	MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA JADIDLAR MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARINING AHAMIYATI **Ulug‘bek Siddiqov**	705
128	AHOLINING MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASHDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINING O‘RNI **Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o‘g‘li**	710
129	ZAMONAVIY AXBOROT MUHITIDA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETNING ZARURATI **Nasridinov Faxriddin Xalmamatovich**	717
130	GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLARNI ASRASH VA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Xayitboyev Qudratbek Anvarbek o‘g‘li**	723
131	GLOBALLASHUV SHAROITIDA OMMAVIY MADANIYAT VA MILLIY QADRIYATLAR O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA’SIR **Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich**	729
132	ZAMONAVIY TEXNOLOGIK TARAQQIYOTDA YOSHLARNING AXLOQIY QADRYATLARINI MUHOFAZALASH MUAMMOSI **Abdurashitova Gulbarno Ahmedqulovna**	733

	V-SHO‘BA: ISLOHOTLAR YUTUQLARINING AN’ANAVIY VA VIRTUAL TARG‘IBOTINING DOLZARB MASALALARI.	
133	ISLOHOTLAR YUTUQLARINI TARG‘IB QILISHDA AN’ANAVIY VA VIRTUAL AXBOROT MAKONINING MAFKURAVIY IMKONIYATLARI **Barno Matchanova**	737
134	FIZIKA FANINI O‘QITISHDA AN’ANAVIY DARS USULLARI BILAN SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI VIRTUAL VOSITALARNI UYG‘UNLASHTIRISH **O‘rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi** **Usubjonova Durdona Fazliddin qizi**	745
135	ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В ОРГАНИЗАТSIИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТО **Хамроева Феруза Асроровна**	750
136	JAMIYATDA ISLOHOTLARGA ISHONCHNI SHAKLLANTIRISHDA TARG‘IBOTNING KOMMUNIKATIV MODELI **Gulbahor Mirazimova O‘ktamovna** **Egamberdiyeva H.Sh.**	754
137	IJTIMOIY ONG TRANSFORMATSIYASIDA G‘OYA VA MAFKURANING O‘RNI **Xidirov Jurabek Abdurasulovich**	761
138	OLIY TA’LIM MUASSASALARI XALQAROLASHUVI STRATEGIYALARINING TALABALAR FAOLIYATIGA TA’SIRI **Doniyorova Shoxista**	766
139	TA’LIM TIZIMIDA YOSHLARNING AXBOROT TARBIYASINI TASHKIL ETISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI **To‘rayev Kamoliddin**	770
140	AXBOROT JAMIYATI TUSHUNCHASINING FALSAFIY MOHIYATI **Urazov Abubakir Kulturaevich**	775
141	O‘ZBEKISTONDA ISLOHOTLAR YUTUQLARI TARG‘IBOTIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI **Shermatov Avazbek G‘ofur o‘g‘li**	781

142	MA’NAVIY JARAYONLARNI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TEXNOLOGIK ASOSLARI **Oripov Shuxratjon Orip o‘g‘li**	788
143	AUTENTIK INTERNET MATERIALLARI ASOSIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH **Joldasbaeva Arzayim Temirbaevna**	796
144	ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ И ПРАВОВЫЕ ФОРМЫ ОСВЕЩЕНИЯ ДОСТИЖЕНИЙ РЕФОРМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ **Сейткасымова Бийбинур Мухаммедовна**	801
145	MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY ISLOHATLARNING O‘RNI **Erdanayev Bunyodjon Abdumalikovich**	807
146	HARBIY XIZMATCHILAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASHNING ZAMONAVIY YO‘LLARI **Nizamitdinov Shaxboz Raxmidin o‘g‘li**	818
147	TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING AJRALMAS O‘RNI **Shuxratov Shoxijaxonbek**	824
148	MILLIY SPORT O‘YINLARINING TARBIYAVIY VA IJTIMOIY AHAMIYATI ***Begmatova O.***	830

ZJV5401

“O‘ZBEKISTONDA YAGONA MA’NAVIY MAKON BARPO ETISHNING STRATEGIK YO‘NALISHLARI”

MAVZUSIDA RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Noshir: Zayniev F.
Dizayner: Zayniev S.

Bosishga 19.02.2026 yilda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108. 1/16
«Times New Roman» garniturasi.
Ofset bosma uslida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 53, Buyurtma № 10
Adadi nusxa 250 nusxada

"BIZNES POLIGRAF" bosmaxonasida chop etilgan.
Manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Katta Qozirabod, 65
Telefon +998 91 242-12-23